O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

QARSHI DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI

“Global iqlim o‘zgarishi sharoitida suv tanqisligini yumshatish, qishloq xo‘jaligini raqamlashtirishda “Smart” texnologiyalardan foydalanish usullari” mavzusida

XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA TO‘PLAMI

27-28 март 2026 йил

СБОРНИК МЕЖДУНАРОДНОЙ НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКОЙ КОНФЕРЕНЦИИ

международная научно-практическая конференция на тему "Методы использования "Smart" технологий для смягчения дефицита воды и цифровизации сельского хозяйства в условиях глобального изменения климата"

27-28 марта 2026 год

COLLECTION FOR THE INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE

International Scientific and Practical Conference on the topic "Methods of Using 'Smart' Technologies to Mitigate Water Scarcity and Digitalize Agriculture in the Context of Global Climate Change"

March 27-28, 2026

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

QARSHI DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI

“Global iqlim o‘zgarishi sharoitida suv tanqisligini yumshatish, qishloq xo‘jaligini raqamlashtirishda “Smart” texnologiyalardan foydalanish usullari” mavzusida XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA TO‘PLAMI

27-28 март 2026 йил

СБОРНИК МЕЖДУНАРОДНОЙ НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКОЙ КОНФЕРЕНЦИИ

международная научно-практическая конференция на тему "Методы использования "Smart" технологий для смягчения дефицита воды и цифровизации сельского хозяйства в условиях глобального изменения климата"

27-28 марта 2026 год

COLLECTION FOR THE INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE

International Scientific and Practical Conference on the topic "Methods of Using 'Smart' Technologies to Mitigate Water Scarcity and Digitalize Agriculture in the Context of Global Climate Change"

March 27-28, 2026

“Ilm-fan bilan shug‘ullanish — igna bilan quduq qazishdek mashaqqatli, lekin natijasi millat kelajagini belgilaydi”

Sh.M.Mirziyoyev

KIRISH

Ushbu xalqaro konferensiyada global iqlim o‘zgarishi sharoitida suv tanqisligini yumshatish va qishloq xo‘jaligini raqamlashtirishda “Smart” texnologiyalardan foydalanish masalasi muhokama etilayotgani katta ahamiyatga ega. Bu mavzular nafaqat mamlakatlar iqtisodiyoti, balki butun insoniyatning oziq-ovqat xavfsizligi va barqaror taraqqiyoti bilan uzviy bog‘liq.

Bugungi kunda global iqlim o‘zgarishi dunyo miqyosida eng dolzarb ekologik va iqtisodiy muammolardan biri sifatida namoyon bo‘lib, ayniqsa suv resurslariga boy bo‘lmagan hududlarda qishloq xo‘jaligi tarmog‘iga jiddiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Haroratning yil sayin ortishi, yog‘ingarchilik miqdorining noteng taqsimlanishi, qurg‘oqchilik davrlarining ko‘payishi hamda transchegaraviy suv manbalari hajmining qisqarishi natijasida suv tanqisligi muammosi yanada keskinlashmoqda. Markaziy Osiyo mintaqasida, jumladan O‘zbekiston sharoitida ushbu jarayon qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishi barqarorligiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri ta’sir etmoqda.

Qishloq xo‘jaligi mamlakat iqtisodiyotida strategik ahamiyatga ega bo‘lib, suv resurslarining asosiy iste’molchisi hisoblanadi. Shu sababli suvdan oqilona foydalanish, suv tejovchi texnologiyalarni keng joriy etish va raqamli boshqaruv tizimlarini ishlab chiqish davlat siyosati darajasiga ko‘tarilgan. Keyingi yillarda mamlakatda suv xo‘jaligini raqamlashtirish, suv hisobini avtomatlashtirish va yagona raqamli monitoring tizimini yaratish bo‘yicha muhim islohotlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, 2025 yilda qabul qilingan Suv kodeksi va Prezident farmoni asosida “**Digital Water Management**” va “**Water Accounting**” platformalari ishga tushirildi va bu o‘z navbatida suv yo‘qotishlarini kamaytirish hamda boshqaruv shaffofligini oshirishga xizmat qilmoqda.

O‘zbekistonda suv tejovchi texnologiyalarni joriy etish natijasida so‘nggi yillarda 2 milliard kub metrga yaqin suv tejalgani qayd etilmoqda. Ayniqsa tomchilatib sug‘orish, yomg‘irlatib sug‘orish, lazerli tekislash va energiya tejovchi nasoslardan foydalanish samaradorlikni oshirmoqda. Mamlakatda 50 dan ortiq mahalliy korxonalar tomonidan suv tejovchi qurilmalar ishlab chiqarilayotgani ushbu sohada mahalliy innovatsion bozor shakllanayotganini ko‘rsatadi.

Shu bilan birga, qishloq xo‘jaligini raqamlashtirish jarayonida “**Smart agriculture**” yondashuvlari keng qo‘llanilmoqda. Bunda tuproq namligini aniqlovchi sensorlar, IoT qurilmalari, avtomatik sug‘orish boshqaruvi, dronlar, sputnik kuzatuvlari va GIS texnologiyalari muhim ahamiyat kasb etmoqda. Zamonaviy

raqamli platforma orqali yer maydonlari holati, suv ta’minoti, ekin rivojlanishi va hosil prognozi haqida tezkor ma’lumot olish imkoniyati yaratilmoqda. Bu esa qaror qabul qilish jarayonini ilmiy asoslashga xizmat qiladi.

Ta’lim tizimida ham mazkur sohada jiddiy yangilanishlar kuzatilmoqda. Agrar ta’lim muassasalarida kredit-modul tizimi joriy qilinib, “**Smart agriculture**”, raqamli agrotexnologiyalar, suv tejovchi innovatsiyalar kabi yangi fanlar o‘quv rejalariga kiritilgan. Qishloq xo‘jaligi sohasida 2030 yilgacha innovatsion rivojlanish strategiyasi qabul qilinib, xalqaro universitetlar bilan qo‘shma dasturlar tashkil etilmoqda.

Jahon miqyosida esa aqlli qishloq xo‘jaligi texnologiyalari yanada tez sur’atlarda rivojlanmoqda. Bugungi kunda Food and Agriculture Organization tomonidan iqlimga moslashgan qishloq xo‘jaligi konsepsiyasi asosida ko‘plab mamlakatlarda sensorli sug‘orish, sun’iy intellekt asosida suv taqsimoti va avtonom agrotizimlar joriy etilmoqda. Zamonaviy ilmiy tadqiqotlarda IoT va AI asosidagi avtonom sug‘orish tizimlari 30–50 foizgacha suv tejash imkonini berayotgani isbotlangan.

Kelgusidagi asosiy vazifalar sifatida suv resurslarini to‘liq raqamli monitoring qilish, fermer xo‘jaliklariga arzon sensor texnologiyalarini yetkazish, dronlardan keng foydalanish, iqlim prognozlarini agrar boshqaruv bilan integratsiya qilish va ta’lim-ilm-fan-ishlab chiqarish bog‘liqligini yanada mustahkamlash muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, har bir hududning suv balansiga mos “**aqlli sug‘orish**” modellarini ishlab chiqish kelajakda oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashning muhim omili hisoblanadi.

Shunday qilib, global iqlim o‘zgarishi sharoitida suv tanqisligini yumshatish va qishloq xo‘jaligini raqamlashtirishda Smart texnologiyalardan foydalanish nafaqat texnologik yangilanish, balki barqaror agrar taraqqiyotning asosiy strategik yo‘nalishiga aylanmoqda.

Sh.Q.Nematov

IQLIM O‘ZGARISHI SHAROITIDA O‘ZBEKISTONDA SUV RESURSLARINI BARQAROR BOSHQARISH

Xamzayev Abdushukur Xudoyqulovich
Qishloq xo‘jaligi fanlari doktori, professor

Annotatsiya: Maqolada global va O‘zbekiston miqyosida suv resurslarining ahamiyati, ularning ekologik barqarorlikni ta’minlashdagi roli, shuningdek ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishdagi o‘rni asoslab berilgan. Suv resurslarini boshqarishdagi ayrim muammolar tahlil qilinib, resurslardan samarali foydalanish va barqaror rivojlanishga erishish bo‘yicha takliflar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: *Suv resurslari, barqaror boshqaruv, iqlim o‘zgarishi, sug‘orish texnologiyalari, suv monitoringi.*

Аннотация: В статье обоснована значимость водных ресурсов на глобальном уровне и в масштабе Узбекистана, их роль в обеспечении экологической устойчивости, а также значение для социально-экономического развития. Проанализированы некоторые проблемы управления водными ресурсами и приведены предложения по эффективному использованию ресурсов и достижению устойчивого развития.

Ключевые слова: *Водные ресурсы, устойчивое управление, изменение климата, технологии орошения, мониторинг воды*.

Abstract: The article substantiates the importance of water resources at both the global level and in Uzbekistan, their role in ensuring ecological sustainability, as well as their significance for socio-economic development. Some issues in water resource management are analyzed, and recommendations are provided for the efficient use of resources and achieving sustainable development.

Keywords: *Water resources, sustainable management, climate change, irrigation technologies, water monitoring.*

KIRISH

Xalqaro Resurslar guruhi (IRP) ma’lumotlariga ko‘ra[1], shaharlar va dunyo aholisining tezkorlik bilan o‘sishi, 2050-yilga kelib shaharlarda istiqomat qiluvchi dunyo aholisi 23 foizga o‘sishi kuzatiladi va bu o‘sish mavjud suv resurslariga talabning oshishiga olib keladi.

So‘nggi o‘n yillikda global iqlim o‘zgarishi butun dunyo, jumladan Markaziy Osiyo mintaqasida suv resurslariga sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. O‘zbekiston uchun suv resurslari o‘z navbatida qishloq xo‘jaligi va sanoatning asosiy tarkibiy qismi sanalib, ekologik barqarorlik va aholi turmush darajasi uchun ham muhim ahamiyatga ega. Iqlim o‘zgarishi oqibatida yomg‘ir va qor miqdorining o‘zgarishi, bug‘lanish jarayonining ortishi, daryolardagi suv oqimining beqarorligi kuzatilmoqda. Bu esa, suv ta’minotini boshqarishning murakkabligini oshirib, suv resurslaridan oqilona foydalanishni talab qilmoqda. Shu nuqtai nazardan, O‘zbekistonda suv resurslarini barqaror boshqarishning ilmiy asoslarini ishlab chiqish va amaliy choralarga yo‘naltirish bugungi kunda dolzarb vazifa sifatida qaralmoqda. Bu masala tabiiy resurslarni tejash, ekotizimni saqlash, iqtisodiy rivojlanish, qishloq xo‘jaligida hosildorlikni oshirish va aholining hayot sifatini yaxshilash bilan chambarchas bog‘liq.

Ekspert prognozlariga ko‘ra, 2050-yilga borib Markaziy Osiyo mintaqasi aholisi 69 (2015-yil) dan 96 million kishigacha o‘sishi kutilmoqda. Shuningdek, 1960-2010-yillarda yangi yerlarning keng miqyosda o‘zlashtirilishi tufayli suvga bo‘lgan talab taklifdan keskin o‘sdi. Suv tanqisligi mahalliy darajadan mintaqaviy darajaga aylandi, shuning uchun ham ekologik jihatdan qiyin bo‘lgan suv resurslari o‘zlashtirila boshlandi. Agar raqamlarga murojaat qilsak, Markaziy Osiyo mamlakatlari orasida O‘zbekistonda 1990-yilda 4222 ga bo‘lgan bo‘lsa, 2025-yilda bu ko‘rsatkich

[1] International Resource Panel. The Weight of Cities: Resource Requirements of Future Urbanization. – UN Environment Programme, 2018. – B. 12.

6441 ga yetishi kutilmoqda.[2]

ASOSIY QISM

Suv resurslarini barqaror boshqarish mavjud suv zaxiralarini saqlash bilan birga ularni sifat jihatdan ham samarali ishlatishni nazarda tutadi. O‘zbekiston sharoitida bu jarayon bir nechta asosiy yo‘nalishlarga e’tibor qaratishni talab qiladi. Birinchidan, monitoring va hisob-kitob tizimlarini takomillashtirish juda muhim. Daryolar va kanallardagi suv oqimi, yomg‘ir, qor miqdori hamda bug‘lanish jarayonlarini muntazam kuzatib borish orqali suv resurslaridan oqilona foydalanish imkoniyati yaratiladi. Ikkinchidan, suvdan samarali foydalanish texnologiyalarini joriy etish zarur. Bu sug‘orish tizimlarini modernizatsiya qilish, suvni tejovchi va raqamli monitoring tizimlarini keng joriy etishni o‘z ichiga oladi. Shu yo‘l bilan qishloq xo‘jaligida suvdan foydalanish sezilarli darajada samarali bo‘ladi. Uchinchidan, yer osti suvlarining saqlanishi va tiklanishini ta’minlash muhim ahamiyatga ega. Tabiiy qayta to‘ldirish jarayonlarini nazorat qilish orqali suv zaxiralari uzoq muddat barqaror saqlanishi mumkin. So‘nggi ahamiyatli masala esa ekologik barqarorlikni ta’minlash yo‘li bilan daryo va kanallarda biologik muvozanatni saqlash, suv havzalarining ifloslanish darajasini kamaytirishdir. Shu yo‘l bilan suv resurslari miqdor, sifat jihatidan ham barqaror boshqariladi.

Suv resurslaridan foydalanishda asosiy muammo qishloq xo‘jaligidagi suv taqsimoti va iste’molidagi samaradorlikning pastligidir. Bu esa mavjud suv resurslarining optimal boshqarilishini ta’minlashga to‘sqinlik qilmoqda.[3] Suv resurslarini boshqarish jarayonida yana qator muammolar mavjud bo‘lib, ular samarali boshqaruvni murakkablashtirmoqda. Iqlim sharoitlarining o‘zgarishi suv zaxiralarini aniq rejalashtirishni qiyinlashtiradi. Yomg‘ir va qorning noaniq taqsimoti sug‘orish hamda ichimlik suvini ta’minlash tizimlariga qo‘shimcha yuk tushiradi. Suv resurslaridan noto‘g‘ri foydalanish ham dolzarb muammo. Ko‘plab eski sug‘orish tizimlari, tartibga solinmagan suv taqsimoti yetarli suv yetkazib berishni qiyinlashtiradi, bu esa qishloq xo‘jaligi hosildorligi va sanoat samaradorligiga ta’sir qiladi.

Monitoring va ma’lumot yetishmovchiligi boshqaruv qarorlarini qabul qilishni murakkablashtiradi. Daryolar, kanallar va yer osti suvlarining holati haqida aniq ma’lumotlarning yo‘qligi strategiyalar ishlab chiqishga to‘sqinlik qiladi. Shu sababli, suv resurslarini boshqarishdagi muammolarni hal qilish uchun raqamli monitoring tizimlarini joriy etish, sug‘orish tizimlarini modernizatsiya qilish va suvdan oqilona foydalanish bo‘yicha amaliy strategiyalarni ishlab chiqish muhimdir.

Muammolarni bartaraf etish va suv resurslarini barqaror boshqarishni ta’minlash uchun bir nechta yechimlarni amalga oshirish zarur. Sensorlar orqali ma’lumot yig‘ish suv oqimini va resurslardan foydalanishni aniq kuzatish imkonini beradi.

Qonuniy va ekologik mexanizmlarni mustahkamlash ham dolzarb vazifadir. Suv resurslarini boshqarish bo‘yicha normativ va tartib-taomillarni joriy etish orqali ularning barqaror ishlatilishini ta’minlash mumkin.

Bundan tashqari, xalqaro tajribani o‘rganish orqali muvaffaqiyatli loyihalarni o‘zlashtirish va texnologik hamda ilmiy asoslarni integratsiyalash muhim ahamiyatga ega. Shu yo‘l bilan O‘zbekiston suv resurslarini barqaror boshqarish va iqlim o‘zgarishi sharoitida ularni samarali saqlash bo‘yicha mustahkam poydevor yaratish mumkin.

XULOSA

O‘zbekistonning suv resurslarini barqaror boshqarish masalasi iqtisodiy, balki ijtimoiy va ekologik ahamiyatga ega. Kelajakda ushbu resurslarni samarali boshqarish uchun innovatsion yondashuvlar, jumladan, sun’iy intellekt va raqamli tizimlarni qo‘llash, iqlim sharoitlariga moslashgan loyihalarni ishlab chiqish zarur. Shuningdek, suv resurslarining sifatini saqlash va tabiiy zaxiralarni tiklashga yo‘naltirilgan ilmiy-tadqiqot ishlari kengaytirilishi lozim.

Barqaror boshqaruv davlat siyosatining, mahalliy hamjamiyatlarning faol ishtirokini ham

[2] Ashurov M. S., Sotvoldiyeva M. G‘. Suv resurslarini barqaror boshqarish va foydalanishning asosiy muammolari hamda yechimlari // “Raqamli Iqtisodiyot” ilmiy-elektron jurnali. – Toshkent, 2024. – №9. – B. 443.

[3] Yusupov Y. Suv resurslarini boshqarishning samarali tizimini yarata olamizmi? Yangi konsepsiya loyihasi to‘g‘risida. – Kun.uz, 20.02.2020.

talab qiladi. Suv resurslari bilan bog‘liq muammolar yuzaga kelmasligi uchun ekologik madaniyatni oshirish, innovatsion texnologiyalarni joriy etish maqsadga muvofiq. Suv zaxiralarini oqilona boshqarish iqlim o‘zgarishi tahdidlariga bardosh berish va ekologik barqarorlikni ta’minlashning muhim omiliga aylanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Ashurov M. S., Sotvoldiyeva M. G‘. *Suv resurslarini barqaror boshqarish va foydalanishning asosiy muammolari hamda yechimlari //* “Raqamli Iqtisodiyot” ilmiy elektron jurnali. – Toshkent, 2024.
2. European Commission. *EU Water Framework Directive (WFD).* Brussels, 2020.
3. FAO. *Integrated Water Resources Management in Arid Regions.* Rome, 2021.
4. G‘ofurov A.M., Sattarov U. *Gidrogeologiya va gidroximiya asoslari.* – Toshkent: TDTU, 2018.
5. International Resource Panel. *The Weight of Cities: Resource Requirements of Future Urbanization.* – UN Environment Programme, 2018.
6. Sultonov I., Nurmuhamedov S., Qurbonov S. *Ichki xo‘jalik kanallari texnik holatini baholash va suv isrofgarchiligining oldini olish //* Pedagogical sciences and teaching methods, 2025.
7. United Nations Economic Commission for Europe (UNECE). *Convention on the Protection and Use of Transboundary Watercourses and International Lakes.* Geneva, 2019.
8. *Water Resources Management and Irrigation Modernization Report.* Washington, DC: World Bank, 2023.
9. Yusupov Y. *Suv resurslarini boshqarishning samarali tizimini yarata olamizmi? // Yangi konsepsiya loyihasi to‘g‘risida.* – Kun.uz, 2020.

UO‘K: 332.122.62:631

SUV RESURSLARI CHEKLANGAN HUDUDLARDA DEHQON XO‘JALIKLARINING RESURS SAMARADORLIGI

A.E.Sanetullaev

Qoraqalpoq davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada suv resurslari cheklangan hududlarda faoliyat yuritayotgan dehqon xo‘jaliklarining resurs samaradorligini oshirishning iqtisodiy mexanizmlari tahlil qilinadi. Tadqiqotning dolzarbligi iqlim o‘zgarishi va suv tanqisligi sharoitida qishloq xo‘jaligida har bir m^3 suv, 1 gektar yer va mehnat resursidan maksimal iqtisodiy natija olish zarurati bilan izohlanadi. Tadqiqotda suv unumdorligi, yer rentabelligi, mehnat samaradorligi va kapital qaytimi asosiy baholash ko‘rsatkichlari sifatida qo‘llaniladi.

Empirik tahlil Qoraqalpog‘iston Respublikasi dehqon xo‘jaliklari misolida amalga oshirilib, resurslardan foydalanish samaradorligiga ta’sir etuvchi omillar, jumladan, resurstejamkor agrotexnologiyalar, tomchilatib sug‘orish tizimlari, ekinlar strukturasi va boshqaruv sifati o‘rganiladi.

Kalit so‘zlar: *suv resurslari tanqisligi, dehqon xo‘jaliklari, resurs samaradorligi, suv unumdorligi, yer rentabelligi, resurstejamkor texnologiyalar, barqaror qishloq xo‘jaligi, iqlim o‘zgarishi.*

Kirish: Iqlim o‘zgarishi va suv resurslari tanqisligining kuchayishi sharoitida qishloq xo‘jaligida yer va suv resurslaridan samarali foydalanish masalasi strategik ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, suv ta’minoti cheklangan hududlarda dehqon xo‘jaliklarining barqaror faoliyat yuritishi resurslardan oqilona va tejamkor foydalanish darajasiga bevosita bog‘liqdir. Suv resurslarini boshqarish va ulardan foydalanishning huquqiy asoslari O‘zbekiston Respublikasining Suv kodeksida belgilab berilgan bo‘lib, unda suvdan samarali foydalanish, uni muhofaza qilish hamda iqtisodiy mexanizmlar orqali tartibga solish tamoyillari mustahkamlangan [1].

Shuningdek, qishloq xo‘jaligida yer va suv resurslaridan samarali foydalanish, ularni tejash va raqamli boshqaruv tizimlarini joriy etish bo‘yicha davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlari O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 17-iyundagi PF–5742-son Farmonida

belgilangan [2]. Mazkur hujjatda suv tejovchi texnologiyalarni keng joriy etish, irrigatsiya tizimlarini modernizatsiya qilish hamda xo‘jalik darajasida resurs samaradorligini oshirish asosiy vazifalar sifatida ko‘rsatib o‘tilgan.

Shu nuqtai nazardan, suv resurslari cheklangan hududlarda dehqon xo‘jaliklarining resurs samaradorligini iqtisodiy baholash va uni oshirish omillarini aniqlash ilmiy va amaliy jihatdan dolzarb hisoblanadi.

Material va metodlar: Mazkur tadqiqot suv resurslari cheklangan hududlarda dehqon xo‘jaliklarining resurs samaradorligini baholashga qaratilgan bo‘lib, metodologik asos sifatida qishloq xo‘jaligida suv unumdorligi va resurslardan foydalanish samaradorligi bo‘yicha xalqaro ilmiy yondashuvlardan foydalanildi.

Tadqiqotning nazariy asosini suv unumdorligini oshirish va uni baholash metodologiyasi tashkil etadi. Xususan, qishloq xo‘jaligida suv mahsuldorligini iqtisodiy va fizik ko‘rsatkichlar asosida aniqlash bo‘yicha yondashuvlar Molden va hammualliflar tomonidan ishlab chiqilgan konseptual modelga tayanadi [3]. Mazkur yondashuv suv sarfi va olinadigan mahsulot o‘rtasidagi nisbatni aniqlash orqali suv unumdorligini baholash imkonini beradi.

Suv cheklangan agroekotizimlarda kichik xo‘jaliklarning samaradorligini aniqlashda Rockström va hammualliflarning yomg‘irga bog‘liq dehqonchilik sharoitidagi suv mahsuldorligi modeli metodik asos sifatida qo‘llanildi [4]. Ushbu yondashuv suvdan foydalanish samaradorligini ekin hosildorligi va tuproq namligi balansini hisobga olgan holda baholashga imkon beradi.

Bundan tashqari, resurslardan kompleks foydalanish samaradorligini aniqlashda ozuqa elementlari, xususan azot resurslarini boshqarish samaradorligi bo‘yicha Zhang va hammualliflarning barqaror rivojlanish modeli inobatga olindi [5]. Bu yondashuv resurslardan foydalanishning ekologik va iqtisodiy natijalarini integratsiyalashgan holda baholash imkonini beradi.

Tadqiqot ma’lumotlari Qoraqalpog‘iston Respublikasi dehqon xo‘jaliklarining sug‘orish hajmi, hosildorlik ko‘rsatkichlari va xarajatlar tarkibi asosida shakllantirildi.

1-jadval

Suv resurslari cheklangan hududlarda resurs samaradorligini baholash ko‘rsatkichlari

Ko‘rsatkich	Hisoblash usuli	Iqtisodiy mazmuni
Suv unumdorligi	Hosil (kg yoki so‘m) / suv sarfi (m^3)	1 m^3 suvga to‘g‘ri keladigan mahsulot yoki daromad
Yer rentabelligi	Sof foyda / 1 ga	Yer resursidan foydalanish samaradorligi
Mehnat samaradorligi	Mahsulot hajmi / ishchi soni	Mehnat unumdorligi darajasi
Kapital qaytimi	Sof foyda / investitsiya	Investitsiya samaradorligi
Umumiy omilli mahsuldorlik	Yalpi mahsulot / resurslar yig‘indisi	Kompleks resurs samaradorligi

Ushbu jadval suv resurslari cheklangan hududlarda dehqon xo‘jaliklarining resurslardan foydalanish samaradorligini kompleks baholash uchun qo‘llaniladigan asosiy iqtisodiy ko‘rsatkichlarni aks ettiradi. Unda suv, yer, mehnat va kapital resurslarining alohida hamda integratsiyalashgan samaradorligi aniqlanadi. Ko‘rsatkichlar xo‘jalik darajasida har bir resurs birligiga to‘g‘ri keladigan mahsulot yoki daromad hajmini baholash imkonini beradi hamda resurslardan oqilona foydalanish darajasini iqtisodiy jihatdan tahlil qilishga xizmat qiladi.

Natijalar va ularning tahlili: Tadqiqot natijalari suv resurslari cheklangan hududlarda dehqon xo‘jaliklarining resurs samaradorligi bevosita texnologik daraja va boshqaruv usullariga bog‘liqligini ko‘rsatdi. Raqamli va aniqlashtirilgan dehqonchilik elementlarini qo‘llagan xo‘jaliklarda suv sarfi kamayishi bilan birga hosildorlik va sof daromadning o‘sishi kuzatildi. Bu holat precision farming konsepsiyasi ishlab chiqarish va atrof-muhit o‘rtasidagi muvozanatni ta’minlashini asoslagan ilmiy yondashuvlar bilan mos keladi [6].

Empirik hisob-kitoblarga ko‘ra, suv tejovchi texnologiyalarni qo‘llagan xo‘jaliklarda suv unumdorligi o‘rtacha 18–25% ga, yer rentabelligi esa 12–17% ga yuqori bo‘lgan. Mehnat

samaradorligi ham agrotexnik jarayonlarning optimallashtirilishi natijasida oshgan. Bu natijalar resurslardan foydalanishda aniqlik va ma’lumotlarga asoslangan boshqaruv qarorlarining iqtisodiy samaradorlikni kuchaytirishini tasdiqlaydi.

Suv va yer resurslarini optimal taqsimlashni ko‘p maqsadli modellashtirish asosida baholash natijalari shuni ko‘rsatdiki, resurslarni muqobil variantlar orasida optimallashtirish xo‘jalik daromadini oshirish bilan birga ekologik barqarorlikni ham ta’minlaydi [7]. Xususan, ekinlar strukturasi va sug‘orish hajmini optimallashtirish orqali suv sarfi qisqarishi va yalpi mahsulot hajmining barqaror o‘sishi ta’minlandi.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, suv resurslari cheklangan hududlarda yuqori samaradorlikka erishish uchun faqat texnik modernizatsiya emas, balki integratsiyalashgan boshqaruv yondashuvi zarur. Raqamli monitoring, ma’lumotlarga asoslangan rejalashtirish va resurslarni ko‘p mezonli optimallashtirish mexanizmlarini joriy etish dehqon xo‘jaliklarining iqtisodiy barqarorligini mustahkamlaydi.

Natijalar umumiy omilli mahsuldorlik ko‘rsatkichining o‘sishi orqali ham tasdiqlandi. Raqamli transformatsiya darajasi yuqori bo‘lgan xo‘jaliklarda resurslar yig‘indisiga nisbatan yalpi mahsulot hajmi sezilarli darajada yuqori bo‘lib, bu suv tanqisligi sharoitida resurslardan samarali foydalanishning asosiy omili sifatida texnologik innovatsiyalarni ko‘rsatadi.

Xulosalar: Tadqiqot natijalari suv resurslari cheklangan hududlarda dehqon xo‘jaliklarining resurs samaradorligi ko‘p jihatdan suvdan foydalanish darajasi, texnologik ta’minot va boshqaruv qarorlarining sifatiga bog‘liqligini ko‘rsatdi. Suv unumdorligi, yer rentabelligi va umumiy omilli mahsuldorlik ko‘rsatkichlari raqamli va resurstejamkor texnologiyalarni qo‘llagan xo‘jaliklarda an’anaviy usullarga nisbatan yuqoriroq ekanligi aniqlandi.

Aniqlashtirilgan dehqonchilik elementlari, suvni optimal taqsimlash va ko‘p mezonli modellashtirish usullarini joriy etish nafaqat suv sarfini qisqartirish, balki sof daromad va ishlab chiqarish barqarorligini oshirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, resurslardan samarali foydalanish faqat texnik modernizatsiya bilan emas, balki iqtisodiy rag‘batlar, institutsional qo‘llab-quvvatlash va boshqaruvni takomillashtirish bilan uyg‘un holda amalga oshirilishi zarurligi asoslandi.

Umuman olganda, suv resurslari cheklangan hududlarda dehqon xo‘jaliklarining barqaror rivojlanishini ta’minlash uchun suv unumdorligini oshirishga qaratilgan raqamli texnologiyalarni keng joriy etish, resurslarni optimallashtirish mexanizmlarini takomillashtirish va iqtisodiy samaradorlikni kompleks baholash tizimini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.*O‘zbekiston Respublikasining Suv kodeksi*. *30.07.2025*. https://lex.uz/uz/docs/-7655343

2.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Qishloq xo‘jaligida yer va suv esurslaridan samarali foydalanish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi 2019-yil 17-iyundagi farmoni. Pf-5742-son . Https://lex.uz/acts/-4378526

3.Molden, D., Oweis, T., Steduto, P., Bindraban, P., Hanjra, M. A., & Kijne, J. (2009). Improving agricultural water productivity: Between optimism and caution. *Agricultural Water Management*, *97*(4), 528–535. https://doi.org/10.1016/j.agwat.2009.03.023

4.Rockström, J., Barron, J., & Fox, P. (2003). Water productivity in rain-fed agriculture: challenges and opportunities for smallholder farmers in drought-prone tropical agroecosystems. In *CABI Publishing eBooks* (pp. 145–162). https://doi.org/10.1079/9780851996691.0145

5.Zhang, X., Davidson, E. A., Mauzerall, D. L., Searchinger, T. D., Dumas, P., & Shen, Y. (2015). Managing nitrogen for sustainable development. *Nature*, *528*(7580), 51–59. https://doi.org/10.1038/nature15743

6.Finger, R., Swinton, S. M., Benni, N. E., & Walter, A. (2019). Precision farming at the nexus of agricultural production and the environment. *Annual Review of Resource Economics*, *11*(1), 313–335. https://doi.org/10.1146/annurev-resource-100518-093929

7.Ren, C., Li, Z., & Zhang, H. (2018). Integrated multi-objective stochastic fuzzy programming and AHP method for agricultural water and land optimization allocation under multiple uncertainties. *Journal of Cleaner Production*, *210*, 12–24. https://doi.org/10.1016/j.jclepro.2018.10.348

UO‘K: 332.122.62:631

DEHQON XO‘JALIKLARIDA SMART SUG‘ORISH TEXNOLOGIYALARINING QABUL QILINISHI VA RESURS SAMARADORLIGIGA TA’SIRI

A.E.Sanetullaev
Qoraqalpoq davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada suv resurslari cheklangan hududlarda dehqon xo‘jaliklarida smart sug‘orish texnologiyalarining qabul qilinishi va ularning resurs samaradorligiga ta’siri o‘rganiladi. Tadqiqotning maqsadi IoT asosidagi sug‘orish monitoringi, tomchilatib sug‘orish tizimlari va raqamli boshqaruv vositalarini joriy etishning suv unumdorligi, yer rentabelligi hamda umumiy omilli mahsuldorlikka ta’sirini aniqlashdan iborat.Empirik tahlil Qoraqalpog‘iston Respublikasi dehqon xo‘jaliklari misolida amalga oshirilib, texnologiyani qabul qilishga ta’sir etuvchi iqtisodiy va institutsional omillar baholandi. Natijalar smart sug‘orish texnologiyalarini qo‘llagan xo‘jaliklarda suv sarfi qisqarishi, hosildorlik va sof daromad oshishi kuzatilishini ko‘rsatdi. Shuningdek, texnologiyani qabul qilish darajasi moliyaviy imkoniyatlar, davlat qo‘llab-quvvatlashi va raqamli savodxonlik bilan bevosita bog‘liq ekani aniqlandi.

Kalit so‘zlar: *smart sug‘orish, IoT texnologiyalari, dehqon xo‘jaliklari, suv unumdorligi, resurs samaradorligi, raqamli transformatsiya, tomchilatib sug‘orish, suv tejash*.

Kirish: So‘nggi yillarda qishloq xo‘jaligida suv va yer resurslaridan samarali foydalanish, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish hamda raqamli texnologiyalarni keng joriy etish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishiga aylandi. O‘zbekiston Respublikasida agrar sohani modernizatsiya qilish, innovatsion boshqaruv mexanizmlarini joriy etish va resurslardan oqilona foydalanishni ta’minlash vazifalari “O‘zbekiston Respublikasining qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020–2030-yillarga mo‘ljallangan strategiyasi”da belgilab berilgan [1]. Mazkur strategiyada suv tejovchi texnologiyalarni kengaytirish, raqamli boshqaruv tizimlarini joriy etish hamda dehqon va fermer xo‘jaliklarining iqtisodiy barqarorligini mustahkamlash muhim vazifa sifatida ko‘rsatilgan.

Dehqon xo‘jaliklarida ishlab chiqarish samaradorligini oshirish masalasi ilmiy adabiyotlarda ham keng yoritilgan. Xamrayeva va Ochilova tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda tomorqa xizmati klasterlarini takomillashtirish orqali mahsulot yetishtirish samaradorligini oshirish imkoniyatlari asoslab berilgan [2]. Bu yondashuv kichik xo‘jaliklarda kooperatsiya va xizmat infratuzilmasini rivojlantirishning iqtisodiy samaradorlikka ijobiy ta’sirini ko‘rsatadi.

Xalqaro ilmiy manbalarda aniqlashtirilgan dehqonchilik va smart texnologiyalarning ishlab chiqarish hamda ekologik barqarorlikka ta’siri keng o‘rganilgan. Finger va hammualliflar precision farming texnologiyalari ishlab chiqarish samaradorligini oshirish bilan birga resurslardan foydalanishning ekologik samaradorligini ham ta’minlashini ta’kidlaydilar [3]. Bu yondashuv suv tanqisligi sharoitida dehqon xo‘jaliklarida smart sug‘orish tizimlarini joriy etishning iqtisodiy ahamiyatini yanada kuchaytiradi.

Shu nuqtai nazardan, dehqon xo‘jaliklarida smart sug‘orish texnologiyalarining qabul qilinishi va ularning resurs samaradorligiga ta’sirini o‘rganish ilmiy va amaliy jihatdan dolzarb hisoblanadi.

Material va metodlar: Mazkur tadqiqot dehqon xo‘jaliklarida smart sug‘orish texnologiyalarining qabul qilinishi va ularning resurs samaradorligiga ta’sirini baholashga qaratilgan bo‘lib, unda iqtisodiy-matematik modellashtirish va aniqlashtirilgan dehqonchilik metodlari qo‘llanildi.

Resurslarni optimal taqsimlashni aniqlashda ko‘p maqsadli stoxastik noaniqlik sharoitidagi modellashtirish yondashuvidan foydalanildi. Xususan, suv va yer resurslarini bir vaqtning o‘zida iqtisodiy samaradorlik va ekologik barqarorlik mezonlari asosida optimallashtirish Ren va hammualliflar tomonidan taklif etilgan integratsiyalashgan ko‘p mezonli model konsepsiyasiga tayanildi [4]. Ushbu yondashuv suv taqsimoti, ekin strukturasini shakllantirish va resurslardan foydalanish variantlarini bir nechta cheklovlar ostida baholash imkonini beradi. Tadqiqotda AHP (Analitik Ierarxiya Jarayoni) usuli orqali texnologiyani qabul qilishga ta’sir etuvchi omillar ustuvorligi aniqlanib, xo‘jaliklarning qaror qabul qilish jarayoni modellashtirildi.

Smart sug‘orish tizimlarining samaradorligini baholashda aniqlashtirilgan dehqonchilik elementlari, jumladan masofaviy monitoring va UAV (uchuvchisiz uchish apparatlari)

texnologiyalaridan foydalanish metodologiyasi qo‘llanildi. Primicerio va hammualliflar tomonidan ishlab chiqilgan precision agriculture yondashuvi asosida tuproq namligi, vegetatsiya indeksi va suv stressi ko‘rsatkichlari masofadan turib aniqlanib, sug‘orish hajmini optimallashtirish mexanizmi ishlab chiqildi [5].

Tadqiqot ma’lumotlari Qoraqalpog‘iston Respublikasi dehqon xo‘jaliklarining sug‘orish hajmi, hosildorlik, xarajatlar tarkibi va texnologik ta’minot ko‘rsatkichlari asosida shakllantirildi. Natijalar suv resurslari cheklangan sharoitda smart sug‘orish tizimlarini joriy etish resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish imkonini berishini aniqlashga xizmat qildi.

Natijalar va ularning tahlili: Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, smart sug‘orish texnologiyalarini joriy etgan dehqon xo‘jaliklarida suv va yer resurslaridan foydalanish samaradorligi an’anaviy usullarga nisbatan sezilarli darajada yuqori. Ko‘p maqsadli optimallashtirish modeli asosida suv va yer resurslarini taqsimlash xo‘jalik daromadini oshirish bilan birga suv sarfini kamaytirish imkonini berdi. Ren va hammualliflar tomonidan taklif etilgan integratsiyalashgan stoxastik model yondashuvi asosida resurslarni taqsimlashning optimal varianti aniqlanib, suv sarfi o‘rtacha 15–22% qisqarishi hamda sof foyda 10–14% oshishi kuzatildi [6].

1-jadval

Smart sug‘orish texnologiyalarini qo‘llashning resurs samaradorligiga ta’siri

Ko‘rsatkich	An’anaviy xo‘jalik	Smart sug‘orish joriy etilgan xo‘jalik	O‘zgarish (%)
Suv sarfi (m^3/ga)	100	80–85	–15–20
Suv unumdorligi	1,0	1,18–1,25	+18–25
Yer rentabelligi	1,0	1,10–1,15	+10–15
Sof foyda	1,0	1,12–1,14	+12–14
Umumiy omilli mahsuldorlik	1,0	1,15–1,20	+15–20

Shuningdek, IoT va sun’iy intellekt elementlarini qo‘llagan xo‘jaliklarda real vaqt monitoringi asosida sug‘orish hajmini moslashtirish natijasida suv stressi kamaydi va hosildorlik barqarorligi ta’minlandi. De Abreu va Van Deventer tomonidan o‘tkazilgan tizimli sharh natijalari ham AI va IoT texnologiyalari qishloq xo‘jaligida resurslardan foydalanish aniqligini oshirishini tasdiqlaydi [7]. Mazkur tadqiqot natijalari ushbu ilmiy xulosalar bilan mos keladi.

Natijalar resurslardan foydalanishda raqamli texnologiyalarni integratsiyalashgan holda qo‘llash iqtisodiy barqarorlikni kuchaytirishini ko‘rsatadi.

1-jadval natijalari shuni ko‘rsatadiki, smart sug‘orish texnologiyalarini joriy etish suv sarfini kamaytirish bilan birga resurslardan foydalanish samaradorligini oshiradi. Suv sarfi 15–20% ga qisqargan holda suv unumdorligi, yer rentabelligi va sof foyda ko‘rsatkichlari sezilarli darajada o‘sadi. Umumiy omilli mahsuldorlikning 15–20% ga oshishi raqamli va optimallashtirilgan boshqaruv tizimlari dehqon xo‘jaliklarining iqtisodiy barqarorligini mustahkamlashini tasdiqlaydi.

Xulosalar: Tadqiqot natijalari dehqon xo‘jaliklarida smart sug‘orish texnologiyalarini joriy etish suv resurslaridan foydalanish samaradorligini sezilarli darajada oshirishini ko‘rsatdi. Suv sarfining qisqarishi bilan birga suv unumdorligi, yer rentabelligi va sof foyda ko‘rsatkichlari yaxshilanganligi aniqlandi. Bu holat resurslarni ma’lumotlarga asoslangan boshqaruv orqali optimallashtirishning iqtisodiy samarasini tasdiqlaydi.

Shuningdek, texnologiyani qabul qilish darajasi xo‘jalikning moliyaviy imkoniyatlari, raqamli savodxonligi va institutsional qo‘llab-quvvatlash mexanizmlariga bog‘liq ekanligi aniqlangan. Ko‘p maqsadli optimallashtirish modeli suv va yer resurslarini samarali taqsimlash orqali iqtisodiy va ekologik barqarorlikni bir vaqtda ta’minlash imkonini beradi.

Umuman olganda, suv resurslari cheklangan hududlarda dehqon xo‘jaliklarining barqaror rivojlanishini ta’minlash uchun smart sug‘orish texnologiyalarini keng joriy etish, iqtisodiy rag‘batlantirish mexanizmlarini kuchaytirish va resurs samaradorligini kompleks baholash tizimini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020 — 2030-yillarga mo‘ljallangan strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi

23.10.2019 yildagi PF-5853-son Farmoni.

2.Xamrayeva, S. N., & Ochilova, N. A. (2023). Dehqon xo‘jaliklarida mahsulot yetishtirish samaradorligini oshirishda tomorqa xizmati klasterlarini takomillashtirish. *yashil iqtisodiyot va taraqqiyot*, *1*(10), 355–359. https://doi.org/10.55439/ged/vol1_iss10/a69

3.Finger, R., Swinton, S. M., Benni, N. E., & Walter, A. (2019b). Precision farming at the nexus of agricultural production and the environment. *Annual Review of Resource Economics*, *11*(1), 313–335. https://doi.org/10.1146/annurev-resource-100518-093929

4.Ren, C., Li, Z., & Zhang, H. (2018b). Integrated multi-objective stochastic fuzzy programming and AHP method for agricultural water and land optimization allocation under multiple uncertainties. *Journal of Cleaner Production*, *210*, 12–24. https://doi.org/10.1016/j.jclepro.2018.10.348

5.Primicerio, J., Di Gennaro, S. F., Fiorillo, E., Genesio, L., Lugato, E., Matese, A., & Vaccari, F. P. (2012). A flexible unmanned aerial vehicle for precision agriculture. *Precision Agriculture*, *13*(4), 517–523. https://doi.org/10.1007/s11119-012-9257-6

6.Ren, C., Li, Z., & Zhang, H. (2018c). Integrated multi-objective stochastic fuzzy programming and AHP method for agricultural water and land optimization allocation under multiple uncertainties. *Journal of Cleaner Production*, *210*, 12–24. https://doi.org/10.1016/j.jclepro.2018.10.348

7.De Abreu, C. L., & Van Deventer, J. P. (2022). The application of artificial intelligence (AI) and internet of things (IoT) in agriculture: A systematic literature review. In *Communications in computer and information science* (pp. 32–46). https://doi.org/10.1007/978-3-030-95070-5_3

UDK: 94(575.1):556.3

O‘ZBEKISTONDA SUV TANQISLIGI SHAROITIDA SUVNI TEJASH SIYOSATINING INSTITUTSIONAL ASOSLARI

I.U.Olimov
Biznes va fan universiteti

Annotatsiya: Maqolada O‘zbekistonda suv tanqisligi sharoitida suvni tejash siyosatining institutsional asoslari tahlil qilinadi. Tadqiqotda suv resurslariga bo‘lgan bosimning ortish omillari, amaldagi normativ-huquqiy mexanizmlar hamda davlat boshqaruvi tizimining roli yoritilgan. Shuningdek, suvni tejovchi texnologiyalarni joriy etish, raqamlashtirish va transchegaraviy suv resurslarini boshqarish masalalariga e’tibor qaratilgan. Tadqiqot natijalari suv xavfsizligini ta’minlashda institutsional islohotlar va mintaqaviy hamkorlikni kuchaytirish zarurligini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: *suv tanqisligi, suv xavfsizligi, suvni tejash siyosati, suv resurslarini boshqarish, institutsional islohotlar, normativ-huquqiy baza, suv diplomatiyasi, transchegaraviy suvlar, davlat-xususiy sheriklik, suvni tejovchi texnologiyalar*

Kirish. So‘nggi yillarda O‘zbekistonda davlat siyosatining ijtimoiy-iqtisodiy yo‘nalishlarini jadallashtirishga ustuvor ahamiyat berilmoqda. Ushbu jarayonlar mamlakatning suv resurslariga bo‘lgan ehtiyojining sezilarli darajada ortishiga sabab bo‘lmoqda. Global iqlim o‘zgarishlari, aholi sonining barqaror o‘sishi, iqtisodiyot tarmoqlarining kengayishi hamda suvga talabning oshib borishi sharoitida respublikada suv resurslari taqchilligi tobora kuchayib bormoqda. Mavjud chuchuk suv zaxiralarining qisqarishi suv tanqisligi va qurg‘oqchilik xavfining ortishiga olib kelmoqda.

Jahon banki tadqiqotlariga ko‘ra, 2050 yilga kelib Sirdaryo havzasidagi suv resurslari 2–5 foizga, Amudaryo havzasida esa 10–15 foizga qisqarishi mumkin. Mutaxassislar hisob-kitoblariga binoan, ichimlik suvi tanqisligi mintaqa yalpi ichki mahsulotining qariyb 11 foizga kamayishiga, suv resurslaridan foydalanishdagi muvofiqlashtirish yetishmasligi esa har yili kamida 1,75 milliard AQSh dollari miqdorida iqtisodiy yo‘qotishlarga olib kelishi ehtimoli mavjud [7].

Materiallar va metodlar. Tadqiqot O‘zbekistonda suv tanqisligi sharoitida suvni tejash siyosatining institutsional asoslarini tahlil qilishga qaratilgan. Tadqiqot materiallari sifatida suv sohasiga oid normativ-huquqiy hujjatlar, davlat strategiyalari hamda Jahon banki va BMT kabi xalqaro tashkilotlar hisobotlari foydalanildi. Tadqiqotda tizimli va normativ-huquqiy tahlil usullari

qo‘llanilib, suvni tejash siyosatini amalga oshirishda ishtirok etuvchi institutlarning vakolatlari va o‘zaro hamkorligi o‘rganildi. Shuningdek, taqqoslama va umumlashtirish usullari orqali mavjud yondashuvlar baholanib, xulosalar chiqarildi.

Natijalar va ularning tahlili. O‘zbekiston Respublikasining “Suv va suvdan foydalanish to‘g‘risida”gi Qonuniga muvofiq, suvdan foydalanish sohasidagi davlat boshqaruvi Vazirlar Mahkamasi, mahalliy davlat hokimiyati organlari hamda maxsus vakolatli davlat boshqaruvi organlari tomonidan amalga oshiriladi. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Suv xo‘jaligi vazirligi yer usti suv resurslarini, Davlat geologiya va mineral resurslar qo‘mitasi esa yer osti suvlarini boshqarish vakolatiga ega hisoblanadi.

Suv resurslaridan foydalanish va ularni muhofaza qilish tizimini takomillashtirish maqsadida so‘nggi yillarda muhim institutsional va normativ-huquqiy islohotlar amalga oshirildi. Jumladan, 2021 yil 30 noyabrda qabul qilingan O‘RQ–733-sonli Qonun bilan Vazirlar Mahkamasining suv munosabatlarini tartibga solish borasidagi vakolatlari kengaytirildi [1]. Ushbu o‘zgartishlar suv xo‘jaligini rivojlantirish, suvdan oqilona va samarali foydalanish, suv tanqisligi salbiy oqibatlarini yumshatishga qaratilgan dasturlarni tasdiqlash hamda suvni tejovchi texnologiyalarni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini joriy etishga xizmat qilmoqda.

Shuningdek, Prezidentning 2018 yil 2 iyuldagi [2], 2020 yil 10 iyuldagi [3] va 2023 yil 23 iyundagi [4] qaror va farmonlari suv xo‘jaligi boshqaruvini modernizatsiya qilish, irrigatsiya tizimlarini takomillashtirish va raqamlashtirishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni belgilab berdi. Natijada suv resurslaridan foydalanish ustidan nazoratni kuchaytirish, suv iste’moli qoidalariga rioya etilishini ta’minlash va huquqbuzarliklarning oldini olish bo‘yicha tizimli ishlar amalga oshirilmoqda.

2022–2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasida suv resurslarini boshqarish tizimini tubdan isloh qilish alohida ustuvor yo‘nalish sifatida belgilandi. Mazkur strategiyaga muvofiq, kamida 7 milliard kub metr suvni iqtisod qilish, suv xo‘jaligi obyektlarida energiya sarfini kamaytirish, davlat-xususiy sheriklik asosida suv xo‘jaligi obyektlarini boshqarish, aholining ichimlik suvi bilan ta’minlanganlik darajasini 87 foizga yetkazish hamda yirik shahar va tuman markazlarida oqova suv tizimlarini modernizatsiya qilish ko‘zda tutilgan [5].

2023 yilda qabul qilingan “O‘zbekiston – 2030” strategiyasida ham suv xavfsizligi masalalari alohida e’tirof etilib, suvdan foydalanish samaradorligini 25 foizga oshirish, suvni tejovchi texnologiyalarni 2 million gektar maydonga joriy etish, shu jumladan tomchilatib sug‘orish texnologiyalarini kengaytirish vazifalari belgilandi. Shuningdek, suv resurslari balansini ishlab chiqish, ichimlik suvi hisoblagichlarini to‘liq joriy etish va suv xo‘jaligi obyektlarida avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlarini joriy qilish rejalashtirilgan [6].

O‘zbekiston suv xavfsizligini ta’minlash masalasiga nafaqat milliy, balki mintaqaviy va xalqaro darajada yondashib kelmoqda. Davlat rahbari tomonidan BMT minbarlarida ilgari surilgan tashabbuslar Markaziy Osiyoda transchegaraviy suv resurslaridan adolatli va oqilona foydalanish zarurligini ta’kidlab, suv diplomatiyasini rivojlantirishga qaratilgan. Amudaryo va Sirdaryo havzalaridagi suv resurslaridan birgalikda foydalanishni huquqiy jihatdan tartibga solishga qaratilgan tashabbuslar mintaqaviy barqarorlikni mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etmoqda [9].

Shu bilan birga, O‘zbekiston qo‘shni davlatlar bilan ikki tomonlama hamkorlikni rivojlantirib, suv omborlari va gidrotexnik inshootlardan birgalikda foydalanish bo‘yicha amaliy kelishuvlarga erishmoqda. Xususan, Qirg‘iziston va Tojikiston bilan tuzilgan kelishuvlar suv resurslaridan foydalanishda o‘zaro manfaatdorlik va xalqaro huquq normalariga asoslangan yondashuvni ifodalaydi [8].

Xulosa qilib aytganda, O‘zbekistonda suv xavfsizligini ta’minlash masalasi kompleks yondashuvni, ichki institutsional islohotlar bilan bir qatorda Markaziy Osiyo davlatlarining hamkorlikdagi sa’y-harakatlarini talab etadi. Suv resurslaridan oqilona va adolatli foydalanish mexanizmlarini shakllantirish mintaqaviy barqarorlik va uzoq muddatli ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning muhim omili hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.O‘zbekiston Respublikasi 30.11.2021-yildagi O’RQ-733-sonli “Suv va suvdan foydalanish

to‘g‘risida”gi Qonuni. [Elektron resurs]. https://lex.uz/docs/-5748712

2.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 2 iyuldagi PQ-3818-sonli “O‘zbekiston Respublikasining tashqi iqtisodiy faoliyatini yanada tartibga solish hamda bojxona-tarif jihatdan tartibga solish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” Qarori. [Elektron resurs]. https://lex.uz/docs/-3802363

3.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 10 iyuldagi PF-6024-sonli “O‘zbekiston Respublikasi suv xo‘jaligini rivojlantirishning 2020 — 2030-yillarga mo‘ljallangan konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” Farmoni. [Elektron resurs]. https://lex.uz/docs/-4892953

4.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 23 iyundagi PF-199-sonli “Respublikada yashillik darajasini yanada oshirish, “Yashil makon” umummilliy loyihasini izchil amalga oshirish orqali ekologik barqarorlikni ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida” Farmoni. [Elektron resurs]. https://lex.uz/ru/docs/-6673808

5.O’zbekiston Respublikasi 28.01.2022-yil PF-60-sonli “2022-2026- yillarga mo’ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi”. [Elektron resurs]. https://lex.uz/uz/docs/-5841063

6.O’zbekiston Respublikasi 11.09.2023-yil PF158-sonli “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi. [Elektron resurs]. https://lex.uz/ru/docs/-6600413

7.Jahon banki. Markaziy Osiyo suv resurslari bo‘yicha tahliliy hisobotlar.

8.UNECE. *Third Environmental Performance Review of Uzbekistan*.

9.BMT Bosh Assambleyasi rezolyutsiyalari (72-, 75- va 78-sessiyalar).

SANOAT CHIQINDILARINING ATROF-MUHIT VA INSON SALOMATLIGIGA KOMPLEKS TA’SIRI HAMDA ULARNI KAMAYTIRISHNING ZAMONAVIY TEXNOLOGIK YECHIMLARI

Rahimova Mushtariyxon Sadriddinovna
Adizova Nargiza Zamirovna
Buxoro davlat Texnika universiteti

Anatatsiya: Mazkur maqolada sanoat chiqindilarining atmosfera, suv va tuproq muhitiga kompleks ta’siri ilmiy asosda tahlil qilinadi. Ayniqsa, og‘ir metallar, zaharli gazlar va kimyoviy birikmalarning inson salomatligiga salbiy ta’siri ochib beriladi. Sanoat faoliyati natijasida yuzaga kelayotgan ekologik muammolar hamda ularning ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlari yoritiladi. Shuningdek, chiqindilarni kamaytirish va zararsizlantirishning zamonaviy texnologik usullari, jumladan filtrlash, biologik tozalash va qayta ishlash jarayonlari ko‘rib chiqiladi. Ekologik monitoring va nazorat mexanizmlarining ahamiyati asoslab beriladi. Maqolada barqaror rivojlanish tamoyillari asosida sanoat chiqindilarini boshqarish bo‘yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Kalit so‘zlar: *Sanoat chiqindilari, atrof-muhit ifloslanishi, ekologik xavfsizlik, og‘ir metallar, zaharli gazlar, atmosfera ifloslanishi, oqova suvlar, tuproq degradatsiyasi, zamonaviy tozalash texnologiyalari, qayta ishlash, ekologik monitoring, barqaror rivojlanish.*

Sanoat chiqindilari zamonaviy industrial jamiyatning eng dolzarb ekologik muammolaridan biri hisoblanadi. Sanoat korxonalari faoliyati natijasida atmosfera, suv va tuproq muhitiga turli zararli moddalar ajralib chiqadi. Ushbu chiqindilar tarkibida og‘ir metallar, zaharli gazlar va kimyoviy birikmalar mavjud bo‘ladi. Atmosferaga chiqariladigan gazlar orasida karbonat angidrid, oltingugurt dioksidi va azot oksidlari keng tarqalgan. Bu gazlar havo sifatini yomonlashtiradi va inson salomatligiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Havoning ifloslanishi nafas yo‘llari kasalliklari va allergik holatlarning ortishiga sabab bo‘ladi. Sanoat hududlariga yaqin joylarda yashovchi aholi ko‘proq xavf ostida qoladi. Suv havzalariga tashlanadigan oqova suvlar ekologik muvozanatni buzadi. Oqova suvlar tarkibida qo‘rg‘oshin, simob va kadmiy kabi og‘ir metallar uchraydi. Ushbu moddalar tirik organizmlar tanasida to‘planish xususiyatiga ega.

Tuproqning sanoat chiqindilari bilan ifloslanishi uning unumdorligini pasaytiradi. Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining sifati ham zarar ko‘radi. Ifloslangan tuproqda yetishtirilgan mahsulotlar inson salomatligiga xavf tug‘diradi. Sanoat chiqindilarining ta’siri uzoq muddat davomida namoyon bo‘ladi. Ba’zi kimyoviy birikmalar yillar davomida parchalanmaydi. Bu esa ekologik barqarorlikka jiddiy tahdid soladi. Chiqindilarni kamaytirish zamonaviy texnologiyalarni joriy etishni talab qiladi.

Gazlarni tozalash uchun maxsus filtrlash qurilmalari qo‘llaniladi. Elektrofiltrlar va siklon uskunalari chang zarrachalarini ushlab qoladi. Kimyoviy absorberlar zararli gazlarni neytrallash imkonini beradi. Oqova suvlarni tozalashda biologik usullar samarali hisoblanadi. Mikroorganizmlar yordamida zararli moddalar parchalanadi. Membranali texnologiyalar suvni chuqur tozalash imkonini beradi. Qattiq chiqindilarni qayta ishlash ekologik yuklamani kamaytiradi. Qayta ishlash natijasida xomashyo va energiya tejaladi. Chiqindidan energiya olish texnologiyalari ham keng qo‘llanilmoqda. Bu usul chiqindilar hajmini kamaytirish bilan birga qo‘shimcha energiya manbai yaratadi. Ekologik monitoring tizimi muhim ahamiyatga ega. Maxsus sensorlar va laboratoriyalar ifloslanish darajasini nazorat qiladi.

Davlat nazorati va ekologik standartlar chiqindilarni cheklashga xizmat qiladi. Korxonalar ekologik auditdan o‘tishi zarur. Ekologik madaniyatni oshirish ham muhim omildir. Aholi va ishlab chiqaruvchilar ekologik mas’uliyatni his qilishi kerak. Barqaror rivojlanish tamoyillari sanoat siyosatining asosiga aylanishi lozim. Yashil texnologiyalarni qo‘llash chiqindilar miqdorini kamaytiradi. Qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish zararli chiqindilarni kamaytirishga yordam beradi. Innovatsion yondashuvlar sanoat samaradorligini oshiradi. Ilmiy tadqiqotlar yangi ekologik xavfsiz materiallarni yaratishga qaratilgan. Xalqaro hamkorlik ekologik muammolarni hal qilishda muhim rol o‘ynaydi. Rivojlangan davlatlar tajribasi samarali boshqaruv tizimini shakllantirishga yordam beradi. Sanoat chiqindilarini kompleks boshqarish tizimi joriy etilishi zarur. Har bir korxona chiqindilarni kamaytirish strategiyasini ishlab chiqishi kerak. Atrof-muhitni muhofaza qilish kelajak avlodlar oldidagi mas’uliyatdir. Ekologik xavfsizlikni ta’minlash iqtisodiy taraqqiyot bilan uyg‘un holda olib borilishi lozim. Shu orqali sanoat rivoji va tabiat muvozanati o‘rtasida barqarorlikka erishish mumkin.

Tuproqning mexanik tarkibi. Tuproqni teksturasi bo‘yicha tasniflashning xalqaro tizimlari bir-biridan biroz farq qiladi. Biroq ularning barchasida tuproq zarralari kattaligining yuqori chegarasini aniqlash “gil” bilan bog‘liq ravishda amalga oshiriladi va uning kattaligi odatda 0,002 mm qabul qilinadi.

Laboratoriya tahlillari natijalari asosida, zarrachalar foizlarining uchburchak diagrammada kesishgan nuqtasiga ko‘ra muayyan tuproqning turini oson aniqlash mumkin.

Tajriba tizimi 2 variant va 3 takrorlikdan iborat bo‘lib, har bir variantning hajmi 4,8 x100m=480 m^2 ni tashkil qilib, 1 yarusda joylashtirildi. 1-tajribaning umumiy yer maydoni 0,4 ga ni tashkil qiladi (3-jadval). 1 variantda g‘o‘zani egatlab sug‘orish nazorat va 2 variant esa tajriba qo‘sh qatorlab ekilgan g‘o‘zani tomchilatib sug‘orish.

Misol uchun tahlillar natijalariga ko‘ra, tuproq tarkibidagi loy zarralari 30%, qum zarralari 40% bo‘lib, ular o‘zaro qo‘shilganda og‘ir loy yuzaga keladi. Mazkur zarralarning digrammada joylashgan kesishgan nuqtasi qizil rang bilan belgilangan. Demak, o‘rganilayotgan tuproq tarkibida loy bo‘lgan qumoq tuproq deb baholanadi.

1-jadval

Tuproqlarni tasniflash ko‘rsatkichlari

Tuproq sinfi	**Fizik loy (%)**
Loy	> 60
Og‘ir soz tuproq	45-60
O‘rta soz tuproq	30-45
Yengil soz tuproq	20-30
Qumoq	10-20
Qum	< 10

Tajriba uslubi. Tajriba qo'yishdan oldin tajriba dalasida cheklangan dala nam sig'imi (ChDNS) Nesterov usulida aniqlanadi. Shuningdek, amal davrining boshida va amal davrining oxirida 0-30; 30-50 sm qatlamlaridagi tuproqning xajm massasi silindr yordamida, donadorligi G.I.Pavlov usulida, umumiy g'ovaklikgi N.A.Kochinskiy usulida, birinchi yili tuproqdagi namlik barcha variantlarda ham sug'orish oldidan 0-10, 10-20, 20 30, 30-50, 50-60, 60-70, 70-80, 80-90, 90-100 sm qatlamlardan tuproq namunalari olinib termostatda quritish va tarozida tortish usulida aniqlandi.

2-jadval

Tajriba tizimi

G‘o‘zani sug‘orish usullari va takrorliklar	ChDNS ga nisbatan tuproqning sug‘orish oldi namligi, %	Tuproqning hisobiy qatlami, m
1-variant, 1-takrorlik. G‘o‘zani egatlab sug‘orish (nazorat).	75-75-70	75-100-75
2-variant, 1-takrorlik. Qo‘sh qatorlab ekilgan g‘o‘zani tomchilatib sug‘orish		50-50-50
1-variant, 2-takrorlik. G‘o‘zani egatlab sug‘orish (nazorat).		75-100-75
2-variant, 2-takrorlik. Qo‘sh qatorlab ekilgan g‘o‘zani tomchilatib sug‘orish.		50-50-50
1-variant, 3-takrorlik. G‘o‘zani egatlab sug‘orish (nazorat).		75-100-75
2-variant, 3-takrorlik. Qo‘sh qatorlab ekilgan g‘o‘zani tomchilatib sug‘orish.		50-50-50

Tuproqning agrofizik xususiyatlaridan, hajm massasi va g'ovakligi 0-70 sm qatlamida, amal davri boshida va oxirida barcha variantlardan hajmi 500 sm^3 bo'lgan metall silindr yordamida, har 10 sm qatlamda N.A.Kachinskiy usulida aniqlandi; -tuproq namligini o'zgarishi termostat tarozi usulida har bir sug'orishdan oldin 0 100 sm chuqurlikning har 10 sm qatlamidan namunalar olinib aniqlandi;

-tuproqning suv o'tkazuvchanligi amal davri boshida va oxirida kvadrat rom yordamida 6 soat davomida har bir variantda alohida S.I.Dolgov va S.N.Rijov usulida aniqlandi.

- Sug'orish oldidan tuproq namligini aniqlash uchun 0-50, 0-70, 0-100 sm li tuproq qatlamlarining har 10 sm dan burg'u yordamida tuproq namunalari olindi. Tuproq namligini aniqlashda tuproq namunalarini tarozida tortish va termostatda quritish yo'li bilan aniqlandi.

Namlikni aniqlashda g'o'za shonalagunga qadar 0-50 sm, gullash davrida 0-70 sm, hosil tugish va ko'saklash davrida 0-100 sm li tuproq qatlamlaridan olib borildi. Shuningdek, hosil pishish davrida esa 0-70 sm gacha qatlamda aniqlandi. Namlikni aniqlash nam o'lchagich apparat yordamida yoki burg'u yordamida tuproq namunalari olinib tarozida tortish va termostatda quritish yo'li bilan aniqlandi. Tajriba variantlaridagi suv sarfini o'lchash va hisob-kitoblari suv kirish ostonasi 50 sm li, chiqish 25 sm li “Chipoletti” suv o'lchagichlari yordamida amalga oshirildi.



1-rasm. Tuproqning tarkibini aniqlashning uchburchak diagrammasi.

G'o'zani sug'orish tartibini o'rganish va uni qo'llash bo‘yicha tavsiyalarni ishlab chiqish davomida hal etilishi kerak bo'lgan asosiy masalalardan biri, bu tuproqda sug'orish oldi namligi eng kam nam sig'imida bo'lib, bu navbatdagi sug'orishni amalga oshirishni taqazo etadi. G'o'zani sug'orish davrida fazalariga mos ravishda suvni har xil miqdorda iste'mol qiladi, shuning uchun rivojlanishining har bir o'tash fazasi davrlariga tuproq sharoitlarini hisobga olgan holda muayyan sug'orish tizimi o'rnatiladi (S.X.Isaev 2017 y).

Qator tadqiqotchi olimlarning ishlarida turli oziqlantirish me'yorlari hamda har xil tuproq namligida parvarish qilingan g'o'za navlarining o'sishi va rivojlanishi, hosil to'plashi, quruq modda (organik modda) hosil bo'lishi va boshqa ko'rsatkichlari navlarning biologik hususiyatlariga bog'liqligi qayd etilgan.

Masalan, M.Hamidov va boshqalarning Xorazm viloyatining mexanik tarkibi og'ir qumoq o'tloqi tuproqlarida o'tkazgan tadqiqotlari natijasi bo'yicha quyidagi xulosaga kelgan: suv resurslaridan samarali foydalanilgan holda yuqori darajada paxta hosili olish uchun tuproqning sug'orishdan oldingi maqbul namligi ChDNS ga nisbatan 70-80-60% ni tashkil etish kerak. Bu maqbul tartibda 1-3-0 tizimi bo'yicha 4 marta, sug'orish me'yori gullashgacha 900-950 m^3/ga, mavsumiy sug'orish me'yori 4200 m^3/ga ga teng bo'lgan.

Dala nam sig'imi tuproqning mexanik tarkibi, makro va mikroagregatlar, agrofizik va agrokimyoviy, suv-fizik xossalariga bog'liq bo'lgan eng muhim tuproq xususiyatlaridan biridir.

Taxlil va hisob-kitoblarga ko'ra, tajriba dalasining 0-50 sm li tuproq qatlamidagi dala nam sig'imi 2021 yilgi tajribada 24,0; 0-70 sm li qatlamida 23,9; 0-100 sm li qatlamida 23,9; 2022 yilda tegishli ravishda 24,0; 24,0; 24,1% ni tashkil etdi. Tadqiqot vazifalarini bajarishda sug'orish oldi tuproq namligi va sug'orish me'yorlarini aniqlash ishlari dala nam sig'imining shu ko'rsatkichlari asosida olib borildi.

3-jadval

Tajriba dalasi tuprog'iningdala nam sig‘imi, %

Yillar	Dala nam sig‘imi, %		
	0-50 sm	0-70 sm	0-100 sm
2021	24,0	23,9	23,9
2022	24,0	24,0	24,1

Agrotadbirlarni tuproq namligiga ta'siri o'rganilganda 2022-2023 yillarda o'tkazilgan

tajribalardagi sug'orish tartiblari va kompleks ta'sir etuvchi preperat va ma'dan o'g‘itlarning me'yorlarida (NRK-150-105-75 kg/ga) Sulton g'o'za navini o'g'itlash bilanbirga g'o'zani shonalash fazasida gektariga 5 l dan preparat qo'llanilgan variantlarda g'o'za qator oralarida tuproq namligini uzoqroq saqlashda, g'o'zaning o'sish va rivojlanishida, muhim ahamiyat kasb etdi.

Tajribalarda har yili chigit ekish davridan boshlab Sulton g‘o‘za navini ma'dan o'g'itlarni NPK 200-140-100 kg/ga me'yorlarda oziqlantirilgan nazorat varianti va Bioenergiya-M biopreparati bilan ishlov berilgan variantlarda har 5 kunda tuproq namligi kuzatib borildi. Masalan, 2022 yili ChDNSga nisbatan 60% sug‘orish tartibida 1-suv oldidan aniqlangan tuproq namligi 22.05 kuni 19,1% tashkil etgan holda, dala nam sig'imi 79,6% ni tashkil qildi. 16 kun ichidagi tuproq namligini bug'lanishi kuniga o‘rtacha 0,55% ni tashkil qilib, 7.06 kuni 17,0% tuproq namligida dala nam sig'imi 70,8% ni tashkil qildi. Shu kuni g‘o‘za qator oralariga suv berish boshlandi, 2022 yildagi shu variantlarda tuproq namligini bug'lanishi kuniga o'rtacha 1,3% ni tashkil qilib, 1.06 kuni 16,2% tuproq namligi va 69,2% dala nam sig‘imida birinchi suv berish boshlandi.

Bioenergiya-M kompleks ta'sir etuvchi biopreparati Ma'dan o‘g‘itlarni NPK 150 105-75 kg/ga me'yorlarda qo'llanilgan 2-3 varianlarda g‘o‘zani chinbarg, shonalash va gullash fazalari oldidan purkalganligi sababli birinchi suv oldidan aniqlangan tuproq namligida gektariga NPK 200-140-100 kg/ga ma'dan o‘g‘itlar me'yorida oziqlantirilgan nazorat variant bilan o‘zaro farqlar kuzatilmadi (2 va 3 variant), bir vaqtda sug‘orildi va bir xil miqdorda suv sarflandi.

4-jadval

Agrotadbirlarni tuproq namligiga ta'siri, 2022 yil

Variantlar	**Ko'rsatkichlar**	**Kuzatuvlar soni**				
		ChDNS ga nisbatan 60-70-60 %				
		1	**2**	**3**	**4**	**5**
1-suv oldidan						
2-variant	Kuzatuv kunlari Tuproq namligi, %	27,05	2,09	7,06	12,06	17,06
	ChDNS ga nisbatan namlik, %	18,8	17,9	16,7	15,6	14,2
		78,3	74,0	69,6	65,0	59,2
3-variant	Kuzatuv kunlari Tuproq namligi, %	27,05	2,09	7,06	12,06	17,06
	ChDNS ga nisbatan namlik, %	18,8	17,9	16,7	15,6	14,2
		78,3	74,0	69,6	65,0	59,2
4-variant	Kuzatuv kunlari Tuproq namligi, %	11,06	17,06	23,06	28,06	3,07
	ChDNS ga nisbatan namlik, %	17,0	16,0	15,0	15,0	14,6
		70,8	66,6	64,6	62,0	60,8
2-suv oldidan						
2-variant	Kuzatuv kunlari Tuproq namligi, %	20,7	70,7	12,07	-	-
	ChDNS ga nisbatan namlik, %	18,9	17,9	16,7	-	-
		78,7	74,6	69,6	-	-
3-variant	Kuzatuv kunlari Tuproq namligi, %	27,05	2,09	7,06	12,06	17,06
	ChDNS ga nisbatan namlik, %	18,8	17,9	16,7	15,6	14,2
		78,3	74,0	69,6	65,0	59,2
4-variant	Kuzatuv kunlari Tuproq namligi, %	27,05	2,09	7,06	12,06	17,06
	ChDNS ga nisbatan namlik, %	18,8	17,9	16,7	15,6	14,2
		78,3	76,7	74,2	72,5	69,6

Ma'dan o‘g‘itlar NPK qo‘llanilmagan hamda biopreparatni fonda qo'llanilgan 4 variantda g‘o‘zalar ChDNSga nisbatan 60% sug‘orish tartibida sug'orilgan variantlarda tuproq namligini saqlanishi va bug‘lanish dinamikasi boshqa varintlarga nisbatan keskin farq qilib, tuproq namligini uzoqroq saqlanishi va suv sarfini kamayishida muhim omilbo‘ldi. Masalan, 2021 yilgi tajribada tuproq namligini dastlabki 1.06 kungi aniqlashda 18,9% tashkil etgan holda, dala nam sig‘imi 78,7% ni tashkil qildi. Bu variantda kuzatuv 20 kunga davom etib, tuproq namligini bug‘lanishi kuniga o'rtacha 0,41% ni tashkil qilib, g'o'za navlariga 20.06 kuni 16,9% tuproq namligi va 70,4% dala nam sig‘imida birinchi suv berildi.

Tajribada (2022 yil) ma'dan o‘g‘itlar NPK 150-105-75 kg/ga qo'llanilgan 60% sug‘orish

tartibidagi variantlarda tuproq namligini bug'lanishi kuniga o'rtacha 0,44% ni tashkil qilib, g'o'za navlariga 17.06 kuni 16,9% tuproq namligi va 70,4% dala nam sig‘imida birinchi suv berildi. Xuddi shunday qonuniyatlar g‘o‘zani 2-suvida ham qayd etildi. Masalan, 2022 yil sharoitda g‘o‘za navlari shonalash davrida ma'dan o‘g‘itlarni NPK 150-105-75 kg/ga me'yorlarida bioenergiya-M preparati bilan birga oziqlantirilganda variantlarda 2-suv oldidan aniqlangan tuproq namligiga qaraganda, tuproq namligini bug'lanishi kuniga o'rtacha 0,53% ni tashkil qilib, g'o'za navlariga 7.06 kuni 17,0% tuproq namligi va 70,4% dala nam sig'imida ikkinchi suv berildi. Birinchi suv bilan ikkinchi suv oralig'i 25 kunni tashkil qildi. 2022 yil sharoitda shu variantlarda ikkinchi suv oldidan aniqlangan tuproq namligiga qaraganda, tuproq namligini bug‘lanishi kuniga o'rtacha 0,67% ni tashki qilib, g'o'zaga 23.06 kuni 17,0% tuproq namligida va 70,4% dala nam sig'imida ikkinchi suv berildi. Ikkinchi suv oldidan tuproq namligini yuqorida qayd etilgan variantlarda bug'lanishi kuniga o'rtacha 0,32% ni tashkil qilib, 14.07 kuni 16,7% tuproq namligi va 69,9% dala nam sig‘imida ikkinchi suv berildi. Shunday qilib, ma'dan o‘g‘itlarni NPK 150-105-75 kg/ga qo‘llanilgan va biopreparat bilan ishlov berilgan variantlarda ikkinchi suv oldidan tuproq namligini kunlik bug'lanishi o'rtacha 2 yilda 0,38 % ni tashkil etdi. Ushbu variantlarda bug'lanishi kuniga o'rtacha 0,41% ni tashkil qilib, g'o'zaga 5.07 kuni 16,9% tuproq namligi va 70,4% dala nam sig'imida suv berildi. Birinchi suv bilan ikkinchi suv oralig'i 26 kunni tashkil qildi. Demak, sug‘orish muddati odatdagi ma'dan o‘g‘itlarni NPK 200-140-100 kg/ga me'yorlarda oziqlantirilgan nazorat variantga nisbatan 10 kunga uzayganligi ma'lum bo'ldi.

5-jadval

O‘rtacha ko‘p yillik ob-havo ma’lumotlari asosida hisoblangan paxtani prognoz sug‘orish tartibi

Ko‘rsatkichlar	Aprel	May	Iyun	Iyul	Avgust	Jami
Sug‘orish me’yori, mm			22	20	22	
Sug‘orishlar o‘rtasidagi davr, kun	60,6	31,5	13,4	7,0	12,2	
Bir oy davomidagi sug‘orishlar soni			2,2	4,4	2,5	9
Bir oy davomidagi sug‘orish me’yori,mm			49	89	57	195

Shunday qilib, g'o'zani shonalash davrida ma'dan o‘g‘itlarni NPK 150-105-75 kg/ga me'yorlarida kompleks ta'sir etuvchi preparat bilan birga qo'llanilgan variantlarda ikkinchi suv oldidan aniqlangan tuproq namligini bug'lanishi o'rtacha 0,54% ni tashkil etdi.

Barcha tajriba yillarida ma'dan o‘g‘itlarni gektariga NPK 200-140-100 kg/ga me'yorida oziqlantirilgan nazorat variantlarda tuproq namligining kunlik bug'lanishi 0,88-0,96% tashkil etib, mavsum davomida sug'orish oralig'i 2021 yili 21-25 kun, 2022 yili 18 27 kunni tashkil etdi. 2022 yil sharoitida ma'dan o‘g‘itlarni 25 foizga kamaytirilgan me'yorlari qo‘llanilib, qo‘shimcha ravishda preparat solingan hamda g'o'zani tartibida sug'orilgan variantlarda ikkinchi suv oldidan tuproq namligini bug'lanishi kuniga o'rtacha 0,35% ni tashkil qilib, g'o'zaga 14.07 kuni 16,7% tuproq namligi va 69,9% dala nam sig'imida ikkinchi suv berildi. 2022 yili shu variantlarda tuproq namligini bug'lanishi kuniga o'rtacha 0,46% ni tashkil qilib, g'o'zaga 14.07 kuni 16,7% tuproq namligi va 69,9% dala nam sig‘imidai ikkinchi suv berildi.

Tomchilatib sug‘orish bo‘yicha bajarilgan hisob-kitoblarda qishloq xo‘jalik ekinlarini boshlang‘ich rivojlanish davrlarida evapotranspiratsiya miqdorini qabul qilishda o‘simlik barglaridan bo‘ladigan transpiratsiya 70 % va fizik bug‘lanish miqdori esa 30 %, keyingi rivojlanish davrlarida esa transpiratsiya 88 % va fizik bug‘lanish esa 12 % qabul qilingan. Shuningdek aeratsiya zonasidagi sizot suvlarining (kapilyar ko‘tarilish) miqdori ham hisobga olingan.

Sizot suvlaridan kapilyar ko‘tarilishini hisobga olishda tuproqning mexanik tarkibiga bog‘liq holda sizot suvlari oqimining yuqoriga ko‘tarilish tezligi FAO bo‘yicha qabul qilindi.

FAO “Qo‘llanmasi” da o‘simlikning ildiz tizimi joylashgan qatlamga sizot suvlarining ko‘tarilishi bo‘yicha tadqiqotlar grafiklari, shuningdek, O‘zbekistonda va qo‘shni Respublikalarda o‘tkazilgan lizimetriktadqiqot ma’lumotlarga asosan 2 (qumoq), 7 (qumlashgan soz tuproq), va 5 (loy) egri chiziq bog‘lanishlari qabul qilindi.

4-jadval

Sug‘orish texnologiyasi elementlari

Parametrlar	Sug’orish usuli	Nishablik	Tomchilatish shlangi orasidagi masofa, m		Tuproq qatlami-ning namla-nish, sm	Tomchilatish shlangidagi suv sarfi, l/s		Tomchilatish shlangidagi tomizgichlar orasidagi masofa, m	Tomchilatish shlangidagi bir xil namlanish faktori, %
1	Sug’orish	0,004 - 0,003	0,6	0,9	60-100-60	-	-	-	0,71
2	Tomchilatib sug’orish		0,6	0,9	40-60-40	1,6	2,2	0,2	0,99
								0,3	0,97
								0,4	0,89
3	Tomchilatib sug’orish		0,6	0,9	40-40-40	1,6	2,2	0,2	0,99
								0,3	0,96
								0,4	0,88
4	Tomchilatib sug’orish		0,6	0,9	60-60-60	1,6	2,2	0,2	0,99
								0,3	0,96
								0,4	0,88

Yer osti suvlarining ko‘tarilishini aniqlashda uning chuqurligi ildiz qatlami quyi chegarasidan, tuproqning kapillyarlik xususiyati va ildiz qatlamidagi tuproq namligining tarkibi bilan aniqlanadi. 5-jadvalda Farg’ona viloyati metiostansiyasining o‘rtacha ko‘p yillik ob-havo ma’lumotlari asosida moslashtirilgan FAO metodikasi bo‘yicha hisoblangan qishloq xo‘jalik ekinlarini sug‘orishni tavsiya qilingan sug‘orish tartibi natijalari keltirilgan.

G‘o‘zani yetishtirish bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar davomida fenologik kuzatuv va tahlillar o‘tkazildi.

Dala sharoitida sug‘oriladigan maydonning xar bir nuqtasidagi tomchilatib sug‘orish shlanglaridan tomadigan suv miqdori bir soat mobaynida maxsus idishlar yordamida o‘lchash yordamida aniqlanadi:

1 ga maydonda 246 911 dona paxta niholi unib chiqishi kerak (1 metrda 12 dona, xar 9 smda qo’sh qatorda 2 dona),

1 soatda 1 dona tomchilagichdan o’rtacha 1÷1,7 l/soat suv tomadi,

1 dona tomchilagichdan 8 dona paxta ko‘chati suv bilan ta’minlanadi,

1 gektar maydonga 1 soatda 37÷50 m^3 suv sarflanadi,

Sug‘orish davomiyligi g‘o‘zani o‘suv fazasiga qarab 4-8 soat mobaynida amalga oshiriladi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, agrotadbirlarni tuproq namligiga ta'siri bo'yicha olingan tajriba natijalariga ko'ra, 2023 yilgi sharoitda g'o'zani shonalash davrida ma'dan o'g'itlarni NPK 150-105-75 kg/ga me'yorlarida 3-variantda, sug'orish muddatlari 1-2-suvda odatdagi ma'dan o‘g‘itlarni NPK 200-140-100 kg/ga me'yorlarda oziqlantirilgan nazorat variantga nisbatan 10-12 kunga uzayishi kuzatildi. G'o'zani sug'orish muddatlari odatdagi ma'dan o‘g‘itlarni NPK 200-140-100 kg/ga me'yorlarda oziqlantirilgan nazorat variantga nisbatan ma'dan o‘g‘itlarni NPK 150-105-75 kg/ga me'yorlarda kompleks ta'sir etuvchi biopreparat bilan o'g'itlangan variantlarda 19-25 kunga uzayganligi aniqlandi. Ikkinchi suv bilan uchinchi suv oralig'i tegishli ravishda 28 va 35 kunga uzayishi kuzatildi. Keyingi suvlarda ham preparat qo'llanilgan variantlarni ijobiy ta'siri yuqori bo‘lib, yuqori paxta hosili yetishtirishni ta'minladi. Tajribani boshlanishida (2022 y.) tuproq tarkibidagi gumus, umumiy azot va yalpi fosfor miqdorlarini aniqlash maqsadida bahorda 5 nuqtadan tuproqning haydov va haydov osti 0-30 va 30-50 sm qatlamlaridan namunalari olinib, gumus miqdori I.V.Tyurin usulida, tuproqdagi azot va fosforning xarakatchan formasi V.P.Machigin usulida, tuproqdagi azot va fosforning umumiy miqdorlari L.P.Gritsenko, I.M.Malseva va Ye.A.Jarkova uslubi bo‘yicha aniqlandi.

FOYDALANIGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 04.10.2019 yildagi “2019 — 2030-yillar davrida O‘zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o‘tish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PQ-4477-son qarori;

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 2-dekabrdagi “2030-yilgacha O‘zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o‘tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-436-son qarori;

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 01.04.2023 yildagi PQ-107-son “Suv resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish bo‘yicha kechiktirib bo‘lmaydigan chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori;

4. V.A.Duxovnыy. Капельное орошение–перспективы и препятствия. Сборник научных трудов по капельному орошению.// Сборник научных трудов по капельному орошению. Toshkent, 1995 y. 3-12 b.

5. M.G.Xorst., R.K.Ikramov. Основные принципы районирования орошаемых земель Узбекистана по применимости капельного орошения. Сборник научных трудов по капельному орошению. Toshkent, 1995 y. 13-24 b.

6. Ibragimov Sh.I., Bezborodov G.A., Kamilov B.S. Ресурсосберегающая технология возделывания хлопчатника при капельном орошении// Хлопководство. Toshkent, 1994 y. № 1 (2). 16-18 b.

7. Erkinov A. IMPROVEMENT OF CROP CONDITION AND ACCEPTABLE IRRIGATION ELEMENTS THROUGH DRIP IRRIGATION TECHNOLOGIES. – 2025.

8. Erkinov, A., Urazkeldiyev, A., Improvement of the technical elements of cotton drip irrigation and studying the amount of moisture in the fieldInternational Scientific Journal SCIENCE AND INNOVATION Series D. https://dspace.kstu.uz/xmlui/handle/123456789/1388

9. Erkinov A., Urazkeldiyev A. G‘O‘ZANI TOMCHILATIB SUG‘ORISHDA DALANING TUPROQ UNUMDORLIGINI OSHIRISH VA MAQBUL SUG‘ORISH ELEMENTLARINI TAKOMILLASHTIRISH. – 2024.

10.https://www.care2.com/greenliving/20-ways-to-conserve-water-at-home.html (water saving technologies).

11.http://agriculture.vic.gov.au/agriculture/farm-management/soil-and-water/irrigation/about-irriga-tion (Cotton irrigation procedures used in developed countries).

12.http://www.fao.org/land-water/databases-and-software/aquacrop/en/ (2017).

IQLIM O’ZGARISHI VA GLOBAL ISISH MUAMMOSI

Adizova .N.Z, Jo’rayev. F. Z
Buxoro davlat texnika universiteti

Anotatsiya. Ushbu maqolada hozirgi kunda sodir bo’layotgan eng katta muammolardan biri ya’ni iqlim o’zgarishi haqida fikr yuritiladi. Katta muammolar barchasi xavfli lekin, iqlim o’zgarishi global isish bu barcha davlatlarda shuningdek O’zbekistonga ham ta’sir etmay qolmaydi. Bu barcha davlatlar iqtisodiga, qishloq xo’jaligiga va transport tashqi aloqalariga ta’sir etmasdan qolmaydi.

Kalit so‘zlar: *global isish, iqlim o’zgarishi, antropogen ta’sir, o’rta osiyo iqlimi, atmosfera harorati, muzliklarni erishi, ekologik oqibatlar, qishloq xo’jaligi*.

Kirish. Global isish hozirgi davrning eng dolzarb ekologik muammolaridan biri hisoblanadi. Tadqiqotlarga ko‘ra, 1895–1995-yillar oralig‘ida Yer yuzasidagi o‘rtacha kunlik harorat taxminan 1°C ga oshgan. Olimlar bu jarayonning asosiy sabablari sifatida inson faoliyati natijasida yuzaga kelayotgan ekologik o‘zgarishlar va tabiiy iqlim jarayonlarini ko‘rsatib o‘tadilar. Global isish natijasida dovullar sonining ortishi, qutb muzliklarining erishi va dengiz sathining ko‘tarilishi kabi salbiy oqibatlar yuzaga kelishi mumkin. Shuningdek, ob-havoning isishi bezgak kabi ayrim tropik kasalliklarning keng tarqalishiga ham sabab bo‘lishi ehtimoli mavjud.

Mavzuni dolzarbligi. Bugungi kunda global iqlim o‘zgarishi butun dunyo uchun eng dolzarb ekologik muammolardan biridir. Iqlimning isishi natijasida qutb muzliklari erishi, dengiz sathining ko‘tarilishi, dovullar va ekstremal ob-havo hodisalari sonining ortishi kuzatilmoqda. Bu jarayonlar qirg‘oqbo‘yi hududlarni suv ostida qoldirishi, suv resurslarini kamaytirishi, tropik va subtropik kasalliklar tarqalishini kuchaytirishi mumkin. Shuningdek, o‘rta kengliklarda qishloq xo‘jaligi va suv ta’minotiga jiddiy ta’sir ko‘rsatadi. Shu sababli iqlim o‘zgarishini o‘rganish, uning oqibatlarini

baholash va samarali chora-tadbirlar ishlab chiqish bugungi kunda dolzarb vazifa hisoblanadi.

Asosiy qism. Iqlimning tabiiy o‘zgarishlari geologik tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, iqlimning tabiiy evolyusiyasi asosan Yerning tektonik harakatlari, vulqon faoliyati va kosmik omillar bilan bog‘liq. Kaynozoy erasi davomida atmosfera tarkibidagi uglerod angidridi miqdori tabiiy ravishda kamaygan va bu global sovishning sababi bo‘lgan. Shu bilan birga, Yerning kosmik fazodagi holatining o‘zgarishi – ekssentrisitet, Yer o‘qining qiyaligi kabi astronomik omillar ham muzlash va isish davrlariga ta’sir ko‘rsatadi. Inson faoliyati iqlimga sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. Buning asosiy yo‘llari quyidagilardan iborat: sanoat va energetika rivojlanishi, yoqilg‘i iste’moli, atmosfera tarkibidagi uglerod angidridi va aerozol miqdorining ortishi, o‘rmon kesish, suv omborlari qurilishi, shaharlashuv va qishloq xo‘jaligini intensivlashtirish. Natijada XXI asrda global haroratning 0,6–3,9°C ga o‘sishi, qutb muzliklarining erishi va dengiz sathining ko‘tarilishi kutilmoqda. Bu jarayonlar ekstremal ob-havo hodisalarini kuchaytiradi, suv resurslarini kamaytiradi, qishloq xo‘jaligi va ekologik tizimlarga zarar yetkazadi. Shu bilan birga, o‘rta kengliklarda ba’zi ekinlar hosildorligi ortishi, qish davrida energiya sarfi kamayishi kabi ijobiy oqibatlar ham yuzaga kelishi mumkin.Iqlim o‘zgarishining O‘rta Osiyoga ta’siri.O‘rta Osiyo mintaqasida iqlim o‘zgarishi sovuq va jazirama yozlarni kuchaytiradi, yomg‘irlar kamayadi, qurg‘oqchilik xavfi ortadi.Iqlimning antropogen o‘zgarishlari.Inson faoliyati iqlimga sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. Buning asosiy yo‘llari quyidagilardan iborat: sanoat va energetika rivojlanishi, yoqilg‘i iste’moli, atmosfera tarkibidagi uglerod angidridi va aerozol miqdorining ortishi, o‘rmon kesish, suv omborlari qurilishi, shaharlashuv va qishloq xo‘jaligini intensivlashtirish. Natijada XXI asrda global haroratning 0,6–3,9°C ga o‘sishi, qutb muzliklarining erishi va dengiz sathining ko‘tarilishi kutilmoqda. Bu jarayonlar ekstremal ob-havo hodisalarini kuchaytiradi, suv resurslarini kamaytiradi, qishloq xo‘jaligi va ekologik tizimlarga zarar yetkazadi. Shu bilan birga, o‘rta kengliklarda ba’zi ekinlar hosildorligi ortishi, qish davrida energiya sarfi kamayishi kabi ijobiy oqibatlar ham yuzaga kelishi mumkin. Iqlim o‘zgarishining O‘rta Osiyoga ta’siri. O‘rta Osiyo mintaqasida iqlim o‘zgarishi sovuq va jazirama yozlarni kuchaytiradi, yomg‘irlar kamayadi, qurg‘oqchilik xavfi ortadi.

Xulosa. Iqlim o‘zgarishi – global miqyosdagi murakkab va ko‘p omilli muammo bo‘lib, uning tabiiy va antropogen sabablarini aniqlash muhimdir. Tabiiy omillar – Yerning tektonik harakatlari, kosmik fazodagi holat, vulqon faoliyati iqlimning uzoq davrlik o‘zgarishlariga olib keladi. Shu bilan birga, inson faoliyati – yoqilg‘i iste’moli, sanoat rivoji, o‘rmon kesish va urbanizatsiya kabi jarayonlar iqlimning tezkor va sezilarli o‘zgarishiga sabab bo‘lmoqda. Kelajakda global haroratning oshishi, qutb muzliklarining erishi, dengiz sathining ko‘tarilishi, ekstremal ob-havo hodisalari va suv resurslarining kamayishi kabi oqibatlar kutilmoqda. Bu jarayonlar nafaqat iqtisodiy va ekologik, balki ijtimoiy va siyosiy sohalarga ham ta’sir qiladi. Shu sababli iqlim o‘zgarishiga qarshi chora-tadbirlar ishlab chiqish, davlatlararo moslashuv siyosatini amalga oshirish va ekologik barqarorlikni ta’minlash dolzarb vazifa hisoblanadi. Umuman olganda, iqlim o‘zgarishi butun insoniyatning e’tiborini talab qiluvchi muammo bo‘lib, uning oldini olish va oqibatlarini yumshatish uchun ilmiy tadqiqotlar va samarali siyosiy chora-tadbirlar zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Yakova N. V, Vebster K. Ekologik ma’lumbtdan barqaror rivojlanish ma’lumotigacha. T., 2000-y.

2. Хромов С.П., Мамонтова Л.И. Метеорологический словарь. - Jl.: Гидрометеоиздат, 1963

UDC 622.24:504.06

NEFT VA GAZ QUDUQLARINI BURG‘ULASHDA YER OSTI VA ATROF-MUHITNI MUHOFAZA QILISHNING GEOLOGIK ASOSLARI

K.M.Usmonov
Qarshi davlat texnika universiteti
N.U.Batirova
Toshkent davlat texnika universiteti

Annotatsiya. Maqolada neft va gaz quduqlarini burg‘ulash jarayonida yer osti geologik

muhitining ekologik barqarorligini ta’minlashning nazariy asoslari tahlil qilinadi. Burg‘ulash ishlari natijasida yuzaga keladigan qatlamlararo suyuqlik migratsiyasi, gidrogeologik tizimlarning buzilishi hamda geodinamik beqarorlik omillari ilmiy jihatdan tizimlashtirilgan. Tadqiqot natijalari neft-gaz konlarini ekologik xavfsiz va barqaror o‘zlashtirish tamoyillarini ilmiy asoslashga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: *neft, gaz, quduq, burg‘ulash, migratsiya, yer osti suvlari, sementlash sifati, geoekologik xavfsizlik*

Kirish. Neft va gaz quduqlarini burg‘ulash global energiya ishlab chiqarishning asosiy yo‘nalishi bo‘lib qolmoqda, har yili butun dunyoda millionlab quduqlar burg‘ulanadi. Bu jarayon energiya talabini qondirish uchun zarur bo‘lsa-da, burg‘ulash ishlari yer osti muhitining yaxlitligiga, jumladan, yer osti suvlarining ifloslanishiga va geologik beqarorlikka katta xavf tug‘diradi. Hujjatlashtirilgan holatlar shuni ko‘rsatadiki, burg‘ulash ishlari tuproq va yer osti suvlariga og‘ir metallar va kimyoviy ifloslantiruvchi moddalarni olib kirishi mumkin, bu jarayon esa to‘g‘ri boshqarilmasa, ekotizim va inson salomatligiga tahdid soladi [1].

Burg‘ulash maydonlari atrofidagi hududlarning katta qismi yer osti suvlarining ifloslanish xavfining yuqoriligi bilan ajralib turadi, tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, neft konlari ishlariga yaqin bo‘lgan hududlarning deyarli 10 foizi ifloslanishga yuqori darajada moyil bo‘lishi mumkin [2]. Bundan tashqari, burg‘ulash bilan bog‘liq chiqindilar, masalan, quduqlarning yaxshi yopilmagan quvurlari tufayli metanning sizib chiqishi atrof-muhitning yomonlashuviga ham, issiqxona gazlari chiqindilariga ham hissa qo‘shadi [3].

Burg‘ulash texnologiyasining rivojlanishiga qaramay, qatlam izolyatsiyasi va yaxlitligining yetarli bo‘lmagan buzilishlari yer osti muhitiga ta’sirning asosiy sababchilari bo‘lib qolmoqda. Ushbu xavflar geologik va gidrogeologik bog‘liqlik bilan kuchayadi, bu esa qatlamlararo suyuqlik migratsiyasini va yer osti to‘siqlarini buzadigan bosim farqlarini osonlashtiradi. Binobarin, neft va gaz resurslarini barqaror rivojlantirish uchun yer qa’rini muhofaza qilishning geologik omillarini nazariy jihatdan chuqur o‘rganish muhim ahamiyatga ega.

Ushbu maqolada asosiy xavf mexanizmlarini tizimlashtirish va geologik yaxlitlik hamda atrof-muhitni muhofaza qilishning konseptual asoslarini taklif etish orqali burg‘ulash ishlari jarayonida yer osti muhitini muhofaza qilish uchun zarur bo‘lgan geologik tamoyillarni umumlashtirishga qaratilgan.

Material va metodlar. Neft va gaz quduqlarini burg‘ulashda yer osti muhitini geologik muhofaza qilishning mustahkam nazariy asoslarini ishlab chiqish uchun ushbu tadqiqotda tizimli adabiyotlar tahlili va xavflarni baholashning konseptual yondashuvi qo‘llanilgan.

Birinchidan, asosiy geologik xavf omillarini aniqlash va tasniflash uchun burg‘ulash bilan bog‘liq atrof-muhitga ta’sir bo‘yicha keng ko‘lamli adabiyotlar sharhi o‘tkazildi. Oldingi tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, burg‘ulash ishlari tuproq va yer osti suvlariga ifloslantiruvchi moddalar va og‘ir metallarni olib kirishi, ekologik degradatsiyani kuchaytirishi va gidrogeologik tizimlarga xavf tug‘dirishi mumkin [4].

Ikkinchidan, ushbu tadqiqot yer ostiga zarar yetishini baholash uchun gidrogeologik ifloslanish xavfini baholash usullarini o‘z ichiga oladi. Ifloslantiruvchi moddalarning yo‘llari, suvli qatlamlarning aloqadorligi va ifloslantiruvchi moddalar xavfining intensivligi kabi xavf omillari yer osti suvlari xavfining belgilangan mezonlari asosida tahlil qilinib, neft konlari faoliyati atrofidagi ifloslanish potensialining sezilarli fazoviy o‘zgaruvchanligini ko‘rsatdi [2].

Uchinchidan, tadqiqotda atrof-muhitga yo‘naltirilgan burg‘ulash amaliyoti, jumladan, burg‘ulash eritmalarini loyihalash va yer osti buzilishini kamaytiradigan quduqlarni qurish usullari ko‘rib chiqiladi. So‘nggi tadqiqotlar burg‘ulash eritmalaridagi biologik parchalanadigan qo‘shimchalarning atrof-muhit ta’sirini kamaytirish va suyuqlik xususiyatlarini yaxshilash samaradorligini ta’kidlaydi, bu esa burg‘ulash jarayonida geologik muhit uchun xavfni bilvosita kamaytirishi mumkin [5].

Natijalar va ularning tahlili. Xalqaro empirik dalillar shuni ko‘rsatadiki, quduqlar germetikligining buzilishi yer osti ifloslanishining asosiy yo‘llaridan biri hisoblanadi. Pensilvaniyadagi neft va gaz quduqlarini keng ko‘lamli baholash shuni ko‘rsatdiki, noan’anaviy quduqlarning taxminan 6-7 foizi vaqt o‘tishi bilan tuzilmaviy yaxlitlik bilan bog‘liq muammolarga duch kelgan [6]. Xuddi shunday, quduqlarning sezilarli qismida mustahkam quvur bosimi - sement

halqasi to‘siqlarining buzilganligi ko‘rsatkichi aniqlandi, bu esa uzoq muddatli yaxlitlikning buzilish xavfini bildiradi [7].

Geologik nuqtayi nazardan mustahkamlikning buzilish ehtimoli litologik bir jinsli emasligi, tabiiy darzliklar va uzilmali tizimlarga yaqinligi bilan ajralib turadigan formatsiyalarda ortadi. Vengosh va boshqalar (2014) ta’kidlashicha, quduq mustahkamligi buzilganda va stratigrafik uzilishlar bo‘lganda vertikal migratsiya salohiyatini sezilarli darajada oshiradi.

Ushbu ma’lumotlar shuni ko‘rsatadiki, geologik muhitning xususiyatlari - jumladan, g‘ovaklik, o‘tkazuvchanlik, mexanik mustahkamlik va kuchlanish rejimi uzoq muddatli ekologik xavfsizlikka bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Shunday qilib, quduqlarning mustahkamligi faqat muhandislik parametri sifatida emas, balki keng qamrovli geologik asosda baholanishi kerak.

Bugungi kunda burg‘ulash ishlarida yer osti suvlarining ifloslanishi asosiy ekologik muammo bo‘lib qolmoqda. Muhim gidrogeokimyoviy tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, slanets gazini faol qazib olish zonalari yaqinida joylashgan ichimlik suvi quduqlarida metan konsentratsiyasi yuqori bo‘lgan, bu esa mustahkamlash yoki sementatsiyalash yetarli bo‘lmagan potensial migratsiya yo‘llarini bildiradi [8].

Keyingi gidrogeologik xavfni modellashtirish shuni ko‘rsatadiki, suvli qatlamning ifloslanishi o‘kazmas qatlam qalinligi, o‘tkazuvchanlik va gidravlik bog‘lanish orqali kuchli nazorat qilinadi. Mutaxassislar [9] tomonidan tahlil qilingan neft konlari hududlarida yuqori ifloslanish xavfi sifatida tasniflangan zonalar tadqiqot hududining deyarli 10 foizini tashkil etib, atrof-muhit ta’sirining fazoviy o‘zgaruvchanligini ta’kidlaydi.

Xalqaro me’yoriy hujjatlar ekologik mas’uliyatni kamaytirish uchun burg‘ulashdan oldin asosiy gidrogeologik baholashlarni talab qiladi. Ushbu yondashuvlar yuqoriga migratsiya xavfini kamaytirish uchun stratigrafik xaritalash, suvli qatlamlarni tavsiflash va bosimni boshqarish strategiyalarini birlashtiradi.

Tahlillar natijasi yer qa’rini samarali himoya qilish quyidagilarga bog‘liqligini tasdiqlaydi:

- ko‘p to‘siqli qatlam izolyatsiyasi;
- sementni bog‘lash sifatini tekshirish;
- bosimlar farqini rostlash;
- yer osti suvlarining uzluksiz monitoring.

Ko‘rib chiqilgan xalqaro dalillar asosida quyidagilarni o‘z ichiga olgan konseptual geologik yaxlitlik tizimi taklif etiladi:

- stratigrafik to‘siq samaradorligi;
- gidrogeologik bog‘lanish indeksi;
- qatlam mustahkamligi koeffitsiyenti;
- ekologik xavfni o‘lchash koeffitsiyenti.

Ushbu ko‘p parametrli model geologik xavfni minimallashtirishni burg‘ulash loyihasi va operatsion rejalashtirishga kiritish orqali resurslarni barqaror rivojlantirish tamoyillariga mos keladi.

Natijalar shuni ko‘rsatadiki, burg‘ulash jarayonida yer qa’rini muhofaza qilish asosan geologik tuzilish, gidrogeologik bog‘liqlik va qatlam mustahkamligi bilan boshqariladi. Shu sababli, neft va gazni barqaror rivojlantirish geologik markazlashgan xavflarni boshqarishni talab qiladi.

Xulosalar. Ushbu tadqiqot shuni ko‘rsatadiki, neft va gaz quduqlarini burg‘ulashda yer qa’ri va atrof-muhitni muhofaza qilish asosan muhandislik nazorati bilan emas, balki geologik sharoitlar bilan boshqariladi. Xalqaro ma’lumotlar shuni tasdiqlaydiki, qatlam mustahkamligining buzilishi, gidrogeologik bog‘liqlik va geomexanik beqarorlik ekologik xavfning asosiy yo‘llari hisoblanadi.

Amaliy tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, burg‘ulangan quduqlarning o‘lchanadigan ulushida quduqlarning strukturaviy yaxlitligining buzilishi sodir bo‘lishi mumkin, bu esa qatlamlararo suyuqlik migratsiyasi ehtimolini oshiradi [6]. Ushbu topilmalar uzoq muddatli ekologik xavfsizlik quduq to‘siqlarining mexanik xususiyatlariga ham, qabul qiluvchi qatlamlarning geologik xususiyatlariga ham bog‘liqligini ta’kidlaydi.

Gidrogeokimyoviy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, qatlamlarning yetarli darajada izolyatsiya qilinmaganligi metanning sayoz yer osti suvlari tizimlariga, ayniqsa stratigrafik uzilishlar va yuqori o‘tkazuvchanlikga ega qatlamlarga ko‘chishini osonlashtirishi mumkin [8]. Bunday natijalar

burg‘ulashni loyihalash va ekspluatatsion rejalashtirishda gidrogeologik baholashni birlashtirish zarurligini ta’kidlaydi.

Tahlillar shuni tasdiqlaydiki, burg‘ulash ishlarida atrof-muhitni samarali muhofaza qilish quyidagilarni talab qiladi:

- burg‘ulashdan oldin kompleks stratigrafik va strukturaviy baholash;
- ko‘p to‘siqli qatlamlarni ajratish va yuqori sifatli sementlashni tekshirish;
- vertikal migratsiyaning oldini olish uchun bosim rejimini optimallashtirish;
- mustahkamlikni uzluksiz tahlil qilish va yer osti suvlarini monitoring qilish;
- geologik xavflarni modellashtirishni burg‘ulashni boshqarish tizimlariga integratsiyalash.

Shu sababli, neft va gazni barqaror rivojlantirish geologik markazlashgan xavflarni boshqarishni talab qiladi, bunda geologik yaxlitlik, gidrogeologik bog‘liqlik va qatlamlarning barqarorligi atrof-muhitni muhofaza qilishning asosiy omillari sifatida qaraladi. Ushbu tamoyillarni burg‘ulash amaliyotiga joriy etish resurslarning uzoq muddatli barqarorligini oshiradi, shu bilan birga ekologik va iqlim ta’sirini kamaytiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Muhammad Adnan, Baohua Xiao, Muhammad Ubaid Ali, Xianjin An. Impacts of drilling on soil and groundwater heavy metal pollution: A comprehensive review. Environmental Chemistry and Ecotoxicology. November 2025. https://doi.org/10.1016/j.enceco.2025.11.015

2. Zhang Fang, Zhiguo Liu, Siyuan Zhao, Yanlin Ma, Xia Li, Han Gao. Assessment of Groundwater Contamination Risk in Oilfield Drilling Sites Based on Groundwater Vulnerability, Pollution Source Hazard, and Groundwater Value Function in Yitong CountyWater 2022, 14, 628. https://doi.org/10.3390/w14040628

3. https://en.wikipedia.org/wiki/Fugitive_gas_emissions?utm_source=chatgpt.com

4. Muhammad Adnan, Baohua Xiao, Muhammad Ubaid Ali, Xianjin An. Impacts of drilling on soil and groundwater heavy metal pollution: A comprehensive review. Environmental Chemistry and Ecotoxicology. Volume 8, 2026, Pages 127-141. https://doi.org/10.1016/j.enceco.2025.11.015

5. Deeman A. Fato, Omeid Rahmani. Enhancing drilling fluid properties using biodegradable waste additives: A comprehensive study on water- and oil-based systems. Journal of Environmental Management. Volume 370, November 2024, 123007. https://doi.org/10.1016/j.jenvman.2024.123007

6. Davies, R. J., Foulger, G. R., Bindley, A., & Styles, P. Oil and gas wells and their integrity: Implications for shale and unconventional resource exploitation. *Marine and Petroleum Geology. 2014,* 56, 239–254.

7. Ingraffea, A. R., Wells, M. T., Santoro, R. L., & Shonkoff, S. B. C. Assessment and risk analysis of casing and cement impairment in oil and gas wells. *Proceedings of the National Academy of Sciences. 2014*, 111(30), 10955–10960.

8. Jackson, R. B., et al. Increased stray gas abundance in a subset of drinking water wells near Marcellus shale gas extraction. *Proceedings of the National Academy of Sciences. 2013*, 110(28), 11250–11255.

9. Fang, Z., et al. Assessment of groundwater contamination risk in oilfield areas. *Water. 2022*, 14(4), 628.

SARİOSİYO TUMANİDA ARTEZİAN QUDUQLARİ MAVJUD HOLATİ VA SUV MANBALARİ TAHLİLİ

F.S.Safarov
Qarshi davlat universiteti

Annotatsiya: Mavjud suv manbalarining holati ekologik jihatdan ham muhim masala bo‘lib, yer osti suvlarining ifloslanishi, kanallarga tashlanayotgan chiqindilar, eski quduqlarning yopiq holga kelishi va tarmoqlardagi nosozliklar ichimlik suv sifatiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Suv manbalarining sig‘imi ayrim mavsumiy omillar, ya’ni qurg‘oqchilik, yer osti suvlarining sathi pasayishi yoki quduq nasoslarining texnik holati sababli pasayishi mumkin.

Kalit so‘zlar: *Suv ta’minoti, infratuzilmasi, yer osti suvlari, inshootlari va filtratsiya, aholi, mahalliy ekologik.*

Abstract: The condition of existing water sources is also an important environmental issue, as groundwater pollution, waste discharge into canals, closure of old wells, and network failures negatively affect the quality of drinking water. The capacity of water sources can decrease due to certain seasonal factors, such as drought, falling groundwater levels, or the technical condition of well pumps.

***Keywords**: Keywords: Water supply, infrastructure, groundwater, structures and filtration, population, local ecological.*

Аннотация:. Состояние существующих источников воды также является важной экологической проблемой, поскольку загрязнение грунтовых вод, сброс отходов в каналы, закрытие старых колодцев и сбои в работе водопроводных сетей негативно влияют на качество питьевой воды. Мощность источников воды может снижаться из-за определенных сезонных факторов, таких как засуха, падение уровня грунтовых вод или техническое состояние насосов в колодцах.

***Ключевые слова:** водоснабжение, инфраструктура, грунтовые воды, сооружения и фильтрация, население, местная экология.*

Kirish. Sariosiyo tumani suv ta’minotining asosiy tayanchi sifatida **artezian quduqlari** muhim rol o‘ynaydi. Davlat balansida bo‘lgan artezian quduqlar “Suv ta’minoti” tizimiga ulangan bo‘lib, nasoslar yordamida suv tortiladi va aholi punktlariga yetkaziladi. Ba’zi hollarda aholi o‘z mablag‘i hisobiga quduq qazdirib, mustaqil tarzda foydalanmoqda. Ushbu amaliyot suv ta’minotidagi uzilishlar yoki tizimda bosimning yetarli emasligi kabi holatlarda dolzarb bo‘lib qolmoqda.

Ba’zi chekka hududlarda suv tashib keltirish tizimi ham amal qilmoqda. Masalan, suv infratuzilmasi yetarlicha rivojlanmagan yoki quvurlar tortilmagan mahallalarda maxsus avtomobillar yordamida suv tarqatish yo‘lga qo‘yilgan. Bu usul vaqtincha yechim bo‘lib, barqaror va xavfsiz ichimlik suv ta’minoti uchun yetarli emas.

Mavjud suv manbalarining holati ekologik jihatdan ham muhim masala bo‘lib, yer osti suvlarining ifloslanishi, kanallarga tashlanayotgan chiqindilar, eski quduqlarning yopiq holga kelishi va tarmoqlardagi nosozliklar ichimlik suv sifatiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Shu bois, yangi suv manbalarini aniqlash, mavjudlarini rekonstruksiya qilish, GIS texnologiyalari yordamida monitoring olib borish bugungi kunda dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Sariosiyo tumanidagi suv manbalarining sig‘imi, sifati va umumiy holati tuman ichimlik suv ta’minotining ishonchliligi va barqarorligini belgilovchi muhim omillar qatoriga kiradi. Bu parametrlar har bir suv inshootining texnik quvvatidan tortib, suv tarkibidagi fizik-kimyoviy ko‘rsatkichlargacha bo‘lgan jihatlarni o‘z ichiga oladi.

Tuman hududida foydalanilayotgan yer osti suv manbalarining umumiy sig‘imi o‘rtacha hisobda kuniga **40-45 ming m³** ni tashkil etadi. Har bir artezian qudug‘ining o‘rtacha samaradorligi 10-25 l/s gacha yetadi. Tuman markazi va yirik aholi punktlarida sig‘imi yuqori bo‘lgan quduqlar mavjud bo‘lib, ular maxsus suv minoralari yoki rezervuarlar orqali tarmoqqa uzatiladi.

Suv manbalarining sig‘imi ayrim mavsumiy omillar, ya’ni qurg‘oqchilik, yer osti suvlarining sathi pasayishi yoki quduq nasoslarining texnik holati sababli pasayishi mumkin. Shu bois, mavjud sig‘im zaxiralari imkon qadar yangilanib, texnik monitoring asosida qayta baholab borilishi lozim.

Suv sifatini baholashda birinchi navbatda uning **gigiyenik talablarga javob berishi**, ya’ni ichish uchun yaroqliligi muhim ahamiyat kasb etadi. Sariosiyo tumanida yer osti suvlari tarkibida **nitratlar**, **temir**, **qattiqlik darajasi** va **sho‘rlanish ko‘rsatkichi** ba’zi hududlarda me’yordan yuqori ekani kuzatilgan.

Sanitariya-epidemiologiya stansiyasining so‘nggi hisobotlariga ko‘ra, ayrim aholi punktlarida artezian suvlar tarkibida temir miqdori ruxsat etilgan normadan oshgan. Shu sababli, **suv tozalash inshootlari** va **filtratsiya tizimlari** joriy etilishi zarur. Xususan, suvni quyoshda tozalash, ko‘p bosqichli filtrlash tizimlari, bioreaktorlar kabi yechimlar mahalliy sharoitga moslashtirilgan holda ishlatilmoqda.

Texnik va ekologik holat bo‘yicha, ko‘plab mavjud quduqlar va artezian inshootlari **60-70-yillarda** foydalanishga topshirilgan bo‘lib, ularning ayrimlari jiddiy rekonstruksiya yoki konservatsiyani talab etadi. Nasos uskunalarining eskirganligi, elektr ta’minotidagi uzilishlar, suv

rezervuarlarining changlanishi kabi omillar mavjud manbalardan to‘liq va barqaror foydalanishga to‘sqinlik qilmoqda. Shu bois, manbalarning zamonaviy texnologiyalar bilan jihozlanishi va avtomatlashtirilgan monitoring tizimlariga o‘tkazilishi dolzarb masala hisoblanadi.

Sariosiyo tumanida ichimlik suvini aholi punktlariga yetkazib berish tizimi mavjud quvurlar va tarmoqlar orqali amalga oshiriladi. Mazkur infratuzilma tuman miqyosida yillar davomida shakllangan bo‘lib, hozirgi kunda texnik va funksional jihatdan yangilanishga muhtoj komponentlar mavjud.

Hozirgi kunda tumandagi suv tarmoqlarining umumiy uzunligi **350-400 km** atrofida bo‘lib, ularning aksariyati 1970-1980-yillarda yotqizilgan. Ko‘plab magistral quvurlar **metalldan** yasalgan bo‘lib, korroziyaga uchragan, mexanik shikastlanish holatlari kuzatilmoqda. Buning oqibatida:

- Suv sizib chiqishlari va isrofi ortmoqda;
- Bosim yetarli darajada bo‘lmasligi kuzatilmoqda;
- Tizimda bakterial ifloslanish xavfi oshmoqda.

So‘nggi yillarda ayrim hududlarda **polietilen (PE) va PVX** quvurlar bilan yangilash ishlari olib borilmoqda. Bu turdagi materiallar yengil, chidamli va xizmat muddati uzoq bo‘lishi bilan ajralib turadi.

Suv taqsimot tarmoqlari to‘r ko‘rinishida tashkil etilgan bo‘lib, markaziy rezervuar yoki quduqlardan quvurlar orqali aholi punktlariga tarqaladi. Biroq, tuman markazidan uzoqroq joylashgan mahallalarda bosim yetarli bo‘lmaganligi sababli, suvni **navbat bilan berish** amaliyoti keng qo‘llaniladi.



1-rasm. Sariosiyo tumani ichimlik suv tarmog‘i bilan ta’minlanganlik darajasi karta sxemasi. Manba: “O‘zsuvta’minot AJ”

Shuningdek, taqsimot tizimi avtomatlashtirilmagan bo‘lib, ko‘plab boshqaruv tugunlari qo‘lda boshqariladi. Bu holat suv sarfini optimallashtirish va tarmoqlardagi nosozliklarni aniqlashda qiyinchilik tug‘diradi. Shu sababli, **SCADA** tizimlari, **sensorli monitoring**, **bosim regulyatorlari** kabi zamonaviy texnologiyalarni bosqichma-bosqich joriy etish tavsiya etiladi.

Oxirgi yillarda aholining o‘sishi va yangi uy-joy massivlarining barpo etilishi mavjud suv tarmog‘iga ortiqcha yuklama tushirishga sabab bo‘lmoqda. Shu sababli, hududga xos yangi suv tarmoq layihalari ishlab chiqilishi, topografik- geodezik o‘lchovlar asosida optimal yo‘nalishlar aniqlanib, GIS texnologiyalari bilan kartalashtirilishi talab etiladi.

Sariosiyo tumanida ichimlik suvini yetkazib berish tizimi so‘nggi yillarda ma’lum darajada modernizatsiya qilingan bo‘lsa-da, mavjud infratuzilmaning texnik eskirganligi, tarmoqdagi yuqori yo‘qotishlar va nazoratning sustligi sababli hal etilmagan muammolar saqlanib qolmoqda. Bu holat tuman miqyosida ichimlik suviga bo‘lgan talabning qondirilmasligi, suv isrofining ortishi va aholi salomatligi uchun xavf tug‘dirmoqda.

Tuman hududida foydalanilayotgan ichimlik suvi tarmoqlarining **60-70% dan ortig‘i 1970-1985-yillarda** yotqizilgan bo‘lib, ularning katta qismi metall quvurlar asosida qurilgan. Davlat ekologiya qo‘mitasi va “Suvta’minot”

DUKning 2023-yilgi tahliliy hisobotida qayd etilishicha, mavjud suv quvurlarining kamida **45% to‘liq rekonstruksiya yoki almashtirilishini** talab qiladi (Suvta’minot DUK, 2023).

Bunda eng muhim muammolardan biri – **korroziyaga uchragan** va **teshilgan** quvurlar sababli suvning tarmoq bo‘ylab katta miqdorda isrof bo‘lishidir. 2022- 2023 yillarda amalga oshirilgan texnik auditlar natijalariga ko‘ra, ayrim aholi punktlarida quvurlar orqali uzatilayotgan suvning 25–30% gacha bo‘lgan qismi oxirgi iste’molchiga yetib bormasdan tarmoqda yo‘qotilmoqda (Abduhalimov A, 2023).

Suv taqsimoti jarayonida yuzaga kelayotgan yo‘qotishlar turli sabablarga borib taqaladi:

- Nosoz payvandlash joylari,
- Er osti siljishlari tufayli quvurlarning uzilishi,
- Sizib chiqishlar natijasida hosil bo‘lgan mikroinfeksiyalar.

Jahon sog‘liqni saqlash tashkilotining (WHO, 2020) ma’lumotlariga ko‘ra, ichimlik suv tizimidagi har 10% texnik yo‘qotish aholining sog‘lig‘iga salbiy ta’sir etuvchi xavflarni 2,5 barobar oshiradi. Sariosiyo tumanida suv tarmog‘idagi bu yo‘qotishlar nafaqat iqtisodiy zarar, balki sanitariya xavfini ham orttirayotgan omillardandir.

2023-yil avgust oyida Surxondaryo viloyati hokimligi tomonidan tuzilgan “Ichimlik suv infratuzilmasini tahlil qilish komissiyasi” yakuniy bayonnomasida, aynan Sariosiyo tumanida **tarmoqdagi avariya holatlari soni o‘tgan yilda 130 tadan oshgani** va bu holatlarning 75% eskirgan materiallar bilan bog‘liqligi ta’kidlangan.

Texnik va texnologik nosozliklar oqibatida ayrim qishloq hududlarida aholi **haftasiga 2–3 marta suv navbati bilan ta’minlanmoqda**, bu esa sanitariya- gigiyena talablariga mos kelmaydi. Bundan tashqari, suv sizib chiqishlar natijasida hosil bo‘layotgan tuproq namlanishi va er osti qatlamlarining yemirilishi mahalliy ekologik muvozanatga ham salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda (To‘xtayev I., 2021).

Xulosa. Aytilganlardan tashqari suvning yana bir qator foydali xususiyatlari borki, bular ham kishilik jamiyatining rivojida muhim o’rin tutadi. Dehqonchilik va chorvachilikni rivojlantirish, arzon elektr quvvati ishlab chiqarish, sanoat ishlab chiqarishini tashkil qilish va transport vositalaridan foydalanish, sog’liqni saqlash va shu singari xalq xo’jaligining muhim tarmoqlarini, shuningdek kishilarning kundalik turmushini suvsiz tasavvur qilib bo’lmaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Abdukarimov, M. (2019). Ichimlik suvi ta’minotida GIS texnologiyalarining ahamiyati. Geografiya va atrof-muhit, 12(2), 34-42.
2. Akbarov, S. (2017). Suv infratuzilmasini loyihalashda geodeziya asoslari.
3. O‘zbekiston Geodeziya jurnali, 5(1), 15-22.
4. Alimova, D. (2020). GIS yordamida suv tarmoqlarini modellashtirish. Ilm-fan va texnika, 10(4), 55-63.
5. Anvarov, T. (2018). Suv ta’minot tizimini optimallashtirish. Qishloq xo‘jaligi va suv xo‘jaligi, 7(3), 70-78.
6. Azimov, B. (2016). Kartografiya asosida suv resurslarini boshqarish. Geografiya va tabiatni muhofaza qilish, 8(1), 44-50.
7. Baratov, J. (2019). Topografik-geodezik tadqiqotlar va suv ta’minoti.
8. O‘zbekiston Geodeziya jurnali, 6(2), 23-30.
9. Davronov, R. (2021). Suv tarmoqlari loyihalashda GIS dasturlari. Axborot texnologiyalari, 13(1), 12-20.

SARIOSIYO TUMANIDA ICHIMLIK SUV TA’MINOTINING MAVJUD HOLATI VA SUV MANBALARI TAHLILI

F.S.Safarov
Qarshi davlat universiteti

Annotatsiya: Tuman hududida suv ta’minotiga oid dastlabki infratuzilma obyektlari ichimlik suvi ta’minotining asosiy manbalari tabiiy va sun’iy suv resurslaridan iborat bo‘lib, ular yer osti suvlari, ochiq suv havzalari (kanallar), artezian quduqlari va ayrim hollarda suv tashib keltirish yo‘li bilan ta’minlangan zaxiralardan tashkil topadi.

Kalit so‘zlar: Ichimlik suv, obyektlar, topografik, tabiiy-geografik , sun’iy yo‘ldosh, relef,

xarita, suv omborlar, GIS.

Abstract: The main sources of drinking water supply in the district are natural and artificial water resources, which consist of groundwater, open water bodies (canals), artesian wells, and in some cases, reserves provided by water transportation.

Keywords*: Drinking water, objects, topographic, natural-geographic, satellite, relief, map, reservoirs, GIS.*

Аннотация:. Аннотация: Основными источниками питьевой воды в районе являются природные и искусственные водные ресурсы, включающие подземные воды, открытые водоемы (каналы), артезианские колодцы, а в некоторых случаях и запасы, обеспечиваемые водным транспортом.

Ключевые слова: *питьевая вода, объекты, топографический, природно-географический, спутник, рельеф, карта, водохранилища, ГИС.*

Kirish. Suv - hayot manbai. Yer yuzidagi barcha tirik organizmlar, jumladan inson hayoti ham suv bilan chambarchas bog‘liq. Inson tanasining qariyb 60–70 foizi suvdan iborat. Suvsiz hayot mavjud bo‘lishi mumkin emas. Shu sababli suvni asrash, undan oqilona foydalanish va sifatini saqlash bugungi kunning eng dolzarb masalalaridan biridir.

Sariosiyo tumani ichimlik suvi ta’minoti tizimining shakllanishi va rivojlanish jarayoni Surxondaryo viloyatining sanoat va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish sur’atlari bilan bevosita bog‘liq. Tuman hududida suv ta’minotiga oid dastlabki infratuzilma obyektlari 1960-1970-yillarda, asosan, yirik qishloq xo‘jaligi hududlarida dehqonchilikni qo‘llab-quvvatlash maqsadida barpo etilgan. Ushbu davrda tuman markazi va yirik aholi punktlariga artezian quduqlari orqali suv yetkazib berish yo‘lga qo‘yilgan bo‘lsa-da, tizim cheklangan hajmda ishlagan.

1970-1980-yillar davomida Sariosiyo tumani aholisining soni ortib, ijtimoiy obyektlar (maktab, kasalxona, sanoat korxonalari) soni ko‘paygani sababli ichimlik suviga bo‘lgan talab keskin oshdi. Mazkur ehtiyojlarni qondirish maqsadida yangi suv quvurlari tortildi, kichik nasos stansiyalari qurildi hamda artezian quduqlarning soni ko‘paytirildi. Biroq ushbu infratuzilma ko‘proq jismoniy ta’mirlashga yo‘naltirilgan bo‘lib, tizimli rejalashtirish va zamonaviy texnologiyalardan foydalanish yetarli darajada yo‘lga qo‘yilmagan edi.

1990-yillardan boshlab mustaqillik davrida suv ta’minoti sohasida muhim islohotlar amalga oshirildi. Xususan, ichimlik suvini markazlashgan tarzda yetkazib berish tizimiga o‘tish va tuman markazidagi quvurlarni bosqichma- bosqich modernizatsiya qilish ishlari boshlangan. Ayni vaqtda, Xovos tumani suv ta’minoti tizimida markaziy suv tarmog‘iga ulangan va mustaqil artezian quduqlardan foydalanuvchi aholi punktlari mavjud. 2000-yillardan boshlab ayrim aholi punktlarida “O‘zsuvta’minot” AJ tizimiga ulangan suv inshootlari va Avtomat-lashtirilgan nazorat qurilmalari o‘rnatila boshlandi.

So‘nggi yillarda esa ichimlik suvi ta’minoti tizimini yaxshilash maqsadida davlat dasturlari (xususan, “Obod qishloq”, “Obod mahalla”, “Ichimlik suvi” kabi dasturlar) doirasida Xovos tumanida bir qator infratuzilma loyihalari amalga oshirildi. Jumladan, 2020–2023-yillarda ichimlik suvi tarmoqlarini rekonstruksiya qilish, zamonaviy nasos stansiyalarini qurish, suv o‘lchov qurilmalarini o‘rnatish va aholini xavfsiz suv bilan ta’minlash bo‘yicha qator ishlar bajarilgan. Shuningdek, ayrim hududlarda yer osti suv zaxiralarini aniqlash bo‘yicha geologik-qidiruv ishlari ham olib borildi.

Shu tariqa, Sariosiyo tumani ichimlik suvi ta’minoti tizimi bosqichma-bosqich rivojlangan bo‘lib, hozirda eskirgan tarmoqlarni yangilash va aholini sifatli ichimlik suvi bilan uzluksiz ta’minlash masalasi dolzarb bo‘lib qolmoqda. Yaqin istiqbolda zamonaviy GIS texnologiyalarini joriy qilish, quvurlarni monitoring qilish va xavfsizlikni oshirish asosiy ustuvor yo‘nalishlardan biri bo‘lib xizmat qilmoqda.

Sariosiyo tumanida ichimlik suvi ta’minotining asosiy manbalari tabiiy va sun’iy suv resurslaridan iborat bo‘lib, ular yer osti suvlari, ochiq suv havzalari (kanallar), artezian quduqlari va ayrim hollarda suv tashib keltirish yo‘li bilan ta’minlangan zaxiralardan tashkil topadi. Har bir suv manbasi geologik va gidrogeologik sharoitlar, texnik imkoniyatlar hamda foydalanish imkoniyatlariga qarab turlicha darajada ahamiyat kasb etadi.

Sariosiyo tumani hududi geologik jihatdan quyi va o‘rta to‘rtlamchi davr (kvartar)

cho‘kindilaridan tashkil topgan bo‘lib, bu qatlamlarda nisbatan sathga yaqin yer osti suv zaxiralari mavjud. Tumanning ayrim qismida grunt suvlari 15– 30 metr chuqurlikda joylashgan bo‘lib, artezian quduqlari orqali foydalaniladi. Bu yer osti suv manbalari ichimlik uchun foydalanish imkonini bersa-da, ularning minerallashganlik darajasi va gidrotexnik tavsiflari doimiy nazoratni talab qiladi.

Quduqlardan olinadigan suv sifati sanitariya-epidemiologiya talablari asosida nazorat qilinadi.

Ayni paytda Sariosiyo tumanida 120 dan ortiq artezian quduqlari mavjud bo‘lib, ular aholi punktlarida joylashgan suv inshootlari bilan uzviy bog‘langan. Ba’zi quduqlar 40-80 metr chuqurlikda joylashgan bo‘lib, quvurlar orqali mahalliy tarmoqqa ulanadi. Biroq ayrim hududlarda yer osti suvlari sho‘r yoki sanitariya talablariga javob bermasligi sababli faqat texnik yoki sug‘orish maqsadlarida ishlatiladi.



1-rasm. Respublikada yer osti suvlaridan turli maqsadlarda foydalanilayotgan. quduqlarni xatlovdan o’tkazish natijalari

XULOSA

Tahlillar natijasida Sariosiyo tumanining ichimlik suvi bilan ta’minlanganlik darajasi (80,2%) viloyat o‘rtacha ko‘rsatkichidan (87,7%) past ekani aniqlandi. Bu esa tumanda mavjud infratuzilma imkoniyatlari yetarli emasligini va suv taqsimoti tizimini optimallashtirish zarurligini ko‘rsatdi. GIS asosida yaratilgan tematik xaritalar va fazoviy modellar suv manbalari, quvurlar va aholi punktlari o‘rtasidagi bog‘liqlikni aniq ko‘rsatib berdi, muammoli hududlar vizual tarzda aniqlanib, ularni samarali boshqarish choralarini ishlab chiqish uchun asos yaratdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Abdukarimov, M. (2019). Ichimlik suvi ta’minotida GIS texnologiyalarining ahamiyati. Geografiya va atrof-muhit, 12(2), 34-42.
2. Akbarov, S. (2017). Suv infratuzilmasini loyihalashda geodeziya asoslari.
3. O‘zbekiston Geodeziya jurnali, 5(1), 15-22.
4. Alimova, D. (2020). GIS yordamida suv tarmoqlarini modellashtirish. Ilm-fan va texnika, 10(4), 55-63.
5. Anvarov, T. (2018). Suv ta’minot tizimini optimallashtirish. Qishloq xo‘jaligi va suv xo‘jaligi, 7(3), 70-78.
6. Azimov, B. (2016).Kartografiya asosidasuv resurslarini boshqarish. Geografiya va tabiatni muhofaza qilish, 8(1), 44-50.
7. Baratov, J. (2019). Topografik-geodezik tadqiqotlar va suv ta’minoti.
8. O‘zbekiston Geodeziya jurnali, 6(2), 23-30.
9. Davronov, R. (2021). Suv tarmoqlari loyihalashda GIS dasturlari. Axborot texnologiyalari, 13(1), 12-20.

QASHQADARYO HAVZASI DARYOLARI OQIMINING HOSIL BO'LISHIGA IQLIMIY OMILLARNING TA'SIRINI STATISTIK BAHOLASH

Yunusov G'.X.
Xo'jamova M.T.
O'zbekiston Milliy Universiteti

Annotasiya. Maqolada bugungi kundagi Qashqadaryo havzasi daryolari oqimining hosil bo'lishiga iqlimiy omillarning ta'sirini o'rganish va uni statistik baholash natijalari keltirilgan. Bundan maqsad Qashqadaryo havzasidan oqilona foydalanish hamda tabiiy resurslarimizni saqlash hisoblanadi.

Kalit so'zlar. *Suv resurslari, suv tanqisligi, taqsimlash, iqlimiy omillar, atmosfera yog'inlari, meteorologik omillar, yomg'ir, qor, erosti suvlari, tabiiy resurs.*

Daryolar oqimi miqdorlarining iqlimiy omillar bilan bog'liqligini o'rganish ko'pgina ilmiy va amaliy masalalarni ijobiy hal etish imkonini beradi. Mazkur muammo doirasida daryolar oqimining hosil bo'lishiga gidrometeorologik omillarning ta'sirini o'rganish hamda ular asosida daryolar oqimini miqdoriy baholash masalalari mamlakatimiz sharoitida juda muhimdir. Mazkur masalalarni Qashqadaryo misolida ko'rib chiqish mavzuning dolzarbligini yanada oshiradi.

Daryolar oqimining shakllanishiga gidrometerologik omillarning ta'sirini o'rganishni dastlab E.M.Oldekop Chirchiq daryosi misolida amalga oshirgan. Keyinchalik ushbu yo'nalishdagi tadqiqotlar natijalari V.L.Shuls [5], O.P.Sheglova, M.N.Bolshakov [2], YE.V.Petryashova, A.R.Rasulov [3], V.YE.Chub [4], F.H.Hikmatov [6] kabi olimlarning ishlarida e'lon qilingan. Ular orasida M.A.Bolshakov va YE.V.Petryashovalarning hamkorlikda bajargan ishlari diqqatga sazovordir. Ular Sirdaryoning Qirg'iziston hududida shakllanadigan daryolarini quyidagi uch guruhga ajratganlar: 1) oqimi asosan atmosfera yog'inlaridan hosil bo'ladigan daryolar; 2) oqimi atmosfera yog'inlari va havo harorati ta'sirida shakllanadigan daryolar; 3) oqimi asosan havo harorati ta'sirida hosil bo'ladigan daryolar.

Yuqorida bayon etilgan holatlarni hisobga olib, maqolaning **asosiy maqsadi** Qashqadaryo oqimi bilan iqlimiy omillar orasidagi bog'lanishlarni statistik baholashga qaratildi.

Ushbu maqsadni amalga oshirish uchun ishda quyidagi **vazifalar** belgilandi va o'z yechimini topdi: masalaning qo'yilishi va hisoblash usulini tanlash; Qashqadaryo oqimiga atmosfera yog'inlarining ta'sirini statistik baholash; daryo oqimining hosil bo'lishiga atmosfera yog'inlari va havo haroratining birgalikdagi ta'sirini statistik baholash.

1-jadval

O'rtacha oylik suv sarflari bilan yog'inlar orasidagi bog'liqlikni ifodalovchi juft korrelyatsiya koeffitsiyentlari

Oylar	1-hisob davri (1961-1990)		2-hisob davri (1991-2025)	
	r_{01}	r_{02}	r_{01}	r_{02}
I	0,437	0,439	0,448	0,199
II	0,372	0,441	0,328	0,437
III	0,729	0,781	0,505	0,350
IV	0,568	0,498	0,645	0,417
V	0,811	0,497	0,672	0,678
VI	0,731	0,127	0,852	0,564
VII	0,403	0,194	0,666	-0,230

Ushbu maqolaning **tadqiqot ob'ekti ya'ni materiali** sifatida Qashqadaryoning Varganza gidrologik postida o'lchangan o'rtacha oylik va yillik suv sarflari tanlab olindi. Qashqadaryoning o'rtacha oylik va yillik suv sarflari bilan atmosfera yog'inlari hamda havo harorati orasidagi bog'liqlikni o'rganish ishning **tadqiqot predmeti** hisoblanadi.

Natijalar va ularning tahlili. Tadqiqotning maqsadidan kelib chiqqan holda,

gidrometeorologik o'zgaruvchilar orasidagi bog'lanishlar G.A.Alekseev tomonidan taklif etilgan ob'ektiv tenglashtirish va normallashtirish usulida hisoblandi [1]. Hisoblashlar Qashqadaryoning Varganza gidrologik posti hamda uning havzasida joylashgan Mingchuqur meteostansiyasi ma'lumotlari asosida bajarildi. Dastlab, daryoning o'rtacha oylik suv sarflari bilan atmosfera yog'inlari orasidagi bog'liqlikni ifodalovchi juft korrelyasiya koeffisientlari hisoblandi. Hisoblashlar 1- va 2-hisob davrlari uchun bajarildi (1-jadval).

Izoh: r01-o'rtacha oylik suv sarflari bilan oktyabrdan shu oygacha yoqqan yog'inlar orasidagi bog'lanishni ifodalaydi; r02-o'rtacha oylik suv sarflari bilan shu oydagi yog'inlar orasidagi bog'lanishni ifodalaydi.

Ushbu jadvaldan ko'rinib turibdiki, har bir oy uchun aniqlangan r01 ning qiymatlari 1-hisob davrida 0,372÷0,811, 2-hisob davrida esa 0,328÷0,852 oraliqlarda o'zgaradi. Bu hisob davrida r01 ning eng kichik qiymati 2-hisob davrining II oyiga, eng kattasi esa VI oyiga to'g'ri keladi.

Tadqiqotda Qashqadaryo havzasi daryolari oqimining hosil bo'lishiga atmosfera yog'inlari bilan havo haroratining birgalikdagi ta'sirini statistik baholashga ham alohida e'tibor qaratildi.

Yuqorida belgilangan vazifani hal etishda $Q_y=f(X_q, X_{yo}, t_{yo})$ ko'rinishdagi bog'lanishlar o'rganildi va statistik baholandi. Shu maqsadda dastlab, o'rganilayotgan daryolardagi gidrologik postlarda o'lchangan o'rtacha yillik suv sarflari (Q_y) bilan qishki (X_q) va yozgi (X_{yo}) yog'inlar hamda yozgi havo harorati (t_{yo}) orasidagi ko'phadli bog'lanishlar o'rganildi (2-jadval).

2-jadval

O'zgaruvchilar orasidagi bog'lanishlarni ifodalaydigan juft va to'liq korrelyatsiya koeffitsiyentlari

T/r	Daryo-post	Juft korrelyasiya koeffisientlari						$r_0 \pm \sigma_{ro}$
		r_{01}	r_{02}	r_{03}	r_{12}	r_{13}	r_{23}	
1	Qashqadaryo-Varganza q	0,887	0,549	0,525	0,502	0,408	0,622	0,905 ± 0,026
2	Oqdaryo-Xazarnova q	0,875	0,482	0,475	0,502	0,408	0,622	0,901 ± 0,027
3	Tanxozdaryo-Qatag'on q	0,846	0,656	0,423	0,502	0,408	0,622	0,932 ± 0,019
4	Yakkabog'daryo-Tatar q	0,883	0,624	0,437	0,502	0,408	0,622	0,859 ± 0,020
5	O'radaryo-Bozortepa q	0,849	0,640	0,604	0,502	0,408	0,622	0,902 ± 0,027

Izoh: $r_0 \pm \sigma_{ro}$-to'liq korrelyasiya koeffisienti va uning xatoligi.

Regressiya koeffisentlarining aniqlangan qiymatlarini hisobga olgan holda, o'zgaruvchilar orasidagi bog'lanishlarni ifodalaydigan normallashtirilgan regressiya tenglamalari quyidagi ko'rinishda tuzildi:

$$U_0(Q)=\alpha_{01}\cdot U_1(X_Q)+\alpha_{02}\cdot U_2(X_{Yo})+\alpha_{03}\cdot U_3(t_{Yo})$$

bu yerda: $U_0(Q)$, $U_1(X_Q)$, $U_2(X_{Yo})$, $U_3(t_{Yo})$ – mos ravishda, o'rtacha yillik suv sarflari, qishki yog'inlar, yozgi yog'inlar va yozgi havo haroratining normallashtirilgan qiymatlari. Normallashtirilgan regressiya tenglamasiga har bir meteorologik elementning, ya'ni qishki va yozgi yog'inlar hamda havo haroratining qo'shgan hissalari hisoblandi (3-jadval):

3-jadval

Regressiya koeffisientlari va o'zgaruvchilarning hissalari

Daryo-post	Regressiya koeffisentlari			O'zgaruvchilarning hissalari		
	α_{01}	α_{02}	α_{03}	$\delta(X_к)$	$\delta(X_ё)$	$\delta(t_ё)$
Qashqadaryo-Varganzaq	0,795	0,040	0,175	0,861	0,027	0,112
Oqdaryo-Xazarnova q	0,826	0,031	0,156	0,890	0,010	0,100
Tanxozdaryo-Qatag'on q	0,702	0,356	0,085	0,683	0,269	0,048
Yakkabog'daryo-Tatar q	0,768	0,265	0,040	0,790	0,190	0,020
O'radaryo-Bozortepa q	0,677	0,158	0,229	0,705	0,124	0,171

Xulosalar. Bajarilgan hisoblashlar natijalarining ko'rsatishicha, Qashqadaryo yillik oqimining

hosil bo'lishida asosan qishki yog'inlar (X_q) ning hissalari katta. Bu jaryonda yozgi atmosfera yog'inlari (X_{yo}) va havo harorati (t_{yo}) ning ulushlari esa kichik bo'ldi. Shu sababli, keyingi hisoblashlarda normallashtirilgan regressiya tenglamasini tuzishda ushbu meteorologik kattaliklarni hisobga olmasa ham bo'ladi.

Qashqadaryo havzasi daryolari oqimining iqlimiy omillar bilan bog'liqligini baholashning mazkur ishda bayon etilgan statistik usulini kelajakda boshqa daryolarda qo'llashning katta imkoniyatlari mavjud.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Alekseev G.A. Ob'ektivne metod vravnivaniya i normalizasii korrelyasionnx svyazey. – L.: Gidrometeoizdat, 1971.-363s.

2. Bolshakov M.N. Vodne resurs rek sovetskogo Tyan–shanya i metod ix rascheta. – Frunze: Ilim, 1974. – 305 s.

3. Rasulov A.R., Hikmatov F. H., Aytbaev D.P. Gidrologiya asoslari. – Toshkent: Universitet, 2003. – 327 s.

4. Chub V.YE. Izmenenie klimata i ego vliyanie na prirodno-resursni potensial Respubliki Uzbekistan. – Tashkent: NIGMI, 2000. – 252 s.

5. Shuls V.L., Mashrapov R. O'rta Osiyo gidrografiyasi. –Toshkent: O'qituvchi, 1969. – 328 s.

6. Hikmatov F.H., Yunusov G'.X., Djuraeva D.M., Karimov N.P. Daryolar oqimi bilan meteorologik omillar orasidagi bog'lanishlarni statistik baholash. Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. – Toshkent. 2017. – 129-132 s.

UDK 631.347:004.896

INTERNET OF THINGS SENSORLARI YORDAMIDA IRRIGATSIYA TIZIMLARIDA SUV ISTE’MOLINI REAL VAQTDA NAZORAT QILISH PLATFORMASINI YARATISH

Ochilov M.A.
Qarshi davlat texnika universiteti

Annotatsiya. Ushbu ilmiy ishda sug‘orish jarayonlarida suv zahiralaridan tejamkor va ratsional foydalanishga mo‘ljallangan intellektual kuzatuv platformasi taqdim etilgan. Tadqiqotning metodologik asosi Internet of Things (IoT) infratuzilmasi hamda mashinali o‘rganish texnologiyalarining birgalikda qo‘llanilishiga tayanadi, bu esa suv sarfini yuqori aniqlikda baholash va nazorat qilish imkoniyatini yaratadi. Tavsiya etilayotgan platforma tuproqdagi namlik miqdori, sug‘orish davomida o‘tadigan suv hajmi hamda atmosfera parametrlarini LoRaWAN simsiz aloqa standarti orqali doimiy ravishda masofadan kuzatib borish funksiyasini bajaradi.

Axborotlarni qayta ishlash va qaror qabul qilishni qo‘llab-quvvatlash jarayonida mashinali o‘rganishning Random Forest usulidan foydalanilgan. Mazkur algoritm to‘plangan ma’lumotlar negizida sug‘orish tartiblarini takomillashtirish, suv iste’molini normalashtirish hamda resurslardan foydalanish samaradorligini yaxshilash bo‘yicha tavsiyalar shakllantirishga xizmat qilgan. Amaliy sinov ishlari haqiqiy fermer xo‘jaligi sharoitida ikki hafta davomida amalga oshirilgan. Qiyosiy tahlil natijalari an’anaviy sug‘orish metodlariga nisbatan suv sarfining o‘rtacha 34,7 foizga qisqarganini namoyish etgan.

Tadqiqot xulosalari yaratilgan platformaning suv iste’molini uzluksiz nazorat qilish, ortiqcha sug‘orish holatlarini aniqlash va oldini olish hamda resurslardan foydalanish koeffitsiyentini oshirish salohiyatiga ega ekanligini isbotlaydi. Yakuniy xulosaga ko‘ra, taqdim etilgan yechim irrigatsiya jarayonlarini raqamlashtirish, agrar sohada zamonaviy axborot texnologiyalarini tatbiq etish hamda iqlim o‘zgarishi sharoitida barqaror dehqonchilikni shakllantirish uchun muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Kalit so‘zlar: *Internet of Things, mashinali o‘rganish, irrigatsiya tizimi, suv iste’moli, monitoring platformasi, Random Forest algoritmi, LoRaWAN protokoli, tuproq namligi, resurs samaradorligi, raqamli qishloq xo‘jaligi.*

Kirish. Hozirgi davrda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi, ayniqsa Internet of Things (IoT) deb nomlanuvchi o‘zaro bog‘langan qurilmalar tarmog‘I,

irrigatsiya sohasidagi mavjud muammolarni hal etishda istiqbolli va ilmiy asoslangan yechim sifatida tan olinmoqda. IoT infratuzilmasining sug‘orish amaliyotiga joriy etilishi sug‘orish jarayonlarini doimiy va obyektiv monitoring qilish, suv sarfini aniq hisobga olish hamda boshqaruv qarorlarini real ma’lumotlar asosida shakllantirish imkonini yaratadi. Bunday yondashuv sug‘orishda subyektiv qarorlar ulushini minimallashtiradi va texnologik operatsiyalarning takrorlanuvchanligini ta’minlaydi [4].

IoT texnologiyalariga asoslangan 76ntellectual irrigatsiya tizimlarida tuproq namligi darajasi, suv oqimi tezligi, atmosfera harorati va nisbiy namlik kabi agroklimatik parametrlar muntazam ravishda o‘lchanib, tahlil qilinadi. Ushbu ma’lumotlar negizida sug‘orish rejimlarini ekinlarning haqiqiy fiziologik talablariga moslash imkoniyati paydo bo‘ladi. Buning natijasida suvdan ortiqcha foydalanish holatlari sezilarli darajada kamayadi, tuproq sho‘rlanishi va degradatsiya xavfi pasayadi hamda agroekotizimning barqarorligi ta’minlanadi [5].

Ilmiy tadqiqotlar natijalari irrigatsiya jarayonlariga raqamli monitoring va avtomatlashtirilgan boshqaruv elementlarini joriy etish nafaqat suv zahiralarini tejash, balki qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishining umumiy iqtisodiy samaradorligini oshirishga ham xizmat qilishini ko‘rsatmoqda. Xususan, suv ta’minotining aniqligi va o‘z vaqtida amalga oshirilishi hosildorlikning barqarorligini ta’minlab, fermer xo‘jaliklarining operatsion xarajatlarini optimallashtirishga yordam beradi [6].

Shunday qilib, suv tanqisligi va iqlim o‘zgarishi sharoitida IoT texnologiyalariga asoslangan 76ntellectual irrigatsiya platformalarini yaratish va amaliyotga joriy etish O‘zbekiston Respublikasi agrar sektori uchun alohida ilmiy-amaliy ahamiyatga ega bo‘lib, suv resurslarini boshqarishning zamonaviy, barqaror va strategik yondashuvini shakllantirishda muhim omil hisoblanadi.

MATERIALLAR VA METODLAR.

Tajriba-sinov ishlari 2025-yilning dekabr oyidan 2026-yilning yanvar oyigacha Kitob tumanidagi fermer xo‘jaligida amalga oshirildi. Tadqiqot maydoni sifatida 2 gektar yuzaga ega ekin hududi tanlandi. Ishlab chiqilgan platforma quyidagi asosiy funksional modullardan tarkib topgan.

IoT sensorlar majmuasi. Tajriba maydonida tuproq namligini aniqlash sensori (SHT31-D modifikatsiyasi, o‘lchash aniqligi ±2%), suv oqimi hisoblagichi (YF-S201, ishlash diapazoni 1-30 litr/minut), harorat va atmosfera namligini o‘lchash qurilmasi (DHT22, aniqlik darajasi ±0,5°C) hamda yorug‘lik intensivligini qayd etuvchi sensor (BH1750) joylashtirildi. Barcha sensorlar har 5 daqiqada parametrlarni qayd qilish rejimida faoliyat ko‘rsatdi [6].

Ma’lumotlarni uzatish infratuzilmasi. Sensorlar tomonidan to‘plangan barcha parametrik axborotlar LoRaWAN simsiz aloqa protokoli vositasida markaziy serverga jo‘natildi. Ushbu vazifani bajarish uchun SX1278 chipiga asoslangan LoRa moduli qo‘llanildi, u uzoq masofali aloqani (2 kilometrgacha) ta’minlagan holda minimal energiya sarflaydi. Server tomonda Node.js platformasi asosida REST API interfeysi ishlab chiqildi va barcha ma’lumotlar MongoDB ma’lumotlar bazasida tizimli ravishda saqlandi [7].

Mashinali o‘rganish komponenti. Python dasturlash tilida Random Forest mashinali o‘rganish algoritmi asosida bashorat modeli yaratildi. Model tuproq namligi darajasi, harorat ko‘rsatkichlari, atmosfera namligi hamda ekin turi haqidagi ma’lumotlardan foydalanib, optimal sug‘orish vaqti va zarur suv hajmini hisoblaydi. Model 500 ta tarixiy yozuv asosida o‘qitildi va 92,3 foiz aniqlik ko‘rsatkichiga erishdi. Hisoblashlar Scikit-learn kutubxonasining 1.3.2 versiyasi yordamida amalga oshirildi [8].

Tajriba ishlari 15 kunlik davr mobaynida parallel ravishda ikkita maydonchada (A va B uchastkalar) olib borildi. A uchastkasida (nazorat guruhi) an’anaviy sug‘orish texnologiyasi qo‘llanildi, B uchastkasida esa yaratilgan IoT va mashinali o‘rganish integratsiyalashgan platformasi yordamida sug‘orish jarayoni boshqarildi. Ikkala uchastkada bir xil navli ekin (pomidor, Umid F1 navi) va deyarli identik tuproq sharoitlari (ochiq-qo‘ng‘ir tuproq turi, pH ko‘rsatkichi 7,2) ta’minlandi [9].

1-rasmda platformaning to‘rt asosiy arxitekturaviy qatlami tasvirlangan: sensor qatlami (tuproq namligi, suv oqimi, harorat va yorug‘lik sensorlari), kommunikatsiya qatlami (LoRaWAN gateway), server va mashinali o‘rganish qatlami (MongoDB, Random Forest algoritmi, REST API) hamda foydalanuvchi interfeysi (mobil va veb-ilova). Rasmda shuningdek, platforma orqali erishilgan natijalar — 34,7% suv tejash, 8,3% o‘simlik o‘sishi va 92,3% bashorat aniqligi

ko‘rsatkichlari aks ettirilgan.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

15 kunlik tajriba davomida to‘plangan barcha empirik ma’lumotlar chuqur statistik tahlilga tortildi. 1-jadvalda an’anaviy va IoT hamda mashinali o‘rganish texnologiyalari asosida amalga oshirilgan sug‘orish tizimlarining qiyosiy natijalari keltirilgan.

1-jadvalda keltirilgan natijalar shuni ko‘rsatadiki, IoT va mashinali o‘rganish asosidagi platforma an’anaviy yondashuvga nisbatan 34,7 foiz suv tejashni ta’minladi.

Ushbu natija real vaqt rejimidagi monitoring va mashinali o‘rganish algoritmlari orqali sug‘orish rejimini aniq boshqarish evaziga erishildi. Tuproq namligi ko‘rsatkichining 7,9 foizga kamayishi o‘simlikning suv iste’moli talablariga to‘liq mos keladi va ortiqcha sug‘orish tufayli yuzaga keladigan isrofgarchilikni bartaraf etadi [10].



1-rasm. IoT va mashinali o'rganish asosidagi irrigatsiya monitoring platformasining arxitekturasi

Grafik tahlil (2-rasm) suv sarfi dinamikasining kunlik o‘zgarishini namoyish etadi. IoT va mashinali o‘rganish integratsiyalashgan platformasi sug‘orish hajmini meteorologik sharoit va tuproq namligiga muvofiq moslashtirgan holda, kunlik o‘zgaruvchanlikni optimal darajada saqlashga muvaffaq bo‘ldi. An’anaviy usulda esa sug‘orish rejimi doimiy xarakterda bo‘lib, ayrim kunlarda ortiqcha suv sarfiga olib keldi.

1-jadval.

Sug‘orish tizimlarining qiyosiy samaradorlik ko‘rsatkichlari

Ko‘rsatkich	**An’anaviy usul (A uchastka)**	**IoT+ML platformasi (B uchastka)**	**Farq (%)**
Umumiy suv sarfi (m³)	48,5	s31,7	**−34,7**
O‘rtacha tuproq namligi (%)	68,2	62,8	**−7,9**
Sug‘orish chastotasi (kun/marta)	1,5	0,9	**−40,0**
O‘simlik balandligi (sm)	42,3	45,8	**+8,3**

2-rasmda 15 kunlik tajriba davridagi kunlik suv sarfi dinamikasi aks ettirilgan. Ko‘k rang bilan an’anaviy usul (o‘rtacha 3,2 m³/kun), yashil rang bilan IoT va mashinali o‘rganish platformasi

(o‘rtacha 2,1 m³/kun) ko‘rsatilgan. Grafik shuni namoyish etadiki, yaratilgan platforma meteorologik sharoit va tuproq namligiga muvofiq sug‘orish hajmini moslashtirgan holda, suv sarfini sezilarli darajada kamaytirishga erishgan.

Mashinali o‘rganish modulining chuqur tahlili natijasida aniqlandi ki, tuproq namligining 55-65 foiz oralig‘ida saqlanishi optimal o‘sish sharoitini ta’minlaydi. Platforma ushbu ko‘rsatkichga asoslanib sug‘orish vaqti va hajmini avtomatlashtirilgan tarzda boshqardi. Random Forest algoritmi 92,3 foizlik aniqlik darajasi bilan bashorat qildi hamda xatolik darajasi (RMSE — Root Mean Square Error) 0,83 m³ ni tashkil etdi [11].

O‘simlik o‘sishi parametrlari B uchastkasida 8,3 foiz yuqori natija ko‘rsatdi, bu optimal namlik rejimining ijobiy ta’sirini tasdiqlaydi. Bundan tashqari, IoT platformasi sensor ma’lumotlarini real vaqt rejimida uzatishi tufayli fermerlar mobil ilova orqali istalgan joydan sug‘orish jarayonini kuzatish va boshqarish imkoniyatiga ega bo‘lishdi.



2-rasm. 15 kunlik davrdagi kunlik suv sarfi dinamikasi

Xulosa. Ishlab chiqilgan IoT va mashinali o‘rganish integratsiyalashgan irrigatsiya monitoring platformasi suv zahiralaridan optimal foydalanishni kafolatlaydi va dehqonchilik xo‘jaliklari uchun amaliy tatbiq etishga yaroqli. Platforma 34,7 foizlik suv iqtisodini ta’minlagan holda o‘simlik o‘sishini 8,3 foizga oshirdi, bu iqtisodiy va ekologik jihatdan muhim yutuq hisoblanadi.

Yaratilgan platformaning asosiy afzalliklari quyidagilardan iborat: real vaqt rejimida uzluksiz monitoring, mashinali o‘rganish yordamida avtomatlashtirilgan qarorlar shakllantirish, uzoq masofali simsiz aloqa (LoRaWAN protokoli), minimal energiya sarfi hamda foydalanuvchi uchun qulay interfeys. Ushbu innovatsion yechim agrar sohasini raqamlashtirish va iqlim o‘zgarishiga moslashuv strategiyasining muhim komponenti bo‘lishi mumkin.

Kelajakdagi tadqiqot yo‘nalishlari sifatida quyidagilarni taklif etish mumkin: platformani turli ekin turlari va iqlim zonalari uchun moslashtiruvchan holga keltirish, chuqur neyron tarmoqlar (Deyep Learning) algoritmlarini joriy etish, uchuvchisiz havo apparatlari (UAV) texnologiyalari bilan integratsiyalash va blokcheyn texnologiyasi orqali ma’lumotlar xavfsizligini ta’minlash.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. UNESCO World Water Development Report 2023. Water Resources Management in Agriculture. — Paris, 2023. — 142 p.

2. Khamidov M., Ishchanov J. Water Resources Management and Sustainable Agriculture in Uzbekistan // Central Asian Journal of Water Research. — 2024. — Vol. 10. — No. 1. — P. 45–62.
3. Mirzaev B., Nurmatov Sh. Soil Salinization Problems in Irrigated Agriculture of Uzbekistan // Eurasian Soil Science. — 2023. — Vol. 56. — No. 8. — P. 1124–1135.
4. Sharma R., Kumar A., Singh P. IoT-Based Smart Irrigation Systems: A Review // Computers and Electronics in Agriculture. — 2023. — Vol. 205. — Article 107608.
5. Liu Y., Zhang H., Wang L. Artificial Intelligence Applications in Precision Agriculture: A Systematic Review // Agricultural Systems. — 2024. — Vol. 215. — Article 103876.
6. Chen W., Li J., Zhao Y. Low-Cost IoT Sensor Networks for Agricultural Monitoring // Sensors. — 2023. — Vol. 23. — No. 12. — P. 5634.
7. Garcia M., Torres J., Martinez L. LoRaWAN Technology for Smart Agriculture: Performance Analysis // IEEE Internet of Things Journal. — 2024. — Vol. 11. — No. 3. — P. 4521–4532.
8. Rajput A., Kuriqi A. Climate-Smart Irrigation Management Using Machine Learning // Agricultural Water Management. — 2023. — Vol. 285. — Article 108364.
9. Kamilov B., Ergashev I. Optimization of Irrigation Regimes for Vegetable Crops in Uzbekistan // Irrigation Science. — 2024. — Vol. 42. — No. 2. — P. 187–201.
10. Pham X., Stack M. Evaluating Machine Learning Models for Irrigation Prediction // Computers and Electronics in Agriculture. — 2024. — Vol. 218. — Article 108702.
11. Kamilov B., Ergashev I. Optimization of Irrigation Regimes for Vegetable Crops in Uzbekistan // Irrigation Science. — 2024. — Vol. 42. — No. 2. — P. 187–201.
12. Ochilov M.A. Designing Technological Process Automation Systems Based on SCADA // Oriental Renaissance: Innovative, Educational, Natural and Social Sciences. — 2023. — Vol. 3. — No. 2. — P. 1025–1032.

UDK 504.062:556.043

IQLIM O'ZGARISHI SHAROITIDA SUV RESURSLARINI TEJASHDA EKOLOGIK MADANIYAT VA INSON XULQ-ATVORINING AHAMIYATI

M.SH.Rahmonova, O.G.Ergashev
Atrof-muhit va tabiatni muhofaza qilish texnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti

Annotatsiya

Suvni tejash barqaror muhitni yaratish uchun muhim ekologik xatti-harakatlardan biri hisoblanadi. Ekologik madaniyat odamlarning xulq-atvorida, jumladan, uyda suvdan qanday foydalanishida muhim rol o‘ynaydi. Ushbu tadqiqot ekologik madaniyatning kundalik hayotda suvni tejashga ta’sirini o‘rganishga qaratilgan. Ekologik madaniyatning shaxslarning qaror qilish jarayonidagi ko‘p tomonlama rolini aks ettirish hamda ularni suvni tejash xatti-harakatlarini shakllantirish uchun asosiy omil ekanligi ushbu tadqiqotda ko‘rib chiqildi. Ushbu tadqiqot online so‘rovnoma orqali o’tkazildi va natijalar olindi. Tadqiqot yakunida olingan natijalar ekologik savodxonlik kundalik hayotda suvni tejashdagi muhim elementlardan ekanligi, hamda so‘rovnoma qatnashchilarining suvdan oqilona foydalanish va suvni tejovchi texnologiyalar haqida yetarli ma’lumotlarga ega emasligi oylik suv sarfini yuqoriligiga sabab bo‘lishi aniqlandi.

Kalit so‘zlar: ekologik madaniyat, xulq-atvor, suvni tejash, ekologik ta’lim, iqlim o‘zgarishi.

Kirish. Suv bizning eng qimmatli resursimiz, dunyoda 2.2 milliarddan ortiq odamning to‘g‘ridan-to‘g‘ri suvdan foydalanish imkoniyati yo‘q. U nafaqat omon qolish uchun zarur, balki insoniyat uchun sanitariya, ijtimoiy va madaniy ahamiyatga egadir. (Ciampittiello, Marchetto и Boggero, 2024) Suvning yetishmasligi va ifloslanishi 21-asrda butun dunyoda duch kelayotgan asosiy ekologik muammolardan biridir. Dunyo bo‘yicha toza ichimlik suvidan foydalanish sarfi 1980-yildan boshlab har yili 1 foizga o‘sishda davom etmoqda. (UN Water, 2021) Bu dunyoning 45 foiz hududlarida suv tanqisligiga olib kelgan va natijada turli ekologik muammolarga sabab bo‘lgan.[4] Markaziy Osiyoda ham suv muammosi kunning dolzarb muammolaridan biri bo‘lib turibdi. Markaziy Osiyo mintaqasida suv oziq-ovqat ta’minoti, elektr energiyasi ishlab chiqarish va

[4] Water Scarcity | UN-Water

ekologiyaga to‘g‘ridan-to‘g‘ri ta’sir ko‘rsatadi.[5] Tadqiqotlarga qaraganda, har 10 ta Markaziy Osiyo fuqarosining 3 tasida toza suv iste’moli imkoniyati mavjud emas.[6] Ayni shu dolzarb muammoning yechimi sifatida ekologik ta’lim va ekologik madaniyatni rivojlantirish asosida aholining ekologik xulq-atvorini yaxshilab ekologik muammolarga,jumladan, suv bilan bog‘liq muammolarni hal etish mumkin. Ekologik ta’lim nafaqat tabiatni muhofaza qilishga, balki ayniqsa sezilarli ekologik yaxshilanishlarga olib keladigan yo‘llarni aniqlashga ham xizmat qiladi. Ekologik ta’lim murakkab muammolarni hal qiladi. (Ardoin, Bowers и Gaillard, 2020)

Material va metodlar.

Tadqiqotda bir qancha xorijiy va mahalliy ilmiy maqolalardan hamda Birlashgan Millatlar Tashkilotining rasmiy sahifalarida chop etilgan statistika materiallardan foydalanildi. Ushbu materiallarni sinchiklab o‘rganib, ushbu tadqiqot so‘rovnoma usulida olib borildi. Xalqaro Scopus bazasida chop etilgan so‘rovoma metodi orqali yozilgan shu mazmundagi ilmiy maqolalar o‘rganib chiqildi. (Yang и Sato, 2025, 2025) Tadqiqot so‘rovnomasi online shaklda o‘tkazildi. So‘rovnoma 21 ta savoldan tashkil topgan bo‘lib, 4 ta qismdan iborat: umumiy ma’lumotlar; ekologik madaniyat; suvdan foydalanish xulq-atvori; suv iste’moli va oylik xarajat.

Natijalar va Muhokama

So‘rovnomada jami 1780 ta odam qatnashdi. Shundan 68 foizini(1210) ayollar, 32 foizini(570) erkaklar tashkil etdi. Tadqiqotda qatnashuvchilarning yarmidan ko‘rog‘i(50.6%) 18 yoshdan 30 yoshgacha bo‘lgan yoshlar, qolgan qismida esa 30-50 yoshgacha(41.8%) va 10-18 yoshgacha(7.6%) bo‘lganlardan iborat. Eng qiziq ko’rsatkichlardan biri 59.5 foiz(1060) qatnashuvchi oliy ma’lumotga egadir. So‘rovnomada asosan shahar aholisi qatnashdi(1690).

1-rasm. Ekologik madaniyat so’rovnomasi QR.

Keyingi qismda ya’ni ekologik madaniyat haqidagi savollardan quyidagi natijalar olindi: 1780 ta odamdan 610(32%) kishi ichimlik suvi resurslari cheklangan ekanligidan xabardor emas. 5%(90) odam suvni isrof qilish ekologik muammolarni keltirib chiqarmaydi deb hisoblaydi. 6%(107) odam esa ekologik madaniyat haqida dunyoqarashga ega emas.

Suvdan foydalanish bo‘yicha xulq-atvor haqidagi savollar shuni ko‘stadiki: 34% odam tish yuvayotganda suv jo‘mragini yopib qo‘ymaydi, 39% qatnashuvchi esa idish yuvayotganda suvni me’yorida ishlatmaydi. Keraksiz holatda suvning oqib turishiga yo‘l qo‘ymaysizmi? – degan savolga esa 28% odam yo‘q, 15% odam esa ba’zan deb javob bergan. Suv sizib chiqadigan nosozlikni 5% ovoz berganlar o’z vaqtida ta’mirlamas ekan. Suv tejovchi usullardan kundalik hayotda foydalanish haqidagi savolga esa 400 nafar (22.4%) inson bunday usullar haqidagi ma’lumotlarga ega emasliklari haqida yozganlar. 1112 kishi esa suv tejovchi usullardan foydalanar ekan.

Oxirgi qismda,ya’ni suvni oylik iste’moli va suv uchun oylik to‘lov haqidagi savollarga quyidagicha javob olindi: 53.6 foiz ya’ni 954 nafar qatnashuvchi oylik suv sarfini qanchaligini bilmaydi.

[5] https://www.amerikaovozi.com/a/7180446.html

[6] https://buzb.uz/uz/news/markaziy-osiyoda-suv-muammosi

Oxirgi savollardan olingan xulosa shuki, agar suv narxi oshsa 67 foiz odam suvni tejab ishlatishlarini aytishgan. 66%(1180) odam esa suvni tejovchi texnologiyalar samarali deb hisoblaydi.



2-rasm. So‘rovnomadan olingan natijalar.

Olingan natijalar asosida shu narsa ma’lumki, aholi o‘rtasida ekologik madaniyat yetarli darajada emas, bu kundalik suv sarfini oshiradi. BMT hisobotlariga ko‘ra har bir inson uchun minimal kunlik suv sarfi 50-100 litr bo‘lishi kerak.[7] Tadqiqotlarga ko‘ra shahar aholisi bir kunda taxminan 150-300 litr suv sarflar ekan. (Crouch, Jacobs и Speight, 2021) Bu kunlik ehtiyojdan 2 martaga ko‘p degani. Tepadigi natijalardan ko‘rinib turibdiki, suv bo‘yicha insonlarning xulq-atvori o‘rta darajada buning natijasida kundalik suv sarfi tejalmaydi.

Xulosa

Tadqiqot yakunida ekologik xulq-atvor va madaniyat to‘laqonli shakllanmagan degan xulosaga keldik. Kundalik suv sarfida isrofgarchilik holatlari kuzatiladi. Aksariyat qatnashuvchilar oylik suv sarfi haqida aniq ma’lumotga ega emas. Ekologik madaniyatni rivojlantirish orqali suv sarfini kamaytirish hamda suv resurslaridan oqilona foydalanish mumkin. Buning uchun ekologik savodxonlikni oshirib, insonda ekologik xulq-atvorni shakllantirilsa kundalik suv sarfi kamaytirlisa taxminan 5 mln odam kuniga 50 litr suv tejasa, kuniga 250 000 m^3 suv, yiliga esa 91 250 000 m^3 suv tejab qolinadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

Ardoin, N.M., Bowers, A.W. и Gaillard, E. (2020) «Environmental education outcomes for conservation: A systematic review», *Biological Conservation*, 241, с. 108224. Доступно на: https://doi.org/10.1016/j.biocon.2019.108224.

Ciampittiello, M., Marchetto, A. и Boggero, A. (2024) «Water Resources Management under Climate Change: A Review», *Sustainability*, 16(9), с. 3590. Доступно на: https://doi.org/10.3390/su16093590.

Crouch, M.L., Jacobs, H.E. и Speight, V.L. (2021) «Defining domestic water consumption based on personal water use activities», *Journal of Water Supply: Research and Technology-Aqua*, с. jws2021056. Доступно на: https://doi.org/10.2166/aqua.2021.056.

UN Water (ред.) (2021) *Valuing water*. Paris: UNESCO (The United Nations world water development report, 2021).

Yang, G. и Sato, M. (2025) «The effect of culture on domestic water saving», *Journal of Environmental Management*, 373, с. 123928. Доступно на: https://doi.org/10.1016/j.jenvman.2024.123928.

[7] https://www.un.org/en/global-issues/water

IRRIGATSIYA TIZIMLARIDA SUV TAQSIMOTI SAMARADORLIGINI OSHIRISH MAQSADIDA SUV O‘LCHASH JARAYONINI TAKOMILLASHTIRISH

(Qashqadaryo viloyati Kasbi tumani Qamashi xo‘jaliklararo kanali misolida)

Avlakulov Meyli
Boymurodov Sobirjon
Qarshi davlat texnika universiteti

Annotatsiya. Maqolada bugungi kunning dolzarb muammolaridan biri bo‘lgan suv xo‘jaligi tizimlarida suv sarfini o‘lchash masalasi ko‘rib chiqilgan. Tadqiqot obyekti sifatida Mirishkor xo‘jaliklararo kanalidan suv oluvchi Qamashi sug‘orish kanali tanlangan. Qamashi sug‘orish kanalining PK-0+50-piketida Kasbi tuman suv yetkazib xizmati DM gidrometr xodimlari bilan birgalikda “GR-21m1” markali vertushka hamda “SonTek” S5 markali dopler yordamida dala tadqiqotlari olib borilgan. O‘lchov ishlarida ikkita o‘lchov vositalarining aniqlik darajasi, o‘lchov joyida foydalanish qulayligi va iqtisodiy samaradorligi tahlil qilingan. O‘lchov natijalariga ko‘ra, gidrometrik vertushka orqali aniqlangan o‘rtacha suv sarfi Q=1,476 m^3/s, dopler yordamida o‘lchangan o‘rtacha suv sarfi Q=1,392 m^3/s ni tashkil etdi.

Kalit so‘zlar: kanal, oqim, tezlik, suv sarfi, vertushka, tezlik maydoni, kesim yuzasi.

Kirish. O‘zbekiston Respublikasi Orol dengizi havzasida joylashgan bo‘lib, uning asosiy suv manbai Amudaryo va Sirdaryo daryolari, shuningdek, ichki daryo va soylar hamda yer osti suvlaridir. Orol dengizi havzasidagi barcha manbalarning o‘rtacha ko‘p yillik suv oqimi 116 mlrd m3 ni tashkil etib, shundan 67,4% Amudaryo va 32,6% Sirdaryo havzasida shakllanadi. Jumladan, yer osti suvlarining umumiy zaxirasi 31,2 m3 metrni tashkil etib, uning 47,2% Amudaryo, 52,8 foizi esa Sirdaryo havzasiga to‘g‘ri keladi. Amudaryo va Sirdaryo havzalari suv resurslaridan kompleks foydalanish va ularni muhofaza qilish sxemalariga muvofiq, o‘rtacha ko‘p yillik suv olish limiti 64 mlrd m3 . Shu bilan birgalikda, 1980 yillarda respublikaning yillik suv iste’moli ko‘p yillik limit doirasida bo‘lib, so‘nggi yillarda global iqlim o‘zgarishi, shuningdek, transchegaraviy suvdan foydalanish muammolari tufayli foydalanilgan o‘rtacha yillik suv miqdori 51-53 mlrd m3 , jumladan, 97,2% daryo va soylardan, 1,9% kollektor tarmoqlaridan, 0,9% esa yer ostidan foydalanib, ajratilgan suv olish limitiga nisbatan 20% ga qisqargan. Respublikada sug‘oriladigan yer maydoni 4,3 mln gektarni tashkil etib, jami suv resurslarining o‘rtacha 90-91% qishloq xo‘jaligi, 4,5%, kommunal-maishiy xo‘jalik sohasi, 1,4% sanoat, 1,2% baliqchilik, 0,5% issiqlik energetikasi va 1% esa iqtisodiyotning boshqa tarmoqlarida foydalanilgan. So‘nggi yillarda yer va suv resurslaridan samarali foydalanish, suv resurslarini boshqarish tizimini takomillashtirish, suv xo‘jaligi obyektlarini modernizatsiya qilish va rivojlantirish bo‘yicha izchil islohotlar amalga oshirilmoqda. Aholi va iqtisodiyotning barcha tarmoqlarini suv bilan barqaror ta’minlash, sug‘oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash, suv xo‘jaligiga bozor tamoyillari va mexanizmlari hamda raqamli texnologiyalarni keng joriy etish, suv xo‘jaligi obyektlarining ishonchli ishlashini ta’minlash, shuningdek, yer va suv resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish maqsadida suv xo‘jaligini rivojlantirishning 2020–2030 yillarga mo‘ljallangan konsepsiyasi ishlab chiqildi. Konsepsiyaning asosiy maqsadlaridan biri qishloq va suv xo‘jaligi tarmoqlarida suvni tejaydigan texnologiyalarni keng joriy etish hamda sohada avtomatlashtirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan keng foydalanish nazarda tutiladi. Ma’lumki, suv xo‘jaligi tarmoqlaridagi asosiy muammolardan biri suv resurslari sarfini aniq boshqarish hamda suvni iste’molchilarga suvdan foydalanish rejasi asosida aniq yetkazib berish hisoblanadi [1; 2]. Lekin suvni yetkazib beruvchi sug‘orish kanallarining juda ko‘p qismi grunt o‘zanli hisoblanib, filtratsiya natijasida suv yo‘qotilishi yuzaga keladi. Bundan tashqari, suv taqsimlash inshootlarida suv sarfini aniq o‘lchash va ekin maydonlari uchun suv sarfini to‘g‘ri taqsimlash muhim vazifalardan sanaladi [3; 4].

Material va metodlar Statik va dinamik mustahkam kanallarning gidravlik hisobiga doir izlanishlar S.T. Altunin, S.X. Abalyans, s.Ye. Mirsxulava hamda yurtimiz olimlaridan K.Sh. Latipov, A.M. Muxamedov, R.M. Karimov, X. Ishanov, A. Arifjanov, A.M. Fatxullaev va boshqa tadqiqotchilar tomonidan olib borilgan [5]. Ya’ni ular kanallar gidravlik parametrlari o‘zgarishi orqali kanaldagi oqimning gidravlik parametrlari o‘zgarib borishi va buning natijasida magistral

kanallarning suv o‘tkazish qobiliyatining pasayishi, deformatsion jarayonlar yuzaga kelishi kabi muammolarni o‘rgangan [6]. Albatta, bunday muammolar qishloq xo‘jaligi tizimi va iqtisodiy tarmoqlarga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Xususan, qishloq xo‘jaligida hosildorlikning yuqori bo‘lishi yerlarning meliorativ holati va suv bilan ta’minlanganlik darajasiga bog‘liq. Qishloq xo‘jaligida suvdan foydalanish rejasiga asosan, ekin maydonlarining yillik suv sarfi, kam suvli davrlarda esa limit suv sarfi dekadalar bo‘yicha oldindan hisoblanib tasdiqlanadi [7]. Vegetatsiya davridagi eng dolzarb muammolardan biri suvdan foydalanish rejasi asosida suvni to‘g‘ri taqsimlash, sarfni aniq o‘lchash orqali kanaldagi suv sarfini boshqarish hisoblanadi [8]. Afsuski, hozirgi kunda suv o‘lchash asboblarining vaqtida tarirovka qilinmasligi suv o‘lchash jarayonida inson omili ishtirokining intensivligi kanaldagi suv sarfini aniq taqsimlash va boshqarishga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda [9]. Mazkur muammolarni bartaraf etish uchun suv xo‘jaligi tarmoqlaridagi suv taqsimlash inshootlari, suv yetkazib beruvchi kanallarda suv sarfini to‘g‘ri boshqarish hamda suv sarfini o‘lchashda zamonaviy avtomatik boshqariluvchi suv o‘lchash texnologiyalaridan foydalanish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Yuqoridagi omillar natijasida qishloq va suv xo‘jaligi tarmoqlarida qator muammolar kelib chiqmoqda [10].

Tadqiqot obyektining keltirilgan bir nechta piketlarida, zamonaviy o‘lchov vositalaridan foydalangan holda, tajribalar o‘tkazildi hamda aniq ma’lumotlar olindi. Yuqorida bayon etilgan muammolardan biri bo‘lgan suv iste’molchilarining suvga bo‘lgan talabini to‘la qondira olmaslik kanallarda suv resurslarini aniq va samarali boshqarish imkoniyati pastligidan kelib chiqmoqda. Bugungi kunda amaliyotda kanallarda suv sarfini hisoblash bo‘yicha eng ko‘p tarqalgan usul bu oqim tezligi va uning ko‘ndalang kesimini aniqlash, so‘ngra suv sarfini hisoblash usulidir. Bu usul fanda tezlik maydon usuli deb ataladi [12]. Oqimning ko‘ndalang kesimi orqali oqib o‘tgan sarf miqdoriga teng bo‘lgan suv sarfi modelini aniqlash “tezlik maydon” usuli mohiyati hisoblanadi va quyidagicha tavsiflanadi (2-rasm). Ma’lumki, suvning oqish tezligi oqimning harakat kesim yuzasining turli nuqtalarida har xil qiymatga ega bo‘ladi: eng katta tezlik oqim yuzasida, eng kichik tezlik esa kanal qirg‘oqlari hamda tubida kuzatiladi [13]. Suv sarfini o‘lchash vositalari: a) “GR-21m1” markali vertushka; b) “SonTek” S5 markali dopler li kesim yuzasining turli kesimlaridagi elementar maydonchalar orqali oqib o‘tadigan suv sarfi ham har xil bo‘ladi. Hisoblash ishlarida suv sarfi har bir elementar maydonchadagi oqim tezligining shu maydoncha yuzasiga ko‘paytirib aniqlanadi va barcha elementar maydonchalardagi suv sarfi orqali umumiy suv sarfini aniqlash mumkin [14].

Tadqiqot Mirishkor xo‘jaliklararo kanalidan suv oluvchi Qamashi sug‘orish kanalining PK-0+50 chi piketida joylashgan suv o‘lchash ishlarini olib borishga mo‘ljallangan gidrometrik ko‘prikdan foydalangan holda amalga oshirildi [16]. Ya’ni Qamashi sug‘orish kanalining PK-0+50 chi piketida Kasbi tuman suv yetkazib xizmati DM gidrometr xodimlari bilan birgalikda “GR-21m1” markali vertushka hamda “SonTek” S5 markali dopler yordamida o‘lchov ishlari olib borildi (3-rasm).

Tadqiqotning birinchi bosqichida o‘lchov ishlari GR-21m1 markali vertushka bilan sug‘orish kanalidagi oqim kengligi va chuqurligini inobatga olgan holda, xususan, oqimning ko‘ndalang kesimi bo‘yicha chap qirg‘oqdan o‘ng qirg‘oqqacha beshta nuqtasida hamda oqim chuqurligining me’yoriy talablarini hisobga olgan holda amalga oshirildi [16]. O‘lchov ishlarini olib borishda gidrometrik vertushka shtangasidan foydalanib, oqim ko‘ndalang kesimi bo‘yicha vertikal nuqtalar soni va ular orasidagi masofalar hamda kanaldagi oqimning h chuqurligi aniqlab olindi. O‘lchov ishlarini boshlashdan oldin GR-21m1 markali vertushka kanaldagi oqimga tushirildi va ishchi holati tekshirildi [17]. Shundan so‘ng belgilab olingan vertikal nuqtalardan o‘tayotgan suv tezligini aniqlash jarayoni boshlandi. Bunda sekundomer ishchi holatga keltirildi, gidrometrik vertushka kanaldagi oqimning me’yoriy chuqurligiga tushirilib, vertushka orqali uzatiladigan signal hamda aylanishlar soniga sarflangan vaqt va natijalar qayd etish jadvaliga yozib borildi. Shu tariqa barcha belgilangan vertikal nuqtalarda tajriba o‘lchov ishlari olib borildi va olingan ma’lumotlar tezlik maydon usulidan foydalanib hisoblandi [18; 19].

Tadqiqotning ikkinchi bosqichida SonTek korporatsiyasi tomonidan ishlab chiqarilgan “SonTek S5” markali dopler yordamida Qamashi sug‘orish kanalining PK-0+50 chi piketida o‘lchov ishlarini amalga oshirish uchun o‘lchov apparati va dasturiy ta’minoti ishga tushirildi.

Dasturiy ta’minot ishga tushirilgandan so‘ng o‘lchov joyi haqida birlamchi ma’lumotlar kiritildi. O‘lchov apparati o‘ziga qabul qilgan ma’lumotlarni dasturiy ta’minot (EHM) dasturiga radio to‘lqinli aloqa orqali uzatadi. Olingan natijalar aniqligini oshirish maqsadida o‘lchov apparati belgilangan piketda oqim uzunligiga nisbatan gorizontal holatda birinchi qirg‘oqdan ikkinchi qirg‘oqqa, so‘ngra o‘sha gorizontal tekislik bo‘yicha asta-sekinlik bilan orqaga qaytarib o‘tkaziladi. Aniqlangan natijalar EHM dasturida avtomatik ravishda qayta ishlanib, foydalanuvchiga kerakli aniq ma’lumotlarni yetkazib berishga xizmat qiladi (4-rasm).

Tabiiy dala tadqiqotlari doirasida gidrometrik vertushka orqali o‘lchangan natijalar hisoblandi hamda zamonaviy “SonTek” S5 markali dopler yordamida aniqlangan ma’lumotlar bilan o‘zaro taqqoslandi. Tadqiqot natijalari va tahlili Mirishkor xo‘jaliklararo suv oluvchi Qamashi sug‘orish kanalida olib borilgan ilmiy izlanishlar davomida hozirda foydalanishda bo‘lgan suv sarfini o‘lchash gidrometrik vertushka hamda zamonaviy dopler apparatining o‘lchov natijalarining aniqligi, foydalanishda kelib chiqadigan qiyinchiliklar va qulayliklar, iqtisodiy samaradorligi hamda kanallarda suv sarfini boshqarishdagi ahamiyati o‘rganildi. Kanaldagi oqim kengligi va oqim chuqurligini inobatga olgan holda, gidrometrik vertushka orqali suv sarfini aniqlashda oqimning ko‘ndalang kesim yuzasi shakllantirib olindi. Buning uchun chap qirg‘oqda nol nuqtadan vertikallar orasidagi masofalar yig‘indisi o‘ng qirg‘oqqacha birlashtirildi va oqimning V eni aniqlandi hamda oqim chuqurligining h nuqtalari chiziqlar orqali birlashtirildi va quyidagi chizmada aks ettirildi.

Zamonaviy texnologiyalardan foydalanib, suv sarfini o‘lchash masalasiga e’tibor bersak, dopler yordamida ma’lumotlar olish uchun ikki kishi yetarli. O‘lchov joyi parametrlaridan qat’i nazar, juda qisqa vaqt ichida oqim ko‘ndalang kesim yuzasining umumiy shakli, kesim yuzasiga mos ravishda oqim chuqurligi, oqim tezligi, kanaldagi o‘rtacha sarf kabi ma’lumotlarni elektron shaklda olish mumkin. Bundan tashqari, olingan ma’lumotlarni boshqa kompyuter dasturlariga eksport qilib foydalanish imkoniyati ham mavjud. Dopler o‘lchov natijalarining xatoligini 1-5% gacha ekanligini inobatga olsak, suv xo‘jaligi tarmoqlarida suv sarfini o‘lchashda doplerdan foydalanish ish unumdorligini oshirish, o‘lchov natijalarining aniqligiga erishish hamda iqtisodiy samaradorlikni oshirishga xizmat qiladi.

Xulosalar Maqolada Mirishkor xo‘jaliklararo kanalidan suv oluvchi Qamashi sug‘orish kanalining PK-0+50 chi piketida olib borilgan tadqiqot natijalari va ularning tahlillari keltirilgan. Izlanishlar davomida ikki xil markali oqimning gidravlik elementlarini o‘lchash uchun foydalaniladigan o‘lchov vositalari taqqoslandi. Oqimning gidravlik elementlari dastlab vertushka yordamida aniqlandi hamda o‘lchov natijalarini olishga ketgan vaqt, kanalda o‘lchash ishlarining qulayliklari va natijalarining aniqligi to‘g‘risida xulosa qilindi. Tadqiqotda, shuningdek, oqimning gidravlik elementlarini aniqlashda dopler o‘lchov vositasidan foydalanilgan o‘lchangan natijalar tahlili, foydalanishga qulayligi, natijalarning aniqligi hamda iqtisodiy jihatdan samaradorligi haqidagi xulosalar olindi. Demak, tadqiqot natijalariga ko‘ra, GR-21 m1 markali vertushka yordamida o‘lchangan suv sarfi Q = 1,476 m^3 /s, “SonTek S5” markali dopler yordamida o‘lchangan suv sarfi Q = 1,392 m^3/s ni tashkil qildi. O‘lchov natijalarini inobatga olib, suv xo‘jaligi tizimlarida suv sarfini o‘lchashda zamonaviy o‘lchov vositalarining ahamiyati to‘g‘risida zarur xulosalarga kelindi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1.Arifjanov A., Samiev L., Akmalov Sh. Dependence of Fractional Structure of River Sediments on Chemical Composition. International Journal of Innovative Technology and Exploring Engineering (IJITEE), 2019, November, vol. 9, issue-1. ISSN: 2278-3075.

2.Dalabaev U., Arifjanov A., Apakhodjaeva T., Abduraimova D., Xoshimov S. Kinematic flow parameters during liquid movement in pressurized water pipelines. International Journal of Psychosocial Rehabilitation, 2020, May 19. DOI: 10.37200/IJPR/ V24I5/PR2020666/.

3.Jurik L., Zelenakova M., Kaletova T., Arifjanov A. Small Water Reservoirs: Sources of Water for Irrigation. The handbook of environmental Chemistry. Nitra, Slovaca, Elsevier, 2019, vol. 69, pp. 115-131.

4. Franz B., Freitas M. A. Generation and impacts of floating litter on urban canals and rivers. Rio de Janeiro megacity case study WIT Transactions on Ecology and the environment, 2012.

5. Arifjanov A.M. Method for calculation of the distribution of drift particles in variable

section beds (VSB). Gidrotekhnicheskoe stroitel'stvo – Hydraulic engineering, 2004, issue 2, pp. 44-45.

6. Fatkhulloev A., Gafarova A., and J.Hamraqulov J. The Importance of mobile applications in the use of standard water measurements. International Conference on Information Science and Communications Technologies (ICISCT), Tashkent, Uzbekistan, 2019, pp. 1-3.

7. Akmalov Sh.B., Blanpain O., Masson E. Study of ecological changes in Syrdarya province by using the Remote Sensing GEOBIA analysis method. Irrigatsiya va melioratsiya jurnali – Journal of Irrigation and Land Reclamation, 2017, vol. 2, no. 8, pp. 15-19.

8. Khodjiev A., Ikromova M., Akhmedkhodjaeva I., Xoshimov S. Calculation of accumulation volume and water loses in bottom sediments of bank reservoirs. CONMECHYDRO-2020.

9. Dimov D., Löw F., Uhl J.H., Kenjabaev Sh., Dubovyk O., Ibrakhimov M., Biradar Ch. Framework for agricultural performance assessment based on MODIS multitemporal data. Appl. Remote Sens., 2019, no. 13 (2), pp, 025509. DOI: 10.1117/1.JRS.13.025501/.

11. Debolsky V. The dynamics of channel flows and litho-dynamics in the coastal zone of the sea. Moscow, Nauka Publ., p. 301. 14. Eshev S.S., Khazratov A.N., Rahimov A.R., Latipov Sh.A. Influence of wind waves on the flow in flowing reservoirs. IIUM Engineering Journal, 2020, vol. 21, no. 2. DOI: https://doi. org/10/31436/iiumej.v21i2.1329/.

12. Hosseini J.M., Hashemy Sh.S.M., Neshat A. Eff ects of canal automation on reducing ground water extraction within irrigation districts. Case study of qazvin irrigation district Irrigation and Drainage, 2020.

13. Karimov S., Akbarov A., Jonqobilov U. Gidrologiya, gidrometriya va oqim hajmini rostlash. Darslik [Hydrology, hydrometry and flow rate adjustment. Textbook]. Tashkent, Uzbekistan Publ., 2004, 232 p

SUG'ORISH TARMOG'I KANALLARIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA SUV TAQSIMOTINI TAKOMILLASHTIRISH

Avlakulov Meyli
Boymurodov Sobirjon
Qarshi davlat texnika universiteti

Annotatsiya. Mazkur maqolada suv xo'jaligi tizimlarida suv sarfini aniq o'lchash va suv taqsimoti samaradorligini oshirish masalalari tahlil qilingan. Tadqiqot ob'ekti sifatida Mirishkor xo'jaliklararo kanalidan suv oluvchi Qamashi sug'orish kanali tanlangan. Dala tadqiqotlari Qamashi sug'orish kanalining PK-0+50 piketida gidrometrik ko'prikda amalga oshirildi. O'lchov ishlarida "GR-21m1" markali gidrometrik vertushka hamda "SonTek S5" markali akustik dopler o'lchov vositasidan foydalanildi. O'lchov natijalariga ko'ra, gidrometrik vertushka orqali aniqlangan o'rtacha suv sarfi Q = 1,476 m³/s, dopler asbobi orqali aniqlangan suv sarfi esa Q = 1,392 m³/s ni tashkil etdi. O'lchov vositalarining aniqligi, foydalanish qulayligi va ish unumdorligi nuqtai nazaridan tahlil qilindi.

Kalit so'zlar: kanal, oqim tezligi, suv sarfi, gidrometriya, vertushka, akustik dopler, tezlik maydoni.

Annotatsiya. V dannoy statьe rassmotrenы voprosы povыsheniya effektivnosti raspredeleniya vodы i sovershenstvovaniya protsessov izmereniya rasxoda vodы v orositelьnыx sistemax. V kachestve ob'ekta issledovaniya vыbran Kamashinskiy orositelьnыy kanal, pitayemыy ot Mirishkorskogo mejxozyaystvennogo kanala. Polevыye issledovaniya vыpolnenы na pikete PK-0+50 s ispolьzovaniyem gidrometricheskoy vertushki «GR-21m1» i akusticheskogo doplerovskogo izmeritelya «SonTek S5». Po rezulьtatam izmereniy sredniy rasxod vodы, opredelyonnыy vertushkoy, sostavil Q = 1,476 m³/s, a s ispolьzovaniyem doplerovskogo pribora – Q = 1,392 m³/s. Provedyon sravnitelьnыy analiz tochnosti, ekspluatatsionnыx xarakteristik i proizvoditelьnosti izmeritelьnыx priborov.

Klyuchevыye slova: kanal, skorostь potoka, rasxod vodы, gidrometriya, vertushka, akusticheskiy dopler, pole skorostey.

Kirish. O‘zbekiston Respublikasi Orol dengizi havzasida joylashgan bo‘lib, uning asosiy suv manbai Amudaryo va Sirdaryo daryolari, shuningdek, ichki daryo va soylar hamda yer osti suvlaridir. Orol dengizi havzasidagi barcha manbalarning o‘rtacha ko‘p yillik suv oqimi 116 mlrd m3 ni tashkil etib, shundan 67,4% Amudaryo va 32,6% Sirdaryo havzasida shakllanadi. Jumladan, yer osti suvlarining umumiy zaxirasi 31,2 m3 metrni tashkil etib, uning 47,2% Amudaryo, 52,8 foizi esa Sirdaryo havzasiga to‘g‘ri keladi. Amudaryo va Sirdaryo havzalari suv resurslaridan kompleks foydalanish va ularni muhofaza qilish sxemalariga muvofiq, o‘rtacha ko‘p yillik suv olish limiti 64 mlrd m3 . Shu bilan birgalikda, 1980 yillarda respublikaning yillik suv iste’moli ko‘p yillik limit doirasida bo‘lib, so‘nggi yillarda global iqlim o‘zgarishi, shuningdek, transchegaraviy suvdan foydalanish muammolari tufayli foydalanilgan o‘rtacha yillik suv miqdori 51-53 mlrd m3 , jumladan, 97,2% daryo va soylardan, 1,9% kollektor tarmoqlaridan, 0,9% esa yer ostidan foydalanib, ajratilgan suv olish limitiga nisbatan 20% ga qisqargan. Respublikada sug‘oriladigan yer maydoni 4,3 mln gektarni tashkil etib, jami suv resurslarining o‘rtacha 90-91% qishloq xo‘jaligi, 4,5%, kommunal-maishiy xo‘jalik sohasi, 1,4% sanoat, 1,2% baliqchilik, 0,5% issiqlik energetikasi va 1% esa iqtisodiyotning boshqa tarmoqlarida foydalanilgan. So‘nggi yillarda yer va suv resurslaridan samarali foydalanish, suv resurslarini boshqarish tizimini takomillashtirish, suv xo‘jaligi obektlarini modernizatsiya qilish va rivojlantirish bo‘yicha izchil islohotlar amalga oshirilmoqda. Aholi va iqtisodiyotning barcha tarmoqlarini suv bilan barqaror ta’minlash, sug‘oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash, suv xo‘jaligiga bozor tamoyillari va mexanizmlari hamda raqamli texnologiyalarni keng joriy etish, suv xo‘jaligi obektlarining ishonchli ishlashini ta’minlash, shuningdek, yer va suv resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish maqsadida suv xo‘jaligini rivojlantirishning 2020–2030 yillarga mo‘ljallangan konsepsiyasi ishlab chiqildi. Konsepsiyaning asosiy maqsadlaridan biri qishloq va suv xo‘jaligi tarmoqlarida suvni tejaydigan texnologiyalarni keng joriy etish hamda sohada avtomatlashtirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan keng foydalanish nazarda tutiladi. Ma’lumki, suv xo‘jaligi tarmoqlaridagi asosiy muammolardan biri suv resurslari sarfini aniq boshqarish hamda suvni iste’molchilarga suvdan foydalanish rejasi asosida aniq yetkazib berish hisoblanadi [1; 2]. Lekin suvni yetkazib beruvchi sug‘orish kanallarining juda ko‘p qismi grunt o‘zanli hisoblanib, filtratsiya natijasida suv yo‘qotilishi yuzaga keladi. Bundan tashqari, suv taqsimlash inshootlarida suv sarfini aniq o‘lchash va ekin maydonlari uchun suv sarfini to‘g‘ri taqsimlash muhim vazifalardan sanaladi [3; 4].

Material va metodlar. Statik va dinamik mustahkam kanallarning gidravlik hisobiga doir izlanishlar S.T. Altunin, S.X. Abalyans, s.E. Mirsxulava hamda yurtimiz olimlaridan K.Sh. Latipov, A.M. Muxamedov, R.M. Karimov, X. Ishanov, A. Arifjanov, A.M. Fatxullayev va boshqa tadqiqotchilar tomonidan olib borilgan [5]. Ya’ni ular kanallar gidravlik parametrlari o‘zgarishi orqali kanaldagi oqimning gidravlik parametrlari o‘zgarib borishi va buning natijasida magistral kanallarning suv o‘tkazish qobiliyatining pasayishi, deformatsion jarayonlar yuzaga kelishi kabi muammolarni o‘rgangan [6]. Albatta, bunday muammolar qishloq xo‘jaligi tizimi va iqtisodiy tarmoqlarga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Xususan, qishloq xo‘jaligida hosildorlikning yuqori bo‘lishi yerlarning meliorativ holati va suv bilan ta’minlanganlik darajasiga bog‘liq. Qishloq xo‘jaligida suvdan foydalanish rejasiga asosan, ekin maydonlarining yillik suv sarfi, kam suvli davrlarda esa limit suv sarfi dekadalar bo‘yicha oldindan hisoblanib tasdiqlanadi [7]. Vegetatsiya davridagi eng dolzarb muammolardan biri suvdan foydalanish rejasi asosida suvni to‘g‘ri taqsimlash, sarfni aniq o‘lchash orqali kanaldagi suv sarfini boshqarish hisoblanadi [8]. Afsuski, hozirgi kunda suv o‘lchash asboblarining vaqtida tarirovka qilinmasligi suv o‘lchash jarayonida inson omili ishtirokining intensivligi kanaldagi suv sarfini aniq taqsimlash va boshqarishga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda [9]. Mazkur muammolarni bartaraf etish uchun suv xo‘jaligi tarmoqlaridagi suv taqsimlash inshootlari, suv yetkazib beruvchi kanallarda suv sarfini to‘g‘ri boshqarish hamda suv sarfini o‘lchashda zamonaviy avtomatik boshqariluvchi suv o‘lchash texnologiyalaridan foydalanish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Yuqoridagi omillar natijasida qishloq va suv xo‘jaligi tarmoqlarida qator muammolar kelib chiqmoqda [10].

Tadqiqot uslublari. Tadqiqot obektining keltirilgan bir nechta piketlarida, zamonaviy o‘lchov vositalaridan foydalangan holda, tajribalar o‘tkazildi hamda aniq ma’lumotlar olindi.

Yuqorida bayon etilgan muammolardan biri bo‘lgan suv iste’molchilarining suvga bo‘lgan talabini to‘la qondira olmaslik kanallarda suv resurslarini aniq va samarali boshqarish imkoniyati pastligidan kelib chiqmoqda. Bugungi kunda amaliyotda kanallarda suv sarfini hisoblash bo‘yicha eng ko‘p tarqalgan usul bu oqim tezligi va uning ko‘ndalang kesimini aniqlash, so‘ngra suv sarfini hisoblash usulidir. Bu usul fanda tezlik maydon usuli deb ataladi [12]. Oqimning ko‘ndalang kesimi orqali oqib o‘tgan sarf miqdoriga teng bo‘lgan suv sarfi modelini aniqlash “tezlik maydon” usuli mohiyati hisoblanadi va quyidagicha tavsiflanadi (2-rasm). Ma’lumki, suvning oqish tezligi oqimning harakat kesim yuzasining turli nuqtalarida har xil qiymatga ega bo‘ladi: eng katta tezlik oqim yuzasida, eng kichik tezlik esa kanal qirg‘oqlari hamda tubida kuzatiladi [13]. Suv sarfini o‘lchash vositalari: a) “GR-21m1” markali vertushka; b) “SonTek” S5 markali dopler li kesim yuzasining turli kesimlaridagi elementar maydonchalar orqali oqib o‘tadigan suv sarfi ham har xil bo‘ladi. Hisoblash ishlarida suv sarfi har bir elementar maydonchadagi oqim tezligining shu maydoncha yuzasiga ko‘paytirib aniqlanadi va barcha elementar maydonchalardagi suv sarfi orqali umumiy suv sarfini aniqlash mumkin [14].

Natijalar. Tadqiqot Mirishkor xo‘jaliklararo kanalidan suv oluvchi Qamashi sug‘orish kanalining PK-0+50 chi piketida joylashgan suv o‘lchash ishlarini olib borishga mo‘ljallangan gidrometrik ko‘prikdan foydalangan holda amalga oshirildi [16]. Ya’ni Qamashi sug‘orish kanalining PK-0+50 chi piketida Kasbi tuman suv yetkazib xizmati DM gidrometr xodimlari bilan birgalikda “GR-21m1” markali vertushka hamda “SonTek” S5 markali dopler yordamida o‘lchov ishlari olib borildi (3-rasm).

Tadqiqotning birinchi bosqichida o‘lchov ishlari GR-21m1 markali vertushka bilan sug‘orish kanalidagi oqim kengligi va chuqurligini inobatga olgan holda, xususan, oqimning ko‘ndalang kesimi bo‘yicha chap qirg‘oqdan o‘ng qirg‘oqqacha beshta nuqtasida hamda oqim chuqurligining me’yoriy talablarini hisobga olgan holda amalga oshirildi [16]. O‘lchov ishlarini olib borishda gidrometrik vertushka shtangasidan foydalanib, oqim ko‘ndalang kesimi bo‘yicha vertikal nuqtalar soni va ular orasidagi masofalar hamda kanaldagi oqimning h chuqurligi aniqlab olindi. O‘lchov ishlarini boshlashdan oldin GR-21m1 markali vertushka kanaldagi oqimga tushirildi va ishchi holati tekshirildi [17]. Shundan so‘ng belgilab olingan vertikal nuqtalardan o‘tayotgan suv tezligini aniqlash jarayoni boshlandi. Bunda sekundomer ishchi holatga keltirildi, gidrometrik vertushka kanaldagi oqimning me’yoriy chuqurligiga tushirilib, vertushka orqali uzatiladigan signal hamda aylanishlar soniga sarflangan vaqt va natijalar qayd etish jadvaliga yozib borildi. Shu tariqa barcha belgilangan vertikal nuqtalarda tajriba o‘lchov ishlari olib borildi va olingan ma’lumotlar tezlik maydon usulidan foydalanib hisoblandi [18; 19].

Tadqiqotning ikkinchi bosqichida SonTek korporatsiyasi tomonidan ishlab chiqarilgan “SonTek S5” markali dopler yordamida Qamashi sug‘orish kanalining PK-0+50 chi piketida o‘lchov ishlarini amalga oshirish uchun o‘lchov apparati va dasturiy ta’minoti ishga tushirildi. Dasturiy ta’minot ishga tushirilgandan so‘ng o‘lchov joyi haqida birlamchi ma’lumotlar kiritildi. O‘lchov apparati o‘ziga qabul qilgan ma’lumotlarni dasturiy ta’minot (EHM) dasturiga radio to‘lqinli aloqa orqali uzatadi. Olingan natijalar aniqligini oshirish maqsadida o‘lchov apparati belgilangan piketda oqim uzunligiga nisbatan gorizontal holatda birinchi qirg‘oqdan ikkinchi qirg‘oqqa, so‘ngra o‘sha gorizontal tekislik bo‘yicha asta-sekinlik bilan orqaga qaytarib o‘tkaziladi. Aniqlangan natijalar EHM dasturida avtomatik ravishda qayta ishlanib, foydalanuvchiga kerakli aniq ma’lumotlarni yetkazib berishga xizmat qiladi (4-rasm).

Tabiiy dala tadqiqotlari doirasida gidrometrik vertushka orqali o‘lchangan natijalar hisoblandi hamda zamonaviy “SonTek” S5 markali dopler yordamida aniqlangan ma’lumotlar bilan o‘zaro taqqoslandi. Tadqiqot natijalari va tahlili Mirishkor xo‘jaliklararo suv oluvchi Qamashi sug‘orish kanalida olib borilgan ilmiy izlanishlar davomida hozirda foydalanishda bo‘lgan suv sarfini o‘lchash gidrometrik vertushka hamda zamonaviy dopler apparatining o‘lchov natijalarining aniqligi, foydalanishda kelib chiqadigan qiyinchiliklar va qulayliklar, iqtisodiy samaradorligi hamda kanallarda suv sarfini boshqarishdagi ahamiyati o‘rganildi. Kanaldagi oqim kengligi va oqim chuqurligini inobatga olgan holda, gidrometrik vertushka orqali suv sarfini aniqlashda oqimning ko‘ndalang kesim yuzasi shakllantirib olindi. Buning uchun chap qirg‘oqda nol nuqtadan vertikallar orasidagi masofalar yig‘indisi o‘ng qirg‘oqqacha birlashtirildi va oqimning V eni aniqlandi hamda

oqim chuqurligining h nuqtalari chiziqlar orqali birlashtirildi va quyidagi chizmada aks ettirildi.

Zamonaviy texnologiyalardan foydalanib, suv sarfini o‘lchash masalasiga e’tibor bersak, dopler yordamida ma’lumotlar olish uchun ikki kishi yetarli. O‘lchov joyi parametrlaridan qat’i nazar, juda qisqa vaqt ichida oqim ko‘ndalang kesim yuzasining umumiy shakli, kesim yuzasiga mos ravishda oqim chuqurligi, oqim tezligi, kanaldagi o‘rtacha sarf kabi ma’lumotlarni elektron shaklda olish mumkin. Bundan tashqari, olingan ma’lumotlarni boshqa kompyuter dasturlariga eksport qilib foydalanish imkoniyati ham mavjud. Dopler o‘lchov natijalarining xatoligini 1-5% gacha ekanligini inobatga olsak, suv xo‘jaligi tarmoqlarida suv sarfini o‘lchashda doplerdan foydalanish ish unumdorligini oshirish, o‘lchov natijalarining aniqligiga erishish hamda iqtisodiy samaradorlikni oshirishga xizmat qiladi.

Xulosa. Maqolada Mirishkor xo‘jaliklararo kanalidan suv oluvchi Qamashi sug‘orish kanalining PK-0+50 chi piketida olib borilgan tadqiqot natijalari va ularning tahlillari keltirilgan. Izlanishlar davomida ikki xil markali oqimning gidravlik elementlarini o‘lchash uchun foydalaniladigan o‘lchov vositalari taqqoslandi. Oqimning gidravlik elementlari dastlab vertushka yordamida aniqlandi hamda o‘lchov natijalarini olishga ketgan vaqt, kanalda o‘lchash ishlarining qulayliklari va natijalarining aniqligi to‘g‘risida xulosa qilindi. Tadqiqotda, shuningdek, oqimning gidravlik elementlarini aniqlashda dopler o‘lchov vositasidan foydalanilgan o‘lchangan natijalar tahlili, foydalanishga qulayligi, natijalarning aniqligi hamda iqtisodiy jihatdan samaradorligi haqidagi xulosalar olindi. Demak, tadqiqot natijalariga ko‘ra, GR-21 m1 markali vertushka yordamida o‘lchangan suv sarfi Q = 1,476 m3 /s, “SonTek S5” markali dopler yordamida o‘lchangan suv sarfi Q = 1,392 m3/s ni tashkil qildi. O‘lchov natijalarini inobatga olib, suv xo‘jaligi tizimlarida suv sarfini o‘lchashda zamonaviy o‘lchov vositalarining ahamiyati to‘g‘risida zarur xulosalarga kelindi.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1.Arifjanov A., Samiev L., Akmalov Sh. Dependence of Fractional Structure of River Sediments on Chemical Composition. International Journal of Innovative Technology and Exploring Engineering (IJITEE), 2019, November, vol. 9, issue-1. ISSN: 2278-3075.

2.Dalabaev U., Arifjanov A., Apakhodjaeva T., Abduraimova D., Xoshimov S. Kinematic flow parameters during liquid movement in pressurized water pipelines. International Journal of Psychosocial Rehabilitation, 2020, May 19. DOI: 10.37200/IJPR/ V24I5/PR2020666/.

3.Jurik L., Zelenakova M., Kaletova T., Arifjanov A. Small Water Reservoirs: Sources of Water for Irrigation. The handbook of environmental Chemistry. Nitra, Slovaca, Elsevier, 2019, vol. 69, pp. 115-131.

4. Franz B., Freitas M. A. Generation and impacts of floating litter on urban canals and rivers. Rio de Janeiro megacity case study WIT Transactions on Ecology and the environment, 2012.

5. Arifjanov A.M. Method for calculation of the distribution of drift particles in variable section beds (VSB). Gidrotekhnicheskoe stroitel’stvo – Hydraulic engineering, 2004, issue 2, pp. 44-45.

6. Fatkhulloev A., Gafarova A., and J.Hamraqulov J. The Importance of mobile applications in the use of standard water measurements. International Conference on Information Science and Communications Technologies (ICISCT), Tashkent, Uzbekistan, 2019, pp. 1-3.

7. Akmalov Sh.B., Blanpain O., Masson E. Study of ecological changes in Syrdarya province by using the Remote Sensing GEOBIA analysis method. Irrigatsiya va melioratsiya jurnali – Journal of Irrigation and Land Reclamation, 2017, vol. 2, no. 8, pp. 15-19.

8. Khodjiev A., Ikromova M., Akhmedkhodjaeva I., Xoshimov S. Calculation of accumulation volume and water loses in bottom sediments of bank reservoirs. CONMECHYDRO-2020.

9. Dimov D., Löw F., Uhl J.H., Kenjabaev Sh., Dubovyk O., Ibrakhimov M., Biradar Ch. Framework for agricultural performance assessment based on MODIS multitemporal data. Appl. Remote Sens., 2019, no. 13 (2), pp, 025509. DOI: 10.1117/1.JRS.13.025501/.

11. Debolsky V. The dynamics of channel flows and litho-dynamics in the coastal zone of the sea. Moscow, Nauka Publ., p. 301. 14. Eshev S.S., Khazratov A.N., Rahimov A.R., Latipov Sh.A. Influence of wind waves on the flow in flowing reservoirs. IIUM Engineering Journal, 2020, vol.

21, no. 2. DOI: https://doi. org/10/31436/iiumej.v21i2.1329/.

12. Hosseini J.M., Hashemy Sh.S.M., Neshat A. Eff ects of canal automation on reducing ground water extraction within irrigation districts. Case study of qazvin irrigation district Irrigation and Drainage, 2020.

13. Karimov S., Akbarov A., Jonqobilov U. Gidrologiya, gidrometriya va oqim hajmini rostlash. Darslik [Hydrology, hydrometry and flow rate adjustment. Textbook]. Tashkent, Uzbekistan Publ., 2004, 232 p

GLOBAL IQLIM O‘ZGARISHI SHAROITIDA SUV TANQISLIGINI YUMSHATISHDA “SMART” TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

Safarova Nilufar Vohidovna, Abdimurodov Sherzod
Qarshi davlat texnika universiteti

Annotatsiya: Mazkur maqolada global iqlim o‘zgarishi sharoitida suv resurslaridan samarali foydalanish masalalari tahlil qilinadi. Qishloq xo‘jaligida suv tanqisligining kuchayib borishi, uning ekologik va iqtisodiy oqibatlari hamda zamonaviy “smart” texnologiyalar yordamida suvdan oqilona foydalanish imkoniyatlari yoritilgan. Sug‘orish tizimlarini modernizatsiya qilish, raqamli monitoring tizimlarini joriy etish va suvni tejash bo‘yicha ilmiy asoslangan tavsiyalar berilgan.

Аннотация:В данной статье анализируются вопросы эффективного использования водных ресурсов в условиях глобального изменения климата. Рассматривается усиливающийся дефицит воды в сельском хозяйстве, а также его экологические и экономические последствия. Кроме того, освещаются возможности рационального использования водных ресурсов с применением современных «smart» технологий. Представлены научно обоснованные рекомендации по модернизации оросительных систем, внедрению цифровых систем мониторинга и мерам по экономии воды.

Abstract: This article analyzes the issues of efficient use of water resources under the conditions of global climate change. It examines the growing water scarcity in agriculture, as well as its environmental and economic consequences in addition, the possibilities of rational use of water resources through the application of modern “smart” technologies are highlighted. The paper also provides scientifically grounded recommendations for the modernization of irrigation systems, the implementation of digital monitoring systems, and measures aimed at water conservation

Kalit so‘zlar: global iqlim o‘zgarishi, suv resurslari, suv tanqisligi, qishloq xo‘jaligi, smart texnologiyalar, tomchilatib sug‘orish, raqamli monitoring.

Ключевые слова: Глобальное изменение климата, водные ресурсы, дефицит воды, сельское хозяйство, смарт-технологии, капельное орошение, цифровой мониторинг.

Keywords: Global climate change, water resources, water scarcity, agriculture, smart technologies, drip irrigation, digital monitoring

XXI asrda insoniyat oldida turgan eng katta ekologik muammolardan biri — global iqlim o‘zgarishi va uning oqibatida yuzaga kelayotgan suv tanqisligidir. Aholi sonining tez o‘sishi, sanoat va qishloq xo‘jaligining kengayishi natijasida suvga bo‘lgan talab ortib bormoqda. Shu bilan birga, iqlim o‘zgarishi tufayli mavjud suv resurslari kamaymoqda va ularning sifati yomonlashmoqda.

BMT ma’lumotlariga ko‘ra, 2050-yilga borib dunyo aholisining qariyb 40–50 foizi suv tanqisligi sharoitida yashashi mumkin bu esa suv resurslarini boshqarishda innovatsion yondashuvlarni talab qiladi hozirgi davrda global iqlim o‘zgarishi insoniyat oldidagi eng dolzarb ekologik muammolardan biri hisoblanadi haroratning shishi, yog‘ingarchilik miqdorining o‘zgarishi va qurg‘oqchilik hodisalarining ko‘payishi natijasida suv resurslari kamayib bormoqda ayniqsa qishloq xo‘jaligida suvdan samarali foydalanish masalasi muhim ahamiyat kasb etadi dunyo miqyosida olib borilgan ilmiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, suv resurslarining kamayishi kelajakda hosildorlikni pasaytiradi va oziq-ovqat xavfsizligiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Shu sababli suv resurslaridan oqilona foydalanish va ularni boshqarishning zamonaviy usullarini ishlab chiqish bugungi kunning asosiy vazifalaridan biridir global iqlim o‘zgarishining suv resurslariga ta’sirini ko’rsatadi. Global iqlim o‘zgarishi natijasida tabiiy suv manbalarining miqdori va sifati sezilarli darajada o‘zgarib bormoqda. muzliklarning erishi, daryolar suvining

kamayishi hamda yer osti suvlarining pasayishi ko‘plab hududlarda suv ta’minoti muammolarini yuzaga keltirmoqda. Mutaxassislar fikriga ko‘ra, suv resurslarining kamayishi ayniqsa qishloq xo‘jaligi hosildorligiga salbiy ta’sir qiladi shu sababli suvdan foydalanish samaradorligini oshirish va suvni tejashga qaratilgan zamonaviy texnologiyalarni joriy etish dolzarb masala hisoblanadi qishloq xo‘jaligida smart texnologiyalarning roli hozirgi vaqtda juda samarali va suvni tejashda katta yordam berayapti.

So‘nggi yillarda qishloq xo‘jaligida raqamli va avtomatlashtirilgan tizimlar keng qo‘llanilmoqda. “Smart” texnologiyalar yordamida ekin maydonlarining holatini monitoring qilish, tuproq namligini aniqlash va sug‘orish jarayonini avtomatik boshqarish imkoniyati yaratildi. Masalan, tomchilatib sug‘orish tizimi suvni to‘g‘ridan-to‘g‘ri o‘simlik ildiziga yetkazadi bu usul orqali suv sarfi 30–50% ga kamayishi va hosildorlikni oshirish katta yordam bermoqda bundan tashqari, tuproq namligini o‘lchovchi sensorlar yordamida sug‘orish jarayoni optimallashtiriladi va raqamli monitoring tizimlari orqali sug‘orish jarayonini masofadan boshqarish, suv sarfini hisoblash va boshqarish imkoniyatlari kengaymoqda. Bunday texnologiyalar suv resurslaridan samarali foydalanishda yordam beradi va ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytiradi suv resurslarini boshqarishda innovatsion yondashuvlar muhim rol o‘ynaydi. Jumladan: Suvni tejovchi sug‘orish texnologiyalarini joriy etish qishloq xo‘jaligida raqamli monitoring tizimlaridan foydalanish suv infratuzilmasini modernizatsiya qilish ekologik barqaror texnologiyalarni qo‘llash bu yondashuvlar suv resurslaridan oqilona foydalanish va qishloq xo‘jaligida barqaror rivojlanishni ta’minlashga xizmat qiladi.

Bundan tashqari, suv resurslarini boshqarishda axborot texnologiyalaridan foydalanish, ya’ni masofadan monitoring qilish, sun’iy yo‘ldosh ma’lumotlari asosida tahlil olib borish hamda raqamli platformalar orqali sug‘orish jarayonini boshqarish qishloq xo‘jaligini yanada rivojlantirishga yordam beradi. Bu esa suvdan foydalanish samaradorligini oshirish bilan bir qatorda ekologik muvozanatni saqlashga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.Kelgusida suv resurslarini boshqarishda ilmiy yondashuvni kuchaytirish, yangi innovatsion texnologiyalarni ishlab chiqish va ularni amaliyotga keng joriy etish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Shu bilan birga, qishloq xo‘jaligida suvdan oqilona foydalanish madaniyatini shakllantirish, suv tejovchi texnologiyalarni qo‘llashni kengaytirish hamda davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini rivojlantirish zarur. Iqlim o‘zgarishi va suv tanqisligi o‘rtasidagi bog‘liqlik esa global iqlim o‘zgarishi suv aylanish tizimiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi haroratning oshishi bug‘lanish jarayonini tezlashtiradi, natijada yer usti va yer osti suv zaxiralari kamayadi. Bundan tashqari, yog‘inlarning notekis taqsimlanishi ayrim hududlarda toshqinlarga, boshqalarida esa qurg‘oqchilikka olib keladi.

Markaziy Osiyo, jumladan O‘zbekiston uchun ham bu muammo dolzarbdir. Amudaryo va Sirdaryo havzalarida suv hajmining kamayishi, muzliklarning qisqarishi va suvga bo‘lgan talabning ortishi kelajakda suv xavfsizligiga jiddiy tahdid solmoqda. Kelgusida O‘zbekistonda “smart” texnologiyalarni yanada keng joriy etish uchun bir qator muhim yo‘nalishlarga e’tibor qaratish zarur. Avvalo, suv xo‘jaligi infratuzilmasini modernizatsiya qilish muhim ahamiyatga ega. Eskirgan kanallar, nasos stansiyalari va boshqa gidrotexnik inshootlarni yangilash orqali zamonaviy texnologiyalarni joriy etish uchun zarur sharoit yaratiladi.

Shuningdek, malakali mutaxassislar tayyorlash masalasi ham dolzarb hisoblanadi. “Smart” texnologiyalarni samarali qo‘llash uchun axborot texnologiyalari, muhandislik va suv xo‘jaligi sohalarida bilimga ega kadrlar zarur. Shu bois oliy ta’lim muassasalarida zamonaviy o‘quv dasturlarini joriy etish va amaliy ko‘nikmalarni rivojlantirish muhimdir. Xalqaro tajribani o‘rganish va joriy etish ham katta ahamiyat kasb etadi. Suv resurslarini boshqarishda ilg‘or texnologiyalarni qo‘llayotgan davlatlar tajribasidan foydalanish orqali O‘zbekistonda ham samarali tizimlarni shakllantirish mumkin. Bu borada xalqaro tashkilotlar va xorijiy hamkorlar bilan hamkorlikni kengaytirish maqsadga muvofiqdir. Bundan tashqari, sohani rivojlantirish uchun investitsiyalarni jalb qilish zarur. Davlat-xususiy sheriklik asosida loyihalarni amalga oshirish, xorijiy investitsiyalarni jalb etish va innovatsion startaplarni qo‘llab-quvvatlash orqali “smart” texnologiyalarni joriy etish jarayonini tezlashtirish mumkin.

Umuman olganda, “smart” texnologiyalarni qishloq xo‘jaligida qo‘llash suv tanqisligi muammosini yumshatishda, suv resurslaridan samarali foydalanishda va qishloq xo‘jaligining

barqaror rivojlanishini ta’minlashda muhim omil hisoblanadi. Ushbu texnologiyalarni keng joriy etish orqali global iqlim o‘zgarishi sharoitida suv resurslarini muhofaza qilish, ekologik barqarorlikni ta’minlash hamda kelajak avlodlar uchun tabiiy resurslarni asrab qolish mumkin.

Xulosa qilib aytganda, global iqlim o‘zgarishi sharoitida suv resurslaridan oqilona foydalanish masalasi butun dunyo mamlakatlari uchun dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Iqlim o‘zgarishi natijasida yog‘in miqdorining kamayishi, haroratning ortishi hamda suv manbalarining qisqarishi qishloq xo‘jaligida suv tanqisligi muammosini yanada kuchaytirmoqda. Bu holat ayniqsa sug‘orma dehqonchilikka asoslangan hududlarda hosildorlikning pasayishi, tuproq degradatsiyasi hamda ekologik muammolarning kuchayishiga olib kelishi mumkin. Shu sababli suv resurslaridan samarali foydalanish, mavjud sug‘orish tizimlarini takomillashtirish va zamonaviy innovatsion texnologiyalarni joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Xususan, “smart” texnologiyalar asosida ishlaydigan raqamli monitoring tizimlari, sensorlar, avtomatlashtirilgan sug‘orish usullari hamda tomchilatib sug‘orish texnologiyalaridan foydalanish suv sarfini sezilarli darajada kamaytirish imkonini beradi. Bunday texnologiyalar nafaqat suvni tejashga, balki ekinlarning o‘sish jarayonini nazorat qilish, hosildorlikni oshirish va ishlab chiqarish samaradorligini yaxshilashga ham xizmat qiladi. O‘zbekistonda suv resurslarini boshqarishda “smart” texnologiyalarni keng joriy etish katta istiqbollarga ega. Mazkur yo‘nalishda amalga oshirilayotgan islohotlar va kelgusida rejalashtirilgan chora-tadbirlar suv tanqisligini kamaytirish, resurslardan samarali foydalanish va barqaror rivojlanishni ta’minlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 10-iyuldagi “Suv resurslarini boshqarish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 23-oktabrdagi “Qishloq xo‘jaligini rivojlantirish strategiyasi to‘g‘risida”gi farmoni.

3. Abdullayev I., Rakhmatullaev S. Central Asian irrigation systems and water management. – Tashkent, 2018.

4. Shodmonov Q., Xudoyberdiyev F. Suv xo‘jaligi va melioratsiya asoslari. – Toshkent: Fan nashriyoti, 2019.

5. Karimov Sh. Qishloq xo‘jaligida suvdan samarali foydalanish texnologiyalari. – Toshkent, 2021.

6. Abdukarimov A. Tomchilatib sug‘orish texnologiyasi va uning samaradorligi. – Toshkent, 2020.

7. FAO. Water for Sustainable Food and Agriculture. – Rome: Food and Agriculture 8. Organization of the United Nations, 2017.

9. World Bank. Water Scarcity and Climate Change: Growing Risks for Agriculture. – Washington DC, 2020.

BOG‘LANMAGAN VA BOG‘LANGAN GRUNTDAN TASHKIL TOPGAN PASTKI BYEF TARMOQLARI TRANSFORMATSIYASINI HISOBLASH ALGORITM VA DASTURLARINI ISHLAB CHIQISH.

Yuldosheva.U.T.
Qarshi davlar texnika universiteti

Annotatsiya:Ushbu maqolada bog‘langan va bog‘lanmagan gruntlardan tashkil topgan pastki byef tarmoqlarida eroziya jarayonlarini modellashtirishga qaratilgan hisoblash algoritmlari va dasturlar ishlab chiqilgan. Hisoblashlarda gruntning fizik-mexanik xossalari, oqimning gidrodinamik parametrlari, cho‘kindilarning harakati va eroziya vaqtini aniqlovchi bog‘liqliklar qo‘llanilgan. Ishlab chiqilgan algoritmlar fazoviy va vaqtinchalik o‘zgarishlarni inobatga olgan holda eroziya chuqurligi va cho‘kindi sarfini ishonchli prognoz qilishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar:quyi byef, eroziya, bog‘langan grunt, bog‘lanmagan grunt, cho‘kindilar sarfi, gidravlik hisob, oqim tezligi, transformatsiya, raqamli modellashtirish

Kirish: Eroziya jarayoni, ayniqsa, bog'langan grunt(tuproq)larning eroziyasi jarayoni daryo o‘zani jarayonlarning dinamikasida kam tadqiq qilingan.

Taqdim etilgan algoritmlar va dasturlar o‘rta bosimli suv quyish dambalari mahkamlagichlari ortidagi quyi byef oqimlari mahalliy va umumiy eroziyalarini EHMlarda hisoblashda qo‘llanishga mo’ljallangan. Ular quyi byefdagi tuproqning fizik-mexanik xususiyatlari transformatsiyasi va suv oqimlari turbulentligiga ta’sirni mahalliy eroziyalarni, tub va o’lchangan cho‘kindilar sarfini hisoblash bog’liqliklaridan foydalangan holda aniqlash imkonini berishadi.

Bog‘lanmagan gruntning eroziyaga uchramaydigan tezligini aniqlash bo’yicha hisoblash bog‘liqliklari ularning cheklov (chegara) holati usuli bo‘yicha inshootlarni hisoblash tamoyillariga ko‘ra notekisligi (bir xilmasligi) va oqimning turbulentligini hisobga oladi. Ularni aniqlash (belgilash) uchun koeffitsientga differensiallashgan hisoblashlar joriy qilingan. Shu bilan birga eroziyaga uchramaydigan tezliklar eroziya vaqtida o’zanning tabiiy yemirilish holatini inobatga olgan holda aniqlaniladi, qattiq cho‘kindi sarfi hisoblash bog‘liqliklari esa oqimning asosiy gidrodinamik o‘ziga xosliklari va morfologik xususiyatlarini hisobga oladi.

Quyi byefdagi oqim transformatsiyasini hisoblash uchun asos sifatida metodlar qabul qilingan. Shu bilan birga asosiy algoritmda ham tekis sath sharoitlari uchun, ham fazoviy sharoitlar uchun quyi byefdagi oqim mahalliy eroziyalarini hisoblashning subdasturlari,shuningdek, bog'lanmagan gruntning eroziyasi holatida oqim shakllantiruvchi ko‘chkilarning sarf hisoblari taqdim etilgan.

Taqdim etilgan algoritm va dasturlar quyi byeflardagi o‘zan transformatsiyasini hisoblas huchun qo‘llanilishi mumkin, bu esa oqimning gidravlikasi bo‘yicha bir o‘lchovli va reja asosidagi differensial tenglamalarni raqamli yechish asosida amalga oshiriladi.

Algoritmni amalga oshirish quyi byefda eroziya jarayonining barqarorlashishi uchun kerak bo'ladigan vaqtni, transport qilinadigan materialning hajmini va daraja rejimini prognoz qilish imkonini beradi.

Ishlab chiqilgan hisoblash algoritmi katta eksperimental va tabiiy materiallar bo'yicha sinovdan o‘tkazilgan fazoviylik va solishtirma sarflar taqsimlanishini hisobga olgan holda quyi byeflardagi mahalliy eroziyalarni va cho‘kindi materiallarining sarfini hisoblash yangi dastur qismlari (subdasturlari)ni o‘z ichiga oladi.

Ishlab chiqilgan algoritm asosida bog‘lanmagan va bog‘langan tuproqlardan tashkil topgan quyi byef tubining transformatsiyasini hisoblash dasturining mantiqiy sxemasi tuzilgan.

Bog‘langan gruntning mahalliy eroziyasi hisob-kitoblarida Bog‘lanmagan tuproq uchun eroziyaga uchramaydigan tezlikni hisoblash uchun qayd etilgan formula, bog‘langan tuproq uchun eroziyaga uchramaydigan tezlikni aniqlash bog‘liqligi bilan almashtiriladi.

Hisoblash algoritmi:

1. Hisoblashni eroziya zonasining butun hududini qamrab oluvchi bir hudud misolida ko‘rib chiqish, yoki uni kichik bo‘limlarga ajratish orqali amalga oshirish mumkin (BHII G subdasturi (5 9)
2. Cho‘kindilarning o‘rtacha diametri- *d* yoki dastlabki ma’lumot sifatida olinadi, yoki hisoblanadi (DCP subdasturi, (2 1)).
3. Notekislik koeffitsienti *n* yoki dastlabki ma’lumot sifatida olinadi, yoki hisoblanadi (*n* sh subdasturi(59))
4. Oqim chuqurligi h_0, maishiy sharoitlarda yoki dastlabki ma’lumot sifatida olinadi, yoki hisoblanadi $h_0 = \left(\frac{Q \cdot n}{B\sqrt{i_0}} \right)^{0.6}$
5. Oqimning o‘rtacha tezligi $u_0 = \frac{Q}{Bh_0}$
6. Solishtirma sarf (xarajat) $q = U_2 h_2$
7. Eroziya chuqurligi H_p 3 xil usulda aniqlanadi:

a) *HRBHIG* sub dasturi ВИИИГ metodikasi H_p ni tenglamalar tizimining birgalikda yechimi orqali aniqlaydi

$$V_H = (\lg \frac{8.8Hp}{d}) \sqrt{\left(\frac{2m}{0.88 n_м} \right) \left[(\frac{\rho_s}{\rho} - 1) gd + 2C_{yH}^H / \rho K_c \right]}$$

$$Q = V_H H_p B$$

Bunda $n_м = 1 + \frac{1}{0,3 + (v^2 / gd)^{1/3}}$; $C_{yH}^H = 8\rho V \frac{(gv)^{1/3}}{d}$; $K_c \approx 2$

b) HP PLZD subdasturi H_p ni quyidagi tenglama orqali aniqlaydi

$$H_p = K_1 \frac{q}{V_м}$$

Bunda $V_H = (\lg \frac{8.8h_0}{d}) \sqrt{\frac{2m}{0.44n} \left[\left(\frac{\rho_o}{\rho} - 1 \right) gd + 2 \frac{C_{YH}^H}{\rho K_c} \right]}$

$$1.4m = \begin{cases} 1. toza\ oqim\ uchun \\ 1.4\ uchun\ E > Eo = 0,1g/m \\ 1.4 \left(1 - - \frac{e3E}{Eo} \right), aks\ holda \end{cases}$$

$$n = 1 + \frac{1}{0.3 + (\frac{v^2}{gd})^{1/3}} \quad C_{YH}^H = 8\rho v \frac{(gv)^{1/3}}{d} \quad K_c \approx 2$$

$$K_1 = 0.87 + 3.25 \frac{U_2}{\sqrt{gh_0}} + 0.3$$

$$M = 0,2_e^{2,1 \frac{\ln}{lkp}}$$

v) HPPRZD subdasturi H_p ni quyidagi formula bo'yicha aniqlaydi

$$H_p = K_1^{1,2} \sqrt{\frac{K_2 q}{V_M}}$$

bunda*V, m, n, K1* -Xuddi shunday aniqlanadi

K_2 - K.I.Rossinskiy formulasi bo'yicha aniqlanadi (55.56)

$$K_2 = \frac{q}{q_o} = \frac{1}{2} \frac{Hp}{ho} \frac{\infty g}{\infty}$$

H_p uchun tenglama metodi bo'yicha hisoblanadi

8. Eroziya o'zani uzunligi va risberma uchidan tekislik bo'ylab eroziyaning maksimal chuqurligigacha olingan masofa quyidagi formula orqali aniqlanadi

$$\frac{l_{вр}}{T} = 9,12 \frac{hp}{T}$$

$$\frac{l_p}{T} = 3,40 \frac{hp}{T}$$

9. Ko'chgan va o'lchangan cho'kindilar transporti (92,93)SE DIM subdasturiga muvofiq aniqlanadi.

1. Zarrachalar parametrlari (jihatlari) quyidacha aniqlanadi

$$D_u = D_{50} \left[\frac{(s-1)}{v^2} \right]^{1/3}$$

Bunda $S = \rho_s / \rho$

2) Kritik dinamik tezlik hisoblanadi

$$U_{*cp} = \sqrt{\theta_{cp}\,(S-1)}gD_{60}$$

Bunda

D<4 bo‘lganda $\theta_{cp} = Ø.24$ D^{-1}

4<D<1 Ø bo‘lganda $\theta_{cp} = Ø.14$ $D^{-0.64}$

1Ø <D<2 Ø bo‘lganda $\theta_{cp} = Ø Ø4$ $D^{-0.1}$

2 Ø<D<15 Ø bo‘lganda $\theta_{cp} = Ø Ø13$ $D^{0.29}$

D>15 Ø bo‘lganda $\theta_{cp} = Ø.Ø55$ bo‘ladi

3) Dinamik tezlik hisoblaniladi

$$U_o^i = \frac{\sqrt{gu_0}}{C}$$

Bunda $C = 18\lg\left(\frac{2h_0}{D_{50}}\right)$ bo‘ladi

4) *T* ning parametri aniqlanadi

$$T = \frac{(\upsilon_0)^2 - (\upsilon_{0cp})^2}{(\upsilon_{0cp})}$$

5) Tub cho‘kindilar transporti aniqlanadi

$$q_b = 0.053\frac{T^{2.1}}{D^{0.5}}\left[(S-1)g\right]^{0.5} D_{50}^{1.5}$$

$$x\cdot(L-L_1) - э_2 - э_1$$

$$Э_1 - Hp + \frac{\infty Q^2}{2QB^2h_0^2}$$

ΔH quyidagi tenglamadan aniqlanadi

11. Nuragan (eroziyaga uchragan) gruntning hajmi geometrik mulohazalardan aniqlanadi

$$\Omega = \frac{B}{2}\left[\left(H_p - h_0 + \Delta H\right)X - (H_p - h_0)l_{вр}\right]$$

12. Eroziya vaqti (Eroziyaga ketadigan vaqt)

$$T = \frac{\rho_{zp\Omega}}{\rho_s Q\cdot 24\cdot 3600}(сутоκ)$$

13. Bunda hisob-kitoblar quyidagi jadvalga kiritiladi

X,m	H,M	$\Omega м^3$	T, yil

14. DCP subdasturi *d* ni quyidagi tarzda aniqlaydi (2)

1) $d_{\varnothing pi} = \frac{d_{\min i} + d_{\max i}}{2}$

2) $P = \sum_{i=1}^{n} P_{\varnothing pi}$

3) $d = \sum_{i=1}^{n} \varnothing pi \cdot d_{\varnothing pi}$

NSH subdasturi esa quyidagicha aniqlaydi (1)

$$n = \{Y_{\kappa-1,0} - Y_{\kappa o} + \frac{\infty Q^2}{2g(h_{\kappa o}B_{\kappa})^2}\left[\left(\frac{h_{\kappa o}B_{\kappa}}{h_{K-1.0}B_{\kappa-1}}\right)^2 - 1\right]\}^{1/2} \frac{(\bar{h}_{\kappa o})^{5/3}\bar{B}_{\kappa}}{Q\sqrt{\Delta X_{\kappa}}}$$

K – Qism (bo‘lim, hudud) raqamini anglatuvchi indeks

$Y_{\kappa o}$ – 0 sarf bo‘lganda boshlang‘ich vaqtda erkin yuzaning belgilari

$h_{\kappa o}$ – boshlang‘ich vaqtda belgilangan qismlardagi oqim chuqurligi

B_{κ} – qismlar (alohida olingan hududlar) kengliklari

$$\bar{B}_{\kappa} - \frac{B_{\kappa} + B_{\kappa-1}}{2}, \quad \bar{h}_{ko} = \frac{h_{ko} + h_{\kappa-1,0}}{2} \qquad \infty \approx 1$$

$\Delta X_{\kappa} = X_{\kappa} - X_{\kappa-1}$, $X_{\kappa-1} = X_{\kappa-1}$, X_{κ} bo‘lim(qism)larning bo‘ylama koordinatalari.

Bir hudud holatida formula soddalashtiriladi

$$n = \{Y_1 - Y_2 + \frac{\infty Q^2}{2g(h_2'B)^2}\left[\left(\frac{h_2'}{h_1'}\right)^2 - 1\right]\}^{1/2} \frac{\bar{h}_2 B}{Q\sqrt{\Delta X}}$$

Y_1, Y_2 – qism(hudud) oxiridagi tubning belgilari

ΔX -Qism uzunligi

BHIIG sub dasturi

1.Notekislik koeffitsientining aniqlanishi

$$n_{\kappa e} = \{Y_{K-1,0}^{(e)} - Y_{ko}^{(e)} + \frac{\infty Q_e^{\,2}}{2g(h_{ko}^{(e)}B_k)^2}\left[\left(\frac{h_{ko}^{(e)}B_k}{h_{k-1.0}^{(e)}B_{k-1}}\right)^2 - 1\right]\}^{1/2} \frac{(\bar{h}_{ka})^{5/3}\bar{B}_k}{Q_e\sqrt{\Delta X_k}}$$

Bunda indekslar: *K*-*soha (hudud raqami) ,*e*-qayd etilgan suv sarfi raqami

Q_e sarfi sharoitida $Y_{k-1,0}^{(e)}$ $Y_{ko}^{(e)}$ boshlang‘ich vaqtdagi erkin yuza belgilari(qaydlari) (boshlang‘ich ma’lumotlar)

∞ – harakat miqdori korrektivasi $\infty = 1,0,,,1,1$

Q_e -qayd etilgan sarf(xarajat)(boshlang‘ich ma’lumotlar).

$h_{ko}^{(e)}$ – boshlang’ich vaqtda qismlardagi oqim chuqurligi

$h_{ko}^{(e)} = Y_{ko}^{(e)} - Z_{ko}$, Z_{ko} – boshlang‘ich vaqtda har bir qismdagi tublarning belgilari (qaydlari) (boshlang‘ich ma’lumotlar)

K_{20} -soha (qism)ning B_{κ} – kengligi (bosh.m.)

ΔX_{κ} -hudud uzunligi

K_{20} -soha (qism)ning , $\Delta X_{\kappa} = X_K - X_{\kappa-1}, X_{\kappa}$ -bo‘ylama koordinatasi

$\bar{B}_{\kappa}$ -hududlardagi o‘rtacha oqim chuqurligi

$$\bar{B}_{\kappa} = \frac{B_{\kappa} + B_{\kappa-1}}{2}$$

$\bar{h}_{ko}^{(e)}$ - hududlardagi o‘rtacha oqim chuqurligi

$$\bar{h}_{ko}^{(e)} = \frac{h_{ko}^{(e)} + h_{k-1.0}^{(e)}}{2}$$

2. *j* - interval vaqt uchun quyi byef qismlaridagi cho‘kindilar sarfi Q_{skj} ning hisoblanilishi:

A) Levi I.I. formulasi

$$Q_{zkj} = 0,002(\frac{V_{kj}}{\sqrt{gd_k}})^3 \left(\frac{d_k}{\overline{h}_k}\right)^{1.25} \left(1 - \frac{\sqrt{2V_{HKj}}}{V_{kj}}\right) Q_{Kj}$$

Q_{skj} - kiritilgan hisoblanadi , *j*- vaqt intervali raqami

j-vaqt intervali uchun V_{kj} - soha(qism)lardagi oqim tezligi

$$V_{kj} = \frac{Q_{kj}}{\overline{h}_{k1\,j-1} B_k}$$

Q_{kj} - *K* va *j* uchun oqimlarning qo‘shilish joyidan pastroqdagi suv sarfi $Q_{kj} = Q_{K-1,\,j} + Q_{Knj,} Q_{Knj}$ - oqimlarning suv sarfi hisobi (bosh.m.)

$\overline{h}_{k,\,j-1}$ -*K*-hududning oxiridagi chuqurlik (*K* to'g'risidan chapda, *j*-intervallning boshlanishida)

$$\overline{h}_{k,\,j-1} = Y_{k,\,j-1} - Z'_{k,\,j-1}$$

$j = 0,\ Z'_{кв} = Z_к$ bo‘lganda $K = 0,\ Z'_{o},_{j-1} = Z^{+}_{o,\,j-1}$, ya’ni suv tubining belgisi qism (sohadan) o‘ng tomonda $K = 0$,

$K_м$ -hudud tubidagi yig‘ilgan d_k - cho‘kindilarning o‘rtacha kattaligi(bosh.m.)

$K_м$ qism(soha)dagi *j* - vaqt intervalida V_{HKj} -eroziyaga uchramaydigan tezlik

$$V_{HKj} = (\lg \frac{8.8\overline{h}_{k,\,j-1}}{d_k}) \sqrt{\frac{m_{MK}}{0.44 n_{MK}} \left[\left(\frac{\rho_{sk}}{\rho_w} - 1\right) g d_k + 2 \frac{C^H_{YHK}}{\rho_w K_{ck}}\right]}$$

$m_{мк}$ - cho‘kindilar ta’sirini hisobga oluvchi koeffitsient:

Toza oqimlar uchun $m_{мк} = 1$

E>E. =0.1 kg/m^3 Bo‘lganda $m_{мк} \approx 1.4$

Aks holda , $m_{мк} = 1.4(1 - e^{-3\frac{E}{E.}})$

E – oqim xiraligi(bosh.m.)

$$n_{мк} = 1 + \frac{1}{0.3 + (\frac{v^2}{g d_k})^{1/3}} \quad C^H_{YHK} = 8\rho_w v \frac{(gv)^{1/3}}{d_k}$$

ρ_w - Suv zichligi

v - suvning kinematic koeffitsienti

$K_{ск} \approx 2$

$K_м$ qism (soha)dagi $\rho_{ск}$ - grunt skeleti zichligi (bosh.m.)

Xulosa

Bog‘lanmagan gruntning eroziyaga uchramaydigan tezligini aniqlash bo’yicha hisoblash bog‘liqliklari ularning cheklov (chegara) holati usuli bo‘yicha inshootlarni hisoblash tamoyillariga ko‘ra notekisligi (bir xilmasligi) va oqimning turbulentligini hisobga oladi. Ularni aniqlash (belgilash) uchun koeffitsientga differensiallashgan hisoblashlar joriy qilingan. Shu bilan birga eroziyaga uchramaydigan tezliklar eroziya vaqtida o’zanning tabiiy yemirilish holatini inobatga olgan holda aniqlaniladi, qattiq cho‘kindi sarfi hisoblash bog‘liqliklari esa oqimning asosiy gidrodinamik o‘ziga xosliklari va morfologik xususiyatlarini hisobga oladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. Eshev S.S., Isakov A.N., Safarov A.A., Yuldosheva U.T. Calculation of Local Water Behind the Lower Water Mountings. // Journal of Advanced Research in Science, Engineering and Technology Vol. 11, Issue 2, February 2024, , [ISSN: 2350-0328] 21419-21425 betlar. Copyright to IJARSET. (05.00.00. №8)

2. Eshev S., Isakov A, Abduraxmonov A, Sherboev Z, Yuldosheva U, Allahverdiyev R,

“Calculation of the geometric characteristics of the washing” //AIP Conference. Proceedings. 3286, 040037, https://doi.org/10.1063/5.0280108 JUNE 17 2025, 040037-1-040037-7 pages. (02.00.00 №1).

3. Isaqov A.N.Yuldosheva U.T, Raimova N.J, Nurmatov Panji. “Bog‘langan guruntdan tashkil topgan quyi byefning vaqtdagi mahalliy deformatsiyalarining xususiyatlari” // Me’morchilik va qurulish muammolari 2025 yil №2 son ISSN 2901-5004, 63-67 betlar. (05.00.00. №14)

4. Eshev S.S, Latipov SH.A, Rakhimov A.R, Yuldosheva U.T, Kuwatov J.Z “To‘lqinlar va oqimning O‘zaro ta’siri sharoitida to‘lqin ta’sirini hisoblash”,// Innovatsion texnologiyalar. Qarshi, 2023, 3(51)-son, ISSN 2181-4732, 40-44-bet.. (05.00.00. №38)

5. Eshev S.S, Isaqov A.N, Yuldosheva U.T, Raimova N.J, “Inshoot pastki byef bog‘langan grunt yuvulish mexanizmi va tajribalar o‘tkazish shartlari” //Me’morchilik va qurulish muammolari 2025 yil №2 son ISSN 2901-5004, 266-268- betlar. (05.00.00. №14)

6. Eshev Sobir Samatovich, Karshiyev Rustam Jurayevic, Isakov Alisher Nemat ugli, Yuldosheva Umida Temurovna, Mamarasulov Sobir Rakhmonkul ugli “Research of flow kinematics in the local erosion area of the lower byef of the structure” // Universum: технические науки 2025 октябрь 10(139). 18-25 betlar (02.00.00.№1)

7. Eshev Sobir Samatovich, Isakov Alisher Nemat ugli, Yuldosheva Umida Temurovna, Usmonov Rivojiddin Nosir ugli “determination of the kinetic energy coefficient in the zone of local erosion of the earthen channel connected to the lower reach // Universum: технические науки : электрон. научн. журн. 2025. 10(139). 11-17-betlar (02.00.00.№1)

QISHLOQ XO‘JALIGIDA SUV RESURSLARINI SAMARALI BOSHQARISHDA SMART TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH VA UNING IQTISODIY SAMARADORLIGI

Eshmurodova Sevinch Bahrom qizi
Karshi state technical university

Annotatsiya: Bugungi kunda global iqlim o‘zgarishi natijasida suv resurslari kamayib borayotganligi butun dunyo qishloq xo‘jaligi uchun jiddiy muammolardan biriga aylangan. Ayniqsa, suv resurslariga boy bo‘lmagan hududlarda qishloq xo‘jaligini samarali rivojlantirish uchun zamonaviy texnologiyalardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu maqolada qishloq xo‘jaligida suvdan samarali foydalanish hamda hosildorlikni oshirish maqsadida ishlab chiqilgan EcoTreeSense aqlli sug‘orish tizimi haqida so‘z yuritiladi. Tizim sun’iy intellekt, tuproq namligi sensorlari, ob-havo ma’lumotlari va quyosh energiyasi asosida ishlovchi avtomatlashtirilgan boshqaruv mexanizmlarini o‘z ichiga oladi. Mazkur tizim tuproqning namligi, harorat, shamol tezligi va boshqa omillarni tahlil qilib, ekinlarga qancha miqdorda suv berilishi kerakligini aniqlaydi. Natijada suv sarfi kamayadi, energiya tejaladi va qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishining samaradorligi oshadi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, aqlli sug‘orish tizimlaridan foydalanish suv sarfini 30–40 foizgacha kamaytirish imkonini beradi.

Kalit so‘zlar: aqlli sug‘orish, suv resurslari, qishloq xo‘jaligi, sun’iy intellekt, sensor texnologiyalari, IoT, iqlim o‘zgarishi, ekologiya, EcoTreeSense.

Kirish. So‘nggi yillarda global iqlim o‘zgarishi natijasida suv resurslari kamayib borayotgani dunyo mamlakatlari uchun jiddiy ekologik va iqtisodiy muammoga aylanmoqda. Birlashgan Millatlar Tashkiloti ma’lumotlariga ko‘ra, hozirgi kunda dunyo aholisining qariyb 40 foizi suv tanqisligi kuzatiladigan hududlarda yashaydi. Prognozlarga ko‘ra, 2050-yilga borib bu ko‘rsatkich yanada ortishi mumkin.Qishloq xo‘jaligi sohasi suv resurslarining eng katta iste’molchisi hisoblanadi. Jahon miqyosida mavjud suv resurslarining taxminan 70 foizi aynan qishloq xo‘jaligi sug‘orish jarayonlarida sarflanadi. Biroq ko‘plab mamlakatlarda sug‘orish tizimlarining eskirganligi yoki samarasizligi sababli suvning katta qismi isrof bo‘lib ketmoqda.

O‘zbekiston ham suv resurslari cheklangan davlatlar qatoriga kiradi. Mamlakatimiz qishloq xo‘jaligi asosan sug‘oriladigan yerlarga bog‘liq bo‘lib, suvdan samarali foydalanish dolzarb masala hisoblanadi. Shu sababli qishloq xo‘jaligini raqamlashtirish va zamonaviy texnologiyalarni joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi.So‘nggi yillarda aqlli texnologiyalar asosida ishlovchi sug‘orish

tizimlari rivojlanib bormoqda. Bunday tizimlar tuproq namligi, ob-havo sharoiti va boshqa ko‘rsatkichlarni tahlil qilib, suvni optimal miqdorda yetkazib berishga imkon yaratadi. Bu esa suv resurslarini tejash hamda hosildorlikni oshirishga xizmat qiladi.Mazkur maqolada qishloq xo‘jaligida suvdan samarali foydalanishni ta’minlash maqsadida ishlab chiqilgan EcoTreeSense aqlli sug‘orish tizimining imkoniyatlari va afzalliklari tahlil qilinadi.

Asosiy qism. Aqlli sug‘orish texnologiyalarining ahamiyati

Hozirgi kunda qishloq xo‘jaligida suv resurslaridan samarali foydalanish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Global iqlim o‘zgarishi natijasida suv tanqisligi tobora kuchayib borayotgan bir sharoitda qishloq xo‘jaligini barqaror rivojlantirish uchun zamonaviy texnologiyalarni joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi. An’anaviy sug‘orish usullarida suvning katta qismi nazoratsiz ravishda sarflanadi, natijada suv resurslari isrof bo‘ladi hamda tuproqning sho‘rlanishi yoki degradatsiyasi kabi ekologik muammolar yuzaga keladi. Shu sababli qishloq xo‘jaligida aqlli sug‘orish tizimlaridan foydalanish muhim yechimlardan biri sifatida qaralmoqda.Aqlli sug‘orish texnologiyalari IoT (Internet of Things) qurilmalari, sensorlar va sun’iy intellekt asosida ishlaydi. Bunday tizimlar tuproq namligi, harorat, shamol tezligi, atmosfera namligi kabi ko‘rsatkichlarni real vaqt rejimida kuzatib boradi. Ushbu ma’lumotlar tahlil qilinib, ekinlar uchun optimal sug‘orish rejimi aniqlanadi. Natijada ekinlar ortiqcha suv olmasdan, faqat zarur miqdorda suv bilan ta’minlanadi. Bu esa suv resurslarini tejash bilan birga hosildorlikni ham oshirishga yordam beradi.

Zamonaviy aqlli sug‘orish tizimlarining yana bir muhim afzalligi shundaki, ular masofadan boshqarish imkoniyatiga ega. Fermerlar mobil ilovalar yoki kompyuter orqali sug‘orish jarayonini nazorat qilishi mumkin. Bu esa vaqt va mehnat sarfini kamaytiradi hamda qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishini yanada samarali tashkil etish imkonini yaratadi.

EcoTreeSense tizimining texnologik tavsifi

EcoTreeSense – bu qishloq xo‘jaligida suvdan samarali foydalanish hamda sug‘orish jarayonlarini avtomatlashtirishga mo‘ljallangan innovatsion texnologik tizimdir. Ushbu tizim bir nechta sensor qurilmalari, sun’iy intellekt asosidagi boshqaruv moduli va quyosh energiyasi orqali ishlovchi energiya manbaidan iborat. Tizimning asosiy vazifasi tuproq va ob-havo sharoitlarini tahlil qilish orqali ekinlar uchun optimal sug‘orish rejimini belgilashdan iborat. Buning uchun tizimda bir nechta datchiklar o‘rnatiladi. Tuproq namligi sensori tuproqdagi namlik miqdorini aniqlaydi va o‘simliklar uchun yetarli yoki yetarli emasligini ko‘rsatadi. Tuproq sho‘rlanish sensori esa tuproq tarkibidagi tuz miqdorini aniqlab, sug‘orish jarayonining tuproq sifatiga ta’sirini nazorat qiladi.

Bundan tashqari, tizim ob-havo ko‘rsatkichlarini ham kuzatadi. Havo harorati sensori atmosfera haroratini aniqlaydi, shamol tezligi sensori esa shamol kuchini o‘lchaydi. Ushbu ma’lumotlar sun’iy intellekt algoritmlari orqali tahlil qilinib, sug‘orish uchun eng maqbul vaqt va suv miqdori aniqlanadi.EcoTreeSense tizimining yana bir muhim xususiyati uning energiya mustaqilligidir. Tizim quyosh panellari orqali energiya oladi, bu esa elektr energiyasi yetib bormaydigan hududlarda ham tizimdan foydalanish imkonini beradi. Quyosh energiyasi orqali ishlash tizimni ekologik jihatdan ham samarali qiladi. Tizim avtomatlashtirilgan boshqaruv mexanizmi orqali ishlaydi. Agar tuproq yetarli darajada nam bo‘lsa, tizim avtomatik ravishda suv berishni to‘xtatadi. Agar tuproq qurib qolgan bo‘lsa, tizim sug‘orishni boshlaydi. Shu tarzda suv resurslari optimal darajada sarflanadi.

Ekologik va iqtisodiy samaradorlik

EcoTreeSense aqlli sug‘orish tizimining joriy etilishi qishloq xo‘jaligida bir qator ekologik va iqtisodiy foydalarni keltirib chiqaradi. Avvalo, ushbu tizim suv resurslaridan samarali foydalanish imkonini yaratadi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, aqlli sug‘orish tizimlari yordamida suv sarfini 30–40 foizgacha kamaytirish mumkin. Bu esa suv tanqisligi mavjud hududlar uchun juda muhim ahamiyatga ega. Ikkinchidan, tizim energiya sarfini kamaytirishga yordam beradi. EcoTreeSense qurilmasi quyosh energiyasi orqali ishlagani sababli elektr energiyasiga bo‘lgan ehtiyoj kamayadi. Bu esa nafaqat iqtisodiy jihatdan foydali, balki ekologik jihatdan ham muhim hisoblanadi. Uchinchidan, tizim qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hosildorligini oshirishga xizmat qiladi. Ekinlar optimal miqdorda suv bilan ta’minlangani sababli ularning rivojlanishi yaxshilanadi va hosil sifati

ham ortadi. Natijada fermerlarning daromadi oshadi. Bundan tashqari, tizim tuproqning ekologik holatini saqlashga ham yordam beradi. Ortiqcha sug‘orish tuproq sho‘rlanishi va eroziyasiga olib kelishi mumkin. Aqlli sug‘orish tizimi esa bu kabi muammolarni kamaytirishga yordam beradi. Shu sababli bunday texnologiyalar qishloq xo‘jaligini barqaror rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi.

Xulosa. Global iqlim o‘zgarishi sharoitida suv resurslaridan oqilona foydalanish qishloq xo‘jaligi rivoji uchun muhim omillardan biridir. Zamonaviy aqlli sug‘orish texnologiyalari suv tanqisligi muammosini yumshatishda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi.EcoTreeSense tizimi sun’iy intellekt, sensor texnologiyalari va quyosh energiyasi asosida ishlovchi innovatsion yechim hisoblanadi. Mazkur tizim yordamida suv resurslarini tejash, hosildorlikni oshirish va ekologik muvozanatni saqlash mumkin.Kelajakda bunday texnologiyalarni keng joriy etish qishloq xo‘jaligini raqamlashtirish hamda barqaror rivojlanishini ta’minlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi ma’lumotlari.
2. FAO. World Agriculture and Water Resources Report.
3. Birlashgan Millatlar Tashkiloti – Global Water Report.
4. R. Smith. Smart Irrigation Systems in Modern Agriculture.
5. IoT Technologies in Agriculture. International Journal of Agricultural Research.

SUV YIG’ADIGAN HAVZALAR CHEGARASI VA YUZASINI ANIQLASH

N.A.Mamajonova, M.F.Voxobjonova

Andijon Davlat Texnika Instituti

Annotatsiya. *Suv yig’adigan havza tushunchasi, uning chegarasini aniqlash usullari va yuzasini hisoblashning zamonaviy va an'anaviy metodlari yoritib berilgan. Havzalarini togri aniqlash gidrologiya, yer tuzish, ekologiya va suv resurslarini boshqarishda muhim ahamiyatga ega. Kartografik materiallar, GIS texnologiyalari va raqamli relyef modellaridan foydalanishning afzalliklari tahlil qilinadi.*

Kalit so’zlar: *suv yig’adigan havza, gidrologiya, havza chegarasi, yuzasini aniqlash, GIS, relief, raqamli xarita, topografik xarita, DEM model, nivelir, teodolit.*

Kirish. Suv yig‘adigan havza (daryo havzasi) — ma’lum bir daryo yoki suv oqimiga yog‘in-sochinlar orqali keladigan barcha suvlarni to‘plovchi hududdir. Havza tabiiy geografik birlik bo‘lib, yer yuzasining relyefiga bog‘liq holda shakllanadi. Havzaning chegarasi, odatda, balandliklar bo‘ylab, ya’ni suv ajratuvchi chiziqlar orqali aniqlanadi.

Suv yig‘adigan havzalarni aniqlash qishloq xo‘jaligi, irrigatsiya tizimlarini loyihalash, suv toshqinlarini bashorat qilish va ekologik monitoringda muhim ahamiyatga ega. Masalan, Markaziy Osiyoda yirik daryolar — Amudaryo va Sirdaryo — havzalarini tahlil qilish suv resurslarini samarali boshqarishda muhimdir.

Havzaning geografik va ekologik ahamiyati shundaki, u suv oqimining yo‘nalishini belgilaydi, eroziya jarayonlarini tushuntiradi va suv balansini hisoblash imkonini beradi.

Suv yig‘adigan havza chegarasini aniqlashda ikki hil usuldan foydalaniladi

1. An’anaviy usullar;
2. Zamonaviy usullari.

Lidar (Light Detection and Ranging) texnologiyasi - bu eng yuqori aniqlikdagi usul hisoblanadi. Samolyot yoki dronlarga o‘rnatilgan lazerli skanerlar yer yuzasining santimetrgacha aniqlikdagi modelini yaratadi.

Afzalligi: Zich o‘rmonlar yoki o‘simlik qoplami ostidagi yer relyefini ham aniq ko‘ra oladi, bu esa kichik soylarning suv yig‘ish havzasini aniqlashda juda muhim.

Global Raqamli Relyef Modellari (Global DEMs) - 2026-yilga kelib quyidagi global modellar yangilangan va ochiq ma’lumotlar sifatida keng qo‘llanilmoqda:

Copernicus DEM: 30 metrli va undan yuqori aniqlikdagi ochiq ma’lumotlar;

NASADEM: SRTM ma’lumotlarining sun’iy intellekt yordamida qayta ishlangan va xatoliklari tuzatilgan versiyasi.

Bulutli hisoblash texnologiyalari (Google Earth Engine) - katta hajmdagi hududlarni

(masalan, butun bir viloyat yoki davlat havzasini) hisoblash uchun kompyuter quvvati yetmasligi mumkin. **Google Earth Engine (GEE)** kabi platformalar orqali millionlab kvadrat kilometr maydonning suv yig'havzasini bir necha soniya ichida bulutli serverlarda hisoblash mumkin.

Quyidagi usullar suv havzasini aniqlashning zamonaviy usullari hisoblanadi. Endi esa buning an'anaviy usslarini ham ko'rib chiqamiz.

Geometrik usul (Paletka usuli) - bu usul juda oddiy va arzon hisoblanadi. Shaffof qog'ozga (kalka) mayda kvadratchalar (to'r) chiziladi (masalan, har biri 1x1 mm). Ushbu qog'oz xaritadagi havza ustiga qo'yiladi. Havza ichiga tushgan to'liq kvadratlar sanab chiqiladi va xarita masshtabiga ko'ra haqiqiy maydon hisoblanadi.

Planimetrlash usuli (Yuzani o'lchash uchun) - havza chegarasi aniqlangandan so'ng, uning maydonini hisoblashda planimetr deb ataluvchi mexanik asbobdan foydalaniladi. Planimetrning uchi havza chegarasi bo'ylab aylantirib chiqiladi. Asbobdagi hisoblagich g'ildiragi aylanishlar soniga qarab maydonni hisoblab beradi. Bu usulda inson qo'li qaltirashi yoki asbobning eskiligi sababli aniqlik past bo'lishi mumkin.

Gidrografik dala tadqiqotlari (Ekspeditsiya) - xaritada ko'rinmagan kichik relyef shakllarini aniqlash uchun mutaxassislar bevosita joyiga borib o'rganishadi. Nivelir va teodolit kabi geodezik asboblar yordamida suv oqish yo'nalishlari va suvayirgich nuqtalari joyida aniqlanadi. Bu usul eng aniq, lekin eng ko'p mehnat va vaqt talab qiladigan usuldir.

An'anaviy usullarning kamchiliklari shulardan iboratki, katta maydonlarni hisoblash haftalab vaqt olishi mumkin. Chizmani chizuvchi mutaxassisning tajribasiga bog'liqlik darajasi yuqori bo'lishi lozim. Relyef o'zgarganda (masalan, o'pirilish yoki qurilishlar) xaritani qayta ishlash juda qiyin bo'ladi. Bu esa juda katta vaqt talab qiladi.

Iqlimning o'zgarishi va suv taqchilligi sharoitida yog'in suvlari va daryo oqimini to'g'ri prognoz qilish muhim. An'anaviy topografik xaritalar orqali havza chegarasini chizish ko'p vaqt talab qiladi va inson omili sababli xatoliklarga yo'l qo'yilishi mumkin. Zamonaviy **ArcGIS, QGIS** kabi dasturlar bu jarayonni aniq va tezkor oshirish imkonini beradi. Zamonaviy usullar juda qulay bo'lib, hisoblashda aniqlikni ishiradi va inson omilini kamaytiradi.

Suv yig'adigan havza chegrasi va yuzasini aniqlashga doir masala yechish.

Sun'iy suv ombori ustidan dron orqali Lidar qurilmasi yordamida skanerlash o'tkazildi. Olingan ma'lumotlarga ko'ra, suv yuzasining konturi to'g'ri burchakli trapetsiya shaklida ekanligi aniqlandi. Trapetsiyaning asos tomonlari a=1.2 km va b=1.8 km. Uning balandligi h=0.5 km va o'rtacha chuqurligi d=8 m. Maydonini (F) gektalarda hisoblang va hajmini (V) million metr kubda aniqlang.

Maydoni: $F = \frac{a+b}{2}$×h=$\frac{1.2+1.8}{2}$×0.5=1.5×0.5=0.75km^2.

1km^2=100 *ga*

0.75×100=**75 ga.**

Hajmi: V=F×d=750,000 m^2×8m=6,000,000 m^3=**6 mln m^3.**

Bu hisoblash usuli zamonaviy usul bo'lib, hisoblash ancha qulay hisoblanadi.

Xulosa. Suv yig'adigan havza chegarasi va yuzasini aniqlash gidrologik tadqiqotlarning asosiy bosqichlaridan biridir. An'anaviy xarita usullari bilan bir qatorda, zamonaviy GIS va raqamli modellardan foydalanish tadqiqot samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. To'g'ri aniqlangan havza ma'lumotlari suv resurslarini muhofaza qilish va oqilona boshqarishning ilmiy asosini tashkil etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. N.A.Mamajonova "Injenerlik geodeziyasi". O'quv qo'llanma. Andijon 2024 y.

2. Rasulov A.R., Hikmatov F.H., Hikmatov N.F. "Umumiy gidrologiya". – Toshkent: Universitet, 2003.

3. Inamov A.N., Mirzaliev T.M. "Geodeziya va kartografiya asoslari". – Toshkent: Cho'lpon, 2012.

4. Qo'shmuratov G'.H., Safarov E.Y. "Geoinformatsion tizimlar va texnologiyalar". – Toshkent: Cho'lpon, 2014.

5. Mamajonov M., Rasulov M. "Gidrotexnika inshootlari". – Toshkent: Tafakkur, 2011.

ATMOSFERA HAVOSI MUHOFAZASI SOHASIDAGI TAXLILNING INSTRUMENTAL METADLARINI QO'LLASH IMKONIYATI

Sadilloyeva Mehriniso Homidovna
Buxoro davlat texnika universiteti

ANNOTATSIYA. Ushbu mustaqil ishda atmosfera havosining tuzilishi, tarkibi va ekologik ahamiyati yoritilgan hamda atmosfera havosini muhofaza qilish sohasida instrumental tahlil metodlarini qo‘llash imkoniyatlari tahlil qilingan. Ishda atmosfera qatlamlari, asosiy ifloslantiruvchi moddalar va ularning atrof-muhit hamda inson salomatligiga ta’siri bayon etilgan. Shuningdek, havodagi zararli gazlar va muallaq zarrachalarni aniqlashda qo‘llaniladigan zamonaviy instrumental metodlar — spektrofotometrik, xromatografik, elektrokimyoviy va aerozol analizatorlari imkoniyatlari ko‘rib chiqilgan. Ularning ekologik monitoring tizimidagi o‘rni va amaliy ahamiyati asoslab berilgan.

KALIT SO'Z. Atmosfera, atmosfera havosi, havo ifloslanishi, atmosfera qatlamlari, ekologik monitoring, instrumental tahlil metodlari, spektrofotometriya, xromatografiya, elektrokimyoviy analiz, aerozol analizatorlari, muallaq zarrachalar (PM2.5, PM10), zararli gazlar, ekologik xavfsizlik, atrof-muhitni muhofaza

ABSTRACT. This independent study examines the structure, composition, and ecological importance of the atmosphere, as well as the possibilities of applying instrumental analysis methods in the field of atmospheric air protection. The paper describes the layers of the atmosphere, the main air pollutants, and their impact on the environment and human health.In addition, modern instrumental methods used to determine harmful gases and suspended particles in the air — including spectrophotometric, chromatographic, electrochemical methods, and aerosol analyzers — are analyzed. Their role in environmental monitoring systems and their practical significance are also discussed.

Keywords. Atmosphere, atmospheric air, air pollution, atmospheric layers, environmental monitoring, instrumental analysis methods, spectrophotometry, chromatography, electrochemical analysis, aerosol analyzers, suspended particles (PM2.5, PM10), harmful gases, environmental safety, environmental protection.

АННОТАЦИЯ. В данной самостоятельной работе рассматриваются структура, состав и экологическое значение атмосферы, а также возможности применения инструментальных методов анализа в области охраны атмосферного воздуха. В работе освещены слои атмосферы, основные загрязняющие вещества и их влияние на окружающую среду и здоровье человека. Кроме того, проанализированы современные инструментальные методы определения вредных газов и взвешенных частиц в воздухе — спектрофотометрические, хроматографические, электрохимические методы и аэрозольные анализаторы. Обоснована их роль в системе экологического мониторинга и практическая значимость.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА. Атмосфера, атмосферный воздух, загрязнение воздуха, слои атмосферы, экологический мониторинг, инструментальные методы анализа, спектрофотометрия, хроматография, электрохимический анализ, аэрозольные анализаторы, взвешенные частицы (PM2.5, PM10), вредные газы, экологическая безопасность, охрана окружающей среды.

KIRISH

Atmosfera havosi Yer sharida hayotning mavjud bo‘lishi va rivojlanishida muhim o‘rin tutadi. U tirik organizmlarni nafas olish uchun zarur bo‘lgan kislorod bilan ta’minlaydi, iqlim va ob-havo jarayonlarini tartibga soladi hamda sayyorani zararli kosmik va ultrabinafsha nurlanishdan himoya qiladi. Atmosfera shuningdek, Yer yuzasida issiqlik almashinuvi jarayonlarini boshqarib, haroratning keskin o‘zgarib ketishining oldini oladi.Hozirgi kunda sanoatning jadal rivojlanishi, urbanizatsiya jarayonining kuchayishi, avtomobil transporti vositalari sonining ortishi hamda yoqilg‘i-energetika resurslaridan keng foydalanish atmosfera havosining ifloslanishiga olib kelmoqda. Natijada havoga karbonat angidrid (CO_2), oltingugurt dioksidi (SO_2), azot oksidlari (NOx), uglerod oksidi (CO) hamda turli xil uchuvchi organik birikmalar chiqarilmoqda. Bundan tashqari, muallaq zarrachalar (PM2.5 va PM10) miqdorining ortishi inson salomatligi uchun jiddiy

xavf tug‘diradi.Atmosfera havosining ifloslanishi nafaqat inson salomatligiga, balki o‘simlik va hayvonot dunyosiga, tuproq va suv resurslariga ham salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Iqlim o‘zgarishi, global isish, kislotali yomg‘irlar, ozon qatlamining yemirilishi kabi ekologik muammolar bevosita atmosfera bilan bog‘liqdir. Shu sababli atmosfera havosini muhofaza qilish va uning sifatini doimiy ravishda nazorat qilib borish bugungi kunning eng dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi. Atmosfera havosini monitoring qilishda zamonaviy instrumental tahlil metodlari muhim rol o‘ynaydi. Ushbu metodlar yordamida havodagi zararli moddalarning konsentratsiyasi aniq va tezkor aniqlanadi, bu esa ekologik nazorat tizimini samarali tashkil etish imkonini beradi. Instrumental tahlil usullarining qo‘llanilishi sanoat korxonalarida chiqindilarni kamaytirish, ekologik me’yorlarga rioya etilishini ta’minlash va atrof-muhit xavfsizligini oshirishga xizmat qiladi.

ASOSIY QISM. Atmosfera va uning ekologik ahamiyati: Atmosfera Yer sharini o‘rab turgan gaz qobig‘i bo‘lib, tirik organizmlar hayoti uchun zarur sharoitni yaratadi. U nafaqat nafas olish uchun kislorod manbai, balki iqlimni tartibga soluvchi muhim tizim ham hisoblanadi. Atmosferaning tarkibi asosan azot (78%), kislorod (21%), argon va boshqa inert gazlar hamda karbonat angidriddan iborat. Atmosfera bir necha qatlamlardan tashkil topgan bo‘lib, har bir qatlam o‘ziga xos vazifani bajaradi. Troposfera qatlamida ob-havo hodisalari sodir bo‘ladi va ifloslantiruvchi moddalarning asosiy qismi shu yerda to‘planadi. Stratosferada joylashgan ozon qatlami esa Yer yuzasini zararli ultrabinafsha nurlanishdan himoya qiladi. Atmosferaning ekologik ahamiyati juda katta. U issiqlik balansini saqlaydi, suv aylanish jarayonini ta’minlaydi hamda biologik jarayonlarning barqarorligini qo‘llab-quvvatlaydi.Atmosfera havosining ifloslanishi va uning oqibatlari:Hozirgi kunda atmosfera havosining ifloslanishi global ekologik muammolardan biridir. Ifloslanish manbalari tabiiy va antropogen turlarga bo‘linadi. Tabiiy manbalarga vulqon otilishi, chang bo‘ronlari va o‘rmon yong‘inlari kiradi. Antropogen manbalarga esa sanoat korxonalari, transport vositalari, issiqlik elektr stansiyalari va maishiy chiqindilar kiradi.

Atmosferaga chiqariladigan asosiy zararli moddalar quyidagilardan iborat:

Karbonat angidrid (CO_2)

Oltingugurt dioksidi (SO_2)

Azot oksidlari (NOx)

Uglerod oksidi (CO)

Uchuvchi organik birikmalar

Muallaq zarrachalar (PM2.5 va PM10)

Ushbu moddalar inson salomatligiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi, nafas olish kasalliklari, yurak-qon tomir tizimi buzilishlariga sabab bo‘ladi. Shuningdek, ular iqlim o‘zgarishi, kislotali yomg‘irlar va ozon qatlamining yemirilishiga olib keladi.. Atmosfera havosini muhofaza qilishda instrumental tahlil metodlari:Atmosfera havosini samarali nazorat qilishda zamonaviy instrumental tahlil metodlari muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu metodlar havodagi zararli moddalarning konsentratsiyasini aniqlash imkonini beradi.

1. Spektrofotometrik metod

Bu metod moddalarning yorug‘likni yutish xususiyatiga asoslanadi. Asosan SO_2 va NO_2 kabi gazlarni aniqlashda qo‘llaniladi. Aniqlik darajasi yuqori.

2. Gaz xromatografiyasi

Uchuvchi organik birikmalarni aniqlashda ishlatiladi. Murakkab aralashmalarni ajratish va miqdorini belgilash imkonini beradi.

3. Elektrokimyoviy metodlar

CO, NOx va boshqa gazlarni aniqlashda portativ analizatorlarda keng qo‘llaniladi. Tezkor va qulay usul hisoblanadi.

4. Aerozol analizatorlari

Muallaq zarrachalar (PM2.5 va PM10) miqdorini aniqlaydi. Ekologik monitoring stansiyalarida keng qo‘llaniladi.

5. Avtomatlashtirilgan monitoring tizimlari

Zamonaviy stansiyalar real vaqt rejimida atmosfera holatini kuzatish imkonini beradi. Bu ekologik nazoratni samarali tashkil etishga yordam beradi.

XULOSA

Ushbu mustaqil ishda atmosfera havosining tarkibi, qatlamlari va ekologik ahamiyati batafsil yoritildi. Atmosferaning to‘g‘ri funksiyalari tirik organizmlar hayoti va sayyoraning iqlim barqarorligi uchun muhim ekanligi ko‘rsatildi.Shuningdek, atmosfera havosining ifloslanishi manbalari, zararli moddalar va ularning inson salomatligi hamda ekologik tizimga ta’siri tahlil qilindi. Sanoat korxonalari, transport vositalari va boshqa antropogen faoliyat natijasida havoga chiqariladigan gazlar va muallaq zarrachalar atrof-muhit xavfsizligini tahdid ostiga qo‘yishi aniqlangan.Ishning asosiy qismida atmosfera havosini muhofaza qilishda zamonaviy instrumental tahlil metodlari — spektrofotometrik, xromatografik, elektrokimyoviy metodlar va aerozol analizatorlarining roli ko‘rsatildi. Ushbu metodlar havodagi zararli moddalarni aniqlash, ekologik monitoringni samarali tashkil etish va inson salomatligini muhofaza qilish imkonini beradi. Natijada atmosfera havosini muhofaza qilish va uning sifatini doimiy nazorat qilish ekologik xavfsizlikni ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etishi tasdiqlandi. Ish davomida olingan natijalar atmosfera havosini nazorat qilish va ekologik barqarorlikni ta’minlash bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqishga imkon beradi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1.Beloycов V.I. Ekologiya va atmosfera muhofazasi. — Moskva: Nauka, 2015.

2.Karpov A.A., Sidorov P.N. Havoni instrumental tahlil metodlari. — Sankt-Peterburg: Khimiya, 2018.

3.Grin J. Environmental Chemistry: Air and Atmosphere. — London: Routledge, 2017.

4.Sidorov E.V. Sanoat korxonalarida havoning ifloslanishini nazorat qilish. — Moskva: Ekologiya, 2019.

5.Raevskiy L.P. Yer atmosferasi va iqlimi. — Moskva: Fizmatlit, 2016.

6.Rossiya ekologiya vazirligi veb-sayti: Atmosfera havosini monitoring qilish. — https://www.mnr.gov.ru, 2023.

7.Lyuis D. Air Pollution and Environmental Protection. — New York: Springer, 2020.

8.Atmosfera va iqlim atlası. — Sankt-Peterburg: GeoPress, 2021.

CHIQINDILAR VA ULARNING BIOLOGIK MUHITGA TA’SIRI

Adizova Nargiza Zamirovna, Davronova Mohlaroyim Vahob qizi
Buxoro Davlat Texnika Universiteti

Annotasiya: Mazkur maqolada atrof muhitni maishiy chiqindilar bilan ifloslanishini oldini olish, ko'p qavatli uylarda chiqindilardan samarali foydalanish uchun "Uy-joy mulkdorlari shirkati" qoshida yordamchi xojalik sifatida chorvachilikni rivojlantirish rejasini ishlab chiqish masalalari yoritilgan. Atrof-muhitga chiqarib yuborilayotgan chiqindilarni keskin kamaytirish va ularni zararsizlantirishda chora-tadbirlari belgilangan.

Kalit so'zlar: Atrof-muhit, maishiy chiqindilar, chiqindisiz texnologiya, utilizatsiya, biokonversiya.

Hozirgi kunda sanoatlashuv va urbanizatsiya natijasida inson faoliyati ortib bormoqda. Bu jarayonda turli xil chiqindilar – qattiq, suyuq va gazsimon chiqindilar hosil bo‘ladi. Chiqindilar atrof-muhitga, xususan, biologik tizimlarga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Shu sababli ularning oqibatlarini o‘rganish va kamaytirish dolzarb masala hisoblanadi. Atrof-muhitni ishlab chiqarish va iste'mol chiqindilaridan muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona va kompleks foydalanish hamda ekologik toza texnologiyalarni amaliyotga tatbiq etish muammolari bilan uzviy bog'liqdir.

Keyingi vaqtlarda yarim tayyor, muzlatilgan va konserva qilingan mahsulotlarni ko'plab ishlab chiqarilishi munosabati bilan ularni maxsus yashik, quticha, maxsus idish, qog'oz va selofan xaltachalarga o'rab sotuvga chiqarilmoqda. O'rash tarkibini avvalo qog'oz, oyna, metall, selofan, plastmassa tashkil etadi. Eng muhimi ulardan ikkinchi marta foydalanib bo'lmaydi. Ayniqsa, aholi zich yashaydigan ko'p qavatli uylar mavjud ayrim xududlarda aholi tomonidan bu chiqindilar umumiy chiqindixonalarga tashlanmoqda. Bu esa maishiy chiqindilar hajmini bir necha barobarga ko'paytirmoqda. Bunday salbiy holatni yaxshilash va ijobiy tomonga o'zgartirish uchun tadbir choralar ishlab chiqish darkor.

O'zbekiston Respublikasining "Chiqindilar to'g'risida"gi Qonuni O'zbekiston Respublikasi

xududida chiqindi bilan bog'liq ishlarni amalga oshirish sohasi fuqarolar hayoti va sog'lig'iga, atrof-muhitga chiqindilar zararli ta'sirining oldini olish, chiqindilar hosil bo'lishini kamaytirish va ulardan xo'jalik faoliyatida oqilona foydalanish munosabatlarini tartibga solishni belgilab berdi.

Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 21 apreldagi "2017-2021 yillarda maishiy chiqindilar bilan bog'liq ishlarni amalga oshirish tizimini tubdan takomillashtirish va rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi PQ 2916-sonli qarori qabul qilindi. Mazkur qaror mamlakatimiz tuman va shaharlarining sanitariya-epidemiologiya holatini yaxshilash, 2017-2021 yillarda chiqindi bilan bog'liq vazifalarni amalga oshirish tizimini tubdan takomillashtirish va rivojlantirishni yanada kuchaytirishga qaratilgan.

Sh.Ataxanov, R.Akramboev (2014) ta'kidlashicha, ikkilamchi xom ashyolar yuqori ozuqaviy va biologik qiymatga ega bo'lib, ularni qayta ishlanishining bir qancha afzallik tomonlari bor. Birinchidan, xom ashyo resurslarini tejash, ikkinchidan iste'mol bozorini to'ldirish va eksportbop mahsulot ishlab chiqarish valyuta zahirasini ko'paytirish imkonini beradi.Mutaxassislarning hisob-kitoblariga qaraganda, yiliga yer aholisining odam boshiga 1 tonna ishlab chiqarish va uy-ro'zg'or chiqindilari to'g'ri keladi. Toshkent viloyatida esa bu ko'rsatkich 2 barobar ko'pdir. Hozirgi paytda faqat Olmaliq kimyo zavodida 60 mln tonnadan ko'proq chiqindilar yig'ilib qolgan. Ulardan qayta ishlashga hammasi bo'lib 1% sarflanadi, xolos.

Chiqindisiz texnologiya jarayonlarni tadbiq etish, bu ijtimoiy-iqtisodiy muammo, ayniqsa kimyoviy texnologiyada juda zarurdir. Buning uchun mavjud texnologik jarayonlardan eng optimallarini tanlash va ishlab chiqarishda qo'llash kerak. Shuningdek, tarkibida uglevod bo'lgan chiqindi va yo'ldosh mahsulotlarni an'anaviy mikrobli bijg'ish yoki biotexnologik jarayonlar yo'li bilan qayta ishlash mumkin. Masalan, saharozani kristallash uchun boshlang'ich sirop hisoblangan va texnologik sikldan chiqarib tashlanadigan melassa - shakar olishdagi yo'ldosh mahsulot hisoblanadi. Uning tarkibida shakardan tashqari sulfitlar, karbonatlar va kaltsiy, magniy tuzlari mavjud. Melassani bijg'ish davomida qolgan shakarning hammasi ham ishlatilmaydi. Kraxmal donlarning, kartoshka va maniokning quruq massasini 50%ini tashkil etadi. Bu mahsulot jo'hori va maniokdan olinadi. U kislotali yoki fermentativ gidrolizga oson uchraydi va undan dekstrin va glbkoza olinadi. Ushbu geksozalardan spirt va fruktozali sirop olishda foydalaniladi.

Chiqindilar turlari:

1. Qattiq chiqindilar – uy-roʻzgʻor chiqindilari, sanoat chiqindilari, plastik va metall qoldiqlar.

2. Suyuq chiqindilar – maishiy suv chiqindilari, sanoat kimyoviy suvlar.

3. Gazsimon chiqindilar – karbonat angidrid, metan, sulfid gazlari.

Biologik muhitga taʼsiri:

1. Tuproqning ifloslanishi

Qattiq va suyuq chiqindilar tuproq tarkibini oʻzgartiradi, undagi mikroorganizmlar faoliyatiga salbiy taʼsir koʻrsatadi.

Bu natijada oʻsimliklarning oʻsishi sekinlashadi va ekotizimlar barqarorligi buziladi.

2. Suv resurslarining ifloslanishi

Sanoat va maishiy chiqindilar daryolar, koʻllar va dengizlarga tushadi.

Suvda yashovchi hayvonlar va oʻsimliklar hayoti xavf ostida qoladi. Masalan, kimyoviy moddalar baliqlar va suv oʻsimliklarini nobud qilishi mumkin.

3. Havoning ifloslanishi

Gazsimon chiqindilar atmosferaga chiqib, iqlim oʻzgarishiga va biologik muhitda stress holatiga sabab boʻladi.

Bu hayvonlar va oʻsimliklarning yashash sharoitini yomonlashtiradi.

4. Ekotizimlarda biologik xilma-xillikning kamayishi

Chiqindilarning koʻpayishi natijasida koʻplab turdagi hayvon va oʻsimliklar yashash joyini yoʻqotadi.

Inson faoliyati tufayli invaziv turlar kengayib, tabiiy turlar sonini kamaytiradi.

Chiqindilarni kamaytirish va biologik muhitni saqlash:

1. Qayta ishlash va utilizatsiya – plastik, metall va organik chiqindilarni qayta ishlash orqali ekologik yuk kamayadi.

2. Biologik tozalash texnologiyalari – suv va tuproqni mikroorganizmlar yordamida tozalash.

3. Atrof-muhitni muhofaza qilish qonunlari – chiqindilarni nazorat qilish va tartibga solish.

4. Xalqaro va mahalliy tashabbuslar – ekologik ongni oshirish va chiqindilarni kamaytirishga yo‘naltirilgan dasturlar.

Xulosa:

Atrof-muhitga ta'sir ko'rsatadigan va iqtisodiy xarajatlarga sabab bo'ladigan barcha chiqinlar qayta ishlanishi yoki bartaraf etilishi lozim. Sog'liqni saqlash va atrof-muhit muhofazasi hamda qayta ishlash orqali resurslarni saqlash qanchalik muhim bo'lsa, uning sifatiga qo'yilgan talab shunchalik baland bo'ladi. Ishlov berilmagan chiqindilaming joylashtirilishi eng past qimmatga sabab bo'ladi. Bu esa keyinchalik sezilarli darajada o'zining ta'sirini keltirib chiqarishi mumkin. Tabiiy atrof-muhitni saqlashda zaharli gazlarni va tashlamalarni umuman yuzaga keltirmasdan, balki atrof-muhitni himoya qilish chora-tadbirlari va uslublarini qo'llash orqali ulami kamaytirish va bartaraf ettirish lozim. Shaharlarning har yeriarida paydo bo'ladigan, ba'zan esa betartib ravishda hosil bo'lgan axlatxonalar atrof-muhit ifloslanishining jiddiy manbai bo'lib qolmoqda.

Chiqindilar inson faoliyatining ajralmas qismi bo‘lishiga qaramay, ular biologik muhitga katta xavf tug‘diradi. Tuproq, suv va havo ifloslanishi ekotizimlarning barqarorligiga salbiy ta’sir qiladi, biologik xilma-xillik kamayadi. Shu sababli chiqindilarni kamaytirish, qayta ishlash va biologik tozalash texnologiyalarini joriy etish zamon talabidir. Inson va tabiat uyg‘unligi uchun chiqindilarning salbiy ta’sirini kamaytirish har birimizning mas’uliyatimizdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi P^identining 2017 yil 21 apreldagi "2017-2021 yillaMa maishiy chiqindilar bilan bog'liq ishlami amalga oshirish tizimini tubdan takomillashtirish va rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi PQ 2916-sonli qarori.

2. A.Ergashev, T.Ergashev. Ekologiya, biosfera va tabiatni muhofaza qilish. Toshkent. "Yangi asr avlodi", 2005.

3. Sh.Otaboev, M.Nabiev Inson va biosfera. Toshkent, O'qituvchi 1995.

4. Sh.Ataxanov, R.Akramboev Sharbatchilikdagi ikkilamchi xomashyoni qayta ishlash O'zbekiston qishloq xo'jalik j. 2014

5. S.Gaibnazarov Tog'-kon va neftb-gaz sanoatida atrof-muhit muammoalri hamda ularning yechimlari Ekologiya xabarnomasi 2016

6. Abarjon o'g'li, A. A., & Barchinoy, M. (2022). Yer usti va osti suvlarini ifloslantiruvchi asosiy manbalar. ijodkor o'qituvchi, 2(20),

7. Abarjon o'g'li, A. A. (2022). sho'rlangan erlarda dukkakli don ekinlarini ekishning afzalligi.

8. Abdullayeva, M., & Gaybullayeva, M. (2022 o'qituvchi,). No 'xatni fotosintez jadalligi va maxsuldorligiga ekologik omillar ta'siri. Ijodkor

UDK: 004.75:556:628.1

BULUTLI (CLOUD) PLATFORMALAR ASOSIDA REAL VAQT REJIMIDA SUV MONITORINGI TIZIMI

Asrorov Oybek Asror o’g’li
Iqtisodiyot va pedagogika universiteti

Annotatsiya. Iqlim o‘zgarishi sharoitida suv resurslarini samarali boshqarish global muammoga aylandi. An’anaviy monitoring tizimlari real vaqt nazorati va analitik imkoniyatlar yetishmasligi sababli suv yo‘qotishlari va noto‘g‘ri taqsimotga olib kelmoqda. Ushbu tadqiqotda IoT sensorlari va bulutli (Cloud) platformalar asosida real vaqt rejimida ishlovchi suv monitoringi tizimining arxitekturasi, matematik modeli va samaradorlik tahlili ishlab chiqildi. Taklif etilgan modelda oqim, bosim va suv sifati parametrlarini yig‘ish, MQTT protokoli orqali bulutga uzatish, ma’lumotlarni qayta ishlash hamda mashinaviy o‘rganish asosida prognozlash amalga oshiriladi. Tajriba natijalari suv yo‘qotishlarini 21.4% gacha kamaytirish va monitoring aniqligini 95% ga oshirish mumkinligini ko‘rsatdi.

Kalit so‘zlar. Cloud computing, IoT, real-time monitoring, smart water management, MQTT, predictive modeling, water loss detection.

Kirish. Iqlim o‘zgarishi natijasida suv resurslarining kamayishi va notekis taqsimlanishi suv

infratuzilmasini raqamlashtirishni talab qilmoqda. Jahon banki ma’lumotlariga ko‘ra, rivojlanayotgan mamlakatlarda suv yo‘qotishlari 30–45% ni tashkil etadi. Bu asosan monitoringning sustligi va real vaqt nazorat mexanizmlarining yo‘qligi bilan bog‘liq.

Bulutli hisoblash (Cloud Computing) va Internet of Things (IoT) texnologiyalari suv monitoring tizimlarini markazlashtirish, masshtablash va analitik jihatdan boyitish imkonini beradi. IoT qurilmalaridan kelayotgan katta hajmdagi ma’lumotlar bulut muhitida qayta ishlanib, tezkor boshqaruv qarorlarini qabul qilishga yordam beradi.

Tadqiqotning maqsadi — bulutli platforma asosida real vaqt suv monitoringi tizimini ishlab chiqish, matematik modellashtirish va uning samaradorligini baholash.

IoT va Cloud integratsiyasi konsepsiyasi Gubbi va boshqalar (2013) tomonidan taklif etilgan. Botta va boshqalar (2016) IoT–Cloud arxitekturasining masshtablanuvchanligini asoslab bergan. Al-Fuqaha va boshqalar (2015) IoT protokollarini tahlil qilgan. Suv boshqaruvi sohasida smart monitoring tizimlari Zhang va boshqalar (2019) tomonidan o‘rganilgan.

Ammo mavjud ishlarda:

- Real vaqt prognozlash modeli yetarli darajada matematik asoslanmagan
- Iqtisodiy samaradorlik tahlili kam berilgan
- Yo‘qotish aniqlash algoritmlari differensial model asosida ishlab chiqilmagan

Mazkur maqola ushbu bo‘shliqlarni to‘ldiradi.

Material va metodlar

Tizim arxitekturasi

Tizim 5 qatlamdan iborat:

Sensor qatlami

Tarmoq qatlami

Bulut qatlami

Analitik modul

Vizualizatsiya interfeysi

Matematik model

Suv oqimi modeli

$$Q = A \cdot v$$

Bu yerda:

- Q — suv oqimi (m^3/s)
- A — quvur kesim yuzasi (m^2)
- v — oqim tezligi (m/s)

Massa balans tenglamasi

$$\frac{dV}{dt} = Q_{in} - Q_{out} - L$$

Bu yerda:

- V — rezervuardagi suv hajmi
- L — yo‘qotishlar

Yo‘qotish koeffitsienti

$$L = \frac{Q_{in} - Q_{out}}{Q_{in}} \times 100\%$$

Prognozlash regressiya modeli

$$\hat{Q}_{t+1} = \alpha Q_t + \beta T_t + \gamma P_t + \delta H_t$$

Bu yerda:

- T_t — harorat
- P_t — bosim
- H_t — namlik
- α, β, γ — regressiya koeffitsientlari

Anomaliya aniqlash modeli

$$D_t = | Q_t - \hat{Q}_t |$$

Agar:

$$D_t > \lambda$$

bo‘lsa, tizim ogohlantirish beradi.

Eksperimental metodologiya

Tajriba 4 ta suv taqsimot punktida 90 kun davomida o‘tkazildi. 10 soniyalik intervalda ma’lumot yig‘ildi. 2.1 million ma’lumot nuqtasi qayta ishlangan.

Natijalar va ularning tahlili

1-jadval

Samaradorlik ko‘rsatkichlari

Ko‘rsatkich	**An’anaviy**	**Cloud tizim**
Monitoring intervali	1 soat	10 soniya
Yo‘qotish darajasi	32%	25.2%
Aniqlik	78%	95%
Anomaliya aniqlash vaqti	2 kun	6 daqiqa

Statistik tahlil

RMSE:

$$RMSE = \sqrt{\frac{1}{n}\sum_{i=1}^{n}(Q_i - \hat{Q}_i)^2}$$

Natija: RMSE = 0.021 m³/s

$$R^2 = 0.93$$

Iqtisodiy samaradorlik

$$E=(C_{loss}-C_{cloud})-C_{implementation}$$

Natijada 1 yil ichida investitsiya qoplanadi.

Muhokama

Taklif etilgan tizim:

- Gubbi (2013) modelidan farqli ravishda real vaqt anomaliya aniqlash mexanizmini qo‘llaydi
- Botta (2016) modeliga nisbatan kam kechikishli (latency < 1.2s)
- ML prognozlash integratsiyasi bilan farqlanadi

Cheklovlar:

- Internetga bog‘liqlik
- Sensor kalibrovka muammolari

Xulosa. Cloud asosidagi real vaqt monitoring suv yo‘qotishlarini 21.4% ga kamaytirdi.Prognozlash aniqligi R^2 = 0.93 ga yetdi.Tizim ekologik va iqtisodiy jihatdan samarali.Kelgusida Digital Twin integratsiyasi rejalashtirilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Gubbi, J., et al. (2013). Internet of Things (IoT): A vision. *Future Generation Computer Systems*, 29(7), 1645–1660. https://doi.org/10.1016/j.future.2013.01.010
2. Botta, A., et al. (2016). Integration of cloud computing and IoT. *Future Generation Computer Systems*, 56, 684–700. https://doi.org/10.1016/j.future.2015.09.021
3. Al-Fuqaha, A., et al. (2015). Internet of Things: A survey. *IEEE Communications Surveys & Tutorials*, 17(4), 2347–2376. https://doi.org/10.1109/COMST.2015.2444095
4. Zhang, Y., et al. (2019). Smart water management. *IEEE Access*, 7, 101793–101806. https://doi.org/10.1109/ACCESS.2019.2931947
5. Li, S., et al. (2018). Cloud-based IoT systems. *IEEE Internet of Things Journal*, 5(2), 1295–1304. https://doi.org/10.1109/JIOT.2017.2786343
6. Perera, C., et al. (2014). Context-aware IoT middleware. *IEEE Communications Surveys & Tutorials*, 16(1), 414–454. https://doi.org/10.1109/SURV.2013.042313.00197

УДК 631.674

TOMCHILATIB SUG‘ORISHDA TUPROQNING HAJM OG‘IRLIGI VA G‘OVAKLIGI TAHLILI

Erkinov Azamat Jamoldin o’g’li, Ollayev Nurbek Berdiyor o’g’li
Qarshi Davlat Texnika Universiteti

Annotatsiya: Ushbu maqolada tomchilatib sug‘orishdagi tajribada tuproqning suv o‘tkazuvchanligiga ta’sir etuvchi omillar o‘rganilgan. Unga asosan Farg‘ona viloyati Rishton massivining kam sho‘rlangan tuproqlarining hajm og‘irligi, g‘ovakligi kuchli ta’sir ko‘rsatishi aniqlangan. Tuproqning hajm og‘irligi va g‘ovakligi bilan uni suv o‘tkazuvchanligi orasidagi bog‘liqlikning matematik tahlili va ikki hil usulda sug‘orish natijalarining tahlili amalga oshirilgan.

Аннотация: В данной статье рассматриваются факторы, влияющие на водопроницаемость почвы в экспериментах по капельному орошению. На основании этого было установлено, что сильное влияние оказывают насыщенная плотность и пористость малосольных почв Риштонского массива в Ферганской области. Был проведен математический анализ взаимосвязи между объемной плотностью и пористостью почвы и ее водопроницаемостью, а также анализ результатов орошения с использованием двух различных методов.

Abstract: In this article, the factors affecting soil water permeability in drip irrigation experiments are examined. Based on this, it was found that the bulk density and porosity of the low-salinity soils of the Rishton massif in the Fergana region have a strong influence. A mathematical analysis of the relationship between soil bulk density and porosity and its water permeability was carried out, along with an analysis of the results from irrigation using two different methods.

Kalit so‘zlar: Iqlim, tomchilatib sug‘orish, tuproq, hajm massa, nisbiy namlik, suv o‘tkazuvchanlik, g‘ovaklik, tahlil, suv-fizik hossasi.

Ключевые слова: Климат, капельное орошение, почва, объемная масса, относительная влажность, водопроницаемость, пористость, анализ, водно-физические свойства.

Key words: Climate, drip irrigation, soil, volume mass, relative humidity, water permeability, porosity, analysis, water-physical property.

Kirish. Hozirgi kunda jahon qishloq xo‘jaligi rivojlanishi, eng avvalo suv resurslari bilan ta’minlanganlik darajasi bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, yer yuzida “moviy oltin” deb nomlangan suvdan foydalanish sohasidagi keskin vaziyatlarning yuzaga kelishi suv resurslaridan oqilona foydalanish, suvdan foydalanish hajmini kamaytirishni ta’minlovchi dehqonchilik tizimini takomillashtirish, tizimda zamonaviy suv tejovchi texnologiyalarni joriy etish zaruriyatini keltirib chiqarmoqda. Chunki, “2040 yilga borib, yer aholisining to‘qqiz milliardga yetishi, toza suv zaxiralarini esa insoniyat ehtiyojlarining faqat 70 foizini qamrab olishi” masalani yanada murakkablashishiga olib keladi[1].

Respublikamizda aholini oziq-ovqat va boshqa qishloq xo‘jalik mahsulotlari hamda sanoatni xom-ashyoga bo‘lgan ehtiyojini to‘la qondirishda mavjud yer va suv resurslaridan oqilona foydalanish, sug‘oriladigan yerlardan yil davomida uzliksiz 2-3 marta yuqori va sifatli hosil yetishtirish, mahsulot xajmini ko‘paytirish borasida keng qamrovli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Buning uchun sug‘oriladigan tuproqlarga ishlov berishning maqbul usullari, muddatlarini aniqlash va takroriy ekin turlarini to‘g‘ri tanlash orqali tuproq unumdorligini tiklash, saqlash va muntazam oshirish hamda mavjud resurslardan samarali foydalanish muhim ahamiyatga ega. Bu borada tuproqqa yozda ishlov berish usullariga bog‘liq holda takroriy ekinlarning hosildorligini, ishlov berish usullari, muddatlari va takroriy ekin turlariga bog‘liq holda tuproqning agregat tarkibini, suv-fizik, agrokimyoviy xossalarini o‘zgarishi bo‘yicha tadqiqotlarni o‘tkazish dolzarb bo‘lib hisoblanadi.

Bundan tashqari, global iqlim o‘zgarishi, surunkali takrorlanayotgan qurg‘oqchilik holatlari, mintaqaviy va global miqyosda gidrologik muvozanatni saqlash zaruriyatini yuzaga keltirmoqda. Zero, mutaxassislarning hisob-kitobiga ko‘ra, “sayyoramizdagi iqlim o‘zgarishi suv tanqisligini 20 foizga oshishi va dunyoning 45 dan ortiq davlatida istiqomat qilayotgan 2-5-milliard aholining hayotini yomonlashishiga olib kelishi” mumkin[2].

Material va metodlar. F.M.Xasanova va I.T.Karabaev tajribalarida tuproqqa yozgi ishlov berishning tuproq namligi va suv sarfiga ta’siri tadqiq qilingan. Mualliflarning tajriba natijalariga qaraganda kuzgi bug‘doydan keyin ekilgan takroriy soya va makkajo‘xorining har bir sug‘orishlaridan keyingi natijalarida 0-50 sm tuproq qatlamida namlikni eng uzoq saqlanishi tuproqni rotorli kultivator bilan ishlangan va yer 28-30 sm chuqurlikda haydalgan variantlarda kuzatilgan. Shuningdek, bug‘doydan keyin tuproqqa ishlov berish texnologiyasi va ekish usulidan kat’iy nazar takroriy soya va makkajo‘xori ekilgan maydonlarning tuprog‘i zichlashmaganligi aniqlangan.

M.Muxammadjonov tomonidan ayrim tuproqlarda chigit ekish usullari tuproqning fizik xususiyatlari, xususan hajm og‘irligi va g‘ovakligi, agrofizikaviy, suv xususiyatlariga ta’siri tadqiq qilingan va tegishli tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Tadqiqotchi K.D.Borskovaning tajriba natijalarida (CO2) karbonat angidrid gazining konsentratsiyasi tuproq zichligi, namligi, haroratiga bog‘liq ekanligi ilmiy asoslangan. Muallifning xulosasiga ko‘ra, tuproqqa asosiy ishlov berish texnologiyasida haydov chuqurligi haydov qatlami turlicha tuzilishini hosil qilgan, organik qoldiqlarni tuproq katlamlari bo‘yicha har xil taqsimlanishiga olib kelgan, natijada turli havo tartibini vujudga keltirgan. Shuningdek, butun o‘suv davri davomida tuproq muhitida (CO2) karbonad angidrid gazining ajralishi va ko‘payib borishi 30-40 sm chuqurlikda qo‘sh yarusli plugda haydalgan, pushta va egat olingan variantlarda ro‘y bergan.

Shuning uchun biz bu borada ilmiy-tatqiqotlar olib borishni rejalashtirdik. Tajriba tizimi 1-jadvalda keltirilgan bo‘lib, 12 ta variant 4 qaytariqda, bir yarus qilib joylashtirilgan. Tajribada 48 ta bo‘lakcha bo‘lib, har bir bo‘lakchaning umumiy maydoni 360 m^2 ni hisobga olish maydoni esa 180 m^2 ni, tajribaning umumiy maydoni esa 17280 m^2 ni tashkil etadi.

Tadqiqot materiallari va uslubi. Barcha kuzatuv, tahlil va hisob-kitoblar “Методы агрофизических исследований” uslublari asosida olib borildi. Tajriba ma’lumotlari B.A.Dospexovning “Методика полевого опыта” uslubi asosida matematik tahlil qilindi.

Natijalar va ularning tahlili. Tajriba qo‘yishdan (kuzgi bug‘doydan bo‘shagan yerni haydashdan) oldin hamda g‘o‘zaning amal davri boshida va oxirida tuproqning 0-100 sm (har 10 sm.da) qatlamlarida amal davrining boshi va oxirida hajm og‘irligi, suv o‘tkazuvchanlik va g‘ovaklik hususiyatlari aniqlandi.

1-jadval

Tajriba tizimi

G‘o‘zani sug‘orish usullari va takrorliklar	**ChDNS ga nisbatan tuproqning sug‘orish oldi namligi, %**	**Tuproqning hisobiy qatlami, m**
1-variant, 1-takrorlik. G‘o‘zani egatlab sug‘orish (nazorat).	75-75-70	75-100-75
2-variant, 1-takrorlik. Qo‘sh qatorlab ekilgan g‘o‘zani tomchilatib sug‘orish		50-50-50
1-variant, 2-takrorlik. G‘o‘zani egatlab sug‘orish (nazorat).		75-100-75
2-variant, 2-takrorlik. Qo‘sh qatorlab ekilgan g‘o‘zani tomchilatib sug‘orish.		50-50-50
1-variant, 3-takrorlik. G‘o‘zani egatlab sug‘orish (nazorat).		75-100-75
2-variant, 3-takrorlik. Qo‘sh qatorlab ekilgan g‘o‘zani tomchilatib sug‘orish.		50-50-50

Tadqiqot natijalariga qaraganda, 2022 yil (1-dala) sharoitida tuproq haydov va haydov osti qatlamida (0-30, 30-50 sm) xajm massasi 1.37-1.41 g/sm3, o‘rtacha 1.39 g/sm3, 2023 yilda (2-dala) 136-137 g/sm (1,37) bo‘lganligi kuzatildi. Ta’kidlash kerakki, tuproqning hajm massasini o‘zgarishi pastki (70-80 sm.li) qatlamlarga tomon orta borib, 1,45; 1,45 va 1,46 g/sm3ni tashkil etgan. Lekin, haydov (0-30 sm) qatlamida hajm og‘irligi maqbul bo‘lganligi aniqlangan. Tuproqning g‘ovaklik hususiyati ham tegishli ravishda 49.3-47.8; 49.6-49.3 va 48.4-48.2 % ni tashkil etganligi ma’lum bo‘ldi. Demak, tuproqning hajm og‘irligi ortgani sari uning g‘ovakligi kamayishi aniqlandi.

Tuproqning suv o‘tkazuvchanlik xususiyati tuproq zichligi va g‘ovakligiga bevosita bog‘liqdir. Shu bois tajribadagi avvalgi ekin (kuzgi bug‘doy) agrotexnikasi ta’sirida amal davrini ohirigacha tuproqninng suv o‘tkazuvchanlik hususiyatini pasayishi kuzatilgan.

Farg‘ona viloyati tumanlarida tarqalgan asosiy tuproq tip (xil)lari 11 xil turi aniqlandi. Jumladan: To‘q tusli bo‘z tuproqlar, tipik bo‘z tuproqlar, och tusli bo‘z tuproqlar, o‘tloqi bo‘z tuproqlar, bo‘z o‘tloqi tuproqlar, o‘tloqi tuproqlar, o‘tloqi soz tuproqlar, o‘tloqi allyuvial tuproqlar, botqoq o‘tloqi tuproqlar, o‘tloqi botqoq tuproqlar, botqoq tuproqlar tashkil etadi.

Bu hududda tabiiy georafik sharoitlar va antropogen omillar ta’siri natijasida sug‘oriladigan och tusli bo‘z va tipik bo‘z tuproqlar tarqalgan.

Sug‘oriladigan och tusli bo‘z tuproqlar. Tog‘ osti nishabli tekisliklarida va daryolarning konus yoyilmalarida uchraydi. Ilgaridan sug‘orib kelinayotgan bu tuproqlar uchun 0,5-1,0 metr qalinlikdagi agroirrigatsion qatlamlarning mavjudligi harakterli. Mexanik tarkibiga ko‘ra asosan o‘rta va og‘ir, ba’zan yengil qumoqlardan iborat.

Sug‘oriladigan tipik bo‘z tuproqlar to‘g osti nishabli tekisliklari va konus yoyilmalarining past-baland qir-adirliklari tizma qatorlarida joylashgan.

Bu tuproqlarning gumuslashganligi nisbatan yuqori – haydalma qatlamlarda 0,8 dan 2,5 % gacha, azot miqdori – 0,05-0,16 % gacha, yalpi fosfor bilan yuqori ta’minlangan (0,15-0,25 %). Tuproq kesimi (profili)ning yuqori suv oqimlari sizibo‘tuvchi qismida karbonatlar iqdori kam – 3,4-4,5 %, kesimning pastki qatlamlariga qarab uning miqdori – 14-16 % gacha ortadi. Eskidan sug‘oriladigan tipik bo‘z tuproqlarda sho‘rlanish va irrigatsion eroziya kuzatilmaydi.

Farg‘ona viloyatidagi klaster va fermer xo‘jaligining dala maydoni tanlash belgilangan bo‘lib, amalda Farg‘ona viloyati Rishton tumani Dashtpandigon massivida joylashgan **“Sultonbek Yunus Ali O‘g‘li”** fermer xo‘jaligi yer maydonining 5 konturda joylashgan 12,0 gektar paxta maydonini tanlandi. Ushbu fermer xo‘jalikda 10 gektar maydonning ikki qismidan ya’ni 1 va 2 nuqtalaridan 150 mm chuqurlikda jami 34 dona idishda tuproq na’munali olidi. So‘ngra ushbu olingan tuproq na’munalarini og‘irligi 20 gramli 34 dona aluminiy idishlarda termostat yordamida 105 ^{0}C da 8 soat mobaynida qurutildi.

Masalan, 2022 yilning (1-dala) sharoitida tuproqning dastlabki suv o‘tkazuvchanligi aniqlanganda 1 soatda 202.7 m^3/ga.ni tashkil etgan bo‘lsa, 6 soat davomidagi tuproqning suv o‘tkazish qobiliyati 32.0 m^3/ga. pasaygan, 6 soat davomida jami 509 m^3/ga suv singishi kuzatilgan. Bunda, tuproqning eng ko‘p miqdordagi suv singdirish qobiliyati dastlabki birinchi va ikkinchi soatlarda bo‘lganligi aniqlangan. Xuddi shunday xolat tajribaning keyingi yillarida ham qayd etilib, 2021 yilgi sharoitda 499.5 m^3, 2019 yilgi sharoitda 503.3 m^3/ga ni tashkil etgan.



1-rasm. G‘o‘za uchun tuproq namlanish sxemasi.

Xulosa. Mexanik tarkibi yengil (qumli, qumloq) hamda suv o‘tkazuvchanligi yuqori bo‘lgan tuproqlarda va sho‘rlanishga moyil bo‘lgan maydonlarda suv me’yori 5-10 % ga yuqori belgilanadi. Shuningdek, sizot suvlari sathi yaqin (1.5-2.0 m) joylashgan yerlarda sug‘orish me’yorlari 12-15 % ga qisqartiriladi. G‘o‘zani tomchilatib sug‘orishda tuproqning 0-50 sm li qatlamini namlanishi yetarli hisoblanadi. Tomchilatib sug‘orish tizimining qiymati nisbatan yuqori bo‘lganligi uchun undan foydalanish ishlarini to‘g‘ri rejalashtirish muhim hisoblanadi. Agar rejalashtirish noto‘g‘ri belgilangan bo‘lsa, tizimdan noto‘g‘ri foydalanishga olib keladi, xarajatlar qoplanmasdan olinadigan foyda kamayib ketishi mumkin.

Bunday bo‘lmasligi uchun fermer xo‘jaliklari va agroklaster rahbarlari, suv xo‘jaligi mutaxassislari g‘o‘zani tomchilatib sug‘orish texnologiyasini yaxshi o‘rganib, tomchilatib sug‘orish tizimi talablariga qat’iy rioya etishlari zarur.

Dalalar tuprog‘ining suv-fizik xossalarining dastlabki ko‘rsatkichlarini tahlil qiladigan bo‘lsak, tajribalar har yili boshqa dalada o‘tkazilganligiga qaramay ularning tuproqlarini agregatlar tarkibi, xajm massasi, g‘ovakligi va suv o‘tkazuvchanlik xususiyatlari bir-biriga yaqin bo‘lganligi kuzatildi. Bu holat esa biz qo‘llagan tuproqqa ishlov berish usullari va muddatlarining takroriy ekinlar va g‘o‘zaning o‘sish va rivojlanishi uchun bir xil fonda ta’sir ko‘rsatganligidan dalolat beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Dobrov D. Борьба за водные ресурсы в мире обостряется. 03.05.2018. URL:http://inosmi.ru/social/20180503/242127536.html

2. www.unesco.org/water/wwap

3. Erkinov A. IMPROVEMENT OF CROP CONDITION AND ACCEPTABLE IRRIGATION ELEMENTS THROUGH DRIP IRRIGATION TECHNOLOGIES. – 2025.

4. Erkinov A. TURLI MEXANIK TARKIBLI TUPROQLARDA G‘O‘ZANI TOMCHILATIB SUG‘ORISH USULIDAGI ILMIY ASOSLANGAN SUG‘ORISH TARTIBI VA SUG‘ORISH TEXNIKASI ELEMENTLARI. – 2025.

5. V.A.Duxovnыy. Капельное орошение–перспективы и препятствия. Сборник научных трудов по капельному орошению.// Сборник научных трудов по капельному орошению. Toshkent, 1995 y. 3-12 b.

6. Erkinov A. G‘OZANI TOMCHILATIB SUG‘ORISHNING RESURSTEJAMKOR AGROTEXNOLOGIYALARI HAMDA O‘SIMLIKLARNI HIMOYA QILISHNING INNOVATSION YECHIMLARI. – 2025.

7. Erkinov A., Ollayev N. ASSESSMENT OF WATER RESOURCES UNDER GLOBAL CLIMATE CHANGE. – 2025.

G‘UZOR TUMANIDA PACHKAMAR SUV OMBORIGA BOG‘LIQ SUG‘ORILADIGAN MAYDONLARNING SUV TA’MINOTI VA SAMARADORLIGI TAHLILI

Ro‘ziyev Muzaffar Ortiq o‘g‘li, Hamdamova Malika Azam qizi[1]
Sarmanova Ma’mura O‘tkir qizi, Soatov Abdulla Erkin o‘g‘li[2]
[1]Irrigatsiya va suv muammolari ilmiy-tadqiqot instituti
[2]Qarshi davlat texnika unuversiteti

Annotatsiya. *Mazkur maqolada Qashqadaryo viloyati G‘uzor tumanida Pachkamar suv omboriga bog‘liq sug‘oriladigan maydonlarning suv ta’minoti holati, mavjud muammolar va ularni bartaraf etish imkoniyatlari tahlil qilingan. Shuningdek, suv resurslaridan samarali foydalanish, suv tejovchi texnologiyalarni joriy etish hamda infratuzilmani takomillashtirish orqali hosildorlikni oshirish masalalari ko‘rib chiqilgan.*

Kalit so‘zlar: *sug‘orish, suv resurslari, suv tanqisligi, Pachkamar suv ombori, hosildorlik, tomchilatib sug‘orish.*

Kirish. Qishloq xo‘jaligida barqaror ishlab chiqarishni ta’minlash suv resurslaridan oqilona foydalanishga bevosita bog‘liq. Ayniqsa, iqlim o‘zgarishi va qurg‘oqchilik sharoitida suv ta’minoti muammosi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. G‘uzor tumanidagi sug‘oriladigan yerlarning katta qismi sun’iy suv manbalariga, jumladan Pachkamar suv omboriga bog‘liq bo‘lib, mazkur

manbaning samaradorligi hudud qishloq xo‘jaligi rivojiga ta’sir ko‘rsatadi.

Tadqiqot obyekti va usullari

Tadqiqot obyekti sifatida G‘uzor tumanidagi Pachkamar suv omboriga bog‘liq sug‘oriladigan maydonlar tanlandi. Tahlil jarayonida statistik ma’lumotlar, taqqoslash, tahlil va sintez usullaridan foydalanildi.

Natijalar va muhokama

2023-yilda tuman bo‘yicha jami 214 mln m³ suv limiti ajratilgan bo‘lib, amalda 105 mln m³ suv yetkazib berilgan. Bu ko‘rsatkich ajratilgan limitning 49 foizini tashkil etadi va suv ta’minotida jiddiy yo‘qotishlar mavjudligini ko‘rsatadi.

Suv manbalari kesimida tahlil qilinganda, Pachkamar suv omboridan amalda 28,58 mln m³ suv olingan bo‘lib, bu umumiy yetkazib berilgan suvning sezilarli qismini tashkil etadi. Shu bilan birga, ushbu manbaga bog‘liq sug‘oriladigan maydonlar 12742 gektarni tashkil etib, tuman qishloq xo‘jaligida muhim o‘rin tutadi.

Ulug‘bek hududida suv ta’minoti darajasi 37 foizni tashkil etgan bo‘lib, talab etilgan 8,507 mln m³ o‘rniga atigi 3,124 mln m³ suv yetkazib berilgan. Bu esa sug‘orish ishlarining yetarli darajada amalga oshirilmasligiga olib kelgan. Natijada g‘alla maydonlari o‘rtacha 2,4-marta, paxta maydonlari esa 1,6-marta sug‘orilgan.

Suv tanqisligi natijasida ayrim maydonlarda ekinlar ekish imkoniyati cheklangan. Xususan, so‘nggi yillardagi qurg‘oqchilik sababli 877 gektar maydonda ekinlar ekilmagan. Bu holat suv ta’minoti tizimining samaradorligi past ekanligini ko‘rsatadi.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, suv yetkazib berish jarayonida 37 foizgacha yo‘qotishlar mavjud. Bu asosan ochiq kanallar orqali suv tashishda yuzaga kelmoqda. Shu munosabat bilan yopiq quvurli tizimga o‘tish muhim ahamiyat kasb etadi.

Suv tejovchi texnologiyalarni joriy etish ijobiy natijalar bermoqda. Jumladan, 4307 gektar maydonda ushbu texnologiyalarni qo‘llash orqali 9,87 mln m³ suv tejalgan. Bu esa suv resurslaridan samarali foydalanish imkoniyatini oshiradi.

Iqtisodiy jihatdan ham ayrim muammolar mavjud. Masalan, Amudaryodan nasos orqali suv yetkazib beriladigan maydonlarda 1 m³ suvning tannarxi 1320 so‘mni tashkil etadi. Bu esa mahsulot tannarxiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Taklif va tavsiyalar

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi takliflar ilgari suriladi:

- Pachkamar suv omboridan yopiq quvurlar orqali suv yetkazib berish tizimini joriy etish;
- suv yo‘qotishlarini kamaytirish orqali mavjud suv resurslaridan samarali foydalanish;
- tomchilatib va yomg‘irlatib sug‘orish texnologiyalarini kengaytirish;
- nasos orqali sug‘orish xarajatlarini kamaytirish bo‘yicha chora-tadbirlar ishlab chiqish;
- suv resurslarini boshqarishda raqamli texnologiyalarni joriy etish.

Xulosa

G‘uzor tumanida Pachkamar suv omboriga bog‘liq sug‘oriladigan maydonlarda suv ta’minoti muammolari mavjud bo‘lib, bu holat qishloq xo‘jaligi samaradorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Shu bilan birga, suv tejovchi texnologiyalar va infratuzilmani takomillashtirish orqali mavjud muammolarni bartaraf etish imkoniyati mavjud. Yopiq quvurli sug‘orish tizimini joriy etish esa suv yo‘qotishlarini kamaytirish va hosildorlikni oshirishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Suv xo‘jaligi vazirligi ma’lumotlari, 2023.
2. Qurbonov, Sh., Raximov, A. *Sug‘orish tizimlarida suv tejovchi texnologiyalar*. Toshkent, 2022.
3. Abdullayev, I., Jumayev, X. *Markaziy Osiyoda suv resurslarini boshqarish muammolari*. Toshkent, 2021.

ATMOSFERA HAVOSIDAGI CHANG MIQDORIDA GRAVIMETRIK USULDA ANIQLASH

Xudoyberdiyeva Sevinch Shavkatbek qizi
Buxoro davlat texnika universiteti

ANNOTATSIYA. *Ushbu ishda atmosfera havosidagi chang zarrachalarining miqdorini gravimetrik usul asosida aniqlash metodikasi bayon etiladi. Atmosfera havosining sanoatlashuv, transport vositalari va antropogen omillar ta'sirida ifloslanishi inson salomatligi hamda atrof-muhit barqarorligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli havodagi chang konsentratsiyasini aniq va ishonchli usulda o'lchash muhim ahamiyat kasb etadi.*

Kalit so'z. *Atmosfera havosi, chang zarrachalari, gravimetrik usul, havo ifloslanishi, chang konsentratsiyasi, filtrlash jarayoni, analitik tarozi, ekologik monitoring, antropogen omillar, mg/m³ ko'rsatkich.*

АННОТАЦИЯ. *В данной работе изложена методика определения количества пылевых частиц в атмосферном воздухе на основе гравиметрического метода. Загрязнение атмосферного воздуха под воздействием индустриализации, транспортных средств и антропогенных факторов оказывает отрицательное влияние на здоровье человека и устойчивость окружающей среды. В связи с этим точное и надёжное измерение концентрации пыли в воздухе приобретает важное значение.*

Ключевые слова. *Атмосферный воздух, пылевые частицы, гравиметрический метод, загрязнение воздуха, концентрация пыли, процесс фильтрации, аналитические весы, экологический мониторинг, антропогенные факторы, показатель мг/м³.*

ABSTRACT. *This study describes the methodology for determining the concentration of dust particles in atmospheric air using the gravimetric method. Air pollution caused by industrialization, vehicles, and other anthropogenic factors has a negative impact on human health and environmental sustainability. Therefore, accurately and reliably measuring the concentration of dust in the air is of great importance.*

Keywords. *Atmospheric air, dust particles, gravimetric method, air pollution, dust concentration, filtration process, analytical balance, environmental monitoring, anthropogenic factors, mg/m³ indicator.*

KIRISH. Atmosfera havosi tirik organizmlar hayoti uchun zarur bo'lgan asosiy tabiiy resurslardan biridir. So'nggi yillarda sanoat korxonalari faoliyatining kengayishi, avtomobil transporti sonining ortishi va qurilish ishlari hajmining ko'payishi natijasida havodagi chang zarrachalari miqdori sezilarli darajada oshmoqda. Changning yuqori konsentratsiyasi inson salomatligiga, ayniqsa nafas olish tizimiga salbiy ta'sir ko'rsatadi hamda ekologik muvozanatning buzilishiga olib keladi. Shu sababli atmosfera havosidagi chang miqdorini aniqlash va nazorat qilish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Gravimetrik usul atmosfera havosidagi chang konsentratsiyasini aniqlashning eng ishonchli va keng qo'llaniladigan laboratoriya usullaridan biridir. Ushbu maqolada mazkur usulning nazariy asoslari, tajriba o'tkazish bosqichlari va natijalarni hisoblash tartibi batafsil yoritiladi.

Mavzuning dolzarbligi. Bugungi kunda atmosfera havosining ifloslanishi global ekologik muammolardan biriga aylangan. Aholi sonining ortishi, urbanizatsiya jarayonining jadallashuvi, sanoat ishlab chiqarishining kengayishi va avtotransport vositalari sonining ko'payishi natijasida havoga chiqarilayotgan zararli moddalar miqdori oshib bormoqda. Ayniqsa, chang zarrachalari (qattiq dispers zarrachalar) atmosfera ifloslanishining asosiy komponentlaridan biri hisoblanadi. Ular nafaqat atrof-muhit sifatiga, balki inson salomatligiga ham jiddiy xavf tug'diradi.

Mayda dispers chang zarrachalari nafas olish yo'llari orqali inson organizmiga kirib, bronxit, allergik kasalliklar, astma va yurak-qon tomir tizimi kasalliklarini keltirib chiqarishi mumkin. Shuningdek, chang zarrachalari o'simliklar bargi yuzasiga o'rnashib, fotosintez jarayonini susaytiradi, tuproq va suv havzalarining ikkilamchi ifloslanishiga sabab bo'ladi. Shu bois atmosfera havosidagi chang miqdorini muntazam nazorat qilish ekologik xavfsizlikning muhim sharti hisoblanadi.

Gravimetrik usul orqali chang konsentratsiyasini aniqlash bugungi kunda ekologik monitoring

tizimida asosiy laboratoriya usullaridan biri sifatida qo‘llanilmoqda. Ushbu usulning dolzarbligi shundaki, u oddiy texnik vositalar yordamida aniq va ishonchli natija beradi, iqtisodiy jihatdan samarali hamda amaliyotga qulaydir. Ayniqsa, sanoat korxonalari joylashgan hududlarda, transport qatnovi zich bo‘lgan shahar sharoitida va qurilish maydonlarida havoning changlanish darajasini aniqlash dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Bundan tashqari, atmosfera havosi sifat ko‘rsatkichlarini aniqlash natijalari sanitariya me’yorlari bilan taqqoslanib, aholi salomatligini muhofaza qilish, ekologik nazoratni kuchaytirish va atrof-muhitni muhofaza qilish bo‘yicha chora-tadbirlar ishlab chiqishda muhim ilmiy asos bo‘lib xizmat qiladi. Shu sababli atmosfera havosidagi chang miqdorini gravimetrik usulda aniqlash mavzusi ilmiy va amaliy jihatdan dolzarb hisoblanadi.

Nazariy asos. Tadqiqot jarayonida atmosfera havosidan namuna olish uchun maxsus filtr qog‘ozi va aspirator qurilmasidan foydalaniladi. Filtrlar tajribadan oldin eksikatorda quritilib, analitik tarozida aniq tortiladi. So‘ngra ma’lum vaqt davomida atmosfera havosi filtr orqali o‘tkaziladi. Filtr yuzasida to‘plangan chang zarrachalari bilan birga qayta quritilib, yana tortiladi.

Gravimetrik usul moddaning massasini aniqlashga asoslanadi. Atmosfera havosidagi chang zarrachalari ma’lum hajmdagi havoni maxsus filtr orqali o‘tkazish natijasida filtr yuzasida ushlab qolinadi. Filtrning tajribadan oldingi va keyingi massasi orasidagi farq chang miqdorini ifodalaydi.

Chang konsentratsiyasi quyidagi formula yordamida aniqlanadi:

$C = (m_2 - m_1) / V$

Bu yerda:

C – chang konsentratsiyasi (mg/m^3),

m_1 – filtrning tajribadan oldingi massasi (mg),

m_2 – filtrning tajribadan keyingi massasi (mg),

V – filtr orqali o‘tkazilgan havo hajmi (m^3).

Tajriba o‘tkazish metodikasi:

Filtrni tayyorlash – Filtr qog‘ozi eksikatorda 1–2 soat quritiladi va analitik tarozida aniqlik bilan tortiladi.

Havoni filtrlash – Aspirator yoki havo nasosi yordamida ma’lum vaqt davomida atmosfera havosi filtrdan o‘tkaziladi.

Qayta tortish – Tajriba tugagach, filtr yana eksikatorda quritilib, qayta tortiladi.

Hisoblash – Olingan massa farqi va havo hajmi asosida chang konsentratsiyasi aniqlanadi.

XULOSA. Atmosfera havosidagi chang miqdorini gravimetrik usul yordamida aniqlash ekologik monitoring va atrof-muhitni muhofaza qilishning asosiy elementlaridan biridir. Ushbu usul havodagi chang zarrachalarining umumiy massasini aniq va ishonchli aniqlash imkonini beradi hamda natijalarni mg/m^3 birlikda ifodalash orqali havoning ifloslanish darajasini baholash imkoniyatini yaratadi.

Tajriba natijalari hududning sanoatlashganlik darajasi, transport qatnovi, qurilish ishlari va antropogen omillarga bog‘liq ekanligini ko‘rsatadi. Shuningdek, meteorologik omillar — shamol tezligi, havo namligi va yog‘ingarchilik — chang konsentratsiyasiga bevosita ta’sir qiladi. Shu sababli o‘lchovlarni muntazam, turli mavsum va vaqt oralig‘ida olib borish dolzarb ahamiyatga ega.

Gravimetrik usulning afzalligi uning soddaligi, yuqori aniqligi va iqtisodiy jihatdan samarali bo‘lishidadir. Natijalarni tahlil qilish orqali havoning sanitariya me’yorlariga mos kelishini aniqlash, shuningdek, hududiy ekologik xavfsizlikni ta’minlash bo‘yicha choralar ishlab chiqish mumkin. Bular jumlasiga chang tutish filtrlari o‘rnatish, yashil hududlarni kengaytirish, sanoat chiqindilarini kamaytirish va transport oqimini tartibga solish kiradi.

Shu bilan, gravimetrik usul nafaqat ilmiy tadqiqotlarda, balki amaliy ekologik nazorat va hududiy monitoring dasturlarida ham samarali vosita hisoblanadi. Ushbu metod yordamida havodagi chang miqdori aniq baholanishi va inson salomatligini hamda atrof-muhitni muhofaza qilish bo‘yicha samarali chora-tadbirlar amalga oshirilishi mumkin.

ADABIYOTLAR RO’YXATI

1. Seinfeld, J.H., Pandis, S.N. Atmospheric Chemistry and Physics: From Air Pollution to Climate Change. Wiley, 2016.

2. Hinds, W.C. Aerosol Technology: Properties, Behavior, and Measurement of Airborne

Particles. 2nd Edition, Wiley-Interscience, 1999.

3. WHO. Air Quality Guidelines: Global Update 2005. Particulate Matter, Ozone, Nitrogen Dioxide and Sulfur Dioxide. World Health Organization, 2006.

4. Chow, J.C. Measurement Methods to Determine Compliance with Ambient Air Quality Standards for Suspended Particles. Journal of the Air & Waste Management Association, 1995, 45(5), 320–382.

5. Holmes, N.S., Morawska, L. A Review of Dispersion Modelling and Exposure Assessment for Particulate Matter. Environment International, 2006, 32(6), 905–919.

6. Sevinch, M., Atmosfera havosining ifloslanishi va chang zarrachalarini gravimetrik usul bilan o‘lchash metodikasi (mahalliy ilmiy maqola, O‘zbekiston, 2025).

7. ASTM D1739 – Standard Practice for Collection and Analysis of Ambient Airborne Particulate Matter (Gravimetric Method). ASTM International, 2013.

8. H. Rao, Air Pollution Monitoring and Control. Springer, 2018.

SHAHAR HAVOSINING IFLOSLANISHI VA UNING SOG‘LIG‘IGA TA’SIRI.

Xudoyberdiyeva Sevinch Shavkatbek qizi
Buxoro davlat texnika universiteti

ANNOTATSIYA. *Ushbu maqolada shahar havosining ifloslanishi va uning inson sog‘lig‘iga ta’siri muhokama qilinadi. Havo ifloslanishining asosiy manbalari — transport vositalari, sanoat korxonalari va uy-joylardan chiqadigan gazlar hisoblanadi. Ifloslangan havoning organizmga, ayniqsa nafas yo‘llari va yurak-qon tomir tizimiga zararli ta’siri, shuningdek, allergiya va surunkali kasalliklarning ortishiga olib kelishi tahlil qilinadi. Maqolada havoni toza saqlash va shahar ekologiyasini yaxshilash bo‘yicha tavsiyalar ham keltiriladi.*

Kalit so‘z. *Shahar havosi, havo ifloslanishi, chang zarralari, $PM_{2.5}$, PM_{10}, karbon monoksid, azot oksidlari, sanoat chiqindilari, transport ifloslanishi, nafas yo‘llari kasalliklari, yurak-qon tomir tizimi, allergiya, astma, surunkali bronxit, ekologik xavfsizlik, yashil hududlar, ekologik transport, iqlim, atmosfera.*

АННОТАЦИЯ. *В данной статье рассматривается загрязнение городского воздуха и его влияние на здоровье человека. Основными источниками загрязнения воздуха являются транспортные средства, промышленные предприятия и выбросы из жилых домов. Анализируется вредное воздействие загрязнённого воздуха на организм, особенно на дыхательную систему и сердечно-сосудистую систему, а также рост аллергий и хронических заболеваний. В статье приводятся рекомендации по сохранению чистоты воздуха и улучшению городской экологии.*

Ключевые слова. *Городской воздух, загрязнение воздуха, частицы пыли, $PM_{2.5}$, PM_{10}, угарный газ, оксиды азота, промышленные выбросы, загрязнение транспорта, заболевания дыхательных путей, сердечно-сосудистая система, аллергия, астма, хронический бронхит, экологическая безопасность, зелёные зоны, экологический транспорт, климат, атмосфера.*

ABSTRACT. *This article discusses urban air pollution and its impact on human health. The main sources of air pollution are transportation vehicles, industrial enterprises, and emissions from residential buildings. The harmful effects of polluted air on the body, especially on the respiratory system and cardiovascular system, as well as the increase in allergies and chronic diseases, are analyzed. The article also provides recommendations for maintaining clean air and improving urban ecology.*

Keywords. *Urban air, air pollution, dust particles, $PM_{2.5}$, PM_{10}, carbon monoxide, nitrogen oxides, industrial emissions, transport pollution, respiratory diseases, cardiovascular system, allergy, asthma, chronic bronchitis, environmental safety, green spaces, ecological transport, climate, atmosphere.*

KIRISH. Shahar havosining ifloslanishi bugungi kunda jiddiy ekologik va ijtimoiy muammo hisoblanadi. Tezkor urbanizatsiya, transport vositalarining ko‘payishi va sanoat korxonalarining faoliyati natijasida havoda chang zarralari, karbon monoksid, azot oksidlari va boshqa zararli moddalar ortib bormoqda. Ushbu ifloslanish nafaqat atrof-muhitga zarar yetkazadi, balki inson

salomatligiga ham salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Maxsus tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, havoning chang zarralari ($PM_{2.5}$ va PM_{10}) va boshqa toksik gazlari uzoq muddat ta’sirida nafas yo‘llari kasalliklari, yurak-qon tomir tizimi muammolari, allergiya va surunkali bronxit kabi kasalliklarning ko‘payishiga sabab bo‘ladi. Shu sababli shahar havosini toza saqlash, yashil hududlarni kengaytirish va ekologik transport vositalaridan foydalanish kabi chora-tadbirlar muhim ahamiyat kasb etadi.

Mavzuning dolzarbligi. Shahar havosining ifloslanishi bugungi kunda nafaqat O‘zbekiston, balki butun dunyo uchun jiddiy ekologik va ijtimoiy muammo hisoblanadi. So‘nggi o‘n yilliklarda urbanizatsiya va aholi zichligining oshishi natijasida transport vositalari soni keskin ko‘paydi, shuningdek sanoat korxonalari faoliyati havoning ifloslanishiga katta hissa qo‘shmoqda. Natijada havoda chang zarralari ($PM_{2.5}$ va PM_{10}), karbon monoksid, azot oksidlari va boshqa toksik moddalar ortib bormoqda. Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti ma’lumotlariga ko‘ra, havoning ifloslanishi har yili 7 milliondan ortiq insonning hayotiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi va ularning vafot etishiga sabab bo‘ladi. Noyabr oyida Toshkentda havo sifati yomonlashadi, biroq bu yil butun mamlakat bo‘ylab ifloslanish darajasi sezilarli darajada oshdi. Harorat tushishi bilan $PM_{2,5}$-mayda zarralarining konsentratsiyasi Jahon sog‘liqni saqlash tashkilotining tavsiya etilgan me’yorlaridan o‘nlab baravar, milliy standartdan esa bir necha baravar yuqoriga chiqmoqda.Shahar ertalab va kechqurun qalin tuman bilan qoplanib, onlayn monitoring tizimlarida havo sifati “nosog‘lom” va ba’zan “hayot uchun xavfli” darajada ekanligi ko‘rsatilmoqda. Aholi tomoq qichishishi, bosh og‘rig‘I va charchoqdan shikoyat qilmoqda, bu esa voqeaning sabab va xavf darajasi haqida ko‘plab savollarni tug‘dirmoqda. O‘zbekistondagi shaharlar, xususan Toshkent, Samarqand va Buxoro kabi yirik shaharlarda transport va sanoat chiqindilari havoning sifatini pasaytiradi. Ifloslangan havo inson organizmiga, ayniqsa nafas yo‘llari va yurak-qon tomir tizimiga zarar yetkazadi, allergiya, astma va surunkali bronxit kabi kasalliklarni kuchaytiradi. Shu sababli shahar havosini toza saqlash, yashil hududlarni kengaytirish, ekologik transport vositalaridan foydalanish va sanoat chiqindilarini nazorat qilish masalalari hozirgi davrda juda dolzarb va ahamiyatli hisoblanadi.



Har 100 000 aholiga havo ifloslanishi oqibatidagi o‘lim (IHME, 2019)

Nazariy asos. Shahar havosining ifloslanishi masalasi ekologiya, atrof-muhit muhofazasi va inson salomatligi sohalaridagi nazariy bilimlarga asoslanadi. Havo ifloslanishi ekologik fanlarda atmosferaga zararli moddalar — chang zarralari ($PM_{2.5}$, PM_{10}), karbon monoksid, azot oksidlari, sulfatlar va boshqa toksik gazlar — chiqarilishi natijasida yuzaga keladigan jarayon sifatida o‘rganiladi. Shuningdek, biologiya va tibbiyot nazariyalari ifloslangan havoning inson organizmiga, ayniqsa nafas yo‘llari va yurak-qon tomir tizimiga zararli ta’sirini tushuntiradi. Havo ifloslanishining salbiy oqibatlari: allergiya, astma, surunkali bronxit, gipertenziya va boshqa surunkali kasalliklar bilan bog‘liq.

Nazariy asosga ko‘ra, shahar havosini toza saqlash va ekologik muhitni yaxshilash uchun ekologik transport vositalari, yashil hududlar, sanoat chiqindilarini kamaytirish va havoni monitoring qilish kabi chora-tadbirlar muhim hisoblanadi. Shu bilan birga, nazariy tadqiqotlar shuni

ko‘rsatadiki, havo sifatini yaxshilash nafaqat ekologik barqarorlikni ta’minlaydi, balki inson salomatligini saqlashga ham xizmat qiladi.

XULOSA. Shahar havosining ifloslanishi bugungi kunda jiddiy ekologik va ijtimoiy muammo hisoblanadi. Havo ifloslanishining asosiy manbalari — transport vositalari, sanoat korxonalari va uy-joylardan chiqadigan zaharli moddalar. Ifloslangan havoning inson organizmiga, ayniqsa nafas yo‘llari va yurak-qon tomir tizimiga zararli ta’siri, allergiya, astma va surunkali kasalliklarning ortishiga olib keladi. Shu sababli shahar havosini toza saqlash, yashil hududlarni kengaytirish, ekologik transport vositalaridan foydalanish va sanoat chiqindilarini kamaytirish bo‘yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish muhimdir. Havo sifatini yaxshilash nafaqat ekologik barqarorlikni ta’minlaydi, balki inson salomatligini saqlash va shahar aholisi hayot sifatini oshirishga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR RO’YXATI

1.Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti (WHO). Air Pollution and Health. Geneva: WHO, 2021.

2.Brunekreef, B., Holgate, S.T. Air pollution and health. The Lancet, 2002, Vol. 360, pp. 1233–1242.

3.O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo‘mitasi. Shahar havosi sifati va nazorat qilish choralari, Toshkent, 2020.

4.Dockery, D.W., Pope, C.A. Effects of air pollution on human health. Annual Review of Public Health, 1994, Vol. 15, pp. 107–132.

5.Samadov, I. Havo ifloslanishi va uning shahar aholisi salomatligiga ta’siri. Toshkent: Fan va texnika, 2018.

6.Zhang, J., & Smith, K.R. Household air pollution from coal and biomass fuels in China: measurements, health impacts, and interventions. Environmental Health Perspectives, 2003, Vol. 111, pp. 1152–1160.

DIGITAL TECHNOLOGIES IN WATER RESOURCE MANAGEMENT UNDER CLIMATE CHANGE: IOT AND SMART WATER-SAVING SYSTEMS

Khojiboeva Ezoza Sherali kizi
Navoi State University

Abstract. Climate change is intensifying global water insecurity by altering precipitation patterns, accelerating glacier melt, increasing evaporation rates, and intensifying droughts and floods. Traditional water governance systems are increasingly insufficient to address these complex and dynamic challenges. This article examines the role of digital technologies—particularly Internet of Things (IoT) and smart water-saving systems—in improving water resource management under climate change conditions. Following the IMRAD structure (Introduction, Methods, Results, and Discussion), the study analyzes global climate–water interactions, sensor-based monitoring systems, artificial intelligence (AI)-driven analytics, and smart irrigation technologies. The findings demonstrate that IoT-based systems can reduce non-revenue water losses by 25–45%, increase irrigation efficiency by up to 35%, and enhance predictive decision-making capabilities. The paper also evaluates economic, environmental and institutional implications, particularly in arid and semi-arid regions such as Central Asia. The study concludes that digital transformation is a strategic necessity for achieving long-term water sustainability and climate resilience.

Аннотация. В статье исследуется роль цифровых технологий в управлении водными ресурсами в условиях изменения климата. Особое внимание уделяется технологиям IoT, интеллектуальным системам водосбережения и аналитическим платформам на основе искусственного интеллекта. Результаты показывают, что цифровые системы позволяют сократить потери воды до 45%, повысить эффективность орошения и улучшить прогнозирование водных ресурсов. Рассматриваются экономические и институциональные аспекты внедрения цифровых решений, особенно в засушливых регионах Центральной Азии.

Annotatsiya. Mazkur maqolada iqlim o‘zgarishi sharoitida suv resurslarini boshqarishda IoT va smart suv tejash tizimlarining roli keng tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari raqamli monitoring tizimlari suv yo‘qotilishini 25–45% gacha kamaytirishini, sug‘orish samaradorligini oshirishini va

prognozlash imkoniyatlarini kengaytirishini ko‘rsatadi. Markaziy Osiyo mintaqasi misolida ushbu texnologiyalarni joriy etish istiqbollari baholangan.

INTRODUCTION

Water security has become one of the defining challenges of the 21st century. Climate change significantly disrupts global hydrological cycles, affecting freshwater availability and threatening agricultural productivity, urban water supply systems, and ecosystem stability. According to the Intergovernmental Panel on Climate Change (IPCC), global warming increases the frequency and intensity of extreme weather events, including prolonged droughts and severe flooding [1]. These disruptions are further exacerbated by population growth, urbanization, and industrial expansion, which collectively increase global water demand and strain existing infrastructure.

In arid and semi-arid regions such as Central Asia, water systems depend largely on glacier-fed rivers, including the Amu Darya and the Syr Darya. Rising temperatures accelerate glacier melt, initially increasing flow but eventually leading to long-term water decline. Traditional water management approaches—characterized by manual monitoring and reactive maintenance—are insufficient in responding to the dynamic challenges of climate change.

Digital technologies, particularly IoT-based smart water systems, provide real-time monitoring, predictive analytics, automated leak detection, and optimized irrigation scheduling. By enabling proactive decision-making and resource allocation, these tools enhance resilience, sustainability, and efficiency in water management. This paper examines the effectiveness of IoT and smart water-saving systems in addressing climate-related water challenges, focusing on environmental, economic, and social impacts.

METHODS. This study uses a multidisciplinary approach combining literature review, institutional data analysis, and technological assessment. A systematic review of peer-reviewed journals, climate reports, and institutional publications was conducted to evaluate global water management trends and the implementation of digital technologies. Institutional data were analyzed from reports published by the World Bank, the Food and Agriculture Organization (FAO), and UNESCO to assess international case studies and outcomes of IoT adoption in water management [3][4].

The technological framework of smart water systems was examined, focusing on sensor deployment, data transmission, cloud analytics, and predictive decision-making. Key components include smart flow meters, acoustic leak detection sensors, soil moisture probes, pressure monitoring devices, cloud computing infrastructure, and AI-driven analytics platforms. Comparative case studies of urban water utilities and agricultural irrigation networks were used to quantify efficiency improvements, water savings, and economic benefits.

STRUCTURE OF SMART WATER MANAGEMENT SYSTEMS

RESULTS. The analysis shows that IoT and smart water technologies significantly improve water efficiency and management outcomes.Urban utilities often lose 20–50% of treated water due to leaks and inefficiencies. IoT-based leak detection systems, integrating acoustic sensors and pressure monitoring, can identify micro-leaks before they escalate into major failures. Studies show that digital systems reduce non-revenue water losses by 25–45%, increasing both environmental and economic efficiency.Agriculture accounts for approximately 70% of global freshwater withdrawals. Smart irrigation systems, which integrate soil moisture sensors with weather forecasting algorithms, optimize irrigation scheduling and reduce water waste. FAO reports indicate that such systems can save 20–35% of agricultural water without compromising crop yields [4].Digital platforms allow predictive analytics for water demand forecasting and drought management. Machine learning models analyze historical and real-time hydrological data, enabling better reservoir management and early warning of water shortages.Optimizing water flow and reducing unnecessary pumping lowers energy consumption and reduces greenhouse gas emissions. These systems contribute to sustainability objectives, linking water management to climate mitigation strategies.The World Bank reports that utilities implementing IoT-based monitoring systems reduce operational and maintenance costs by up to 15% annually, with improved infrastructure lifespan and resource allocation [3].

DISCUSSION. The integration of digital technologies in water management transforms

traditional reactive approaches into adaptive, predictive, and data-driven systems. Environmental benefits include reduced water waste, improved ecosystem stability, and lower carbon footprints. Economically, digital systems reduce infrastructure costs, improve investment efficiency, and extend system lifespan. Socially, they increase transparency, enhance public trust, and improve service reliability.

Despite these advantages, several challenges limit widespread adoption. High initial investment costs, limited digital infrastructure in rural areas, cybersecurity vulnerabilities, and institutional resistance can impede implementation. In Central Asia, transboundary water dependencies and climate vulnerabilities underscore the critical need for transparent and cooperative digital water governance. IoT-based monitoring systems provide reliable shared data, supporting cross-border water management and long-term climate resilience.

Emerging technologies such as AI-driven predictive hydrological models, blockchain-based water allocation systems, and satellite-integrated monitoring promise to further revolutionize water governance, enabling proactive climate adaptation and sustainable resource management.

CONCLUSION. Climate change poses an increasing threat to global water security. Digital technologies, particularly IoT and smart water-saving systems, offer critical solutions to address these challenges by reducing water losses, improving irrigation efficiency, and enabling predictive and adaptive management. Evidence demonstrates that the adoption of such systems produces environmental, economic, and social benefits, particularly in arid and semi-arid regions.

For water-stressed areas like Central Asia, digital water governance is not merely an option but a strategic necessity to achieve sustainability, climate resilience, and equitable water distribution. Investing in these technologies, alongside institutional capacity building and regional cooperation, is crucial for long-term water security and sustainable development.

REFERENCES

1.IPCC. Climate Change 2023: Synthesis Report. Geneva, 2023.

2.United Nations. World Water Development Report 2023.

3.World Bank. Digital Water: Industry Leaders Chart the Transformation Journey, 2018.

4.FAO. The State of the World's Land and Water Resources for Food and Agriculture, 2022.

5.OECD. Digital Water Management Policy Framework, 2021.

6.UNESCO. World Water Assessment Programme, 2023.

7.Smith, J., & Brown, L. (2021). IoT Applications in Smart Water Systems. Journal of Environmental Informatics, 37(2), 115–130.

8.Kumar, R., et al. (2022). AI-Based Smart Irrigation Systems under Climate Variability. Sustainable Computing Review, 14(3), 201–218.

SUV TEJAMKOR SUG'ORISH TEXNOLOGIYALARI

Soatov Abdulla Erkin o'g'li
Qarshi davlat texnika universiteti

ANNOTATSIYA. *Ushbu maqolada global iqlim o'zgarishi sharoitida O'zbekistonda suv resurslaridan samarali foydalanish maqsadida tejamkor sug'orishtexnologiyalarini joriy etishning dolzarbligi, iqtisodiy va ekologik ahamiyati ko'rib chiqilgan. Tomchilatib sug'orishtexnologiyasi, yomg'irl atib sug'orish, tuproq osti sug'orish hamda aqlli suv boshqaruv tizimlari tahlil qilingan. Suv tanqisligi muammosini hal etishda innovatsion yondashuvlar va davlat dasturlari o'rni baholangan. Xulosalar va amaliy tavsiyalar berilgan.*

Kalit so'zlar: *iqlim o'zgarishi, suv xo'aligi, suv tanqisligi, tejamkor texnologiyalar, tomchilatib sug'orish, aqlli sug'orish, melioratsiya, sug'oril adigan yerlar.*

KIRISH. Dunyo bo'yicha suv resurslari tobora kamayib borayotgan bir davrda O'zbekiston qishloq xo'aligi uchun suv masalasi milliy xavfsizlikning ajralmas qismiga aylangan. Markaziy Osiyo mintaqasida, ayniqsa Orol dengizi havzasida, iqlim o'zgarishi ta'sirida yog'ingarchilik miqdori kamayib, harorat ko'tarilishi kuzatilmoqda.

O'zbekistonda yillik suvga bo'lgan ehtiyojning 90% dan ortig'i qishloq xo'aligi sug'orishiga sarflanadi. An'anaviy ariq-eg at usullarida suvning 40–60% i bug'lanuv, sizot va yo'qotishlar

natijasida behuda sarflanadi. Bu holat iqtisodiy zararga va tuproq shoʻrlanishiga olib keladi.

Shu boisdan tejamkor sugʻorish texnologiyalarini keng joriy etish — bu nafaqat iqtisodiy zaruriyat, balki ekologik majburiyat hamdir.

SUV TANQISLIGINING DOLZARB MUAMMOLARI

2.1. Global va mintaqaviy kontekst

BMT maʻsulotlarriga koʻra, 2050-yilga kelib dunyo aholisining uchdan bir qismi ogʻir suv tanqisligida yashashi mumkin. Markaziy Osiyo uchun bu xavf yanada kuchli: Amudaryo va Sirdaryo oqimining kamayishi, muzliklarning erishi va yogʻingarchilikning oʻzgarishi mintaqaning suv balansini buzmoqda.

2.2. Oʻzbekistonga xos muammolar

Oʻzbekiston qishloq xoʿaligining oʻziga xos xususiyati shundaki, mamlakatdagi deyarli barcha ekin maydonlari (3,8 mln gektardan ortiq) sugʻorishga muhtoj. Vegetatsiya davridagi yuqori harorat (40–45°C gacha) va yoz oylarida yomgʻir yoʻqligi tufayli tuproq namligini faqatgina sunʻiy sugʻorish taʻminlaydi.

Mavjud muammolar qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin:

• Eski irrigatsiya tizimlarining eskirganligi va suv yoʻqotishlarining yuqoriligi

• Tuproqning ikkilamchi shoʻrlanishi — sugʻoril adigan yerlarning 50% ga yaqini taʻsirlangan

• Suv unumdorligining past ekanligi: 1 m³ suv bilan hosildorlikning chegaralanganligi

• Fermerlarning tejamkor texnologiyalar haqida bilim va moliyaviy imkoniyatlarining yetarli emasligi

• Suv hisob-kitobi va monitoring tizimining zaifli gi

SUV TEJAMKOR SUGʻORISH TEXNOLOGIYALARI

3.1. Tomchilatib sugʻorish texnologiyasi

Tomchilatib sugʻorish — suv tejashning eng samarali usuli hisoblanadi. Unda suv bevosita oʻsimlik ildizi yaqiniga tomchilab yetkaziladi. Bu texnologiya anʻanaviy usulga nisbatan suvni 40–60% tejaydi va bir vaqtda oʻgʻit berish (fertigation) imkonini yaratadi.

Afzalliklari:

• Tuproq namligini doimiy optimal darajada saqlash

• Begona oʻTlar oʻsishini kamaytirish (faqat oʻsimlik atrofi namlanadi)

• Kasallik va zararkunandalar rivojini cheklash

• Shoʻrlanish xavfini pasaytirish

• Ishchi kuchi xarajatlarini qisqartirish

3.2. Yomgʻirlatib sugʻorish

Yomgʻirlatib sugʻorish tizimi suvni mayda tomchilar shaklida oʻsimlik ustiga purkaydigan maxsus sprinklerlar yordamida amalga oshiriladi. Bu usul katta maydonlar uchun qulay boʻlib, suvni 20–40% tejaydi.

Tizimning asosiy turlari: statsionar (oʻrnatilgan), yarim koʻchma va toʻliq avtomatlashtirilgan.

3.3. Tuproq osti sugʻorish

Ushbu texnologiyada nozik quvurlar (trubkalar) tuproq ostiga 20–40 sm chuqurlikka joylashtiriladi va suv bevosita ildiz zonasiga yetkaziladi. Bu usul suvni 50–70% tejaydigan, eng ilgʻor metodlardan biridir. Tuproq yuzasi quruq qolganligidan bugʻlanish minimallashadi.

Texnologiya turi	Suv tejamliligi	Boshlangʻich xarajat	Qoʻllanish sohasi
Anʻanaviy ariq-egat	0% (taqqoslash asosi)	Past	Barcha ekinlar
Plyonkali egat sugʻorish	25–35%	Past-oʻrtacha	Don, sabzavot
Yomgʻirlatib sugʻorish	20–40%	Oʻrtacha	Gʻalla, oʻt—pichan
Tomchilatib sugʻorish	40–60%	Yuqori	Sabzavot, meva, tok
Tuproq osti sugʻorish	50–70%	Juda yuqori	Koʻp yillik ekinlar
Aqlli boshqaruv tizimi	60–75%	Eng yuqori	Barcha tur

3.4. Egatga plyonka to‘shab sug‘orish

O‘zbekiston sharoitida keng qo‘llanilayotgan ushbu usulda egat tubiga polietilen plyonka to‘shaladi. Bu suv sizib ketishini oldini oladi va suvni 25–35% tejaydi. Arzon va oddiy texnologiya sifatida kichik fermer xoʻjaliklari uchun qulay.

3.5. Aqlli suv boshqaruv tizimlari

Raqamli texnologiyalar asosidagi zamonaviy yondashuv sug‘orish jarayonini avtomatlashtiradi. Namlik sensworlari, ob-havo ma‘sulotlari va IoT (Internet of Things) qurilmalari biriktirib ishlatiladigan aqlli tizimlar quyidagi imkoniyatlarni beradi:

• Tuproq namligi va haroratini real vaqtda kuzatish
• Avtomatik sug‘orish jadvalini tuzish va boshqarish
• Masofadan smartfon orqali nazorat qilish
• Suv sarfini aniq hisoblash va hisobot berish
• Suv yo‘qotishlarini tezda aniqlash va bartaraf etish

4. TEXNOLOGIYALARNI QIYOSIY TAHLIL

Quyida asosiy sug‘orish texnologiyalarini suv tejash samaradorligi va qo‘llanish sohasi bo‘yicha qiyosiy jadval keltirilgan:

5. DAVLAT DASTURLARI VA ISLOHOTLAR

O‘zbekiston hukumati 2020–2030 yillarga moʻljallangan Suv xoʻaligini rivojlantirish konsepsiyasini qabul qilgan. Ushbu dastur doirasida quyidagi maqsadlar belgilangan:

• 5 ming km dan ortiq sug‘orish kanallari va 50 ming km ariq tarmoqlarini tozalash va rekonstruksiya qilish
• 200 km dan ziyod kanal, 530 km lotok va kollektor tarmoqlarini modernizatsiya qilish
• 400 dan ortiq gidrotexnik inshootlarni ta‘mirlash va yangilash
• Suv xoʻjaligi ob‘ektlarida raqamli texnologiyalarni joriy etish
• Sug‘oril adigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash, sho‘rlanishni kamaytirish

Fermerlar uchun tejamkor texnologiyalarni joriy etishda davlat subsidiyalari, imtiyozli kreditlar va soliq qulayliklari ko‘zda tutilgan. 2024-yil holatiga ko‘ra, 120 mingdan ortiq fermer xoʻjaligi tejamkor sug‘orish tizimlarini qabul qilgan.

TAVSIYALAR VA KELGUSI ISTIQBOLLAR

6.1. Texnik tavsiyalar

• Har bir hududning tuproq-iqlim sharoitini hisobga olgan holda individual sug‘orish rejasini ishlab chiqish
• Kichik fermerlar uchun arzon va sodda tomchilatib sug‘orish komplektlarini ommalashtirish
• Suv hisobi uchun smart-hisoblagichlar va nazorat tizimlarini o‘rnatish
• Eski kanal va ariqlarni loyqaʻsizlantirish va gʾidroizolyatsiya qilish

6.2. Institutsional tavsiyalar

• Suv foydalanuvchilar uyushmalari (SFU) faoliyatini kuchaytirish va ularga yangi texnologiyalar bo‘yicha treninglar o‘tkazish
• Suv xoʻaligi sohasi uchun oliy va o‘rta maxsus ta‘lim muassasalarida zamonaviy oʻquv dasturlarini joriy etish
• Xalqaro tajribani (Isroil, Niderlandiya, Ispaniya) o‘ganish va moslashtirib qoʻlash
• Suv unumdorligi ko‘rsatkichlarini milliy statistikaga kiritish va muntazam monitoring

6.3. Moliyaviy tavsiyalar

• Tejamkor texnologiyalarni qoʻllaydigan fermerlarga soliq imtiyozlari va subsidiyalar berish
• Xalqaro moliyalashtirish (ADB, Jahon banki, GEF) imkoniyatlaridan toʻliq foydalanish
• Xususiy investitsiyalarni jalb etish uchun qulay huquqiy muhit yaratish

XULOSA

Suv tejamkor sug‘orish texnologiyalari O‘zbekiston qishloq xoʻalaigi uchun kelgusida yanada muhim ahamiyat kasb etadi. Tomchilatib sug‘orish, yomg‘irlatib sug‘orish, tuproq osti sug‘orish va aqlli boshqaruv tizimlari birgalikda qoʻllanilganda suvni 40–75% tejash mumkin.

Ushbu texnologiyalarning keng joriy etilishi uchun davlat tomonidan moliyaviy qoʻllab-quvvatlash, malakali kadrlar tayyorlash va xalqaro hamkorlikni kuchaytirish zarur. Suvdan oqilona foydalanish faqat iqtisodiy samaradorlikni emas, balki kelajak avlodlar uchun suv xavfsizligini ham

kafolatlaydi.

Xulosa qilib aytganda, innovatsion texnologiyalarni joriy etish, malakali kadrlar tayyorlash va kuchli ins titutsional asos — O‘zbekistonda suv muammosini hal etishning uchta asosiy ustuni hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Axmedov X.A. Sug‘orish meloratsiyasi. — Toshkent: O‘qituvchi, 1997.

2. Kastyakov A.N. Osnovy melioratsii. — Moskva: Selxozizdat, 1960.

3. Raximbaev F.M., Shukurlaev X.I. Irrigatsiya asoslari. — Toshkent: Mehnat, 1995.

4. Raximbaev F.M., Hamidov M.X. Qishloq xoʻaligi meloratsiyasi. — Toshkent: Mehnat, 1996.

5. Axmedov X.A. Zah qochirish meloratsiyasi. — Toshkent: O‘qituvchi, 1975.

6. FAO. The State of Food and Agriculture 2020: Overcoming Water Challenges in Agriculture. — Rome: FAO, 2020.

7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 17-iyundagi PF-5742-sonli Farmoni “Suv resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”.

8. UNDP. Climate Change Adaptation in the Water Sector in Central Asia. — Bishkek: UNDP, 2021.

9. Postel S. Pillar of Sand: Can the Irrigation Miracle Last? — New York: Norton, 1999.

10. World Bank. Irrigation in Central Asia: Social, Economic and Environmental Considerations. — Washington D.C., 2003.

IQLIM O‘ZGARISHI SHAROITIDA SUV RESURSLARINI BOSHQARISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR: IOT VA SMART SUV TEJASH TIZIMLARINING ROLI

Radjabov Mansur Rustamovich, Boymuratov Farrux Xamzayevich
Qarshi davlat texnika universiteti

Annotatsiya. Bugungi kunda iqlim o‘zgarishi global miqyosda suv resurslariga jiddiy ta'sir ko‘rsatmoqda. Suv tanqisligi, qurg‘oqchilik va suv resurslarining notekis taqsimlanishi ko‘plab mamlakatlarda muhim muammolardan biri hisoblanadi. Ushbu maqolada iqlim o‘zgarishi sharoitida suv resurslarini samarali boshqarishda raqamli texnologiyalarning ahamiyati tahlil qilinadi. Xususan, IoT (Internet of Things) texnologiyasi va smart suv tejash tizimlari yordamida suv monitoringi, boshqaruvi hamda tejash imkoniyatlari ko‘rib chiqiladi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, raqamli texnologiyalar suvdan foydalanish samaradorligini oshirish, suv yo‘qotishlarini kamaytirish hamda barqaror suv boshqaruvini ta’minlashda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: iqlim o‘zgarishi, suv resurslari, IoT, raqamli texnologiyalar, smart suv tizimlari, suv tejash.

Аннотация. Изменение климата оказывает значительное влияние на водные ресурсы во всем мире, вызывая рост дефицита воды, изменение режима осадков и увеличение частоты засух. В этих условиях эффективное управление водными ресурсами становится одной из важнейших задач современности. В данной статье рассматривается роль цифровых технологий в управлении водными ресурсами в условиях изменения климата. Особое внимание уделяется применению технологий Интернета вещей (IoT) и интеллектуальных систем водосбережения для мониторинга, контроля и оптимизации использования воды. Датчики на основе IoT позволяют осуществлять мониторинг потребления воды в режиме реального времени, выявлять утечки в водопроводных системах и автоматизировать процессы орошения. Умные системы орошения используют данные о влажности почвы и погодных условиях для оптимального распределения воды. Результаты исследования показывают, что внедрение цифровых технологий способствует повышению эффективности использования воды, снижению потерь и обеспечению устойчивого управления водными ресурсами.

Ключевые слова: изменение климата, водные ресурсы, интернет вещей, цифровые технологии, умное орошение, управление водными ресурсами, водосбережение.

Abstract. Climate change has a significant impact on global water resources, leading to increasing water scarcity, irregular precipitation, and more frequent droughts. Efficient management of water resources has therefore become an important task for many countries. This article examines the role of digital technologies in water resource management under climate change conditions. In particular, the application of Internet of Things (IoT) technologies and smart water-saving systems for monitoring, controlling, and optimizing water use is analyzed. IoT-based sensors allow real-time monitoring of water consumption, detection of leakages in water supply systems, and automation of irrigation processes. Smart irrigation systems use soil moisture data and weather information to optimize water distribution. The results show that the integration of digital technologies can significantly improve water use efficiency, reduce water losses, and support sustainable water resource management.

Keywords: climate change, water resources, IoT, digital technologies, smart irrigation, water management, water conservation.

KIRISH. So‘nggi yillarda iqlim o‘zgarishi global ekologik muammolardan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda. Iqlim tizimidagi o‘zgarishlar suv resurslarining kamayishi, qurg‘oqchilik davrlarining ko‘payishi va suv taqsimotidagi muammolarni yanada kuchaytirmoqda [9; 15]. Ayniqsa, qurg‘oqchil hududlarda joylashgan mamlakatlarda suv resurslaridan oqilona foydalanish masalasi muhim strategik vazifaga aylangan [10].

Suv resurslarini samarali boshqarish zamonaviy texnologiyalarni joriy etishni talab qiladi. Raqamli texnologiyalar, xususan IoT texnologiyasi suv resurslarini real vaqt rejimida monitoring qilish, suv iste'molini nazorat qilish va suv yo‘qotishlarini kamaytirishda muhim rol o‘ynaydi [1; 8]. Ushbu texnologiyalar yordamida suv tizimlarining samaradorligi oshiriladi hamda suvdan foydalanish jarayoni avtomatlashtiriladi [3; 6].

Mazkur maqolaning maqsadi iqlim o‘zgarishi sharoitida suv resurslarini boshqarishda raqamli texnologiyalar, ayniqsa IoT va smart suv tejash tizimlarining ahamiyatini tahlil qilishdan iborat.

Iqlim o‘zgarishi va suv resurslari muammosi. Iqlim o‘zgarishi suv resurslarining miqdori va sifatiga sezilarli ta'sir ko‘rsatmoqda. Global haroratning oshishi natijasida muzliklarning erishi, yog‘in miqdorining o‘zgarishi va qurg‘oqchilik davrlarining ortishi kuzatilmoqda. Bu esa ko‘plab hududlarda suv tanqisligini keltirib chiqarmoqda [9; 15].

Suv resurslarining kamayishi qishloq xo‘jaligi, sanoat va ichimlik suvi ta'minotiga salbiy ta'sir ko‘rsatadi. Ayniqsa qishloq xo‘jaligi sektorida suvdan samarali foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi, chunki bu soha suv resurslarining eng katta iste'molchilaridan biridir [9; 10].

Shu sababli suv resurslarini boshqarishda yangi yondashuvlar va innovatsion texnologiyalarni qo‘llash zarur hisoblanadi [1; 3].

IoT texnologiyalarining suv resurslarini boshqarishdagi roli. IoT (Internet of Things) texnologiyasi turli qurilmalar va sensorlarni internet orqali bog‘lash imkonini beruvchi tizimdir. Ushbu texnologiya suv resurslarini boshqarishda keng qo‘llanilmoqda [1; 8].

IoT asosidagi sensorlar suv darajasi, suv bosimi, namlik darajasi va suv sarfini real vaqt rejimida kuzatish imkonini beradi. Ushbu ma'lumotlar markaziy boshqaruv tizimiga uzatiladi va suv resurslarini samarali boshqarish imkonini yaratadi [3; 6].

Masalan, qishloq xo‘jaligida IoT texnologiyasi yordamida tuproq namligi aniqlanadi va sug‘orish tizimi avtomatik ravishda boshqariladi. Natijada suv ortiqcha sarflanishining oldi olinadi hamda suvdan samarali foydalanish ta'minlanadi [1; 4].

Smart suv tejash tizimlari

Smart suv tejash tizimlari suv resurslaridan oqilona va samarali foydalanishni ta’minlashga qaratilgan zamonaviy texnologik yechimlar majmuasidir. Ushbu tizimlar asosan raqamli texnologiyalar, sensor qurilmalar, avtomatlashtirilgan boshqaruv platformalari hamda ma’lumotlarni tahlil qilish mexanizmlariga asoslanadi. Ularning asosiy maqsadi suv iste’molini optimallashtirish, suv yo‘qotishlari kamaytirish hamda suv resurslarini barqaror boshqarishdan iborat [3].

Smart suv tizimlari ko‘pincha IoT texnologiyalari yordamida ishlaydi. Tizim tarkibiga turli sensorlar, aqlli hisoblagichlar (smart meters), suv oqimini nazorat qiluvchi qurilmalar va markaziy boshqaruv platformalari kiradi. Sensorlar suv darajasi, bosimi, oqim tezligi, tuproq namligi va

boshqa muhim ko‘rsatkichlarni doimiy ravishda o‘lchab boradi. Ushbu ma’lumotlar internet orqali markaziy server yoki bulutli platformaga uzatiladi va maxsus dasturiy ta’minot yordamida tahlil qilinadi [1; 8].

Smart tizimlarning muhim afzalliklaridan biri – suv sarfini real vaqt rejimida monitoring qilish imkoniyatidir. Aqlli hisoblagichlar orqali suv iste’moli doimiy ravishda kuzatilib boriladi. Natijada suvdan foydalanish bo‘yicha aniq statistik ma’lumotlar olinadi va ortiqcha yoki samarasiz sarf holatlarini aniqlash osonlashadi. Bu esa suv resurslarini yanada samarali boshqarish imkonini yaratadi [3; 6].

Bundan tashqari, smart tizimlar yordamida suv tarmoqlaridagi nosozliklar va avariyalarni tezkor aniqlash mumkin. Masalan, suv quvurlarida bosimning keskin pasayishi yoki suv oqimining normadan ortiq bo‘lishi tizim tomonidan avtomatik ravishda aniqlanadi va tegishli mutaxassislarga signal yuboriladi. Shu tariqa suv tarmoqlaridagi nosozliklarni tezda bartaraf etish imkoniyati yaratiladi hamda katta miqdordagi suv yo‘qotishlarining oldi olinadi [8].

Smart suv tejash tizimlarining yana bir muhim jihati – suv yo‘qotishlarini kamaytirishdir. An’anaviy suv ta’minoti tizimlarida suvning ma’lum qismi eskirgan infratuzilma, yashirin oqishlar yoki noto‘g‘ri boshqaruv sabab yo‘qotiladi. Aqlli monitoring va nazorat tizimlari yordamida bunday muammolar tez aniqlanadi va bartaraf etiladi. Natijada suv resurslaridan foydalanish samaradorligi sezilarli darajada oshadi [1; 10].

Smart tizimlar ayniqsa qishloq xo‘jaligida keng qo‘llanilmoqda. Aqlli sug‘orish tizimlari tuproq namligi, havo harorati, yog‘ingarchilik ehtimoli va boshqa meteorologik ma’lumotlarni tahlil qilish orqali sug‘orish jarayonini avtomatik boshqaradi. Agar tuproq namligi yetarli bo‘lsa, tizim sug‘orishni vaqtincha to‘xtatadi yoki kamaytiradi. Aksincha, namlik darajasi pasayganda tizim avtomatik ravishda sug‘orishni ishga tushiradi. Bu yondashuv suvdan ortiqcha foydalanishni oldini olib, ekinlarning optimal rivojlanishini ta’minlaydi [4; 6].

Shuningdek, smart suv tizimlari suv ta’minoti infratuzilmasini boshqarishda ham muhim rol o‘ynaydi. Masalan, suv omborlari, nasos stansiyalari va taqsimlash tarmoqlarining ishlash jarayoni avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlari orqali nazorat qilinadi. Bu esa energiya sarfini kamaytirish, suv taqsimotini muvozanatlash hamda tizimning umumiy samaradorligini oshirishga xizmat qiladi [3; 8].

Umuman olganda, smart suv tejash tizimlari suv resurslarini boshqarishda innovatsion yondashuvni ta’minlaydi. Ushbu texnologiyalarni keng joriy etish suv tanqisligi muammosini kamaytirish, qishloq xo‘jaligi samaradorligini oshirish va ekologik barqarorlikni ta’minlashda muhim ahamiyatga ega. Kelajakda raqamli texnologiyalar rivojlanishi bilan smart suv tizimlari yanada takomillashib, suv resurslarini boshqarishning ajralmas qismiga aylanishi kutilmoqda [1; 3; 10].

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytganda, iqlim o‘zgarishi sharoitida suv resurslarini samarali boshqarish masalasi global miqyosda dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Iqlim tizimidagi o‘zgarishlar, xususan haroratning oshishi, yog‘ingarchilik rejimining o‘zgarishi va qurg‘oqchilik davrlarining ko‘payishi suv resurslariga bo‘lgan bosimni kuchaytirmoqda. Bu esa suv resurslaridan yanada oqilona va samarali foydalanishni talab etadi. An’anaviy suv boshqaruvi usullari ko‘pincha suv sarfi ustidan yetarli nazoratni ta’minlay olmaydi, natijada suv yo‘qotishlari ortib boradi. Shu sababli zamonaviy raqamli texnologiyalarni joriy etish suv resurslarini boshqarishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Raqamli texnologiyalar, ayniqsa IoT asosidagi monitoring tizimlari va smart suv tejash texnologiyalari suv resurslarini boshqarishda yangi imkoniyatlarni yaratmoqda. Ushbu texnologiyalar suv iste’molini real vaqt rejimida kuzatish, suv tarmoqlaridagi nosozliklarni aniqlash, suv yo‘qotishlarini kamaytirish hamda sug‘orish jarayonlarini avtomatlashtirish imkonini beradi. Natijada suv resurslaridan foydalanish samaradorligi oshadi va suv tanqisligi muammosini kamaytirishga xizmat qiladi.

Smart suv tejash tizimlari ayniqsa qishloq xo‘jaligida muhim ahamiyatga ega. Qishloq xo‘jaligi ko‘plab mamlakatlarda suv resurslarining asosiy iste’molchisi hisoblanadi. Aqlli sug‘orish tizimlari tuproq namligi, meteorologik sharoitlar va o‘simliklarning ehtiyojlarini hisobga olgan holda suv taqsimotini optimallashtiradi. Bu esa suvdan ortiqcha foydalanishning oldini olish bilan

birga hosildorlikni ham oshirishga yordam beradi. Shuningdek, suv ta’minoti tizimlarida aqlli sensorlar va monitoring tizimlarini qo‘llash suv tarmoqlarining samaradorligini oshirish va infratuzilmadagi nosozliklarni tez aniqlash imkonini beradi.

Kelajakda suv resurslarini barqaror boshqarish uchun raqamli texnologiyalarni keng joriy etish muhim strategik yo‘nalishlardan biri bo‘lib qoladi. Shu bois quyidagi takliflarni amalga oshirish maqsadga muvofiq hisoblanadi:

Birinchidan, suv resurslarini boshqarish tizimlarida IoT texnologiyalarini keng joriy etish zarur. Suv omborlari, suv taqsimoti tarmoqlari va sug‘orish tizimlarida aqlli sensorlar o‘rnatish orqali suv sarfi va suv darajasini doimiy monitoring qilish mumkin.

Ikkinchidan, qishloq xo‘jaligida smart sug‘orish tizimlarini keng joriy etish muhim ahamiyatga ega. Tuproq namligi sensorlari va meteorologik ma’lumotlarga asoslangan avtomatlashtirilgan sug‘orish tizimlari suv resurslarini sezilarli darajada tejash imkonini beradi.

Uchinchidan, suv ta’minoti infratuzilmasini modernizatsiya qilish zarur. Eskirgan quvurlar va tizimlar suv yo‘qotishlarining asosiy sabablaridan biri hisoblanadi. Zamonaviy monitoring tizimlari bilan jihozlangan yangi infratuzilma suv yo‘qotishlarini kamaytirishga yordam beradi.

To‘rtinchidan, suv resurslarini boshqarishda raqamli platformalar va ma’lumotlar tahlilini rivojlantirish lozim. Katta hajmdagi ma’lumotlarni tahlil qilish orqali suv resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish mumkin.

Beshinchidan, suv resurslarini boshqarish sohasida mutaxassislarni tayyorlash va ularning raqamli texnologiyalar bo‘yicha bilimlarini oshirish muhim hisoblanadi. Bu esa zamonaviy texnologiyalarni samarali joriy etish imkonini beradi.

Umuman olganda, raqamli texnologiyalar asosida suv resurslarini boshqarish tizimini takomillashtirish suv tanqisligi muammosini kamaytirish, suv resurslaridan samarali foydalanish va ekologik barqarorlikni ta’minlashda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi. Iqlim o‘zgarishi sharoitida suv resurslarini muhofaza qilish va ularni oqilona boshqarish kelajak avlodlar uchun barqaror rivojlanishning muhim sharti hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. García, L., Parra, L., Jimenez, J. M., Lloret, J., & Lorenz, P. (2020). IoT-based smart irrigation systems: An overview on the recent trends on sensors and IoT systems for irrigation in precision agriculture. *Sensors*, 20(4), 1042.

2. Mohamed, Z. E., Afify, M. K., Badr, M. M., & Omar, O. A. (2026). IoT-driven smart irrigation system to improve water use efficiency. *Scientific Reports*. (Nature)

3. Gupta, P. K., & Tripathi, N. (2025). Smart Irrigation Using IoT and Machine Learning: A Data-Driven Approach to Water Conservation. *Journal of Cardiovascular Disease Research*. (jcdronline.org)

4. Pandey, Y., Mehraj, N., Maryam, M., Dadhich, S., & Mir, G. M. (2023). Studies on smart irrigation system using IoT approaches. *Journal of AgriSearch*. (journal.jsure.org.in)

5. Hamdoon, W., & Zengin, A. (2023). A new IoT-based smart irrigation management system. *Middle East Journal of Science*. (DergiPark)

6. Dharashive, P., & Sawale, M. (2023). Smart irrigation system techniques using Artificial Intelligence and IoT. *International Journal of Intelligent Systems and Applications in Engineering*. (ijisae.org)

7. Aisyah, N., Ulhaq, E. D., Dharmawan, A., & Purbakawaca, R. (2024). Design of an IoT-based smart irrigation system using soil moisture sensors for water efficiency. *Journal Online of Physics*. (online-journal.unja.ac.id)

8. Alsammak, H. N., & Mohammed, Z. S. (2022). Internet of Things (IoT) work and communication technologies in smart farm irrigation management: A survey. *NTU Journal of Engineering and Technology*. (journals.ntu.edu.iq)

9. FAO. (2017). Water for Sustainable Food and Agriculture. Rome: Food and Agriculture Organization of the United Nations.

10. Wolfert, S., Ge, L., Verdouw, C., & Bogaardt, M. (2017). Big Data in Smart Farming – A review. *Agricultural Systems*, 153, 69–80.

11. Hu, X., Sun, L., Zhou, Y., & Ruan, J. (2020). Review of operational management in

intelligent agriculture based on the Internet of Things. *Frontiers of Engineering Management*.

12. Ahmadi Pargo, T., Shirazi, M. A., & Fadai, D. (2025). Smart and efficient IoT-based irrigation system design using hybrid modeling approaches.

13. Taueatsoala, K., Daniels, C., Ramsunar, A., Bronkhorst, P., & Ezugwu, A. (2026). TinyML-enabled IoT for sustainable precision irrigation.

14. Hasib, A., & Akib, A. S. M. A. (2026). An IoT-based smart plant monitoring and irrigation system with real-time environmental sensing and cloud analytics.

OCH TUSLI BO‘Z TUPROQLARDA KUZGI BUG‘DOYNI BARQARORLASHTIRISHDA SUV TEJOVCHI SUG‘ORISH TEXNOLOGIYALARINING SAMARADORLIGI

B.F.Bozorov
Qarshi davlat texnika universiteti

Annotatsiya. Ushbu tadqiqot ishida och tusli bo‘z tuproqlar sharoitida kuzgi bug‘doy yetishtirishning hozirgi holati, tuproq-suv-tuz balansining xususiyatlari va ularni me’yorlashtirish yo‘llari tahlil qilinadi. Kuzgi bug‘doy agroekotizimini barqarorlashtirishda suv tejovchi sug‘orish texnologiyalaridan foydalanish zarurati, meliorativ tadbirlarning ahamiyati hamda mineral o‘g‘itlardan oqilona foydalanish masalalari yoritiladi. Tadqiqotda suv resurslaridan samarali foydalanish, tuproq unumdorligini saqlash va hosildorlikni oshirishga qaratilgan ilmiy asoslar hamda hisob-kitoblar keltiriladi.

Kalit so‘zlar.*Kuzgi bug‘doy, och tusli bo‘z tuproqlar, sug‘orish, melioratsiya, tuproq-suv-tuz balansi, suv tejovchi texnologiyalar, ekish muddati, namlik, agroekotizim, mineral o‘g‘itlar, hosildorlik.*

Kirish. O‘zbekistonda global iqlim o‘zgarishi quyidagi salbiy oqibatlarga olib kelmoqda. Jumladan, harorat ko‘tarilishi natijasida suvning bug‘lanish miqdori oshishi hududlarda suv resurslari kamayishiga, tanqisligiga ta’sir etmoqda. Ekologik tanglik oqibatida yil davomida umuman yog‘ingarchilik bo‘lmagan kunlar soni ko‘paymoqda. Tuproqning namligi kamayishi hisobiga takroriy qurg‘oqchilik xavfi ortmoqda va hosildorlik ko‘rsatkichlari tushib ketmoqda. Orol dengiziga quyiladigan suv hajmining kamayishi daryo deltasining cho‘lga aylanishi va qurigan dengiz tubida yangi cho‘l maydonlari paydo bo‘lishini tezlashtiryapti. Atmosfera havosida katta maydonlarda changlanish ortmoqda. Isish va sovish kabi anomal hodisalarning o‘zgarishi qishloq xo‘jaligi mahsulotlari va mevalarning nobud bo‘lishiga olib kelmoqda.

Mamlakatimiz dalalarida och tusli bo‘z tuproqlar sharoitida kuzgi bug’doy yetishtirish hamda yuqori hosildorlikka erishish uchun mavjud suv resurslaridan oqilona va samarali ravishda foydalanish, sug’orishda zamonaviy suv tejamkor texnologiyalardan foydalanish juda muhimdir. Nafaqat suvdan samarali foydalanish, qolaversa tuproq unumdorligini ta’minlash maqsadida kerakli va samarali chora-tadbirlarni ham amalga oshirish zarur.

Tahlil va natijalar. Och tusli bo‘z tuproqlar sharoitida kuzgi bug‘doy yetishtirishda tuproq unumdorligi, begona o‘tlardan holiligi va nam bilan ta’minlanganligi muhim ahamiyat kasb etadi. Barqaror va mo‘l hosil olish uchun kuzgi bug‘doyni almashlab ekish tizimida to‘g‘ri joylashtirish zarur. Odatda, sug‘oriladigan yerlarda kuzgi bug‘doy ertaroq ekinlardan bo‘shagan maydonlarda takroriy ekin sifatida ekilishi tavsiya etiladi.

Kuzgi bug‘doy tuproq unumdorligiga talabchan ekin hisoblanadi. Rejalashtirilgan hosilni olish uchun o‘g‘itlar me’yori agroximiyoviy kartogramma ma’lumotlariga asoslanib, yerlardan hosil bilan chiqib ketadigan oziq moddalar, ekin tomonidan o‘zlashtiriladigan elementlar va tuproqqa solingan o‘g‘it miqdoriga qarab aniqlanadi. Kuzgi bug‘doy azotga juda talabchan bo‘lib, nay o‘rash va boshoklanish davrida azotni, o‘sishning dastlabki 1–5 haftasida fosforni, o‘suv davrining boshidan gullashgacha esa kaliyni ko‘p miqdorda talab qiladi.

Fosforli va kaliylik o‘g‘itlar kuzgi bug‘doyning qishga chidamliligini oshiradi, donning yetilishini tezlashtiradi, poyaning yotib qolishidan hamda turli zamburug‘ kasalliklaridan saqlaydi. Shu bilan birga, azotli o‘g‘itlarning ortiqcha miqdorda qo‘llanishi tup o‘sish davrini cho‘zib yuboradi, poyalardagi boshoklarning bir vaqtda yetilmasligiga olib keladi. Bu esa hosil sifatiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

O‘zbekiston “G‘alla” ilmiy ishlab chiqarish birlashmasi ma’lumotlariga ko‘ra, kuzgi donli ekinlar uchun sug‘oriladigan yerlarda quyidagi miqdorda mineral o‘g‘itlar berilishi tavsiya etiladi: azot – 180 kg/ga, fosfor – 90 kg/ga va kaliy – 60 kg/ga. Tuproq unumdorligi past bo‘lgan maydonlarda esa ushbu miqdor 10–15% ga ko‘paytiriladi.

Ko‘rsatilgan yillik me’yor bir necha bosqichda beriladi: ekishdan oldin va o‘simliklarning o‘sish davrida oziqlantirish shaklida. Sug‘oriladigan yerlarda ekishdan oldin 30 kg/ga azot, 90 kg/ga fosfor va 60 kg/ga kaliy berilishi lozim. Shu bilan birga, gektariga 10–12 tonna go‘ng solish tuproq unumdorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Mazkur o‘g‘itlash tizimi tuproq-suv-tuz balansini me’yorlashtirish, kuzgi bug‘doyning qishga chidamliligini oshirish, hosildorlikni barqarorlashtirish va agroekotizim samaradorligini ta’minlashda muhim omil hisoblanadi.

Ekish muddati. Kuzgi bug‘doyni maqbul muddatlarda ekish barqaror hosil olishda muhim agrotexnik omil hisoblanadi. Sug‘oriladigan yerlarda kuzgi bug‘doy lalmi yerlarga nisbatan ertaroq muddatlarda ekilishi lozim. Buning sababi shundaki, sug‘oriladigan maydonlarda urug‘ ekilgandan so‘ng sug‘orish orqali maysalarni tez va sifatli undirib olish imkoniyati mavjud.Ertaroq muddatlarda ekilgan bug‘doy kuzda maysa hosil qiladi va sovuq tushguniga qadar tup hosil qilib ulgura oladi. Tup hosil qilgan o‘simliklar sovuqqa chidamli bo‘lib, qish davrini muvaffaqiyatli o‘tkazadi. Shu bois kuzgi bug‘doyning oktyabr oyida maysalanishi va oktyabr–noyabr oylarining oxirigacha tup hosil qilib, rivojlanish davrida qishlashga tayyor bo‘lishi zarur.

Mazkur ekish muddati kuzgi bug‘doyning qishga chidamliligini oshiradi, hosilning barqarorligini ta’minlaydi va agroekotizim samaradorligini kuchaytiradi.

Tuproq xususiyati. Sug‘orish usulini tanlashda muhim parametrlaridan biri tuproqning fizik xususiyatlaridir. Tuproqning mexanik tarkibi, morfometriyasi va suv o‘tkazuvchanligi kabi ko‘rsatkichlarni inobatga olgan holda maqbul sug‘orish usuli va sug‘orish texnikasini tanlash yuqori hosildorlikni ta’minlashda asosiy omillardan hisoblanadi.Qishloq xo‘jalik ekinlarini sug‘orish muddati tuproqning mexanik tarkibi, sho‘rlanish darajasi va ekinlarning o‘suv davriga qarab aniqlanadi. Bu jarayonda ilmiy asoslangan jadval va me’yorlardan foydalanish zarur bo‘lib, ular sug‘orishning optimal muddatlarini belgilashga yordam beradi.Mazkur yondashuv tuproq-suv-tuz balansini me’yorlashtirish, hosildorlikni barqarorlashtirish va agroekotizim samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

1-jadval

Qishloq xo‘jalik ekinlarining pastki namlik chegarasi ko‘rsatkichlari

Ekin turi	Tuproq sharoiti	Sug’orishdan oldingi maqbul namlik, (%)		Tuproqning so‘rish bosimining zaruriy chegarasi, (santibar)	
		CHDNS dan	Hajmdan	Sug’orishni boshlash	Sug’orishni tugatish
Kuzgi bug‘doy (Turon navi)	O‘rta va og‘ir sho‘rlanmagan	70-75	18-22	48-53	10
	Yengil va sho‘rlangan	75-80	17-18	30-40	10
	O‘rtacha sho‘rlangan	70-75	16-18	40-45	10
	Qumloq	75-80	14-16	25-30	10
	Og‘ir mexanik	65-70	20-22	50-55	12

O‘rta va og‘ir sho‘rlanmagan tuproqlar. Turon navi uchun eng qulay sharoit hisoblanadi. Bu tuproqlarda namlik 70–75% darajada saqlanadi, hajmiy namlik 18–22% bo‘lib, sug‘orish bosimi 48–53 santibar oralig‘ida boshlanadi. Bu ko‘rsatkichlar o‘simlikning optimal rivojlanishini ta’minlab, hosildorlikni yuqori darajada barqarorlashtiradi.

Yengil va sho‘rlangan tuproqlarda hosil olish mumkin, ammo sug‘orish rejimi murakkabroq:

namlik tez yo‘qoladi, bosim pastroq (30–40 santibar), bu esa tez-tez sug‘orishni talab qiladi. Hosil sifati o‘rta darajada bo‘ladi.

Qumloq va og‘ir mexanik tarkibli tuproqlarda sug‘orish rejimi murakkab, hosildorlik barqaror emas. Qumloq tuproqlarda suv tez yo‘qoladi, og‘ir tuproqlarda esa suv o‘tkazuvchanligi past bo‘lib, o‘simlikning rivojlanishiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

O‘rtacha sho‘rlangan tuproqlarda hosil olish mumkin, lekin sho‘rlanish o‘simlikning oziq moddalarni o‘zlashtirishiga to‘sqinlik qiladi.

Turon navi kuzgi bug‘doyni yetishtirish uchun o‘rta va og‘ir sho‘rlanmagan tuproqlar eng maqbul hisoblanadi. Bu tuproqlarda sug‘orish rejimi barqaror, namlik ko‘rsatkichlari optimal, hosildorlik yuqori va sifatli bo‘ladi. Qolgan tuproq turlarida ham ekish mumkin, ammo hosildorlik va sifat ko‘rsatkichlari pasayishi ehtimoli mavjud.

Sug’orish qonuniyati. Ma’lum bir sug‘orish maydonida sug‘orish usulini tanlashda iqlim, tuproq, yer relyefi, gidrologik, gidrogeologik, biologik, xo‘jalik, suv-xo‘jalik, iqtisodiy va boshqa omillar hisobga olinadi. Qishloq xo‘jalik ekinlari yoppasiga ekiladigan ekinlarga va qatorlab ekiladigan ekinlarga, bir yillik va ko‘p yillik ekinlarga farqlanib, ularni har qaysi o‘ziga mos sug‘orish usullarini talab qiladi.

2-jadval

Suv o‘tkazuvchanligi, mexanik tarkibi va suv shimilish ko‘rsatkichlari

Sinf	**Tuproqning suv o‘tkazuvchanligi**	**Mexanik tarkibi**	**100 m egatda o‘rtacha suv shimilish sarfi (l/s)**
A	Yuqori darajada	Qumli	0,4 dan yuqori
B	Kuchaygan	Qumoq	0,2
V	O‘rtacha	Yengil soz	0,1
G	Susaygan	O‘rta soz	0,05
D	Sust	Og‘ir soz, gil	0,03 dan kichik

Yomg‘irlatib sug‘orish — suvni tuproq sathiga va o‘simlikka maxsus mashina, qurilma yoki agregatlar yordamida sun’iy yomg‘ir shaklida yetkazib berish usuli. Bu usulning bir qator afzalliklari mavjud:

Sug‘orish me’yorini kamaytirish yoki ko‘paytirish orqali tuproqning namlanish chuqurligini boshqarish mumkin.

Havoning yer usti qatlamida nisbiy namlik oshadi va harorat pasayadi, bu esa ekinlarni sovuq urishidan himoya qiladi.

Suv dalada tekis taqsimlanadi va relyefga talab qo‘yilmaydi.

Sug‘orish egatlari va o‘q ariqlarini qurishga ehtiyoj bo‘lmaydi.

Sug‘orish suvi bilan birga mineral o‘g‘itlarni berish imkoniyati mavjud.

Suv tejamkor usul bo‘lib, foydali ish koeffitsienti (FIK) yuqori bo‘ladi.

Umuman olganda, yomg‘irlatib sug‘orish usuli Turon navi kuzgi bug‘doyni yetishtirishda samarali va tejamkor texnologiya hisoblanadi. U tuproq namligini optimal darajada saqlash, o‘simlikni sovuqdan himoya qilish va suvni dalada bir tekis taqsimlash imkonini beradi. Shu sababli, bu usulni o‘rta va og‘ir sho‘rlanmagan, suv o‘tkazuvchanligi o‘rtacha bo‘lgan tuproqlarda (V va G sinflar) qo‘llash eng maqbul yo‘nalishdir.

Yuqoridagi fikrlar va keltirilgan dalillardan **xulosa** qilish mumkinki**,** global miqyosda iqlim o‘zgarishi fonida yuz berayotgan suv taqchilligi sharoitida O‘zbekiston hududida kuzgi bug‘doyni yomg‘irlatib sug‘orish eng samarali usul hisoblanadi.

Tuproq namligi taqsimoti**:** Yomg‘irlatib sug‘orishda tuproqning yuqori qatlamida namlik oshadi, bu esa kuzgi bug‘doyning ildiz sohasi joylashgan 60 sm gacha bo‘lgan qatlamda optimal namlikni ta’minlaydi.

Suv tejamkorligi**:** Egatlab sug‘orishga nisbatan yomg‘irlatib sug‘orishda 1 gektar maydonda qariyb 40% suv kam sarflanadi. Bu suv resurslarini tejashda muhim ahamiyatga ega.

Hosildorlik**:** Yomg‘irlatib sug‘orilgan dalada nihollar soni egatlab sug‘orilgan maydonga qaraganda 25–30% ko‘proq bo‘ladi. Bu hosildorlikni oshiradi.

Mineral o‘g‘itlardan foydalanish samaradorligi**:** Yomg‘irlatib sug‘orishda o‘g‘itlardan foydalanish samaradorligi 80–85% ni tashkil etadi.

Texnik va iqtisodiy afzalliklar**:** Sug‘orish egatlari va ariqlar qurishga ehtiyoj bo‘lmaydi, kultivatsiya ishlari kamayadi, texnika va boshqa xarajatlar qisqaradi.

Agroekologik afzalliklar**:** Havoning nisbiy namligi oshadi, harorat pasayadi, o‘simliklar sovuq urishidan himoyalanadi.

Agrotexnika**:** Yomg‘irlatib sug‘orish Turon navi kuzgi bug‘doy uchun optimal agrotexnik usul bo‘lib, hosildorlikni barqarorlashtiradi.

Agroekologiya**:** Suv resurslarini tejash, tuproq namligini optimal darajada saqlash va ekinlarni iqlim o‘zgarishidan himoya qilish imkonini beradi.

Iqtisodiyot: Suv, o‘g‘it va texnika xarajatlarini kamaytirish orqali iqtisodiy samaradorlikni oshiradi.

Barqaror qishloq xo‘jaligi: Suv taqchilligi sharoitida hosildorlikni saqlash va resurslardan oqilona foydalanish imkonini beradi.

O‘zbekiston sharoitida Turon navi kuzgi bug‘doyni yetishtirishda yomg‘irlatib sug‘orish usuli eng maqbul va samarali texnologiya hisoblanadi. Bu usul suvni tejash, hosildorlikni oshirish, o‘g‘itlardan samarali foydalanish va agroekotizim barqarorligini ta’minlashda katta ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Xamidov M.X., Suvanov B.U., Isabaev K.T. Sug‘orish melioratsiyasi. O‘quv qo‘llanma. Toshkent-2019. “TIQXMMI”. 292-bet.

2. Xamidov M.X., Shukurlayev X.I., Mamataliyev A.B. Qishloq xo‘jaligi gidrotexnika melioratsiyasi. Darslik. Toshkent-2009. “Sharq”. 380-bet.

3. Abduraximov, N., & Avazova, M. (2022). Kuzgi bug’doy yetishtirishda resurs suv tejovchi texnologiyadan foydalanishning afzalliklari. Евразийский журнал академических исследований, 2(11), 331–334. извлечено от https://inacademy.uz/index.php/ejar/article/view/4645

4. https://kun.uz/uz/news/2021/08/12/iqlim-ozgarishi-va-insoniyat-global isish-natijasida-yuzaga-kelishi-mumkin-bolgan-tahdidlar

5. Ekinlarni yetishtirishda yomg‘irlatib sug‘orish tizimlarini qo‘llash bo‘yicha tavsiyalar. (O‘zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo‘jaligi vazirligi TIMI Irrigatsiya va suv muammolari ilmiy-tadqiqot instituti Suv tejovchi sug‘orish texnologiyalari ilmiy tadqiqot konsalting markazi). Toshkent – 2015.

IKKI OCHIQ KANALNING BURCHAK OSTIDA QO‘SHILISH ZONASIDAGI OQIMNING QAYTA SHAKLLANISHI VA DEFORMATSIYA JARAYONLARINI TADQIQ QILISH

t.f.d., prof. Eshev Sobir Samatovich[1]
t.f.f.d. (PhD) Xolmamatov Islom Komil o‘g‘li[1]
tadqiqodchi. Bozorov Bustonjon Erkin o‘g‘li[2]
tadqiqodchi Aralov Behro‘zjon G‘ayratovich[1]
Qarshi davlat texnika universiteti[1].
Buxoro davlat texnika universiteti[2].

Annotatsiya. Ikki gruntli ochiq kanalning 40° burchak ostida qo‘shilish zonasidagi gidrodinamik xususiyatlari va o‘zan deformatsiyasi laboratoriya tajribalari, nazariy modellashtirish va O‘zbekistonning Mirishkor sug‘orish kanalidagi dala kuzatuvlari yordamida o‘rganildi. Asosiy oqim zonalarini (turg‘unlik, kesish qatlami, ajralish, aylanish va tiklanish) shakllanishi va o‘lchamlari aniqlandi. Natijalar shuni ko‘rsatdiki, 40° burchakda aylanish zonasi o‘lchamlari yuqori burchaklarga nisbatan taxminan 20–30% kichikroq bo‘lib, oqim tezroq tiklanadi. Uyurma ta’sirini hisobga olgan gidravlik hisob algoritmlari bashorat aniqligini oshirdi va amaliy qo‘llashda kanal o‘tkazuvchanligini 5–8% ga oshirish imkonini berdi. Ushbu natijalar sug‘orish tarmoqlarida deformatsiyani kamaytirish uchun amaliy vositalar beradi.

Kalit so‘zlar: ochiq kanal qo‘shilishi, burchak, oqim qayta shakllanishi, aylanish zonasi, oqiziqlar tashilishi, potensial oqim modellashtirish, gidravlik algoritmlar

Аннотация. Гидродинамические характеристики зоны слияния двух грунтовых открытых каналов под углом 40° и деформация русла изучены с помощью лабораторных экспериментов, теоретического моделирования и полевых наблюдений на Мирishкорском оросительном канале в Узбекистане. Определены особенности формирования и размеры основных зон основного потока (зона застоя, слой сдвига, зона отрыва, зона циркуляции и зона восстановления). Результаты показывают, что при угле 40° размеры зоны циркуляции примерно на 20–30 % меньше по сравнению с большими углами, а поток восстанавливается быстрее. Алгоритмы гидравлического расчёта с учётом вихревого воздействия повысили точность прогноза и позволили в практическом применении увеличить пропускную способность канала на 5–8 %. Полученные результаты предоставляют практические инструменты для снижения деформаций в оросительных сетях.

Ключевые слова: слияние открытых каналов, угол слияния, переформирование потока, зона циркуляции, транспорт наносов, моделирование потенциального потока, гидравлические алгоритмы

Abstract: The hydrodynamic characteristics of the confluence zone of two alluvial open channels at a 40° angle and the resulting channel bed deformation were investigated using laboratory experiments, theoretical modeling, and field observations conducted on the Mirishkor irrigation canal in Uzbekistan. The formation patterns and dimensions of the main flow zones were determined (stagnation zone, shear layer, separation zone, circulation zone, and recovery zone). The results indicate that at a 40° junction angle, the size of the circulation zone is approximately 20–30% smaller compared to larger angles, and flow recovery occurs more rapidly. Hydraulic calculation algorithms that account for vortex effects improved prediction accuracy and enabled a practical increase in channel conveyance capacity by 5–8%. These findings provide practical tools for reducing deformations in irrigation canal networks.

Keywords: open channel confluence, junction angle, flow redevelopment, circulation zone, sediment transport, potential flow modeling, hydraulic algorithms

Kirish. Ochiq kanallarda qo‘shilish zonasi oqimining asosiy kanalga qo‘shilishi natijasida uch o‘lchovli murakkab gidrodinamik jarayonlar sodir bo‘ladigan muhim hududdir. Bu jarayonlar gruntli kanallarda o‘zan va qirg‘oq deformatsiyasi, oqiziqlar cho‘kishi va o‘tkazuvchanlikning pasayishiga olib keladi.

Ko‘plab tadqiqotlar 90° qo‘shilishlarga qaratilgan bo‘lib, qo‘shilish burchagining ajralish zonasi hajmi va turbulentlik intensivligiga kuchli ta’sir qilishi aniqlangan. Past burchaklar oqimlarni parallelroq joylashtirib, salbiy ta’sirlarni kamaytiradi. Biroq, 40° kabi o‘tkir burchaklar yetarli o‘rganilmagan.



1-rasm. Ochiq kanal qo‘shilishining sxematik ko‘rinishi (burchak bilan).



2-rasm. Qo‘shilish zonasidagi gidrodinamik zonalar: ajralish va aylanish zonasi.

Ushbu tadqiqot 30°, 45° va 60° burchaklarni qamrab olgan keng tajriba va nazariy ishlar asosida 40° holatni interpolatsiya va maxsus tahlil orqali o‘rganadi. Tadqiqot O‘zbekistonning suvdan samarali foydalanish bo‘yicha milliy prioritetlariga mos keladi.



3-rasm. Laboratoriyada ochiq kanal qo‘shilishi tajribasi sxemasi.

Metodlar. Tajribalar harakatlanuvchi qum o‘zanli shisha devorli resirkulyatsiya flumeda o‘tkazildi. Asosiy kanal kengligi 0.4 m; qo‘shiluvchi kanal kengligi 0.2–0.3 m (1:50 masshtabda). Qo‘shilish burchaklari 30°, 45°, 60° va 40° uchun interpolatsiya. Sarf nisbati Q_r 0.2–0.8 oralig‘ida; Frud sonlari 0.3–0.7.



5-rasm. Qo‘shilish zonasidagi tezlik vektorlari va aylanish zonasi.

Tezlik akustik Doppler velocimetr yordamida o‘lchandi. Dala tasdiqlash Mirishkor kanalida

SONTEC River Surveyor S5 yordamida amalga oshirildi.

Uyurmasiz hududlar potensial oqim nazariyasi bilan modellashtirildi. Konform akslantirish oqim chiziqlari chegaralarini aniqlashda qo‘llanildi. Aylanish zonasi kengligi va uzunligi θ va V asosiy funksiyasi sifatida parametrlashtirildi.

Tub oqiziqlar tashilishi burchak ta’sirini hisobga olgan moslashtirilgan formulalar bilan hisoblandi. Tajriba ma’lumotlarining statistik ishlovi empirik bog‘lanishlarni berdi.



6-rasm. Aylanish zonasi va kesish qatlamining batafsil ko‘rinishi.

Natijalar

θ = 40° da qo‘shiluvchi oqim kamroq keskin buriladi, ixcham kesish qatlami va kichik ajralish zonasini hosil qiladi. Aylanish zonasi o‘lchamlari θ kamayganda qisqaradi. $Q_r \approx 0.5$ uchun 40° da o‘lchamlar 60° ga nisbatan 20–30% kichikroq. Oqim tiklanishi tezroq.

1-jadval. Tub oqiziqlar tashilishining taqqoslanishi.

Burchak θ	***Van Reyn***	***Latipov***	***Taklif etilgan***	***Tajriba***
60°	1.32	1.28	1.12	1.10
45°	1.25	1.22	1.08	1.07
30°	1.20	1.18	1.04	1.03

Mirishkor kanalida qo‘llash natejasida o‘tkazuvchanlikni 5–8% ga oshirdi.

Muhokama. 40° da aylanishning kamayishi oqimlar orasidagi impuls almashinuvining yumshoqroq bo‘lishi bilan bog‘liq. Bu salbiy bosim gradientlari va ikkilamchi oqim intensivligini pasaytiradi. Tez tiklanish energiya yo‘qotilishini va tub kesish kuchlanishining o‘zgarishini kamaytirib, deformatsiyani pasaytiradi.

Taklif etilgan tenglamalar θ ni aniq hisobga olib, oldingi ishlardagi kamchiliklarni to‘ldiradi. Algoritmlar tahlili loyihalash imkonini berib, xarajatlarini kamaytiradi.

ADABIYOTLAR

[1] Best, J.L., 1987. Flow dynamics at river channel confluences.

[2] A.Ramamurthy, Corballada L. (1988) Очиқ канал оқимини тўғри бурчакли бирлашмаларда бирлаштириш // J. Hydraulic Engr 114(12). pp. 449-460.

[3] L.Bruce, S.Phoads (1995) Асимметрик оқим бирлашмасида оқим тузилиши // Departament of Geography and Env. Eng. Reeeived 23. Jule 1993. pp. 273.

[4] А.Т. Гаврюхов, Л.Н. Гаврюхова. Формирование русел при слиянии безнапорных потоков // Тр. Кубанского СХИ. Вып. 274 (302).1987.

[5] Михневич Э.И., Бубнов В.Ф. Рекомендации по расчёту и креплению русел рек и каналов в зоне соединения потоков. Минск: Белорусск. НИИ мелиоратsiи и водн. хозва. 1979.

[6] В.И. Стипановаб О применении кавитатsионных схем к задаче о течении жидкости через уступ на днеб Докл. АН. СССР, 1972, том 202,номер 2, 306-309.

[7] Bazarov O.Sh, Babajanov Y.T, Eshev S.S, Kholmamatov I.K. innovation technologies: Investigating the Deformation Process in the Flow Merging Zone.

[8] Sh.Latipov, J.Sagdiyev, S.Eshev, I.Kholmamatov, I.Rayimova, Acceptable water flow velocity in sandy channels. E3S Web Conf. Volume 274, 2021. In 2nd International Scientific Conference on Socio-Technical Construction and Construction (STCCE–2021). Paper (No. 03002).

[9] S.S.Eshev, IX.Gayimnazarov, Sh.A Latipov, M.I.Rahmatov, I.K. Kholmamatov (March 2023). Calculation of the parameters of underground ridges in the steady flow of groundwater channels. In Proceedings of the AIR Conference (Volume 2612, Issue 1). AIR Publishing.

[10] J.K.Krijer, B.Hillen. (1990) Steddy two-dimensional merging flow from two channels into a singlcannaliAple. Scientific Res. 47(3), 223-246.

KANALLARNING QO'SHILISH JOYIDA LOYQA CHO'KISH JARAYONINI TADQIQ ETISH (LOYQA MIQDORI 15–18 kg BO'LGAN AMUDARYO DARYOSIDAN SUV OLADIGAN KANALLAR MISOLIDA)

t.f.d., prof. Eshev Sobir Samatovich[1]
t.f.fd. (PhD Xolmamatov Islom Komil o‘g‘li[1]
tadqiqodchi. Bozorov Bustonjon Erkin o‘g‘li[2]
tadqiqodchi Aralov Behro‘zjon G‘ayratovich[1]
Qarshi davlat texnika universiteti[1].
Buxoro davlat texnika universiteti[2].

Annotatsiya: Maqolada ikki suv o'tkazuvchi kanalning qo'shilish joyida loyqa cho'kish jarayoni laboratoriya sharoitida o'rganilgan. Loyqa miqdori 15–18 kg bo'lgan model tajribalarda oqim zonalari (qo‘shilish va aralashish zonasi) ta'siri, cho'kish tezligi va cho'kindilarning joylashishi aniqlangan. Natijalar irrigatsiya tizimlarida loyqa bosish muammosini hal qilish uchun amaliy tavsiyalar beradi. Tajriba natijalari real kanallarda (Amu-Qashqadaryo (Mirishkor kanali), Amu-Buxoro) loyqa cho'kishini bashorat qilishda qo'llanilishi mumkin.

Kalit so'zlar: loyqa cho'kishi, kanal qo'shilishi, sediment transporti, oqim zonalari, irrigatsiya kanallari, Stokes qonuni, cho'kish tezligi, cho'kindilarning joylashishi.

Аннотация В статье исследуется процесс осаждения ила в месте слияния двух водопроводящих каналов в лабораторных условиях. В модельных опытах с количеством ила 15–18 кг определено влияние зон течения (зоны слияния и смешения), скорость осаждения и места локализации отложений. Полученные результаты дают практические рекомендации по решению проблемы заиления в ирригационных системах. Результаты экспериментов могут применяться для прогнозирования осаждения ила в реальных каналах (Аму-Кашкадарьинский (канал Миришкар), Аму-Бухарский).

Ключевые слова: осаждение ила, слияние каналов, транспорт наносов, зоны течения, ирригационные каналы, закон Стокса, скорость осаждения, локализация отложений.

Annotation

The article investigates the process of silt deposition at the confluence of two water-conveying channels under laboratory conditions. In model experiments with a silt quantity of 15–18 kg, the influence of flow zones (confluence and mixing zones), the sedimentation rate, and the locations of deposit accumulation were determined. The obtained results provide practical recommendations for solving the problem of silting in irrigation systems. The experimental findings can be applied to predict silt deposition in real channels (Amu-Kashkadarya (Mirishkor canal), Amu-Bukhara).

Keywords: silt deposition, channel confluence, sediment transport, flow zones, irrigation channels, Stokes' law, sedimentation velocity, deposit localization.

Kirish. O'zbekiston irrigatsiya tizimlarida loyqa cho'kishi katta muammo hisoblanadi. Magistral va xo'jaliklararo kanallarda loyqa cho'kishi suv sarfini kamaytiradi, tozalash xarajatlarini oshiradi va suv sifatini pasaytiradi. Ikki kanal qo'shilish joyida oqimning murakkab gidrodinamikasi (tezlik pasayishi, vortekslar) loyqa cho‘kishini kuchaytiradi. Bu jarayonni tadqiq etish O'zbekistonning suv xo'jaligi samaradorligini oshirish uchun muhim rol o‘ynaydi. Daryo va kanal qo'shilishlarida sediment cho'kishi asosan stagnatsiya va ajralish zonalari bilan bog'liq. Loyqa zarrachalarining cho'kish tezligi suvning zichligi, yopishqoqligi va zarracha diametriga bog'liq.

Xalqaro tadqiqotlarda ham kanal qo'shilishlaridagi sediment dinamikasi yaxshi o'rganilgan. Best (1988) tomonidan taklif etilgan 6 ta oqim zonasi (stagnatsiya, ajralish, aralashish, tezlanish va boshqalar) cho'kishning asosiy joylarini belgilaydi: stagnatsiya zonasida lateral barlar hosil bo'ladi, ajralish zonasida esa nozik loyqa cho'kadi. O'zbekiston sharoitida loyqa bosish irrigatsiya samaradorligini 15–60% gacha pasaytirishi mumkin, shuning uchun kanallar qo'shilish joylarida (1-rasm) maxsus tadqiqotlar o‘tgazish zarur.



1.-rasm. Ikki kanal qo‘shilishida loyqa cho‘kishi natijasida kanal kesimi o‘zgarishi .

Tajriba laboratoriyasi Gidravlik jarayonlarni modellashtirish laboratoriyasida da o'tkazildi (2-rasm). Ikki parallel kanal (kengligi 0,5 m, uzunligi 5 m) 30–60° burchak ostida qo'shildi. Umumiy loyqa miqdori 15–18 kg (fraksiyasi 0,01–0,1 mm, zichligi ρ_s = 2650 kg/m³). Suv sarfi 0,05–0,2 m³/s oralig‘ida o‘zgartirildi. Loyqa suvga aralashtirilib, qo'shilish oldidan kiritildi. Cho'kishni o'lchash uchun:

- Cho'kkan loyqa massasi, *m-kg* (tarozi bilan);
- Cho'kish joyi va qalinligi, *z=sm* (profil o'lchagich, shtangi serkul);
- Oqim tezligi, *v=m/s* (Mikrovertushka).

Loyqa zarrachalarining cho'kish tezligi Stokes qonuni bo'yicha hisoblandi:

$$\vartheta = \frac{2}{9}\frac{(\rho_s-\rho)gr^2}{\mu}=$$

bu yerda ρ_s – suv zichligi (1000 kg/m³), g – tortishish tezlanishi (9,81 m/s²), r – zarracha radiusi, μ – yopishqoqlik (0,001 Pa·s).



2-rasm. Tajriba jarayonida loyqa cho‘kishi.

Tajribalar 5-10 marta takrorlandi, har bir kesim bo’yicha tezlik epyuralari qurildi. natijalar statistik tahlil qilindi. Buning uchun 3 seriya laboratoriya tajribalari o‘tkazilib, har bir seriyada

o‘ziga mos bo‘lgan $\theta = 30^0; 45^0; 60^0$ burchaklar ostida 1-kanalga 2-kanal oqimining qo‘shilish jarayoni tadqiqot qilindi. Olingan eksperiment ma’lumotlari jadval shakliga kiritildi. Jadvalda quyidagi tajribada olingan ma’lumotlar kiritilgan:

- θ - oqim burilish burchagi, grad.;

- $Q_3, m^3/s$; $\upsilon_3, m/s$; h_3, sm - asosiy kanaldagi qo‘shilishdan keyingi 3-kanaldagi mos ravishda sarf, tezligi va chuqurlik;

- $Q_1, m^3/s$; $\upsilon_1, m/s$; h_1, sm - asosiy kanaldagi qo‘shilishdan oldingi 1-kanaldagi mos ravishda sarf, tezligi va chuqurlik;

$Q_2, m^3/s$; $\upsilon_2, m/s$; h_2, sm - qo‘shiluvchi kanaldagi mos ravishda sarf, tezligi va chuqurlik.

5-5 Ikki kanal birlashgan qismi, 4- nuqta
Tekis harakat

№	b m	m	h_k sm	Q l/s	υ m/s	B sm	h mm	z sm	υ m/s	$\upsilon_{o'rt}$ m/s
1-Tajriba										
4	0,27	1,5	4,2	0,0031	1,0	38	1,0	24,64	0,43	0,45
							0,8	25,48	0,49	
							0,6	26,32	0,49	
							0,4	27,16	0,45	
							0,2	28	0,39	



3-rasm. Oqim chuqurligi bo‘yicha tezlik taqsimoti va uning epyurasi

Tajribada 15–18 kg loyqadan 25–40% (3,75–7,2 kg) qo‘shilish joyida cho‘kdi. Asosiy cho‘kish stagnatsiya va ajralish zonalari (kanal burchagi 60° da maksimal) da kuzatildi. Tezlik 0,12 m/s dan 0,21 m/s gacha oshganda cho‘kish kamaydi, lekin 0,14 m/s ga tushganda yana kuchaydi.

Bu natijalar Best va boshqalar tadqiqotlarning natejalariga mos keladi: Ajralish zonasida loyqa cho‘kmalari hosil bo‘ldi. O‘zbekiston kanallarida Amu-Buxoro va Mirishkor kanallarining qo‘shilish joylarida shunga o'xshash jarayonlar 4,4 mln m³ loyqa cho‘kishiga olib keladi.

Ikki kanal qo'shilishida 15–18 kg loyqa bilan o'tkazilgan tajribalar cho'kishning asosiy sababi oqim tezligining pasayishi va zonalardagi vortekslar ekanligini ko'rsatdi. Natijalar irrigatsiya kanallarida loyqa bosishni kamaytirish uchun (burchakni optimallashtirish, to'siqlar o'rnatish) amaliy tavsiyalar beradi. Kelgusida maydon tajribalari va raqamli modellashtirish (CFD) tavsiya etiladi.

ADABIYOTLAR

1. Best, J.L. (1988). Sediment transport and bed morphology at river confluences.

2. Wu, H. va boshq. (2025). Experimental study and application of energy-sediment relationship... (ScienceDirect).

3. Qayumova, S. (2022). Amu-Buxoro mashina kanali suvining loyqaligi. CyberLeninka.

4. Daryo oqiziqlarining irrigatsion ahamiyati (monografiya, Toshkent).

5. Boshqa manbalar: Rossiya tadqiqotlari (Yanin, 2002; Chalov, 2021) va xalqaro (Stancanelli, 2015; Bilal, 2020).

6. Eshev S.S., Gayimnazarov I.X., Latipov Sh.A., Rahmatov M.I., Kholmamatov I.K "Calculation of Parameters of Subsurface Ridges in a Steady Flow of Groundwater Channels" AIP Conference Proceedings 2612, 050033 (2023); https://doi.org/10.1063/5.0135363 2612, 15 March 2023, 8 p.p [92;]

7. Eshev S.S., Latipov Sh.A., Sagdiyev J. Kholmamatov I.K Rayimova I., "Acceptable water flow rate in sandy channels" E3S Web of Conferences 274, 03002 (2021) https://doi.org/10.1051/e3sconf/202127403002. International Scientific Conference on Socio-Technical Construction and Civil Engineering (STCCE – 2021) 9 p.p

8. Kholmamatov I.K., Norchayev A.J., Makhmudov U.X., Dilshodova D.D "Study of the process of deformation in the area of confluence of streams" International Journal of AdvancedResearch in Science, Engineering and Technology Vol.11, Issue 9 ISSN: 2350-0328 September 2024 22298-22305 8 p.p

9. Рахимов А.Р., Гайимназаров И.Х., Холмаматов И.К "Расчёт откосов грунтового канала, сложенных из несвязных грунтов", "Innovatsion texnologiyalar, 14-063 Махсус сон – 2021, ISSN 2181-4732 38-сонли нашр. 89-93 b. (05.00.00. №38)

10. Холмаматов И.К., Алимардонова М.У., Сафаров А.А., Имомова М.Қ "Динамик мустаҳкам кўндаланг кесимли каналлар", "O'zbekistonning innovatsion taraqqiyotida yoshlarning o'rni" respublika ilmiy amaliy anjumani 2023 yil 15-16 may, 136-138 bet.

PACHKAMAR SUV OMBORI QIRG'OQLARINI YEMIRILISH JARAYONLARI

Nabiyev Elyor Safarovich, **Doniyorov Toshmamat Omonovich**
Qarshi davlat texnika universiteti

Annotatsiya. Suv omborining gidrologik rejimi ham qirg'oq abraziyasi jarayonlariga katta ta'sir ko'rsatadi. Suv sathining tez-tez o'zgarishi natijasida qirg'oq jinslari namlanadi va mexanik barqarorligi kamayadi. Bu esa yer o'pirilishlari va ko'chkilar xavfini oshiradi shu sababli qirg'oq emirilishini kuzatib nazorat qilish muhim kasb etadi.

Abstract. The hydrological regime of the reservoir also has a significant impact on the processes of coastal erosion. As a result of frequent changes in the water level, coastal rocks become wet and their mechanical stability decreases. This increases the risk of landslides and landslides, therefore, monitoring and controlling coastal erosion is important

Kalitli so'zlar: Pachkamar suv ombori, qirg'oq chizig'ining tez-tez o'zgarishi, lyossimon jinslar, suv ombori sathining keskin, zondlash ma'lumotlari

Ключевые слова: Пачкамарское водохранилище, частые изменения береговой линии, лёссоподобные породы, резкие изменения уровня водохранилища, данные гидроразрыва пласта

Key words: Pachkamar Reservoir, frequent changes in the shoreline, loess-like rocks, sharp changes in the reservoir level, hydraulic fracturing data

Kirish. Pachkamar suv ombori Qashqadaryo hududida joylashgan yirik irrigatsion suv omborlaridan biri hisoblanadi. Suv ombori asosan qishloq xo'jaligi yerlarini sug'orish, suv resurslarini tartibga solish va suv ta'minotini yaxshilash maqsadida qurilgan. Pachkamar suv ombori tog' oldi va past tog'li hududlar bilan chegaralangan bo'lib, uning atrofidagi relyef murakkab geomorfologik tuzilishga ega. Hududdagi geologik qatlamlar asosan lyossimon jinslar, qumtosh va konglomeratlardan tashkil topgan. Bu jinslar suv ta'siriga nisbatan nisbatan barqaror bo'lmagani sababli qirg'oq yemirilishi jarayonlari tez rivojlanadi.

Iqlim kontinental bo‘lib, yoz faslida yuqori harorat va bug‘lanish kuzatiladi. Qish oylarida esa nisbatan sovuq havo va kam yog‘ingarchilik kuzatiladi. Bu holat suv sathining mavsumiy o‘zgarishiga sabab bo‘ladi va qirg‘oq yemirilish jarayonlariga ta’sir ko‘rsatadi.

Suv omborining gidrologik rejimi ham qirg‘oq abraziyasi jarayonlariga katta ta’sir ko‘rsatadi. Suv sathining tez-tez o‘zgarishi natijasida qirg‘oq jinslari namlanadi va mexanik barqarorligi kamayadi. Bu esa yer o‘pirilishlari va ko‘chkilar xavfini oshiradi

Suv ombori sathining keskin ko‘tarilishi natijasidagi qirg‘oqlar siljishi asosan suv omborlariga keladigan sel-toshqin paytlarida suv ombori sathini keskin ko‘tarilib ketishi va ba’zan suv omboridagi suvni tejash maqsadida yuqoridan kelayotgan katta miqdordagi suvlarni suv omboridan o‘tkazib yubormasdan uni suv omborida tutib qolmoqchi bo‘lib qilingan harakatlar sabab bo‘ladi. Natijada suv ombori qirg‘oq gruntlarida o‘pirilishlar, suv bosimi ta’siri natijasida qirg‘oqlar yuza qismlarining yuvilishlari, yumshoq gruntlarning suv bosimi natijasida yemirilishi va cho‘kishi kabi holatlarni keltirib chiqaradi. Buning oqibatida sodir bo‘lgan barcha holatlardagi tuproq va boshqa grunt jismlar suv ombori havzasiga kelib o‘rnashib qoladi. Bu holatni takrorlanishi suv ombori foydali hajmining kamayib borishiga o‘z ta’sirini o‘takazib, suv ombori foydali hajmini kamayishiga olib keladi.

Suv ombori sathini keskin pasayishi yuqorida keltirilgan suv ombori sathini keskin ko‘tarilishining aksi bo‘lib, unda suv omboridagi suvni keskin ravishda pasaytirib yuborish natijasida sodir bo‘ladi.

Suv ombori sathini keskin pasaytirish, tushirib yuborish natijasida qirg‘oq grunt qatlamlari orasida suv bug‘ining qoldiq bosimi hosil bo‘ladi va uning ta’siri natijasida qirg‘oq gruntlarining yemirilishi, ularni joylari o‘zgarishi tufayli qirg‘oqlarda ko‘chkilar, o‘pirilishlar hosil bo‘ladi. Oqibatda sodir bo‘lgan holatlar natijasida suv ombori xavzasining loyka-cho‘kindilar bilan to‘lishiga va suv ombori hajmining kamayishiga olib keladi.(1-rasm)



1-rasm. Pachkamar suv omborini qirg‘oqlarini ko‘rinishi.

Suv ombor G‘uzordaryosida barpo etilgan yirik gidrotexnika inshootida qurilish ishlari 1964-yilda boshlanib, 1967-yilda foydalanishga topshirilgan, 1968-yil to‘liq qurib bitkazilgan. Omborning suv yuzasi uzunligi 3,9 km, kengligi 1,8 km. Suv yuzasi maydoni 12,8 km², eng katta (maksimal) chuqurligi 51m, o‘rtacha chuqurligi 30 m. Suv ombori daryoning mavsumiy va qisman ko‘p yillik suv rejimini tartibga soladi. To‘g‘onning ustki uzunligi 593 m, balandligi 68 m. Suv omborining o‘ng qirg‘og‘i uzunligi 198 m va maksimal balandligi 12 m bo‘lgan ko‘tarma damba qurilgan. Omborning o‘ng sohilida suv sarfi 30 m³/s bo‘lgan suv chiqargich qurilgan. Suv chiqargichning quyi qismiga 2 ta konussimon rostlagich o‘rnatilgan. To‘g‘onning chap tomonida suv sarfi 260 m³/s (favqulodda toshqinlarda suv sarfi 480 m³/s) bo‘lgan suv tashlagich– Chap sohil kanali ochiq holda qurilgan.

Natijalar. Pachkamar suv ombori qirg‘oqlaridagi yemirilish jarayonlarining asosan**,** Suv ombori yuzasi katta 12,8 km², bo‘lgani uchun kuchli shamollar ta’sirida hosil bo‘lgan to‘lqinlar qirg‘oq jinslarini yuvib ketadi. Mavsumiy suv yig‘ish va chiqarish jarayonida qirg‘oq chizig‘ining tez-tez o‘zgarishi tuproqning yumshashiga va o‘pirilishiga sabab bo‘ladi. O‘ng qirg‘oq 198 metrli damba atrofidagi hudud to‘lqin ta’siriga ko‘proq duchor bo‘ladi, bu esa maxsus muhandislik

himoyasini talab etadi. Yemirilish jarayonlari uzoq davom etsa, suv omborining sig‘imi kamayishi va gidroinshootlar xavfsizligiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin, shuning uchun kuzatish orqali jarayon nazorat qilinadi.

Suv omborining 51 metrgacha bo‘lgan chuqurligi va qirg‘oqning geologik tuzilishi yemirilish sur'atiga ta'sir ko'rsatuvchi asosiy omillardan biri hisoblanadi.

Qirg‘oq chizig‘ining siljish tezligini hisoblash usulida turli yillardagi xaritalar yoki sputnik tasvirlari solishtirilib, qirg‘oq chizig‘ining siljishi aniqlanadi.

$$E = \frac{L_1 - L_2}{T}$$

bu yerda: **E** - qirg‘oq yemirilish tezligi (m/yil) $\mathbf{L_1}$ - birinchi yildagi qirg‘oq chizig‘i koordinatasi $\mathbf{L_2}$ -keyingi yildagi qirg‘oq chizig‘i **T** -vaqt oralig‘i (yil) Misol uchun: 2010 yilda qirg‘oq chizig‘i = 120 m, 2020 yilda qirg‘oq chizig‘i = 95m, vaqt = 10 yil deb hisoblasak

$E = \frac{120-95}{10}$ Natija: qirg‘oq har yili o‘rtacha 2,5 metr yemirilganligini ko‘rishimiz mumkun bo‘lani.

Qirg‘oq yemirilishini hisoblash Qirg‘oq yemirilishi miqdorini hisoblash uchun quyidagi formula qo‘llanildi:

$$V = L \times h \times S$$

Bu yerda: **V**- yemirilgan tuproq hajmi **L** - qirg‘oq uzunlig **h** -qirg‘oq balandligi **S** - qirg‘oq siljishi. Demak, biz bu formulalar yordamida suv omborida har yili minglab m^3gacha tuproq yemirilishi mumkinligini aniqlay olamiz. Shu sababli suv omborlari atrofida doimiy monitoring olib borish muhim hisoblanadi.

Xulosa. Pachkamar suv ombori qirg‘oqlarida kuzatilayotgan abraziya jarayonlari yil sayin suv omborining morfometriyasiga ta’sir ko‘rsatmoqda. Hisoblashlar shuni ko‘rsatadiki, qirg‘oq yemirilishi natijasida har yili yuz minglab kub metr tuproq suv omboriga tushadi. Shuning uchun mazkur jarayonlarni GIS (Geographic Information Systems ***GIS***) texnologiyalari va masofadan zondlash ma’lumotlari asosida muntazam monitoring qilish muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. E. Safarov, I. Musaev. Geoaxborot tizimi va texnologiyalari. O_quv qo_llanma. Toshkent. 2012. Tafakkur.-184. Gambling.

2. “Pachkamar suv ombori”, O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi:7-jild Toshkent: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi“ Davlat ilmiy nashriyoti, 2004 704-bet.

3.Nabiev E. Reliability study of irrigation canals and pipe culvers //E3S Web of Conferences. – EDP Sciences, 2023. – T. 410. – C. 05025.

4. Xujakulov, R., Rahmatov, M., Nabiev, E., & Zaripov, M. (2021). Determination of calculating stresses on the depth of loess grounds of hydraulic structures. In *IOP Conference Series: Materials Science and Engineering* (Vol. 1030, No. 1, p. 012133). IOP Publishing.

5. Nabiev E. **Reliability indicators of pipeline water supply systems for irrigation canals** //Intent Research Scientific Journal-(IRSJ) ISSN (E): 2980-4612 Volume 4, Issue 3, March - 2025

UO‘K 631.671:633.51

QASHQADARYODA SUV TAQCHILLIGI SHAROITIDA SUG’ORISH VA YERLARNING MELIORATIV HOLATINI YAXSHILASH USULLARI

T.O.Doniyorov, E.S.Nabiyev, H.A.Qudratov
Qarshi davlat texnika universiteti.

Maqolada Qashqadaryo viloytining Qarshi tumani hududida SPERSAL kimyoviy meliorantini qo‘llab, o‘rtacha sho‘rlangan erlarda tuproq meliorativ holatini yaxshilash va sho‘r yuvishga sarflanadigan suv tejamkorligi masalalari bo‘yicha o‘tkazilgan dala tajribalari natijalari keltirilgan.

Kalitli so‘zlar: *kimyoviy meliorant SPERSAL, sug’orish me’yori, mavsumiy sug’orish normasi, egatlab sug‘orish, tuproq, sho‘rlanish, suv tejamkor texnologiya.*

В статье представлены результаты проведенных полевых опытов на территории

Каршинского района Кашкадарьинской области по улучшению мелиоративного состояния среднезасоленных почв с применением химического мелиоранта SPERSAL и экономия воды затрачиваемой на промывку почв.

Ключевые слова: *химический мелиорант SPERSAL, норма полива, оросительная норма, полив по бороздам, почва, засоление, водосберегающие технологии.*

The article presents the results of field experiments on the territory of the Karshi district of the Kashkadarya region to improve the meliorative state of moderately saline soils using the chemical meliorant SPERSAL and save water spent on soil leaching.

Key words: *chemical meliorant SPERSAL, irrigation rate, irrigation norm, egatlab irrigation, soil, salinity, water saving technology.*

Kirish

Dunyo miqyosida suvga bo‘lgan talab va ehtiyoj har qachongidan ham ortib bormoqda. Ushbu dolzarb masala Markaziy Osiyo mintaqasini ham chetlab o‘tgani yo‘q. Mutaxassislarning hisob-kitoblariga ko‘ra, 2050 yilgacha suv resurslari Sirdaryo havzasida 5 foizgacha, Amudaryo havzasida 15 foizgacha kamayishi kutilmoqda. Boshqa tomondan esa, aholining o‘sishi hisobiga, O‘zbekistonda 2030 yilga borib, suvga bo‘lgan talab 7 mlrd. kub metrga yetishi, 2050 yilga borib esa, bu ko‘rsatkich ikki barobarga ortishi kutilmoqda [1].

Shularni inobatga olib, so‘nggi yillarda mamlakatimizda suv resurslaridan foydalanish tubdan isloh qilinmoqda. Asosiy masala — suvdan oqilona va samarali foydalanish, sug‘oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilashga qaratilgan. Binobarin, Prezidentimizning saylovoldi dasturida ham suv resurslarini tejashga alohida e’tibor berilib, 2030 yilga qadar respublikamizdagi sug‘orma dehqonchilik qilinadigan barcha ekin maydonlarini to‘liq suv tejaydigan texnologiyalarga o‘tkazish, sohaga bozor mexanizmlarini keng tatbiq etish, suv tejaydigan texnologiyalarni joriy etgan fermer va dehqonlar uchun rag‘batlantirish mexanizmlarini yanada ko‘paytirish choralari ko‘rilishi belgilandi [1].

Suvni tejaydigan texnologiyalarni joriy qilishdagi mavjud kamchiliklarni bartaraf etish, suv tanqisligining salbiy ta’sirini yumshatish, shuningdek, qishloq xo‘jaligi ekinlarini yetishtirishda suv resurslaridan yanada samarali foydalanish maqsadida aniq chora-tadbirlar hayotga tatbiq etilmoqda. Chunonchi, 2019 yildan mamlakatimizda suvni tejaydigan texnologiyalarni joriy etishni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha yangi tizim — subsidiya ajratish mexanizmi yo‘lga qo‘yildi. 2022 yildan boshlab esa ushbu tizim raqamlashtirildi.

Dunyo miqyosida iqlimning isib borishini va suv resurslariga bo’lgan talabni oshib borishini hamda mamlakatimizda, ayniqsa Qashqadaryo viloyatda sug’orishga sarflanayotgan suvning asosiy qismi transchegaraviy daryolardan nasos stansiyalari orqali olinayotganini inobatga olib, biz navbatdagi ilmiy-tadqiqot ishlarimizni Qarshi cho’lining sho’rlangan yerlarida g’o’zani egatlab sug’orishda suv tejamkor texnologiylarni qo’llab, paxta hosildorligini ko’tarish, hamda tuproqning meliorativ holatini yaxshilashga bag’ishladik.

Qo’llanilgan usullar

Buning uchun quyida keltirilgan tartibda Qarshi tumanining “Nasaf” nomli xo’jaligida g’o’zaning Buxoro-6 navida tajribalar o’tkazdik:

1. Xo’jalikda har doim qo’llnilgan agrotexnika bo’yicha parvarishlangan (nazorat).
2. ChDNS ga nisbatan 70-70-60 % bo’yicha egatlab sug’orish.
3. ChDNS ga nisbatan 70-70-60 % bo’yicha egatlab sug’orish va qo’shimcha gektariga 5 kg SPERSAL kimyoyiy meliorantni qo’llash (Qo’llanilgan kimyoviy meliorantning ta’sirini o’rganish maqsadida).
4. ChDNS ga nisbatan 70-70-60 % tartibda 25 % ga kamaytirilgan me’yorlar bilan sug’orish (Qashqadaryoda yillar davomida kuzatilayotgan suv taqchilligi e’toborga olingan).
5. ChDNS ga nisbatan 70-70-60 % tartibda 25 % ga oshirilgan me’yorlar bilan sug’orish (O’rtacha darajada sho’rlangan tuproqlarning meliorativ holatini yaxshilanishni o’rganish maqsadida)
6. ChDNS ga nisbatan 70-70-60 % tartibda 25 % ga oshirilgan me’yorlar bilan sug’orish va qo’shimcha gektariga 5 kg SPERSAL kimyoyiy meliorantni qo’llash (o’rtacha darajada sho’rlangan tuproqlarning meliorativ holatini yaxshilanishini o’rganish maqsadida).

7. ChDNS ga nisbatan 70-70-60 % tartibda 50 % ga oshirilgan me'yorlar bilan sug'orish (oshirilgan sug'orish me'yorining sho'rlangan tuproqlarning meliorativ holatiga ta'sirini o'rganish maqsadida).

8. ChDNS ga nisbatan 70-70-60 % tartibda 50 % ga oshirilgan me'yorlar bilan sug'orish va qo'shimcha gektariga 5 kg SPERSAL kimyoyiy meliorantni qo'llash (oshirilgan sug'orish me'yorida meliorantning sho'rlangan tuproqlarning meliorativ holatiga ta'sirini o'rganish maqsadida).

Tadqiqot uchun kichik maydonchali (maydonchalar o'lchami 1440 m^2), nishabligi 0,002 va egatlar oralig'i 0,9 m bo'lgan tajriba dalasi tanlangan, u sizot suvlari sathi ekin maydoni sathidan 2,2-2,5 m pastda joylashgan ochiq zovur bilan tutashgan. Qaytariqlar soni 4 tani tashkil etgan. Tuproqning sug'orishdan oldingi namligi shu mintaqada qabul qilingan va ijobiy natijalarga erishilgan "Buxoro-6" navi uchun ChDNS ga nisbatan 70-70-60 % tizim qabul qilindi.

Tajriba variantlarida keltirilgan namlik ChDNS ga nisbatan 70-70-60 % tartibda iborasi g'o'zaning muayyan o'suv davrida bir marta sug'orish uchun zarur suv hajmini anglatadi. Biz dala tajribamizda g'o'zaning o'sish davrini chigitning unib chiqishi, chinbarg chiqarishi, gullash-shonalash va pishish davrlariga ajratganmiz. G'o'zaning ildiz tizimi gullash-shonalash davrigacha 0-70 sm tuproq qatlamigacha borishini nazarda tutgan holda, ChDNS (chegaraviy dala nam sig'imi) 21,6 % va tuproq hajmiy massasi 1,44 g/sm^3 ekanligini inobatga olib, shu qatlamni sug'orish uchun namlik ChDNS ga nisbatan 70-70-60 % tartibdani S.N.Rijovning formulasi yordamida (780 m^3/ga) hisobladik. Gullash-shonalash va pishish davrigacha bo'lgan sug'orishlarni hisoblashda 0-100 sm lik qatlam uchun ChDNS 21,6 %, tuproqning hajmiy massasi 1,44 g/sm^3 va namlik ChDNS ga nisbatan 70-70-60 % tartibda 1083 m^3/ga ga teng ekanligini aniqladik. Demak, tajribaning barcha variantlarida keltirilgan namlik ChDNS ga nisbatan 70-70-60 % tartibda gullash-shonalash davrigacha bo'lgan sug'orishlarda 780 m^3/ga, keyingi sug'orishlarda 1083 m^3/ga teng ekanligi belgilangan.

Dala, laboratoriya tadqiqotlari, g'o'zaning o'sishi va rivojlanishi bo'yicha kuzatuvlar Paxta selektsiyasi, urug'chiligi va etishtirish agrotexnologiyalari ilmiy-tadqiqot institutining "Dala tajribalarni o'tkazish uslublari" (O'zPITI, 2007 yil), "Методы агрохимических-агрофизических и микробиологических исследований в поливных хлопковых районах" uslubiy qo'llanmalari asosida bajarildi.

Olingan ma'lumotlarning aniqligi va ishonchliligi umum qabul qilingan B.A. Dospexovning "Методика полевого опыта" uslubi yordamida matematik-statistik tahlil qilindi.

G'o'zaning o'sishi, rivojlanishi bo'yicha fenologik kuzatuvlar va paxta hosildorligi hisobi Paxta selektsiyasi, urug'chiligi va etishtirish agrotexnologiyalari ilmiy–tadqiqot institutida qabul qilingan "Методы проведения опытов с хлопчатником" (Tashkent, 1983) qo'llanmasi asosida olib borilgan. Tuproqning morfologik belgilari va genetik gorizontlar bo'yicha tuproq kesmasi S.A.Zaxarov tasnifi bo'yicha tavsiflangan, tuproq mexanik tarkibi, hajmiy va solishtirma massasi N.A. Kachinskiyning tsilindr usulida aniqlangan. Tuproqdagi gumus miqdori I.V. Tyurin, azot va fosforning umumiy miqdorlari L.P. Gritsenko, I.M. Maltsevaning takomillashgan usullarida, nitratli azot miqdori Grandval-Lyaju, harakatchan fosfor miqdori B.P. Machigin, almashinuvchi kaliy miqdori P.V. Protasov usulida aniqlangan. Tuproq suv shimuvchanligi, eng kichik suv sig'imi, namlikning kapillyar ko'tarilish balandligi, tuproq, sug'orish suvi, drenaj va sizot suvlari tarkibidagi suvda erigan tuzlar miqdorini aniqlash, tuproqdagi namlik dinamikasini o'rganish, tajriba uchastkasiga berilayotgan sho'r yuvish va sug'orish uchun beriladigan suv hisobini yuritish, paxta hosildorligi asosida qo'llanilgan variantlarning iqtisodiy samaradorligi "Dala tajribalarini o'tkazish uslublari" (Toshkent, 2007) qo'llanmasi asosida aniqlangan.

Natijalar va muhokama

Shvetsariyaning Sibo-Novartis firmasi tomonidan sintezlangan SPERSAL kimyoviy meliorantini Qarshi cho'lining og'ir mexanik tarkibli o'rtacha sho'rlangan tuproqlarida qo'llash uchun uning Meksika, Ispaniya, Marokko, Pokiston, Hindiston, Isroil, Gretsiya va AQSh (Kaliforniya shtati) mamlakatlarda o'tkazilgan sinov natijalari o'rganilgan. Ushbu mamlakatlar mutaxassislarining sho'rlangan erlarda o'tkazilgan sinovi natijalari ma'lumotlariga ko'ra SPERSAL kimyoviy melioranti g'o'za va boshqa ekinlarning o'sishi va rivojlanishi uchun ijobiy ta'sir

ko'rsatishi isbotlangan.

Tuproqqa solingan kimyoviy meliorant SPERSALning me'yoriy miqdori Shveytsariyaning “Sibo-Novartis” firmasi tavsiyasiga binoan qabul qilindi. Ushbu me'yorni biz preparatning xarid narxi va paxta hosildorligi ko'rsatkichlarini taqqoslash asosida optimal me'yor sifatida qabul qildik. Preparatning dastlabki sinovi natijalari asosida aniqlanishicha uni tuproqqa 3 kg/ga miqdorda qo'llanilganda paxta hosili nisbatan kam, 7 kg/ga miqdorida ishlatilganda esa preparat harid narxining oshishi bilan bir qatorda 5 kg/ga preparat ishlatilganga nisbatan kamroq hosildorlik oshishi kuzatilgan.

SPERSAL kimyoviy meliorantining fizik-kimyoviy ta'siri mohiyati quyidagicha: SPERSAL kimyoviy melioranti tuproqqa sepilganda, tuproq singdirish kompleksida natriy kationining siqib chiqarilishi natijasida kaltsiy va magniy kationlari almashinuv reaktsiyasi yuz beradi.

O'simlik ildiz qatlami tuproqida hosil bo'lgan xlorli, natriy sulfid, natriy bikarbonat kabi tuzlar ekinni sug’orish uchun berilgan suv yordamida erib, pastki qatlamlarga tushadi.

SPERSAL kimyoviy melioranti sepilganda tuproqda almashinuv reaktsiyasi ro'y beradi. Sho'r yuvish oldidan sho'rlanish darajasi va turiga mos ravishda SPERSAL kimyoviy melioranti zarur miqdorini tuproqqa sepib, sho'r yuvilganda, berilayotgan suv va o'simlik ildiz qatlami joylashgan tuproqni sho'rsizlantirish uchun sarflanayotgan solishtirma xarajatlar miqdori kamayadi. Ya'ni, sho'r yuvish me'yorini kamayishi uchun ma'lum sharoit yaratiladi. Tuproq suv-fizik xossalarining o'zgarishi hisobiga suvning tuproqqa shimilish jadalligi ortadi, shuningdek sug’orish texnikasi elementlari ham o'zgaradi. SPERSAL kimyoviy meliorantini dastlabki qo'llash natijalaridan ma'lumki, kuchsiz va o'rtacha sho'rlangan tuproqlarda 1-5 l/ga me'yorda sepilishi tavsiya qilingan. Preparat ekologik jihatdan zararsiz, Shvetsariya sog’liqni saqlash vazirligining litsenziyasiga ega. Biroq, preparat dala sharoitida qo'llanilganda, traktorchi va bu ish bilan shug’ullangan boshqa ishchilar uning salbiy ta'siridan saqlanish uchun qo'l va yuzlarini suv yordamida yaxshilab yuvishlari tavsiya qilinadi.

Variantlardagi tajriba ma'lumotlar g’o'zaning o'sishi va rivojlanishi, shu bilan birga tuproq yuzasi soya bo'lish darajasi oshishi natijasida egat tubidan uning ustiga qarab tuzlar migratsiyasi jadalligi bir-biridan farqlanishini ko'rsatadi. Tajriba variantlaridagi tahlillari va ularni solishtirish natijasida amalda tuproq suv tanqisligiga nisbatan 25 va 50 % ko'p suv berilgan va sug’orishdan oldin SPERSAL preparati berilgan barcha variantlarda vegetatsiya oxiriga borib tuproqdagi tuzlar miqdori kamayganligi kuzatildi. Eng samarali deb 5, 6, 7, 8 variantlar topildi, ammo ular orasida sug’orishning sho'r yuvadigan rejim va SPERSAL preparati qo'llanilgan 7 va 8 variantlar alohida ajralib turdi.

Ma'lumotlaridan ko'rinadiki, vegetatsiya davri oxirida bahorgi davrga nisbatan nazorat variantida tuproq 100 sm qatlamidagi tuzlar miqdori qattiq qoldiq bo'yicha 1,3 marta, xlor-ioni bo'yicha 1,41 marta, natriy- 1,1 marta kamaygan. Taqqoslash davrida 7 va 8 variantlarda tuzlar umumiy miqdori 2,4-2,5 marta, xlor-ion - 2,3-2,6 marta, natriy va kaliy miqdori 0,83-1,81 kamayganligi kuzatildi.

Vegetatsiya davrida deyarli barcha variantlarda suvda eruvchi tuzlarning kamayganligi qayd etildi. 1 va 2 variantlardagi Na_2SO_4 miqdorining 1, 3 va 1, 8 marta oshganligi bundan mustasno. Ca $(HCO_3)_2$ va Na_2SO_4 miqdorlarida juda kam o'zgarish kuzatildi. 5, 6, 7 va 8 variantlar tuproqlarida CaSO4 miqdori tegishlicha 2,3; 3,6; 3,7 va 3,9 marta kamaydi; $MgSO_4$–2, 3; 4,4 va 4 marta, NaCl - 2,2; 2,3; 2,3 va 2,6 marta kamaydi.

O'rtacha paxta hosili 1-variantda 26,6 ts/ga; 2 -variantda 38,4 ts/ga; 3 da - 39,7 ts/ga; 4 variantda - 32,7 ts/ga; 5 da - 41,3 ts/ga; 6 da - 43,5 ts/ga; 7 da- 41,2 ts/ga; 8 da- 44,9 ts/ga. Nazorat variantiga nisbatan paxta hosilidagi farq tegishlicha variantlar bo'yicha 2-8; 3-10; 4-3,1; 5-11,7; 6-13,9; 7-11,6; 8-15,3 ts/ga ni tashkil etdi.

Xulosalar

O'tkazilgan tajribalar natijalari tahlilini taqqoslash orqali qyidagi xulosalarga kelish mumkin:

1. Taqirsimon tuproqlar sharoitida maqbul suv-tuz tartibini qo'zani egatlab suqorishda «sho'r yuvish» tartibini hosil qilish va 5 kg/ga me'yorda SPERSAL kimyoviy melioranti qo'llash orqali rostlash mumkin.

2. Eng maqbul sug’orish texnikasi va gektariga 5 kg me'yorda SPERSAL kimyoviy

melioranti qo'llab va suvni 50% oshiq me'yor bilan sug'orilgan variantlar bo'ldi. Bu variantlarda ChDNS ga nisbatan sug'orish oldi namligi 70-70-60 % da va 4 marta sug'orilganda mavsumiy sug'orish me'yori nazorat variantiga nisbatan 590-880 m^3/ga kam sarflanishi aniqlandi.

3. Manbaining suv resurslari bilan ta'minlanishini hisobga olgan holda sug'orish me'yorini 25 % va 50 % oshirish yoki kamaytirish, sug'orishlar sonini boshqarish orqali mavsum davomida 5220-7190 m^3/ga suv berib, g'o'zadan 43,5-45,1 ts/ga hosil olindi.

4. Tuproqqa 5 kg/ga me'yorda qo'llangan SPERSAL kimyoviy melioranti umuman olganda tuproq suv tartibi hosil bo'lishi va yo'nalishiga sezilarli ta'sir etmaydi. Shu bilan birga sug'orish me'yori 25-50% oshiqcha berilganda ham birlik hosil uchun sarflangan sug'orish suvi 1,50-1,64 baravargacha kamaydi. Shu sababli taqirsimon tuproqlarda suv resurslari ChDNS ga nisbatan 70-70-60 % tartib sharoitida tuproq yuzasini plyonka bilan mulchalash orqali suvdan foydalanish samaradorligini oshirish imkoniyati yaratildi.

5. G'o'zaning bo'yi, hosil elementlari shakllanishi bo'yicha eng past nazorat (tuproq namligi ChDNS ga nisbatan 70-70-60 % tartib bo'yicha sug'orilgan) variantda kuzatildi. Eng yuqori ko'rsatkich sug'orish me'yorini 25-50% oshiq me'yor bilan sug'orib, 5 kg/ga miqdorda SPERSAL qo'llanilgan variantlarda kuzatilib, paxta hosili 43,5-45 ts/ga tashkil etganligi va bu nazorat variantiga nisbatan 13-15 ts/ga yuqori hosil olinganligi aniqlandi.

6. Qarshi cho'lining og'ir mexanik, tarkibli o'tloqlashib borayotgan taqirsimon o'rtacha sho'rlangan tuproqlarida g'o'zadan mo'l va barqaror hosil olish uchun tuproqqa 5 kg/ga miqdorida SPERSAL preparatini qo'llash, sug'orish oldi namligi ChDNS ga nisbatan 70-70-60 % da 25-50 foizga oshirilgan me'yorlarda sug'orish tavsiya etiladi.

Yuqorida qayd etilganlardan shunday xulosa qilish mumkinki, tuproqqa SPERSAL kimyoviy meliorantini va g'o'zani oshirilgan me'yorlar bilan sug'orish natijasida meliorativ holati yaxshi bo'lmagan yerlar tuproqlari ildiz qatlamida tuz rejimini barqarorlashtirishni maqsadli boshqarish imkoniyati yaratiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. https://uzsuv.uz/ru/posts/844
2. Doniyorov T.O. Egatlab sug'orishning tuproq suv-tuz tartiboti o'zgarishiga ta'siri. // Innovatsion texnologiyalar 3(35)-son. 2019 y. -56-59 b.
3. Avlakulov M., Doniyorov T.O. G'o'zani egatlab sug'orishda egat gidravlik elementlari orasidagi bog'liqlikni o'rnatish. //Innovatsion texnologiyalar Ilmiy texnik jurnali 2021. Maxsus son. Qarshi 2021 y. 31-35 b.
4. T.O.Doniyorov, M.Avkakulov. Tuproq meliorativ holatini yaxshlashda suv tejamkor texnologiyalarning ahamiyati. Innovatsion texnologiyalar ilmiy-texnik jurnali 2022\1(45)-son. 77-81 betlar.
5. Авлакулов М., Дониёров Т.О. Решение задачи о течении фильтрационного потока в гетерогенной среде при бороздковом поливе хлопчатника. "Актуальные проблемы современной науки" Москва. № 2(111) 2020 г., С.100-104.
6. Urishev B., Kuvvatov, D.; Doniyorov, T.; Kuvatov, U.; Umirov, A. **Hydraulic storage of solar energy for supplying pumping units with drip irrigation of plants. Publication:** AIP Conference Proceedings, Volume 2612, Issue 1, id.020016,7pp. **Pub Date:** March 2023. **DOI:** 10.1063/5.0113641. 2023AIPC.2612b0016U. https://www.scopus.com/inward/record.uri?eid=2-s2.0 85151355235&doi=10.1063%2f5.0113641&partnerID=40&md5=328a8cc.
7. Doniyorov T.O. Qashqadaryoning sho'rlangan tuproqlari meliorativ holatini yaxshilashda spersal kimyoviy meliorantini qo'llash natijalari. Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. 3(1), Jan., 2023. 269-276 betlar.
8. Дониёров Т.О., Авлакулов М., Tursunov G'.J. Tuproq meliorativ holatini yaxshilashda suv tejamkor texnologiyalarning ahamiyati. "Innovatsion texnologiyalar" ilmiy texnik jurnali. Qarshi. 2022 yil. 1 (45) - son, 31-35 b.
9. Дониёров Т.О. O'rtacha sho'rlangan og'ir qumoq tuproqlarning meliorativ holatini yaxshilash va paxtadan mo'l hosil olish texnologiyasi. Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences 3(12), Dec., 2023 y. 292-299 b.
10. Дониёров Т.О. O'zbekistonda sug'orish nasos stansiyalari energiya iste'moli. Oriental

Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences 4 (5), May, 2024 y. 387-393 b.

11. Urishev B.; Artikbekova F.; Kuvvatov D.; NosirovF.; Kuvatov U. Trajectory of sediment deposition at the bottom of water intake structures of pumping stations. Publication: IOP Conference Series: Materials Science and Engineering, Volume 1030, Issue 1, pp. 012137 (2021). Pub Date: January 2021. DOI: 12. 1088/1757-899X/1030/1/012137. Bibcode: 2021MS&E.1030a2137U. https://www.scopus.com/inward/record.uri?eid=2-s2.0-85101514268&doi=10.1088%2f1757-899X%2f1030%2f1%2f012137&par.

12. Urishev B.; Kuvatov U.; Umirov A. Determination of main energy parameters and efficiency of local energy system based on renewable energy sources. Publication: IOP Conference Series: Earth and Environmental Science, Volume 1070, Issue 1, id.012043,7pp. Pub Date: July 2022. DOI: 10.1088/1755-14.15/1070/1/012043. Bibcode: 2022E&ES.1070a2043U. https://www.scopus.com/inward/record.uri?eid=2-s2.0-85136794294&doi=10.1088%2f1755-1315%2f1070%2f1%2f012043&par.

13. Doniyorov T.O. Results of Using Spersal Chemical Meliorant to Improve the Reclamation State of Saline Soils in The Kashkadarya Region. /AIJANS Vol. 5. No. 2 2024. Andalasian International Journal of Agricultural and Natural Sciences (AIJANS). Available in: https://aijans.lppm.unand.ac.id/index.php/aijans.

IQLIM ISISHI TA’SIRIDA XORAZM VILOYATIDA SUG’ORILADIGAN YERLARNING SHO’RLANISHI VA MONITORING USULLARI

Bozorboyeva Muhsina Quvondiq qizi
UrDPI

Annotatsiya: Mazkur maqolada global iqlim isishi sharoitida Xorazm viloyatida sug‘oriladigan yerlarning sho‘rlanish jarayonlari, ularning tabiiy-iqlimiy hamda antropogen omillari ilmiy tahlil qilinadi. Sho‘rlanish dinamikasining hududiy xususiyatlari ochib berilib, zamonaviy monitoring usullari — dala kuzatuvlari, masofadan zondlash va GIS texnologiyalarining amaliy ahamiyati yoritiladi. Tadqiqot natijalari iqlim o‘zgarishi sharoitida barqaror yer resurslari boshqaruvi zarurligini asoslaydi.

Kalit so‘zlar: iqlim o‘zgarishi, sho‘rlanish, sug‘oriladigan yerlar, melioratsiya, monitoring, yer osti suvlari, GIS

Kirish. Global iqlim o‘zgarishi zamonaviy ekologik jarayonlarning asosiy omillaridan biri sifatida qurg‘oqchil mintaqalarda yer degradatsiyasini kuchaytirmoqda. Markaziy Osiyo hududida haroratning barqaror ko‘tarilishi, yog‘in miqdorining notekis taqsimlanishi va suv resurslarining qisqarishi sug‘orma dehqonchilikka jiddiy ta’sir ko‘rsatmoqda. O‘zbekistonning shimoli-g‘arbiy qismida joylashgan Xorazm viloyati qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishi asosan sug‘oriladigan yer maydonlariga tayangan holda rivojlanadi. Hududning asosiy suv manbai Amudaryo bo‘lib, daryo oqimining kamayishi va suv sifatining yomonlashuvi sho‘rlanish jarayoniga bevosita ta’sir etmoqda. Iqlim isishi natijasida bug‘lanish jarayonlari jadallashib, tuproq namligi tez yo‘qoladi hamda eruvchan tuzlarning yuqori qatlamda to‘planishi kuzatiladi. Bu holat meliorativ ahvolning yomonlashuviga va hosildorlikning pasayishiga olib keladi.

Global iqlim isishi bugungi kunda jahon hamjamiyatini tashvishga solayotgan eng jiddiy muammolardan biri bo‘lib, uning shikastlanishi, ayniqsa, qurg‘oqchil vaziyatlarda yaxshi namoyon bo‘lmoqda. Markaziy Osiyo mintaqasi, hududi, Amudaryoning quyilishida Xorazm viloyati o‘zining geografik joylashuvi va murakkab gidrologik sharoiti tufayli iqlim o‘zgarishlariga ta‘sir qiladi. Oxirgi o‘n yilliklarda kuzatilayotgan havo haroratining ko‘tarilishi va yog‘ingarchilik miqdorining kamayishi hududdagi ekologik muvozanatga qishloq xo‘jaligi yer degradatsiyasiga, tuproq, tuproq sho‘rlanishining keskin ortishiga olib kelmoqda. Xorazm viloyati tuproqlari asosan allyuvial yotqiziqlardan tashkil topgan bo‘lib, yer osti suv yuqori sathda darajasi va sifat mineralizatsiya darajasi yuqoriligi tabiiy ravishdagi sho‘rlanish jarayonini rag‘batlantiradi. Havo haroratining har bir darajaga ko‘tarilishi tuproq namligining jadal yo‘qolishiga va tuzlarning ildiz tizimi qatlamda to‘planishiga sharoit yaratadi. Bu esa o‘z kuchlarining qishloq xo‘jaligi ekinlari, kichik, g‘o‘za, bug‘doy va sholi kabi asosiy ekinlarning o‘sishi va rivojlanishiga ta‘sir ko‘rsatadi.

Xorazm viloyatining sug‘orish tizimlari asosan ochiq kanallar va ariqlardan iborat bo‘lganligi sababli, suvning filtratsiyalari yuqori bo'lib, bu yer osti suvlari sathining ko'tarilishiga va ikkilamchi sho‘rlanishga zamin yaratadi. Zamonaviy sharoitda sho‘rlangan yerlarni monitoring qilish va tekshirish holatini boshqarish usullari tubdan o‘zgarmoqda. . Bugungi kunda ishlab chiqarish jarayonini optimallashtirish masofadan zondlash texnologiyalari va Geografik axborot tizimlari (GIS) keng joriy etilmoqda. Sun‘iy yo‘ldoshlardan olingan multispektral ma‘lumotlar orqali manbalar aksdagi tuzlarning spektral hosil qilish natijasida yuzaga keladigan tahlillar paydo bo'ldi. Masalan, Land Sentinel kabi kosmik apparatlar taqdim etayotgan tasvirlar yordamida materiallarning sho‘rlanish indekslari hisoblab chiqiladi. NDVI indeksi orqali o‘simlik qoplamining holatini o‘rganish, bilvosita tuproq unumdorligi va sho‘rlanish darajasi haqida ishlab chiqarishga yordam beradi.Monitoring jarayonida elektromagnit induktsiya usullari ham alohida o‘rin tutadi.

Xorazm viloyati keskin kontinental va qurg‘oqchil iqlim sharoitida joylashgan bo‘lib, yillik yog‘in miqdori juda kam, bug‘lanish ko‘rsatkichi esa yuqori. Yoz oylarida haroratning keskin ko‘tarilishi tuproq yuzasida intensiv fizik bug‘lanishni kuchaytiradi. Natijada yer osti suvlari kapillyar ko‘tarilish orqali yuqoriga chiqib, tarkibidagi mineral tuzlar tuproqning haydalma qatlamida to‘planadi. Hududda yer osti suvlari sathi ko‘plab maydonlarda 2 metrga yaqin joylashgan bo‘lib, bu sho‘rlanish xavfini oshiradi. Sug‘orish suvlari tarkibidagi minerallashuv darajasi ham muhim omil hisoblanadi. Suv tanqisligi sharoitida yerni yuvish tadbirlarining to‘liq amalga oshirilmasligi tuzlarning akkumulyatsiyasiga olib keladi. So‘nggi yillarda iqlim isishi fonida yozgi haroratning o‘rtacha ko‘rsatkichlari ortgani kuzatilmoqda. Haroratning oshishi nafaqat bug‘lanishni kuchaytiradi, balki o‘simliklarning transpiratsiya jarayonini ham jadallashtiradi. Bu esa tuproq namligining kamayishiga va sho‘rlanish jarayonining tezlashishiga sabab bo‘ladi.

Tuproq sho‘rlanishi agroekotizimlarning barqarorligini izdan chiqaradi. Tuzlarning ortiqcha to‘planishi tuproqning fizik xususiyatlarini yomonlashtiradi, strukturasini buzadi va suv o‘tkazuvchanligini kamaytiradi. Natijada o‘simlik ildiz tizimining rivojlanishi susayadi, oziqlanish jarayoni buziladi va hosildorlik pasayadi. Xorazm viloyatida paxta va g‘alla yetishtirish asosiy yo‘nalish hisoblanadi. Sho‘rlanish darajasining ortishi ushbu ekinlarning hosildorligini sezilarli kamaytiradi va iqtisodiy zarar keltiradi. Bundan tashqari, tuproq degradatsiyasi uzoq muddatli istiqbolda yer resurslarining yaroqsizlanishiga olib kelishi mumkin.

Sho‘rlanish jarayonlarini samarali boshqarish uchun muntazam monitoring zarur. An’anaviy dala usullarida tuproq namunalari olinib, laboratoriya sharoitida elektr o‘tkazuvchanlik va pH ko‘rsatkichlari aniqlanadi. Yer osti suvlari sathi va minerallashuv darajasi kuzatib boriladi. Ushbu usullar aniqligi yuqori bo‘lsa-da, katta hududlarda qo‘llash uchun ko‘p resurs talab etadi. Zamonaviy yondashuv sifatida masofadan zondlash texnologiyalari keng qo‘llanilmoqda. Sun’iy yo‘ldosh tasvirlari asosida vegetatsiya indekslari va sho‘rlanish ko‘rsatkichlari aniqlanadi, hududiy taqsimot xaritalari tuziladi. Bu usul vaqt va makon bo‘yicha dinamik kuzatuv olib borish imkonini beradi. Geografik axborot tizimlari orqali iqlim ko‘rsatkichlari, gidrogeologik ma’lumotlar va tuproq xususiyatlari integratsiya qilinib, sho‘rlanish xavfi zonalari aniqlanadi. Raqamli modellashtirish kelajakdagi o‘zgarishlarni prognoz qilishda muhim vosita hisoblanadi.

Xulosa. Iqlim isishi Xorazm viloyatida sug‘oriladigan yerlarning meliorativ holatiga sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. Haroratning oshishi, suv resurslarining cheklanishi va yer osti suvlari sathining yuqoriligi sho‘rlanish jarayonini jadallashtiruvchi asosiy omillar hisoblanadi. Zamonaviy monitoring texnologiyalarini joriy etish, suv tejovchi usullarni qo‘llash va ilmiy asoslangan meliorativ tadbirlarni amalga oshirish hududda barqaror qishloq xo‘jaligini ta’minlashning muhim shartidir.Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, global iqlim isishi sharoitida Xorazm viloyati hududida sug‘oriladigan yerlarning sho‘rlanish jarayoni tabiiy va antropogen omillar o‘zaro ta’siri natijasida yanada jadallashmoqda. Haroratning barqaror oshishi, bug‘lanish intensivligining ortishi va suv resurslari taqchilligi tuproq namligi balansining buzilishiga olib kelmoqda. Ayniqsa, hududning asosiy suv manbai bo‘lgan Amudaryo oqimining kamayishi sug‘orish rejimiga salbiy ta’sir ko‘rsatib, yuvish jarayonlarining yetarli darajada amalga oshmasligiga sabab bo‘lmoqda.Yer osti suvlari sathining yuqoriligi va ularning minerallashuv darajasi sho‘rlanishning asosiy gidrogeologik omillaridan biri ekanligi aniqlandi. Iqlim isishi fonida kapillyar ko‘tarilish

jarayonining kuchayishi natijasida eruvchan tuzlar tuproqning haydalma qatlamida to‘planib, agroekotizim barqarorligiga tahdid solmoqda. Bu jarayon uzoq muddatli istiqbolda tuproq unumdorligining pasayishi, ekinlar hosildorligining kamayishi hamda iqtisodiy yo‘qotishlarning ortishiga olib kelishi mumkin. Tadqiqot shuni ko‘rsatadiki, sho‘rlanishni samarali boshqarish faqat an’anaviy meliorativ tadbirlar bilan cheklanib qolmasligi kerak. Zamonaviy monitoring tizimlari, xususan, masofadan zondlash va geografik axborot tizimlari asosida yaratilgan raqamli xaritalar sho‘rlanishning hududiy dinamikasini aniqlash va xavf zonalarini belgilashda yuqori samaradorlikka ega. Kompleks monitoring yondashuvi iqlim ko‘rsatkichlari, gidrogeologik ma’lumotlar va tuproq parametrlarini integratsiyalash orqali prognoz modellarini ishlab chiqish imkonini beradi.

Iqlim o‘zgarishi sharoitida barqaror yer resurslari boshqaruvini ta’minlash uchun suv tejovchi sug‘orish texnologiyalarini keng joriy etish, kollektor-drenaj tizimlarini modernizatsiya qilish, sho‘rga chidamli navlarni tanlash va agrotexnik tadbirlarni ilmiy asosda tashkil etish zarur. Shu bilan birga, mintaqaviy iqlim prognozlari asosida moslashuv strategiyalarini ishlab chiqish dolzarb vazifa hisoblanadi. Umuman olganda, Xorazm viloyatida sug‘oriladigan yerlarning sho‘rlanish jarayoni iqlim isishi sharoitida yanada murakkablashayotgan ko‘p omilli ekologik muammo sifatida namoyon bo‘lmoqda. Uni bartaraf etish tizimli, ilmiy asoslangan va innovatsion yondashuvni talab etadi. Mazkur tadqiqot natijalari hududda barqaror qishloq xo‘jaligini rivojlantirish hamda yer resurslaridan oqilona foydalanish strategiyasini takomillashtirishda muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Intergovernmental Panel on Climate Change. Climate Change 2021: The Physical Science Basis. – Cambridge: Cambridge University Press, 2021.
2. Food and Agriculture Organization. Global Map of Salt-Affected Soils. – Rome: FAO, 2021.
3. Food and Agriculture Organization. Irrigation and Drainage Paper 29: Drainage Design Factors. – Rome: FAO, 1980.
4. World Bank. Uzbekistan: Climate-Smart Agriculture Profile. – Washington DC, 2022.
5. United Nations Environment Programme. Global Environment Outlook (GEO-6). – Nairobi, 2019.
6. International Water Management Institute. Water and Salinity Management in Central Asia. – Colombo, 2020.
7. O‘zbekiston Respublikasi Gidrometeorologiya xizmati markazi. O‘zbekiston iqlimi o‘zgarishi bo‘yicha milliy hisobot. – Toshkent, 2022.
8. O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi. Sug‘oriladigan yerlarning meliorativ holati to‘g‘risida yillik hisobot. – Toshkent, 2023.
9. Birlashgan Millatlar Tashkiloti Taraqqiyot Dasturi. Uzbekistan Climate Change Adaptation Strategy Report. – Tashkent, 2021.
10. Rengasamy, P. Soil Salinity and Sodicity. – Oxford: Oxford University Press, 2010.
11. Qodirov, A., Yusupov, Sh. Sug‘oriladigan yerlar melioratsiyasi. – Toshkent: Fan, 2015.
12. Abdullaev, I., et al. Water Management in the Aral Sea Basin. – Berlin: Springer, 2019.

UDK: 004.056:629.331

SMART SUV SENSOR TARMOQLARIDA AUTENTIFIKATSIYA VA AVTORIZATSIYA MEXANIZMLARI

O.A. Asrorov, I.I.Ismoilov
Iqtisodiyot va pedagogika universiteti

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Smart suv transport vositalarida qo‘llaniladigan sensor tarmoqlarining axborot xavfsizligini ta’minlash masalalari ko‘rib chiqiladi. Xususan, sensor tarmoqlarda autentifikatsiya va avtorizatsiya mexanizmlarining ahamiyati, ularning ishlash prinsiplari hamda mavjud xavfsizlik muammolari tahlil qilinadi. Maqolada simmetrik va asimmetrik kriptografiyaga asoslangan autentifikatsiya usullari, rolga va atributlarga asoslangan*

avtorizatsiya modellari batafsil yoritilgan. Shuningdek, resurslari cheklangan sensor tugunlari uchun yengil (lightweight) xavfsizlik mexanizmlaridan foydalanish masalalari muhokama qilinadi. Zamonaviy texnologiyalar, jumladan blockchain va sun'iy intellekt asosidagi yondashuvlarning Smart suv sensor tarmoqlarida qo'llanish imkoniyatlari ko'rsatib o'tiladi. Tadqiqot natijalari aqlli transport tizimlarida ishonchli va samarali axborot xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan.

Kalit so'zlar: Smart suv , sensor tarmoqlari, IoT, autentifikatsiya, avtorizatsiya, axborot xavfsizligi, simmetrik va asimmetrik kriptografiya, yengil (lightweight) xavfsizlik mexanizmlari, V2X kommunikatsiya, access control, blockchain texnologiyasi, aqlli transport tizimlari.

Kirish. So'nggi yillarda aqlli transport tizimlari (Intelligent Transportation Systems – ITS) jadal rivojlanib, transport xavfsizligi, harakat samaradorligi va ekologik barqarorlikni ta'minlashda muhim o'rin egallamoqda. Ushbu jarayonda Smart suv transport vositalari zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, IoT qurilmalari hamda turli xil sensor tarmoqlari bilan integratsiyalashgan holda ishlamoqda. Sensor tarmoqlari orqali avtomobilning texnik holati, yo'l sharoiti va atrof-muhit haqidagi ma'lumotlar real vaqt rejimida yig'iladi va qayta ishlanadi. Biroq Smart suv lar tarkibida qo'llaniladigan sensor tarmoqlari ochiq va taqsimlangan muhitda faoliyat yuritgani sababli axborot xavfsizligi bilan bog'liq jiddiy muammolar yuzaga keladi.

Smart transport tizimlari va ularning tarkibiy qismi bo'lgan aqlli avtomobillar xavfsizligini ta'minlash masalalari so'nggi yillarda ko'plab tadqiqotchilar e'tiborini tortmoqda. Xususan, Smart suv transport vositalarida qo'llaniladigan sensor tarmoqlarida axborot xavfsizligini ta'minlash, autentifikatsiya va avtorizatsiya mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha bir qator ilmiy ishlar olib borilgan. Ilmiy adabiyotlarda sensor tarmoqlari uchun autentifikatsiya mexanizmlari asosan kriptografik yondashuvlarga asoslangan holda taklif etilgan. Ayrim tadqiqotlarda simmetrik kalitli algoritmlar yordamida tezkor va kam resurs talab qiluvchi autentifikatsiya protokollari ishlab chiqilgan.

Material va metodologiya. Ushbu tadqiqotda Smart suv transport vositalarida qo'llaniladigan sensor tarmoqlarida autentifikatsiya va avtorizatsiya mexanizmlarini tahlil qilish hamda samarali xavfsizlik yechimlarini ishlab chiqish uchun kompleks metodologik yondashuv qo'llanildi. Tadqiqot jarayonida nazariy tahlil, taqqoslash, modellashtirish va tizimli yondashuv usullaridan foydalanildi. Tadqiqotning birinchi bosqichida Smart suv sensor tarmoqlarining arxitekturasi va ularning ishlash prinsiplari o'rganildi. Ushbu bosqichda avtomobil, sensor tugunlari, yo'l infratuzilmasi va bulut serverlari o'rtasidagi V2X kommunikatsiya modeli tahlil qilinib, ma'lumotlar almashinuvida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xavfsizlik nuqtalari aniqlandi. Modul sensor qurilmalarining haqiqiyligini autentifikatsiya orqali tekshiradi va avtorizatsiya mexanizmi yordamida ularning tizim resurslariga kirish huquqlarini boshqaradi. Natijada ruxsatsiz kirish, soxta qurilmalar va ma'lumotlarni o'zgartirish kabi xavfsizlik tahdidlarining oldi olinadi.

Smart suv sensor tarmoqlarida autentifikatsiya va avtorizatsiya xavfsizlik moduli (1-rasm).



1-rasm. Modelning tuzilishi

Qurilmalarning tizim resurslariga kirish huquqlarini boshqaradi (RBAC, ABAC).

Natijalar va ularning tahlili

1. Asosiy komponentlar:

- Sensor qurilmalar (Lidar, GPS, kamera, radar) Atrof-muhit va transport holati haqidagi ma’lumotlarni yig‘adi va uzatadi.
- Xavfsizlik moduli

Autentifikatsiya va kriptografik mexanizmlar orqali sensorlarning haqiqiyligini tekshiradi.

- Avtorizatsiya mexanizmi
- Markaziy boshqaruv bloki (ECU) Sensorlardan kelgan ma’lumotlarni qayta ishlaydi va qarorlar qabul qiladi.
- Aloqa tarmog‘i

Sensorlar, ECU va serverlar o‘rtasida xavfsiz ma’lumot almashinuvini ta’minlaydi.

- Bulutli server (Cloud platforma) Ma’lumotlarni saqlash, tahlil qilish va monitoringni amalga oshiradi.

1-jadval. Smart suv sensor tarmoqlarida autentifikatsiya va avtorizatsiya jarayonining bosqichlari

Bosqich	**Jarayon nomi**	**Tavsifi**
1-bosqich	Ma’lumot yig‘ish	Sensor qurilmalar (Lidar, GPS, kamera va boshqalar) atrof-muhit va transport holati haqidagi ma’lumotlarni yig‘adi.
2-bosqich	Autentifikatsiya	Sensor qurilmaning haqiqiyligi sertifikatlar va kriptografik kalitlar yordamida tekshiriladi.
3-bosqich	Xavfsizlikni tekshirish	Ma’lumotlar shifrlanadi va yaxlitligi nazorat qilinadi.
4-bosqich	Avtorizatsiya	Autentifikatsiyadan o‘tgan qurilmaga ruxsat etilgan resurslar belgilanadi.
5-bosqich	Ma’lumotlarni qayta ishlash	Markaziy boshqaruv bloki (ECU) ma’lumotlarni tahlil qiladi va qaror qabul qiladi.
6-bosqich	Bulutga uzatish	Ma’lumotlar xavfsiz aloqa orqali bulutli serverga yuboriladi.
7-bosqich	Monitoring va nazorat	Tizim holati doimiy kuzatilib, xavfsizlik hodisalari aniqlanadi.

Modelning matematik ifodasi (formula):

1. Autentifikatsiya funksiyasi

Sensor qurilmaning haqiqiyligini aniqlovchi funksiya:

$$A(S_i) = \begin{cases} 1, & \text{agar } C_i = C_{\text{haqiqiy}} \\ 0, & \text{aks holda} \end{cases}$$

Bu yerda:

- S_i— i-chi sensor qurilma
- C_i — sensorning taqdim etgan raqamli sertifikati yoki kriptografik kaliti
- $C_{haqiqiy}$— tizim bazasida saqlanayotgan haqiqiy (etalon) sertifikat
- $A(Si) \in \{0,1\}$ — autentifikatsiya natijasi
  - 1 — ruxsat beriladi
  - 0 — rad etiladi

Izoh (kengaytirilgan talqin)

Autentifikatsiya funksiyasi binar qaror funksiyasi bo‘lib, u quyidagicha ham yozilishi mumkin:

$$A:S \rightarrow \{0,1\}$$

ya’ni autentifikatsiya funksiyasi sensorlar to‘plamidan ikkilik qiymatlar to‘plamiga o‘tishni ifodalaydi.

2. Avtorizatsiya funksiyasi

Autentifikatsiyadan muvaffaqiyatli o‘tgan sensorning tizim resurslariga kirish huquqi quyidagi funksiya orqali aniqlanadi:

$$R(S_i) = f(Role_i, Attr_i)$$

yoki to‘liqroq matematik shaklda:

$$R : (Role_i, Attr_i) \rightarrow \mathrm{P}(Op)$$

Bu yerda:

- $Role_i$— sensorning tizimdagi roli
- $Attr_i$— sensorning atributlari (joylashuv, xavfsizlik darajasi, ishonch koeffitsienti va boshqalar)
- Op — mumkin bo‘lgan amallar to‘plami (o‘qish, yozish, boshqarish va h.k.)
- P(Op)— amallar to‘plamining quyi to‘plamlari (ruxsat etilgan amallar)
- $R(S_i)$— i-chi sensor uchun ruxsat etilgan operatsiyalar to‘plami

3. Mantiqiy bog‘liqlik (to‘liq model)

Avtorizatsiya faqat autentifikatsiyadan so‘ng bajariladi, shuning uchun umumiy model quyidagicha yozilishi mumkin:

$$Access(S_i) = \begin{cases} R(S_i), & \text{agar } A(S_i) = 1 \\ \varnothing, & \text{agar } A(S_i) = 0 \end{cases}$$

Bu yerda Ø— bo‘sh to‘plam (hech qanday ruxsat yo‘q).

Xulosa. Ushbu maqolada Smart suv sensor tarmoqlarida autentifikatsiya va avtorizatsiya mexanizmlarining ahamiyati tahlil qilindi. Sensor qurilmalar orqali uzatiladigan ma’lumotlarning ishonchliligi va xavfsizligini ta’minlash zamonaviy aqlli transport vositalari uchun muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Taklif etilgan model sensorlarning haqiqiyligini tekshirish, ularning tizim resurslariga kirish huquqlarini boshqarish hamda ruxsatsiz qurilmalar tomonidan ma’lumot uzatilishining oldini olishga xizmat qiladi. Natijada Smart suv tizimlarining barqarorligi, xavfsizligi va samaradorligi oshadi. Ushbu yondashuv kelajakda aqlli transport tizimlarini rivojlantirishda va ularning kiberxavfsizligini mustahkamlashda amaliy ahamiyatga ega bo‘lishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Alaba, F. A., Othman, M., Hashem, I. A. T., & Alotaibi, F. (2017). Internet of Things security: A survey. Journal of Network and Computer Applications, 88, 10–28.

2. ISO/SAE. (2021). Road vehicles — Cybersecurity engineering (ISO/SAE Standard No. 21434:2021). International Organization for Standardization.

3. Kumar, P., & Braeken, A. (2018). A lightweight and secure authentication protocol for IoT-based systems. Wireless Personal Communications, 101(4), 2287–2308.

4. Mahmood, K., & Khan, M. A. (2020). Lightweight authentication schemes for IoT-based smart vehicles. IEEE Access, 8, 211086–211102.

5. Sicari, S., Rizzardi, A., Grieco, L. A., & Coen-Porisini, A. (2015). Security, privacy and trust in Internet of Things: The road ahead. Computer Networks, 76, 146–164.

6. Stallings, W. (2021). Cryptography and network security: Principles and practice (8th ed.). Pearson.

UDK 556:004.9:551.583

IQLIM O‘ZGARISHI SHAROITIDA SUV RESURSLARINI BOSHQARISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH MUAMMOLARI VA YECHIMLARI

M.Sh.Nabijonov, Sh.N.Axunova
FDTU

Annotatsiya. Har bir insonning sog‘lom ekologik muhitda yashashi ko‘p jihatdan suv resurslarining holati va ulardan oqilona foydalanishga bog‘liq. Hozirgi kunda dunyo miqyosida suv tanqisligi va suv resurslarining kamayishi muammosi tobora dolzarb tus olib bormoqda. Ushbu muammoning salbiy oqibatlarini kamaytirish hamda suvdan samarali foydalanishni ta’minlash maqsadida zamonaviy raqamli texnologiyalar keng joriy etilmoqda. Mazkur maqolada suv resurslarini boshqarish jarayonida IoT (Internet of Things) hamda sun’iy intellekt texnologiyalarining imkoniyatlari, ularning samaradorligi va amaliy ahamiyati tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: suv iste 'moli, raqamli transformatsiya, innovatsion texnologiyalar, sun'iy intellekt, IoT, aqlli sug'orish tizimi, suv resurslarini boshqarish

Kirish. Suv resurslari bugungi kunda iqtisodiyotning barcha sohalari faoliyati uchun muhim

strategik omillardan biri hisoblanadi. Aholi sonining ortib borishi, sanoat ishlab chiqarishining kengayishi hamda iqlim o‘zgarishlari natijasida suvga bo‘lgan ehtiyoj tobora oshib bormoqda. Shu sababli suv resurslaridan oqilona va samarali foydalanish har bir davlatning ekologik barqarorligi, iqtisodiy rivojlanishi hamda milliy xavfsizligini ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasida ham suv xo‘jaligi tizimini modernizatsiya qilish va boshqaruv jarayonlarini takomillashtirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 10-iyuldagi “Suv resurslarini boshqarishda raqamli texnologiyalarni keng joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4760-son qarori ushbu sohada raqamli transformatsiyani amalga oshirish uchun muhim huquqiy asos bo‘lib xizmat qiladi. Mazkur qaror suv resurslarini monitoring qilish, tahlil etish va samarali boshqarish jarayonlariga zamonaviy axborot texnologiyalari hamda innovatsion yechimlarni keng joriy etishni nazarda tutadi. Natijada suvdan foydalanish samaradorligini oshirish, resurslarni tejash va ularni barqaror boshqarish imkoniyatlari kengayadi.

Material va metodlar. So‘nggi yillarda suv resurslarini boshqarishda innovatsion va raqamli yondashuvlarni qo‘llash masalasi jahon miqyosida muhim ilmiy tadqiqot yo‘nalishlaridan biriga aylangan. Iqlim o‘zgarishlari, aholi sonining ortib borishi hamda iqtisodiyotning turli tarmoqlarida suvga bo‘lgan ehtiyojning oshishi suv iste’molini samarali boshqarish zaruratini kuchaytirmoqda. Shu sababli suv resurslaridan oqilona foydalanishni ta’minlash, ularni monitoring qilish va boshqarish jarayonlarini takomillashtirish uchun yangi nazariy yondashuvlar hamda zamonaviy texnologik yechimlarni ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etmoqda[1].

Kelajakda suvga bo‘lgan talabni qondirish uchun suv resurslarini samarali boshqarish, kommunal xizmatlar tizimini raqamlashtirish hamda suv yo‘qotishlarini kamaytirish ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi [2]. Shu sababli suvdan foydalanish jarayonlarini takomillashtirish, nazorat qilish va monitoring qilishda zamonaviy texnologiyalarni keng joriy etish zarurati ortib bormoqda.

Bugungi kunda suv resurslarini samarali boshqarish global miqyosda yuzaga kelayotgan suv tanqisligi va iqlim o‘zgarishlari muammolarini kamaytirishda muhim omil bo‘lib xizmat qilmoqda. Ushbu muammolarni hal etishda yangi texnologik yondashuvlar, xususan IoT (Internet of Things - Narsalar interneti) hamda sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish katta imkoniyatlar yaratmoqda. Mazkur texnologiyalar suv resurslarini monitoring qilish, tahlil qilish va boshqarish jarayonlarini avtomatlashtirish orqali resurslardan samarali foydalanishga yordam beradi.

IoT texnologiyasi turli qurilmalar, sensorlar va tizimlarni internet tarmog‘i orqali o‘zaro bog‘lash hamda ular o‘rtasida ma’lumot almashinuvini ta’minlashga xizmat qiladi. Ushbu texnologiya yordamida turli obyektlar real vaqt rejimida ma’lumot yuborishi va qabul qilishi mumkin, bu esa jarayonlarni avtomatik ravishda nazorat qilish va boshqarish imkonini beradi. IoT texnologiyalari ayniqsa aqlli shaharlar, sanoat, qishloq xo‘jaligi, sog‘liqni saqlash hamda resurslarni boshqarish tizimlarida keng qo‘llanilmoqda va samarali natijalar bermoqda [3,4].

MDH va O'zbekiston olimlari tadqiqotlarida esa suv resurslarini boshqarishda raqamli texnologiyalarni joriy etish irrigatsiya samaradorligini oshirish, yo'qotishlarni kamaytirish va suv hisobini takomillashtirishning muhim omili sifatida baholanadi. Shu bilan birga, nazariy modellarning milliy sharoitga moslashtirilishi zarurligi ta'kidlanadi[5]. Umuman olganda, adabiyotlar tahlili suv iste'molini boshqarishda innovatsion va raqamli yondashuvlar nazariy jihatdan resurslarni samarali taqsimlash, qaror qabul qilish sifatini oshirish va barqaror rivojlanishni ta'minlashga xizmat qilishini ko'rsatadi.

Natijalar va ularning tahlili. Innovatsion boshqaruv - bu mavjud tizimlarda yangilik, samaradorlik va raqobatbardoshlikni ta'minlovchi mexanizmdir. Suv xo'jaligida innovatsion yondashuv deganda yangi texnologiyalar, avtomatlashtirilgan tizimlar, axborot-kommunikatsion vositalar orqali suv resurslarini aniq rejalashtirish va nazorat qilish tushuniladi.

Hozirgi kunda suv xo‘jaligi tizimi bosqichma-bosqich “to‘rtinchi raqamli inqilob” davriga o‘tmoqda. Ushbu jarayon suv infratuzilmasini boshqarishda an’anaviy usullarni, ya’ni asosan jismoniy infratuzilmaga va qo‘lda olib boriladigan monitoringga asoslangan tizimlarni zamonaviy raqamli yechimlar bilan almashtirishni nazarda tutadi. Raqamli texnologiyalarni joriy etish orqali suv resurslarini boshqarish jarayonlari yanada samarali, barqaror va moslashuvchan tizimga

aylantirilmoqda. Natijada suv infratuzilmasini nazorat qilish, tahlil qilish va boshqarish imkoniyatlari kengayib, resurslardan oqilona foydalanish uchun yangi imkoniyatlar yaratilmoqda [6].

1-jadval

Innovatsion texnologiyalar asosida suv resurslarini boshqarish yo‘nalishlari

№	Yo‘nalish nomi	Qisqa tavsif
1	IoT asosida suv o‘lchov sensorlari	Suv sarfini o‘lchash, bosim va namlikni aniqlash uchun aqlli sensorlardan foydalanish hamda ma’lumotlarni real vaqt rejimida kuzatish.
2	GIS orqali suv oqimlarini monitoring qilish	Xaritalar va fazoviy ma’lumotlar yordamida suv oqimi, kanal va kollektorlarning holatini monitoring qilish.
3	Sun’iy intellekt va Big Data yordamida bashoratlash	Suv iste’moli, yetishmovchiligi va kelajakdagi talabni katta ma’lumotlar asosida tahlil qilish hamda prognoz qilish.
4	Aqlli sug‘orish tizimlari	Dehqonchilikda suvni avtomatik ravishda optimal miqdorda berish, namlik va harorat ko‘rsatkichlariga qarab sug‘orishni boshqarish.
5	Blockchain texnologiyasi	Suv resurslarini taqsimlash va hisob-kitob jarayonlarida shaffoflik hamda ishonchlilikni ta’minlash.

Ushbu innovatsion yondashuvlar natijasida suv resurslarini rejalashtirish va ulardan foydalanish samaradorligi 20-30% gacha oshishi mumkin.

2-jadval.

Raqamli texnologiyalar asosida suv resurslarini boshqarish elementlari

№	Texnologiya nomi	Qisqa tavsif
1	IoT asosidagi monitoring tizimlari	Suv sarfi, bosimi va yo‘qotishlarini real vaqt rejimida kuzatish hamda nazorat qilish imkonini beradi.
2	Ma’lumotlar bazalari (Big Data)	Suv sarfi, iqlim, tuproq namligi va hosildorlik bo‘yicha katta hajmdagi ma’lumotlarni yig‘ish, saqlash va tahlil qilish imkonini yaratadi.
3	Sun’iy intellekt asosidagi prognozlash tizimlari	Suv resurslarini kelajakdagi talabga mos ravishda optimal taqsimlashni avtomatik ravishda hisoblab beradi.
4	Mobil ilovalar	Fermerlarga suv taqsimoti, sug‘orish grafigi hamda texnik tavsiyalar haqida tezkor ma’lumot taqdim etadi.

Raqamli texnologiyalar va suv iste'molini boshqarishdagi o'zaro bog'liqlik. Raqamli texnologiyalar suv iste'molini boshqarishda axborot oqimini tahlil qilish, tezkor qaror qabul qilish va resurslardan samarali foydalanishni ta'minlash imkonini beradi. Quyidagi tizimlar buning yorqin misolidir.

Raqamli texnologiyalarni suv resurslarini boshqarish jarayoniga joriy etish nafaqat boshqaruv samaradorligini oshiradi, balki inson omilini kamaytirish, korrupsiya xavfini pasaytirish hamda suv resurslaridan adolatli va shaffof foydalanish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Raqamli yechimlar suv resurslarini boshqarish jarayonida keng qo‘llanilayotgan turli zamonaviy texnologiyalar majmuasini o‘z ichiga oladi. Jumladan, aqlli sensorlar va Narsalar interneti (IoT) qurilmalari, sun’iy intellekt (AI), bulutli hisoblash texnologiyalari, mobil va veb-ilovalar, raqamli egizaklar (digital twin), blokcheyn texnologiyasi hamda kengaytirilgan va virtual haqiqat kabi innovatsion vositalar ushbu tizimning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi.

Mazkur texnologiyalar suv resurslarini real vaqt rejimida monitoring qilish, ma’lumotlarni tezkor tahlil qilish va kelajakdagi jarayonlarni bashorat qilish imkonini yaratadi. Shuningdek, ular avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlarini joriy etish orqali suvdan foydalanish jarayonini yanada samarali tashkil etishga xizmat qiladi. Natijada suv resurslarini boshqarish strategiyalari yanada moslashuvchan va oldindan rejalashtirilgan tarzda amalga oshiriladi.

Bundan tashqari, raqamli texnologiyalarni qo‘llash operatsion samaradorlikni oshirish, suv tizimlarining barqarorligini mustahkamlash hamda resurslardan oqilona foydalanishni ta’minlashga

yordam beradi. Shu bilan birga, ular qarorlar qabul qilish jarayonlarining shaffofligi va hisobdorligini kuchaytirib, global miqyosdagi suv muammolarini hal etishda muhim ahamiyat kasb etadi [7].

Xulosa qilib aytish mumkinki, suv iste'molini boshqarishda innovatsion va raqamli yondashuvlar suv resurslaridan samarali foydalanish, iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash hamda ekologik muvozanatni saqlashda muhim ahamiyatga ega. Zamonaviy texnologiyalar yordamida suv taqsimoti aniq, shaffof va samarali tarzda tashkil etilishi mumkin. Shu bois kelajakda O'zbekistonda suv xo'jaligida raqamli transformatsiyani chuqurlashtirish, sun'iy intellekt asosida prognozlash tizimlarini rivojlantirish hamda "aqlli qishloq xo'jaligi" modelini keng joriy etish zarur.

Shuningdek, suv tanqisligi kuchayib borayotgan sharoitda bashoratlash algoritmlari, matematik modellar va raqamli monitoring tizimlaridan foydalanish suv resurslarini oqilona boshqarishda muhim rol o'ynaydi. Bu yondashuv qishloq xo'jaligida hosildorlikni oshirish, suv yo'qotishlarini kamaytirish hamda suv balansini optimallashtirish imkonini beradi.

Raqamli platformalar orqali fermerlarga real vaqt rejimida suv sarfi, iqlim prognozi va tuproq namligi haqida ma'lumot yetkazilishi ularga samarali qaror qabul qilish imkonini yaratadi. Bundan tashqari, "aqlli sug'orish" tizimlari suvdan tejamkor foydalanishni ta'minlasa, blockchain texnologiyalari suv taqsimoti va hisob-kitob jarayonlarining shaffofligini oshiradi. Natijada suv xo'jaligi tizimini modernizatsiya qilish va mamlakat suv xavfsizligini mustahkamlash uchun muhim sharoit yaratiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.United Nations. World Water Development Report. UN-Water, Paris, 2023.

2.Suv hisobini real vaqt rejimida kuzatish imkonini beruvchi qurilmalar o'rnatiladi https://uza.uz/oz/posts/suv-hisobini-real-vaqt-rejimida-kuzatish-imkonini-beruvchiqurilmalar-ornatiladi_565344

3.Что такое IoT? – Описание Интернета вещей – AWS https://aws.amazon.com/ru/what-is/iot/

4.Что такое интернет вещей (Internet of Things, IoT) | устройства, https://www.intelvision.ru/blog/what-is-iot

5.Karimov A., Abdullaev I. Integrated Water Resources Management in Central Asia. IWMI, Tashkent, 2018.

6.Boyle, C., Ryan, G., Bhandari, P., Law, K.M., Gong, J., Creighton, D., 2022. Digital transformation in water organizations. J. Water Resour. Plann. Manag. 148 (7), 03122001. https: //doi. org/10.1061 /(ASCE)WR. 1943-5452.0001555.

7.Walter, C., 2024. Digital technologies for the future of the water sector? Examining the discourse on digital water. Geoforum 148, 103918. https://doi.org/10.1016/j. geoforum.2

IOT ORQALI SUV RESURSLARI MONITORINGINI TASHKIL QILISH IMKONIYATLARI

R.H.Shodiyeva
Qarshi davlat texnika universitet

Annotatsiya: *Maqolada IoT (ashyolar interneti) texnologiyalari yordamida suv resurslarini masofadan nazorat qilish va boshqarish masalalari o'rganilgan. Tizimning real vaqt rejimida suv sarfi va sifatini aniqlashdagi samaradorligi tahlil qilingan.*

Kalit so'zlar: *IoT, suv monitoringi, datchik, suv sifati, aqlli tizim, masofaviy nazorat, suv tejash, raqamlashtirish.*

Abstract: *The article explores the issues of remote water resources monitoring and management using IoT technologies. It analyzes the effectiveness of the system in determining water consumption and quality in real-time.*

Keywords: *IoT, water monitoring, sensor, water quality, smart system, remote control, water saving, digitalization.*

Аннотация: *В статье исследуются вопросы дистанционного мониторинга и управления водными ресурсами с помощью технологий IoT. Анализируется эффективность*

системы в определении расхода и качества воды в режиме реального времени.

Ключевые слова: *IoT, мониторинг воды, датчик, качество воды, умная система, дистанционный контроль, водосбережение, цифровизация.*

Kirish. Yigirma birinchi asrda chuchuk suv resurslarining yetishmovchiligi global barqarorlikka tahdid soluvchi eng dolzarb ekologik va iqtisodiy muammolardan biriga aylandi. Tuproq namligi va ob-havo ma'lumotlari orqali sug'orish chiroqlari avtomatik ravishda sozlanadi, real vaqt rejimida monitoring amalga oshiriladi, suv sifati optimallashtiriladi va bog'ning normal ishlashi va landshaftning go'zalligi saqlanadi. Birlashgan Millatlar Tashkilotining ma’lumotlariga ko‘ra, 2050-yilga borib dunyo aholisining yarmidan ko‘pi suv tanqisligi yuqori bo‘lgan hududlarda istiqomat qilishi bashorat qilinmoqda [3, 5]. Shu sababli, suv resurslarini boshqarishda an’anaviy, ya’ni statistik va davriy o‘lchovlarga asoslangan usullardan voz kechib, real vaqt rejimida ishlovchi (real-time) intellektual tizimlarga o‘tish davr talabidir.

Material va metodlar

Internet of Things (IoT) texnologiyasi suv resurslarini real vaqt rejimida kuzatish, tahlil qilish va boshqarish imkonini beradi. IoT qurilmalari yordamida suv sathi, harorati, bosimi va sifati kabi ko‘rsatkichlarni doimiy ravishda nazorat qilish mumkin .

Iot shunchaki bitta qurilma emas , u to’rt elememtdan iborat. Birinchi qismi Datchiklar (Sensors) bo’lib Suvning sathini, bosimini yoki sho'rligini o'lchaydigan kichik qurilmalar.Ikkinchi qismi Aloqa (Connectivity) atchik yig'gan ma'lumotni Wi-Fi, 4G/5G yoki LoRaWAN orqali markaziy bazaga (serverga) yuboradi.Keyingisi Ma'lumotlarni qayta ishlash serverga kelgan raqamlarni tahlil qiladi (masalan, suv sathi me'yordan tushib ketganini aniqlaydi) va Foydalanuvchi interfeysi hisoblanib sizning telefoningizga yoki kompyuteringizga "Suv kam qoldi" degan xabar keladi yoki grafiklar ko'rinadi.

Natijalar va ularning tahlili

Kelajakda IoT suv boshqaruvi global miqyosda katta rol o'ynaydi va biz Internet of Things (IoT) texnologiyasi suv resurslarini real vaqt rejimida kuzatish, tahlil qilish va boshqarish imkonini beradi. IoT konsepsiyasi suv xo‘jaligida gidrotexnik inshootlar, magistral kanallar va iste’mol nuqtalarini yagona raqamli tarmoqqa birlashtirish imkonini beradi Bu tizimning asosiy mohiyati — inson ishtirokisiz ma’lumotlarni yig‘ish, uzatish va tahlil qilish orqali qaror qabul qilish jarayonini avtomatlashtirishdir. IoT (Internet of Things) – bu turli xil qurilmalar, sensorlar va tizimlarning internet orqali o‘zaro bog‘lanib ma'lumot almashish texnologiyasidir.[2, 4].





Xulosa. qilib aytganda, IoT orqali suv resurslarini monitoring qilish — barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishning eng samarali yo‘lidir. Kelajakdagi tadqiqotlar ushbu tizimlarni sun’iy intellekt (AI) bilan integratsiya qilish va "Digital Twin" modellarini yaratishga yo‘naltirilishi lozim [1, 3].

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Abdurahmonov, B. A. (2022). *Raqamli iqtisodiyot va IoT texnologiyalari.* Toshkent: Fan va texnologiya nashriyoti.

2. Chen, Y., & Han, D. (2018). *Water Quality Monitoring in Smart Cities.* Future Generation Computer Systems, 81, 150-161.

3. FAO. (2024). *The State of Food and Agriculture: Water scarcity and IoT solutions.* Rome:

UN.

4. Ismoilov, A. (2021). *Gidrotexnika inshootlarining intellektual monitoringi.* O'zbekiston agrar fani xabarnomasi, 4(2).

5. Kumar, S., et al. (2020). *IoT-based Smart Water Management Systems.* IEEE Internet of Things Journal, 7(12).

UO‘K:055.6 (075)

SUV ISTE’MOLINI BOSHQARISHDA INNOVATSION VA RAQAMLI YONDASHUVLARNING NAZARIY AHAMIYATI

J.Y.Ung‘arov, X.Z.Sharopov
Jizzax Politexnika instituti

Annotatsiya: Ushbu maqolada suv resurslarini boshqarishda innovatsion texnologiyalar va raqamli yondashuvlarning nazariy asoslari, ularning iqtisodiy samaradorlikka ta’siri hamda suv iste’molini boshqaruv tizimlarini modernizatsiya qilishdagi o‘rni tahlil qilinadi. Tadqiqotda raqamli iqtisodiyot, sun’iy intellekt, IoT (Internet of Things), big data texnologiyalarining suv resurslari bilan bog‘liq jarayonlarni avtomatlashtirishdagi afzalliklari ochib berilgan. Shuningdek, suv xo‘jaligida “aqlli” boshqaruv tizimlarini yaratish bo‘yicha nazariy model ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: suv iste’moli, raqamli transformatsiya, innovatsion texnologiyalar, sun’iy intellekt, IoT, aqlli sug‘orish tizimi.

Аннотация: В данной статье анализируются теоретические основы инновационных технологий и цифровых подходов в управлении водными ресурсами, их влияние на экономическую эффективность и роль в модернизации систем управления водопотреблением. Исследование выявляет преимущества цифровой экономики, искусственного интеллекта, Интернета вещей (IoT), технологий больших данных в автоматизации процессов, связанных с водными ресурсами. Также разработана теоретическая модель создания «умных» систем управления водными ресурсами.

Ключевые слова: водопотребление, цифровая трансформация, инновационные технологии, искусственный интеллект, IoT, интеллектуальная система орошения.

Abstract: This article analyzes the theoretical foundations of innovative technologies and digital approaches in water resources management, their impact on economic efficiency, and their role in the modernization of water consumption management systems. The study reveals the advantages of digital economy, artificial intelligence, IoT (Internet of Things), big data technologies in automating processes related to water resources. Also, a theoretical model for creating “smart” management systems in water management has been developed.

Keywords: water consumption, digital transformation, innovative technologies, artificial intelligence, IoT, smart irrigation system.

KIRISH. Suv resurslari bugungi kunda iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida eng muhim strategik omillardan biri hisoblanadi. Aholi sonining o‘sishi, sanoatlashuv jarayonining jadallashuvi va iqlim o‘zgarishlari sharoitida suvga bo‘lgan talab keskin ortib bormoqda. Shu sababli, suv resurslaridan oqilona va samarali foydalanish har bir mamlakatning milliy xavfsizligi, ekologik barqarorligi va iqtisodiy o‘sishida hal qiluvchi rol o‘ynaydi[1].

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 10-iyuldagi “Suv resurslarini boshqarishda raqamli texnologiyalarni keng joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ–4760-son qarori suv xo‘jaligida raqamli transformatsiyani amalga oshirishning asosiy huquqiy bazasini yaratdi[2].

4.3. Suv/sement nisbati va mustahkamlik.

Tajribalar ko‘rsatishicha, W/C = 1.0-1.2 optimal hisoblanadi (2.1-rasm):

- W/C < 1.0: Suyuqlik yetishmasligi sababli aralash qiyinlashadi;
- W/C > 1.5: Mustahkamlik keskin kamayadi (28 kunlik mustahkamlik 50 MPadan 25 MPagacha tushadi).

4.4. Iqtisodiy samaradorlik.

Chuqurlik oshgan sari sistemalar samaradorligi kamayadi (2.4-rasm):

- 5-10 m chuqurlik: bir fazali optimal;
- 10-20 m chuqurlik: ikki fazali tavsiya etiladi;
- 20-30 m chuqurlik: ikki fazali yoki ikki bosqichli sistema qo‘llaniladi.

5. XULOSALAR

Gidrostruyali texnologiya zamonaviy geotexnik inshootlarda eng samarali usullardan biri hisoblanadi. Ayniqsa gidravlik zarb mexanizmini to‘g‘ri qo‘llash orqali zaif zaminlarni qisqa muddatda va samarali mustahkamlash mumkin. Bu texnologiya an’anaviy usullarga nisbatan iqtisodiy va texnik jihatdan ko‘p hollarda afzalliklarga ega**.**

Gidravlik zarb gidrostruyali texnologiyaning asosiy mexanizmi bo‘lib, bosim 40-60 MPa, tezlik 800 m/s dan ortiq bo‘lganda zamin to‘liq yemiriladi va sement bilan aralashadi.

Zamin tipiga qarab sistema tanlanishi kerak:

- Loyli zaminlar: Bir fazali (yuqori mustahkamlik);
- Qumli zaminlar: Ikki fazali (katta diametr);
- Qatlamli zaminlar: Uch fazali (chuqur ta’sir kuchi).

Optimal parametrlar:

- Suv/sement nisbati: 1.0-1.2;
- Ko‘tarilish tezligi: 10-30 sm/daq;
- Aylanish tezligi: 5-15 ayl/daq.

Gidravlik zarb energiyasining 60-70% birinchi 1.0 m masofada sochiladi, shuning uchun nozuldan masofa muhim ahamiyatga ega (3.4-rasm).

Mustahkamlik 28 kunda 40-65 MPa, 90 kunda 55-80 MPa gacha yetadi (2.2-rasm).

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Design Principles of Jet Grouting for Soil Improvement. (2025). Evgcpl.com. Retrieved from https://evgcpl.com/design-principles-of-jet-grouting-for-soil-improvement/

2. Lunardi, P. Ground improvement by means of jet-grouting. Rocksoil.com. Retrieved from https://www.rocksoil.com/pdf/116_r.pdf

3. Jet grouting. (2021). Menard Group. https://www.menard-group.com/soil-expert-portfolio/jet-grouting/

4. Ground Improvement Using Grouting Techniques. (2016). Helical Drilling. https://helicaldrilling.com/ground-improvement-using-grouting-techniques/

5. Vauk, B.B. & Dalchau, D. (2024). Jet grouting: Applying lean principles in geotechnical

engineering to reduce waste. IGLC32 Proceedings. https://iglcstorage.blob.core.windows.net/papers/attachment-35b0b3dd-237a-4ff8-974c-428fbe385e67.pdf

6. Jet grouting with a newly developed technology: The Twin-Jet method. (2012). ScienceDirect. https://www.sciencedirect.com/science/article/abs/pii/S0013795212003031

7. Grouting - March 2022. California Department of Transportation. https://dot.ca.gov/-/media/dot-media/programs/engineering/documents/geotechnical-services/202203-gm-grouting-a11y.pdf

UDK 631.347:681.5:004.38

SUV RESURSLARIDAN SAMARALI FOYDALANISHDA RAQAMLI BOSHQARUVNI JORIY QILISH

Norboyev Otajon Normuminovich
Qarshi davlat texnika universiteti

Annotatsiya. Ushbu ilmiy maqolada “Yashil makon” dasturi doirasida tashkil etilgan suv havzasi misolida amalga oshirilayotgan gidrotexnik inshootlarning raqamli transformatsiyasi tahlil qilinadi. Tadqiqot obyekti sifatida Qashqadaryo viloyati, Nishon tumani Janub Ma’shali MFY hududidsa 800 m³ sig’imli, polimer qoplamali ochiq turdagi sug’orish havzalari tanlangan. Maqolaning asosiy mazmuni ushbu havzalarda suv resurslarini boshqarishning an’anaviy usullaridan voz kechib, GSM (Global System for Mobile Communications) va IoT (Internet of Things) texnologiyalariga real vaqt rejimida avtomatlashtirish va boshqarishga asoslangan monitoring tizimini joriy etishga qaratilgan. Tadqiqot davomida suvning sathi, sarfi, fizik-kimyoviy xususiyatlari (harorat, loyqalanish, sho‘rlanish) datchiklar turkumi yordamida aniqlanadi va ma’lumotlarni real vaqt rejimida masofaga uzatish mexanizmlari taklif etilgan.

Kalit so‘zlar: *IoT, GSM monitoring, “Yashil makon”, avtonom tizim, datchiklar turkumi, global, geomembran.*

So‘nggi yillarda global iqlim o‘zgarishi, tabiiy resurslar bilan ishlashdagi noaniqliklar va suv iste’moli oshishi qishloq xo‘jaligida suvni oqilona boshqarish zaruratini keskin kuchaytirdi. Suv resurslarining uzluksiz yetkazilishi va sifat jihatdan barqaror bo‘lishi bugungi kunda nafaqat qishloq xo‘jaligi sohasida, balki insonlar hayoti va atrof-muhitning barqarorligi uchun ham strategik ahamiyat kasb etadi [1].

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 30-maydagi PF-90-son Farmoni “Yashil makon” umummilliy loyihasi doirasida hamda o‘rmonlarni boshqarish tizimida islohotlarni izchil davom ettirish, yashil hududlarni kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida hamda boshqa hukumat qarorlari qishloq xo‘jaligi sohasini modernizatsiya qilish va suv resurslarini samarali boshqarishni ta’minlashni nazarda tutadi [3].

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yashil makon” umummilliy loyihasi doirasida mamlakat bo‘ylab millionlab daraxt ko‘chatlarini ekish va ularni saqlab qolish vazifasi qo‘yilgan [2].

Yurtimizning janubiy hududlari kontinental iqlimi va suv tanqisligi bilan ajralib turadi. “Yashil makon” umummilliy dasturi doirasida barpo etilgan yangi bog’larni saqlab qolish uchun suv resurslarini har bir tomchisigacha hisobga olish muhim vazifalardan biridir. Biroq, Qashqadaryo viloyatining Nishon tumani kabi qurg’oqchil hududlarda bu vazifani, jumladan, suvdan oqilona foydalanmasdan turib amalga oshirish imkonsizdir.

Nishon tumani o‘zining geografik joylashuvi va iqlimiy xususiyatlariga ko‘ra, yoz oylarida havo harorati +45 °C dan yuqori ko‘tariladigan, bug’lanish darajasi o‘ta yuqori bo‘lgan hudud hisoblanadi. Bunday sharoitda 800 m³ sig’imli sug’orish havzalari suvni zaxira qilish uchun xizmat qiladi. Ammo, suvning sathini nazorat qilmaslik, nasoslarning asossiz ishlashi va suv sifatining yomonlashishi nafaqat suv isrofiga, balki katta miqdordagi elektr energiyasi va inson resurslarining behuda sarflanishiga olib keladi.



1-Rasm. Nishon tumani Janub Mashali MFY hududida “Yashil makon” umummilliy dasturi doirasida tashkil etilgan 800 m^3 suv havzasi.

An’anaviy sug’orish tizimlarida suvning bug’lanishi va tuproqqa asossiz singishi 30-40% gacha isrofga olib keladi. Bu muammoni hal qilishning birinchi bosqichi bo‘lsa, raqamli boshqaruv ikkinchi va eng muhim bosqichdir. Polimer qoplamali havza beton yoki tuproq havzalarda suvning yerga singishi 15-20% ni tashkil etsa, geomembranalarida bu ko‘rsatkich 0.001% ga teng. Nishon tumani sho‘rxok tuproqlardan iborat bo‘lib, yer cho‘kishi ehtimoli yuqori. Beton yorilib ketishi mumkin, polimer esa cho‘zilish xususiyati tufayli butunligini saqlaydi. Sho‘r suvlarning (minerallashgan suvlarning) havza devorlariga agressiv ta’siriga polimer materiallari 50 yilgacha bardosh beradi. Bu loyihaning maqsadi - sug’orish resurslarini oqilona boshqarish, suvdan samarali foydalanish va barqaror ekin yetishtirish tizimini yaratishdan iborat.

Tizimning ishlashi uzluksiz sikl asosida quyidagicha tashkil etiladi.

- Tizim ishga tushganda mikrokontroller va GSM moduli faollashadi;
- Datchiklar turkumidan suv parametrlari o‘qiladi;
- Olingan ma’lumotlar me’yoriy chegaralar bilan solishtiriladi;
- Agar chegaradan og’ish bo‘lsa, boshqaruv qarori qabul qilinadi;
- Qaror asosida nasos va klapanlar avtomatik boshqariladi;
- Operatorga SMS orqali xabar yuboriladi;
- Operator masofadan buyruq yuborishi mumkin;

Operator nafaqat ma’lumot oladi, balki tizimni boshqara oladi. Masalan, operator mobil telefoni orqali “NASOS YOQILSIN” kodini yuborsa, GSM modul ushbu xabarni o‘qiydi va mikrokontroller orqali yuqori kuchlanishli releni ishga tushirib, nasosni yoqadi. Bu esa operatorning havza oldiga borishiga ketadigan vaqt va transport xarajatlarini tejaydi. Jarayon doimiy ravishda takrorlanadi. Ushbu algoritm GSM asosida ishlash, datchiklar turkumi va mikrokontrollerni integratsiya qilish orqali sug’orish havzalarida suv resurslarini optimal boshqarish mexanizmini ta’minlaydi.

GSM moduli yordamida tizim operator bilan SMS orqali muloqot qiladi. Ma’lumotlar davriy ravishda yoki favqulodda holat yuzaga kelganda darhol yuboriladi, shuning uchun tizim **real vaqt rejimida** ishlaydi.

XULOSA

Mazkur tadqiqotda “Yashil makon” umummilliy dasturi doirasida tashkil etilgan sug‘orish havzalarida suv resurslarini boshqarishning zamonaviy yondashuvlari tahlil qilindi. Tadqiqot obyekti sifatida Qashqadaryo viloyati Nishon tumani Janub Ma’shali MFY hududida joylashgan, 800 m^3 sig‘imli, polimer qoplamali ochiq turdagi sug‘orish havzasi tanlanib, unda raqamli boshqaruv elementlarini joriy etish imkoniyatlari o‘rganildi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, sug‘orish havzalarida suv resurslarini an’anaviy usullar asosida boshqarish suv sathining nazoratsiz o‘zgarishi, nasoslarning ortiqcha ishlashi, elektr energiyasi sarfining oshishi hamda suv sifatining yomonlashishiga olib keladi. Raqamli monitoring va avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimini joriy etish esa ushbu muammolarni sezilarli darajada kamaytiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 9-oktabrdagi PQ-4486-son qaroriga Suv resurslarini boshqarish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida.

2. Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 30-noyabrdagi 804-son qarori “Yashil makon” umummilliy loyihasi doirasida amalga oshirilayotgan tadbirlarni qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 30-maydagi “Yashil makon” umummilliy loyihasi doirasida hamda o‘rmonlarni boshqarish tizimida islohotlarni izchil davom ettirish, yashil hududlarni kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida PF-90-son farmoni.

IQLIM O‘ZGARISHI SHAROITIDA SUV RESURSLARINI BOSHQARISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR: IOT VA SMART SUV TEJASH TIZIMLARI

Abdurasulov Anvar Quvondiq o‘g‘li
Qarshi davlat texnika universiteti 3-kurs talabasi

Annotatsiya. Maqolada iqlim o‘zgarishi sharoitida suv resurslarini samarali boshqarish masalalari hamda raqamli texnologiyalar, xususan IoT (Internet of Things) asosidagi aqlli monitoring va smart suv tejash tizimlarining ahamiyati yoritilgan. Tadqiqot jarayonida suv resurslarini boshqarishda real vaqt rejimidagi nazorat, avtomatlashtirilgan sug‘orish tizimlari va ma’lumotlarni raqamli tahlil qilishning samaradorligi o‘rganildi. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, IoT asosidagi tizimlar suv sarfini sezilarli darajada kamaytiradi, energiya tejamkorligini oshiradi va ekologik barqarorlikni ta’minlaydi. Raqamli texnologiyalarni keng joriy etish suv tanqisligi muammosini kamaytirishda muhim omil hisoblanadi.

Kalit so‘zlar. *Iqlim o‘zgarishi, suv resurslari, IoT, smart sug‘orish, raqamli monitoring, avtomatlashtirilgan boshqaruv, suv tejash.*

So‘nggi o‘n yilliklarda iqlim o‘zgarishi global miqyosda eng dolzarb ekologik va ijtimoiy-iqtisodiy muammolardan biriga aylandi. Haroratning ko‘tarilishi, yog‘ingarchilik miqdorining notekis taqsimlanishi, muzliklarning erishi hamda qurg‘oqchilik davrlarining uzayishi suv resurslariga bevosita ta’sir ko‘rsatmoqda. Natijada dunyoning ko‘plab hududlarida, ayniqsa qurg‘oqchil va yarim qurg‘oqchil mintaqalarda suv tanqisligi kuchayib bormoqda. Bu holat qishloq xo‘jaligi, sanoat, energetika va aholi turmush darajasiga salbiy ta’sir etmoqda.

Suv resurslarini an’anaviy usullar bilan boshqarish zamonaviy talablarni to‘liq qondira olmayapti. Ko‘pincha suv sarfi ustidan nazorat yetarli darajada avtomatlashtirilmagan, ma’lumotlar yig‘ish va tahlil qilish jarayonlari esa sekin va aniqlik darajasi past bo‘lib qolmoqda. Shu sababli suvdan oqilona foydalanish va yo‘qotishlarni kamaytirish maqsadida raqamli texnologiyalarni joriy etish zarurati ortib bormoqda.

Raqamli transformatsiya jarayonida Internet of Things (IoT) texnologiyasi alohida ahamiyat kasb etadi. IoT asosidagi sensorlar va monitoring tizimlari suv darajasi, oqim tezligi, bosim va tuproq namligini real vaqt rejimida o‘lchash imkonini beradi. Ushbu ma’lumotlar bulutli platformalarda qayta ishlanib, avtomatlashtirilgan boshqaruv qarorlarini qabul qilishga xizmat qiladi. Smart suv tejash tizimlari esa meteorologik prognozlar va tuproq holatini hisobga olgan holda suv taqsimotini optimallashtiradi.

Shu bois mazkur tadqiqotning dolzarbligi iqlim o‘zgarishi sharoitida suv resurslarini samarali boshqarish uchun IoT va smart texnologiyalarning imkoniyatlarini ilmiy jihatdan asoslash bilan belgilanadi. Tadqiqotning maqsadi — suv resurslarini boshqarishda raqamli texnologiyalarning samaradorligini aniqlash va ularning amaliy ahamiyatini baholashdan iborat.

MATERIAL VA METODLAR

Mazkur tadqiqot iqlim o‘zgarishi sharoitida suv resurslarini boshqarishda raqamli

texnologiyalarning samaradorligini aniqlashga qaratilgan bo‘lib, nazariy va amaliy tahlil usullariga asoslandi.

Tadqiqot materiali

Tadqiqot materiali sifatida quyidagilar o‘rganildi:

- So‘nggi 5–6 yil davomida chop etilgan ilmiy maqolalar va xalqaro tashkilotlar (FAO, UNESCO, World Bank) hisobotlari;
- IoT asosidagi suv monitoring tizimlarining texnik hujjatlari;
- Aqlli sug‘orish tizimlari (smart irrigation systems)ning ishlash prinsiplari;
- Sensor qurilmalar: tuproq namligi sensori, suv darajasi sensori, oqim o‘lchagich (flow meter), bosim sensori;
- Mikrocontroller platformalari (Arduino, ESP32 va shunga o‘xshash boshqaruv modullari);
- Bulutli ma’lumotlarni qayta ishlash platformalari.

Tadqiqot metodlari

Tadqiqot jarayonida quyidagi metodlardan foydalanildi:

1. Ilmiy adabiyotlar tahlili – suv resurslarini boshqarishda IoT va smart tizimlar bo‘yicha mavjud ilmiy ishlanmalar o‘rganildi va umumlashtirildi.
2. Qiyosiy tahlil metodi – an’anaviy sug‘orish tizimlari bilan IoT asosidagi avtomatlashtirilgan tizimlar samaradorligi taqqoslandi.
3. Statistik tahlil – suv sarfi, energiya tejamkorligi va yo‘qotish ko‘rsatkichlari foizlarda baholandi.
4. Model asosida baholash – suv tejash samaradorligi quyidagi nisbat orqali aniqlanadi:

$$E = \frac{Q_{an'anaviy} - Q_{raqamli}}{Q_{an'anaviy}} \times 100\%$$

bu yerda: $Q_{an'anaviy}$– an’anaviy tizimdagi suv sarfi,

$Q_{raqamli}$– IoT asosidagi tizimdagi suv sarfi,

E– suv tejash samaradorligi (%).

5. Monitoring va kuzatuv metodi – real vaqt rejimida suv darajasi va tuproq namligi ko‘rsatkichlarini kuzatish orqali avtomatik boshqaruv algoritmlarining ishlash samaradorligi baholandi.

Tadqiqot sharoiti

Tadqiqotda qishloq xo‘jaligi maydonlari va suv ta’minoti tizimlari misol sifatida ko‘rib chiqildi. Iqlim o‘zgarishining ta’siri sifatida yog‘ingarchilikning kamayishi va haroratning oshishi omillari hisobga olindi.

NATIJALAR VA ULARNING TAHLILI

Tadqiqot jarayonida IoT asosidagi suv monitoring va smart sug‘orish tizimlarining samaradorligi an’anaviy suv boshqaruv tizimlari bilan qiyosiy tahlil qilindi. Olingan natijalar raqamli texnologiyalarni joriy etish suv resurslaridan foydalanish samaradorligini sezilarli darajada oshirishini ko‘rsatdi.

Birinchidan, tuproq namligi va suv oqimini real vaqt rejimida nazorat qilish ortiqcha sug‘orish holatlarini kamaytirishga xizmat qildi. Hisob-kitoblarga ko‘ra, IoT asosidagi tizimlar suv sarfini o‘rtacha 25–35% ga kamaytirishga imkon berdi. Bu ko‘rsatkich an’anaviy sug‘orish usullarida kuzatiladigan ortiqcha suv yo‘qotishlarini sezilarli darajada qisqartiradi.

Ikkinchidan, meteorologik ma’lumotlar (harorat, yog‘ingarchilik, namlik) asosida avtomatik boshqaruv algoritmlarini qo‘llash natijasida sug‘orish jarayoni optimallashtirildi. Smart tizimlar suvni faqat zarur paytda va zarur miqdorda yetkazib berishi tufayli suv tejash samaradorligi 35–40% gacha yetdi.

Uchinchidan, energiya sarfi ko‘rsatkichlari ham tahlil qilindi. Nasos va boshqaruv tizimlarining avtomatlashtirilishi natijasida elektr energiyasi iste’moli o‘rtacha 15–20% ga kamaygani aniqlandi. Bu esa iqtisodiy samaradorlikni oshiradi va karbon izini kamaytirishga xizmat qiladi.

Tahlil natijalari shuni ko‘rsatdiki, IoT asosidagi tizimlarda suv sarfi va namlik ko‘rsatkichlari

o‘rtasida kuchli bog‘liqlik mavjud bo‘lib, real vaqt ma’lumotlari asosida qabul qilingan qarorlar suvdan oqilona foydalanishni ta’minlaydi. Bundan tashqari, masofaviy monitoring orqali favqulodda holatlar (suv sizib chiqishi, quvur yorilishi, bosim pasayishi) tezkor aniqlanadi va suv yo‘qotishlarining oldi olinadi.

Umuman olganda, natijalar shuni ko‘rsatadiki, raqamli texnologiyalar asosidagi suv boshqaruvi tizimlari iqlim o‘zgarishi sharoitida suv tanqisligi muammosini kamaytirishning samarali vositasi hisoblanadi. Ular ekologik barqarorlikni ta’minlash bilan birga iqtisodiy jihatdan ham maqsadga muvofiq yechim taklif etadi.

XULOSALAR

Mazkur tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, iqlim o‘zgarishi sharoitida suv resurslarini samarali boshqarish uchun raqamli texnologiyalarni keng joriy etish zarur hisoblanadi. Shuningdek, raqamli texnologiyalar inson omilini kamaytirib, qaror qabul qilish jarayonini tezlashtiradi hamda favqulodda holatlarni erta aniqlash imkonini beradi. Bu esa suv infratuzilmasining ishonchliligini oshirishga xizmat qiladi. Kelgusida sun’iy intellekt, Big Data va bulutli hisoblash texnologiyalarini suv boshqaruvi tizimlariga integratsiya qilish orqali suv resurslarini yanada samarali boshqarish imkoniyati mavjud. Shu sababli davlat va xususiy sektor hamkorligida raqamli suv boshqaruvi tizimlarini joriy etish strategik ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. FAO (2022). Digital technologies in agriculture and water management. Rome: Food and Agriculture Organization of the United Nations.

2. UNESCO (2023). United Nations World Water Development Report 2023: Partnerships and Cooperation for Water. Paris: UNESCO.

3. World Bank (2021). Climate Change and Water Scarcity: Policy Options for a Resilient Future. Washington, DC: World Bank.

4. Li, X., Wang, Y. & Zhang, L. (2020). Smart water management using Internet of Things technologies. Journal of Cleaner Production, 255, 120–130.

5. Kumar, R. & Singh, M. (2021). IoT-based irrigation monitoring system for efficient water management. Computers and Electronics in Agriculture, 182, 106–115.

6. Zhang, Y., Chen, H. & Liu, Q. (2022). Smart irrigation systems for climate-resilient agriculture. Sustainable Computing: Informatics and Systems, 34, 100–118.

7. Ahmed, S., Rahman, M. & Islam, T. (2023). Application of IoT in sustainable water resource management under climate change conditions. Water Resources Management, 37(4), 1453–1468.

8. Mishra, P., Shukla, A. & Tiwari, V. (2024). Digital transformation in water governance: IoT and AI integration. Environmental Monitoring and Assessment, 196(2), 1–15.

QASHQADARYO VILOYATIDA IRRIGATSIYA TIZIMLARIDA SUVNI TAQSIMLASH VA QISHLOQ XO‘JALIGI EKINLARINI BARQAROR SUG‘ORISHDA KANAL SUV O‘TKAZUVCHANLIGINI YAXSHILASHNING AXAMIYATI

Qurbanov Azizali Ilxomovich, Salimbayeva Ikboloy Dilshod qizi,
Umidullaev Maqsud Uyg‘un o‘g‘li
Qarshi davlat texnika universiteti,
Irrigatsiya va suv muammolari ilmiy-tadqiqot instituti

Annotatsiya. Maqolada suv oqimining gidravlik qarshiligini o‘zan morfometriyasiga bog‘liqligi va ularning kanal o‘zani kirish qismidagi suv omborining ish rejimiga bog‘liq holda o‘zgarish qonuniyatlarini baholash, shuningdek kanal suv o‘tkazuvchanligini yaxshilash chora-tadbirlar ishlab chiqishga qaratilgan tavsiyalar keltirilgan. Jumladan Qashqadaryo viloyatidagi beton qoplamali va tuproq o‘zanli kanallarni qayta ta’mirlash, kanaldagi oqim sirkulyatsiyasini takomillashtirish, loyqa oqiziqlarini asosiy qismini tindirgichlarda ushlab qolishni ta’minlash, suv olib kelish kanalining suv o‘tkazish qobiliyatini oshirish uchun tadqiqotlar olib borish asosiy vazifalar belgilab olingan.

Kalit so‘zlar: *gidrotexnika inshootlari, irrigatsiya tizimlari, kanallar, loyqa oqiziqlar,*

gidravlik qarshilik, suv o‘tlari,suv isrofi, foydali ish koeffitsiyenti

Qishloq xo‘jalik ekinlarini sug‘orish uchun kerakli miqdorda suvni yetkazib berish uchun sug‘orish kanallari, suv omborlari, gidrotexnika inshootlaridan ishonchli foydalanishni ta’minlash alohida ahamiyat kasb etmoqda. O‘zani beton bilan qoplangan kanallarning gidravlik qarshiligini kamaytirish va o‘tkazuvchanlik qobiliyati yaxshilash, ularning foydali ish koeffitsiyenti oshirish bo‘yicha respublikamizda ma’lum yutuqlarga erishilgan bo‘lib, ularda sug‘orish kanallari ishonchliligini oshirish va suv suvni uzluksiz hamda kerakli miqdorda yetkazib berish, to‘rg‘un kundalang kesimlari saqlab qolish usullarini ishlab chiqishga alohida e’tibor qaratilmoqda [1].

Suv resurslarini tejash maqsadida so‘nggi yillarda respublikamiz bo‘ylab keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, Qashqadaryo viloyatida tuproq o‘zanli kanallarni betonlashtirish bo‘yicha olib borilayotgan ishlar natijasida kanallar orqali oqib o‘tayotgan suvning isrof bo‘lishi oldi olinmoqda.

Qashqadaryo viloyatida 75 foiz suv miqdorlari qo‘shni Turkmaniston davlatidan “Amudaryo” orqali Qarshi magistral kanalidagi 7 ko‘tarmali nasos stansiyalar kaskadidagi 45 ta nasos stansiyadan, 5 foiz suv “Zarafshon” daryosi orqali tranzit tarzda va qolgan 20 foiz suv miqdorlari Qashqadaryo va uning irmoqlari, 1383 dona tik sug‘orish quduqlari, Nasos stansiyalari va energetika boshqarmasi hisobidagi 62 ta nasos stansiyasi hamda 2,5 mlrd.m3 suv yig‘adigan 13 ta suv omborlardan suv yetkazib beriladi. Sug‘orish tizimi, Amu-Qashqadaryo irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi va uning tizim tashkilotlarida tasarrufida 253 ta kanal 2471 kilometr uzunlikda magistral va xo‘jaliklararo irrigatsiya tizim kanallari mavjud, shu jumladan 1577,3 km betonlashtirilgan, 16,0 km novli (lotok) va 877,7 km ochiq tuproqli kanallar mavjud.



1-rasm. Qashqadaryo viloyati asosiy suv manbalarining sxematik chizmasi

Ularda 3603 dona gidrotexnik inshootlar, 2024 dona gidropostlar, 40 dona dyuker, 44 dona akveduk va boshqa inshootlar mavjud. Ichki sug‘orish tarmoqlarining uzunligi 20449 kilometr bo‘lib, 2205,7 km qismi betonlashtirilgan, 6236,5 km novli (lotok), 864 km qismi quvurli va 11143,4 km qismi tuproq o‘zanli tarmoqlardan iborat. Sug‘orish tarmoqlariga o‘rnatilgan suv o‘lchash inshootlari va gidrotexnik inshootlar orqali suv miqdorlari birlamchi va ikkilamchi suvdan foydalanuvchilarga kafolatli yetkazib beriladi.

Viloyatda 13 ta suv omborlari mavjud, shundan alohida ahamiyat kasb etadigan “Talimarjon”

(1500 mln.m^3), “Chimqo‘rg‘on” (500 mln.m^3), “Pachkamar” (260 mln.m^3), “Hisorak” (170 mln.m^3) va “Qamashi” (25 mln.m^3) va 8 ta kichik suv omborlarni va 9 ta yirik gidrouzellar mavjud.

Joriy yilning 25 yanvar kuniga, 13 ta suv omborga 561,9 mln.m^3 suv yig‘ilgan. Bu o‘tgan yilga nisbatan 10,7 mln.m3 ko‘p, o‘rtacha ko‘p yillikka nisbatan 131,8 mln.m^3 kamni tashkil etadi.

Suv omborlarga 31,9 m^3/sek suv kelmoqda va suv omborlardan 5,1 m^3/sek suv chiqarilmoqda.

Viloyatdagi 514114 gektar sug‘oriladigan maydonlardan 293959 gektar sho‘rlanmagan, 220155 gektar maydon sho‘rlangan (shundan 176540 gektar kuchsiz, 34866 o‘rtacha, 8749 gektar kuchli sho‘rlangan) maydonlar hisoblanadi.

Bugungi kunda respublikamizda mavjud suv resurslarining deyarli 90 foizi dehqonchilik maqsadlarida, 4,1 foizi kommunal-maishiy sohasida, 2,2 foizi sanoatda, 1,7 foizi baliqchilikda, 1,6 foizi qishloqlar suv ta’minoti uchun ishlatiladi.

Barcha sohalarda bo‘lgani kabi mavjud suv resurslaridan samarali foydalanish yo’lidagi islohotlarni chuqurlashtirishga katta e’tibor qaratilayotganligi ayni muddaodir. Shunday ekan mavjud suv resurslaridan suv tejamkor texnaologiyalarni qo‘lagan hoda foydalanish maqsadga muvofiqdir[2-3].

Buning uchun eng avvalo suv resurslari bilan faoliyati bevosita bog‘liq bo‘lgan mutaxassislar va barcha iste’molchilar suv resurslaridan foydalanishga bo‘lgan o‘z munosabatlarini tubdan o‘zgartirishlari lozim bo‘ladi.

Irrigatsiya tizimlarida beton qoplamali va tuproq o‘zanli kanallarda suvni taqsimlash va qishloq xo‘jaligi ekinlarini barqaror sug‘orishda muhim o‘rin tutadi. Biroq kanallardan ekspluatatsiya jarayonida suv o‘tlarining ortib borishi oqimning gidravlik parametrlariga salbiy ta’sir ko‘rsatib, kanalning o‘tkazuvchanlik qobiliyatini pasaytiradi, suv isrofini oshiradi va ekspluatatsion xarajatlarni ko‘paytiradi. Shu sababli, kanallarni suv o‘tlaridan tozalash bo‘yicha ilmiy asoslangan dala tadqiqotlarini olib borish dolzarb hisoblanadi.

Ushbu tadqiqotda Qashqadaryo viloyati Qarshi magistral kanali irrigatsiya tizimi boshqarmasiga qarashli beton va tuproq o‘zanli kanallarda suv o‘tlarining shakllanishi, ularning oqimning gidravlik rejimga ta’siri, dala tadqiqotlari usullari, oqimning asosiy gidravlik parametrlarini o‘lchash imkoniyatlari, kanalning o‘tkazuvchanlik qobiliyati yomonlashishi qonuniyatlari hamda kanal o‘zanini tozalash mavsumlarini ilmiy jihatdan asoslash masalalari yoritiladi [4-5].

Qashqadaryo viloyatida olib borilgan oxirgi yillardagi dala tadqiqotlari taxlillar olib borildi:

Xozirgi kunda QMK ITB qarashli M-3 kanalini mexanizmlar yordamida loyqadan tozalash ishlari olib borilmoqda. M-3 kanali to‘liq tuproq o‘zanli kanal bo‘lib, 1978 yilda qurilgan, uzunligi 31 km, suv o‘tkazish qobiliyati 36 m^3/sek. Qarshi, G‘uzor va Koson tumanlariga jami 21 210 gektar maydonga suv yetqazib beradi.



2-rasm. Viloyatida tuproq o‘zanli kanallarni tozalash ishlari. M-3 kanali.

Viloyatida tuproq o‘zanli kanallarni betonlashtirish bo‘yicha olib borilayotgan ishlar natijasida kanallar orqali oqib o‘tayotgan suvning isrof bo‘lishi oldi olinmoqda. Jumladan, bugun Qarshi tumani “Y.Omonov” hududida joylashgan “Omontepa” kanalida hashar tashkil qilinib, kanalning 800 metr qismida betonlashtirish ishlari olib borildi va mazkur ishlar davom etmoqda.

Shuningdek, ayni kunda Qarshi tumani “Suv yetkazib berish xizmati” davlat muassasasiga qarashli suv obyektlarida keng ko‘lamli ta’mirlash va tiklash ishlari amalga oshirilmoqda.

Jumladan, 2025–2026 yillar kuzgi-qishki mavsum davomida xo‘jaliklararo kanallarning 12,5 km qismi, xo‘jalik ichki sug‘orish tarmoqlarining 239,5 km qismi mexanizmlar yordamida, shuningdek klaster va fermer xo‘jaliklari hisobidagi ichki sug‘orish tarmoqlarining 388,0 km qismi qo‘l kuchi orqali tozalandi. Mazkur ishlar suv oqimining erkin va samarali harakatlanishiga imkoniyatini yaratmoqda.

Dala tadqiqotlariga ko‘ra o‘zani beton bilan qoplangan kanallarda suv o‘tlarining kanallarda paydo bo‘lish sabablari o‘rganildi unga ko‘ra:

Kanal o‘zanida oqimning nisbiy tezligi pastligi va turg‘un oqim uchastkalari mavjudligi ya’ni o‘zan loyqa oqiziqlarga to‘lib qolishi

suvda oziq moddalar (azot, fosfor birikmalari) konsentratsiyasining yuqori bo‘lishi;

Yilning o‘rtacha havo harorati va suv haroratining oshishi, ayniqsa bahor–yoz mavsumida

kanal o‘zanining g‘adir budurligi oshishi va ko‘ndalang qirqimini tuzilishi o‘zgarishi ayniqsa tuproq o‘zanni kanallarda

O‘zani beton bilan qoplangan kanallarda ekspluatatsiya davomida kanal o‘zan yetarlicha tozalanmasligi.

Buning natijasida o‘zani beton bilan qoplangan kanallarda suv o‘tlari ildiz otib, o‘zan geometriyasini o‘zgartiradi, asosan devor va tub yuzasida biologik qoplamalar hosil bo‘lmoqda.



3-rasm.Amu-Qashqadaryo ITHB huzuridagi nasos stansiyalari va energetika boshqarmasiga qarashli G‘uzor tumanidagi Do‘stlik kanali



4-rasm.Qarshi MK ITB Qarshi gidrouzeli o‘ng qirg‘oq kanali loyqa cho‘kindilaridan tozalash ishlari

Koson tumani hududida joylashgan “Gadan po‘lati” kanali, 3000 gektar sug‘oriladigan maydonga xizmat qiladi. U 1987 yilda qurilgan. Kanalning asosiy qismi tuproq o‘zanli bo‘lib, suv o‘tkazish qobiliyati 6.0 m³/sek ni tashkil etadi. Ushbu kanalning uzunligi 20 km bo‘lgan qismi loyqa bosishi va texnik holati yomonlashgani sababli suv yo‘qotish ko‘rsatkichi yuqori bo‘lib kelgan.

Hozirgi kunda kanalning foydali ish koeffitsiyenti 65–70 foizni tashkil etmoqda. Bugungi kunda obyektda pudratchi tashkilot — "Meliota’mirqurilish" MCHJ tomonidan rekonstruksiya ishlari amalga oshirilmoqda. Obyektga 9 ta ekskovator, 4 ta avtosamosval, 4 ta beton aralashtiruvchi mikser va 70 nafar ishchi jalb qilingan. Kanalda yer ishlari va beton yotqizish ishlari jadal sur’atlarda olib borilmoqda.



5-rasm. “Gadan po‘lati” kanali to‘liq betonlash

“Gadan po‘lati” kanali to‘liq betonlashtirilishi natijasida tumandagi 3000 gektar sug‘oriladigan maydon kafolatli suv bilan taminlanib, kanalning foydali ish koeffitsiyenti 90 foizga oshiri imkoniyati yaratiladi.

Ayni paytda kanalning muhofaza maydonida ko‘chat ekish va obodonlashtirish ishlari ham amalga oshirilmoqda.

Kanallarni tozalash ishlarini rejalashtirishda mavsumiy omillar ahamiyatiga e’tibor berilmoqda

Bahor oldidan – asosiy sug‘orish mavsumiga tayyorgarlik;

Yoz o‘rtasida – suv o‘tlarining eng faol o‘sish davrida qisman tozalash;

Kuzda – mavsum yakunida to‘liq tozalash va profilaktika.

Beton va tuproq o‘zanli kanallarda suv o‘tlaridan tozalash bo‘yicha olib borilgan dala tadqiqotlari kanalning gidravlik parametrlarini barqaror saqlashda muhim ahamiyatga ega. Ilmiy asoslangan dala tadqiqotlari va tahlillar asosida tozalash mavsumlarini to‘g‘ri belgilash, kanalning o‘tkazuvchanlik qobiliyatini tiklash va suv resurslaridan samarali foydalanish imkonini berdi. Ushbu yo‘nalishdagi tadqiqotlar irrigatsiya tizimlarining ishonchliligi va uzoq muddatli samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Qashqadaryo viloyatida tuproq o‘zanli kanallarni betonlashtirish bo‘yicha Qarshi tumanida “Y.Omonov” hududida joylashgan “Omontepa” kanalida hashar tashkil qilinib, kanalning 800 metr qismida betonlashtirish ishlari olib borildi va mazkur ishlar davom etmoqda. Shuningdek, ayni kunda Qarshi tumani “Suv yetkazib berish xizmati” davlat muassasasiga qarashli suv obyektlarida keng ko‘lamli ta’mirlash va tiklash ishlari amalga oshirilmoqda. Jumladan, 2025–2026 yillar kuzgi-qishki mavsum davomida xo‘jaliklararo kanallarning 12,5 km qismi, xo‘jalik ichki sug‘orish tarmoqlarining 239,5 km qismi mexanizmlar yordamida, shuningdek klaster va fermer xo‘jaliklari hisobidagi ichki sug‘orish tarmoqlarining 388,0 km qismi qo‘l kuchi orqali tozalandi. Mazkur ishlar suv oqimining erkin va samarali harakatlanishiga imkoniyat yaratmoqda.

Qarshi tumanida 2025–2026 yillar kuzgi-qishki mavsumda irrigatsiya-melioratsiya tarmoqlarini yaxshilash doirasida xo‘jaliklararo irrigatsiya tarmoqlarining 36 km qismida hamda klaster va fermer xo‘jaliklari hisobidagi ichki sug‘orish tarmoqlarining 259 km qismida betonlashtirish ishlarini amalga oshirish rejalashtirilgan.

Qashqadaryo viloyati qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yyetishtirishda mamlakatimizning muhim tarmoqlaridan biri hisoblanadi. Viloyatda suv resurslari juda qimmatli bo‘lib, sug‘orish uchun ishlatiladigan suvning 83 foizi qo‘shni davlatlardan keladi. Shundan 75 foizi Amudaryo orqali Turkmaniston hududi (1,2-rasmlar) orqali, 8 foizi esa Tojikistonning tog‘ va daryo irmoqlaridan shakllanadi. Bu suvlar murakkab texnik tizimlar va katta mablag‘lar evaziga mamlakatimizga yetkaziladi [6].

Ushbu suv resurslari Amudaryo kaskadidan 7 ta ulkan nasos stansiyasi bilan jami 45 ta katta hajmdagi nasos agregatlari orqali 79,6 km masafada 132 metr balandlikda suv ko‘tarilib, Talimarjon suv omboriga tashlanadi va viloyatning Nishon, Mirishkor, Qarshi, Kasbi, G‘uzor, Koson

tumanlaridagi jami 335 - 340 ming gektar sug‘oriladigan yyer maydonlariga yyetkazib beriladi. Amu-Qashqadaryo irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi Qashqadaryo viloyatida sug‘oriladigan maydonlar 514114 gektarni tashkil etadi.Viloyatda 26 ta suv xo‘jaligi tashkiloti bo‘lib, shundan 20 ta suv xo‘jaligi tashkilotlari Amu-Qashqadaryo irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasiga qarashlidir.

Havza boshqarmasiga qarashli irrigatsiya tizimi boshqarmasi va uning tizimi hisobida 10 bo‘lim, jami 2467,5 km uzunlikda 253 ta magistral va xo‘jaliklararo kanallar bo‘lib, shundan, magistral kanallar 431,1 km va xo‘jaliklararo kanallar 2036,1 kmni tashkil etadi. Irrigatsiya tizimi boshqarmasi va uning hisobidagi 2467,5 km kanallarning 1592,7 km beton qoplamali, 858,7 km tuproq o‘zanli, 16 km lotok tarmoqlari hisoblanadi.

Ushbu kanallarda jami 3691 dona gidrotexnik inshoot, 2017 dona gidropost, 1269 km ekspulatatsiya yo’llari va 0,5 km dambalar mavjud. Bundan tashqari, viloyatdagi SIU va fermer xo‘jaliklari hisobida 20449 km uzunlikdagi xo‘jalik ichki sug‘orish tarmoqlari bo‘lib, shundan, tuproq o‘zanli tarmoqlar 10791 km, beton qoplamali tarmoqlar 3756 km, lotok sug‘orish tarmoqlari 5440 km va yopiq tarmoqlar 463 kmni tashkil etadi.

Ularda, 13383 ta gidrotexnik inshootlar, 15131 ta gidropostlar va 12732 ta fermer xo‘jaligi suv olish quloqlari mavjud. Suv resurslarini boshqarish va ulardan foydalanish uchun har bir havzani suv xo‘jalik tumanlari va rejalashtirish zonalariga bo‘lib olish qabul qilingan. Rejalashtirish zonasi - bu submintaqaning bir xil tabiiy va ma’muriy tavsifga ega alohida qismi bo‘lib, u sug‘orish va boshqa antropogen faoliyat bilan aniqlanadi hamda daryo (suv xo‘jaligi sub-mintaqasi) bilan suv olish va suv tarqatish inshootlari orqali bog‘langan suv iste’molchisi deb qaraladi va uning hududida suvdan foydalanishi asosida milliy mahsulot va foydaning bir qismi yaratiladi, aholining suvga, oziq-ovqat mahsulotlariga va ijtimoiy bandlikka bo‘lgan ehtiyoji qondiriladi.

Xulosa. O‘zbekistonning suv xo‘jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo‘ljallangan konsepsiyasi loyihasi suv sohasida to‘planib qolgan muammolarni hal qilishga qaratilgan juda muhim hujjat xisoblanadi. Suv tanqisligini yumshatish bo‘yicha amalga oshirilishi lozim bo‘lgan chora-tadbirlar bo‘lgan sug‘oriladigan yerlarni tekislash, tejamkor sug‘orish texnologiyalarini qo‘llash, chegaralangan suv resurslaridan foydalanish holatining tahlili va uning kelajagi shuni ko‘rsatib turibdiki, kelgusida suv resurslaridan foydalanish va ularni boshqarishning oqilona yo‘llarini qidirib topish, kanallarni suv o‘tkazuvchanlik qobiliyatini yaxshilash eng dolzarb muammo bo‘lib qoladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. Абдуллаев И. Х., Жалилов С. М. Ўзбекистонда сув хўжалиги ислоҳотлари ва самарадорлик масалалари. – Тошкент, 2021.

2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг ПҚ–6024-сон қарор. “2020–2030 йилларда Ўзбекистон Республикасининг сув хўжалигини ривожлантириш концепцияси тўғрисида”. қарори – 10.07.2020 й.

3. A.Suyunov, F.Khushmurodov, Sh.Suyunov1, D. Hamdamova, M.Aminjanova. Ecological and geographical aspects of land using in forming agrolandscapes. E3S Web of Conferences 463, 02006 (2023). https://doi.org/10.1051/e3sconf/202346302006.

4. Bazarov Dilshod, Bobur Shodiyev, Boxodir Norkulov, Umida Kurbanova, Ashirov Boyburi Sheraliyevich. Aspects of the yextension of forty yexploitation of bulk reservoirs for irrigation and hydropower purposes. YE3S Web of Conferences 97, 05008 (2019) https://doi.org/10.1051/ye3sconf/20199705008

5. Bazarov, D., Norkulov, B., Artikbekova, F., Mamataliev, A., Ahmadi, M., Salimbaeva, I., & Ahmadova, E. (2025, July). Numerical studies in the bed of the Amudarya river at the site of damless water intake into the Karshi Main Canal. In AIP Conference Proceedings (Vol. 3256, No. 1, p. 020001). AIP Publishing LLC.

6. Norkulov, B., Ahmadi, M., Ashirov, B., Shodiev, B., Jumabaeva, G., Salimbaeva, I., & Rustamova, D. (2025, June). Assessment of deformation patterns in the feed canals of infill reservoirs. In AIP Conference Proceedings (Vol. 3286, No. 1, p. 040039). AIP Publishing LLC.

BUGUNGI KUNDAGI EKOLOGIK MUAMMOLAR

Xushvaktova Xusnobod Soliyevna, Qayumova Shaxlo
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti,

Annotatsiya. Ushbu maqolada Markaziy Osiyo xududlarida 2050 yilga borib, chuchuk suv zahiralari 10-15 foizga kamayishi, chuchuk suv tanqisligi, uning oqibatlari, Toshkent shahrida atmosfera havosini ifloslantiruvchi zarralar, haqida ma’lumotlar keltirilgan. global isish sabalalari va oqibatlari bo‘yicha ham qiziqarli maxlutsmotlar mavjud.

***Kalit so‘zlar**: chuchuk suv, iqlim, atmosfera havosi, Toshkent, demografiya, ekologiya.*

Kirish. Ekolog va iqlimshunos olimlarni ma’lumotlariga ko‘ra, Markaziy Osiyo xududlarida 2050 yilga borib, chuchuk suv zahiralari 10-15 foizga kamayishi, tuproqlarni degradatsiyasi esa yanada oshishi va oziq-ovqat manbai bo‘lgan qishloq xo‘jalik ekinlarini hosildorligi 20-25 foizga pasayishi kutilmoqda. Ammo ushbu holatlarga qarama qarshi, bu xudud aholi soni oshib borayotgan xududlar sirasiga kiradi. Mintaqada mavjud hayvon va o‘simlik turlarining 12 foizi yo‘qolish xavfi ostida ekanligi bashorat qilinmoqda. Olingan ushbu ma’lumotlar Markaziy Osiyodagi ekologik muammolarning kun sayin og‘irlashib boayotganligini ko‘rsatadi. Mamlakatimiz esa Markaziy Osiyo davlatlarining aholi soni eng ko‘p, oziq ovqat mahsulotlariga talabi katta 38 millon aholini ta’minlashi lozim bo‘lgan xudud xisoblanadi. Mana shunday o‘sib borayotgan aholini chuchuk suv va oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta’minlash uchun imkon qadar qurg‘oqchil maydonlar, sahrolar, tog‘ oldi yon bag‘irlaridan imkon qadar foydalanish zarurligini ko‘rsatadi.

2025 yil yil xukumat tomonidan “Atrof muhitni asrash va “yashil” iqtisodiyot yili” deb qabul qilingan ekan, demak bu borada bizdan katta loyihalarni amalga oshirishni talab qiladi. “Yashil makon” umummilliy loyihasi doirasida ekologik madaniyatni rivojlantirish, yashil hududlar yaratish va tabiiy zaruratni tashkil qiladi.

Materiallar va uslublar.Tabiatda yuz berayotgan iqlim o‘zgarishlari bugungi kunda insonlar uchun va jamiyat uchun katta global tahdidga aylanib borayotganni ko‘ramiz. Ushbu holat mamlakatlararo geosiyosiy kelishmovchiliklarni keltirib chiqarmoqda. Chunki global isish degan so‘z- o‘z oqibatida tuproqlarning cho‘llanishga, sho‘rlanishga, ekinlarni xosildorligining kamayib borishga, suvsizlik, qurg‘oqchilik, yoki toshqinlar, to‘fonlar natijasida yetishtirilgan ekinlarning vayron bo‘lishiga, aholi turar joylarning xonavayron bo‘lishi kabi oqibatlarni keltirib chiqarmoqda. Bunday salbiy voqealar o‘z navbatida oziq- ovqat yetishmovchiligi, chuchuk suv tanqisligi, tuproqlarni unumdorligi pasayib borishiga, yoqilg‘i- energetika taqchilligi, suv va boshqa insoniy resurslardan foydalanish muammolarini oshirib yubormoqda.

Aslida bunday voqealar birgina O‘zbekistonda emas balki butun dunyoda yuz bermoqda. Yoki dunyoning ko‘pgina mamlakatlarida yilning turli fasllarida katta suv toshqinlari bo‘lib aholining ijtimoiy turmushiga jiddiy zarar yetkazmoqda. Keltirilgan zarar miqdori milliardlab dollar va yevroni tashkil qiladi, transport logistikasi umuman to‘xtamoqda. Ammo halok bo‘lgan insonlar hayotini hech narsa bilan to‘lab bo‘lmaydi. Iqlim o‘zgarishi manzarasi butun dunyo bo‘ylab u yoki bu tarzda ko‘zga tashlanmoqda. Yoki 2024-2025 yillarda dunyodagi eng yuqori haroratga ega bo‘lgan kunlar shu yil yoz faslida kuzatildi. Bizni Toshkent shahrida keyingi 170 yilda mana shunday issiq havo harorati rekord darajaga yetganligi qayd qilindi.

Bugungi kunda dunyoda ikki milliarddan ortiq yer maydoni degradatsiyaga uchrashi, yer shari aholisining yarmisi uchun oziq- ovqat tangligini keltirib chiqarishi mumkin bo‘ladi va yarim planetadi qushlar va xayvonlar soninig kamayib ketishiga olib keladi.

Bundan tashqari chuchuk suvlarni bug‘lanib va isrof bo‘lishi natijasida suv tanqisligini keltirib chiqaradi, eroziya natijasida katta unumdor maydonlarni changga aylantirib quymoqda. Masalan Afrika mamlakatlarida misli ko‘rilmagan ikkinchi holat ikki-uch yilda yog‘inlar ko‘p yog‘moqda va turli xil yovvoyi gullarning qisqa muddatda bo‘lsa ham ochilishiga olib kelmoqda. Ushbu gullarga ular “ yovvoyi lavanda” deb nom berishgan. Ushbu sahroda uzunligi 800 km bo‘lgan xududda yo‘l bo‘ylab yovvoyi lavandaning ochilib turishini turistlar mamnun bo‘lmoqdalar.

Natijalar va muhokamalar. Endi Global isishning Toshkent shahridagi atmosfera ifloslanishiga oid masalalarga to‘xtalamiz : ma’lumki oxirgi yillarda Toshkent shahrida atmosfera

havosining metan, azot oksidi, azot dioksidi, oltingugurt dioksidi, uglerod oksidi kabi gazlar ruhsat etilgan meyoridan ortiq ekanligini, shahar havosi ifloslanish darajasi bilan dunyodagi katta megapolislar qatoridan o‘rin olayotganligini ma’lumotlardan yaxshi bilamiz.

Bu masalaning asl sababi qayerda?

Nega Toshkent odam soni kam bo‘lishiga qaramasdan atmosfera havosi ifloslarnishi jihatida dunyoning o‘ntalik shaharlari qatoridan joy oldimoqda?

Dunyoda bo‘yicha qabul qilingan havonig ifloslanish indeksi mavjud bo‘lib, unda atmosfera havosidagi og‘ir metallarning miqdori bilan o‘lchanadi.

Atmosfera havosini ifloslovchi ushbu RM-10 va RM-2,5 zarrachalar qanday paydo bo‘ldi, nega ular Toshkentga bunchalar joylashib olgan deysiz- sababchi aslida antropogen omil-yoki inson omilidir. Lekin tabiiy omillar ham ishtirok etadi, yong‘inlar, vulqonlar, suv toshqinlari, shamollar, quyosh portlashi natijasida mayda zarrachalar atmosferaga tashlanadi. Masalan Loxur, Dehli, Shanxay shaharlarida odam soni juda ko‘p, ammo bizni shahrimizda odam soni ularga qaraganda 3-5,4,5 baravarga kam, ammo ifloslanish darajamiz ular bilan baravar. Nega Toshkent shahrida bunday holat vujudga keldi, nega o‘zimiz yashaydigan shaharga bunchalar befarq bo‘lib qoldik, bu shaharda respublikadan hammanig kimidir yashaydi, chunki poytaxt bo‘lganligi sababbo‘qiydi, ishlaydi yoki oddiygina qilib aytsak yashaydi?

Ekologik inqirozni sababi nimada?

Toshkent shahrida qurlilishlar juda ko‘paygan va daraxtlar qonunga buysunmagan holatda uzluksiz kesilmoqda. Quruvchilar, kesgan daraxtlarni o‘rnini to‘ldirish mutlaqo o‘ylamaydi. Ekilgan ko‘chatlarni katta qismi suvsizlikdan qurib ketadi.

Shaharning bosh rejalarida yashil landshaftlar tashkil qilish ko‘zda tutilgan, ammo amalda deyarli yo‘q! Qurilishlarga e’lon qilingan moratoriy ishlamaydi.

Ifloslantiruvchi zarrachalarni xosil qiluvchi avtotransport vositalari soni 2023 yilda ularning soni 4,6 mln donaga yetgan. Shaharda bir kunda o‘rtacha 730 mingta avtotransport vositasi harakatlansa, qo‘shimcha ravishda hududlardan 160 mingdan 300 minggacha avtotransport vositasi kirib kelmoqda. Shaharda tirbandlikda to‘xtab turgan avtomobil esa harakatlanayotgan avtomobilga nisbatan atmosferaga ko‘proq zaharli moddalarni chiqaradi.

Kuz-qish mavsumida shahar atrofidagi issiqxonalarda mazut va shinalardan foydalanishi atmosfera havosining keskin ifloslanishiga olib kelmoqda. Birgina Toshkent shahridagi mavjud 6 ta issiqlik markazlarining 9 ta qozonxonalarida dekabr oyida 3 ming tonna mazut yoqilg‘isidan foydalanilgan.

Toshkent shahri havosi ifloslanishiga yana bir sabab shahar atrofi tog‘lar bilan o‘ralgan va chuqurlikda joylashgan, shamol aylanmasdan chang havo oqimi shaharda turib, dimlanib qoladi va tabiiy yo‘l bilan chiqib ketmaydi.

Xulosa. Demak mana shu holatlarning oldini olish aslida biz insonlarning o‘z qo‘limizda, Tabiatni asrash va uni saqlab qolish burchimizdir. Insonlarda o‘zi yashab turgan tabiatga bo‘lgan hurmat yoki ekologik madaniyat shakllanmas ekan, chuchuk suvlar ortiqcha sarflanadi, o‘z manfaati yo‘lida daraxtlar kesiladi, ko‘chalar tirbandlashadi, oqibatda bioxilmaxillik yo‘qoladi, ammo TABIAT tirik, u doimo o‘zini ximoya qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish davlat qo‘mitasi. Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasidagi qonun 15. 01 2019.

2. Atrof muhit holati to‘g‘risida Milliy ma’ruza. Toshkent. 2023.

3. Alixanov B. O‘zbekistonning ekologik sharhi. Toshkent, 2023.

4. Yormatova. Sanoat ekologiyasi. Fan va texnologiya. .Toshkent 2008.

5. D.Yormatova. Tabiiy fanlarning zamonaviy konsepsiyasi. Fan va texnologiya. Toshkent 2018.

6. Yormatova D.Y., Xushvaqtova X.S., Moldaxanov B. Ekologiya fanidan amaliy mashg‘ulotlar. Fan va texnologiya. Toshkent. 2025.249 b.

UDK 004.8:628.1

KOLLEKTOR-DRENAJ SUVLARINI CHUCHUKLASHTIRISH VA TOMCHILATIB SUG‘ORISHNI OPTIMALLASHTIRISH TIZIMIDA SUN’IYY INTELLEKT DAN FOYDALANISH ARXITEKTURASI

Turgunov A.M.
Osiyo texnologiyalar universiteti
Ibodillayev F., Avlakulova M.M.,
Qarshi davlat texnika universiteti

Annotatsiya. Ushbu maqolada Qashqadaryo viloyati kollektor-drenaj suvlarini teskari osmos (RO) texnologiyasi orqali chuchuklashtirish va sun’iy intellekt (AI) asosidagi tomchilatib sug‘orish tizimini optimallashtirishning kiber-fizik arxitekturasi taklif etilmoqda. Tizim uch qatlamdan iborat: ma’lumotlar yig‘ish (sensorlar), sun’iy intellekt va tahlil (Mashinali o’qitish (ML) -modellar va optimallashtirish algoritmlari) hamda ijro va fizik jarayonlar (RO-qurilma va aqlli qurilmalar). Kiber-fizik yondashuv real vaqt rejimida suv sifati, meteorologik va tuproq holatini monitoring qilish, suv sarfini 40–50% tejash va hosildorlikni 30–40% oshirish imkonini beradi. Taklif etilayotgan arxitektura Qashqadaryo iqlim va tuproq sharoitlariga moslashtirilgan bo‘lib, O‘zbekistonda birinchi marta amaliyotga joriy etilishi rejalashtirilmoqda.

Kalit so‘zlar: *sun’iy intellekt, kiber-fizik tizimlar, teskari osmos, IoT-sensorlar, optimallashtirish algoritmlari, drenaj suvlari, smart sug‘orish.*

Kirish. Dunyoda iqlim o‘zgarishi va aholining tez o‘sishi butun jahon miqyosida suv resurslariga bo‘lgan talabni keskin oshishiga olib keladi.

Qashqadaryo viloyatini 70 % dan ko’proq sugorish uchun suvlar Amudaryo o’zanidan olib kelinadi. Statistik ma’lumotlarga ko’ra kelgan suvlarni 20-25 % kollektor-drenaj tizimi orqali sho’rlangan suv ko’rinishida chiqib ketadi. Kelajakda aholi va qishloq xo‘jaligining suvga bo‘lgan va kundan-kunga tobora ortib borayotgan talabini barqaror qondirish faqat sun’iy intellekt (SI) va Internet of Things (IoT) texnologiyalari orqali suv resurslarini real vaqt rejimida monitoring qilish, bashorat qilish va optimallashtirish yo‘li bilan qondirish mumkin bo‘ladi. Ushbu texnologiyalarni kollektor-drenaj suvlarini chuchuklashtirish va tomchilatib sug‘orish jarayonlariga integratsiya qilish muammoni hal qilishning eng innovatsion va samarali yechimi hisoblanadi.

Taklif etilayotgan tizim kiber-fizik tizimlar (Cyber-Physical Systems) konsepsiyasiga asoslanadi. Unda fizikaviy jarayonlar (suv oqimi, sug‘orish) raqamli intellekt tomonidan real vaqt rejimida boshqariladi. Ushbu maqolada tizimning yuqori darajali arxitekturasi batafsil bayon etiladi.

Tizim arxitekturasi

Tizim funksional jihatdan uchta asosiy qatlamga bo‘lingan (1-rasm):

1. Ma’lumotlar yig‘ish qatlami (Sensing Layer)

Bu qatlam tizimning “sezgi organlari” hisoblanadi. Real vaqt rejimida (har 5–15 daqiqada) ma’lumotlar yig‘iladi:

- Suv sifati sensorlari (EC, pH, TDS, suyuqlikning loyqaligi) – kollektor suvining sho‘rligi va sifatini monitoring qiladi.
- Dala ob-havo stansiyasi (harorat, namlik, shamol, yog‘ingarchilik) – ET_c ni hisoblash uchun.
- Tuproq va o‘simlik sensorlari (namlik, harorat, suv stress indeksi) – 0–100 sm chuqurlikda o‘rnatiladi.

Barcha sensorlar LoRaWAN yoki NB-IoT protokollari orqali ma’lumot uzatadi.

2. Sun’iy intellekt va tahlil qatlami (Processing & AI Layer)

Markaziy bulutli platforma (masalan, AWS IoT yoki mahalliy server) da joylashadi.

- Bashoratli ML-modellar: LSTM yoki Random Forest algoritmlari tarixiy ma’lumotlar (2020–2025 yillar) asosida suv ehtiyojini 24–72 soat oldindan bashorat qiladi.
- Ko‘p mezonli optimallashtirish: Genetic Algorithm (GA) yoki Particle Swarm Optimization (PSO) bir vaqtning o‘zida quyidagilarni minimallashtiradi:
  – Energiya sarfi (RO nasoslari);
  – Suv sarfi (sug‘orish me’yori);

– Hosildorlikni pasayish xavfi.

Maqsad funktsiyasi:

$$\min(w_1 \cdot E + w_2 \cdot Q - w_3 \cdot Y)$$

bu yerda: (E) – energiya, (Q) – suv sarfi, (Y) – hosildorlik, (w_i) – vazn koeffitsientlari.

SI har 30 daqiqada qaror qabul qiladi va ijro qatlamiga buyruq yuboradi.

3. Ijro va fizik jarayonlar qatlami (Actuation & Physical Layer)

- RO-chuchuklashtirish bloki : AI buyruqiga qarab bosim va oqimni o‘zgartiradi (90–95% samaradorlik). Tozalangan suv 500–1000 m³ sig‘imli hovuzda saqlanadi.
- Aqlli tomchilatib sug‘orish tizimi : Solenoid oqimni ochish/yopish yoki miqdorini sozlash uchun ishlatiladigan qurilmalar (valflar) va o‘zgaruvchan tezlikli nasoslar (VFD) dalani zonalarga bo‘lib, aniq miqdorda suv yetkazib beradi.

Tizim yopiq zanjirli bo‘lib, har bir tsikldan keyin natijani tahlil qiladi va o‘zini takomillashtiradi.



1-rasm. Tizimning yuqori darajali blok-sxemasi.

Material va metodlar

Tadqiqotda Qashqadaryo viloyati tuprog‘i (og‘ir va o‘rta qumoq) va iqlim ma’lumotlari asos qilib olingan.

- Sensorlar: Decagon GS3 (namlik), Atlas Scientific (EC/pH).
- AI-platforma: Python (TensorFlow, Scikit-learn) va Edge Computing (Raspberry Pi 5).
- Simulyatsiya: MATLAB/Simulink va AnyLogic dasturlarida 2024–2025 yillar uchun modellashtirildi.

Natijalar va muhokama

Simulyatsiya natijalari quyidagilarni ko‘rsatdi:

- Suv sarfi 42–48% ga kamaydi (an’anaviy RO + qo‘lda sug‘orishga nisbatan).
- Energiya sarfi 35% ga tejaldi.
- Hosildorlik (kuzgi bug‘doy) 28–36% ga oshdi.
- Tizimning moslashuvchanligi: sho‘rlik 6,5 g/l dan yuqori bo‘lsa, RO avtomatik ravishda rejimni o‘zgartiradi.

Xalqaro tajribada (Obaideen va boshq., 2022; Tekle va Alazzam, 2025) shunga o‘xshash AI+RO tizimlari 30–50% tejashni ta’minlagan. Qashqadaryo sharoitida mahalliy sensorlar va ML-modellar tufayli samaradorlik yuqoriroq bo‘ldi.

Xulosalar

Taklif etilayotgan kiber-fizik arxitektura kollektor-drenaj suvlarini samarali chuchuklashtirish

va optimallashtirilgan tomchilatib sug‘orishni ta’minlaydi. Tizim real vaqt rejimida ishlaydi, resurslarni tejaydi va Qashqadaryo viloyati qishloq xo‘jaligini iqlim o‘zgarishiga moslashtiradi. Kelgusida tizimni pilot maydonda (10–50 ga) sinovdan o‘tkazish va iqtisodiy tahlilni o‘tkazish rejalashtirilmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Obaideen K. va boshq. (2022). Smart irrigation systems using AI and IoT. Sustainable Energy Technologies and Assessments .

2. Tekle A., Alazzam A. (2025). AI for reverse osmosis desalination. Desalination .

3. Ergashev B. va boshq. (2024). Water management in Central Asia. ASEAN Journal of Science and Engineering .

4. FAO. (2024). The State of Food and Agriculture: Climate Change and Water. Rome.

5. Liakos K. va boshq. (2018). Machine learning in agriculture. Computers and Electronics in Agriculture .

6. Mirzabaev A. va boshq. (2021). IPCC AR6: Climate Change and Land.

7. Qazi A. va boshq. (2023). IoT in precision agriculture. IEEE Internet of Things Journal .

8. Turgunov A.M. Математический модель и алгоритм искусственного интеллекта в капельном орошении. //Инновационные технологии. Научный журнал. 2024 1/53. ISBN 2181-4732.

KICHIK GIDROELEKTR STANSIYALARLARNING NARXI VA IQTISODIY SAMARADORLIGINI ANIQLASH

Urishev B.U., Quvatov U. J., Bozorov E., Yangiboyev L.

Annotatsiya. Maqolada kichik gidroelektr stansiyalarning jahon energetikasidagi o‘rni, ahamiyati va uning iqtisodiy parametrlarini aniqlash usullari keltirilgan. Bugungi kunda jahonda, O‘zbekiston Respublikasida qurilayotgan kichik GESlarning iqtisodiy parametrlari to‘g‘risida ma’lumotlar berilgan. Qurilayotgan GESlarning iqtisodiy samaradorligini yillik xarajatlarni taqqoslash usuli bilan aniqlash uslubiyoti va hisoblash natijalari keltirilgan.

Kalit so‘zlar: *gidroelektr stansiya, GES napori, GES quvvati, GES qurilishining solishtirma narxi, energiya tizimi.*

Аннотация. В статье представлена роль и значение малых гидроэлектростанций в мировом энергетическом секторе и методы определения их экономических параметров. Приведена информация об экономических параметрах малых гидроэлектростанций, строящихся в настоящее время в мире и Республике Узбекистан. Представлена методология определения экономической эффективности строящихся гидроэлектростанций с использованием метода сравнения годовых затрат и результаты расчетов.

Ключевые слова: *гидроэлектростанция, напор гидроэлектростанции, мощность гидроэлектростанции, удельная стоимость строительства гидроэлектростанции, энергетическая система.*

Kirish. Bugungi kunda jahon energetikasida kichik GESlar yetuk texnologiya va boshqaruv tizimiga ega, shu sababli energiya ishlab chiqarish jarayoni atrof-muhitga minimal ta’sir ko‘rsatadi, iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiq hisoblanadi, kichik gidroelektr stansiya (KGES)lar qisqa muddatlarda qurib bitkaziladi, ularning suv omborlari ko‘p joylarni egallamaydi [1,2,3].

Dunyoning ko‘pgina mintaqalarida markazlashgan holda energiya ta’minlash imkoni bo‘lmagan yoki katta xarajalarni talab qiladigan aholi turar-joylarini elektrlashtirish muammolarini hal qilishga kichik gidroenergetika katta hissa qo‘shmoqda, aholining turmush darajasini va ishlab chiqarish sharoitlarini yaxshilashga yordam bermoqda. KGESlar gidroenergetik potensialga ega bo‘lgan deyarli barcha suv manbalari va inshootlarida qurilishi mumkin, hatto hech qanday quvurlar va tug‘onlardan foydalanmasdan, faqat suv oqimining kinetik energiyasi hisobiga ishlaydigan kichik energetik qurilmalar mavjud [1,2,3].

Keyingi paytlarda jahonda yakka holdagi kichik energiya tizimlari – (microgrid)lardan foydalanish keng rivojlanmoqda [4]. Mazkur tizimlar asosan qayta tiklanuvchan energiya manbalaridan, jumladan KGESlardan foydalanishga ham mo‘ljallangan bo‘lib, ulardan oqilona

foydalanish, energiya resurslarini tejash, zarur hollarda to‘plash (akkumulyatsiyalash) va to‘g‘ri taqsimlash hisobiga katta samaradorlikka ega bo‘lmoqda. Jahonning nufuzli energetik tashkilotlaridan biri Xalqaro Energetika Agentligining ma’lumotlariga ko‘ra 2030-yilga borib rivojlanayotgan mamlakatlarda kichik energetik tizimlarning energiya ta’minotidagi ulushi 30…40 % ni tashkil etadi [5].

O‘zbekiston Respublikasida ham energetikani rivojlantirish asosida iqtisodiyot tarmoqlarini va ijtimoiy sohani elektr energiyasi bilan to‘liq va sifatli ta’minlash bo‘yicha katta miqyosda ishlar olib borilmoqda.

O‘zbekiston Ryespublikasi Prezidentining 2022-yil 9-sentyabrdagi PF-220-son Farmoniga muvofiq quvvati 56562 kVt va bir yilda 202702 ming kVt·soat elektr energiyasi ishlab chiqaradigan, xuddi shuningdek 2024-yil 12 yildagi PQ-252 – son Qaroriga ko‘ra quvvati 26,6 MVt va bir yilda 110,6 mln. kVt·soat elektr energiyasi ishlab chiqaradigan mikro va kichik GESlarni qurish rejalashtirilgan.

Ushbu xujjatlar doirasida rejalashtirilgan ishlarni amalga oshirish uchun, nafaqat tabiiy suv oqimlarining quvvatidan foydalanish, balki mavjud gidrotexnika inshootlarining (suv omborlari, gidrouzellar va kanallar) gidroenergetika salohiyatidan foydalanish bo‘yicha ham ishlar olib borilmoqda. GESlar qurilishiga bunday yondashish tayyor gidrotexnika inshootlardan foydalanilganligi uchun sarflanadigan kapital xarajatlarni sezilarli darajada kamaytiradi [6]. GESlar gidrotexnika inshootlarining ish rejimiga moslashishi kerak bo‘lishi qaramasdan, ularda energiya ishlab chiqarish suv resurslaridan to‘liqroq va samaraliroq foydalanishga olib keladi va energiya tizimiga foyda keltiradi.

Kichik GESlarni rivojlantirish Birlashgan Millatlar Tashkilotining sanoatni rivojlantirish tashkiloti (UNIDO) va kichik gidroenergetika Xalqaro markazi (ICSHP) tomonidan tayyorlangan 2019-yilgi jahon kichik gidroenergetikasini rivojlantirish hisobotida ustuvor yo‘nalish sifatida tan olingan va uning mamlakatlardagi mavjud salohiyatidan to‘liqroq foydalanish zarurligi ta’kidlangan [7]. Yuqorida nomi zikr etilgan tashkilotlarning 2022-yildagi hisobotiga ko‘ra hozirgi kunda kichik GESlarning umumiy quvvati 80 GVtdan oshib ketdi [7].

Global Market Insights kompaniyasining ma’lumotlariga ko‘ra 2024-yilda kichik GESlar quvvati 350,6 MVtga ko‘paydi va 2034-yilga borib 429,8 MVtga yetishi mumkinligi bashorat qilinmoqda [8].

Materiallar va uslublar. Kichik GESlar loyihalarini texnik-iqtisodiy asoslashning dastlabki bosqichida ularni qurish uchun kapital qo‘yilmalar hajmini taxminan aniqlash imkoniyatiga ega bo‘lish juda muhimdir [3].

Texnik-iqtisodiy asoslash, loyihalash va qurish jarayonida loyiha qiymati aniqlanadi. GES sarf bo‘ladigan kapital mablag‘lar, belgilangan quvvatni va napor qiymatini hisobga olgan holda aniqlanadi. Shuning uchun elektr uzatish liniyalariga sarf bo‘ladigan mablag‘lardan tashqari barcha komponentlarni o‘z ichiga olgan GESga zarur bo‘lgan umumiy kapital mablag‘lar Gordon formulasi yordamida aniqlanishi mumkin [3].

$$K = 9{,}1 \cdot \theta \cdot \left(\frac{N_1}{H_1^{0,21}} \right)^{0,8}, N_1 = \frac{N}{N_0}, H_1 = \frac{H}{H_0} \qquad (1)$$

bu yerda: K - GESga sarf bo‘ladigan kapital mablag‘lar (million dollar), N - GESning o‘rnatilgan quvvati (kVt), H – GES napori (m), H_1 , N_1 - o‘lchamsiz parametrlar, N_0 = 1000 kVt, H_0 = 1 m - asosiy parametrlar, θ - mahalliy sharoitlarni hisobga olgan holda koeffitsiyent, θ = 0,3...1,0.

Masalan, GES quvvati N = 1000 kVt, napori H = 20 m bo‘lganda, yuqoridagi formulaga muvofiq uning solishtirma qiymati 1650...5500 $/kVt bo‘lishi mumkin. Qayta tiklanuvchi energiya manbalari bo‘yicha Xalqaro agentlik (IRENA) 2024 - yildagi yillik qayta tiklanadigan energiya ishlab chiqarish xarajatlari bo‘yicha ma’lumotlariga ko‘ra, katta GESlarning qurilishiga sarf bo‘lgan solishtirma mablag‘lar qiymati 2023-yilda 2806 dollar/kVt ni va bu raqam kichik GESlar uchun 4216 dollar/kVt ni tashkil etadi [9]. Lekin ushbu nashr kichik GESlar uchun berilgan bu raqamni ma’lumotlar kam bo‘lganligi uchun boshqa manbalardan tekshirib ko‘rish zarurligini ta’kidlaydi.

Yuqoridagi agentlik ma’lumotlariga ko‘ra 2016 va 2023-yillarda eng past xarajatlar katta GESlar uchun Hindistonda – o‘rtacha 1586 dollar/kVt, eng yuqori qiymat Janubiy Amerika

davlatlarida 2608 dollar/kVtni tashkil qildi [9].

Respublikamizda gidroenergetikani yanada rivojlantirish chora-tadbirlari Dasturining maqsadli parametrlarida [10] tabiiy suv oqimlari va suv xo‘jaligi inshootlarida yangi GESlar qurish bo‘yicha investitsiya loyihalarining solishtirma qiymati o‘rtacha 2330 dollar/kVt ni tashkil etadi, ya’ni, eng kam qiymat 1000 dollar/kVt Pskom daryosidagi Yuqori Pskom GESi, eng yuqori qiymat 4300 dollar/kVt (Darg‘om kanalining 39 + 19 piketidagi kichik GES)ga teng bo‘ldi. Bunda GES quvvatining oshishi bilan uning qiymati pasayadi, masalan, GES quvvati 50 MVt gacha bo‘lganida o‘rtacha solishtirma qiymat 3150 dollar/kVt, quvvat 50 MVt dan yuqori bo‘lsa 2060 dollar/kVt ni tashkil qiladi.

Kichik GESlarning iqtisodiy samaradorligini aniqlashning usullaridan GESda yuzaga keladigan yillik xarajatlari jami($\sum ЙX_{GES}$) ni xuddi shu quvvatdagi boshqa elektr stansiyasining yillik xarajatlari bilan solishtirish hisoblanadi. Katta quvvatli GESlarda boshqa elektr stansiyasi sifatida issiqlik elektr stansiyasi (IES), kichik GESlarda dizel elektr stansiyalari (DES) qabul qilinadi. Bunda quyidagi tengsizlik yuzaga kelsa, GESni qurish iqtisodiy samarali hisoblanadi.

$$\sum ЙX_{ГЭС} < \sum ЙX_{ДЭС} \qquad (2)$$

GESning yillik hisobiy xarajatlari$\sum ЙX_{GES}$ tarkibi asosan quyidagilardan iborat [3]

$$\sum ЙX_{GES} = ЙX_{foy.} + r \cdot K_{GES} \qquad (3)$$

bunda, $ЙX_{foy.}$ - GESning yillik foydalanish (ekspluatatsiya) xarajatlari.

K_{GES}– GESni qurishga sarf bo‘lgan kapital mablag‘lar miqdori.

r – real bank foiz yoki diskont stavkasi.

$ЙX_{foy.}$ miqdorini quyidagicha aniqlash mumkin [3]

$$ЙX_{foy.} = ЙX_{am} + ЙX_{jt} + ЙX_{sug'} + ЙX_{ih} + ЙX_{tx} + ЙX_{chtt} + ЙX_{bx} \qquad (4)$$

bunda, $ЙX_{am}$– GES bo‘yicha amortizatsiya xarajatlari;

$ЙX_{jt}$– joriy ta’mirlashga sarf bo‘ladigan xarajatlar;

$ЙX_{sug'}$– GESni sug‘urtalash xarajatlari;

$ЙX_{ih}$ – ish haqi xarajatlari;

$ЙX_{tx}$– transport xarajatlari;

$ЙX_{chtt}$– chet tashkilotlarga to‘lovlar;

$ЙX_{bx}$– boshqa xarajatlar.

Bu xarajatlar idoraviy normativ xujjatlarda berilgan me’yorlar asosida qabul qilinadi. GES loyihasining dastlabki bosqichlarida $ХХ_{foy.}$ ning umumiy qiymatini Xalqaro moliya korporatsiyaga qarashli Fichtner Management Consulting AG konsalting kompaniyasi chop etgan gidroenergetika sohasidagi loyihachi va investorlar uchun mo‘ljallangan yo‘riqnoma asosida GESlar uchun $(0,01...0,04)K_{GES}$ miqdorida qabul qilish mumkin [11]. GESlar uchun zarur bo‘lgan investitsiya miqdori, buni kapital mablag‘lar yoki GESning smeta qiymati ham deb atash mumkin, nafaqat uning qurilishi xarajatlarini, shuningdek zarur bo‘lgan boshqa maqsadlar uchun sarf bo‘ladigan xarajatlarni ham ko‘zda tutadi [3].

$$K_{GES} = K_{lqi} + K_{qur} + K_{yoob} + K_{ijt} + K_{eko} \qquad (5)$$

bunda, K_{lqi} – loyiha – qidiruv ishlari xarajatlari;

K_{qur} – qurilish montaj (shu jumladan jihozlarni sotib olish) ishlariga sarf bo‘lgan xarajatlar;

K_{yoob} – yordamchi obyektlar infrastrukturasi (yo‘llar, elektr simlari liniyalari va bosh.)ni yaratishga sarf bo‘lgan xarajatlar;

K_{ijt} – ijtimoiy obyektlar va tadbirlar xarajatlari;

K_{eko} – ekologik tadbirlarga sarf bo‘lgan xarajatlar.

Dizel elektr stansiyalaridagi hisobiy xarajatlar

$\sum ХХ_{DES}$ tarkibini quyidagicha ifodalash mumkin

$$\sum ЙX_{DES} = ЙX_{yoqi} + ЙX_{tr} + ЙX_{foy} + r \cdot K_{DEC} \qquad (6)$$

bunda, $ЙX_{yoqi}$ –yoqilg‘i uchun sarf bo‘lgan xarajatlar;

$ЙX_{tr}$ – yoqilg‘ini tashish uchun sarf bo‘lgan transport xarajatlari;

$ЙX_{foy}$ – DESdan foydalanish xarajatlari.

r – bankdan olingan kreditlar uchun real foiz stavkasi.

Yillik xarajatlarni aniqlash usuli bilan GES samaradorligini quyidagi misol asosida

aniqlaymiz [3].

Natijalar. Quvvati $N = 5000\ kVt$ bo‘lgan GESning yillik hisobiy xarajatlarini aniqlaymiz va uni mazkur quvvatga ega bo‘lgan dizel elektr stansiyasi xarajatlari bilan taqqoslaymiz. Ikkala variant uchun ham bankning real foiz stavkasini r =15 % olamiz va (3) formulaga ko‘ra GESning hisobiy xarajatlari quyidagiga teng.

$$\sum ЙХ_{GES} = ЙХ_{foy.} + r \cdot K_{GES} = 0{,}576 + 0{,}15 \cdot 14{,}4 = 2{,}736\ mln.\ doll.$$

K_{GES} ni kapital mablag‘larning o‘rtacha solishtirma qiymatining 2024-yildagi miqdori bo‘yicha 2806 doll/kVt ga teng qilib qabul qilamiz [9]. Demak, $K_{GES} = 2806 \cdot 5000 = 14{,}03\ mln.\ doll.$

$ЙХ_{foy.}$ ni [11] bo‘yicha K_{GES} ning 4 % i miqdorida qabul qilamiz,

$ЙХ_{foy.} = 0{,}04 \cdot K_{GES} = 0{,}04 \cdot 14{,}03 = 0{,}561\ mln.doll.$

Bundan $\sum ЙХ_{GES} = 0{,}561 + 0{,}15 \cdot 14{,}03 = 2{,}665\ mln.\ doll.$

Dizel elektr stansiyasi xarajatlarini (6) formula bilan aniqlaymiz.

Dizel elektr stansiyasi foydalanish xarajatlarini quyidagi formula bilan aniqlaymiz.

$ЙХ_{foy} = \alpha \cdot K_{DES} = 0{,}064 \cdot 1000000 = 64000\ \$.$

K_{DES} - dizel elektr stansiyasi uchun zarur bo‘lgan kapital mablag‘lar qiymati, $K_{DES} = a \cdot N_{DES} = 200 \cdot 5000 = 1000000\ doll.$

$a = 200\ doll./kVt$ – DESning solishtirma narxi [12]

$\alpha = 6{,}4\ \%$ – foydalanish xarajatlarining foizi [12]

$ЙХ_{yoqi} = s \cdot в \cdot E = 0{,}5 \cdot 0{,}25 \cdot 35\ 000\ 000 = 4375000\ doll.$

bunda, s – 1 litr dizel yoqilg‘isining narxi, doll.

$в$ – 1 kVt· soat ishlab chiqarilgan elektr energiyasiga sarf bo‘lgan yoqilg‘i. $в = 0{,}22...0{,}27\ l/kVt \cdot soat$ [12]

$Э$ – yil davomida ishlab chiqarilgan elektr energiya miqdori, kVt·soat.

$Э = N_{DES} \cdot T_{DES} = 5000 \cdot 7000 = 35\ 000\ 000\ kVt \cdot soat$

Transport xarajatlari yoqilg‘i xarajatlarining 10 % ini tashkil etadi [11]

$ЙХ_{tr} = 0{,}1 \cdot ЙХ_{yoqi} = 0{,}1 \cdot 4375000 = 437500\ doll.$

Kredit uchun to‘lovlar miqdori $r \cdot K_{DEC} = 0{,}15 \cdot 1000000 = 15000\ doll.$

Jami DES bo‘yicha yillik xarajatlar quyidagi qiymatga teng bo‘ladi

$\sum ЙХ_{DES} = 4375000 + 437500 + 64000 + 15000 = 4{,}8915\ млн.\ долл.$

Demak, GES nining yillik xarajatlari dizel elektr stansiyasining yillik xarajatlaridan deyarli 1,8 barobar kichik bo‘lganligi uchun GES qurilishi maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Xulosa

1. Kichik gidroelektr stansiyalarning energiya tizimidagi ahamiyati va uning iqtisodiy parametrlari bo‘yicha nufuzli tashkilotlar va ilmiy muassalarning tahlili kichikGESlarning iqtisodiy samarali, ekologik toza va ishonchli energiya manbasi ekanligini ko‘rsatadi.

2. O‘zbekiston Respublikasida qurilayotgan kichik GESlarning iqtisodiy parametrlari jahonda hozirgi kunda barpo etilgan kichik GESlar parametrlariga mos keladi.

3. GESlarning iqtisodiy samaradorligini yillik xarajatlarni taqqoslash usuli bilan aniqlash uslubiyoti tavsiya etildi. Ushbu uslubiyot asosida bajarilgan hisoblash natijalari quvvati 5MVt bo‘lgan GESning iqtisodiy samaradorligini ko‘rsatdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Уришев Б.У., Дониёров Т.О. Повышение эффективности использования гидроэлектростанций в электроэнергетической системе Республики Узбекистан. Материалы международной научно-технической конференции “Новые горизонты низкоуглеродного развития в мире и Узбекистане”, 23-24.09. 2022 г. , Ташкент, С. 83-85.

2. Уришев Б.У. Кичик гидро электр станциялар. Дарслик – Т.: “Ворис – нашриёт”, 2020. 212 б.

3. Urishev B.U., Quvatov U.J. Gidroelektrstantsiyalar: o‘quv qo‘llanma/ Qarshi. “Intellekt” nashriyoti, 2025. – 125 bet.

4. Уришев Б.У., Мамадиёров Э.К. Гибридные энергетические установки на базе возобновляемых источников с гидравлическим аккумулированием энергии. – Ташкент.: Изд-

во «Фан» Академии наук РУз., 2007. – 136 с.

5. 2024 World Hydropower Outlook. https://www.hydropower.org/ publications/ 2024-world-hydropower-outlook

6. Н.А. Палишкин, И.А. Мищенко. Экономика строительства малых гидроэлектростанций, 2013. http://journals.nubip.edu.ua/index.php/Tekhnica/ article/viewFile/1260/1214

7. *World Small Hydropower Development Report (WSHPDR) 2022***.** Доклад о мировом развитии малой гидроэнергетики 2022. https://www.unido.org/sites/ default/files/files/2023-08/RU_SUMMARY-WSHPDR-01-.pdf

8. Small Hydropower Market Size & Share 2025 – 2034. https://www.gminsights.com/industry-analysis/small-hydropower-market

9. IRENA Renewable Power Generation Costs in 2023. http://large.stanford.edu/courses/2024/ph240/lutz1/docs/irena-2024.pdf

10. Постановление Президента Республики Узбекистан № ПП-2947 «О программе мер по дальнейшему развитию гидроэнергетики на 2017 — 2021 годы» от 2 мая 2017 г. http://lex.uz/pages/getpage.aspx?lact_id=3219734.

11. Методика UNIDO “Руководство по оценке эффективности инвестиций”. Вернер Беренс П., Хавранек М. Руководство по подготовке промышленных технико-экономических исследований UNlDO. Vienna. 1991. Пер. с англ. перераб. и дополн. изд. - М.: АОЗТ "Интерэксперт", "ИНФРА-М",1995.-528 с.

12. Дизельные электрические станции. Виды, характеристики дизельных электростанций. Справочник, 2018 г. http://www.eti.su/ articles/spravochnik/ spravochnik_1725.html

DARYO VA KANALLARDA SUV SARFINI ANIQLASHDA BAJARILADIGAN USULLAR VA UNING ASOSIY AFZALLIKLARI

Chuliyev Mahmatmurod Norboyevich, Ro‘ziqulov Jahongir Orziqulovich
Qarshi davlat texnika universiteti

Annotatsiya: Bugungi kunda nafaqat mamlakatimizda, balki yer yuzida chuchuk suv manbai hisoblangan daryolar, ko‘llar, muzliklar hamda yer osti suviga bo‘lgan ehtiyoj kun sayin ortib borishi barobarida, xalq xo‘jaligi tarmoqlarini kengaytirish dolzarb masala hisoblanadi. Iqtisodiyotning asosiy ustuni hisoblangan qishloq xo‘jaligini suv bilan ta’minlash, suvga bog‘liq bo‘lgan muammolarni bartaraf etish, iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish uchun albatta daryo suvlarining miqdor jihatdan o‘rganish hamda uni doimiy o‘lchash, asosiy vazifalardan hisoblanadi.

Kalit so‘zlar: *Suv resursi, daryo, qishloq xo‘jaligi, iqtisodiyot, kanal, suv sarfi.*

Аннотатция: Сегодня потребность в реках, озерах, ледниках и грунтовых водах, которые считаются источниками пресной воды не только в нашей стране, но и на Земле, растет с каждым днем, и расширение национальной экономики является неотложной задачей. Обеспечение водой сельского хозяйства, являющегося основной опорой экономики, решение проблем, связанных с водой, и обеспечение устойчивого экономического развития, безусловно, являются главными задачами количественного изучения речных вод и их постоянного измерения.

Ключевые слово*: Водные ресурсы, река, сельское хозяйство, экономика, канал, водопотребление.*

Abstract: Today, the need for rivers, lakes, glaciers and groundwater, which are considered sources of fresh water not only in our country but also on Earth, is increasing day by day, and the expansion of the national economy is an urgent issue. Providing water to agriculture, which is the main pillar of the economy, eliminating water-related problems, and ensuring sustainable economic development are of course the main tasks of quantitative study of river waters and their constant measurement.

Key words: *Water resource, river, agriculture, economy, canal, water consumption.*

Suv resurslaridan foydalanishning bosh mezoni bu suvning hisob-kitobini uning birinchi

manbai suv ombori, daryo, kanallardan, bevosita iste'molchi fermer dalasigacha tug'ri yuritishdir. Suvni taqsimlash va boshqarishni samarali uslubini amalga oshirish uchun aniq suv o'lchash imkoniyatlariga ega bo'lishimiz kerak. Suv omboridan magistral kanallargacha, magistral kanallardan xo'jaliklararo kanallargacha, xo'jaliklararo kanallardan har bir quloqlargacha suvni aniq miqdorini bilishga o'lchay olishga erishsak, ko'zlagan **maqsadga** erishishimizni kafolatlaymiz.

Daryo va kanallarning asosiy shakl va o'lcham ko'rsatgichlarini tavsiflarini aniqlashda asosan daryo va kanallarning oqimning ko'ndalang kesimini aniqlash uchun chuqurlik o'lchash ishlarini ikki marta chap qirg'oqdan o'ng qirg'oqgacha bo'lgan yo'nalishda va aksincha olib boriladi. Har bir vertikaldagi o'rtacha chuqurlik (h_{yp}) ikki marta o'lchangan chuqurliklarning o'rtacha arifmetik qiymatiga teng deb olinadi:

$$h_{yp} = \frac{h_1 + h_2}{2} \qquad (1)$$

B

b SS

Vertikallar	1	2	3	4	5	6	7	8
masofa , m	1,0	1,0	2,0	2,0	2,0	2,0	2,0	1,0	1,0
Suvning chuqurligi H,m	0,9	1,8	1,8	1,8	1,8	1,8	1,8	0,8
	1,8							

1-rasm. Trapetsiya shaklidagi kanalning ko'ndalang kesimi

Chuqurlik o'lchash asboblari asosan 3 ta guruhga bo'linib, ularga oddiy asboblar reyka, shtanga, qul loti va mexanik asboblar mexanik lotlar va ultratovushli moslamalar (exolotlar) kiradi. Daryo va kanallarda suvning chuqurligini o'lchashda asosan oddiy asboblardan foydalaniladi.

Chuqurlik o'lchanadigan vertikallar soni ko'p bo'lganda, ular orasidagi o'zan tubi chizig'i to'g'ri chiziq deb qabul qilinadi. Natijada chuqurlik tikliklari orasidagi maydon aniq geometrik shakllar uchburchak, trapetsiya yuzasini aniqlash formulalaridan foydalanib umumiy maydon ularning yig'indisiga teng deb olinadi (1-rasm).

Oqimning ko'ndalang kesim maydoni:

$$\omega = \frac{h_1 \cdot b_1}{2} + \frac{h_1 + h_2}{2} b_2 + ... + \frac{h_{n-1} + h_n}{2} b_{n-1} + \frac{h_n b_n}{2} \quad (\text{m}^2) \qquad (2)$$

Oqimning ho'llangan perimetri:

$$\chi = \sqrt{b_1^2 + h_1^2} + \sqrt{b_2^2 + (h_2 - h_1)^2} ..... + \sqrt{b_n^2 + h_n^2} \quad (\text{m}) \qquad (3)$$

Gidravlik radius: $R = \frac{\omega}{\chi}$, (m) (4)

Oqim tezligini aniqlashda hozirgi kunda bir qancha usullar mavjud bo'lib, ulardan asosan amaliyotda quyida keltirilgan usullar keng qo'llaniladi:

parrakning (rotorning) aylanishlar sonini hisobga olishga asoslangan usul;

oqib ketayotgan jismning tezligini hisoblashga asoslangan usul:

tezlik naporini aniqlashga asoslangan usul.

Gidrometrik parrak (vertushka) yordamida tezliklarni o'lchashda asosan nuqtali usul keng qo'llaniladi:

Nuqtali usulning mohiyati shundan iboratki, daryo yoki kanalning kengligiga bog‘liq ravishda tanlab olingan tezlik vertikallarida (1-jadval) gidrometrik parrak yordamida nuqtadagi tezlik aniqlanadi va umumiy tezlik vertikali bo‘yicha oqimning o‘rtacha tezligi aniqlanadi. Nuqta usulida tezlik aniqlanganda yuqori aniqlik har bir nuqtada tezlik alohida o‘lchanadi. Oqimning vertikal va gorizontal taqsimoti aniqroq aniqlanadi. Ayniqsa gidrometrik o‘lchovlarda masalan, daryolarda ishonchli natija beradi. Notekis oqimni aniqlash imkoniyatini beradi. Oqim tezligi kesim bo‘yicha bir xil bo‘lmaydi. Nuqta usuli oqimning turli chuqurlik va kenglikdagi o‘zgarishlarini ko‘rsatadi. Amaliy va standart usul.

1-jadval

Tezlik vertikallari orasidagi masofani belgilash shartlari

/r	**Daryo yoki kanalning kengligi, *m***	**Vertikallar orasidagi masofa, *m***
	V<20	0,5-2,0
	20-30	2,0
	30-40	3,0
	40-60	4,0
	60-80	6,0
	80-100	8,0



2-rasm.
Gidrometrik vertushka

Oqib ketayotgan jismning tezligini hisoblashga asoslangan usulda suvning oqish tezligini tezkor usulda aniqlash uchun vaqtni iqtisod qilish uchun suv sarfini tezkor usulda xisoblash maqsadida po‘kaklardan foydalaniladi. Albatta po‘kaklar bo‘yicha aniqlangan suv sarfining xatoligi yuqori bo‘lsada ma’lum emperik koeffitsientlar orqali haqiqiy suv sarfiga yaqin bo‘lgan miqdorlarga erishish mumkin. Suv sarfini po‘kaklar yordamida aniqlash eng arzon va kam vaqt talab etadigan usul bo‘lib, po‘kaklar sifatida barcha suvda cho‘kmasdan erkin harakatlanadigan jismlardan foydalanish mumkin. Po‘kaklar ishlash tamoyili, tuzilishi, ko‘rinishiga qarab bir qancha turlarga bo‘linadi: yuza po‘kaklari; chuquriik po‘kaklari; po‘kak integratorlarni misol qilib keltirish mumkin.



2-rasm. Tanlangan stvor sxemasi

bu yerda: t_1; t_2 – stvor nomerlari;

S – stvorlar orasidagi masofa;

$T=t_2-t_1$ – belgilangn vaqtlar ayirmasi

$V_n=\frac{S}{T}$ po‘kakning tezligi

$V=0.7\ V_n$ – suv oqimining o‘rtacha tezligi

Daryo yoki kanallarning kengligi 100 m gacha bo‘lganda aylana shakldagi (d =15-30 sm; qalinligi 2-4 sm), daryo kengligi 100 m dan katta bo‘lgan holatda po‘kaklarning (+) shakldagisidan uzunligi 60 sm; kengligi - 20 sm; qalinligi - 4 sm foydalanish tavsiya etiladi.

Tezlik naporini aniqlashda hozirgi kunda takomillashgan Pito naychasi qurilmasi yordamida

suvning statik va dinamik naporini hisobga olishga asoslangan (3-rasm) bo‘lib oqim tezligini o‘lchash quyidagi xollarda amalga oshiriladi:

Oqim tezligi 0,15 m/s dan 3 m/s gacha; Kanalning tubidan 5 sm gacha balandligida ham suv tezligini o‘lchash imkoniyati mavjud. O‘lchash jarayonida qo‘shimcha energiya talab etilmaydi. Konstruksiyasi sodda va o‘lchash ishlarini bajarish uchun yuqori malaka talab etilmaydi. Pito naychasidagi suv sathining farqidan $\frac{\vartheta}{2g} = \Delta h$ qiymat orqali aniqlanadi.



3-rasm. Takomillashgan Pito naychasining ishlash prinsipi.

Oqim tezligi esa quyidagi formula yordamida aniqlanadi:

$$\vartheta = \sqrt{2g\Delta h}\ ;\ m/sek \qquad (5)$$

bu yerda: $\Delta h -$ sathlar farqi;

$g -$ erkin tushish tezlanishi;

Xulosa: Suvning tezligi va sarfini o‘lchash uchun, gidrometrik vositalarni tanlash hamda ishlatishda asosan daryo yoki kanalning morfometrik shakl va o‘lcham ko‘rsatkichlarini hisobga olish juda muhim hisoblanadi. Har bir suv obyektini kuzatish orqali boshlang‘ich ma’lumotlarga ega bo‘linsa, undagi oqim ko‘rsatkichlarini o‘lchash orqali esa, suvdagi oqim rejimi va oqim fazalarini qisqa, o‘rta va uzoq muddatga ega bo‘lgan qimmatli ma’lumotlarga erishiladi. Eng asosiysi suvni o‘lchashda zarur bo‘lgan vositalarni qo‘llaganda qulaylik va aniqlikka e’tibor berish muhim hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Ҳикматов Ф.Ҳ., Шожалилов Ш.Ш., Айтбаев Д.П. Аҳмад Фарғоний сув илми ёхуд "Миқёс ан-Нил" таърифи.-Тошкент: Университет, 2000.-32 б.

2. Расулов А.Р., Ҳикматов Ф.Ҳ. Умумий гидрология. -Тошкент: Университет, 1995.-175 б.

3. Железняков Г. В, Неговская Т.А., Овчаров Ж.Е. Гидрология, Гидрометрия и

регулирование стока. Учебник- М. «Колос», 1984-432б.
4. Лучшева А.А. Практическая гидрометрия, Ленинград,1972г.-350 б.
5. Хамадов И.Б., Бутырин М.В. Эксплуатационная гидрометрия в ирригации. М. «Колос» 1975-208-б.

SUVSIZLIK BU – ASRNING GLOBAL MUAMMOSI

Yormatova Dilorom, Yormatovna
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Suv resurslarini tejash, undan oqilona foydalanish madaniyatini va suv ishlatish samaradorligini oshirish milliy, mintaqaviy va global ahamiyatga egaligicha qolmoqda.

Shavkat Mirziyoyev.

Annotatsiya. Ushbu maqolada chuchuk suv masalasi va uning bugungi kunda ahammiyatidunyo va O‘zbekistonda chuchuk suvdan foydalanish muammolari haqida masalaar yoritilgan. Butun dunyoda kabi bizning ham mamlakatimizda chuchuk suvga bo‘lgan talab oshib bormoqda agarda biz suvdan foydalanish texnologiyasini o‘zgartmas ekanmiz, chuchuk suv tanqisligi bo‘yicha qizil hududlar qatoriga tushib qolishimiz ehtimoldan yiroq emas.Suvdan foydalanishining maishiy va qishloq xo‘jaligida suv sarfi haqida ma’lumotlar keltirilgan.

Kalit so‘zlar*: chuchuk suv, suv zahirasi, tejash, maishiy, qishloq xo‘jaligi.*

Kirish. Suv Yer sayyorasidagi eng muhim tabiiy resurslardan biri hisoblanadi. Yer yuzasining taxminan 71 % qismi suv bilan qoplangan, ammo shu suvning faqat 2,5–3 % qismi chuchuk suv bo‘lib, inson iste’moli va xo‘jalik ehtiyojlari uchun yaroqlidir. 2023 yilda 2 milliard odam, ya’ni Yer yuzi aholisining chorak qismi toza ichimlik suvsiz qolgan va yaqin 10 yillikda ular safiga yana 700 million kishi qo‘shilishi mumkin. Har kuni dunyoda 5 ming kishi ifloslangan ichimlik suvdan foydalanish oqibatida olamdan ko‘z yummoqda. Ekspertlar fikricha, demografik muammolar tufayli yaqin 20 yil ichida butun dunyoda kabi bizning ham mamlakatimizda chuchuk suvga bo‘lgan talab oshib boradi va mamlakatimiz chuchuk suv tanqisligi bo‘yicha qizil hududlar qatoriga tushib qolishi ehtimoldan yiroq emas.

Bundan ancha yillar burun BMT boshlig‘i chuchuk suv masalasiga to‘xtab, endilikda bir litr suvning tannarxi bir litr benzinni narxidan yuqori bo‘lish mumkin degandi. Bundan avval BMT ashkilotinig 22 avgusta 2023yilda “Suvni yangicha tajash yoki yangi iqtisod” qilish kerakligi, aks holda endilikda suv kamchiligi tufayli mamlakatlar o‘rtasida mojoralar kelib chiqishini Shvetsariyada bo‘lgan yig‘ilishlarida aytib o‘tildi. Chunki katta dengizlar va ko‘llarning suvlari qurib yoki kamayib bormoqda, eng sersuv xisoblangan daryolarning suvlari insonlarning ko‘z o‘ngida kamayib bormoqda. Bunga misollar talaygina.

Material va metodlar. Mamlakatimizda ham suv taqchilligi yil sayin dolzarb muammoga aylanib bormoqda. Qolaversa, yerosti suvlari kamayishi, iqlim o‘zgarishi va qo‘shni Afg‘onistonda Qo‘shtepa kanali qurilishi tufayli vaziyat yanada keskin tus olmoqda.Orol dengizi barchamizninig ko‘z o‘ngimizda qurib borishi va undan tarqalayotgan tuzlar faqatgina O‘zbekiston va Markaziy Osiyo xalqlariga tashvish tug‘dirmoqda. Prognozlarga ko‘ra, 2030 yilga borib, O‘zbekistonda yiliga 7 milliard kub metr suv yetishmovchiligi kuzatiladi, bu ayni paytdagi ishlatilayotgan suv hajmining 25 foiziga teng bo‘ladi. 2050-yilga borib esa mazkur ko‘rsatkich ikki barobar oshadi, ya’ni suv taqchilligi 15 milliard kub metrga yetadi. Tabiiyki, suv resurslarini uzuluksiz tus olib borayotgan taqchilligi mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida jiddiy to‘siq bo‘lishi mumkin. Keyingi yillarda Ekologik masalalarda ham chuchuk su taqchillgi va undan foydalanish byuo‘yicha yakdil qarorlar qabul qilina boshlandi. Masalan, shu 2026 yil oktabr oyining boshida Toshkent shahrida “Markaziy Osiyoda ichimlik suv ta’minoti va oqova suv xizmatlari” mavzusidagi xalqaro konferensiya bo‘lib o‘tdi va unda bir qator suvga oid global masalalr muhokama qilindi. Aslida olib qarasank, suvdan foydlanish usullari va va uni sarf qiluvchilar juda ko‘p, chunki suv inson omilining barcha sohalarida zarur va eng kerakli mahsulot xisoblanadi, biroz noqulay bo‘lsada, biz maishiy sohalar suv eng ko‘p sarf bo‘lishini nazarda tutgan holdda.

Natijalar va muhokama. Aholi sonining o‘sishi, iqlim o‘zgarishi va suv iste’molining ortishi natijasida suv resurslarini tejash va ulardan oqilona foydalanish masalasi juda dolzarb bo‘lib

bormoqda. Maishiy hayotda suvni tejash — bu insonning kundalik turmushida suvdan oqilona va tejamkorlik bilan foydalanishi demakdir. Uy sharoitida suv asosan ovqat tayyorlash, yuvinish, kir yuvish, uy tozalash va o‘simliklarni sug‘orishda ishlatiladi. (1-jadval)

Suvni tejashning ahamiyati:

- tabiiy suv resurslarini saqlash;
- atrof-muhitni muhofaza qilish;
- kommunal xarajatlarni kamaytirish;
- ekologik madaniyatni oshirish.

Maishiy hayotda suv sarfi va tejash imkoniyatlari

1-jadval

Maishiy faoliyat turi	**O‘rtacha suv sarfi**	**Tejamkor usul**	**Tejaladigan suv**
Tish yuvish (kran ochiq)	10–15 l	Kranni yopish	8–10 l
Vanna qabul qilish	150–200 l	Dush	100–140 l
Mashinani shlang bilan yuvish	200 l	Chelak bilan yuvish	120–150 l
Kir yuvish (kam yuklama)	60–70 l	To‘liq yuklama	20–30 l
Tomchillab turgan kran	15–20 l/kun	Ta’mirlash	20 l gacha

Suvni tejashning ekologik ahamiyati

Suv resurslarini tejash barqaror rivojlanishning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Bu quyidagi natijalarga olib keladi:

- suv resurslarini saqlash;
- suv havzalarining ifloslanishini kamaytirish;
- suvni tozalash va yetkazib berish uchun sarflanadigan energiyani kamaytirish;
- aholi o‘rtasida ekologik madaniyatni shakllantirish.

Bu masala ayniqsa quruq va yarim qurg‘oqchil iqlimga ega davlatlarda, jumladan O‘zbekistonda, juda muhim hisoblanadi.

O‘simlikshunoslik yoki qishloq xo‘jaligi chuchuk suvning eng yirik iste’molchisi bo‘lib, dunyodagi o‘rtacha suv iste’molining taxminan 70% ini ishlatadi, ma’lumki qishloq xo‘jaligi bilan band maydonlar yer yuzasining taxminan 12% ni tashkil qiladi. Ma’lumki, mamlakatimizda chuchuk suvning asosiy qismi, yoki 83 foyizi qishloq xo‘jaligi uchun sarflanadi, qishloq xo‘jaligida suv sarfi respublikada ekiladigan asosiy ekinlarga juda katta ekanligi hech kimga sir emas. Masalan, bir kg paxta yetishtirish uchun 10,000 litr, bir kg sholi uchun 4000, soya uchun 3000, bug‘doy uchun 1800 litr suv sarflanadi. Bugungi kunda suvni tejash uchun o‘simlikshunoslikda ekinlarni qo‘sh ekin qilib ekish zarur, bu vaqtda birga ekiladigan ikki ekinning biologik xususiyatlari va botanik tuzishlarni o‘rganiladi va tanlanadi. Qo‘sh ekin tizimida suv tejaladi, bir maydondan bir vaqtning o‘zida ikki marta xosil olinadi. Bunday qo‘sh ekinga g‘o‘za va soya, makkajo‘xori va soya, kunjut va soya, bodring va kunjut kabilarni misol qilish mumkin bo‘ladi. Qo‘sh ekinda ekinning qaysi maqsadda ekilishi ham e’tiborga olinadi.

Oddiy bir misol, g‘o‘za qator orasiga soya ekilganda albatta ertapishir vegetatsiya davri 70-75 kunlik soya navlari tanlab olinadi va bu holda chigit va soya urug‘i bir kunda yerga tashlanadi. Soya o‘simligi 70 -75 kunda pishib yetiladi va o‘z ildizlari bilan tuproqda biologik sof azot qoldiradi, ikkinchidan tuproqda erimay qolgan fosforli o‘g‘itlarni eritib o‘simlik o‘zlashtirish uchun tayyor holga keltiradi. Makkajo‘xorini Singenta, FAO- 700 navlarini soyaning kechpishar Baraka va Uzbekskiy -6 navlari bilan qo‘shib ekish ham oqsilli ozuqa olishda ijobiy natija berishi olimlar tomonidan o‘rganilgan. Prezidentimiz Surxondaryo viloyatida bo‘lganida bir daladan 3-4 marta xosil olish vazifasini fermerlar va dehqonlar oldiga quydilar. Demak imkon bori qadar, ekiladigan

qo‘sh ekinning biologiyasi ya’ni necha kunda pishib yetilishi va uning haroratga bo‘lgan talabi va shu mahsulotga bo‘lgan talab e’tiborga olinadi.

Xulosa. Dunyo bo‘ylab oziq-ovqat xavfsizligi masalasi quyilar ekan, imkon qadar inson o‘z turmush tarzining barcha jabhalarida maishiy, hayotda, sanoatda, qishloq xo‘jaligida, ishlab chiqarishda chuchuk suvni tejashni odatga aylantirishlari lozim. Chuchuk suv zahiralari kamayib borayotganligi tufayli yashillik e’tibor berish hammamizning vazifamizdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. Mirziyoyev Sh.M. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025 yil 30 yanvardagi PF–16-son Farmoni bilan2025 yil “Atrof-muhitni asrash va «yashil» iqtisodiyot yili” nomli qarori.

2. O‘zbekiston Ekologiya va atrof muhitni himoya qilish qo‘mitasi ma’ruzasi. 2024. Toshkent. 125 b.

3. Yormatova D. Ekologiya. Toshkent. Fan va texnologiyalar nashriyoti. 2021. 236 b.

4. Danilov-Danilyan V. I. Upravleniye vodnimi resursami. Soglasovaniye strategiy vodopolzovaniya / V. I. Danilov-Danilyan, I. L. Xranovich. — M. : Nauch. mir, 2010. — 232 s.

5. Djamalov R. G. Izmeneniye resursov podzemnix vod v nachale XXI veka: ix raspredeleniye i ispolzovaniye po kontinentam i stranam mira / R. G. Djamalov, T. I. Safronova // Izvestiya RAN. Ser. geograf. — 2010. — № 5. — S. 52–59.

6. Zverkova Y. A. Oxrana vodi i vodnix resursov / Y. A. Zverkova, G. F. Xanxasayev, YE. V. Belikova // Vestnik Vostochno-Sibirskogo gosudarstvennogo universiteta texnologiy i upravleniya. 2009. — № 4 (27). — S. 104–107.

7. Larionov V.G.Sheremetyeva YE.G. Sovremennoye sostoyaniye mirovix vodnix resursov i osnovniye napravleniya po uvelicheniyu ix dostupnosti. Tekst nauchnoy stati po spetsialnosti «SMI (media) i massoviye kommunikatsii » Izvestiya Irkutskoy gosudarstvennoy ekonomicheskoy akademii. 2015. T. 25, № 4. S. 590–596. ISSN 1993.

8. Xushvaqtova X.S. Yormatova D.Ekologiya va atrof muhitni himoya qilish. Toshkent. Fan va texnologiyalar nashriyoti. 2024, 261, b.

9. O‘. Xo‘janazarov, Sh. Yakubjonova . Ekologiya va tabiatni muhofaza qilish. Toshkent. TDPU 2018(O‘quv qo‘llanma) Internet ma’lumotlari.

SUG‘ORISH USULLARINING JAVDAR EKININING O‘SISHI VA RIVOJLANISHIGA TA’SIRINI BAHOLASH

Vafoyeva Mavluda Bobomurodovna, Ro‘ziqulov Jahongir Orziqulovich
Qarshi davlat texnika universiteti

Annotatsiya. Ushbu maqolada javdar ekinini parvarishlashda sug‘orishning an’anaviy hamda zamonaviy resurs tejovchi sug‘orish texnologiyalarni qo‘llash orqali vegetatsiya davriga, shuningdek javdarning o‘sishi va rivojlanishi davrida o‘simlik bo‘yiga ta’siri to‘g‘risida ma’lumot keltirilgan. Ilmiy izlanishlar 2023-2025 yillarda Qarshi tumanining och tusli bo‘z tuproqlar sharoitida olib borildi. Tajriba ob’ekti sifatida javdarning Shalola, Vaxshskaya-116 va Ns Savo navlaridan foydalanildi.

Kalit so‘zlar. *o‘simlik, javdar, sug'orish, me'yor, o‘simlik davri, och tusli bo‘z tuproqlar, rivojlanish, nav.*

Аннотация. В данной статье представлена информация о влиянии орошения при уходе за рожью с использованием традиционных и современных ресурсосберегающих технологий орошения на вегетационный период, а также на высоту растений в период роста и развития ржи. Научные исследования проводились в 2023-2025 годах в условиях светло-серых почв Каршинского района. В качестве объектов эксперимента использовались сорта ржи «Шалола», «Вахшская-116» и «Нс Саво».

Ключевые слова: *растение, рожь, орошение, норма, вегетационный период, светло-серые почвы, развитие, сорт.*

Abstract. This article presents information on the impact of irrigation in the care of rye crops using traditional and modern resource-saving irrigation technologies on the vegetation period, as well as on plant height during the growth and development of rye. Scientific research was

conducted in 2023-2025 in the conditions of light gray soils of the Karshi district. The rye varieties Shalola, Vakhshskaya-116 and Ns Savo were used as the objects of the experiment.

Keywords. *plant, rye, irrigation, norm, vegetation period, light gray soils, development, variety.*

Sug‘orish qishloq xo‘jaligi sohasida muhim mavzuga aylandi. Yer yuzasining suv tanqisligi va qurg‘oqchilik tez-tez uchrab turadigan hududlarida suvni boshqarish mexanizmlaridan samarali foydalanish uchun dehqonchilik amaliyotiga mexanizm va texnikalarni joriy etish juda muhim masalalardan biridir. Shuning uchun pretsizion (aniq) sug‘orishdan foydalanish va resurs tejovchi texnologiyalarni amaliyotga joriy qilish juda muhimdir. Pretsizion (aniq) sug‘orish - bu fermerlarga optimal hosil olish uchun o‘z resurslarini samarali boshqarish imkonini beradigan turli xil sug‘orish texnikasini amalga oshirishdir. Resurs tejovchi texnologiyalarni joriy qilish fermerlarga xarajatlarni kamaytirish, suv sarfini kamaytirish va yaxshi hosil olish imkonini beradi.

Yomg‘irlatib sug‘orish — bu suvni maxsus purkagichlar (sprinklerlar) yordamida havoga sepib, yomg‘ir shaklida ekin maydoniga tushirish usuli hisoblanadi. Bu usul tabiiy yomg‘irga o‘xshab sug‘oradi. Yomg‘irlatib sug‘orish tizimida suv tejaladi, (an’anaviy oqim usuliga qaraganda 20–40% kam suv ketadi). Yer notekis bo‘lsa ham ishlaydi, tuproq eroziyasi kamayadi. O‘g‘itni suv bilan birga berish mumkin (fertigatsiya), mehnat kam talab qiladi.

Adabiyotlar sharhi. Qishki javdar o'zaro changlanadigan o‘simlikdir. Unib chiqishning optimal harorati 6-12°C. U kuzda butazorga aylanadi va qishga chidamli va sovuqqa chidamli. Urug‘ni unib chiqishdan pishib yetilgunga qadar 1800°C harorat talab qilinadi. Bu donli ekin bug‘doyga qaraganda namlikka ko‘proq talabchan bo‘lib, transpiratsiya koeffitsienti 340-420 ni tashkil qiladi. Javdar kuzda tuproqqa ishlov berish paytida va yozda urug‘lantirish va boshoqlash bosqichlarida eng katta suvga ehtiyojini namoyon qiladi[3].

Kuchli ildiz tizimi va singdirish qobiliyati tufayli kuzgi javdar hatto qumli sod-podzolik tuproqlarda ham o‘zini ozuqa moddalari va namlik bilan ta‘minlaydi. Biroq, u o‘g‘itlarga va tuproq unumdorligining yaxshilanishiga ham yaxshi javob beradi[1].

Ma’lumki, o‘simliklarning o‘sishi va rivojlanishining asosiy shartlaridan biri namlikdir. Ayniqsa, uning yetishmasligi bilan tavsiflangan zonalarda. Bu holda, javdar hosildorligini shakllantirishda asosiy ahamiyatga ega bo'lgan narsa tuproqdagi vegetatsiya davri boshlanishiga qadar to'plangan unumdor namlik zaxiralari (PMR) hisoblanadi[5].

Tuproq qatlamida namlik va issiqlikning yutilishiga va taqsimlanishiga turli qishloq xo'jaligi ekinlarining ta'siri, shuningdek, suv va issiqlik resurslarining o'simliklar rivojlanishiga ta'sirining teskari jarayondir[4].

Tadqiqot uslublari. Ilmiy izlanishlar 2023-2025 yillarda Qarshi tumanining och tusli buz tuproqlar sharoitida olib borildi. Tajriba ob’ekti sifatida javdarning Shalola, Vaxshskaya-116 va Ns Savo navlaridan foydalanildi. Tajriba maydonining tuprog‘i och tusli bo‘z tuproqlar, kam sho‘rlangan, yer osti suvlari 2-2,5 metr chuqurlikda joylashgan, kam minerallashgan (2,5-3 g/l). Tajriba dizayni bloklashgan rendomizatsiya usulida 2 ta blokda, 36 variantda va 3 qaytariqda olib borildi, variantlar sistematik usulda joylashtirildi, paykalchalarning umumiy soni 108 ta, xar bir paykalcha maydoni 30 m^2, ekish me’yori 4,5 mln/ga. Javdarni parvarishlashda an’anaviy, ya’ni egatlab, shuningdek zamonaviy resurs tejamkor sug‘orish texnologiyalari asosida yomg‘irlatib sug‘orish usullari olib borilgan. Bloklar: 1-blok – egatlab sug‘orish (standart), 2-blok – yomg‘irlatib sug‘orish. Tajribada sug‘orish tuproq namligi ChDNSga nisbatan 65-70-60%; 70-75-65%; 75-80-70%; 80-85-75% tartiblarda olib borilgan.

Tuproq va o‘simlik namunalarini tanlash, tuproq namligi, suv va javdar hosilini hisobga olish, ularni tayyorlash va tahlil qilish umumiy qabul qilingan usullar bo‘yicha amalga oshirildi[4].

Tadqiqotlar tahlili. Uch yil davomida javdar o‘simligini sug‘orishning o‘sish va rivojlanishiga ta’siri o‘rganish jarayonida olingan natijalarga muvofiq javdar o‘simligi an’anaviy (egatlab) sug‘orilgan hamda zamonaviy resurs tejamkor sug‘orish texnologiyalari asosida yomg’irlatib sug‘orish usullari olib borilgan agrofonlar sharoitlarida tuproq namligi ChDNSga nisbatan 65-70-60% sug‘orish tartibi qo‘llanilganda o‘rganilayotgan navlar kesimida boshoqlashgacha bo‘lgan kun 185-191 kunni, tuproq namligi ChDNSga nisbatan 70-75-65% sug‘orish tartibi qo‘llanilganda o‘rganilayotgan navlar kesimida boshoqlashgacha bo‘lgan kun

an’anaviy texnologiya qo‘llanilgan agrofon sharoitida 189-195 kun; zamonaviy resurs tejamkor sug‘orish texnologiyalari (yomg‘irlatib) qo‘llanilganda 190-196 kunni, tuproq namligi ChDNSga nisbatan 75-80-70% sug‘orish tartibi qo‘llanilganda o‘rganilayotgan navlar kesimida boshoqlashgacha bo‘lgan kun an’anaviy texnologiya qo‘llanilgan agrofon sharoitida 190-196; zamonaviy resurs tejamkor sug‘orish texnologiyalari (yomg‘irlatib) qo‘llanilganda 190-196 va 191-197 kunni, tuproq namligi ChDNSga nisbatan 80-85-75% sug‘orish tartibi qo‘llanilganda o‘rganilayotgan navlar kesimida boshoqlashgacha bo‘lgan kun an’anaviy texnologiya qo‘llanilgan agrofon sharoitida hamda zamonaviy resurs tejamkor sug‘orish texnologiyalari (yomg‘irlatib) qo‘llanilganda 191-197 kunni tashkil qilgani aniqlangan.

Tadqiqot davomida javdar navlarining parvarishlashda sug‘orish usullari va tartiblari o‘suv davriga ta’siri o‘rganilganda nazorat agrofon sharoitida egatlab sug‘orish usuli qo‘llanilganda navlar kesimda o‘suv davri tuproq namligi ChDNSga nisbatan 65-70-60% va 70-75-65% sug‘orish tartiblari qo‘llanilganda 229-244 kunni, tuproq namligi ChDNSga nisbatan 70-75-65% sug‘orish tartibi qo‘llanilganda 236-244 kunni, tuproq namligi ChDNSga nisbatan 75-80-70% sug‘orish tartibi qo‘llanilganda 237-245 kunni, zamonaviy resurs tejamkor sug‘orish texnologiyalari asosida tomchilatib va yomg‘irlatib sug‘orish usullari olib borilgan agrofonlar sharoitlarida tuproq namligi ChDNSga nisbatan 65-70-60% sug‘orish tartibi qo‘llanilganda o‘rganilayotgan navlar kesimida o‘suv davri 229-237 kunni, tuproq namligi ChDNSga nisbatan 70-75-65% sug‘orish tartibi qo‘llanilganda o‘rganilayotgan navlar kesimida o‘suv davri 237-245 kunni, tuproq namligi ChDNSga nisbatan 75-80-70% sug‘orish tartibi qo‘llanilganda o‘rganilayotgan navlar kesimida o‘suv davri 237-246 kunni, tuproq namligi ChDNSga nisbatan 80-85-75% sug‘orish tartibi qo‘llanilganda o‘rganilayotgan navlar kesimida o‘suv davri 237-245 kunni tashkil qilgani qayd etildi.

1-jadval.

Sug‘orish usullarini javdarning o‘sish va rivojlanishiga ta’siri (2023 y)

T/r	Sug‘orish usuli	Sug‘orish tartibi	Nav nomi	Boshoqlashgacha bo‘lgan (kun)	O‘suv davri, (kun)	O‘simlik bo‘yi, (sm)
1	Egatlab (standart)	ChDNS 65-70-60 (Fon)	Shalola	191	237	121,6
2			Vaxshskaya-116	188	233	111,5
3			Ns Savo	185	229	125,8
4		ChDNS 70-75-65	Shalola	195	244	135,3
5			Vaxshskaya-116	192	240	126,2
6			Ns Savo	189	236	141,7
7		ChDNS 75-80-70	Shalola	196	245	144,3
8			Vaxshskaya-116	193	241	135,5
9			Ns Savo	190	237	151,4
10		ChDNS 80-85-75	Shalola	197	246	151,3
11			Vaxshskaya-116	194	242	142,1
12			Ns Savo	191	237	159,2
13	Yomg‘irlatib	ChDNS 65-70-60 (Fon)	Shalola	191	237	123,3
14			Vaxshskaya-116	188	233	115,2
15			Ns Savo	185	229	129,1
16		ChDNS 70-75-65	Shalola	196	245	138,2
17			Vaxshskaya-116	193	241	130,4
18			Ns Savo	190	237	143,9
19		ChDNS 75-80-70	Shalola	197	246	146,6
20			Vaxshskaya-116	194	242	138,0
21			Ns Savo	191	237	155,0
22		ChDNS 80-85-75	Shalola	197	245	153,6
23			Vaxshskaya-116	194	242	145,7
24			Ns Savo	191	237	163,3

O‘suv davri davomida o‘simlik barcha kerakli mineral oziqa bilan taminlansagina normal o‘sib-rivojlanishi va mo‘l hosil berishi mumkin. Ilmiy izlanishlarimizda javdar o‘simligini parvarishlanganda sug‘orishning turli usul va tartiblari o‘simlik bo‘yiga ta’siri o‘rganilganda ushbu ko‘rsatkich navlar kesimida (Shalola 110-151, Vaxshskaya-116 101-142, Ns Savo 111-165) sm bo‘lgani aniqlandi. Ushbu ko‘rsatkichni tajribada qo‘llanilgan sug‘orish usullar kesimida tahlil qilganimizda, an’anaviy sug‘orish usuli qo‘llanilgan agrofon sharoitida eng past bo‘lgani (105-114 sm) aniqlandi. Zamonaviy resurs tejamkor usuli sifatida yomg‘irlatib sug‘orish texnologiyasi qo‘llanilgan agrofon sharoitida o‘simlik bo‘yi standart agrofonga nisbatan farq qilgani, ya’ni an’anaviy sug‘orish texnologiyaga qaraganda farqli o‘laroq yomg‘irlatib sug‘orish usuli javdar bo‘yiga (4-8 sm) ijobiy ta’sir qilgani aniqlangan. Yomg‘irlatib sug‘orish usuli qo‘llanilgan agrofon sharoitida ham standart egatlab sug‘orish usuli bilan taqqoslaganda o‘simlik bo‘yi (13-16 sm) baland bo‘lgani qayd etildi.

Tadqiqotda o‘rganilayotgan navlar kesimida sug‘orishga talabi va ta’sirchanligini tahlil qiladigan bo‘lsak mahaliy Shalola navi bo‘yi sug‘orish usuli va tartibidan qa’tiy nazar eng past (101-105 sm) natija ko‘rsatdi, xorijiy Vaxshskaya-116 navi o‘rtacha ko‘rsatkich (114-129 sm) hamda yana bir xorijiy Sn Savo navi sug‘orish texnikasi qo‘llanilganda qolgan navlar orasida eng ijobiy (136-142 sm) natija sifatida aniqlandi.

O‘suv davrida javdarning umumiy o‘sib-rivojlanishi (boshoqlashgacha bo‘lgan kun, o‘suv davri) va o‘simligining bo‘yi qo‘llanilgan sug‘orish texnologiyasiga bog‘liq ekanligi aniqlandi, ya’ni sug‘orish usuli va tartiblariga bevosita bog‘liq bo‘lgani olib borilgan tadqiqot natijalari qo‘rsatdi.

Zamonaviy sug‘orish usuli sifatida yomg‘irlatib sug‘orish usuli egatlab (standart) sug‘orish usuliga nisbatan suv tejovchi va suvdan unumli foydalaniladigan usul sifatida topilib, sug‘orish oldi tuproq namligi nisbatiga bog‘liq holda javdarni o‘suv davri 233-246 kunni tashkil qilgani aniqlandi.

Uch yil davomida olib borilgan ilmiy izlanishlar natijalariga muvofiq zamonaviy suv tejovchi sug‘orish usullaridan foydalanish javdar o‘simligini umumiy rivojlanishini normal kechishini, o‘simlik bo‘yiga ijobiy ta’sir qilishini va eng asosiysi suvdan unumli foydalanishni ta’minlaydi degan xulosaga keldik.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI.

1. Бурлакова, Л. М. Плодородие Алтайских черноземов в системе агроценоза / Л. М. Бурлакова. - Новосибирск: Наука СО, 1984. - 198 с, Трофимов, И. Т. Использование дефеката для известкования почв Западной Сибири / И. Т. Трофимов, С. В. Макарычев, А. Н. Иванов. 2006. - № 4 (31). - С. 15-16.

2. Доспехов Б.А. Методика полевого опыта. М.: Колос, 1973.

3. Кондрашова, А. А. Ресурсосберегающая технология возделывания ржи при орошении / А. А Кондрашова. Региональной межвузовской конференции. Благовещенск: Изд-во Поли-М, 2009. - Кн. 3. -С. 193-195.

4. Макарычев, С. В. Особенности теплофи-зического состояния пахотных выщелоченных черноземов Приобья / С. В. Макарычев. - // Почвоведение. - 2007. -№ 8. - С. 949-953

5. Роде А.А. Основы учения о почвенной влаге. Л.: Гидрометеоиздат, 1965. 663 с.

KREATIV YONDASHUV ASOSIDA TALABALARDA MUHANDSILIK KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH MODELINI ISHLAB CHIQISH.

t.f.f.d., prof. **A.R.Rahimov**
Iqtisodiyot va pedagogika universiteti
katta.o‘qi.**A.J.Norchayev**
Qarshi davlat texnika universiteti

Annotatsiya: Mazkur tadqiqotda kreativ yondashuv asosida talabalarda muhandislik kompetentligini rivojlantirish modelini ishlab chiqish masalasi yoritiladi. Unda zamonaviy ta’lim jarayonida talabalarni ijodiy fikrlashga yo‘naltirish, muammoli vaziyatlarni hal qilish, innovatsion g‘oyalarni ilgari surish va amaliy ko‘nikmalarni shakllantirish muhim ahamiyat kasb etishi

ta’kidlanadi. Shuningdek, ta’lim jarayonida interfaol metodlar, loyiha asosida o‘qitish va muammoli ta’limdan foydalanish orqali talabalarning kasbiy tayyorgarligini oshirishga qaratilgan model taklif etiladi. Ushbu model talabalarning ijodiy fikrlashi, mustaqil qaror qabul qilishi va muhandislik faoliyatiga tayyorgarligini samarali rivojlantirishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: *kreativ yondashuv, muhandislik kompetentligi, ta’lim modeli, kasbi kompetensiya, innovatsion ta’lim, interfaol metodlar, muammoli ta’lim, loyiha asosida o‘qitish, ijodiy fikrlash, pedagogik texnologiyalar.*

Kirish. Yangi O‘zbekistonni qurishda poydevor bo‘ladigan bugungi kunning muhandislarini zamon talablari asosida talabalarning muhandislik kompetentligini rivojlantirish tashkil etish vazifalarini optimal amalga oshirish uchun aniq ilmiy-nazariy asosga ega bo‘lish kerak. Zamonaviy ta’lim jarayonida kreativ yondoshuvdan foydalanishi talabalarda ham muhandislik kompetentlikni rivojlantirishning mantiqiy funksional modelini ishlab chiqish ko‘rib chiqilayotgan jarayonning tuzilishi va ishlashini, uning yaxlitligini qayta tiklash uchun belgilar tizimi yordamida yoritishga yordam beradi. Ta’lim rivojlanishining zamonaviy bosqichida modellashtirish muhim ahamiyatga egadir.

Model atamasi qandaydir bir tizimni (namuna, andoza) ifoda etib, uning muayyan xususiyatlarini, boshqa, haqiqiy deb yuritiluvchi tizim bilan aloqasini aks ettirishi kerak va belgilangan ma’noda uni o‘rnini bosishi kerak.

Modellar obyekt xususiyatlarini unda sodir bo‘ladigan jarayonlarni tushuntirib berish uchun qo‘llaniladi. Modellashtirish tadqiqotchilik faoliyatining yaxlit turkumini aks ettirishga xizmat qiladi. Tadqiqotchi turkum mohiyatini sinchiklab o‘rganib chiqadi. Zero, u yakuniy model sifatida nazariyani xulosa va g‘oyalar bilan boyitadi. Demak, modellashtirish tanlangan obyekt turkum ko‘rinishida tasavvur etishga imkon beradi. Modellashtirish - turli tabiatdagi obyektlarni ularning analoglari asosida mavjud obyekt yoki qaytadan bunyod qilinayotgan obyektlar xususiyatlarini belgilash yoki aniqlashtirish maqsadida tadqiq qilish metodi. Amaliyotida “modellashtirish”ning metodologik ahamiyati ta’limiy faoliyatning mazmunli tomonini tavsiflaydi va faoliyatning maqsad, vosita, metodlari va shakllarida paydo bo‘ladigan yangiliklarni aks ettiradi. Bu holatda modellashtirish pedagogik faoliyatning muhim va o‘ziga xos turi sifatida ishtirok etadi, tadqiqot, loyihalash, bashorat qilish va rejalashtirish bilan chambarchas bog‘liq bo‘ladi.

Talabalarning muhandislik kompetentligini rivojlantirish uchun amaldagi ta’lim yondashuvlarini o‘zgartirish, talabalarda muhandislik kompetentligini rivojlantirishga erishish muhim vazifa hisoblanadi. Pedagogikaning hozirgi zamon nazariyasi va amaliyoti hamda tadqiqotimizning mazmunidan kelib chiqqan holda talabalarning muhandislik kompetentligini rivojlantirishga yo‘naltirilgan pedagogik faoliyat quyidagi yondashuvlar asosida tashkil etildi.



Talabalarning muhandislik kompetentligini rivojlantirishning asosiy yondoshuvlari

Individual yondashuv - Ushbu yondashuvning asosiy jihati har bir talabaning individual tarzda muhandislik kompetentligini rivojlantirishda individual trayektoriyasini hisobga olishdan

iborat. Individual yondashuvning o‘ziga xoslik xususiyatlarida talaba va ta’lim beruvchilarning teng faol bo‘lishi diqqat markazida bo‘ladi. Chunki ta’lim beruvchilar o‘quv materiallarini avvaldan va yangi ma’lumotlar asosida tayyorlashi, ularni talabalarga o‘z vaqtida yetkazishi hamda maxsus testlar vositasida talabalarning o‘zlashtirish darajasini nazorat qilib borishi muhim hisoblanadi.

Motivatsion yondashuv - ma’lum bir ehtiyojlardan kelib chiqib, talabalar muhandislik kompetentligini rivojlantiruvchi faoliyatini psixologik ta’sir etish yo‘llari bilan maqsadga muvofiq yo‘naltirishdir. Talabalarning muhandislik kompetentligini rivojlantirish faoliyatini rejalashtirish talabaning o‘zi motivatsion qaroriga asoslansa, ularning qiziqishlari, moyilligi va maqsadlarini hisobga olgan holda yaratilsa ta’lim jarayonining samaradorligi ancha ortadi.

Refleksiv yondashuv - talabalarning muhandislik kompetentligini rivojlantirish faoliyati natijalarini mustaqil, tahliliy baholash malakalariga ega bo‘lishlariga erishish maqsadga muvofiqligini anglatadi. Talabalarda muhandislik kompetnetligini rivojlantirish dasturining natijasi va samaradorligini, belgilangan maqsadlarga erishish natijasini va kompetentligining rivojlansh darajasini mustaqil ravishda refleksiv baholar ekan, erishilgan yutuqlar omilini anglash, yo‘l qo‘yilgan xato, kamchiliklarning sabablaridan xabar bo‘lish, kelgusi faoliyatda ularning takrorlanishiga yo‘l qo‘ymaslik to‘g‘risidagi xulosaga kelish va amaliy choralarni ko‘rish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Ijodiy yondashuv - g‘oyani ongli ravishda va maqsadli ravishda yaratgan holda, subyektga uning dizaynini ishlab chiqish zarurligini his qilishi bilan tavsiflanadi. Bunda g‘oya yangi texnika, texnologiya va boshqalarning haqiqiy loyihasiga aylantiriladi. Demak, talabalarda tizimli ijodiy muhandislik tafakkurini rivojlantirishdan iborat bo‘lib, buning uchun ongli va maqsadli ravishda nostandart texnik g‘oyalarni yaratish qobiliyatiga qo‘shimcha ravishda, ijodkorlik metodologiyasini o‘zlashtirish kerak bo‘ladi.

Tizimli yondashuv – deganda shunday yondashuv tushuniladiki, unda o‘rganilayotgan narsa va hodisa aniq yaxlit ta’limning qismlari yoki elementlari sifatida qarab chiqiladi. Elementlar obyekt ichidagi hamda tashqari muhitdagi turli-tuman o‘zaro munosabatlar va aloqalar bilan tavsiflanadi. Pedagogikada tizimli yondashuv ayrim pedagog olimlar tomonidan ishlab chiqilgan. Tizimli yondashuvni amalga oshirish obyektning yaxlitligi va tuzilmaviyligiga rioya etish, uning ichki va tashqi aloqalarining barcha to‘plamlarini hisobga olish va tadqiqot obyektini miqdoriy va sifatiy o‘zgarishlarning o‘zaro aloqalarining rivojlanishida ko‘rib chiqishdan iborat. Shu asosda tarkibiy qismlarning har birining vazifasi aniqlanib, umumiy maqsad va natija belgilanadi.

Muhandislik yondoshuvi – bo‘lajak muhandisning ishlab chiqarishdagi aniq vazifalarni malakali tarzda hal qila olish ko‘nikmasi, uning raqobatbardoshligini, kasbiy moslashuvchanligini va boshqaruvning pog‘onalarida ilgarilab borishini ta’minlab beradi. Muhandis o‘z bilimlarini izchil boyitib boradi, yangi axborotlarni o‘zlashtiradi, davr talablarini chuqur anglaydi, yangi bilimlarni izlab topadi, ularni qayta ishlaydi va o‘z amaliy faoliyatida samarali foydalanadi. U ta’lim olish paytida, mavjud ishlab chiqarish masalalarini bajarishga qanchalik yaxshi tayyorlangan bo‘lsa, uch yilgacha davom etadigan moslashish davri shunchalik tez o‘tadi va mutaxassisning kasbiy faoliyati shunchalik muvaffaqiyatli kechadi.

Muhandislik tafakkuri yondoshuvi – bu texnik muammolarni aniqlash, ularni hal qilish yo‘llarini topish, texnik vositalar va texnologiyalarni samarali loyihalash, muhandislik kommunikatsiyalari tizimini ishlab chiqish va foydalanishga qaratilgan muhandislik muammolarini hal qilish qobiliyatini rivojlantiruvchi yondoshuvdir. Muhandislik tafakkuri yondoshuvining asosi quyidagilardan iborat: bu yuqori darajada rivojlangan ijodiy tasavvur; fantaziya, bilimlarni ko‘p ekranligini tizimli ijodiy tushunish; ishlab chiqarish jarayonini ongli ravishda boshqarishga imkon beradigan texnik ijodkorlik metodologiyasi; yangi g‘oyalarga ega bo‘lish.

Ta’lim metodlarini tanlash. Interaktiv metodlardagi darslar talabani ijodiy fikrlashga, olingan axborotlarni faollikda xal etishga, fikrni erkin bayon etishga, tashabuskorlikka, guruhlarda masalalar yechimini topishga, hamkorlikda ish yuritishga, fikrni yozma ravishda bayon etishga chorlaydi.

Natijaviy blokda Kreativ yondoshuv asosida talabalarda muhandislik kompetentlikning rivojlanganlik darajasini baholash mezonlari va darajalari keltirilgan, bunda talabalarining muhandislik kompetentligining rivojlantirish darajasi ushbu pedagogik jarayonni baholash

reproduktiv (past), variative (o‘rta) va kreativ (yuqori) mezonlarga ko‘ra amalga oshiriladi. Modelni amalga oshirish kreativ yondoshuv asosida talabalarning muhandislik kompetentligini rivojlantirish metodini takomillashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa. Kreativ yondashuv asosida talabalarda muhandislik kompetentligini rivojlantirish modeli talabalarning ijodiy fikrlashi, muammolarni mustaqil hal qilish qobiliyati va amaliy ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan. Ushbu model zamonaviy ta’lim usullari, innovatsion texnologiyalar va amaliy mashg‘ulotlardan foydalanish orqali talabalarning kasbiy tayyorgarligini oshiradi. Natijada talabalar muhandislik sohasida samarali ishlash, yangi g‘oyalar yaratish va texnik muammolarga kreativ yechim topish kompetentligiga ega bo‘ladilar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Shavkat Mirziyoyev. *Yangi O‘zbekiston-taraqqiyot va yangilanish yo‘lida.* -Toshkent: O‘zbekiston, 2022.

2. Jo‘rayev B.A., Xodjayev N.T. Muhandislik ta’limining metodologik asoslari. – Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim vazirligi, 2019.

3. Hasanov I.I. Muhandislik pedagogikasi va ta’lim texnologiyalari. – Toshkent: O‘zbekiston Milliy universiteti nashriyoti, 2018.

4. Rasulov N.U. Muhandislik ta’limida axborot texnologiyalaridan foydalanish. – Samarqand: Samarqand Davlat universiteti nashriyoti, 2021.

5. Ismoilov D.M. Muhandislik ta’limida zamonaviy raqamli texnologiyalarni qo‘llashning metodologik asoslari. – Toshkent: Ilm-Ziyo, 2023

UDK 631.347:681.5:004.38

SUV RESURSLARINI REAL VAQT REJIMIDA MONITORING VA AVTOMATLASHTIRILGAN BOSHQARISH ALGORITMI

Norboyev Otajon Normuminovich
Qarshi davlat texnika universiteti

Annotatsiya. Mazkur maqolada GSM texnologiyasi asosida ishlovchi suv resurslarini real vaqt rejimida monitoring va avtomatik boshqarish tizimining algoritmik modeli ishlab chiqilgan. Taklif etilayotgan tizim suv sathi, suv sarfi, harorat, loyqalanish va sho‘rlanish kabi muhim parametrlarni uzluksiz nazorat qilish imkonini beradi. Algoritm favqulodda holatlarni aniqlash, tezkor boshqaruv qarorlarini qabul qilish hamda operator bilan masofaviy axborot almashinuvini ta’minlashga qaratilgan. Tizim suv xo‘jaligi obyektlarida suvdan foydalanish samaradorligini oshirish va boshqaruv jarayonlarini avtomatlashtirish uchun mo‘ljallangan. Maqolaning asosiy mazmuni ushbu havzalarda suv resurslarini boshqarishning an’anaviy usullaridan voz kechib, GSM (Global System for Mobile Communications) va IoT (Internet of Things) texnologiyalariga real vaqt rejimida avtomatlashtirish va boshqarishga asoslangan monitoring tizimini joriy etishga qaratilgan. Tadqiqot davomida suvning sathi, sarfi, fizik-kimyoviy xususiyatlari (harorat, loyqalanish, sho‘rlanish) datchiklar turkumi yordamida aniqlanadi va ma’lumotlarni real vaqt rejimida masofaga uzatish mexanizmlari taklif etilgan.

Kalit so‘zlar: GSM texnologiyasi, suv resurslari, real vaqt monitoringi, IoT, avtomatik boshqaruv, mikrokontroller.

Ma’lumki, butun jahonda qishloq xo‘jaligi sohasi suvni eng ko‘p ishlatuvchi sanaladi. Shuning uchun, butun jahon ilm ommasi qishloq xo‘jaligida, xususan sug‘oriladigan dehqonchilik ekin maydonlarida suvdan tejamli foydalanish, shu jumladan, suvni tejaydigan texnologiyalarni keng joriy etishni suv tanqisligini yumshatishning eng ustuvor yo‘li sifatida ta’kidlashadi.

Endilikda, zamonaviy suv tejovchi sug‘orish tizimlarini quruvchi, ularga servis xizmatlarini ko‘rsatuvchi mahalliy kadrlarga zaruriyat tug‘ildi. Shu bilan birga, mazkur sug‘orish tizimlariga ijodkorona yondashish, ularni takomillashtirish, O‘zbekistonning o‘ziga xos tuproq-iqlim sharoitlariga moslashtirish masalalari ham kundan-kunga dolzarb bo‘lib bormoqda va buni hayotning o‘zi taqozo etmoqda [1].

Hozirgi kunda suv resurslaridan oqilona foydalanish va ularni samarali boshqarish dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. An’anaviy boshqaruv usullarida inson omilining yuqoriligi,

ma’lumotlarning kechikib olinishi va favqulodda holatlarga sekin javob berilishi tizim samaradorligini pasaytiradi. Shu sababli suv resurslarini boshqarishda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga asoslangan avtomatlashtirilgan tizimlarni joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Tizim ishga tushirilishi bilan boshqaruv jarayonining markaziy elementi hisoblangan mikrokontroller faollashadi. Mikrokontroller ishga tushish bosqichida barcha ichki dasturiy sozlamalarni yuklaydi. Ushbu jarayonda tizimning ishlashga tayyorligi tekshiriladi. Shundan so‘ng GSM moduli ishga tushiriladi. GSM moduli mobil aloqa tarmog‘iga ulanadi. Aloqa o‘rnatilishi orqali tizim tashqi operator bilan bog‘lanish imkoniyatiga ega bo‘ladi. GSM moduli ulanishi barqaror holatga kelgach, keyingi bosqichga o‘tiladi. Bu bosqichda datchiklar majmuasi faollashtiriladi. Datchiklar suv holatini aniqlash uchun ishga tayyorlanadi. Tizim real vaqt rejimidagi monitoring sikliga o‘tadi. Monitoring sikli davomida datchiklardan ma’lumotlar uzluksiz olinadi. Suv sathi datchigi suv darajasini doimiy ravishda o‘lchaydi. Suv sarfi datchigi oqim miqdorini aniqlaydi. Suv harorati datchigi muhit haroratini nazorat qiladi. Loyqalanish datchigi suvning tiniqlik darajasini o‘lchaydi. SHo‘rlanish datchigi suv tarkibidagi tuz miqdorini aniqlaydi. Olingan barcha ma’lumotlar mikrokontrollerga uzatiladi. Mikrokontroller ma’lumotlarni real vaqt rejimida qayta ishlaydi. Qayta ishlangan ma’lumotlar belgilangan meyoriy qiymatlar bilan solishtiriladi. Har bir parametr alohida nazorat qilinadi. Tizim meyoriy chegaralardan chiqish holatini aniqlashga mo‘ljallangan. Agar kamida bitta parametr meyoriy qiymatdan chetga chiqsa, tizim buni og‘ish holati sifatida qayd etadi. Ushbu holatda favqulodda vaziyat rejimi ishga tushiriladi. Favqulodda vaziyatda boshqaruv qarori avtomatik ravishda qabul qilinadi. Qabul qilingan qarorga asosan nasosni yoqish yoki o‘chirish amalga oshiriladi. Shu bilan birga klapanlarni boshqarish jarayoni ishga tushiriladi. Boshqaruv buyruqlari rele orqali ijro mexanizmlariga uzatiladi. Favqulodda holat haqida GSM moduli orqali operatorga xabar yuboriladi. Operatorga yuborilgan xabar SMS shaklida yetkaziladi. Agar barcha parametrlar meyorida bo‘lsa, tizim normal ish rejimida qoladi. Normal rejimda monitoring jarayoni uzluksiz davom etadi. Tizim operator buyrug‘ining mavjudligini tekshiradi. Operator buyrug‘i GSM moduli orqali qabul qilinadi. Kelib tushgan buyruq mikrokontroller tomonidan tahlil qilinadi. Buyruq mazmuniga mos boshqaruv qarori qabul qilinadi. Qaror rele orqali ijro mexanizmlariga uzatiladi. Natijada nasos yoki klapanlar boshqariladi. Agar operator buyrug‘i kelib tushmasa, tizim avtomatik rejimda ishlashni davom ettiradi. Avtomatik rejim monitoring siklining takrorlanishini ta’minlaydi. Ushbu algoritm tizimning uzluksiz ishlashini kafolatlaydi. Tizim real vaqt rejimida suv holatini to‘liq nazorat qilish imkonini beradi.

Boshqarish tizimini tarkibiy qurilmalari:

1. **Mikrokontroller** (Arduino yoki ESP32) – barcha datchiklardan ma’lumotlarni yig’adi va tahlil qiladi;
2. **LCD Displey (16x2 I2C)-**fizik kattalarni ko‘rish va tahlil qilish
3. **SIM800/900 GSM moduli** – SMS orqali operator bilan muloqot qiladi;
4. **Datchiklar turkumi** – suv sathi, sarfi, harorati, loyqalanish va sho‘rlanishni o‘lchaydi;
5. **Rele moduli** – nasos va elektromagnit klapanlarni boshqaradi;
6. **Ijro mexanizmlari** – nasos va klapanlar;
7. **Taminlash manbai**-20W yoki 30W quvvatli monokristall quyosh paneli
8. **12V 12Ah GEL (Deep Cycle) akkumulyatori**
9. **Operator mobil telefoni** – masofadan buyruq yuborish va SMS xabarlarni qabul qilish uchun ishlatiladi.

Barcha elektronika hamda datchiklarni suv va chang o‘tkazmaydigan germetik qutilarda joylashtiriladi. Agar quyosh panelidan kelayotgan tok darajasi ochiq havoda keskin pasaysa, tizim operatorga “Panelni tozalash kerak” degan ogohlantirish SMSini yuboradi.

GSM moduli yordamida tizim operator bilan SMS orqali muloqot qiladi.

Operator nafaqat ma’lumot oladi, balki tizimni boshqara oladi. Masalan, operator mobil telefoni orqali “NASOS YOQILSIN” kodini yuborsa, GSM modul ushbu xabarni o‘qiydi va mikrokontroller orqali yuqori kuchlanishli releni ishga tushirib, nasosni yoqadi. Bu esa operatorning havza oldiga borishiga ketadigan vaqt va transport xarajatlarini tejaydi. Jarayon doimiy ravishda

takrorlanadi. Ushbu algoritm GSM asosida ishlash, datchiklar turkumi va mikrokontrollerni integratsiya qilish orqali sug‘orish havzalarida suv resurslarini optimal boshqarish mexanizmini ta’minlaydi [2].

Ma’lumotlar davriy ravishda yoki favqulodda holat yuzaga kelganda darhol yuboriladi, shuning uchun tizim **real vaqt rejimida** ishlaydi.



1-rasm. Suv resurslarini real vaqt rejimida monitoring va avtomatlashtirilgan boshqarish tizimi



2-rasm. Havzadagi suv resurslarini real vaqt rejimida monitoring va boshqarish algoritmi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mamatov S.A., Xamraev Sh.R., Qarshiev R.J., Zaks I.A., Burxonjonov B.Sh. Suv tejovchi sug‘orish texnologiyalari asoslari. Toshkent, 2022 - 530 b.

2. M.Xamidov, Sh.Ch.Botirov, B.U.Suvanov, D.G.Yulchiev Suv resurslarini o‘lchovi va vositalari Toshkent-2019.

QASHQADARYO VILOYATINING GIDROENERGETIK RESURSLARI VA ULARDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI

Urishev B.U., Quvatov U.J., Jomurodova M.Q., Boboraimov U.Sh.
Qarshi davlat texnika universiteti

Annotatsiya. Maqolada Qashqadaryo viloyatidagi suv manbalarining ko‘p yillik gidrologik ma’lumotlar asosida aniqlangan gidroenergetik reurslari va ularda quriladigan gidroelektr stansiyalar parmetrlari haqida ma’lumotlar berilgan. Ushbu ma’lumotlar asosida suv manbalarining o‘rtacha yillik suv sarfi va napori asosida ishlab chiqilishi mumkin bo‘lgan elektr energiyasi miqdorlari hisoblangan.

Abstract. This article presents information on the hydropower resources of water sources in the Kashkadarya Region, based on long-term hydrological data, and the parameters of hydroelectric power plants to be built on these sources. Based on the average flow rates and water pressures of the sources, the average annual electricity generation potential is calculated.

Kirish. Qashqadaryo viloyatida gidroenergetik resurslar asosan Qashqadaryo daryosi va uning irmoqlari bo‘lgan Jinnidaryo, Oqsuv, Okdaryo, Tanxozdaryo, Qizildaryo, Yakkabog‘daryo, Dehqonobod tumanidagi Katta va Kichik Uradaryo, G‘uzordagi G‘uzordaryoda joylashgan.

Qashqadaryo viloyatidagi gidroenergetik resurslar potensiali “Toshgidroproyekt” loyihalash institutining ma’lumotlari bo‘yicha 1 – jadvalda keltirilgan [1].

Qashqadaryo viloyatidagi gidroenergetik resurslar potensiali

1 - jadval

Gidroenergetik resurslar potensiali	Qurilishi mumkin bo‘lgan GESlar soni, soni	GESlarning umumiy quvvati, MVt	GESlar yil davomida ishlab chiqargan elektr energiyasi miqdori, mln. kVt soat
Yalpi	613	164,09	984,4
Texnik	199	28,795	169,175

1-jadvalda viloyatdagi barcha daryolar, soylar va irrigatsiya inshootlarida qurilishi mumkin bo‘lgan quvvati 100 kVtdan oshadigan mikroGESlar, kichik GESlar va o‘rta GESlar hisobga olingan.



1 – rasm. Qashqadaryo viloyatidagi gidroenergetik resurslar sxemasi.

Qashqadaryo viloyatida daryo, soylardagi gidroenergetik potensialdan tashqari irrigatsiya kanallari va boshqa inshootlar mavjud bo‘lib ularda ham 12,3 MVtdan ortiq gidroenergetik quvvat mavjud. Kanallarning umumiy soni 243 ta, uzunligi 2310 km ni tashkil qiladi, shundan asosiy qismi betonlashtirilgan. Ushbu kanallar asosan 0,2 dan 200 m^3/s gacha suv sarfiga ega bo‘lib, kichik naporli, naporsiz suv oqimining kinetik energiyasiga mo‘ljallangan gidroenergetik qurilmalardan elektr energiyasi ishlab chiqarish uchun foydalanish mumkin.

Qashqadaryo viloyatidagi daryolardagi gidroenergetik resurslar sxemasi 1 – rasmda keltiriladi.

“Toshgidroproyekt” loyihalash institutining ma’lumotlariga ko‘ra Qashqadaryo daryosida quvvati 2,5 MVtdan 4,5 MVtgacha bo‘lgan 4 ta, Jinnidaryoda 1 ta (quvvati 2,8 MVt, napori 125 metr), Oqsuv daryosida 3 ta quvvati 11,0...11,9 MVt bo‘lgan KGESlar joylashishi mumkin. Bu daryoda hozirgi kunda quvvati 45 MVt Hisorak GESi shu nomdagi suv ombori tarkibida faoliyat olib bormoqda, shuningdek Oqsuv GESini rekonstruksiya qilib ishga tushirish rejaga kiritilgan. Tanxoz daryosida 5 ta har birining quvvati 2,5...3,8 MVt, Qizildaryoda ham 4 ta quvvatlari 6,5 MVtdan 12,7 MVt-gacha bo‘lgan KGESlar qurilishi mumkin. Bu daryoda napor qiymati 450 metr, quvvati 34,8 MVt bo‘lgan Oqqultiqsoy GESi ham sxemaga kiritilgan [1].

Dehqonobod tumanidagi Kichik Uradaryo va Katta Uradaryoda har birining quvvati 0,88 MVtdan 6,9 MVtgacha bo‘lgan 15 ta KGES qurilishi mo‘ljallangan. Bundan tashqari viloyatdagi Chimqurg‘on, Pachkamar, Dehqonobod, Oqboy suv omborlarida ham KGESlarni qurish uchun imkoniyatlar mavjud.

Uslublar. Suv manbalaridagi gidroenergetik resurslarni hisoblashni quyidagi metodika asosida olib borish mumkin [2,3,4].

Suv manbalarida quriladigan GESlarning parametrlarini aniqlash suv manbalaridagi suv oqimi sarfining oylik ma’lumotlari asosida amalga oshiriladi. Masalan, suv manbalarining suv oqimlari ko‘rsatkichlari asosida ularda quriladigan GESlarning quvvatlari va yillik ishlab chiqariladigan elektr energiyalari miqdorlari quyidagi formulalar yordamida aniqlandi.

$$Q_{GES}(t) = Q^{\Sigma}_{GES}(t) - Q_{irr}(t) \quad (1)$$

$$\mathrm{H}_{GES}(t) = \nabla UBSS(t) - \nabla PBSS(t) \quad (2)$$

$$V_{GES}(\mathrm{T}) = \sum_{t_0}^{T}[Q^{\Sigma}_{GES}(t) - Q_{irr}(t)]\Delta t \quad (3)$$

$$N_{GES}(t) = 9{,}81\int_{t_0}^{T}[Q_{GES}(t)H_{GES}(t)\eta_{GES}(t)] \quad (4)$$

$$Э_{GES}(T) = 9{,}81\int_{t_0}^{T}[Q_{GES}(t)H_{ГЭС}(t)\eta_{GES}(t)]\,dt \quad (5)$$

bunda $N_{GES}(t)$, $Q_{GES}(t)$, $H_{GES}(t)$, $\eta_{GEC}(t)$, $V_{GES}(t)$ – GESning t vaqtdagi quvvati (kVt), suv sarfi (m^3/s), napori (metr), foydali ish koeffitsiyenti (FIK) va suv ombori hajmi, $Э_{GES}(T)$ – GESning yil davomida ishlab chiqargan elektr energiyasi miqdori, kVt·soat, T - GESning yil davomida ishlash muddati (soat), $Q^{\Sigma}_{ГЭС}(t)$ - suv manbaining t vaqtdagi suv sarfi, $Q_{irr}(t)$ - suv manbaidan irrigatsiya va boshqa maqsadlarda olingan suv sarfi, $\nabla UBSS(t)$ - yuqori byef suv sathi, $\nabla PBSS(t)$ $\nabla UBSS(t)$ - pastki byef suv sathi

Natijalar. Qashqadaryo viloyatining gidroenergetik resurslari va daryo, soylar va suv omborlarida qurilishi mumkin bo‘lgan GESlar to‘g‘risidagi ma’lumotlar yuqorida keltirilgan uslubiyot asosida “Toshgidroproyekt” loyihalash institutining ma’lumotlaridan foydalanib hisoblangan natijalari 2- jadvalda keltiriladi.

Qashqadaryo viloyatidagi suv manbalarining energogidravlik xarakteristikalari

2 – jadval

T/r	Daryo va GES nomi	Suv ombori hajmi mln. m^3		Suv sarfi m^3/s		Napor netto, m			GES ning o‘rnatilgan quvvati MVt	O‘rtacha yillik ishlab chiqariladigan elektr energiyasi mln.kVt/soat
		To‘liq	Foydali	O‘rtacha ko‘p yillik	GES ning suv sarfi	Maksimal	Minimal	Hisobiy		
1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11
	Qashqadaryo daryosi									
1	Sarifar	10.0	5.0	4.50	7.0	75.0	65.0	75.0	4.5	24.0
2	Yaroqsoy			5.19	7.8			45.0	3.0	17.0
3	Bashir			5.19	7.8			45.0	3.0	17.0
4	Chuquroq			5.19	7.8			37.0	2.5	14.0
5	Oqboy GES	115.3	95.0	7.2	19.0	45.0	20.0	38.5	6.2	20.0
6	Chimqo’rg’on GES	500.0	450.0	12.9	48.4	27.0	10.0	23.0	9.5	20.0
7	Jinnidaryo daryosi									
8	Madman Oqdaryo-Oqsuv	-	-	1.7	2.6	125.0	-	125.0	2.8	15.6
9	Rabat	10.0	5.0	10.0	20.0	72.0	42.0	70.0	11.9	51.0
10	Chappasuv	3.0	-	12.0	20.0	70.0	-	70.0	11.9	61.0
11	Tamshush	3.0	-	12.0	20.0	65.0	-	65.0	11.0	57.0
12	Hisorak GES	170.0	162.0	12.15	44.5	128.0	50.0	115.0	45.0	81.0
13	Oqsuv GES			12.15	45.0			44.5	17.0	80.0
	Karasu									
14	Loyqasoy	3.0	-	1.7	2.5	55.0		55.0	1.2	10.0
	Tanxozdaryo									
15	Qoratut	-	-	3.97	6.0	60.0		60.0	3.0	17.5
16	Xitoy	-	-	3.97	6.0	60.0		60.0	3.0	17.5
17	Dektar	8.0	3.0	3.97	6.0	50.0	40.0	50.0	2.5	14.5
18	Toshbuloq	-	-	3.97	6.0	75.0		75.0	3.8	21.8
19	Sho’rchi			3.97	6.0	75.0		75.0	3.8	21.8
20	Saritug’oy	10.0	3.0	4.0	6.0	145.0	135.0	145.0	7.4	42.6
21	Toshqo‘rg‘on	3.0	-	6.08	9.1	-	-	165.0	12.7	73.6
22	Oqqo’ltiqsoy	5.0	-	6.08	9.1	-	-	450.0	34.8	200.0
23	Suvlisoy	3.0	-	6.08	9.1	-	-	100.0	7.7	44.6
24	Samak	-	-	6.08	9.1	-	-	85.0	6.5	37.9
25	Kan	-	-	3.15	4.8	75.0	-	-	3.0	17.3
26	Nayman GES №1	-	-	4.15	6.2	95.0	-	-	5.0	28.0
27	Nayman GES	-	-	4.15	6.2	95.0	-	-	5.0	28.0

	№2									
28	Boyqo’rg’on	-	-	4.15	6.2	42.0	-	-	2.2	12.8
29	Choshtepa	-	-	4.15	6.2	30.0	-	-	1.5	9.1
30	Shurguzar	-	-	4.15	6.2	35.0	-	-	1.8	10.6
31	Pachkamar GES	260.0	250.0	5.10	18.0	45.0	-	-	6.9	16.6
32	Ko’k soy	-	-	1.0	2.0			110.0	1.87	9.7
33	Tillatepa	-	-	1.2	2.4			60.0	1.2	5.3
34	Oqtosh GES №1	-	-	1.2	2.4			60.0	1.2	5.3
35	Oqtosh GES №2	5.0	-	1.34	3.0			60.0	1.4	5.3
36	To’dachorbog’	10.0	3.0	1.34	3.0	55.0	40.0	55.0	1.4	5.4
37	Dehqonobod GES	18.4	18.0	1.34	4.7	25.0	10.0	25.0	1.0	2.46
38	Gumbuloq	5.0	-	1.34	4.7			25.0	1.0	2.46
39	Qumqishloq	-	-	1.34	4.7			22.0	0.88	2.16
40	Ko’kjar	-	-	1.34	4.7			22.0	0.88	2.16
	Viloyat bo’yicha :								250.93	1122.74
Shu jumladan: daryo va soylarda									182.33	982.48
Suv omborlarda									68.6	140.26

Xulosalar. 1. Daryolar, soylar, suv omborlari va kanallarda o‘rtacha gidroenergetik resurslarni hisoblashning soddalashtirilgan uslubiyoti asosida Qashqadaryo viloyatining gidroenergetik resurslari aniqlandi.

2. Hisoblar natijalariga ko‘ra Qashqadaryo viloyatida daryolar va soylarda umumiy quvvati 182,33 MVt, suv omborlarda 982,48 MVt, jami 250,93 MVt va har birining quvvati 1,0 MVtdan 34,8 MVtgacha bo‘lgan 40 ta GES qurilishi mumkin va ular yordamida bir yilda 1 mlrd. 122,74 mln. kVt·soat elektr energiyasini ishlab chiqish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Toshgidroloyiha AJ loyihalash instituti http://www.gidroproekt.uz/

2. Urishev B.U. Kichik gidroelektrstansiyalar. Darslik. – T. “Voris-nashriyot”, 2020. 212 bet.

3. Urishev B.U., Quvatov U.J. Gidroelektr stantsiyalar: o’quv qo’llanma/ - Qarshi. “Inellekt” nashriyoti, 2025. – 125 betю

4. Уришев Б.У., Умиров А.П. Использование энергетического потенциала гидротехнических сооружений водохозяйственных систем. «Проблемы энерго- и ресурсосбережения», ТГТУ, №3, 2021. с. 347 -355

UDK 628.1:004.8

SUNI’Y INTELLEKT ASOSIDA QASHQADARYO KOLLEKTOR-DRENAJ SUVLARINI CHUCHUKLASHTIRISH VA TOMCHILATIB SUG‘ORISHNI OPTIMALLASHTIRISH TIZIMI

Turgunov A.M.,
Osiyo texnologiyalari universiteti
Ibodillayev F.
Qarshi davlat texnika universiteti

Annotatsiya. Hozirgi vaqtda dunyoda aholining tez o‘sishi (2025 yilga kelib 8,5 mlrd dan ortiq, O‘zbekistonda 38 mln ga yaqin) va iqlim o‘zgarishi natijasida Amudaryo oqimining 15–20% ga kamayishi (Afg‘onistonning “Qo‘shtepa” kanali ta’siri) suv tanqisligini keskinlashtirmoqda.

Qashqadaryo viloyatida bu muammo ayniqsa dolzarb bo‘lib, muqobil suv manbalarini jalb qilish zarur. Viloyatdagi eng katta muqobil manba – yiliga 3,5–4 mlrd m³ hajmdagi drenaj-kollektor suvlari (mineralizatsiyasi 3,32–6,82 g/l). Ularning 73% i Amudaryodan keladigan sug‘orish suvining “chiqindisi” hisoblanadi va hozirda foydalanilmaydi. Taklif etilayotgan yechim – teskari osmos (RO) texnologiyasi orqali chuchuklashtirish (samaradorlik 90–95%) va sun’iy intellekt (SI) asosidagi IoT-integratsiyalangan tomchilatib sug‘orish tizimini real vaqt rejimida optimallashtirish. Bu kompleks yondashuv sug‘orish me’yorlarini avtomatik boshqarish, suv sarfini 40–50% tejash va hosildorlikni 30–40% oshirish imkonini beradi. Loyiha Scopus va MDPI (2023–2025) tadqiqotlariga asoslanib, O‘zbekistonda birinchi marta SI + RO + IoT bilan jihozlangan tomchilatib sug‘orishning mahalliy sharoitlarga moslashtirilgan kompleks tizimini yaratishni nazarda tutadi.

Kalit so‘zlar: *sun’iy intellekt, IoT, teskari osmos, drenaj-kollektor suvlari, smart sug‘orish, suv tejash, Qashqadaryo.*

Kirish. Iqlim o‘zgarishi va aholining tez o‘sishi global suv resurslarini jiddiy xavf ostiga qo‘ymoqda. O‘zbekiston, xususan Qashqadaryo viloyati, bu muammodan eng ko‘p zarar ko‘rayotgan hududlardan biri hisoblanadi. Amudaryo oqimining kamayishi (15–20%) va “Qo‘shtepa” kanali ta’siri viloyatda suv tanqisligini yanada kuchaytirmoqda. Shu bilan birga, viloyatda yiliga 3,5–4 mlrd m³ drenaj-kollektor suvlari hosil bo‘ladi, ularning mineralizatsiyasi 3,32–6,82 g/l ni tashkil etadi va 73% i sug‘orish suvining chiqindisi sifatida “Sechan ko‘li” va “Achin ko‘li”da to‘planadi. Ushbu suvlar muqobil manba sifatida ishlatilishi mumkin, ammo yuqori sho‘rligi sababli ulardan to‘g‘ridan-to‘g‘ri foydalanish imkoniyati yo‘q.

Raqamli texnologiyalar – IoT (Internet of Things) va sun’iy intellekt (SI) – suv resurslarini samarali boshqarishning zamonaviy vositalaridir. Bu texnologiyalar real vaqt rejimida ma’lumotlarni yig‘ish, tahlil qilish va avtomatik qaror qabul qilish imkoniyatini taqdim etadi. Ushbu tadqiqotda teskari osmos (RO) texnologiyasi bilan birgalikda SI asosidagi aqlli tomchilatib sug‘orish tizimini Qashqadaryo sharoitida qo‘llash taklif etilmoqda. Bu yondashuv suv tejash va hosildorlikni oshirishda yangi imkoniyatlar yaratadi.

Material va metodlar

Ushbu tadqiqotda ikki asosiy texnologiya birlashtirilgan:

1. **Teskari osmos (RO) tizimi.** Drenaj suvlarini chuchuklashtirish uchun RO membranalari qo‘llaniladi. Samaradorlik 90–95% ni tashkil etadi. Tizim quyidagi bosqichlardan iborat: oldindan tozalash (filtrlar, ultrafiltratsiya), yuqori bosimli nasoslar va RO membranalari. Ularni chiqindisi qayta ishlatilishi yoki xavfsiz utilizatsiya qilinishi mumkin.

2. **SI va IoT asosidagi tomchilatib sug‘orish tizimi.** IoT sensorlari (tuproq namligi, harorat, namlik, EC – elektr o‘tkazuvchanligi) real vaqt rejimida ma’lumot yig‘adi. SI algoritmlari (masalan, neyron tarmoqlar yoki noaniq mantiq (fuzzy logika)) suv sarfini bashorat qiladi va tomchilatib sug‘orish klapanlarini avtomatik boshqaradi.

Tizimning ishlashi quyidagi formula asosida optimallashtiriladi:

$$Q = k \cdot ET_c \cdot A \cdot (1 - P) \quad (1)$$

bu yerda: (Q) – suv sarfi (m³/ga),

(ET_c) – ekin (o'simlik) va uning atrofidagi tuproq yuzasidan havoga suvning bug'lanib ketishi,

(A) – maydon,

(P) – yog‘ingarchilik,

(k) – SI tomonidan hisoblangan koeffitsient.

Tadqiqotda Qashqadaryo viloyati tuprog‘i (og‘ir qumoq, o‘rta qumoq) va iqlim sharoitlari hisobga olingan. Eksperimental maydonlarda kuzgi bug‘doy navlari sinovdan o‘tkazilgan (namlik darajasi 70–80–60% va boshqalar).

Natijalar va muhokama

Taklif etilayotgan tizim quyidagi natijalarni beradi:

- Suv sarfini 35–40% ga tejash (an’anaviy sug‘orishga nisbatan).
- Hosildorlikni 30–40% ga oshirish.
- Cho‘l va yarim cho‘l hududlarida 10 000 ga dan ortiq yangi ekin maydonlarini o‘zlashtirish.
- Dukkakli, texnik va ozuqa ekinlarini (uzum, don, dukkakli) kengaytirish.
- Qishloq xo‘jaligining eksport salohiyatini oshirish va iqlim o‘zgarishiga qarshi barqarorlikni ta’minlash.

SI asosidagi smart sug‘orish suvni 20–50% tejashi mumkin (ObSIdeen va boshq., 2022; Qazi va boshq., 2022). Teskari osmos texnologiyasi drenaj suvlarini chuchuklashtirishda samarali (Ergashev va boshq., 2024). Qashqadaryo sharoitida IoT integratsiyasi suvni real vaqt rejimida boshqarish imkonini beradi va energiya sarfini kamaytiradi.

Tuproq tahlillari shuni ko‘rsatadiki, viloyat tuprog‘i og‘ir qumoq bo‘lib, suv o‘tkazuvchanligi past. Taklif etilayotgan smart tizim bu muammoni to’liqligicha hal etadi.

Xulosalar. Taklif etilayotgan SI + RO + IoT tizimi Qashqadaryo viloyatida suv tanqisligini bartaraf etishning innovatsion yechimidir. U O‘zbekistonda birinchi marta mahalliy sharoitlarga moslashtirilgan kompleks tizim sifatida amalga oshiriladi. Natijada suv resurslari samarali boshqariladi, qishloq xo‘jaligi barqaror rivojlanadi va iqlim o‘zgarishiga moslashuv kuchayadi. Kelgusida tizimni kengaytirish va iqtisodiy samaradorligini baholash tavsiya etiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Obaideen K. va boshq. (2022). Irrigation Equipment Production in Central Asia. UNIDO.
2. Qazi A. va boshq. (2022). Impact of renewable energy and AI on SDGs. ScienceDirect.
3. Ergashev B. va boshq. (2024). Optimizing Water Purification for Drip Irrigation. ASEAN Journal of Science and Engineering.
4. Tekle A., Alazzam A. (2025). Using Artificial Intelligence for Reverse Osmosis Desalination. ResearchGate.
5. Vinokurov E. va boshq. (2023). Efficient Irrigation and Water Conservation in Central Asia. EDB.
6. Mirzabaev A. va boshq. (2019). IPCC Report on Climate Change and Water.
7. Liakos K. va boshq. (2018). Machine Learning in Agriculture. Computers and Electronics in Agriculture.
8. FAO. (2024). Water Desalination for Agricultural Applications.
9. Turgunov A.M. Математический модель и алгоритм искусственного интеллекта в капельном орошении. //Инновационные технологии. Научный журнал. 2024 1/53. ISBN 2181-4732.

UDK 631.3:004.8:631.55

AQILLI (SMART) QISHLOQ XO‘JALIGI TEXNIKALARI: DRONLAR VA SENSOR TIZIMLAR ASOSIDA HOSILDORLIKNI OSHIRISHNING TAHLILIY ASOSLARI

Vafoyeva N.I., Xolmurodov B.B.

Qarshi davlat texnika universiteti

Annotatsiya. Maqolada aqlli (Smart) qishloq xo‘jaligi texnologiyalarining nazariy va amaliy jihatlari tahliliy yondashuv asosida o‘rganildi. Dronlar, IoT sensor tizimlari va raqamli monitoring platformalarining hosildorlikka, resurs tejamkorlikka hamda ekologik barqarorlikka ta’siri ilmiy manbalar asosida tahlil qilindi. Adabiyotlar sharhi shuni ko‘rsatadiki, raqamli agrotexnologiyalarni qo‘llash hosildorlikni o‘rtacha 15–30 % ga oshiradi, suv sarfini 20–40 % gacha kamaytiradi va o‘g‘itlardan foydalanishni optimallashtiradi. Maqolada xalqaro tadqiqotlar natijalari umumlashtirildi va ularning O‘zbekiston sharoitida qo‘llash imkoniyatlari asoslab berildi.

Kalit so‘zlar: *smart agriculture, dronlar, IoT sensorlar, NDVI, differensial sug‘orish, raqamli agrotexnologiya, hosildorlik.*

Kirish. Global iqlim o‘zgarishi va resurs tanqisligi qishloq xo‘jaligini raqamlashtirish zaruratini kuchaytirmoqda. FAO ma’lumotlariga ko‘ra, kelgusi 30 yil ichida oziq-ovqat ishlab

chiqarish hajmi sezilarli oshirilishi lozim.

Smart agriculture konsepsiyasi IoT, sun’iy intellekt, dron monitoringi va katta ma’lumotlar tahliliga asoslanadi [1]. Precision agriculture (aniq dehqonchilik) tizimi yer maydonining har bir qismini individual boshqarish imkonini beradi.

Mazkur maqolaning maqsadi – dronlar va sensor tizimlarining hosildorlikni oshirishdagi samaradorligini mavjud ilmiy manbalar asosida tahlil qilishdir.

Aqlli (Smart) qishloq xo‘jaligi konsepsiyasi so‘nggi o‘n yillikda jadal rivojlanib, ilmiy tadqiqotlarning markaziy yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Mazkur sohada olib borilgan izlanishlar asosan uch yo‘nalishga bo‘linadi: raqamli ma’lumotlar va IoT infratuzilmasi, dron va masofaviy zondlash texnologiyalari, hamda sun’iy intellekt asosida agrojarayonlarni modellashtirish.

Wolfert va boshqalar (2017) qishloq xo‘jaligida Big Data va IoT texnologiyalarini joriy etishning konseptual asoslarini ishlab chiqqan [1]. Mualliflar aqlli fermer xo‘jaligi modelini taklif qilib, unda ma’lumotlarni yig‘ish, uzatish, saqlash va tahlil qilishning yagona integratsiyalashgan tizimini asoslab bergan. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, real vaqt ma’lumotlariga asoslangan boshqaruv qaror qabul qilish aniqligini 30 % gacha oshirishi mumkin. Ular ayniqsa sensorlar orqali olingan agroiqlim ma’lumotlarining ahamiyatini alohida ta’kidlaydi.

Zhang va Kovacs (2012) tomonidan olib borilgan tadqiqotlar UAV (uchuvchisiz uchish apparatlari) texnologiyalarining precision agriculture tizimidagi rolini ochib beradi [2]. Mualliflar dronlar yordamida vegetatsiya indekslari, biomassani baholash, kasalliklarni aniqlash va suv stressini monitoring qilish imkoniyatlarini ilmiy asosda ko‘rsatgan. Ularning xulosasiga ko‘ra, UAV asosidagi monitoring an’anaviy dala kuzatuviga nisbatan 5–10 baravar tezkor va aniqligi yuqori.

Liakos va boshqalar (2018) qishloq xo‘jaligida mashinali o‘qitish algoritmlarining qo‘llanilishi bo‘yicha keng qamrovli sharh taqdim etgan [3]. Ular neyron tarmoqlar, regressiya modellari va tasniflash algoritmlarining hosildorlik prognozlashdagi samaradorligini tahlil qilgan. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, AI algoritmlari asosida hosildorlik prognozining aniqlik darajasi 85–92 % gacha yetishi mumkin. Bu esa an’anaviy statistik modellar bilan solishtirganda yuqori natija hisoblanadi.

FAO tomonidan tayyorlangan hisobotda (2019) raqamli qishloq xo‘jaligi oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashda strategik ahamiyatga ega ekani ta’kidlanadi [4]. Hisobotda IoT, mobil ilovalar va raqamli platformalar kichik fermer xo‘jaliklari uchun ham imkoniyat yaratishi qayd etilgan. Shuningdek, suv tanqis hududlarda sensor asosidagi sug‘orish tizimlari barqaror ishlab chiqarish modelini ta’minlashi ko‘rsatilgan.

Gebbers va Adamchuk (2010) precision agriculture tizimining oziq-ovqat xavfsizligi bilan bog‘liqligini chuqur tahlil qilgan [6]. Ularning fikricha, differensial o‘g‘itlash va zonal boshqaruv tizimi tuproq unumdorligini uzoq muddat saqlab qoladi. Tadqiqotda aniqlanishicha, differensial boshqaruv natijasida azotli o‘g‘it sarfi 15–25 % ga kamaygan, hosildorlik esa o‘rtacha 12–18 % ga oshgan.

Kamilaris va Prenafeta-Boldú (2018) chuqur o‘rganish (deep learning) texnologiyalarining qishloq xo‘jaligida qo‘llanilishi bo‘yicha keng qamrovli ilmiy tahlil olib borgan [7]. Ular tasvirlarni avtomatik tahlil qilish, kasalliklarni aniqlash va meva sifatini baholash jarayonlarida konvolyutsion neyron tarmoqlarining samaradorligini ko‘rsatgan. Mualliflar dron tasvirlari asosida kasalliklarni aniqlash aniqligi 90 % dan yuqori bo‘lishi mumkinligini qayd etadi.

Kim va boshqalar (2008) IoT asosidagi sug‘orish tizimlarini tajriba asosida sinovdan o‘tkazgan [8]. Ularning tadqiqotiga ko‘ra, sensorli sug‘orish tizimi suv sarfini 30–35 % gacha kamaytirgan, shu bilan birga hosildorlik pasaymagan. Bu natija suv tanqis hududlar uchun muhim ilmiy asos hisoblanadi.

Yuqoridagi adabiyotlarni umumlashtirib aytganda, Smart qishloq xo‘jaligi texnologiyalarining samaradorligi uch asosiy ilmiy dalil bilan tasdiqlanadi:

- Raqamli monitoring agroqarorlarni aniq ma’lumotga asoslash imkonini beradi [1], [3].
- UAV va multispektral tasvirlar o‘simlik salomatligini erta bosqichda aniqlaydi [2], [7].
- IoT asosidagi sug‘orish va differensial boshqaruv resurs tejamkorligini ta’minlaydi [6], [8].

Shuningdek, ilmiy manbalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, alohida texnologiyalarni emas, balki ularning integratsiyalashgan qo‘llanilishi eng yuqori natijani beradi. Masalan, dron monitoringi +

IoT sensorlari + AI tahlil tizimi birgalikda qo‘llanilganda hosildorlikning 20–30 % o‘sishi kuzatilgan [1], [3], [6].

Shu bilan birga, adabiyotlarda ayrim cheklovlar ham qayd etiladi:

– boshlang‘ich investitsiyaning yuqoriligi

– ma’lumotlarni qayta ishlash infratuzilmasi zarurati

– fermerlarning raqamli savodxonligi masalasi

Ammo uzoq muddatli iqtisodiy samaradorlik va ekologik barqarorlik nuqtai nazaridan Smart agrotexnologiyalar istiqbolli yo‘nalish sifatida baholanmoqda [4].

Umuman olganda, mavjud ilmiy tadqiqotlar shuni tasdiqlaydiki, dronlar va sensor tizimlariga asoslangan aqlli qishloq xo‘jaligi modeli global miqyosda sinovdan o‘tgan va samaradorligi ilmiy jihatdan isbotlangan texnologik yechimdir.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tahliliy maqola sifatida quyidagi yondashuv qo‘llanildi:

– 2010–2023 yillardagi xalqaro ilmiy maqolalar tahlili

– UAV va IoT asosidagi natijalarni solishtirma o‘rganish

– Hosildorlik, suv sarfi va iqtisodiy samaradorlik ko‘rsatkichlarini umumlashtirish

Vegetatsiya monitoringida NDVI formulasi asosiy ko‘rsatkich sifatida olinadi [2]:

NDVI = (NIR – RED) / (NIR + RED)

NATIJALAR VA TAHLIL

Tahliliy umumlashtirish natijalari quyidagi jadvalda keltirilgan.

1-jadval

Smart texnologiyalarning samaradorlik ko‘rsatkichlari (ilmiy manbalar asosida)

Texnologiya	**Hosildorlik o‘sishi**	**Suv tejalishi**	**O‘g‘it optimallashuvi**	**Manba**
UAV monitoring	15–20 %	10–15 %	12–18 %	[2], [6]
IoT sensorli sug‘orish	10–18 %	20–40 %	10–15 %	[1], [8]
AI asosida prognozlash	18–30 %	15–25 %	15–20 %	[3], [7]
Differensial o‘g‘itlash	12–22 %	—	15–25 %	[6]

Jadvaldan ko‘rinadiki, Smart texnologiyalarni kompleks qo‘llash eng yuqori natija beradi. Ayniqsa IoT sensorli sug‘orish suvni tejashda muhim rol o‘ynaydi [8].

Dron tasvirlari yordamida kasalliklar erta aniqlanadi va pestitsid qo‘llash 20 % gacha kamayadi [2].

Sun’iy intellekt asosida hosildorlik prognozi aniqligi 85–92 % gacha yetishi mumkin [7].

MUHOKAMA.

Tahlil shuni ko‘rsatadiki, Smart qishloq xo‘jaligi uch asosiy ustunlik beradi:

1. Iqtisodiy samaradorlik – qo‘shimcha hosil va resurs tejalishi.
2. Ekologik barqarorlik – suv va kimyoviy moddalar kamayishi.
3. Boshqaruv aniqligi – real vaqt ma’lumotlari asosida qaror qabul qilish.

Biroq texnologiyalarni joriy etishda quyidagi muammolar mavjud:

– yuqori boshlang‘ich investitsiya

– raqamli savodxonlik darajasi

– infratuzilma cheklovlari

Shunga qaramay, uzoq muddatda Smart agrotexnologiyalar iqtisodiy jihatdan o‘zini oqlaydi [1].

XULOSA.

Tahliliy o‘rganishlar asosida quyidagilar aniqlandi:

– Dron va sensor tizimlari hosildorlikni o‘rtacha 15–30 % ga oshiradi.

– Suv sarfi 20–40 % gacha kamayadi.

– O‘g‘itlardan foydalanish 15–25 % optimallashtiriladi

– Ekologik ta’sir kamayadi.

Demak, aqlli qishloq xo‘jaligi texnologiyalari O‘zbekiston sharoitida ham yuqori samaradorlikka ega istiqbolli yo‘nalishdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. Wolfert S., Ge L., Verdouw C., Bogaardt M. Big Data in Smart Farming. Agricultural Systems, 2017.

2. Zhang C., Kovacs J.M. The application of small UAVs in precision agriculture. Precision Agriculture, 2012.

3. Liakos K.G. et al. Machine Learning in Agriculture: A Review. Sensors, 2018.

4. FAO. Digital Technologies in Agriculture and Rural Areas. Rome, 2019.

5. O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligini rivojlantirish strategiyasi 2020–2030.

6. Gebbers R., Adamchuk V. Precision Agriculture and Food Security. Science, 2010.

7. Kamilaris A., Prenafeta-Boldú F.X. Deep Learning in Agriculture: A Survey. Computers and Electronics in Agriculture, 2018.

8. Kim Y., Evans R., Iversen W. Remote sensing and control of irrigation systems using wireless sensor networks. IEEE Transactions on Instrumentation and Measurement, 2008.

UDC: 627.13:532.5

HYDRAULIC ANALYSIS OF BOTTOM RIPPLES IN EARTHEN CHANNELS

Gayimnazarov Israil Kholikovich
Mamarasulov Sobir Rakhmonqul ogli
Jomurod Toshmurodov Jahongir ogli

Abstract. This article analyzes the hydraulic characteristics of bottom ripples formed under the influence of flow in earthen channels. The study examines the effects of flow velocity, water discharge, granulometric composition of the bed material, and hydraulic slope on the height and length of the ripples. Based on theoretical analysis, the patterns of change in ripple parameters were determined, and their impact on channel capacity and hydraulic resistance was evaluated. The theoretical findings serve to enhance the operational stability of earthen channels, develop practical recommendations for predicting bed deformations during the design process, and improve the efficient use of water resources.

Key words: *soil-lined channel, bottom riffles, riffles, sediments, sediment movement, deformation, roughness, hydraulic resistance, dynamic velocity, displacement velocity, tractive force.*

Annotatsiya. Ushbu maqolada grunt o‘zanli kanallarda oqim ta’sirida shakllanadigan tub rifellarining gidravlik xususiyatlari tahlil qilinadi. Tadqiqot jarayonida oqim tezligi, suv sarfi, o‘zan tubi materialining granulometrik tarkibi hamda gidravlik nishablikning rifellarning balandligi va uzunligiga ta’siri o‘rganildi. Nazariy tahlillar asosida rifellar parametrlarining o‘zgarish qonuniyatlari aniqlanib, ularning kanal o‘tkazuvchanligi va gidravlik qarshilikka ta’siri baholandi. Olingan nazariy tahlillar asosida grunt o‘zanli kanallarning ekspluatatsion barqarorligini oshirish, loyihalash jarayonida tub osti deformatsiyalarini oldindan baholash hamda suv resurslaridan samarali foydalanish bo‘yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: *grunt o‘zanli, tub rifellar, rifellar, oqiziqlar, oqiziqlar harakati, deformatsiya, g‘adir-budirligi, gidravlik qarshilik, dinamik tezlik, siljish tezligi, olib ketuvchi kuch.*

Аннотация. В данной статье анализируются гидравлические свойства донных рифелей, формирующихся под воздействием потока в грунтовых руслах каналов. В процессе исследования изучалось влияние скорости потока, расхода воды, гранулометрического состава материала дна русла, а также гидравлического уклона на высоту и длину рифелей. На основе теоретического анализа определены закономерности изменения параметров рифелей и оценено их влияние на пропускную способность канала и гидравлическое сопротивление. Полученные теоретические результаты служат основой для повышения

эксплуатационной устойчивости грунтовых русловых каналов, предварительной оценки донных деформаций в процессе проектирования и разработки практических рекомендаций по эффективному использованию водных ресурсов.

Ключевые слова: *грунтовое русло, донные рифели, рифели, наносы, движение наносов, деформация, шероховатость, гидравлическое сопротивление, динамическая скорость, скорость сдвига, влекущая сила.*

Introduction

Ground-bed canals are widely used in irrigation and land reclamation systems, and their effective and stable operation plays a crucial role in the rational use of water resources. Under the influence of water flow in these channels, irregularities of various shapes form at the bottom, including bottom ripples, which significantly affect the hydraulic regime of the flow, water conductivity, and the operational condition of the canal. The presence of bottom ripples can increase flow resistance, intensify energy losses, and lead to the development of bottom deformations. The formation and development of bottom ripples in ground-bed canals are closely related to factors such as water discharge, flow velocity, granulometric composition of the soil, hydraulic slope, and channel stability. As a result of the interaction of these factors, the geometric parameters of the ripples - their height, length, and spacing - change over time. Therefore, an in-depth hydraulic analysis of ripples is considered an important scientific and practical issue in the design and operation of canals.

Although research has been conducted in recent years to study the relationship between flow and bottom deformations in earthen channels, the issues of accurately assessing the hydraulic properties of bottom ripples and quantitatively expressing their impact on flow regimes remain relevant. Particularly, determining the hydraulic resistance and water conductivity losses resulting from changes in ripple parameters has practical importance.

The purpose of this article is to analyze the hydraulic characteristics of bottom riffles in earthen channels, determine their main geometric and hydraulic parameters, and assess their impact on the channel flow regime. The analytical results will serve as a basis for developing scientific and practical recommendations aimed at reducing bottom deformations and improving the stability of earthen channels during their design and operation.

Numerous theoretical, laboratory, and field studies have been conducted by S.T. Altunin, V.S. Altunin, V.S. Borovkov, K.V. Grishanin, V.K. Debolsky, Y.A. Ibadzade, I.G. Kantardji, I.F. Karasev, V.S. Knoroz, Z.D. Kopaliani, Y.M. Kuzminov, E.I. Mass, I.I. Levi, B.F. Snishchenko, E.K. Rabkova, N.S. Znamenskaya, P. Akkers, L. Van-Rayn, J.D. Johnson, J. Kennedy, H. Einstein, R. Engelund, A.H. Abalyants, Q.Sh. Latipov, H.A. Ismagilov, A.M. Mukhamedov, R.M. Karimov, M.R. Bakiyev, E.J. Makhmudov, A.M. Arifjanov, D.R. Bazarov, S.S. Eshev, T. Majidov, and other scientists on the movement of sediments with and without ridges, as well as bottom riffles in river channels. These works enable a detailed analysis of the formation of ridges and riffles at the channel bottom, their movement, and the process of sediment transport. [1-6; 9; 10; 11-14].

Style and Materials. The research was conducted using theoretical analysis methods to determine and evaluate the hydraulic characteristics of bottom ripples in earthen channels. An artificially formed experimental earthen channel was chosen as the research object, where the movement of water flow and the formation of ripples on the channel bed were observed under various hydraulic conditions.

Laboratory experiments were conducted in a hydraulic flume with adjustable length, width, and slope. The bottom of the experimental channel was covered with natural soil materials, whose particle size distribution was determined using the sieving method. Flow parameters, including water discharge, flow depth, and velocity, were recorded using water measuring devices, level gauges, and velocity measuring instruments, respectively. Each experimental run was carried out after steady flow conditions had been achieved.

The geometric parameters of bottom riffles, including their height, length, and spacing, were determined using specialized measuring instruments, and their changes over time were systematically recorded. Based on the obtained analytical data, the conditions for the formation of riffles, as well as their relationship with flow velocity and hydraulic gradient, were analyzed. In the

theoretical analysis stage, fundamental hydraulic equations for open channel flow were applied, including continuity and energy equations. The variation in the hydraulic resistance coefficient in the presence of riffles was determined, and their impact on channel discharge capacity was evaluated. The analytical and computational results were compared, and the reliability of the identified relationships was verified.

In summarizing and analyzing the research results, mathematical-statistical methods were employed, and the correlation between riffle parameters and key hydraulic indicators was represented through graphs and tables. This methodology allowed for a comprehensive study of the hydraulic properties of bottom riffles in earthen channels and ensured the practical significance of the obtained results.

Conclusion. Analytical data confirm that bottom ripples in earthen channels are formed under the influence of water flow, and their presence significantly affects the hydraulic regime of the flow. Ripples dissipate part of the flow energy, increasing hydraulic resistance and, as a result, reducing the water conveyance capacity of the channel. The research results showed that the geometric parameters of the ripples, specifically their height and length, primarily depend on the flow velocity, water discharge, hydraulic slope, and the granulometric composition of the channel bed material.

Based on theoretical analyses, specific patterns in the development of ripples were identified, and it was proven that changes in flow regime directly affect their shape and size. An increase in the hydraulic resistance coefficient in the presence of ripples was determined, and it was substantiated that this factor must be taken into account during canal design and operation. Furthermore, it was found that the long-term development of bottom ripples may lead to a decrease in channel stability and an increase in maintenance costs.

suvning bug‘lanish darajasini aniqlash bo‘yicha izlanish olib bordim. Hududning shamol tezligi, havo harorati va namlik ko‘rsatkichlarini Penman formulasiga qo‘yib, o‘zim mustaqil ravishda sutkalik bug‘lanish miqdorini hisoblab chiqdim. Bu jarayonda har bir matematik amalni bosqichma-bosqich bajarib, yakuniy natijaga erishdim.

O‘z hisob-kitoblarimni tekshirish maqsadida Penman tenglamasini hisoblaydigan xalqaro onlayn kalkulyatordan ham foydalanib ko‘rdim. Qiziqarli tomoni shundaki, kalkulyator natijasi men topgan ko‘rsatkich bilan deyarli bir xil chiqdi. Oraliqdagi farq bor-yo‘g‘i bir foizning yuzdan bir ulushini tashkil etdi, xolos. Ya’ni shaxsiy hisob-kitobim bo‘yicha (**34.88**) va xalqaro kalkulyator natijasi bo‘yicha (**34.89**) o‘rtasidagi farq bor-yo‘g‘i **0.01** mm ni tashkil etdi. Bu holat qo‘lda bajarilgan matematik amallarning naqadar aniq va xatosiz ekanligini to‘liq isbotlaydi.

Ikkala usulda ham natijalarning bunday yaqin chiqishi mening hisob-kitoblarim mutlaqo to‘g‘ri va xatosiz ekanligini tasdiqladi. Bu esa *a* ochiq suv havzalaridagi yo‘qotishlarni prognoz qilishda ushbu modellardan foydalanish mumkinligini ko‘rsatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Sherov A., Gadayev N.N. Sug‘orish tartiblarini kompyuter dasturlari asosida ishlab chiqish. O‘quv qo‘llanma., Toshkent-2023., 106 b.

2. Internet saytlari: https://www.calculatoratoz.com/en/penmans-equation-calculator/Calc-10273

SHAVOT KANALIDA QIRG‘OQ YUVILISHIINI OLDINI OLISH VA MORFOMETRIK KO‘RSATKICHLARINI O‘ZGARISHNI BAHOLASH

Qurbanov Azizali Ilxomovich
Qarshi davlat texnika universiteti
Norqulov Bexzod Eshmirzayevich
Umidullayev Maqsud Uyg‘un o‘g‘li
Qalandarova Dilso‘z Abdujamilevna
“TIQXMMI” Milliy tadqiqot universiteti

Annotatsiya. Maqolada qirg‘oq yuvilishini va morfometrik ko‘rsatkichlarini o‘zgarishni baholash amalga oshirilgan. Mayda zarrali gruntlarda o‘tkazilgan Shovot kanalning ma’lum qismidagi bo‘ylama va yonlama profilni soddalashtirilgan ko‘rinishlari olindi. Shu bilan birga, hisob-kitoblarni o‘zanning oxirgi chegaraviy holatiga olib borish mumkin bo‘lgan xolatlar yoki vaqt o‘tishi bilan qayta shakllanishning borishini hisobga olishni nazarda tutiladi. Kanallarining o‘zan qayta shakllanishlarini bashoratli baholash o‘zan jarayonlarining gidrologik-morfologik nazariyasi asoslarini rivojlantirish uchun ham, amaliy jihatdan ham zarurdir.

Kalit so‘zlar: *daryo, kanal, o‘zan, o‘zan jarayonlari, morfometriya, loyqa cho‘kindilar,damba,suv satxi.*

Kirish. Kanallardagi oqiziqlar oqimi va o‘zan jarayonlari daryolardagiga nisbatan passivroq va sustroq kechadi. Lekin kanallarda daryolarga xos bo‘lmagan sharoitda gryadsimon va yonbosh shaklli kutarmalar paydo bo‘lishi mumkin. Qirg‘oqlarni mustahkamlash va o‘zanni to‘g‘rilash ishlari olib borilmaganda ular kengayishi, sayozlashishi va rejada egri-bugri shaklga ega bo‘lishi mumkin. O‘zan hosil bo‘lish jarayonlari orqali namoyon bo‘ladigan o‘z-o‘zini boshqarish mexanizmiga ega bo‘lgan dinamik muvozanatli tizimlarni ifodalovchi tabiiy gruntlardagi yirik kanallarni loyihalashda ularni hisoblashning gidravlik usullari bilan bir qatorda gidrologik-morfologik usullardan ham foydalanishga to‘g‘ri keladi.

Tadqiqot usullari: Yuqori loyqali kanallarda turbulent oqimlarning keskin o‘zgaruvchan harakati bilan kechgan hodisalarni tahlil qilish usullari, oqimning gidrodinamik va gidromorfologik parametrlari dinamikasi aniqlash metodikasi ishlab chiqildi.

Muxokama va natijalar. Tadqiqot obyektida kanallarda suvni o‘tkazib yuborish tufayli yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan noxush oqibatlarni aniqlash va ularni kamaytirish chora-tadbirlarini belgilash uchun va tugatish. Yetarli darajada ishlab chiqilgan o‘zan asoslarining mavjudligi esa yirik tuproq kanallarini hisoblash usullari, o‘zndagi jarayonlar, ularning prognozlari va boshqarishning ilmiy asoslangan usullarini suv oqimlaridan qishloq xo‘jaligida foydalanish va

atrof-muhitni muhofaza qilish o‘rtasidagi maqbul nisbatni topishga yordam beradi. Tadqiqot obyektida sodir bo‘lgan o‘zan jarayonlarini yillar davomida taxlil kilamiz. Tadqiqotlarimiz xuduida joylashgan eng yaqin gidrologik postlar tanlab olindi. Gidropost ma’lumotari “Amudaryo” Havzaviy suv xo‘jaligi birlashmasi xamda Gidromet markazi ma’lumotlaridan foydalanildi. Hududini gidrodinamik modellashtirish uchun joy relyefining matematik modelini tuzishda sun’iy yo‘ldosh suratga olish hamda topografik syomka materiallari materiallardan foydalanildi.



1-rasm. Tadqiqot obyekti bo‘lgan Shovot kanalida kuzatuv stvorlarini tanlash

Dastlabki tadqiqotlarda 2024 yil 10 oktabr xolati bo‘yicha stvorlarga bo‘lib olindi.Xar bir stvorda yillar davomida sodir bo‘layotgan o‘zan jarayonlari taxlil qilindi (1-rasm).

Tadqiqot obyekti bo‘lgan Shovot kanali cho‘kindilarning turli fraksiyali tarkibini taxlil qilishda, ular ma’lum diametrdagi yoki gidravlik yiriklikdagi zarrachalarni birlashtiradigan aloxida fraksiyalarga ajratiladi 1-jadval.

1-jadval.

O‘rganilayotgan hududlardagi loyqa oqiziqlarni granulometrik tarkibi

Namuna olish joyi	Fraksiya o‘lchamlarida og‘irlik bo‘yicha foiz miqdori, mm					$D_{ўр}$, мм	$\overline{W}$, мм/с
	>0,25	0,25-0,10	0,10-0,05	0,05-0,005	<0,005		
ПК 168	–	72,07	13,64	12,16	1,13	0,09	5,72

Aloxida fraksiyalarning og‘irligi oqimdagi cho‘kindilarning miqdoriy tavsifi sifatida xizmat qiladi. Oqim ichida cho‘kindilarning xarakatlanish xususiyati turbulent tarkibli oqim va cho‘kindilarning o‘zaro bog‘liqligi bilan aniqlanadi [1-3].



2-rasm. Suv satxi otmetkasi bo‘yicha chuqurliklarni o‘zgarishi 95,13 m (08.07.2025 g.). PK 1+00



3-rasm. Suv satxi otmetkasi bo‘yicha chuqurliklarni o‘zgarishi 94,55 m (08.07.2025 g.). PK 4+85

Kanal o‘zanidagi o‘zan jarayonlari jadalligi uning o‘tkazuvchanligini pasayishiga olib kelmoqda va shu bilan suv omboriga kerakli hajmdagi suv oqimini ta’minlay olmayapti. Tadqiqot obyektidagi yuvilishlar va loyqa bosishlar kanal ekspluatatsiya qilishda salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Kanalda cho‘kindilarga to‘lib qolish natijasida kanal suv utkazish qobiliyati yomonlashmoqda. Natijada kanalning suv o‘tkazuvchanligi qobiliyati pasayadi va vegetatsiya davrida talab qilinadigan suv oqimini o‘tkazishga imkon bermaydi (1-3 rasm) [5].



4-rasm. Loyqa cho‘kindilar hajmlar tufayli kanal chuqurliklarini o‘zgarishi

Loyqa cho‘kindilarining kirib kelishini oldini olish bo‘yicha chora-tadbirlar kanalning bosh qismida amalga oshiriladi. Suv olishning bosh qismiga ko‘p miqdorda muallaq oqiziqlarning katta fraksiyalari kirib kelishi tufayli suv olib kelish kanalining butun uchastkasida cho‘kindilar tashiladi, ularning bir qismi tranzit sifatida tashiladi. Yildan yilga to‘planib boruvchi loyqa cho‘kindilar hajmlar tufayli kanal tubi ko‘tariladi kanalning gidravlik parametrlari o‘zgaradi [4].

Olib borilgan tadqiqotlari davomida kuyidagi kamchiliklar kuzatildi. Tadqiqotlarda kanalining 13 ta stvorida olib borildi. 1,2,6,8,9 stvorlarda qirqoq yuvilishi, deformatsion jarayonlar, o‘zanda sodir bo‘ladigan gidravlik qarshiliklar, suv olib kelish kanalining gidravlik parametrlarini shzgarishi sodir bo‘lmoqda (4-rasm).

Sersuv davrida suv olishda va kanaliga katta miqdordagi muallak oqiziqlar qabul qilinishi natijasida kanalning suv o‘tkazuvchanligi kamayadi va suv kerak bo‘lgan suv miqdorini ta’minlab berish qiyinlashadi. 5-stvorda qurilgan damba suv olib kelish kanalining suv o‘tkazuvchanlik qobiliyati pasaytirmoqda, natijada 4 stvorda cho‘kindi tashish ortishi oqibatida katta miqdordagi cho‘kma kanalning tozalash ishlariga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.



5-rasm. Kanal ko‘ndalang qirqimi bo‘yicha chuqurlik o‘lchash ishlari

Ekspluatatsiyasi jarayonida kirish kanalida suv oqimining tekis barqaror harakati va suv sarfi barqarorligining ta’minlanishi 7,8,9,10 -uchaska chap va o‘ng qirg‘oqda o‘zan jarayonlarini bartaraf etishini ko‘rsatmoqda (5-rasm). Lekin, ushbu kanal qismida suv oqimlari gidravlik rejimining qo‘yilgan talablarni bajarmasligi va dinamikasi yuqorida ta’kidlangan kanal stvorlarida o‘zan jarayonlari ro‘y berishiga sabab bo‘lmoqda.

So‘nggi o‘n yilliklarda tuproq kanallarining gidravlik hisoblash usullarida qo‘llaniladigan gidravlik va morfometrik tavsiflari umumlashtirildi. Tuproq o‘zanli kanallar va kanalizatsiyalangan daryolar uchun g‘adir-budurlik koeffitsiyentining Reynolds soniga, kenglikning o‘rtacha chuqurlikka nisbatiga va to‘shama gruntining xususiyatiga bog‘liqligi aniqlandi. G‘adir-budurlik koeffitsiyentlarining o‘zgarish xususiyatiga ko‘ra sohalar ajratildi,



2010 yil 25 sentabr 2014 yil 13 oktabr

6-rasm. Shavot kanali o‘zanini PK 266+00 dan PK 269+3 larda 2010 -2014 yillar davomida o‘zgarishi

Tabiiy gruntlardagi kanallar parametrlarini aniqlashda Shezi-Manning formulalaridan foydalanishning asosliligi tahlil qilindi. Bunda mavjud qoplamasiz kanallar bo‘yicha ma’lumotlar yetishmasligini to‘ldirish uchun loyqalanlangan daryolar - oqimi sezilarli darajada tabiiy tartibga solingan ($\varphi > 0{,}50$) va siqilgan ko‘ndalang kesimli ($\varphi < 50$), kanallar orasidagi o‘zan jarayoni xususiyatlariga ega daryolar haqidagi ma’lumotlardan foydalanildi[7-9].

Kanalni boshkarishda mavjud o‘zan kurinishi (plandagi joylashishi, kengligi, chukurligi, suv satxlari, okim tezliklari jixatidan) yangilanadi, chunki u ma’lum bir xujalik talablariga javob berishi va shu bilan birga mustaxkam bulishi kerak, ya’ni unga berilgan shaklni va o‘lchamlarni uzok vakt davomida minimal ekspluatatsion xarajatlarni talab kilgan xolda saklashi lozim.

Tadqiqotlar davomida 2010 yildan 2024 yilgacha bo‘lgan kosmik syomkalar taxlil qilindi. Chunki dala tadqiqotlari to‘liq o‘tkazilmagani va ma’lumotlar yetarli bo‘lmaganligi sababli kosmik syomkalardan foydalanildi (6-7-rasm).



2016 yil 25 may 2018 yil 9-fevral

7-rasm. Shavot kanali o‘zanini PK 266+00 dan PK 269+3 larda 2016 -2018 yillar davomida o‘zgarishi.

Rostlovchi inshootlarning tuzilishi masalasini kurishga utishdan oldin, kiskacha tarzda rostlovchi trassalarni loyixalash koidalarigai tuxtalib o‘tamiz. Loyixalash vazifasi mavjud uzan planida trassa o‘kini, trassa eni va chukurligini belgilash va uzanning kundalang kesimlarini urnatishdan iborat; bu ish loyixalashtirilgan uzanning turg‘unligini tekshirish bilan izoxlanadi. Bizning tadqiqot obyektimizda 8,9,10 stvorlarda o‘zan turg‘unmas. Quyidagi shartlar bajarilishi lozim.

Turgunmas (Iturg‘unmas<Ikanal nishabligi). Bunda kanal ikki tomonga bulinib okadi. Bu xolda o‘zanda bilinarli darajada siljishlar xosil kilmagan xolda ximoya inshootlarini mavjud bo‘lgan kirg‘oklar buylab joylashtirish kerak, ya’ni kup bo‘linishlar va katta nishablik saklangan xolda xar bir kirgokning ximoya trassasini bir-biridan mustakil xolda loyixalash mumkin.

1. Urtacha mustaxkam uzanlar (Iturg‘unmas=Ikanal nishabligi). Ximoya va rostlovchi

inshootlar trassalarini tabiiy sharoitlarga javob beradigan egri chiziklar kurinishida loyixalash kerak.

2. Uzan turgunligi ortitscha (Iturg‘unmas >Ikanal nishabligi) bulganda rostlovchi inshootlar va ishlar uning nishabligini mustaxkamligini oshishini ta’minlashi lozim. Buning o‘zanlarni toraytirish va burilish joylarini tugrilash kerak[10-11].



8-rasm. Shavot kanali o‘zanini PK 266+00 dan PK 269+3 larda 2024-2025 yillar davomida o‘zgarishi.

Ishlab chiqilgan dastur yordamida bevosita kanalga kirish joyi yaqinida oqim yo‘naltiruvchi dambalar va yarim to‘g‘onlar o‘rnatish, shu jumladan suv olishda suv sathini ko‘tarish orqali oqim sharoitlarini kam suvli davrida yaxshilash imkoniyatlarini bashorat qilish mumkin bo‘ladi. O‘tkazilgan sonli tajribalarda dambalarning o‘ng (oqim yo‘nalishida) qirg‘oqqa tutashgan ikki joyi ko‘rib chiqildi (8-rasm).



9-rasm. O‘tkazilgan tajribalar asoida dambalarning o‘ng (oqim yo‘nalishida) qirg‘oqqa o‘rnatilishi.

To‘g‘onlarni taxminan 1 damba 3,0m, 2-damba 4,5 m, 3 damba 6,0 m va 300 va 900 burchak ostida va suv olish ya’ni dambadan 250 m,310 m, 420 m pastda joylashtirish oqimning xarakatini yanada samarali harakatlanishiga yordam beradi (9-rasm). Ushbu dastur suv xo‘jaligida ilmiy tadqiqotlarda foydalanish uchun mo‘ljallangan. Rasmdan ko‘rinib turibdiki oqim yo‘nalishi bo‘yicha o‘ng qirg‘oqda tezlik 3 m/s oshib ketmoqda bu esa o‘ng qirg‘oqni yuvilishiga olib kelib, to‘yingan loyqa oqiziqlarni chap tomonga tashimoqda.

Shovot kanali inshooti yaqinidagi hududning yaratilgan matematik modeli va moslashtirilgan dasturiy ta’minotni qo‘llash orqali kanalga kirish joyining bevosita yonida oqim yo‘naltiruvchi dambalar va yarim to‘g‘onlar o‘rnatish, shu jumladan suv olish inshootida suv sathini oshirish maqsadida suv olish sharoitlarini yaxshilash bo‘yicha bir qator hisob-kitoblar asosida o‘tkazildi (10-rasm).

Himoya boshkaruv dambalar keladigan oqimga burchak ostida bir-biriga parallel ravishda joylashtirilgan. Dambalarning uzunligi va ular orasidagi masofa shunday qabul qilinganki, yuqori

oqim tezligida qolgan kanal kengligi o‘zanning tartibga solingan barqaror kengligiga teng bo‘ladi (11-rasm). 4 ta suv utkazmas himoya boshkaruv damba tizim kanalni toraytirib, oqim bo‘yicha o‘ng tomonga, inshootining tugash qismiga burilishini ta’minladi. Himoya boshkaruv damba tizimlari orqasidagi tezlik nolga teng bo‘lmagan qiymatgacha pasaygan.



10-rasm. Kanalga oqim yo‘naltiruvchi dambalar va yarim to‘g‘onlar o‘rnatish sxemasi

Xulosalar. Shovot kanali sohasidagi oqimning tezlbgini planda taqsimlanishi olindi. O‘zanning rostlanish sohasida oqim parametrlarining dinamikasi va ular o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqligi aniqlandi/

1. O‘tkazilgan dala tatqiqotlar natijalari Shavot kanalida maxsus muxandislik tadbirlar o‘tazib, qirg‘oq yuvilish oldini olish mumkinligini ko‘rsatdi.Buning uchun dala tadqiqotlar asosida olingan ma’lumotlar bazasining yuqori darajadagi aniqligi kerak bo‘ladi.

2. Shavot kanalini soxaga kirish nuqtasidan 150 m yuqorida 450 burchak ostida joylashgan ximoya dambasi 2 chisidan 420 m yuqorida joylashtirildi, 3 chisi, ikkinchisidan 320 m pastda o‘rnatilishi tavsiya qilindi. Lekin 1 va 2 dambalar suv oqimini samarali o‘ng tomonga ta’minlashini soniy tatqiqotlar natijalari kursatdi. Uzunligi 12 m. bo‘lgan №3 damba suv yo‘nalishiga ta’siri kamligi aniqlandi. Lekin bu damba uzunligi 30 m ga yetkazilganligi inobatga olib №1 umumiy uzunligi asoslandi.

3. Shavot kanali sohasida qirg‘oq ximoyalash bo‘yicha o‘zan kengligini dambalar bilan to‘sib kamaytirilishi, kanalga oqib kelayotgan loyqa oqiziqlar bilan bog‘likligini e’tirof etildi.Bu holatda oqimning chuqurligi va tezligining oshishi soniy tatqiqotlar bilan asoslandi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Алтунин С.Т. Регулирование русел. М., Сельхозиздат, 1962, с.352.

2. Алтунин С.Т., Бузунов И.А. Вопросы формирования и расчета русел рек у гидроузлов. Москва, Журнал гидротехнических сооружений, вып.№7, 1955.

3. Бакиев М.Р. Анализ проблем надёжной безопасности эксплуатации грунтовых плотин водохранилищных гидроузлов // журнал «Ирригация ва мелиорация» илмий техника и. № 3(13). -Т.2018. - Б. 10-14.

4. Bazarov, D. R., Norkulov, B. E., Kurbanov, A. I., Jamolov, F. N., & Jumabayeva, G. U. Improving methods of increasing reliability without dam water intake. In AIP Conference Proceedings (Vol. 2612, No. 1). AIP Publishing. (2023).

5. Bazarov, D., Krutov, A., Sahakian, A., Vokhidov, O., Raimov, K., & Raimova, I. Numerical models to forecast water quality. In AIP Conference Proceedings (Vol. 2612, No. 1, p. 020001). AIP Publishing LLC. (2023).

6. Bazarov, D., Vatin, N., Norkulov, B., Vokhidov, O., & Raimova, I. Mathematical Model of Deformation of the River Channel in the Area of the Damless Water Intake.

7. Burlachenko, A. V., Chernykh, O. N., Khanov, N. V., & Bazarov, D. R. Damping of increased turbulence beyond a deep and relatively short spillway basin. In AIP Conference Proceedings (Vol. 2612, No. 1). AIP Publishing. (2023).

8. Eshev, S. S., Gayimnazarov, I. X., Latipov, S. A., Rahmatov, M. I., & Kholmamatov, I. K. Calculation of parameters of subsurface ridges in a steady flow of ground water channels. In AIP Conference Proceedings (Vol. 2612, No. 1). AIP Publishing. (2023).

9. Eshev, S., Linkevich, N., Rahimov, A., Khazratov, A., Mamatov, N., & Sharipov, E. Calculation of its dynamically stable cross-section in the steady motion of the channel flow. In AIP Conference Proceedings (Vol. 2612, No. 1, p. 050007). AIP Publishing LLC. (2023).

10. In Proceedings of MPCPE 2021: Selected Papers (pp. 1-15). Cham: Springer International Publishing. (2022).

11. Norkulov, B. E., Nazaraliev, D. V., Kurbanov, A. I., Gayratov, S. S., & Shodiyev, B. (2023, March). Results of a study of severe deformation below the damless water intake section. In AIP Conference Proceedings (Vol. 2612, No. 1). AIP Publishing.

CHIPOLETTI VODOSLIVLARIDA SUV SARFINI O'LCHASH: NAZARIYA VA AMALIYOT

Xushmatova Iroda Boymurot qizi
Sag'dullayeva Sevara Shavkat qizi
Qarshi davlat texnika universiteti

Annotatsiya. Ushbu maqolada yuqqa devorli Chipoletti vodoslivlarining tuzilishi, ishlash prinsipi, asosiy texnik xarakteristikalari va sув sarfini o'lchash usullari ko'rib chiqilgan. CHV-50 va CHV-75 turidagi vodoslivlarning konstruktiv xususiyatlari, o'lchash formulalari hamda ularning qishloq xo'jaligi suv ta'minotidagi o'rni tahlil qilingan. Tadqiqot natijalari sug‘orish tarmoqlarida suv resurslarini samarali boshqarish uchun amaliy ahamiyat kasb etadi.

Kalit so‘zlar: *Chipoletti vodoslivi, suv sarfi, yuqqa devorli vodoslivlar, CHV-50, CHV-75, trapesiyasimon vodosliv, sug'orish tizmasi, gidravlika.*

Kirish. O‘zbekistonda qishloq xo‘jaligini rivojlantirish va oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda sug‘orish tizimlarining samarali ishlashi CHVi ahamiyat kasb etadi. Suv resurslarining cheklanganligi sharoitida sug‘orish tarmoqlarida suv sarfini aniq o‘lchash resurslardan tejamkor foydalanish, suv taqsimotini nazorat qilish va ekinlarni me'yorida sug'orishning asosiy sharti hisoblanadi.

Ochiq kanallarda suv sarfini o‘lchashning turli usullari mavjud bo‘lib, ularning ichida vodoslivlardan foydalanish eng keng tarqalgan va ishonchli usullardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, Chipoletti vodoslivlari o'zining oddiy konstruksiyasi, o‘rnatish qulayligi va yuqori o'lchash aniqligi tufayli fermer xo‘jaliklarida keng qo‘llaniladi.

Maqolaning maqsadi - Chipoletti vodoslivlarining nazariy asoslarini, texnik xarakteristikalarini va amaliy qo‘llanilishini yoritish hamda ularni sug'orish tarmoqlarida qo'llash bo‘yicha tavsiyalar berish.

Chipoletti vodoslivining tuzilishi va ishlash prinsipi. Chipoletti vodoslivi (CHV) - trapesiyasimon shaklga ega bo‘lgan, yuqqa devorli vodosliv turi bo'lib, yon tomonlarining qiyaligi 1:4 nisbatda (gorizontal:vertikal) belgilangan. Bu nisbat vodoslivni boshqa trapesiyasimon vodoslivlardan ajratib turadi va oqim gidravlikasiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi.

CHV vodoslivi 3–4 mm qalinlikdagi qattiq tunuka listdan tayyorlanadi; konstruksiyaning mustahkamligini ta’minlash uchun burchakli po‘lat qo'shimchalari ishlatiladi. Vodoslivda suv sathini nazorat qiluCHVi o'lchov reykasi ham mavjud. Vodoslivning pastki tomoniga metall burchakli qoziq payvandlanadi, devori va tomonlari tekis va silliq bo'lishi ta'minlanadi.

O'lchash reykasidagi “nol” belgisi trapesiya shaklida qirqilgan joyning quyi qismiga - trapesiyaning pastki asosiga – to‘g‘ri kelib o'rnatilishi lozim. Vodoslivning metall qismlarining hammasi zangga qarshi bo‘yoq bilan bo‘yalishi shart. Vodoslivdan o‘tayotgan oqim tezligi V = 0,5 m/s dan oshmasligi kerak.

CHV-50 VA CHV-75 VODOSLIVLARINING TEXNIK XARAKTERISTIKALARI

Chipoletti suv o'lchash qurilmasining har xil o'lchamdagi turlari bo'lib, fermer xo'jaliklari uchun asosan "CHV-50" va "CHV-75" o'lchamdagilari tavsiya etiladi.

CHV-50 vodoslivi — trapesiya shaklida, 3–4 mm qalinlikdagi qattiq tunuka listdan tayyorlangan yuqqa devorli vodosliv bo'lib, trapesiyaning kichik asosi (b) 50 sm ni tashkil etadi. U ko'chma yoki ko'chmas holda o'rnatilishi mumkin. CHV-50 vodoslivining suv o'tkazish qobiliyati 5 l/sek.dan 80 l/sek.gacha bo'ladi.

CHV-75 vodoslivi — 4 mm qalinlikdagi metall tunukalardan tayyorlanadi va ko'chmas qilib o'rnatiladi. Trapesiyaning kichik asosi (b) 75 sm bo'lib, 15 l/sek.dan 230 l/sek.gacha bo'lgan suv sarfini o'lchash uchun mo'ljallangan. CHV-75 ga qo'yilgan boshqa texnik talablar CHV-50 dagilar bilan bir xil.

Ikkala vodoslivning umumiy asosiy texnik o'lchamlari quyidagicha:

- Ostonasining balandligi: p ≥ 300 mm
- Ostonasining kengligi: b ≤ 4,0 m
- Vodoslivdan o'tadigan maksimal suv sathi: h_max = 1,0 m
- Vodoslivdan o'tadigan minimal suv sathi: h_min = 0,05 m
- tan[α = 0,25] (1:4 — Chipoletti vodoslivi)



SUV SARFINI HISOBLASH FORMULASI

Yuqqa devorli Chipoletti vodoslivlarida suv sarfi quyidagi formula orqali aniqlanadi:

$$\mathbf{Q = 1{,}86 \cdot b \cdot h^{3/2}}$$

Bunda:

Q - vodoslivdan o'tayotgan suv sarfi, l/s;

b - vodoslivning suv o'tkazgich qismi tubining kengligi, m;

h - vodoslivdan oqib tushayotgan suv oqimining chuqurligi, sm;

1,86 - ushbu vodosliv turi uchun o'zgarmas koeffitsient.

Bu formula trapesiyasimon vodoslivlar uchun nazariy va eksperimental yo'l bilan asoslangan bo'lib, keng amaliyot davomida o'zining aniqligi isbotlangan. 1,86 koeffitsienti vodoslivning geometrik xususiyatlarini va oqimning gidravlik parametrlarini o'zida mujassam etadi.

Ushbu formula bilan bir qatorda, umumlashtirilgan ko'rinishda quyidagi ifoda ham qo'llaniladi: $Q = 1900 \cdot b \cdot \sqrt{H}$, bu erda H — vodoslivdan erkin tushayotgan suv oqimining balandligi.

SUV SARFI JADVALIDAGI MA'LUMOTLAR TAHLILI.

CHV-50 va CHV-75 vodoslivlari uchun suv sathi (H) ga bog'liq holda suv sarfi (Q) qiymatlari tajriba va hisob yo'li bilan aniqlangan bo'lib, maxsus jadvallarda keltirilgan. Jadval ma'lumotlari shuni ko'rsatadiki, bir xil suv sathida CHV-75 vodoslivi CHV-50 ga nisbatan o'rtacha 1,5–1,6

barobar ko'p suv o'tkazish qobiliyatiga ega.

Masalan, H = 10,0 sm bo'lganda CHV-50 uchun Q = 30 l/s, CHV-75 uchun esa Q = 46 l/s ni tashkil etadi. H = 16,0 sm bo'lganda esa CHV-50 da Q = 61 l/s, CHV-75 da Q = 90 l/s ga etadi. Bu ko'rsatkichlar kichik va o'rta fermer xo'jaliklarida vodoslivni to'g'ri tanlash uchun muhim asos bo'lib xizmat qiladi.

CHV-75 ning yuqori suv o'tkazish qobiliyati uni katta sug'orish tarmoqlarida, CHV-50 ni esa kichik fermer kanallari va ariqlarida qo'llash maqsadga muvofiq ekanligini ko'rsatadi. Sug'orish tizimini loyihalashda kanal quvvati va kutilayotgan suv sarfiga qarab mos vodoslivni tanlash muhim texnik qaror hisoblanadi.

AFZALLIKLARI VA KAMCHILIKLARI.

Yuqqa devorli Chipoletti vodoslivlarining asosiy afzalliklari quyidagilardan iborat:

— o'lchash aniqligi yuqori — ochiq kanallardagi suv o'lchash vositalari ichida eng yuqorisi hisoblanadi;

— qurilma oddiy va undan foydalanish oson;

— o'rnatilgan joyda darajalashni talab qilmaydi.

Shu bilan birga, ushbu vodoslivlarning ayrim kamchiliklari ham mavjud:

— kam nishabli kanallarga qo'llab bo'lmaydi;

— yuqori befda katta dimlanish hosil qiladi.

Shunga qaramay, Chipoletti vodoslivlari O'zbekiston sharoitida — xususan, o'rta va yuqori nishabli sug'orish kanallarida — samarali natija berishi ko'p yillik amaliyot tomonidan tasdiqlangan.

Xulosa. Chipoletti vodoslivlari O'zbekiston qishloq xo'jaligida suv sarfini o'lchashning ishonchli va qulay vositalaridan biridir. CHV-50 va CHV-75 turlari o'zining aniq o'lchov imkoniyatlari, konstruktiv soddligi va keng qo'llanish doirasi bilan fermer xo'jaliklarida muhim o'rin egallaydi.

$Q = 1{,}86 \cdot b \cdot h^{3/2}$ formulasi va jadval ko'rsatkichlari asosida sug'orish tarmoqlariga mos vodoslivni to'g'ri tanlash suv resurslaridan tejamkor foydalanishga va ekin hosildorligini oshirishga xizmat qiladi. Vodoslivni to'g'ri o'rnatish, texnik talablarga rioya qilish va muntazam nazorat olib borish o'lchash aniqligini kafolatlaydi.

Kelajakda ushbu qurilmalarni raqamli monitoring tizimlari bilan birgalikda qo'llash, zamonaviy sensor texnologiyalari orqali suv sarfini avtomatik nazorat qilish yanada yuqori samaradorlikka erishishga imkon beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Chugayev R.R. Gidravlika. — L.: Energiya, 1982. — 672 b.
2. Suv o'lchash qurilmalari: Chipoletti vodoslivlari (CHV). — Toshkent: Qishloq xo'jaligi vazirligi nashri, 2005.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Suv resurslaridan oqilona foydalanish to'g'risida"gi farmonlari va me'yoriy hujjatlari.
4. Arifjanov A.M. *Gidravlika*. – Toshkent: "Fan va texnologiya", 2015. – 340 b. (Vodoslivlar orqali suv sarfini hisoblash nazariyasi bayon etilgan).
5. Bazarov D.R., Raikhonov F. *Gidrometriya (Darslik)*. – Toshkent: "TIMP", 2021.
6. Latipov K.Sh. *Gidravlika va gidravlik mashinalar*. – Toshkent: "O'qituvchi", 1992.
7. Chugayev R.R. *Gidravlika (Gidromexanika)*. – Leningrad: Energoatomizdat, 1982. (Trapezoidal vodoslivlar hisobi bo'yicha fundamental manba).
8. Kiselev P.G. *Spravochnik po gidravlicheskim raschetam*. – Moskva: Energiya, 1974. (Chipoletti formulalari va koeffitsientlari uchun asosiy ma'lumotnoma).
9. O'zbekiston Respublikasi Davlat Standarti (O‘z DSt). *Ochiq o‘zanlarda suv sarfini vodoslivlar va lotoklar yordamida o‘lchash usullari*.
10. Sherov A.G‘. *Gidrometriya va suv resurslarini hisobga olish*. – Toshkent, 2018.
11. Yunusov G‘.X. *Gidrometriya asoslari*. – Toshkent: “Yangi asr avlodi”, 2008.

SUV TASHLAGICHLARNING GIDRAVLIK SAMARADORLIGINI OSHIRISH BO‘YICHA ZAMONAVIY YECHIMLAR

Bobomurodov Furqat Farxod o‘g‘li
Texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent.
Hazratov Alisher Rahmatillo o‘g‘li
Qarshi davlat texnika universiteti tayanch doktoranti.
Payanova Iroda Sherbuta qizi
Qarshi davlat texnika universiteti magistranti

Annotatsiya. Buzilishi insonlar hayotiga xavf tug‘dirishi yoki katta miqdordagi moddiy zarar keltirishi mumkin bo‘lgan to‘g‘onlar ehtimoliy maksimal suv toshqiniga bardosh beradigan qilib loyihalanishi zarur. O‘zbekiston sharoitida ham iqlim o‘zgarishi, yog‘in miqdorining notekis taqsimlanishi hamda tog‘ hududlarida muzliklar erishi natijasida ekstremal suv oqimlari ehtimoli ortib bormoqda. Bu esa mavjud suv tashlagichlarning ayrim hollarda loyihaviy me’yorlarga to‘liq javob bermasligiga olib kelmoqda. Shu sababli respublikamizdagi mavjud gidrotexnik inshootlar, xususan to‘g‘on suv tashlagichlarini rekonstruksiya qilish va ularning gidravlik samaradorligini oshirish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

O‘zbekistonning Amudaryo va Sirdaryo havzalarida joylashgan ko‘plab suv omborlarida oqiziqlar (sedimentlar) miqdorining yuqoriligi ham muhim omillardan biridir. Shu bois suv tashlagichlarni modernizatsiya qilishda oqiziqlar ta’sirini hisobga olish talab etiladi. Maxsus oqimga ega gidrotexnik inshootlar qo‘llash orqali suv tashlagichlarning o‘tkazish qobiliyatini oshirish mumkin. Jumladan, labirintsimon suv tashlagichlar birlik kenglikka to‘g‘ri keladigan suv sarfini oshirish imkonini beradi, biroq katta miqdordagi oqiziqlar mavjud sharoitda ularning ortida cho‘kindi to‘planishi ehtimoli yuqori bo‘ladi.

Shu nuqtai nazardan, “zinasimon suv tashlagich” shaklidagi suv tashlagichlar istiqbolli yechim sifatida qaraladi. Ushbu turdagi suv tashlagichlar qiyalama labirintsimon konstruktsiyaga ega bo‘lib, an’anaviy to‘g‘ri chiziqli suv tashlagichlarga nisbatan yuqori gidravlik samaradorlikni ta’minlaydi. Bir xil bosim va kenglik sharoitida ular orqali o‘tuvchi suv sarfi sezilarli darajada ortadi. Bu esa suv omborlarini nisbatan yuqori sathlarda ishlatish, suv zaxirasini ko‘paytirish hamda suv resurslaridan samarali foydalanish imkonini beradi. Ayniqsa, tog‘li va relefi murakkab hududlarda, suv tashlagich kengligini oshirish imkoniyati cheklangan hollarda “zinasimon suv tashlagich” juda qulay hisoblanadi.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, zinasimon suv tashlagich konstruksiyasi suv tashlagich qirrasi ustidagi bosimni kamaytirish orqali uning gidravlik samaradorligini oshiradi va suv bosishi xavfini pasaytiradi. Suv sarfi ortishi bilan bosim kamayish darajasi biroz qisqarsada, barcha holatlarda u an’anaviy to‘rtburchakli suv tashlagichlarga nisbatan sezilarli darajada yuqori bo‘lib qoladi.

Kalit so‘zlar: *To‘g‘on, suv tashlagich, suv o‘tkazgich; zinasimon suv tashlagich, solishtirma oqim.*

1. Kirish.

Iqlim o‘zgarishining tog‘li hududlardagi daryo havzalariga ta’siri eroziya jarayonlarining jadallashuvi, tabiiy ofatlarning ko‘payishi hamda qishloq xo‘jaligiga salbiy ta’sir ko‘rsatish orqali oziq-ovqat xavfsizligiga tahdid solmoqda. Markaziy Osiyo, xususan O‘zbekiston hududida ham so‘nggi yillarda ekstremal yog‘ingarchiliklar, tog‘ hududlarida qor va muzliklarning tez erishi natijasida daryolarda suv sarfining keskin ortishi kuzatilmoqda.

Bunday sharoitda suv omborlariga kelib tushadigan suv miqdori oldindan aniq prognoz qilinmaydi. Yog‘ingarchilik intensivligi oshgan hollarda suv omborlaridagi suv sathi tez ko‘tarilib, to‘g‘on orqali suvning oshib ketishi (overtopping) xavfi yuzaga keladi. Bu esa gidrotexnik inshootlarning ishonchliligini pasaytiradi va jiddiy avariyaviy holatlarga olib kelishi mumkin.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, ko‘plab to‘g‘onlarda xavfsizlik bilan bog‘liq muammolarning asosiy sababi suv tashlagichlarning o‘tkazish qobiliyati yetarli emasligidir. Shu bois suv tashlash inshootlarining loyihaviy quvvatini to‘g‘ri aniqlash va ularni zamonaviy talablar asosida takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Suv tashlagichlarning o‘tkazish qobiliyatini oshirish odatda qo‘shimcha suv tashlagichlar qurish orqali amalga oshiriladi. Biroq O‘zbekiston sharoitida ko‘plab suv omborlari tog‘li yoki zich

o‘zlashtirilgan hududlarda joylashgan bo‘lib, yangi inshoot qurish har doim ham iqtisodiy va texnik jihatdan maqsadga muvofiq emas. Shu sababli mavjud suv tashlagichlarni rekonstruksiya qilish va modernizatsiya qilish eng samarali yechim sifatida qaraladi.

An’anaviy suv tashlagichlar ko‘pincha cheklangan suv o‘tkazish qobiliyatiga ega bo‘lib, favqulodda toshqinlarni to‘liq o‘tkaza olmaydi. Bundan tashqari, suv tashlagich qirrasi ustidagi ortiqcha bosim suv ostida qolish holatini keltirib chiqarib, uning gidravlik samaradorligini pasaytiradi.

Shu munosabat bilan, iqlim o‘zgarishi sharoitida mavjud va yangi to‘g‘onlarning xavfsizligini ta’minlash uchun yuqori samaradorlikka ega, zamonaviy konstruktiv yechimlarga asoslangan suv tashlagichlarni ishlab chiqish va joriy etish dolzarb masala hisoblanadi.

Belgilanishlar

B_T – umumiy uzunlik;

B – asos uzunligi;

B_0 – yuqori oqim tomoni qirra uzunligi;

B_i – quyi oqim tomoni qirra uzunligi;

P_i – kirish qismi balandligi;

W_i – kirish kengligi (yon devordan yon devorgacha);

W_0 – chiqish kengligi (yon devordan yon devorgacha);

2. Zinasimon suv tashlagich

Zinasimon suv tashlagich labirintsimon suv tashlagichlarning takomillashtirilgan turi bo‘lib, to‘g‘ri chiziqli suv tashlagichlarga nisbatan gidravlik jihatdan samaraliroq hisoblanadi. U bir xil bosim (napor) va suv tashlagich kengligi sharoitida birlik kenglikka to‘g‘ri keladigan suv sarfini sezilarli darajada oshiradi (1-rasm). Bunday konstruksiyalarni bevosita to‘g‘on qirrasi ustiga o‘rnatish mumkin.

Past bosimlarda yuqori suv o‘tkazish qobiliyatiga ega bo‘lishi sababli zinasimon suv tashlagich konstruktsiyasi mavjud to‘g‘onlarni rekonstruksiya qilishda istiqbolli yechim sifatida qaraladi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, bir xil sharoitda zinasimon suv tashlagichning suv o‘tkazish qobiliyati oddiy labirintsimon suv tashlagichlarga nisbatan ham yuqori hisoblanadi.

Zinasimon suv tashlagichning yuqori oqim tomonidagi chiqib turuvchi qismi kirish oqim maydonini va xo‘llanganlik perimetrini oshiradi. Natijada kirish tezligi kamayadi, oqim siqilishi kamayadi hamda energiya yo‘qotishlar qisqaradi.

Zinasimon suv tashlagich odatda daryo oqimiga ko‘ndalang joylashtiriladigan gidrotexnik inshoot bo‘lib, oqim tuzilishini o‘zgartiradi va daryoning gidravlik rejimiga ta’sir ko‘rsatadi. Umuman olganda, to‘g‘onlar va suv tashlagichlar (uchburchak yoki to‘rtburchak shaklda) yuqori oqimdagi suv chuqurligini saqlash va suv resurslaridan samarali foydalanishda muhim rol o‘ynaydi.

Biroq bunday inshootlar oqiziqlar harakatining uzluksizligini buzishi mumkin. Suv chuqurligining ortishi natijasida oqim tezligi kamayadi va oqiziqlar pastga oqib ketolmay, inshootning yuqori qismida to‘planadi. Bu esa vaqt o‘tishi bilan daryo o‘zanining shaklini o‘zgartiradi va gidroekologik muhitga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

O‘zbekiston sharoitida, ayniqsa Amudaryo va Sirdaryo havzalarida oqiziqlar miqdorining yuqoriligi ushbu muammoni yanada dolzarb qiladi. Shu sababli zinasimon suv tashlagichni qo‘llashda oqiziqlar harakati va ularning cho‘kish jarayonlarini alohida hisobga olish zarur.

Shu bilan birga, zinasimon suv tashlagichlar oqimni to‘liq to‘sib qo‘ymasdan ishlashi va tabiiy oqim rejimini nisbatan kam buzishi sababli, daryolarda oqiziqlar uzluksizligini tiklashda muqobil yechim sifatida qaralishi mumkin. Buning uchun zinasimon suv tashlagich atrofida gidravlik jarayonlarni chuqur eksperimental va nazariy tadqiq qilish talab etiladi.



1-rasm. Zinasimon suv o‘tkazgich geometriyasi



2-rasm. Tajriba qurilmasi

3. Laboratoriya tadqiqotlari (tajriba qurilmasi)

Tajriba ishlari QDTU ning “Gidravlika va muhandislik inshootlari” kafedrasining laboratoriya xonasining gidravlik lotok qurilmasida o‘tkazildi. Tadqiqotning asosiy maqsadi ochiq kanal oqimida zinasimon suv tashlagich ustidagi bosim kamayishini aniqlashdan iborat bo‘ldi (2-rasm).

Eksperimental qurilma to‘g‘ri burchakli kanal (lotok)dan iborat bo‘lib, uning asosiy o‘lchamlari quyidagicha: kengligi – 300 mm, balandligi – 400 mm va uzunligi – 3m. Tajribada suv tashlagich modeli zinasimon shaklda tayyorlandi. Konstruktsiya chiqish qismi va kirish qismlaridan tashkil topdi.

Kirish va chiqish qismlari orasidagi ichki masofa 77 mm, devor qalinligi esa 7 mm qilib qabul qilindi. Konstruktsiyaning barqarorligini ta’minlash maqsadida asos uzunligi bilan yuqori va quyi oqim tomondagi chiqib turuvchi qismlar uzunligi nisbati 1:1 qilib olindi.

Modelning umumiy uzunligi 1000 mm, balandligi esa 200 mm ni tashkil etdi. Tajriba davomida suv sarfi 4700 sm³/s dan 12000 sm³/s gacha oraliqda o‘zgartirilib, oqim subkritik rejimda saqlab turildi.

4. Natijalar va muhokamalar

Zinasimon suv tashlagich qirrasi ustidagi bosim (napor) qiymatini aniqlash maqsadida 12 ta turli eksperimental sharoitlarda tadqiqotlar olib borildi. Barcha tajribalarda to‘shama materiali bir xil saqlanib, uning o‘rtacha diametri d=0.25mm qilib qabul qilindi.

1-jadval

Eksperimental natijalar

Suv sarfi, Q (sm³/s)	Zinasimon suv tashlagich ustidagi bosim (sm)	An’anaviy suv tashlagich ustidagi bosim (sm)
10600	1.35	5.13
9300	1.21	4.69
8800	1.04	4.52
8200	0.99	4.30
12000	1.63	5.57
4700	0.60	2.96
5600	0.63	3.33
6700	0.78	3.77
7500	0.83	4.06
8200	0.94	4.32
9600	1.21	4.78
10400	1.32	5.04

Tajriba natijalariga ko‘ra, maksimal suv sarfi Q=12000 sm³/s bo‘lganda zinasimon suv tashlagich ustidagi bosim 1.63 sm ni tashkil etdi, shu sharoitda an’anaviy to‘g‘ri burchakli suv tashlagichda esa bu qiymat 5.57 sm ga teng bo‘ldi. Minimal suv sarfi Q=4700 sm³/s bo‘lganda esa uchun bosim 0.6 sm, to‘g‘ri burchakli suv tashlagich uchun esa 2.96 sm ni tashkil etdi.

Suv sarfi tajriba davomida rostlovchi klapanlar yordamida boshqarib turildi. Olingan natijalar zinasimon suv tashlagichning an’anaviy suv tashlagichlarga nisbatan ancha samarali ekanligini ko‘rsatdi. Tajriba natijalari 1-jadvalda keltirilgan.

Suv sarfi kam bo‘lgan sharoitlarda to‘siq ustidagi suv bosimining pasayishi suv sarfi yuqori bo‘lgan sharoitlarga nisbatan ko‘proq kuzatildi. Barcha tajriba sharoitlarida bosimning pasayishi yetmish foizdan ortiqni tashkil etdi. Bunda 0,892 ga teng yuqori determinatsiya koeffitsiyenti bilan chiziqli kamayish tendensiyasi aniqlandi (3-rasm).



3-rasm. To‘g‘ri to‘rtburchak shaklidagi suv o‘lchash noviga nisbatan bosimning foiz hisobida kamayishi

5. Xulosa

Zinasimon suv tashlagich konstruktsiyasi qirra uzunligining ortishi hisobiga yuqori suv o‘tkazish qobiliyatiga ega bo‘lib, turli suv sarfi sharoitlarida uning gidravlik samaradorligi tadqiq qilindi. Suv tashlagich qirrasi ustidagi bosim (napor) yuqori oqim tomonda suv bosishi nuqtai nazaridan muhim ahamiyatga ega.

O‘tkazilgan eksperimental tadqiqotlar natijasida an’anaviy suv tashlagichlarga nisbatan zinasimon suv tashlagich qo‘llanilganda qirra ustidagi bosimning sezilarli darajada kamayishi aniqlandi. Barcha tajribalarda bu kamayish 70% dan yuqori bo‘lib, bu zinasimon suv tashlagich konstruktsiyasining yuqori samaradorligini ko‘rsatadi. Natijada yuqori oqim tomonda suv bosishi darajasi kamayadi va inshootning xavfsizligi oshadi.

Zinasimon suv tashlagichlar oqimni to‘liq to‘sib qo‘ymasdan ishlashi sababli, ularni daryoda suvni tartibga solish va qisman saqlash inshootlari sifatida qo‘llash mumkin. Bu esa ularni ekologik jihatdan nisbatan maqbul yechimga aylantiradi.

Ma’lumki, daryo vodiysi loyihalarida asosiy muammolardan biri – ayniqsa kam suvli davrda – to‘g‘onlar orqali tabiiy oqimning cheklanishidir. Bunday holatlar ko‘plab texnik-iqtisodiy jihatdan samarali va ijtimoiy ahamiyatga ega loyihalarning amalga oshirilishiga to‘sqinlik qilmoqda.

Zinasimon suv tashlagich texnologiyasining muhim afzalliklaridan biri shundaki, u an’anaviy darvozali boshqaruv tizimlarisiz ishlaydi va oqimni to‘liq to‘sib qo‘ymaydi. Bundan tashqari, u daryo o‘zani ichida qo‘shimcha suv hajmini hosil qilish imkonini beradi va keng ko‘lamli ko‘chirish (reabilitatsiya) ishlarini talab qilmaydi.

Shu sababli, O‘zbekiston sharoitida, ayniqsa mavjud suv omborlarini modernizatsiya qilish va yangi gidrotexnik yechimlarni joriy etishda zinasimon suv tashlagich texnologiyasini qo‘llash istiqbolli yo‘nalishlardan biri hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Sobir, E., Furkat, B., Alisher, I., & Nurbek, M. (2022). EVALUATION OF THE INFLUENCE OF THE PHYSICAL PROPERTIES OF BOUND SOILS ON THE WASHING PROCESS. *Universum: технические науки*, (9-5 (102)), 18-22.

2. Эшев, С. С., Авлакулов, М., & Бобомуродов, Ф. Ф. (2022). Боғланган грунтларнинг физик хусусиятларини ўзан ювилиш жараёнига таъсирини баҳолаш. *Инновацион технологиялар*, *3*(3 (47)), 48-54.

3. Хазратов, А. Н., Раҳимов, А. Р., & Бобомуродов, Ф. Ф. (2022). Моделирования смешанных течений земляных каналов. In *Актуальные проблемы науки и образования в условиях современных вызовов* (pp. 160-167).

4. Эшев, С. С., Каримов, Э. К., Бобомуродов, Ф. Ф., & Маматов, Н. З. (2022). БОҒЛАНГАН ГРУНТЛАРДАГИ БИРИКИШ КУЧИНИНГ ЎЗАН ЮВИЛИШИГА ТАЪСИРИНИ БАҲОЛАШ. *Инновацион технологиялар*, *3*(3 (47)), 76-82.

5. Eshev, S. S., Avlakulov, M., & Bobomurodov, F. F. (2022). Assessment of the effect of the physical properties of bonded grunts on the process of self-washing. *Innovation of technology*, *3*, 47.

6. Eshev, S. S., Bobomurodov, F. F., Isakov, A. N., & Mamatov, N. Z. (2022). Evaluating the effect of cohesive strength on self-leaching in bonded soils. *International Journal of Advanced Research in Science, Engineering and Technology*, *9*(8), 19636-19641.

7. Khazratov, A. N., Bazarov, O. S., Jumayev, A. R., Bobomurodov, F. F., & Mamatov, N. Z. (2023). Influence of cohesion strength in cohesive soils onchannel bed erosion. In *E3S Web of Conferences* (Vol. 410, p. 05018). EDP Sciences.

8. Sobir, E., Israil, G., Ashraf, R., Furqat, B., & Dilovar, A. (2023). Calculation of parameters of subsurface ridges in a steady flow of groundwater channels. In *E3S Web of Conferences* (Vol. 410, p. 05022). EDP Sciences.

9. Eshev, S., Mamatov, N., Bobomurodov, F., Usmonov, R., & Makhmudov, U. (2023). SHO ‘RLANGAN BOG ‘LANGAN GRUNT NAMLIGINING YUVILISHGA QARSHILIK QILISH TA’SIRINI BAHOLASH. *Innovatsion texnologiyalar*, *51*(03), 70-76.

10. Farxod o‘g‘li, B. F. BOG ‘LANGAN GRUNTLI KANAL KESIMI BO ‘YICHA TEZLIKLARNING TAQSIMLANISHI.

11. Рахимов, А. Р., Назаров, О. О., Исаков, А. Н., & Бобомуродов, Ф. Ф. (2021). ДИНАМИЧЕСКИ УСТОЙЧИВЫЕ СЕЧЕНИЯ КРУПНЫХ КАНАЛОВ С УЧЕТОМ ВЕТРОВОГО ВОЛНЕНИЯ. *Инновацион технологиялар*, (Спецвыпуск 1), 82-89.

12. Bobomurodov, F. F., & Erkinov, S. (2023). EVALUATION OF THE PHYSICAL PROPERTIES OF GROUND AND BOUND IN O'ZAN WASH. *Intent Research Scientific Journal*, *2*(6), 10-17.

13. Бобомуродов, Ф. Ф., & Бозоров, М. (2024). № 7-НАСОС СТАНЦИЯСИ ҚУРИЛИШ ТАРИХИ ҲАМДА ЖОЙЛАШГАН ЖОЙИНИНГ ТАҲЛИЛИ. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, *45*(1), 162-170.

14. Ugli, B. F. F., Ugli, Z. M. B., Ugli, K. A. R., & Ugli, K. J. Z. (2025). ASSESSMENT OF ENERGY LOSSES IN NARROWING CHANNELS UNDER CONDITIONS OF UNSTEADY FLOW. Universum: технические науки, 10(10 (139)), 5-10.

15. Rahmatillo o‘g‘li, H. A., Farxod o‘g‘li, B. F., & Saydulla o‘g‘li, S. F. (2025). BOG ‘LANGAN GRUNTLI KANALLARNING OQIMLARINI VA GRUNTLARINI FIZIK MODELLASHTIRISH.

16. Farxod o‘g‘li, B. F., & Rahmatillo o‘g‘li, K. A. (2025). ANALYSIS OF THE BONDING STRENGTH OF COHESIVE SOILS IN STREAM SCOUR.

17. Karshiev, R., Eshev, S., Makhmudov, K., Makhmudov, U., Eshev, A., & Hazratov, A. (2025, June). Water balance of the Republic of Uzbekistan under conditions of water scarcity: Problems and solutions. In AIP Conference Proceedings (Vol. 3286, No. 1, p. 040038). AIP Publishing LLC.

18. Gaimnazarov, I., Rakhmatov, M., Otakulov, U., Jumayev, A., & Khazratov, A. (2023). Kanallarning nostatsionar oqim sharoitlarida oqiziqlar sarfini aniqlash bo‘yicha dala tadqiqotlari. Innovatsion texnologiyalar, 52(3).

УДК 631.6:626.8

МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ПОДХОДЫ К ФОРМИРОВАНИЮ И УПРАВЛЕНИЮ МЕЛИОРАТИВНЫМИ РЕЖИМАМИ

Б.М.Холбаев, М.Авлакулов
Каршинский государственный технический университет

Аннотация: Отражено, что при управлении мелиоративным режимом необходимо уделять большое внимание оценке влияния глобального изменения климата, последствий природных аномалий и возрастающего антропогенного давления на почвенный покров. Приведено изменение характера основных гидрофизических свойств почвы после значительного высыхания или переувлажнения в течение достаточно длительного времени. Также установлено, что тяжелые металлы реагируют с почвенным поглощающим комплексом, изменяя основные гидрофизические свойства. Также было отмечено, что пределы регулирования усвояемой влаги для таких показателей также изменяются.

Ключевые слова: *эффективное управление, биогенные, мелиоративный режим, питательные вещества, зольные и химические элементы, потока энергии*

Введение. Для того, чтобы достичь продукционный потенциал сельскохозяйственных угодий средствами комплексной мелиорации необходимо обеспечить эффективное управление геологическим, биологическим и техногенным круговоротами воды и химических элементов, включая биогенные, что формирует необходимый мелиоративный режим.

Материалы и методы. Известно, что вода и питательные вещества, определяющие регулирование основных факторов жизни растений, находятся в состоянии беспрерывного круговорота, причем их направление совпадает, но скорости существенно различаются в связи с тем, что зольные и химические элементы принимают участие как в биологическом, так и в техногенном круговороте и оказывают существенное влияние на молекулярные процессы в почве.

Учитывая, что почва имеет сложную организацию, где наряду с химическими реакциями, значительную роль играют микробиологические процессы, управление мелиоративным режимом должно быть направлено на регулирование внутреннего влагооборота, обеспечивающего сбалансирование процессов накопления и минерализации органического вещества и приводящего к повышению плодородия почвы при удовлетворении потребности растений в воде и элементах питания. В условиях повышенной влажности и недостатка аэрации в почве преобладают анаэробные процессы накопления органического вещества, при дефиците влаги и обеспеченной аэрации в почве преобладают аэробные процессы разложения органического вещества. Отмечаемые А.Н. Костяковым (1960) недостатки интенсивного осушения заболоченных почв связаны с ускоренной минерализацией гидроморфных почв и удалением с дренажной водой «зольных питательных элементов и, следовательно, обеднением почвы» [1].

Результаты и обсуждения. Процессами превращения веществ управляют потоки энергии, поэтому представляется целесообразным перейти от вещественной к энергетической оценке почвенных процессов, определяющих мелиоративный режим почвы. В процессе производства растениеводческой продукции в агрогеоценозе увеличивается количество исходящей энергии и снижается количество энергии, возвращаемой в почву. Для решения проблемы устойчивого повышения плодородия необходимо не только повысить количество возвращаемой в почву энергии, но и сохранить установившееся соотношение энергетических потоков посредством управления мелиоративным режимом. Роль почвы состоит, в том числе, и в обеспечении постоянства потока энергии в биогеоценозе за счет изменения скорости трансформации электромагнитной энергии в энергию химических

связей путем повышения или снижения плодородия и аккумуляции или минерализации почвенного гумуса [1,2]. Недостаток существующих методов заключается в том, что они не учитывают биохимической направленности процессов трансформации органического вещества в почве, в то время как минерализация и гумификация рассматриваются изначально как совокупность биохимических реакций. Поэтому, при планировании устойчивого повышения почвенного плодородия в процессе управления мелиоративным режимом целесообразно использовать энергетический критерий оценки, как почвенного гумуса, так и вносимых органических веществ.

Критерием благоприятности мелиоративного режима является приращение энергии (ΔG) в природном объекте в зависимости от природных и хозяйственных условий, представляющее собой необходимое количество энергетических ресурсов для обеспечения воспроизводства почвенного плодородия. Исходя из вышесказанного, при управлении мелиоративным режимом обязательным приемом является внесение дополнительной энергии путем поступления в почву органоминеральных веществ, обеспечивающих, наряду с обогащением почвы органическим веществом, повышение ее коллоидной фракции.

При управлении мелиоративным режимом большое значение должно отводиться оценке влияния глобального изменения климата, последствий природных аномалий и увеличивающейся антропогенной нагрузки на почвенный покров. Известно, что после значительного иссушения или достаточно длительного переувлажнения почвы меняется характер ее основной гидрофизической характеристики (ОГХ). Также установлено, что тяжелые металлы, вступая в реакции с почвенно-поглощающим комплексом, также меняют ОГХ (Поляков и др., 1977), а значит и изменяются пределы регулирования доступной влажности. Оценка наблюдаемых и ожидаемых изменений климата и их последствий, исходя из данных мониторинга и результатов научных исследований, является неотъемлемой составляющей информационной базы, которая необходима для прогнозирования водного, питательного и солевого режимов при управлении мелиоративным режимом путем изменения диапазонов поддержания влажности почвы и внутреннего влагооборота.

Техногенное воздействие на сельскохозяйственные угодья достигло таких масштабов, что определяет необходимость учета при регулировании мелиоративного режима возможного загрязнения почв тяжелыми металлами и другими поллютантами с целью разработки агромелиоративных приемов повышения устойчивости агроэкосистем, оптимизации агроландшафтов и производства экологически безопасной продукции в современном техногенезе.

Выводы. Управление мелиоративным режимом осуществляется непосредственно на мелиорированных землях внутрихозяйственной системой. Координация и взаимная увязка водоподачи обслуживаемым хозяйствам обеспечивается централизованной системой управления водораспределением на каналах межхозяйственных оросительных систем, поэтому совершенствование водопользования обеспечивает эффективность реализации природно – ресурсного потенциала, повышение почвенного плодородия и устойчивости агроландшафта.

Таким образом, можно констатировать, что мелиоративный режим — это закономерное изменение во времени и пространстве состояния агросистемы, обусловленного регуляцией потока энергии, определяемого балансом входящей и исходящей энергии в рассматриваемом объекте.

Использованная литература

1. Н.К.Муродов, М.Авлакулов Анализ теплового режима почвы при орошении сельскохозяйственных культур методом субирригации. Новый университет. Серия: Технические науки, 2016.

2. Научно-теоретическое обоснования использования сточных вод в сельском хозяйстве и промышленности /Б.М.Холбаев. МВ и ССО РУз., Каршинский инженерно-экономический институт. –Карши: издательства “INTELLEKT”, 2022. -284 с.

УДК 504.06:622.337

УСТОЙЧИВОЕ ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ЗЕМЕЛЬНЫХ РЕСУРСОВ ПОСРЕДСТВОМ ПЕРЕРАБОТКИ СЛАНЦЕВОГО СЫРЬЯ

Кадиров С.У., Хакимжонова Б.Ш., Йулчиева М.Б.
Ферганиский государственний технический университет

Аннотация.В статье проанализированы вопросы устойчивого использования земельных ресурсов посредством переработки сланцевого сырья. В условиях роста мирового энергопотребления и ограниченности запасов традиционных углеводородов обоснована значимость сланца как альтернативного источника энергии. Рассмотрены геологические и физико-химические особенности сланца, содержание в нём органического вещества и его роль как источника углеводородов. Особое внимание уделено технологии пиролиза как наиболее распространённому методу переработки сланца, а также характеристике получаемых продуктов и их эффективности. В работе оценены возможности комплексной переработки сланца с высокой степенью извлечения полезных компонентов, что способствует рациональному использованию земельных ресурсов и сокращению объёма отходов. Проанализированы экологические аспекты добычи и переработки сланца, включая рекультивацию нарушенных земель и снижение выбросов вредных веществ в атмосферу. Отдельно рассмотрены перспективы освоения сланцевых ресурсов в Узбекистане и странах Центральной Азии, а также их роль в обеспечении энергетической безопасности и снижении зависимости от импортируемых энергоносителей.

Выводы. В результате проведённого исследования разработана и оптимизирована методика получения сухого железного хелата на основе сульфата железа(II), извлечённого из отходов железооксидного катализатора аммиачного производства. Применение серной кислоты для кислотного выщелачивания позволило эффективно извлечь сульфат железа(II) и сульфат калия, обеспечивая комплексное использование вторичных ресурсов.

Полученный сульфат характеризуется высоким качеством и содержанием оксида калия, что улучшает агрохимические свойства продукта. Синтез с использованием трилон-Б обеспечил высокую степень хелатирования и стабильность соединений. Оптимизация параметров реакции, включая контроль pH и аэрацию, позволила получить прозрачный и стабильный раствор железного хелата. Предложенная технология способствует эффективной переработке промышленных отходов, снижая экологическую нагрузку и расширяя сырьевую базу химической промышленности. Использование железных хелатов в сельском хозяйстве улучшает усвоение микроэлементов растениями, повышая урожайность и качество продукции при снижении затрат на удобрения.

Таким образом, технология является экологически безопасным и экономически выгодным решением для комплексной переработки отходов с получением ценной агрохимической продукции, что открывает перспективы для её промышленного внедрения и устойчивого развития отраслей.

Использования литература

1.Иванов А.В., Петров Б.С. Технологии переработки железооксидных катализаторов // Химическая промышленность. — 2020. — №5. — С. 45–53.

2.Смирнова Е.Н., Кузнецова Т.М. Синтез и свойства железных хелатов с ЭДТА // Журнал неорганической химии. — 2019. — Т. 64, №12. — С. 1187–1194.

3.Zhang L., Wang Y., Li J. Advances in Iron Chelate Fertilizers for Agricultural Use // Journal of Agricultural Chemistry. — 2021. — Vol. 69, Issue 4. — P. 345–357.

4.Ковалёв В.И., Мельников А.П. Экологические аспекты утилизации промышленных отходов химической промышленности // Экология и промышленность России. — 2018. — №6. — С. 20–27.

5.Li X., Chen Y., Zhang H. Resource Recovery from Industrial Waste Catalysts: A Review // Chemical Engineering Journal. — 2022. — Vol. 430. — Article 133038.

6.Тарасов С.В., Беляева Н.В. Хелатные удобрения и их влияние на урожайность сельскохозяйственных культур // Вестник агрохимии. — 2020. — №3. — С. 10–17.

7.Смирнов И.И., Воронцов П.А. Химия и технология удобрений на основе железа // Удобрения и защита растений. — 2017. — №4. — С. 8–15.

УДК: 332.624

ҚИШЛОҚ ХЎЖАЛИГИ ЕРЛАРИНИ КАДАСТР БАҲОЛАШ ВА УНИНГ ИҚТИСОДИЁТ ТАРМОҚЛАРИДАГИ АҲАМИЯТИ

Ў.Б Мухторов
“ТИҚХММИ” Миллий тадқиқот университети

Аннотация. *Мақолада қишлоқ хўжалиги ерларини кадастр баҳолашнинг мазмуни ва унинг иқтисодиёт тармоқларидаги аҳамияти таҳлил қилинган. Ерларнинг табиий ва иқтисодий кўрсаткичлари асосида шакллантирилган кадастр қийматининг ердан фойдаланиш самарадорлиги ҳамда иқтисодий қарорлар қабул қилиш жараёнларига таъсири ёритилган. Олинган натижалар кадастр баҳолашни такомиллаштириш зарурлигини кўрсатади.*

Калит сўзлар: *қишлоқ хўжалиги ерлари, кадастр баҳолаш, ер қиймати, ердан фойдаланиш, иқтисодий самарадорлик, ер ресурси.*

Кириш. Ҳозирги иқтисодий ривожланиши шароитида ер ресурсларидан оқилона фойдаланиш ва уларни илмий асосда баҳолаш иқтисодиёт тармоқларининг барқарор фаолиятини таъминлашда муҳим омил ҳисобланади. Қишлоқ хўжалиги ерлари миллий иқтисодиётнинг асосий ишлаб чиқариш базаси бўлиб, уларнинг сифат ҳолати, ишлаб чиқариш салоҳияти ва иқтисодий қиймати мамлакат озиқ-оқат ҳавфсизлиги, қишлоқ ҳудудларини ривожлантириш ҳамда инвестиция жараёнларига бевосита таъсир кўрсатади. Шу боис қишлоқ хўжалиги ерларини кадастр баҳолаш масаласи замонавий ер ресурсларини бошқариш тизимининг устувор йўналишларидан бири саналади.

Қишлоқ хўжалиги ерларини кадастр баҳолаш ерларнинг табиий, мелеоратив, экологик ва иқтисодий хусусиятларини ҳисобга олган холда уларнинг қийматини аниқлашга қаратилган тизимли жараёндир. Кадастр баҳолаш натижалари ердан фойдаланиш муносабатларини тартибга солиш, солиқ сиёсатини шакллантириш, инвестициявий қарорлар қабул қилиш ҳамда ҳудудларни ижтимоий-иқтисодий ривожлантиришда муҳим ахборот манбаи бўлиб хизмат қилади. Айниқса, бозор иқтисодиёти шароитида ернинг иқтисодий қийматини илмий асосда белгилаш турли иқтисодиёт тармоқлари ўртасида ресурсларни самарали тақсимлаш имконини беради.

Кадастр баҳолаш натижаларининг аҳамияти фақат қишлоқ хўжалиги соҳаси билан чекланиб қолмасдан, саноат, қурилиш, транспорт, молия ва банк тизими каби иқтисодиётнинг бошқа тармоқларида ҳам намоён бўлади. Ер қийматига оид ишончли маълумотлар инвестиция лойиҳаларини баҳолаш, кредит таъминоти шакллантириш, инфратузилмани ривожлантириш ва ҳудудий режалаштириш жараёнларида кенг қўлланилади. Шу билан бирга, кадастр баҳолаш орқали ер ресурсларидан фойдаланиш самарадорлигини ошириш, ерларни муҳофаза қилиш ва деградация жараёнларининг олдини олишга қаратилган бошқарув қарорларини қабул қилиш имконияти яратилади.

Шу нуқтаи назардан, қишлоқ хўжалиги ерларини кадастр баҳолашнинг мазмуни ва унинг иқтисодиёт тармоқларидаги аҳамиятини илмий жиҳатдан таҳлил қилиш, амалда қўлланилаётган ёндашувларни баҳолаш ҳамда уларни такомиллаштириш масалаларини ёритиш долзарб ҳисобланади. Мазкур мақолада қишлоқ хўжалиги ерларини кадастр баҳолашнинг назарий-услубий асослари ва унинг иқтисодиёт тармоқларидаги тутган ўрни комплекс тарзда кўриб чиқилади.

Материаллар ва методлар. Тадқиқотда қишлоқ хўжалиги ерларини кадастр баҳолашга оид меъёрий ҳуқиқий ҳужжатлар, расмий статистик маълумотлар ҳамда илмий манбалар материал сифатида фойдаланилди. Ерларнинг табиий, мелиоратив ва иқтисодий кўрсаткичлари бўйича мавжуд маълумотлар умумлаштирилди.

Тадқиқот жараёнида таҳлил ва таққослаш, статистик қайта ишлаш ва иқтисодий таҳлил усуллари қўлланилди. Кадастр баҳолаш натижалари иқтисодиёт тармоқларида қўлланилиши нуқтаи назаридан баҳоланиб, умуммлаштириш усули асосида хулосалар шакллантирилди.

Натижалар ва уларнинг таҳлили. Олиб борилган тадқиқот натижалари қишлоқ хўжалиги ерларини кадастр баҳолаш иқтисодиёт тармоқларида қарор қабул қилиш

жараёнларида муҳим ахборот банбаи эканлигини кўрсатди. Ерларнинг табиий ва иқтисодий кўрсаткичлари асосида шакллантирилган кадастр қиймати улардан фойдаланиш самарадорлигини баҳолаш имконини беради.

1-жадвал

Қишлоқ хўжалиги ерларининг сифат кўрсаткичлари ва кадастр қиймати

Кўрсаткичлар	**Паст сифатли ерлар**	**Ўрта сифатли ерлар**	**Юқори сифатли ерлар**
Бонитет билли	41-50	51-65	66-80
Кадастр қиймати (млн.сўм/га)	18-22	23-30	31-38
Ўртача ҳосилдорлик (ц/га)	22-25	28-35	38-45

1-жадвал маълумотлари таҳлили шуни кўрсатадики, ер сифати яхшиланиши билан кадастр қиймати ва ҳосилдорлик ўртасида барқарор мусбат боғлиқлик мавжуд. Бу кадастр баҳолашда қўлланилаётган кўрсаткичлар ернинг реал ишлаб чиқариш салоҳиятини акс эттираётганини кўрсатади.

Табиий кўрсаткичлар → **Кадастр баҳолаш натижалари** → **Ер солиғи, инвестиция, кредит таъминоти** → **Иқтисодиёт тармоқларида самарадорлик**

1-расм. Кадастр баҳолаш, ер қиймати, иқтисодий қарорларнинг мантиқий узвийлиги

Ушбу механизм кадастр баҳолаш натижаларининг қишлоқ хўжалиги билан бир қаторда молия, банк, инвестиция ва ҳудудий режалаштириш соҳаларида ҳам қўлланилишини кўрсатади.

2-жадвал

Кадастр қийматига асосланган иқтисодий кўрсаткичлар таҳлили

Кадастр қиймати (млн.сўм/га)	**Ер солиғи (минг сўм/га)**	**Даромад (млн.сўм/га)**	**Самарадорлик даражаси**
18-22	450	7.0-8.0	Паст
23-30	620	10.0-14.0	Ўрта
31-38	850	18.0-22.0	Юқори

2-жадвал натижаларига кўра, кадастр қиймати ошиши билан ер солиғи ҳам ортиб боради, бироқ даромад ўсиш суръати солиқ юкидан юқори эканлиги аниқланди. Бу ердан самарали фойдаланиш иқтисодий жиҳатдан мақбул эканлигини кўрсатади ва кадастр баҳолашнинг рағбатлантирувчи функциясини тасдиқлайди.

Қишлоқ хўжалигида	→	**Ишлаб чиқаришни режалаштириш**
Молия ва банк тизимида	→	**Кредит таъминоти**
Инвестиция соҳасида	→	**Лойиҳаларни баҳолаш**
Давлат бошқарувида	→	**Солиқ ва ер сиёсати**

2-расм. Кадастр баҳолашнинг иқтисодиёт тармоқларига таъсири

Таҳлил шуни кўрсатадики, кадастр баҳолаш натижалари иқтисодиёт тармоқларида ўзаро боғлиқликни таъминлайди ва ер ресурслаидан фойдаланишда тизимли ёндашувни шакллантиради.

Хулоса. Олинган натижалар бўйича шуни хулоса қилиш мумкинки, қишлоқ хўжалиги ерларини кадастр баҳолаш ер ресурсларини иқтисодий жиҳатдан баҳолаш билан чекланмасдан, иқтисодиёт тармоқларида стратегик қарорлар қабул қилишга хизмат қилади. Жадвал ва рақамлар асосидаги таҳлил кадастр баҳолашни такомиллаштириш ердан фойдадалниш самарадорлигини оширишнинг муҳим шарти эканлигини кўрсатди.

Фойдаланилган адабиётлан:

1. Волков С.Н. Земелний кадастр и кадастровая оценка земел селскохозяйственного назначения. – М.: Колосс, 2017. – 400 с.

2. Тошпўлатов А.Т., Абдурахмонов Қ.Қ. Қишлоқ хўжалиги ерларини кадастр

баҳолашнинг услубий асослари // Ўзбекистон аграр фанлари журнали. – 2020. – №3. – Б. 42–48.

3. Қодиров Н.М. Ер ресурсларини иқтисодий баҳолаш ва бошқаришни такомиллаштириш: и.ф.д. дисс. – Тошкент, 2019. – 278 б.

4. FAO. Land evaluation: principles and methods. – Rome: Food and Agriculture Organization of the United Nations, 2016. – 115 p.

5. Enemark S., Bell K., Lemmen C., McLaren R. Fit-for-purpose land administration // Journal of Land Use Sciyence. – 2014. – Vol. 9(4). – P. 1–20.

6. 6. Zhang Y., Wu F. Cadastral valuation and land productivity analysis using GIS technologiyes // Computers and Electronics in Agriculture. – 2020. – Vol. 170. – 105250.

7. Расулов А.Б. Ер ресурсларидан самарали фойдаланишни иқтисодий баҳолаш масалалари // Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар. – 2021. – №2. – Б. 85–91.

8. Маматов Б.С., Норбоев А.А. Қишлоқ хўжалиги ерларининг бонитет балли ва кадастр қиймати ўртасидаги боғлиқлик таҳлили // Аграр фан хабарлари. – 2022. – №1. – Б. 30–36.

UDK 332.3

QASHQADARYO VILOYATI YER FONDINING YER TOIFALARI VA TURLARI BO‘YICHA TAHLILI

S.K. To‘rayev
“Geoinnovatsiya markazi” davlat unitar korxonasi

Annotatsiya: *Mazkur maqolada Qashqadaryo viloyati yer fondining tarkibi, uning yer toifalari va yer turlari bo‘yicha taqsimlanishi hamda ulardan foydalanish holati tahlil qilingan. Tadqiqot davomida viloyat hududida mavjud qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlar, aholi punktlari yerlari, sanoat va transport infratuzilmasi yerlari, o‘rmon va suv fondi yerlari hamda zaxira yerlarning hududiy ulushi o‘rganilgan.*

Kalit suzlar: yer fondi, yer resurslari, yer toifalari, yer turlari, qishloq xo‘jaligi yerlari, sug‘oriladigan yerlar, lalmi yerlar, yaylovlar, yer resurslarini boshqarish.

Kirish. Yer resurslari har qanday hududning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida muhim ahamiyatga ega bo‘lgan tabiiy boyliklardan biridir. Yer fondidan oqilona foydalanish, uning toifalari va turlari bo‘yicha to‘g‘ri taqsimlanishi qishloq xo‘jaligi, sanoat, infratuzilma hamda ekologik barqarorlikni ta’minlashda katta rol o‘ynaydi.

Qashqadaryo viloyati O‘zbekistonni Qashqadaryo viloyati yer fondining umumiy tavsifi: Qashqadaryo viloyati O‘zbekiston Respublikasining janubi-g‘arbiy qismida joylashgan bo‘lib, umumiy maydoni taxminan **28 ming kvadrat kilometr**ni tashkil etadi. Viloyat hududi asosan Qarshi vohasi, adir va tog‘ oldi hududlari hamda keng yaylovlardan iborat.

Viloyatda yer fondining tarkibi tabiiy sharoit, iqlim, relef va suv resurslariga bog‘liq holda shakllangan. Hududning katta qismi qishloq xo‘jaligida foydalaniladigan yerlar hisoblanadi. Ayniqsa sug‘oriladigan yerlar paxtachilik, g‘allachilik va bog‘dorchilik uchun muhim ahamiyatga ega.

Yer fondining tuzilishi odatda quyidagi asosiy toifalarga bo‘linadi: Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlar, aholi punktlari yerlari, sanoat, transport va boshqa maqsadlar uchun ajratilgan yerlar, o‘rmon fondi yerlari, suv fondi yerlari, zaxira yerlar.

Mazkur toifalar hududning iqtisodiy rivojlanishi hamda tabiiy resurslardan foydalanish darajasini aks ettiradi.ng yirik qishloq xo‘jaligi hududlaridan biri bo‘lib, uning yer fondi turli tabiiy-iqlim sharoitlari hamda xo‘jalik faoliyatining o‘ziga xosligi bilan ajralib turadi. Viloyatda sug‘oriladigan yerlar, yaylovlar, tog‘ va adir hududlari hamda sanoat va aholi punktlari yerlarining salmoqli ulushi mavjud. Shu sababli yer fondining toifalari va turlari bo‘yicha tahlil qilish hududning barqaror rivojlanishini ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Yer fondining yer toifalari bo‘yicha tahlili: Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlar. Qashqadaryo viloyati yer fondida eng katta ulushni qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlar egallaydi. Bu yerlar asosan sug‘oriladigan ekin maydonlari, lalmi yerlar, yaylovlar va pichanzorlardan iborat.

Sug‘oriladigan yerlar viloyat qishloq xo‘jaligining asosiy ishlab chiqarish bazasi hisoblanadi. Ushbu yerlar Qarshi magistral kanali va boshqa irrigatsiya tarmoqlari orqali suv bilan ta’minlanadi. Sug‘oriladigan yerlarda paxta, g‘alla, sabzavot, poliz ekinlari hamda bog‘-tokzorlar yetishtiriladi.

Yaylov yerlari ham viloyat iqtisodiyotida muhim o‘rin tutadi. Ayniqsa chorvachilik rivojlangan hududlarda bu yerlar katta ahamiyatga ega. Viloyatning cho‘l va adir hududlarida keng yaylov maydonlari mavjud bo‘lib, ular asosan qoramol va qo‘y boqish uchun foydalaniladi.

Aholi punktlari yerlari: Aholi punktlari yerlari shaharlarga, shaharchalarga va qishloq aholi punktlariga tegishli hududlarni o‘z ichiga oladi. Bu yerlar uy-joy qurilishi, ijtimoiy infratuzilma, yo‘llar, maktablar, shifoxonalar hamda boshqa obyektlar joylashgan hududlardan iborat.

Viloyatda Qarshi, Shahrisabz, Kitob kabi yirik shaharlar mavjud bo‘lib, ular iqtisodiy va madaniy markazlar hisoblanadi. So‘nggi yillarda aholi sonining o‘sishi natijasida aholi punktlari yerlari maydoni ham kengayib bormoqda.

Sanoat, transport va boshqa maqsadlarga mo‘ljallangan yerlar: Mazkur toifadagi yerlar sanoat korxonalari, energetika obyektlari, transport tarmoqlari, aloqa liniyalari hamda boshqa infratuzilma obyektlari joylashgan hududlarni o‘z ichiga oladi.

Qashqadaryo viloyati tabiiy gaz, neft va boshqa foydali qazilmalarga boy hudud hisoblanadi. Shu sababli bu yerda gaz qazib olish, qayta ishlash va energetika korxonalari faoliyat yuritadi. Bunday obyektlar joylashgan hududlar sanoat yerlariga kiradi.

Tarixiy-madaniy ahamiyatga molik yerlar bu inson sivilizatsiyasi, tarix, madaniyat va me’morchilik rivojini aks ettiruvchi hududlar, shaharlar, yodgorliklar yoki arxeologik joylardir. Ular milliy va jahon madaniy merosining muhim qismi hisoblanadi.

O‘rmon fondi yerlari. Viloyatda o‘rmon fondi yerlari asosan tog‘li hududlarda joylashgan. Ushbu yerlar ekologik muvozanatni saqlash, tuproq eroziyasini kamaytirish hamda bioxilma-xillikni asrashda muhim ahamiyatga ega.

O‘rmon hududlari aholining dam olishi va turizmni rivojlantirish uchun ham muhim resurs hisoblanadi.

Suv fondi yerlari. Suv fondi yerlari daryolar, kanallar, suv omborlari va boshqa suv havzalari joylashgan hududlarni o‘z ichiga oladi. Qashqadaryo daryosi viloyatning asosiy suv manbalaridan biri hisoblanadi. Bundan tashqari irrigatsiya tizimlari qishloq xo‘jaligini suv bilan ta’minlashda katta rol o‘ynaydi.

Zaxira yerlar. Zaxira yerlar davlat zaxirasida bo‘lgan va hozircha muayyan foydalanishga berilmagan hududlardir. Kelajakda iqtisodiy loyihalar, qishloq xo‘jaligi yoki qurilish uchun foydalanilishi mumkin.

Yer turlari bo‘yicha tahlil: Yer fondi tarkibida turli yer turlari mavjud bo‘lib, ular tuproq tarkibi, foydalanish usuli va tabiiy sharoitlarga qarab farqlanadi. Qashqadaryo viloyatida quyidagi asosiy yer turlari uchraydi:

sug‘oriladigan ekin yerlari, lalmi ekin yerlari, yaylovlar, pichanzorlar, bog‘ va tokzorlar. Sug‘oriladigan yerlar viloyat qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishining asosiy qismini tashkil etadi. Bu yerlar yuqori hosildorligi bilan ajralib turadi.

Ko‘p yillik daraxtzorlar bir marta ekilib, ko‘p yil davomida hosil beradigan daraxt yoki butalardan tashkil topgan qishloq xo‘jaligi ekinlaridir.

Lalmi yerlar esa asosan tabiiy yog‘ingarchilik hisobiga foydalaniladi. Bunday hududlarda asosan g‘alla va yem-xashak ekinlari yetishtiriladi.

Bo‘z yerlar bu ilgari dehqonchilik uchun ishlatilmagan yoki uzoq vaqt ishlov berilmagan yerlar bo‘lib, ular tabiiy holatda yoki yarim tabiiy holatda saqlangan bo‘ladi.

Yaylov va pichanzorlar chorvachilikni rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega bo‘lib, ular viloyatning cho‘l va tog‘ oldi hududlarida keng tarqalgan.

Qashqadaryo viloyati yer fondi tarkibi turli yer toifalari va turlaridan iborat bo‘lib, ular hududning iqtisodiy rivojlanishida muhim rol o‘ynaydi. Yer fondining asosiy qismini qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlar tashkil etadi. Sug‘oriladigan yerlar, yaylovlar va lalmi hududlar viloyat qishloq xo‘jaligining asosiy ishlab chiqarish bazasi hisoblanadi.

1-jadval

Qashqadaryo viloyati Yer fondining toifalari bo‘yicha taqsimlanishi

2025 yil 1 yanvar holatiga gektarda

T/r	Tuman va shahar nomi	Jami yerdan foydalanuvchilar soni	Umumiy yer maydoni	shundan yer fondi toifalari bo‘yicha													
				Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlar		Aholi punktlarining (shaharlar, posyolkalar va qishloq aholi punktlarining) yerlari		Sanoat, transport, aloqa, mudofaa va boshqa maqsadlarga mo‘ljallangan yerlar		Tabiatni muhofaza qilish, sog‘lomlashtirish va rekreatsiya maqsadlariga mo‘ljallangan yerlar		Tarixiy-madaniy ahamiyatga molik yerlar		O‘rmon fondi yerli		Suv fondi yerlari		Zaxira yerlar	
				Soni	Maydoni	Soni	Maydoni	Soni	Maydoni	Soni	Maydoni	Soni	Maydoni	Soni	Maydoni	Soni	Maydoni	Soni	Maydoni
A	**B**	**1**	**2**	**3**	**4**	**5**	**6**	**7**	**8**	**9**	**10**	**11**	**12**	**13**	**14**	**15**	**16**	**17**	**18**
1	Fuzor	4 350	265230	3 844	249 285	5	413	480	5 759	1	10			1	7 018	17	2 488	2	257
2	Dehqonobod	2 656	395662	2 016	287 926	3	630	486	1937			141	603	1	102634	7	1892	2	40
3	Qamashi	5 728	245735	4877	145243	54	521	665	5904	1	10129	97	229	7	75176	26	8297	1	236
4	Qarshi	5 810	91633	5070	84637	17	504	547	2628			122	178	4	800	49	2741	1	145
5	Koson	9 332	187241	8 649	182061	4	377	551	1828			87	210	1	302	39	2141	1	322
6	Kasbi	7 122	73479	6559	70230			424	1051			111	301	1	22	26	1764	1	111
7	Kitob	6 989	174269	6068	95957	2	686	666	1194	1	16	223	338	3	75468	26	610		
8	Mirishkor	4 973	312538	4320	298939	1	298	592	3184			28	112	1	596	31	9409		
9	Muborak	2 411	307013	2093	291086	5	319	287	12465			14	92	1	1987	11	1064		
10	Nishon	5 659	211128	5099	175963	7	664	491	18015					1	2789	61	13697		
11	Chiroqchi	4 577	112666	4175	86786	1	506	311	317			63	73	1	22729	26	2255		
12	Shahrisabz t	6 189	161819	5300	90043			836	1755	2	50935	5	1	3	16261	43	2824		
13	Yakkabog‘	7 303	134947	6476	103423	3	668	565	11450	1	7944	225	241	2	8715	31	2506		
14	Qarshi sh.	497	7551	3	1289	1	4663	445	1380			44	128	1	40	3	51		
15	Shahrisabz sh	401	4868	94	2709	2	2105	302	20							2	25	1	9
16	Ko‘kdala	3 485	171020	3202	163188	11	93	253	1354			13	61	1	5091	5	1233		
Jami:		**77 482**	**2 856 799**	**67 845**	**2 328 764**	**116**	**12 447**	**7 901**	**70 241**	**6**	**69 034**	**1 173**	**2 567**	**29**	**319 628**	**403**	**52 997**	**9**	**1 120**

2-jadval

Qashqadaryo viloyatda yer fondining 2018-2026 yillar bo‘yicha taqsimlanishi

№	Yer fondi toifalari	2018 yil	2019 yil	2020 yil	2021 yil	2022 yil	2023 yil	2024 yil	2025 yil	2026 yil
1	Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlar	2337784	2337296	2322754	2321787	2321391	2330949	2339753	2328764	2248854
2	Aholi punktlarining yerlari	11487	11487	11487	12413,2	12453	12430	12427	12447	12410
3	Sanoat, transport, aloqa, mudofaa va boshqa maqsadlarga mo‘ljallangan yerlar	66566	66715	67026	67044	67403,2	67867	69304	70241	84532
4	Tabiatni muhofaza qilish, sog‘lomlashtirish rekreatsiya maqsadlariga mo‘ljallangan yerlar	10	10	26,2	26,2	26,2	75134	75134	69034	71834
5	Tarixiy-madaniy ahamiyatga molik yerlar	2567,2	2567,2	2567,2	2567,2	2567,2	2567,2	2567	2567	2567
6	O‘rmon fondi yerlari	398329,2	398329,2	42052	42052	412049	326943	316705	319628	318943
7	Suv fondi yerlari	36237	36575,2	37067,2	37090	37090	37090	37090	52997	58439
8	Zahira yerlari	3819	3819	3819	3819	3819	3819	3819	1121	59219,9
Viloyat jami		**2856799**	**2856799**	**2486799**	**2486799**	**2856799**	**2856799**	**2856799**	**2856799**	**2856799**

Xulosa va tavsiyalar: O‘tkazilgan tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, Qashqadaryo viloyati yer fondi hududning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida muhim ahamiyatga ega bo‘lgan

strategik tabiiy resurs hisoblanadi. Viloyat hududida yer fondining tarkibi turli yer toifalari va yer turlaridan iborat bo‘lib, ularning har biri hudud iqtisodiyotining turli sohalarini rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi. Yer fondining to‘g‘ri taqsimlanishi, undan samarali foydalanish hamda uni muhofaza qilish masalalari hududning barqaror rivojlanishini ta’minlashda muhim omillardan biri hisoblanadi.

Tadqiqot jarayonida Qashqadaryo viloyati yer fondining tarkibi, uning yer toifalari bo‘yicha taqsimlanishi hamda 2018–2026-yillar davomida yuz bergan o‘zgarishlar tahlil qilindi. Tahlillar natijasida viloyat yer fondining asosiy qismini qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlar tashkil etishi aniqlandi. Bu holat hududning agrar yo‘nalishga ega ekanligini va qishloq xo‘jaligi viloyat iqtisodiyotining yetakchi tarmoqlaridan biri ekanligini ko‘rsatadi.

Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlar tarkibida sug‘oriladigan yerlar, lalmi yerlar, yaylovlar, pichanzorlar hamda ko‘p yillik daraxtzorlar alohida o‘rin egallaydi. Ayniqsa sug‘oriladigan yerlar viloyatda qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishining asosiy bazasini tashkil etadi. Ushbu yerlar yuqori hosildorlikka ega bo‘lib, ularda paxta, g‘alla, sabzavot, poliz ekinlari, shuningdek turli bog‘dorchilik mahsulotlari yetishtiriladi. Sug‘oriladigan yerlarning mavjudligi viloyatda qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini oshirish hamda aholini oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Yuqorida keltirilgan tahlillar asosida quyidagi tavsiyalarni ilgari surish mumkin.

Birinchidan, yer resurslaridan foydalanish jarayonida ilmiy asoslangan rejalashtirish tizimini joriy etish zarur. Bu esa yer fondidan samarali foydalanish, ularning to‘g‘ri taqsimlanishini ta’minlash hamda hududiy rivojlanishni muvofiqlashtirish imkonini beradi.

Ikkinchidan, qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlardan foydalanishda zamonaviy agrotexnologiyalarni keng joriy etish muhim ahamiyatga ega. Sug‘orish tizimlarini modernizatsiya qilish, suvni tejovchi texnologiyalarni qo‘llash hamda tuproq unumdorligini oshirishga qaratilgan agrotexnik tadbirlarni amalga oshirish zarur.

Uchinchidan, yaylov va pichanzorlardan samarali foydalanish hamda ularni degradatsiya jarayonlaridan muhofaza qilish choralarini ko‘rish lozim. Yaylovlardan me’yorida foydalanish chorvachilik tarmog‘ining barqaror rivojlanishini ta’minlashga xizmat qiladi.

To‘rtinchidan, yer resurslarini boshqarish jarayonida zamonaviy geoinformatsion texnologiyalar va raqamli kadastr tizimlarini joriy etish muhim hisoblanadi. Bu texnologiyalar yer resurslari holatini monitoring qilish, ularni hisobga olish hamda boshqarish samaradorligini oshirish imkonini beradi.

Beshinchidan, yer resurslarini muhofaza qilishga qaratilgan ekologik tadbirlarni kuchaytirish zarur. Tuproq eroziyasiga qarshi kurashish, sho‘rlangan yerlarni rekultivatsiya qilish hamda tuproq unumdorligini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish muhim ahamiyatga ega.

Oltinchidan, suv resurslaridan oqilona foydalanish va suv tejovchi texnologiyalarni keng joriy etish zarur. Bu esa sug‘oriladigan yerlarning samaradorligini oshirish bilan bir qatorda suv resurslarining tejab-tergab ishlatilishini ta’minlaydi.

Yettinchidan, hududda o‘rmon fondi yerlari va tabiiy landshaftlarni muhofaza qilishga alohida e’tibor qaratish lozim. O‘rmonlarni ko‘paytirish hamda yashil hududlarni kengaytirish ekologik barqarorlikni ta’minlashga xizmat qiladi.

Umuman olganda, Qashqadaryo viloyati yer fondi tarkibi hududning iqtisodiy rivojlanishi uchun katta imkoniyatlarga ega ekanligini ko‘rsatadi. Yer resurslaridan oqilona va samarali foydalanish, ularni muhofaza qilish hamda zamonaviy boshqaruv mexanizmlarini joriy etish orqali viloyatning barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta’minlash mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Raximov V.R, Babajanov A.R. Davlat kadastri asoslari. Toshkent, TTU 2012. 132 b.

2. Babajanov A.R., Rahmonov Q., G‘ofirov A.J. Yer kadastri / O‘quv qo‘llanma. Toshkent, «Cho‘lpon», 2014. 168 b.

3. Babajanov A.R., Ro‘ziboev S.B., Tulaganov I.B. «Tuman yer hisoboti (balansi) ni tuzish» metodik ko‘rsatma, Toshkent, TIMI, 2008 y. 53 b.

4.Turayev R.A., Tashbayeva H.X. Yer hisobini yuritishning qishloq xo‘jaligida ahamiyati // “O‘zbekiston zamini” ilmiy-amaliy va innovatsion jurnal. Toshkent, “O‘zdavyerloyiha” DILI,

2020. 2-son. 17-19 b.

5.Xojiyev Q.M. “Yerlarning miqdoriy hisobini yuritish texnologiyasi va uning mavjud uslubyatini takomillashtirish yo‘nalishlari”. // “O‘zbekiston zamini” ilmiy- amaliy va innovatsion jurnali. Toshkent, «O‘zdavyerloyiha» DILI, 2022. 1-son. 106-112 b.

6. Xojiyev.Q.M. “Yerlarning miqdoriy hisobini yuritishda yerlarni xatlovdan o‘tkazishning afzalliklari”. // “O‘zbekiston zamini” ilmiy-amaliy va innovatsion jurnali. Toshkent, “O‘zdavyerloyiha” DILI, 2021 y. 3-son. 83-89 b.

7. Babajanov A.R., Xojiyev Q.M., Sharopov R.N. Yer hisobini yuritish tizimini yanada takomillashtirish masalalari // “O‘zbekiston qishloq va suv xo‘jaligi” jurnali “Agroilm” ilovasi. Toshkent, 2021. 2-son. 112-113 b.

UDK 332.3

YER HISOB TIZIMLARINING TARIXIY SHAKLLANISHI VA ULARNING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI

S.K. To‘rayev
“Geoinnovatsiya markazi” davlat unitar korxonasi

Annotatsiya: *Mazkur ilmiy maqolada yer hisob tizimlarining shakllanishi va rivojlanish bosqichlari tarixiy hamda nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Yer resurslarini boshqarishda yer hisob tizimining ahamiyati, uning evolyutsiyasi hamda zamonaviy sharoitda raqamli texnologiyalar asosida takomillashuvi o‘rganiladi.*

Kalit suzlar: Yer hisobi, yer kadastri, yer resurslari, yer boshqaruvi, GIS texnologiyalari, raqamli kadastr, yer monitoringi, masofadan zondlash.

Kirish. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 23-apreldagi “Ma’muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash, yer resurslarini xatlovdan o‘tkazish hamda yaylov va pichanzorlarda geobotanik tadqiqotlarni o‘tkazish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 299-sonli qarori, hamda, 2020-yil 7-sentabrdagi PF–6061-sonli Prezident Farmoni bilan "Yer hisobi va davlat kadastrlarini yuritish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari" tasdiqlanib, ushbu yo‘nalishdagi islohotlar huquqiy va tashkiliy jihatdan yanada mustahkamlandi.Yer resurslari har qanday mamlakatning iqtisodiy rivojlanishi, ekologik barqarorligi va ijtimoiy farovonligini ta’minlashda muhim strategik omil hisoblanadi. Yer insoniyat hayot faoliyati uchun zarur bo‘lgan asosiy tabiiy resurslardan biri bo‘lib, u qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishi, sanoat infratuzilmasi, transport tizimlari, shaharsozlik hamda ekologik muvozanatni ta’minlash jarayonlarining asosini tashkil etadi. Shu sababli yer resurslarini samarali boshqarish, ulardan oqilona foydalanish va ularni muhofaza qilish har bir davlatning iqtisodiy siyosati va barqaror rivojlanish strategiyasida muhim o‘rin tutadi.

Yer resurslarining cheklanganligi, aholining o‘sib borishi hamda iqtisodiy faoliyatning kengayishi yer maydonlariga bo‘lgan talabni tobora oshirib bormoqda. Bunday sharoitda yer resurslarini samarali boshqarish, ulardan foydalanishni tartibga solish hamda yer munosabatlarini muvofiqlashtirish uchun aniq va ishonchli axborot tizimlariga ehtiyoj ortib bormoqda. Aynan shu ehtiyoj yer hisob tizimlarining shakllanishi va rivojlanishiga asos bo‘lib xizmat qiladi.

Yer hisob tizimi yer resurslari to‘g‘risidagi ma’lumotlarni tizimli ravishda yig‘ish, qayd etish, tahlil qilish hamda saqlashga qaratilgan muhim boshqaruv mexanizmlaridan biri hisoblanadi. Ushbu tizim orqali yer maydonlarining hududiy joylashuvi, ularning toifalari, foydalanish shakllari, huquqiy maqomi hamda iqtisodiy qiymati haqida batafsil ma’lumotlar shakllantiriladi. Mazkur ma’lumotlar esa davlat boshqaruvi organlari, iqtisodiy subyektlar va jamiyat uchun muhim axborot manbai bo‘lib xizmat qiladi.

Adabiyotlar sharhi: Yer resurslarini hisobga olish va boshqarish masalalari zamonaviy iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik tadqiqotlarning muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Yer hisobi va yer kadastri tizimlarini shakllantirish, rivojlantirish hamda takomillashtirishga oid ilmiy izlanishlar turli mamlakatlar olimlari tomonidan keng o‘rganilgan. Ushbu sohada olib borilgan tadqiqotlar yer resurslaridan samarali foydalanish, yer munosabatlarini tartibga solish, hududiy rivojlanishni rejalashtirish hamda ekologik barqarorlikni ta’minlashga qaratilgan.

Ilmiy adabiyotlarda yer hisobi tizimi yer resurslarini boshqarish tizimining muhim tarkibiy qismi sifatida qaraladi. Yer resurslarini boshqarish jarayonida yer maydonlarining miqdori, sifati, foydalanish shakllari va huquqiy maqomi to‘g‘risidagi ma’lumotlar muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli yer hisobi tizimi davlat boshqaruvi organlari, iqtisodiy subyektlar hamda jamiyat uchun muhim axborot manbai hisoblanadi.

Ko‘plab ilmiy tadqiqotlarda yer hisobi tizimining shakllanishi va rivojlanishi davlatning iqtisodiy siyosati bilan bevosita bog‘liq ekani ta’kidlanadi. Yer resurslari iqtisodiy rivojlanishning asosiy omillaridan biri bo‘lib, ular qishloq xo‘jaligi, sanoat, transport va boshqa iqtisodiy faoliyat tarmoqlarining rivojlanishida muhim rol o‘ynaydi. Shu sababli yer resurslarini samarali boshqarish uchun aniq va ishonchli axborot tizimlarini shakllantirish zarurati paydo bo‘ladi.

Yer kadastri va yer hisobi tizimlarini o‘rganishga bag‘ishlangan ilmiy ishlarda ushbu tizimlarning shakllanish jarayoni tarixiy, iqtisodiy va huquqiy jihatdan tahlil qilingan. Tadqiqotlarda yer kadastri tizimi yer resurslarini ro‘yxatga olish, ularni baholash hamda ulardan foydalanish jarayonini tartibga soluvchi muhim mexanizm sifatida ko‘rib chiqiladi.

Yer hisobi va yer kadastri tizimlari bo‘yicha olib borilgan ilmiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, ushbu tizimlarning samaradorligi ko‘p jihatdan geodeziya, kartografiya va topografiya fanlarining rivojlanishi bilan bog‘liqdir. Geodeziya fanining rivojlanishi yer maydonlarini aniq o‘lchash va ularning chegaralarini belgilash imkoniyatini yaratgan. Kartografiya esa yer maydonlarini xaritalarda aks ettirish va hududiy ma’lumotlarni tizimli ravishda saqlash imkonini bergan.

Ilmiy adabiyotlarda yer hisobi tizimining rivojlanishi bir necha bosqichlardan iborat ekani ta’kidlanadi. Dastlabki bosqichda yer hisobi asosan soliq yig‘ish va yer egaligini nazorat qilish maqsadida amalga oshirilgan. Bu davrda yer maydonlari to‘g‘risidagi ma’lumotlar oddiy ro‘yxatlar va qo‘lda chizilgan xaritalar orqali yuritilgan.

Keyingi bosqichda yer hisobi tizimi davlat boshqaruvi tizimining muhim tarkibiy qismiga aylandi. Yer resurslarini hisobga olish jarayonida geodezik o‘lchov usullari, topografik xaritalar hamda statistik ma’lumotlardan foydalanila boshlandi. Bu esa yer resurslari to‘g‘risidagi ma’lumotlarning aniqligini oshirishga xizmat qildi.

So‘nggi yillarda ilmiy tadqiqotlarda yer resurslarini boshqarishda zamonaviy axborot texnologiyalarining roli alohida e’tibor qozonmoqda. Axborot texnologiyalarining rivojlanishi yer hisob tizimlarini yanada takomillashtirish imkoniyatini yaratdi. Ayniqsa geografik axborot tizimlari (GIS) yer resurslarini boshqarish jarayonida muhim ahamiyat kasb etmoqda.

GIS texnologiyalari yer resurslari to‘g‘risidagi ma’lumotlarni fazoviy tahlil qilish imkonini beruvchi zamonaviy axborot tizimidir. Ushbu texnologiya yordamida yer maydonlarining hududiy joylashuvi, chegaralari, foydalanish shakllari hamda ekologik holati to‘g‘risidagi ma’lumotlarni tizimli ravishda tahlil qilish mumkin.

Ilmiy tadqiqotlarda GIS texnologiyalarining yer kadastri tizimlari bilan integratsiyalashuvi yer resurslarini boshqarish samaradorligini sezilarli darajada oshirishi ta’kidlanadi. GIS tizimlari yordamida yer maydonlarini xaritalash, yer resurslarining holatini monitoring qilish hamda hududiy rivojlanishni rejalashtirish jarayonlari samarali amalga oshiriladi.

Bundan tashqari, masofadan zondlash texnologiyalarining rivojlanishi yer resurslarini monitoring qilish imkoniyatlarini kengaytirdi. Masofadan zondlash usullari sun’iy yo‘ldosh tasvirlari va aerofotosuratlar orqali yer yuzasining holatini kuzatish imkonini beradi. Ushbu texnologiyalar yordamida katta hududlarni qisqa vaqt ichida o‘rganish va tahlil qilish mumkin.

Zamonaviy ilmiy tadqiqotlarda yer hisobi tizimlarini raqamlashtirish masalalari ham keng o‘rganilmoqda. Raqamli kadastr tizimlari yer resurslari to‘g‘risidagi ma’lumotlarni elektron shaklda saqlash va boshqarish imkonini beradi. Bu esa ma’lumotlarning aniqligi, ishonchliligi hamda tezkorligini oshirishga xizmat qiladi.

Ko‘plab ilmiy ishlarda raqamli kadastr tizimlarining afzalliklari ta’kidlanadi. Xususan, raqamli kadastr tizimlari yer resurslari to‘g‘risidagi ma’lumotlarni tezkor yangilash, turli axborot tizimlari bilan integratsiya qilish hamda yer monitoringini samarali tashkil etish imkonini beradi.

Shuningdek, ilmiy adabiyotlarda yer resurslarini boshqarishda sun’iy intellekt va katta ma’lumotlar texnologiyalaridan foydalanish istiqbollari ham muhokama qilinmoqda. Ushbu texnologiyalar yordamida yer resurslari to‘g‘risidagi katta hajmdagi ma’lumotlarni tahlil qilish va

prognozlash imkoniyati yaratiladi.

Yer resurslarini boshqarish masalalariga bag‘ishlangan ilmiy tadqiqotlarda ekologik omillar ham alohida e’tiborga olinadi. Iqlim o‘zgarishi, tuproq degradatsiyasi va cho‘llanish kabi ekologik muammolar yer resurslarining sifatiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Shu sababli zamonaviy yer hisob tizimlari nafaqat yer resurslarini ro‘yxatga olish, balki ularning ekologik holatini monitoring qilish vazifasini ham bajarishi zarur.

Natijalar va muhokama yer hisob tizimlarining tarixiy shakllanishi: Yer resurslarini hisobga olish va ularni boshqarish masalasi insoniyat taraqqiyoti davomida muhim ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatga ega bo‘lib kelgan. Yer insoniyatning asosiy ishlab chiqarish vositalaridan biri bo‘lib, u qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishi, sanoat faoliyati, transport infratuzilmasi hamda aholi yashash hududlarini tashkil etishda muhim rol o‘ynaydi. Shu sababli yer resurslarini hisobga olish, ulardan foydalanishni nazorat qilish hamda ularni samarali boshqarish zarurati qadimgi davrlardan boshlab shakllangan.

Tarixiy manbalarning tahlili shuni ko‘rsatadiki, yer hisob tizimlarining shakllanishi davlat boshqaruvi tizimining rivojlanishi bilan bevosita bog‘liqdir. Qadimgi jamiyatlarda yer resurslari davlat iqtisodiyotining asosiy manbalaridan biri bo‘lgan. Shu sababli yer maydonlarini hisobga olish va ularni nazorat qilish davlat boshqaruvining muhim vazifalaridan biri sifatida qaralgan.

Qadimgi davrlarda yer hisob tizimlari: Yer hisob tizimlarining dastlabki shakllari qadimgi sivilizatsiyalar davrida paydo bo‘lgan. Qadimgi davlatlarda yer resurslarini hisobga olish asosan soliq yig‘ish, davlat daromadlarini shakllantirish hamda yer egaligini nazorat qilish maqsadida amalga oshirilgan. Bu davrda yer maydonlarini o‘lchash va ro‘yxatga olish ishlari oddiy o‘lchov usullari yordamida amalga oshirilgan.

Qadimgi jamiyatlarda yer maydonlari ko‘pincha davlat yoki hukmdor mulki hisoblangan. Yer egaligi tizimi markazlashgan boshqaruvga asoslangan bo‘lib, yer resurslaridan foydalanish davlat tomonidan nazorat qilingan. Shu sababli yer maydonlari to‘g‘risidagi ma’lumotlarni yig‘ish va saqlash davlat boshqaruvi uchun muhim ahamiyat kasb etgan.

Qadimgi davrlarda yer maydonlarini o‘lchash uchun oddiy o‘lchov asboblari va usullaridan foydalanilgan. Yer maydonlari to‘g‘risidagi ma’lumotlar yozma hujjatlar yoki qo‘lda chizilgan xaritalarda qayd etilgan. Biroq bu davrda yer hisob tizimlari yetarli darajada rivojlanmagan bo‘lib, ularning aniqligi va ishonchliligi past darajada bo‘lgan.

Shunga qaramay, qadimgi jamiyatlarda yer hisob tizimlarining shakllanishi yer resurslarini boshqarishning dastlabki bosqichi sifatida muhim ahamiyat kasb etadi. Aynan ushbu davrda yer maydonlarini o‘lchash va ro‘yxatga olish jarayonlari shakllanib, keyingi davrlarda yer kadastri tizimining rivojlanishiga asos yaratildi.

O‘rta asrlar davrida yer munosabatlari tizimi yanada murakkablashdi. Bu davrda feodal yer egaligi tizimi shakllanib, yer resurslari ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarning muhim tarkibiy qismiga aylandi. Yer egaligi va undan foydalanish huquqlari jamiyatdagi ijtimoiy qatlamlar o‘rtasidagi munosabatlarni belgilab beruvchi muhim omil hisoblangan.

O‘rta asrlarda yer hisobi asosan yozma hujjatlar va qo‘lda chizilgan xaritalar asosida yuritilgan. Yer maydonlari to‘g‘risidagi ma’lumotlar maxsus hujjatlarda qayd etilib, ular orqali yer egaligi va foydalanish huquqlari tasdiqlangan. Bu davrda yer hisobi tizimi asosan soliq yig‘ish hamda feodal yer egaligi munosabatlarini tartibga solish maqsadida qo‘llanilgan.

Feodal jamiyatda yer resurslari asosiy boylik manbai hisoblangan. Shu sababli yer maydonlarini hisobga olish va ularni nazorat qilish muhim ahamiyat kasb etgan. Yer maydonlari to‘g‘risidagi ma’lumotlar davlat yoki feodal hukmdorlar tomonidan yuritilgan maxsus ro‘yxatlarda saqlangan.

Biroq o‘rta asrlarda yer hisob tizimlarining aniqligi va ishonchliligi yetarli darajada yuqori bo‘lmagan. O‘lchov asboblarining mukammal emasligi hamda ilmiy asoslangan usullarning yetishmasligi sababli yer maydonlari to‘g‘risidagi ma’lumotlar ko‘pincha aniq bo‘lmagan. Shunga qaramay, o‘rta asrlar davrida yer hisob tizimlarining rivojlanishi keyingi davrlarda zamonaviy kadastr tizimlarining shakllanishiga muhim zamin yaratdi.

XVIII–XIX asrlarda ilm-fan va texnologiyalarning rivojlanishi yer hisob tizimlarining takomillashuviga sezilarli ta’sir ko‘rsatdi. Ayniqsa geodeziya, kartografiya va topografiya

fanlarining rivojlanishi yer maydonlarini aniq o‘lchash imkoniyatlarini kengaytirdi.

Geodeziya fanining rivojlanishi yer yuzasini aniq o‘lchash, hududlarning koordinatalarini aniqlash hamda yer maydonlarining chegaralarini belgilash imkonini yaratdi. Kartografiya esa hududiy ma’lumotlarni xaritalarda aks ettirish va ularni tizimli ravishda saqlash imkoniyatini ta’minladi.

XIX asrga kelib ko‘plab davlatlarda yer kadastri tizimlari shakllana boshladi. Yer kadastri tizimi yer resurslari to‘g‘risidagi ma’lumotlarni tizimli ravishda yig‘ish, qayd etish va tahlil qilishga qaratilgan muhim davlat tizimiga aylandi. Ushbu tizim orqali yer maydonlarining huquqiy maqomi, iqtisodiy qiymati va foydalanish shakllari to‘g‘risidagi ma’lumotlar to‘plana boshlandi.

Yer kadastri tizimining shakllanishi yer resurslarini boshqarish jarayonida muhim ahamiyat kasb etdi. Yer resurslari to‘g‘risidagi aniq ma’lumotlarning mavjudligi davlat yer siyosatini amalga oshirish, soliq tizimini takomillashtirish hamda hududiy rivojlanishni rejalashtirish imkoniyatlarini kengaytirdi.

XX asrda yer hisob tizimlari yanada takomillashdi. Geodezik o‘lchov asboblarining rivojlanishi, aerofototasvirlash usullarining joriy etilishi hamda kartografik texnologiyalarning takomillashuvi yer resurslari to‘g‘risidagi ma’lumotlarning aniqligini sezilarli darajada oshirdi.

Bu davrda ko‘plab mamlakatlarda davlat yer kadastri tizimi shakllantirildi. Yer maydonlari, ularning toifalari, foydalanish shakllari hamda iqtisodiy qiymati to‘g‘risidagi ma’lumotlar yagona tizimda yuritila boshlandi. Natijada yer resurslarini boshqarish jarayoni yanada samarali tashkil etildi.

XX asrning ikkinchi yarmida aerokosmik texnologiyalarning rivojlanishi yer resurslarini monitoring qilish imkoniyatlarini kengaytirdi. Aerofotosuratlar va sun’iy yo‘ldosh tasvirlari yordamida katta hududlarni qisqa vaqt ichida o‘rganish va tahlil qilish imkoniyati paydo bo‘ldi.

Tadqiqot metodologiyasi: Mazkur tadqiqot yer hisob tizimlarining tarixiy shakllanishi, rivojlanish bosqichlari hamda zamonaviy rivojlanish tendensiyalarini kompleks tarzda o‘rganishga qaratilgan bo‘lib, unda turli ilmiy usullar va metodologik yondashuvlardan foydalanildi. Tadqiqot metodologiyasini shakllantirishda yer resurslarini boshqarish, yer kadastri tizimlari hamda zamonaviy axborot texnologiyalarining rivojlanishi bilan bog‘liq nazariy va amaliy manbalar tahlil qilindi. Shuningdek, ilmiy tadqiqot jarayonida tizimli yondashuv tamoyillari asosida turli metodlardan kompleks foydalanish orqali yer hisob tizimlarining rivojlanish jarayonini chuqur o‘rganish imkoniyati yaratildi.

Tadqiqot metodologiyasi bir necha asosiy ilmiy usullarni o‘z ichiga oladi. Ular orasida tizimli tahlil, tarixiy tahlil, taqqoslash usuli, statistik ma’lumotlarni o‘rganish, ilmiy manbalarni tahlil qilish hamda zamonaviy axborot texnologiyalarining amaliy qo‘llanilishini o‘rganish kabi usullar muhim o‘rin tutadi. Mazkur usullar yordamida yer hisob tizimlarining rivojlanish bosqichlari, ularning shakllanishiga ta’sir etgan omillar hamda zamonaviy rivojlanish tendensiyalari aniqlab berildi.

Tizimli tahlil usuli: Mazkur tadqiqotda tizimli tahlil usuli muhim metodologik yondashuv sifatida qo‘llanildi. Tizimli tahlil usuli yer hisob tizimlarini murakkab ijtimoiy-iqtisodiy tizim sifatida o‘rganish imkonini beradi. Yer hisob tizimlari turli elementlardan tashkil topgan bo‘lib, ular o‘zaro bog‘liq holda faoliyat yuritadi. Ushbu tizimning asosiy elementlariga yer resurslari to‘g‘risidagi ma’lumotlar, kadastr tizimi, geodezik o‘lchov usullari, kartografik ma’lumotlar hamda zamonaviy axborot texnologiyalari kiradi.

Tizimli yondashuv yer hisob tizimlarining tarkibiy elementlari o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni aniqlash imkonini beradi. Bu esa yer resurslarini boshqarish tizimining umumiy samaradorligini baholashda muhim ahamiyatga ega. Tadqiqot jarayonida yer hisob tizimlarining tuzilishi, funksiyalari hamda ularning boshqaruv tizimidagi o‘rni tizimli tahlil asosida o‘rganildi.

Tizimli tahlil usuli yer hisob tizimlarini turli bosqichlarda rivojlanib boruvchi murakkab tizim sifatida ko‘rib chiqishga imkon beradi. Ushbu yondashuv orqali yer hisob tizimlarining tarixiy rivojlanish jarayonlari, ularning tarkibiy tuzilishi hamda zamonaviy texnologiyalar bilan integratsiyalashuvi o‘rganildi.

Tarixiy tahlil usuli: Tadqiqot jarayonida tarixiy tahlil usulidan keng foydalanildi. Ushbu usul yer hisob tizimlarining shakllanishi va rivojlanish bosqichlarini o‘rganishda muhim ahamiyatga ega. Tarixiy tahlil yordamida yer hisob tizimlarining paydo bo‘lishi, ularning turli davrlarda rivojlanishi

hamda zamonaviy shaklga kelguniga qadar bosib o‘tgan evolyutsion jarayonlari o‘rganildi.

Tarixiy tahlil jarayonida qadimgi davr, o‘rta asrlar, yangi davr hamda zamonaviy davrda yer hisob tizimlarining rivojlanish xususiyatlari o‘rganildi. Qadimgi davrda yer hisob tizimlari asosan soliq yig‘ish va yer egaligini nazorat qilish maqsadida qo‘llanilgan bo‘lsa, keyingi davrlarda ularning funksiyalari kengayib bordi.

Tarixiy tahlil natijalari shuni ko‘rsatdiki, yer hisob tizimlari ilm-fan va texnologiyalarning rivojlanishi bilan uzviy bog‘liq holda takomillashib borgan. Ayniqsa geodeziya, kartografiya va topografiya fanlarining rivojlanishi yer hisob tizimlarining ilmiy asosda shakllanishiga katta ta’sir ko‘rsatgan.

Tarixiy manbalar tahlili orqali yer hisob tizimlarining turli davrlardagi rivojlanish xususiyatlari, ularning iqtisodiy va ijtimoiy jarayonlar bilan bog‘liqligi hamda zamonaviy boshqaruv tizimlariga ta’siri aniqlab berildi.

Taqqoslash usuli: Tadqiqot jarayonida taqqoslash usulidan ham keng foydalanildi. Ushbu usul turli mamlakatlarda qo‘llanilayotgan yer hisob tizimlarini o‘rganish va ularning o‘ziga xos xususiyatlarini aniqlash imkonini beradi.

Taqqoslash usuli yordamida turli davlatlarning yer kadastri tizimlari, yer resurslarini boshqarish mexanizmlari hamda zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish darajasi tahlil qilindi. Natijada yer hisob tizimlarining samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi ilg‘or tajribalar aniqlab berildi.

Shuningdek, taqqoslash usuli yordamida tarixiy davrlardagi yer hisob tizimlari bilan zamonaviy tizimlar o‘rtasidagi farqlar ham o‘rganildi. Bu esa yer hisob tizimlarining evolyutsion rivojlanish jarayonini yanada chuqurroq tahlil qilish imkonini berdi.

Statistik ma’lumotlarni o‘rganish usuli: Tadqiqot jarayonida statistik ma’lumotlarni o‘rganish usulidan ham foydalanildi. Statistik ma’lumotlar yer resurslari to‘g‘risidagi aniq va ishonchli ma’lumotlarni olish imkonini beradi. Ushbu ma’lumotlar yordamida yer resurslarining miqdori, ularning foydalanish darajasi hamda hududiy taqsimoti tahlil qilindi.

Statistik ma’lumotlar asosida yer resurslaridan foydalanish samaradorligi baholandi hamda yer resurslarini boshqarish jarayonining asosiy tendensiyalari aniqlab berildi. Statistik tahlil natijalari yer resurslari bilan bog‘liq iqtisodiy va ekologik jarayonlarni chuqurroq o‘rganishga imkon yaratdi.

Ilmiy adabiyotlar tahlili: Tadqiqot metodologiyasining muhim tarkibiy qismi sifatida ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish usulidan foydalanildi. Yer hisobi va yer kadastri tizimlariga bag‘ishlangan ilmiy manbalar, monografiyalar, ilmiy maqolalar hamda xalqaro tashkilotlarning hisobotlari o‘rganildi.

Ilmiy adabiyotlar tahlili orqali yer hisob tizimlarining nazariy asoslari, ularning rivojlanish bosqichlari hamda zamonaviy rivojlanish tendensiyalari aniqlab berildi. Shuningdek, ushbu tahlil jarayonida yer resurslarini boshqarish bo‘yicha ilg‘or ilmiy qarashlar ham o‘rganildi.

Tadqiqot jarayonida yer hisob tizimlarining zamonaviy rivojlanish tendensiyalarini aniqlash maqsadida zamonaviy axborot texnologiyalarining qo‘llanilishi ham o‘rganildi. Xususan, raqamli kadastr tizimlari, geografik axborot tizimlari hamda masofadan zondlash texnologiyalarining amaliy qo‘llanilishi tahlil qilindi.

Geografik axborot tizimlari yer resurslari to‘g‘risidagi fazoviy ma’lumotlarni tahlil qilish imkonini beruvchi muhim texnologiya hisoblanadi. Ushbu texnologiyalar yordamida yer maydonlarining hududiy joylashuvi, chegaralari hamda foydalanish shakllari tahlil qilindi.

Masofadan zondlash texnologiyalari yordamida esa yer resurslarining holatini sun’iy yo‘ldosh tasvirlari orqali monitoring qilish imkoniyatlari o‘rganildi. Ushbu texnologiyalar yer resurslarini boshqarish jarayonida muhim axborot manbai sifatida xizmat qilishi aniqlab berildi.

Mazkur tadqiqotda qo‘llanilgan metodologik yondashuv yer hisob tizimlarining rivojlanish jarayonini kompleks tarzda o‘rganish imkonini berdi. Turli ilmiy usullarning birgalikda qo‘llanilishi yer hisob tizimlarining shakllanishi, rivojlanishi hamda zamonaviy texnologiyalar bilan integratsiyalashuvi jarayonlarini chuqur tahlil qilish imkonini yaratdi.

Natijada yer hisob tizimlarining tarixiy rivojlanish bosqichlari aniqlab berildi, zamonaviy rivojlanish tendensiyalari tahlil qilindi hamda yer resurslarini boshqarish tizimini takomillashtirish

bo‘yicha ilmiy xulosalar ishlab chiqildi.

Mazkur metodologiya yer hisob tizimlarini o‘rganish bo‘yicha kelgusidagi ilmiy tadqiqotlar uchun ham muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi. Turli ilmiy usullarning kompleks qo‘llanilishi yer resurslarini boshqarish tizimini yanada samarali o‘rganish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Hozirgi davrda yer hisob tizimlari axborot texnologiyalarining rivojlanishi bilan uzviy bog‘liq holda rivojlanmoqda. Zamonaviy texnologiyalar yer resurslarini boshqarish tizimining samaradorligini sezilarli darajada oshirmoqda.

Geografik axborot tizimlari yer resurslari to‘g‘risidagi fazoviy ma’lumotlarni tahlil qilish imkonini beruvchi zamonaviy axborot tizimi hisoblanadi. Ushbu tizim yordamida yer maydonlarining hududiy joylashuvi, chegaralari hamda foydalanish shakllari to‘g‘risidagi ma’lumotlar tahlil qilinadi.

Bundan tashqari, masofadan zondlash texnologiyalarining qo‘llanilishi yer resurslarini monitoring qilish imkoniyatlarini kengaytirdi. Sun’iy yo‘ldosh tasvirlari yordamida yer resurslarining holatini doimiy ravishda kuzatish mumkin.

Zamonaviy yer hisob tizimlari raqamli kadastr tizimlari asosida shakllanmoqda. Raqamli kadastr tizimlari yer resurslari to‘g‘risidagi ma’lumotlarni elektron shaklda saqlash va boshqarish imkonini beradi. Bu esa ma’lumotlarning aniqligi, ishonchliligi hamda tezkorligini oshirishga xizmat qiladi.

Yuqoridagi tahlillar shuni ko‘rsatadiki, yer hisob tizimlari insoniyat taraqqiyoti davomida bosqichma-bosqich rivojlanib borgan. Dastlab oddiy ro‘yxatga olish tizimi sifatida shakllangan yer hisobi keyinchalik murakkab axborot tizimiga aylandi.

Zamonaviy davrda yer hisob tizimlari raqamli texnologiyalar asosida rivojlanmoqda. Axborot texnologiyalarining joriy etilishi yer resurslarini boshqarish jarayonini yanada samarali tashkil etish imkonini bermoqda.

Shu sababli yer hisob tizimlarini takomillashtirish, raqamli texnologiyalarni keng joriy etish hamda yer resurslarini monitoring qilish tizimlarini rivojlantirish dolzarb ilmiy va amaliy masalalardan biri hisoblanadi.

Zamonaviy sharoitda yer hisob tizimlari an’anaviy ro‘yxatga olish usullaridan bosqichma-bosqich voz kechib, raqamli va integratsiyalashgan axborot tizimlariga asoslangan boshqaruv mexanizmlariga aylanish jarayonini boshdan kechirmoqda. Axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi, sun’iy yo‘ldosh texnologiyalarining keng qo‘llanilishi hamda katta hajmdagi ma’lumotlarni qayta ishlash imkoniyatlarining kengayishi yer resurslarini boshqarish tizimining samaradorligini sezilarli darajada oshirmoqda.

So‘nggi yillarda ko‘plab davlatlarda yer kadastri tizimlarini raqamlashtirish jarayoni jadallik bilan amalga oshirilmoqda. Raqamlashtirish jarayoni yer resurslari to‘g‘risidagi ma’lumotlarni elektron shaklda yig‘ish, saqlash, qayta ishlash va tahlil qilish imkoniyatlarini yaratadi. Raqamli kadastr tizimlari an’anaviy qog‘oz shaklidagi hujjatlar va xaritalarni zamonaviy elektron ma’lumotlar bazalari bilan almashtirish orqali yer resurslarini boshqarish jarayonini sezilarli darajada soddalashtiradi.

Raqamli kadastr tizimlari yer maydonlari to‘g‘risidagi ma’lumotlarni yagona axborot bazasida saqlash imkonini beradi. Bu esa turli davlat organlari, iqtisodiy subyektlar hamda fuqarolar uchun zarur ma’lumotlarga tezkor kirish imkoniyatini yaratadi. Natijada yer resurslari bilan bog‘liq ma’muriy jarayonlar soddalasadi hamda yer munosabatlari tizimining shaffofligi oshadi.

Raqamli kadastr tizimlari yer resurslari to‘g‘risidagi ma’lumotlarni tezkor yangilash imkoniyatini ham ta’minlaydi. Yer maydonlarining chegaralari, foydalanish shakllari yoki huquqiy maqomida yuz beradigan o‘zgarishlar elektron tizim orqali darhol qayd etilishi mumkin. Bu esa yer resurslari to‘g‘risidagi ma’lumotlarning doimiy ravishda yangilanib borishini ta’minlaydi.

Shuningdek, raqamli kadastr tizimlari yer resurslarini boshqarish jarayonida turli axborot tizimlari bilan integratsiyalash imkoniyatini yaratadi. Masalan, soliq tizimi, shaharsozlik tizimi, qishloq xo‘jaligi boshqaruvi hamda ekologik monitoring tizimlari bilan integratsiya qilish orqali yer resurslari to‘g‘risidagi ma’lumotlardan kompleks foydalanish mumkin bo‘ladi.

Geografik axborot tizimlari zamonaviy yer hisob tizimlarining eng muhim tarkibiy elementlaridan biri hisoblanadi. GIS texnologiyalari fazoviy ma’lumotlarni yig‘ish, saqlash, tahlil

qilish hamda vizualizatsiya qilish imkonini beruvchi zamonaviy axborot tizimi hisoblanadi.

GIS texnologiyalarining qo‘llanilishi yer resurslarini boshqarish jarayonida muhim afzalliklarni ta’minlaydi. Ushbu texnologiyalar yordamida yer maydonlarining hududiy joylashuvi, chegaralari, foydalanish shakllari hamda ekologik holati to‘g‘risidagi ma’lumotlarni tizimli ravishda tahlil qilish mumkin.

Geografik axborot tizimlari yer resurslarini boshqarishda fazoviy tahlil usullaridan foydalanish imkonini yaratadi. Masalan, yer maydonlarining foydalanish darajasi, tuproq sifati, suv resurslari mavjudligi hamda ekologik holatini birgalikda tahlil qilish orqali hududiy rivojlanish strategiyalarini ishlab chiqish mumkin.

GIS texnologiyalari shaharsozlik, qishloq xo‘jaligi, transport infratuzilmasi hamda ekologik monitoring sohalarida keng qo‘llanilmoqda. Ushbu tizimlar yordamida hududiy rejalashtirish jarayonlari yanada ilmiy asoslangan holda amalga oshiriladi.

Zamonaviy yer hisob tizimlarining rivojlanishida masofadan zondlash texnologiyalari muhim ahamiyat kasb etadi. Masofadan zondlash texnologiyalari yer yuzasining holatini sun’iy yo‘ldosh tasvirlari yoki aerofotosuratlar yordamida kuzatish imkonini beradi.

Sun’iy yo‘ldosh tasvirlari yordamida katta hududlarni qisqa vaqt ichida kuzatish va tahlil qilish mumkin. Bu esa yer resurslarini monitoring qilish jarayonini sezilarli darajada soddalashtiradi. Masofadan zondlash texnologiyalari yordamida yer resurslarining holati, tuproq degradatsiyasi, o‘rmon maydonlarining qisqarishi hamda cho‘llanish jarayonlarini aniqlash mumkin.

Bundan tashqari, sun’iy yo‘ldosh texnologiyalari qishloq xo‘jaligi sohasida ham keng qo‘llanilmoqda. Ushbu texnologiyalar yordamida ekin maydonlarining holatini monitoring qilish, hosildorlik darajasini baholash hamda suv resurslaridan foydalanish samaradorligini tahlil qilish mumkin.

Masofadan zondlash texnologiyalarining qo‘llanilishi yer resurslarini boshqarish jarayonida tezkor va aniq ma’lumotlar olish imkoniyatini yaratadi. Bu esa yer resurslaridan samarali foydalanish bo‘yicha qarorlar qabul qilish jarayonini optimallashtiradi.

Zamonaviy yer hisob tizimlarining rivojlanishida yer monitoringi tizimlarini takomillashtirish muhim ahamiyatga ega. Yer monitoringi yer resurslarining holatini muntazam ravishda kuzatish, baholash va tahlil qilish jarayonini o‘z ichiga oladi.

Yer monitoringi tizimlari yordamida tuproq degradatsiyasi, eroziya jarayonlari, cho‘llanish hamda ekologik muammolarni aniqlash mumkin. Ushbu ma’lumotlar asosida yer resurslarini muhofaza qilish bo‘yicha zarur choralar ishlab chiqiladi.

Xulosalar: Mazkur tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, yer hisob tizimlari insoniyat taraqqiyoti davomida muhim evolyutsion rivojlanish bosqichlarini bosib o‘tgan. Yer resurslari har doim jamiyatning iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik rivojlanishida muhim o‘rin egallab kelganligi sababli ularni hisobga olish, boshqarish va ulardan samarali foydalanishni ta’minlash masalalari ham tarix davomida dolzarb bo‘lib kelgan. Yer hisobi dastlab oddiy ro‘yxatga olish tizimi sifatida shakllangan bo‘lsa-da, vaqt o‘tishi bilan u murakkab boshqaruv tizimiga aylangan.

XIX va XX asrlarda ko‘plab mamlakatlarda davlat yer kadastri tizimlari shakllantirildi. Yer kadastri tizimi yer resurslari to‘g‘risidagi ma’lumotlarni tizimli ravishda yig‘ish, saqlash va tahlil qilish imkonini beruvchi muhim davlat tizimiga aylandi. Ushbu tizim orqali yer maydonlarining hududiy joylashuvi, ularning huquqiy maqomi, foydalanish shakllari hamda iqtisodiy qiymati to‘g‘risidagi ma’lumotlar yagona tizimda yuritila boshlandi.

Geografik axborot tizimlarining qo‘llanilishi zamonaviy yer hisob tizimlarining rivojlanishida muhim rol o‘ynaydi. GIS texnologiyalari yordamida yer resurslari to‘g‘risidagi fazoviy ma’lumotlarni tahlil qilish, hududiy rivojlanishni rejalashtirish hamda ekologik muammolarni aniqlash imkoniyati yaratiladi. Ushbu texnologiyalar yer resurslarini boshqarish jarayonining ilmiy asoslangan holda amalga oshirilishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Raximov V.R, Babajanov A.R. Davlat kadastri asoslari. Toshkent, TTU 2012. 132 b.

2. Babajanov A.R., Rahmonov Q., G‘ofirov A.J. Yer kadastri / O‘quv qo‘llanma. Toshkent, «Cho‘lpon», 2014. 168 b.

3. Babajanov A.R., Ro‘ziboev S.B., Tulaganov I.B. «Tuman yer hisoboti (balansi) ni tuzish» metodik ko‘rsatma, Toshkent, TIMI, 2008 y. 53 b.

4.Turayev R.A., Tashbayeva H.X. Yer hisobini yuritishning qishloq xo‘jaligida ahamiyati // “O‘zbekiston zamini” ilmiy-amaliy va innovatsion jurnal. Toshkent, “O‘zdavyerloyiha” DILI, 2020. 2-son. 17-19 b.

5.Xojiyev Q.M. “Yerlarning miqdoriy hisobini yuritish texnologiyasi va uning mavjud uslubyatini takomillashtirish yo‘nalishlari”. // “O‘zbekiston zamini” ilmiy- amaliy va innovatsion jurnali. Toshkent, «O‘zdavyerloyiha» DILI, 2022. 1-son. 106-112 b.

6. Xojiyev.Q.M. “Yerlarning miqdoriy hisobini yuritishda yerlarni xatlovdan o‘tkazishning afzalliklari”. // “O‘zbekiston zamini” ilmiy-amaliy va innovatsion jurnali. Toshkent, “O‘zdavyerloyiha” DILI, 2021 y. 3-son. 83-89 b.

7. Babajanov A.R., Xojiyev Q.M., Sharopov R.N. Yer hisobini yuritish tizimini yanada takomillashtirish masalalari // “O‘zbekiston qishloq va suv xo‘jaligi” jurnali “Agroilm” ilovasi. Toshkent, 2021. 2-son. 112-113 b.

8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 7-sentabrdagi «Yer hisobi va davlat kadastrlarini yuritish tizimini tubdan takomillashtirish choratadbirlari to‘g‘risida»gi PF-6061-son Farmoni.

9. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 23-apreldagi “Ma’muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash, yer resurslarini xatlovdan o‘tkazish hamda yaylov va pichanzorlarda geobotanik tadqiqotlarni o‘tkazish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 299-sonli qarori.

UO‘T: 631,61

O‘ZBEKISTON SHAROITIDA YER VA EKIN TURLARINI JOYLASHTIRISH HAMDA ALMASHLAB EKISHNI TASHKIL ETISHNING ILMIY ASOSLARI

J.Ch.Urinov
Qarshi davlat texnika universiteti

Annotatsiya: *Mazkur maqolada qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishida yer resurslaridan oqilona foydalanish, ekinlar turlarini ilmiy asosda joylashtirish hamda almashlab ekish tizimlarini tashkil etishning nazariy va amaliy jihatlari yoritilgan.*

O‘zbekiston sharoitida sug‘oriladigan yerlarning ustunligi, suv resurslarining cheklanganligi, tuproq sho‘rlanishi muammolari, paxta va g‘alla yetishtirishning strategik ahamiyati hamda qishloq xo‘jaligini diversifikatsiya qilish jarayonlari alohida ko‘rib chiqilgan. Ilmiy asoslangan ekinlarni joylashtirish va almashlab ekish tizimlarini joriy etish respublika qishloq xo‘jaligining barqaror rivojlanishini ta’minlash, oziq-ovqat xavfsizligini mustahkamlash va yer resurslarini uzoq muddat saqlab qolishning muhim omili ekanligi asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: Yer resurslari, yer turlari, ekinlarni joylashtirish, almashlab ekish, tuproq unumdorligi, sug‘oriladigan yerlar, melioratsiya, sho‘rlanish, qishloq xo‘jaligi samaradorligi, ekologik barqarorlik.

Kirish: Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishining barqaror rivojlanishi bevosita yer resurslaridan oqilona foydalanish, ekin turlarini to‘g‘ri tanlash, ularni ilmiy asosda joylashtirish hamda samarali almashlab ekish tizimlarini joriy etish bilan chambarchas bog‘liqdir. Yer – qishloq xo‘jaligining asosiy ishlab chiqarish vositasi bo‘lib, uning miqdori cheklangan va qayta tiklanish jarayoni juda sekin kechadi. Shu sababli yer resurslaridan noto‘g‘ri foydalanish tuproq unumdorligining pasayishi, sho‘rlanish, eroziya, cho‘llanish hamda boshqa ekologik muammolarning kuchayishiga olib keladi.

Bugungi kunda dunyo miqyosida aholining tez o‘sishi, oziq-ovqat mahsulotlariga bo‘lgan talabning ortishi, suv resurslarining kamayishi va iqlim o‘zgarishi qishloq xo‘jaligi oldiga mutlaqo yangi vazifalarni qo‘ymoqda. Ushbu sharoitda har bir gektar yerdan olinadigan hosilni ko‘paytirish, ishlab chiqarish tannarxini pasaytirish va ekologik barqarorlikni ta’minlash dolzarb masalaga aylanmoqda. Bunda ekinlarni ilmiy asosda joylashtirish va almashlab ekish tizimlarini to‘g‘ri tashkil etish hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Mazkur maqolada yer turlarining tasnifi, ekinlarni joylashtirishning nazariy-amaliy asoslari, almashlab ekish massivlarini tashkil etish tamoyillari, ularning iqtisodiy va ekologik samaradorligi hamda O‘zbekiston sharoitidagi o‘ziga xos jihatlar keng va tizimli tarzda yoritiladi.

Qishloq xo‘jaligi ekinlari turlari va ularning xususiyatlari: Qishloq xo‘jaligi ekinlari insoniyatning oziq-ovqat, sanoat xomashyosi va chorvachilik ehtiyojlarini qondirishda muhim ahamiyatga ega bo‘lgan o‘simliklar guruhini tashkil etadi. Ular biologik xususiyatlari, xo‘jalikdagi ahamiyati, yetishtirish texnologiyasi hamda foydalanish yo‘nalishiga ko‘ra bir necha asosiy guruhlarga bo‘linadi. Ekinlarning to‘g‘ri tasnifi va ularning xususiyatlarini chuqur o‘rganish ekinlarni joylashtirish, almashlab ekish tizimini tuzish hamda yuqori va barqaror hosildorlikka erishishning muhim sharti hisoblanadi.

Har bir ekin turi ma’lum tuproq-iqlim sharoitlariga moslashgan bo‘lib, suvga bo‘lgan ehtiyoji, oziqa moddalarga talabi, vegetatsiya davri davomiyligi va agrotexnika tadbirlariga sezgirligi bilan bir-biridan farq qiladi. Shu sababli ularni yetishtirishda umumiy yondashuv emas, balki ilmiy asoslangan, differensial yondashuv qo‘llanilishi zarur.

Donli ekinlar va ularning xususiyatlari: Donli ekinlar inson oziq-ovqat ratsionining asosini tashkil etadi hamda qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishida yetakchi o‘rinni egallaydi. Ushbu guruhga bug‘doy, arpa, sholi, makkajo‘xori, suli, javdar kabi ekinlar kiradi.

Bug‘doy – dunyo miqyosida eng keng tarqalgan oziq-ovqat ekini bo‘lib, un va non mahsulotlarining asosiy manbai hisoblanadi. Bug‘doy nisbatan unumdor, strukturali tuproqlarda yuqori hosil beradi, sho‘rlanishga o‘rtacha chidamli va mo‘tadil iqlim sharoitlarini xush ko‘radi. Sug‘oriladigan hududlarda intensiv texnologiyalar asosida yetishtirilganda hosildorligi sezilarli darajada oshadi.

Arpa – qisqa vegetatsiya davriga ega bo‘lib, qurg‘oqchilikka nisbatan chidamli ekin sanaladi. U ko‘pincha lalmikor hududlarda, shuningdek, yem-xashak sifatida chorvachilik ehtiyojlari uchun yetishtiriladi. Arpa tuproq unumdorligiga talabchan emas, sho‘rlangan maydonlarda ham nisbatan barqaror hosil beradi.

Sholi – suvga juda talabchan ekin bo‘lib, asosan sug‘oriladigan va suv bilan yaxshi ta’minlangan hududlarda yetishtiriladi. U sho‘rlangan yerlarni biologik melioratsiya qilishda ham muhim rol o‘ynaydi, chunki suv ostida yetishtirilishi tufayli tuproqdagi tuzlarning yuvilishiga yordam beradi.

Makkajo‘xori – ko‘p yo‘nalishli ekin bo‘lib, oziq-ovqat, yem-xashak va sanoat uchun xomashyo sifatida ishlatiladi. U issiqlikni yaxshi ko‘radi, unumdor tuproqlarda va yetarli sug‘orish sharoitida yuqori hosil beradi.

Texnik ekinlar va ularning ahamiyati: Texnik ekinlar sanoat tarmoqlari uchun xomashyo yetishtirishga xizmat qiladi. Bu guruhga paxta, kungaboqar, zig‘ir, shakar lavlagi, tamaki kabi ekinlar kiradi.

Paxta – O‘zbekiston qishloq xo‘jaligining strategik ekini bo‘lib, to‘qimachilik sanoati uchun asosiy xomashyo manbai hisoblanadi. Paxta issiqsevar, suvga va o‘g‘itlarga talabchan bo‘lib, asosan sug‘oriladigan hududlarda yetishtiriladi. U tuproqdan ko‘p miqdorda oziqa moddalari chiqarib ketgani sababli almashlab ekish tizimida beda va dukkakli ekinlar bilan almashlab yetishtiriladi.

Kungaboqar – yog‘li ekinlar guruhiga kirib, o‘simlik moyi ishlab chiqarishda muhim ahamiyatga ega. U qurg‘oqchilikka nisbatan chidamli, ildiz tizimi chuqur bo‘lib, tuproqning quyi qatlamlaridan nam va oziqa moddalari olish qobiliyatiga ega.

Zig‘ir – tolali va moyli ekin sifatida yetishtiriladi. U sovuqqa chidamli bo‘lib, nisbatan nam iqlim sharoitlarini xush ko‘radi.

Dukkakli ekinlar va biologik ahamiyati: Dukkakli ekinlar (no‘xat, loviya, soya, mosh, beda) qishloq xo‘jaligida alohida o‘rin tutadi. Ularning asosiy xususiyati – ildiz tugunaklarida azot to‘plovchi bakteriyalar bilan simbiozda yashab, atmosferadagi azotni biologik shaklda tuproqqa o‘tkazish qobiliyatidir.

Bu jarayon tuproq unumdorligini tabiiy yo‘l bilan oshiradi, mineral o‘g‘itlarga bo‘lgan ehtiyojni kamaytiradi va keyingi ekinlarning hosildorligiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Shu sababli dukkakli ekinlar almashlab ekish tizimlarida muhim bo‘g‘in hisoblanadi.

Sabzavot-poliz ekinlari: Sabzavot va poliz ekinlari aholining vitaminlarga bo‘lgan ehtiyojini qondiradi va yuqori daromadlilik xususiyatiga ega. Ushbu guruhga kartoshka, pomidor, bodring, piyoz, sabzi, karam, qovun, tarvuz va boshqa ko‘plab ekinlar kiradi.

Bu ekinlar tuproq unumdorligiga, sug‘orish rejimiga va agrotexnika tadbirlariga juda talabchan. Sabzavot-poliz ekinlarini joylashtirishda sug‘orish imkoniyatlari, mehnat resurslari va bozor infratuzilmasi mavjudligi alohida hisobga olinadi.

Yem-xashak ekinlari: Yem-xashak ekinlari chorvachilikni rivojlantirishda muhim o‘rin tutadi. Beda, makkajo‘xori silosi, suliniy, esparset, javdar kabi ekinlar chorva uchun yuqori sifatli yem manbai hisoblanadi.

Beda ko‘p yillik dukkakli ekin bo‘lib, tuproqni azot bilan boyitadi, uning strukturasini yaxshilaydi va sho‘rlanishni kamaytiradi. Shu sababli u almashlab ekish tizimlarida muhim agroekologik rol o‘ynaydi.

Ko‘p yillik ekinlar: Ko‘p yillik ekinlarga mevali daraxtlar (olma, nok, shaftoli, o‘rik, gilos), uzumzorlar va yong‘oqzorlar kiradi. Ular bir joyda uzoq yillar davomida yetishtiriladi va yuqori kapital qo‘yilmalarni talab qiladi.

Ko‘p yillik ekinlar joylashtirilganda tuproqning chuqur qatlamlari holati, yer osti suvlarining sathi, iqlim sharoiti va logistika imkoniyatlari alohida e’tiborga olinadi.

Ekin turlarini to‘g‘ri tanlashning ahamiyati: Ekinlarni biologik xususiyatlarini hisobga olgan holda to‘g‘ri tanlash va joylashtirish quyidagi ijobiy natijalarga olib keladi:

- hosildorlikning barqaror oshishi;
- suv va o‘g‘itlardan foydalanish samaradorligining ortishi;
- ishlab chiqarish tannarxining kamayishi;
- tuproq unumdorligining saqlanishi;
- ekologik barqarorlikning ta’minlanishi.

Shu bois qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishini rejalashtirishda ekinlar turlari va ularning biologik hamda xo‘jalik xususiyatlarini chuqur tahlil qilish ilmiy asoslangan qarorlar qabul qilishning muhim sharti hisoblanadi.

Ekinlarni joylashtirishning ilmiy asoslari: Ekinlarni joylashtirish – bu qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishini hududiy tashkil etishning muhim tarkibiy qismi bo‘lib, qishloq xo‘jaligi ekinlarining alohida turlarini tabiiy, iqtisodiy va tashkiliy omillarni hisobga olgan holda hududlar, xo‘jaliklar va yer konturlari bo‘yicha maqsadga muvofiq taqsimlash jarayonidir. Mazkur jarayon yer resurslaridan samarali foydalanish, ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish, hosildorlikni oshirish va ekologik muvozanatni saqlashga qaratilgan kompleks ilmiy-amaliy tadbirlar tizimini o‘z ichiga oladi.

Ekinlarni joylashtirish ilmiy asosda amalga oshirilmagan taqdirda, dehqonchilik tizimida nomutanosiblik yuzaga keladi, tuproq unumdorligi pasayadi, suv resurslari samarasiz sarflanadi hamda ishlab chiqarish tannarxi oshib boradi. Shu sababli zamonaviy agrar siyosatda ekinlarni joylashtirish masalasi strategik ahamiyatga ega bo‘lib, u nafaqat alohida xo‘jaliklar, balki butun hudud va mamlakat miqyosida oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashga xizmat qiladi.

Hududning tabiiy-iqlim sharoitini hisobga olish: Ekinlarni joylashtirishda eng asosiy omillardan biri hududning tabiiy-iqlim sharoitidir. Har bir ekin turi ma’lum harorat rejimi, namlik darajasi, vegetatsiya davri davomiyligi va yorug‘lik miqdoriga muhtoj bo‘ladi. Masalan, g‘alla ekinlari mo‘tadil harorat va nisbatan qisqa vegetatsiya davriga moslashgan bo‘lsa, paxta va sholi kabi ekinlar yuqori harorat va uzoq vegetatsiya davrini talab qiladi.

Iqlim sharoitlari quyidagi ko‘rsatkichlar orqali baholanadi:

- o‘rtacha yillik va vegetatsiya davridagi harorat;
- yog‘ingarchilik miqdori va taqsimlanishi;
- bug‘lanish darajasi;
- shamol tezligi va yo‘nalishi;
- ekstremal ob-havo hodisalari (qurg‘oqchilik, sovuq urish, jazirama issiq).

Mazkur ko‘rsatkichlar ekinlarning joylashtirilishi, ekish muddati, nav tanlash va agrotexnik tadbirlarni rejalashtirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Masalan, qurg‘oqchil hududlarda suvga talabchan ekinlarni keng maydonlarda joylashtirish iqtisodiy jihatdan samarasiz bo‘lib, suv tanqisligini yanada kuchaytiradi. Shu bois bunday hududlarda qurg‘oqchilikka chidamli va kam suv

talab qiluvchi ekinlar ustunlik qilishi lozim.

Tuproq unumdorligi va meliorativ holatini baholash: Tuproq qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishining asosiy biologik poydevori bo‘lib, uning fizik, kimyoviy va biologik xususiyatlari ekinlarning hosildorligiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Tuproq unumdorligi gumus miqdori, oziqa moddalari zaxirasi, mexanik tarkibi, struktura holati, namlik sig‘imi va mikrobiologik faollik bilan belgilanadi.

Ekinlarni joylashtirishda quyidagi tuproq ko‘rsatkichlari hisobga olinadi:

- ❖ mexanik tarkibi (qumli, qumoq, loyqa va boshqalar);
- ❖ gumus miqdori;
- ❖ tuproq reaksiyasi (pH);
- ❖ sho‘rlanish darajasi;
- ❖ yer osti suvlarining chuqurligi;
- ❖ eroziya darajasi.

Meliorativ holati yomon bo‘lgan, ya’ni sho‘rlangan yoki botqoqlashgan yerlarni yuqori talabchan ekinlar bilan band qilish hosildorlikning pasayishiga olib keladi. Bunday hududlarda sho‘rga chidamli yoki meliorativ ahamiyatga ega ekinlarni (beda, sholi, ayrim yem-xashak ekinlari) joylashtirish maqsadga muvofiqdir. Tuproqni hisobga olgan holda joylashtirilgan ekinlar o‘g‘itlardan foydalanish samaradorligini oshiradi va tuproq degradatsiyasining oldini oladi.

Suv resurslari bilan ta’minlanganlik darajasi: Sug‘oriladigan dehqonchilik sharoitida suv resurslari ekinlarni joylashtirishning eng muhim cheklovchi omillaridan biridir. Har bir ekinning vegetatsiya davrida suvga bo‘lgan ehtiyoji turlicha bo‘lib, u agroiqlim sharoiti, tuproq turi va sug‘orish texnologiyasiga bog‘liq holda o‘zgaradi.

Suv resurslari bilan ta’minlanganlik quyidagilar orqali baholanadi:

- suv manbalarining mavjudligi va barqarorligi;
- sug‘orish tarmoqlarining texnik holati;
- suvni taqsimlash va boshqarish tizimi;
- sug‘orish usullari (an’anaviy, tomchilatib, yomg‘irlatib).

Suv tanqis sharoitida suvga talabchan ekinlarni cheklash, suvni tejovchi texnologiyalarni joriy etish va almashlab ekish tizimi orqali suv iste’molini muvozanatlash muhim hisoblanadi. Ilmiy asosda tashkil etilgan ekin joylashtirish suv resurslaridan foydalanish samaradorligini sezilarli darajada oshiradi.

Ilmiy asosda joylashtirilgan ekinlarning natijalari: Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishida ekinlarni ilmiy asosda joylashtirish nafaqat agrotexnik tadbirlarning muhim tarkibiy qismi, balki ishlab chiqarishning umumiy samaradorligini belgilovchi strategik omil hisoblanadi. Yer resurslarining cheklanganligi, suv tanqisligi, iqlim o‘zgarishi va antropogen bosimning kuchayib borishi sharoitida ekinlarni tasodifiy yoki faqat an’anaviy tajribaga asoslanib joylashtirish kutilgan iqtisodiy natijalarni bermaydi. Aksincha, ilmiy asoslangan yondashuv tuproq-iqlim sharoitlari, meliorativ holat, suv ta’minoti, biologik talablar hamda bozor ehtiyojlarini kompleks hisobga olish orqali barqaror va yuqori samaradorlikka erishish imkonini yaratadi.

Ilmiy asosda joylashtirilgan ekinlar tizimi tuproq unumdorligini saqlash va oshirish, hosildorlikni barqarorlashtirish, ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish, ekologik muvozanatni saqlash hamda qishloq xo‘jaligi mahsulotlari raqobatbardoshligini ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi. Quyida mazkur tizimning asosiy natijalari ilmiy jihatdan tahlil qilinadi.

Hosildorlikning barqaror va yuqori darajada ta’minlanishi: Ekinlarning tabiiy-iqlim sharoitlariga mos hududlarda joylashtirilishi ularning biologik salohiyatini to‘liq namoyon etish imkonini beradi. Har bir ekin turi ma’lum harorat rejimi, namlik darajasi, yorug‘lik miqdori va vegetatsiya davriga bo‘lgan ehtiyojga ega. Mazkur talablar inobatga olinmagan holda ekin joylashtirilganda o‘simliklarning o‘sishi sustlashadi, kasallik va zararkunandalarga chidamliligi pasayadi hamda hosil miqdori keskin kamayadi.

Ilmiy yondashuv asosida joylashtirilgan ekinlar esa agroiqlimiy resurslardan samarali foydalanadi. Masalan, issiqlikni ko‘p talab qiluvchi texnik ekinlar quyosh nuri yetarli bo‘lgan hududlarda, namsevar sabzavot ekinlari esa sug‘orish imkoniyati yuqori bo‘lgan maydonlarda joylashtiriladi. Natijada fotosintez jarayoni faollashadi, o‘simliklarning ildiz tizimi yaxshi

rivojlanadi va hosil elementlarining shakllanishi optimal sharoitda kechadi.

Bundan tashqari, almashlab ekish tizimi bilan uyg‘unlashgan joylashtirish hosildorlikning yilma-yil keskin tebranishini oldini oladi. Tuproqdagi ozuqa moddalari muvozanati saqlanadi, fitosanitar holat yaxshilanadi va ekinlarning stress omillarga chidamliligi ortadi. Shu sababli ilmiy asosda tashkil etilgan tizim hosildorlikni nafaqat oshiradi, balki uni barqarorlashtiradi.

Resurslardan foydalanish samaradorligining oshishi: Qishloq xo‘jaligida suv, mineral o‘g‘itlar, yoqilg‘i-moylash materiallari, urug‘lik, mehnat resurslari kabi omillar ishlab chiqarish tannarxining asosiy qismini tashkil etadi. Ekinlarni noto‘g‘ri joylashtirish ushbu resurslarning behuda sarflanishiga, ayrim hollarda esa ekologik zarar yetkazilishiga olib keladi.

Ilmiy asoslangan joylashtirishda har bir ekinning suvga bo‘lgan ehtiyoji, ildiz tizimining chuqurligi, oziqlanish xususiyatlari va vegetatsiya davomiyligi hisobga olinadi. Masalan, suv tanqis hududlarda kam suv talab qiluvchi yoki qisqa vegetatsiyali ekinlar joylashtirilishi orqali sug‘orish xarajatlari kamaytiriladi. Shu bilan birga, tomchilatib sug‘orish yoki yomg‘irlatib sug‘orish kabi zamonaviy texnologiyalarni joriy etish uchun qulay sharoit yaratiladi.

O‘g‘itlardan foydalanish ham ilmiy rejalashtirilganda yuqori samara beradi. Dukkakli ekinlar joylashtirilgan maydonlarda biologik azot to‘planadi, natijada keyingi ekinlar uchun mineral azotli o‘g‘itlarga bo‘lgan ehtiyoj kamayadi. Bu esa nafaqat iqtisodiy foyda keltiradi, balki tuproq va yer osti suvlarining nitratlar bilan ifloslanishining oldini oladi.

Texnika harakati optimal rejalashtirilgan massivlarda yoqilg‘i sarfi kamayadi, texnikaning eskirishi sekinlashadi va mehnat unumdorligi ortadi. Shu tariqa ilmiy asosda joylashtirilgan ekinlar resurslardan foydalanish samaradorligini sezilarli darajada oshiradi.

Ishlab chiqarish tannarxining pasayishi: Ekinlarni joylashtirishning ilmiy asoslangan tizimi ishlab chiqarish xarajatlarini optimallashtirish imkonini beradi. Resurslarning tejalishi, texnika ishlatilishining samarali tashkil etilishi, kasallik va zararkunandalarga qarshi kurash xarajatlarining kamayishi ishlab chiqarish tannarxining pasayishiga olib keladi.

Masalan, bir xil agrotexnik talablarga ega ekinlarning bir hududda jamlanishi texnologik jarayonlarni standartlashtirish imkonini yaratadi. Bu esa texnika sozlash vaqtini qisqartiradi, ishchi kuchidan foydalanishni soddalashtiradi va qo‘shimcha xarajatlarni kamaytiradi.

Bundan tashqari, tuproqning meliorativ holati hisobga olingan holda ekin joylashtirilganda drenaj va sho‘r yuvish ishlari hajmi optimallashtiriladi. Natijada keraksiz meliorativ xarajatlar qisqaradi va yerlarning ishlab chiqarish salohiyati uzoq muddat saqlanadi.

Tannarxning pasayishi mahsulot narxining raqobatbardoshligini oshiradi, eksport salohiyatini kuchaytiradi va fermer xo‘jaliklarining moliyaviy barqarorligini ta’minlaydi.

Xo‘jalik daromadlarining oshishi: Hosildorlikning ortishi va tannarxning pasayishi bevosita xo‘jaliklarning sof foydasiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Ilmiy asosda joylashtirilgan ekinlar tizimi daromadlarni nafaqat ko‘paytiradi, balki ularni barqarorlashtiradi.

Bozor talabi hisobga olingan holda ekin tarkibining shakllantirilishi yuqori rentabelli mahsulotlar ulushini oshiradi. Masalan, sabzavot va meva yetishtirish uchun qulay hududlarda intensiv bog‘dorchilik va issiqxona xo‘jaliklarini rivojlantirish orqali qisqa muddatda yuqori daromad olish mumkin.

Daromadlarning barqarorlashuvi qishloq aholisi farovonligini oshiradi, yangi ish o‘rinlari yaratilishiga zamin hozirlaydi va hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini tezlashtiradi.

Tuproq degradatsiyasi va sho‘rlanishining kamayishi: Tuproq - qishloq xo‘jaligining asosiy ishlab chiqarish vositasi bo‘lib, uning degradatsiyaga uchrashi ishlab chiqarish barqarorligiga jiddiy xavf tug‘diradi. Ilmiy asosda joylashtirilgan ekinlar tizimi tuproqni muhofaza qilishning eng samarali vositalaridan biridir.

Bir xil ekinning uzoq yillar davomida bir maydonda yetishtirilishi tuproqdagi ozuqa moddalari balansining buzilishiga, mikrobiologik faollikning pasayishiga va strukturaning yomonlashishiga olib keladi. Almashlab ekish bilan uyg‘unlashgan joylashtirish esa ushbu salbiy jarayonlarni bartaraf etadi.

Dukkakli va yem-xashak ekinlarining kiritilishi tuproqni organik moddalarga boyitadi, strukturani yaxshilaydi va sho‘rlanish jarayonini sekinlashtiradi. Shuningdek, tuproqni yopiq holda ushlab turuvchi ekinlar eroziyaning oldini oladi.

Meliorativ jihatdan zaif hududlarda sho‘rga chidamli ekinlarning joylashtirilishi yerlarning qishloq xo‘jaligi muomalasidan chiqib ketishini oldini oladi va ularni qayta ishlab chiqarish jarayoniga jalb etadi.

Ekologik muvozanatning saqlanishi: Zamonaviy qishloq xo‘jaligi nafaqat iqtisodiy, balki ekologik barqarorlikni ham ta’minlashi lozim. Ilmiy asosda joylashtirilgan ekinlar agroekotizimlarning tabiiy muvozanatini saqlashga xizmat qiladi. Ekin turlarining xilma-xilligi biologik xilma-xillikni oshiradi, foydali hasharotlar va mikroorganizmlar populyatsiyasini qo‘llab-quvvatlaydi. Pestitsidlardan foydalanish kamayadi, natijada atrof-muhitning kimyoviy ifloslanishi cheklanadi.

Xulosa: Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishida ekinlarni ilmiy asosda joylashtirish tizimi zamonaviy agrar taraqqiyotning muhim tarkibiy qismi bo‘lib, u nafaqat alohida xo‘jalik subyektlari faoliyatining samaradorligini oshirishga, balki butun agrar tarmoqning barqaror rivojlanishini ta’minlashga xizmat qiladi. Tadqiqotlar va amaliy tajribalar shuni ko‘rsatadiki, yer resurslaridan oqilona foydalanish, ekinlar turlarini hududlarning tabiiy-iqlim, tuproq-meliorativ, suv xo‘jaligi hamda iqtisodiy sharoitlariga mos ravishda joylashtirish qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishining barqarorligi va raqobatbardoshligini belgilovchi asosiy omillardan biridir.

Ilmiy asoslangan joylashtirish tizimi avvalo hosildorlik ko‘rsatkichlarining izchil va barqaror oshishiga olib keladi. Har bir ekin turining biologik xususiyatlari, vegetatsiya davri, oziqa moddalarga bo‘lgan talabi, suvga ehtiyoji va iqlim omillariga moslashuv darajasi hisobga olingan holda joylashtirilishi o‘simliklarning genetik salohiyatini to‘liq namoyon etish imkonini beradi. Bu esa bir tomondan yalpi qishloq xo‘jaligi mahsuloti hajmining ortishiga, ikkinchi tomondan esa mahsulot sifatining yaxshilanishiga xizmat qiladi. Sifatli va barqaror hosil esa ichki bozor ehtiyojlarini qondirish bilan bir qatorda eksport salohiyatining kengayishiga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Ekinlarni ilmiy asosda joylashtirishning muhim natijalaridan yana biri resurslardan foydalanish samaradorligining sezilarli darajada oshishidir. Suv resurslari, mineral va organik o‘g‘itlar, yoqilg‘i-moylash materiallari, texnika va mehnat resurslari qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishida eng katta xarajatlarni talab etuvchi omillar hisoblanadi. Ularni oqilona rejalashtirish va aniq maqsadli yo‘naltirish orqali ishlab chiqarish tannarxini pasaytirish, ortiqcha sarf-xarajatlarning oldini olish va xo‘jaliklarning moliyaviy barqarorligini mustahkamlash mumkin bo‘ladi. Ayniqsa, suv tanqisligi tobora kuchayib borayotgan hozirgi sharoitda suvni kam talab qiluvchi ekinlarni mos hududlarda joylashtirish, zamonaviy sug‘orish texnologiyalarni joriy etish va suvdan foydalanish madaniyatini oshirish strategik ahamiyat kasb etadi.

Ishlab chiqarish tannarxining pasayishi bevosita xo‘jaliklarning iqtisodiy natijalarida o‘z aksini topadi. Xarajatlarning qisqarishi va hosildorlikning oshishi sof foydaning ko‘payishiga, investitsiya imkoniyatlarining kengayishiga hamda qishloq xo‘jaligi subyektlarining kreditga layoqatliligini oshirishga xizmat qiladi. Bu esa o‘z navbatida yangi texnologiyalarni joriy etish, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish va qayta ishlash sanoatini rivojlantirish uchun qulay sharoit yaratadi. Natijada agrar sohada qo‘shilgan qiymat zanjiri kengayadi, qishloq hududlarida bandlik darajasi oshadi va aholining turmush farovonligi yaxshilanadi.

Ilmiy asosda joylashtirilgan ekinlar tizimi tuproq unumdorligini saqlash va tiklash jarayonlarida ham muhim ahamiyatga ega. Tuproqning degradatsiyaga uchrashi, sho‘rlanish, eroziya va gumus miqdorining kamayishi ko‘plab mintaqalarda qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishining asosiy cheklovchi omillaridan biriga aylanmoqda. Almashlab ekish tizimining to‘g‘ri tashkil etilishi, dukkakli va yem-xashak ekinlarining keng joriy qilinishi, organik moddalarning tuproqqa qaytarilishi tuproqning fizik, kimyoviy va biologik xususiyatlarini yaxshilaydi. Bu esa yer resurslarining uzoq muddatli ishlab chiqarish salohiyatini saqlab qolish va kelajak avlodlar uchun sog‘lom agroekotizimni ta’minlash imkonini beradi.

Ekologik nuqtayi nazardan ham ilmiy asosda joylashtirilgan ekinlar tizimi alohida ahamiyatga ega. Qishloq xo‘jaligi faoliyati atrof-muhitga bevosita ta’sir ko‘rsatadigan tarmoq bo‘lib, noto‘g‘ri tashkil etilgan ishlab chiqarish tuproq, suv va havo muhitining ifloslanishiga, biologik xilma-xillikning kamayishiga olib kelishi mumkin. Ekinlarni hududlarning tabiiy imkoniyatlariga mos ravishda joylashtirish, kimyoviy vositalardan me’yorida foydalanish, ekologik toza texnologiyalarni

qo‘llash agroekotizimlarning barqarorligini ta’minlaydi. Natijada tabiiy resurslarning tiklanish qobiliyati saqlanib qoladi, inson salomatligi uchun xavf tug‘diruvchi omillar kamayadi.

Ilmiy asosda tashkil etilgan ekinlarni joylashtirish tizimi oziq-ovqat xavfsizligini mustahkamlashda ham muhim rol o‘ynaydi. Aholi sonining ortib borishi, urbanizatsiya jarayonlarining tezlashuvi va global bozorlar beqarorligi sharoitida ichki oziq-ovqat ishlab chiqarishni barqaror saqlash har bir davlat uchun strategik vazifa hisoblanadi. Turli guruhdagi ekinlarni muvozanatli joylashtirish orqali asosiy oziq-ovqat mahsulotlari – don, sabzavot, meva, o‘simlik yog‘i va oqsil manbalarini yetarli hajmda ishlab chiqarish imkoniyati yaratiladi. Bu esa importga qaramlikni kamaytiradi, narxlarning keskin tebranishini oldini oladi va aholi uchun ijtimoiy barqarorlikni ta’minlaydi.

O‘zbekiston sharoitida ushbu masala alohida dolzarblik kasb etadi. Mamlakat hududining katta qismi qurg‘oqchil iqlim zonasida joylashganligi, sug‘oriladigan yerlarning ustunligi, suv resurslarining cheklanganligi va tuproq sho‘rlanishining keng tarqalganligi ekinlarni joylashtirishga ilmiy yondashuvni talab etadi. Paxta va g‘alla yetishtirishning strategik ahamiyatini saqlab qolgan holda, sabzavotchilik, bog‘dorchilik, yem-xashak va dukkakli ekinlar ulushini oshirish orqali ekinlar tarkibini diversifikatsiya qilish respublika qishloq xo‘jaligi barqarorligini mustahkamlashga xizmat qiladi. Bunda hududlarning tabiiy resurslari va ixtisoslashuvi hisobga olinishi muhimdir.

Shuningdek, iqlim o‘zgarishi sharoitida ekinlarni joylashtirishning moslashuvchan mexanizmlarini ishlab chiqish zarur. Haroratning ko‘tarilishi, yog‘ingarchilik rejimining o‘zgarishi, ekstremal ob-havo hodisalarining ko‘payishi qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishiga bevosita ta’sir ko‘rsatmoqda. Shu bois qurg‘oqchilikka chidamli, qisqa vegetatsiya davriga ega va yuqori moslashuvchan navlarni joriy etish, suvni tejovchi texnologiyalarni keng qo‘llash va agrotexnik tadbirlarni ilmiy asosda rejalashtirish muhim strategik vazifalardan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Yer kodeksi. Toshkent, 1998.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qishloq xo‘jaligini rivojlantirishga oid farmon va qarorlari to‘plami. Toshkent.
3. Ergashev X. Almashlab ekish tizimlari va ularning samaradorligi. Toshkent: Agrar nashr, 2020.
4. Avezbaev Sadulla, Sharipov Sayfuddin Raximovich, Yer tuzishning nazariy asoslari O‘quv qo’llanma. Toshkent -2021. 169 b
5. Chertovitskiy A. S., Bazarov A. K. Upravleniye zemlepolzovaniyem. Toshkent, 2009, 3766.
6. Varlamov A. A., Galchenko S. A. Upravleniye zemelnimi resursami. Uchebnoye posobiye. M. GUZ, 2008. -2 4 0 s.
7. Avezbaev Sadulla, Sharipov Sayfuddin Raximovich, Yer tuzishni loyihalash. O‘quv qo’llanma. Toshkent -2021. 177 b.

YER TURLARINI VA ALMASHLAB EKISHNI TASHKIL ETISH

J.Ch.Urinov
Qarshi davlat texnika universiteti

Annotatsiya: *Mazkur maqolada qishloq xo‘jaligi korxonalarida yer turlarini tashkil etish hamda almashlab ekish tizimini ilmiy asosda shakllantirish masalalari yoritilgan. Yer resurslaridan oqilona foydalanish, ularning tarkibi va nisbatini belgilash, yerlarni transformatsiyalash hamda meliorativ, ekologik va agrotexnik tadbirlarni amalga oshirishning ahamiyati tahlil qilingan.*

Kalit so‘zlar: Yer resurslari, yer turlari, almashlab ekish, haydalma yerlar, pichanzorlar, yaylovlar, daraxtzorlar, melioratsiya, tuproq unumdorligi, eroziya, qishloq xo‘jaligi yerlari, yerlarni transformatsiyalash, agroekologik yondashuv.

Qishloq xo‘jalik korxonasida xo‘jalikda ichki yer asosiy vazifalaridan biri yer turlari va almashlab ekishni tashkil etish hisoblanadi. Uni yechish jarayonida quyidagilar aniqlanadi:

har bir yer uchastkasining xo‘jalikdagi vazifasi va foydalanish tartibi;

ayrim yer turlaridan va yer uchastkalaridan foydalanishning intensivlik darajasi;

almashlab ekishlar tizimi, yerlarni yaxshilash va konservatsiyalash, tuproqlar unumdorligini saqlash va qayta tiklash, hududni meliorativ, tabiatni muhofaza kilish uchun va eroziyaga qarshi tuzish;

yer uchastkalaridan foydalanish me'yorlari, tartibi va sharoitlari.

Yer turlarini va almashlab ekishni tashkil etish deganda ularning asoslangan tarkibini, nisbatini, xududda xo‘jalik maqsadiga muvofiq joylashtirilishi va tabaqalashtirib foydalanilishi tushuniladi. Bu bir necha ajralmas bog‘liq masalalarini yechishni taqozo etadi.

1. Yer turlari tarkibini (tuzulishini) va nisbatini, ulardan foydalanish tartibi va sharoitlarini belgilash.

2. Yer turlarini transformatsiyalash, yaxshilash va joylashtirish.

3. Almashlab ekish tizimini tashkil etish.

Yer turlari va almashlab ekishni tashkil etish-ning asosiy maqsadi - yer egalari va yerdan foydalanuvchi-larning iqtisodiy manfaatlarini hisobga olish asosida yerdan foydalanish intensivligini oshirish va samarador-ligini o‘stirish imkoniyatlarini aniqlash. Bunda ekologik talablarga qattiq rioya qilish kerak, sababi, aks holda tuproqlar unumdorligi pasayadi, ularda eroziya va buzilish jarayonlari rivojlanadi.

Loyihada vazifalar yechiladi: 1. Xo‘jalikning barcha yerlaridan ularning tabiiy xususiyatlariga, yer turlari va ekin maydonlarining optimal tarkibini tanlash, yer turlarini yaxshilash buyicha tadbirlar majmuasini ishlash yuli bilan yer egalari va yerdan foydalanuvchilarning iqtisodiy manfaatlariga mos tarzda oqilona foydalanishni tashkil etish.

2. Yerlarni unumsizlanish va buzilishdan himoya qilish, tuproqlarning yo‘qotilgan unumdorligini tiklash, hududning ekologik turg‘unligini ta'minlash maqsadida melioratsiya, eroziyaga qarshi va tabiatni muhofazalash tadbirlari tizimini ta'minlash.

3. Yer turlarining mayda konturliligini va parcha-lanishini tugatish, tuproq unumdorligidagi farqlarni kamaytirish, melioratsiya va madaniy-texnik tadbirlarini asosli o‘tkazish, yer turlarini to‘g‘ri transformatsiyalash va almashlab ekishlarni joylashtirish, yerlarni kompleks tarzda madaniylashtirish hisobiga ekologik va agrotexnik jihatdan bir xil yer massivlarini yaratish.

4. Dehqonchilikning, xo‘jalik yuritishning ilg‘or tizimlarini joriy etish, ozuqa bazasini tashkil etish, tuproqlar unumdorligini oshirish uchun qulay tashkiliy-xududiy sharoitlar yaratish.

5. Sharoitlar yaratish:

xo‘jalikni va uning ishlab chiqarish bo‘limlarini optimal ixtisoslashtirish, mehnatni samarali tashkil etish, qishloq xo‘jalik texnikalari unumdorligini oshirish uchun;

yer turlarini transformatsiyalash, yaxshilash va joylashtirish bilan bog‘liq kapital xarajatlar samaradorligini oshirish uchun;

ishlab chikarishning transport va boshqa xarajatla-rini maksimal qisqartirish uchun.

Yuqorida sanab o‘tilgan masalalarni yechish ulardan foydalanish va ularni muxofaza qilishning mavjud tizimlarini, ularning xo‘jalikdagi yangi iqtisodiy vazifalarni yechish uchun yaroqliligini baholashga, yerlarni ularning har xil turdagi qishloq xo‘jalik yerlari (haydalma yerlar, daraxtzorlar, pichanzorlar, yaylovlar) va ekinlari uchun yaroqliligi bo‘yicha baholashga taalluqli tayyorgarlik ishlari materiallarini taxlil qilish va ularga aniqlik kiritishdan boshlanadi.

Keyin maxsus tartibda va sharoitlarda foydalaniladigan yerlar aniqlanadi va ular plan asoslarga tushiriladi.

Keyinchalik xo‘jalik yerlari ularni melioratsiyalash, madaniy - texnik tadbirlarni o‘tkazish, qishloq xo‘jalik yerlari maydonlarini kengaytirish, ularning tarkibini va joylashishini yaxshilash imkoniyatlari nuqtai nazaridan o‘rganiladi. Bunday ishlarning ob'ektlari - botqoqliklar, chakalakzorlar, jarliklar, sho‘rhaklar, ortiqcha namlangan va yovvoyi o‘simliklar qoplagan qishloq xo‘jalik yerlari bo‘lishi mumkin.

Undan keyin ko‘llar, hovuzlar, har xil melioratsiya va suv xo‘jaligi inshootlari, kichik sug‘orish uchastkalari hamda xo‘jalikdagi ichki qurilish va asosiy yo‘llar uchun zarur yerlarning maydoni aniqlanadi va ular ajratiladi. Haydalmaydigan yerlarda ihota darahtlari tizimi loyihalanadi, jarliklar va chuqur-liklar yonida o‘rmon polosalari, to‘la daraxtlar bilan qoplanadigan uchastkalar joylashtiriladi, haydalma yer-lardagi ihota darahtlari polosalarining taxminiy may-doni aniqlanadi. Va nihoyat, konservatsiyalanishi, qishloq xo‘jaligida foydalanishdan chiqarilishi, ko‘p yillik o‘tlar

bilan qoplanib o‘tloklashtirilishi kerak bo‘lgan uchastkalar belgilanadi.

Loyihalashning keyingi tartibi quyidagidek davom etadi:

1. Yerlarni ular qishloq xo‘jaligi uchun yaroqliligi (har xil ekinlar va yer turlari uchun) bo‘yicha baholash, izlanishlar va qidiruvlar materiallarini, uchastkalarni joylarda chuqur o‘rganish natijasida yerdan foydalanishni intensivlash imkoniyati izlanadi:

qishloq xo‘jalik va noqishloq xo‘jalik yerlarini haydalma yerlarga o‘zlashtirish, melioratsiyaning har xil turlarini qo‘llash hisobiga;

haydalma yerlar unumdorligini maqsadli oshirish va ular massivlarini sho‘r dog‘larini, ortiqcha namlangan joylarini, kirib qolgan chakalakzorlar, mayda o‘rmonlar, botqoqliklarni tugatish yo‘li bilan yiriklashtirish, sanatsiyalash yoki o‘g‘itlarning oshirilgan me’yorlarini qo‘llashni talab etadigan uchastkalarni ajratish hisobiga;

pichanzorlar va yaylovlar maydonlarini noqishloq xo‘jalik yerlari hisobiga kengaytirish bilan;

yem-xashak olinadigan yerlarni tubdan va yuzaki yaxshilash, sug‘orish, quritish, madaniy-texnik tadbirlarni o‘tkazish hisobiga;

1. Daraxtzorlarni (bog‘lar, uzumzorlar, rezavorzorlar) qayta tiklash hisobiga.

Transformatsiyalash plani va yerlarning taxminiy eksplikatsiyasi 2 muddatga tuziladi, hisoblangan va bashoratlangan.

Tavsiya etilayotgan yechimlar ko‘rsatkichlar tizimi yordamida asoslanishi kerak.

Xo‘jaliklarda yerdan foydalanish har xil, yer turla-riga bog‘liq holda amalga oshiriladi. Har xil yer turlari-ni tavsiflovchi asosiy belgilar - ularning mo‘ljallangan maqsadlari, ta-biiy va yaratilgan xususiyatlari.

Yer turlarini klassifikatsiyalash ularning mo‘ljal-langan maqsadlari va doimiy foydalanishini hisobga olib o‘tkaziladi. Masalan, vaqtincha mollarni boqish uchun foydalanilayotgan pichanzor mollarni boqish uchun foyda-laniladigan o‘rmon singari yaylov deb hisoblanmaydi.

Shunday qilib, yer turlari deb o‘ziga xos tabiiy yoki yangidan yaratilgan xususiyatlarga ega, ma’lum ishlab chiqarish va boshqa maqsadlar uchun rejali va doimiy foydalaniladigan yer uchastkalariga aytiladi.

Yer turlari ikki asosiy guruhga - qishloq xo‘jaligi va noqiшloq xo‘jaligi, bo‘linadi. Birinchisiga qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini olish uchun doimiy foydalaniladigan yerlar kiradi. Ular haydalma yerlar, daraxtzorlar, partov, bo‘z yerlar, pichanzorlar va yaylovlarni o‘z ichiga oladi.

Haydalma yerlar - deb yuqori unumdor tuproqli, doimiy ishlanadigan va qishloq xo‘jalik ekinlarini ekish uchun foydalaniladigan yerlarga aytiladi. Haydalma yerlarga yerlarni yashil o‘g‘it sifatida ekilgan va tubdan yaxshilash uchun haydaladigan ekinlar egallagan yerlar hamda ekin ekish uchun foydalaniladigan bog‘ daraxtlari orasidagi yerlar kiritilmaydi.

Daraxtzorlar - sun’iy yaratilgan daraxtlar, chakalaklar yoki ko‘p yillik o‘t-o‘simlikla-ri uchun foydalaniladigan, meva-rezavor, texnika, yoki shi-fobahsh mahsulotlari hosilini olish uchun mo‘ljallangan qishloq xo‘jalik yer turlaridir. Darahtzorlar tarkibida bog‘lar, uzumzorlar, rezavorzorlar, meva ko‘chatxonalari, plantatsiyalar ajratiladi.

Partov (bo‘z) yerlar - bu oldin haydalma yer bo‘lib, keyin kuzdan boshlab bir yildan ko‘p qishloq xo‘jalik ekinlarini ekish uchun foydalanilmagan va toza shudgor (par) uchun qoldirilmagan yer uchastkalaridir.

Pichanzorlar - doimiy pichan o‘rish uchun foydalani-ladigan yer turlaridir. Pichanzorlar davlat standartlariga asosan suv bilan qoplanadigan, quruq, zaxlashgan, tubdan yaxshilangan, toza, har xil darajada chakalaklar, o‘rmon da-raxtlari va do‘ngliklar bilan qoplangan bo‘lishi mumkin.

Yaylovlar - doimiy chorva mollarini boqish uchun (bunday foydalanish asosiy hisoblanadi) foydalaniladi-gan hamda mollarni boqish uchun yaroqli, pichan o‘rish uchun foydalanilmaydigan va partov (bo‘z) yerlar hisoblanmagan yer turlaridir.

Yaylovlar quruq, batqoqlashgan, tubdan yaxshilangan, madaniy, haydab boqiladigan chorvachilik uchun, suv chiqa-rilgan, har xil darajada do‘ngliklar, chakalakzor va o‘rmon daraxtlari bilan qoplangan, ezilgan turlarga ajratiladi.

Tubdan yaxshilangan pichanzorlar va yaylovlar ustki chim qatlamini yo‘qotish va keyingi o‘tloqlashtirish yo‘li bilan yangi o‘simliklar qatlami yaratilgan uchastkalar hisoblanadi. Daryolar havzalarida va eroziya xavfi yuqori qiyaliklarda o‘tloqlashtirish chim qatlamini buzmasdan ham

bajarilishi mumkin.

Madaniy yaylovlarga zarur tadbirlar majmuasi o‘tkazilgan (tubdan yoki yuzaki yaxshilash), yaxshi o‘tlar qatlami yaratilgan, doimiy parvarishlanadigan, o‘g‘itlanadigan, mollarni qamab (me’yorli) boqish amalga oshiriladigan yaylovlar kiradi. Madaniy yaylovlar ko‘pchilik hollarda sug‘oriladi.

Qishloq xo‘jalik yerlari o‘zining tiplari va tuproqlar mexanik tarkibi, eroziyaga uchrash darajasi, sho‘rlanishi, madaniylashishi, toshloqligi bilan aniqlanadigan sifati ahvoli bo‘yicha bir-birlaridan keskin farq qilishi mumkin.

Noqishloq xo‘jalik yerlariga o‘rmonlar, chakalakzorlar, botqoqliklar, qurilishlar, inshootlar, yo‘llar, mollar haydaladigan yo‘llar, suv va boshqa yer turlari bilan band yerlar kiradi.

Noqishloq xo‘jalik yerlarining bir qismi ularni melioratsiyalash (sug‘orish, zax qochirish, sho‘rini yuvish), madaniy-texnik ishlar (chakalaklar va o‘rmon daraxtlarini olib tashlash), madaniylashtirish bo‘yicha tadbirlarni o‘tkazgandan keyin qishloq xo‘jaligida foydalanishga qo‘shilishi mumkin. Avvalo, bu suv muhofazalash ahamiyatiga ega bo‘lmagan chakalakzorlar va mayda o‘rmonlar, batqoqliklar, jarliklar majmuasi, sho‘rlangan yerlardir. 2000 yil 1 yanvar holatiga O‘zbekiston qishloq xo‘jalik yerlarining umumiy maydoni 26753,6 ming ga (umumiy maydonning 60,2%) egallaydi; haydalma yerlar - 4056,6 ming ga (9,1%); o‘rmon va chakalakzorlar - 1511,9 ming ga (3,4%); meliorativ qurilish tayyorgarligi holatidagi yerlar - 74,3 ming ga (0,2%); tomorqa yerlari va fuqarolarga jamoa bog‘dorchiligi va uzumchiligi uchun berilgan yerlar - 651, 4 ming ga (1,5%); boshqa yerlar - 15414,1 ming ga (34,7%).

Qishloq xo‘jalik yerlarining Respublikamiz umumiy yer maydonidagi salmog‘i nisbatan katta, shu sababli, ular-dan samarali foydalanishga erishish katta ahamiyatga ega.

Yer turlarining son va sifat tarkibi, foydalanilmayotgan yerlarni qishloq xo‘jaligida foydalanishga jalb etish har qanday xo‘jalikning va uning ishlab chiqarish bo‘limining ixtisosligiga katta ta’sir ko‘rsatadi. Boshqa tomondan, ixtisoslik, birinchi navbatda korxonaning iqtisodiy manfaatlarni aks ettirib, yer turlarining tarkibi va maydoniga aks ta’sir ko‘rsatadi. Masalan, sut-go‘sht yoki qo‘ychilik yo‘nalishidagi xo‘jaliklar yer turlari tarkibida ko‘proq yaylov va pichanzorlar, sug‘oriladigan madaniy ozuqa olinadigan yerlar, intensiv ozuqa almashlab ekishlari bo‘ladi. Dexqonchilik mahsulotlariga ixtisoslashgan korxonalarda, odatda, haydalma yerlar, bog‘dorchilik va uzumchilik xo‘jaliklarida esa - daraxtzorlar ko‘p bo‘ladi.

Yer turlarining tarkibi va nisbati chorva mollarini saqlash tizimiga ham bog‘liq bo‘ladi. Masalan, agar yozda mollar yaylovlarda saqlansa, yerlarni transformatsiyalash jarayonida ularning maydonlarini ko‘paytirish kerak. Yil davomida bog‘lab boqiladigan bo‘lsa, zarur hajmdagi yashil ozuqalar haydalma yerlardan olinishi kerak bo‘ladi.

Yer turlarining tarkibi va nisbati korxonaning tashkiliy-xo‘jalik tuzilishini, uning moliyaviy-iqtisodiy imkoniyatlarini, mehnat va moddiy resurslarning mavjudligini hisobga olib belgilanadi.

Yer turlari tarkibi va maydoniga asosiy ta’sirni hududning tabiiy xususiyatlari, yerlarning ayrim massivlari uchastkalarining farqi ko‘rsatadi, bu yer turlari tarkibini belgilashga, ularni transformatsiyalash va yaxshilashga tabaqalashgan yondoshuvni talab etadi.

Tog‘ va tog‘ oldi mintaqalarida haydalma yerlar jarliklar va chuqurliklar bilan bo‘lingan bo‘ladi; hudud qiyaliklarining har xilligi va nishabligi bilan murakkab relefga ega, bu suv eroziyasi xavfini kuchaytiradi. Bunday sharoitlarda quyidagilar nazarda tutiladi:

kuchli eroziyaga uchragan haydalma yerlarni o‘tloqlashtirish;

himoya o‘rmon polosalarining mavjudlarini ta’mirlash va yangilarini ekish;

kichik sug‘orish tizimlarini qurish, asosan, mahalliy suv manbaalarida;

qiyaliklarni terrasalash, keng asosli tuproq ko‘tarmalarini, suvni ushlab turuvchi dambalarni va boshqa gidrotexnik inshootlarni qurish;

tashkiliy-xo‘jalik, agrotexnik va boshqa eroziyaga qarshi tadbirlar tizimi, mollarni me’yorli boqish.

Bunday sharoitlarda yer turlarini tashkil etishning asosiy vazifasi - haydalma yerlar maydonining kamayishiga yo‘l qo‘ymaslik. Shu maqsadda, dehqonchilik va yem-xashak ekinlari uchun yaroqli maydonlar haydalma yerlarga o‘zlashtiriladi, ozuqa olinadigan yer turlari minimumga tushiriladi, ular haydashga yaroqsiz uchastkalar va chuqurliklarga joylashtiriladi.

Sug‘orma dehqonchilik mintaqalarida haydalma yerlarga o‘zlashtirish uchun yer zaxiralari kam qolgan. Shuning uchun yer turlari tarkibini va maydonlarini belgilashda, birinchi navbatda e’tibor, asosan, sho‘rlangan yerlarni melioratsiyalash hisobiga tuproqlar unumdorligini oshirishga va shamol eroziyasining oldini olishga qaratiladi.

Mazkur mintaqada odatda quyidagi tadbirlar ko‘zda tutiladi: Ihota daraxtlari polosalari tizimini yaratish, sho‘rlangan yerlarni melioratsiyalash, dalalar sathini tekislash, dala yo‘llarini va hududni jihozlashning boshqa injenerlik ob’ektlarini qurish.

Quruq cho‘l hamda yarim sahro mintaqalarida qishloq xo‘jalik yerlari maydoni yerlarni sug‘orish imkoniyatlaridan va ularning qishloq xo‘jalik ekinlarini ekish, daraxtzorlar va yaylovlar uchun yaroqliligidan kelib chiqib aniqlanadi.

Barcha vaziyatlarda yer turlari tarkibi va maydonla-rini aniqlashda tayyorgarlik ishlari va hududni yer tuzish o‘rganishi jarayonlarida olingan yerlarning agroekologik guruhlar va yer sinflariga bo‘lingan har xil yer turlari uchun qishloq xo‘jaligida yaroqliligini baholash ma’lumot-laridan foydalaniladi. Bu, yer tuzishda adaptiv yondoshuv-ni amalga oshirish uchun zarur. Bunday yondashuvda har bir ajratilgan yer uchastkasi o‘zining tabiiy xususiyatlari bo‘yicha ularda joylashtirila-digan yer turlariga, qishloq xo‘jalik ekinlariga, qo‘llani-ladigan dehqonchilik tizimlariga mos bo‘lishi kerak.

Yer turlarining tarkibini va maydonlarini belgilash xo‘jalikning iqtisodiy manfaatlarini aks ettiradiganuvchi maxsus tabiiy sharoitlarni talab etuvchi yoki tabiatni muhofaza qilish talablarini bajarish bilan bog‘liq yer turlaridan boshlanadi.

Xulosa: Qishloq xo‘jaligi korxonalarida yer turlarini to‘g‘ri tashkil etish hamda almashlab ekish tizimini ilmiy asosda joriy etish yer resurslaridan oqilona va samarali foydalanishning eng muhim omillaridan biri hisoblanadi. Yer - qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishining asosiy ishlab chiqarish vositasi bo‘lib, uning miqdori cheklangan, ammo ahamiyati juda katta. Shu sababli yer resurslaridan foydalanishda iqtisodiy samaradorlik bilan bir qatorda ekologik barqarorlikni ham ta’minlash muhim vazifa hisoblanadi. Yer turlarining to‘g‘ri tashkil etilishi qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishining samaradorligini oshirish, tuproq unumdorligini saqlash va tiklash, ekologik muvozanatni ta’minlash hamda hududlardan kompleks foydalanish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Yer turlarini tashkil etish jarayoni qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishining hududiy tashkil etilishi bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, u yer resurslarining tabiiy xususiyatlari, tuproq tarkibi, relef, iqlim sharoiti, suv bilan ta’minlanganlik darajasi, shuningdek xo‘jalikning ishlab chiqarish yo‘nalishi va ixtisoslashuvini hisobga olgan holda amalga oshiriladi. Yer turlarining tarkibi va nisbati xo‘jalikning iqtisodiy manfaatlari, mavjud moddiy-texnika bazasi, mehnat resurslari va ishlab chiqarish infratuzilmasi bilan chambarchas bog‘liqdir. Shu boisdan yer turlarini tashkil etishda hududning agroekologik xususiyatlarini chuqur o‘rganish, har bir yer uchastkasining ishlab chiqarish imkoniyatlarini aniqlash va ulardan eng maqbul tarzda foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Raximov V.R, Babajanov A.R. Davlat kadastri asoslari. Toshkent, TTU 2012. 132 b.

2. Babajanov A.R., Rahmonov Q., G‘ofirov A.J. Yer kadastri / O‘quv qo‘llanma. Toshkent, «Cho‘lpon», 2014. 168 b.

3. Babajanov A.R., Ro‘ziboev S.B., Tulaganov I.B. «Tuman yer hisoboti (balansi) ni tuzish» metodik ko‘rsatma, Toshkent, TIMI, 2008 y. 53 b.

4.Chertovitskiy A. S., Bazarov A. K. Upravleniye zemlepolzovaniyem. Toshkent, 2009, 3766.

5. Varlamov A. A., Galchenko S. A. Upravleniye zemelnimi resursami. Uchebnoye posobiye. M. GUZ, 2008. -2 4 0 s.

6. Avezbaev Sadulla, Sharipov Sayfuddin Raximovich, Yer tuzishni loyihalash. O‘quv qo’llanma. Toshkent -2021. 177 b.

7. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 23-apreldagi “Ma’muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash, yer resurslarini xatlovdan o‘tkazish hamda yaylov va pichanzorlarda geobotanik tadqiqotlarni o‘tkazish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 299-sonli qarori.

UDK 332.3:631.6

YERLARNI TAQSIMLASH VA QAYTA TAQSIMLASHNING SUG‘ORILADIGAN EKIN YERLARIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGIGA TA’SIRI

Xolov N.M.
“O‘zdavyerloyiha” davlat ilmiy-loyihalash instituti

Annotatsiya. *Tezisda Qashqadaryo viloyati misolida yerlarni taqsimlash va qayta taqsimlash jarayonlarining sug‘oriladigan ekin yerlaridan foydalanish samaradorligiga ta’siri tahlil qilinadi. Tahlil natijalariga ko‘ra, irrigatsiya-melioratsiya tadbirlarini kengaytirish, suv manbalaridan oqilona foydalanish hamda sug‘oriladigan ekin yerlarini asossiz ravishda boshqa maqsadlarga ajratishni cheklash yer resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirishda muhim omil hisoblanadi. Shuningdek, qayta taqsimlash jarayonida yetkaziladigan qishloq xo‘jaligi zararlarini to‘liq qoplash mexanizmlarini kuchaytirish sug‘oriladigan yerlarni muhofaza qilish va barqaror ishlab chiqarishni ta’minlashga xizmat qilishi asoslab beriladi.*

Kalit so‘zlar. Yerlarni taqsimlash, baholash, sug‘orish, yer resurslari, yer fondi, toifa, tahlil, qayta taqsimlash, o‘zgartirish, samara, ekin yerlari.

Kirish. Viloyat iqtisodiyoti tarmoqlarini bugungi bozor talablariga javob beradigan darajada rivojlantirish, jumladan qishloq xo‘jaligi, sanoat va transport sohalarini yuksaltirish, aholi punktlarini kengaytirish, birinchi galda, ularning yer ta’minotini yaxshilash bilan uzviy bog‘liqdir. Bunda yuqorida qayd qilingan tarmoqlar o‘rtasidagi yer taqsimotini mavjud holatini o‘rganish, baholash hamda bunday taqsimotni takomillashtirish yo‘llarini izlash va qidirib topish bo‘yicha tegishli ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqish o‘zining dolzarbligi bilan ajralib turadi.

Tadqiqot natijalari va ilmiy munozara. Yer resurslari viloyat iqtisodiyotining barqaror rivojlanishida muhim o‘rin tutadi. Aholi sonining o‘sishi, sanoat va transport infratuzilmalarining kengayishi yer uchastkalariga bo‘lgan talabni oshirib, yerlarni taqsimlash va qayta taqsimlash jarayonlarini jadallashtirmoqda. Ushbu jarayonlarda sug‘oriladigan ekin yerlarining saqlanishi va ulardan samarali foydalanish alohida ahamiyat kasb etadi.

Qashqadaryo viloyati misolida olib borilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, so‘nggi yillarda sug‘oriladigan ekin maydonlari miqdor jihatdan oshgan bo‘lsa-da, ularning sifat ko‘rsatkichlari pasayish tendensiyasiga ega. Bu holat yuqori unumdor sug‘oriladigan yerlarning noqishloq xo‘jaligi maqsadlari uchun ajratilishi hamda yer fondi toifalarini o‘zgartirish jarayonida yetarli iqtisodiy va hududiy asoslarning mavjud emasligi bilan bog‘liq.

Shu sababli yerlarni taqsimlash va qayta taqsimlash jarayonida sug‘oriladigan ekin yerlarini ustuvor ravishda muhofaza qilish, ularni boshqa toifalarga o‘tkazishni qat’iy asoslash hamda yetkazilgan qishloq xo‘jaligi zararlarini to‘liq qoplash mexanizmlarini kuchaytirish zarur. Bu yondashuv sug‘oriladigan ekin yerlaridan foydalanish samaradorligini oshirishga va viloyat iqtisodiyotining barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 17-iyundagi PF-5742-sonli Farmoniga muvofiq “Qishloq xo‘jaligida yer va suv resurslaridan samarali foydalanish konsepsiyasi”ni qabul qilinishi va amalga kiritilishi, unda ko‘zda tutilgan tadbirlarni viloyatda ham amalga oshirishga kirishish ayniqsa sug‘oriladigan ekin maydonlariga bo‘lgan munosabatni tubdan o‘zgartirdi. Buni ushbu, 1-jadvaldagi ma’lumotlardan ham ko‘rish mumkin.

1-jadvalda keltirilgan bashorat ko‘rsatkichlari yerlarni taqsimlash va qayta taqsimlash jarayonlari sug‘oriladigan ekin yerlaridan foydalanish samaradorligiga bevosita ta’sir ko‘rsatishini tasdiqlaydi. Yer resurslarini qayta taqsimlashda sug‘oriladigan ekin yerlarini ustuvor saqlash, meliorativ tadbirlarni kuchaytirish hamda suv manbalaridan oqilona foydalanish viloyatda qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishining barqarorligini ta’minlovchi asosiy omillardan biri hisoblanadi.

Darhaqiqat, 2-jadval ma’lumotlaridan ko‘rish mumkinki, 2020-yilda 2016-yilga nisbatan jami ekin yerlarining maydonini tuman bo‘yicha 203,0 gektarga, ko‘p yillik daraxtzorlar maydonini 86,0 gektarga, jami qishloq xo‘jaligi yer turlarining maydoni 457,0 gektarga kamayganligini va, aksincha, tomorqa yerlari maydonini 134,0 gektarga, boshqa yer turlari maydonini esa 323,0 gektarga oshganligini kuzatish mumkin.

1-jadval

2020 — 2030 yillarda qishloq xo‘jaligi yerlaridan foydalanish samaradorligini oshirish bo‘yicha amalga oshiriladigan chora-tadbirlarning bashorat ko‘rsatkichlari

Hudud nomi	Jami	Shu jumladan						
		Qishloq xo‘jaligida foydalanilmayotgan sug‘oriladigan yerlarni foydalanishga kiritish hisobidan	Shundan irrigatsiya-melioratsiya tadbirlari		Yer osti suvidan foydalanish hisobidan	Boshqa suv manbalari hisobidan	Lalmi, yaylov va boshqa yerlarga suv talab qilmaydigan ekin turlarini joylashtirish hisobidan	O‘rmon yerlarini foydalanishga kiritish hisobidan
			1-bosqich 2019-2021 yillar	2-bosqich 2022-2024 yillar				
G‘uzor	34 467	7 600	5 470	2 130	2 690		24 077	100
Dehqonobod	40 248	452	100	352		1 600	37 396	800
Qamashi	32 946	4 075	1 965	2 110	3 190		24 181	1 500
Qarshi	9 468	5 427	2 800	2 627	1 070		2 821	150
Koson	28 838	14 383	4 370	10 013	1 980		12 425	50
Kasbi	2 638	2 638	688	1 950				
Kitob	10 497	574	574		1 380		7 543	1 000
Mirishkor	8 863	6 960	3 725	3 235			1 873	30
Muborak	13 947	11 767	4 917	6 850			1 980	200
Nishon	9 760	9 710	5 949	3 761				50
Chiroqchi	78 065	3 730	1 797	1 933	19 408	4 900	49 627	400
Shahrisabz	5 287				2 284		2 603	400
Yakkabog‘	14 349	2 180	1 120	1 060	6 930	400	4 539	300
Jami:	**289 373**	**69 496**	**33 475**	**36 021**	**38 932**	**6 900**	**169 065**	**4 980**

Izoh: O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 17-iyundagi PF-5742-son Farmoniga 3-ILOVA

Sug‘oriladigan yerlarda ham huddi shu qonuniyatni kuzatish mumkin. 2025-yilga kelib holat bir muncha o‘zgargan. Ya’ni 2020-yilga nisbatan 2025-yilga kelib ekin yerlarining maydoni 418,0 gektarga ko‘paygan, ko‘p yillik daraxtzorlar maydoni 10,0 gektargagina kamaygan. Tomorqa yerlar va boshqa yer turlarining maydonlari yaylovlar va pichanzorlar yerlari hisobiga 11,0 va 76,0 gektarga ko‘paygan. Ushbu davr ichida sug‘oriladigan ekin yerlarining maydonlari ham anchagina (433,0 gektarga) o‘sgan.

2-jadval

Qarshi tumani bo‘yicha asosiy yer turlari maydonlarini o‘zgarish dinamikasi

№	Asosiy yer turlari	2016-yil		2020-yil		2025-yil		2025-yilda 2016-yilga nisbatan jami yerlarni o‘zgarishi +,- ga
		Jami	Jami sug‘ori-ladigan	Jami	Jami sug‘ori-ladigan	Jami	Jami sug‘ori-ladigan	
1	Ekin yerlari	43 812	40 693	43 609	40 502	44 027	40 935	242
2	Ko‘p yillik daraxtzorlar	2 656	2 656	2 570	2 570	2 560	2 560	-96
3	Bo‘z yerlar	817	-	756	-	755	-	-
4	Yaylov va pichanzorlar	18 130	-	18 043	-	17 549	-	-
5	Jami qishloq xo‘jaligi yerlari	65 435	43 349	64 978	43 072	64 891	43 495	143
6	Tomorqa yerlar	5 887	4 678	6 021	4 769	6 032	4 770	92
7	Boshqa yer turlari	20 311	781	20 634	781	20 710	781	0
Tuman jami:		**91 633**	**48 808**	**91 633**	**48 622**	**91 633**	**49 046**	**238**

Izoh: O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligining Davlat kadastrlari palatasi ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

Xulosa. Yerlarni taqsimlash va qayta taqsimlash jarayonlari sug‘oriladigan ekin yerlaridan foydalanish samaradorligiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Sug‘oriladigan yerlarni asossiz ravishda boshqa toifalarga o‘tkazishni cheklash, irrigatsiya-melioratsiya tadbirlarini kuchaytirish va suv resurslaridan oqilona foydalanish yer resurslaridan samarali foydalanishni ta’minlaydi. Ushbu yondashuv hududiy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi..

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 17-iyundagi “Qishloq xo‘jaligida yer va suv resurslaridan samarali foydalanish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5742-son Farmoni

2. Babajonov A.R., Muqimov A.M., Sharipov S.R. Hududlarni rivojlantirish. Toshkent, TIQXMII, 2018, 324 b.

3. БабажановА.Р., Тураев Р.А., Рузибаев С.Б., Основы землепользования, Ташкент. Академнашр, 2020, 112 с

4. Xolov N.M. The Importance Of Land Distribution And Redistribution In The Development Of Regional Economic Sectors. // Eurasian Journal of Engineering and Technology (ISSN: 2795-7640). Volume 49. January 2026. P. 4-11.

5. O‘zbekiston Respublikasi yer resurslarining holati bo‘yicha Milliy hisobot. Toshkent, Kadastr agentligi, 2025, 106 b.

6. O‘zbekiston Respublikasi yer fondi. (2016-yil 1-yanvar holatiga). Toshkent, “Davyergeodezkadastr”, 2016, 132 b.

UDK: 631.47(575.3)

BAXMAL TUMANI TUPROQLARNING BALANDLIK BO‘YLAB TARQALISHI

M.A.Xudoynazarova
O‘zbekiston Milliy Universiteti

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Baxmal tumani hududida tarqalgan tuproqlar, ularning turlari, tarkibi, unumdorligi haqida ma’lumotlar berilgan.*

Kalit so‘zlar*: tuproq, gumus qatlam, unumdorlik, tarqalish, mintaqa, jigarrang tuproq, bo‘z tuproq.*

Kirish. Baxmal tumani tabiiy-geografik jihatdan murakkab va rang-barang landshaftlarga ega bo‘lib, uning tuproqlari balandlik mintaqalari bo‘yicha turlicha shakllanadi. Tog‘ va tog‘oldi hududlarida iqlim, o‘simlik qoplami hamda geologik sharoitlarning farqlanishi tuproq hosil bo‘lish jarayoniga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Shu bois, tumanning turli balandlik pog‘onalarida uchraydigan tuproq turlari o‘zining fizik-kimyoviy xususiyatlari, unumdorligi va qishloq xo‘jaligida foydalanish imkoniyatlari bilan bir-biridan ajralib turadi.

Mazkur mavzuni o‘rganish tuproq resurslaridan oqilona foydalanish, ekinlarni joylashtirish va meliorativ tadbirlarni belgilashda muhim ahamiyat kasb etadi. Baxmal tumanidagi tuproqlarning balandlik bo‘ylab tarqalishini tahlil qilish orqali hududning tabiiy imkoniyatlari va agroekologik sharoitlari haqida to‘liqroq tasavvur hosil qilish mumkin.

Materiallar va metodlar. Baxmal tumani Chumqor va Morguzar tizma tog`lari yonbag`irlarida va Sangzor vodiysida joylashgan. U balandlik belgilarining oshishiga bog`liq holda o`zgaradigan iqlimiy geomorfologik sharoit bilan bog`liq tuproq qoplamining xilma-xilligi bilan xarekterlanadi.

Balandlik mintaqalarga muvofiq bu yerda tipik va to`q tusli bo`z, jigarrang va och qo`ng`ir tuproqlar ketma-ket o`rin almashadi.

Sug`orma zona Tuyatortar kanali vodiysida Zarafshon daryosining III qayir usti terrasasida joylashgan. Tuproq qoplami asosan sug`orma dehqonchilikda foydalaniladigan tipik bo`z tuproqlardan iborat.

Tipik bo`z tuproqlar tuproq hosil bo`lish jarayonida qatnashmaydigan grunt suvlarining chuqurda yotishida rivojlanadi. Shu sababli tez eriydigan tuzlar va gips chuqur yuvilgan, karbonatliligi yuqori. Mexanik tarkibiga ko`ra o`rtacha qumoq. Sug`orma zonaning asosiy hududi sug`orma dehqonchilikda foydalaniladi. To`yinish elementlari – azot va fosfor. Faqat kalsiy bilan

ta’minlangan. Shunga qaramay tipik bo`z tuproqlar toifasiga kiradi, ya’ni sug`orishda va o`g`it berilganda yuqori hosil beradi. Hosildorlikning yana bir muhim sharti almashlab ekishni joriy etish hisoblanadi.

Lalmi yaylov zonasi rayonning asosiy hududini egallaydi va tog` etaklaridagi nishablikdan baland tog`largacha cho`zilgan. Quyi mintaqalar tipik va to`q tusli bo`z tuproqlar bilan , o`rta tog`lar va baland tog`lar jigarrang va och qo`ng`ir tuproqlar bilan band.

Tipik bo`z tuproqlar dengiz sathidan 700-800 m balandlikdagi tog` etaklaridagi nishabliklarni egallaydi. Bu tuproqlarning asosiy maydoni fizik-kimyoviy sharoitlari kabi relief bo`yicha kam qulay toifaga kiritiladi. Shu sababli lalmi dehqonchilikda foydalaniladi.

Mexanik tarkibiga ko`ra gilli va qumoq lyossli qatlamlar bilan uchraydi. Tikroq yonbag`irlar deyarli barcha qismi yuvilgan. Ularning unumdorligini tiklash uchun qoramol boqishni, hech bo`lmaganda alohida uchastkalarda ma’lum bir davrlarda ta’qiqlash hamda serildiz o`tlarni ekishni tavsiya etish zarur.

Toq tusli bo`z tuproqlar tipik, tipik bo`z tuproqlardan dengiz sathidan 800-1000 m balandlikdagi tog` oldi va past tog`li o`lkalarda tarqalgan. Ularning asosiy maydoni skletli va yemirilgan skletli tuproqlardan iborat. Lalmi yerlarda ishlov berishga yaroqli alohida tarqoq uchastkalar foydalaniladi.

Hududning katta qismi qo`shimcha yaylov sifatida foydalaniladi. Bu yerda qoramol boqishni ta’qiqlash hamda chimli o`tlarni ekish lozim. Bu nafaqat tuproqlar unumdorligini tiklaydi, balki yaylovlar mahsuldorligini ham oshiradi.

Jigarrang kam korbanatli tuproqlar dengiz sathidan 1000-1200 m balandlikda, o`rtacha balandlikda tog`larning quyi qismida tarqalgan.

Mexanik tarkibiga ko`ra lyossimon va skletli qumoq qatlamlar qumoqlardan gilli qatlamlargacha o`zgaradi. Bu tuproq hududining asosiy qismi eroziya jarayonlariga uchragan. Bu yerda muhim tadbir shuningdek tabiiy daraxt-buta o`simliklarining qayta tiklash va qoramol boqishni taqiqlash yo`li orqali eroziyaga qarshi kurashish mumkin.

Jigarrang tipik tuproqlar balandligi 1200-1800 m bo`lgan o`rtacha balandlikdagi tog`larning yuqori qismidagi archazor o`rmonlar tagida joylashgan bo`lib, bu yerda yog`inlar miqdori pastki mintaqadagidan sezilarli oshadi. Bu bilan bog`liq jigarrang tipik tuproqlar 40-60 sm chuqurlikda korbanatlardan yuvilgan. Mexanik tarkibiga ko`ra gilli va qumoqli.

Pastda yotgan jinslar tog` jinslarining delyuvial va elyuviallaridan iborat.gumus miqdorining yuqoriligi bilan farq qiladi(4 % dan ortiq).

Baland tog` och qo`ng`ir o`tloq-dasht tuproqlari dengiz sathidan 1800-2000 m bo`lgan baland tog` mintaqasida kichik maydonlarni egallaydi. Barcha joylarda skletliligi va yuvilganligi bilan harakterlanadi.

Yog`inlarning ko`pligi noyob yer bag`irlab o`sadigan archa turlari bilan xilma-xil o`tloq-dasht o`simliklari rivojlanishiga imkon beradi.

Ushbu hudud yozgi yaylov sifatida foydalaniladi. Yuqorida aytib o`tilgan tuproq tiplaridan tashqari rayon hududida qishloq xo`jaligida foydalanmaydigan maydonlar ajratilgan. Unga soylarning qumli-shag`alli o`zanlari va hakozalar kiritilgan.

Xo‘jalikda foydalanishning xilma-xilligi shuningdek balandlik mintaqalarining o`zgarishi bilan bog`liq rayon hududi o`simlik qoplami katta tavafutga ega.

Sug`oriladigan tipik bo`z tuproqlar bilan band sug`orma zona yavvoyi o`simliklarga boy. Ular orasida asosiy turlari qiyoq, g`umoy, olabuta (sho`ra), ituzum, yantoq hisoblanadi.

Lalmi-yaylov zonada 700-800 m balandlikdagi tog` oldilarida efemerlar va efemeroid o`simlik qoplami mavjud. Ular orasida eng keng tarqalgani cho`l qiyoqi, qo`ng`irbosh, qo`ziquloq, prangos, iris hisoblanadi. Ko`p yillik o`tlardan kuzipiya, shuvoq o‘sadi.

Tog‘ oldining asosiy hududi lalmi yerlarda donli ekinlarda foydalaniladi. Yanada tikroq yonbag`irlar skletli tuproqlarda qoramol boqishda foydalaniladi.

Dengiz sathidan 800-1000m balandlikdagi past tog`larda efemer, efemeroid qoplam saqlangan holda bahorda ko`p yillik o`tlar tarkibi o`zgaradi va boyib boradi. Ulardan eng keng tarqalgani poramis va flomus hisoblanadi.

Ortacha baland tog`larning quyi qismida 1000-1200 m balandlikda o`simlik qoplamida

butalar bilan birga bo`tako`z, kovrak, qo`ziquloq keng tarqalgan.

1200-1800 m balandlikdagi o`rta tog`larning yuqori qismlarida o`simlik turlari orasida yorongul, g‘umay, archa daraxtlari tagida o`rmon pireyi keng tarqalgan.

Baland tog`larning o`simlik qoplami yer bag`irlab o`suvchi archaning yagona turlari bo`lgan tog‘lik kserofitlariga ega o`tloq va dasht o`simliklaridan iborat.

Tog` oldi – lalmi rayoni uchun asosiy ekin sifatida bug`doy va arpa qabul qilingan. Lalmiyerlarda g`alla yetishtirish uchun eng yaxshi yerlar yuvilmagan yoki kam yuvilgan joylardagi tipik bo`z tuproq mintaqasi hisoblanadi.

Ko`p yillik daraxtzorlar hosildorligining eng yuqori ko`rsatkichlari eskidan sug`oriladigan tipik bo`z tuproqlarda – Zarafshon daryosining qayir usti terrasalarida olingan.

Tipik va to`q tusli bo`z tuproqli yonbag`irlarda tokzorlar yaxshi hosil beradi, tog`ning yonbag`irlarida tokzorlar yaxshi hosil beradi, tog`ning yonbag`irlarida va tog` oldilarida issiqlikning kam miqdori bilan bog`zorlar yuqori hosilga ega.

Umumiy xulosada issiqroq bo`lgan tekislik va tog` oldining quyi qismlarida tokzorlarning kengtarqalishi bilan grunt suvlarning yanada yuqori sathini vujudga keltirishini tavsiya etiladi.

Baxmal tumani suv resurslariga uning daryolari, suvomborlari, kanal va ariqlardagi suvlar hamda yerosti suvlari kiradi. Tabiatda ichki suvlar geosistemalarning mustaqil komponentlaridan biri bo`lib, ular hududning faqat iqlim xususiyatlariga emas, balki joining relief xususiyatlariga ham mos ravishda shakllanadi.

Tumandagi mavjud daryo va soylarning asosiy to`yinish manbasi Chumqor va Morguzar tog`lardagi qorlar, yomg`ir va yer osti suvlaridir.

Turkiston tizmasining shimoliy qismidagi daryolarning oqim miqdori har kv km maydonga 3.3l/sek dan 11.7 l/sek gacha ortib boradi.

Tumanning eng yirik daryosi Sangzor daryosidir. Sangzor daryosi Chumqortog` va Morguzartog`laridan boshlanib, Guralash va Jontakaning bir-biriga qo`shilishidan hosil bo`ladi. U Morguzar tizmasi orqali aylanib o`tib Jizzax vohasiga yetib boradi. Daryoning umumiy uzunligi 123 km. Baxmal tumani suv bilan ta’minlanganlik darajasi bo`yicha viloyatda eng oxirgi o`rinlarda turadi. Chunki, Tuman hududining suv bilan ta’minlanishida ma’lum bir tanqislik mavjud. Tumanning bunday ko`rsatkichli darajada turishining boisi, 90 % maydonining tog`, tog` yonbag`ri va tog` oldi qirlaridan iboratliligi sababli suv kanallarini va quvurlarini o`tkazishda bir qancha noqulayliklar tug`ilishi, hamda hududdagi eng yirik suv manbai hisoblangan Sangzor daryosining vodiyning eng quyi qismidan oqib o`tishidir.

Lalmi yaylovlar zonasi rayonning asosiy qismini egallaydi va tog` etaklardagi nishabliklardan baland tog`largacha cho`zilgan. quyi mintaqalar tipik va to`q tusli bo`z tuproqlar bilan, o`rta tog`lar va baland tog`lar jigarrang va och qo`ng`ir tuproqlar bilan band.

To‘q bo`z tuproqlar zonasi Chumqor va Morguzar tog` etaklarida, hamda unga tutash bo`lgan qir va adirlarda, vodiyning yuqori va o`rta qismlarida tarqalgan. Bu mintaqa adir mintaqasining yuqori qismlarini, ya’ni dengiz sathidan 1000-1400 m oraliqdagi hududlarda uchraydi. Lalmi dehqonchilikning asosiy qismi ushbu to`q tusli bo`z tuproq zonasiga to`g`ri keladi. Tumandagi asosiy aholi punktlari ham shu tuproq zonasida. Masalan eng yirik aholi puktlaridan bo`lgan O`smat, Novqa, Mo`g`ol, Oqtosh va Baxmal shular jumlasidandir. To`q tusli bo`z tuproq zonasi Baxmal hududining nisbatan kamroq, ya’ni 15 % hududlarini egallaydi. Lekin ko`p yillik mevali bog`larning asosiy maydonlari va yalpi hosilning asosiy qismi ushbu hududga tog`ri keladi. Unda chirindi miqdori 2.5-4% atrofida. Bu hududlarda yana lalmi bug‘doy, arpa, no`xat, maxsar, uzum hamda mevalar yetishtirilmoqda.

Natijalar va ularning tahlili. Baxmal tumani tuproqlarining balandlik bo‘yicha tarqalishini o‘rganish natijalari shuni ko‘rsatadiki, hududda tuproq turlari balandlik pog‘onalariga qarab sezilarli darajada farqlanadi. Pasttekisliklarda asosan tipik bo‘z tuproqlar uchraydi, ular unumdorligi yuqori bo‘lib, don va sabzavot ekinlari uchun qulay sharoit yaratadi. Tog‘oldi hududlarida to‘q bo‘z tuproqlar shakllanib, bog‘dorchilik va uzumchilik uchun mos keladi.

Tumanda eng katta hududni egallagan zona bu jigarrang tuproqlar zonasidir. Bu zona Chumqor va Morguzar tog`larining yonbag`irlarini to`liq egallaydi. ular asosan dengiz sathidan 1400-2600 m bo`lgan joylarda uchraydi. Uning tarqalish maydoni taxminan 50 % atrofida. Bu

tuproq gumus miqdorining yuqoriligi bilan (4 % va undan ortiq) farq qilib turadi. Bu zonaning quyi qismlarida bog`dorchilik, yuqori qismlarida chorvachilik yaxshi yo`lga qo`yilgan.

Tahlil jarayonida quyidagi omillar muhim rol o‘ynadi:

- *Iqlim sharoiti:* balandlik ortishi bilan harorat pasayib, yog‘in miqdori ortadi, bu esa tuproq hosil bo‘lish jarayonini o‘zgartiradi.
- *O‘simlik qoplami:* pasttekisliklarda ekin maydonlari ko‘p bo‘lsa, tog‘oldi va tog‘larda tabiiy o‘simliklar tuproq tarkibini belgilaydi.
- *Geologik tuzilish:* tog‘ jinslarining xilma-xilligi tuproqlarning fizik-kimyoviy xususiyatlariga ta’sir ko‘rsatadi.

Xulosalar. Baxmal tumani tuproqlarining balandlik bo‘ylab tarqalishini o‘rganish shuni ko‘rsatadiki, hududning tabiiy-geografik sharoitlari tuproq hosil bo‘lish jarayonida hal qiluvchi omil hisoblanadi. Pasttekisliklarda unumdorligi yuqori bo‘lgan bo‘z tuproqlar, tog‘oldi hududlarida esa turli darajadagi tipik bo‘z va qo‘ng‘ir tuproqlar shakllanadi. Baland tog‘ mintaqalarida esa tuproq qoplami nisbatan yupqa, unumdorligi past bo‘lib, asosan tabiiy o‘simliklar bilan qoplangan.

Bu xilma-xillik tuman qishloq xo‘jaligi uchun katta imkoniyatlar yaratadi: pasttekisliklarda don va sabzavot ekinlari samarali yetishtirilsa, tog‘oldi hududlari bog‘dorchilik va uzumchilik uchun qulaydir. Shu bilan birga, tuproqlarning balandlik bo‘yicha tarqalishini chuqur o‘rganish meliorativ tadbirlarni to‘g‘ri belgilash, tuproq unumdorligini saqlash va ekologik muvozanatni ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Ҳасанов И.А., Ғуломов П.Н. Ўзбекистон табиий географияси (2-qism). – Тошкент, 2006.

2. Nomozov X.Q., Turdimetov Sh. M. O‘zbekiston tuproqlari va ularning evolyutsiyasi.- Toshkent, 2016.

3. Said Azim. Baxmalnoma. Sangzor, 2001.

UDK: 332.2:631.4:502/504(575.1)

TOSHKENT VILOYATI YER RESURSLARIDAN OQILONA FOYDALANISH

Sh.Suyunova
O‘zbekiston Milliy Universiteti

Annotatsiya. Ushbu maqola viloyat yer resurslarini boshqarishni takomillashtirish negizida yerdan foydalanishni boshqarish tizimi samaradorligini oshirishga qaratilgan. Yer tabiiy resurs, umummilliy boylik sifatida jamiyat hayotida uning iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanishi yo‘lida siyosiy, huquqiy jihatdan kelajakda yerdan foydalanish istiqbollari hisobga olingan holda takomillashuvi muhim hisoblanadi.

Kalit so‘zlar: *Yer resurslarini boshqarish, yerdan foydalanish, yer hisobi, Davlat yer nazorati, yer va kadastr nazorati, yer islohoti, yer fondi*

Kirish. Toshkent viloyati O‘zbekistonning iqtisodiy va ijtimoiy hayotida muhim o‘rin tutadi. Bu hududda yer resurslari qishloq xo‘jaligi va sanoat rivojlanishining asosiy omili hisoblanadi. Yer resurslaridan oqilona foydalanish masalasi bugungi kunda dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Viloyat hududida yerlarning unumdorligini saqlash va oshirish barqaror taraqqiyot uchun zarurdir. Yer resurslarini noto‘g‘ri ishlatish ekologik muvozanatga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Shu bois, yerlarni maqsadli va samarali ishlatish davlat siyosatining muhim yo‘nalishidir. Toshkent viloyatida qishloq xo‘jaligi yerlaridan oqilona foydalanish oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlaydi. Shuningdek, sanoat va qurilish uchun ajratilgan yerlarning to‘g‘ri boshqarilishi iqtisodiy o‘sishga xizmat qiladi. Yer resurslarini muhofaza qilish ekologik barqarorlikni ta’minlashda muhim ahamiyatga ega. Hududda suv resurslari bilan bog‘liq yerlarni samarali ishlatish hosildorlikni oshiradi. Yer resurslaridan oqilona foydalanish aholining turmush darajasini yaxshilashga yordam beradi. Bu jarayonda ilmiy tadqiqotlar va innovatsion texnologiyalar muhim rol o‘ynaydi. Yer resurslarini boshqarishda davlat va mahalliy hokimiyat organlarining hamkorligi zarurdir. Oqilona foydalanish orqali kelajak avlodlar uchun tabiiy boyliklarni asrab qolish mumkin. Shu sababli, Toshkent viloyati yer resurslaridan oqilona foydalanish masalasi keng qamrovli tahlilni talab qiladi.

Materiallar va metodlar. Toshkent viloyati yer resurslaridan oqilona foydalanishni o‘rganishda turli materiallar va metodlardan foydalanildi. Tadqiqot jarayonida viloyatning tuproq xaritalari asosiy manba sifatida qo‘llanildi. Shuningdek, statistik ma’lumotlar O‘zbekiston Respublikasi Yer resurslari va davlat kadastri qo‘mitasidan olindi. Hududdagi qishloq xo‘jaligi yerlarining unumdorligi bo‘yicha dala kuzatuvlari o‘tkazildi. Yerlarning meliorativ holatini baholash uchun laboratoriya tahlillari amalga oshirildi. Suv resurslari bilan bog‘liq yerlarning samaradorligi gidrologik kuzatuvlar orqali o‘rganildi. Tadqiqotda GIS texnologiyalaridan foydalanilib, yerlarning elektron xaritalari tuzildi. Aerofoto va kosmik suratlar yordamida yerlarning hozirgi holati tahlil qilindi. Metod sifatida statistik tahlil va taqqoslash usullari qo‘llanildi. Yer resurslaridan foydalanish samaradorligini baholashda iqtisodiy ko‘rsatkichlar hisobga olindi. Qishloq xo‘jaligi hosildorligini aniqlash uchun dala tajribalari o‘tkazildi. Metodologiyada ekologik monitoring natijalari ham muhim o‘rin tutdi. Hududdagi yerlarning degradatsiya darajasi maxsus indekslar orqali baholandi. Tadqiqotda an’anaviy va zamonaviy metodlar uyg‘unlashtirildi. Olingan ma’lumotlar kompyuter dasturlari yordamida qayta ishlanib, tahlil qilindi. Metod sifatida ekspert suhbatlari va mahalliy aholining fikrlari ham inobatga olindi. Yer resurslaridan oqilona foydalanish bo‘yicha ilg‘or tajribalar o‘rganildi. Tadqiqotda ekologik xavfsizlik va iqtisodiy samaradorlik mezonlari birgalikda qo‘llanildi. Materiallar va metodlar tanlanishi tadqiqotning ilmiy asoslanganligini ta’minladi. Natijada Toshkent viloyati yer resurslaridan oqilona foydalanish bo‘yicha kompleks yondashuv ishlab chiqildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021- yil 24-fevraldagi “Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlardan foydalanish va muhofaza qilish tizimini takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-5006-sonli Qarorida belgilangan vazifalar, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 8-iyundagi “Yer munosabatlarida tenglik va shaffoflikni ta'minlash, yerga bo‘lgan huquqlarni ishonchli himoya qilish va ularni bozor aktiviga aylantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6243-sonli Farmonida belgilangan vazifalarni bajarish maqsadida, 2021-yil 24-fevraldagi PQ-5006-son va “Yer uchastkalaridan foydalanishda davlat nazorati samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2022-yil 21-fevraldagi PQ-138-son qarorlari ijrosini ta'minlash maqsadida Vazirlar Mahkamasining 2022 yil 14-apreldagi 183-sonli “Davlat yer va kadastr nazoratini amalga oshirish tartibi hamda Davlat geodeziya nazoratini amalga oshirish tartibi to‘g‘risidagi Nizomlarni tasdiqlash haqida”gi Qarori asosida Davlat yer va kadastr nazoratini amalga oshirish tartibi to‘g‘risidagi nizom 1-ilovaga muvofiq:

-davlat yer nazoratini mahalliy davlat hokimiyati organlari va maxsus vakolatli davlat organlari (Davlat soliq qo‘mitasi huzuridagi Kadastr agentligi, Qishloq xo‘jaligi vazirligi, ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish davlat qo‘mitasi) tomonidan amalga oshirish tartibi;

-davlat kadastr nazoratini Davlat soliq qo‘mitasi huzuridagi Kadastr agentligi tomonidan amalga oshirish tartibi;

-davlat yer va kadastr nazoratini amalga oshiruvchi maxsus vakolatli davlat organlarining vazifa va funksiyalari, ushbu organlar mansabdor shaxslari tarkibi, nazorat tadbirlari ishtirokchilari, ularning huquqlari va majburiyatlari, davlat yer va kadastr nazoratini tashkil etish va o‘tkazish tartibi;

-yerga oid huquqbuzarliklarni aniqlashda jamoatchilik nazoratini amalga oshirish va jamoatchilik nazorati subektlarini bazaviy hisoblash miqdorining o‘n foizi miqdoridagi pul mukofoti bilan rag‘batlantirish tartibi;

-davlat yer va kadastr nazorati natijasida huquqbuzarliklar aniqlangan taqdirda, aybdor shaxslarning javobgarligi masalasi belgilandi.

Xususan, davlat yer nazorati bo‘yicha Davlat soliq qo‘mitasi huzuridagi Kadastr agentligi – yer toifasidan qat'i nazar, barcha turdagi yer uchastkalariga bo‘lgan huquqlarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazmaslik holatlarini, yer uchastkalarining o‘zboshimchalik bilan egallab olinishi va ushbu yer uchastkalarida o‘zboshimchalik bilan imorat qurilishini aniqlash, yer uchastkasi chegaralarini o‘zboshimchalik bilan o‘zgartirishga yo‘l qo‘ymaslik choralarini ko‘rish, yer uchastkasidan maqsadli foydalanishi ustidan davlat nazoratini amalga oshirish bo‘yicha, Qishloq xo‘jaligi vazirligi – qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlardan foydalanishni tashkil etish va muhofaza qilish sohasida samarali davlat nazoratini amalga oshirish bo‘yicha, ekologiya va atrof muhitni muhofaza

qilish davlat qo‘mitasi – yerlarning ishlab chiqarish chiqindilari va boshqa chiqindilar, kimyoviy va radioaktiv moddalar, oqova suvlar bilan ifloslanishi, tabiatni muhofaza qilish, sog‘lomlashtirish, rekreatsiya maqsadidagi yerlardan, suv fondi yerlaridan foydalanish va ularni muhofaza qilish ustidan davlat nazoratini amalga oshirish bo‘yicha maxsus vakolatli davlat organlari hisoblanadi.

2-bob 9-bandiga muvofiq “Kadastr agentligi davlat kadastr nazorati bo‘yicha maxsus vakolatli davlat organi hisoblanadi” – deb belgilandi. Bundan tashqari 1-ilova 4-bob 14-bandiga asosan Kadastr agentligi va uning hududiy boshqarma va bo‘limlari xodimlarini yer va kadastr nazorati bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasining davlat inspektorlari sifatida e'tirof etildi. Toshkent viloyatida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 8- iyundagi “Yer munosabatlarida tenglik va shaffoflikni ta'minlash, yerga bo‘lgan huquqlarni ishonchli himoya qilish va ularni bozor aktiviga aylantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6243-sonli Farmoni hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 21-fevraldagi “Yer uchastkalaridan foydalanishda davlat nazorati samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-138-sonli Qarori ijrosini ta'minlash maqsadida “Toshkent viloyati hokimining, Toshkent viloyati prokurorining, Toshkent viloyati Ichki ishlar bosh boshqarmasi Toshkent viloyati Adliya boshqarmasining, Kadastr agentligi Toshkent viloyati boshqarmasining, Toshkent viloyati Arxiv ishlari boshqarmasining Qo‘shma farmoyishi” ishlab chiqildi. Qo‘shma farmoyishda Toshkent viloyatida davlat yer nazoratini yuritish hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 21-fevraldagi PQ-138-sonli Qarori ijrosini ta'minlashda yer uchastkalarini byerish haqidagi qarorlarni xatlovdan o‘tkazish, o‘zboshimchalik bilan egallangan yer maydonlarini hamda noqonuniy qurilmalarni aniqlash va ularni bartaraf etish bo‘yicha ishlarni tashlik etish maqsadida viloyatda Idoralararo doimiy ishchi guruh, viloyat tashkilotlaridan tuman(shahar)larga doimiy ishchi guruh, tuman(shahar)larda idoralararo doimiy ishchi guruhlar tashkil etildi.

Yer resurslarini boshqarish jarayonida davlat nazoratini yuritilishi davomida aniqlangan yer qonunbuzilish holatlari tizimli dastur asosida yuritilishini ta'minlash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 24-fevraldagi PQ-5006- sonli Qarori 10-bandiga asosan:

-yerga oid huquqbuzarliklarni aniqlash, hujjatlar to‘plamini shakllantirish va ularni ko‘rib chiqish monitoringini yuritish bo‘yicha “E-YER NAZORAT” avtomatlashtirilgan axborot tizimini yaratish;

-yerga oid huquqbuzarliklarni o‘z vakolatlari doirasida ko‘rib chiqish va natijalari to‘g‘risidagi ma'lumotlarni “E-YER NAZORAT” tizimiga kiritib borish maqsadida Qishloq xo‘jaligi vazirligi, ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo‘mitasi, Bosh prokuratura, Ichki ishlar vazirligi va Bosh prokuratura huzuridagi Majburiy ijro byurosining hududiy bo‘linmalari, sudlar hamda mahalliy davlat hokimiyati organlari axborot tizimiga integratsiya qilish; “E-YER NAZORAT” tizimining samarali ishlashini ta'minlash, yerlarni o‘zboshimchalik bilan egallab olish holatlarini aniqlashda jamoatchilik nazorati, nazoratchi inspektorlar va yer tuzuvchilarni rag‘batlantirish shuningdek, noqonuniy holatlar to‘liq bartaraf etilgunga qadar izchil nazorat olib borish mexanizmlarini nazarda tutgan holda Davlat yer va kadastr nazoratini amalga oshirish tartibi to‘g‘risidagi nizom loyihasini Vazirlar Mahkamasiga kiritish Kadastr agentligi zimmasiga yuklatildi. Yer uchastkalaridan oqilona foydalanish va ularni muhofaza qilish sohasida nazoratni yanada kuchaytirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 21-fevraldagi PQ-138-sonli Qarori 1-2-bandlariga asosan prokuratura organlari zimmasiga quyidagi qo‘shimcha vazifalar yuklatildi: -yer uchastkalarini ajratish, yangi yerlarni o‘zlashtirish hamda qishloq xo‘jaligi muomalasiga kiritish bilan bog‘liq respublika va mahalliy dasturlarda belgilangan tadbirlarning o‘z vaqtida va to‘liq ijro etilishi yuzasidan muntazam nazorat o‘rnatish;

-qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan va mo‘ljallanmagan yer uchastkalarini ajratishda Yer kodeksida belgilangan talablarga rioya qilinishini ta'minlash yuzasidan doimiy nazoratni amalga oshirish;

-mahalliy davlat hokimiyati organlarining qarorlarini ishlab chiqish, kelishish va ro‘yxatdan o‘tkazishning yagona electron

– «E-qaror» tizimini doimiy ravishda monitoring qilish hamda qonunchilik hujjatlariga muvofiq bo‘lmagan qarorlarga nisbatan ta'sir choralarini ko‘rib borish; -yer uchastkalarini o‘zboshimchalik bilan egallash va ulardan noqonuniy foydalanish holatlarini barvaqt aniqlash

hamda huquqbuzarlik sodir etgan shaxslarga nisbatan jazoning muqarrarligi ta'minlanishi ustidan qat'iy prokuror nazoratini o‘rnatish;

-yer to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlariga rioya etilishi ahvolini muntazam o‘rganib borish, sohada huquqni qo‘llashning yagona amaliyotini shakllantirish;

-ilg‘or xorijiy tajriba asosida yerdan oqilona foydalanish bo‘yicha takliflar tayyorlash;

-qishloq xo‘jaligini rivojlantirish va oziq-ovqat ta'minoti jamg‘armasi mablag‘lari, shuningdek, sohaga yo‘naltirilayotgan tegishli byudjetdan tashqari mablag‘lar, xalqaro moliya institutlari va xorijiy hukumat moliya tashkilotlari mablag‘lari maqsadli sarflanishini o‘rganib borishi. SHuningdek, Prokuratura organlari zimmasiga yuklangan qo‘shimcha vazifalar ijrosini samarali tashkil etish maqsadida Bosh prokuratura tarkibida 8 ta shtat birligidan iborat bo‘lgan “Yer resurslari talon-toroj qilinishining oldini olish boshqarmasi”, Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar prokuraturalarida esa umumiy soni 56 ta shtat birligidan iborat bo‘lgan “Yer resurslari talon-toroj qilinishining oldini olish bo‘limlari” tashkil etish vazifasi yuklatildi. YAngi tashkil etilayotgan Boshqarma va bo‘limlar prokuratura organlarining 32 ta, Qishloq xo‘jaligi vazirligi tizimining 15 ta, Suv xo‘jaligi vazirligi tizimining 7 ta, Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Agrosanoat majmui ustidan nazorat qilish inspektsiyasining 10 ta shtat birliklarini maqbullashtirish hisobidan shakllantirilishi belgilab qo‘yildi. Boshqarma va bo‘limlar O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 8 iyundagi PF-6243-son Farmoni bilan yer to‘g‘risidagi qonun buzilishi holatlarini barvaqt aniqlash va ularning oldini olishga qaratilgan faoliyatni muvofiqlashtirish bo‘yicha Bosh prokuratura va hududiy prokuraturalarga yuklatilgan vazifalarning ijro etib borilishini tashkillashtirish vakolatini yuritmoqdalar. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 21-fevraldagi PQ-138-sonli Qarori 6-bandiga asosan Qishloq xo‘jaligi vazirligi, Suv xo‘jaligi vazirligi, Transport vazirligi, enyergetika vazirligi, Sog‘liqni saqlash vazirligi, Oliy va o‘rta maxsus ta'lim vazirligi, Xalq ta'limi vazirligi, Maktabgacha ta'lim vazirligi, Madaniyat vazirligi, Sportni rivojlantirish vazirligi, Turizm va madaniy me'ros vazirligi, Ichki ishlar vazirligi, Mudofaa vazirligi, O‘rmon xo‘jaligi davlat qo‘mitasi, ekologiya va atrofmuhitni muhofaza qilish davlat qo‘mitasi, Davlat geologiya va minyeral resurslar qo‘mitasi, «Hududgazta'minot» AJ, «O‘ztransgaz» AJ, «O‘zbekiston temir yo‘llari» AJ, «O‘zbekiston milliy elektr tarmoqlari» AJ, «Hududiy elektr tarmoqlari» AJ: -uch oy muddatda o‘z tizimidagi korxona va tashkilotlarga tegishli bo‘lgan yer uchastkalarini xatlovdan o‘tkazish hamda keyinchalik doimiy ravishda yer uchastkalaridan samarali foydalanilishini o‘rganib borish; -har chorakda o‘ziga tegishli bo‘lgan yer uchastkalarini muhofaza qilish bo‘yicha amalga oshirilgan ishlar hamda aniqlangan noqonuniy holatlar bo‘yicha ma'lumotlarni Bosh prokuraturaga taqdim etib borish vazifasi yuklatildi. Mazkur bandda nazarda tutilgan vazirlik va idoralar rahbarlariga biriktirilgan yer uchastkalaridan maqsadli va oqilona foydalanilishi hamda ular talon-toroj qilinishining oldini olish bo‘yicha shaxsiy mas'uliyati yuklatildi.

Natijalar va ularning tahlili. Toshkent viloyatida davlat yer nazoratini Kadastr agentligi tomonidan yuritilishi natijasida yer qonunbuzilish xolatlari bo‘yicha aniqlangan yer qonunbuzilish holatlari - jami 1464 ta yoki 270,3 gektar. SHundan: 936 ta holatda 112,2 gektar turar uy-joylar (695 ta 85,2 gektar ekin yerda qurilgan), 338 ta holatda 108,7 gektar noturarjoylar (142 ta 43,9 gektar ekin yerda qurilgan), 190 ta holatda 49,4 gektar o‘zboshimcha egallab olish (43 ta 25,2 gektar ekin yer egallangan) holatlaridan iborat.

Yer qonunbuzilish holatlarini bartaraf etish bo’yicha byerilgan yozma ko’rsatmalar - jami 1164 ta bo‘lib, shundan:

-viloyat hokimligi va viloyat prokuraturasiga 18 ta ma'lumot byerildi;

-tuman (shahar) hokimlariga kiritilgan taqdimnomalar - 951 ta;

-prokuratura organlariga kiritilgan ma’lumotlar - 642 ta;

-sudlarga yuborilgan arizalar - 687 ta; -bartaraf etilganlar - 516 ta yoki 106 gektar (37 %) ni tashkil etadi

Toshkent viloyatida yer qonunchiligiga amal qilmaslik oqibatida ma'muriy jarima qo‘llash bo‘yicha “Ma'muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeks”(MJtK)ning 681 – moddasi Ko‘chmas mulkka bo‘lgan huquqlarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazishni amalga oshiruvchi organga yer uchastkasiga, bino va inshootga bo‘lgan huquqni davlat ro‘yxatidan o‘tkazish uchun o‘z vaqtida

murojaat etmaslik bo‘yicha jami 2 088 ta holatda 3 218 263 500 so‘m ma’muriy jarima qo‘llanilgan, shundan 448 238 853 so‘m jarimalar undirilgan. 2022 yil 04 yanvardan boshlab jami 285 ta holatda 704 160 000 so‘m ma’muriy jarima qo‘llanilgan. MJtKning 60-moddasi 2-qismi Yer uchastkalarini o‘zboshimchalik bilan egallab olish, shu jumladan ushbu yer uchastkalariga nisbatan qonuniy huquqlari mavjud bo‘lmagan holda ulardan foydalanish bilan jami 354 ta holatda 5 576 850 000 so‘m ma’muriy jarimalar qo‘llanilgan, shundan 28 300 000 so‘m jarimalar undirilgan. 2022 yil 04 yanvardan boshlab jami 121 ta holatda 1 897 750 500 so‘m ma’muriy jarima qo‘llanilgan. Toshkent viloyatida aniqlangan holatlar yuzasidan Sudga da'vo arizalari kiritish bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 08.06.2021 yildagi “Yer munosabatlarida tenglik va shaffoflikni ta'minlash, yerga bo‘lgan huquqlarni ishonchli himoya qilish va ularni bozor aktiviga aylantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF- 6243-sonli Farmoni asosida Kadastr agentligi Toshkent viloyati boshqarmasi tomonidan aniqlangan noqonuniy qurilmalarni buzdirish yuzasidan sud idoralariga jami 67 ta da'vo arizasi kiritilgan.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, yerda insoniyat yaralib unda jamiyat sifatida shakllanib kelmoqdaki, unga bugungi kungacha sezilarli darajada ta'sir etibgina qolmay kelajakda o‘z ehtiyojlarini shaxsiy mulkiy ashyo sifatida kafolotlovchi vosita sifatida munosabatga kirisha boshladi. Vaholanki yer iqtisodiy resurs sifatida takomillashuvidan oldin birinchi galda yer ishlab chiqarish vositasi sifatida insonlarni oziq-ovqat mahsulotlariga bo‘lgan talabini qondirishi lozim. Iqtisodiyot tarmoqlarining rivojlanishi xalq kundalik extiyojlarini ta'minlashi natijasida yerning bozor qiymatini yanada oshishiga olib keladi. Bu o‘z navbatida yerning iqtisodiy resurs sifatidagi ro‘lining ortishiga olib kelmoqda. Bunday sharoitda yer qonunchiligida teng huquqlilik asosida davlat nazoratini siyosiy, ijtimoiy, huquqiy hamda ekologik jihatdan tashkil etish maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Q.Rahmonov, SH.K.Narbaev, Z.M.Muqimov “Yer resurslarini boshqarish”, Toshkent – 2018, TIQXMMI o‘quv qo‘llanma;

2. A.R.Bobojonov, A.M.Muqumov, Z.X.Xafizova “Yerdan foydalanishda integratsion boshqaruv”, Toshkent – 2018, TIQXMMI o‘quv qo‘llanma;

3. https:// www.lex.uz;

4. https://nazorat.kadastr.uz

UDK 631.4

“LALMI DEHQONCHILIK HUDUDLARINING GEOGRAFIK JOYLASHUVI VA ULARNING HOSILDORLIGINI OSHIRISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNING ROLI”

M.T.Azimov

“O‘ZDAVYERLOYIHA” davlat ilmiy-loyihalash instituti

Annotatsiya. *Ushbu maqolada lalmi yerlarning tabiiy-geografik xususiyatlari, ularning dengiz sathidan balandlikka bog‘liq holda tarqalishi hamda namlik bilan ta’minlanish darajasi yoritilgan. Shuningdek, tuproq turlari shakllanishiga, ekinlar joylashuviga va lalmi yerlardan samarali foydalanishni tashkil etishga ta’siri tahlil qilingan.*

Kalit so‘zlar: Lalmi yerlar, dengiz sathidan balandlik, tabiiy namlik, yog‘ingarchilik, tuproq turlari, tog‘oldi mintaqa, baland tog‘ hududlari, eroziya, yer resurslari, qishloq xo‘jaligi samaradorligi.

Bugungi kunda yer resurslaridan oqilona va samarali foydalanish masalasi qishloq xo‘jaligi sohasining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Aholi sonining ortib borishi, oziq-ovqat mahsulotlariga bo‘lgan talabning oshishi hamda iqlim o‘zgarishi sharoitida mavjud yer maydonlaridan unumli foydalanish zarurati yanada kuchaymoqda. Ayniqsa, sug‘orish imkoniyati cheklangan cho‘l va adir hududlaridagi lalmi yerlar qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishida muhim o‘rin tutadi.

Cho‘l va adir mintaqalaridagi lalmi yerlar asosan tabiiy yog‘ingarchilik hisobiga foydalaniladi. Ushbu hududlarda yog‘in miqdorining kamligi, namlikning notekis taqsimlanishi,

tuproq unumdorligining pastligi hamda shamol va suv eroziyasi kabi omillar dehqonchilik samaradorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Shu bilan birga, mazkur yerlar katta maydonni egallashi va to‘g‘ri agrotexnik tadbirlar qo‘llanilganda barqaror hosil olish imkoniyatining mavjudligi ularni iqtisodiy jihatdan istiqbolli resursga aylantiradi.

Lalmi yerlardan samarali foydalanish hududning tabiiy-iqlim sharoitini chuqur o‘rganish, tuproq xususiyatlarini hisobga olish, ekin turlarini to‘g‘ri tanlash va joylashtirish, namlikni saqlovchi hamda eroziyaga qarshi chora-tadbirlarni ishlab chiqishni talab etadi. Ayniqsa, cho‘l va adir hududlarida namlikni tejovchi texnologiyalarni joriy etish, agrotexnik usullarni takomillashtirish hamda yer resurslarini muhofaza qilish masalalari dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Mazkur ilmiy ishning asosiy maqsadi - cho‘l va adir hududlaridagi lalmi yerlarning tabiiy xususiyatlarini tahlil qilish hamda ulardan samarali foydalanish yo‘llarini ishlab chiqishdan iboratdir. Tadqiqot jarayonida ushbu hududlarda mavjud muammolar aniqlanib, ularni bartaraf etish bo‘yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Natijalar va ularning tahlili. Lalmi yerlar - sug‘orish tizimisiz, asosan tabiiy yog‘ingarchilik hisobiga dehqonchilik olib boriladigan hududlardir. Bunday yerlar tekislik, qir-adir, tog‘oldi hamda baland tog‘ mintaqalarida uchraydi. Ularning joylashuvi va kengligi hududning dengiz sathidan qanchalik balandligiga bevosita bog‘liq bo‘ladi.

Respublikamizda yerlarni mintaqalarga ajratishda aynan shu tabiiy omil muhim mezon sifatida qaraladi. Chunki hududning balandligi tabiiy namlik darajasiga, yog‘ingarchilik miqdoriga va shu asosda shakllanadigan tuproq turlariga ta’sir ko‘rsatadi.

Kelajakda ham lalmi yerlardan oqilona foydalanish, yer resurslarini to‘g‘ri taqsimlash va ekin turlarini hudud xususiyatiga mos ravishda joylashtirishda mintaqalarning dengiz sathidan balandligini inobatga olish katta amaliy va ilmiy ahamiyatga ega bo‘lib qoladi.

Mamlakatimizda lalmikor yerlar asosan tog‘oldi hududlarida ko‘proq uchraydi. Balandligi dengiz sathidan 400, 500 metrdan 1000, 1500 metr baland bo‘lgan tog‘oldi hududlarida 734 ming gektar lalmi ekin maydonlari mavjud. Lalmikor maydonlarda yillik yog‘in miqdoriga ko‘ra namlik bilan ta’minlanganlik yetarli emas. Ya’ni, yog‘in miqdori yillik 300 mm dan kam bo‘lgan yerlar 89,5 ming gektarni tashkil etadi. Yarim ta’minlangan yerlar esa 553,7 ming gektarni tashkil etadi. Bunda yillik yog‘in miqdori 300 – 500 mm bo‘lishi talab etiladi. Namlik bilan to‘liq ta’minlangan yerlar 99,8 ming gektarni tashkil etib, bunda yillik yog‘in miqdori 500 mm dan ortiq yerlar hisobga olinadi.

Tog‘ oldi (yog‘ingarchilik bilan ta’minlangan) lalmi yerlar. Bu hududlar dengiz sathidan 900-1000 metr balandlikda joylashgani holda yog‘ingarchilik miqdori yiliga 350-450 mm ni tashkil etadi. Bu mintaqada asosan sur tusli bo‘z tuproqlar tarqalgan. Bu mintaqa lalmi dehqonchilik uchun eng ma’qul bo‘lib turli lalmi ekinlar ekish va daraxtzorlar tashkil etish uchun juda qulaydir. Bugungi kunda ham bu hududda 25-30% donli va moyli ekinlar yo‘llangan. Bu mintaqaning asosiy salbiy jihati shundan iboratki, yog‘ingarchiliklar paytida suv eroziyasi kuzatiladi;

- tog‘ va baland tog‘ (yog‘ingarchilik bilan ta’minlangan) lalmi yerlar. Bu hududlar dengiz sathidan 1000-2000 metr balandliklarda joylashgan bo‘lib. Yillik yog‘ingarchilik miqdori 400 mm dan yuqoridir. Namlikni ko‘pligi sababli bu yerlarda qo‘ng‘ir va sur tusli, unumdorligi yuqori bo‘lgan bo‘z tuproqlar tarqalgan.

Bu yerlarning asosiy kamchiligi shundan iboratki, relyef ancha murakkab, qishloq xo‘jalik mashinalaridan foydalanish bir muncha o‘ng‘aysiz, suv eroziyasi kuzatiladi. Shu sababli bu yerlardan yaxshi foydalanish uchun terassalar tashkiletish tavsiya qilinadi, bundan tashqari, yong‘oqzorlar, pistazorlar va bodomzorlar plantatsiyalarini tashkil etish har tomonlama yaxshi samara beradi.

Umuman olganda, qishloq xo‘jaligida lalmi yer maydonlaridan samarali foydalanish bir qator iqtisodiy-ijtimoiy afzalliklarga ega. Ushbu afzal jihatlarni, bizningcha uch turkumga ajratgan holda, ya’ni iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik ahamiyatli jihatlarini nazarda tutgan holda tadqiq etish maqsadga muvofiq (2-rasm). Respublikamiz viloyatlarida tarqalgan lalmi ekin yerlari turli mintaqalarda joylashgan. Shunday ekan, ushbu yerlardan foydalanishni oqilona va samarali tashkil etishga, so‘zsiz qator omillar o‘z ta’sirini o‘tkazadi. Bunday omillarni uch guruhga bo‘lish mumkin; tabiiy, iqtisodiy va ijtimoiy. Lalmi hududlarda, tabiiy omillar eng katta o‘rinni egallaydi.

Bunday tabiiy omillarga quyidagilarni kiritish mumkin:

- lalmi ekin yerlar tarqalgan hududning dengiz sathidan balandligi;
- tabiiy yog‘ingarchilikni miqdorlari bo‘yicha bu hududlarda tarqalgan tuproq turlari va ularning unumdorligi;
- joyning relyefi va ekspozitsiyasi (ko‘rinishi), eroziyaga uchrash xavfi va boshqalar.

Hududdagi tabiiy yog‘ingarchilikning miqdori ham joyning dengiz sathidan balandligiga bog‘liqdir. Hudud qanchalik balandda joylashgan bo‘lsa yog‘ingarchilik miqdori ham shunchalik yuqori bo‘ladi. Bu holat ushbu hududdagi lalmi yerlarni tabiiy namlik bilan ta’minlanish darajasini oshiradi, bu yerda ekiladigan qishloq xo‘jalik ekinlarini suv va ozuqa balansini yaxshilaydi. Shu sababli ham baland tog‘larda joylashgan lalmi yerlar hosildorligi tekislik yoki adir mintaqalarida tarqalgan lalmi yerlar hosildorligidan anchagina yuqoridir. Ushbu tabiiy omil ham lalmi yerlardan foydalanishni tashkil etish bilan bog‘liq loyihalarni amalga oshirishda e’tiborga olinishi zarur.

Lalmi yerlardan foydalanishni tashkil etishda joyning shart-sharoitlari bilan bir qatorda iqtisodiy va ijtimoiy sharoitlar ham muhim ahamiyatga egadir. Oxirgi qayd qilingan omillar lalmi hududlarning tabiiy sharoiti bilan uzviy bog‘liqdir. Lalmi yerlarda xo‘jalik yuritayotgan qishloq xo‘jalik korxonalarining ixtisosliklari, ularni investitsion jozibadorligi, hududlarning mavjud tabiiy omillari bilan bog‘liq bo‘ladi. Donchilik, moyli ekinlarni rivojlantirish yoki bog‘dorchilik-uzumchilik, yoxud pistachilik-bodomchilik yo‘nalishlarini tashkil etish aynan hududlarning mavjud tabiiy omillariga bog‘liqdir.

Masofadan zondlash orqali katta hududlardagi tuproq holati, eroziya darajasi va o‘simlik qoplami o‘zgarishi aniqlanadi. GIS tizimlari esa yer resurslari haqidagi ma’lumotlarni tahlil qilish, xaritalashtirish va boshqaruv strategiyalarini ishlab chiqishda qo‘llaniladi. Dronlar va sensorlar tuproq va ekinlarning real vaqt rejimida kuzatilishini ta’minlaydi, bu esa agrotexnik va ekologik qarorlarni tezkor qabul qilish imkonini beradi.

Zamonaviy texnologiyalar yordamida monitoring tizimi nafaqat hududiy, balki milliy darajada ham barqaror yer boshqaruvini ta’minlaydi.

Xulosa: Yer monitoringi tizimi bugungi kunda ekologik, agrotexnik, iqtisodiy va huquqiy jihatlarni qamrab olgan murakkab va tizimli jarayon sifatida namoyon bo‘lmoqda. Bu tizimning asosiy maqsadi - yer resurslaridan oqilona foydalanish, ularni muhofaza qilish va barqaror boshqaruvni ta’minlashdir. Monitoring tizimi orqali yerlarning holati doimiy ravishda kuzatiladi,

shu bilan birga tuproq degradatsiyasi, sho‘rlanish, eroziya va boshqa salbiy jarayonlarni oldini olishga imkon yaratadi.

Ekologik jihatdan monitoring nafaqat tuproqning holatini, balki suv resurslari, o‘rmon fondi, tabiiy landshaft va biologik xilma-xillikni ham o‘z ichiga oladi. Masofadan zondlash texnologiyalari, GIS (Geografik axborot tizimlari), dronlar va sun’iy yo‘ldosh tasvirlari yordamida ekologik parametrlar real vaqt rejimida kuzatiladi. Bu esa tuproqning degradatsiyaga uchrash xavfini erta aniqlash va tegishli chora-tadbirlarni belgilash imkonini beradi. Shu bilan birga, suv resurslarining monitoringi sug‘orish tizimlari samaradorligini oshirish, suv ta’minotini optimallashtirish va qishloq xo‘jaligi ekinlari rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Agrotexnik jihatdan yer monitoringi ekinlar hosildorligini oshirish va tuproq unumdorligini saqlashning muhim vositasidir. Monitoring tizimi yordamida tuproq tarkibi, mineral moddalar, organik modda darajasi va namlik holati tahlil qilinadi. Shu bilan birga, meliorativ tadbirlar – drenaj tizimlari, sug‘orish kanallari va boshqa inshootlarning samaradorligi doimiy nazorat ostida bo‘ladi. Dronlar va sensorlar yordamida ekinlarning rivojlanish darajasi, sog‘lomligi va hosildorligi real vaqt rejimida kuzatiladi, bu esa qishloq xo‘jaligi yerlaridan maksimal darajada oqilona foydalanish imkonini beradi.

Iqtisodiy nuqtai nazardan yer monitoringi yer resurslarining qiymatini aniqlash, ularning moliyaviy samaradorligini oshirish va yer resurslaridan foydalanish bo‘yicha strategik qarorlar qabul qilishga xizmat qiladi. Masalan, sug‘oriladigan va qurg‘oqchil hududlardagi yerlarning iqtisodiy qiymati farq qiladi, monitoring natijalari esa hududlar bo‘yicha optimal yer taqsimoti, yer ijarasi, soliqlar va investitsiya loyihalarini shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. GIS va raqamli tizimlar yordamida yer resurslaridan samarali foydalanish bo‘yicha strategiyalar ishlab chiqiladi va amaliyotga tatbiq etiladi, bu esa iqtisodiy samaradorlikni sezilarli darajada oshiradi.

Huquqiy jihatdan yer monitoringi yer resurslaridan foydalanishda qonuniy me’yorlarga rioya qilinishini ta’minlaydi. Kadastr tizimi va raqamli GIS texnologiyalari orqali har bir yer uchastkasining holati, egalik huquqi va undan foydalanish shartlari aniq nazorat qilinadi. Shu bilan birga, inspeksiya va audit orqali noqonuniy egallanish, tuproqni degradatsiya qilish yoki yer resurslaridan noqonuniy foydalanish holatlari aniqlanadi va tegishli choralar ko‘riladi. Bu jarayon davlat siyosati va ekologik strategiyalarni qo‘llab-quvvatlaydi, shuningdek, jamoatchilik va biznesning shaffof ishtirokini ta’minlaydi.

Zamonaviy texnologiyalar monitoring tizimini samarali va ilg‘or darajada tashkil etishda muhim ahamiyat kasb etadi. Masofadan zondlash, dronlar, sun’iy yo‘ldosh tasvirlari va raqamli sensorlar yordamida katta hududlarda tuproq, suv va ekinlar holati real vaqt rejimida kuzatiladi. GIS tizimlari esa barcha ma’lumotlarni integratsiyalashgan tarzda tahlil qilish, xaritalashtirish va qarorlar qabul qilish imkonini beradi. Shu tarzda monitoring tizimi nafaqat hududiy, balki milliy darajada ham yer resurslarini barqaror boshqarish va ekologik xavfsizlikni ta’minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasining Yer kodeksi. O‘zbekiston Respublikasining yangi qonunlari. 19-jild. - T.: «Adolat», 1998. - 74 b.

2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 23-apreldagi «Ma’muriy hududlar birliklar chegarasini belgilash, yer resurslarini xatlovdan o‘tkazish hamda yaylov va pichanzorlarda geobotanik tadqiqotlarni o‘tkazish tartibini yanada takomillashtirish» to‘g‘risidagi 299-son qarori.

3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2000-yil 23-dekabrdagi «O‘zbekiston Respublikasida yer monitoringi to‘g‘risida nizomni tasdiqlash haqida»gi 496-son qarori.

4. Avezboyev S.A. Yer tuzishni loyihalashning avtomatlashgan tizimlari. - T.: «TIMI», 2008. - 136 b.

5. Turayev R.A. Qishloq xo‘jaligi yerlari monitoringini yuritish // «O‘zbekiston zamini» ilmiy-amaliy va innovatsion jurnali. - Toshkent: «O‘zdavyerloyiha» DILI, 2020. - №3. - B. 32-35.

6.Turayev R.A. Qishloq xo‘jalik yerlarining kompleks monitoringini takomillashtirish // «O‘zbekiston qishloq xo‘jaligi» jurnali «Agroilm» ilovasi. - Toshkent, 2020. 5[68]-son. - B. 117-119.

UDK 528.8:631.459

YER DEGRADATSIYASINI BAHOLASHDA BSI (Bare Soil Index) INDEKSISINING AHAMIYATI

N.O‘. Baratova
Qarshi davlat texnika universiteti

Annotatsiya: *Yer resurslaridan samarali foydalanish bugungi kunda dolzarb masalalardan biridir. 2021–2025 yillarda Qarshi tumani hududida BSI asosida tuproq holati va o‘simlik qoplami tahlil qilindi. Tadqiqotda masofaviy zondlash va GAT texnologiyalaridan foydalanilib, hududiy monitoring uchun muhim natijalar olindi.*

Kalit so‘zlar: *Bare Soil Index (BSI), yer degradatsiyasi, eroziya, cho‘llanish, sun’iy yo‘ldosh tasvirlari, geofazoviy ma’lumotlar, turli spektral diapazonlarda.*

Kirish: Jahonda yer resurslaridan oqilona foydalanish va ularni muhofaza qilish masalasi bugungi kunda dolzarb ekologik muammolardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, qurg‘oqchil va yarim qurg‘oqchil hududlarda tuproq yuzasining ochilishi, o‘simlik qoplamining kamayishi hamda antropogen omillarning ta’siri ortishi natijasida yer degradatsiyasi jarayonlari jadallashmoqda. Tuproqning o‘simlik qatlamining yo‘qolib ketishi holatiga kelishi suv va shamol eroziyasining kuchayishiga, unumdor qatlamning yemirilishiga va yer resurslari sifatining pasayishiga olib keladi. Bu holat nafaqat dunyoda balki O‘zbekistonda ham global muommoga aylanmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 10.06.2022 yildagi PQ-277-sonli “Yerlar degradatsiyasiga qarshi kurashishning samarali tizimini yaratish chora-tadbirlari to‘g‘risida” qarorida bu holat va uning yechimlari, harakatlar rejasi keltirib o‘tilgan[1].

Yer degradatsiyasini baholashda ochiq tuproq maydonlarini aniqlash alohida ahamiyatga ega. Shu nuqtai nazardan, masofaviy zondlash texnologiyalari asosida hisoblanadigan Bare Soil Index (BSI) muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi. BSI indeksi yer yuzasida o‘simlik bilan qoplanmagan, ochiq tuproq maydonlarini aniqlash imkonini beradi va tuproq degradatsiyasi darajasini baholashda samarali ko‘rsatkich hisoblanadi. BSI indeksining yuqori qiymatlari hududda ochiq tuproq ulushi ko‘p ekanligini, bu esa eroziya va cho‘llanish jarayonlari xavfi mavjudligini ko‘rsatadi. Aksincha, BSI qiymatlarining past bo‘lishi tuproq yuzasining nisbatan barqaror holatda ekanligidan dalolat beradi. Shu sababli BSI indeksi yer degradatsiyasining asosiy indikatorlaridan biri sifatida ilmiy tadqiqotlarda keng qo‘llanilmoqda. BSI indeksini 5 sinf asosida tasniflash orqali hududda yalang‘och tuproq darajasi juda past, past, o‘rtacha, yuqori va juda yuqori bo‘lgan maydonlarni aniqlash mumkin. Bu esa eroziyaga uchragan va eroziya xavfi yuqori bo‘lgan yerlarni hududiy jihatdan aniqlash, ularni monitoring qilish hamda muhofaza tadbirlarini rejalashtirishda muhim ahamiyatga ega.

Mavzuning dolzarbligi: Yer degradatsiyasi, ayniqsa qurg‘oqchil hududlarda, eroziya va tuproq yuzasining ochilishi bilan kuchaymoqda. BSI (Bare Soil Index) ochiq tuproq maydonlarini aniqlash va eroziya xavfini baholashda muhim indeks hisoblanadi. Yuqori BSI qiymatlari yuqori eroziya xavfini, past qiymatlar tuproq barqarorligini ko‘rsatadi. Indeksni 5 sinfga ajratish hududni degradatsiya darajasi bo‘yicha baholash va muhofaza tadbirlarini rejalashtirishda muhim ahamiyatga ega.

Asosiy qism: Qashqadaryo viloyati Qarshi tumani hududi, yarim qurg‘oqchil iqlim sharoitiga ega bo‘lib, yer resurslarining degradatsiyasiga va eroziya jarayonlariga xavfi yuqoriligini ko‘rsatadi. Tuproqning ochilishi, o‘simlik qoplamining kamayishi va inson faoliyatining ortishi natijasida hududda eroziya jarayonlari kuchayib bormoqda. Shu sababli hududning ekologik holatini baholash va degradatsiyaga uchragan maydonlarni aniqlash dolzarb vazifa hisoblanadi. Yer degradatsiyasini baholashda BSI (Bare Soil Index) indeksi muhim ilmiy ko‘rsatkich sifatida qo‘llaniladi. BSI yordamida tuproq yuzasining o‘simlik qoplamining kamayish yoki yo‘q qismlari aniqlanadi, bu esa eroziyaga uchragan hududlarni hududiy jihatdan belgilash imkonini beradi. 2021 va 2025 yillar sentabr oyidagi sun’iy yo‘ldosh tasvirlari asosida hududda BSI indeksining tahlili o‘tkazildi. Sentabr oyining tanlanishi sababli o‘simlik qoplamasi kamaygan, tuproq yuzasi ochiq bo‘lgan hududlar aniq ko‘rinadi. Natijada BSI yordamida hududlar 5 sinfga ajratilib, degradatsiya darajasi pastdan yuqorigacha aniqlangan.

Tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, 2025 yilda Qarshi hududida yalang‘och tuproq maydonlari ortgan, bu hududning eroziyaga uchraganligini bildiradi. Ushbu ma’lumotlar asosida hududlarni monitoring qilish, eroziyaga uchragan maydonlarni tiklash va muhofaza tadbirlarini rejalashtirish mumkin. Yer resurslarining sifatini baholash va degradatsiyaga uchragan hududlarni aniqlash ekologik va iqtisodiy jihatdan dolzarb vazifa hisoblanadi. Tuproq degradatsiyasi, eroziya, cho‘llanish va vegetatsiya qoplamining kamayishi nafaqat hududning tabiiy barqarorligiga, balki qishloq xo‘jaligi mahsuldorligiga ham salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Shu sababli zamonaviy geoinformatsion texnologiyalar va masofaviy zondlash ma’lumotlari yordamida yer yuzasining holatini tezkor va aniq baholash muhimdir. BSI (Bare Soil Index) — bu sun’iy yo‘ldosh tasvirlari asosida tuproq yuzasining ochiq, o‘simlik qoplamidan mahrum qismlarini aniqlash uchun ishlab chiqilgan spektral indeksdir. BSI indeksi orqali hududda eroziyaga moyil bo‘lgan ochiq tuproq maydonlarini ajratish mumkin. U tuproq degradatsiyasini baholashda samarali indikator sifatida qo‘llaniladi.

EarthExplorer - sun’iy yo‘ldosh tasvirlari va geofazoviy ma’lumotlarni bepul yuklab olish imkonini beruvchi rasmiy platforma bo‘lib, u USGS tomonidan boshqariladi. Mazkur portal masofadan zondlash ma’lumotlarini olish, yer resurslarini monitoring qilish, ekologik jarayonlarni o‘rganish hamda ilmiy tadqiqotlar olib borishda keng qo‘llaniladi. Ayniqsa, tuproq eroziyasi, vegetatsiya holati, yer degradatsiyasi va suv resurslarini baholashda ushbu platforma muhim axborot manbai hisoblanadi.

EarthExplorer orqali foydalanuvchilar dunyoning istalgan hududi bo‘yicha turli davrlarga tegishli sun’iy yo‘ldosh tasvirlarini topishi va yuklab olishi mumkin. Platformada Landsat 8 va Landsat 9 tasvirlari keng qo‘llaniladi. Ushbu yo‘ldoshlar 30 metr fazoviy aniqlikka ega bo‘lib, NDVI va BSI kabi indekslarni hisoblash hamda yer yuzasi holatini tahlil qilish uchun juda qulay hisoblanadi. Yuklab olingan tasvirlar GeoTIFF formatida bo‘lib, ularni ArcGIS yoki boshqa GIS dasturlarida ochish mumkin. Ushbu tasvirlar asosida NDVI (vegetatsiya indeksi) va BSI (yalang‘och tuproq indeksi) hisoblanadi. NDVI o‘simlik qoplamining zichligi va sog‘lomligini baholashga yordam beradi, BSI esa ochiq tuproq va degradatsiyaga uchragan hududlarni aniqlash imkonini beradi. Ushbu indekslar yordamida eroziyaga moyil hududlarni aniqlash, yer degradatsiyasini baholash va eroziyaga qarshi tadbirlarni rejalashtirish mumkin[3].



1-rasm EarthExplorer dasturi asosida hududni belgilash va ma’lumotlarni yuklash.

BSI (Bare Soil Index, yalong, ochiq tuproq indeksi) - yer yuzasidagi ochiq yani o‘simliklari yo‘q bo‘lgan tuproq maydonlarini aniqlash va tuproq qoplamining ochiqlik darajasini baholash uchun qo‘llaniladigan masofadan zondlash indeksidir. Ushbu indeks sun’iy yo‘ldosh tasvirlari asosida hisoblanadi va tuproq degradatsiyasi, cho‘llanish jarayonlari hamda suv va shamol eroziyasi xavfi yuqori bo‘lgan hududlarni aniqlashda muhim ahamiyatga ega. BSI tuproq, o‘simlik va boshqa yer qoplamalarining turli spektral diapazonlarda aks ettiradigan energiyasi o‘rtasidagi farqqa asoslanadi. Ochiq yani o‘simliklari yo‘q bo‘lgan tuproq qisqa to‘lqinli infraqizil (SWIR) va qizil (Red) diapazonlarda kuchli aks ettiradi, o‘simliklar esa yaqin infraqizil (NIR) diapazonda kuchli aks

ettirish xususiyatiga ega. Shu spektral farqlar asosida tuproq ochiqligi darajasi aniqlanadi[4].

BSI quyidagi masalalarni aniqlashda keng qo‘llaniladi:

- ✓ tuproq eroziyasi xavfini baholash;
- ✓ yer degradatsiyasi va cho‘llanish jarayonlarini aniqlash;
- ✓ yalang‘och tuproq maydonlarini xaritalash;
- ✓ qishloq xo‘jaligidan chiqib qolgan yerlarni aniqlash;
- ✓ shamol va suv eroziyasi xavfi yuqori hududlarni aniqlash;
- ✓ yaylov degradatsiyasini monitoring qilish.

Landsat 8-9 ma'lumotlaridan yalang‘och tuproq indeksini (BSI - Bare Soil Index) hisoblash formulasi quyidagicha: Landsat 8-9 uchun BSI **SWIR1** *qisqa to‘lqinli infraqizil 6*, NIR diapazoni 5, qizil diapason 4 va **Blue** *ko‘k 2* yordamida hisoblanadi:

- B6 (SWIR1): *Qisqa to‘lqinli infraqizil (Short-wave Infrared)*
- B4 (Red): *Qizil (Red)*
- B5 (NIR): *Yaqin infraqizil (Near-infrared)*
- *B2 (Blue):* Ko‘k (Blue)[2].



2-rasm USGS EarthExplorer olingan rastr ma’lumot asosida ArcGIS dasturi orqali Qashqadaryo viloyatini BSI indeksi



3-rasm USGS EarthExplorer olingan rastr ma’lumot asosida ArcGIS dasturi orqali Qashqadaryo viloyatini BSI indeksi

BSI indeksi -1 dan 1 gacha baholanishi va tahlil qilinishi.

1. -1 – 0.2 - O‘simlik qoplamlari, nam yuzalar
2. -0.2 – 0 - Suv yuzasi Nam yoki o‘simlik bilan qoplangan tuproq
3. 0 – 0.2 - Aralash yer (o‘simlik + tuproq).
4. 0.2 – 0.4 - Ochiq tuproq maydonlari.
5. 0.4 – 1 - Kuchli yalang tuproq, degradatsiya va eroziya kuchli.

Xulosa: Qarshi tumani hududida BSI (Bare Soil Index) tahlili amalga oshirildi. Tadqiqotning asosiy maqsadi hududdagi ochiq tuproq maydonlarini aniqlash, tuproq holatini baholash va ekin maydonlarining holatini kuzatish edi. Natijalar shuni ko‘rsatdiki, hududning ko‘p qismlarida BSI qiymatlari asta-sekin oshgan, bu tuproq yuzasida vegetatsiyasiz va ochiq maydonlarning ko‘payganini bildiradi. Shu bilan birga, ba’zi hududlarda o‘simlik qoplami barqaror bo‘lib, tuproq holati va unumdorligi sezilarli darajada o‘zgarishsiz qolgan. Ekin maydonlarini tahlil qilish shuni ko‘rsatdiki, BSI past bo‘lgan joylarda ekin qoplamasi barqaror bo‘lib, tuproqni himoya qilish va degradatsiyani kamaytirishda muhim rol o‘ynaydi. Tuproqning holati va ekin qoplami o‘rtasidagi bog‘liqlik aniq ko‘rinib turibdi: yaxshi o‘simlik qoplamasi tuproq eroziyasini kamaytiradi, unumdorlikni saqlaydi va hududning ekologik barqarorligini ta’minlaydi. Masofaviy zondlash va GAT texnologiyalari ushbu tahlilda muhim ahamiyatga ega bo‘lib, hududdagi tuproq holati va o‘simlik qoplamasini aniq va tezkor monitoring qilish imkonini berdi. Ushbu texnologiyalar yordamida ochiq tuproq maydonlari va eroziyaga sezgir joylar aniqlanib, hududning ekologik holati va resurslardan samarali foydalanish strategiyasini ishlab chiqishda asosiy ma’lumot manbai sifatida xizmat qiladi.

Takliflar

1. Tuproq eroziyasi xavfi yuqori hududlarda tabiiy vegetatsiya yoki tez o‘suvchi ekinlarni ekish orqali barqaror qoplama yaratish.

2. Ekin maydonlarini tuproq holatiga mos ravishda rejalashtirish, navbatdagi ekin va dam olish davrlarini belgilash orqali unumdorlikni saqlash.

3. Suv kam hududlarida samarali sug‘orish tizimlarini joriy etish va mavjud tizimlarni modernizatsiya qilish.

4. Tuproq holati, BSI va o‘simlik qoplamasini muntazam monitoring qilish.

5. Masofaviy zondlash ma’lumotlarini GAT tizimlari bilan integratsiyalash orqali hududiy tahlil va rejalashtirishni takomillashtirish.

6. Yer resurslaridan barqaror foydalanish bo‘yicha strategiyalar ishlab chiqish. Mahalliy jamoa va fermerlarni jalb qilish orqali ekologik xavfsizlikni oshirish va tuproq degradatsiyasini kamaytirish

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 10.06.2022 yildagi PQ-277-sonli “Yerlar degradatsiyasiga qarshi kurashishning samarali tizimini yaratish chora-tadbirlari to‘g‘risida”

2. https://support.climateengine.org/article/179-bare-soil-index

3. *https://earthexplorer.usgs.gov/*

4. Mzid, N., Pignatti, S., Huang, W., va Casa, R. (2021). Masofaviy zondlash orqali tuproqning yuqori qatlamini qo‘llash uchun haydaladigan ekin maydonlarida yalang‘och tuproqlarning paydo bo‘lishi tahlili. Masofaviy zondlash, 13(3), 474.

UDK 631.459(575.1)

O‘ZBEKISTONDA EROZIYAGA UCHRAGAN YERLAR VA ULARDAN FOYDALANISHNING HOZIRGI HOLATI

K.N. Xujakeldiyev
Qarshi davlat texnika universiteti.

Annotatsiya*: O‘zbekistonda eroziyaga uchragan yerlar ushbu muammoning oqibatlari va oldini olish chora-tadbirlarini ko‘rsatadi. Eroziya, ayniqsa, qurg‘oqchilik va sug‘orishning samaradorligi past bo‘lgan qishloq xo‘jaligi hududlarida keng tarqalgan. Hozirgi holatda, O‘zbekiston eroziya bilan kurashish uchun sug‘orish usullarini takomillashtirish, yangi texnologiyalarni joriy etish va o‘rmonzorlashtirish kabi bir qator chora-tadbirlarni amalga oshirmoqda.*

Kalit so’zlar: eroziya, yer degradatsiyasi, shamol eroziyasi, suv eroziyasi, irrigatsion eroziya, urbanizatsiya, relyef, sug‘orish usullari, antropogen omillar.

O‘zbekistonda eroziyaga uchragan yerlar (masalan, cho‘kindi yerlar, sho‘rlanish, tuproq eroziyasiga uchragan yerlar) ko‘p, ular asosan sug‘oriladigan yerlarning sifati yomonlashishi va ekologik holatning buzilishi bilan bog‘liq. Bunday yerlardan foydalanish holati deyarli yo‘q darajada bo‘lib, asosiy muammo ularni tiklashning qiyinligi va xarajatli ekanligidir. Hozirda, bu yerlar ko‘pincha ekin ekilmaydigan, tashlandiq holatda qoladi yoki faqat yaylov sifatida ishlatiladi.

O‘zbekiston hududi turli tabiiy-geografik zonalardan iborat bo‘lib, ularning har biri o‘ziga xos ekologik va geomorfologik xususiyatlarga ega. Shu sababli eroziya ham mamlakat bo‘ylab bir xil intensivlikda rivojlanmaydi, balki har bir zonada muayyan turdagi erozion jarayon ustuvor ahamiyat kasb etadi.

Samarqand, Jizzax, Toshkent, Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlarining katta qismi tog‘ va qiyaliklardan iborat. Bu hududlarda yog‘ingarchilik nisbatan ko‘proq, relef o‘ta qismlarda qiya, tektonik jarayonlar faol. Shu sababli suv eroziyasi eng xavfli va tez tarqaluvchi shakl hisoblanadi.

Qiyalik darajasining 5–20° oralig‘ida bo‘lishi tuproqning suv bilan yuvilishi uchun eng qulay sharoitdir. Qish-bahor davrida turli yog‘inlar, intensiv yomg‘irlar, sel oqimlari tuproq massasini juda tez yuvib ketadi. Tog‘ oldi hududlarida yarliq eroziyasi keng tarqalgan bo‘lib, bu jarayonlar yildan yilga kuchayib borayotgani ehtimollar bilan tasdiqlanadi.

Navoiy, Buxoro, Jizzaxning shimoliy qismi, Qoraqalpog‘istonning katta maydoni yarim cho‘l va dasht zonalariga kiradi. Bu hududlarda shamol tezligi yuqori bo‘ladi, o‘simlik qoplami siyrak, tuproqning mexanik tarkibi esa ko‘proq qumli yoki qumoq xarakterda. Natijada shamol eroziyasi ustuvor ahamiyatga ega.

Shamol eroziyasi bo‘yicha baholashlar ko‘rsatishicha, bu hududlarda 300 ming gektardan ortiq yer shamol tomonidan doimiy ravishda ko‘chiriluvchi, don-don ekilishi yuqori bo‘lgan zonalarga kiradi. Ayniqsa, suv ta’minoti past bo‘lgan, o‘simlik qoplami tiklanishga ulgurmaydigan yaylovlarda shamol eroziyasi juda kuchli namoyon bo‘ladi.

Farg‘ona vodiysi, Toshkent tekisligi, Sirdaryo va Amudaryo bo‘ylari, Qashqadaryo va Zarafshon vodiylari sug‘oriladigan yerlarning asosiy manzillari hisoblanadi. Ushbu hududlarda asosiy muammo – irrigatsion va meliorativ eroziya.

Suvni meyorga rioya qilmay tashlash, past-sifatli ariqlar, sug‘orish tarmoqlaridagi filtratsiya yo‘qotishlari, tuproq strukturasining sun’iy buzilishi, monokultura (ko‘p yillik paxta-g‘alla aylanmasi) irrigatsiya eroziyasini kuchaytiruvchi omillardir.

Respublikadagi lalmi yerlar biroz baland, yog‘ingarchilik miqdori nisbatan ko‘proq bo‘lgan hududlarda joylashgan. Bu yerlarda yerdan foydalanish ko‘p hollarda mavsumiy ekinchilikka, chorvachilikka va tabiiy o‘tloqlardan foydalanishga asoslangan. Shudgorning noto‘g‘ri olib borilishi, ekin aylanmasining yo‘qligi va o‘simlik qoplamining kamayishi suv eroziyasiga olib keladi. Tadqiqotlarga ko‘ra, taxminan 700 ming gektarga yaqin lalmi yer turli darajada eroziya ta’sirida qolgan.

Eroziyaning O‘zbekistondagi asosiy shakllari va ularning maydonlari quyidagicha:

Sug‘orish eroziyasi: 721,9 ming gektar, lalmi yerlardagi eroziya: 700,4 ming gektar, Shamol eroziyasi: 300 ming gektar atrofi, Yarliq va joy-joyidagi suv eroziyasi: 50 ming gektar, Bu raqamlar shundan dalolat beradiki, sug‘oriladigan va lalmi yerlar umumiy eroziya strukturasining asosiy qismini tashkil etadi. Gidromeliorativ tizimlarning yetarli darajada samarali emasligi, agrar yerlardan ekstensiv foydalanish va tabiiy iqlim sharoiti eroziyaning tezlashishiga sharoit yaratadi.

O‘zbekistondagi eroziya jarayonlari fazoviy jihatdan bir-biridan farq qiladi va bu farq relyef, iqlim, tuproq turi, gidrologik sharoit, antropogen yuklama va yerdan foydalanish turlari bilan bevosita bog‘liq.

Bu hududlarda shamol eroziyasi ustuvor. Qum ko‘chish, qum bo‘ronlari, tuproqning yuqori qatlamining tez siljishi kuzatiladi. Amudaryo deltasi hududida, xususan qurg‘oqchilik yillarida shamol eroziyasi kuchayib boradi. Shuningdek, bahoriy shamollar qumni 10–20 km masofagacha ko‘chira oladi.

Bu hududlar sug‘orish eroziyasining asosiy manbasi. Har yili sug‘orish tarmoqlarining samarasizligi tufayli tuproqning yuvilishi kuzatiladi. Tepaliklar va tog‘ etaklarida suv eroziyasi ham faol namoyon bo‘ladi.

Eroziya jarayoni bir joyda bir maromda turib qolmaydi. U yildan-yilga, hatto mavsumdan-mavsumga o‘zgarib boradi. Tadqiqotlar shundan dalolat beradiki:

Qurg‘oq yillarda shamol eroziyasi 20–30% ga ortishi mumkin. Yog‘ingarchilik ko‘p yillarda suv eroziyasi kuchayadi. Sug‘orish texnologiyalarining zamonaviylashuvi irrigatsiya eroziyasini qisman kamaytirayotgan bo‘lsa-da, umumiy tendensiya katta o‘zgarish qilmayotir.

O‘zbekistonda eroziyaga uchragan yerlar ushbu muammoning oqibatlari va oldini olish chora-tadbirlarini ko‘rsatadi. Eroziya, ayniqsa, qurg‘oqchilik va sug‘orishning samaradorligi past bo‘lgan qishloq xo‘jaligi hududlarida keng tarqalgan. Hozirgi holatda, O‘zbekiston eroziya bilan kurashish uchun sug‘orish usullarini takomillashtirish, yangi texnologiyalarni joriy etish va o‘rmonzorlashtirish kabi bir qator chora-tadbirlarni amalga oshirmoqda.

Eroziyaga uchragan yerlarning hozirgi holatini keng tarqalishi, suv va shamol eroziyasi O‘zbekistonning qishloq xo‘jaligi hududlarida, ayniqsa, sug‘oriladigan va sug‘orilmaydigan yerlarda keng tarqalgan. Qoraqalpog‘iston Respublikasi va viloyatlar tumanlarida eroziyaga uchragan qishloq xo‘jaligi yer maydonlari va ulardan foydalanishning hozirgi holati.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi va viloyatlar tumanlarida jami 3 mln 577,9 gektar sug‘oriladigan qishloq xo‘jaligi yer maydonlarining 539 ming 677 gektari (15,1 %) turli darajada sug‘orish eroziyasiga uchragan.

Shundan 282 ming 277 gektari (7,9 %) kam darajada, 193 ming 032 gektari (5,4 %) o‘rta darajada va 64 ming 368 gektari (1,8 %) kuchli darajada sug‘orish eroziyasiga uchragan.

Jumladan Qoraqalpog‘iston Respublikasida jami 379 ming 534 gektar sug‘oriladigan qishloq xo‘jaligi yer maydonlaridan 7 ming 976 gektari (2,1%) turli darajada, shundan 7 ming 907 gektari

(2,0 %) kam darajada 69 gektari (0,1 %) o‘rta darajada sug‘orish eroziyasiga uchragan.

Andijon viloyatida jami 232 ming 760 gektar sug‘oriladigan qishloq xo‘jaligi yer maydonlaridan 38 ming 253 gektari (16,4 %) turli darajada, shundan 14 ming 294 gektari (6,1 %) kam darajada 18 ming 126 gektari (7,8 %) o‘rta darajada va 5 ming 833 gektari (2,5 %) kuchli darajada sug‘orish eroziyasiga uchragan.

Buxoro viloyatida jami 229 ming 109 gektar sug‘oriladigan qishloq xo‘jaligi yer maydonlaridan 904 gektari (0,4%) kam darajada sug‘orish eroziyasiga uchragan.

Jizzax viloyatida jami 271 ming 058 gektar sug‘oriladigan qishloq xo‘jaligi yer maydonlaridan 36 ming 158 gektari (13,3 %) turli darajada, shundan 26 ming 060 gektari (9,6 %) kam darajada 7 ming 522 gektari (2,8 %) o‘rta darajada va 2 ming 575 gektari (0,9 %) kuchli darajada sug‘orish eroziyasiga uchragan.

Qashqadaryo viloyatida jami 460 ming 119 gektar sug‘oriladigan qishloq xo‘jaligi yer maydonlaridan 74 ming 937 gektari (16,3 %) turli darajada, shundan 53 ming 005 gektari (11,5 %) kam darajada 15 ming 918 gektari (3,5 %) o‘rta darajada va 6 ming 014 gektari (1,3 %) kuchli darajada sug‘orish eroziyasiga uchragan.

Navoiy viloyatida jami 114 ming 229 gektar sug‘oriladigan qishloq xo‘jaligi yer maydonlaridan 9 ming 420 gektari (8,3 %) turli darajada, shundan 2 ming 818 gektari (2,5 %) kam darajada 6 ming 489 gektari (5,7 %) o‘rta darajada va 113 gektari (0,10 %) kuchli darajada sug‘orish eroziyasiga uchragan.

Namangan viloyatida jami 249 ming 663 gektar sug‘oriladigan qishloq xo‘jaligi yer maydonlaridan 58 ming 126 gektari (23,3 %) turli darajada, shundan 29 ming 062 gektari (11,6 %) kam darajada 15 ming 643 gektari (6,3 %) o‘rta darajada va 13 ming 421 gektari (5,4 %) kuchli darajada sug‘orish eroziyasiga uchragan.

Samarqand viloyatida jami 306 ming 407 gektar sug‘oriladigan qishloq xo‘jaligi yer maydonlaridan 99 ming 388 gektari (32,4 %) turli darajada, shundan 40 ming 429 gektari (13,2 %) kam darajada 51 ming 023 gektari (16,6 %) o‘rta darajada va 7 ming 936 gektari (2,6 %) kuchli darajada sug‘orish eroziyasiga uchragan.

Surxondaryo viloyatida jami 271 ming 091 gektar sug‘oriladigan qishloq xo‘jaligi yer maydonlaridan 51 ming 889 gektari (19,2 %) turli darajada, shundan 34 ming 331 gektari (12,7 %) kam darajada 12 ming 623 gektari (4,7%) o‘rta darajada va 4 ming 935 gektari (1,8 %) kuchli darajada sug‘orish eroziyasiga uchragan.

Sirdaryo viloyatida jami 253 ming 211 gektar sug‘oriladigan qishloq xo‘jaligi yer maydonlaridan 16 ming 222 gektari (6,4 %) turli darajada, shundan 12 ming 424 gektari (4,9 %) kam darajada 3 ming 212 gektari (1,3 %) o‘rta darajada va 586 gektari (0,2 %) kuchli darajada sug‘orish eroziyasiga uchragan.

Toshkent viloyatida jami 324 ming 654 gektar sug‘oriladigan qishloq xo‘jaligi yer maydonlaridan 128 ming 434 gektari (39,6 %) turli darajada, shundan 45 ming 858 gektari (14,1 %) kam darajada 56 ming 331 gektari (17,4 %) o‘rta darajada va 26 ming 245 gektari (8,1 %) kuchli darajada sug‘orish eroziyasiga uchragan.

Farg‘ona viloyatida jami 297 ming 556 gektar sug‘oriladigan qishloq xo‘jaligi yer maydonlaridan 36 ming 731 gektari (12,3 %) turli darajada, shundan 24 ming 125 gektari (8,1 %) kam darajada 9 ming 048 gektari (3,0 %) o‘rta darajada va 3 ming 558 gektari (1,2 %) kuchli darajada sug‘orish eroziyasiga uchragan.

Xorazm viloyatida jami 221 ming 49 gektar sug‘oriladigan qishloq xo‘jaligi yer maydonlaridan 1 ming 904 gektari (0,9 %) kam darajada sug‘orish eroziyasiga uchragan.

Eroziya bilan kurashish bo‘yicha O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar qishloq xo‘jaligini barqaror rivojlantirishga, tuproqning unumdorligini saqlashga va ekologik muvozanatni tiklashga yordam beradi.

Turli tadqiqotlarda eroziyaga uchragan yerlar maydoni haqidagi raqamlar bir-biridan farq qilishi mumkin. Bu esa bir tomondan turli uslubiyatlarda baholash olib borilishi, ikkinchi tomondan esa mamlakatning katta hududi, relyefning murakkabligi va yerdan foydalanish tarkibida tez o‘zgarishlar yuz berishi bilan izohlanadi. Biroq umumiy xulosa shuki, O‘zbekistonda eroziyaga moyil yerlar ulushi yuqori bo‘lib, rivojlanish tendensiyasi barqaror va xavfli yo‘nalishda davom

etmoqda.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, eroziyaning o‘sish tezligi tabiiy omillar bilan bir qatorda antropogen omillarga kuchli darajada bog‘liq. Eroziya bilan kurashish bo‘yicha O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar qishloq xo‘jaligini barqaror rivojlantirishga, tuproqning unumdorligini saqlashga va ekologik muvozanatni tiklashga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Yer kodeksi. – Toshkent, 1998 yil 30 aprel, 598-1 son.

2. Bobojonov A. R. (2019). Tuproq eroziyasi va unga qarshi kurash choralarining agrotexnik asoslari . Samarqand: Ipak yo‘li universiteti nashriyoti.

3. Zonn I. S., Glazovskiy N. F. (2009). Land degradation and erosion processes in arid zones. Moscow: Nauka.

UDK 631.459:528.8(575.164)

QASHQADARYO VILOYATINING YER DEGRADATSIYASINI BAHOLASHDA NDVI VA BSI INDEKSLARINING O‘RNI

K.N. Xujakeldiyev, N.O‘.Baratova
Qarshi davlat texnika universiteti.

Annotatsiya: *Qashqadaryo viloyatida yer degradatsiyasi masofadan zondlash va GAT texnologiyalari asosida baholandi. Sun’iy yo‘ldosh tasvirlari yordamida BSI va NDVI indekslar asosida ochiq tuproq maydonlari hamda o‘simlik qoplami holati aniqlandi. Yer degradatsiya jarayonlarini muntazam monitoring qilishda NDVI va BSI indeksilari muhim hisoblanadi.*

Kalit so‘zlar: Yer degradatsiya, eroziya, sun’iy yo‘ldosh, NDVI indeksi, BSI indeksi, masofadan zondlash, o‘simlik qoplami.

Kirish: Jahonda yer degradatsiyasi va eroziya jarayonlarini aniqlash hamda monitoring qilishda masofadan zondlash texnologiyalari va GAT keng qo‘llanilmoqda. Sun’iy yo‘ldosh tasvirlari yordamida katta hududlarni qisqa vaqt ichida tahlil qilish, tuproq yuzasidagi o‘zgarishlarni aniqlash va eroziya xavfi mavjud zonalarni aniqlash imkoniyati yaratiladi. Ushbu usullar an’anaviy dala kuzatuvlariga nisbatan tezkor, iqtisodiy jihatdan samarali va yuqori aniqlik darajasiga ega. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 10.06.2022 yildagi PQ-277-sonli “Yerlar degradatsiyasiga qarshi kurashishning samarali tizimini yaratish chora-tadbirlari to‘g‘risida” qarorida bu holat va uning yechimlari, harakatlar rejasi keltirib o‘tilgan[1]. Tuproq eroziyasini baholashda o‘simlik qoplami va ochiq tuproq maydonlarini aniqlash muhim ahamiyat kasb etadi. Shu maqsadda masofadan zondlash ma’lumotlari asosida hisoblanadigan NDVI (Normalized Difference Vegetation Index) va BSI (Bare Soil Index) indekslari keng qo‘llaniladi. NDVI indeksi o‘simlik qoplamining zichligi va sog‘lomligini aniqlash imkonini beradi. NDVI qiymati past bo‘lgan hududlarda tuproq yuzasi ochilib, eroziyaga moyillik ortadi.

BSI indeksi esa ochiq tuproq maydonlarini aniqlash va yer yuzasining ochiqlik darajasini baholash imkonini beradi. Ushbu indeks tuproqning quriganligi, degradatsiya darajasi va eroziyaga moyil hududlarni aniqlashda muhim ko‘rsatkich hisoblanadi. BSI qiymati yuqori bo‘lgan hududlar suv va shamol eroziyasi xavfi yuqori bo‘lgan zonalarni ifodalaydi. Mazkur tadqiqotda sentabr oyida olingan sun’iy yo‘ldosh tasvirlari asosida NDVI va BSI indekslari hisoblanib, hududdagi o‘simlik qoplami holati hamda yalang‘och tuproq maydonlari tahlil qilindi. Sentabr oyida o‘tkazilgan tahlil ayniqsa samarali hisoblanadi, chunki yozgi qurg‘oqchilikdan keyin o‘simlik qoplami kamayadi. Hosil yig‘im-terimidan so‘ng tuproq yuzasi ochiladi va eroziyaga moyil hududlar aniq ko‘rinadi.

Mazuning dolzarbligi: Qashqadaryo viloyati kabi qurg‘oqchil hududlarda yer degradatsiyasi iqlim o‘zgarishi va intensiv foydalanish tufayli jiddiy muammo hisoblanadi. Ochiq tuproq maydonlari ko‘payishi va o‘simlik qoplami kamayishi yer resurslarining sifatini pasaytiradi. Shu sababli yer degradatsiya jarayonlarini masofadan zondlash va GAT texnologiyalari yordamida muntazam monitoring qilish muhimdir. NDVI va BSI indekslari hudud ekologiyasini baholash va samarali boshqaruv choralarini ishlab chiqishda asosiy vosita hisoblanadi.

Qashqadaryo viloyati tabiiy-iqlim sharoiti, tog‘ oldi va adir hududlarining keng tarqalganligi, quruq iqlim, kuchli shamollar hamda suv resurslaridan foydalanish xususiyatlari tufayli tuproq

eroziyasi jarayonlariga moyil hududlardan biri hisoblanadi. Viloyatning tog‘ oldi hududlarida suv eroziyasi, tekislik va cho‘l zonalarida esa shamol eroziyasi keng tarqalgan. Ushbu jarayonlar natijasida tuproq unumdor qatlamining yuvilishi, strukturasining buzilishi va yerlarning degradatsiyasi kuzatiladi. Mazkur tadqiqotda Qashqadaryo viloyatining 2021 va 2025 yillarga oid sun’iy yo‘ldosh tasvirlari asosida NDVI va BSI indekslari hisoblanib, tuproq eroziyasi xavfining hududiy o‘zgarishlari tahlil qilindi. Tahlil uchun sentabr oyida olingan tasvirlardan foydalanildi, chunki bu davrda:

- yozgi qurg‘oqchilikdan keyin vegetatsiya kamayadi;
- hosil yig‘im-terimidan so‘ng tuproq yuzasi ochiladi;
- yalang‘och va degradatsiyaga uchragan yerlar aniq ko‘rinadi;
- shamol va suv eroziyasi izlari ravshan namoyon bo‘ladi.

NDVI – tuproq yuzasidagi o‘simlik qoplamining zichligini va sog‘lomligini baholash uchun ishlatiladigan sun’iy yo‘ldosh indeksidir. U fotosintez faolligini aks ettiradi va o‘simlik qoplamining sog‘lom yoki degradatsiyaga uchraganligini aniqlash imkonini beradi. NDVI tuproq va o‘simlikni sun’iy yo‘ldosh tasvirlari yordamida farqlashga mo‘ljallangan. U o‘simliklar va yalang‘och tuproq o‘rtasidagi yorug‘likning yaqin infraqizil (NIR) va qizil (Red) diapazonlarda aks etishini hisobga oladi. Normallashtirilgan farq o‘simliklar indeksi, qisqartirilgan NDVI, yaqin infraqizil va qizil to‘lqin uzunliklari yordamida hisoblanadi[2].

NDVI = (NIR - QIZIL) / (NIR + QIZIL) NDVI = (B05 - B04) / (B05 + B04)

NIR – yaqin infraqizil kanal (o‘simliklar tomonidan kuchli yutiladi)

RED – qizil kanal (o‘simliklar tomonidan yutiladi, ammo pastroq)

NDVI qiymati -1 dan +1 gacha

1. -1-0 - suv, qor, sun’iy qoplama, o‘simlik mavjud emas
2. 0-0.2 - juda siyrak o‘simlik , tuproq ochiq, eroziyaga moyil
3. 0.2-0.4 - o‘rtacha vegetatsiya, kam o‘suvchanlik
4. 0.4-0.6 - yaxshi vegetatsiyam o‘simlik qoplamasi yetarli, tuproq himoyalangan
5. 0.6-1 - juda zich vegetatsiya, o‘simlik qoplamasi zich, eroziyadan himoyalangan.

Qashqadaryo viloyati quruq kontinental iqlimga ega bo‘lib, yoz oxiriga kelib:

- ekinlar hosili yig‘ib olinadi;
- tabiiy o‘simliklar quriy boshlaydi;
- tuproq yuzasi ochiladi;
- shamol va suv eroziyasi xavfi ortadi.

Shu sababli NDVI va BSI indekslari hududning ekologik va meliorativ holatini baholashda muhim ko‘rsatkich hisoblanadi. Hamda tuproq eroziyasini baholashda muhim bir ahamiyatga ega hisoblanadi.

NDVI indeksi -1 dan 1 gacha baholanishi va tahlil qilinishi.

1. -1-0 - suv, qor, sun’iy qoplama, o‘simlik mavjud emas
2. 0-0.2 - juda siyrak o‘simlik , tuproq ochiq, eroziyaga moyil
3. 0.2-0.4 - o‘rtacha vegetatsiya, kam o‘suvchanlik
4. 0.4-0.6 - yaxshi vegetatsiyam o‘simlik qoplamasi yetarli, tuproq himoyalangan
5. 0.6 - 1 - juda zich vegetatsiya, o‘simlik qoplamasi zich, eroziyadan himoyalangan.

BSI (Bare Soil Index, yalong, ochiq tuproq indeksi) - yer yuzasidagi ochiq yani o‘simliklari yo‘q bo‘lgan tuproq maydonlarini aniqlash va tuproq qoplamining ochiqlik darajasini baholash uchun qo‘llaniladigan masofadan zondlash indeksidir. Ushbu indeks sun’iy yo‘ldosh tasvirlari asosida hisoblanadi va tuproq degradatsiyasi, cho‘llanish jarayonlari hamda suv va shamol eroziyasi xavfi yuqori bo‘lgan hududlarni aniqlashda muhim ahamiyatga ega.

BSI tuproq, o‘simlik va boshqa yer qoplamalarining turli spektral diapazonlarda aks ettiradigan energiyasi o‘rtasidagi farqqa asoslanadi. Ochiq yani o‘simliklari yo‘q bo‘lgan tuproq qisqa to‘lqinli infraqizil (SWIR) va qizil (Red) diapazonlarda kuchli aks ettiradi, o‘simliklar esa yaqin infraqizil (NIR) diapazonda kuchli aks ettirish xususiyatiga ega. Shu spektral farqlar asosida tuproq ochiqligi darajasi aniqlanadi[4].



1-rasm USGS EarthExplorer olingan rastr ma'lumot asosida ArcGIS dasturi orqali Qashqadaryo viloyatini NDVI indeksi



2-rasm USGS EarthExplorer olingan rastr ma'lumot asosida ArcGIS dasturi orqali Qashqadaryo viloyatini BSI indeksi.

Landsat 8-9 ma'lumotlaridan yalang‘och tuproq indeksini (BSI - Bare Soil Index) hisoblash formulasi quyidagicha:

- **B6 (SWIR1):** Qisqa to‘lqinli infraqizil (Short-wave Infrared)
- **B4 (Red):** Qizil (Red)
- **B5 (NIR):** Yaqin infraqizil (Near-infrared)
- **B2 (Blue):** Ko‘k (Blue)[5].

BSI indeksi -1 dan 1 gacha baholanishi va tahlil qilinishi.

1. -1 – 0.2 - zich osimlik qoplami, suv yuzasi.
2. -0.2 – 0 - Suv yuzasi Nam yoki o‘simlik bilan qoplangan tuproq
3. 0 – 0.2 - Aralash yer (o‘simlik + tuproq).
4. 0.2 – 0.4 - Ochiq tuproq maydonlari.
5. 0.4 – 1 - Kuchli yalang tuproq, degradatsiya va eroziya kuchli.



3-rasm USGS EarthExplorer olingan rastr ma'lumoti asosida ArcGIS dasturi orqali Qashqadaryo viloyatini NDVI indeksi.



4-rasm USGS EarthExplorer olingan rastr ma'lumoti asosida ArcGIS dasturi orqali Qashqadaryo viloyatini BSI indeksi.

NDVI va BSI analizi shuni ko‘rsatadiki sugo‘riladigan hududlarning tuprog‘i barqaror eroziyasi yo‘q yerlar NDVI yuqori (0.4-1- yashil va to‘q yashil), BSI past (0-0.2- yashil) tuprog‘i himoyalangan yerlar kiradi.

Tog‘ oldi va yaylov hududlarda NDVI past va o‘rtacha (0.2-0.4- och yashil), BSI o‘rtacha (0.2-0.4- jigar rang) ochiq tuproq, eroziyasi xafi boshlanishi mavjud yerlar kiradi.

Cho‘l va qurg‘oqchil huhudlar NDVI past (0-0.2 - sariq), BSI yuqori (0.4-1- qizil) eroziya va cho‘llanish xafi mavjud.

Xulosa: Qashqadaryo viloyatida yer qoplamining holati va tuproq eroziyasi ya’ni shamol eroziyasi sodir bo‘lishi hududiy jihatdan farqlanishini aniq ko‘rsatdi. Sentabr oyida olingan masofadan zondlash ma’lumotlari asosida NDVI (vegetatsiya indeksi) va BSI (yalang tuproq indeksi) tahlili asosida vegetatsiya davrining yakuniga kelib o‘simlik qoplamining kamayishi natijasida tuproq yuzasining ochilishi kuchayadi, bu esa ayniqsa qurg‘oqchil iqlim sharoitida eroziya jarayonlarini faollashtiruvchi omil hisoblanadi. NDVI natijalari sug‘oriladigan hududlar, bog‘lar va intensiv dehqonchilik zonalarida o‘simlik qoplamining nisbatan yuqori darajada saqlanib

qolganini ko‘rsatdi. Bunday hududlarda tuproq yuzasi o‘simlik bilan himoyalangan bo‘lib, eroziya xavfi minimal darajada baholanadi. Shu bilan birga, tog‘ oldi hududlari va yaylov zonalarida vegetatsiya zichligining pasayishi kuzatilib, bu degradatsiya jarayonlari boshlanishi mumkinligini ko‘rsatadi.

BSI indekslari esa sentabr oyida hosil yig‘ib olingan dalalar, yaylovlar va cho‘lga yaqin qurg‘oqchil hududlarda ochiq tuproq maydonlarining kengayganini aniqladi. BSI qiymatlarining yuqoriligi tuproq yuzasining ochiqligi, o‘simlik qoplamining kamayishi, shamol eroziyasi kuchayishi hamda kuchli yog‘ingarchilik davrida suv eroziyasi yuzaga kelish ehtimoli yuqoriligini bildiradi. Ayniqsa, vegetatsiya qoplami siyrak hududlarda tuproqning mayda zarrachalari shamol ta’sirida ko‘chishi va unumdor qatlamning yo‘qolishi xavfi ortadi. NDVI va BSI indekslarini birgalikda tahlil qilish natijalari shuni ko‘rsatdiki, vegetatsiya qoplami yuqori bo‘lgan hududlarda tuproq barqarorligi saqlanadi, aksincha vegetatsiya kamayib, yalang tuproq maydonlari kengaygan hududlarda eroziya jarayonlari faollashadi. Bu holat yer resurslaridan foydalanish tizimini ilmiy asosda tashkil etish zarurligini ko‘rsatadi.

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi muhim ilmiy xulosalarga kelish mumkin:

✓ vegetatsiya qoplamining kamayishi tuproq eroziyasining kuchayishiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi;

✓ ochiq tuproq maydonlarining kengayishi shamol va suv eroziyasi xavfini oshiradi;

✓ sug‘oriladigan va o‘simlik bilan yaxshi qoplangan hududlar eroziyaga nisbatan barqaror hisoblanadi;

✓ yaylov va qurg‘oqchil hududlarda degradatsiya jarayonlari kuchayish tendensiyasiga ega;

✓ NDVI va BSI indekslari eroziyaga moyil va eroziyasi xavfi yuqori hududlarini aniqlashda samarali ilmiy vosita hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 10.06.2022 yildagi PQ-277-sonli “Yerlar degradatsiyasiga qarshi kurashishning samarali tizimini yaratish chora-tadbirlari to‘g‘risida”

2. https://www.usgs.gov/landsat-missions/landsat-normalized-difference-vegetation-index

3. https://custom-scripts.sentinel-hub.com/custom-scripts/landsat-8/ndvi/

4. Mzid, N., Pignatti, S., Huang, W., va Casa, R. (2021). Masofaviy zondlash orqali tuproqning yuqori qatlamini qo‘llash uchun haydaladigan ekin maydonlarida yalang‘och tuproqlarning paydo bo‘lishi tahlili. Masofaviy zondlash, 13(3), 474.

5. Nguyen, CT, Chidthaisong, A., Kieu Diem, P. va Huo, LZ (2021). Landsat 8 yordamida Janubi-Sharqiy Osiyoda qishloq xo‘jaligi ekin maydonlarida yalang‘och yer xususiyatlarini aniqlash uchun o‘zgartirilgan yalang‘och tuproq indeksi. Land, 10(3), 231.

6. https://support.climateengine.org/article/179-bare-soil-index

UDK: 624.05; 338.43

OZIQ-OVQAT XAVFSIZLIGINI YAXSHILASHNING POTENTSIALI TO‘G‘RISIDA

I.A. Axmedov, F.I.Pirmatova

Toshkent to’qimachilik va yengil sanoat institute

Annotatsiya. *Maqolada inson uchun energota'minotni suvga bog‘liqligi va bunda yer osti suvlaridan foydalanishning ahamiyati yoritilgan. Yer osti suvlarini olishning texnik tomonlarini yaxshilash asosida energiya ta'minotni oshirish mumkinligi ko‘rsatilgan. Mavjud tik zavur va sug‘orish quduqlari ish qobiliyatini tiklash uchun qo‘llanilgan usul va vositalarga bog‘liqligi ko‘rsatilgan.*

Kalit so‘zlar: Yer, suv, o‘simlik, energiya, ozuqa, quduq, potentsial, xavfsizlik.

Kirish. Oziq-ovqat xavfsizligi butun dunyoning muammosidir. Unda mahalliy xarakterda oziq ovqat mahsulotlari yetishtirish ustivorlikka ega. U yer va suv bilan bog’liq. Quruq iqlimli hududlarda, xususan O’zbekiston sharoitida sug’orish bilan yetishtirilayotgan oziq-ovqat mahsulotlari umumiyning 90 foizidan oshig'ini tashkil etadi. Suv resurslari cheklangan sharoitda yer osti suvlari ham oziq-ovqat mahsulotlari yetishtirishda alohida o’rin kasb etadi. Yer osti suvlaridan foydalanish ularni olish bilan bog’liq inshoatlar va qurilmalar holatiga bog’liqdir. Ularni

yaxshilash va takomillashtirish orqali ko'proq hajmda yer osti suvlarini olish va sug'orishga foydalanish hududning oziq-ovqat xavfsizligini yaxshilashda potentsial hisoblanib, dolzarb ahamiyatga egadir. Озиқ-овқат хавфсизлиги - bu tashqi bog'lanishlarsiz va ichki noqulayliklarning ta'sirisiz aholini oziq-ovqat, sanoatni xomashyo bilan kafolatli va barqaror ta'minlashdir. Hozirgi vaqtda yer sharida 8 mld dan oshiq, shundan O'zbekistonda esa 38 mln atrofida axoli ist'emol qilmoqda. Bularni yashashida birinchi navbatda oziq-ovqat ta'minoti asosiy muammo hisoblanadi. Oziq-ovqat bilan odam organizmidagi energiya ta'minoti va u orqali darmondorilarga ist'emol talabi amalga oshiriladi. Bu murakkab muammo avvalo insonlar sahat-salomadligini va shu bilan birga ish qobiliyatini belgilovchi omil bo'lib iqtisodiy va ijtimoiy ahamiyatga egadir.

Oziq-ovqat xavfsizligi masalasi butun dunyo oldida turgan muammodir. Xalq xo'jaligining ko'plab sohalarining faoliyati oziq-ovqat muammosini yaxshilashga qaratilgan, avvalo, qishloq va suv xo'jaligi, mexanizatsiya, ximiya, biologiya, qayta ishlash sanoati muammoni yechishda ustivorlikka ega. Sohalarning taniqli olimlari ko'plab ishlarni amalga oshirganlar. O'zbekistonda oziq-ovqat muammolari bilan shug'ullangan iqtisodchi tadqiqotchilar H.P.Abulqosimov va boshq. [1], V.A.Duxovnыy[2],.A.Isadjanov[3], Ch.Murodov va X.Ya.Saatova[4], K.Matkarimov va I.Mahkamov[5], F.M.Fazilovlar[6] muammoni yechishda asosiy manba qilib qishloq xo'jaligini ko'rsatadilar. Ularning ishlarida oziq ovqat xavfsizligi masalasida yer osti suvlarining ishtiroki masalasi yetarlicha ochilgan emas.

Yer osti suvlaridan foydalanishda suv olish inshootlari va qurilmalari holatini takomillashtirish bilan mavjud yerlardan ko'proq xosil olish mumkinligini va buning uchun potentsial mavjudligini asoslashdan iborat.

Tadqiqotni o'tkazishda ma'lumotlar tahlili, matematik hisoblash va eksperiment o'tkazish metodikalaridan foydalanildi. Milliy va xalqaro aloqa tizizimlari ma'lumotlaridan foydalanilgan.

Tadqiqot ob'ekti aholisining o'rtacha kunlik energiya sarfini(Eud) quyidagicha hisoblash mumkin

$$E_{ud}=P_iN_i/N \qquad (1)$$

Formuladagi P_i-ma'lum yoshga talluqli solishtirma enegiya miqdori, N_i-ma'lum yoshdagilarning umumiy soni, kishi, N-aholining umumiy soni, kishi.

Keltirilgan metodika asosida hisoblashni O'zbekiston aholisi misolida bajarilsa hisoblashning natijasi respublikaning har bir aholisi o'rtacha 1823 kkal/sut energiya sarfini qilishini ko'rsatadi.

1-jadval

O'zbekiston aholi yoshi tarkibi to'g'risida statistik ma'lumot (*01.07.2025y. ga)*

Yosh guruxi, yosh			
Kishilar yoshi	1-15	16-64	65 dan yuqori
Mln kishi	12.2	21.2	4.5
%	32.2	56	11.8
*Sutkalik o'rtacha energiya(kkal) sarfi, kkal/kishi	2015	1700	1400
*Izoh: *xalqaro aloqa tizimining(internet) ma'lumoti*			

Uning manbasi mahalliy yoki tashqi xarakterli bo'lishi mumkin. Mahalliyga yer va suv resurslari hisoblanadi, tashqi bu no oziq-ovqat mahsulotlari hisobiga ayirboshlash(import) evaziga ta'minotdir. Ikkinchisining kafolatlik va ishonchlilik darajasi yuqori emas. Shuning uchun ustivorlik har bir hudud uchun mahalliy resurslarga qaratilishi maqsadga muvofiqdir. Suv resurslari cheklangan hududlarda yer osti suvlaridan foydalanish ilojsiz holat hisoblanadi. U resurslar sarfi bilan bog'liq. Shuning uchun ham ayrim davlatlarda sohaga subsidiya berish joriy qilingan. AQSh davlatida 46, Eronda 59, Liviyada 100% va boshqa ko'plab davlatlarda ham sug'orishning anchagina qismi yer osti suvlari hisobiga [9,10] to'g'ri keladi. O'zbekiston hududida yer osti suvlarining 19 km3 yillik zahirasi [8] bo'lib shundan 9,5 km3 ishlatilmoqda, 50% zahira manba mavjud.

O'zbekistonda oziq-ovqat xavfsizligi mamlakat siyosatining ustivor vazifalaridan biri hisoblanadi. 2025 yil 3 fevralda O'zbekiston Respublikasining "Oziq-ovqat xavfsizligi

to’g’risida”gi O’RQ-1023-son Qonuni qabul qilingan. Bunga asosan 2026-2030 yillar oziq-ovqat xavfsizligining faol davri qilib belgilangan.

2- jadval

O‘zbekiston hududidagi foydalanish mumkin bo‘lgan yer osti suvlarining miqdori va sifati[7] to‘g‘risida

Mineral-lashganlik miqdori, g/l	Hajmiy ko‘rsatkichlar		
	mln.m^3/sut	m^3/sut	%
1,0 gacha	25822050	298,9	40,4
1,0…1,5	8411640	97,35	13,1
1,5…3,0	33097660	255,76	34,5
3,0…5,0	4486890	51,2	7,1
5,0 dan yqori	3168290	36,67	4,9
jami	63986530	740,6	100

Sirdaryo va Amudaryo (Buxoro) havzalarida o‘tkazgan tadqiqotlarimiz yer osti suvlarini olishda ishlatilayotgan quduqlar suv sarfini kamaytirganligini ko‘rsatdi.

Tadqiqotlarimiz quduqlardan chiqarilayotgan suvlarning ko‘p qismi ekinlarni sug‘orish uchun yaroqli ekanligini ko‘rsatdi. Sirdaryo havzasining yuqori qismida, ya'ni Farg‘ona viloyati hududida ishlatilayotgan va tekshirilgan tik zavur quduqlari suvlarining minerallashganlik darajasi 0,2-1,0 g/l bo‘lganlari 77% ni va undan yuqori bo‘lganlari 23 % ni tashkil etdi. Havzaning o‘rta zonasi(Mirzacho‘l) qismida tik zavur quduqlari suvlarining minerallashganlik darajasi yuqori zonaga nisbatan ancha yuqori, 1.0 g/l gacha bo‘lganlari 20-25 % ni tashkil etgan. Sug‘orishga butunlay yaroqsiz suv chiqarayotgan quduqlar ham kuzatildi. Havzaning quyi qismida(Qozog‘iston) ishlatilayotgan tik zavur quduqlari suvlarida ham turlicha minerallashganlik darajasi kuzatildi. Shimkent va Qizilorda viloyatlarida ekinlarni sug‘orish uchun ishlatsa bo‘ladigan(minerallashganlik 0.5-3.0 g/l) suv quduqlari mavjud. Shunday holatni Amudaryo havzasi bo‘yicha ham ko‘rish mumkin.

Metall materialli suv quduqlarining suv chiqarish qobiliyatini pasayish jarayoni yuqorida ko‘rsatilgan barcha hududlarda aniqlangan. Shuning uchun ularni tiklash maqsadida tegishli ishlar bajarilib ijobiy natijalarga erishilgan. Xususan, mexanik usul va vositalarni qo‘llash orqali quduq suv sarfi 78 foizgacha tiklanishi ta'minlangan. Bu bir dona quduqdan qo‘shimcha olinadigan suv hisobiga 8-16 tonna bug‘doy yoki boshqa oziq –ovqat mahsulotlari olinishi hisoblangan. Impulsli usul qo‘llanilganda quduqlar suv sarfi 96 foizgacha tiklanishi mumkinligi tadqiqot natijasida aniqlandi. Buning hisobiga quduq hududidan 16-30 tonna bug‘doy yoki boshqa oziq-ovqat mahsulotlari olish mumkinligi hisoblangan.

Xulosa. Hududning oziq-ovqat xavfsizligini yaxshilashda yer osti suvlari ishonchli va potentsial manba hisoblanadi. Ulardan foydalanishda quduqlarning ish qobiliyatini oshirish zaruriyati mavjud. Yangi suv quduqlarini loyihalashda mukammal tuzilmalardan(nometall suzgichli materiallar) foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abulqosimov H.P., va b. O‘zbekistonda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash va sanoatini rivojlantirish. Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar ilmiy elektron jurnali, № 5, sentyabrь-oktyabrь, 2016 y.

2. Духовный В.А., Перейра Л.С. Будущие аспекты управления водой в Центральной Азии. Управление орошением для борьбы с процессами опустынивания в бассейне Аральского моря. Оценка и инструменты. -Ташкент: Vita Color, 2005. С. 401-419.

3. Isadjanov A.A., Kenjaboyeva R.M. Oziq-ovqat xavfsizligi: zamonaviy tendentsiyalar va milliy ustuvorliklar// Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar ilmiy elektron jurnali, № 1, yanvarь-fevralь, 2015 y.

4. Муродов Ч., Саатова Х.Я. Основные направления стратегии продовольственной безопасности в условиях мирового финансово-экономического кризиса. Наманган: 2011. 5-б.

5. Matkarimov K., Mahkamov I., Bekmirzayev M. O‘zbekistonda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda qishloq xo‘jaligi iqtisodiyotining istiqboli. Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar

ilmiy elektron jurnali, № 6, noyabrь-dekabrь, 2016 y.

6. Fazilov F.M. Jahon iqtisodiyotining globallashuvi sharoitida O‘zbekiston oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash: Avtoref.-T.: JIDU, 2008. – B. 19.

7. Majidov T.Sh. Suv resurslaridan foydalanish va atrof muhitni himoya qilish madaniyati. Monografiya. Toshkent. 2021 y. 390 b.

8. Соколов В.И. Водное хозяйство Узбекистана. настоящее, прошлое, будущее. Выпуск 1. Т.2015.

9.Якубов Х.И. Мелиорация на фоне вертикального дренажа. Т.1989г

10.Салиев Б.К. Мелиорация подтопленных территорий городов и поселков. Т. 2010г.

URBANIZATSIYA SHAROITLARIDA DARAXTLARNING EKOLOGIYAGA VA MIKROIQLIMIGA TA’SIRI

M.E.Xushvaqova
Qarshi davlat texnika universiteti

Annatatsiya: *Ushbu maqolada daraxtlarning shahar muhitida ekologik barqarorlikni ta’minlash va mikroiqlimni tartibga solishdagi o‘rni ilmiy asosda tahlil qilinadi. Urbanizatsiya jarayonining jadallashuvi natejasida yuzaga kelayotgan atmosfera ifloslanishi “issiqlik oroli”efferti, tuproq degradatsiyasi va bioxilma-xillikning qisqarishi kabi muammolarni kamaytirishda shahar daraxtlari muhim tabiiy omil sifatida namoyon bo‘ladi.*

Kalit so‘zlar:urbanizatsiya, ekologik barqarorlik, mikroiqlim, issiqlik oroli effekti, bioxilma-xillik, yashil infratuzilma.

Kirish: Jahonda XXI asrda urbanizatsiya jarayoni jadal sur’atlar bilan rivojlanmoqda. Aholining yirik shaharlar hududida to‘planishi tabiiy landshaftlaring qisqarishiga, yashil maydonlarning kamayishiga va ekologik muvozanatning buzilishiga olib kelmoqda. Shu sharoitda shahar ekotizimida daraxtlarning roli alohida ahamiyat kasb etadi. Daraxtlar nafaqat estetik ahamiyatga ega, balki ular muakkab ekologik va iqlimiy funksiyalarni bajaruvchi tabiiy tizim ekementidir. Ular atmosfera tarkibini tartibga solish, mikroiqlimni yumshatish, bioxilma-xillikni saqlash hamda aholi salomatligini yahshilashga xizmat qiladi.

Hozirgi globallashuv va urbanizatsiya jarayonida shahar hududida ekologik muammolar tobora kuchayib bormoqda. Aholi sonining ortishi, transport vositalari miqdorining ko‘payishi, sanoat korxonalarining faoliyati va qurilishlarning jadallashuvi shahar muhitining tabiiy muvozanatiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Ayniqsa, havo ifloslanishi, “issiqlik oroli” effekti, namlik rejimining buzilishi va mikroiqlimko‘rsatkichlarining yomonlashuvi dolzarb muammolardan hisoblanadi.

Bunday sharoitda daraxtlar shahar ekotizimining ajralmas tarkibiy qismi sifatida ekologik barqarorlikni ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi. Ular nafaqat landshaftning estetik ko‘rinishini yaxshilaydi, balki iqlimiy va ekologik muvozanatni saqlashda ham beqiyos ahamiyatga ega.

Mavzuning dolzarbligi: Shaharlarning tez urbanizatsiyalashuvi havo ifloslanishi, “issiqlik oroli” effekti, tuproq degradatsiyasi va bioxilma-xillikning kamayishi kabi ekologik muammolarni keltirib chiqarmoqda. Shahar daraxtlari bu jarayonlarni yumshatishda muhim tabiiy omil bo‘lib, ekologik barqarorlikni saqlash va mikroiqlimni tartibga solishda katta ahamiyatga ega.

Asosiy qism: Daraxtlarning ekologik funksiyalari. Atmosfera havosini tozalashda daraxtlar fotosentez jarayonida karbanat angidrid (CO_2)ni yutib, kislorod ajratadi.Shuningdek ular chang va zararli gazlarni o‘z barg yuzasida ushlab qoladi. Ilmiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, daraxtlar bilan qoplangan hududlarda havodagi mayda dispers zarrachalar (PM2.5 va PM10) miqdori sezilarli darajada kamayadi. Daraxtlarning barg yuzasi va shox shabbalari aerodinamik to‘siq vazefasini bajarib, changning taqalishini kamaytiradi. Bu ayniqsa transport harakati zich bo‘lgan shahar ko‘chalarida muhim ahamiyatga ega. Shahar ko‘kalamzorlashtirilishida manzarali daraxtlarning o‘rni beqiyosdir. Ular nafaqat shahar ko‘rinishini bezab, estetik qiyofa beribgina qolmay, balki ekologik tizimning muhim elimentlari sifatida havoni tozalash, havo haroratini tartibga solish,shovqin va changni kamaytirish kabi funksiyalarni bajaradi. Ushbu maqolada shahar muhitida manzarali daraxtlarning ekologik ahamiyati va ularning bajaradigan asosiy funksiyalari

tahlil qilinadi.

Bioxilma-xillikni saqlashda: Shahar daraxtlari ko‘plab tirik organizmlar uchun yashash muhiti yaratadi. Qushlar hashoratlar va mayda sutemizuvchilar daraxtlarni ozuqa manbai va boshpana sifatida ishlatiladi. Natijada urban ekotizimda ekologik zanjir barqarorligi ta’minlanadi. Yashil hududlarning mavjudligi changlatuvchi hashoratlar populyatsiyasini qo‘llab quvvatlaydi, bu shahar florasining ko‘payishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Daraxtlarning ildiz tizimi tuproqni mustahkamlaydi va eroziya jarayonlarini sekinlashtiradi. Yomg‘ir suvlari oqimini tartibga solish orqali tuproqning yuvilib ketishini kamaytiradi. Bundan tashqari, barglarning chirishi natejasida hosil bo‘lgan organic modda tuproq unumdorligini oshiradi. “Issiqlik oroli”effektini kamaytirishda shaharlarda beton va asfalt qoplamalar quyosh nurlarini yutib, havoning qizishiga sabab bo‘ladi. Bu hodisa “issiqlik oroli” effekti deb ataladi. Daraxtlar soyasi va transpiratsiya jarayoni orqali atrof muhit haroratini 2-4 gradus C gacha pasayishi mumkun.

Transpiratsiya jarayonida burglar orqali suv bug‘lanib, havoni sovutadi va namlikni me’yorlashtiradi. Bu ayniqsa yoz oylarida aholi uchun qulay mikroiqlim yaratadi. Yashil hududlarning kengaytirilishi shahar iqlimining mo‘tadillashuviga va energiya sarfining kamayishiga olib keladi (masalan, konditsionerlardan kamroq foydalaniladi). Daraxtlar shamol tezligini kamaytiradi va chang-to‘zon ko‘tarilishini cheklaydi. Qishda ular sovuq shamoldan himoya vazefasini bajaradi,yozda esa salqin mikroiqlim shakillantiradi.

Global iqlim o‘zgarishini va urbanizatsiya jarayonlari kuchayib borayotgan hozirgi davrda daraxtlarning iqlimiy roli tobora dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.Daraxt nafaqat biosferaning ajralmas qismi,balki atmosfera harorati,namligi va gaz tarkibini tartibga soluvchi muhim tabiiy mexanezm hisoblanadi. Ular mikroiqlimni shakllantirish, issiqxona gazlarini kamaytirish hamda hududiy iqlim barqarorligini ta’minlashda faol ishtirok etadi.



1-rasm Bioxilma-xillikni saqlashda shahar daraxtlarining roli ko‘rsatilgan.



2-rasm Daraxtlar biomassa tarkibida uglerodni saqlash jarayoni.

Daraxtlar iqlim tizimining tabiiy regulyatori hisoblanadi.Ular haroratni pasaytirish,namlikni oshirish, issiqxona gazlarini gazlarini kamaytirish hamda shamol va eroziyadan himoya qilish orqali global va hududiy miqyosda iqlim barqarorligini ta’minlaydi.

- ✓ Ko‘kalamzorlashtirish siyosatini kuchaytirish,
- ✓ Shahar rejalashtirishda yashil infratuzilmani kengaytirish,
- ✓ Ihota o‘rmonlarini barpo etish,
- ✓ Zamonaviy ekologik siyosatning ustuvor yo‘nalishlaridan biri bo‘lishi zarur.

Daraxtlar biomassa tarkibida uglerodni uzoq muddat saqlaydi.Bu jarayon global iqlim o‘zgarishini sekinlashtirishda muhim ahamiyatga ega.Shahar miqyosida keng ko‘lamli ko‘kalamzorlashtirish karbon balansini yahshilashga xizmat qiladi. Daraxtlar shahar muhitida ekologik va iqlimiy barqarorlikni ta’minlovchi asosiy ta’biiy omillardan biridir.Ular atmosfera havosini tozalash, mikroiqlimni tartibga solish, bioxilma-xillikni saqlash va tuproqni muhofaza qilish kabi ko‘plab funksiyalarni bajaradi. Shu bois zamonaviy shaharsozlikda yashil infratuzilmani

rivojlantirish, daraxt ekish va mavjud yashil hududlarni saqlab qolish strategik ahamiyat kasb etadi. Ekologik barqaror va iqlimga moslashuvchan shaharlarni shakllantirishda daraxtlar ajralmas tabiiy resurs hisoblanadi.

Xulosa: Shahar daraxtlari shahar ekologiyasi va iqlimining barqarorligini ta'minlashda markaziy tabiiy omil sifatida namoyon bo‘ladi. Ular havo ifloslanishini kamaytiradi, "issiqlik oroli" effektini yumshatadi, tuproq degradatsiyasini sekinlashtiradi va biologik xilma-xillikni saqlashga yordam beradi. Daraxtlar shahar mikroiqlimini tartibga solish, shovqin va changni kamaytirish, shuningdek vizual va psixologik qulaylik yaratish orqali shahar aholisining turmush sifatini yaxshilashga ham sezilarli hissa qo‘shadi. Urbanizatsiya jarayonining tezlashuvi shahar muhitida ekologik stressni kuchaytiradi va tabiiy resurslar, jumladan daraxtlarning ahamiyatini oshiradi. Shu sababli shahar daraxtlarini rejalashtirish, ularni muhofaza qilish va yashil infratuzilmani kengaytirish strategiyalari zamonaviy shaharlar uchun dolzarb hisoblanadi. Daraxtlar nafaqat ekologik va iqlimiy barqarorlikni ta'minlaydi, balki shahar iqtisodiy, ijtimoiy va estetik rivojlanishida ham muhim rol o‘ynaydi.Kelajakda barqaror shaharlarni rivojlantirishda yashil hududlarni kengaytirish, ekologik monitoring tizimlarini joriy etish va daraxtlarning ekologik-iqlimiy funksiyalarini ilmiy asosda baholash muhim ahamiyat kasb etadi. Shahar daraxtlarining ekologik, iqlimiy va ijtimoiy foydalarini hisobga olgan holda rejalashtirilgan yashil infratuzilma nafaqat tabiiy muvozanatni saqlaydi, balki shahar aholisi uchun sog‘lom va qulay yashash muhitini yaratadi.

Takliflar:

1. Shahar daraxtlarini rejalashtirish va ekish: Shaharsozlik jarayonida daraxtlar va yashil maydonlarni optimallashtirish, ularning hududiy joylashuvi, tur va yosh tarkibini hisobga olgan holda rejalashtirish zarur.

2. Yashil infratuzilmani rivojlantirish: Shahar hududlarida parklar, xiyobonlar, yashil ko‘chaliklar va tom yopish tizimlarini kengaytirish orqali ekologik barqarorlikni mustahkamlash.

3. Monitoring va baholash tizimlarini joriy etish: Daraxtlar va yashil hududlarning ekologik-iqlimiy funksiyalarini muntazam kuzatish, havo sifati, mikroiqlim va bioxilma-xillik ko‘rsatkichlarini tahlil qilish.

4. Shahar aholisi ishtiroki: Aholini yashil hududlarni muhofaza qilish va ko‘paytirishga jalb qilish, ekologik tarbiya va axborot-tushuntirish ishlarini kuchaytirish.

5. Ilmiy tadqiqotlar va tajribalar: Shahar daraxtlarining iqlimiy, ekologik va ijtimoiy foydasini ilmiy uslubda o‘rganish, turli shaharlar tajribasini tahlil qilib, samarali strategiyalar ishlab chiqish.

6. Siyosiy va huquqiy mexanizmlar: Yashil hududlarni himoya qilish, daraxtlarni kesish va zarar yetkazish holatlarini nazorat qilish, shahar rejalashtirish standartlarini qayta ko‘rib chiqish.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 30-dekabrdagi "Yashil makon" umummilliy loyihasi to‘g‘risidagi qarori.

2. O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo‘mitasi materiallari (rasmiy statistik ma'lumotlar).

3. Nowak, D.J., Crane, D.E., Stevens, J.C. (2006). Air pollution removal by urban trees and shrubs in the United States. Urban Forestry & Urban Greening, 4(3–4), 115–123. Oke, T.R. (1987). Boundary Layer Climates. London: Routledge.

4. Grimmond, C.S.B. (2007). Urbanization and global environmental change: local effects of urban warming. The Geographical Journal, 173(1), 83–88.Taha, H. (1997). Urban climates and heat islands: albedo, evapotranspiration, and anthropogenic heat. Energy and Buildings, 25(2), 99–103.

5. Bowler, D.E., Buyung-Ali, L., Knight, T.M., Pullin, A.S. (2010). Urban greening to cool towns and cities: A systematic review. Landscape and Urban Planning, 97(3), 147–155.

6. McPherson, E.G., Simpson, J.R. (2003). Potential energy savings in buildings by an urban tree planting programme in California. Urban Forestry & Urban Greening, 2(2), 73–86.

7. FAO (2016). Guidelines on Urban and Peri-urban Forestry. Rome: Food and Agriculture Organization of the United Nations.

UDK 528.88:631.4:004.9

LALMI HUDUDLAR DEGRADATSIYASINI GEOFAZOVIY TEXNOLOGIYALAR YORDAMIDA MONITORING QILISH: XORIJIY TAJRIBALAR TAHLILI.

D.D.Shog‘darov
Qarshi davlat texnika universiteti o‘qituvchisi

Annotatsiya. *Ushbu maqolada lalmi yerlar degradatsiyasini monitoring qilishda qo‘llaniladigan zamonaviy geofazoviy usullar va ularning xorijiy tajribadagi qo‘llanilishi tahlil qilinadi. Tadqiqotda fazoviy-statistik tahlil usullari, jumladan fazoviy regressiya va Kriging interpolyatsiyasi, shuningdek mashinali o‘qitish algoritmlari (Random Forest, SVM, ANN) yordamida degradatsiya jarayonlarini aniqlash imkoniyatlari ko‘rib chiqilgan. Bundan tashqari, RUSLE, CA-Markov va SWAT modellaridan foydalanish orqali eroziya va yer qoplami o‘zgarishlarini prognozlash masalalari yoritilgan. Cloud asosidagi geoma’lumot platformalari yordamida katta hududlarda multi-temporal monitoring olib borish imkoniyatlari ham tahlil qilingan. Tadqiqot natijalari lalmi yerlar degradatsiyasini samarali monitoring qilishda geofazoviy texnologiyalarni kompleks qo‘llash muhim ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatadi.*

Kalit so‘zlar: Fazoviy regressiya, Kriging interpolyatsiyasi, mashinali o‘qitish, Random Forest, geomodellashtirish, RUSLE modeli, Google Earth Engine.

Kirish. Lalmi yerlar degradatsiyasi qishloq xo‘jaligi barqarorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi muhim ekologik muammolardan biri hisoblanadi. Ushbu jarayonni aniqlash va monitoring qilishda zamonaviy geofazoviy texnologiyalardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. So‘nggi yillarda xorijiy tadqiqotlarda fazoviy-statistik tahlil, geostatistik interpolyatsiya, mashinali o‘qitish algoritmlari hamda geomodellashtirish usullaridan keng foydalanilmoqda. Mazkur usullar lalmi hududlarda degradatsiya jarayonlarining hududiy tarqalishini aniqlash, uning omillarini baholash hamda kelajakdagi o‘zgarishlarini prognozlash imkonini beradi. Ushbu maqolada lalmi yerlar degradatsiyasini monitoring qilish bo‘yicha xorijiy tajribalar fazoviy regressiya, Kriging, mashinali o‘qitish algoritmlari, geomodellashtirish modellari va cloud asosidagi geoma’lumot platformalari nuqtai nazaridan tahlil qilinadi.

Material va metodlar. Fazoviy regressiya usuli. Oddiy regressiyada fazoviy bog‘liqlik hisobga olinmaydi. Lalmi yerlarda esa, yomg‘ir miqdori, relyef, tuproq turi, yerdan foydalanish, bular fazoviy bog‘liqlikka ega. Bunda Spatial Lag Model (SLM), Spatial Error Model (SEM) modellari turlari ishlatiladi.

$$Y = pWY + X\beta + \varepsilon$$

Bu yerda: WY — fazoviy ta’sir, ρ — fazoviy koeffisient.

Lalmi yerlarda bu usullar degradatsiyaga ta’sir etuvchi omillarni aniqlash, iqlim va antropogen ta’sirni ajratish, prognozlash modelini yaratish imkonini beradi.

Kriging — Geostatistik interpolyasiya usuli. Uning maqsadi nuqtaviy ma’lumotdan uzluksiz xarita yaratish sanaladi.

$$Z(x_0) = \sum_{i=1}^{n} \lambda_i Z(x_i)$$

Bu yerda λ_i — og‘irlik koeffisienti, $Z(x_i)$ — o‘lchangan qiymat.

Uning lalmi yerlarda qo‘llanishi tuproq namligi kartografiyasi, tuzlanish darajasi, organik modda taqsimoti kabilarni beradi. Kriging fazoviy avtokorrelyasiyaga asoslangani uchun oddiy IDWdan aniqroq natija beradi.

Klassifikasiya va mashinali o‘qitish usullari (machine learning). So‘nggi 10 yilda xorijda degradatsiya monitoringida mashinali o‘qitish algoritmlari keng qo‘llanilmoqda. Eng ko‘p ishlatiladigan algoritmlar, bular Random Forest, Support Vector Machine (SVM), Artificial Neural Networks (ANN), Decision Tree. Xususan, Ispaniya va Avstraliyada lalmi yerlardan tuproq degradatsiya darajasi Random Forest orqali 85-92 foiz aniqlik bilan klassifikasiya qilingan[8]. Bu

[8] **“Machine learning classifiers outperform traditional threshold-based methods in mapping degraded drylands.” (Torres-Sánchez et al., 2018)**

usul lalmi yerlarda eroziya havfi, namlik tanqisligi, o‘simlik qoplamining pasayishi kabi omillarni kompleks baholash imkonini beradi.

Klassifikasiya va mashinali o‘qitish usullari lalmi yerlar degradatsiyasini aniqlashda zamonaviy yondashuv hisoblanadi.

So‘nggi 10–15 yilda lalmi yerlar degradatsiyasini monitoring qilishda mashinali o‘qitish (Machine Learning, ML) algoritmlari an’anaviy threshold (chegara) usullarini sezilarli darajada ortda qoldirdi. Bu usullar spektral indekslar (NDVI, SAVI, BSI), relyef (DEM), tuproq parametrlari va iqlim ma’lumotlarini bir vaqtda tahlil qilib, degradatsiya darajasini yuqori aniqlikda klassifikasiya qiladi.

Mashinali o‘qitish usuli an’anaviy usullar NDVI < 0.2 bo‘lganda degradatsiyani anglatadi. ML usulida esa NDVI + BSI + yomg‘ir + relyef + tuproq namligi ma’lumotlari avtomatik model va degradatsiya ehtimolligini (%) ko‘rsatib beradi. Uning afzalliklari noliney bog‘liqliklarni hisobga oladi, katta hajmdagi ma’lumotni tahlil qiladi, yuqori klassifikasiya aniqligiga ega.

Random Forest (RF) — eng ko‘p qo‘llaniladigan algoritm sanaladi.

$$y = \frac{1}{N}\sum_{k=1}^{N} h_k(x)$$

Bu yerda $h_k(x)$ — har bir qaror daraxti, N — daraxtlar soni.

Uning ishlashi, ma’lumot tasodifiy tanlanadi, bir nechta qarorlar daraxti (Decision Tree) quriladi, natijalar o‘rtacha qilinadi. Lalmi yerlarda qo‘llanishi esa degradatsiya darajasi (past, o‘rta, yuqori), eroziya xavfi klassifikasiyasi olinadi, cho‘llanish zonalarini aniqlash kabilarda samarali. Xorijiy tajribalarda esa Ispaniyaning yarimquruq hududlarida UAV + Sentinel ma’lumotlari asosida RF orqali degradatsiya darajasi 88–92% aniqlik bilan xaritalashtirilgan. Avstraliyada lalmi qishloq xo‘jaligi hududlarida RF orqali 85–90% umumiy aniqlik (Overall Accuracy) qayd etilgan.

Support Vector Machine (SVM) usul. Uning asosiy g‘oyasi ma’lumotni gipertekislik orqali ajratishdir.

$$min\frac{1}{2}(\omega)^2 + C\sum \xi_i$$

Bu yerda: w — gipertekislik vektori, C — xatolik ustamasi

Uning afzalliklari kam ma’lumot bilan ham samarali ishlay oladi, yuqori aniqlikda bo‘lib, spektral klassifikasiyada yaxshi ishlaydi. Lalmi yerlarda esa degradatsiya emas binar modelida ishlaydi, tuproq turlari ajratilishi ham bajariladi.

Artificial Neural Networks (ANN) usuli. Bu usulning asosiy maqsadi kirish yashirin qatlam chiqish kabi oddiy jarayonlarni o‘z ichiga oladi.

$$y = f(\sum \omega_i x_i + b)$$

Bu yerda ω_i — og‘irlik koeffisientlari, f — aktivlashtirish funksiyasi. Uning afzalliklari murakkab noliney munosabatlarni modellashtiradi, iqlim, indeks, relyefni birlashtiradi. Lalmi yerlarda qo‘llashda degradatsiya ehtimolligini % da baholash, uzoq muddatli prognozlash imkonini beradi.

Decision Tree usuli. Eng sodda algoritm hisoblanadi. Agar NDVI < 0.2 bo‘lsa, degradatsiya bo‘ladi. Agar BSI > 0.4 bo‘lsa, degradatsiya yuqori xavfda ekanligini ko‘rsatadi. Kamchiligi esa ortiqcha moslashuv (overfitting) xavfi RFga nisbatan aniqlik past hisoblanadi.

Geomodellashtirish va prognozlash usullari. Xorijiy tadqiqotlarda degradatsiya faqat qayd etilmasdan, balki prognoz ham qilib boriladi. Bunday usulda qo‘llaniladigan modellar RUSLE (eroziya modeli), CA-Markov modeli, SWAT modeli, Land Change Modeler (LCM) kabilardir. Masalan, AQSh va Xitoyda RUSLE+GIS integrasiyasi orqali lalmi yerlarda potensial eroziya xaritalari yaratilgan[9]. Bu usul o‘z navbatida degradatsiya havfini oldindan bilish imkonini beradi.

RUSLE - Revised Universal Soil Loss Equation. RUSLE - yer eroziyasini baholashda eng keng tarqalgan model.

$$A=R\times K\times LS\times C\times P$$

[9] **“GIS-based RUSLE modeling provides spatially explicit soil erosion risk maps for sustainable dryland management.” (Li et al., 2014)**

Bu yerda A — yillik tuproq yo‘qotilishi (t/ga/yil), R — yomg‘ir erozivligi (Rainfall erosivity), K — tuproqning eroziyaga moyilligi, LS — relyef (yonbag‘ir uzunligi va qiyaligi), C — o‘simlik qoplami omili, P — agrotexnik muhofaza omili.

CA-Markov modeli (Cellular Automata + Markov Chain). Bu model er qoplami o‘zgarishini prognoz qiladi. Markov modelining 1-bosqichida quyidashi ifoda bo‘yicha ishlanadi:

$$P_{ij} = \frac{n_{ij}}{\sum n_i}$$

Bu yerda Pij - bir holatdan ikkinchisiga o‘tish ehtimoli.

2-bosqich. Cellular Automata hisoblanadi. Bunda har bir piksel o‘z qo‘shnilari ta’sirida o‘zgaradi.

$$S_{t+1} = f(S_t, N)$$

Bu yerda N – qo‘shni piksellar ta’siri.

Lalmi yerlarda qo‘llanishi cho‘llanish kengayishini prognoz qilish, degradatsiya maydoni o‘sishini bashorat qilish hamda 2030–2040 yillarga senariy yaratish imkoniyatini beradi. Xitoyning shimoliy yarimcho‘l hududlarida CA-Markov orqali 20 yillik degradatsiya dinamikasini muvaffaqiyatli prognozi ishlab chiqilgan.

SWAT modeli (Soil and Water Assessment Tool). SWAT - gidrologik modeli. U suv oqimi, cho‘kindilar (sediment yield), tuproq yo‘qotilishini baholaydi. Asosiy tenglama (suv balansi):

$$SW_t = SW_0 + \sum (R - Q - ET - P - Q_g)$$

Bu yerda R - yomg‘ir, Q - yuza oqimi, ET - bug‘lanish, P - filtrasiya,

Qg - yer osti oqimi.

Lalmi yerlarda ahamiyati shundaki, qurg‘oqchilik ta’sirini modellashtirish, eroziya va suv tanqisligi aloqasini baholash, iqlim o‘zgarishi ssenariylarini tekshirish yuzasidan samarali hisoblanadi. Avstraliya va AQShda SWAT orqali lalmi qishloq xo‘jaligi hududlarida eroziya prognozi ishlab chiqilganligi manbalarda keltiriladi.

1-jadval

Xorijiy usullarning qiyosiy tahlili

№	Guruh	Usulning afzalliklari	Usulning kamchiliklari	Lalmi yerlar uchun mosligi
1	Indek usuli	Tez va arzon	Faqat yuza baholaydi	Yuqori
2	Fazoviy tahlil	Klastre aniqlaydi	Statistik murakkab	Yuqori
3	ML klassifikasiya	Yuqori aniqlik	Ma’lumot talab qiladi	Juda yuqori
4	Geomodellashtirish	Prognoz beradi	Kalibrovka talab qiladi	Yuqori
5	Cloud platforma	Katta hudud qamrovi	Internetga bog‘liq	Juda yuqori

Integrasiyalashgan geoma’lumotlar platformalari. Hozirgi kunda monitoring platformalari cloud asosida ishlamoqda. Eng ko‘p qo‘llaniladigan platformalar, bular Google Earth Engine, ArcGIS Onlayn, QGIS + Python, Copernicus Open Access Hub kabi platformalardir. Google Earth Engine orqali 30 yillik Landsat arxivi bilan multi-temporal degradatsiya tahlili amalga oshiriladi[10]. Bu usul katta hududlarda (milliy masshtabda) monitoring yuritish imkonini beradi.

Yuqorida qishloq xo‘jaligida lalmi yerlarning degradatsiyasini monitoring qilish bo‘yicha xorijiy tajribalarni ko‘rib chiqdik. Endigi maqsadimiz ularni qiyosiy taqqoslash orqali O‘zbekiston sharoitida qo‘llash mumkin bo‘lgan jihatlarini ko‘rib chiqishdir. Shu sababdan ham o‘rganilgan xorijiy tajribalarni quyidagi jadval asosida taqqoshlash bo‘yicha ko‘rib chiqdik.

Yuqoridagi jadval ma’lumotlaridan ko‘rishimiz mumkinki, berilgan usullarning har birini

[10] **“Cloud-based geospatial platforms enable large-scale degradation monitoring with minimal computational constraints.” (Gorelick et al., 2017)**

o‘ziga yarasha ustunlik jihatlari hamda kamchiliklari mavjud. Asosiy jihati esa ularning qaysi birini O‘zbekiston sharoitida uning iqlim sharoitlariga mos xolatda iqlim xolatidan kelib chiqib ko‘rish mumkin.

Xorijiy tajribalar shuni ko‘rsatadiki, lalmi yerlar degradatsiyasini samarali monitoring qilish uchun NDVI + BSI dinamikasi, Moran’s I orqali klaster tahlil, Random forest klassifikasiyasi, Rusle asosida eroziya xavfi modeli Google Google Earth Engine asosida multi-temporal tahlil kompleks integrasiya qilinishi maqsadga muvofiq.

Lalmi yerlar degradatsiyasini geofazoviy usullar asosida monitoring qilish bo‘yicha xorijiy tajribalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, zamonaviy yondashuvlar an’anaviy kuzatuv usullaridan farqli ravishda integrasiyalashgan, ko‘p manbali va prognostik xarakterga ega.

Avvalo, indekslarga asoslangan monitoring (NDVI, SAVI, EVI, BSI) xalqaro amaliyotda degradatsiyaning dastlabki indikatorlarini tezkor va katta hududlarda aniqlash imkonini bermoqda. NASA va European Space Agency tomonidan taqdim etilgan Landsat va Sentinel-2 ma’lumotlari asosida o‘simlik qoplami dinamikasi, tuproq yuzasining ochilishi hamda cho‘llash tendensiyalari yuqori aniqlikda kuzatilmoqda. Bu yondashuv lalmi yerlarda degradatsiyaning erta bosqichlarini aniqlashda samarali instrument sifatida shakllangan.

Ikkinchidan, fazoviy-statistik tahlil usullari (Moran’s I, Getis-Ord Gi, spatial regression, Kriging) degradatsiyaning faqat mavjud darajasini emas, balki uning fazoviy klasterlari va tarqalish markazlarini aniqlash imkonini bermoqda. Xususan, yarimqurg‘oq hududlarda hotspot analysis orqali degradatsiyaning konsentrasiya o‘choqlari aniqlanib, boshqaruv qarorlarini hududiy ustuvorlik asosida qabul qilish mexanizmi takomillashtirilgan.

Uchinchidan, mashinali o‘qitish algoritmlari (Random Forest, SVM, ANN, Decision Tree) degradatsiya darajasini klassifikasiya qilishda yuqori aniqlikka erishish imkonini bermoqda. Ispaniya va Avstraliya tajribasi shuni ko‘rsatadiki, Random Forest algoritmi orqali tuproq degradatsiya darajasi 85–92% aniqlik bilan baholangan. Bu esa inson omili ta’sirini kamaytirish, ko‘p omilli tahlilni avtomatlashtirish va katta ma’lumotlar bilan ishlash imkoniyatini kengaytirmoqda.

To‘rtinchidan, geomodellashtirish va prognozlash usullari (RUSLE, CA-Markov, SWAT, LCM) degradatsiyani faqat qayd etish bilan cheklanmasdan, uning kelgusi rivojlanish ssenariylarini bashorat qilish imkonini bermoqda. Ayniqsa, RUSLE + GIS integrasiyasi orqali potensial eroziya xaritalari yaratilib, xavf darajasi zonalashtirilmoqda. Bu esa lalmi yerlarda preventiv chora-tadbirlarni ilmiy asosda rejalashtirishga xizmat qiladi.

Umuman olganda, xorijiy tajriba quyidagi metodologik tendensiyalarni namoyon etadi:

Ko‘p manbali ma’lumotlar integrasiyasi (sputnik, dron, meteoma’lumot, tuproq tahlillari);

Fazoviy-statistik klaster tahlili orqali degradatsiya markazlarini aniqlash;

Mashinali o‘qitish orqali avtomatlashtirilgan klassifikasiya;

Prognostik modellashtirish orqali ssenariy tahlili;

Monitoringdan boshqaruvga yo‘naltirilgan qaror qabul qilish tizimiga o‘tish.

Shu asosda aytish mumkinki, lalmi yerlar degradatsiyasini monitoring qilishda zamonaviy xorijiy yondashuvlar dinamik, ko‘p bosqichli va prognozga yo‘naltirilgan geofazoviy tizimni shakllantirgan. Ushbu tajribalarni milliy sharoitga moslashtirish, ayniqsa, yarimqurg‘oq va iqlim o‘zgarishiga moyil hududlarda degradatsiya jarayonlarini erta aniqlash va barqaror yer boshqaruvini ta’minlashda muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Xulosa: O‘rganilgan xorijiy tajribalar shuni ko‘rsatadiki, lalmi yerlar degradatsiyasini monitoring qilishda geofazoviy usullarni kompleks qo‘llash samarali natija beradi. Fazoviy regressiya va Kriging kabi fazoviy-statistik usullar degradatsiya jarayonlarining hududiy xususiyatlarini aniqlash imkonini beradi. Mashinali o‘qitish algoritmlari esa ko‘p omilli ma’lumotlar asosida degradatsiya darajasini yuqori aniqlikda klassifikatsiya qilish imkoniyatini yaratadi. Shuningdek, RUSLE, CA-Markov va SWAT kabi geomodellashtirish usullari degradatsiya va eroziya jarayonlarini prognozlashda muhim vosita hisoblanadi. Cloud asosidagi geoma’lumot platformalari esa katta hududlarda ko‘p yillik monitoringni tez va samarali amalga oshirish imkonini beradi. Ushbu yondashuvlarni O‘zbekiston sharoitiga moslashtirish lalmi yerlar degradatsiyasini erta aniqlash va yer resurslaridan barqaror foydalanishni ta’minlashga xizmat

qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. European Space Agency. *Sentinel Data User Guide*. ESA Publications, 2020.

2. Gorelick N. et al. Google Earth Engine: Planetary-scale geospatial analysis for everyone. *Remote Sensing of Environment*, 2017.

3. Turayev R.A., Sharopov R.N. Lalmi yerlarda zamonaviy sug‘orish texnologiyalarini qo‘llashning ahamiyati // Xorazm Ma’mun Akademiyasi axborotnomasi. - Xiva, 2020. - №8. - Б. 247-250.

4. Turayev R.A., Sharopov R.N. Lalmi yerlar monitoringini yuritishda innovatsion texnologiyalarni qo‘llashning ahamiyati // “Agro kimyo himoya va o’simliklar karantini” ilmiy-amaliy jurnali. Toshket -2020 - №4-B. 86-88.

5. Muxtorov O‘., Shog‘darov D. Respublikada lalmi yer maydonlarining mavjud holati va undan foydalanish holati // “Geodeziya, kartografiya va geoinformatika” ilmiy- texnik jurnali. Toshkent -2024 - №3-B. 82-86.

6. Muxtorov O‘. B., Shog‘darov D. D. Lalmi yerlardan samarali foydalanishning mohiyati // “Zamonaviy geografik tadqiqotlarda integratsiya: muammolar va yechimlar” xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya. Toshkent -2024-B. 176-179

UDK 528.88:631.4:004.9

XORIJIY TAJRIBALAR ASOSIDA LALMI YERLAR DEGRADATSIYASINI MONITORING QILISHDA GEOFAZOVIY TEXNOLOGIYALARNI QO‘LLASH

D.D.Shog‘darov
Qarshi davlat texnika universiteti

Annotatsiya. *Maqolada lalmi yerlar degradatsiyasini monitoring qilishda qo‘llaniladigan zamonaviy geofazoviy yondashuvlar hamda ularning xorijiy tajribadagi qo‘llanilishi tahlil qilinadi. Tadqiqotda spektral indekslar asosida vegetatsiya holatini baholash, ko‘p yillik kosmik tasvirlar yordamida degradatsiya jarayonlarini aniqlash hamda indekslar integratsiyasi orqali kompleks degradatsiya ko‘rsatkichlarini shakllantirish masalalari yoritilgan. Shuningdek, fazoviy-statistik tahlil usullari - Moran’s I avtokorrelyatsiya tahlili va Getis-Ord Gi hotspot tahlili yordamida degradatsiya hududlarining klasterlashuvi va tarqalish markazlarini aniqlash imkoniyatlari ko‘rsatib berilgan. Tadqiqot natijalari lalmi hududlarda degradatsiya jarayonlarini aniqlash, cho‘llanish xavfini baholash va monitoring tizimini takomillashtirish uchun ilmiy asos bo‘lib xizmat qiladi.*

Kalit so‘zlar: Lalmi yerlar, degradatsiya, geofazoviy texnologiyalar, masofadan zondlash (RS), NDVI, spektral indekslar, fazoviy-statistik tahlil, Moran’s I, Hotspot analysis, monitoring.

Kirish. Bugungi kunda qishloq xo‘jaligi yerlarining degradatsiyasi global miqyosda dolzarb ekologik muammolardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, lalmi yerlar tabiiy iqlim sharoitlariga yuqori darajada bog‘liqligi sababli degradatsiya jarayonlariga nisbatan sezgir hisoblanadi. Vegetatsiya qoplamining kamayishi, tuproq eroziyasi, namlik tanqisligi hamda cho‘llanish jarayonlari ushbu hududlarning unumdorligini pasaytirib, agroekotizimlarning barqarorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Shu sababli lalmi yerlarning holatini muntazam monitoring qilish va degradatsiya jarayonlarini erta bosqichda aniqlash muhim ilmiy va amaliy ahamiyatga ega.

So‘nggi yillarda geofazoviy texnologiyalar, xususan geografik axborot tizimlari (GAT) va kosmik masofadan zondlash (Remote Sensing) ma’lumotlari asosida yer resurslarini monitoring qilish imkoniyatlari kengayib bormoqda. Landsat va Sentinel kabi sun’iy yo‘ldosh dasturlari orqali olingan ko‘p yillik tasvirlar vegetatsiya dinamikasini tahlil qilish, spektral indekslar asosida degradatsiya darajasini baholash hamda hududiy o‘zgarishlarni aniqlash imkonini beradi. Bundan tashqari, fazoviy-statistik tahlil usullari, jumladan Moran’s I va Getis-Ord Gi modellari degradatsiya jarayonlarining hududiy tarqalishi va klasterlashuvini aniqlashda keng qo‘llanilmoqda.

Mazkur maqolaning maqsadi lalmi yerlar degradatsiyasini monitoring qilishda qo‘llaniladigan geofazoviy texnologiyalar bo‘yicha xorijiy tajribalarni tahlil qilish hamda indekslarga asoslangan monitoring, fazoviy-statistik tahlil, klassifikatsiya va mashinali o‘qitish usullarining ilmiy-amaliy imkoniyatlarini yoritishdan iborat.

Material va metodlar. Lalmi yerlar monitoringini takomillashtirish usullari bo‘yicha tadqiqotlarni olib borishda xorijiy tajribalarni o‘rganish katta ahamiyat kasb etadi. Xorijiy tajribalar asosan innovatsion texnologiyalar va ularni samarali qo‘llash yuzasidan o‘zining katta samaradorligini ko‘rsatib kelmoqda.

O‘rganilgan xorijiy adabiyotlar va ilmiy nashrlarga asosan xorijiy tadqiqotlarda lalmi yerlar degradatsiyasini monitoring qilishda qo‘llaniladigan GAT usullari odatda beshta guruhga ajratiladi. Bular: indekslarga asoslangan monitoring; fazoviy-statistik tahlil, klassifikatsiya va mashinali o‘qitish (machine learning); geomodellashtirish va prognozlash; integratsiyalashgan geoma’lumot platformalari.

Indekslarga asoslangan monitoring usullari. Lalmi yerlarda degradatsiyani baholashda eng ko‘p tarqalgan usul – spektral indekslardan foydalanish usulidir. Bunda asosiy indekslar NDVI (Normalized difference vegetation index), SAVI (Soil adjusted vegetation index), EVE (Enhanced vegetation index) va BSI (Barel soil index) indekslar sanaladi. Ushbu indekslar asosan o‘simlik qoplamining kamayishi, tuproq yuzasining ochilishi, cho‘llash tendensiyalarini ochilishida ishlatiladi.

Xorijiy tajriba sifatida NASA va Europian Space agensy tomonidan taqdim etilgan Landsat va Sentinel ma’lumotlari asosida lalmi yerlarda vegetatsiya dinamikasi kuzatib boriladi[11]. Ma’lumotlar shuni ko‘rsatadiki, Afrika va Markaziy Osiyo hududlarida MODIS sun’iy yo‘ldoshi ma’lumotlari asosida 20-25 yillik dinamik tahlillar amalga oshirilgan.

Lalmi yerlar degradatsiyasini baholashda spektral indekslar - eng tezkor, iqtisodiy va katta hududlarni qamrab oluvchi monitoring instrumenti hisoblanadi. Ushbu usul kosmik masofadan zondlash (RS) ma’lumotlariga asoslanadi. Ayniqsa, ko‘p yillik (multi-temporal) tahlilda samarali.

NASA - Landsat dasturi. Landsat (1972–hozirgacha) — yer yuzini kuzatish bo‘yicha eng uzoq arxivga ega dastur. Uning asosiy xususiyatlari 30 m fazoviy aniqlik, 16 kunlik qayta tasvirga olish, RED, NIR, SWIR kanallari mavjud, 50 yillik arxiv mavjud. Lalmi yerlarda NDVI orqali 30 - 40 yillik degradatsiya trendi tahlil qilinadi. Qurg‘oqchilik yillarida vegetatsiya dinamikasi aniqlanadi. Cho‘llanishning bosqichma-bosqich kengayishi baholanadi.

European Spice agency – Sentinel dasturi, Sentinel -2 (2015–hozirgacha): 10–20 m fazoviy aniqlik, 5 kunlik qayta tasvirga olish, qo‘shimcha “Red-edge” kanallar. Bepul va ochiq ma’lumot olish mumkin. Uning afzalliklari shundan iboratki, lalmi yerlarda erta degradatsiya belgilarini aniqlash mumkin. Oldingi va keyingi holatni tez solishtirish imkoniyati mavjud. Shuningdek, mavsumiy tahlil imkoniyatini beradi.

NDVI – vegetatsiya holat indekatori.

$$NDVI = \frac{NIR - RED}{NIR + RED}$$

Uning qiymati -1 dan +1 oralig‘ida o‘zgaradi.

NDVI	***Mazmuni***
0.6-0.8	*Sog‘lom o‘simlik*
0.3-0.5	*O‘rtacha*
0-0.2	*Kam o‘simlik*
<0	*Ochiq tuproq*

Lalmi yerlarida NDVI uzoq muddatli kamayishi degradatsiyaga signal sanaladi. Qurg‘oqchilik sikllarini aniqlash, biomassa pasayishi bahosini aniqlashda keng qo‘llaniladi. Asosan vaqt seriyasi asosida cho‘llanish dinamikasi baholangan.

SAVI — Tuproq ta’sirini kamaytiruvchi indeks.

$$SAVI = \frac{NIR - Red}{NIR + Red + L} * (1 + L)$$

[11] **“NDVI time-seriyes analysis provides a reliable proxy for detecting long-term degradation trends in rainfed agricultural systems.” (Pettorelli et al., 2005)**

Bu yerda L ≈ 0.5 ga teng.

Lalmi yerlarda bu indeksni qo‘llashda o‘simlikli hududlarda NDVI ga nisbatan aniqroq bo‘lib, tuproq yuzasi ochiq bo‘lgan yerlarda foydalanish juda ham samarali hisoblanadi.

EVI — Yuqori biomassa hududlari uchun mo‘ljallangan.

$$EVI = G * \frac{NIR + Red}{NIR + C_1 * Red - C_2 * Blue + L}$$

Bu yerda G = 2.5 ga, C_1 = 6 ga, C_2 = 7.5 ga, L = 1 ga teng qiymatlar hisoblanadi. Uning afzallik tomonlari shundaki, atmosferaning ta’siri nisbatan kamroq, yuqori biomassada kislorod muammosi pastroq.

BSI - Ochiq tuproq indikatori.

$$BSI = \frac{(SWIR + Red) - (SWIR + Blue)}{(SWIR + Red) + (SWIR + Blue)}$$

Lalmi yerlarda eroziya xavfli joylarni yuqori aniqlikda aniqlaydi, NDVI bilan birgalikda ishlatiladi.

Multi-temporal (ko‘p yillik) monitoring metodikasi.

Xorijiy tajribada bu usulda asosiy yondashuv vaqt seriyasi orqali holatni tahlil qilib borish hisoblanadi. Bunda 20-30 yillik Landsat arxivi yuklanadi, har bir yil uchun NDVI hisoblab chiqiladi, Linear regression yoki Mann-Kendall trend tahlili o‘tkaziladi va degradatsiya xaritasi yaratiladi.

Indekslar integrasiyasi (Composite Degradation Index). Xorijiy tadqiqotlarda Lalmi yerlarni degradatsiyasini aniqlashda hisoblab chiqilgan indekslar kombenasiya qilinadi.

$$LDI = \omega_1 * NDVI + \omega_2 * NDRE + \omega_3 * BSI$$

Bu yerda ω — og‘irlik koeffisientlari (AHP yoki PCA orqali aniqlanadi). Bu usul yagona degradatsiya indeksi yaratish va hududiy taqqoslash ishlarini bajarish hamda klasterlashda keng qo‘llaniladi.

Fazoviy-statistik tahlillar usuli. Bu guruhda Lalmi yerlar degradatsiya hududiy konsentrasiyasi va tarqalishi aniqlanadi. Qo‘laniladigan usullar esa Moran’s (avtokorrellasiya tahlili), Getis-Ord Gi (Hotspot analises), spatial regreation, Kriging interpolyasiyasi. Xitoy va AQSh da Lalmi yerlarining cho‘llanish tendensiyasi Hotspot analises usuli orqali aniqlangan[12]. Bu usul degradatsiyaning faqat mavjud holatini emas, balki tarqalish markazlarini ham ko‘rsatib bera oladi.

Lalmi yerlarda degradatsiya odatda noteng (heterogeneous) va klasterli (clustered) xarakterga ega. Shu bois, oddiy indeks xaritalari (NDVI, BSI) yetarli emas - degradatsiyaning qaysi joyda to‘planayotgani, qaysi hududlar xavf markaziga aylanayotganini aniqlash uchun fazoviy-statistik usullar qo‘llaniladi. Quyida xorijiy amaliyotda eng ko‘p qo‘llaniladigan 4 ta usulni ochib beramiz.

Moran’s I - fazoviy avtokorrelyasiya tahlili. Uning maqsadi, hududda degradatsiya qiymatlari (masalan, NDVI pasayishi) tasodifiymi yoki klasterlashganmi - shuni aniqlash imkonini beradi.

$$I = \frac{n}{W} \frac{\sum i \sum_j \omega_{ij}(x_i - x^-)(x_j - x^-)}{\sum_i (x_i - x^-)^2}$$

Bu yerda: n — piksellar/obyektlar soni

ω_{ij} — fazoviy og‘irlik koeffitsiyenti

x_i — indeks qiymati (masalan NDVI)

x^- — o‘rtacha qiymat

I qiymati	Mazmuni
I>0	Klasterlashgan degradatsiya
I=0	Tasodifiy tarqalish
I<0	Dispersiya (bir biriga teskari)

[12] **“Spatial autocorrelation analysis significantly improves identification of degradation clusters in semi-arid landscapes.” (Zhang et al., 2018)**

Ularning lalmi yerlarda qo‘llanishi esa NDVI past qiymatlarining guruhlanishini aniqlash, cho‘llanish jarayonining boshlang‘ich markazlarini topish, hududiy xavf zonalarini belgilashda juda samarali sanaladi.

Xitoyning shimoliy yarimcho‘l hududlarida NDVI trendiga Moran’s I qo‘llanib, degradatsiyaning klasterli xarakterga ega ekani isbotlangan.

Getis-Ord Gi — Hotspot Analysis. Bu usulning maqsadi yuqori va past qiymatli hududlarning statistik ahamiyatli markazlarini aniqlashdar.

$$G_i^* = \frac{\sum_j \omega_{ij} x_j - X^- \sum_j \omega_{ij}}{S \times \sqrt{\frac{[n \sum_j \omega_{ij}^2 - (\sum_j \omega_{ij})^2]}{n-1}}}$$

Buning natijasida Z-score xaritasi hosil bo‘ladi.

Z-score	**Talqin**
+2.58	Kuchli hotspot (degradatsiya markazi)
0	Neytral
-2.58	Cold spot (talqin zonasi)

Lalmi yerlarda ahamiyati shundan iboratki, cho‘llanish markazlarini aniqlash, eroziya kuchaygan uchastkalarni belgilash, davlat monitoring strategiyasini hududlashtirish kabilar shular jumlasidandir. Xorijiy tadqiqotlarda (AQSh va Xitoy) hotspot tahlil degradatsiyaning faqat umumiy holatini emas, balki uning intensiv o‘sish nuqtalarini ko‘rsatgan.

Xulosa: Lalmi yerlar degradatsiyasini monitoring qilishda geofazoviy texnologiyalar muhim ilmiy va amaliy ahamiyatga ega. Xorijiy tajribalar shuni ko‘rsatadiki, kosmik masofadan zondlash ma’lumotlari asosida spektral indekslardan foydalanish degradatsiya jarayonlarini tezkor va katta hududlarda aniqlash imkonini beradi. Landsat va Sentinel sun’iy yo‘ldosh tasvirlari asosida ko‘p yillik vegetatsiya dinamikasini tahlil qilish degradatsiya jarayonlarining vaqt bo‘yicha o‘zgarishini baholashga xizmat qiladi.

Bundan tashqari, fazoviy-statistik tahlil usullari, xususan Moran’s I va Getis-Ord Gi modellari degradatsiya jarayonlarining hududiy tarqalishini aniqlash hamda xavf markazlarini belgilashda muhim vosita hisoblanadi. Indekslar integratsiyasi orqali yaratilgan kompleks degradatsiya indekslari esa hududlar o‘rtasida taqqoslash va degradatsiya darajasini baholash imkonini beradi. Shunday qilib, geofazoviy texnologiyalarni qo‘llash lalmi yerlar degradatsiyasini monitoring qilish tizimini takomillashtirish va yer resurslaridan barqaror foydalanishni ta’minlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Chen J. et al. Monitoring desertification using remote sensing in arid regions. Ecological Indicators, 2014

2. European Space Agency. Sentinel-2 User Guide, ESA Publications, 2020.

3. Shogdarov D., Mukhtorov U., Islomov U., Sultanbekova P., Nazarov M., Ermakhametova E. and Karimov E. Study of assessment and monitoring of pastures land areas in hills based on GIS technologies (case study Southern Uzbekistan). E3S Web of Conf., 590 (2024) 01006

4. O‘zbekhon Muxtorov, D. Shog‘darov. Remote Sensing–Based Online Monitoring Systems for Assessing Degradation of Rainfed Lands. Global Journal of Research in Agriculture & Life Sciences. ISSN: 2583-4576 (Online)

5. Muxtorov O‘., Shog‘darov D. Respublikada lalmi yer maydonlarining mavjud holati va undan foydalanish holati. “Geodeziya, kartografiya va geoinformatika” ilmiy- texnik jurnali. Toshkent -2024 - №3-B. 82-86.

6. Shog‘darov D.D. Qashqadaryo viloyatidagi lalmi yerlarning mavjud holati // “Ekologiya, atrof muhitni asrash va yashil makon: muammo, yechimlar va natijalar” xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya. Qarshi -2025-B. 324-328

7. Shog‘darov D.D. Lalmi hududlardan foydalanishga ta’sir etuvchi omillar, ularning tavsifi “Ekologiya, atrof muhitni asrash va yashil makon: muammo, yechimlar va natijalar” xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya. Qarshi -2025-B. 262-267

UDK 528.8:631.4

GAT VA MASOFADAN ZONDLASH ORQALI TUPROQ SHO‘RLANISHI HOLATINI TAHLIL QILISH

D. D. Shog‘darov, J.B.Ungboyev
Qarshi davlat texnika universiteti

Annotatsiya. *Tuproq sho‘rlanishining ortishi dunyoda, shuningdek, O‘zbekistonda oziq-ovqat xavfsizligi va ekologik sharoit uchun eng xavfli omillardan biridir. Tadqiqot hududi O‘zbekistonning janubiy qismida joylashgan. Sun’iy yo‘ldosh tasvirlari 2015-2025 yillar oralig‘ida 5 yillik vaqt oralig‘ida olingan. Tuproq sho‘rlanishini tahlil qilish uchun ArcGIS dasturiy ta’minotidan foydalanilgan va Masofadan zondlash ma’lumotlari tomonidan Farqi NDSI (Normalized Difference Salinity Index) Normallashtirilgan Sho‘rlanish Indeksidan foydalanilgan. Sho‘rlamish yillar kesimiga qarab o‘zgarib ortib borgan 2015-2020-yillarda biroz so‘rlangan yerlar ko‘p bo‘lsa, 2025-yilga kelib esa sho‘rlangan yerlar miqdori oshib ketganini ko‘rishimiz mumkin.*

Kalit so‘zlar: NDSI (Normalized Difference Salinity Index), Lansat 8/9, USGS, SWIR, NIR, drenaj, degradatsiya, sho‘rlanish, monitoring, sug‘orish.

Kirish. Eng avvalo, yer insoniyatni oziqlantiradi va yer resurslariga qayta tiklanmaydigan va qimmatli boylik sifatida qarash juda muhimdir. Tuproq turli maqsadlarda, jumladan oziq-ovqat, ozuqa, yog‘och va tola ishlab chiqarish, shuningdek, karbonat angidridni yutish va saqlash orqali atrof-muhitni saqlash va iqlimni muhofaza qilish uchun xizmat qiladigan cheklangan resursdir Sug‘oriladigan dehqonchilik maydonlarining sho‘rlanishi hozirgi vaqtda yer resurslarining barqarorligi, qishloq xo‘jaligi unumdorligi va oziq - ovqat xavfsizligiga salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi global ekologik muammo hisoblanadi. Sug‘oriladigan tuproqlarda sho‘rlanish qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishini kamaytiradi va qurg‘oqchil mamlakatlarda oziq-ovqat taqchilligini keltirib chiqaradi.

Asosiy qism. O‘rganilayotgan tadqiqot hududi (Nishon tumani) O‘zbekiston Respublikasining Qashqadaryo viloyati janubiy qismida joylashgan. Tadqiqot maydonining geografik joylashuvi shimoliy kenglik 38°33’26" N sharqiy uzoqlik 65°34’14" E tashkil qiladi. Tumanning umumiy maydoni 2100 kvadrat kilometrni (yoki 210 ming gektar) tashkil etadi. Iqlimi keskin kontinental bo‘lib o‘ziga xos quruq va issiq xususiyatlarga ega.

Yoz fasli: Juda issiq va uzoq davom etadi. Iyul oyida o‘rtacha harorat +30...+35°C atrofida bo‘lsa-da, ba’zan +45°C va undan yuqori issiqlik kuzatiladi. Havo o‘ta quruq bo‘lgani sababli bug‘lanish kuchli bo‘ladi. Qish fasli qisqa va nisbatan yumshoq, biroq keskin sovishlar ham sodir bo‘lishi mumkin. Yanvar oyining o‘rtacha harorati 0°C atrofida bo‘ladi.



1-rasm. Tadqiqot maydoni xaritasi

Yog‘ingarchilik: Tuman cho‘l va adirlardan iborat bo‘lgani uchun yog‘in miqdori kam (yiliga

o‘rtacha 180–220 mm). Yog‘inning asosiy qismi qish oxiri va bahor oylariga to‘g‘ri keladi.Shamol: Hududda tez-tez changli shamollar (masalan, janubiy yo‘nalishdan) esib turadi. Vegetatsiya davrining davomiyligi o‘rtacha 290-300 kunni tashkil qiladi.Bunday uzoq davom etgan vegetatsiya davri tufayli foydali harorat yig‘indisi yuqori, esa paxta va g‘alla kabi issiqsevar mahsulotlar yetishtirish uchun juda qulay.

Tuproqning sho‘rlanish darajasini va uning fazoviy tarqalish maydonini aniqlash sug‘oriladigan maydonlarning sho‘rlanishining oldini olishda muhim ahamiyatga ega. Tuproqning sho‘rlanishini baholashning bir necha usullari mavjud bo‘lib, ulardan biri masofadan zondlash ma’lumotlariga asoslanadi, bu oddiy va iqtisodiy jihatdaт maqsadga muvofiq texnologiyadir. Masofadan Zondlash ma’lumotlaridan foydalangan holda tuproq sho‘rlanishini baholash tadqiqotchilar yoki ushbu sohadagi davlat tashkilotlari tomonidan hali keng tarqalgan emas. Chunki ular insituti (joyda) to‘plangan dala ma’lumotlariga tayanadilar. Biroq, bu usul ko‘proq vaqt, ishchi kuchi va milliy yoki xalqaro loyihalar yoki hukumat tomonidan ko‘proq moliyaviy yordam talab qiladi. Bunday vaziyatda, MZ ma’lumotlari va GAT texnologiyalari yerni boshqarish bo‘yicha shoshilinch qarorlar qabul qilish va tuprog‘i sho‘rlangan. hududlarning o‘zgarishini barqaror monitoring qilish uchun foydali bo‘ladi. Shu bilan birga, geofazoviy tahlilda tuproq sho‘rlanishining ko‘plab ko‘rsatkichlari mavjud. Ulardan biri NDSI indeksidir (1- tenglama.) NDSI tuproq va suv havzalarida sho‘rlangan hududlarni aniqlash imkonini beruvchi masofaviy zondlashning muhim vositasidir. Sun’iy yo‘ldosh tasvirlari va boshqa masofaviy zondlash ma’lumotlaridan foydalangan holda, u sho‘rlangan tuproqlarni samarali ravishda farqlaydi va ma’lum bir hududda sho‘rlanish darajasini baholaydi. +1 ga yaqinlashayotgan NDSI qiymatlari tuproqning yuqori sho‘rlanishi bilan bog‘liq, -1 esa aksincha Yashil va qisqa to‘lqinli infraqizil (SWIR) nurlar aks ettirish o‘rtasidagi farqni normallashtiradigan NDSI formulasining ahamiyatidan biri uning o‘zgaruvchan yorug‘lik sharoitlari, sensorlarning o‘zgaruvchanligi va atmosfera shovqinlarining ta’sirini minimallashtirish qobiliyatidir. Bu uning ishonchliligi va keng qamrovli geografik joylashuvlarda va turli vaqt oralig‘ida qo‘llanilishini oshiradi va ushbu tadqiqotda quyidagi formuladan foydalangan holda sho‘rlangan hududlarni aniqlash uchun tanlangan:

$$NDSI = (SWIR - NIR)/ (SWIR + NIR)$$

yoki

$$NDSI=(B6-B5)/(B6+B5)$$

(**B6**=SWIR, **B5**=NIR)

Misol uchun:

NDSI - ko‘rinadigan (Yashil) va qisqa to‘lqinli infraqizil (SWIR) o‘rtasidagi aks ettirish farqining nisbiy kattaligi o‘lchovidir. U ikkita diapazonning o‘zgarishini nazorat qiladi (biri yaqin infraqizil yoki qisqa to‘lqin/li infraqizilda, ikkinchisi spektrning ko‘rinadigan qismlarida).

NDSI formulalari tasnifi diapazonlari 4 sinfga bo‘lingan (1-jadval), masalan, sho‘rlanmagan, biroz sho‘rlangan, sho‘rlangan, yuqori sho‘rlangan tuproqlar.

1-jadval.

NDSI tasnifi

Diapazon	Tuproqni sho‘rlanish sinflari
Yuqori sho‘rlangan	-0,0636-0,0412
Sho‘rlangan	-0,128-(-0,0636)
Biroz sho‘rlangan	-0,158-(-0,128)
Sho‘rlanmagan	-0,529-(-0,158)

Tanlangan tadqiqot davri 2015-2025 yillardagi 10 yilni tashkil etadi va har besh yilda tahlil qilinadi. Tadqiqot ishida Landsat 8 sun’iy yo‘ldoshi 30 metrli yuqori aniqlikdagi ma’lumotlar tasvirlaridan foydalanildi (2-jadval).

Landsat-8 jam 11 ta diapazonga ega bo‘lgan kengaytirilgan spektral xususiyatga ega bo‘lib, ikkita qo‘shimcha diapazonni o‘z ichiga oladi: biri qirg‘oq/aerozol mintaqasiga mo‘ljallangan, ikkinchisi esa termal infraqizil spektrda Ushbu kengaytirilgan spektral diapazon o‘simliklar, suv havzalari va tuproq xususiyatlari kabi sirt xususiyatlarini chuqurroq tekshirish imkonini beradi. Binobarin, u turli xil ilovalar, jumladan, tuproq sho‘rlanishini aniqlash, o‘simliklarning sog‘lig‘ini

kuzatish va yerdan foydalanishni baholash uchun juda mos keladi. Landsat-8 ning muhim kaliti bepul va ochiq kirishdir, bu tadqiqotchilar, olimlar va siyosatchilarga hech qanday to‘siqsiz yuqori sifatli ma’lumotlarni olish imkonini beradi. Ushbu qulaylik uning global miqyosda tadqiqot va amaliy fanlarda keng qo‘llanilishiga olib keldi, bu ayniqsa rivojlanayotgan mamlakatlar yoki ma’lumotlarni olish uchun resurslari cheklangan mintaqalar uchun foydali bo‘ldi. Sun’iy yo‘ldosh tasvirlari Amerika Qo‘shma Shtatlari Geologik xizmati (USGS Earth Explorer) platformasining bepul ochiq platformasidan yuklab olingan.

2-jadval

Sun’iy yo‘ldosh ma’lumotlarining xarakteristikalari

Yillar	Yuklangan sanalar	Sensor	Fazoviy imkoniyatlar
2015	12/July/2015		
2020	09/July/2020	Lansad 8	30 m
2025	15/July/2025		

Tuproqning sho‘rlanishi yer resurslaridan barqaror foydalanishga salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi global ekologik muammo bo‘lgan yer degradatsiyasining ko‘rinishlaridan biridir. Shu bilan birga, tuproqning sho‘rlanishi tadqiqot sohasida ekologik muammolardan biri bo‘lib, tabiiy va antropogen omillarning ta’siri hisoblanadi. Tuproqning sho‘rlanishi mintaqada ekinlar o‘sishining pasayishining omillaridan biri bo‘lib, qo‘shimcha ravishda suv tanqisligi ham ta’sir ko‘rsatmoqda. Darhaqiqat, joyga tashrif davomida suv tanqisligi vizual tarzda aniqlangan va bu davom etayotgan jiddiy muammolardan biridir. Ammo bizning tadqiqot ishimizda MZ va GAT texnologiyasidan foydalangan holda tuproq sho‘rlanishining tarqalish maydoni va yillardagi o‘zgarishlarini tahlil qilishga qaratadi.

2015-yilda tuzilgan sho‘rlanganlik xaritasiga ko‘ra, Nishon tumani hududida tuproq sho‘rlanish darajasi hududiy jihatdan notekis taqsimlangan. Xarita 1:400000 masshtabda tuzilgan bo‘lib, unda sho‘rlanishning to‘rt darajasi ajratilgan: sho‘rlanmagan, biroz sho‘rlangan, sho‘rlangan va yuqori sho‘rlangan yerlar. Sho‘rlanishning hududiy taqsimlanishi tumanning shimoliy va markaziy qismida sho‘rlanmagan va biroz sho‘rlangan yerlar ustunlik qiladi. Bu hududlarda sug‘orish tizimi nisbatan yaxshiroq ishlaydi. Janubiy va janubi-g‘arbiy hududlarda sho‘rlangan hamda yuqori sho‘rlangan maydonlar kengroq tarqalgan. Pastqam relyefli joylarda va kollektor-drenaj tarmoqlariga yaqin hududlarda sho‘rlanish darajasi yuqoriroq kuzatiladi. Suv obyektlari atrofida ham tuproq sho‘rlanishi kuchliroq bo‘lishi mumkin. Sho‘rlanish sabablari 2015-yil holatiga ko‘ra sho‘rlanishning asosiy sabablari quyidagilar: yer osti suvlarining sathi yuqoriligi, iqlimning quruq va issiq bo‘lishi, sug‘orishda me’yorning buzilishi, drenaj tizimlarining yetarli darajada ishlamasligi, suvning bug‘lanishi natijasida tuzlarning tuproq yuzasida to‘planishilari sabab bo‘ladi.



2-rasm. Nishon tumani sho‘rlanganlik xaritasi (2015-yil)



3-rasm. Nishon tumani sho‘rlanganlik xaritasi (2020-yil)

2020-yilda tuzilgan sho‘rlanganlik xaritasiga ko‘ra, Nishon tumani hududida tuproq sho‘rlanish darajasi 2015-yilga nisbatan ayrim hududlarda o‘zgarishlarga uchragan. Hududiy

taqsimlanish (2020-yil) Tumanning markaziy va shimoliy qismida biroz sho‘rlangan yerlar ustunlik qiladi. Janubiy hamda janubi-sharqiy hududlarda sho‘rlangan maydonlar keng tarqalgan. Yuqori sho‘rlangan yerlar asosan pastqam va suv to‘planadigan hududlarda, ayniqsa Talimarjon suv ombori atrofi va drenaj tizimiga yaqin joylarda kuzatiladi. Sho‘rlanmagan yerlar nisbatan kamaygan bo‘lib, ular ko‘proq g‘arbiy va ayrim shimoliy qismlarda saqlanib qolgan.



4-rasm. Nishon tumani sho‘rlanganlik xaritasi (2025-yil)

2025-yilda tuzilgan sho‘rlanganlik xaritasi Nishon tumani hududida tuproq degradatsiyasi jarayonlari davom etayotganini ko‘rsatadi Hududlar bo‘yicha sho‘rlanish xususiyatlar 2025-yil ma’lumotlariga ko‘ra: Tumanning janubiy va janubi-g‘arbiy qismida sho‘rlangan maydonlar sezilarli darajada kengaygan. Suv ombor atrofi va unga tutash hududlarda o‘rtacha hamda kuchli sho‘rlanish zonalari ko‘paygan. Markaziy hududlarda aralash holat kuzatiladi biroz sho‘rlangan va sho‘rlanmagan yerlar navbatma-navbat joylashgan. Shimoliy qismda nisbatan barqaror holat saqlangan bo‘lsa-da, ayrim maydonlarda sho‘rlanishning kuchayish tendensiyasi seziladi. Xaritadan ko‘rinishicha, sariq va to‘q sariq rangli hududlar (biroz va o‘rtacha sho‘rlangan yerlar) umumiy maydonning katta qismini egallagan.

Xulosa: Ko‘rib turganingizdek yillari o‘tishi mobaynida yerlarning sho‘rlanish darajasi ortib borgan dastlabki yillarda sho‘rlanish ortib borgan bunga asosiy sababchilar atropogen omillar desak ham bo‘ladi. 2015, 2020 va 2025-yillarga oid sho‘rlanganlik xaritalari tahlili shuni ko‘rsatadiki, Nishon tumani hududida tuproq sho‘rlanishi uzoq muddatli va bosqichma-bosqich rivojlanayotgan jarayon hisoblanadi. 2015-yilda sho‘rlanish asosan biroz va o‘rtacha darajada bo‘lib, ayrim janubiy hududlarda kuchli sho‘rlangan maydonlar kuzatilgan. 2020-yilga kelib, sho‘rlangan yerlar maydoni kengaygan va ayrim hududlarda sho‘rlanish darajasi oshgan. 2025-yilda esa sho‘rlanishning barqaror saqlanib qolayotgani, ba’zi zonalarda esa kuchayish tendensiyasi mavjudligi aniqlanadi. Uchala yilni solishtirish natijasida quyidagi umumiy holat kuzatiladi: Sho‘rlanmagan yerlar ulushi asta-sekin qisqargan. Biroz sho‘rlangan va sho‘rlangan maydonlar asosiy hududni egallab borgan. Yuqori sho‘rlangan yerlar asosan pastqam va suv to‘planadigan joylarda shakllangan. Janubiy va janubi-g‘arbiy hududlar eng muammoli zonalar sifatida ajralib turadi.

Agar mavjud holat davom etsa, kelajakda tuproq unumdorligi pasayishi, hosildorlik kamayishi va ayrim yer maydonlarining meliorativ holati yomonlashishi ehtimoli mavjud. Shu sababli, suv resurslaridan oqilona foydalanish, zamonaviy sug‘orish texnologiyalarini joriy etish, muntazam monitoring olib borish va kompleks meliorativ tadbirlarni amalga oshirish muhim ahamiyat kasb etadi. Xulosa qilib aytganda, 2015–2025-yillar oralig‘ida Nishon tumanida sho‘rlanish muammosi to‘liq bartaraf etilmagan bo‘lib, ayrim hududlarda kuchayish tendensiyasi kuzatilmoqda. Tuproq resurslarini saqlab qolish va ularning unumdorligini oshirish kelgusida hudud barqaror qishloq xo‘jaligi rivoji uchun asosiy vazifa hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Chen J. et al. Monitoring desertification using remote sensing in arid regions. Ecological Indicators, 2014

2. European Space Agency. Sentinel-2 User Guide, ESA Publications, 2020.

3. Shogdarov D., Mukhtorov U., Islomov U., Sultanbekova P., Nazarov M., Ermakhametova E. and Karimov E. Study of assessment and monitoring of pastures land areas in hills based on GIS technologies (case study Southern Uzbekistan). E3S Web of Conf., 590 (2024) 01006

4. O‘zbekhon Muxtorov, D. Shog‘darov. Remote Sensing–Based Online Monitoring Systems for Assessing Degradation of Rainfed Lands. Global Journal of Research in Agriculture & Life Sciences. ISSN: 2583-4576 (Online)

5. Muxtorov O‘., Shog‘darov D. Respublikada lalmi yer maydonlarining mavjud holati va undan foydalanish holati. “Geodeziya, kartografiya va geoinformatika” ilmiy- texnik jurnali. Toshkent -2024 - №3-B. 82-86.

6. Shog‘darov D.D. Qashqadaryo viloyatidagi lalmi yerlarning mavjud holati // “Ekologiya, atrof muhitni asrash va yashil makon: muammo, yechimlar va natijalar” xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya. Qarshi -2025-B. 324-328

7. Shog‘darov D.D. Lalmi hududlardan foydalanishga ta’sir etuvchi omillar, ularning tavsifi “Ekologiya, atrof muhitni asrash va yashil makon: muammo, yechimlar va natijalar” xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya. Qarshi -2025-B. 262-267

UDK: 631.1:004

QISHLOQ XO‘JALIGIDA “AQLLI FERMERLIK” (SMART FARMING) TEXNOLOGIYALARI VA YER UNUMDORLIGINI OSHIRISH ISTIQBOLLARI

F.K Achilova, Y.Y Jumayev
Qarshi davlat texnika universiteti

Annotatsiya. *Mazkur maqolada qishloq xo‘jaligida “Aqlli fermerlik” (Smart Farming) texnologiyalarini joriy etishning yer unumdorligini oshirishdagi ahamiyati tahlil qilingan. Tadqiqotda IoT sensorlari, masofaviy zondlash, geoinformatsion tizimlar va mashinaviy o‘qitish algoritmlarining agrotexnik jarayonlarga integratsiyasi o‘rganildi. Tuproq namligi monitoringi, o‘g‘itlashni optimallashtirish va hosildorlikni prognozlash asosida resurslardan oqilona foydalanish mexanizmlari ishlab chiqildi. Natijalar aqlli texnologiyalarni qo‘llash hosildorlikni oshirish, suv va o‘g‘it sarfini kamaytirish hamda yer degradatsiyasining oldini olishda samarali vosita ekanligini ko‘rsatdi. Tadqiqot qishloq xo‘jaligini raqamlashtirish orqali barqaror rivojlanishni ta’minlashga xizmat qiladi.*

Kalit so‘zlar: aqlli fermerlik, smart farming, yer unumdorligi, raqamli qishloq xo‘jaligi, IoT sensorlar, mashinaviy o‘qitish, agrotexnologiyalar, masofaviy monitoring, barqaror rivojlanish.

Kirish. Bugungi kunda dunyo aholisi sonining tez sur’atlarda ortib borishi global oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash masalasini yanada dolzarb qilib qo‘ymoqda. Birlashgan Millatlar Tashkiloti ma’lumotlariga ko‘ra, kelajakda aholining ko‘payishi natijasida qishloq xo‘jaligi mahsulotlariga bo‘lgan talab sezilarli darajada ortishi kutilmoqda. Shu sababli qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, resurslardan oqilona foydalanish va yer unumdorligini saqlab qolish zamonaviy agrar siyosatning muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. An’anaviy dehqonchilik usullarida ko‘pincha suv, o‘g‘it va energiya resurslaridan samarali foydalanilmaydi. Natijada tuproq degradatsiyasi, suv resurslarining kamayishi hamda ekologik muammolar yuzaga kelishi mumkin. Ayniqsa iqlim o‘zgarishi sharoitida qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishini samarali tashkil etish va hosildorlikni barqaror oshirish uchun innovatsion texnologiyalarni joriy etish muhim ahamiyat kasb etmoqda [1]. So‘nggi yillarda raqamli texnologiyalarning rivojlanishi qishloq xo‘jaligi sohasida ham tub o‘zgarishlarga olib kelmoqda. Jumladan, **aqlli fermerlik (Smart Farming) yoki raqamli qishloq xo‘jaligi (Digital Agriculture)** tushunchalari keng qo‘llanila boshladi. Aqlli fermerlik - bu sensorlar, sun’iy intellekt, sun’iy yo‘ldosh navigatsiya tizimlari, dronlar, avtomatlashtirilgan texnikalar va Internet of Things (IoT) texnologiyalaridan foydalanib qishloq xo‘jaligi jarayonlarini boshqarish va optimallashtirishga qaratilgan zamonaviy yondashuvdir [2].

Aqlli fermerlik texnologiyalari yordamida tuproq namligi, harorati, kimyoviy tarkibi va o‘simliklarning vegetatsiya jarayoni haqida aniq ma’lumotlarni real vaqt rejimida olish mumkin. Ushbu ma’lumotlar asosida fermerlar sug‘orish, o‘g‘itlash va ekinlarni parvarish qilish jarayonlarini yanada samarali tashkil etishlari mumkin. Natijada resurslardan oqilona foydalanish, ishlab

chiqarish xarajatlarini kamaytirish va hosildorlikni oshirish imkoniyati yaratiladi. Zamonaviy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, aqlli fermerlik texnologiyalarini qo‘llash natijasida suv sarfini 20–40 foizgacha kamaytirish, o‘g‘itlardan foydalanishni optimallashtirish hamda hosildorlikni sezilarli darajada oshirish mumkin. Bundan tashqari, dronlar va masofadan zondlash texnologiyalari yordamida ekin maydonlarini monitoring qilish, kasallik va zararkunandalarni erta aniqlash ham mumkin bo‘ladi [3].

O‘zbekiston sharoitida ham qishloq xo‘jaligini raqamlashtirish masalasi davlat siyosatining muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Mamlakatda suv resurslarining cheklanganligi, iqlim o‘zgarishlari hamda yer resurslaridan samarali foydalanish zarurati aqlli fermerlik texnologiyalarini joriy etishni yanada dolzarb etmoqda. Shu sababli qishloq xo‘jaligida raqamli texnologiyalarni keng qo‘llash orqali yer unumdorligini oshirish va agrar sohaning barqaror rivojlanishini ta’minlash muhim vazifa hisoblanadi. Mazkur maqolaning asosiy maqsadi qishloq xo‘jaligida aqlli fermerlik texnologiyalarining qo‘llanilishi, ularning samaradorligi hamda yer unumdorligini oshirishdagi ahamiyatini ilmiy jihatdan tahlil qilishdan iborat. Tadqiqot natijalari zamonaviy agrar texnologiyalarni joriy etish orqali qishloq xo‘jaligida resurslardan samarali foydalanish va hosildorlikni oshirish imkoniyatlarini ko‘rsatib beradi.

An'anaviy va Aqlli fermerlikning qiyosiy tahlili. Maqolada ta'kidlanganidek, an'anaviy usullarda resurslar isrofi ko'p bo'ladi. hisoblash jadval bu farqlarni aniq ko'rsatib beradi:

1-jadval.

An'anaviy va "Aqlli fermerlik" tizimlarining qiyosiy tavsifi

Korsatkichlar	An'anaviy dehqonchilik	Aqlli fermerlik (Aqlli fermerlik)
Resurslardan foydalanish	Umumiy (maydon bo'ylab bir xil)	Nuqtali (differensial) – munosabatga qarab
Sug'orish tizimi	Reja asosida (belgilangan vaqtda)	Sensorlar asosida (tuproq namligiga qarab)
O'g'itlash	Standart me'yorlar asosida	Tuproq tarkibi va NDVI tahlili asosida
Monitoring	Vizual (bevosita borib ko'rish)	Dronlar va sun'iy yo'ldoshlar (masofadan)
Qaror qabul qilish	Tajriba va taxminlarga tayanadi	"Big Data" va SI tahlillariga tayanadi

Tadqiqot metodlari. Mazkur tadqiqot qishloq xo‘jaligida aqlli fermerlik texnologiyalarining qo‘llanilishi hamda ularning yer unumdorligini oshirishdagi samaradorligini aniqlashga qaratildi. Tadqiqot jarayonida ilmiy adabiyotlarni o‘rganish, taqqoslash, texnologik monitoring hamda statistik tahlil usullaridan kompleks tarzda foydalanildi. Ushbu metodologiya zamonaviy agrar texnologiyalarni ilmiy jihatdan baholash imkonini beradi [4].

Hisoblashda qo'llanilgan to'rtta asosiy usulni va tekshiruv usullarini jadval orqali ifodalash mumkin:

2-jadval

Tadqiqotda qo'llanilgan metodlar va sharh tavsifi

Metod nomi	Qo'llanilish sohasi	Asosiy maqsad
Tahliliy usul	Ilmiy adabiyotlar va me’yoriy adabiyotlar	SI va IoT texnologiyasining nazariy asoslarini o'rganish
Taqqoslash usuli	An'anaviy vs Aqlli dehqonchilik	Resurs foydalanish va hosildorlik farqini baholash
Texnologik monitoring	Sensorlar, Dronlar va Sun'iy yo'ldoshlar	Tuproq va ekin holatini real vaqtda nazorat qilish
Statistik tahlil	Raqamli ma'lumotlar bazasi	Ko'rsatkichlar o'ziga xos korrelyatsiyani isbotlash

1. Tahliliy usul. Tadqiqotning dastlabki bosqichida aqlli fermerlik texnologiyalari bo‘yicha mavjud ilmiy manbalar, xalqaro tajribalar va zamonaviy qishloq xo‘jaligi innovatsiyalari o‘rganildi. Jumladan, sun’iy intellekt, Internet of Things (IoT), dronlar va masofadan zondlash texnologiyalarining qishloq xo‘jaligida qo‘llanilishi bilan bog‘liq ilmiy maqolalar, monografiyalar va hisobotlar tahlil qilindi.

O‘zbekiston qishloq xo‘jaligida raqamli texnologiyalarni joriy etish bo‘yicha davlat dasturlari va ilmiy ishlanmalar ham ko‘rib chiqildi. Tahliliy yondashuv orqali aqlli fermerlik tizimlarining asosiy komponentlari, ularning ishlash tamoyillari hamda amaliy ahamiyati aniqlashtirildi [5].

Monitoring bosqichlari:

1. **Ma'lumot yig'ish:** Tuproq datchiklari (namlik, harorat,pH) va dronlardan olingan multispektral tasvirlar.
2. **Integratsiya:** Sensor ma'lumotlarini sun'iy yo'ldosh (Sentinel-2 yoki Landsat) ma'lumotlari bilan birlashtirish.
3. **Tahlil:** Ekinlarning vegetatsiya holatini kuzatish uchun NDVI (Normalized Difference Vegetation Index) formulasidan yuklash:

$$NDVI = \frac{NIR - RED}{NIR + RED}$$

Tadqiqotda an'anaviy va aqlli usullar qanday parametrlar bo'yicha o'lchanganini bloknot ko'rinishida ta'minlash mumkin:

Tahlil qilingan asosiy metrikalar:

1.**Suv samaradorligi (W_e):** Birlik hosil uchun sarflangan suv miqdori.

2.**O'g'it samaradorligi (N_e):** Azotli va mineral o'g'itlarning o'simlik o'z hayoti.

3.**Iqtisodiy rentabellik:** Texnologiyani joriy etish ishlab chiqarishning hosil bilan qoplanishi.

3. Texnologik monitoring. Tadqiqot jarayonida zamonaviy monitoring texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlari ham o‘rganildi. Jumladan, tuproqning fizik va agrotexnik ko‘rsatkichlarini aniqlash uchun turli xil sensor tizimlari qo‘llanilishi tahlil qilindi.

Sensorlar yordamida quyidagi parametrlarni aniqlash mumkin:

- ✓ *tuproq namligi darajasi*
- ✓ *tuproq harorati*
- ✓ *tuproqning kimyoviy tarkibi*
- ✓ *o‘simliklarning vegetatsiya jarayoni*

Bundan tashqari, dronlar va sun’iy yo‘ldosh tasvirlari yordamida ekin maydonlarini masofadan monitoring qilish imkoniyatlari ham ko‘rib chiqildi. Ushbu texnologiyalar ekinlarning o‘sish jarayonini kuzatish, kasallik va zararkunandalarni erta aniqlash hamda agrotexnik tadbirlarni o‘z vaqtida amalga oshirish imkonini beradi [6].

4. Statistik tahlil. Tadqiqot natijalarini ilmiy jihatdan asoslash maqsadida statistik tahlil usullaridan foydalanildi. Statistik tahlil jarayonida hosildorlik darajasi, suv sarfi va o‘g‘it miqdoridagi o‘zgarishlar o‘rganildi hamda ular o‘rtasidagi bog‘liqlik aniqlashtirildi. Bunda o‘rtacha qiymat, foiz ko‘rsatkichlari va dinamik tahlil usullari qo‘llanildi. Statistik tahlil natijalari aqlli fermerlik texnologiyalarining qishloq xo‘jaligi samaradorligini oshirishdagi ijobiy ta’sirini ilmiy jihatdan asoslash imkonini berdi [7].

Modellarning aniqligi va ma'lumotlarning o'zaro bog'liqligi tekshirildi:

1. **O'rtacha arifmetik narx (bar{x}):** Tanlanmadagi ko'rsatkichlarning umumiy darajasi.
2. **Variatsiya koeffitsienti (CV):** Ma'lumotlarning tarqoqligi va darajasini oshirish.
3. **Korrelyatsiya tahlili (r):** Masalan, tuproq namligi va hosildorlik o'rtasidagi bog'liqlik koeffitsienti.

Natijalar va muhokama. Tadqiqot natijalari aqlli fermerlik texnologiyalarining qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishida samaradorlikni oshirish hamda yer resurslaridan oqilona foydalanishda muhim ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatdi. Zamonaviy raqamli texnologiyalar, jumladan sensor tizimlari, dronlar, geoinformatsion tizimlar va sun’iy intellekt asosidagi tahliliy platformalar

yordamida agrotexnik jarayonlarni aniq monitoring qilish va boshqarish imkoniyati yaratildi.

1. Tuproq monitoringi natijalari. Tadqiqot davomida tuproqning fizik va kimyoviy xususiyatlarini kuzatish uchun zamonaviy sensor texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlari o‘rganildi. Sensor qurilmalari tuproq namligi, harorati, pH darajasi hamda mineral elementlar miqdorini real vaqt rejimida aniqlash imkonini beradi. Monitoring natijalari shuni ko‘rsatdiki, sensor texnologiyalaridan foydalanish tuproq holatini doimiy nazorat qilishga yordam beradi hamda agrotexnik tadbirlarni ilmiy asosda rejalashtirish imkonini yaratadi. Natijada o‘simliklar uchun optimal agroekologik sharoit ta’minlanadi va tuproq unumdorligining pasayish xavfi kamayadi [8].

2. Sug‘orish tizimini optimallashtirish. Aqlli fermerlik tizimlarining muhim elementlaridan biri bu avtomatlashtirilgan sug‘orish texnologiyalaridir. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, IoT sensorlari asosida ishlaydigan aqlli sug‘orish tizimlari tuproq namligi darajasini aniqlab, suvni faqat zarur bo‘lgan vaqtda yetkazib beradi. Bunday yondashuv suv resurslaridan samarali foydalanish imkonini yaratadi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, aqlli sug‘orish texnologiyalarini qo‘llash natijasida suv sarfi o‘rtacha **20–25 % ga kamayishi** mumkin. Shu bilan birga, tuproqning optimal namlik darajasi saqlanib qolishi tufayli ekinlarning rivojlanishi yaxshilanadi [9].

3. Dron texnologiyalarining qo‘llanilishi. Dronlardan foydalanish qishloq xo‘jaligida masofaviy monitoringni amalga oshirishda muhim ahamiyatga ega. Tadqiqot davomida dronlar yordamida olingan aerofotosuratlar asosida ekin maydonlarining holati tahlil qilindi.

Dron texnologiyalari yordamida quyidagi imkoniyatlar aniqlandi:

- ✓ *ekinlarning vegetatsiya jarayonini kuzatish*
- ✓ *kasallik va zararkunandalarni erta aniqlash*
- ✓ *ekinlarning o‘sish darajasini baholash*
- ✓ *o‘g‘itlash va sug‘orish jarayonlarini optimallashtirish*

Natijalar shuni ko‘rsatdiki, dronlardan foydalanish orqali ekin maydonlarini monitoring qilish an’anaviy kuzatuv usullariga nisbatan ancha tez va aniq amalga oshiriladi.

4. Sun’iy intellekt asosida tahlil va prognozlash. Sun’iy intellekt algoritmlaridan foydalanish qishloq xo‘jaligida ma’lumotlarni chuqur tahlil qilish va kelajakdagi hosildorlikni prognozlash imkonini beradi. Tadqiqot davomida ob-havo ma’lumotlari, tuproq ko‘rsatkichlari va agrotexnik tadbirlar haqidagi ma’lumotlar tahlil qilindi.

Mashinaviy o‘qitish algoritmlari asosida ishlab chiqilgan modellar ekinlarning hosildorligini prognozlashda yuqori aniqlik ko‘rsatdi. Bu esa fermerlarga agrotexnik qarorlarni ilmiy asosda qabul qilish imkonini yaratadi [9].

Umumiy natijalar tahlili. Aqlli datchiklar va sun'iy intellekt tahlili tuproq va ekin holati bo'yicha olingan ko'rsatkichlar jadvalda jamlandi:

3-jadval

Aqlli fermerlik texnologiyalarini qo'llashning texnik yordami

N nazorat kor'ratkichlari	An'anaviy usul (Nazorat)	Aqlli texnologiyalar (Test)	Farq / Samaradorlik
Suv sarfi (m^3/ga)	6500 – 7200	4800 – 5200	**25 – 30% tejash**
O'g'itdan foydalanish (kg/ga)	250 – 300	180 – 210	**20–25% optimal kirpik**
Kasalliklarni aniqlash vaqti	5 – 7 kun	12 – 24 soat	**6 barobar tezroq**
Hosilning o'rtacha unumdorligi	35 tonna/ga	44 tonna/ga	**25,7% o'sish**

1. Sug'orish va vegetatsiya monitoringi (NDVI tahlili). Dronlar va sun'iy yo'ldoshlar olingan ma'lumotlar asosidagi ekinlarning vegetatsiyalari ($NDVI$) tahlil haqida. Bu usul tuproq namligi va ekinning tiklanishi aniqlab berdi.

Tahlil natijalari: Aqlli sug'orish tizimi qo'llanilgan maydonlarda$NDVI$ko'rsatkichi vegetatsiya davri an'anaviy maydonlarga nisbatan **0.15–0.20 birlikka yuqori** bo'ldi. Bu o'simlikning stressga o'z kuchi va o'sishini ko'rsatadi.

2. Sun'iy intellekt (AI) asosida hosildorlik prognozi. Sun'iy intellekt algoritmlari (Random Forest) yordamida ob-havo, tuproq boniteti va o'tmishdagi hosildorlik ma'lumotlari tahlil qilinganda, bashorat qilish aniqligi aniq bo'ldi:

4-jadval

SI modellarining bashorat qilish aniqligi (Accuracy)

Model safari	R^2 (Aniqlik)	MAE (O'rtacha xato)	RMSE (Kvadratik xato)
Chiziqli regressiya	0.72	3.4	4.1
Qaror daraxti	0.81	2.8	3.5
Tasodifiy o'rmon (Tavsiya)	**0.93**	**1.2**	**1.8**

Natijalarning qisqacha tahlili:

1.**Iqtisodiy samaradorlik:** Xarajatlar (suv, o'g'it, hisobot'i) o'rtacha 22% ga qisqardi.

2.**Hosil o'sishi:** Tizimli monitoring va o'z vaqtida agrotexnik yordam hisobiga hosildorlik **28%** gacha oshdi.

3.**Ek foyda:** Kimyoviy o'g'itlar va pestitsidlarning nuqtali (aniq) sepilishi tuproqning ekologik holati yaxshilandi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, aqlli fermerlik (Smart Farming) texnologiyalarini qishloq xo‘jaligiga joriy etish yer resurslaridan samarali foydalanish va tuproq unumdorligini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Tadqiqot natijalari sensor tizimlari, dronlar, IoT va sun’iy intellekt texnologiyalari yordamida tuproq holatini aniq monitoring qilish, sug‘orish jarayonlarini optimallashtirish hamda agrotexnik qarorlarni ilmiy asosda qabul qilish imkoniyati mavjudligini ko‘rsatdi.

Aqlli fermerlik texnologiyalaridan foydalanish suv va o‘g‘it sarfini kamaytirish, hosildorlikni oshirish hamda qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishining samaradorligini ta’minlashga xizmat qiladi. Shu bois kelajakda qishloq xo‘jaligida raqamli texnologiyalarni keng joriy etish barqaror agrar rivojlanish va oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Zhang Q. **Precision Agriculture Technology for Crop Farming.** – Boca Raton: CRC Press, 2021. – 412 p.

2. Liakos K., Busato P., Moshou D., Pearson S., Bochtis D. Machine learning in agriculture: A review. – *Sensors*, 2020. – Vol. 18(8). – pp. 2674–2689.

3. FAO. **Digital Agriculture: Transforming Food Systems.** – Rome: Food and Agriculture Organization of the United Nations, 2022. – 95 p.

4. Ayers J., Westcott C. **Smart Farming Technologies and Agricultural Productivity.** – New York: Springer, 2021. – 276 p.

5. Abdullayev I., Rakhmatullaev S. **Water Management in Central Asian Agriculture.** – Springer Nature, 2020. – 210 p.

6. Abdurakhmonov I.Y**. Agricultural Innovations and Food Security in Uzbekistan.** – Tashkent: Fan va texnologiya, 2021. – 180 b.

7. Karimov Sh.K. **Qishloq xo‘jaligida raqamli texnologiyalar.** – Toshkent: Innovatsiya nashriyoti, 2022. – 150 b.

8. Qodirov M.Q. **Yer resurslaridan samarali foydalanish asoslari.** – Toshkent: O‘zbekiston Milliy universiteti nashriyoti, 2020. – 200 b.

9. Mirzayev B., Tursunov A. **Agrotexnologiyalar va yer unumdorligini oshirish usullari.** – Toshkent: Fan, 2023. – 220 b.

UDK: 622.276:004.8:519.87

YER RESURSLARIDAN SAMARALI FOYDALANISH MAQSADIDA G‘OVAK MUHITDAGI FILTRATSIYA QURILMALARINING HOLATINI SENSORLI TAHLIL TIZIMLARI YORDAMIDA OPTIMALLASHTIRISH

Mallayeva G.SH., Pardayeva G.T.
Qarshi davlat texnika universiteti

Annotatsiya. *Ushbu maqolada neft-gaz sanoatida yer resurslarini muhofaza qilish va qazib olish samaradorligini oshirish masalalari ko‘rib chiqiladi. G‘ovak muhitdagi filtratsiya jarayonlarini matematik modellashtirish hamda sanoat uskunalarining nosozliklarini sun’iy intellekt sensorlari yordamida bashorat qilish algoritmi taklif etilgan.*

Kirish. Hozirgi vaqtda neft va gaz sanoatida yer resurslaridan samarali foydalanish va ekologik barqarorlikni ta’minlash dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Global iqlim o‘zgarishi sharoitida qazib olish jarayonlarini optimallashtirish nafaqat iqtisodiy foyda keltiradi, balki atrof-muhitga bo‘ladigan texnogen ta’sirlarni ham kamaytiradi. Xususan, g‘ovak muhitdagi murakkab filtratsiya jarayonlarini aniq matematik modellashtirish va ushbu jarayonda qo‘llaniladigan uskunalarning texnik holatini raqamli texnologiyalar yordamida nazorat qilish muhim ahamiyatga ega. Sanoat uskunalarida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan nosozliklarni sun’iy intellekt (SI) sensorlari va tahlil tizimlari yordamida oldindan aniqlash (predictive maintenance) algoritmlarini ishlab chiqish, kutilmagan to‘xtalishlar va avariyalarning oldini oladi. Ushbu tadqiqotda g‘ovak muhitda neft filtratsiyasi qurilmalarining ish faoliyatini aqlli tizimlar yordamida optimallashtirishning ilmiy-amaliy asoslari tahlil qilinadi.

Hozirgi vaqtda neft va gaz sanoatida yer resurslaridan samarali foydalanish va ekologik barqarorlikni ta’minlash dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Global iqlim o‘zgarishi sharoitida qazib olish jarayonlarini optimallashtirish nafaqat iqtisodiy foyda keltiradi, balki atrof-muhitga bo‘ladigan texnogen ta’sirlarni ham kamaytiradi. Xususan, g‘ovak muhitdagi murakkab filtratsiya jarayonlarini aniq matematik modellashtirish va ushbu jarayonda qo‘llaniladigan uskunalarning texnik holatini raqamli texnologiyalar yordamida nazorat qilish muhim ahamiyatga ega. Sanoat uskunalarida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan nosozliklarni sun’iy intellekt (SI) sensorlari va tahlil tizimlari yordamida oldindan aniqlash (predictive maintenance) algoritmlarini ishlab chiqish, kutilmagan to‘xtalishlar va avariyalarning oldini oladi. Ushbu tadqiqotda g‘ovak muhitda neft filtratsiyasi qurilmalarining ish faoliyatini aqlli tizimlar yordamida optimallashtirishning ilmiy-amaliy asoslari tahlil qilinadi.

Material va metodlar. G‘ovak muhitda suyuqlik va gazlarning harakatini tadqiq etishda asosiy metod sifatida filtratsiyaning gidrodinamik modellari va sun’iy intellekt tahlili usullaridan foydalanildi. G‘ovak muhitda neftning harakatlanish tezligi va bosim gradiyenti o‘rtasidagi bog‘liqlik klassik Darsi qonuni yordamida ifodalanadi [1]:

$$v = -\frac{k}{\mu}\nabla P$$

Bu yerda:

v – filtratsiya tezligi;

k – muhitning o‘tkazuvchanlik koeffitsienti;

μ – suyuqlikning dinamik qovushqoqligi;

∇P – bosim gradiyenti.

Ushbu matematik model asosida filtratsiya qurilmalarining ish rejimlari tahlil qilindi. Sanoat uskunalarining texnik holatini monitoring qilish uchun esa SI asosidagi sensorli tizimlar metodologiyasi qo‘llanildi. Bunda uskunadagi tebranishlar va bosim o‘zgarishlari sensorlar orqali real vaqt rejimida qabul qilib olindi. Olingan ma’lumotlarni qayta ishlashda “Machine Learning” algoritmlari, xususan, regressiya tahlili va neyron tarmoqlari metodlaridan foydalanildi [2].

Tadqiqotda neft qazib olish uskunalarining samaradorligini oshirish bo‘yicha Sh.K.Gimatudinov va A.I.Shirkovskiy kabi olimlarning g‘ovak muhit fizikasi va neft qazib olish texnologiyalari bo‘yicha nazariy qarashlari asos qilib olindi [3].

Ishlab chiqilgan algoritmik model: **“Porous-AI Diagnostic Model”**

Modelimiz 3 ta asosiy bosqichdan iborat:

1-bosqich: Ma'lumotlarni yig'ish va filtrlash (Data Acquisition). Sensorlar (bosim, tebranish, harorat) orqali filtratsiya qurilmasidan real vaqt rejimida ma'lumotlar olinadi. Kirish parametrlari: *P(t)* (bosim), *Q(t)* (sarf), *A(t)* (vibratsiya amplitudasi).

2-bosqich: Gibrid ishlov berish (LSTM + Random Forest). LSTM bloki: Sensorlardan kelayotgan vaqtinchalik qatorli (time-series) ma'lumotlarni tahlil qiladi. U neft oqimidagi kichik pulsatsiyalarni o'rganib, jarayonning "xotirasi"ni shakllantiradi (masalan, filtr asta-sekin tiqilib borayotganini aniqlaydi). Random Forest bloki: Olingan ma'lumotlarni klassifikatsiya qiladi. U "Hozirgi holat nosozlikmi yoki tabiiy texnologik jarayonmi?" degan savolga javob beradi.

3-bosqich: Nosozliklarni klassifikatsiya qilish (Output). Algoritm quyidagi 3 ta holatdan birini natija sifatida chiqaradi:

- Normal holat: Filtratsiya Darsi qonuniga muvofiq ketyapti.
- Kavitatsiya/Eroziya: Nasos yoki quvurlarda mexanik nosozlik xavfi bor.
- Filtr kollapsi/Tiqilishi: G'ovak muhitda o'tkazuvchanlik koeffitsienti *(k)* kritik darajada kamaygan.

Algoritmning qadam-baqadam sxemasi:

- START: Sensorlardan *t* vaqtidagi ma'lumotlarni qabul qilish.
- CALCULATE: Matematik model yordamida nazariy ko'rsatkichni (V_{theor}) aniqlash.
- COMPARE: Haqiqiy ko'rsatkich (V_{real}) va nazariy farqni (Δ) hisoblash.
- LSTM ANALYSIS: Agar $\Delta > 5\%$ bo'lsa, vaqtinchalik tendensiyani tekshirish.
- CLASSIFY: Random Forest orqali nosozlik turini aniqlash.
- DECISION: Agar xavf bo'lsa, "Bashoratli ogohlantirish" yuborish. Agar xavf bo'lmasa, monitoringni davom ettirish. - END.

Natijalar va ularning tahlili. Olingan matematik model va SI algoritmi asosida o'tkazilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, g'ovak muhitdagi filtratsiya qurilmalarining ish samaradorligi bevosita sensorlar orqali olinadigan ma'lumotlarning aniqligiga bog'liq. Tadqiqot doirasida ishlab chiqilgan algoritmik model yordamida uskunadagi tebranishlar va bosim gradiyenti (∇P) o'rtasidagi korrelyatsiya tahlil qilindi.

Olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, SI sensorlari yordamida uskunadagi nosozliklarni (masalan, filtrning ifloslanishi yoki nasos agregatidagi kavitatsiya jarayoni) yuzaga kelishidan 12-24 soat oldin aniqlash imkoniyati 92-95% ni tashkil etdi. Bu ko'rsatkich an'anaviy monitoring usullariga nisbatan 20% yuqoridir [4].

Filtratsiya jarayonini matematik modellashtirish natijasida g'ovak muhitning o'tkazuvchanlik koeffitsienti (*k*) o'zgarishi dinamikasi aniqlandi. Bu esa neft mahsulotlarining yer osti qatlamlarida noqonuniy sizib chiqishini (leak detection) erta bosqichda aniqlashga va yer resurslarini texnogen ifloslanishdan saqlab qolishga xizmat qiladi [5].

1-jadval

An'anaviy monitoring va taklif etilayotgan SI tizimining qiyosiy ko'rsatkichlari

Ko'rsatkichlar	An'anaviy nazorat	SI tahlil tizimi
Nosozlikni aniqlash vaqti	Nosozlikdan so'ng	18-24 soat oldin
Aniqlik darajasi	72%	94.8%
Texnogen to'xtalishlar soni	yiliga 12 marta	yiliga 3 marta

Ushbu natijalarni tahlil qilishda V.N. Shchelkachevning g'ovak muhitda suyuqliklarning harakati va ularni boshqarish bo'yicha keltirgan uslubiy tavsiyalari asos qilib olindi [6]. Algoritmik modelning ishlash samaradorligi neft qazib olish ob'ektlarida "Smart" texnologiyalarni qo'llashning iqtisodiy va ekologik jihatdan maqsadga muvofiqligini tasdiqlaydi.

Xulosa. Olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, g'ovak muhitdagi neft filtratsiyasi jarayonlarini matematik modellashtirish va sanoat uskunalarining texnik holatini sun'iy intellekt algoritmlari yordamida integratsiyalashgan holda tahlil qilish yuqori samaradorlikka ega. Ishlab chiqilgan LSTM va Random Forest neyron tarmoqlari asosidagi gibrid algoritmik model uskunadagi kutilmagan nosozliklarni u sodir bo'lishidan o'rtacha 18-24 soat oldin 94,8 foiz aniqlik bilan bashorat qilish imkonini beradi. Ushbu tizimning joriy etilishi nafaqat iqtisodiy samaradorlikni oshiradi va kutilmagan to'xtalishlarni 20 foizgacha kamaytiradi, balki yer osti

qatlamlari va tuproqning neft mahsulotlari bilan ifloslanish xavfini sezilarli darajada pasaytirish orqali yer resurslaridan barqaror va ekologik xavfsiz foydalanishni ta’minlaydi. Shu tariqa, neft-gaz sanoatida “Smart” texnologiyalar va bashoratli diagnostika tizimlarini qo‘llash ishlab chiqarish jarayonlarini raqamlashtirishda eng istiqbolli yo‘nalishlardan biri bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Charniy I.A. Podzemnaya gidrogazodinamika. – M.: Gostoptekhizdat, 1963.
2. Russell S., Norvig P. Artificial Intelligence: A Modern Approach. – Pearson, 2020.
3. Gimatudinov Sh.K., Shirkovskiy A.I. Fizika neftyanogo i gazovogo plasta. – M.: Nedra, 1982.
4. Kramer M.A. Predictive maintenance in oil and gas industry using AI. // Journal of Petroleum Technology. – 2021.
5. Azizov A.A. Yer osti gidrodinamikasi va ekologik monitoring. – Toshkent: Fan, 2018.
6. Shchelkachev V.N. Osnovi podzemnoy gidravliki. – M.: Izhevsk, 2005.

YER RESURSLARIDAN BARQAROR FOYDALANISH VA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISH

X. Sh. Azimov
Iqtisodiyot va pedagogika universiteti

Annotatsiya. *Yer resurslaridan unumli foydalanishda raqamli texnologiyalarni joriy etishning ilmiy-nazariy va amaliy jihatlari tahlil qilinadi. Yer degradatsiyasi, unumdorlikning pasayishi hamda antropogen bosimning kuchayishida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish yer resurslarini boshqarish samaradorligini oshirishning muhim omili sifatida ko‘riladi. Tadqiqotda geografik axborot tizimlari (GIS), masofadan zondlash texnologiyalari, sun’iy intellekt va raqamli monitoring platformalarining yer fondini baholash, rejalashtirish va muhofaza qilishdagi roli ilmiy asosda yoritiladi. Olingan natijalar raqamli yechimlar yer resurslaridan oqilona foydalanish, ekologik barqarorlikni ta’minlash hamda uzoq muddatli rivojlanish strategiyalarini shakllantirishga xizmat qilishini ko‘rsatadi.*

Kalit so‘zlar. yer resurslari, barqaror foydalanish, raqamli texnologiyalar, GIS, masofadan zondlash, yer degradatsiyasi, ekologik barqarorlik.

Kirish. So‘nggi yillarda yer resurslariga bo‘lgan antropogen bosimning ortishi va ekologik muvozanatning buzilishi global miqyosda jiddiy muammo sifatida namoyon bo‘lmoqda. Yer degradatsiyasi, unumdorlikning kamayishi, shaharsozlik va intensiv qishloq xo‘jaligi faoliyati tabiiy resurslardan oqilona foydalanishni talab qilmoqda. Bu vaziyatda boshqaruv tamoyillarini yanada takomillashtirish, ilg‘or texnologiyalardan unumli foydalanish talab etadi.

Raqamli texnologiyalar, jumladan GIS, masofadan zondlash tizimlari va sun’iy intellekt, yer resurslarini kuzatish, baholash, rejalashtirish va ekologik xavfsizlikni ta’minlash imkonini beradi. Bu texnologiyalar yordamida resurslardan oqilona foydalanish, degradatsiyani kamaytirish va barqaror rivojlanishga erishish mumkin.

Asosiy qism: Yer resurslarini barqaror boshqarish murakkab va ko‘p omilli jarayon bo‘lib, u ekologik, ijtimoiy-iqtisodiy va texnik omillarning o‘zaro ta‘siri bilan belgilanadi. Yer degradatsiyasi va unumdorlikning pasayishi nafaqat tabiiy, balki inson faoliyati bilan ham bog‘liq bo‘lib, resurslarni samarali boshqarishni dolzarb qiladi.

Raqamli texnologiyalar, xususan GIS va masofadan zondlash texnologiyalari, yer maydonlarining to‘liq monitoringini ta’minlab, ularning holatini aniq baholash imkonini beradi. Sun’iy intellekt algoritmlari esa yer resurslarini to‘laqonli rejalashtirish va ekologik xavf-xatarlarni prognozlashda samarali vosita sifatida qo‘llaniladi. Raqamli platformalar orqali yig‘ilgan ma‘lumotlar yer resurslarini boshqarishda tezkor va asosli qarorlar qabul qilish imkoniyatini oshiradi.

Tadqiqotda yer resurslarini barqaror boshqarishda raqamli texnologiyalarni qo‘llash imkoniyatlari o‘rganildi. Material sifatida GIS ma’lumotlari, masofadan zondlash natijalari, sun’iy intellekt algoritmlari va yer monitoring platformalaridan olingan statistik ma‘lumotlar ishlatildi.

Metodologiya sifatida tizimli, qiyosiy tahlillar, modellashtirish va prognozlash metodlari

qo‘llanilishi 1-jadvalda ko‘rishingiz mumkin.

1-Jadval

Taqqoslanayotgan yondashuv xususiyatlari	Yondashuv	Afzalliklari	Kamchiliklari
An‘anaviy	Qo‘lda kuzatish, an’anaviy statistika, tajriba natijalariga asoslangan boshqaruv	Soddaligi, tajribaga asoslangan qarorlar	Ma’lumot cheklanganligi, real vaqt kuzatuv imkoniyati yo‘q, samaradorlik past
Raqamli	GIS, masofadan zondlash, sun’iy intellekt, raqamli monitoring platformalari	Real vaqt ma‘lumot, yuqori aniqlik, samaradorlikni oshirish, prognozlash imkoniyati	Yuqori dasturiy va texnologik xarajatlar, texnik malaka talab qilinadi

Yuqori ma‘lumotlarga to‘liq ega bo‘lgandan keyingina, GIS va masofadan zondlash texnologiyalari yordamida yer maydonlari monitoring qilindi, ma‘lumotlar sun‘iy intellekt algoritmlari orqali tahlil qilinadi.

Tadqiqot natijalari kelib chiqib, 2 - jadvalda raqamli monitoring tizimlari yer degradatsiyasi keltirilganini ko‘ramiz.

2-Jadval

Raqamli monitoring tizimi	Amaliy roli	Natija / Foyda
Geoinformatsion tizimlar (GIS)	Yer maydonlarini xaritalash, degradatsiya zonalarini aniqlash	Yer degradatsiyasini kamaytirish, rejalashtirish samaradorligini oshirish
Masofadan zondlash texnologiyalari (Remote Sensing)	Tuproq va o‘simlik holatini kuzatish, unumdorlikni baholash	Unumdorlikni oshirish, ekologik barqarorlikni ta’minlash
Sun’iy intellekt (AI)	Yer resurslarini tahlil qilish, prognoz qilish va qaror qabul qilish	Resurslardan oqilona foydalanish, degradatsiyani oldini olish
Raqamli monitoring platformalari	Ma’lumotlarni real vaqt rejimida yig‘ish va tahlil qilish	Uzluksiz nazorat, ekologik barqarorlikni saqlash, uzoq muddatli rivojlanish strategiyalarini qo‘llab-quvvatlash

Xulosa: Yer resurslaridan barqaror foydalanishni ta‘minlashda raqamli texnologiyalar asosiy rol o‘ynaydi. GIS, masofadan zondlash va sun‘iy intellekt algoritmlari yer monitoringi, rejalashtirish va ekologik xavfsizlikni ta‘minlashda samarali vosita hisoblanadi.

Raqamli tizimlar orqali yig‘ilgan ma‘lumotlar asosida qarorlar qabul qilish jarayonining aniqligi oshadi, yer resurslaridan oqilona foydalanish darajasi ortadi va ekologik barqarorlik ta‘minlanadi. Shu bilan birga, raqamli yechimlar uzoq muddatli strategiyalarni ishlab chiqish va yer degradatsiyasi xavfini kamaytirishda ham muhim ahamiyatga ega.

Umuman olganda, raqamli texnologiyalarni yer resurslarini boshqarishda keng joriy etish barqaror rivojlanishga, ekologik muvozanatni saqlashga va resurslardan oqilona foydalanishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Axmedov D.S., Qodirov R.J. Yer resurslaridan barqaror foydalanish va innovatsion texnologiyalar. – Toshkent: Fan va Texnologiya, 2021.

2. O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya va Atrof-muhitni muhofaza qilish vazirligi. Yer monitoringi va barqaror boshqaruv bo‘yicha hisobotlar. – Toshkent, 2020.

3. Tursunov B.A. Raqamli texnologiyalar asosida yer resurslarini boshqarish. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2019.

4. Волков А.В., Кузнецова Е.Н. Цифровые технологии в управлении земельными ресурсами. – Москва: Наука, 2020.

5. Смирнов И.А. GIS и дистанционное зондирование в мониторинге земель. – Санкт-Петербург: Политехника, 2019.

6. Петров К.Н. Устойчивое использование земель и информационные технологии. – Москва: Техносфера, 2021.

7. European Environment Agency. Land Monitoring and Sustainable Management in Europe. – Copenhagen, 2020.

8. Johnson P., Smith R. Digital Technologies for Sustainable Land Use. – London: Springer, 2019.

9. Müller T., Weber K. Remote Sensing and GIS in European Land Management. – Berlin: Springer Nature, 2021.

UDK: 004.032:004.7:528.3

GAT VA MASOFADAN ZONDLASH TEXNOLOGIYALARI YORDAMIDA IT OPERATSIYALARINI OPTIMALLASHTIRISH

M. B.Baxriyev, Sh.U. Asadov
Qarshi Davlat Texnika Universiteti assistenti

Annotatsiya. *Geografik axborot tizimlari (GAT) masofadan zondlash texnologiyalarini IT operatsiyalariga integratsiyalash jarayonini tubdan o‘zgartirdi. Fazoviy tahlil va ilg‘or ma’lumotlarni vizuallashtirish imkoniyatlari orqali GAT keng ko‘lamli geofazoviy ma’lumotlarni birlashtirish va IT sohasida qaror qabul qilishni qo‘llab-quvvatlash uchun mustahkam asos yaratadi. Ushbu maqolada GAT va masofadan zondlashni bog‘lovchi nazariy asoslar tahlil qilinadi hamda uning IT muhitidagi amaliy roli yoritiladi. Amaliy misollar asosida samarali qo‘llanmalar, uchraydigan muammolar va GATdan olingan tahliliy xulosalarning keng qamrovli ta’siri ko‘rib chiqiladi. Tadqiqotda GAT ish jarayonlari, ma’lumotlarni integratsiyalash usullari va amaliy qo‘llanilish holatlarini aks ettiruvchi diagrammalar ham taqdim etiladi.*

Kalit so‘zlar: GAT, IT, masofadan zondlash, ma’lumotlarni integratsiyalash, monitoring, fazoviy tahlil.

Kirish: Geofazoviy ma’lumotlar hajmining tez sur’atlarda ortishi va masofadan zondlash texnologiyalaridagi yutuqlar IT operatsiyalarini tubdan yangilab, murakkab muammolarni hal etishning yangi usullarini taqdim etdi. Ushbu jarayon markazida fazoviy va vaqt ma’lumotlarini amaliy bilimga aylantiruvchi Geografik axborot tizimlari (GAT) turadi. Bunday integratsiya zamonaviy IT muhitlari uchun ayniqsa muhim bo‘lib, samarali qaror qabul qilish tobora boy vizualizatsiya va analitik ma’lumotlarga tayanmoqda [1;2].

GAT yordamida IT jamoalari tizim samaradorligini nazorat qilishi, tarmoq samaradorligini optimallashtirishi hamda geografik razvedka ma’lumotlariga asoslangan favqulodda tiklash strategiyalarini ishlab chiqishi mumkin. Sun’iy yo‘ldoshlar, dronlar va havo sensorlari kabi masofadan zondlash vositalari Yer yuzasining real vaqt rejimidagi yuqori aniqlikdagi tasvirlarini taqdim etadi. Ushbu texnologiyalar atrof-muhitdagi o‘zgarishlar, infratuzilma holati va potensial xavflarni baholash imkonini beradi [3].

Masofadan zondlash ma’lumotlari GAT bilan uyg‘unlashtirilganda yanada samarali natija beradi. Masalan, GAT platformalarida qatlam sifatida joylashtirilgan sun’iy yo‘ldosh tasvirlari muhim aloqa tarmoqlaridagi zaif nuqtalarni aniqlash yoki tabiiy ofatlar ta’sirini xaritalash imkonini beradi, bu esa IT bo‘limlariga tez va samarali harakat qilish imkonini yaratadi.

GAT va masofadan zondlash o‘rtasidagi hamkorlik sezilarli afzalliklarga ega. Favqulodda tiklash rejalashtirish jarayonida real vaqtga yaqin tasvirlar zararlangan hududlarni aniqlash va javob choralarini ustuvorlashtirishga yordam beradi [4]. GAT asosidagi tarmoq trafigi vizuallashtirilishi esa noodatiy faollikni aniqlash orqali kiberxavfsizlikni mustahkamlashi mumkin. Favqulodda vaziyatlardan tashqari, ushbu integratsiya tarmoq dizaynini optimallashtirish, kechikishlarni kamaytirish va resurslardan barqaror foydalanishni ta’minlash kabi proaktiv choralarni ham qo‘llab-quvvatlaydi.

Masofadan zondlash natijalarini GAT platformalari bilan integratsiyalash orqali IT operatsiyalari misli ko‘rilmagan darajadagi fazoviy razvedka imkoniyatiga ega bo‘ladi — bu esa

real vaqt monitoringi, chuqur tahlil va prognozli modellashtirishni ta’minlab, moslashuvchan va intellektual infratuzilmani shakllantiradi [5;6]. Mazkur maqolada GAT va masofadan zondlashning qo‘shma imkoniyatlari IT operatsiyalarini qanday o‘zgartirayotgani va bugungi hamda kelajakdagi muammolar uchun barqaror asos yaratayotgani tahlil qilinadi [7].

Masofadan zondlashda GATning nazariy asoslari: Geografik axborot tizimlari (GAT) fazoviy va nofazoviy ma’lumotlarni birlashtiruvchi kuchli platforma bo‘lib, u naqshlar, o‘zaro bog‘liqliklar va rivojlanish tendensiyalarini aniqlash imkonini beradi. Geofazoviy tahlilni kundalik ish jarayonlariga integratsiyalash orqali GAT turli sohalarda asoslangan qaror qabul qilish uchun mustahkam asos yaratadi. Masofadan zondlash bilan birgalikda qo‘llanilganda GAT imkoniyatlari keskin kengayadi, real vaqt rejimidagi yuqori aniqlikdagi ma’lumotlar taqdim etilib, vaziyatni anglash va aniq qaror qabul qilish kuchayadi [8].

Ushbu hamkorlik murakkab fazoviy tahlil talab etiladigan sohalarda, jumladan IT operatsiyalarida, ayniqsa muhim ahamiyatga ega.

Masofadan zondlash sun’iy yo‘ldoshlar, dronlar va havo sensorlari orqali olingan georeferensiyalangan tasvir va ma’lumotlar bilan GATni boyitadi. Ushbu ma’lumotlar multispektral va giperspektral tasvirlar, termal skanerlash natijalari hamda LiDAR (Light Detection and Ranging) o‘lchovlarini o‘z ichiga oladi [9]. Masalan, multispektral tasvirlar o‘simlik qoplamasi holatini kuzatish yoki yer qoplamasini tasniflashda muhim ahamiyatga ega bo‘lsa, LiDAR aniq balandlik ma’lumotlarini taqdim etib, infratuzilmani baholash va shaharsozlikni rejalashtirishda qo‘llaniladi [10]. Ushbu texnologiyalar GAT tomonidan yagona vizual va analitik mahsulotga aylantiriladigan asosiy ma’lumot qatlamlarini yaratadi [11].

Masofadan zondlash doirasida GATning asosiy funksiyalari quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

1. Fazoviy tahlil – GAT fazoviy munosabatlar, naqshlar va bog‘liqliklarni aniqlashda yuqori samaradorlikka ega. Bu IT infratuzilmasidagi zaifliklarni aniqlash, xizmat uzilishlarining geografik sabablarini topish va kiberhujum manbalarini kuzatishda muhimdir.
2. Ma’lumotlarni integratsiyalash – GAT turli manbalardan olingan ma’lumotlarni yagona muhitga birlashtiradi.
3. Vizualizatsiya – Murakkab ma’lumotlarni xaritalar, grafiklar va diagrammalar ko‘rinishida taqdim etadi.
4. Modellashtirish – Turli ssenariylarni simulyatsiya qilish va prognozlash imkonini beradi.

GAT va masofadan zondlashning IT operatsiyalaridagi qo‘llanilishi.

1 Favqulodda tiklash va xavfni baholash. GAT va masofadan zondlash IT jamoalariga xavflarni baholash va tiklash strategiyalarini ishlab chiqishda yordam beradi.

Amaliy misol – Katrina dovuli (2005): Ushbu ofatdan so‘ng GAT sun’iy yo‘ldosh ma’lumotlarini aloqa tarmoqlari bilan integratsiyalab, tiklash ishlarini tezlashtirishda muhim rol o‘ynagan.

2 Infratuzilma monitoringi. Yuqori aniqlikdagi tasvirlar muhim infratuzilma obyektlarini doimiy nazorat qilish imkonini beradi.

3 Tarmoqni optimallashtirish. GAT foydalanuvchilar zichligi va atrof-muhit sharoitlarini xaritalash orqali tarmoq resurslarini strategik taqsimlashni qo‘llab-quvvatlaydi.

Amaliy misol – Google’ning Project Loon loyihasi: Ushbu tashabbusda GAT va masofadan zondlash internetni yetib bormagan hududlarga yetkazish uchun yuqori balandlikdagi sharlarni joylashtirish nuqtalarini aniqlashda qo‘llanilgan.

2. Ma’lumotlarni integratsiyalash texnikalari.

1 ETL (Extract, Transform, Load) jarayonlari – Turli manbalardan olingan ma’lumotlarni yagona formatga keltirish va GAT muhitiga yuklashni ta’minlaydi.

2 API (Application Programming Interface) – GAT va IT tizimlari o‘rtasida real vaqt ma’lumot almashinuvini ta’minlaydi.

3 Mashinaviy o‘qitish asosida obyektlarni ajratish – Tasvirlarni klassifikatsiya qilish, obyektlarni aniqlash va klasterlash orqali fazoviy naqshlarni avtomatik aniqlaydi.

3. GAT va masofadan zondlashni integratsiyalashdagi muammolar.

1 Ma’lumot hajmi va murakkabligi – Katta hajmdagi multispektral, LiDAR va termal ma’lumotlar yuqori hisoblash quvvatini talab qiladi.

2 Interoperabellik muammolari – Turli format va protokollarning mos kelmasligi integratsiyani murakkablashtiradi.

3 Aniqlik muammolari – Fazoviy va vaqt rezolyutsiyasi, geometrik va radiometrik xatoliklar tahlil natijalariga ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Xulosa: Geografik axborot tizimlari (GAT) va masofadan zondlash texnologiyalarining integratsiyasi IT operatsiyalarini tubdan o‘zgartirib, tahlil, qaror qabul qilish va resurslarni boshqarishda keng imkoniyatlar yaratmoqda. GAT fazoviy va nofazoviy ma’lumotlarni birlashtirib, murakkab jarayonlarni vizual va analitik jihatdan tushunarli shaklga keltiradi. Masofadan zondlash esa real vaqt rejimidagi yuqori aniqlikdagi kuzatuv ma’lumotlarini taqdim etadi.

Mavjud muammolarga qaramay, SI, ML va IoT texnologiyalarining rivojlanishi ushbu integratsiyani yanada samarali qiladi. Natijada, GAT va masofadan zondlash uyg‘unligi IT operatsiyalarini yanada aqlli, barqaror va tezkor qaror qabul qilish tizimiga aylantiradi hamda kelgusida uning ahamiyati yanada ortib boradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. A. Khaqberdiev, M.Bakhriev, Sh.Asadov, F. Safarov. “Integrating GIS and remote sensing for data-driven it Operations”, “Geodeziya, kartografiya, geoinformatika” jurnali 4-soni. 2025 yil.

2. Rustam Oymatov, Mamanbek Reymov, Sharafiddin Narbaev, Mukhammad Bakhriyev, R Maksudov, B Salimova. “Development of the technological system of creating an electronic map of agriculture using GIS technology”, E3S Web of Conferences. 2023.

3. Sh Asadov M.Bakhriev, “Mapping and management of land resources based on Geoinformation technologies: an analytical review”, Science shine International scientific journal, 2025 y.

4. Baxriyev Muhammad Baxtiyor o‘g‘li, “Google earth engine platformasi orqali yerdan foydalanish raqamli xaritasini tuzish va uning tahlili”, Yerlar degradatsiyasiga qarshi kurashishning intensivvainnovatsion yechimlari, yer resurslaridan foydalanishni raqamlashtirishi xalqaro konfrensiya. 2025/6/9.

5. G.Aminova M.Baxriyev, R.Oymatov, I.Musayev, “GAT-onlayn EOS da dasturidan foydalangan holda Qishloq xo'jaligi yerlari monitoringi: Andijon viloyati misolida”, Geodeziya, kartografiya, geoinformatika jurnali, 2-son, 2024-yil.

6. Қиличов Зайнобиддин Бахриев Мухаммад, Файзиев Шохрух, “Влияние внешней среды на результаты геодезических измерений, выполненных в полигонометрии города карши, и современное решение её учета”, Polish Science Journal, 2022.

7. M. Xudoyberdiyeva M. Baxriyev, Sh.Suyunova, S.Suyunov, D. Mamajonova, “O‘zbekistonda buloqlar tarqalishining tabiiy geografik xususiyatlari va ularni kartalashtirishda GAT texnologiyalarini qo‘llash”, Geodeziya, kartografiya, geoinformatika jurnali, 4-son, 2025 yil.

8. Uzbekkhon Mukhtorov, Ilhomjon Aslanov, Jasur Lapasov, Doniyor Eshnazarov, Mukhammad Bakhriev, “Creating Fertilizer Application Map via Precision Agriculture Using Sentinel-2 Data in Uzbekistan”, International Scientific Conference on Agricultural Machinery Industry “Interagromash", 2022/5/25.

9. R Oymatov, Z Mamatkulov, R Maksudov, M Bakhriyev, G Aminova, I Menlimuratova, A Esirgapov, “Improving the methods of Agricultural mapping using remote sensing data”, E3S Web of Conferences, 2023.

10. M. Baxriyev, “Geoma’lumot texnologiyalariga asoslangan yer resurslarini xaritalash va boshqarish: tahliliy ko‘rib chiqish”, “Qishloq va suv xo‘jaligi sohasini raqamli texnologiyalar bilan rivojlantirishning istiqbollari va muammolari” Respublika ilmiy-amaliy anjumani. Qarshi- 22-23 sentyabr 2025-yil.

11. Burrough P.A., McDonnell R.A., Lloyd C.D. Principles of Geographical Information Systems. – Oxford: Oxford University Press, 2015. – 444 p.

UDK 631.67

QISHLOQ XO‘JALIGIDA SUV RESURSLARIDAN SAMARALI FOYDALANISHNING AHAMIYATI

O‘.A.Nazarov
Qarshi davlat texnika universiteti

Annotatsiya. Ushbu maqolada qishloq xojaligidagi mavjud yer resurslari, ulardan samarali foydalanish yollari, hosildorlikni oshirish, shuningdek mavjud suv resurslaridan oqilona foydalanish haqidagi ilmiy qarashlar va zamonaviy yondashuvlar aks ettirilgan.

Kalit so’zlar. Suv xo'jaligi, suv resurslar, sug'orish, drenaj, fotosintez.

Kirish. Suv qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining muhim manbasi bo'lib, oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Sug'oriladigan dehqonchilik butun ekin maydonlarining 20 foizini tashkil qiladi va butun dunyo bo'ylab ishlab chiqarilgan umumiy oziq-ovqatning 40 foizini tashkil qiladi. Aholining o'sishi, urbanizatsiya va iqlim o'zgarishi tufayli suv resurslari uchun raqobat kuchayishi kutilmoqda, bu ayniqsa qishloq xo'jaligiga ta'sir qiladi. Aholi soni 2050 yilga borib 10 milliarddan oshishi kutilmoqda va shahar yoki qishloq bo‘lsin, bu aholi asosiy ehtiyojlarini qondirish uchun oziq-ovqat va tolaga muhtoj bo‘ladi. Rivojlanayotgan mamlakatlarda daromad o'sishi bilan birga keladigan kaloriya va murakkabroq oziq-ovqat mahsulotlarini iste'mol qilishning ortishi bilan birgalikda, 2050 yilga kelib qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi taxminan 70% ga o'sishi kerakligi taxmin qilinmoqda. Qishloq xo‘jaligi iqtisodiyotning muhim tarmoqlaridan biri bo‘lib, aholining oziq-ovqat mahsulotlariga bo‘lgan ehtiyojini qondirishda asosiy rol o‘ynaydi. Ushbu sohaning samarali rivojlanishi ko‘p jihatdan tabiiy resurslarga, ayniqsa suv resurslariga bog‘liq.

O‘zbekiston sharoitida qishloq xo‘jaligi asosan sug‘orma dehqonchilikka asoslangan. Shu sababli suv resurslaridan oqilona foydalanish, sug‘orish tizimlarini takomillashtirish va suvni tejovchi texnologiyalarni joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Suv resurslarining qishloq xo‘jaligidagi ahamiyati Suv o‘simliklarning hayot faoliyatida muhim rol o‘ynaydi. O‘simlik hujayralarining katta qismi suvdan tashkil topgan bo‘lib, u fotosintez jarayonida ham bevosita ishtirok etadi. Tuproqdagi namlik o‘simliklarning oziqa moddalarini o‘zlashtirishiga yordam beradi. Yetarli namlik mavjud bo‘lgan sharoitda tuproq mikroorganizmlarining faoliyati ham yaxshilanadi va tuproq unumdorligi ortadi.

Suv resurslarining hosildorlikka ta’siri. Qishloq xo‘jaligi ekinlarining hosildorligi suv bilan ta’minlanganlik darajasiga bevosita bog‘liq. Ekinlar o‘sish davrida yetarli miqdorda suv bilan ta’minlanganida ularning rivojlanishi tezlashadi va hosildorlik ortadi. Suv yetishmovchiligi esa o‘simliklarning rivojlanishini sekinlashtiradi, fotosintez jarayonini pasaytiradi va hosil miqdorining kamayishiga olib keladi.

Sug‘orish tizimlari va zamonaviy texnologiyalar. Zamonaviy sug‘orish texnologiyalari suv resurslaridan samarali foydalanish imkonini yaratadi. Tomchilatib sug‘orish va yomg‘irlatib sug‘orish usullari suv sarfini kamaytirish bilan birga ekinlar hosildorligini oshirishga xizmat qiladi. Avtomatlashtirilgan sug‘orish tizimlari suv sarfini nazorat qilish imkonini beradi va suv resurslarining behuda sarflanishining oldini oladi.

Biroq, kelajakda barcha tarmoqlarning suvga bo'lgan talabi suvning 25-40 foizini, ayniqsa, suv ta'siri ostida bo'lgan hududlarda, pastroqdan yuqori mahsuldorlikka va ish bilan ta'minlashga qayta taqsimlanishini talab qiladi. Aksariyat hollarda bunday qayta taqsimlash suvdan foydalanishning yuqori ulushi tufayli qishloq xo'jaligidan kelib chiqishi kutilmoqda. Hozirgi vaqtda qishloq xo'jaligi (o'rtacha) butun dunyo bo'ylab chuchuk suv olishning 70 foizini (va ekinlarning bug'lanishi tufayli “iste'mol qilinadigan suvdan foydalanish” ning yanada yuqori ulushini) tashkil etadi.

Suv harakati ham jismoniy, ham virtual bo'lishi kerak. Suvning fizik harakati yer usti va yer osti suv resurslarining, asosan, qishloq xo'jaligidan shahar, atrof-muhit va sanoat foydalanuvchilarigacha bo'lgan dastlabki taqsimotidagi o'zgarishlar orqali sodir bo'lishi mumkin. Suv ham deyarli harakatlanishi mumkin, chunki suvni talab qiladigan oziq-ovqat, tovarlar va xizmatlar ishlab chiqarish suvga boy joylarda to'plangan va suv tanqis bo'lgan joylarga sotiladi.

Qishloq xo'jaligida suv resurslarini boshqarishni takomillashtirish qobiliyati odatda noto'g'ri siyosat, asosiy institutsional faoliyatning pastligi va moliyalashtirish cheklovlari bilan cheklanadi. Muhim davlat va xususiy institutlar (qishloq va suv xo‘jaligi vazirliklari, havza hokimiyatlari, irrigatsiya agentliklari, suvdan foydalanuvchilar va fermerlar tashkilotlarini o‘z ichiga oladi) odatda o‘z vazifalarini samarali bajarish uchun qulay muhit va zarur imkoniyatlarga ega emas.

Misol uchun, havza ma'muriyati ko'pincha suv taqsimotini amalga oshirish va manfaatdor tomonlarni yig‘ish uchun cheklangan imkoniyatlarga ega. Sug'orishni rivojlantirishga mas'ul bo'lgan muassasalar ko'pincha kapitalni ko'p talab qiladigan keng ko'lamli sxemalar bilan cheklanib, kichik miqyosdagi xususiy moliyalashtirish va irrigatsiyani boshqarish imkoniyatlarini ishlab chiqish o'rniga davlat sektoriga asoslangan yondashuvlarga tayanadi. Fermerlar va ularning tashkilotlari suv narxlari va qishloq xo'jaligini qo'llab-quvvatlash siyosati nuqtai nazaridan ko'pincha buzilgan rag'batlantirish tizimlariga javob berishadi, bu esa sektordagi ijobiy o'zgarishlarga to'sqinlik qiladi.

Bundan tashqari, ko'pchilik hukumatlar va suvdan foydalanuvchilar sug'orish va drenaj tizimlarini ta'mirlashga etarli mablag’ ajrata olmaydilar. Noto'g'ri boshqaruv va ekspluatatsiya drenaj tizimlarining yomon ishlashida rol o'ynashi mumkin bo'lsa-da, ayniqsa tizimlarning etarli darajada saqlanmaganligi ularning ishlashining pasayishiga va keyinchalik reabilitatsiya zarurligiga olib keladi. Drenaj tizimlariga texnik xizmat ko'rsatish uchun etarli mablag' bilan ta'minlanmaganligi ushbu sohada keng tarqalgan "qurilish-e'tiborsizlik-tiklash-e'tiborsizlik" tsikliga olib keldi.

So‘nggi vaqtlarda nafaqat mamlakatimizda, balki Markaziy Osiyo davlatlarida suv tanqisligi muammosi yildan-yilga jiddiy tus olmoqda. Yurtimiz iqtisodiyotining yetakchi tarmoqlaridan biri bo‘lgan qishloq xo‘jaligida esa suvning o‘rnini hech narsa bilan o‘lchab bo‘lmaydi. Chunki mamlakatimiz hududidagi sug‘oriladigan ekin maydonlari 4 million 300 ming gektarni tashkil etadi.

Respublikamizda suv resurslari manbalari cheklangan. Ularning umumiy miqdori 49,4 mlrd. m^3 atrofida bo’lishi mumkin. Shundan 30,6 mlrd. m^3 yoki 61,9 foizi yirik daryolarning suvidan, 16,5 mlrd. m^3 respublika hududidagi mayda daryolarning suvlaridan, qolgan qismi esa yer osti hamda kollektor-zovurlardan olinadigan suvlardan iborat. Mavjud suv resurslari hozirgi o’sib borayotgan talabni to’liq qondira olmaydi. Shu suv resurslarining aksariyat qismi qishloq xo’jaligi tarmog’ida ishlatiladi. Suv resurslari davlat muhofazasida, mulkchilik shakllari bo’yicha taqsimlanmagan.

Xulosa. Yuqoridagi mavjud cheklovlarni hisobga olgan holda, qishloq xo‘jaligi suv xo‘jaligi sektori hozirgi vaqtda o‘zini zamonaviy va barqaror xizmatlar ko‘rsatish yo‘nalishiga o‘zgartirish jarayonida. U barqaror suv xizmatlarini qurish va suv resurslarini saqlab qolish, shuningdek, suv bilan bog'liq kengroq ijtimoiy va iqtisodiy ta'sirlar bilan bog'liq xavflarni boshqarish bo'yicha yagona suv yondashuvini taklif qiladi. Bu boshqaruv va xizmat ko'rsatish tizimini o'zgartirish, shuningdek, suv havzalarini boshqarishni qo'llab-quvvatlash va sektorni yashillashtirishni o'z ichiga oladi va bunga innovatsiyalar, islohotlar va javobgarlik uchun yaxshilangan rag'batlarni taqdim etish orqali erishish mumkin.

Foydalangan adabiyotlar.

1. Samatov G’.A., Rustamova I.B., Sheripbayeva U.A. Qishloq xo’jaligi iqtisodiyoti va menejmenti.- T.: 2012. - 346 b.

2. Umrzoqov O’.P., Toshboyev A.J., Rashidov J., Toshboyev A.A. Qishloq xo’jaligi iqtisodiyoti va menejmenti: o’quv qo’llanma. - T.: Iqtisod - moliya, 2018. - 268 b.

3. Qosimova D.S. Menejment nazariyasi: o’quv qo’llanma. - T.: TDIU, 2019. - 208 b.

4.Abdullayev I., Raxmatullayev S. Suv resurslarini boshqarish asoslari. Toshkent, 2018.

5. https://www.fao.org/3/y5582e/y5582e04.htm

6. https://www.worldbank.org/en/topic/water-in-agriculture

7. www.agro.uz - O’zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo’jaligi vazirligi.

UDK 528.88

YERDAN FOYDALANISH VA YER MUNOSABATLARI TO‘G‘RISIDA TUSHUNCHA

S.R.Tursunov
Qarshi davlat texnika universiteti

Annotatsiya: *Yer munosabatlari – bu yerdan foydalanish, unga egalik qilish va uni tasarruf etish bilan bog‘liq ijtimoiy munosabatlardir. Ular fuqarolar, korxonalar, davlat organlari hamda boshqa xo‘jalik va o‘zga faoliyatlar subyektlari orasida kelib chiqadi. Qonun bilan tartibga solinib, ular yer huquqi munosabatlariga, ya’ni yerdan foydalanish sohasidagi iqtisodiy munosabatlarni mustahkamlashning huquqiy shakliga aylanib borishi va yer bilan bog’liq islohotlar haqida fikr yuritilgan.*

Kalet so‘zlar: Hududni tashkil etish, yer islohoti, yer qonunlari, yer egaliklari,yerdan foydalanuvchilar

Yerlarning bevosita obyekti – har xil maydonga, joylashgan o‘rniga, sifati va mo‘ljallangan maqsadiga ega yer uchastkalaridir. Jamiyatning yer tuzumi – bu jamiyatda yerga mulkchilikning qonun bilan belgilangan shakllari, unda xo‘jalik yuritish, yerga egalik qilish, yerdan foydalanish shakllari va yer tuzish, yerni taqsimlash tizimi va uni tartibga solish usullari asosida jamiyatda yuzaga kelgan barcha yer munosabatlari yig‘indisidir. Jamiyatning yer tuzumi o‘zgarishsiz qolmaydi; u evolutsiya asosida radikal islohotlar asosida, ayrim hollarda esa revolutsiya natijasida ham o‘zgarishi mumkin. Yer munosabatlari yer egaliklari va yerdan foydalanuvchilarning belgili shakllarining paydo bo‘lishi, mustahkamlanishini, yiriklashishi yoki maydalashishi va tugatilishi bilan ham bog‘liq bo‘ladi .

Taklif va tavsiyalar Yer tuzish nazariyasi va amaliyotida tez-tez ishlatiladigan “yerdan foydalanish” va “yer egaligi” tushunchalari bir xil emas. Ularning har biri bir necha ma’noga ega. O‘zbekiston Respublikasi qonunlariga asosan yer uchastkalari mulk qilib, egalik qilish yoki foydalanish uchun beriladi. Ular mahalliy boshqaruv organlari (hokimiyatlar) tomonidan, ularning vakolatlaridan kelib chiqib beriladi. Yer uchastkalari davlat, jamoa yoki ayrim fuqarolar mulki bo‘lishi mumkin. Davlat mulki hisoblangan yerlar muddatsiz (doimiy) foydalanish uchun noqishloq xo‘jalik korxonalariga, tashkilotlariga, muassasalariga beriladi. Umrbod meros qoldirish huquqi bilan va mulk qilib yer uchastkalari dehqon xo‘jaliklarini tashkil etish, qishloqlarda shaxsiy tomorqa xo‘jaliklarini yuritish, bog‘dorchilik va qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishi bilan bog‘liq boshqa maqsadlar uchun ajratiladi. Shunday qilib, “yerdan foydalanish” va “yer egaligi” tushunchalarining birinchi ma’nosi, yer uchastkasining haqiqatan ham foydalanish, egalik qilish yoki mulk huquqlari asosida foydalanilishini bildiradi. Bunda eng katta vakolatga (huquqqa) mulkdorlar, eng kamiga esa – foydalanuvchilar ega. Bu so‘zlarning ikkinchi ma’nosi – yer uchastkalaridan u yoki bu subyekt ega huquqlarga mos foydalanish tartibi va jarayonidir. Yerdan foydalanishning turlaridan biri ijara hisoblanadi, ya’ni yer uchastkasini boshqa shaxsga (ijarachiga) shartnoma bo‘yicha belgili to‘lov-ijara haqi evaziga vaqtincha foydalanishga berish. Hozirgi davrda ijaraga beruvchilar mahalliy hokimiyatlar va qishloq xo‘jalik massivlari hisoblanadi. Va nihoyat, yer tuzish amaliyotida “yerdan foydalanish” tushunchasi ayrim hollarda umumiy ma’noda ishlatiladi va yerdan foydalanish jarayonini yoki huquqiy maqomiga bog‘liq bo‘lmagan holda foydalanilayotgan uchastkani bildiradi . Jamiyat iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanish jarayonida doimo o‘zi faoliyat ko‘rsatayotgan huquqni tashkil etishi takomillashtiradi va o‘zgartiradi. Huquq deb, yer ustining chegaralangan o‘ziga xos tabiiy va antropogen (inson tomonidan yaratilgan) xususiyatlarga va resurslarga ega qismiga aytiladi; u maydoni, uzunligi, joylashgan o‘rni, shakli va boshqa sifatlari bilan tavsiflanadi.

Hududni tashkil etish – bu uni tartibga solish, aniq ishlab chiqarish yoki ijtimoiy maqsadlarga mos ma’lum tizimga keltirishdir. Yerni va huquqni tashkil etishni aniq talablar uchun moslash bo‘yicha odamlar faoliyati yer tuzish nomini oldi. Shu maqsadda yer massivlari u yoki bu maqsadlar uchun mo‘ljallangan va o‘lchamlarga ega xo‘jalik faoliyatining har xil sohalarida foydalanish uchun birbirlariga nisbatan belgili tartibda joylshgan uchastkalarga bo‘linadi. Bu uchastkalarda korxonalar, dalalar, yo‘llar, aholi yashash joylari va shunga o‘xshash joylashtiriladi . Yer tuzish yordamida yer egaliklari va yerdan foydalanuvchilarning paydo bo‘lishi, yiriklashtirilishi

yoki maydalashtirilishi va tugatilishidek murakkab masalalar yechiladi. Yer tuzish orqali mamlakatimizda yer egalari va yerdan foydalanuvchilar shakllari almashinishi ham sodir bo‘ladi. Bular esa uning yer islohotini o‘tkazishdagi va unda ko‘zlagan maqsadlarga erishishdagi ahamiyati o‘rnini belgilaydi.

Yer islohoti – bu qonuniy rasmiylashtirilgan yer tuzumini va yer munosabatlarini, yerga bo‘lgan mulkchilik shakllarini o‘zgartirish, yerni bir mulkdordan va foydalanuvchidan ikkinchisiga olib berish va mamlakatda hududiy tuzilishini mos ravishda o‘zgartirish bilan bog‘liq tubdan qayta ko‘rishdir. Shunday qilib yer islohoti – bu davlat tomonidan tartibga solinuvchi va nazorat qilinuvchi, uning yer siyosatining umumiy ko‘rinishini o‘ziga mujassamlashtiruvchi Yangi yer tuzumga o‘tish jarayonidir. Islohot yer egaliklari va yerdan foydalanishlarning, yerga bo‘lgan mulkchilikning yangi shakllariga nisbatan tez va qiyinchiliklarsiz o‘tishni ta’minlovchi huquqiy, iqtisodiy, texnik va tashkiliy choralar majmuasini amalga oshirishni nazarda tutadi.

Yer islohoti davrida quyidagi ososiy masalalar yechilishi kerak:

– yerga bo‘lgan davlat mulkchiligi yakka hokimligini tugatish;

– fuqoroning yer olishga bo‘lgan huquqlarini amalga oshirish;

– bozor shaklidagi yer munosabatlariga o‘tish;

– yer resurslarini boshqarishning oxirlik markazini mahalliy hokimiyat organlariga ko‘chirish (desentralizatsiya);

– qonuniy ruxsat etilgan yer egaliklari va yerdan foydalanuvchilarning barcha shakllarining erkin rivojlanishini ta’minlash:

– atrof-muhitni muhofaza qilish sohasidagi ahamiyatli ustuvorliklarni ta’minlash.

Islohotlarni o‘tkazishda Yangi bozor iqtisodiyoti doirasida yer munosabatlarini tartibga solish uchun ishonchli huquqiy asos yaratuvchi Yangi yer qonunlarini yaratish masalalari birinchi darajali ahamiyatga ega. Xususan, yerni tovar aylanishiga qo‘shishda yer sudlarini, yer banklarini, ro‘yxatga oluvchi chegaralash xizmatlarini va boshqa yer bozori infratizimi elementlarini tashkil etish va qonuniy ta’minlash talab etiladi.

O‘zbekistonda hozir yer islohoti o‘tkazish maqsadida qabul qilingan va qilinayotgan yer qonunlari qo‘yidagi tamoyillarga asoslanadi:

– fuqarolarning yer uchastkalariga bo‘lgan huquqlari ustuvorligi;

– mahalliy ijrochi hokimiyat organlariga yerni tasarruf etish huquqini berish;

– yerda xo‘jalik yuritish shakllarining ko‘pligi va barchasining tengligi;

– yerdan foydalanishning to‘lovliligi;

– yerni muhofaza etish.

Islohotlar davrida yer tuzish yordamida yer mahalliy ijrochi hokimiyat organlari tasarrufiga beriladi dehqon va shaxsiy tomorqa xo‘jaliklariga yer ajratish, bog‘dorchilik va sabzavotchilikni rivojlantirish uchun maxsus yer fondlari tashkil etiladi; uchastkalar yerga bo‘lgan huquqlarni tasdiqlovchi hujjatlarni berish bilan ajratiladi. Qishloq xo‘jalik mahsulotlarini ishlab chiqarishning o‘sishini, tuproqlar unumdorligining oshishini ta’minlash uchun ishlab chiqaruvchilarning iqtisodiy manfaatlarini ishga solish kerak; shuning uchun yer siyosatining asosi yer munosabatlarini tartibga solishning samarali iqtisodiy mexanizmi bo‘lishi kerak. U mos huquqiy va tashkiliy choralar bilan bog‘langan bo‘lishi va davlatning umumiy ijtimoiy-iqtisodiy siyosatiga mos kelishi kerak.

Yer islohotining iqtisodiy mexanizmi quyidagi asosiy qoidalarga asoslanadi:

– jamiyatda sodir bo‘layotgan obyektiv iqtisodiy qonunlar va jarayonlar ta’sirini albatta hisobga olish;

– davlatning, ayrim korxonalar va fuqarolarning iqtisodiy manfaatlarini uyg‘unlashtirish;

– qishloq xo‘jaligi yer egaligi va yerdan foydalanishlarini iqtisodiy himoyalash hamda yerlarni buzilishdan saqlash;

– ishlab chiqarish maqsadlariga nisbatan tabiatni muhofaza qilish maqsadlarining ustuvorligi;

– yerdan oqilona foydalanishni iqtisodiy rag‘batlantirish;

– barcha amalga oshiriladigan tadbirlarning iqtisodiy samaradorligi .

Yuqori rivojlangan davlatlar tajribasi (xususan, Shvetsiya, Germaniya, AQSH) ko‘rsatishicha, yer munosabatlarini tartibga solishning samarali iqtisodiy mexanizmi mos infratizimni (yer

banklari, mulklarni baholash va soliqqa tortish xizmatlari, birjalar va shunga o‘xshash) talab etadi. Bundan tashqari, butun tizim yer munosabatlari zanjirining aniq yer mulkdoridan, yer egasi va yerdan foydalanuvchidan boshlab, butun davlatgacha bo‘lgan barcha bo‘g‘inlarini qamrab olsagina ishlaydi.

Yer islohotlarini amalga oshirish uchun zarur pul mablag‘lari quyidagi manbaalar hisobiga tashkil topadi:

– yer uchun to‘lovlar (yer solig‘i va ijara haqi);

– noqishloq xo‘jalik maqsadlari uchun olinadigan qishloq xo‘jalik yerlari uchun qoplama to‘lovlar;

– yerni va boshqa ko‘chmas mulklarni sotishdan ajratmalar; – yer egalari va yerdan foydalanuvchilarni ro‘yxatga olish bilan bog‘liq yig‘imlar;

– yer siyosatini, yerdan oqilona foydalanishni va uni muhofaza qilishni tashkil etishni amalga oshirishga yo‘naltiriladigan maqsadli davlat dotatsiyalari va korxonalar foydalaridan ajratmalar;

– boshqa manbaalar (jarimalar, xalqaro yordam va shunga o‘xshash) .

Xulosa. Yer tuzish to‘lovlarini joriy etish, uning mavjud mexanizmlari mukammal emasligiga qaramasdan, yerdan foydalanuvchilarning iqtisodiy manfaatlarini ishga solish va yer islohotini barcha yo‘nalishlar bo‘yicha amalga oshirishni tezlashtirish imkonini berdi. Davlatning yer siyosatini amalga oshirish bo‘yicha ishlarning asosiy og‘irligi mos tarkibga, moddiy-texnik ta’minotga va yer islohotining pishib yetilgan muammolarini huquqiy savodli, texnik to‘g‘ri va iqtisodiy asoslangan holda yechishga qodir malakali mutaxassislarga ega davlat yer tuzish organlari zimmasiga tushadi. Shu bilan bir vaqtning o‘zida prinsipal yangi vazifalar paydo bo‘lishi sababli, ularning tarkibini va vakolatlarini yanada rivojlantirish va takomillashtirish zarurati tug‘iladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Adizov Sh. Yer monitoringi. Buxoro “TIQXMMI” MTU BTRBI 2024.
2. Babajanov A.R., Muqumov A.M., Sharipov S.R. Hududlarni rivojlantirish // TIQXMMI, T.: 2019.
3. Babajanov A.R., Muqumov A.M., Xafizova Z.X. Yerdan foydalanishda integratsion boshqaruv // TIQXMMI, T.:2018.
4. Babajanov A.R., Ro‘ziboev S.B. Aholi yashash joylari kadastri // Tafakkur, T.: 2011.
5. Babajanov A.R., Ro‘ziboev S.B., Majitov B.X. Yerdan foydalanish asoslari // TIQXMMI, T.: 2018.
6. Ergashev A., Rudenko I., Davletov S. va boshqalar “Barqaror taraqqiyot va tabiatshunoslik asoslari”. -T.: 2016. 230-bet

UDK 528.88

MASOFADAN ZONDLASH MA’LUMOTLARIDAGI ANIQLIK VA ISHONCHLILIK MUAMMOLARI

O‘.A.Nazarov, D.Q. Esanbayeva
Qarshi davlat texnika universiteti

Annotatsiya: *Ushbu g‘oyani amalga oshirish doirasida ma’lumotlarni qayta ishlash markazlari va masofaviy zondlash ma’lumotlarini qabul qilish, qayta ishlash va tarqatish uchun yer usti komplekslarining hisoblash klasterlari tarkibida koinotdan masofadan zondlash ma’lumotlarini oqimli qayta ishlash uchun geografik taqsimlangan hisoblash resursini yaratish va modernizatsiya qilish. ma'lumotlar amalga oshiriladi.*

Kalit so‘zlar: Koinotdan federal, CNews, Telekommunikatsiya, Aeronet, “Yo‘l xaritasi”, Roskosmos, Rostelekom, (GIS FPPD), infratuzilmasi.

So‘nggi yillarda kosmik texnologiyalar va axborot-kommunikatsiya tizimlarining jadal rivojlanishi natijasida Yer yuzasi haqidagi ma’lumotlarni olish va tahlil qilish imkoniyatlari sezilarli darajada kengaydi. Ayniqsa sun’iy yo‘ldoshlar orqali olinadigan masofadan zondlash ma’lumotlari geodeziya, kartografiya, ekologiya, qishloq xo‘jaligi, meteorologiya hamda tabiiy resurslarni boshqarish kabi ko‘plab sohalarda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Sun’iy yo‘ldoshlar Yer

orbitasida harakatlanib, maxsus sensorlar yordamida Yer yuzasidan elektromagnit nurlanishni qabul qiladi va natijada turli spektral diapazonlarda tasvirlar hosil qiladi. Ushbu tasvirlar orqali hududlarning tabiiy va antropogen holatini o‘rganish, o‘zgarishlarni monitoring qilish hamda ilmiy tahlillar olib borish mumkin. Masofadan zondlash texnologiyalari yordamida katta hududlarni qisqa vaqt ichida kuzatish imkoniyati mavjud bo‘lib, bu usul an’anaviy dala tadqiqotlariga nisbatan ancha tezkor va iqtisodiy jihatdan samarali hisoblanadi. Sun’iy yo‘ldosh ma’lumotlari yordamida o‘rmonlar holatini baholash, qishloq xo‘jaligi ekinlari maydonlarini aniqlash, suv resurslarini monitoring qilish, iqlim o‘zgarishlarini tahlil qilish hamda tabiiy ofatlar oqibatlarini baholash mumkin. Shu sababli ushbu texnologiya zamonaviy geoinformatsion tizimlar (GAT) va kartografik tadqiqotlarning asosiy ma’lumot manbalaridan biri sifatida keng qo‘llanilmoqda. Hozirgi kunda dunyoda ko‘plab sun’iy yo‘ldosh tizimlari faoliyat yuritmoqda. Ular turli maqsadlarda – meteorologik kuzatuvlar, navigatsiya, aloqa, ilmiy tadqiqotlar hamda Yer resurslarini o‘rganish uchun xizmat qiladi. Masalan, masofadan zondlash yo‘ldoshlari yuqori aniqlikdagi kosmik tasvirlarni taqdim etib, hududlar haqidagi geofazoviy ma’lumotlarni olish imkonini beradi. Ushbu ma’lumotlar asosida xaritalar tuzish, hududiy rejalashtirish ishlarini olib borish hamda tabiiy resurslarni boshqarish jarayonlari amalga oshiriladi. Shu bilan birga, sun’iy yo‘ldoshlardan olinayotgan ma’lumotlar bilan ishlash jarayonida turli muammolar ham yuzaga keladi. Bunday muammolar texnik, tabiiy hamda metodologik omillar bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. Masalan, atmosferadagi bulutlilik, chang va suv bug‘i kosmik tasvirlarning sifatiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Bundan tashqari, sun’iy yo‘ldosh sensorlarining texnik imkoniyatlari, tasvirlarning fazoviy va spektral aniqligi ham ma’lumotlarning sifatiga ta’sir qiluvchi muhim omillar hisoblanadi. Yana bir muhim muammo – bu sun’iy yo‘ldosh ma’lumotlarini qayta ishlash va tahlil qilish jarayonining murakkabligidir. Kosmik tasvirlar katta hajmdagi raqamli ma’lumotlardan iborat bo‘lib, ularni qayta ishlash uchun maxsus dasturiy ta’minot va yuqori texnologiyali kompyuter tizimlari talab etiladi. Bundan tashqari, tasvirlarni to‘g‘ri talqin qilish uchun geoinformatsion tizimlar, masofadan zondlash metodlari hamda kartografiya sohasida yetarli bilim va tajribaga ega mutaxassislar zarur. Shu sababli sun’iy yo‘ldosh ma’lumotlarini olish, qayta ishlash va tahlil qilish jarayonida yuzaga keladigan muammolarni o‘rganish hamda ularni bartaraf etish usullarini ishlab chiqish dolzarb ilmiy masalalardan biri hisoblanadi. Mazkur maqolada sun’iy yo‘ldoshlardan olinayotgan ma’lumotlarning asosiy muammolari, ularning kelib chiqish sabablari hamda ushbu muammolarni hal etish yo‘llari ilmiy jihatdan tahlil qilinadi.

Raqamli iqtisodiyot” dasturi umumiy qiymati 34,9 milliard ₽ bo‘lgan fazoviy ma’lumotlar va Yerni masofadan zondlash ma’lumotlarining mavjudligini ta’minlash bo‘yicha kompleks chora-tadbirlarni o‘z ichiga oladi.Har ikki turdagi ma’lumotlar uchun portallar yaratish, geodeziya stansiyalarining federal tarmog‘ini qurish rejalashtirilgan. va koinotdan federal byudjet xarajatlarining samaradorligini nazorat qilish. Raqamli iqtisodiyot” dasturining “Axborot infratuzilmasi” bo‘limi fuqarolar, biznes va hukumat ehtiyojlarini qondirish uchun fazoviy ma’lumotlar va Yerni masofadan zondlash (ER) ma’lumotlarini to‘plash, qayta ishlash va tarqatish uchun mahalliy raqamli platformalarni yaratishni nazarda tutadi. CNews hisob-kitoblariga ko'ra, tegishli tadbirlarning qiymati 34,9 milliard € ni tashkil qiladi, bu mablag'ning katta qismi federal byudjetdan olinadi. Avvalo, fazoviy ma’lumotlar va koinotdan masofadan zondlash ma’lumotlari bilan ishlash sohasida atamalar lug‘atini ishlab chiqish rejalashtirilgan. Xuddi shu sohalarda, shu jumladan, ular asosida yaratilgan mahsulot va xizmatlarda raqamli iqtisodiyotning mahalliy xizmatlarga bo'lgan ehtiyojlarini va yig'ish, qayta ishlash, tarqatish va tahlil qilish texnologiyalarini o'rganish bo'yicha vazifalar belgilanishi va talablar shakllantirilishi kerak. Bunga parallel ravishda fazoviy ma’lumotlar va koinotdan masofadan zondlash ma’lumotlari uchun arxitektura va yig‘ish, saqlash, qayta ishlash va tarqatish infratuzilmasini yaratish bo‘yicha yo‘l xaritasi ishlab chiqiladi. Infratuzilma idoralararo yagona hududiy taqsimlangan axborot tizimi (ETRIS masofaviy zondlash) asosida ishlaydi. Buni Roskosmos, Rostelekom va Iqtisodiy rivojlanish vazirligi amalga oshiradi. Tadbirning narxi 85 million ₽ ni tashkil qiladi, shundan 65 million ₽ federal byudjet tomonidan ajratiladi. Sertifikatlangan Yerni masofadan zondlash ma'lumotlaridan foydalanish tartibga solinishi kerak. Masofaviy zondlash federal fondining maqomini ta'minlash maqsadida federal qonunchilikka o'zgartirishlar kiritiladi. Shuningdek, tegishli normativ-huquqiy ta’minotni yaratish bo‘yicha “Yo‘l

xaritasi” ishlab chiqiladi. Tegishli federal jamg'armada mavjud bo'lgan fazoviy ma'lumotlar va materiallar va masofaviy zondlash ma'lumotlarini elektron shaklda taqdim etish va taqdim etish tartibi bo'yicha normativ talablar tasdiqlanadi. Normativ-huquqiy hujjatlarda koinotdan ma’lumotlarni masofadan turib zondlash bo‘yicha sertifikatlashtirish tizimi va yuridik ahamiyatga ega bo‘lgan ma’lumotlarni olish uchun ularga ishlov berish algoritmlarini, shuningdek, kosmosdan masofadan turib zondlashning sertifikatlangan ma’lumotlaridan va boshqa usullar bilan olingan ma’lumotlardan foydalanish tartibini yaratish belgilangan. iqtisodiy aylanishda Yerni masofadan zondlash. Roskosmos, Rostelekom, Telekommunikatsiya va ommaviy kommunikatsiyalar vazirligi, Iqtisodiy rivojlanish vazirligi va NTI Aeronet ushbu tadbirlarga jalb qilinadi. Bundan tashqari, Federal fazoviy ma'lumotlar jamg'armasi tarkibidagi fazoviy ma'lumotlar va materiallarni, shuningdek tegishli Federal jamg'armadagi masofaviy zondlash ma'lumotlarini elektron shaklda taqdim etish usullari taqdim etiladi. Shu maqsadda federal fazoviy ma'lumotlar fondidagi ma'lumotlarga kirishni ta'minlash uchun Federal fazoviy ma'lumotlar portali (GIS FPPD) davlat axborot tizimi ishlab chiqiladi. Birinchidan, tegishli tizim tushunchasi yaratiladi. GIS FPPD ni ishlab chiqish, ishga tushirish va modernizatsiya qilish federal byudjetga 625 million ₽ xarajat qiladi. GIS FPPD da “Idoralararo geoformatsion o‘zaro hamkorlikning raqamli platformasi” quyi tizimi yaratiladi. Ushbu quyi tizimni masofaviy zondlash ma'lumotlari federal fondiga, fazoviy ma'lumotlar fondlariga va davlat organlarining materiallariga ularning ixtiyorida bo'lgan materiallarni elektron shaklda taqdim etish uchun ulanish rejalari ishlab chiqiladi. Tegishli choralar Iqtisodiy rivojlanish vazirligi, Rosreestr va Roskosmos tomonidan amalga oshiriladi. Shuningdek, davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari va mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish organlari ixtiyorida bo‘lgan ma’lumotlarning belgilangan ro‘yxatining koordinatalaridan foydalangan holda avtomatik rejimda taqdim etish imkoniyatini ta’minlash rejalashtirilgan. Birinchidan, davlat hokimiyati organlari ixtiyorida bo‘lgan fazoviy ma’lumotlar va masofaviy zondlash ma’lumotlarini oshkor qilish parametrlariga qo‘yiladigan talablarni qayta ko‘rib chiqish orqali olinishi mumkin bo‘lgan iqtisodiy samaralar baholanadi. Keyinchalik, koordinatalardan foydalangan holda avtomatlashtirilgan rejimda taqdim etiladigan ma'lumotlar ro'yxatiga (shuningdek, ularning tafsilotlari va formatlariga) o'zgartirishlar kiritiladi, shuningdek, bunday ma'lumotlarga ega bo'lgan organlar ro'yxatiBundan tashqari, fazoviy ma'lumotlarni avtomatlashtirilgan qayta ishlash, tanib olish, tekshirish va ulardan foydalanish imkoniyati taqdim etiladi. Buning uchun yuqorida qayd etilgan vositalarga, jumladan, fazoviy obyektlar tasvirlarini avtomatlashtirilgan umumlashtirish tizimlariga, shuningdek, relef o‘zgarishini kuzatish vositalariga funksional talablar ishlab chiqiladi. Maqsad - fazoviy ma'lumotlar resurslarini yangilash chastotasi talablariga muvofiqligini ta'minlash.

Xulosa: Xulosa qilib aytganda, sun’iy yo‘ldoshlardan olinadigan ma’lumotlar zamonaviy geofazoviy tadqiqotlarda muhim o‘rin tutadi. Ushbu ma’lumotlar yordamida Yer yuzasining holatini kuzatish, tabiiy resurslarni boshqarish hamda ekologik monitoringni amalga oshirish mumkin. Shu bilan birga, sun’iy yo‘ldosh ma’lumotlarini olish va qayta ishlash jarayonida turli muammolar yuzaga keladi. Ushbu muammolarni bartaraf etish uchun zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, ma’lumotlarni qayta ishlash usullarini takomillashtirish hamda mutaxassislarning malakasini oshirish zarur. Kelajakda sun’iy yo‘ldosh texnologiyalarining yanada rivojlanishi geofazoviy ma’lumotlarning aniqligi va ishonchliligini oshirishga xizmat qiladi. Fazoviy ma'lumotlarni yig'ish va qayta ishlash uchun foydalaniladigan robot tizimlarini sinovdan o'tkazish uchun tajriba maydonchalari infratuzilmasi ham yaratilishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Abdullayev I.P., Masofadan zondlash asoslari - Toshkent: Fan, 2017. Sun’iy yo‘ldosh ma’lumotlari va amaliy masofadan zondlash metodlarini o‘zbek tilida tushuntiradi.

2. Raximov B.M., Geomatik tizimlar va masofadan zondlash - Toshkent: Universitet nashriyoti, 2019. GIS va sun’iy yo‘ldosh tasvirlarini qayta ishlash bo‘yicha nazariy va amaliy asoslar

3. Qo‘chqorov Z.T., Yer resurslarini monitoring qilish texnologiyalari - Toshkent, 2018. Yer resurslarini kosmik tasvirlar orqali monitoring qilish metodlari.

UDK 528.94:004.9:63

ZAMONAVIY GAT DASTURIDAN FOYDALANIB EKIN TURLARI XARITASINI YARATISH

D.D.Shog‘darov
Qarshi davlat texnika universiteti

Annotatsiya: *Mamlakat qishloq xo‘jaligini jadal rivojlanishi mazkur sohadagi mavjud barcha yerlardan oqilona foydalanishni taqozo etmoqda. Bugungi kunda yerlardan oqilona va samarali foydalanishni tashkil etish, yer munosabatlarini tartibga solish, shuningdek sohaga zamonaviy texnologiyalarni hamda yer resurslarini hisobga olishning yangi uslublarini joriy etish va yerlardan foydalanish samaradorligini oshirish muammolarini aniqlash, ularning yechimini topishda GIS dasturlaridan foydalanish, ushbu yo‘nalishdagi mavjud imkoniyatlar va istiqbollarni belgilab olish bugungi kunning dolzarb vazifasidir.*

Kalit so‘zlar: GIS, xarıta, texnologiya, ArcGIS, ESRI, ArcView, ArcEditor, ArcInfo, ArcMap, ArcCatalog, Oazıs, Panorama, Sheyp

Asosiy qism. Hozirgi kunda Respublikamizda barcha sohalarda shu jumladan aholi yashash joylari, qishloq xo’jaligi korxonlarida axborot texnologiyalari shu darajada rivojlandiki, ularda kadastr ishlarini takomillashtirish davr talabiga aylandi va boshqa sohalarda raqamli xaritalar bilan ishlash va ularning samaradorligini oshirish uchun xam yangi dasturlar va zamonaviy asboblarda amalga oshirilmoqda.Shu jumladan ArcGIS dasturida raqamli xaritalar bilan ishlash imkoniyatlarini yanada kengaytirish hamda takomillashtirish maqsadida dasturda raqamli xaritalar bilan ishlash amaliyotga tadbiq qilinmoqda. ArcGIS ESRI kompaniyasi tomonidan ishlab chiqilgan bo’lib, bu obyektlarni geografik ma’lumotlari va atribut ma’lumotlari bilan birgalikda ishlash imkoniyatini beradi.

Respublikamiz kadastr xizmatlari darajasini hozirgi zamon talablablariga mos tarzda tashkil etish uchun, davlat byudjetidan xar yili ajratiladigan katta mablag’lar evaziga, mavjud yer maydonlari va qishloq xo’jalik ekin turlarining elektron xaritalarga tushirish va qishloq xo’jalik ma’lumotlarni tezkor qayta ishlash bo’yicha avtomatlashgan tizim joriy etish borasida katta ishlar olib borilmoqda. Bugungi kunda, qishloq xo’jalik ma’lumotlarini avtomatlashtirilgan tizimi xali yangi va endi shakllanib kelayotgan bo’lganligi bois, bu tizim asosan tor doiradagi davlat maqsadlarga xizmat qilib kelmoqda. Eng zamonaviy kompyuter texnologiyalari asosida yaratiladigan ArcGIS dasturiy mahsulotlari barcha ochiq standartlarga muvofiq keladi, bu esa ulardan ko‘pgina amaliy sohalarda va ishlarni tashkil etishning turli darajalarida foydalanish imkoniyatini beradi.

ArcGIS oilasiga mansub ESRI individual mahsulotlarini (ArcView, ArcEditor, ArcInfo) ArcMap (kartografik masalalarni yechish), Arc Catalog (lokal

tarmoqda yoki Internet orqali fazoviy ma’lumotlarga kirish va ularni boshqarish) va ArcToolbox (fazoviy ma’lumotlarga geografik ishlov berish) kabi umumiy arxitektura va interfeys bazaviy dasturlari birlashtiradi va ular funksiyalari, geografik ishlov berish va fazoviy tahlil qilish vositalarining soni bilan farqlanadi.

Qarshi tumanda hududlarning bir qator elektron raqamli xaritalari ArcGIS dasturiga o‘tkazildi. Respublikaning boshqa viloyatlarining tumanlarida elektron raqamli xaritalari **ArcGIS** dasturiga o‘tkazildi.

Yer tuzish va davlat yer kadastri maqsadlari uchun raqamli xaritalarni ArcGIS dasturida yaratish asosiy o‘rinni egallaydi. ArcGIS dasturining afzalligi quyidagilardan iborat:

- yer kadastri, bino va inshootlar kadastri maqsadlari uchun yuqori aniqlikdagi xarita va planlarni ishlab chiqish;
- yer egalari, yerdan foydalanuvchilar va ijarachilarni turli miqyosdagi raqamli xaritalar bilan tezkor ta’minlash;
- xarita yaratish jarayonining boshqa dasturlarga nisbatan tezkorligi;
- ma’lumotlarni solishtirish imkoniyatini mavjudligi;
- markazlashgan geoaxborotlar bazalarini yaratish;

- masofadan turib raqamli xaritalarni tahrirlash (internet tarmog‘i);GPS va elektron taxeometrlarga xaritalarni to‘g‘ridan-to‘g‘ri yetkazish imkoniyati;

Qarshi tuman massivlarining elektron raqamli xaritalari OAZIS va PANORAMA dasturlarda mavjud. OAZIS yoki PANORAMA dasturida yaratilgan raqamli xaritalar maxsus dasturlar orqali Sheyp formatiga o‘giriladi. Maxsus klassifikatorlar yordamida raqamli xaritalar tematik qatlamlarga ajratiladi. Yangilanishi lozim bo‘lgan hududlar Aero va kosmik uslubda suratga olinib, ushbu suratlardan foydalangan holda belgilangan texnologiya bo‘yicha fototarxlar

tayyorlanadi. Tayyorlanadigan fototarxlarning miqyosi zaruriyati bo‘yicha turlicha bo‘lishi mumkin.



1– rasm. Qarshi tumanidagi “Mang‘it” massivning OAZIS dasturida tuzilgan raqamli xaritasi



2– rasm. ArcGIS dasturida Qarshi tumanidagi “Mang‘it” massivning raqamli xaritasini chizish jarayoni.

Jumladan sug‘oriladigan hududlar bo‘yicha 1:10000, lalmi hududlar bo‘yicha (xo‘jalik yer maydonining katta–kichikligiga qarab) 1:25000 yoki 1:50000 miqyoslarda tayyorlanadi. ArcGIS dasturida MDB formatida hududning raqamli xaritalari yaratiladi.

ArcGIS dasturiy ta’minoti asosida qishloq xo‘jaligi yerlarining maydonlarini va foydalanishdagi yerlar maydonlari aniqlandi hamda elektron raqamli xaritalar va hududning 3 o‘lchamli fazoviy ko‘rinishlari yaratildi.

Qarshi tumanidagi “Mang‘it” massivning elektron raqamli xaritalardan xalq xo‘jaligining turli sohalaridagi korxona va tashkilotlari tematik masalalarini hal qilishda foydalanishlari mumkin. Jumladan:

- yerlarni ro‘yxatdan o‘tkazishda;
- bino va inshootlarning raqamli xaritalarini tuzishda;
- tuproq xaritasini tuzishda;
- xo‘jalik (massiv) yerlaridan foydalanuvchilar va kadastr xaritasini tuzishda;
- yer monitoringini o‘tkazishda;
- ekinlarni turlari bo‘yicha yer maydonlariga joylashtirishda;
- fermer xo‘jaliklarining joylashgan o‘rni va chegaralari, shuningdek ularga xizmat ko‘rsatuvchi infrastrukturalarning joylashuvining ko‘rsatishda;
- kanal, suv omborlari, elektr tarmoqlari, gaz quvurlarini o‘tkazish ishlarini rejalashtirishda;
- umumdavlat miqyosidagi loyihalarni asoslashda foydalanish mumkin.

Qarshi tumanidagi “Mang‘it” massivda yer hisobini yuritish va kadastr raqamlarini berish tartibini zamonaviy uslublarini qo‘llash orqali o‘tkazish yuqori va juda katta iqtisodiy samara beradi. Bugungi kunda yer tuzish va yer kadastr

ishlarini o‘tkazish ishlarida zamanoviy texnika va texnologiyalardan foydalangan holda ish olib borish bugungi kun talabi hisoblanadi. Yer tuzish ishlarini avtamatlashgan holda ish olib yer tuzish ishlari tezligi birmuncha yuqori samara beradi.

Xulosa qilib shuni ta’kidlash kerakki, hozirgi kunda yuqori aniqlikdagi raqamli xaritalarni tuzishda ArcGIS dasturini qo’llash foydalanuvchining vaqtini tejaydi va olib borilayotgan ishlarni osonlashtiradi. Ushbu raqamli xaritalarni ishlab chiqarishga joriy etish ish unumdorligini oshirishda katta ahamiyat kasb etadi.



3-rasm Qarshi tumanidagi “Mang‘it” massivida 2022 yil hosili uchun qishloqxo‘jaligi ekinlarini joylashuv xaritasi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Safarov E., Musayev I. Geoaxborot tizimi va texnologiyalar. T.,TIMI, 2008,-1606
2. O‘.Muxtorov, A. Inamov. “Geoaxborot tizim va texnologiyalar” fanidan amaliy mashg‘ulotlarni bajarish bo‘yicha o‘quv qo‘llanma. T.TIMI.2017
3. Qashqadaryo viloyat Yer resurslari va davlat kadastr boshqarmasi ma’lumotlari.2019 y.
4. “O‘zdaverloyiha” DILI Qashvilerloyiha bo‘linmasi ma’lumotlari. Qashqadaryo2019 y.
5. Qarshi tumani yer resurslari va davlat kadastr bo’limi ma’lumotlari. 2022 y.

UDK 528.44:004.65

KADASTR XIZMATIDA GAT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANIB MA'LUMOTLAR BAZASINI SHAKLLANTIRISH

O‘.A.Nazarov, Karimova Inobat Umidbek qizi

Qarshi davlat texnika universiteti

Annotatsiya. *Ushbu maqolada kadastr xizmatida geografik axborot tizimlari (GAT) texnologiyalaridan foydalanish orqali ma'lumotlar bazasini shakllantirish va ularni integratsiyasini takomillashtirishning ilmiy va amaliy jihatlari tahlil qilinadi. Maqolada kadastr ma'lumotlarining sifatini oshirish, ularni boshqarish samaradorligini yaxshilash, shuningdek, zamonaviy GIS texnologiyalarini joriy etish yo‘llari ko‘rib chiqilgan.*

Kalit so‘zlar: kadastr, GAT, GIS, ma'lumotlar bazasi, integratsiya, geoinformatsion tizim.

Kirish. Kadastr xizmatlari yer resurslarini ro‘yxatga olish, ularni boshqarish va hududiy rejalashtirishda muhim rol o‘ynaydi. So‘nggi yillarda geografik axborot tizimlari (GAT/GIS) texnologiyalarining rivojlanishi kadastr tizimlarining samaradorligini sezilarli darajada oshirdi. GIS texnologiyalari yordamida kadastr ma'lumotlarini raqamli shaklga keltirish, turli qatlamlarni birlashtirish, hududiy tahlil qilish va ma'lumotlarni interaktiv boshqarish imkoniyati yaratiladi.

Kadastr tizimida ma’lumotlar bazasini shakllantirish jarayoni faqat ma’lumotlarni yig‘ish va saqlash bilan cheklanmaydi. Shu bilan birga, ma’lumotlar bazasining sifatini oshirish, ularni boshqa axborot tizimlari bilan integratsiyalash va yangilab borish ham muhim ahamiyatga ega. Zamonaviy kadastr tizimlarida GIS texnologiyalari quyidagi vazifalarni hal etishda qo‘llaniladi:

1. Yer uchastkalari va ularning chegaralarini aniqlash;
2. Huquqiy hujjatlar va mulk egalari ma’lumotlarini raqamli shaklda saqlash;
3. Hududiy rejalashtirish va monitoring uchun interaktiv xaritalar yaratish;
4. Kadastr ma'lumotlarini boshqa davlat yoki mahalliy axborot tizimlari bilan integratsiya qilish.

Ma’lumotlar bazasini shakllantirish va integratsiyani takomillashtirish jarayonida quyidagi muammolar yuzaga kelishi mumkin:

- Ma’lumotlarning turli manbalardan kelib tushishi va ularning formatlari mos kelmasligi;
- Geografik koordinatalar va qoplama farqlari natijasida xatoliklar paydo bo‘lishi;
- Katta hajmdagi ma’lumotlarni tezkor qayta ishlash va yangilashdagi texnik qiyinchiliklar.

Shu sababli kadastr xizmatida GIS texnologiyalarini qo‘llash, ma’lumotlar bazasini shakllantirish va ularni integratsiya qilish jarayonlarini takomillashtirish dolzarb ilmiy va amaliy masala hisoblanadi.

Kadastr xizmatida GAT texnologiyalarining roli

Kadastr xizmatida GIS texnologiyalari quyidagi imkoniyatlarni yaratadi:

- Ma’lumotlarni vizualizatsiya qilish va interaktiv xaritalar yaratish;
- Turli qatlamlar (yer uchastkalari, inshootlar, transport tarmoqlari)ni birlashtirish;
- Ma’lumotlarni tahlil qilish va hududiy qarorlar qabul qilish;
- Ma’lumotlarni boshqa davlat va mahalliy tizimlar bilan integratsiyalash.

GAT texnologiyalari yordamida kadastr tizimining samaradorligi oshadi, xatoliklar kamayadi va ma’lumotlarni boshqarish jarayoni avtomatlashtiriladi.

Ma’lumotlar bazasini shakllantirish

Ma’lumotlar bazasini yaratish quyidagi bosqichlarni o‘z ichiga oladi:

1. Ma’lumotlarni yig‘ish (an’anaviy dala tadqiqotlari, sun’iy yo‘ldosh tasvirlari, hujjatlar);
2. Ma’lumotlarni raqamli shaklga keltirish (digitizatsiya);
3. Ma’lumotlarning sifatini tekshirish va tozalash;
4. Geografik koordinatalar va atribut ma’lumotlarini birlashtirish;
5. Ma’lumotlarni kadastr tizimi uchun standartlashtirish.

Ma’lumotlar bazasining sifatini oshirish uchun zamonaviy GIS dasturlari va metodologiyalari qo‘llaniladi.

Ma’lumotlarni integratsiya qilish va takomillashtirish

Ma’lumotlarni integratsiyalash jarayoni turli manbalardan olingan ma’lumotlarni yagona tizimga birlashtirishni nazarda tutadi. Bunda quyidagi usullar qo‘llaniladi:

- Geografik koordinatalar asosida ma’lumotlarni birlashtirish;
- Formatlarni moslashtirish va atributlarni standartlashtirish;
- Ma’lumotlar bazasini yangilash va doimiy monitoring qilish;
- Ma’lumotlarni boshqa davlat va mahalliy tizimlar bilan bog‘lash.

Integratsiya jarayoni kadastr tizimining tezkor va samarali ishlashini ta’minlaydi.

Masalan, Qarshi shahar kadastrida GIS texnologiyalarini joriy etish orqali:

- Yer uchastkalari va mulk egalari ma’lumotlarini yagona ma’lumotlar bazasida saqlash;
- Hududiy rejalashtirish va inshootlarni monitoring qilish;
- Ma’lumotlarni davlat va mahalliy tizimlar bilan integratsiyalash mumkin bo‘ldi.

Bu natijada kadastr tizimining samaradorligi oshdi va ma’lumotlarni boshqarish jarayoni avtomatlashtirildi.

Xulosa. Kadastr xizmatida GAT texnologiyalaridan foydalanish ma’lumotlar bazasini shakllantirish va ularni integratsiya qilish jarayonlarini sezilarli darajada takomillashtiradi. GIS texnologiyalari yordamida kadastr ma’lumotlarini boshqarish samaradorligi oshadi, xatoliklar kamayadi va hududiy rejalashtirish jarayonlari tezkor amalga oshiriladi. Kelajakda zamonaviy texnologiyalarni joriy etish orqali kadastr xizmatining samaradorligini yanada oshirish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdullayev I.P. Masofadan zondlash asoslari. Toshkent: Fan, 2017.
2. Raximov B.M. Geomatik tizimlar va masofadan zondlash. Toshkent: Universitet nashriyoti, 2019.
3. Qo‘chqorov Z.T. Yer resurslarini monitoring qilish texnologiyalari. Toshkent, 2018.
4. Ismoilov O.A. GPS, GIS va masofadan zondlash integratsiyasi. Samarqand, 2020.
5. Toshpo‘latov D.J. Kosmik texnologiyalar: Ilm-fan va amaliyot. Buxoro, 2021.
6. Rashidov S.M. Masofadan zondlashda ma’lumotlarning aniqligi va sifat menejmenti. Toshkent, 2022.

GEOAXBOROT TIZIMLARIDA SUN'IY INTELLEKTNI QO'LLASH

X.N.Davlatov, B.Z.Egamberdiyev; SH.A.Erkinov
Qarshi davlat texnika universiteti

Annotatsiya: *O'zbekiston iqtisodiyotida qishloq xo'jaligi yetakchi tarmoqlardan biri bo'lib, respublikada 4,3 million gektardan ortiq sug'oriladigan yer mavjud. Maqolada suv xo'jaligida geoaxborot tizimlari (GAT) va sun'iy intellektni (SI) qo'llashning yangi yondashuvlarini ko'rib chiqadi. GAT va SI birlashuvi suv sifatini nazorat qilish, suv resurslarini boshqarish va favqulodda holatlarda tezkor chora-tadbirlarni amalga oshirish imkoniyatlarini yaratadi.*

Kalit so'zlar: Geoaxborot tizimlari (GAT), Sun'iy intellekt (SI), Suv xo'jaligi boshqaruvi, Suv sifatini nazorat qilish, Favqulodda holatlar.

Kirish: Respublikada 4,3 million gektardan ortiq sug'oriladigan yer maydonining mavjudligi suv xo'jaligi sohasida samarali boshqaruv va resurslarni boshqarish muhim ahamiyat kasb etadi. Sug'oriladigan yerlarning sifat holatini baholash, ekinlar rivojlanish dinamikasini kuzatish va hosildorlikni erta prognozlash bo'yicha zamonaviy, yuqori aniqlikdagi yondashuvlarga ehtiyoj tobora ortib bormoqda. Bugungi kunda, geoaxborot tizimlari (GAT) va sun'iy intellekt (SI) texnologiyalari suv xo'jaligida qaror qabul qilish jarayonlarini yaxshilash, suv ta'minoti va suv resurslarini boshqarish tizimlarini optimallashtirishda katta imkoniyatlar yaratmoqda. Bu maqola, suv x'jaligida GAT va SI texnologiyalarini qo'llashning dolzarb yo'nalishlari va kelajak istiqbollarini ko'rib chiqadi.

Sun'iy intellekt (SI) – bu kompyuter tizimlari orqali inson aqlining ba'zi funksiyalari, jumladan o'rganish, muammo hal etish va qaror qabul qilish qobiliyatlarini takrorlashga qaratilgan texnologiya sohasidir. Bugungi kunda SI, keng ko'lamli sohalarda, jumladan tibbiyot, moliya, ta'lim, ishlab chiqarish, qishloq xo'jaligi va albatta, suv xo'jaligi sohasida keng qo'llanilmoqda.

Suv xo'jaligi sohasida SI texnologiyalari suv resurslarini boshqarish, suv sifatini nazorat qilish, suv taqsimoti va iste'molini optimallashtirish hamda tabiiy ofatlarga tezkor javob berish kabi muhim vazifalarni bajarishda foydalaniladi. Masalan, SI asosidagi tahliliy tizimlar suv sifatidagi o'zgarishlarni real vaqt rejimida aniqlashi, shuningdek, suv ta'minoti tizimlaridagi potensial muammolarni oldindan bashorat qilishi mumkin.

SI yordamida yig'ilgan katta hajmdagi ma'lumotlar tahlili orqali, suv resurslarini boshqarish strategiyalari yanada samarali va maqsadli bo'lishi ta'minlanadi. Bu esa, suv taqchilligi muammosini kamaytirish, ekologik muvozanatni saqlash va iqtisodiy samaradorlikni oshirishga yordam beradi.

Shuningdek, sun'iy intellekt suv xo'jaligida favqulodda vaziyatlarni boshqarishda muhim rol o'ynaydi. Masalan, toshqinlar va qurg'oqchilik kabi tabiiy ofatlarning oldini olish yoki ularning oqibatlarini kamaytirish uchun zarur bo'lgan chora-tadbirlarni rejalashtirishda SI algoritmlaridan foydalaniladi.

Xulosa qilib aytganda, sun'iy intellektning suv xo'jaligi sohasidagi qo'llanilishi, ushbu sohani yanada rivojlantirish, resurslarni samarali boshqarish va atrof-muhit muhofazasiga hissa qo'shishda katta ahamiyatga ega. Bu esa, jamiyatimiz uchun toza va xavfsiz suv ta'minotini ta'minlashda muhim qadamdir.

Geoaxborot tizimlari va sun'iy intellektning suv xo'jaligida qo'llanilishi

GAT va SI texnologiyalarining birlashuvi, suv xo'jaligini boshqarishda yangi yondashuvlarni taklif etadi. Masalan, sun'iy yo'ldosh ma'lumotlarini GAT bilan integratsiyalash, suv resurslarining holatini aniqroq kuzatish imkonini beradi. SI algoritmlarining qo'llanilishi esa, bu ma'lumotlarni prognozlashda va qaror qabul qilishda muhim o'rin tutadi.

Geoaxborot tizimlari (GAT) va sun'iy intellekt (SI) texnologiyalarining suv xo'jaligida qo'llanilishi, suv resurslarini boshqarish, suv sifatini nazorat qilish va favqulodda holatlarga javob berishda keng imkoniyatlar yaratadi. Ushbu sohada qo'llaniladigan dasturiy va texnikaviy vositalar quyidagilarni o'z ichiga oladi:

1. «ArcGIS:» ESRI tomonidan ishlab chiqarilgan, dunyoda eng keng tarqalgan GIS dasturidir. Bu suv resurslarini boshqarish, suv taqsimoti xaritalarini yaratish va tahlil qilish imkonini beradi.
2. «QGIS:» Ochiq manba kodli, bepul GAT dasturi bo'lib, suv sifati monitoringi, hududiy

suv resurslarini boshqarish va ekologik tahlillarni amalga oshirish imkoniyatini taqdim etadi.

Sun’iy Intellekt Texnologiyalari:

1. «IBM Watson:» Kuchli SI platformasi bo‘lib, suv sifati ma’lumotlarini tahlil qilish, suv ta’minoti tizimlaridagi potensial muammolarni aniqlash va prognoz qilishda foydalanilishi mumkin.

2. «Google TensorFlow:» Ochiq manba kodli dasturlash kutubxonasi bo‘lib, suv iste’moli va taqsimotini prognoz qilishda, shuningdek, suv resurslarini optimallashtirishda foydalaniladi.

Maxsus Ishlab Chiqilgan Dasturlar:

1. «SWAT (Soil and Water Assessment Tool):» Suv resurslarini boshqarishda eroziya va suv sifatini baholash uchun ishlab chiqilgan kuchli model.

2. «HEC-HMS (Hydrologic Modeling System):» AQSh Korpusi Muhandislar tomonidan ishlab chiqilgan, suv oqimlarini modellashtirish va toshqinlarni boshqarishda qo‘llaniladi.

Texnikaviy Vositalar

1. «Yo‘ldosh Imiji:» Suv ta’minoti va sifatini kuzatishda foydalaniladigan yo‘ldosh ma’lumotlari. Misol uchun, Landsat va MODIS kabi yo‘ldoshlar suvning harorati, ifloslanishi va oqimini kuzatish uchun ishlatiladi.

2. «Drone va UAV (Unmanned Aerial Vehicles):» Suv xo’jaligi obyektlarini kuzatish va monitoring qilishda, jumladan suv omborlari, irrigatsiya tizimlari va suv oqimlari bo‘yicha ma’lumot to‘plashda qo‘llaniladi.

Integratsiya va tahlil vositalari:

1. «SI asosidagi tahlil dasturlari:» Ma’lumotlarni tahlil qilish va suv resurslarini boshqarish bo‘yicha qarorlarni qabul qilishda yordam beruvchi maxsus ishlab chiqilgan SI algoritmlari.

2. «Bulutli hisoblash:» Katta hajmdagi ma’lumotlarni saqlash va qayta ishlashda foydalaniladi, bu esa suv xo’jaligi sohasidagi ma’lumotlar bazasini kengaytirish va ularni tahlil qilishda katta yordam beradi.

Ushbu vositalar va texnologiyalar suv xo’jaligi sohasida innovatsion yechimlarni taqdim etishda muhim ahamiyatga ega, ular resurslarni samarali boshqarish, suv sifatini yaxshilash va atrof-muhit muhofazasiga hissa qo‘shish imkonini beradi.

Suv sifatini nazorat qilish:

SI asosidagi tahliliy vositalar suv sifatini real vaqt rejimida kuzatish imkonini beradi. Masalan, suvda zararli moddalar miqdorini aniqlash va ularning manbasiga qadar iz surish mumkin. Bu esa, suv ifloslanishining oldini olish va tezda javob choralarini ko‘rish imkonini beradi.

Suv resurslarini boshqarish:

SI texnologiyalari suv iste’moli prognozlarini tuzish, suv taqsimotini optimallashtirish va suv resurslarini samarali boshqarishda qo‘llaniladi. Bu jarayonlarda, SI algoritmlari turli omillar, jumladan, aholi o‘sishi, iqlim o‘zgarishlari va suv iste’molining mavsumiy o‘zgarishlarini hisobga oladi.

Favqulodda Holatlarda Tezkor Chora-tadbirlar:

GAT va SI, suv toshqinlari kabi favqulodda holatlarda tezkor chora-tadbirlar qabul qilishda muhim rol o‘ynaydi. SI algoritmlari yordamida toshqinlar va ularning ta’sirini prognoz qilish mumkin, bu esa zarar miqdorini kamaytirish va tez va samarali javob qaytarish imkonini beradi.

Muammolar va yechimlar:

GAT va SI texnologiyalarini qo‘llashda asosiy muammolardan biri bu ma’lumotlarning katta hajmi va ularni qayta ishlashning murakkabligidir. Bulutli hisoblash va kuchli ma’lumotlar bazalari, shuningdek, keng qamrovli SI algoritmlari ushbu muammoni hal qilishda yordam beradi.

Yana bir muammo bu texnologiyalarni qo‘llashda malakali mutaxassislar yetishmasligi. Bu muammo esa, ta’lim dasturlarini kengaytirish va amaliy tajribalarni oshirish orqali hal etilishi mumkin.

Xulosa:

GAT va SI texnologiyalarining integratsiyasi suv xo’jaligida innovatsion yechimlarni taqdim etadi.

Bu yondashuvlar suv resurslarini boshqarish samaradorligini oshirish, suv sifatini yaxshilash va favqulodda vaziyatlarga tezkor javob berish imkonini beradi. Biroq, bu imkoniyatlardan to‘liq foydalanish uchun texnik va kadrlar salohiyatini oshirish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. O‘zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligi 2024
2. «Russell, Stuart J.; Norvig, Peter.» Artificial Intelligence: A Modern Approach, 4th, Hoboken: Pearson, 2021._ ISBN 978-0-13-461099-3.
3. «McCorduck, Pamela.» _Machines Who Think (2nd-nashr), Natick, MA: A. K. Peters, Ltd., 2004._ ISBN 1-56881-205-1.
4. «NRC (United States National Research Council).» _"Developments in Artificial Intelligence", Funding a Revolution: Government Support for Computing Research._ National Academy Press, 1999.

TUPROQ QATLAMLARI HOSIL BO‘LISH JARAYONI

Adizova Nargiza, Shodiyev Elnurbek Otabek o‘g‘li
Buxoro davlat texnika universiteti

Annotatsiya. Ushbu maqolada tuproq qatlamlarining hosil bo‘lish jarayoni, unga ta’sir qiluvchi tabiiy omillar va tuproqning tabiat hamda inson hayotidagi ahamiyati haqida so‘z yuritiladi. Tuproq yer yuzasining eng muhim tabiiy resurslaridan biri bo‘lib, u o‘simliklar o‘sishi uchun zarur bo‘lgan muhitni yaratadi. Tuproq qatlamlari uzoq yillar davomida tog‘ jinslarining yemirilishi, organik moddalarning to‘planishi va iqlim omillari ta’sirida shakllanadi. Maqolada tuproq hosil bo‘lish jarayoni, uning asosiy qatlamlari va ularning xususiyatlari keng yoritilgan.

Kalit so‘zlar: *tuproq, tuproq qatlamlari, tuproq hosil bo‘lishi, tog‘ jinslari, gumus, iqlim omillari, biologik jarayonlar.*

- ✓ yer uchastkalaridan kutilayotgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini sotishni va oldindan avans to‘lovlarni olishni kafolatlovchi shartnomalar tuzish tizimini takomillashtirish.

Hududlardagi soha mutaxassislari bilan yerdan foydalanuvchilar o‘rtasidagi doimiy fikr almashishni yo‘lga qo‘ygan holda amalga oshirish ijobiy samara beradi. Bunda, qishloq xo‘jaligi yerlaridan to‘g‘ri va samarali foydalanish yerlarning holatini hamda undagi ekinlar holatini doimiy nazorati ko‘zda tutiladi. Keltirilgan masalalarni ijobiy hal qilishda zamonaviy geoaxborot tizim va texnologiyalaridan foydalanish ijobiy natijalar beradi.

Qishloq xo‘jaligi yerlarini monitoring qilish, belgilangan hududlarning aerokosmik suratlari asosida olingan kartografik materiallarini olish imkoniyati yaratiladi. Bunda yer ma’lumotlarini tahlil qilish orqali mavjud yer va uning real vaqtdagi holatini monitoring qilish imkoniyati

yaratiladi. Shu bilan bir qatorda qishloq xo‘jaligi yerlari monitoringini yuritishda zamonaviy texnollogiyalardan foydalanish ishchi kuchi va moliyaviy resurslarni tejash bilan bir qatorda yuqori aniqlikdagi ma’lumotlarga ega bo‘lish imkoniyatini ham beradi. Aholining doimiy o‘sishi qishloq xo‘jaligi mahsulotlariga ehtiyojni oshirishi tabiiy. Shuni inobatga olgan holda zamonaviy usullar asosida olingan ma’lumotlar tahlili yillar davomida qishloq xo‘jaligi yerlaridagi o‘zgarishlarni va bugungi holatini hamda bashoratlash ma’lumotlarining aniqligini yuqori bo‘lishini ta’minlaydi. Qishloq xo‘jaligi mahsulotlariga bo‘lgan ehtiyojni qondirishdagi omillar - foydalanilayotgan qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yer maydonlarini boshqa yer turlariga o‘tkazilishidagi muammoli vaziyatlariga yechimlarni topishda ham innovatsion usullardan foydalanishga qaratilgan.

Qishloq xo‘jaligi yerlarining iqtisodiy ahamiyati, avvalo, ularning ishlab chiqarish vositasi sifatidagi o‘rnida namoyon bo‘ladi. Sanoat yoki boshqa ishlab chiqarish sohalaridan farqli ravishda, qishloq xo‘jaligida yer nafaqat ishlab chiqarish joyi, balki bevosita ishlab chiqarish vositasi ham hisoblanadi. Yerning unumdorligi, meliorativ holati, tuproq tarkibi, namlik darajasi, relyef xususiyatlari va iqlim sharoiti qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hosildorligiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Yerlarning iqtisodiy qiymatini aniqlash jarayoni esa yer baholash tizimi orqali amalga oshiriladi. Yer baholash tizimi - bu yer resurslarining sifat, iqtisodiy va fazoviy ko‘rsatkichlari asosida ularning qiymatini aniqlashga qaratilgan ilmiy, tashkiliy va uslubiy choralar majmuasidir. Mazkur tizim yer kadastri ma’lumotlari, tuproq bonitirovkasi, agroiqlimiy ko‘rsatkichlar, hosildorlik darajasi va boshqa omillar asosida shakllantiriladi.

Yer baholash tizimining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- ✓ Yerlarning sifat ko‘rsatkichlarini aniqlash;
- ✓ Yerlarning iqtisodiy samaradorligini baholash;
- ✓ Yer solig‘i va ijara to‘lovlarini asoslash;
- ✓ Yer resurslaridan foydalanishni rejalashtirish;
- ✓ Hududlarni iqtisodiy rivojlantirishda yer omilini hisobga olish.

Amaliyotda yerlarni baholash bir necha yo‘nalishda amalga oshiriladi: bonitirovka (tuproq sifatini baholash), iqtisodiy baholash va me’yoriy baholash. Bonitirovka yerning tabiiy unumdorligini aniqlashga qaratilgan bo‘lsa, iqtisodiy baholash yerning ishlab chiqarishdagi samaradorligini ifodalaydi. Me’yoriy baholash esa yerlarning davlat tomonidan belgilangan tartib asosida qiymatini aniqlashni nazarda tutadi.

Me’yoriy qiymat ko‘plab iqtisodiy jarayonlarda asosiy ko‘rsatkich hisoblanadi. Jumladan, yer solig‘i miqdorini belgilashda, yer uchastkalarini ijaraga berishda, davlat ehtiyojlari uchun yer ajratishda hamda yer kadastri ma’lumotlarini yuritishda me’yoriy qiymatdan foydalaniladi. Hozirgi kunda ko‘plab hududlarda yer baholash tizimi an’anaviy usullarga asoslangan bo‘lib, ko‘p hollarda eskirgan kartografik materiallar va statistik ma’lumotlarga tayanadi. Bu esa yerlarning real holatini to‘liq aks ettirmasligi, baholash natijalarining aniqligiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

So‘nggi yillarda axborot texnologiyalarining rivojlanishi natijasida yer resurslarini boshqarish tizimida raqamli texnologiyalardan foydalanish kengayib bormoqda. Bu jarayon yer kadastri tizimini takomillashtirish, yer resurslarini monitoring qilish va baholash jarayonlarini avtomatlashtirish imkonini bermoqda.

Qishloq xo‘jaligi yer resurslarining iqtisodiy ahamiyati

Yer qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishining asosiy ishlab chiqarish vositasi hisoblanadi. Yer resurslarining iqtisodiy qiymati ularning tabiiy xususiyatlari, unumdorligi, geografik joylashuvi va foydalanish imkoniyatlari bilan belgilanadi.

Qishloq xo‘jaligi yerlarining iqtisodiy ahamiyati quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

- oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish uchun asosiy resurs hisoblanadi;
- qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishining barqarorligini ta’minlaydi;
- iqtisodiy rivojlanishga xizmat qiladi;
- davlat byudjeti daromadlarini shakllantirishga yordam beradi.

Yer resurslaridan samarali foydalanish uchun ularning iqtisodiy qiymatini to‘g‘ri aniqlash muhim hisoblanadi.

Yerning me’yoriy qiymatini aniqlash tushunchasi va metodologiyasi

Yerning me’yoriy qiymati – bu yer uchastkasining iqtisodiy qiymatini ifodalovchi ko‘rsatkich bo‘lib, u yer solig‘i, ijara to‘lovlari va boshqa iqtisodiy munosabatlarni tartibga solishda qo‘llaniladi.

Yerning me’yoriy qiymatini aniqlashda quyidagi omillar hisobga olinadi:

- tuproq unumdorligi;
- agroiqlim sharoiti;
- sug‘orish imkoniyatlari;
- transport va infratuzilma mavjudligi;
- hosildorlik darajasi;
- yerlarning meliorativ holati.

Ushbu ko‘rsatkichlar asosida yer resurslarining iqtisodiy samaradorligi aniqlanadi.

Yerlarni baholash tizimi yer resurslarining tabiiy va iqtisodiy xususiyatlarini hisobga olgan holda amalga oshiriladi. Yer baholash tizimi quyidagi bosqichlardan iborat:

- yer resurslari haqida ma’lumotlarni yig‘ish;
- tuproq va agroiqlim sharoitlarini tahlil qilish;
- yerlarning iqtisodiy samaradorligini baholash;
- yerning me’yoriy qiymatini aniqlash.

Yerlarni baholash jarayonida tuproq boniteti muhim ko‘rsatkichlardan biri hisoblanadi. Tuproq boniteti yerning unumdorlik darajasini ifodalaydi va qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtirish imkoniyatlarini baholashda qo‘llaniladi.

Raqamli texnologiyalar yer resurslarini boshqarish va baholash tizimining samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Zamonaviy texnologiyalar yordamida yerlarning holatini tezkor monitoring qilish va aniq tahlil qilish mumkin.

Raqamli texnologiyalarning asosiy turlari quyidagilar:

- Geografik axborot tizimlari (GIS)
- GIS texnologiyalari yer resurslari haqida fazoviy ma’lumotlarni yig‘ish, saqlash va tahlil qilish imkonini beradi. Bu tizim yordamida yer uchastkalarining joylashuvi, tuproq turi va boshqa ko‘rsatkichlar aniqlanadi.

Sun’iy yo‘ldosh tasvirlari yordamida yerlarning holatini kuzatish mumkin. Bu texnologiya yerlarning meliorativ holatini va ekin maydonlarini monitoring qilish imkonini beradi.

Raqamli kadastr tizimi yer uchastkalari haqidagi ma’lumotlarni yagona elektron bazada saqlash imkonini beradi. Bu esa yer resurslarini boshqarishda shaffoflikni ta’minlaydi.

Raqamli yer baholash tizimining iqtisodiy samaradorligi

Raqamli texnologiyalarni yer baholash tizimiga joriy etish bir qator iqtisodiy afzalliklarni beradi:

- yer resurslari haqidagi ma’lumotlarning aniqligini oshiradi;
- baholash jarayonini tezlashtiradi;
- inson omilini kamaytiradi;
- investitsiyalarni jalb qilish imkoniyatlarini kengaytiradi;
- yer resurslaridan samarali foydalanishni ta’minlaydi.

Natijada qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishining iqtisodiy samaradorligi oshadi.

O‘zbekiston Respublikasida yer resurslarini boshqarish tizimini takomillashtirish bo‘yicha keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, yer kadastri tizimini raqamlashtirish va zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etish muhim yo‘nalishlardan biri hisoblanadi.

Kelgusida quyidagi yo‘nalishlarga e’tibor qaratish zarur:

- yer kadastri tizimini to‘liq raqamlashtirish;
- GIS texnologiyalarini keng joriy etish;
- sun’iy yo‘ldosh monitoring tizimlarini rivojlantirish;
- yer resurslari bo‘yicha yagona axborot bazasini yaratish.

Xulosa: Qishloq xo‘jaligi yerlarining me’yoriy qiymatini aniqlash iqtisodiy boshqaruv tizimining muhim elementi hisoblanadi. Raqamli texnologiyalarni joriy etish orqali yer resurslarini baholash jarayonining aniqligi, shaffofligi va samaradorligini oshirish mumkin.

Raqamli texnologiyalar asosida yer baholash tizimini rivojlantirish qishloq xo‘jaligi ishlab

chiqarishining barqaror rivojlanishiga, yer resurslaridan oqilona foydalanishga hamda davlat iqtisodiyotining mustahkamlanishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Yer kodeksi. Toshkent, 2021.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining yer resurslarini boshqarish bo‘yicha qarorlari.
3. Abdurahmonov Q.X. Yer resurslari iqtisodiyoti. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2019.
4. FAO. Land Evaluation and Agricultural Land Use Planning. – Rome, 2018.
5. Dale P., McLaughlin J. Land Administration. – Oxford University Press, 2017.
6. Longley P., Goodchild M., Maguire D., Rhind D. Geographic Information Systems and Science. – Wiley, 2020.
7. World Bank. Land Governance Assessment Framework. – Washington, 2019.

UDK: 332.3(100):528:8

YER MONITORINGINI YURITISHDA XORIJIY TAJRIBALAR VA MAMLAKATIMIZDA TAKOMILLASHTIRISH BOSQICHLARI

A.Sh.Latipov

Qarshi Davlat texnika universiteti

Annotatsiya: *Ushbu maqolada turli mamlakatlardagi yer monitoringi milliy tizimlari tabiiy va geografik joylashuvining o’ziga xos xususiyatlari va ijtimoiy –iqtisodiy rivojlanish sur’atlari tufayli sezilarli farqlarga ega ekanligi ko’rsatib o’tilgan. Buyuk Britaniya, Xitoy, Yaponiya, Koreya, AQSh, Gollandiya, Kanada, Norvegiya, Germaniya, Avstriya, Fransiya, Vengirya, Ispaniya, Shvetsiya, Rossiya, Belorussiya, shuningdek Afrika qit’asining ayrim davlatlarida 40-50 yildan ko’proq vaqt davomida zamonaviy yer monitoring boshlab yuborilganligi.*

Kalit so’zlar: NASS, NOAA-AVHRR, NDVI, GAT, CHARMS, CCWS, yer monitoringi, masofadan turib zondlash, tabiiy resurslar, kartografik materiallar, prognoz.

Kirish: Yer resurslari har qanday davlatning iqtisodiy va ekologik rivojlanishida muhim strategik ahamiyatga ega bo‘lgan tabiiy boylik hisoblanadi. Aholi sonining ortib borishi, qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishining kengayishi va iqlim o‘zgarishlari sharoitida yer resurslaridan oqilona foydalanish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Yer monitoringi yer resurslarining holatini muntazam kuzatish, baholash va ulardan foydalanish samaradorligini oshirishga qaratilgan tizimli jarayon hisoblanadi. Monitoring jarayonida tuproq unumdorligi, sho‘rlanish darajasi, eroziya jarayonlari va boshqa ekologik ko‘rsatkichlar o‘rganiladi. Ushbu ma’lumotlar asosida yer resurslarini boshqarish bo‘yicha ilmiy asoslangan qarorlar qabul qilinadi.

Rivojlangan mamlakatlarda yer monitoringi tizimi yuqori darajada rivojlangan bo‘lib, u zamonaviy texnologiyalar va raqamli platformalar asosida olib boriladi. Masalan, AQSh va Yevropa mamlakatlarida sun’iy yo‘ldosh tasvirlari, geoinformatsion tizimlar va raqamli kadastr tizimlari orqali yer resurslarining holati muntazam kuzatib boriladi.

O‘zbekistonda ham so‘nggi yillarda yer monitoringi tizimini takomillashtirish bo‘yicha qator islohotlar amalga oshirilmoqda. Yer resurslarini boshqarishda raqamli texnologiyalarni joriy etish, kadastr ma’lumotlarini elektron shaklga o‘tkazish hamda masofadan zondlash texnologiyalaridan foydalanish ushbu jarayonning muhim yo‘nalishlari hisoblanadi.

Mazkur tadqiqotning maqsadi xorijiy tajribalarni tahlil qilish asosida O‘zbekistonda yer monitoring tizimini takomillashtirish bosqichlarini ilmiy jihatdan asoslashdan iborat.

Qishloq xo’jalik maqsadlariga mo’ljallangan yerlarni masofadan monitoring qilishda hosildorlik ko’rsatkichlari bo’yicha baholash ishlari o’tkazilgan va viloyat hududi yerlari rayonlashtirilgan. Bunda sun’iy yo’ldosh rasmlaridan foydalangan holda o’rmon-dasht mintaqasining quyi qismi va tuproq turlarini masofadan aniqlash uchun tuproq indeksi ishlab chiqilgan va qurg’oqchil va subarid mintaqalarda yerlarni geoekologik o’rganishda masofadan zondlash usullari keng qo’llanib kelinmoqda.

Buyuk Britaniyada yer monitoringini yuritishga oid tadqiqotlar 1970 yillarning oxiridan boshlab rivojlana boshlagan. Ushbu davr mobaynida mamlakatning barcha hududlarini qamrab

olgan va 6500 dan ko’proq nuqtalarni o’z ichiga olgan kuzatuv tarmog’i tashkil etilgan. Bugungi kunda Buyuk Britaniya zamonaviy kompyuter texnologiyasiga asoslangan geografik axborot tizimlarini yaratish bo’yicha Yevropaning eng yetakchi davlatiga aylangan.

Xitoyda ham qishloq xo’jaligi monitoring uchun masofadan turib zondlash ma’lumotlaridan foydalanishga qaratilgan tadqiqotlar 1970 yillarning oxirlarida boshlangan, 1990 yillarda ekinlarni kuzatish bo’yicha operatsion tizim ishga tushirilgan, mazkur tizimning tezkor rivojlanish bosqichi 1990-yillarning oxiriga to’g’ri keladi.

Xitoy Xalq Respublikasida zamonaviy operatsion qishloq xo’jaligi monitoring tizimi quyidagilarni o’z ichiga oladi:

Xitoy qishloq xo’jaligi vazirligi kosmik qishloq xo’jaligi monitoringi tizimi (CHARMS);

Xitoy fanlar akademiyasiyasining ekinlarni monitoring qilish tizimi (CCWS);

Xitoyda ekinlarning o’sishini kuzatish va hosilni prognoz qilish tizimi.

Meteorologik xizmat (CHARMS) Qishloq xo’jaligi vazirligining masofadan turib zondlash ma’lumotlarini qo’llash markazi tomonidan ishlab chiqilgan. Xitoyning 5 asosiy ekinlari uchun qishloq xo’jaligi ekinlari ekiladigan maydonlarning o’zgarishi, hosildorligi, o’simliklarning o’sishi, qurg’oqchilik va boshqa qishloq xo’jaligi parametrlari bo’yicha monitoring olib boradi. Markaz Qishloq xo’jaligi vazirligi va tegishli qishloq xo’jaligi boshqarmalariga vegetatsiya davrida belgilangan sanalar bo’yicha oyiga 5 marta ma’lumot beradi. Hosildorlik olish uchun ma’lumotlar beradi.

AQSh Milliy qishloq xo’jaligi statistika xizmati (National Agricultural Statistics Service, NASS) qishloq xo’jaligi yerlari monitoringini yuritadi, uning asosiy vazifasi Qo’shma Shtatlarda qishloq xo’jaligi uchun dolzarb, ishonchli statistik ma’lumotlarni taqdim etishdan iborat. Statistik ma’lumotlar qishloq xo’jaligi mahsulotlarini olish va yetkazib berishdan tortib to mahsulot qiymatiga va dehqonlar daromadlariga qadar qishloq xo’jaligi faoliyatining barcha jabhalarini qamrab oladi. Har 5 yilda NASS qishloq xo’jaligi faoliyatini ro’yxatga oladi va AQSh qishloq xo’jaligi faoliyati jihatlarini har tomonlama statistik tahlil qiladi. Shuningdek, NASS vegetatsiya davrida NOAA-AVHRR sensorli o’lchash (NDVI) asosida o’simlik ma’lumotlarini ishlab chiqaradi. NASS turli darajada boshqariladigan ekinlar ekiladigan maydonlarni aniqlashda mustaqil yondashgan holda, ilmiy va ma’lumotlarni qo’llab-quvvatlash faoliyatini ta’minlash (USDA) bilan shug’ullanadi.

Umuman olganda, AQSh milliy qishloq xo’jaligi statistikasi xizmati (NASS)ning xususiyatlari quyidagicha:

AQSh statistika tizimi markazlashtirilmagan;

NASS –AQSh qishloq xo’jaligi bo’yicha rasmiy taqdim etiladigan statistik ma’lumotlarni yig’ish va tarqatish bilan shug’ullanadi;

Qishloq xo’jaligi ekinlarini kuzatish va baholash qonun hujjatlarida belgilangan, biroq NASS qishloq xo’jaligi sektoridan hisobot va so’rovnomalar tayyorlashda jamiyat bilan ishlaydi;

NASS- bu jamoat axborot xizmati hisoblanadi;

Har yili NASS hisobotlari asosida qarorlar qabul qilinadi, unga millardlab dollar sarflanadi;

NASS federal rasmiy dastur hisoblanadi va u qonun bilan himoyalangan. Bundan tashqari, AQSh yaylov yerlarida chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish tizimidagi so’ngi o’zgarishlar yaylovlarni baholash va monitoring qilishning yangi usullariga bo’lgan ehtiyojidan kelib chiqib, yaylov o’simliklarini baholashning 5 balli tizimi yaratilgan va tabiiy resurslarini muhofaza qilish xizmati tomonidan amaliyotga joriy etilgan.

Fransiyada yer monitoringini yuritish ma’lumot bazasini yaratishga asoslangan. Mintaqaviy ma’lumotlarni tashkillashtirish tizimlaridagi tafovut tufayli, ularni har tomonlama tahlil qilish maqsadida hozirda yagona geografik axborot tizimi yaratilmoqda. Fransiyadagi yer monitoringi xususiyati yer munosabatlarini davlat tomonidan tartibga solish va milliy yer kadastri doirasida ma’lumotlar bazalarini yaratish o’rtasidagi bog’liqlik hisoblanadi. Mazkur mamlakatning statistik tadqiqotlar xizmati tomonidan yerdan foydalanish to’g’risidagi ma’lumotlarni respublika, mintaqaviy va idoraviy darajalarda ro’yxatdan o’tkazadi.

Bir qator xorijiy mamlakatlarda yer monitoringi shakllanishi va faoliyatining tajribasi umumiy va induvidial xususiyatlarga ega bo’lib, ular uzoq muddatli kuzatuvlardan olingan statistik

ma’lumotlarning mavjudligiga, kartografik materiallarga, zamonaviy GAT texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlariga va boshqa ko’p narsalarga bog’liq. Ba’zi mamlakatlarga uslubiy yondashuvlar ishlab chiqilgan va hatto to’liq tarmoqlar ham faoliyat ko’rsatmoqda, boshqalarida esa faqat ayrim kuzatuvlar o’tkazilmoqda. Umuman olganda, aksariyat davlatlar hali ham yagona metodologiya, kelishilgan dasturlar va tarmoqlar mavjud emasligi bilan ajralib turadi.

Yer monitoringi sohasidagi ishlarni rivojlantirish va Germaniyada tegishli axborot tizimini yaratish to’g’risida qaror 1985 yilda qabul qilingan. Germaniyada yer monitoringi kontseptsiyasi statsionar saytlar tarmog’iga asoslangan bo’lib, ularning soni mamlakatning ma’muriy bo’linmalari uchun 20-25 dan 240 gacha o’zgaradi. Tarmoq 800 ga yaqin uchastkalarda og’ir metallar, organik moddalar va o’simlik ozuqalari kuzatiladi. Ba’zi joylarda atmosfera, biologik parametrlar, ishlatiladigan o’g’itlar miqdori va boshqalar bo’yicha qo’shimcha kuzatuvlar olib borilmoqda.

Umuman olganda, Germaniyada ham yer monitoringi aerokosmik va fazoviy tadqiqotlar keng yo’lga qo’yilgan. Mazkur davlat landshaftlar va qishloq xo’jaligiga mo’ljallangan yerlarning dinamikasini o’rganish uchun takroriy aeros’yomkalardan foydalangan birinchi davlatdir. Yer monitoringi ma’lumotlarini to’plash, ishlov berish va saqlash geografik axborot tizimlarida amalga oshiriladi.

Kanada davlatida yerlarning holatini muntazam kuzatish 1996 yildan boshlangan. Kanadada dunyoda birinchi bo’lib, kompyuter bilan jihozlangan va turli xil xarita resurlarini saqlash, tahlil qilish va taqqoslash uchun mo’ljallangan, yerlarni inventarizatsiya qilish va monitoring qilish bo’yicha tizimli ishlar natijasida keng qamrovli GAT ishlab chiqilgan va yerdan foydalanish uchun mos maydonlarni tanlash, shuningdek, maqsadli xaritalarni tayyorlash joriy etilgan. Bundan tashqari, fotosuratlar shaklida taqdim etilgan atrof-muhitning masofaviy nazorati ham qo’llaniladi.

Rossiya Federatsiyasida 1991 yil 25 aprelda qabul qilingan Yer kodeksining 109-moddasida “Yer monitoringi” atamasi o’zgarishlarni o’z vaqtida aniqlash, ularni baholash, salbiy jarayonlarning oqibatlarini bartaraf etish uchun yer fondining holatini monitoring qilish tizimi sifatida birlashtirilgan.

Keyinchalik, Rossiya hukumati tomonidan 1992 yil 15 iyulida “Yer monitoringi to’g’risida” 491-sonli qaror qabul qilingan [1992; Elektron resurs], 1993 yil 5 fevralida 100-sonli qaror bilan Rossiya Federatsiyasining 1993-1995 yillarga mo’ljallangan yerlarni monitoring qilish bo’yicha “Davlat yer monitoring” dasturi ishlab chiqilgan. Mazkur qarorlar asosida Roskomzem, Rossiya tabiiy resurslar vazirligi va mutasaddi vazirlik va idoralar dastur ijrochisi deb tan olingan.

1996 yildan boshlab Rossiya Federatsiyasi yer monitoringi uchun ma’lumotlar bazasi yaratilib, yerlarning sifati va ishlatilishiga ta’sir qiluvchi salbiy jarayonlarning prognozi, oldini olish va oqibatlarini bartaraf etish tizimi yo’lga qo’yilgan.

Bugungi kunda davlat atrof-muhit monitoringi davlat monitoringining tarkibiy qismi hisoblanadi. U yerlarning holati, ularning miqdor va sifat xususiyatlari, ulardan foydalanish va unumdorlik holati to’g’risida ishonchli ma’lumot olishga qaratilgan kuzatish, baholash va prognozlash tizimini o’z ichiga oladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib shuni alohida ta’kidlash lozimki, O’zbekiston Respublikasida dastlabki yer monitoringi va uni yuritishga doir dastlabki ishlar, chet el yajribalaridan Rossiya federatsiyasi tajribasi asos qilib olingan va respublikamiz tabiiy-iqlim sharoitiga moslashtirilib, takomillashtirilgan hamda “O’zbekiston Respublikasida Yer monitoringini yuritish” huquqiy mexanizmlari ishlab chiqarilgan.

Xususan, O’zbekiston Respublikasida dastlabki fazoviy ma’lumotlar bo’yicha ishlashga qaratilgan sa’yi-harakatlar ayrim yo’nalishlarda 1995 yildan boshlangan, biroq aynan “Yer monitoring”ga qaratilgan tadqiqotlar hukumat doirasida ishlab chiqilgan maxsus qaror asoida 2000 yildan boshlangan.

O’zbekistonda 1999-2000 yillar oralig’ida yer axborotlar bazasining yaratilishidagi dastlabki sinov tajribalar quyidagi yo’nalishlarda olib borilgan:

1) yer uchastkalarini texnik ro’yxatga olish;
2) yer uchastkalarini baholash’
3) davlat ro’yxatidan o’tkazish masalalari pilot uchastkalardagina amalga oshirilgan.

Yer axborotlar bazasining yaratilishiga qaratilgan “Yer axborot tizimi” portali (2018-2020

yy.) dastlabki varianiti shakllantirildi. Bunda respublika masshtabida 194 shahar va tumanlar qishloq xo'jaligi yerlari, yerdan foydalanuvchilari, kontur chegaralari hamda qishloq xo'jalik ekinlarining joylashuvi atributiv ma'lumotlari kiritilgan.

Mamlakatimiz hududida dastlabki (2003-2020 yy.) yer monitoringi tadqiqotlariga bag'ishlangan tadqiqotlar S.Avezboyev, Q.Raxmonov, R.Qo'ziyev, S.Abdullayev, A.Axmedov, G'.Parpiyev tomonidan olib borilgan, lekin, qishloq xo'jaligi yerlari monitoringini miqdoriy jihatdan yuritish ishlari takomillashtirilmagan.

2020 yilga kelib hukumatimiz tomonidan amalga oshirilgan keng qamrovli chora-tadbirlar tufayli qishloq xo'jalik yerlari monitoringini yuritishga asos solinib, yuqoridan nomlari zikr ilingan Buyuk Britaniya, Xitoy, Yaponiya, Koreya, AQSh, Gollandiya, Kanada, Norvegiya, Germaniya, Avstriya, Fransiya, Vengriya, Ispaniya, Shvetsiya, Rossiya, Belorussiya tajribalarini respublikamiz sug'oriladigan yerlarida ham qo'llash imkoniyatlari yaratildi.

Tadqiqot materiallari va metodlari: Tadqiqot jarayonida yer monitoringini tashkil etish va rivojlantirish bo'yicha nazariy va amaliy ma'lumotlar o'rganildi. Shuningdek, rivojlangan davlatlarda qo'llanilayotgan monitoring tizimlari tahlil qilindi.

Ilmiy adabiyotlar, normativ-huquqiy hujjatlar va statistik ma'lumotlar tahlil qilinib, yer monitoring tizimining nazariy asoslari o'rganildi.

Turli mamlakatlarda yer monitoringi tizimini tashkil etish tajribasi o'zaro taqqoslanib, ularning samarali jihatlari aniqlanib chiqildi.

Yer resurslari haqida fazoviy ma'lumotlarni qayta ishlash va tahlil qilish jarayonida geoinformatsion tizimlar imkoniyatlari o'rganildi.

Tadqiqot natijalari yer monitoringini samarali tashkil etishda xorijiy mamlakatlar tajribasi muhim ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatdi.

Rivojlangan mamlakatlarda yer monitoringi tizimi quyidagi asosiy yo'nalishlar asosida olib boriladi:

AQSh va Yevropa mamlakatlarida yer resurslarini monitoring qilishda kosmik tasvirlardan keng foydalaniladi. Ushbu texnologiya katta hududlarni tezkor va aniq tahlil qilish imkonini beradi.

GIS texnologiyalari yordamida yer resurslari haqidagi barcha ma'lumotlar yagona elektron bazaga jamlanadi. Bu esa yer resurslarini boshqarish jarayonini samarali tashkil etishga yordam beradi.

Ko'plab rivojlangan davlatlarda yer uchastkalari haqidagi ma'lumotlar raqamli kadastr tizimi orqali yuritiladi. Bu tizim yer maydonlari, ularning egalari hamda foydalanish turlari haqidagi ma'lumotlarni o'z ichiga oladi.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, O'zbekistonda yer monitoringini takomillashtirish quyidagi bosqichlarda amalga oshirilishi mumkin:

- Yer resurslari haqidagi ma'lumotlarni raqamlashtirish;
- GIS texnologiyalarini keng joriy etish;
- Masofadan zondlash texnologiyalaridan foydalanishni rivojlantirish;
- Yer monitoringi bo'yicha yagona axborot tizimini yaratish;
- Yer monitoringi tizimini institutsional jihatdan mustahkamlash;

Natijalar tahlili va muhokama:

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, yer monitoringi tizimini samarali tashkil etish uchun zamonaviy texnologiyalarni keng joriy etish muhim ahamiyatga ega.

Xorijiy mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, yer monitoringi tizimining samaradorligi ko'p jihatdan raqamli texnologiyalarni qo'llash darajasiga bog'liq.

Masalan, Yevropa mamlakatlarida yer monitoringi tizimi sun'iy yo'ldosh ma'lumotlari, GIS platformalari va avtomatlashtirilgan ma'lumotlar bazalari asosida ishlaydi. Bu esa yer resurslari holatini real vaqt rejimida kuzatish imkonini beradi.

O'zbekistonda ham yer monitoringi tizimini modernizatsiya qilish uchun quyidagi yo'nalishlarga e'tibor qaratish zarur:

- raqamli kadastr tizimini rivojlantirish
- masofadan zondlash texnologiyalarini joriy etish
- yer resurslari bo'yicha yagona ma'lumotlar bazasini yaratish

- ilmiy tadqiqotlar va innovatsion texnologiyalarni qo‘llash

Shuningdek, yer monitoringi tizimini rivojlantirishda xalqaro tajribalarni o‘rganish va ularni milliy sharoitlarga moslashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa: Dunyo bo’yicha GAT texnologiyalardan foydalangan holda qishloq xo’jaligida foydalaniladigan yerlarning monitoringini yuritish uchun yerning ma’lumotlari bazasi yaratilib, ishlab chiqarishga joriy etilgan, pirovardida, yerlar va ular bilan mustahkam bog’liq bo’lgan ko’chmas mulkning jismoniy, huquqiy va iqtisodiy holatini ishonchli baholash imkoni yaratilgan.

Yer monitoringi yer resurslaridan samarali foydalanish va ularning ekologik barqarorligini ta’minlashda muhim boshqaruv vositasi hisoblanadi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, rivojlangan mamlakatlarda yer monitoringi tizimi zamonaviy axborot texnologiyalari asosida samarali tashkil etilgan.

O‘zbekistonda yer monitoringini takomillashtirish uchun quyidagi choralarni amalga oshirish maqsadga muvofiq:

- yer resurslari bo‘yicha ma’lumotlarni raqamlashtirish
- GIS va masofadan zondlash texnologiyalarini joriy etish
- yagona elektron monitoring tizimini yaratish
- yer monitoringi tizimini institutsional jihatdan rivojlantirish

Ushbu chora-tadbirlar yer resurslaridan oqilona foydalanish va qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishining barqaror rivojlanishini ta’minlashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1.O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi” T.: O‘zbekiston, 2023

2.O‘zbekiston Respublikasi «Yer kodeksi» T.: «Adolat» 1998.

3.R.A.Turayev. Yer Monitoringi. O‘quv qo‘llanma. “Lesson press” Toshkent-2022

4.Turayev R.A., Sharopov R.N., Tashbaeva Kh.H. The role of climate change in rainfed land monitoring // Nauchno-teoretichskiy jurnal «Agrarnaя Nauka». ISSN 2686-701X. - Moskva, 2020. - No12. - C. 47-51.

5.Bobojonov A.R., Raxmonov Q.R., G‘ofirov A.J. Yer kadastri. Darslik. T.: TIMI, 2008

6.Rustamboyev M.H. va boshq. Yer huquqi. Darslik – T.: Toshkent davlat yuridik instituti, 2002

7.I. Aslanov, S. Kholdorov, S. Ochilov, A. Jumanov, Z. Jabbarov, I. Jumaniyazov, and N. Namozov, E3S Web of Conferences **258**, 03012 (2021)

8.Raxmonov Q. Yer resurslarini boshqarish asoslari. Toshkent, 2010.

9.Ataullayev J. Yer monitoringi va yer kadastri asoslari. Toshkent, 2015.

10Lillesand T., Kiefer R. Remote Sensing and Image Interpretation. New York, 2018.

11.Campbell J. Introduction to Remote Sensing. New York, 2016.

12.World Bank. Sustainable Land Management Report. Washington, 2021.

TABIIY XAVF YUQORI BO‘LGAN ZONALAR DAVLAT KADASTRINI YURITISH TARTIBI

Zuxurov Y.T., Aralov M.M.
Qarshi davlat texnika universiteti

Annotatsiya: *Mazkur maqolada tabiiy xavf yuqori bo‘lgan zonalar davlat kadastrini yuritish, kadastr axborotlarini to‘plash, tizimlashtirish, saqlash, hisobga olish va baholash tartibi haqida ma’lumotlar keltirilgan.*

Аннотация: *В данной статье представлена информация о порядке ведения государственного кадастра зон с высоким уровнем природной опасности, а также о сборе, систематизации, хранении, учете и оценке кадастровой информации.*

Abstract: *This article provides information on the procedure for maintaining the state cadastre of areas with a high level of natural hazard, as well as the collection, systematization, storage, accounting, and evaluation of cadastral information*

Kalit so‘z: *Tabiiy xavf yuqori bo‘lgan zonalar, davlat kadastri, geologik jarayonlar kadastr xaritalari, monitoring va seysmik xavfli zonalar.*

Ключевые слова: *Зоны с высоким уровнем природной опасности, государственный кадастр, кадастровые карты геологических процессов, мониторинг, сейсмически опасные зоны.*

Key words: *Areas with a high level of natural hazard, state cadastre, cadastral maps of geological processes, monitoring, seismically hazardous zones.*

Tabiiy xavf yuqori bo‘lgan zonalar davlat kadastri (TXYUZDK) “Davlat kadastrlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2005-yil 16-fevraldagi 66-son qarori bilan tasdiqlangan Davlat kadastrlari yagona tizimi (DKYAT)ni yaratish va yuritish tartibi to‘g‘risidag Nizomga, boshqa normativ-huquqiy hujjatlarga hamda ushbu Nizomga muvofiq yuritiladi.

Tabiiy xavf yuqori bo‘lgan zonalar davlat kadastri DKYATning tarkibiy qismi hisoblanadi va tizimli kuzatishlar, tadqiqotlar hamda axborotlar to‘plash natijalari bo‘yicha tayyorlanadigan, doimo yangilab boriladigan va zarurat bo‘lganda aniqlashtiriladigan tabiiy xavf yuqori bo‘lgan zonalar (TXYUZ)ning unifikatsiya qilingan tavsiflari va tasvirlari to‘plamidan, har yili ro‘y bergan xavfli tabiiy hodisalar to‘g‘risidagi ma’lumotlar to‘plamidan iborat bo‘ladi.

Tabiiy xavf yuqori bo‘lgan zonalar davlat kadastr obyektlarini hisobga olishni, ularning holatini va ro‘y bergan xavfli tabiiy (geologik, gidrometeorologik) jarayonlar (hodisalar) oqibatlarini baholashni ta’minlash maqsadida yuritiladi.

Tabiiy xavf yuqori bo‘lgan zonalar davlat kadastrini yuritish quyidagi vakolatli organlar:

xavfli geologik jarayonlar ro‘y beradigan zonalar (XGJRZ) bo‘yicha - Davlat geologiya qo‘mitasining “O‘zbekgidrogeologiya” davlat geologiya korxonasi tomonidan;

seysmik xavf yuqori bo‘lgan zonalar (SXYUZ) bo‘yicha - seysmik xavf yuqori bo‘lgan zonalar bo‘yicha kadastr axborotlarini tayyorlash va realizatsiya qilish (seysmologiya xulosalari, ularni ekspertizadan o‘tkazish, davriy baholash, mufassal tadqiq etish) uchun yagona mas’ul bo‘lgan O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining Seysmologiya instituti tomonidan;

gidrometeorologiya hodisalari xavfi yuqori bo‘lgan zonalar (GMHXYUZ) bo‘yicha – “O‘zgidromet” markazi tomonidan amalga oshiriladi.

Tabiiy xavf yuqori bo‘lgan zonalar davlat kadastrini yuritish:

kadastr axborotlarini to‘plash, tizimlashtirish, saqlash, hisobga olish va baholash;

Davlat kadastrlari yagona tizimi *(DKYaT*) ga kiritish uchun har yilgi axborot hisobotlarini tuzish;

foydalanuvchilarni tabiiy xavf yuqori bo‘lgan zonalar davlat kadastri bo‘limlarini yuritish bo‘yicha vakolatli vazirliklar va idoralar tomonidan belgilangan tartibda kadastr axborotlari bilan ta’minlash yo‘li bilan amalga oshiriladi.

Kadastr obyektlarini hisobga olish to‘g‘risidagi, har yili - ro‘y bergan xavfli tabiiy jarayonlar, ularning miqdor va sifat tavsiflari, ro‘y bergan quyidagi xavfli tabiiy jarayonlar (hodisalar) oqibatlari to‘g‘risidagi muntazam ravishda yangilab va to‘ldirib boriladigan ma’lumotlar tabiiy xavf yuqori bo‘lgan zonalar davlat kadastrining asosini tashkil qiladi:

xavfli geologik jarayonlar ro‘y beradigan zonalarda (XGJRZ) - xavfli geologik jarayonlar ro‘y beradigan zonalarda (zilzilalar, ko‘chkilar, yemirilishlar, cho‘kishlar, o‘pirilishlar, suffoziyalar, karstlar va boshqalar);

gidrometeorologiya hodisalari xavfi yuqori bo‘lgan zonalarda (GMHXYUZ) - gidrometeorologiya hodisalari xavfi yuqori bo‘lgan zonalarda (suv toshqinlari, sellar, qor ko‘chkilari, kuchli shamollar, jalalar, qurg‘oqchilik, suv bosishi va boshqalar).

Tabiiy xavf yuqori bo‘lgan zonalar davlat kadastri obyektlari quyidagilar hisoblanadi:

- Xavfli geologik jarayonlar ro‘y berish zonasi (XGJRZ) bo‘yicha - xavfli geologik jarayonlar ro‘y berish zonasi (daryolar havzasi) elementlari - xavfli geologiya jarayonlari rivojlanadigan kichik zonalar (soy havzasi), uchastkalar;
- SXYUZ bo‘yicha - zilzila markazlari paydo bo‘lishi muqarrar zonalar (seysmogen zonalar) va turlicha toifadagi seysmik ta’sir zonalari;
- Xavfli gidrometeorologik jarayonlar ro‘y berish zonasi bo‘yicha - xavfli gidrometeorologiya hodisalari ro‘y berish zonalari (daryolar havzasi), elementlari - xavfli gidrometeorologiya hodisalari rivojlanadigan kichik zonalar.

Quyidagilar hisobga olishning boshlang‘ich hududiy birligi hisoblanadi:

Xavfli geologiya jarayonlar bo‘yicha - 1,0 ming kub metrdan ortiq hajmli xavfli geologiya jarayonlarining nomuntazam ro‘y berishi. Shuningdek kadastr obyektlari doirasida xavfli geologiya jarayonlariga har yili duch keladigan maydon ham hisobga olinadi. Grafik hisobga olish belgilangan shartli belgilardan foydalangan holda 1:25000 va 1:200000 masshtabli topografiya xaritalarida amalga oshiriladi.

Seysmik xavfli zonalar bo‘yicha - zilzilalar ro‘y beradigan zona va 25 kv. km maydondagi turlicha toifada ta’sir ko‘rsatish zonasi hududi. Shuningdek seysmogen zonadan tashqarida zilzilalar ro‘y berganda, ya’ni silkinish zonasida yoki seysmik xavf ancha past bo‘lgan zonada zilzila ro‘y berganda seysmik xavfning yuqori toifasiga o‘tadigan maydonlar ham hisobga olinadi. Seysmik xavfli zonalarni aks ettirish uchun kartografiya materiallari belgilangan tegishli shartli belgilardan foydalangan holda 1:1000000 yoki 1:500000 va 1:200000 (ayrim hududlar uchun) masshtabda tuziladi.

Xavfli gidrometeorologiya hodisalari sodir bo‘ladigan zona bo‘yicha - xavfli gidrometeorologiya hodisalari sodir bo‘ladigan zona hududi, daryo havzasi (yuqori, o‘rta, quyi oqim), tog‘ massivi (yonbag‘ir ekspozitsiyasi). Xavfli gidrometeorologiya zonalarini aks ettirish uchun kartografiya materiallari belgilangan tegishli shartli belgilardan foydalangan holda 1:1000000 yoki 1:500000 va 1:200000 (ayrim hududlar uchun) masshtabda tuziladi.

Tabiiy xavf yuqori bo‘lgan zonalar davlat kadastri ma’lumotlari tarkibiga quyidagilardan iborat bo‘lgan hisobga olish va baholash axborotlari kiradi:

Xavfli geologiya jarayonlari ro‘y berish zonasi (XGJRZ) bo‘yicha:

kadastr obyektining (xavfli geologiya jarayonlari ro‘y berish zonasi) va kadastr obyekti elementlarining (kichik zona va uchastka) nomi;

kadastr nomeri (soy havzasi, xavfli geologiya jarayonlari - XGJ rivojlanish uchastkasi);

kadastr obyektining, rivojlanishi mumkin bo‘lgan va har yili XGJ bilan zararlanadigan maydon hajmlari;

joylashgan o‘rni (XGJ ro‘y bergan joy, ma’muriy manzili, koordinatlari);

XGJning rivojlanish turlari (ko‘chkilar, o‘pirilishlar, cho‘kishlar, yemirilishlar, suffiziyalar va karstlar);

xavfli geologiya jarayonlari ro‘y berish zonasida joylashgan obyektlar ro‘yxati;

xavfli geologiya jarayonlari yetkazgan zarar to‘g‘risidagi ma’lumotlar;

1:25000 masshtabli xavfli geologiya jarayonlari ro‘y berish zonalarining kadastr xaritalari (hisobdagi, operativ) hamda qog‘oz va elektron manbalardagi 1:200000 masshtabli kadastr obyektlari xaritalari;

Seysmik xavfli zonalar (SXYUZ) bo‘yicha:

Kadastr obyektining nomi - turlicha toifali seysmik xavfli zonalar, kadastr obyekti elementlari - seysmogen zonalar, toifalar bo‘yicha tabaqalashtirilgan seysmik ta’sirning seysmogenlararo maydonlari, kuchli zilzilalar markazi (pleystoseyst) hududlari;

seysmogen zonalarning, seysmik xavf toifalari bo‘yicha seysmik ta’sirning seysmogenlararo maydonlari kadastr nomeri;

seysmogen zonalarning va seysmik ta’sir zonalarining xarakterli ta’sirlari (kengligi va uzunligi) bilan belgilanadigan kadastr obyekti hajmlari;

yuqori seysmik xavfning rivojlanish turlari (seysmogen zonalar doirasida kuchli zilzilalarning takrorlanuvchanligi, muayyan maydonda silkinishlar takrorlanuvchanligining muqarrarlik bahosi);

yuqori seysmik xavf zonalaridagi obyektlar ro‘yxati;

yuqori seysmik xavf yetkazgan zarar to‘g‘risidagi ma’lumotlar (ijtimoiy, iqtisodiy, ekologik);

ayrim hududlar uchun 1:1000000, 1:500000, 1:200000 masshtabli tabiiy xavf yuqori bo‘lgan seysmik zonalarning qog‘oz va elektron manbalardagi kadastr xaritalari;

Gidrometeorologiya hodisalarining yuqori xavfli zonalari (GMHXYUZ) bo‘yicha:

kadastr obyektining (gidrometeorologiya hodisalarining yuqori xavfli zonalari, daryolar havzasi, tizmatog‘ yonbag‘irlari, kotlovina), kadastr obyekti elementlari (kichik zona - soy havzasi, yonbag‘ir joylashuvi, gidrometeorologiya xavfining ro‘y berish uchastkasi) nomi;

kadastr nomeri (daryo va soy havzasi, tizmatog‘ yonbag‘ri, kotlovina bo‘yicha);

joylashgan o‘rni (ma’muriy manzili, xavfli gidrometeorologiya hodisasi ro‘y berish uchastkasi);

xavfli gidrometeorologiya hodisasining turlari (tavsifi);

paydo bo‘lishining asosiy sabablari;

xavfli gidrometeorologiya hodisalarining ro‘y berish zonasida joylashgan obyektlar ro‘yxati;

xavfli gidrometeorologiya hodisalari yetkazgan zarar to‘g‘risidagi ma’lumotlar;

xavfli gidrometeorologiya hodisalari ro‘y berish zonalarining qog‘oz va elektron manbalardagi 1:25000, 1:200000 masshtabli kadastr xaritalari.

Tabiiy seysmik xavf yuqori bo‘lgan zonalar kadastrini shakillantirish va yuritish O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2005-yil 30-iyundagi 152-son qarori, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 7-sentabrdagi “Yer hisobi va davlat kadastrlarini yuritish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi PF-6061-son Farmoni, O‘zbekistan Respublikasi Prezidentining 2020-yil 7-sentabrdagi PQ-4819-son qaroriga asosan Davlat kadastrlarini shakllantirish va Milliy geoaxborot tizimiga kiritish chora-tadbirlarini to‘g‘risidagi huquqiy normativ hujjatlar o‘rganib chiqildi va tahlil qilindi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. Zukhurov, Y. T. (2021). Criteria and indicators for assessing the formation of cartographic competence in students of higher education institutions of technical direction. *Electronic journal of actual problems of modern science, education and training*, *11*(1).

2. Zukhurov, Y. T. (2021). Pedagogical conditions for the formation of cartographic competence in students. Scientific-methodical, practical, educational journal of vocational education.

3. Zukhurov, Y. T. (2021). Professional-oriented teaching technology is a tool for the formation of cartographic competence in the future specialist. Scientific bulletin of Namangan State University.

4. Аликулов, Ғ., & Аралов, М. (2022). РЕЛЬЕФНИНГ РАҚАМЛИ МОДЕЛЛАРИНИ УЧУВЧИСИЗ УЧИШ АППАРАТЛАРИ ЁРДАМИДА ЯРАТИШ. Innovatsion Texnologiyalar, 1(4), 131–134.

5. Aralov, M. M. (2022). MUHANDISLAR TAYYORLASH TA’LIMINING MUAMMOLARI VA YUTUQLARI. INTERNATIONAL CONFERENCE ON LEARNING AND TEACHING, 1(4), 107–111.

6. Nurillayeva, S., & Aralov, M. (2024). QARSHI TUMANINING RAQAMLI EKOLOGIK KARTASINI GEOAXBOROT TIZIMI ASOSIDA YARATISH. *GOLDEN BRAIN*, *2*(20), 188-193.

7. Aralov , M. M. (2024). Bo‘lajak muhandislarning grafik tayyorgarligini rivojlantirishda pedagogik sharoitlar va o‘quv-uslubiy ta’minot. *RESEARCH AND EDUCATION*, *3*(10), 71-75.

8. Aralov Muzaffar Muxammadiyevich & Baxtiyorova Shodiyona Nurmajet qizi. (2024). AVTOMOBIL YO‘LLARINI LOYIHALASH VA QURISHDA GEODEZIK ISHLARNI TASHKIL ETISH. *RESEARCH AND EDUCATION*, *3*(10), 76-80.

9. Aralov Muzaffar Muxammadiyevich, A. M. M. (2024). OTM talabalarining grafik tayyorgarlikligini rivojlantirish vositasi sifatida. Farg‘ona Davlat Universiteti, (6), 138.

YER KADASTRINI RIVOJLANISHIDA ELEKTRON KARTALARNING ROLI

Zuxurov Y.T., Aralov M.M.

Qarshi davlat texnika universiteti

Annotatsiya. Ushbu maqolada yer kadastrini rivojlanishida elektron kartalarning roli hamda zamonaviy elektron raqamli kartalarni chizish va yer maydonlarini hisoblash ishlari bayon etilgan.

Kalit so‘zlar. *Elektron karta, geodeziya, GAT, yer kadastri va kartografiya.*

Аннотация. В данной статье изложена роль электронных карт в развитии земельного кадастра, а также освещены вопросы построения современных электронных цифровых карт и выполнения расчетов земельных участков.

Ключевые слова. *электронная карта, геодезия, ГИС, земельный кадастр, картография.*

Abstract. This article discusses the role of electronic maps in the development of land cadastre, as well as the processes of creating modern digital maps and calculating land areas.

Keywords. *electronic map, geodesy, GIS, land cadastre, cartography.*

Respublikamiz qishloq xo‘jaligi sohalarida ilm - fan yutuqlaridan keng foydalanishga, zamonaviy texnika va texnologiyalarni ishlab chiqarishga jalb qilishga katta e’tibor qaratilmoqda. Bugungi kunda yer resurslarini boshqarish sohasida ham zamonaviy texnologiyalarni qo‘llash, ish jarayonlarini avtomatlashtirish ishlari amalga oshirilmoqda. Shunday ishlardan biri yer tuzish va yer kadastri maqsadlari uchun elektron kartalarni yaratish texnologiyalaridir.

Yer kadastri - bu yer uchastkalarining chegaralari, maydoni, qiymati, huquqiy maqomi, yer resurslaridan foydalanish holati va ularning monitoringiga oid ma’lumotlarni jamlovchi davlat tizimidir. Zamonaviy texnologiyalar rivoji natijasida elektron kartalar yer kadastrini yuritishda asosiy vositalardan biriga aylandi. Elektron kadastr xaritalari - bu yer uchastkalari haqidagi geoma’lumotlarni raqamli shaklda aks ettiruvchi interaktiv, yangilanadigan va tahliliy imkoniyatlarga ega xaritalar bo‘lib, ular butun kadastr tizimining samaradorligini sezilarli darajada oshiradi.

Avvalo, elektron kartalar aniqlik va tezkorlikni ta’minlaydi. Raqamli koordinatalar asosida tuzilgan xaritalarda har bir yer uchastkasining chegarasi aniq ko‘rinadi, bu esa notarial tasdiqlash, yer ajratish, yer nizolarini hal qilish kabi jarayonlarda xatolarni kamaytiradi. Qog‘oz xaritalardan farqli ravishda, elektron xaritalar doimiy ravishda yangilanib boradi, bu esa real vaqt rejimida kadastr ma’lumotlarini monitoring qilish imkonini beradi.

Elektron xaritalarning yana bir muhim jihati - axborot integratsiyasi. Ular kadastr reestri, mulk huquqi davlat reyestri, geodezik ma’lumotlar bazalari, topografik xaritalar, aerokosmik suratlar bilan integratsiya qilinadi. Shunday qilib, bir nechta ma’lumot qatlamlarini bir joyda tezkor taqqoslash va tahlil qilish imkoniyati paydo bo‘ladi. Bu esa yer resurslaridan oqilona foydalanish, hududlarni rejalashtirish, meliorativ va ekologik muammolarni aniqlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Elektron kartalar kadastr xizmatlari ochiqligini ham oshiradi. Masalan, foydalanuvchilar yer uchastkasining kadastr raqami, maydoni, chegarasi, huquqiy holati bo‘yicha ma’lumotlarni onlayn platformalar orqali oson olishi mumkin. Bu esa aholiga qulaylik yaratadi, korrupsion holatlarni kamaytiradi va rasmlar orqali vizual tasavvur beradi.

Bundan tashqari, elektron kadastr xaritalari GIS (Geographic Information Systems) texnologiyalari asosida yer tahlillarini amalga oshirishga imkon yaratadi. Yer qiymatini baholash, yerlarning meliorativ ahvolini aniqlash, ekin maydonlari dinamikasini tahlil qilish, qurilish rejalashtirish kabi jarayonlar elektron kartalar orqali aniq va il scientific asosda bajariladi.

Elektron kartalar yer kadastrining zamonaviy bosqichida markaziy rol o‘ynaydi. Ular kadastr jarayonini tezkor, shaffof, aniq va zamonaviy qiladi. Shu bois kelajakda yer kadastri tizimining to‘liq raqamlashtirilishi, elektron kartalarga asoslangan boshqaruvning kengayishi davlatning strategik maqsadlaridan biri sanaladi.

Hozirgi davrda yer tuzish va yer kadastrini yuritishda foydalaniladigan kartalar o‘tgan asrning oxirigacha an’anaviy uslublarda, ya’ni kartalar qo‘lda chizilib, yer maydonlari hisoblab kelingan. Keyin esa zamonaviy elektron raqamli kartalarni chizish va yer maydonlarini hisoblash ishlari to‘liq kompyuterlashtirilib, avtomatlashtirilgan tizimda kartalar yaratish yo‘lga qo‘yildi.

Ma’lumki, elektron kartalar bu dasturli qabul qilingan kartalarni proyeksiyalash va shartli belgilar tizimi kabi texnik vositalar yordamida tasvirlangan va dasturli boshqarish mumkin bo‘lgan kartografik tasvirdir. Bu turdagi karta va planlar raqamli karta yoki geoaxborot tizimining ma’lumotlar bazasiga asoslanib yaratiladi.

GAT ining yer resurslarini boshqarish sohalaridagi o‘rni benihoya katta va bu tizim yordamida yer uchastkalari to‘g‘risidagi barcha xuquqiy, iqtisodiy va geografik ma’lumotlarni to‘plash, dasturlar yordamida qayta ishlash va ularni tasvirlash ishlari avtomatlashgan tizim yordamida amalga oshiriladi.

Quyida an’anaviy va zamonaviy kartografiyaning qiyosiy tahlili bir necha bosqichlarda olib borilishi ko‘rilgan:

❖ Ma’lumot to‘plash yo‘llari–an’anaviy usullarda-quyidagi bosqichlarni o‘z ichiga oladi:

aerofototasvirlar, raqamli masofaviy zondlash, geodezik ishlar, ishchi chizmalar, statistik ma’lumotlar.

❖ GAT usullarda ayni an’anaviy yo‘l bilan va qo‘shimcha tayyor raqamli kartalar, relyefning raqamli modeli, raqamli ortofototasvirlar, raqamli ma’lumotlar bazasi.

❖ Ma’lumot kiritish- an’anaviy usullarda nuqta, chiziq, maydonlarni qog‘ozga tushirish.

❖ GAT usullarda nuqta, chiziq, maydonlarni kompyuter xotirasiga tushirish.

❖ GAT usullarda kompyuterning axborotini o‘lchash, taqqoslash va ma’lumotlar bazasida tasvirlash imkoniyatlari.

❖ Ma’lumotni saqlash va tanlash- an’anaviy usullarda nuqta, chiziq, maydonlar qog‘ozlar shartli belgilar yordamida chiziladi. Tanlash o‘qish bajariladi.

❖ GAT usullarda nuqta, chiziq va maydonlar rastr, koordinata yoki identifikator sifatida kompyuter xotirasida saqlanadi. Atributlar jadvali koordinatalar bilan bog‘liq bo‘ladi. Tanlashda kompyuter orqali izlashning effektiv usullaridan foydalaniladi.

❖ Kartalarni ishlab chiqarish- an’anaviy usullarda qog‘ozli ko‘rinishda, turli xil ma’lumotli kartalar alohida-alohida tasvirlanadi, kartogrammalar ham qo‘shilishi mumkin.

GAT usullarda raqamli ko‘rinishda va istalgan payt qog‘oz ko‘rinishida bosmaga chiqarish mumkin, barcha ma’lumotlarni yagona umumiy karta sifatida ajratgan holda tasvirlash va boshqa turdagi statistik diagrammalar va jadvallarni qo‘shib chiqarish imkoniyati mavjud. Ushbu tahlildan ko‘rinib turibdiki, GAT ma’lumotlarini qo‘llagan holda karta va planlar tuzish an’anaviy usullarga nisbatan bir necha marotaba afzaldir.

Tuzilgan elektron raqamli karta va planni xo‘jaliklararo yer tuzish loyihasi ishlarida xam foydalanish mumkin. Bu dastur xo‘jaliklararo yer tuzish loyihasi ishlarini bajarishda keng qulaylik va imkoniyatlarga ega bo‘lib, yuzani aniqlashda qo‘llaniladigan an’anaviy usullarga hojat qoldirmaydi.



1-rasm. GAT dasturlarida elektron kartalarni tuzish.

Bundan tashqari elektron raqamli karta va planlar davlatimiz boyligi hisoblanmish yillik paxta va g‘alla maydonlarini almashlab ekish dalalariga borishda va ularning monitoringini olib borishda ham katta xizmat qiladi.

Hozirgi yangi texnologiyalarni qo‘llash natijasida elektron raqamli kartalardan foydalanish imkoniyatining qulayligi an’anaviy (eski) usulga nisbatan afzalligi ma’lumdir.

Xulosa qilib shuni ta’kidlash kerakki, geoaxborot tizimlarida yaratilgan elektron raqamli kartalardan foydalangan holda yer tuzish va yer kadastri ishlarini bajarish vaqt, mehnat va harajatlar sarfini kamaytiradi. Shu bilan birga bajarilgan ishlarning sifatini va aniqlik darajasini oshiradi, yer kadastri axborotlaridan foydalanuvchilarga keng imkoniyatlar yaratadi. Bu esa yer tuzish va yer kadastri sohasining rivojlanishida katta ahamiyatga egadir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Аликулов, Ғ., & Аралов, М. (2022). Рельефнинг рақамли моделларини учувчисиз учиш аппаратлари ёрдамида яратиш. Innovatsion Texnologiyalar, 1(4), 131–134. Retrieved from https://ojs.qmii.uz/index.php/it/article/view/127

2. Aralov, M. M. (2022). Muhandislar tayyorlash ta'limining muammolari va yutuqlari. International conference on learning and teaching, 1(4), 107–111. Retrieved from https://researchedu.org/index.php/iclt/article/view/2630

3. Nurillayeva, S., & Aralov, M. (2024). Qarshi tumanining raqamli ekologik kartasini geoaxborot tizimi asosida yaratish. Golden brain, *2*(20), 188-193. https://webgoldenbrain. com/index.php/gb/article/view/607

4. Aralov , M. M. (2024). Bo'lajak muhandislarning grafik tayyorgarligini rivojlantirishda pedagogik sharoitlar va o'quv-uslubiy ta'minot. Research and education, *3*(10), 71-75.

5. Aralov Muzaffar Muxammadiyevich, & Baxtiyorova Shodiyona Nurmajet qizi. (2024). Avtomobil yo'llarini loyihalash va qurishda geodezik ishlarni tashkil etish. Research and education, *3* (10), 76-80.

UDK: 332.54(075.8)+004.8

УСТОЙЧИВОЕ УПРАВЛЕНИЕ ЗЕМЕЛЬНЫМИ РЕСУРСАМИ И ЦИФРОВЫЕ ТЕХНОЛОГИИ: МЕХАНИЗМ ПОВЫШЕНИЯ КОНКУРЕНТОСПОСОБНОСТИ ПРЕДПРИЯТИЙ СФЕРЫ УСЛУГ

Рахимова Кизлархон Неъатжон қизи, Химматова Гулноза Комилжон қизи
Ферганский государственный университет

Аннотация. В данной статье анализируются механизмы повышения конкурентоспособности предприятий сферы услуг за счет внедрения устойчивого управления земельными ресурсами и цифровых технологий. Исследование рассматривает влияние ГИС, искусственного интеллекта (II), Интернета вещей (IoT) и других цифровых технологий на эффективность предоставления услуг. Устойчивое использование ресурсов и цифровизация позволяют предприятиям снижать затраты, повышать качество услуг и обеспечивать конкурентное преимущество на рынке. В статье разработаны эффективные механизмы на основе зарубежного и местного опыта и даны рекомендации по их внедрению.

Ключевые слова: *устойчивое управление земельными ресурсами, цифровые технологии, предприятия сферы услуг, конкурентоспособность, искусственный интеллект, геоинформационные системы (ГИС), IoT.*

Введение. Концепция устойчивого развития приобретает все большее значение в экономике и экологии XXI века. В частности, для предприятий, работающих в сфере услуг, эффективное и устойчивое использование земельных ресурсов имеет стратегическое значение. В то же время внедрение цифровых технологий, включая геоинформационные системы (ГИС), искусственный интеллект и информационно-коммуникационные технологии, является важным фактором обеспечения конкурентного преимущества в сфере услуг.

Конкурентоспособность предприятий определяется не только качеством товаров и услуг, но и способностью эффективно управлять ресурсами и оцифровывать их. В этом контексте интеграция устойчивого управления земельными ресурсами и цифровых технологий является важным фактором создания стратегического конкурентного преимущества для предприятий сферы услуг [1].

Материалы и методы. Основная цель данной статьи – выявление механизмов повышения конкурентоспособности предприятий сферы услуг посредством внедрения устойчивого управления земельными ресурсами и цифровых технологий. Методология исследования была сформирована на основе двух основных источников — Кляйниер Г. Б. и Шваб К.

Кляйниер Г. Б. «Экономика знаний и тихая «экономика» институциональный аспект» рассматривает роль институциональных подходов и систем управления знаниями в

экономической эффективности и конкурентных преимуществах. По мнению автора, «тихая экономика» — то есть феномен невежества и неопределенности — оказывает существенное влияние на конкурентоспособность предприятий сферы услуг. В этой связи теоретическая основа исследования была сосредоточена на изучении возможностей создания конкурентных преимуществ в предприятиях сферы услуг посредством устойчивого управления земельными ресурсами и цифровизации знаний.

Шваб К. «Четвертая промышленная революция» анализирует роль передовых цифровых технологий — искусственного интеллекта (ИИ), Интернета вещей (IoT), больших данных и ГИС — в трансформации бизнес-процессов и повышении эффективности. На основе этой работы были оценены механизмы внедрения технологий в предприятиях сферы услуг, эффективное использование ресурсов и практические возможности повышения конкурентоспособности [3].

Методология исследования состоит из нескольких этапов:

• Теоретический анализ
• Экспертная оценка и сравнительный анализ
• Систематическая интеграция
• Разработка концептуальной основы

Обзор литературы показывает, что исследования Клейнера и Шваба дополняют друг друга. Клейнер делает акцент на институциональной перспективе и перспективе управления знаниями, в то время как Шваб анализирует возможности повышения конкурентного преимущества за счет технологической трансформации и цифровизации. На этой основе в статье концептуально разработан механизм повышения конкурентоспособности предприятий сферы услуг за счет устойчивого управления земельными ресурсами и интеграции цифровых технологий.

В результате исследования показано, что устойчивое управление земельными ресурсами, эффективная интеграция знаний и внедрение передовых цифровых технологий важны для создания стратегического конкурентного преимущества предприятий сферы услуг.

Результаты и обсуждение. Результаты анализа показывают, что эффективное и устойчивое управление земельными ресурсами значительно повышает эффективность и конкурентоспособность предприятий сферы услуг. Например, в коммунальном секторе мониторинг и преобразование землепользования с помощью ГИС-технологий повысили эффективность на 15–20%.

Искусственный интеллект и анализ данных повышают скорость и точность принятия решений в секторе услуг. Например, в сфере транспортных услуг оптимизация движения и транспортных средств с помощью IoT и II позволила снизить издержки предприятия на 10–12%.

Интеграция устойчивых земельных ресурсов и цифровых технологий дает значительные положительные результаты в сфере услуг. В результате этого процесса повышается способность предприятий снижать издержки, повышать качество обслуживания, улучшать эффективность работы и обеспечивать конкурентное преимущество на рынке. Эффективное использование устойчивых ресурсов и внедрение цифровых технологий служат предприятиям не только для достижения экономической эффективности, но и для создания стратегического конкурентного преимущества.

К эффективным механизмам, основанным на полученных результатах, относятся:

Цифровой мониторинг и анализ земельных ресурсов — с помощью ГИС и других цифровых систем осуществляется мониторинг процесса использования земельных ресурсов в режиме реального времени, анализируются результаты и принимаются более оперативные решения.

Автоматизация услуг с помощью технологий II и IoT — системы искусственного интеллекта и IoT оптимизируют процессы обслуживания, снижают нагрузку на сотрудников и повышают скорость обслуживания.

Показатели оценки устойчивости — отслеживаются такие параметры, как

эффективность использования ресурсов, минимизация отходов и энергопотребление, оценивается экологическая и экономическая устойчивость деятельности предприятия.

Разработка стратегических планов предприятия на основе принципов устойчивости и цифровизации — разрабатываются долгосрочные стратегические планы, основанные на интеграции устойчивого использования земельных ресурсов и цифровых технологий, и укрепляются конкурентные преимущества.

Стоит отметить, что эти механизмы не ограничиваются только внедрением технологий. Их эффективность напрямую связана с квалификацией сотрудников, внутренней системой управления организации и государственной политикой. Гармония человеческого капитала, стратегии управления и законодательства важна для обеспечения цифровой трансформации и устойчивости.

Зарубежный опыт (Япония, Сингапур, европейские страны) показывает, что благодаря эффективному использованию устойчивых земельных ресурсов и интеграции цифровизации предприятия сферы услуг значительно повышают свою конкурентоспособность. Одновременно внедрение передовых технологий и обеспечение экологической устойчивости приносят предприятию долгосрочные экономические и социальные выгоды.

В результате интеграция устойчивых земельных ресурсов и цифровых технологий позволяет предприятиям сферы услуг эффективно использовать ресурсы, оптимизировать бизнес-процессы, повышать качество обслуживания и обеспечивать стратегическое преимущество в рыночной конкуренции. При этом максимальные результаты достигаются, когда эти процессы работают в гармонии с внутренним управлением предприятия, квалификацией персонала и государственной политикой [5].

Выводы Интеграция управления устойчивыми земельными ресурсами и цифровых технологий обеспечивает предприятиям сферы услуг стратегическое конкурентное преимущество.

Цифровые технологии (II, ГИС, IoT) создают возможности для эффективного использования ресурсов, снижения затрат и повышения качества обслуживания.

На основе зарубежного и отечественного опыта разработаны механизмы обеспечения устойчивости и конкурентоспособности, которые рекомендуются для практической реализации.

В будущем исследования могут быть направлены на анализ взаимосвязи между показателями устойчивого развития и конкурентными преимуществами, а также на оценку эффективности технологий.

ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА

1. Брыжко В. Г. Искусственный интеллект в экономике услуг: новые источники конкурентных преимуществ // Экономика и управление. – 2020. – № 6. – С. 45–52.

2. Клейнер Г. Б. Экономика знаний и «молчаливая экономика»: институциональный аспект // Вопросы экономики. – 2020. – № 10. – С. 5–18.

3. Schwab K. The Fourth Industrial Revolution. – New York: Crown Business, 2020. – 192 p.

4. Davenport T. H., Ronanki R. Artificial Intelligence for the Real World // Harvard Business Review. – 2020. – Vol. 98, No. 1. – P. 108–116.

5. Головенчик Г. Г. Цифровая трансформация сферы услуг: роль искусственного интеллекта // Экономический журнал. – 2021. – № 2. – С. 73–81.

YER RESURSLARIDAN BARQAROR FOYDALANISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI ROLI

Aliqulov G'olib Nortoshevich, Bozorov M.M., Aralov M.M.
Qarshi davlat texnika universiteti

Annotatsiya. Ushbu maqolada yer resurslaridan samarali va barqaror foydalanishning ahamiyati hamda bu jarayonda raqamli texnologiyalarning o‘rni tahlil qilinadi. Zamonaviy geoinformatsion tizimlar, sun’iy yo‘ldosh monitoringi va raqamli xaritalash orqali yer resurslarini

boshqarish imkoniyatlari yoritilgan. Shuningdek, ekologik muvozanatni saqlash va yer degradatsiyasiningoldini olishda innovatsion yondashuvlarko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar. Yer resurslari, barqaror foydalanish, raqamli texnologiyalar, GIS, masofadan zondlash, kadastr, ekologiya, monitoring.

Аннотация.В данной статье рассматриваются вопросы эффективного и устойчивого использования земельных ресурсов, а также роль цифровых технологий в данном процессе. Освещаются возможности управления земельными ресурсами с использованием геоинформационных систем, спутникового мониторинга и цифрового картографирования. Также анализируются инновационные подходы к сохранению экологического баланса и предотвращению деградации земель.

Ключевые слова. Земельные ресурсы, устойчивое использование, цифровые технологии, ГИС, дистанционное зондирование, кадастр, экология, мониторинг.

Abstract. This article examines the importance of sustainable land resource management and the role of digital technologies in this process. The possibilities of managing land resources using geographic information systems, satellite monitoring, and digital mapping are highlighted. Innovative approaches to maintaining ecological balance and preventing land degradation are also discussed.

Keywords. Land resources, sustainable use, digital technologies, GIS, remotesensing, cadastre, ecology, monitoring.

Hozirgi davrda yer resurslari insoniyat taraqqiyoti uchun eng muhim tabiiy boyliklardan biri hisoblanadi. Yer nafaqat qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishining asosiy vositasi, balki sanoat, infratuzilma va ekologik tizimlarningajralmasqismi sifatida ham katta ahamiyatga ega. Aholi sonining tez sur’atlar bilan ortib borishi, urbanizatsiya jarayonlarining kuchayishi hamda tabiiy resurslargabo‘lgan talabningoshishinatijasida yer resurslariga bo‘lgan bosimkundan-kungaortibbormoqda.

Shu nuqtainazardan qaraganda, yer resurslaridan oqilona va barqaror foydalanish masalasi dolzarb global muammolardanbirigaaylangan. Yerning degradatsiyagauchrashi, tuproqunumdorligiiningpasayishi, sho‘rlanish va eroziya jarayonlari inson faoliyatining salbiyoqibatlari sifatida yuzaga kelmoqda.

Bunday sharoitda raqamli texnologiyalarni joriy etish yer resurslarini boshqarishda yangi imkoniyatlaryaratmoqda. Zamonaviy texnologiyalar orqali yerlarning holatini real vaqt rejimida kuzatish, tahlil qilish va samarali boshqarish imkoniyati mavjud.

Barqaror foydalanish tushunchasi bugungi kunda ekologik va iqtisodiy rivojlanishning asosiy tamoyillaridan biri sifatida qaraladi. Yer resurslaridan barqaror foydalanishbu mavjud yer resurslaridan shundayfoydalanishki, u hozirgi avlodehtiyojlariniqondirgan holda kelajakavlodlarimkoniyatlarinicheklabqo‘ymasligi kerak.

Barqaror foydalanish quyidagi asosiy tamoyillargatayanadi:

- Tuproqunumdorligini saqlash va oshirish.
- Yer degradatsiyasiningoldini olish.
- Tabiiy resurslardan oqilona foydalanish.
- Ekologik muvozanatni ta’minlash.
- Ijtimoiy va iqtisodiy manfaatlarmuvozanatini saqlash.

Agar yer resurslaridan noto‘g‘rifoydalanilsa, bu nafaqat iqtisodiy zarar, balki ekologik inqirozga ham olib kelishi mumkin. Shu sababli barqaror boshqaruv tizimlarini joriy etish zarur hisoblanadi.

Bugungi kunda dunyo miqyosida yer resurslari bilan bog‘liq bir qator muammolar mavjud:

- Tuproqeroziyasi.
- Sho‘rlanish jarayonlari.
- Cho‘llanish.
- Sug‘oriladigan yerlarning kamayishi.
- Qishloq xo‘jaligi yerlariningnoto‘g‘ri foydalanilishi

O‘zbekiston sharoitida ayniqsa sug‘oriladigan yerlarning sho‘rlanishi va suv tanqisligi dolzarb muammolardan hisoblanadi. Bu esa hosildorlikka bevosita salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Raqamli texnologiyalar yer resurslarini boshqarishda tub burilishyasadi. Ular orqali katta hajmdagi ma’lumotlarni tezkor qayta ishlash, tahlil qilish va aniq qarorlar qabul qilish imkoniyatiyaratildi.

GAT texnologiyalari yer resurslarini xaritalash, tahlil qilish va boshqarishda keng qo‘llaniladi. Bu tizimlar orqali yer maydonlarining joylashuvi, holati va o‘zgarishlari aniq ko‘rinishda aks ettiriladi.

Sun’iy yo‘ldoshlar va aerofotosuratlar yordamida yer yuzasining holatini kuzatish mumkin. Bu usul orqali:

- Ekin maydonlari holati.
- Tuproqnamligi.
- O‘simliklar rivojlanishi.
- Degradatsiya jarayonlari aniqlanadi.

Dronlar yordamida qishloq xo‘jaligi maydonlarini yuqori aniqlikda kuzatish mumkin. Bu esa resurslardan samarali foydalanish imkonini beradi.

Raqamli kadastr yer uchastkalarini hisobga olish, ro‘yxatdan o‘tkazish va boshqarishda muhim vosita hisoblanadi. Bu tizim orqali:

- Yergaegalikhuquqlari aniqlanadi.
- Nizolarkamayadi.
- Shaffoflikta’minlanadi.

Innovatsion yondashuvlar va istiqbollar

Zamonaviy texnologiyalar asosida yer resurslarini boshqarish yangi bosqichga chiqmoqda. Jumladan:

- Aqlli qishloq xo‘jaligi (Smart agriculture)- sensorlar va sun’iy intellekt yordamida ekinlarni boshqarish.
- Big Data texnologiyalari- katta hajmdagi ma’lumotlarni tahlil qilish.
- Sun’iy intellekt- hosildorliknprognoz qilish.
- IoT (Internet of Things)- real vaqt monitoringi.

Yer resurslaridan barqaror foydalanish zamonaviy jamiyatning eng muhim vazifalaridan biridir. Ushbu yo‘nalishda raqamli texnologiyalarni keng joriy etish katta ahamiyatga ega. Geoinformatsion tizimlar, masofadan zondlash, dronlar va sun’iy intellekt asosidagi yechimlar yer resurslarini boshqarishda samaradorliknisezilarli darajada oshiradi.

Kelajakda yer resurslaridan oqilona foydalanish faqat innovatsion texnologiyalar va ilmiy yondashuvlar asosida amalga oshirilishi mumkin. Shu bois bu yo‘nalishda ilmiy tadqiqotlarnikengaytirish va zamonaviy texnologiyalarni amaliyotga joriy etish zarur hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Аликулов, Ғ., & Аралов, М. (2022). Рельефнинг рақамли моделларини учувчисиз учиш аппаратлари ёрдамида яратиш. Innovatsion Texnologiyalar, 1(4), 131–134. Retrieved from https://ojs.qmii.uz/index.php/it/article/view/127

2. Aralov, M. M. (2022). Muhandislar tayyorlash ta’limining muammolari va yutuqlari. International conference on learning and teaching, 1(4), 107–111. Retrieved from https://researchedu.org/index.php/iclt/article/view/2630

3. Nurillayeva, S., & Aralov, M. (2024). Qarshi tumanining raqamli ekologik kartasini geoaxborot tizimi asosida yaratish. Golden brain, *2*(20), 188-193. https://webgoldenbrain.com/index.php/gb/article/view/607

4. Aralov , M. M. (2024). Bo‘lajak muhandislarning grafik tayyorgarligini rivojlantirishda pedagogik sharoitlar va o‘quv-uslubiy ta’minot. Research and education, *3*(10), 71-75.

5. Aralov Muzaffar Muxammadiyevich, & Baxtiyorova Shodiyona Nurmajet qizi. (2024). Avtomobil yo‘llarini loyihalash va qurishda geodezik ishlarni tashkil etish. Research and education, *3*(10), 76-80.

QISHLOQ XO'JALIGIDA YER UNUMDORLIGINI OSHIRISHDA MASOFAVIY ZONDLASH TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH

Aliqulov G'olib Nortoshevich, Mirzayev Jonibek Oltiyevich
Qarshi davlat texnika universiteti

Annotatsiya: Ushbu tadqiqot qishloq xo'jaligida yer unumdorligini oshirishda zamonaviy masofaviy zondlash texnologiyalarining samaradorligini baholashga qaratilgan. O'rganish maqsadida multispektral sun'iy yo'ldosh ma'lumotlari, NDVI indekslari va mahsulot hajmlari o'rtasidagi bog'liqlik tahlil qilingan. Tadqiqot natijalariga ko'ra, masofaviy zondlash texnologiyalaridan foydalanish 25-40% gacha suv tejamkorligini ta'minlaydi, o'g'itlardan samarali foydalanish 30% oshadi va umumiy hosildorlik 15-22% ga yuqorilashga hizmat qiladi.

Аннотасия: Целью данного исследования является оценка эффективности современных технологий дистанционного зондирования в повышении плодородия земель в сельском хозяйстве. В целях обучения был проанализирован взаимосвязь между данными многоспектральных спутников, индексами NDVI и объемами продукции. Исследование показало, что использование технологий дистанционного зондирования обеспечивает экономию воды на 25-40%, эффективное использование удобрений увеличивает на 30%, а общая урожайность повышается на 15-22%.

Abstract: The purpose of this study is to evaluate the effectiveness of modern remote sensing technologies in increasing land fertility in agriculture. For training purposes, the relationship between multispectral satellite data, NDVI indexes, and production volumes was analyzed. The study showed that the use of remote sensing technologies provides water savings of 25-40%, the effective use of fertilizers increases by 30%, and the total yield increases by 15-22%.

Kalit so‘zlar: masofaviy zondlash, yer unumdorligi, NDVI, aniq dehqonchilik, sun'iy yo'ldosh monitoring, qishloq xo'jaligi.

Ключевие слова: дистанционное зондирование, плодородие почвы, NDVI, точное земледелие, спутниковый мониторинг, сельское хозяйство.

Keywords: remote sensing, soil fertility, NDVI, precision agriculture, satellite monitoring, agriculture.

KIRISH. Dunyo aholisi o'sishining tezlashuvi va iqlim o'zgarishlari oqibatida qishloq xo'jaligi sohasida global muammolar kuchayib bormoqda. BMT ma'lumotlariga ko'ra, 2050-yilga borib dunyo aholisi 9,7 milliard kishiga yetadi va oziq-ovqat talabi 70% ga oshadi. Shu bilan birga, qishloq xo'jaligida ekish maydonlari kamayishda, tuproq unumdorligi pasayishda va suv resurslari tanqislashmoqda.

O'zbekiston Respublikasida qishloq xo'jaligi iqtisodiyotning asosiy tarmog'i hisoblanadi. Aholining 60% dan ortig'i qishloq joylarda yashaydi va deyarli 30% ishchi kuchi qishloq xo'jaligida band. Mamlakatda 4,3 million gektar sug‘oriladigan yer maydonlari mavjud bo'lib, ularning katta qismida yer unumdorligi past darajada.

An'anaviy qishloq xo'jaligi usullari tufayli tuproq unumdorligi pasayishda, o'g'it va suv resurslaridan noto'g'ri foydalanish oqibatida atrof-muhit ifloslanmoqda. Ayniqsa, tuproq namligi, o'simlik holati va zararli organizmlar haqida o'z vaqtida aniq ma'lumot olishning yo'qligi hosildorlikni pasaytiradi va xarajatlarni oshiradi.

METODLAR. Tadqiqotda qishloq xo‘jaligi yerlarining holatini baholash uchun masofaviy zondlash ma’lumotlari va geografik axborot tizimlari (GIS) texnologiyalaridan foydalanildi. Sun’iy yo‘ldosh tasvirlari asosida vegetatsiya indekslari, xususan NDVI hisoblanib, ekinlarning rivojlanish darajasi tahlil qilindi. Tuproq namligi va degradatsiya holatini aniqlash uchun spektral tahlil usullari qo‘llanildi. Shuningdek, dronlar yordamida yuqori aniqlikdagi kuzatuv ishlari olib borildi. Olingan ma’lumotlar GIS muhitida qayta ishlanib, muammoli hududlar xaritalashtirildi. Natijalar asosida yer unumdorligini oshirish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqildi.

NATIJALAR. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, masofaviy zondlash texnologiyalari yordamida ekinlarning vegetatsiya holatini aniq va tezkor baholash imkoniyati yaratildi. NDVI indekslari orqali hosildorligi past bo‘lgan maydonlar aniqlanib, ularni alohida boshqarish zarurligi belgilandi. Tuproq namligi va sho‘rlanish darajasi bo‘yicha olingan ma’lumotlar sug‘orish jarayonlarini

optimallashtirishga yordam berdi. Dron tasvirlari asosida kasallik va zararkunandalar erta bosqichda aniqlanib, yo‘qotishlar kamaytirildi. Olingan natijalar resurslardan samarali foydalanish va umumiy hosildorlikni oshirishga xizmat qilishi isbotlandi.

MUHOKAMA. Olingan natijalar shuni ko‘rsatadiki, masofaviy zondlash texnologiyalari qishloq xo‘jaligida yer unumdorligini oshirishda samarali vosita hisoblanadi. Ushbu texnologiyalar yordamida yer resurslarining holatini muntazam monitoring qilish va muammoli hududlarni o‘z vaqtida aniqlash mumkin. Shu bilan birga, agrotexnik tadbirlarni aniq rejalashtirish va resurslardan oqilona foydalanish imkoniyati kengayadi. Biroq, yuqori aniqlikdagi ma’lumotlarni olish va qayta ishlash uchun zamonaviy texnik vositalar hamda malakali mutaxassislar talab etiladi. Ayrim hududlarda texnologiyalarni joriy etish iqtisodiy jihatdan cheklangan bo‘lishi mumkin. Shunga qaramay, masofaviy zondlashdan foydalanish kelajakda qishloq xo‘jaligini raqamlashtirishning muhim yo‘nalishlaridan biri bo‘lib qoladi.

XULOSA. Xulosa qilib aytganda, masofaviy zondlash texnologiyalari qishloq xo‘jaligida yer unumdorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu texnologiyalar yordamida yer holatini tezkor va aniq baholash, hosildorlikni prognoz qilish imkoniyati yaratiladi. Natijada suv, o‘g‘it va boshqa resurslardan samarali foydalanish ta’minlanadi. Shu bilan birga, muammoli hududlarni erta aniqlash orqali agrotexnik choralarni o‘z vaqtida qo‘llash mumkin. Bu esa umumiy hosildorlikning oshishiga va iqtisodiy samaradorlikning yaxshilanishiga olib keladi. Kelgusida masofaviy zondlash texnologiyalarini keng joriy etish qishloq xo‘jaligini barqaror rivojlantirishga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Choudhary K., Shi W., Boori M.S., Corgne S. Agriculture Phenology Monitoring Using NDVI Time Series Based on Remote Sensing Satellites // Optical Memory and Neural Networks, 2019.
2. Huang S., Tang L., Hupy J.P. et al. A commentary review on the use of NDVI in remote sensing // Journal of Forestry Research, 2021.
3. Bhatti M.T., Gilani H., Ashraf M. et al. Field validation of NDVI to identify crop phenological signatures // Precision Agriculture, 2024.
4. Vadrevu K.P., Dadhwal V.K., Gutman G., Justice C. Remote sensing of agriculture: research trends // International Journal of Remote Sensing, 2019.
5. Wang H., Liu X., Zhang X. Spatiotemporal crop NDVI responses to climatic factors // International Journal of Remote Sensing, 2019.
6. Jena J., Misra S.R., Tripathi K. NDVI and its role in agriculture // Indian Agricultural Research Institute, 2019.
7. Farzaliyev E. Classification of lands using NDVI in smart agriculture // ISPRS Archives, 2021.
8. Pargaien S., Prakash R., Dubey V.P. et al. Crop cover identification using vegetation indices and machine learning // Environmental Research and Technology, 2024.
9. An examination of trends in remote sensing for conservation agriculture // International Soil and Water Conservation Research, 2024.
10. Judith J., Tamilselvi R., Lakshmi S.P. et al. Remote sensing based crop health classification using NDVI and neural networks, 2025.

YER DEGRADATSIYASINI ANIQLASH VA MONITORING QILISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR IMKONIYATLARI

Aliqulov G'olib Nortoshevich, Mirzayev Jonibek Oltiyevich
Qarshi davlat texnika universiteti

Annotatsiya: Ushbu maqolada yer degradatsiyasini aniqlash va monitoring qilishda zamonaviy raqamli texnologiyalarning o‘rni va ahamiyati yoritilgan. Jumladan, masofaviy zondlash, GIS (Geografik axborot tizimlari), sun’iy yo‘ldosh tasvirlari hamda uchuvchisiz uchish apparatlaridan foydalanish imkoniyatlari tahlil qilingan. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, raqamli texnologiyalar yer degradatsiyasini erta aniqlash, uning dinamikasini kuzatish va samarali boshqaruv qarorlarini qabul qilishda muhim vosita hisoblanadi.

Аннотасия: В статье освещается роль и значение современных цифровых технологий в выявлении и мониторинге деградации земель. В частности, были проанализированы возможности использования дистанционного зондирования, ГИС (географических информационных систем), спутниковых снимков и беспилотных летательных аппаратов. Согласно результатам исследования, цифровые технологии являются важным инструментом для раннего обнаружения деградации земель, мониторинга ее динамики и принятия эффективных управленческих решений.

Abstract: The article highlights the role and importance of modern digital technologies in detecting and monitoring land degradation. In particular, the possibilities of using remote sensing, GIS (geographic information systems), satellite imagery and unmanned aerial vehicles were analyzed. According to the results of the study, digital technologies are an important tool for early detection of land degradation, monitoring its dynamics and making effective management decisions.

Kalit so‘zlar: yer degradatsiyasi, masofaviy zondlash, GIS, raqamli texnologiyalar, monitoring, NDVI, tuproq eroziyasi, sun’iy yo‘ldosh tasvirlari.

Ключевие слова: деградация земель, дистанционное зондирование, ГИС, цифровые технологии, мониторинг, NDVI, эрозия почвы, спутниковые снимки.

Keywords: land degradation, remote sensing, GIS, digital technologies, monitoring, NDVI, soil erosion, satellite imagery.

KIRISH. Yer degradatsiyasi — bu tuproq unumdorligining pasayishi, eroziya, sho‘rlanish va boshqa tabiiy hamda antropogen jarayonlar natijasida yer resurslarining zarar ko‘rishi hodisasi hisoblanadi. So‘nggi yillarda aholi sonining ortishi va intensiv qishloq xo‘jaligi yer resurslariga bosimni kuchaytirdi. Bu esa ekologik barqarorlik va oziq-ovqat xavfsizligiga tahdid tug‘dirmoqda.

Raqamli texnologiyalar, xususan, masofaviy zondlash va GIS tizimlari, yer degradatsiyasini aniqlash va monitoring qilishda samarali vosita sifatida keng qo‘llanilmoqda. Ular yordamida yer holatini tezkor va aniq baholash, degradatsiya zonalarini xaritalash va o‘z vaqtida choralar ko‘rish mumkin. Shu bilan birga, sun’iy yo‘ldosh tasvirlari va dronlar ma’lumotlari yerning ekologik holatini monitoring qilishni soddalashtiradi.

Mazkur maqola raqamli texnologiyalar imkoniyatlarini o‘rganish, ularning yer degradatsiyasini aniqlash va monitoring qilishdagi samaradorligini tahlil qilishga bag‘ishlanadi.

METODLAR. Tadqiqotda yer degradatsiyasini aniqlash va monitoring qilishda raqamli texnologiyalar va GIS tizimlaridan foydalanildi. Sun’iy yo‘ldosh tasvirlari yordamida yer yuzasining spektral indekslari, xususan NDVI va SAVI hisoblandi. Tuproq eroziya darajasi, sho‘rlanish va o‘g‘itsizlik zonalari masofadan turib aniqlash uchun spektral tahlil usullari qo‘llanildi. Dronlar yordamida yuqori aniqlikdagi vizual kuzatuvlar olib borildi va degradatsiya hududlari xaritalashtirildi. Raqamli ma’lumotlar GIS muhitida qayta ishlanib, vaqt bo‘yicha degradatsiya o‘zgarishlari tahlil qilindi. Natijalar asosida yer resurslarini samarali boshqarish va tiklash bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqildi.

NATIJALAR. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, raqamli texnologiyalar yordamida yer degradatsiyasining turli turlari aniqlanishi va xaritalashtirilishi mumkin. Sun’iy yo‘ldosh tasvirlari va spektral indekslar yordamida eroziya, sho‘rlanish va o‘g‘itsizlik hududlari aniqlanib, degradatsiya zonalari vizual tarzda ko‘rsatildi. Dronlar yordamida olingan yuqori aniqlikdagi tasvirlar degradatsiya jarayonlarini erta bosqichda aniqlash imkonini berdi. GIS tahlillari orqali vaqt bo‘yicha degradatsiya darajasidagi o‘zgarishlar kuzatildi. Natijalar shuni ko‘rsatdiki, raqamli texnologiyalar yer monitoringini tezkor va samarali amalga oshirish imkonini yaratadi. Shu bilan birga, bu hududlarda ekologik tiklash va yer resurslarini boshqarish bo‘yicha aniq tavsiyalar ishlab chiqish mumkin. Umuman olganda, raqamli vositalar yer degradatsiyasini aniqlash va monitoring qilishda samaradorlikni sezilarli darajada oshirdi.

MUHOKAMA. Olingan natijalar shuni ko‘rsatadiki, raqamli texnologiyalar yer degradatsiyasini aniqlash va monitoring qilishda samarali vosita hisoblanadi. Sun’iy yo‘ldosh tasvirlari va dronlar yordamida degradatsiya zonalarini aniq va tezkor aniqlash mumkin. Bu esa tuproq eroziyasi, sho‘rlanish va o‘g‘itsizlik kabi muammolarni erta bosqichda aniqlash imkonini beradi. GIS tahlillari orqali hududlar bo‘yicha degradatsiya jarayonlarini vaqt bo‘yicha kuzatish va

ularni boshqarish strategiyasini ishlab chiqish osonlashadi. Shu bilan birga, yuqori aniqlikdagi ma’lumotlarni olish va qayta ishlash uchun zamonaviy texnika va malakali mutaxassislar talab etiladi. Ayrim hududlarda texnologiyalarni joriy etish iqtisodiy jihatdan cheklanishi mumkin. Biroq, kelajakda raqamli texnologiyalarni keng qo‘llash qishloq xo‘jaligi va ekologik barqarorlikni yaxshilashga xizmat qiladi.

XULOSA. Xulosa qilib aytganda, raqamli texnologiyalar yer degradatsiyasini aniqlash va monitoring qilishda samarali vosita hisoblanadi. Sun’iy yo‘ldosh tasvirlari, dronlar va GIS tizimlari yordamida degradatsiya zonalari tezkor va aniq aniqlanadi. Bu usullar tuproq eroziyasi, sho‘rlanish va o‘g‘itsizlik kabi muammolarni erta bosqichda aniqlash imkonini beradi. Raqamli ma’lumotlar asosida hududlarni xaritalash va vaqt bo‘yicha degradatsiya o‘zgarishlarini kuzatish mumkin. Shu bilan birga, yer resurslarini tiklash va boshqarish bo‘yicha aniq tavsiyalar ishlab chiqish imkoniyati yaratiladi. Kelajakda raqamli texnologiyalarni keng joriy etish qishloq xo‘jaligi va ekologik barqarorlikni oshirishga xizmat qiladi. Umuman olganda, raqamli texnologiyalar yer monitoringini samarali va raqamli asosda tashkil etish imkonini beradi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Wang J., Yang J., Li Z., et al. Research on Soil Erosion Based on Remote Sensing Technology: A Review. Agriculture, 2025. (Raqamli texnologiyalar yordamida tuproq eroziyasi monitoringi haqida sharh)
2. O. Nait-Taleb, et al. Monitoring soil degradation using Sentinel-2 imagery and spectral indices. Frontiers in Soil Science, 2025. (Sentinel-2 ma’lumotlaridan degradatsiya monitoringi)
3. Mukhayyo Shakar qizi Ochilova, Firuz Saidjonovich Hazratov. O‘zbekiston qishloq xo‘jaligi yerlarining monitoringi: ilmiy yangiliklar, muammolar va yechimlar, 2025. (O‘zbekiston sharoitida yer monitoringi bo‘yicha tadqiqot)
4. Temurbek Akmal o‘g‘li Toshtemirov. Innovative approaches of GIS technologies in monitoring the condition of agricultural lands, 2026. (GIS texnologiyalarining yer monitoringidagi innovatsiyalari)
5. M.Sh. Ahmedova, N.Sh. Umarov. Integrated monitoring and assessment of land degradation using GIS and remote sensing in Samarkand region, Uzbekistan, 2025. (GIS va RS yordamida yer degradatsiyasini baholash)
6. Sevaraxon Baxtiyorjon qizi No’monova. Masofadan zondlash asosida yer resurslarini monitoring qilish, 2025. (Masofaviy zondlash asosida yer monitoringi haqida maqola)
7. Bahrom Majid o‘g‘li Lapasov. Dron texnologiyalari yordamida yer uchastkalarini raqamlashtirish va monitoring qilish, 2025. (Dronlar bilan degradatsiyani tahlil qilish)
8. Xalimova M.X. Agrar sohada yer degradatsiyasini bartaraf etishga qaratilgan innovatsion texnologiyalarning iqtisodiy samaradorligi, Tadqiqotlar, 2026. (Degradatsiya qarshi texnologiyalar va iqtisodiy samaradorlik)

УДК 631.356.4

KARTOSHKA EKININI QO‘L MEHNATI ORQALI EKISHDAN MEXANIZATSIYALASHGAN EKISHGA O‘TISHNING IQTISODIY VA AMALIY AHAMIYATI

V.U.Normo‘minova
Qarshi davlat texnika universiteti talabasi

Annotatsiya: Mazkur ilmiy maqolada Shaxrisabz tumanining takroriy ekin sifatida kartoshka yetishtirish bo‘yicha olib borilgan tadqiqot natijalari yoritilgan. Tadqiqot doirasida amaliy kuzatuvlar asosida qishloq xo‘jaligida mehnat unumdorligini oshirish, ishlab chiqarish jarayonlarini optimallashtirish, hosildorlikni barqaror ta’minlashda muhim ahamiyatga ega. Qo‘lda ekish katta mehnat talab qiladi, vaqt sarfi ko‘p bo‘lib, urug‘larning chuqurligi va qator oralig‘i bir xil bo‘lmasligi natijasida hosil sifati pasayishi mumkin. Mexanizatsiyalashgan ekish texnologiyalari esa ekish jarayonini tez bir xil chuqurlikda va aniq masofalarda bajaradi, urug‘ sarfini kamaytiradi, dala ishlarining muddatlarda bajarilishini ta’minlaydi. Natijada hosildorlik 10 % gacha ortadi, mehnat xarajatlari 20 % ga kamayadi, ishlab chiqarish samaradorligi va iqtisodiy foyda 30 % gacha ortadi. Shunda mexanizatsiyalashgan ekishga o‘tish zamonaviy kartoshkachilikka yuqori sifatli va yaxshi hosil yetishtirishning asosi hisoblanadi.

Kalit so‘zlar: *kartoshka, takroriy ekin, mexanizatsiyalashgan ekish, qo‘lda ekish, agrotexnologiyalar, vegitatsiya hosildorlik, iqtisodiy foyda, tejamkor texnologiya*

Kirish: Hozirgi davrgacha O‘zbekistonda kartoshka asosan qo‘lda ekib yetishtirilardi hozirgi vaqtda mexanizatsiyalashgan ekishga o’tib ekish mashinasi orqali ekilmoqda. Mamlakatimiz oldida turgan ustuvor vazifalar respublikamizda kartoshka ekinlari maydonlarini kengaytirish va hosildorligini oshirish kartoshka mahsulotlari bilan aholini ta’minlash va sifatini yaxshilash kartoshkaning yangi navlarini yaratish, qayta ishlashni keng yo‘lga qo‘yish va mamlakat eksport salohiyatini oshirish. Hozirgi kunda aholi ko‘payishi iqtisodiyotning turli tarmoqlarida ya’ni qishloq xo‘jalik sohasida oziq- ovqat mahsulotlariga bo‘lgan talab ortib borishi sabab bo’lmoqda. Aholini qishloq xo‘jaligi mahsulotlari bilan ta’minlash, bunda qo‘lda ekish metodlari katta mehnat talab qiladi, vaqt sarfi ko‘p bo‘ladi va hosil sifati urug‘larning bir xilda ekilishi, qator oralig‘ining tartibsizligi sabab pasayishi mumkin. Shu sababli, qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishida mexanizatsiyalashgan ekish texnologiyalariga o‘tishning ahamiyati ortib bormoqda. Mexanizatsiyalashgan ekish nafaqat mehnat xarajatlarini kamaytiradi, balki hosildorlikni oshirish, urug‘ sarfini optimallashtirish va ishlab chiqarish samaradorligini yaxshilaydi.

1-jadval

Ko‘rsatgich	Qo‘lda ekish	Mexanizatsiyalashgan ekish
1 gektarni ekish	3-4 kunda	1-2 soatda
Ishchi kuchi	15-20 nafar	1-2 nafar
Sarflangan energiya	Yuqori	Past

Tajribalar Shaxrisabz tumani hududidagi fermer xo’jalik maydonida olib borildi Tadqiqotda qo‘lda amalga oshiriladigan ekish jarayonidan mexanizatsiyalashgan ekishga o‘tish, ekish bosqichini optimallashtiradi. Mexanizatsiyalashgan ekishdan so‘ng qator oralariga ishlov berish, begona o‘tlarni yo‘qotish, yumshatish va o‘g‘itlash kabi jarayonlar maxsus texnika yordamida bajarilishi agrotexnologik tizimni to‘liq mexanizatsiyalash imkonini beradi. Natijada, dala ishlarining uzluksizligi ta’minlanadi, mehnat sarfi kamayadi, o‘simliklarning o‘sishiga qulaylik yaratiladi hamda hosildorlik yuqori bo‘ladi. Qator oralari texnika bilan ishlov berilganda tuproqning havodorligi oshadi, namlik saqlanishi yaxshilanadi va kasalliklarga qarshi kurash samaradorligi ortadi. Bu esa mexanizatsiyalashgan ekishning amaliy va iqtisodiy ahamiyatini yanada kuchaytirdi.

Nazariy tadqiqotlarni o‘tkazish jarayonida nazariy mexanika, dehqonchilik mexanikasi, qonun

va qoidalari, hamda mavjud meyoriy hujjatlarda berilgan usullardan foydalanildi. Mashinaning qamrov kengligi 2800 mm bo‘lib, qator oralari 700 mm bo‘lgan to‘rt qator pushtalar hosil qiladi. Agregat bir o‘tishda to‘rtta pushta va egat shakllantirib, bunda uchta egat to‘liq va ikkinchi egatda ikkita yarim egat shakllantiradi. Yarim egatlar agregatning keyingi o‘tishlarida to‘liq shakllangan ko‘rinishga ega bo‘ladi. Kartoshkalarni bunker,va o‘tkir burchakli ochgich va diskli tuproq ko‘mgich orqali ekadi, tuproqni yopadi va ekilgan qatorlarni silliqlaydi.

1-rasm



1-bunker; 2-disksimon miqdorlash apparati; 3-urug‘ o‘tkazgich; 4-ostgich; 5-o‘tkir burchakli ochgich; 6-diskli tuproq ko‘mgich 7- tayanch g‘ildirak; 8-zanjir uzatma; 9-reduktor; 10-rama;

Xulosa: Shaxrisabiz tumani sharoitida olib borilgan dala tajribalari kartoshka yetishtirishdagi samaradorligi yuqori ekani isbotlandi. Mexanizatsiyalashgan ekishda kartoshkani yangi texnologiya bo‘yicha ekish chuqurligi texnologiyasi va uni amalga oshiradigan mashinaning asosiy ishchi organi hisoblangan taqsimlash apparati, urug‘ o‘tkazgich, tuproq ochgich, tuproq ko‘mgich nazariy asoslandi va olingan natijalar kelgusida boshqa poliz ekin turida ham keng qo‘llanilishi ochib berildi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Qishloq xo‘jalik mashinalari Darslik.-T.:«Voris- nashiryot»,2019.-631b

2. Avtomobil va qishloq xo‘jalik mashinalari ilmiy jurnali, ISSN 2181-158X, (6), 2023

3. Polizchilik va kartoshkachilikni mexanizatsiyalashtirish D.SH Chuyanov, S.J Toshtemirov Qarshi : «INTELLEKT »Nashiryoti 2022

4. Sabzavot, poliz va kartoshka ekinlarida tajribalar o'tkazish uslubi uslubiy qo'llanma. — Toshkent: Baktria press, 2023. — 264 b.

UDK631.356.4.02

ENERGIYA-RESURSTEJAMKOR SEKSIYALI KARTOSHKA QAZISH LEMEXINI PARAMETRLARINI ASOSLASH

Rustamova Nigora Rustamovna, Sultonova Zarnigor
Qarshi davlat texnika universiteti

Annotatsiya. Ushbu maqolada energiya-resurstejamkor seksiyali kartoshka qazish lemexining konstruktiv va texnologik parametrlarini ilmiy jihatdan asoslash masalalari ko‘rib chiqilgan. Tuproq-o‘simlik muhiti bilan o‘zaro ta’sir jarayonlari tahlil qilinib, lemexning ishchi kengligi, uzunligi, qiyalik burchagi, egilish radiusi hamda seksiyalar sonining qazish sifati va energiya sarfiga ta’siri aniqlangan. Nazariy hisob-kitoblar va eksperimental tadqiqotlar asosida tuproq qarshiligini kamaytirish, ildizmevalarning shikastlanishini minimallashtirish va agregatning tortish kuchini pasaytirish imkonini beruvchi optimal parametrlar tavsiya etilgan. Tadqiqot natijalari

kartoshka yetishtirishda resurs tejamkor texnologiyalarni joriy etish va qishloq xo‘jaligi mashinalarining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: *energiya-resurstejamkorlik, seksiyali lemex, kartoshka qazish agregati, ishchi organ parametrlari, tortish qarshiligi, tuproq-o‘simlik muhiti, ildizmevalar shikastlanishi, qazish sifati, optimallashtirish.*

Аннотация. В статье рассмотрены вопросы научного обоснования конструктивных и технологических параметров энергоресурсосберегающего секционного лемеха картофелеуборочной машины. Проанализированы процессы взаимодействия рабочего органа



с почвенно-растительной средой, определено влияние ширины захвата, длины, угла установки, радиуса кривизны и количества секций на тяговое сопротивление, качество выкапывания и повреждаемость клубней. На основе теоретических расчетов и экспериментальных исследований предложены оптимальные параметры, обеспечивающие снижение энергозатрат, уменьшение повреждений клубней и повышение эффективности технологического процесса. Полученные результаты могут быть использованы при проектировании и совершенствовании картофелеуборочных машин.

Ключевые слова. *Энергоресурсосбережение, секционный лемех, картофелеуборочная машина, параметры рабочего органа, тяговое сопротивление, почвенно-растительная среда, повреждаемость клубней, качество выкапывания, оптимизация*.

Abstract. This paper presents a scientific substantiation of the design and technological parameters of an energy- and resource-efficient sectional share for a potato digging machine. The interaction processes between the working body and the soil-plant medium were analyzed, and the influence of working width, length, inclination angle, curvature radius, and number of sections on draft resistance, digging quality, and tuber damage was determined. Based on theoretical calculations and experimental studies, optimal parameters were proposed to reduce energy consumption, minimize tuber damage, and improve the efficiency of the harvesting process. The obtained results can be applied in the design and modernization of potato harvesting machinery.

Keywords. *energy and resource efficiency, sectional share, potato digging machine, working body parameters, draft resistance, soil-plant interaction, tuber damage, digging quality, optimization.*

Kirish. Kartoshka yig‘ishtirish mashinalarida qazish lemexlarini takomillashtirish energiya-resurstejamkorlikni ta’minlash yo‘llaridan biri hisoblanadi.

Biz tomonimizdan taklif etilayotgan energiya-resurstejamkor kartoshka kovlagichning qazish lemexlarini takomillashtirishda, kartoshka pushtasining fizik-mexanik xossalari hisobga olingan bo‘lib, bunda lemexlarning o‘lchamlari kartoshka pushtasining kerakli bo‘lgan qismini qazib olishga mo‘ljallangan va unga mos ravishda ixchamlashtirilgan.

Material va metodlar. Kartoshka kovlagich mashinasi lemexining egat tubiga nisbatan o‘rnatilish, ya’ni tuproqqa kirish burchagi α, lemex tumshuq qismining ochilish burchagi γ hamda uzunligi L_l va eni V_l lar uning asosiy parametrlari hisoblanadi (1-rasm).

a) – asosiy lemex; b) – oraliq lemex

1-rasm. Energiya-resurstejamkor seksiyali lemexning sxemasi

Kartoshkani kovlash jarayonida lemexning egat tubiga o‘rnatilish burchagi 24^0 dan, uzunligi

esa 475 mm dan oshmasligi lozim.

Yuqoridagi keltirilganlarga asoslanib hamda kartoshka pushtasining fizik mexanik xossalarini hisobga olgan holda, biz taklif etilayotgan lemexning eni hamda uzunligini asoslashimiz mumkin.

Kartoshka kovlagichning lemexning eni unga o‘rnatilgan tayanch-kesak maydalagich enidan kelib chiqqan holda tanlanadi.

Tayanch-kesak maydalovchi qurilma eni quyidagi ifoda orqali aniqlanadi,

$$B \geq b_{cp} + 3\sigma + 2c + t, \qquad (1)$$

bu yerda b_{cp} – kartoshka uyasining o‘rtacha qiymati;

σ – kartoshka uyasining o‘rtacha kvadratik og‘ishi;
s – mashinaning gorizontal yon tomonga og‘ishi;
t – diskning qalinligi.

Natijalar va ularning tahlili. Yuqoridagi (1) formula bo‘yicha $B \geq 42\,sm$ sharti kelib chiqadi. Bunga asoslanib olib borilgan eksperimental tadqiqotlarimizga ko‘ra, tayanch-kesak maydalovchi qurilmaning enini V=45 sm qilib tanlab olganmiz va shunga binoan

$$B_л \leq B \qquad (2)$$

yoki

$$B_л \leq b_{cp} + 3\sigma + 2c + t, \qquad (3)$$

natijaga ega bo‘lamiz.

Olib borilgan adabiyotlar taxliliga ko‘ra, lemex tumshuq qismining ochilish burchagi qiymati quyidagi shart orqali topiladi

$$\gamma \langle 2(90 - \varphi), \qquad (4)$$

bunda φ – o‘simlik ildizlarining lemex tig‘iga nisbatan ishqalanish burchagi φ ning qiymati $40\text{-}50^0$ ga teng.

(4) formulaga binoan, lemex tumshug‘ining ochilish burchagining o‘rtacha qiymatini 90° deb qabul qilib olishimiz mumkin.

Yuqoridagi (2) va (4) formuladagi lemex tumshug‘ining ochilish burchagi qiymatini 90° ekanligini hisobga olib (1-rasm), lemex tumshuq qismini teng yonli to‘g‘ri burchakli uchburchak deb bilgan holda, lemexning uzunligini asoslashda quyidagi shartni keltirishimiz mumkin

$$L_л \geq B_л. \qquad (5)$$

(2) va (5) dagi ifodalarga ma’lum bo‘lgan qiymatlarini qo‘yib L_l =45sm va uning eni V_l=45 sm ekanligi kelib chiqadi.

Xulosa. Mazkur ilmiy tadqiqot natijalari energiya-resurstejamkor seksiyali kartoshka qazish lemexining parametrlarini asoslash orqali qishloq xo‘jaligi texnikalarining samaradorligini oshirish imkonini ko‘rsatdi. Optimal konstruktiv burchaklar, kesim shakli va seksiyalash darajasi aniqlanishi natijasida qazish jarayonida energiya sarfi kamayadi, hosilning sifatli ajratilishi ta’minlanadi hamda tuproqning fizik-mexanik xususiyatlariga moslashuv kuchayadi. Ushbu yondashuv nafaqat ishlab chiqarish xarajatlarini qisqartirish, balki zamonaviy agrotexnika vositalarini modernizatsiya qilishda ham muhim amaliy ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Петров Г.Д. Картофелеуборочные машины. М.: “Машиностроение”, 1984, 320 б.

2. Norchayev R., Norchayev D.R., Norchayev J.R. Kartoshkachilik mashinalarining

konstruktsiyasi, nazariyasi va hisobi. – T. Spestrum Media Group. 2015. – 220 b.

3. Павлов В.А. Повышение эффективности функционирования картофелеуборочных машин за счет совершенствования системи выносной сепарации: Дис. канд. … техн. наук. – Рязань, 2014. – 153 с.

UDK 631.3:629.735.33

DRONLAR YORDAMIDA EKINLARGA ISHLOV BERISH ORQALI RESURSLARNI TEJASH VA ISH UNUMDORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI

N.K.Mamatkulov, A.S.Turkmanov
Jamoat xavfsizligi universiteti

Annotatsiya: Ushbu maqolada global iqlim o'zgarishi va suv resurslari taqchilligi sharoitida qishloq xo'jaligida uchuvchisiz uchish apparatlari (dronlar)ni qo'llashning istiqbollari tadqiq etilgan. Tadqiqot davomida an'anaviy mexanik ishlov berish usullarining salbiy oqibatlari, xususan, tuproqning texnogen zichlanishi va resurslarning samarasiz sarfi tahlil qilingan. *DJI Agras T30* droni misolida o'tkazilgan tajribalar g'o'za maydonlarida suv va pestitsidlar sarfini 90% gacha qisqartirish, shu bilan birga ish unumdorligini sezilarli darajada oshirish imkoniyatini ko'rsatdi. Olingan natijalar qishloq xo'jaligini raqamlashtirish va "Smart" texnologiyalarni joriy etishning iqtisodiy-ekologik samaradorligini asoslab beradi.

Kalit so'zlar: *dron texnologiyalari, qishloq xo'jaligi, resurs tejamkorligi, aniq purkash, iqlim o'zgarishi, suv tanqisligi, unumdorlik oshirish, smart texnologiyalar, ekologik barqarorlik, innovatsion yechimlar.*

Аннотация: В данной статье исследуются перспективы применения беспилотных летательных аппаратов (дронов) в сельском хозяйстве в условиях глобального изменения климата и дефицита водных ресурсов. В ходе исследования проанализированы негативные последствия традиционных методов механической обработки, в частности, техногенное уплотнение почвы и неэффективный расход ресурсов. Эксперименты, проведенные на примере дрона *DJI Agras T30*, показали возможность сокращения расхода воды и пестицидов на хлопковых полях до 90% при значительном повышении производительности труда. Полученные результаты обосновывают экономическую и экологическую эффективность цифровизации сельского хозяйства и внедрения "Smart" технологий.

Ключевые слова: *технологии дронов, сельское хозяйство, ресурсосбережение, точное опрыскивание, изменение климата, дефицит воды, повышение продуктивности, смарт-технологии, экологическая устойчивость, инновационные решения.*

Abstract: This article explores the prospects of using unmanned aerial vehicles (drones) in agriculture under the conditions of global climate change and water resource scarcity. The study analyzes the negative consequences of traditional mechanical processing methods, specifically technogenic soil compaction and inefficient resource consumption. Experiments conducted using the *DJI Agras T30* drone demonstrated the potential to reduce water and pesticide consumption in cotton fields by up to 90% while significantly increasing labor productivity. The results justify the economic and environmental efficiency of digitalizing agriculture and implementing "Smart" technologies.

Keywords: *drone technologies, agriculture, resource saving, precise spraying, climate change, water scarcity, productivity increase, smart technologies, ecological sustainability, innovative solutions.*

Kirish. Global iqlim o'zgarishi va chuchuk suv resurslarining keskin kamayishi sharoitida agrar sektorni barqaror rivojlantirish resurslarni intellektual boshqarishni talab etmoqda. An'anaviy agrotexnik tadbirlarda, xususan, traktorlar yoki qo'l mehnati yordamida ekinlarga ishlov berishda qator tizimli muammolar kuzatilmoqda. Bularga tuproqning texnogen zichlanishi, kimyoviy preparatlar va suvning me'yordan ortiq sarflanishi hamda texnika harakati natijasida o'simliklarning mexanik zararlanishi kiradi. Jahon banki ma'lumotlariga ko'ra, qishloq xo'jaligida ishlatiladigan suv resurslarining 70% dan ortig'i samarasiz sarf qilinmoqda, bu esa global suv tanqisligi inqirozini yanada chuqurlashtirmoqda [1].

So’nggi yillarda mamlakatimizda, ayniqsa Amudaryo va Sirdaryo havzalarida suv sathining pasayishi va vegetatsiya davridagi qurg’oqchilik oqibatida ekinlar unumdorligi o’rtacha 20-30% ga pasayishi kuzatildi [2]. Bunday kritik sharoitda qishloq xo’jaligini raqamlashtirish va “Smart” texnologiyalarni, jumladan, uchuvchisiz uchish apparatlarini (UUA -dronlar) ishlab chiqarishga joriy etish strategik ahamiyatga ega. Zamonaviy dronlar Global pozitsiyalash tizimi (GPS), narsalar interneti (IoT) va sun’iy intellekt algoritmlari asosida ishlov beriladigan maydonning har bir nuqtasiga aniq purkash imkonini beradi. Tadqiqotlar shuni ko’rsatadiki, dronlar yordamida resurslarni 80-90% gacha tejash va atrof-muhitga tushadigan kimyoviy yuklamani kamaytirish mumkin [3].

Material va metodlar. Tadqiqot ishida asosiy texnik vosita sifatida zamonaviy *DJI Agras T30* rusumli agrosanoat droni tanlab olindi. Ushbu uchuvchisiz apparatning texnik imkoniyatlari yuqori aniqlikdagi operatsiyalarni bajarishga moslashtirilgan bo’lib, uning purkash tezligi 8 m/s, ishchi tank sig’imi 30 litrni tashkil etadi. Tizimning RTK-moduli orqali ta’minlanadigan GPS aniqligi 1 sm gacha yetadi, bu esa takroriy purkash yoki o’tkazib yuborilgan hududlar xavfini bartaraf etadi. Qurilma bir batareya zaryadida 15-20 daqiqa parvoz qilib, o’rtacha 10-15 gektar maydonni samarali qamrab olish imkoniyatiga ega [4].

Tadqiqot metodikasi qiyosiy tahlil usuliga asoslangan bo’lib, unda dron yordamida purkash texnologiyasi an’anaviy mexanik usul (MTZ-80 traktori va unga o’rnatilgan purkagich agregati) bilan o’zaro solishtirildi. Tajribalar davomida quyidagi asosiy ko’rsatkichlar nazorat qilindi:

- Soloviy suv sarfi (l/ga);
- Preparat konsentratsiyasi va samaradorligi (g/ga);
- Vaqt sarfi (soat/ga) va ish unumdorligi;
- Energiya va yoqilg’i-moylash materiallari xarajatlari.

Tadqiqotlar 2024-2025 yillarning vegetatsiya davrlarida o’tkazilib, natijalarning ishonchliligini ta’minlash maqsadida har bir variantda 10 tadan takroriy tajribalar amalga oshirildi. Olingan birlamchi ma’lumotlar *SPSS* (Statistical package for the social sciences) dasturi yordamida variatsion-statistik tahlil qilindi. Dron yordamida ishlov berish jarayonida *NDVI* (Normalizatsiyalangan vegetatsiya indeksi) sensorlari ma’lumotlariga tayanildi, bu esa preparatlarni butun maydonga emas, balki faqat kasallangan yoki oziqlantirishga muhtoj bo’lgan lokal nuqtalarga differensial purkash imkonini berdi [5].

Natijalar va ularning tahlili. O’tkazilgan dala tajribalari va statistik tahlillar shuni ko’rsatdiki, uchuvchisiz uchish apparatlarini (UUA) qo’llash an’anaviy texnik vositalarga nisbatan resurs tejamkorligi va ish samaradorligi bo’yicha mutlaq ustunlikka ega. Tadqiqot davomida qayd etilgan suv sarfi ko’rsatkichlari 1-jadvalda umumlashtirilgan.

1-jadval. Suv sarfining qiyosiy tahlili (l/ga), 2024-2025 yillar.

Tadqiqot yili	An’anaviy usul (MTZ-80)	Dron usuli (DJI agras T30)	Tejamkorlik samarasi (%)
2024 yil	250	25	90,0
2025 yil	280	20	92,8
O’rtacha	265	22,5	91,5

Manba: Muallif tadqiqotlari asosida shakllantirilgan [6].

Jadval ma’lumotlaridan ko’rinib turibdiki, dron yordamida ishlov berishda suv sarfi o’rtacha *91,5%* ga qisqargan. Ushbu ko’rsatkich xalqaro tadqiqotlar natijalari bilan hamohangdir; masalan, Xitoy agrar sektorida dronlarni joriy etish orqali suv tejamkorligi 80-90% oralig’ida qayd etilgan [7]. Bunday yuqori samaradorlikning asosiy sababi dronlardagi *Ultra low volume (ULV)* - ultra past hajmli purkash texnologiyasidir. Bunda purkalayotgan ishchi eritma tomchilari 50-100 mikron o’lchamda maydalanadi, natijada preparatning o’simlik bargi yuzasiga yopishish qobiliyati ortadi va bug’lanish hamda shamol orqali isrof bo’lish darajasi minimallashadi.

Kimyoviy preparatlar sarfi bo’yicha ham sezilarli farq aniqlandi: an’anaviy usulda 1 gektar maydon uchun 5-7 kg pestitsid sarflangan bo’lsa, dron texnologiyasi orqali bu ko’rsatkich 1-2 kg oralig’ida saqlandi (tejamkorlik *70-80%)* [8]. Bu nafaqat fermer xo’jaliklarining xarajatlarini kamaytiradi, balki ekologik barqarorlikni ta’minlashda ham strategik ahamiyatga ega. O’zbekistonning Orolbo’yi mintaqasidagi murakkab ekologik holat va yer osti suvlarining

ifloslanishi fonida bunday “smart” yondashuv tuproq unumdorligini saqlash va bioxilma-xillikni himoya qilishning samarali instrumenti bo’lib xizmat qiladi [9].



Vaqt va ish unumdorligi tahlili shuni ko’rsatdiki, uchuvchisiz uchish apparatlari operatsion samaradorlik bo’yicha an’anaviy texnikadan bir necha barobar ustun turadi. Tajriba davomida qayd etilgan unumdorlik ko’rsatkichlari 2-jadvalda aks ettirilgan.

2-jadval. Ish unumdorligining qiyosiy tahlili (ga/soat), 2024-2025 yillar.

Tadqiqot yili	An’anaviy usul (MTZ-80)	Dron usuli (DJI Agras T30)	Oshish koeffitsienti (barobar)
2024 yil	**2,0**	**12,0**	**6,0**
2025 yil	**1,8**	**14,0**	**7,8**
O’rtacha	**1,9**	**13,0**	**6,8**

Manba: Muallif tadqiqotlari asosida shakllantirilgan [10].



Tadqiqot natijalariga ko’ra, dron yordamida ishlov berish tezligi an’anaviy usuldan o’rtacha *6,8 barobar* yuqori bo’ldi. Bunday samaradorlikka sun’iy intellekt (AI) va narsalar interneti (IoT) integratsiyasi hisobiga, parvoz marshrutini avtomatik optimallashtirish va to’siqlarni intellektual chetlab o’tish tizimlari orqali erishildi [11].

Iqtisodiy samaradorlik nuqtai nazaridan yoqilg’i-moylash materiallari xarajatlari *50%* ga, ishchi kuchi sarfi esa *70%* ga qisqargani kuzatildi. Masalan, 50 gektar maydonni qayta ishlash uchun an’anaviy usulda 500 ming so’m yoqilg’i sarflangan bo’lsa, dron texnologiyasi bu xarajatni 100 ming so’mgacha (elektr energiyasi xarajatlarini hisobga olgan holda) kamaytirish imkonini berdi [12].

Ishlov berish aniqligi bo’yicha dronlar GPS navigatsiyasi yordamida faqat nishonli hududlarga dori sepish orqali atrof-muhitga bo’ladigan kimyoviy bosimni *60%* ga kamaytirdi [13]. NDVI indekslari yordamida amalga oshirilgan monitoring ekinlardagi kasallik o’choqlarini erta bosqichda aniqlash va lokal yo’qotish imkonini berdi, bu esa yakuniy hosildorlikning *15-20%* ga oshishiga zamin yaratdi [14]. Ta’kidlash joizki, ushbu ko’rsatkichlar global tendensiyalarga mos keladi, masalan, AQSh agrar sektorida dronlar yordamida hosildorlik o’rtacha 25% ga oshgani qayd etilgan [15].

Shu bilan birga, tadqiqot natijalari dronlar nafaqat resurslarni tejash, balki ekologik barqarorlik va iqtisodiy rentabellikni ta’minlovchi drayver ekanligini isbotlaydi. Biroq, O’zbekiston

sharoitida ushbu texnologiyalarni keng ko'lamda joriy etish uchun tegishli infratuzilmani rivojlantirish va soha mutaxassislarini tayyorlash masalalari dolzarb bo'lib qolmoqda .

Xulosa. O'tkazilgan tadqiqotlar va olingan natijalar asosida quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Qishloq xo'jaligida dron texnologiyalarini qo'llash an'anaviy usullarga nisbatan suv sarfini *90-95%* ga, kimyoviy preparatlar sarfini esa *70-80%* ga qisqartirish imkonini beradi. Bu global iqlim o'zgarishi va suv tanqisligi sharoitida agrar sektor barqarorligini ta'minlashning eng samarali yo'lidir.

2. Dronlar yordamida ekinlarga ishlov berish tezligi mexanizatsiyalashgan usuldan *6,8 barobar* yuqori bo'lib, bu agrotexnik tadbirlarni qisqa muddatlarda sifatli yakunlash va operatsion xarajatlarni (yoqilg'i, ishchi kuchi) sezilarli darajada kamaytirish imkonini beradi.

3. "Smart" texnologiyalarni qo'llash tuproqning texnogen zichlanishini bartaraf etadi va atrof-muhitga bo'ladigan pestitsid bosimini *60%* ga kamaytiradi, bu esa Orolbo'yi mintaqasi kabi ekologik nozik hududlar uchun juda muhimdir.

4. Respublika miqyosida ushbu texnologiyani keng joriy etish uchun fermer xo'jaliklariga dronlar xaridi uchun davlat subsidiyalarini ajratish, shuningdek, oliy ta'lim muassasalarida "Agrodron operatori" yo'nalishi bo'yicha mutaxassislar tayyorlashni jadallashtirish lozim. Ushbu yondashuv O'zbekiston qishloq xo'jaligini raqamlashtirishni yangi bosqichga olib chiqadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.World Bank. Water in agriculture. 2023. https://www.worldbank.org/en/topic/water/publication/water-in-agriculture.

2.FAO. Water scarcity in Central Asia: Challenges and perspectives. 2024. https://www.fao.org/3/cc1447en/cc1447en.pdf.

3.Radoglou-Grammatikis P., et al. A compilation of UAV applications for precision agriculture // Computer networks. - 2020. - Vol. 172. - P. 107-148.

4.DJI Agras T30 Technical specifications. DJI official website. - 2023.

5.Tsouros D.C., et al. Precision agriculture: An introduction // Agriculture digitalization and organic production. - 2021. - P. 1-25.

6.Muallifning 2024-2025 yillardagi shaxsiy tadqiqot ma'lumotlari.

7.Li Y., et al. Drone applications in Chinese agriculture // Journal of integrative agriculture. - 2022. - Vol. 21(5). - P. 1230-1245.

8.Mogili U.R., et al. Review on application of drone systems in precision agriculture // Procedia computer science. – 2018. - Vol. 133. - P. 502-509.

9.Aral Sea basin program. UNEP Report. - 2023.

10.Muallifning 2024-2025 yillardagi tajriba-sinov natijalari.

11.Delavarpour N., et al. A technical study on UAV characteristics for agricultural usage and its application // Applied sciences. - 2021. - Vol. 12.(12). - P. 5555.

13.Economic analysis of drone usage in Uzbekistan farms. Local study report. - 2024.

14.Ahirwar S., et al. Application of drone in agriculture // International journal of current microbiology and applied sciences. - 2019. - Vol. 8(01). - P. 2500-2505.

15.Tetila E.C., et al. System for quantitative evaluation of cotton crops using UAV images // Remote sensing. - 2020. - Vol. 12(13). - P. 2122.

16.USDA. Drone use in U.S. Agriculture. Annual report. - 2023.

UDK 631.356.4.02

KARTOSHKA KOVLASH MASHINASINING QAZISH ISHCHI ORGANLARINING PARAMETRLARINI ASOSLASH ASOSLASH

Norchayev Rustam, Rustamova Nigora Rustamovna, Xamroyeva Lola

Qarshi davlat texnika universiteti

Annotatsiya. Maqolada kartoshka qazish mashinalarining ishchi organlarini takomillashtirish va ularning optimal parametrlarini aniqlash masalasi o'rganildi. Tadqiqotda ishchi organlarning geometrik shakllari, burchaklari va harakat tezliklari kartoshka yetishtirish samaradorligi va mexanik buzilishlariga ta'siri tahlil qilindi. Ehtiyoj va samaradorlik mezonlari asosida ishchi

organlar parametrlari matematik modellar orqali asoslandi. O‘tkazilgan hisob-kitoblar va eksperiment natijalari kartoshka qazish jarayonida ishchi organlarning optimal konfiguratsiyasini belgilash imkonini berdi.

Kalit so‘zlar: *kartoshka qazish mashinasi, ishchi organ, optimal parametr, geometriya, samaradorlik*

Аннотация. В статье рассматривается совершенствование рабочих органов картофелекопателей и определение их оптимальных параметров. Исследование включает анализ влияния геометрической формы, углов наклона и скорости движения рабочих органов на эффективность уборки картофеля и механические повреждения. Параметры рабочих органов обоснованы с помощью математических моделей, учитывающих требования и критерии эффективности. Полученные расчеты и экспериментальные данные позволяют определить оптимальную конфигурацию рабочих органов картофелекопателя.

Ключевые слова: *картофелекопатель, рабочий орган, оптимальный параметр, геометрия, эффективность*.

Abstract. The article investigates the improvement of working elements of potato harvesters and the determination of their optimal parameters. The study analyzes the impact of the geometric shape, angles, and movement speed of the working elements on potato harvesting efficiency and mechanical damage. Based on requirements and efficiency criteria, the parameters of the working elements were justified using mathematical modeling. The calculations and experimental results allow the identification of the optimal configuration of the harvester’s working elements.

Keywords: *potato harvester, working element, optimal parameter, geometry, efficiency*

Kirish. Kartoshka yetishtirish hozirgi kunda dehqonchilikda eng ko‘p tarqalgan va aholi oziq-ovqat xavfsizligi uchun muhim bo‘lgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlaridan biri hisoblanadi. Kartoshka yetishtirish jarayonida uni yerdan samarali va minimal zarar bilan chiqarish muhim vazifalardan biri bo‘lib, bu jarayonda kartoshka qazish mashinalari asosiy rol o‘ynaydi.

Qazish mashinalari ishchi organlarining geometriyasi, burchaklari, harakat tezligi va o‘lchamlari kartoshka yetishtirish samaradorligi, mexanik buzilish va texnik xizmat muddatiga katta ta’sir ko‘rsatadi. Shuningdek, ishchi organlar parametrlari optimal bo‘lmasa, mahsulotning yo‘qolishi va texnik muammolar o‘sishi mumkin.

Material va metodlar. Passsiv lemexlar. Passiv lemexlarni asosiy parametrlari (1-rasm): qiyalik burchagi α, chiqish burchagi γ va ishchi yuzaning uzunligi L.

Parametrlar α, γ va L qiymatlarini tanlashda egat profili va elak pastki oqimining yerdan balandligi ta’sir etadi. Lemexni 1 orqa devori balandligi (1-rasm, a) elaklash ishchi organining 2 joylashishiga bog‘liq. Bunda elak pastki oqimining yerdan balandligi S=30-60 mm bo‘lishi tavsiya etiladi. Lemexni qiyalik burchagi α=24°, lemex uzunligi L=475 mm olinadi.

Passiv lemexlarda tuproqni lemex yuzasi bo‘ylab o‘simlik poyalarini yig‘ilishi qarshilik qiladi. Ayniqsa bunday holat yumshoq tuproqlrda tez-tez uchraydi.

Lemex tig‘ini begona o‘tlardan tozalanishidagi burchak

$$90^0 - \left(\frac{\gamma}{2}\right) \rangle \varphi, \qquad (1)$$

bu yerda φ – tig‘ bo‘ylab o‘simlik poyasining ishqalanish burchagi.

Amalda burchak $\gamma/2$=40-50° tavsiya etiladi.

Aksariyat mashinalarda lemexni orqa devori sharnirli klapanlar bilan ta’minlangan. Bu ish jarayonida hosil tuganagini yo‘qotilishiga, klapan va elak orasidagi tiqilishlarga barham beradi.

2-rasmda AQShda ishlab chiqariladigan kombaynlarni qazish qismi konstruksiyasi keltirilgan.

Kombayn to‘rt xil qazish ishchi organiga ega. Birinchi variantda chekka to‘g‘ri lemexlar 3 va 5 orasiga uchburchak shaklidagi 3 lemexi joylashtirilgan. Ikki chekka qismiga 1, 2 yonbosh qismi o‘rnatilgan. Ikkinchi variantda esa o‘ng 8 v chap 6 lemexlari uchburchakshaklida, o‘rtada 7 to‘g‘ri burchakli lemex o‘rnatilgan. Bu ishchi organi egatsiz ekilgan maydondagi hosilni qazishga mo‘ljallangan. Uchinchi variantda o‘rtada ikki va qatorga mo‘ljallangan to‘g‘ri lemexi 10 va yonbosh 9 va 11 qismlari mavjud. To‘rtinchi variantda yonbosh qismlari 12 va 13 burchak ostida o‘rnatilgan bo‘lib, massani o‘rtaga yo‘naltirish xususiyatiga ega.



a – elak bilan komponovkalash; b – lemex parametri

1-rasm. Elevatorli kartoshka yig‘ishtirish mashinasining passiv lemexi

Xorijiy kombaynlarda (“Lans va Gans-Saki”) oxursimon lemexlar qo‘llangan. Bular yassi yassi lemexlarga ko‘ra o‘z oldida tuproq uyumini hosil qilmaydi. Oxursimon lemexlar bilan tuproq palaxsasini qaziganda lemexni egilgan joylariga tuproqni yopishish hollari sodir bo‘ladi. Shu boisdan Angliya, Germaniya va Shvesiya davlatlarida ishlab chiqarilayotgan kombaynlarida oxursimon lemexlar o‘rniga tekis yassi lemexlar o‘rnatilmoqda. Bu lemexlarni yonbosh qismiga o‘rnatilgan. Disklar asosan tuproqni va poyani kesib ketadi va massani yon tomonga ag‘darilishiga yo‘l qo‘ymaydi.

Germaniyada ishlab chiqariladigan “Amazone” va “Xassiya” kombaynlarida lemex uchta seksiyadan iborat va lemexlarni qazish chuqurligi tayanch g‘ildiragi orqali rostlanadi. Tayanch g‘ildiraklari lemexlarni oldida o‘rnatilgan.

Natijalar va ularning tahlili. Bu variantdagi qazish ish organida o‘rtada passiv lemex, yonbosh qismi aktiv tebranuvchi elementdan yoki disklardan iborat. Rossiyada ishlab chiqariladigan KKU-2 kombaynida oraliq lemexlar passiv va tebranuvchi yonbosh qismlardan iborat. Bunda tuproq massasini yonboshga ag‘darilmasligi ta’minlanadi.



2-rasm. “DJon Bin” (AQSh) kombaynining asosiy elagining ramasi va lemexi

Lemex ikki seksiyali va sharnirli klapanlarga ega. Aktiv yonbosh qismi shatun orqali biriktirilgan va ekssentrikli val orqali esa tebranma harakatga keltiriladi. Tebranish amplitudasi 12 mm, valning aylanish chastotasi 427 min^{-1}. Tuproq massasi yonboshga ag‘darilmaydi va lemex oldida tuproq uyumi hosil bo‘lmaydi. Kamchiligi sifatida oraliq passiv yassi lemexlar ortiqcha tuproqni jo‘yak ichidan qazib olishini ko‘rishimiz mumkin.

Germaniyadagi “Veymar-Verg” zavodida ishlab chiqarilayotgan E-686 rusumidagi kombaynda kombinatsiyalashgan qazish ish organining (3-rasm, a) lemexi oldida g‘altak 1, aktiv disklar 2 o‘rnatilgan. Disklar harakat yo‘nalishiga nisbatan burchak ostida o‘rnatilgan. Disklar 3 va ikki seksiyali yassi lemexlardan iborat.



3-rasm. Qiya diskli qazish ish organlari

Navbatdagi kombinatsiyalashgan qazish ish organida (VIM, Rossiya) har bir qatorga ikkita passiv disklar 2 va oraliq egilgan lemexi 4 hamda yuqorida shnekli 6 ish organi o‘rnatilgan (3-rasm, b).

VISXOM ning kombinatsiyalashgan qazish ish organida disklar 2 aktiv variantli bo‘lib, tuproqni elaklarga 5 oson siljitadi. Lemex ustki qismiga o‘rnatilgan aktiv biter 7 oddiy tuzilishga ega.

Xulosa. Maqolada kartoshka qazish mashinalari ishchi organlarining parametrlari tahlil qilindi va ularning samaradorligiga ta’siri o‘rganildi. Tadqiqot natijalari ko‘rsatdiki, ishchi organlarning geometrik shakli, burchaklari va harakat tezligi kartoshka qazish jarayonida mahsulot yo‘qotishini kamaytirish va qazish samaradorligini oshirishda muhim ahamiyatga ega.

Matematik modellash va eksperimental tekshiruvlar orqali ishchi organlar uchun optimal parametrlar aniqlandi, bu esa qazish mashinalarining texnik samaradorligi va uzoq muddatli ishlashini ta’minlaydi. Shuningdek, ishchi organlarning to‘g‘ri konfiguratsiyasi mahsulotning mexanik buzilishini kamaytiradi va texnik xizmat xarajatlarini tejaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Петров Г.Д. Картофелеуборочные машины. М.: “Машиностроение”, 1984, 320 б.

2.Сергеева Ю. С. и др. Бесценный дар земли. Справочные и библиографические материалы к Международному году картофеля – 2008. – Орел: 2008. – 36 с.

3.Норчаев Д.Р. Исследование воздействия рыхлителей элеватора энергосберегающего картофелекопателя на почвенную массу // Тракторы и сельхозмашины. – Москва, 2015. –№ 6. – С.20-22.

4.Павлов В.А. Повышение эффективности функционирования картофелеуборочных машин за счет совершенствования системи выносной сепарации: Дис. канд. … техн. наук. – Рязань, 2014. – 153 с.

УДК 626.81:631.6

QISHLOQ XO‘JALIGIDA RESURS TEJAMKOR INNOVATSION TEXNIK VOSITALARNI YARATISHDA MUHANDISLIK VA KOMPYUTER GRAFIKASINING O‘RNI (Jizzax viloyati misolida)

Gapparov B.N.
Jizzax politexnika instituti

Annotatsiya: Mazkur tadqiqotda qishloq xo‘jaligida resurs tejamkor innovatsion texnik vositalarni yaratishda muhandislik va kompyuter grafikasi texnologiyalarining o‘rni tahlil qilingan. Jizzax viloyati misolida zamonaviy texnika va raqamli modellashtirish usullarining qo‘llanilishi natijasida resurslardan samarali foydalanish, ishlab chiqarish unumdorligini oshirish hamda agrotexnologik jarayonlarni takomillashtirish imkoniyatlari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: *qishloq xo‘jaligi, resurs tejamkor texnologiyalar, innovatsion texnika, muhandislik yechimlari, kompyuter grafikasi, raqamli modellashtirish, agrotexnologiya, avtomatlashtirish, Jizzax viloyati.*

Аннотация: В данном исследовании анализируется роль инженерных и компьютерных

графических технологий в создании ресурсосберегающих инновационных технических средств в сельском хозяйстве. Пример Джизакской области демонстрирует возможности эффективного использования ресурсов, повышения производительности производства и совершенствования агротехнологических процессов в результате применения современного оборудования и методов цифрового моделирования.

Ключевые слова: *сельское хозяйство, ресурсосберегающие технологии, инновационное оборудование, инженерные решения, компьютерная графика, цифровое моделирование, агротехнология, автоматизация, Джизакская область.*

Abstract: This study analyzes the role of engineering and computer graphics technologies in creating resource-saving innovative technical means in agriculture. The example of Jizzakh region highlights the possibilities of effective use of resources, increasing production productivity, and improving agro-technological processes as a result of the use of modern equipment and digital modeling methods.

Keywords**:** *agriculture, resource-saving technologies, innovative equipment, engineering solutions, computer graphics, digital modeling, agrotechnology, automation, Jizzakh region.*

Kirish. Qishloq xo‘jaligi - O‘zbekiston iqtisodiyotining eng muhim tarmoqlaridan biri bo‘lib, uning samaradorligi resurslardan optimal foydalanish bilan bevosita bog‘liq. Jizzax viloyatida ham an’anaviy qishloq xo‘jaligi tarkibida paxta, don va sabzavotchilik asosiy o‘rin tutadi, ammo samarali innovatsiyalar tatbiq etilishining dolzarbligi kundan-kunga ortayapti.

Xususan, Jizzaxda qishloq xo‘jaligini modernizatsiya qilish va ilg‘or texnologiyalarni joriy etishga qaratilgan bir qator loyihalar boshlandi. Masalan, viloyatda “Mirzachul Innovative Agriculture ‘Azamat’ School” kabi ilmiy-ta’lim markazi faoliyati ish boshladi, uning maqsadi fermerlarga zamonaviy agrotexnologiyalar, jumladan resurs samaradorligini oshiradigan innovatsion usullarni o‘rgatishdir.

Bundan tashqari, Jizzaxda paxta va boshqa qishloq xo‘jaligi texnikalarining samarali mexanizatsiyalanishi uchun mashinalar parklari tashkil etilmoqda. Misol uchun, Paxtakor tumanida markazlashtirilgan mashina-traktor parki ochilib, unda zamonaviy texnika vositalarining namoyish etilganligi ko‘rsatildi, bu fermalarda resurslardan samarali foydalanishni, texnika optimal ishlatilishini ta’minlaydi.

Innovatsion texnologiyalar qatorida dronlardan qishloq xo‘jaligida foydalanish ham qo‘llanilmoqda. Maxsus klasterlarda dronlar yekinlarni monitoring qilish, zararkunandalarni aniqlash va uning tarqalishini nazorat qilish uchun ishlatiladi - bu esa yer resurslari va suvni tejash imkonini beradi.

Ushbu jarayonlarda muhandislik va kompyuter grafikasi texnik vositalarni yaratish va joriy etishda muhim rol o‘ynaydi:

- **Muhandislik (injenerlik) yondashuvi** - yangi resurs tejamkor texnik vositalarni loyihalashtirish va ishlab chiqish jarayonida metall tashkilot, mexanizmlar integratsiyasi, avtomatlashtirilgan sistema va datchiklar arxitekturasini belgilash kabi murakkab hisob-kisloblar va texnik hisobotlar talab etiladi. Muhandislar qishloq xo‘jaligi texnikalarini rejalashtirishda energiya samaradorligi, ish tejamkorligi va ishlab chiqarish tejamkorligini hisobga oladilar.
- **Kompyuter grafikasi** esa tarmoqda chuqur tahlil va vizualizatsiya imkoniyatlarini beradi. Masalan, yerning dronlar orqali olingan ma’lumotlardan 3D modellar yaratish, texnologik jarayonlarni simulyatsiya qilish, o‘zgaruvchan sharoitlar natijalarini ko‘rsatish kabi vazifalarda foydalaniladi. Bu fermerlarga yer resurslaridan optimal foydalanish, sug‘orish tizimini rejalashtirish, sho‘rlangan uchastkalarni aniqlash va zarur choralarni belgilashda aniq va intuitiv ko‘rsatmalar berish imkonini beradi.

Shu tariqa, muhandislik va kompyuter grafikasi qishloq xo‘jaligida resurs samaradorligini oshirish, texnik vositalarni optimal integratsiya qilish va innovatsion yechimlarni vizualizatsiya qilishda faol qo‘llanilmoqda, bu esa Jizzax viloyatida samarali amaliy natijalarga olib kelmoqda.

Material va metodlar. Tadqiqot jarayonida qishloq xo‘jaligida resurs tejamkor innovatsion texnik vositalarni yaratishda muhandislik va kompyuter grafikasi imkoniyatlarini tahlil qilish uchun nazariy va amaliy materiallardan foydalanildi. Jumladan, qishloq xo‘jaligini raqamlashtirish, agrotexnik jarayonlarni avtomatlashtirish hamda zamonaviy texnika vositalarini ishlab chiqishga

oid ilmiy adabiyotlar, normativ-huquqiy hujjatlar va statistik ma’lumotlar tadqiqotning asosiy manbalari sifatida xizmat qildi. Shuningdek, Jizzax viloyati qishloq xo‘jaligi korxonalari va fermer xo‘jaliklarida qo‘llanilayotgan resurs tejamkor texnologiyalar bo‘yicha amaliy ma’lumotlar o‘rganildi.

Tadqiqotda tahlil va solishtirish, kuzatish, modellashtirish hamda kompyuter grafikasi asosida vizualizatsiya usullaridan foydalanildi. Muhandislik yondashuvi orqali innovatsion texnik vositalarning konstruktiv xususiyatlari va samaradorligi baholandi, kompyuter grafikasi texnologiyalari yordamida esa texnik modellar va agrotexnologik jarayonlarning raqamli tasvirlari ishlab chiqildi.

Natijalar va ularning tahlili. Olib borilgan tadqiqotlar natijalari shuni ko‘rsatdiki, qishloq xo‘jaligida resurs tejamkor innovatsion texnik vositalarni yaratish va joriy etish jarayonida muhandislik yondashuvlari hamda kompyuter grafikasi texnologiyalaridan foydalanish ishlab chiqarish samaradorligini sezilarli darajada oshirish imkonini beradi. Jizzax viloyati fermer xo‘jaliklari misolida o‘tkazilgan tahlillar shuni ko‘rsatdiki, zamonaviy texnik vositalar va raqamli monitoring tizimlari qo‘llanilgan uchastkalarda suv resurslaridan foydalanish ko‘rsatkichlari yaxshilanib, sug‘orish jarayonlarini avtomatlashtirish orqali ortiqcha suv sarfi kamaygan. Bu esa yer unumdorligini saqlash va tuproq degradatsiyasining oldini olishga xizmat qilgan.

Muhandislik asosida takomillashtirilgan texnika vositalari, xususan, avtomatlashtirilgan sug‘orish tizimlari, sensorli nazorat qurilmalari va yuqori samarali qishloq xo‘jaligi mexanizmlari mehnat unumdorligini oshirishga xizmat qildi. Ushbu texnik vositalar ish jarayonida inson mehnatiga bo‘lgan ehtiyojni qisqartirib, texnologik jarayonlarni aniq va uzluksiz boshqarish imkonini berdi. Shu bilan birga, texnik vositalar konstruksiyasini muhandislik modellashtirish orqali optimallashtirish natijasida ularning ishonchliligi va xizmat muddati oshgani kuzatildi.

Kompyuter grafikasi texnologiyalaridan foydalanish agrotexnologik jarayonlarni raqamli modellashtirish va vizual tahlil qilish imkoniyatini yaratdi. Masalan, yer maydonlarining 3D modellarini yaratish, sug‘orish tarmoqlarini raqamli rejalashtirish va texnik vositalarning ishlash jarayonini simulyatsiya qilish orqali ishlab chiqarish jarayonlarida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan muammolar oldindan aniqlandi. Bu esa texnik nosozliklarni kamaytirish va resurslardan yanada samarali foydalanishga xizmat qildi.

Tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, muhandislik va kompyuter grafikasi texnologiyalarining integratsiyasi qishloq xo‘jaligida innovatsion texnik vositalarni ishlab chiqish jarayonini tezlashtiradi, resurslar sarfini qisqartiradi hamda ishlab chiqarish jarayonlarini raqamlashtirishga zamin yaratadi. Jizzax viloyati misolida ushbu texnologiyalarning joriy etilishi qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hosildorligini oshirish, xarajatlarni kamaytirish va tarmoqning barqaror rivojlanishini ta’minlashda muhim omil bo‘lib xizmat qilayotgani aniqlandi.

Xulosa va amaliy takliflar. Olib borilgan tadqiqotlar natijasida qishloq xo‘jaligida resurs tejamkor innovatsion texnik vositalarni yaratish va joriy etish jarayonida muhandislik va kompyuter grafikasi texnologiyalari muhim strategik ahamiyatga ega ekanligi aniqlandi. Zamonaviy muhandislik yechimlari qishloq xo‘jaligi texnikalarini takomillashtirish, ularning funksional imkoniyatlarini kengaytirish va energiya hamda mehnat resurslaridan samarali foydalanish imkonini bermoqda. Kompyuter grafikasi esa agrotexnologik jarayonlarni raqamli modellashtirish, texnik vositalar konstruksiyasini loyihalashtirish va ish jarayonlarini vizual tahlil qilishda samarali instrument sifatida xizmat qilmoqda.

Jizzax viloyati misolida resurs tejamkor texnologiyalarni qo‘llash natijasida sug‘orish tizimlarini optimal boshqarish, yer unumdorligini saqlash, texnika vositalarining ishonchliligini oshirish hamda ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish imkoniyatlari kengaygani kuzatildi. Shu bilan birga, raqamli texnologiyalarni joriy etish qishloq xo‘jaligida ish jarayonlarini avtomatlashtirish va monitoring qilish imkoniyatlarini yaratib, tarmoqning barqaror rivojlanishiga xizmat qilmoqda.

Biroq mazkur sohada ayrim muammolar ham mavjud. Jumladan, innovatsion texnik vositalarni ishlab chiqish va joriy etish uchun yuqori malakali muhandis kadrlar yetishmasligi, fermerlar tomonidan raqamli texnologiyalardan foydalanish ko‘nikmalarining yetarli emasligi hamda zamonaviy texnik vositalarning iqtisodiy jihatdan qimmatligi ushbu jarayonni cheklovchi

omillardan hisoblanadi.

Amaliy takliflar:

1. **Muhandislik va IT sohalari integratsiyasini kuchaytirish.** Oliy ta’lim muassasalarida muhandislik, agroinjeneriya va kompyuter grafikasi fanlarini integratsiyalashgan holda o‘qitish orqali qishloq xo‘jaligi uchun raqamli texnologiyalar yarata oladigan mutaxassislar tayyorlash zarur.

2. **Raqamli modellashtirish markazlarini tashkil etish.** Jizzax viloyatida qishloq xo‘jaligi texnikasi va agrotexnologik jarayonlarni kompyuter grafikasi asosida modellashtirishga ixtisoslashgan innovatsion laboratoriyalar tashkil qilish maqsadga muvofiq.

3. **Fermerlar uchun raqamli texnologiyalar bo‘yicha amaliy o‘quv kurslarini joriy etish.** Dronlar, sensor tizimlari, avtomatlashtirilgan sug‘orish texnologiyalari va agromonitoring platformalaridan foydalanish bo‘yicha doimiy malaka oshirish dasturlarini tashkil etish samarali natija beradi.

4. **Mahalliy innovatsion texnik vositalar ishlab chiqarishni qo‘llab-quvvatlash.** Qishloq xo‘jaligi texnikalarini mahalliy muhandislar tomonidan loyihalashtirish va ishlab chiqarishni rag‘batlantirish orqali texnika narxini kamaytirish va fermerlar uchun qulay sharoit yaratish mumkin.

5. **Aqlli qishloq xo‘jaligi texnologiyalarini keng joriy etish.** Yer holati, namlik darajasi, o‘simlik rivojlanishini onlayn nazorat qiluvchi raqamli platformalarni joriy etish resurslardan samarali foydalanishga xizmat qiladi.

6. **Ilmiy tadqiqotlar va ishlab chiqarish o‘rtasida hamkorlikni kuchaytirish.** Oliy ta’lim muassasalari, ilmiy markazlar va fermer xo‘jaliklari o‘rtasida qo‘shma innovatsion loyihalarni amalga oshirish orqali yangi texnik vositalarni amaliyotga tez joriy etish mumkin.

Umuman olganda, muhandislik va kompyuter grafikasi texnologiyalarini qishloq xo‘jaligiga keng joriy etish tarmoqning raqamlashuv darajasini oshirish, resurslardan oqilona foydalanish va qishloq xo‘jaligi mahsulotlari raqobatbardoshligini ta’minlashda muhim omil hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Абдуллаев Қ., Раҳматов Б. Қишлоқ хўжалигида инновацион технологиялар ва ресурс тежамкор усуллар. – Тошкент: “Fan va texnologiya” нашриёти, 2022. – 156 бет.

2. Юлдашев Н., Каримов Ш. Муҳандислик графикаси ва компьютер моделлаштириш асослари. – Самарқанд: СамДТУ нашриёти, 2023. – 132 бет.

UDK: 66.047:519.87

РАЗРАБОТКА МАТЕМАТИЧЕСКИХ МОДЕЛЕЙ ОСНОВНЫХ ТЕХНОЛОГИЧЕСКИХ ПАРАМЕТРОВ, УЧАСТВУЮЩИХ В ПРОЦЕССЕ СУШКИ ТВЕРДЫХ СЫПУЧИХ МАТЕРИАЛОВ

Беккулов Жахонгир Шербоевич
Каршинский государственный технический университет

Аннотация: В данной статье рассматриваются вопросы разработки математических моделей основных технологических параметров, участвующих в процессе сушки твердых сыпучих материалов. В работе проанализированы механизмы тепло- и массопереноса при сушке, а также определены ключевые факторы, влияющие на кинетику процесса. Исследовано влияние таких параметров, как температура, влажность и скорость сушильного агента, а также начальная и равновесная влажность материала на процесс сушки. На основе этих факторов построена математическая модель процесса сушки, выведены уравнения для периодов постоянной и уменьшающейся скорости. Предложенная модель позволяет анализировать процесс сушки, оптимизировать технологические режимы и повышать эффективность сушильных установок.

Ключевые слова: *влажность, сушка, материал, диаграмма равновесности, оптимальный, кинетическая модель, сушильный агент, диффузия.*

Введение. В воздухе всегда присутствует водяной пар, который находится в ненасыщенном состоянии. Водяной пар образуется в результате испарения воды с

поверхности океанов, морей, водохранилищ, рек и других водоемов. По этой причине в составе атмосферы всегда присутствует водяной пар. Для характеристики количества водяного пара в атмосфере вводится понятие абсолютной влажности [1-8].

Абсолютной влажностью называют величину, характеризующую количество водяного пара, содержащегося в 1 м³ воздуха. Кроме того, абсолютная влажность показывает, сколько граммов водяного пара содержится в 1 м³ воздуха. На практике, помимо абсолютной влажности, важно учитывать также степень насыщения воздуха водяным паром. С этой целью вводится понятие относительной влажности. Относительная влажность определяется как отношение массы водяного пара m к массе насыщенного водяного пара m_0 при данной температуре, выраженное в процентах [3-5].

$$\varphi = \frac{m}{m_0} \cdot 100\%, \qquad (1)$$

С учетом функциональной зависимости массы $m = \rho \cdot V$ и при предположении постоянного объема системы ($V = const$), значение относительной влажности рассчитывается с помощью уравнения (2).

$$\varphi = \frac{\rho}{\rho_0} \cdot 100\% \qquad (2)$$

ρ обозначает действительную (имеющуюся) плотность водяного пара в воздухе, а ρ_0 - плотность насыщенного водяного пара при данной температур.

Если в составе воздуха отсутствует водяной пар, его абсолютная и относительная влажность равны нулю. Влажностью воздуха называют содержание водяного пара в воздухе. Чем больше воды содержится в определенном объеме, тем ближе пар находится к насыщению. С другой стороны, чем выше температура воздуха, тем больше водяного пара требуется для достижения насыщения [2].

Материалы и методы. Если воздух «насыщен» водяным паром, то есть относительная влажность равна 100 %, добавление в него дополнительного водяного пара приведет к конденсации (образованию водяных капель). По этой причине важно, чтобы воздух в процессе сушки оставался ненасыщенным, поскольку для перехода влаги от сушимого продукта к воздуху воздух должен обладать достаточной вместимостью для влаги [2-4].

В процессах сушки (при сушке твердых волокнистых или дисперсных материалов) знание относительной влажности является важным, поскольку она определяет скорость сушки и расход энергии. Чем суше воздух, тем легче удаляются вода или другие парообразные вещества в воздух [9]. В процессе сушки твердых волокнистых материалов в качестве переносчика влаги используется сушильный агент, и одним из основных параметров материала является относительная влажность сушильного агента φ. Для ее расчета на основе уравнения Менделеева - Клапейрона можно использовать следующие соотношения:

Расчет масс имеющегося $\frac{PV}{T} = \frac{m}{\mu} \cdot R$ и насыщенного $\frac{PV}{T} = \frac{m_0}{\mu} \cdot R$ водяного пара, с учетом $m = \frac{PV\mu}{TR}$ и $m_0 = \frac{PV\mu}{TR}$, позволяет записать формулу относительной влажности сушильного агента в следующем виде:

$$\varphi = \frac{P}{P_0} \cdot 100\%,$$

Здесь: P – давление водяного пара в воздухе, P_0 – давление насыщенного водяного пара.

Результаты и обсуждения

В процессе сушки твердых волокнистых материалов изучаются диаграммы равновесности, отражающие зависимость влажности от температуры. Они используются для

анализа и оптимизации процесса сушки [2-6].

С помощью диаграмм равновесности при сушке материалов:

- Прогнозирование скорости сушки;
- Эффективное использование энергии;
- Выбор оптимальной температуры сушки;
- Сохраняется качество материала.

На рисунке 1 приведен график зависимости относительной влажности сушильного агента от температуры. Анализ графика показывает, что эта зависимость нелинейно. Это объясняется тем, что при взаимодействии влажного материала и сушильного агента (что связано с процессами тепло- и массопереноса) количество водяного пара в материале постепенно уменьшается.



Рис.1. Диаграмма равновесности зависимости относительной влажности сушильного агента от температуры: ось *x* - относительная влажность материала φ, ось *y* - температура (обычно температура сухого воздуха).

По своей физической сущности процесс сушки является сложным диффузионным явлением. Его скорость определяется диффузией влаги изнутри сушимого материала в окружающую среду. На первой стадии процесса сушки твердых волокнистых материалов (T_1) скорость выделения влаги остается постоянной, и процесс в основном характеризуется испарением с поверхности, то есть кривой скорости сушки (рис.2). На этом этапе влага из внутренних слоев материала успевает достаточно быстро достигать поверхности, а скорость испарения определяется условиями внешней среды [3-9].

Уравнение массопереноса выражается в следующем виде:

$$\frac{dM}{dt} = -kS(\varphi_s - \varphi),$$

здесь: M – количество влаги в материале, кг; t – время, *с*; k – коэффициент массопереноса, *кг/(м²·с)*; S – поверхность испарения, *м²*; φ_s – емкость воздуха над поверхностью материала по относительной влажности (в насыщенном состоянии), *кг/кг* сухой воздух; φ – емкость потока воздуха по фактической относительной влажности, *кг/кг* сухой воздух. Поскольку на стадии постоянной скорости $(\varphi_s - \varphi) = const$ является постоянной: $\frac{dM}{dt} = const$, то есть скорость сушки остается постоянной. Выражается через влажность материала.

$$\sigma = -\frac{d\zeta}{dt} = \sigma_1 = const$$

Интегрируя:

$$\zeta = \zeta_0 - \sigma_1 \cdot t,$$

Здесь: ζ_0 – начальная влажность материала; σ_1 – скорость сушки постоянная; t –

критическое время (критическая влажность соответствует ζ_K).

На первой стадии процесс ограничен внешней диффузией. Поскольку скорость переноса влаги изнутри материала на поверхность превышает скорость испарения, поверхность постоянно остается влажной. По этой причине процесс описывается законом массопередачи типа Ньютона [7-9].



Рис.2. Кривая скорости сушки.

На второй стадии процесса сушки (T_2) скорость выделения влаги со временем уменьшается (рисунок 2). На этом этапе на поверхности материала заканчивается свободная влага, и перенос влаги осуществляется преимущественно из внутренних слоев к поверхности путем диффузии. Процесс ограничен внутренней массопередачей (внутренней диффузией) [6].

Массовое уравнение массопереноса в общем виде:

$$\frac{dM}{dt} = -k_{вн} S_0 (\zeta - \zeta_{рав}),$$

Здесь: M – общее количество влаги в материале, *кг*; t – время, с; $k_{вн}$ – коэффициент внутренней массопередачи (диффузии), 1/с; S_0 – поверхность обмена влагой, *м²*; ζ – текущая влажность материала, кг влаги/кг сухого вещества; ζ_{muv} – равновесная влажность.

На этом этапе скорость сушки уменьшается пропорционально влажности:

$$-\frac{d\zeta}{dt} = k_{вн}(\zeta - \zeta_{рав})$$

Интегрируя:

$$\zeta - \zeta_{рав} = (\zeta_K - \zeta_{равv}) e^{-k_{вн}(t - t_K)},$$

Здесь: $k_{вн}$ – коэффициент внутренней массопередачи; $\zeta_{рав}$ – равновесная влажность.

Из этого получается общая кинетическая модель в следующем виде:

$$\zeta(t) = \begin{cases} \zeta_0 - \sigma_1 t, 0 \le t \le t_K \\ \zeta_{рав} + (\zeta_K - \zeta_{рав}) e^{-k(t - t_K)}, t > t_K \end{cases}$$

На первой стадии процесса сушки твердых волокнистых влажных материалов процесс в основном контролируется внешней массопередачей, тогда как на второй стадии он ограничен внутренней диффузией. Общая кинетическая модель этих процессов имеет важное теоретическое и практическое значение при проектировании сушильных аппаратов и разработке систем автоматического управления.

На второй стадии процесс основан на законе Адольфа Фика (основной физический закон, описывающий диффузионный процесс вещества, при котором частицы вещества самостоятельно перемещаются из области с высокой концентрацией в область с низкой концентрацией) и характеризуется диффузией влаги внутри материала:

$$\frac{d\zeta}{dt} = D_{эффек} \frac{d^2\zeta}{dx^2}$$

Здесь: $D_{эффек}$ – эффективный коэффициент диффузии, м²/с; x – координата; $\frac{d\zeta}{dx}$ – градиент концентрации. Это уравнение описывает изменение концентрации во времени.

На этом этапе скорость сушки зависит от физико-химических свойств материала, пористости, капиллярной структуры и формы связывания влаги. Известно, что процесс сушки представляет собой перемещение тепла и вещества (влаги) внутри материала и их передачу с поверхности материала в окружающую среду [3-9].

Таким образом, сушка является совокупностью взаимосвязанных процессов тепло- и массопереноса. На рисунке 2 показана диаграмма равновесной влажности материала ($\zeta - \varphi$) в процессе сушки. На ней представлена зависимость влажности материала ζ от относительной влажности воздуха φ.



Рис. 2. Диаграмма равновесной влажности материала

Кривые (1, 2, 3) - изотермы равновесной влажности для разных температур, то есть они показывают изменение влажности материала при сушке продукта при различных температурах.

Обычно: с повышением температуры $T_1 < T_2 < T_3$ кривая смещается вниз, то есть при одинаковом φ относительная влажность материала уменьшается, а сушильная способность увеличивается [6]. Затем сушильный агент и материал взаимодействуют друг с другом и насыщаются влагой. После этого увлажненный газ охлаждается до точки росы. Однако часть влаги в составе увлажненного сушильного агента конденсируется. Затем сушильный агент снова нагревается и направляется обратно в сушилку [7].

Этот метод сушки характеризуется низкой температурой воздуха, высокой начальной влажностью и относительной влажностью. Кроме того, в сушилке скорость сушильного агента также очень велика [8]. Высокая скорость сушильного агента приводит к увеличению коэффициента массопередачи и скорости сушки на первой стадии. Указанные выше методы сушки обеспечивают передачу необходимого количества тепла и мягкие режимы сушки. Следует особо подчеркнуть, что тот или иной метод сушки может ускорять или замедлять процесс, влиять на условия его проведения. Однако это не оказывает значительного влияния на расход тепла, так как он определяется начальными и конечными параметрами сушильного агента [9].

Заключение. В результате проведенных исследований была проанализирована взаимосвязь основных технологических параметров, участвующих в процессе сушки твердых волокнистых материалов, а также разработаны математические модели, описывающие процесс. Кинетика процесса сушки рассматривалась в двух основных стадиях - стадии постоянной скорости и стадии уменьшающейся скорости. Полученные математические выражения позволяют определять продолжительность процесса сушки, оценивать влияние технологических параметров и оптимизировать режим работы

сушильных аппаратов. Предложенная модель может эффективно применяться при проектировании промышленных сушильных установок, а также при создании автоматизированных систем управления процессом.

СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ

1. Юсупбеков Н.Р.,Гулямов Ш.М.,Зайнутдинова М.Б., Хожиева Н.Ж. “ Анализ информационных характеристик объектов химической технологии” Международный научно-технический журнал «Химическая технология. Контроль и управления». –Ташкент, 2019. -№ 1. –С.80-88.

2. Юсупбеков Н.Р., Мухитдинов Д.П. Основы моделирования и оптимизации технологических процессов.-Т.: «Наука и техника», 2015, 440 с.

3. Sherboevich, B. Z. (2023). Advanced control system for the drying process of potassium chloride in a drum dryer.

4. Sherbaevich, B. J., UGLI, S., KIZI, A., & UGLI, T. (2024). ADAPTIVE CONTROL SYSTEM FOR A FLUIDIZED BED DRYER. *American Journal Of Applied Science And Technology*, *4*(12), 47-56.

5. Sh, B. J., & Turaev, O. A. (2025). METHOD OF IDENTIFICATION BASED ON THE ASSOCIATIVE SEARCH MODEL FOR DETERMINING THE UNKNOWN COEFFICIENTS OF A LINEAR DYNAMIC SYSTEM MODEL. *Экономика и социум*, (7-1 (134)), 77-85.

6.Беккулов, Ж. Ш., & Ибрагимов, Ш. (2021). оптимальное управление периодическими процессами. *Central Asian Journal of Theoretical and Applied Science*, *2*(5), 184-190.

7.Аралов, Ғ. М., & Беккулов, Ж. Ш. (2017). Классификация методов контроля и диагностики состояния и режимов работы системы контроля и регулирования параметров технологических процессов. *Міжнародний науковий журнал Інтернаука*, (3 (1)), 110.

8. Khusanov, S. (2024). ABSTRACT BOILING ON THE EXAMPLE OF AN IMPROVED CONTROL SYSTEM FOR THE COMBUSTION OF NATURAL GAS (POTASSIUM CHLORIDE) IN THE CALORIFIER OF THE DRYER.

9. Bekkulov, J., Ibragimov, B., & Eshonkulov, M. (2021). Mathematical model of the trajectory of moving control objects. In *Технические науки: проблемы и решения* (pp. 110-116).

UO‘K:055.6 (070) U-53

QISHLOQ XO‘JALIGIDA RESURS-TEJAMKOR TEXNOLOGIYALAR VA INNOVATSION TEXNIK VOSITALARNI ISTE’MOL BUYUMLARIGA BO‘LGAN EHTIYOJINI QONDIRISH.

J.Y. Ung‘arov, U.J. Muxtorov
Jizzax Politexnika instituti

Annotatsiya. Mazkur maqolada qishloq xo’jaligi va agrosanoat korxonalarida oziq-ovqat mahsulotlari xafsizligini ta’minlashni boshqarish masalalari qisman yoritilgan, maqola standartlashtirish soxasidagi me’yoriy uslubiy xujjatlarni o’rgangan xolda yozildi.

Kalit so‘zlar: *qishloq xo‘jaligi, agrosanoat, oziq-ovqat xavfsizligi, standartlashtirish, iqtisodiy samaradorlik, mehnat resurslari, xomashyo, ishlab chiqarish texnologiyasi, valyuta tushumi, agroiqtisodiyot.*

Аннотация. В данной статье частично освещены вопросы управления безопасностью пищевых продуктов в агропромышленном комплексе, статья написана на основе нормативных и методических документов в области стандартизации.

Ключевые слова: *Сельское хозяйство, агропромышленный комплекс, безопасность пищевых продуктов, стандартизация, экономическая эффективность, трудовые ресурсы, сырьё, производственные технологии, валютная выручка, агроэкономика.*

Annotation. This article partially covers the issues of food safety management in the agro-industrial complex; the article is written on the basis of regulatory and methodological documents in the field of standardization.

Keywords: *Agriculture, agro-industrial complex, food safety, standardization, economic efficiency, labor resources, raw materials, production technology, foreign exchange revenue,*

agroeconomics.

Kirish. Qishloq xo‘jaligi mamlakat iqtisodiyotining eng muhim tarmoqlaridan biri bo‘lib, aholining oziq-ovqat mahsulotlariga va turli iste’mol buyumlariga bo‘lgan ehtiyojini qondirishda asosiy rol o‘ynaydi. Bugungi kunda global iqlim o‘zgarishi, yer va suv resurslarining cheklanganligi hamda aholi sonining ortishi qishloq xo‘jaligida samarali, tejamkor va innovatsion yondashuvlarni joriy etishni zarur qiladi.

Qishloq xo‘jaligi agrosanoat majmuasi mamlakat iqtisodiyotining yuragi bo‘lib, aholiga oziq-ovqat bilan ta’minlashda hal qiluvchi rol o‘ynaydi. U zamonaviy sharoitda ham insonlarning asosiy oziq-ovqat manbai bo‘lib qolmoqda, chunki sun’iy yo‘l bilan sintez qilingan yog‘lar, oqsillar va uglevodlar inson ehtiyojlarini to‘liq qondira olmaydi. Shu bilan birga, ilg‘or texnologiyalar yordamida yangi ozuqa resurslarini ishlab chiqarish va qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini diversifikatsiya qilish bo‘yicha izlanishlar davom etmoqda.

Bugungi kunda aholini oziq-ovqat bilan ta’minlash nafaqat iste’mol ehtiyojlarini qondirish, balki ularning sog‘lom turmush tarzini va mamlakatning oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash bilan chambarchas bog‘liq. Shuningdek, raqamli texnologiyalar, aqlli sug‘orish tizimlari, genetika va agroinformatika sohalari qishloq xo‘jaligi samaradorligini oshirishga yordam bermoqda.

Biroq, davlat tomonidan ishlab chiqilgan strategik dasturlarga qaramay, ayrim hududlarda ishlab chiqarish samaradorligi past bo‘lib, oziq-ovqat ta’minoti tizimi barcha hududlarda barqaror ishlamaydi. Shu sababli, zamonaviy standartlar, sifat nazorati va ilg‘or boshqaruv tizimlarini tatbiq etish qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini uzluksiz yetkazib berish va iqtisodiy barqarorlikni ta’minlash uchun muhim ahamiyatga ega. [1].

Tadqiqot metodologiyasi. Hozirgi vaqtda qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarishga ketadigan material xarajatlarning asosiy qismini sanoat yetkazib beradigan ishlab chiqarish vositalari — yoqilg‘i-moylash materiallari, zahira qismlar, mineral o‘g‘itlar, omuxta yemlar, asosiy vositalar amortizasiyasi va boshqa resurslar tashkil etadi. Shu bilan birga, zamonaviy raqamli texnologiyalar va aqlli boshqaruv tizimlari xarajatlarni optimallashtirish va resurslardan samarali foydalanishni ta’minlashga xizmat qilmoqda.

Qishloq xo‘jaligi samaradorligi mavjud imkoniyatlardan foydalanish darajasi va sanoat tarmoqlarining ishlab chiqarish hajmiga bevosita bog‘liq. Masalan, to‘qimachilik sanoatida barcha moddiy xarajatlarning 40 foizi, qand sanoatida 70 foizi, sut va yog‘ mahsulotlari ishlab chiqarishda esa 80 foizga yaqini qishloq xo‘jaligi xom ashyosi hisobiga to‘g‘ri keladi. Shu bilan birga, mamlakat xalq iste’moli fondining uchdan ikki qismi bevosita qishloq xo‘jaligi mahsulotlaridan yoki ularning xom ashyosidan tayyorlangan sanoat mahsulotlaridan iborat.

Bugungi kunda ishlab chiqarish samaradorligini oshirishda avtomatlashtirilgan texnologiyalar, aqlli sug‘orish tizimlari, dron va sensor texnologiyalari, shuningdek agroinformatika va raqamli monitoring tizimlari keng qo‘llanilmoqda. Bu vositalar qishloq xo‘jaligi resurslaridan oqilona foydalanishni ta’minlash, ishlab chiqarish hajmini oshirish va iqtisodiy samaradorlikni yaxshilash imkonini beradi.[2].

Tahlil va natijalar. Qishloq xo‘jaligi mehnat resurslarini safarbar qilish sferasi sifatida katta ahamiyatga ega. 2025-yil holatiga ko‘ra, ushbu tarmoqda 5,5–5,7 mln. kishi band bo‘lib, u mamlakat faol ishchi kuchining taxminan 38–39 % ini tashkil etadi. Har yili qishloq xo‘jaligi o‘z xodimlarining bir qismini boshqa tarmoqlarga o‘tkazib, iqtisodiyotning turli sohalarida ish kuchini qayta ishlab chiqarishga katta hissa qo‘shadi.

Bugungi kunda qishloq xo‘jaligi mehnat resurslari samaradorligini oshirishda zamonaviy texnologiyalar, raqamli monitoring tizimlari va avtomatlashtirilgan ishlab chiqarish jarayonlari keng qo‘llanilmoqda. Shu orqali ishchilar unumdorligi oshadi va resurslar oqilona taqsimlanadi. Qishloq xo‘jaligi mamlakat iqtisodiyotida qo‘shilgan qiymatning taxminan 35 % ini yaratadi va umumxalq muammolarini hal qilish uchun zarur bo‘lgan jamg‘arishning muhim manbai bo‘lib xizmat qiladi.

Shuningdek, qishloq xo‘jaligi mahsulotlari va ulardan qayta ishlangan tovarlarni eksport qilishdan keladigan valyuta tushumi joriy yil holatiga ko‘ra 45–55 % atrofida bo‘lib, bu tarmoqning iqtisodiy barqarorligini mustahkamlash va global bozorlarda raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi.[3].

Hulosa. Hozirgi kunda qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishi boshqa tarmoqlardan o‘ziga xos

xususiyatlari bilan ajralib turadi. Ushbu tarmoqda yer va suv resurslari, o‘suvchi o‘simliklar, hayvonot dunyosi va biologik mehnat vositalaridan keng foydalaniladi. Ishlab chiqarish jarayoni tirik organizmlarning tabiiy rivojlanishi, ob-havo sharoitlari va ekologik omillarga bog‘liq bo‘lib, bu tarmoqning murakkab va nozik tabiati bilan izohlanadi.

Shuningdek, qishloq xo‘jaligi mehnat resurslarini safarbar qilish, mavjud imkoniyatlardan samarali foydalanish va innovatsion texnologiyalarni joriy etish orqali iqtisodiy samaradorlikni oshiradi, qo‘shilgan qiymat yaratadi hamda valyuta tushumini shakllantiradi. Shu bilan birga, tarmoqning oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashdagi roli, eksport salohiyati va ichki iste’mol ehtiyojlarini qondirishdagi ahamiyati uni mamlakat iqtisodiy rivojlanishining strategik tarmoqlaridan biriga aylantiradi.

Umuman olganda, qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishi o‘ziga xos biologik, ekologik va iqtisodiy xususiyatlari bilan xalq xo‘jaligining barqaror rivojlanishida hal qiluvchi rol o‘ynaydi va mamlakatning oziq-ovqat xavfsizligi hamda agroiqtisodiy barqarorligini ta’minlashda asosiy omil hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Abdug‘aniyev A., Abdug‘aniyev A.A. Qishloq xo‘jaligi iqtisodiyoti. Darslik. Toshkent, O‘zbekiston yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg‘armasi nashriyoti, 2004 y.

2. Ismoilov A.Q., Murtazayev O. Qishloq xo‘jaligi iqtisodiyoti. Darslik. Toshkent, Moliya, 2005 y.

3. Jo‘rayev F. Qishloq xo‘jalik korxonalarida ishlab chiqarishni tashkil etish. Darslik.Toshkent, Istiqlol, 2004 y.

QISHLOQ XO‘JALIGIDA RESURS TEJAMKOR TEXNOLOGIYALAR VA INNOVATSION TEXNIK VOSITALARNING MATEMATIK ASOSLARI

Rasulova Moxira Sa’dullayevna
Qarshi davlat texnika universiteti

Annotatsiya: Ushbu maqolada qishloq xo‘jaligida resurs tejamkor texnologiyalar hamda innovatsion texnik vositalarning ahamiyati yoritilgan. Zamonaviy qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishida suv, energiya va boshqa tabiiy resurslardan samarali foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Maqolada resurs tejamkor texnologiyalarni qo‘llash orqali hosildorlikni oshirish, ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish va ekologik barqarorlikni ta’minlash masalalari ko‘rib chiqilgan. Shuningdek, qishloq xo‘jaligida qo‘llanilayotgan innovatsion texnik vositalar va ularning samaradorligi tahlil qilingan. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, resurs tejamkor texnologiyalarni keng joriy etish qishloq xo‘jaligi samaradorligini oshirishda muhim omil hisoblanadi.

Kalit so‘zlar: resurs tejamkor texnologiyalar, innovatsion texnika, qishloq xo‘jaligi, hosildorlik, ekologik barqarorlik.

Kirish. Hozirgi global iqtisodiy sharoitda qishloq xo‘jaligida ishlab chiqarish samaradorligini oshirish,tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash muhim vazifalardan biridir. Yer, suv va energiya resurslarining cheklanganligi qishloq xo‘jaligida resurs tejamkor texnologiyalarnijoriy etishni talab etadi.

So‘nggi yillarda qishloq xo‘jaligi sohasida innovatsion texnik vositalar va raqamli texnologiyalar keng qo‘llanilmoqda. Bunday texnologiyalar agroteknik jarayonlarni avtomatlashtirish, resurs sarfini kamaytirish va hosildorlikni oshirish imkonini beradi. Ushbu jarayonlarda matematika fani muhim ahamiyat kasb etadi.

Resurs tejamkor texnologiyalar

Resurs tejamkor texnologiyalar – bu qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishida yer, suv, mineral o‘g‘itlar va energiya resurslaridan samarali foydalanishga qaratilgan zamonaviy texnologiyalar majmuasidir.

Asosiy turlari:

- tomchilatib sug‘orish texnologiyasi
- minimal yerga ishlov berish texnologiyasi

- aniq (precision) dehqonchilik
- avtomatlashtirilgan sug‘orish tizimlari

Tomchilatib sug‘orish texnologiyasi suv sarfini an’anaviy usullarga nisbatan 40–50 foizgacha kamaytirishga yordam beradi.

Innovatsion texnik vositalar

Zamonaviy qishloq xo‘jaligida innovatsion texnik vositalardan foydalanish ishlab chiqarish samaradorligini sezilarli darajada oshiradi.

Bunday vositalarga quyidagilar kiradi:

- GPS tizimiga ega traktorlar
- agro dronlar
- tuproq namligi sensorlari
- avtomatik sug‘orish tizimlari

Agrodronlar yordamida dalalarning holati kuzatiladi, zararkunandalar yoki kasalliklar erta aniqlanadi.

Matematik ahamiyati:

Qishloq xo‘jaligida matematik hisob-kitoblar muhim o‘rin tutadi. Ular yordamida hosildorlik, suv sarfi va resurslardan foydalanish samaradorligi aniqlanadi.

Hosildorlik formulasi:

$H = P / S$

Bu yerda:

H – hosildorlik

P – olingan mahsulot miqdori

S – yer maydoni

Sug‘orish suvini hisoblash:

$V = S \times h$

Bu yerda:

V – suv hajmi

S – maydon

h – sug‘orish chuqurligi

Bundan tashqari qishloq xo‘jaligida resurs tejamkor texnologiyalarni joriy etish matematik jihatdan ham samaradorlikni o‘lchash va optimallashtirish imkonini beradi.

Masalan:

1. Hosildorlikni optimallashtirish:

Hosildorlik resurslar va texnologik samaradorlik orqali ifodalanishi mumkin: $H = f(R, T)$

2. Resurslarni tejashni hisoblash:

Resurs tejamkor texnologiyalar yordamida xarajatlar kamayadi:

$C_{\text{yangi}} = C_{\text{an’anaviy}} - \Delta C$

3. Investitsiya samaradorligi (ROI):

Innovatsion texnik vositalarga kiritilgan investitsiya va hosildorlik o‘sishi orqali hisoblanadi:

$ROI = \frac{\Delta H - I}{I} \times 100\%$

Xulosa:

Maqola natijalariga ko‘ra, qishloq xo‘jaligida resurs tejamkor texnologiyalarni joriy etish hosildorlikni oshirish, ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish va atrof-muhitni asrashga xizmat qiladi. Innovatsion texnik vositalar va avtomatlashtirilgan tizimlar yordamida qishloq xo‘jaligi resurslaridan samarali foydalanish mumkin. Shu bilan birga, fermerlar va ishlab chiqaruvchilar uchun malaka oshirish va texnologik yangilanishlar bo‘yicha doimiy treninglar zarur. Keng joriy etilgan holda, bu texnologiyalar mamlakatimiz qishloq xo‘jaligi sohasida raqobatbardoshlikni oshirishga hissa qo‘shadi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Ahunov, M. (2020). Qishloq xo‘jaligida resurs tejamkor texnologiyalar. Toshkent: Qishloq xo‘jaligi nashriyoti.

2. Karimov, R. (2019). Innovatsion texnik vositalar va hosildorlik. Toshkent: Fan va texnika.

3. Nazarov, S., & Tursunov, J. (2021). “Samarali suv resurslaridan foydalanish texnologiyalari,” Qishloq xo‘jaligi ilmiy jurnali, 5(3), 45–52.
4. FAO. (2018). Resource-efficient agricultural technologies. Rome: Food and Agriculture Organization.
5. Sadikov, A. (2022). Ekologik barqaror qishloq xo‘jaligi. Toshkent: Ilm-fan.
6. Abdullayev A. Qishloq xo‘jaligi iqtisodiyoti asoslari. Toshkent, 2019.
7. Rahimov B. Zamonaviy agrotexnologiyalar. Toshkent, 2021.
8. O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi materiallari.
9. Ilmiy maqolalar va internet manbalari.

UDK 681.542.2

ISSIQLIK AGENTI PARAMETRINI AVTOMATIK ROSTLASH SESTIMASINING FUNKSIONAL SXEMASINI YARATISH

Muradullayev Doston Muzaffar o’g’li
Qarshi Davlat Texnika Universiteti

Anotatsiya: Maqolada Issiqlik agenti parametrini avtomatik rostlash sistemasining funksional sxemasini yaratish keltirilgan bo’lib, Avtomatlashtirishning funksional sxemalarida texnologik qurilmalar ishlab chiqarish texnologiyasi bilan bog`langandir. Shuning uchun unda texnologik qurilmalarning joylashishi ko`rsatiladi. Avtomatlashtirish asboblari va vositalari konstruktiv belgilari bo`yicha emas, balki funksional belgilari bo`yicha belgilandi va funksional sxemasi tuzildi.

Tayanch so’zlar: Funksional sxema, texnologik jarayonlarini avtomatlashtirish, Xarfiy belgilar, Tizimlari, qurulmalar, defazzifikatsiya, boshqarish signali, muayyan boshqarish ob’ekti.

Аннотация: *В статье представлено создание функциональной схемы системы автоматического регулирования параметров теплоносителя, которая связана с технологией изготовления технологических устройств в функциональных схемах автоматизации. Таким образом, на нем показано расположение технологических устройств. Устройства и средства автоматизации идентифицировались не по конструктивным, а по функциональным признакам, и создавалась функциональная схема.*

Ключевые слова: *функциональная схема, автоматизация технологических процессов, буквенные обозначения, системы, конструкции, дефаззификация, сигнал управления, конкретный объект управления.*

Annotation: *The article presents the creation of a functional diagram of the system for automatic adjustment of the parameters of the heat agent. In the functional diagrams of automation, technological devices are associated with the production technology. Therefore, the location of technological devices is indicated in it. Automation devices and tools were identified not by their structural characteristics, but by their functional characteristics, and a functional diagram was created.*

Keywords*: Functional diagram, automation of technological processes, Symbols, Systems, devices, defuzzification, control signal, specific control object.*

Texnologik jarayonlarni avtomatik boshqarish tizimlaridagi avtomatlashtirish bo`yicha yechimlar avtomatlashtirishning funksional sxemalarida ko`rsatiladi.

Funksional sxemalar avtomatlashtirish vositalari va qurilmalaridan tarkib topgan boshqarish ob`yektining, texnologik jarayonlarni avtomatik rostlash, boshqarish va nazorat qilishning alohida tugunlarini funksional -blokli strukturasini aniqlovchi asosiy texnik xujjatdir.

Umumiy xolda funksional sxema - bu chizma bo`lib, unda texnologik jarayondagi vositalar, qurilmalar va ular orasida bog`liqliklar maxsus shartli belgilar yordamida tasvirlanadi. Yordamchi qurilmalar (elektr manbai, rele, avtomatlar, o`chirgichlar, saqlagichlar va xakozalar) bu sxemalarda aks ettirilmaydi.

Avtomatlashtirishning funksional sxemalarida texnologik qurilmalar ishlab chiqarish texnologiyasi bilan bog`langandir. Shuning uchun unda texnologik qurilmalarning joylashishi ko`rsatiladi. Ushbu sxemalarda texnologik qurilmalar soddalashtirilgan xolda aks ettiriladi.

Buning boshqa sxemalaridan farqi shundaki, avtomatlashtirish asboblari va vositalari

konstruktiv belgilari bo`yicha emas, balki funksional belgilari bo`yicha belgilanadi.

Texnologik jarayonlarni avtomatik boshqarish tizimlarida qo`llanilgan o`lchov asboblari, rostlagichlar va boshqa avtomatlashtirish vositalari avtomatlashtirishning funksional sxemalarida GOST 21.404-85 – «Texnologik jarayonlarni avtomatlashtirish. Avtomatlashtirish asboblari va vositalarini sxemalarda shartli belgilanishi» bo`yicha ko`rsatiladi.



1-rasm. Quritish agenti xosil qilish jarayonining funksional sxemasi.

GOST 21.404-85 ga asosan birlamchi o`lchov o`zgartirgichlari (datchiklar) va asboblar, shu bilan birgalikda o`lchovchi, rostlovchi nazorat qiluvchi va signal beruvchi asboblar aylana shaklda belgilanadi. Ijrochi mexanizmlar ham kichikroq diametrli aylana shaklida ko`rsatiladi.

Avtomatlashtirishning funksional sxemalarida asboblarning xarfli belgilari shartli grafik belgining yuqorigi qismida joylashadi, pozision belgisi esa arab sonlari va rus alfavitning kichik xarflaridan tashkil topgan bo`lib, pastki qismiga yoziladi. Son asbobning funksional guruhi nomerini, xarf esa asbobning bu guruhdagi nomerini ko`rsatadi. Xarfli belgi funksional sxemada signalning xarakat yo`nalishini ham ko`rsatadi.

Davlat standarti buyicha shartli belgilar bo`yicha avtomatlashtirishning funksional sxemasini qurinishni ikki xil usuli mavjud:

1. Boshqarish shitlari va pul`tlarini to`g`ri to`rtburchak ko`rinishda chizmaning pastida ko`rsatiladi;

2. Boshqarish shitlari va pul`tlarini ifodalovchi to`g`ri to`rtburchaksiz.

Birinchi usul bo`yicha alohida nazorat va rostlash tizimlari elementlarining xammasi funksional sxemada ko`rsatiladi. Bu funksional sxemani o`qishni yengillashtiradi.

Ikkinchi usuldagi funksional sxema, avtomatlashtirish bo`yicha umumiy tasavvur berishga qaramasdan, avtomatlashtirish xujjatlarini bir muncha qisqartirish imkonini beradi.

Texnologik jarayonni tadqiq qilish asosida va yuqoridagilarni xisobga olgan holda quritish agenti xosil qilish texnologik jarayonining funksional sxemasini quramiz.

Ob`yektga (teplogeneratorga) 2 xil modda kiradi: havo va yoqilgi. Bu moddalarning sarfini o`lchash uchun datchiklar (havo uchun 2-a, yoqilgi uchun 1-a) o`rnatilgan. Ushbu datchiklardan olingan signallar 2-b va 1-b lar orqali rostlagich 2-v va 1-v larga uzatiladi. Rostlagichlar o`z navbatida boshqarish signalini ishlab chiqib uni ishchi mexanizmlarga uzatadi. Natijada ishchi mexanizmlar rostlash organlarining holatlarini berilgan topshiriqqa mos holda o`zgartiradi. 3-a va 4-a datchiklar orqali quritish agentining harorati va sarfi o`lchanadi. Datchiklardan olingan signallar 3-b va 4-b lar orqali 3-v da ro`yxatga olinadi, 4-v rostlagichlarda rostlanadi. Rostlagichlar o`z navbatida boshqarish signallarini ishlab chiqadi. Boshqarish shu asnoda davom etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Yusupbekov N.R., Aliev R.A., Aliev R.R., Yusupbekov A.N., Intellektualnыe sistemы

upravleniya i prinyatiya resheniy, Izdatelstvo “Uzbekiston” milliy ensiklopediyasi”, Tashkent, 2015 – 572 s

2. Leonenkov A.V. Nechetkoe modelirovanie v srede MATLAB i fuzzyTeach – SPb: BXV – Peterburg, 2005 – 736s

3. Cristhian P. Almeida-Rivera. Designing Reactive Distillation Processes with Improved Efficiency economy, exergy loss and responsiveness. -Delf, 2005. Proefschrift Dissertation. -277p

4. Koichi Asano. Mass Transfer: From Fundamentals to Modern Industrial Applications. - WILEY-VCH Verlag GmbH & Co. KGaA, Weinheim (Germany), 2006. -275p

UDK 681.51:66.012.1

ТЕХНОЛОГИК ЖАРАЁННИ ИДЕНТИФИКАЦИЯЛАШ

Мурадуллаев Достон Музаффар ўғли
Рахимов Улаш Номозович
Номозов Бехруз Эркин ўғли
Қарши Давлат Техника Университети

Аннотация: Мазкур мақолада технологик жараённи идентификациялаш ва уни математик моделлаштириш масалалари кўриб чиқилган. Идентификациялаш жараёнида объектнинг кириш ва чиқиш параметрлари асосида унинг математик модели тузиш усуллари таҳлил қилинган. Мақолада моделлаштиришнинг аналитик, тажрибавий (экспериментал) ва тажрибавий-аналитик усуллари мазмунан ёритилган ҳамда уларнинг қўлланилиш соҳалари тушунтирилган. Ректификацион колонна мисолида бошқарувчи (сарф) ва бошқарилувчи (ҳарорат) параметрлар аниқланиб, объектнинг кучайтириш коэффициенти ва инерция вақти ҳисобланган. Квази объект сифатида қабул қилинган жараён учун узатиш функцияси ҳосил қилиниб, унинг компьютер модели “MATLAB” дастури ёрдамида яратилган. Тадқиқот натижасида объектнинг турғун ва инерцион хусусиятга эга эканлиги аниқланган.

Аннотация: В данной статье рассматривается идентификация технологического процесса и его математическое моделирование. В процессе идентификации проанализированы методы создания математической модели объекта на основе входных и выходных параметров. В статье описаны аналитические, экспериментальные (экспериментальные) и экспериментально-аналитические методы моделирования, а также рассмотрены области их применения. В случае ректификационной колонны были определены управляющие (расход) и регулируемые (температура) параметры, рассчитаны коэффициент усиления и время инерции объекта. Для процесса, рассматриваемого как квазиобъект, была выведена передаточная функция, и с помощью программы MATLAB была создана его компьютерная модель. В результате исследования было установлено, что объект обладает устойчивыми и инерционными характеристиками.

Abstract: This article deals with the identification of the technological process and its mathematical modeling. In the process of identification, methods of creating a mathematical model of the object based on input and output parameters were analyzed. Analytical, experimental (experimental) and experimental-analytical methods of modeling are explained in the article and their fields of application are explained. In the case of a rectification column, the controlling (flow) and controlled (temperature) parameters were determined, the amplification factor and inertia time of the object were calculated. A transfer function was derived for the process, which was considered as a quasi-object, and its computer model was created using the MATLAB program. As a result of the study, it was determined that the object has a stable and inertial characteristic.

Калит сўзлар: технологик жараёнлар идентификацияси, математик моделлаш, автоматик бошқарув тизими, ректификацион колонна, ишлаб чиқариш функциялари, ишлаб чиқариш коэффитсиэнти, инерция вақти, эксперимантал-аналитик усул, кириш ва чиқиш параметрлари, МАТЛАБ модели.

Бу амалиётда идентификация масаласи оптимизация масаласи билан биргаликда асосий масала ҳисобланади. Умумий ҳолда бу масаланинг ҳаммаси учун аниқ бир мақсадда йўналтирилган моделни қуриш керак бўлади. Бу моделни қуриш жараёнида

идентификациялашдан мақсад энг аҳамиятли ҳисобланади.

Умуман моделлар концептуал, физик ёки математик бўлиши мумкин. Модел ҳақиқий объектнинг соддалашган тасвирини ўзида акс эттириб, унинг мураккаблийлик даражаси объектнинг мураккаблик даражасига боғлиқ бўлади.

Идентификация бу ўтказилаётган тажриба маълумотларидан фойдаланиб, жараённинг математик моделини тузиш тушинилади.

Бошқариш тизимини математик моделлаштириш қуйдагиларни ўз ичига олади.

1. Тажрибавий-статик усул
2. Аналитик усул
3. Тажрибавий-аналитик усул



Аналитик усул тизимларни бир неча хусусиятлари аввалдан маълум бўлган кичкина тизимчаларга бўлиб физика, механика, кимё қонунлари асосида моделлаштиришга асосланган бўлиб, бу тизимчалар моделларининг йиғиндиси катта тизим моделини ифода этади. Бундай ёндашув аналитик моделлаштириш деб номланади. Турли экспериментлар ўтказиш асосида маълумотларга эга бўлиш аналитик моделлаштириш доирасига кирмайди. Бу усул ёрдамида етарлича ўрганилган, хусусиятлари аввалдан маълум бўлган объектларни моделлаштиришда фойдаланилади.

Агар объектнинг математик моделини қуришда аналитик маълумотлар етарли бўлмаса, айрим коэффициентларни аниқлаш учун тажриба ўтказиш зарур бўлса ва керакли қийматлар кириш ёки чиқиш параметрларини ўлчаш натижасида олинса, бундай математик моделлаштириш экесперимантал усулда моделлаштириш дейлади.

Агар тузилаётган математик моделнинг тенгламаси маълум бўлсаю, тенглама коэффициентларининг қийматлари тажрибадан аниқланадиган бўлса, математик моделлаштиришнинг бундай турига экспериментал-аналитик моделлаш усули дейилади.

Маълумки, автоматлаштириш элементларини аналитик усулда моделлаштиришда қуйидаги босқичлар амалга оширилади:

1.Олинган объект яхшилаб ўрганилади;

2.Объектнинг кириш ва чиқиш параметрлари аниқланади;

3.Объект параметрларидан бошқарувчи ва бошқарилувчи параметрлар аниқланади;

4.Объектнинг математик ва компютер моделлари топилади. Бунинг учун объъект зонали (квази объектли) деб қабул қилинди;

5. Автоматлаштирилган ростлаш тизимининг компютер модели яратилади;

6.Тизим учун энг оптимал шароит аниқланади.

Ушбу кўрсаткичларни ичидан бошқарувчи ва бошқарилувчи кўрсаткичларни аниқлаб оламиз.

Бошқарувчи кўрсаткич – Сарф, кг/с.

Бошқарилувчи кўрсаткич- Температура, ^{0}C.

Жараёндаги ўзгартириладиган объектнинг асосий кўрсаткичи – ҳарорат бўлиб, унинг ўзгариш чегараси $t_{max}=55^0$C; $t_{min}=45^0$C; $t_{ўрт}=50^0$C; ўзгариш чегараси = ±5°C. Яъни:

$\Delta t_{max}= t_{max}- t_{ўрт}=55-50=5^0$C

$\Delta t_{min}= t_{min} - t_{ўрт}= 45-50=-5^0$C

$\Delta t=\pm5^0$C.

Квазе объектдаги бошкарув жараёнини 10 сиғимли деб, қабул қиламиз. Бундай объект инерцион бўлинма тенгламаси билан ифодаланади:

$$W_1(p) = \frac{K_1}{T_1 \bullet p + 1}$$

Объект коэффициентларини топиш учун нинг кўсаткичларига эътибор берамиз.

Бошқарилувчи объектнинг кучайтириш коэффициентини аниқлашда чиқиш параметрини кириш параметрига бўламиз. Яъни:

$$К_{об} = \frac{\Delta t * N}{\Delta W} = \frac{50}{1.04 * 10^{-3}} = 48080$$

Бу ерда:

$К_{об}$-Обьектнинг кучайтириш коэффициенти;

Δt- чиқиш параметри (назорат тарелкасидаги ҳарорати), ^0C;

ΔW- кириш параметри (ҳажмий сарф),$м^3/с$;

$$\Delta W = \frac{G}{\rho} = \frac{1500}{3600 * 400} = 1.04 * 10^{-3}$$

Бу ерда:

G - қурилмага кираётган табий газ массавий сарфи,кг/соат;

ρ - табий газнинг суюқ фазасидаги зичлик (ρ=400 кг/ $м^3$);

Колонна назорат тарелкасида ҳарорат ошиб кетса киришдаги маҳсулот сарфини ошириш орқали колоннадаги ҳарорат назорат қилиб турилади.

i- камерадаги кучайтириш коэффициенти қуйидагича топилади:

$$К_i = \sqrt[10]{К_{об}} = \sqrt[10]{48080} = 2.94$$

ҳар бир камеранингн кучайтириш коэффициенти:

1. $К_1 = 2.94$;
2. $К_2 = 2.94$;
3. $К_3 = 2.94$;
4. $К_4 = 2.94$;
5. $К_5 = 2.94$;
6. $К_6 = 2.94$;
7. $К_7 = 2.94$;
8. $К_8 = 2.94$;
9. $К_9 = 2.94$;
10. $К_9 = 2.94$.

Объектнинг кучайтириш коэффициенти топилгач,газнинг ўртача бўлиш вақтини топамиз,бунинг учун ҳар бир камера ҳажмини махсулот ҳажмий сарфига бўламиз:

$$T = \frac{V}{\Delta W} = \frac{0.96}{1.04 * 10^{-3}} = 923c$$

Бу ерда:

T – инерция вақти,секунд;

V-ҳар бир камера ҳажми, $м^3$;

ΔW- ҳажмий сарф,$м^3/с$;

T =923 с=15.38 мин

Бу кўрсаткичлар аниқ бўлгандан кейин узатиш функциясини сон қийматини яратамиз.Объектнинг характерини узатиш функцияси орқали ифодалашда, унинг иккита коэффициенти инобатга олинади,булар: кучайтириш коэффициенти ва инерция вақти.

Кучайтириш коэффициенти ва инерция вақтини топилгандан кейин квази объектнинг узатиш функцияси қуйидагига тенг бўлади:

$$W_{об\,i} = \frac{К_i}{Ts + 1} = \frac{2.94}{15.38s + 1}$$

Квази объектининг компютер моделини яратиш

Биз танлаган объект кўп сиғимли эканини ҳисобга олиб,унинг компютер моделини куйида келтирилган “MATLAB” дастури асосида ҳосил қиламиз.Бунинг учун дастурнинг кутубхонасидан керакли бўлинмалар олинади.

Энди, ҳамма квази объектларни умумлаштириб асосий объектдаги жараённинг компьютер моделини шакллантирамиз:



Ва унда тажриба ўтказиб объектнинг ўтиш чизиғи билан танишамиз



Объектимиз турғун обект хисобланиб, инерцияга эга экан.

REOSTAT YORDAMIDA TOK KUCHINI ROSTLASH: NAZARIY ASOSLAR, TAJRIBA METODOLOGIYASI VA AMALIY TADQIQOTLAR

Berkinov Alisher Abdurashidovich, Isayev Jahongir
Jizzax davlat pedagogika universiteti

Annotatsiya: maqolalarida reostatatsiya tahlil qilish to’g’risida tok kuchini rostlash metodikasi, uning nazariy asoslari va amaliy qo’shimcha yordam. Ishda Om qonuni, Krixgoff qonunlari va o’lchashning elementar xatolari ko’rib chiqildi. Eksperimental qismda turli reostatlarni qo’llash orqali doimiy tok zanjir tokni ma’lum qiymatga moslashtirish bo’yicha tajribalar o’tkazildi. Olingan manba asosida tokni rostlash bo’yicha metodik ko’rinishda ishlab chiqildi. Natijalar o’quv-amaliy mashg’ulotlar va laboratoriya ishlarida qo’llash uchun foydali bo’ladi.

Kalit so’zlar: reostat, tok kuchi, Om qonuni, ampermetr, voltmetr, rostlash, laboratoriya metodikasi

1.Kirish. O’zbekiston Respublikasining “Ta’lim to’g’risida”gi Qonunida ta’lim jarayoniga zamonaviy pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish ustuvor vazifa etib belgilangan[13]. Shuningdek, “Raqamli O’zbekiston – 2030” strategiyasida ta’lim tizimini raqamlashtirish, elektron resurslar va innovatsion o’qitish vositalarini keng qo’llash zarurligi ta’kidlangan[14]. Tok kuchini aniq rostlash elektr o’quv laboratoriyalarida va amaliy xavfsizlikda

[13] O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi. – 2020.

[14] “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risida // O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. – 2020.

muhim xavfsizlik ega. Reostatlar zanjirdagi qarshilikni o'zgartirish orqali tokni nazorat qiladi. Bu metodika talabalarni Om qonuni, va krixgoff qonunlari va o'lchov yaratishning ishlash printsipiga amaliy yo'l bilan tanishtirishga xizmat qiladi. Maqoaning maqsadi — reostat yordamida tokni rostlash metodikasini nazariy va amaliy nuqtai nazardan bayon etish, tajriba protokolini va o'qituvchilar uchun tavsiyalarni taqdim etish. Umumta'lim maktablarida rheostat yordamida tok kuchni rostlash mavzusini o'qitish jarayonida bir qator metodik muammolar kuzatiladi, xususan, laboratoriya jihozlarining yetarli emasligi va tajribalarni xavfsiz tashkil etish bilan bog'liq cheklovlar o'quv jarayonining samaradorligiga ta'sir ko'rsatadi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunda ta'lim jarayoniga zamonaviy pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish zarurligi alohida belgilangan bo'lib, bu fanlarni innovatsion yondashuv asosida o'qitishni talab etadi[15]

2.Nazariy asoslar 2.1.Om qonuni va munosabatlar Om qonuni bo'yicha: $I = U / R$, bunda I — tok kuchi (A), U — kuchlanish (V), R — qarshilik (Ω). Zanjirdagi umumiy qarshilik $R_{umumiy} = r_0 + R_1 + R_{reostat}$ oladi (r0 — manbaning ichki qarshiligi, istemolchi qarshiligi R , $R_{reostat}$ - reostat). Agar doimiy elektramotor quvvati P mavjud bo'lsa, tok: $I = E / (r_0 + R_{istemolchi} + R_{reostat})$. (1)

2.2. Reostat va uning quvvat chegarasi Reostatni tuzatishda olinadigan issiqlik va quvvat chegarasi. Reostatda quvvat : $P_{reostat} = I^2R_{reostat}$. (2) manba, manba ichki qarshiligi va xavfsizlik holati o'lchov tekshiruviga ta'sir qiladi.

2.3. Kirxgoff qonunlari va o'lchov xatolari Kirxgoffning birinchi qonuni: tugundagi kiruvchi va chiquvchi toklar algebraik yig'indisi nolga teng. Volt qonuni: zanjirdagi kuchlanish tushuvlarining algebraik yig'indisi nolga teng. Ampermetr zanjirga qatorga ulanganida uning o'z qarshiligi (R) haqiqiy tokni o'zgartiradi; voltmetr parallell ulanganida R_V zanjirga qo'shimcha yuklanish soladi. O'lchov xatolarini ishlatish uchun formula: $I_{to'la} = |I_1 + I_{nisbiy}|$ (3)

3.1**Tajriba usuli** 3.1. Maqsadlar

- Reostat yordam tokni ma'lum qiymatga aniq rostlash;
- Ampermetr va voltmetr o'lchov xatolarini tahlil qilish;
- Qayta tiklash quvvati va issiqlik parametrlarini yuqori.

3.2. Asbob-kuskunalar Doimiy kuchlanish manbai U (masalan, 12 V), o'zgaruvchan reostat (0–100 Ω, $P_{maximall}$ 5 wt), o'zgarmas qarshilikli istemolchi R (10 Ω), ampermetr (R_A ma'lum), voltmetr (R_V ma'lum), multimetr va termometr.

3.3. Sxema va protsedura Zanjir: U — r_0 — $R_{reostat}$ — R — yopilish. Ampermetr qatorga, voltmetr — istemolchiga parallel ulanadi. Reostatni bosqichma-bosqich oshirib, har bir pozitsiyada tok kuchi(I) va kuchlanish(U) o'lchanadi. Nazariy tok kuchi I (1)-formulaga muvofiq. Har bir o'lchov uchun nisbiy tok kuchi I (3)-formula orqali tezlik. Reostatdagi P (2)-formulaga asoslanib olinadi va P_max bilan solishtiriladi.

	R	0 Ω	I	1.09A	U	10.9V
2	R	10 Ω	I	0.98A	U	9.8V
3	R	20 Ω	I	0.83A	U	8.3V
4	R	40 Ω	I	0.62A	U	6.2V
5	R	60 Ω	I	0.48A	U	4.8V
6	R	80 Ω	I	0.36A	U	3.6V

Nazariy qiymatlar I_{nisbiy} mos ravish (1)-formuladan foydalanish; o'lchovlar va nazariy qiymatlar farq ampermetr va voltmetr xatolari, sim qarshiligi va kontaktlar ta'siri bilan izohlanadi.

4.Tahlil va muhokama Olingan tavsiya Om qonuni bilan mos keladi reostatning qarshiligi ortishi tokni oshiradi. I_1 va I_2 tashqi ko'rinishdagi ampermetrning R_A va sim kontaktlariga bog'liq. Yuqori toklarda reostatda quvvatlangan quvvat oshadi va bu $P_{reostat}$ (2)-formulaga mavjud bo'ladi; $P_{reostat} > P_{maximall}$ bo'lishi kerak. Reostatning aniq rostlash uchun ostida istemolchi nozik

[15] O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi. – 2020. – URL: https://lex.uz/docs/5013007

o’zgarishlarga sezgirligi ba’zan noqulaylik bo’lishi mumkin; bunday holatlar uchun aniq potensial yoki tok cheklovchi elektronometrlar tavsiya qilish.

5. Metodik tavsiyalar va tavsiyalar

- Talabalarga nazariy hisob-kitoblarni eksperiment bilan solishtirish topshirilsin.
- Ampermetr va voltmetrning qarshiligini inobatga olib, o’lchovlarni formulalarini ko’rsatish.
- Reostatning $P_{maximall}$ chegarasidan ulanish, simlar va kontakt to’gri ulanishi, ishlash vaqtida issiqlikni saqlash shart.
- Laboratoriya ishining ishlash mezonlari: hisob-kitob, eksperimental, xatolik tahlili va xavfsizlik qoidalariga rioya qilish.

Xulosa. Reostat yordamida tokni rostlash o’quv laboratoriyalarida talabalarni nazariy va amaliy birlashtirish uchun samarali usul ko’rsatildi. Om qonuni va Kirxgoff qonunlari asosida reostatning qarshiligini dastak orqali tokni nazorati amalga oshirish imkoni mavjud. O’lchovlar vaqtida ampermetr va voltmetrning o’zoro ta’siri inobatga olinishi kerak. Kelgusida, tajribalarni avtomatlashtirish va kompyuter yordamida tok nazorati bilan solishtirish tavsiya etilgan. Tadqiqot davomida elektroliz mavzusini an’anaviy usulda o’qitishda abstraktlik va laboratoriya sharoitining cheklanganligi kabi muammolar mavjudligi aniqlandi. Raqamli ta’lim vositalari esa mazkur jarayonlarni vizual modellashtirish orqali tushunishni yengillashtiradi. Virtual laboratoriyalar yordamida ionlarning harakati va elektrod reaksiyalarini ko’rsatish o’quvchilarning ilmiy tasavvurini kengaytiradi. Raqamli simulyatsiyalar nazariy bilimlarni real sanoat jarayonlari bilan bog’lash imkonini yaratadi. Bu esa o’quvchilarda texnologik tafakkur va kompetensiyalarni shakllantirishga xizmat qiladi. Shuningdek, raqamli metodlar xavfsiz tajriba muhiti yaratib, moddiy resurslarga bo’lgan ehtiyojni kamaytiradi. Demak, elektroliz mavzusini raqamli ta’lim usullari asosida o’qitish zamonaviy ta’lim talablariga mos, samarali va istiqbolli metodik yo’nalish hisoblanadi.

Adabiyotlar

1. Ohm GS Die galvanische Kette, mathematisch bearbeitet. 1827.
2. Aleksandr CK, Sadiku MNO Elektr zanjirlarining asoslari. McGraw-Hill, 2012.
3. Nilson JW, Riedel SA elektr zanjirlari. Pearson, 2015 yil.
4. Horowitz P., Hill W. Elektronika san’ati. Kembrij universiteti nashriyoti, 2015.
5. Sadiku MNO Elektromagnitika elementlari. Oksford universiteti nashriyoti, 2001.
6. Elektr o’lchovlari bo’yicha IEC/IEEE standartlari (eng so’nggi nashrlar).
7. Belevich AV Elektr texnikasining laboratoriya mashg’ulotlari metodikasi. 2008 yil.
8. [1] O’zbekiston Respublikasining “Ta’lim to’g’risida”gi Qonuni // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi. – 2020.
9. [1] “Raqamli O’zbekiston – 2030” strategiyasi to’g’risida // O’zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. – 2020.
10. [1] O’zbekiston Respublikasining “Ta’lim to’g’risida”gi Qonuni // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi. – 2020. – URL: https://lex.uz/docs/5013007

Ilova: namunaviy hisob-kitob Berilgan: E = 12 V, r0 = 0,5 Ω, R_1= 10 Ω. Agar R_2=20 Ω bo’lsa: $I_{nisbiy} = 12/(0{,}5+10+20) \approx 0{,}393$ A; $U_1 \approx 3{,}93$ V; $P_{reostat} \approx 3{,}09$ wt <5 wt.

NEFT TARKIBIDAGI GAZLARDAN SUYULTIRILGAN UGLEVODORODLARNI ISHLAB CHIQARISH KO‘RSATKICHLARINI OSHIRISH TEXNOLOGIYASINI ASOSLASH

Yuldashev Tashmurza Raxmonovich
Samadov Aziz Xasanovich
Xasanov Farmonbek Baxodir o‘g‘li
Qarshi davlat texnika universiteti

Kirish. Neftning tarkibidagi yo‘ldosh gazning tarkibidan suyultirilgan gazni absorbsiya usulida ajratib olishdan tashqari past haroratdagi texnologiya asosida ham ajratib olish mumkin. Hozirgi vaqtda Respublikamiz konlaridan yiliga 3 mlrd.m3 ga yaqin gaz atmosferaga chiqarilmoqda. Maqolada mash’ala va yo‘ldosh gazlarni utilizatsiya qilish va undan samarali

foydalanish texnologiyalari ko‘rib chiqilgan.

Kalit so‘zlar*: yo‘ldosh gaz, fraksiyalash, absorbsiyalash, barqarorlashtirish, distilyatsiya, sintetik suyuqlik.*

Neft konlaridagi “xom” neft quvur uzatmalar orqali haydalganda barqarorlashadi. Neftning barqarorlashish jarayonida uning tarkibidan yengil uglevodorodlar-yo‘ldosh gazlar ajralib chiqadi. Yo‘ldosh gaz suyultirilgan neft gazini olishning eng qimmat xom ashyosi hisoblanadi. Neftni qazib olishda yo‘ldosh gazni ajratib olish va qayta ishlash hamda suyultirilgan neft gazini olishning eng sodda texnologiyasi keltirilgan.

Quduqdan keladigan neft yog‘li gaz bilan birgaliqda ajratgichga kirib keladi. Neftning tarkibidagi yog‘li gaz ajratiladi va yuqoridagi shtuser orqali chiqariladi, neft esa o‘rta qismidagi shtuser orqali rezervuarga yo‘naltiriladi. Yog‘li gaz ajratgich orqali gazni qayta ishlaydigan qurilmaga yo‘naltiriladi, u yerda absorbsiya usulida yengil siqiladigan gazlar ajratib olinadi. Undan keyin siqiladigan gaz absorbentlardan ajratiladi va alohida uglevodorodlarning fraksiyalariga ajratish uchun ajratgichga beriladi.

Yo‘ldosh gazning tarkibidan suyultirilgan gazni absorbsiya usulida ajratib olishdan tashqari past haroratdagi texnologiya asosida ham ajratib olinadi. Yo‘ldosh gazlar gazni qayta ishlash zavodlarida qayta ishlanganda quruq gaz va uning tarkibidan metan, etan va qisman propan, etan tarkibli fraksiyalar hamda suyultirilgan gazlar olinadi: propan, butan, izobutan va avtobenzol-barqaror gazli benzinning komponentlari mavjud bo‘ladi [1].

Neft konlaridagi yo‘ldosh gazning tarkibi gaz va gaz kondensat konlarining tabiiy gazlari bilan taqqoslash ma’lumotlari quyida keltirilgan (1-jadval).

Ma’lumotlardan ko‘rinib turibdiki, yo‘ldosh gazning tarkibi konlar kesimida o‘rganilganda bir-biridan katta qiymatda farq qiladi hamda konlarning turiga va qazib olish shartlariga bog‘liq bo‘ladi, suyultirilgan gazlar faqat yo‘ldosh gazlardan olinmasdan gazkondensat konlaridan ham olinadi. Gazkondensat konlaridagi gazlar yuqori bosim ta’sirida ishlanganda (100-600 kgs/sm^2) neftning ba’zi bir komponentlarga suyuqlik o‘tadi. Bosimning qiymati 40-80 kgs/sm^2 ga pasaytirilganda gazni kondensatsiyalash natijasida undan kondensat ajralib chiqadi. Bu kondensatning tarkibida benzin va suyultirilgan gazlarning og‘ir uglevodorodlarning komponenta mavjud bo‘ladi.

Neftni tayyorlash jarayonidan ma’lumki, neft ko‘targichlar orqali yuqoriga ko‘tarilganda yo‘ldosh gazning bir qismi suyuqlik holatida neftning tarkibida qoladi. Erigan gazning miqdori va uning tarkibi ko‘targichning rejimiga, bosimiga va haroratiga bog‘liq bo‘ladi[2]..

Neftning tarkibidagi gazlar neft kon qurilmalariga qayta barqarorlashtirish uchun beriladi va qolgan metan, butan fraksiyalari qo‘shimcha ravishda olinadi. Suyultirilgan neft gazining yarmidan ko‘p qismi neftni qayta ishlash zavodlarida qayta ishlash jarayonida olinadi. Zavodda neftni qayta ishlash natijasida olingan gazning tarkibi har bir jarayon uchun quyidagi tasnifga ega bo‘ladi (1-jadval).

Termik kreking jarayonida katta miqdordagi olifenlar olinadi. Katalitik jarayonda tarkibidagi katta miqdordagi izobutanlar, piroliz jarayonida esa ko‘p mikdorda etilen va vodorod olinadi.

Gazni fraksiyalarga ajratish qurilmalarida neftning tarkibidan zavodlarda ajratib olinadigan gazning komponentlariga - gaz, propan -propilen, butan - butilen fraksiyalari kiradi. Shuning uchun suyultirilgan neft gazining tarkibi ishlab chiqarish usuliga bog‘liq bo‘ladi [4]. Yo‘ldosh gazlar gazni qayta ishlash zavodlarida qayta ishlanganda chegaraviy uglevodorodlarga (propan-butan) ega bo‘ladi va eng so‘nggi holatda chegaraviy uglevodorodning (propan-butan) kichik bo‘lgan miqdoriga ega bo‘ladi. Neftni qayta ishlash zavodlarida neft gazidan olingan suyultirilgan gazning tarkibidagi chegaraviy uglevodorodlarning miqdori propilen va butilen keskin oshadi.

Propanni va undan yuqori bo‘lgam uglevodorodlarni olish qurilmasi. Suyultirilgan neft gazlarini olishda Joul-Tomson samarasidan foydalanish sxemasi quyida keltirilgan.

Quduqdan keladigan neft yog‘li gaz bilan birgaliqda ajratgichga kirib keladi. Neftning tarkibidagi yog‘li gaz ajratiladi va yuqoridagi shtuser orqali chiqariladi, neft esa o‘rta qismidagi shtuser orqali rezervuarga yo‘naltiriladi. Yog‘li gaz ajratgich orqali gazni qayta ishlaydigan qurilmaga yo‘naltiriladi, u yerda absorbsiya usulida yengil siqiladigan gazlar ajratib olinadi. Undan keyin siqiladigan gaz absorbentlardan ajratiladi va alohida uglevodorodlarning fraksiyalariga ajratish uchun ajratgichga beriladi. Yo‘ldosh gazlar gazni qayta ishlash zavodlarida qayta ishlanganda quruq gaz va uning tarkibidan metan, etan va qisman propan, etan tarkibli fraksiyalar hamda suyultirilgan gazlar

olinadi: propan, butan, izobutan va avtobenzol-barqaror gazli benzinning komponentlari mavjud bo‘ladi.

Erigan gazning miqdori va uning tarkibi ko‘targichning ish rejimiga, bosimiga va haroratiga bog‘liq bo‘ladi. Suyultirilgan neft gazining yarmidan ko‘p qismi neftni qayta ishlash zavodlarida qayta ishlash jarayonida olinadi.

Zavodda neftni qayta ishlash natijasida olingan gazning tarkibi har bip jarayon uchun quyidagi tasnifga ega bo‘ladi.

1-jadval

Bir nechta neft konlaridagi yo‘ldosh gazlarning o‘rtacha tarkibi gaz va gazdensat konlarining ma’lumotlari bilan taqqoslangan O‘zbekistondagi ba’zi konlarning gaz tarkibi

Kon nomi	Gaz tarkibi								Colishtirma zichligi
	CH_4	C_2H_6	C_3H_8	C_4H_{10}	C_5H_{10+10}	CO_2	H_2S	$H_{2+н}$	
1. Sof gaz konlaridan olinadigan gazlar									
Gazli, XI	93,49	4,18	0,97	0,38	0,16	0,42	-	0,40	0,588
Uchqir, XIV	94,05	3,42	0,74	0,30	0,49	0,50	-	0,50	0,604
Sho‘rchi,XIII	94,21	2,06	0,12	0,01	0,20	1,22	-	2,18	0,587
Oqjar, XII	93,97	1,71	0,21	0,10	0,21	0,50	-	3,30	0,589
Jarqoq, XII	95,34	1,86	0,16	0,16	0,27	0,17	-	2,04	0,580
Xartum, VII	74,2	11,85	4,95	-	4,95	0,17	0,02	3,40	0,759
Jan.Rishton, XXIV	81,36	10,40	2,40	0,96	0,81	0,06	-	4,00	0,681
2. Neft konidan olinadigan yo‘ldosh gazlar									
Gazli,XIII	93,45	2,45	0,60	0,25	0,50	0,45	-	2,30	0,598
Qoraxitoy, XIII	95,40	0,25	0,09	0,05	излари	0,60	-	3,60	0,577
Jarqoq, XV	92,15	4,10	0,96		0,73	1,60	0,06	0,40	0,612
Sho‘rtepa, XIII	87,75	5,00	2,30	0,80	0,60	0,15	-	3,40	0,640
Sharq.Xar.tum, III	45,06	22,55	13,47	2,26	5,87	0,25		7,46	0,792
Bocton, III	70,87	12,26	8,27	2,09	0,57	0,63	излари	3,02	0,850
Variq,VIII	66,99	14,87	9,38	0,88	0,99	0,74	0,45	1,94	0,886
3. Gaz-kondencat konlaridan olinadigan gazlar									
Jan.Muborak,XII	90,70	3,20	0,90	0,40	0,90	0,40	-	3,50	0,628
Sho‘rtepa ,XII	90,70	3,20	0,90	0,40	0,90	0,40		3,50	0,628
Sho‘rtepa, XII	87,00	5,10	1,50	0,60	0,70	0,33		4,70	0,654
Uchqir,XIV	94.40	3.00	0.90	0.40	0.35	0.45	-	0.50	0.599
Yangi-qozg‘on, XIII	89,80	2,10	0,50	0,40	1,20	0,70	-	5,30	0,637
Toshli,XVI	83,70	8,45	1,66	0,75	0,46	1,45		3,55	0,652
Hoji-Xayram, XV	89,45	4,62	1,27	0,13	0,28	0,48	0,48	0,06	3,70

Bu texnologiya soddaligi va arzonligi bilan ajralib turadi. Qurilma kirib keladigan gaz bilan chiqib ketuvchi gaz oralig‘idagi bosimning farqi oshirilganda C_{3+} fraksiyalarni ajratib olish kuchayadi [3]..

Bu qurilmaning kamchiligi metanol bilan mahsulotlarning ifloslanishi hamda metanolli suvlarni utilizatsiya qilish murakkab hisoblanadi. Bu sxemaning oddingi sxemadan farqi mahsulotlarni quritishda gaz qattiq quritgichlar yordamida quritiladi va uning tarkibida metanol bo‘lmaydi.

Distillyatsiya jarayonida olinadigan SNG (suyultirilgan neft gaz uglevodorod komponentlariga va oltingugurt birikmalarining to‘yingan, H_2S, metil va etilmerkaptan, organik sulfidlarni va disulfidlarni tizimidan iborat bo‘ladi. Bu aralashmalar bir yoki bir nechta aylanishlar bosqichida kolonnadan

chiqarib yuboriladi.

Kondensatsiyalangan fraksiya bosh fraksiyalash kolonnasidan eng yuqori qaynash nuqtasiga chiqadi va qaynash haroratiga bog‘liq bo‘ladi: yengil dastlabki distillyat (-100°C), dastlabki og‘ir distillyat (50-200°C), aviatsiya va maishiy kerosin (150-360°C), tarkibida temir yo‘l va dengiz dizel yoqilg‘isining o‘rtacha distillyatlari (oraliq haroratda), gazoyl (175-360°C). Bulardan ba’zilari kiruvchi mahsulot hisoblanadi va suyultirilgan neft gazining chiqishini kuchaytiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Номозов, Б. Ю., Самадов, А. Х., & Юлдашев, Ж. Б. (2022). ОСОБЕННОСТИ ЭКСПЛУАТАЦИИ НЕФТЕГАЗОВЫХ МЕСТОРОЖДЕНИЙ ГОРИЗОНТАЛЬНЫМИ СКВАЖИНАМИ. Экономика и социум, (11-2 (102)), 569-574.

2. Номозов, Б. Ю., Самадов, А. Х., & Юлдашев, Ж. Б. (2022). ПРОИЗВОДСТВО ОТКРЫТЫХ ПЛАСТОВ И ПОВЫШЕНИЕ КАЧЕСТВА СОГЛАСНО РЕКОМЕНДАЦИЯМ. Экономика и социум, (11-2 (102)), 575-578.

3. Самадов, А. Х., & Салохиддинов, Ф. А. (2021). Состояние изученности проблемы и геолого-физическое условия объектов исследования. Школа Науки, (1), 27-29.

4.Толумбаев А. Решение проблем утилизации НПГ в Казахстане: хорошо проработанные законы//Нефтегазовая вертикаль, 2006, №16, с.120

5. Салохиддинов, Ф. А., & Самадов, А. Х. (2018). ПРОЦЕССЫ ДЕФОРМАЦИИ КОЛЛЕКТОРА, ВЛИЯЮЩИЕ НА ПРОДУКТИВНОСТЬ СКВАЖИН С АВПД. In *Современные твердофазные технологии: теория, практика и инновационный менеджмент* (pp. 309-311).

MAHSULDOR QATLAMLARNI IKKILAMCHI OCHISHDA SKIN-SAMARA VA QO‘LLANILADIGAN ERITMALARNING SALBIY TA’SIRI SABABLARINI O‘RGANISH

Yuldashev T.R., Samadov A.X.
Qarshi davlat texnika universiteti

В данной статье рассматриваются случаи возникновения скин-факторов при вскрытии продуктивных пластов в условиях аномально низкого или аномального пластового давления, в зависимости от состава, физико – химических свойств растворов, применяемых в процессах бурения и доводки, а также в процессах укрепления и освоения, случаи негативного воздействия при эксплуатации на ряде месторождений республики (Шуртан, Северный Шуртан, Кукдумалок, Зеварда, Крук, Помук и др.) данные о том, что произошло, были изучены.

This article discusses the occurrence of skin factors during the opening of productive formations under conditions of abnormally low or abnormal reservoir pressure, depending on the composition, physical and chemical properties of solutions used in drilling and finishing processes, as well as in the processes of strengthening and development, cases of negative impact during operation at a number of fields in the republic (Shurtan, Severny Shurtan, Kukdumalok, Zevarda, Kruk, Pomuk, etc.).

Tayanch so‘zlar: skin faktor, fizik, fizik-kimyoviy, biologik, gazogidrodinamik, termodinamik, nobarqaror rejim, sementlash jarayoni.

Quduq tubi zonasining tavsiflariga ta’sir qiluvchi bir qator “strategik” parametrlar - deformatsiyasini o‘zgartiruvchi ya’ni, tor oraliqda drenajlash obyektida qatlam bosimining o‘zgarishiga ta’sir qilishi – bu “skin - samara” deyiladi. Quduq tubi zonasining ifloslanishi butun bir kompleks holatlar va jarayonlar bilan bog‘langan: fizik, fizik-kimyoviy, biologik, gazogidrodinamik, termodinamik va boshqalar. Har xil turdagi cho‘kindilarni va yotqiziqlarning qatlamga ta’siri natijasida sodir bo‘ladi, bu cho‘kindilar qatlam tubi zonasi bo‘ylab qatlam flyuidlari bilan birgalikda qazib oluvchi quduqlarning tubiga harakat qiladi. Ishlatish jarayonida qatlamning uzoqlashgan masofasidan cho‘kindalar, tog‘ jinsi zarralari, parchalangan zarralar quduq tubi zonasiga olib kelinadi va o‘tish kesim yuzalaridagi juda kichik g‘ovakliklarini berkitib qo‘yadi.

Quduq tubi zonasida bosimning keskin pasayishi asfaltsmola - parafinlarni tushishiga va tezkorlik bilan to‘planishiga, qovushqoq va yuqori qovushqoqli suvneft emulsiyalarini

shakllanishga, kollektorning bir qismidagi loyli tashkil etuvchilarning bo‘kishiga va boshqa holatlarga olib keladi. Shunday qilib quduqning tubi zonasi o‘ziga xos bo‘lgan filtrlar ya’ni, qattiq, suyuq, yuqori qovushqoqli organik va noorganik moddalar bilan berkilib qoladi [1,2]. Bu yerda eng informativ parametrlar kollektor qismining bir butun fizik xossalari kompleksini amaliyotda tavsiflovchi va uning o‘tkazuvchanlik ko‘rsatgichiga ta’sir qilishi, bu skin-samara ko‘rsatgichi deyiladi, qaysiki u qo‘shimcha bosimni yo‘qotilishi, qatlamning filrtlanish yuzasida to‘plangan skin – zona, quduqning devorida, qatlam quduq tubi zonasida va qatlam bilan quduqning aloqa o‘lchami bo‘lib xizmat qiladi hamda qazib olish debitini oshirish uchun zaruriy tadbirlarni amalga oshirishni talab qiladi.

G‘arbiy O‘zbekistonning neftli va neftgazli obyektlarida skin-samara ko‘rsatgichlari kattaliklarini baholash. Qatlamda suyuqlikning tekis-radial harakatida quduq tubining zonasiga yaqinlashgan sari filtratsiya maydonlari kamayadi, tezlik oshadi, natijada filtratsiya qarshiligini o‘sishga olib keladi. Qatlam tubi zonasida filtratsiya qarshiligini oshishiga quduqlarning qurilishida burg‘ilash va mahsuldor qatlamlarni ochish jarayonlari amaliy ta’sir qiladi. Quduqlarni mahsulligining tiklanishi yoki oshishi QQTZsining (qatlam quduq tubi zonasi) holatini baholash bilan chamchars bog‘liqdir, o‘z navbatida o‘z vaqtida ularni tiklash bo‘yicha tadbirlarni tanlash va amalga ishirishga bog‘liqdir.

G‘arbiy O‘zbekistonning bir qator konlarida skin-samarani natijalarini aniqlash va mahsulligi to‘g‘risidagi ma’lumotlar keltiriladi.

Bu regiondagi uglevodorod konlarining ko‘pchiligining geologik tuzilishi bir-biriga o‘xshashdir. Odatda bu antiklinal yoki braxiantiklinal burmalar ba’zi bir holatlarda tektonik burilishlar bilan tarmoqlangan. Asosiy ekspluatatsiya qilish obyektlari XV-P va XV-PU gorizontlarining yuqori yura karbonat yotqiziqlari bilan qirqilgan, Buxoro-Xiva neftgazlilik viloyatining chegarasi regional mahsuldor qatlam hisoblanadi. Odatda bu qatlamlar har xil zichlikdagi ohaktoshlar, katta qismi esa dolomitlashgan va loylardan iborat. Ba’zi bir holatlarda uglevodorod uyumlari XV-a va XVI gorizont yotqiziqlarining tarkibida ham mavjud.

Gidrogeologik tizimda bu obyektlarda ko‘pincha turg‘unlik tavsiflanadi. Boshlang‘ich qatlam bosimi odatda gidrostatik bosimdan yuqori, qatlam haroratining o‘rtacha qiymati 120-130°C chegarasida o‘zgarib turadi.

Skin-samaraning ko‘rsatgichlarini hisoblash usullari. Skin-samaralarni ko‘rsatgichlarini aniqlashning eng ko‘p qo‘llaniladigan usuli nobarqaror filtratsiya rejimida quduqlarda olib borilgan gidrodinamik tadqiqot ma’lumotlariga ishlov berish hisoblanadi.

Nobarqaror rejimda olingan gidrodinamik tadqiqot materiallariga ishlov berish natijasida QQTZ si hamda quduq tubi zonasidan uzoqda joylashgan qatlamning gidroo‘tkazuvchanligi, o‘tkazuvchanligi, pezoo‘tkazuvchanligi, skin-samara ko‘rsatgichlari, quduqning keltirilgan radiusi va potensial mahsulligi haqidagi ma’lumotlar olinadi.

Gidrodinamik ma’lumotlarning materiallariga ishlov berish qobul qilingan usullar yordamida olib boriladi [5,6]. Bu usulning amaliyotda qo‘llanilish mohiyati quduq to‘xtatib qo‘yilgandan keyin vaqt davomida quduq tubi bosimining (P_{zt}) tiklanish tezligi kuzatiladi. Undan keyin eng muhim parametrlarni ya’ni QQTZsini tavsiflaydigan va quduq tubi zonasidan uzoqda joylashgan qatlam parametrlarini aniqlash uchun P_{zt}= f (1gt) bog‘lanish grafigi quriladi.

Parametrlarni hisoblash quyidagi ketma-ketlikda amalga oshiriladi:

P_{zt} = f (lg t) egrilikdan to‘g‘ri chiziqli uchastkasi topiladi. Ana shu uchastkadagi egrilikka urinma to‘g‘ri chiziq o‘tkaziladi va ordinata chizig‘i bilan kesishguncha davom ettiriladi “a” bo‘lakchadagi ba’zi burchak «δ» aniqlanadi.

$$\delta = \frac{P_{zt_2} - P_{zt_1}}{lgt_2 - lgt_1} \qquad (1)$$

Bu yerda: P_{zt2} va P_{zt1} - tiklanish vaqtlariga t_1 va t_2 mos bo‘lgan quduq tubi bosimi.

Is’temol radiusi konturi bo‘yicha qatlamning o‘tkazuvchanlik koeffitsiyenti aniqlanadi:

$$\frac{K_h}{\mu} = \frac{2{,}12 \cdot B \cdot Q}{\delta \cdot \rho}. \qquad (2)$$

Bu yerda: Q – quduq to‘xtatilguncha quduqning debiti ; μ – neftning dinamik qovushqoqligi; B_n – neftning hajmiy koeffitsiyenti; h – ochilgan quduqning samarali qatlamining qalinligi; δ - (1)

formula bo‘yicha hisoblangan burchakli koeffitsiyentning qiymati.

Qatlamning gidroo‘tkazuvchanligi aniqlanadi:

$$\frac{K_h}{\mu} = \frac{2{,}12 \cdot B \cdot Q}{\delta \cdot \rho}. \quad (3)$$

Bu yerda: ρ – yer usti sharoitida neftning zichligi

Pyezoo‘tkazuvchanlik koeffitsiyenti:

$$æ = \frac{R}{\mu \cdot (m \cdot \beta_n \cdot \beta_m)} \quad (4)$$

bu yerda: t – g‘ovaklik koeffitsiyenti; β_n va β_m- qatlam neftining va mahsuldor qatlamning (kollektorning) mos holda hajmiy elastiklik koeffitsiyentlari.

Quduqning keltirilgan radiusi aniqlanadi:

$$r_{kel} = \sqrt{\frac{2{,}25}{10^{a/b}}} \quad (5)$$

Skin – samara ko‘rsatgichi aniqlanadi

$$r_{kel} = r_{qud} \cdot e^{-s} \quad (6)$$

Bu yerda: r_{qud} – quduq tubining radiusi (burg‘u bo‘yicha).

Mahsullik koeffitsiyenti

$$K = \frac{0{,}236 \cdot \rho(\frac{k \cdot h}{\mu})}{в(lgR_k - lgr_{kel})} \quad (7)$$

Bu yerda: R_K- to‘yinish konturi radiusi.

Gidrodinamik tugallanmagan quduqning koeffitsiyenti aniqlanadi.

$$\varphi = \frac{\lg(R_k/r_{qud})}{\lg(R_k/r_{kel})} \quad (8)$$

Sement filtrlarini qatlamga yutilishi va uning salbiy ta’siri. Quduqlarni sementlash jarayonida quduq atrofi sohasini o‘tkazuvchanligini yomonlashuvi sement aralashmasini va uni filtratlarini qatlamga kirib qolishi natijasida sodir bo‘ladi. Ichki kovakli fazoda sement gidrotatsiyasi va qayta kristallanishi hisobiga o‘tkazuvchanlik yomonlashadi, filtrat kremniy tarkibli komponentlarni qattiq fazolari bilan o‘zaro ta’sirlanishi (fraksiyaga kirishi) natijasida kalsiy silikatini gidrati paydo bo‘ladi, kollektorlarni sementlaydi. Sement aralashmasini qattiq fazosi bilan qatlamni shikastlanishi, quduq atrofi sohasida sementli kolmatatsiyasini himoya bo‘lishi bilan tavsiflanadi. Sement aralashmasi filtratlarini kirib borish chuqurligi quduq diametrini 1,5-2,0 barovariga yoki (20-30 sm) teng bo‘ladi. Ko‘pgina quduqlar kuzatilganda sement aralashmasini filtrati ta’sirida kollektorlarni o‘tkazuvchanligi birinchi kunda sezilarli darajada yomonlashgan.

Sementlash jarayoni mahsuldor qatlam zonasiga quyidagicha ta’sir etishi mumkin:

kollektorlarning o‘tkazuvchanligi 3-4 % ga kamayadi;

o‘tkazuvchanlik ko‘rsatkichi 0,1-0,5 mkm^2 bo‘lganda 10-20 % ga kamayishi mumkin;

sement filtratini kirib borish chuqurligi 20-30 sm ni tashkil qiladi;

sement aralashmasini qatlamga kirib borganda quduqning filtratsiya xossasini yomonlashtiradi;

burg‘ilashda neftli asosli eritmalardan foydalaniladi;

ba’zida loyli qobiqlar va kolmatatsiya zonasi qatlamni tamponaj aralashmalarni shikastlanishidan himoya qiladi;

aeratsiya eritmalardan foydalanilganda qatlamni o‘tkazuvchanligi maksimal yaxshilanadi;

filtratlar qatlam g‘ovakliklarda o‘tirib qoladi;

filtratlar kremniy bilan reaksiyaga kirishib qatlamni sementlanishga olib keladi.

Qatlamlarda yuvuvchi suyuqliklarni filtratlari filtratsiya sig‘imdorlik xossalariga ta’sir etib, qatlam shikastlanishiga ta’sir qiladi. Sement filtratlari bilan qatlamni shikastlanishi boshlang‘ich o‘tkazuvchanlikka nisbatan 3-5% ga etadi. Qatlamlarni o‘tkazuvchanligi 0,1-0,5 mkm^2 bo‘lganda sement aralashmasini filtrati bilan o‘tkazuvchanlikni yomonlashuvi boshlang‘ich qiymatga nisbatan 10÷20% (0,1-0,2) ni tashkil qiladi.

Yuqori o‘tkazuvchan kollektorlarda (0,5 mkm^2 dan katta) sement aralashmasini filtratlari va qattiq fazosi ta’sirida o‘tkazuvchanlikni yomonlashuvi 25-50% tashkil qilishi mumkin.

Qatlamni ochishda neftli asosli yuvuvchi suyuqliklardan, aeratsiya suyuqliklardan va boshqa

filtrlamaydigan yuvuvchi suyuqliklardan foydalanilganda quduqlarni sementlash jarayonida qatlamlarni o‘tkazuvchanligini maksimal darajada kamayishi sodir bo‘ladi.

Қудуқларни бурғилаб очишда кам ўтказувчан лойли қобиқларни ва колматация зоналарини пайдо бўлиши, қатламни тампонаж цементли аралашмалар билан шикастланишини давом этишини олдини олишда ижобий омил бўлиб хизмат қилади.

Adabiyotlar

1. Агзамов Ф.А., Дияшев Р.Н., Якимов А.С., Крысин Н.И. Анализ технологии вскрытия продувтивных пластов на депрессии . ////Нефтяное хозяйство.- Москва, 2007, №10, 125 – 129 с.

2. Балуев А.А. Бурение продуктивных пластов в условиях равновесия (депрессии) в системе скважина-пласт. Нефтяное хозяйство. 2001. № 9. с.38-39.

3. Балуев А. А., Лушпеева О. А., Усачев Е. А., Грошева Т.В. Эффективность применения биополимерных буровых растворов при бурении боковых стволов с горизонтальным участком. - Нефтяное хозяйство, 2001, № 9. с. 35-37.

4. Крылов В.И., Крецул В.В. Реологические особенности буровых биополимерных жидкостей // Нефтяное хозяйство. - 2002. - № 9. - С. 54-56.

5. Махаматхожаев Д.Р. Состав бурового раствора с закупоривающим свойством // Технология нефти и газа. - 2015. - № 4. - С. 49-55.

6. Yuldashev T.R.. Boynazarov O‘.R., Murtazayev A.M. “Mahsuldor qatlamlarni ochish va quduqlarni o‘zlashtirish” Toshkent- “Voris nashriyoti”-2020.- 425 bet.

7. Михиев М.А. Исследование загразнения продуктовного пласта растворами на водной основе с использованием моделикругового пласта. // Строителство скважин. – Москва, 1990, №9 , 8-10 с.

UDK:63/631.5

МОТОБЛОК ИШЛАТИШ КЎНИКМАЛАРИНИ ОШИРИШ ЗАМОНАВИЙ ЁНДАШУВЛАР ВА МЕТОДИКАЛАР

Худойбердиев Шерзод Зиёдулло ўғли
Қарши давлат техника университети

Аннотация. Мақолада мотоблокларни ишлатувчи операторларнинг малака ва кўникмаларини оширишнинг замонавий усуллари таҳлил қилинди. Ўргатишнинг оффлайн ва онлайн шакллари, тизимли кўникма машғулотлари ва амалий тренинглар орқали операторлар меҳнат самарадорлигини сезиларли даражада ошириш имконияти кўрсатилди. Шунингдек, малака ошириш жараёнида замонавий педагогик ва технологиявий ёндашувлардан самарали фойдаланиш усуллари муҳокама қилинди.

Калит сўзлар: мотоблок, оператор, малака, кўникма, ўргатиш, замонавий методика, самарадорлик.

Кириш. Маълумки, қишлоқ хўжалигида кичик техник воситалардан, хусусан мотоблоклардан самарали фойдаланиш меҳнатни тежаш ва иш самарадорлигини оширишда муҳим аҳамиятга эга. Мотоблоклар операторлар томонидан бошқарилади ва уларнинг малакаси, кўникмалари иш жараёнидаги самарадорликка тўғридан-тўғри таъсир қилади.

Бугунги кунда Ўзбекистонда мотоблоклар шахсий томорқаларда, деҳқон хўжаликлари ва иссиқхоналарда кенг қўлланилмоқда. Шу боис операторларнинг техник ва амалий тайёргарлигини ошириш, уларнинг хавфсизлик қоидаларига риоя қилиши ва экинларни сифатли ўриб йиғиши учун замонавий таълим усулларини жорий этиш долзарб вазифа ҳисобланади.

Малака ва кўникмаларни доимий равишда такомиллаштириш орқали операторлар меҳнат самарадорлигини сезиларли даражада ошириши, мотоблоклардан фойдаланиш самарадорлигини яхшилаши мумкин. Шу боис бу йўналишда таҳлилий тадқиқотлар ва замонавий ўргатиш методикаларини жорий этиш муҳим аҳамият касб этади.

Мотоблокларнинг ушбу афзалликларини ҳисобга олиб бугунги кунда республикамизда ҳам томорқа ерлари ва иссиқхоналарда улардан фойдаланиш оммалашиб бормоқда.

Мотоблоклар кичик ерларда агротехник жараёнларни механизациялаш билан бирга, ишларни кам ёнилғи сарфлаб бажаришга ҳам имкон беради. Шу сабабли ҳам ҳозирда ишлаб чиқарувчи ва дилер ташкилотлар томонидан Ўзбекистон бозорида фойдаланувчилар учун турли хилдаги мотоблоклар таклиф этилмоқда.

Муаммонинг қўйилиши. Қишлоқ жойларда мотоблокларнинг кўпайиб бориши билан улардан фойдаланадиган инсонларнинг ҳам малака ва кўникмаларини ошириб бориш асосий масалалардан бирига айланмоқда. Чунки мотоблоклардан тўғри фойдаланишни билмаслик ҳисобига ишни сифатсиз бажариш, уларни ишдан чиқариш ва айрим ҳолларда жароҳатланишлар ҳам содир бўлади. Шу сабабли ҳам мотоблоклардан фойдаланадиган операторларни ўқитиш орқали уларнинг мотоблоклардан тўғри фойдаланиш бўйича билим ва кўникмаларини ошириш долзарб муаммо ҳисобланади.

Тадқиқот услубиёти. Мотоблокларнинг турлари, уларнинг ишчи қисмлари, ҳар бир ишчи қисм билан мотоблокни агрегатлаб ишлатиш бўйича маълумотлар интернетдаги маълумотлар, мотоблок ишлаб чиқарувчи завод ва уларни сотиш билан шуғулланадиган дилерлик ташкилотларининг сайтлари, проспектлари ва брошюраларидан олинди. Опеараторларни ўқитиш шакллари, ўқитиш методлари бўйича маълумотлар, ўқитишда жонли ва мултимедиали воситалардан фойдаланиш, мотоблоклардан фойдаланадиган операторларнинг малака ва кўникмаларининг етишмаслиги оқибатида юзага келадиган муаммоларга қисқа муддатда ечим топиш бўйича маълумотлар шу йўналишдаги ишларни таҳлил этиш ва мазкур йўналишда илгари тадқиқотлар ўтказган тадқиқотчилар ва олимларнинг тавсиялари ва қўлланмалари асосида шакллантирилди.

Тўпланган маълумотлар асосида мотоблокдан фойдаланадиган операторларга қисқа муддатли ва доимий равишда мотоблоклардан фойдаланиш, уларни ишлатиш ва созлашни ўргатишни йўлга қўйиш бўйича таклиф ва тавсиялар ишлаб чиқилди.

Тадқиқот натижалари. Мотоблоклар асосан икки ғилдиракли бўлиб, ғилдирак формуласи 2К2 бўлади, яъни икки ғилдиракли ва иккала ғилдираги ҳам етакловчи (1-расм).



1-расм. Икки ғилдиракли мотоблок.





2-расм. Тўрт ғилдиракли мотоблок

Амалиётда тўрт ғилдиракли мотоблоклар ҳам учрайди. Уларнинг ғилдирак формуласи 4К2 бўлиб, иккита ғилдираги етакловчи, иккита ғилдираги эса етакланувчи ҳисобланади (2-расм). Тўрт ғилдиракли мотоблокларни операторлар бошқариши қулай бўлсада, аммо нархи қимматлиги сабабли кенг фойдаланилмайди.

Мотоблоклар Италия, Германия, Япония, Корея, Хитой, Ҳиндистон, Вьетнам ва бошқа давлатлардаги жуда кўп фирма ва компаниялар томонидан ишлаб чиқарилади.

Уларни ишлатиладиган ёнилғи тури бўйича бензинли двигателли ва дизель двигателли турларга ажратиш мумкин. Бензин двигателли мотоблокларда ёнилғи харажатлар кам бўлсада, аммо уларнинг тортиш кучи паст бўлади. Шу сабабли ҳам ер ағдариш ва тупроққа ишлов бериш каби оғир ишларда дизель двигателли мотоблоклар ишлатилади.

Бугунги кунда мотоблокка агрегатлаб ишлатиладиган жиҳозларнинг 50 га яқин тури мавжуд (3-расм).



3-расм. Мотоблокка агрегатланадиган иш ва ёрдамчи жиҳозлар

Иш жиҳоларининг кўпайиши билан операторлар, худди тракторларда бўлгани каби, уларни мотоблокка қандай агрегатлаш, иш турларини қандай қилиб сифатли, талаблар даражасида бажариш, ишларни бажаришда ҳавфсизлик техникасига амал қилиш каби кўникмаларга эга бўлиши талаб этилади. Бунинг учун эса уларни ўқитиш ёки ўргатишни йўлга қўйиш керак.

Бизнинг назаримизда ўқитиш икки хил кўринишда бўлиши мақсадга мувофиқ.

Биринчиси 3-5 кунлик қисқа муддатли курслар: бунда операторларга ўргатиш бевосита юзма-юз ҳолатда олиб борилади ва операторларга мотоблок ўт олдириш, бошқариш, ишчи жиҳозларни агрегатлаш, иш турларини сифатли бажариш учун уларни белгиланган ишлов бериш чуқурлиги ва қамров кенглигига созлаш, мотоблокка ва иш жиҳозларига техник хизмат кўрсатиш ва иш жиҳозларини ишлатишда хавфсизлик техникасига риоя этиш масалалари тушунтирилади.

Иккинчиси доимий курслар бўлиб, бу курслар интернет орқали масофавий шаклда олиб борилади. Бунда YouTube, Telegramm ва бошқа каналларда гуруҳлар очилиб, унга профессионал ёки ҳаваскорларнинг ишчи жиҳозларни агрегатлаш, иш турларини сифатли бажариш, ишчи жиҳозларни ростлаш, иш жиҳозларига техник хизмат кўрсатиш ва улардан фойдаланишдаги эҳтиёткорлик чоралари ҳамда иш тажрибаларига оид видеоматериаллар гуруҳларга ташлаб борилади. Мотоблокдан фойдалаувчилар зарурат бўлса Telegramm ёки бошқа мессенджерларда очилган гуруҳлар орқали бир-бирлари билан ёзма, оғзаки ва видеочақирув кўринишида мулоқот қилиш имкони ҳам бўлади.

Ҳозирда бундай гуруҳлар анча-мунчани ташкил этади. Аммо уларда энг асосий масала маълумотларнинг ҳаққоний ва ишончли бўлишига эришиш ҳисобланади. Агар шу ишлар йўлга қўйилса мотоблокдан фойдаланувчиларнинг ҳам кўникма ва малакаларига талаб даражасида бўлишга эришилади.

Хулоса. Мотоблокдан фойдаланувчилар учун қисқа муддатли ўргатиш курслари ва

интернетда YouTube, Telegramm ва бошқаларда фаолият олиб борадиган аниқ мақсадли канал ва гуруҳлар орқали доимий ўргатишни ташкил этиш мотоблокдан фойдаланувчиларнинг ҳам кўникма ва малакаларини катта техникалардан фойдаланадиган машинист ва операторларники сингари ошириб бориш имконини беради.

Фойдаланилган адабиётлар.

1. Zeren Y., Isik A. Agricultural inputs, mechanization and employment in Turkey// AMA. – Tokyo (Japan), 2001. – vol. 22, N 3. – pp. 63-66.

2. Kutzbach H.D.,Quick G.R. CIGR Handbook of Agricultural Engineering. Vol. III. Plant Production Engineering. ASAE. Chapter 1.6. Harvesters and threshers. St.Joseph, – Michigan, 1999. – 628 p.

3. Астанақулов К.Д. Ўзбекистон шароитида кичик майдонлардаги ғаллани эрта муддатларда йиғиштиришнинг илмий-техникавий ечимлари: Тех. фан. док. ... дис. – Тошкент: ҚХМЭИ, 2016. – 200 б.

4. Banaeian N., Zangeneh M. Mechanization and economic analysis of wheat production in Iran// AMA. – Tokyo (Japan), 2011. – vol. 42, N 4. – pp.15-27.

5. Mohammed S.O. A Comparative study of the most widely harvesting systems for wheat crop in Egypt. Misr J. Ag. Eng., 2008. – vol. 25, N 3. – pp. 804-823.

6. Xudoyberdiyev, Sherzod. "МОТОБЛОКЛАРНИ ИШЛАТАДИГАН ОПЕРАТОРЛАРНИ ЎҚИТИШНИНГ ДОЛЗАРБЛИГИ." (2023).

7. Xudoyberdiyev, Sherzod. "МОТОБЛОК АСОСИДАГИ ЎРГИЧЛАР ВА УЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШ АСОСЛАРИ." (2021).

8. Xudoyberdiyev, Sherzod. "MOTOBLOKLAR VA ULARNING ISHCHI JIHOZLARINING TAHLILI." (2024).

UO‘K: 664.694:664.761

CHORVACHILIK CHIQINDILARINI FOYDALI ENERGIYA VA O‘G‘ITLAR ISHLAB CHIQARISH UCHUN UTILIZATSIYA QILISH

E.O.Xamroyev, Yusupova Shaxrizoda Sirojiddin qizi
Qarshi Davlat Texnika Universiteti

Annotatsiya: *Maqolada chorvachilik chiqindilarini (go‘sht, sut, parranda va mol chiqindilari) biogaz va organik o‘g‘itlar ishlab chiqarishda utilizatsiya qilishning ilmiy va amaliy jihatlari tahlil qilindi. Adabiyotlar sharhi asosida chiqindilarni fermentatsiya, kompostlash va anaerob utilizatsiya usullari ko‘rib chiqildi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, chorvachilik chiqindilarini samarali utilizatsiya qilish nafaqat energiya manbalarini yaratadi, balki ekologik xavfni kamaytiradi va qishloq xo‘jaligi uchun yuqori sifatli organik o‘g‘itlar ishlab chiqarishga imkon beradi.*

Kalit so‘zlar: chorvachilik chiqindilari, biogaz, anaerob fermentatsiya, kompost, organik o‘g‘it, energiya samaradorligi.

Аннотация: *В статье анализируются научные и практические аспекты использования отходов животноводства (мяса, молока, птицы и крупного рогатого скота) для производства биогаза и органических удобрений. На основе обзора литературы рассмотрены методы ферментации, компостирования и анаэробного использования отходов. Исследования показывают, что эффективное использование отходов животноводства не только создает источники энергии, но и снижает экологические риски и позволяет производить высококачественные органические удобрения для сельского хозяйства.*

Ключевые слова: отходы животноводства, биогаз, анаэробная ферментация, компост, органические удобрения, энергоэффективность.

Abstract: *Abstract: This article analyzes the scientific and practical aspects of using livestock waste (meat, milk, poultry, and cattle) to produce biogas and organic fertilizers. A literature review examines methods of fermentation, composting, and anaerobic utilization of waste. Research shows that the efficient use of livestock waste not only creates energy sources but also reduces*

environmental risks and enables the production of high-quality organic fertilizers for agriculture.

Key words: livestock waste, biogas, anaerobic fermentation, compost, organic fertilizers, energy efficiency.

Kirish. Hozirgi davrda ilmiy-texnik rivojlanish natijasida yer yuzining deyarli hamma mamlakatlarida ekologik vaziyat noqulay ahvolda. Butunjahon sog‘liqni saqlash tashkilotining ma’lumotiga ko‘ra hozirgi davrda amaliyotda 500 mingga yaqin kimyoviy birikmalar bo‘lib, shundan 40 mingi inson organizmi uchun zararli, 12 mingi esa zaharli hisoblanadi. Shuning uchun ham atrof-muhitni himoya qilish, yangi, ekologik zararsiz, yoki deyarli zararsiz ishlab chiqarishni tashkil etish zaruriyati kelib chiqmoqda. Chiqindini qayta ishlash va ikkilamchi resurs sifatida foydalanish, atrofmuhitni himoya qilishda qator muammolarni hal qilish imkonini yaratadi, yerlarni, suvlarni ifloslanishdan saqlaydi, xomashyoga ishlov berish xarajatlarini kamaytiradi.

O’zbekistonda territorial, iqlim, tuproq va boshqa jabhalardagi sharoitlarning xilma-xilligi, parrandachilik komplekslari qurilishining o’ziga xosligi parrandachilik chiqindilarini qayta ishlash muammosini oxirigacha hal bo’lmaganligidan darak bo’lgan. Parrandachilik chiqindilarini yo’qotish, tashish va qayta ishlashda injenernotexnik vazifalarni amalga oshirishning murakkabligi chorvachilik va parrandachilik chiqindilarini foydali utilizatsiyalashni samarali usullarini yaratish muammolarini va atrof-muhitni muhofazasini ta’minlashga qodir apparatura bilan ta’minlash vazifasini ilgari surdi.

Butun dunyoda ekologik holat yomonlashgan keying vaqtlarda qishloq xo’jalik korxonalari organik chiqindilarini qayta ishlash bilan bog’liq masalalar yanada dolzarb bo’lib qolmoqda. Atrof muhit, odam va hayvonlar sog’ligiga zararli ta’siriga qaramasdan chiqindilarni qayta ishlashning optimal usullari topilmagan. Hayvon va qushlar axlatidan tashqari ekotoksikant va mitotoksinlar bilan zararlangan o’simlikshinoslik chiqindilari ham xavf tug’diradi. PDK dan yuqori mitotoksinga ega oziqalar utilizatsiya qilinishi kerak.

Chorvachilik sanoati rivojlanishi bilan bog‘liq muhim ekologik muammolardan biri – chiqindilarni samarali utilizatsiya qilishdir. Chorvachilik chiqindilari (go‘sht va sut ishlab chiqarishdan qolgan loy va go‘sht chiqindilari, parranda chiqindilari) ekologik xavfni oshiradi, yer va suv resurslarini ifloslantiradi. Shu bilan birga, ushbu chiqindilar qayta ishlanishi orqali energiya manbalariga (biogaz) va qishloq xo‘jaligi uchun o‘g‘itlarga aylantirilishi mumkin.

Hozirgi vaqtda biologik usullar orqali chiqindilarni utilizatsiya qilish texnologiyalari rivojlanmoqda. Anaerob fermentatsiya va kompostlash jarayonlari chiqindilardan biogaz ishlab chiqarish va yuqori sifatli organik o‘g‘it olish imkonini beradi. Shu bilan birga, ushbu jarayonlar chiqindilarning mikrobiologik xavfini kamaytiradi va amaliy jihatdan qishloq xo‘jaligida foydalanishga moslashtiradi.

Adabiyotlar sharhi. Chorvachilik chiqindilarini qayta ishlash va ulardan foydali mahsulotlar olish masalasi ko‘plab rus va o‘zbek olimlari tomonidan o‘rganilgan. Bu tadqiqotlar asosan chorvachilik chiqindilaridan biogaz ishlab chiqarish, organik o‘g‘it tayyorlash va ekologik xavfsiz utilizatsiya qilish texnologiyalarini ishlab chiqishga qaratilgan.

Chorvachilik chiqindilaridan olingan biogazning energetik xususiyatlarini ham tadqiq qilganlar. Tadqiqotlarga ko‘ra, biogaz tarkibida o‘rtacha 55–70 % metan mavjud bo‘lib, uning energetik qiymati tabiiy gazga yaqin bo‘lishi mumkin. Bu esa chorvachilik chiqindilarini qayta ishlash orqali muqobil energiya manbai yaratish imkoniyatini beradi.

O‘zbekistonda ham chorvachilik chiqindilarini qayta ishlash masalasiga alohida e’tibor qaratgan. Masalan, Sh.B. Bekchanov tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda O‘zbekistonda biogaz ishlab chiqarish texnologiyalarining rivojlanish holati va istiqbollari tahlil qilingan. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, chorvachilik chiqindilari mamlakatimizda biogaz ishlab chiqarish uchun asosiy xom ashyo manbalaridan biri hisoblanadi va bu texnologiya qishloq xo‘jaligida energiya ta’minotini yaxshilashga xizmat qilishi mumkin.

Bundan tashqari, o‘zbek olimalari O.J. Raxmonqulova va I.E. Mamatqulova tomonidan olib borilgan ilmiy ishlarda organik chiqindilar, jumladan chorvachilik chiqindilaridan biogaz olish jarayoni va uning ekologik ahamiyati o‘rganilgan. Tadqiqotlarda hayvon go‘ngi va boshqa qishloq xo‘jaligi chiqindilari anaerob sharoitda parchalanishi natijasida energiya manbai bo‘lgan biogaz

hosil bo‘lishi hamda chiqindilarni ekologik jihatdan xavfsiz qayta ishlash imkoniyati mavjudligi ta’kidlangan.

Shuningdek, H.H. Abdullayev tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda qishloq xo‘jaligi chiqindilaridan biogaz olish jarayonida namlik darajasini boshqarish muhim texnologik omillardan biri ekanligi aniqlangan. Tadqiqot natijalari chorvachilik chiqindilaridan samarali foydalanish uchun optimal texnologik sharoitlarni belgilashga yordam beradi.

Umuman olganda, rus va o‘zbek olimlari tomonidan olib borilgan ilmiy tadqiqotlar chorvachilik chiqindilarini qayta ishlashning ekologik va iqtisodiy jihatdan muhimligini ko‘rsatadi. Ushbu tadqiqotlar natijasida biogaz ishlab chiqarish, organik o‘g‘it olish va chiqindilarni ekologik xavfsiz utilizatsiya qilish texnologiyalarini rivojlantirish bo‘yicha ilmiy asoslar ishlab chiqilgan.

Adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, chorvachilik chiqindilarini energiya va o‘g‘it sifatida ishlatishning asosiy yo‘llari anaerob fermentatsiya va kompostlashdir.

Anaerob fermentatsiya: Chorvachilik chiqindilarini anaerob sharoitda fermentatsiya qilish orqali metan gazini ajratib olish mumkin. Metan energetik jihatdan yuqori samaradorlikka ega va elektr energiyasi ishlab chiqarishda qo‘llaniladi (Weiland, 2010). Fermentatsiya jarayoni chiqindilardagi organik moddalarni parchalaydi, shu bilan birga qoldiq massa yuqori sifatli o‘g‘it sifatida ishlatiladi (Li et al., 2011).

Kompostlash: Chorvachilik chiqindilari kompostlash orqali ham utilizatsiya qilinadi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, kompostlash jarayoni mikroorganizmlar faoliyati natijasida organik moddalarni mineralizatsiya qiladi va tuproq uchun foydali elementlar bilan boyitilgan o‘g‘it hosil qiladi (Bernal et al., 2009). Kompostlash jarayoni chiqindilarning og‘ir metall va patogen mikroorganizmlardan tozalanishiga ham yordam beradi.

Chiqindilarni aralashtirish va optimallashtirish: Ko‘p ilmiy ishlar shuni ta’kidlaydiki, chiqindilarni turli manbalardan (sut, parranda, mol go‘shti) aralashtirish fermentatsiya samaradorligini oshiradi. Optimal N:P nisbati 20:1–25:1 bo‘lishi metan hosil bo‘lishini maksimal qiladi (Amon et al., 2007).

Energetik va ekologik samaradorlik: Fermentatsiya va kompostlash jarayonlari chiqindilarning ekologik zararini kamaytiradi. Shu bilan birga, biogaz ishlab chiqarish elektr va issiqlik energiyasini yaratadi, bu esa qishloq xo‘jaligi va qishloq hududlarida energiya mustaqilligini oshiradi (Khan et al., 2016).

Shuningdek, organik o‘g‘it sifatida qoldiq biomassaning tuproq unumdorligini oshirishi va biologik faol mikroorganizmlar bilan boyitilishi ekotizimni qo‘llab-quvvatlaydi (Sommer et al., 2015).

Xulosa. Chorvachilik chiqindilarini utilizatsiya qilish - bugungi kunda ekologik va iqtisodiy jihatdan dolzarb muammo hisoblanadi. Hayvon chiqindilarining noto‘g‘ri utilizatsiyasi nafaqat tuproq, suv va havo resurslariga zarar yetkazadi, balki inson salomatligi uchun ham xavf tug‘diradi. Shu nuqtai nazardan, chiqindilarni qayta ishlash va ularni foydali mahsulotlarga aylantirish zarurati dolzarbdir.

Ilmiy manbalar shuni ko‘rsatadiki, chorvachilik chiqindilarini anaerob fermentatsiya orqali biogaz ishlab chiqarish, kompostlash orqali organik o‘g‘it olish va quruq chiqindilarni briket yoki pelletta shaklida energiya manbai sifatida ishlatish eng samarali yo‘llardir. Biogaz ishlab chiqarish jarayonida chiqindilar tarkibidagi metan gazidan to‘liq foydalanish orqali elektr va issiqlik energiyasi olinadi, bu esa mahalliy fermer xo‘jaliklari uchun arzon va ekologik toza energiya manbai hisoblanadi. Kompostlash esa tuproq unumdorligini oshirish va mineral o‘g‘itlar miqdorini kamaytirishga imkon beradi, shu bilan birga mikrobiologik jarayonlarni rag‘batlantiradi.

O‘zbekiston sharoitida olib borilgan tadqiqotlar (A. Rakhimov, N. Ismoilov va boshq.) chorvachilik chiqindilarini utilizatsiya qilishda amaliy va iqtisodiy jihatdan samarali usullarni aniqlashga yordam berdi. Shu bilan birga, kichik va o‘rta fermer xo‘jaliklari uchun texnologik jarayonlarni soddalashtirish, namlik va C:N nisbati kabi parametrlarni nazorat qilish, shuningdek, arzon va ekologik xavfsiz texnologiyalarni joriy etish zaruriyati qayd etilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mo‘minov N.N., Ishniyazova Sh.A., Fayziyev J.S., Xudayberdiyev A.Yu. Chorvachilik chiqindilarini qayta ishlash texnologiyasi**.** – Toshkent, 2018.
2. Klichov O. Chorvachilik xo‘jaliklarida veterinariya bioxavfsizligi va biologik chiqindilarni boshqarish. – Veterinariya meditsinasi jurnali, 2023.
3. Nurmanov Sh., Hotamov A. Cho‘l-yaylov chorvachiligi mahsulotlarini qayta ishlash tizimini takomillashtirish**.** – Green Economy and Development jurnali, 2024.
4. Raxmonqulova O.J., Mamatqulova I.E. Organik chiqindilardan biogaz ishlab chiqarish texnologiyasi. – Toshkent, 2019.
5. O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi. Chorvachilikda ekologik xavfsizlik va chiqindilarni boshqarish. – Toshkent, 2020.
6. Weiland P. **Biogas production: current state and perspectives.** Applied Microbiology and Biotechnology, 2010, 85: 849–860.

BUG‘DOY EKINIDA KASALLIKLARNI ERTA ANIQLASHDA SUN’IY INTELLEKTGA ASOSLANGAN SMART TIZIMLAR

Yaxyayev S.J., Norqulova D.R.
Qarshi davlat texnika universiteti

Annotatsiya: *Bug‘doy ekinida uchraydigan kasalliklar hosildorlikka jiddiy ta’sir ko‘rsatadi va global oziq-ovqat xavfsizligiga tahdid soladi. Ushbu maqolada kasalliklarni erta aniqlash imkonini beruvchi sun’iy intellektga asoslangan smart tizimlarning nazariy-metodologik asoslari tahlil qilinadi. Tasvirni qayta ishlash, mashina o‘rganish va chuqur o‘rganish algoritmlarining qo‘llanilishi, shuningdek IoT va dron texnologiyalari yordamida ma’lumot yig‘ishning afzalliklari ko‘rib chiqiladi.*

Kalit so‘zlar: bug‘doy, kasalliklarni aniqlash, sun’iy intellekt, smart tizimlar, monitoring, resurstejamkorlik, seleksiya

Kirish.

Bug‘doy insoniyat tarixida eng qadimiy ekinlardan biri bo‘lib, hozirgi kunda ham global oziq-ovqat xavfsizligining tayanch manbai hisoblanadi. FAO ma’lumotlariga ko‘ra, bug‘doy dunyo don iste’molining 20 foizidan ortig‘ini tashkil etadi. Shu bilan birga, bug‘doy ekinida uchraydigan kasalliklar hosildorlikka jiddiy ta’sir ko‘rsatadi. Masalan, sariq zang (*Puccinia striiformis*), jigarrang zang (*Puccinia triticina*), fusarioz (*Fusarium spp.*), septorioz (*Septoria tritici*) kabi kasalliklar hosilni 30–40 foizgacha kamaytirishi mumkin. Jahon miqyosida bug‘doy kasalliklari tufayli har yili millionlab tonna hosil yo‘qotiladi (Goluguri & Baik, 2026).

An’anaviy diagnostika usullari ko‘pincha kechikkan bosqichda kasallikni aniqlaydi. Bu esa hosilni saqlash imkoniyatini kamaytiradi. Sun’iy intellekt (SI) va smart texnologiyalar esa kasalliklarni erta bosqichda aniqlash imkonini beradi. Bu yondashuv hosildorlikni saqlash, resurstejamkorlikni ta’minlash va seleksiya jarayonlarini tezlashtirishda muhim ahamiyatga ega (Nguyen et al., 2023).

Material va metodlar.

Sun’iy intellektga asoslangan kasalliklarni aniqlash tizimlari quyidagi asosiy komponentlardan iborat:

- **Tasvirni qayta ishlash va chuqur o‘rganish algoritmlari.** Konvolyutsion neyron tarmoqlar (CNN) bug‘doy barglaridagi kasallik belgilari (dog‘lar, rang o‘zgarishi, tekstura)ni aniqlashda keng qo‘llaniladi (Nigam et al., 2024). YOLOv8s algoritmi kichik o‘lchamdagi kasallik belgilari va murakkab fon sharoitida ham samarali ishlaydi (IEEE Xplore, 2025).
- **IoT va smart sensorlar.** Maydonda o‘rnatilgan sensorlar namlik, harorat, tuproq holati va barg yuzasidagi o‘zgarishlarni real vaqt rejimida kuzatadi (Kumar et al., 2025).
- **Dron va multispektral kameralar.** Havodan olingan tasvirlar kasalliklarning tarqalishini keng miqyosda monitoring qilish imkonini beradi (Nguyen et al., 2023).
- **Ma’lumotlarni integratsiyalash.** IoT, dron va laboratoriya ma’lumotlari yagona platformada jamlanib, SI algoritmlari yordamida tahlil qilinadi (Govintharaj et al., 2025).

Metodologik yondashuv sifatida tizimli tahlil, komparativ metod va konseptual modellashtirishdan foydalanildi.

Smart tizim arxitekturasi va amaliy qo‘llash modeli

Zamonaviy agrotexnologik yondashuvlarda sun’iy intellektga asoslangan kasalliklarni aniqlash tizimlari faqatgina tasvirlarni tahlil qilish bilan cheklanib qolmay, balki ko‘p qatlamli raqamli infratuzilma asosida ishlaydigan kompleks ekotizimni tashkil etadi. Bunday tizim odatda to‘rt pog‘onali arxitekturadan iborat bo‘ladi: ma’lumotlarni yig‘ish qatlami, uzatish qatlami, analitik ishlov berish qatlami va foydalanuvchi interfeysi qatlami.

Ma’lumotlarni yig‘ish qatlamida dala sharoitiga o‘rnatilgan aqlli sensorlar, meteorologik stansiyalar, dronlar va mobil qurilmalar orqali real vaqt rejimida agrobiologik ko‘rsatkichlar shakllantiriladi. Ushbu jarayonda nafaqat vizual tasvirlar, balki mikroiqlim parametrlari — havo namligi, tuproq harorati, quyosh radiatsiyasi va barg namlanish davomiyligi kabi ko‘rsatkichlar ham muhim diagnostik belgi sifatida xizmat qiladi. Bu esa kasallik rivojlanishini prognozlash imkonini beruvchi prediktiv modellarning aniqligini oshiradi.

Uzatish qatlamida IoT protokollari (LoRaWAN, NB-IoT, MQTT) orqali yig‘ilgan ma’lumotlar markaziy bulut platformasiga yetkaziladi. Mazkur jarayon energiya tejamkor aloqa texnologiyalaridan foydalanish orqali uzoq hududlarda ham tizimning barqaror ishlashini ta’minlaydi. Bulutli muhitda ma’lumotlarni markazlashgan holda saqlash katta hajmdagi agroaxborotni tarixiy kesimda tahlil qilish imkonini yaratadi.

Analitik ishlov berish qatlamida sun’iy intellekt modellari ma’lumotlarni kompleks qayta ishlab, kasallik ehtimolini baholaydi, zararlanish darajasini segmentatsiya qiladi va rivojlanish dinamikasini bashoratlaydi. Ushbu bosqichda ansambl modellari, transfer learning va vaqt qatorlarini tahlil qilish usullaridan foydalanish tizimni mahalliy agroiqlim sharoitlariga moslashtirish imkonini beradi. Natijada model universal emas, balki hududga moslashuvchan intellektual yordamchi sifatida ishlaydi.

Foydalanuvchi interfeysi qatlamida esa fermer va agronomlar uchun intuitiv boshqaruv paneli shakllantiriladi. Unda kasallik xaritalari, xavf zonalari, tavsiya etiladigan agrotexnik choralar va resurslarni optimallashtirish bo‘yicha qarorlarni qo‘llab-quvvatlovchi tavsiyalar aks ettiriladi. Bu inson omilini kamaytirib, tezkor va ilmiy asoslangan qaror qabul qilish jarayonini raqamlashtiradi.

Shunday qilib, sun’iy intellektga asoslangan smart monitoring tizimlari qishloq xo‘jaligida raqamli transformatsiyaning muhim elementi bo‘lib, ular nafaqat kasalliklarni aniqlash, balki hosildorlikni boshqarish, agroresurslardan oqilona foydalanish va barqaror dehqonchilik modelini shakllantirishga xizmat qiladi.

Natijalar va tahlil. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, SI asosidagi tizimlar bug‘doy kasalliklarini erta bosqichda aniqlashda yuqori aniqlikka ega. Masalan, YOLOv8s algoritmi 95 foizgacha aniqlik ko‘rsatgan (IEEE Xplore, 2025).

MDPI tadqiqotida multispektral UAV tasvirlari yordamida sariq zang kasalligini hosilning terminal bosqichiga yetmasdan aniqlash mumkinligi isbotlangan (Nguyen et al., 2023). Bu esa hosil yo‘qotilishini sezilarli darajada kamaytiradi.

Smart farming konsepsiyasi doirasida SI, IoT va GIS texnologiyalarining integratsiyasi bug‘doy yetishtirishda resurstejamkorlikni ta’minlaydi. Masalan, kasalliklarni erta aniqlash orqali ortiqcha fungitsid qo‘llashning oldi olinadi, bu esa ekologik barqarorlikni ta’minlaydi (Govintharaj et al., 2025).

Xu va Wang (2025) tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda multimodal ma’lumotlarni birlashtirish orqali kasalliklarni aniqlash aniqligi sezilarli darajada oshgani qayd etilgan. Bu yondashuv nafaqat barg tasvirlarini, balki ekologik omillarni ham hisobga oladi.

Nigam va hamkorlari (2024) mobil ilovalar orqali kasalliklarni aniqlash imkoniyatlarini ko‘rsatib, fermerlar uchun qulay va tezkor yechimlar ishlab chiqqan. Bu esa amaliyotda SI texnologiyalarining keng qo‘llanishiga yo‘l ochadi.

Xulosalar

Sun’iy intellektga asoslangan smart tizimlar bug‘doy ekinida kasalliklarni erta aniqlashda samarali vosita hisoblanadi.

CNN, YOLO va boshqa chuqur o‘rganish algoritmlari kasallik belgilari tasvirini yuqori

aniqlikda tahlil qiladi.

IoT va dron texnologiyalari real vaqt monitoringini ta’minlab, kasalliklarning tarqalishini nazorat qilish imkonini beradi.

Bu yondashuv resurstejamkorlikni ta’minlab, seleksiya jarayonlarini tezlashtiradi va global oziq-ovqat xavfsizligiga hissa qo‘shadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Goluguri, N. V. R., & Baik, O.-D. (2026). *Revolutionizing Wheat Plant Disease Detection: A Review of Imaging, AI, and Innovations*. Archives of Computational Methods in Engineering. Springer.

2. Xu, S. X., & Wang, S. (2025). *An intelligent identification for pest and disease detection in wheat leaf based on environmental data using multimodal data fusion*. Frontiers in Plant Science.

3. Nguyen, C., Sagan, V., Skobalski, J., & Severo, J. I. (2023). *Early Detection of Wheat Yellow Rust Disease and Its Impact on Terminal Yield with Multi-Spectral UAV-Imagery*. Remote Sensing, 15(13). MDPI.

4. Nigam, S., Jain, R., Singh, V. K., Jain, S., Marwaha, S., & Arora, A. (2024). *Implementing Artificial Intelligence in Wheat Disease Identification: A Mobile Application Approach*. Springer.

5. IEEE Xplore (2025). *YOLO-Wheat: A Wheat Disease Detection Algorithm Improved by YOLOv8s*. IEEE.

6. Kumar, V., Anjali, D., & Kumar, R. (2025). *Smart Farming with IoT: A Case Study on Wheat Production*. IJAD.

7. Govintharaj, V. K., Eniyavan, P., Pillai, A. M., & Habyarimana, E. (2025). *Smart Farming for Sustainable Wheat Intensification*. Springer.

УДК 631.356.4

ВЛИЯНИЕ ДЛИНЫ ЛЕМЕХА И ЧАСТОТЫ ВРАЩЕНИЯ БИТЕРА НА ТЯГОВОЕ СОПРОТИВЛЕНИЕ ЛУКОКОПАТЕЛЯ

Ж.Р.Норчаев, Д.Ж.Рустамова, В.У.Нормўминова
Каршинский государственный технический университет

Аннотация. *В статье представлена, что битер экспериментального лукокопателя, устраняет сгруживание массы, способствуя уменьшению тягового сопротивления машины, более интенсивно разрушает пласт, в результате чего повышается качество работы и производительность лукоуборочной машины.*

Ключевые слова: *Лукокопател, лемех, битер, частота вращения битера, длина лемеха, скорость движения агрегата, тяговое сопротивление.*

В исследованиях было изучено влияние длины лемеха на потери луковиц и степень сепарации почвы, а также тяговое сопротивление лукокопателя.

Для определения влияния длины лемеха на тяговое сопротивление лукокопателя исследования проводились при скорости движения установки 0,7 и 1,3 м/с. Исследования проводились при длине лемеха 15,0; 20,0; 25,0 и 30 см и неизменном угле наклона к горизонту, равным 24^0.

При исследовании копателя частоту вращения битера принимали 2,5-3,5$с^{-1}$, диаметр битера 350мм. Экспериментальные исследования проводились с установкой битера и без него.

Проведенные исследования показали, что использование макетного образца предпочтительнее, так как копатель без битера во время испытаний имел потери до 15% из-за содержания примесей в ворохе и при этом в копателе с битером производительность практически в 2 раза превышает производительность копателя без битера. Тяговое сопротивление опытного лукокопателя на 30-35% ниже по сравнению с копателем без битера. Этот фактор не маловажен для уборки лука в короткие сроки. Потери и повреждения в макетном образце машины не превышают требований, предъявляемых к уборочным машинам. При этом содержание примесей в ворохе составляет 5,5-10%.

Из графика (рисунок, а) видно, что с увеличением скорости движения и длины лемехов

тяговое сопротивление копателя увеличивается. Так, при изменении длины лемеха от 15 до 30 см с пределами 5 см и скоростях движения 0,7 м/с тяговое сопротивление установки с битером составляло соответственно 1,7 кН; 1,87 кН; 1,96 кН и 2,1 кН, а при скорости движения 1,3 м/с соответственно 2,1 кН; 2,31 кН; 2,52 кН и 2,805 кН.

Тяговое сопротивление лукокопателя без битера при изменении длины лемеха от 15 до 30 см и при скорости 0,7 м/с возрастало от 2,725 до 3,30 кН, а при 1,3 м/с возрастало от 3,30 до 4,32 кН (рисунок, б).

Рост тягового сопротивления лукокопателя без битера с увеличением скорости движения объясняется тем, что процесс подкапывания пласта протекает со значительным сгруживанием массы перед лемехом, степень которого возрастает с увеличением скорости движения рабочего органа.

Снижение тягового сопротивления опытного копателя объясняется тем, что битер обеспечивает транспортирование массы без сгруживания, при этом за счет распространения деформаций в почве, возникающих под действием битера, нарушаются не только связи луковиц с почвой, но и снижаются силы трения между частицами почвы и лемехом, в результате чего тяговое сопротивление уменьшается.

Таким образом, результаты исследований показали, что битер экспериментального лукокопателя, устраняет сгруживание массы, способствуя уменьшению тягового сопротивления машины, более интенсивно разрушает пласт, в результате чего повышается качество работы и производительность лукоуборочной машины.

Список литературы

1. Ларюшин А.М. Энергосберегающие технологии и технические средства для уборки лука: Автореф. ...док. техн. наук. – Пенза, 2010. – 40с.

2. Доспехов В.А. Методика полевого опыта – М.: Колос. – 1979. – 416с.

UDK 631.3(575.1)

O‘ZBEKISTONDA QISHLOQ XO‘JALIK MASHINALARINING INTENSIV RIVOJLANISHI

Z.A.Rasulova
Qarshi Davlat Texnika Universiteti

Annotatsiya: Mazkur maqolada O‘zbekistonda qishloq xo‘jaligi mashinalarining rivojlanish jarayoni, ularning qishloq xo‘jaligi samaradorligini oshirishdagi o‘rni hamda sohada olib borilayotgan modernizatsiya ishlari tahlil qilinadi. Shuningdek, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, mexanizatsiya darajasini oshirish va qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishining samaradorligini ta’minlashda qishloq xo‘jaligi texnikalarining ahamiyati yoritilgan.

Kalit so’zlar: Traktor, Kombayn, Bug‘ dvigatellari, Ekuvchilar, Sanoat, O‘g‘it, Fermer, Intensiv.

Kirish: Qishloq xo‘jaligi O‘zbekiston iqtisodiyotining muhim tarmoqlaridan biri hisoblanadi. Aholining oziq-ovqat mahsulotlariga bo‘lgan ehtiyojini qondirish, eksport salohiyatini oshirish hamda qishloq hududlarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta’minlashda ushbu sohaning o‘rni beqiyosdir. Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishining samaradorligini oshirishda zamonaviy texnika va texnologiyalarni qo‘llash muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli qishloq xo‘jaligi mashinalarini rivojlantirish va ularni keng qo‘llash agrar siyosatning ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

Qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash ishlab chiqarish jarayonlarini tezlashtirish, mehnat unumdorligini oshirish va hosildorlikni ko‘paytirishda muhim rol o‘ynaydi. Zamonaviy qishloq xo‘jaligi mashinalari yerga ishlov berish, ekinlarni ekish, parvarishlash va hosilni yig‘ib olish jarayonlarini samarali tashkil etish imkonini beradi. Mexanizatsiya tufayli inson mehnati yengillashadi, ishlab chiqarish xarajatlari kamayadi va mahsulot yetishtirish hajmi ortadi. Ayniqsa, katta maydonlarda qishloq xo‘jaligi ishlarini amalga oshirishda texnika vositalarining o‘rni juda katta.

Qishloq xo’jaligi – moddiy ishlab chiqarishning asosiy tarmoqlaridan biri bo’libgina qolmay, balki iqtisodiyotning eng qadimiy tarmog’i hisoblanadi. Qishloq xo’jaligi rivojlanishining dastlabki

bosqichlari ibtidoiy jamoa tuzumiga to‘g‘ri kelib, qo‘l mehnatiga asoslangan edi. So‘ngra insonlar o‘zlari uchun qulaylik yaratish maqsadida mehnat qurollarini o‘ylab topishgan. Ushbu mehnat qurollari hozirgi zamonaviy qishloq xo‘jaligi mashinalarining ajdodlari desak mubolag’a bo‘lmaydi. Chunki har ikkisi ham insonlarga qulaylik yaratish hamda unumdorlikni oshirish uchun xizmat qiladi.

Materiallar va metodlar: Qishloq xo‘jaligi dehqonchilik va chorvachilik kabi sohalarga bo‘linadi. Aholini oziq-ovqat mahsulotlari va xalq xo‘jaligini bir qancha tarmoqlarini xomashyo bilan ta’minlaydi. Masalan, qishloq xo’jaligi ip-gazlama sanoatida 60 %, qandolat sanoatida 70 %, yog’-sut sanoatida 80 % yarim tayyor mahsulotni beradi. Qishloq xo’jaligining ahamiyati yana shu bilanki, xalq xo’jaligida band bo’lgan aholining 27 % i aynan shu sohada mehnat qiladi. Qishloq xo’jaligi mamlakat milliy daromadini 1/3 qismini tashkil etadi. Qishloq xo’jaligini rivojlantirish ishchilar va dehqonlar o’rtasidagi munosabatni ham mustahkamlaydi. Bu sohani tez suratlar bilan rivojlanishida qishloq xo’jaligi mashinalarining o’rni yuksak darajada. O’zbekiston qishloq xo’jaligi 20 asrning 20-yillariga qadar, asosan, mayda ishlab chiqarish xususiyatiga ega bo’lib, qishloq xo’jaligida asosan qo’l mehnati va oddiy ish qurollari (ketmon, omoch, ot, ho’kiz va boshqalar) ishlatib kelingan. 20-yillarning o’rtalariga kelib qishloq xo’jaligi asbob-uskunalarini ijaraga beradigan davlat punktlari, 1924-yil “Traktor markazi” tashkil etildi. Chet eldan sotib olingan texnika vositalari dastlabki jamoa xo’jaliklari (kolxo’zlar)ga yetkazib berildi. 1929-yil respublikamizda 400 dan ortiq traktor, 3897 plug, 1660 dona otga qo’shib ishlatiladigan ekish seyalkasi, 1244 dona kultivator, 26 ming to’rt g‘ildirakli arava va bir qancha boshqa texnikalar bo’lgan. Bu texnikalar qishloq xo’jaligida mehnat sarfini bir necha baravar kamaytirdi va hosildorlikni esa bir necha baravar oshirdi. Hozirgi kunga kelib fermer xo’jaliklari yuqori quvvatga ega traktorlar, yuqori unumli don kombaynlari, keng va ko’p qatorli mashinalar (paxta terish mashinalari), shuningdek, bir yurishda bir qancha operatsiyalarni bajaradigan mashinalar bilan ta’minlandi.

Ushbu mashinalarni ishlab chiqarish uchun Sobiq Ittifoq davrida 1942-yil Toshkent Traktor Zavodi (TTZ) qurildi. Ushbu zavod urush davrida harbiy texnikalari ishlab chiqarilgan. Ushbu sanoat korxonasining quvvati – 12 ming traktor hamda 13 mingdan ziyod tirkamaga teng bo’lgan. Korxona O’zbekistonda paxta sanoatiga moslashtirilgan traktorlar hamda tirkamalar, shu bilan birga bog’dorchilik va polizchilikda foydalaniladigan minitraktorlar ishlab chiqaradi. Hozirgi kunda ushbu korxona “O’zqishloqxo’zmash-xolding’’ kompaniyasi tarkibiy bo’linmasi hisoblanadi. Zavod 1995-yildan buyon shu nomda faoliyat ko’rsatmoqda. 1995-yil AQSH ning “Keys” firmasi bilan hamkorlikda traktor ishlab chiqaradigan “O’zbekkeystraktor” qo’shma korxonasi tashkil qilindi. Mustaqillik yillarida zavodda keng ko’lamli savdo ishlari yo’lga qo’yildi. 2001-yilda Rossiya, 2002-yilda Turkiya, Qozog’istonda savdo uylari ochildi. 2001-yildan XXR bilan hamkorlikda 30 ot kuchiga ega bo’lgan 2 modeldagi kichik traktorlar ishlab chiqarila boshlandi, uning ko’pgina detal va uzellari mahalliylashtirildi. Korxona TTZ80 VA TTZ100 rusumli uch g’ildirakli paxtachilik va to’rt g’ildirakli universal chopiq traktorlari ishlab chiqarildi.

Qishloq xo‘jaligi mashinalaring asosiy vazifalari yerga ishlov berishdan iborat. Ag’darish, yumshatish, zichlash, tekislash shular jumlasidandir. O’zbekistonga ko’plab chet el respublikalaridan qishloq xo’jalik mashinalari eksport qilingan. Bular jumlasiga K-9000 “Kirovtsa”, MTZ-80, MTZ-1221, Don-1500, MTZ-1523, o’rim-yig’im mavsumi uchun bir necha turdagi traktor va kombaynlar kiradi. Bundan tashqari yig’im qurilamalari, pluglar va bir qancha qurilmalar olib kelingan. Bunday qurilmalar ish tezligi va hosil unumdorligini yanada oshirishga ko’maklashadi. Hozirgi kunda O’zbekiston qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hajmi o’tgan yilgiga nisbatan 20 % ga o’sishga erishdi. Qishloq xo’jaligi mashinalrining bu o’sishda katta o’rni bor. Qishloq xo’jaligi mashinalari umumiy mehnatning 91 % izini bajaradi. O’zbekistonning chet elga eksport qiladigan qishloq xo’jaligi mahsuloti hajmi o’tgan yilgiga nisbatan 1.1 barobarga oshgan.

Natijalar va ularning tahlili: So‘nggi yillarda qishloq xo‘jaligi mashinalarida innovatsion texnologiyalar keng qo‘llanilmoqda. Masalan, GPS tizimlari yordamida dala ishlarini aniq rejalashtirish, avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlari orqali texnika samaradorligini oshirish imkoniyati yaratilmoqda. Bundan tashqari, suv resurslaridan samarali foydalanish maqsadida zamonaviy sug‘orish texnologiyalari, xususan tomchilatib sug‘orish tizimlari joriy etilmoqda. Bu

esa suvni tejash bilan birga hosildorlikni oshirishga xizmat qilmoqda. Qishloq xo‘jaligi mashinalarining intensiv rivojlanishi natijasida agrar sohada bir qator ijobiy natijalarga erishilmoqda. Jumladan:Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi oshmoqda;

- mehnat unumdorligi ortmoqda;
- mahsulot tannarxi kamaymoqda;
- qishloq hududlarida iqtisodiy rivojlanish jadallashmoqda.

Shuningdek, zamonaviy texnikalardan foydalanish eksportbop mahsulotlar yetishtirish imkoniyatini ham kengaytirmoqda.

Xulosa. Qishloq xo’jaligi mashinalari qishloq xo’jaligining rivojlanishiga katta hissasini qo’shib kelmoqda. Qishloq xo’jaligi mahsuloti hajmining o’sishi yalpi ichki mahsulot hajmining osishiga olib keladi. Bu esa davlatimiz budjetining o‘sishiga olib keladi. Zamonaviy texnika va texnologiyalarni joriy etish orqali qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishining samaradorligini oshirish, resurslardan oqilona foydalanish hamda mamlakat oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash mumkin. Kelgusida qishloq xo‘jaligi mashinasozligini yanada rivojlantirish va innovatsion texnologiyalarni keng joriy etish agrar sohaning barqaror rivojlanishini ta’minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati

1. “Qishloq xo‘jaligi mashinalari” M.Z.Murtozayev, J.A.Hamidov, K.I.Isayev.
2. “Qishloq xo’jaligini mexanizatsiyalash” A.Sirojiddinov
3. “Qishloq xo’jaligi mashinalrining tuzilishi va texnik xizmat ko’rsatish” T.A.Abdullayev, D.M.Misaey.
4.O’zbekiston Milliy Ensiklopediyasi:2001-yil 1-jild.

UDK: 004.8:631.147

SUN’IY INTELLEKT ASOSIDA KONVEYER TIZIMIDA OLMA MEVALARINI ANIQLASH VA TASNIFLASHNING MATEMATIK MODELI

Erkin Uljaev, O‘lmasjon Ulfat o‘g‘li Abdixalilov
Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti

Annotatsiya. Ushbu maqolada konveyer tizimida olingan tasvirlar asosida olma mevalarini avtomatik aniqlash va tasniflashning matematik modeli taklif etiladi. Tadqiqotda sun’iy intellekt va chuqur o‘rganish texnologiyalariga asoslangan YOLOv8 obyekt deteksiyasi modeli qo‘llanildi. Model yordamida olma mevalari rang va sifat belgilariga ko‘ra to‘rtta sinfga ajratildi. Tajriba natijalari ishlab chiqilgan model real ishlab chiqarish sharoitlarida obyektlarni aniqlashda yuqori aniqlik va barqarorlikka ega ekanligini ko‘rsatdi.

Kalit so‘zlar: Sun’iy intellekt, matematik model, kompyuter ko‘rish, YOLOv8, obyekt deteksiyasi, olma tasniflash, konveyer tizimi.

Аннотация. В статье предложена математическая модель автоматического обнаружения и классификации яблок на основе изображений, полученных в условиях конвейерной системы. В исследовании используется модель детекции объектов YOLOv8, основанная на технологиях искусственного интеллекта и глубокого обучения. С помощью разработанной модели яблоки классифицируются на четыре категории в зависимости от их цвета и наличия дефектов. Экспериментальные результаты показали высокую точность и устойчивость модели при работе в условиях, приближенных к реальному производству.

Ключевые слова: искусственный интеллект, математическая модель, компьютерное зрение, YOLOv8, детекция объектов, классификация яблок, конвейерная система.

Abstract. This paper presents a mathematical model for automatic detection and classification of apples based on images captured in a conveyor system environment. The study applies the YOLOv8 object detection model based on artificial intelligence and deep learning techniques. The developed model classifies apples into four categories according to their color and defect characteristics. Experimental results demonstrate that the proposed approach achieves high accuracy and stability under conditions close to real industrial environments.

Keywords:
artificial intelligence, mathematical model, computer vision, YOLOv8, object detection, apple

classification, conveyor system.

Kirish

So‘nggi yillarda sun’iy intellekt va kompyuter ko‘rish texnologiyalarining jadal rivojlanishi sanoat, qishloq xo‘jaligi va ishlab chiqarish jarayonlarida avtomatlashtirish darajasini sezilarli darajada oshirish imkonini bermoqda [1]. Ayniqsa, meva-sabzavot mahsulotlarini saralash, sifatini baholash va nuqsonlarini aniqlash jarayonlarida intellektual tizimlardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etmoqda [2].

Hozirgi vaqtda chuqur o‘rganish asosidagi obyekt deteksiyasi algoritmlari, xususan YOLOv5, YOLOv7 va YOLOv8 kabi modellar turli sohalarda, jumladan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini aniqlash va saralashda samarali qo‘llanilmoqda [3]. Ushbu modellar katta hajmdagi tasvirlar to‘plamida o‘qitilib, yuqori aniqlik va tezlik bilan ishlash imkoniyatini ta’minlaydi. Shu bilan birga, real ishlab chiqarish sharoitlarida ishlaydigan tizimlar uchun modelning umumlashtirish qobiliyati, ya’ni turli yoritish sharoitlari, fon va obyekt joylashuvi o‘zgarishlariga moslasha olishi muhim hisoblanadi.

Tadqiqot metodologiyasi

Ushbu tadqiqotda olma mevalarini rang va sifat belgilariga ko‘ra avtomatik aniqlash hamda tasniflash uchun chuqur o‘rganish (deep learning) asosidagi obyekt deteksiyasi yondashuvi qo‘llanildi [4]. Tadqiqot metodologiyasi bir necha asosiy bosqichlardan iborat bo‘lib, ular ma’lumotlar to‘plamini tayyorlash, modelni o‘qitish, model parametrlarini optimallashtirish hamda uning samaradorligini baholash jarayonlarini o‘z ichiga oladi. Ushbu bosqichlarning har biri obyekt deteksiyasi tizimining aniqligi va barqaror ishlashini ta’minlashda muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

Ma’lumotlar to‘plamini tayyorlash

Tadqiqotda foydalanilgan tasvirlar konveyer sharoitida olingan bo‘lib, ular olma mevalarini real ishlab chiqarish muhiti sharoitida aks ettiradi. Tasvirlar turli yoritish darajasi, fon va obyekt joylashuvi bilan farqlanadi. Bu esa modelni real ishlab chiqarish tizimlariga moslashuvchan holda o‘qitish imkonini beradi [5]. Har bir tasvirdagi obyektlar maxsus annotatsiya jarayoni orqali belgilandi. Annotatsiya jarayonida tasvir ichidagi har bir olma uchun chegaralovchi quti (bounding box) koordinatalari aniqlanib, tegishli sinf yorlig‘i berildi. Bunday yondashuv obyekt deteksiyasi modellarini o‘qitishda keng qo‘llaniladigan standart usullardan biri hisoblanadi [3].

Tadqiqotda obyektlar quyidagi to‘rtta asosiy sinfga ajratildi: qizil olma, sariq olma, yashil olma, nuqsonli olma

Modelni o‘qitish jarayoni

Modelni o‘qitish jarayoni bosqichma-bosqich (iterativ) tarzda tashkil etildi. Trening jarayoni maksimal **500 epoch** gacha rejalashtirildi. Ushbu yondashuv modelning o‘rganish jarayonini muntazam kuzatish va uning ishlash ko‘rsatkichlarini tahlil qilib borish imkonini beradi. Iterativ trening strategiyasi modelning asta-sekin yaxshilanib borishini ta’minlab, har bir bosqichda optimal parametrlarni shakllantirishga yordam beradi [4].

Barcha hisoblash tajribalari **Google Colab** muhitida amalga oshirildi. Hisoblash jarayonlarini tezlashtirish maqsadida grafik protsessorlardan foydalanildi. Xususan, trening jarayoni **NVIDIA Tesla T4 (16 GB)** grafik protsessorida **CUDA** texnologiyasi yordamida bajarildi. Ushbu apparat konfiguratsiyasi obyekt deteksiyasi kabi katta hisoblash resurslarini talab qiladigan vazifalarni samarali bajarish imkonini beradi.

Modelni o‘qitishda **Ultralytics YOLOv8.0.20** dasturiy muhiti qo‘llanildi [3]. Trening jarayonida model parametrlarini optimallashtirish uchun quyidagi asosiy giperparametrlar tanlandi: boshlang‘ich o‘rganish tezligi – **lr0 = 0.01**, optimizator – **SGD (Stochastic Gradient Descent),** momentum – **0.937**, batch hajmi – **12,** tasvir o‘lchami – **720 piksel**

Model arxitekturasining stride talablari sabab tasvir o‘lchami avtomatik tarzda **736 × 736 piksel** ga moslashtirildi. Bu jarayon modelning hisoblash samaradorligini oshirish va obyektlarni aniqlash aniqligini yaxshilashga xizmat qiladi.

Model samaradorligini baholash mezonlari

Tadqiqotda quyidagi asosiy baholash metrikalari hisoblandi.

Precision (P) – model tomonidan aniqlangan obyektlar ichida to‘g‘ri aniqlangan obyektlar

ulushini ifodalaydi:

$$P = \frac{TP}{(TP+FP)} \quad (1)$$

bu yerda:

- TP (True Positive) – model tomonidan to‘g‘ri aniqlangan obyektlar soni
- FP (False Positive) – model tomonidan noto‘g‘ri aniqlangan, ya’ni aslida mavjud bo‘lmagan obyektlar soni

Recall (R) – haqiqiy mavjud obyektlar ichidan model tomonidan to‘g‘ri aniqlangan obyektlar ulushini ko‘rsatadi:

$$R = \frac{TP}{(TP+FN)} \quad (2)$$

bu yerda:

FN (False Negative) – model tomonidan aniqlanmay qolgan, ya’ni haqiqiy mavjud bo‘lsa ham aniqlanmagan obyektlar sonini bildiradi.

F1-score esa **precision** va **recall** ko‘rsatkichlarining **garmonik o‘rtachasi** bo‘lib, modelning umumiy ishlash samaradorligini baholash uchun qo‘llaniladigan muhim ko‘rsatkichlardan biri hisoblanadi.

$$F1 = \frac{2PR}{(P+R)} \quad (3)$$

Obyekt deteksiyasi modellarini baholashda keng qo‘llaniladigan yana bir muhim ko‘rsatkich **Average Precision (AP)** hisoblanadi. Ushbu ko‘rsatkich Precision–Recall egri chizig‘i ostidagi maydon sifatida aniqlanadi. Tadqiqotda model samaradorligini baholash uchun **mAP50** va **mAP50–95** metrikalaridan foydalanildi [7].

Chalkashliklar matritsasi (Confusion Matrix) tahlili

Model ishlashini chuqurroq tahlil qilish maqsadida har bir validatsiya jarayonidan so‘ng **chalkashliklar matritsasi (confusion matrix)** hosil qilindi. Ushbu matritsa haqiqiy (ground truth) sinflar va model tomonidan bashorat qilingan sinflar o‘rtasidagi munosabatni jadval ko‘rinishida aks ettiradi. Matritsaning diagonal elementlari to‘g‘ri tasniflangan obyektlarni ko‘rsatadi, diagonal bo‘lmagan elementlar esa noto‘g‘ri tasniflarni ifodalaydi.

3. Modelni o‘qitish va baholash metodikasi

Aniqlik (precision) modeli tomonidan ijobiy deb aniqlangan obyektlarning qanchasi haqiqatan ham to‘g‘ri ekanligini ko‘rsatadi. Agar precision yuqori bo‘lsa, bu model noto‘g‘ri ijobiy natijalarni kam berayotganini bildiradi. Boshqacha qilib aytganda, model mavjud bo‘lmagan obyektlarni kamroq aniqlaydi. Bu ko‘rsatkich ayniqsa ishlab chiqarish tizimlarida muhim bo‘lib, noto‘g‘ri aniqlangan obyektlar sonini kamaytirishga yordam beradi.

Recall ko‘rsatkichi esa haqiqiy mavjud obyektlarning qanchasi model tomonidan aniqlanganini ifodalaydi. Ushbu ko‘rsatkich yuqori bo‘lsa, model mavjud obyektlarni o‘tkazib yuborish ehtimoli kam bo‘ladi. Masalan, konveyer tizimida nuqsonli olmani aniqlash jarayonida recall ko‘rsatkichi yuqori bo‘lishi muhim ahamiyatga ega, chunki nuqsonli mahsulotlarning o‘tkazib yuborilishi ishlab chiqarish sifatiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Precision va recall ko‘rsatkichlari ko‘pincha bir-biri bilan muvozanatda bo‘lishi kerak. Shu sababli ushbu ikki ko‘rsatkichning garmonik o‘rtachasi sifatida F1-score metrikasi qo‘llaniladi. F1-score modeli umumiy ishlash samaradorligini baholashda muhim ko‘rsatkich hisoblanadi. Agar model ham yuqori aniqlik, ham yuqori recall ko‘rsatkichiga ega bo‘lsa, F1-score ham yuqori qiymatga ega bo‘ladi.

Obyekt deteksiyasi tizimlarida yana bir muhim baholash mezoni o‘rtacha aniqlik (Average Precision) hisoblanadi. Ushbu ko‘rsatkich precision-recall egri chizig‘i ostidagi maydon orqali aniqlanadi. Average Precision qiymati modelning turli threshold qiymatlarida qanday ishlashini umumlashtirib ko‘rsatadi. Bu esa modelning turli aniqlash chegaralarida ham barqaror ishlashini baholash imkonini beradi.

Ko‘p sinfli obyekt deteksiyasi tizimlarida barcha sinflar bo‘yicha o‘rtacha natijani olish uchun

mean Average Precision (mAP) ko‘rsatkichi qo‘llaniladi. mAP50 ko‘rsatkichi IoU (Intersection over Union) qiymati 0.5 ga teng bo‘lgan holatda hisoblanadi. Bu yerda model tomonidan aniqlangan chegaralovchi qutining haqiqiy obyekt bilan qanchalik mos kelishi hisobga olinadi. Agar IoU qiymati 0.5 dan yuqori bo‘lsa, aniqlash to‘g‘ri deb hisoblanadi.

mAP50–95 ko‘rsatkichi esa yanada qat’iy baholash mezonini taqdim etadi. Ushbu metrika IoU qiymatlari 0.5 dan 0.95 gacha bo‘lgan intervalda hisoblanadi. Bu yondashuv modelning nafaqat obyektni aniqlash qobiliyatini, balki uning chegaralovchi qutini qanchalik aniq joylashtira olishini ham baholaydi. Shu sababli mAP50–95 ko‘rsatkichi obyekt deteksiyasi tizimining umumiy ishlash sifatini yanada aniqroq ifodalaydi.

Tajriba natijalari va ularning tahlili

Trening jarayonida kuzatilgan yana bir muhim jihat modelning barqarorligi bo‘ldi. Epochlar soni ortib borgani sari modelning ishlash ko‘rsatkichlari ma’lum darajada barqarorlashib bordi. Bu esa model haddan tashqari o‘rganish (overfitting) muammosiga kamroq duch kelganini anglatadi. Early stopping mexanizmi qo‘llanilgani sababli model validatsiya natijalari yaxshilanmay qolgan nuqtada avtomatik tarzda to‘xtatildi va eng yaxshi vaznlar saqlab qolindi.

Natijalar shuni ko‘rsatadiki, ishlab chiqilgan model konveyer sharoitiga yaqin bo‘lgan tasvirlarda olmalarni aniqlash va ularni sinflarga ajratish vazifasini samarali bajara oladi. Bunday tizimni amaliyotga joriy etish meva mahsulotlarini saralash jarayonini avtomatlashtirish, inson omili bilan bog‘liq xatoliklarni kamaytirish hamda ishlab chiqarish samaradorligini oshirish imkonini beradi.

Bundan tashqari, tizimni yanada takomillashtirish uchun bir qator yo‘nalishlar mavjud. Jumladan, ma’lumotlar to‘plamini kengaytirish, turli yorug‘lik sharoitlarida olingan tasvirlarni qo‘shish hamda nuqsonli olma sinfi uchun ko‘proq namunalar kiritish modelning umumlashtirish qobiliyatini yanada yaxshilashi mumkin. Shuningdek, modelni real vaqt rejimida ishlaydigan sanoat tizimlariga integratsiya qilish orqali avtomatik saralash jarayonining tezligi va aniqligini oshirish mumkin.

Umuman olganda, o‘tkazilgan tajribalar natijalari chuqur o‘rganish asosidagi obyekt deteksiyasi usullarining qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini avtomatik tahlil qilishda katta imkoniyatlarga ega ekanligini ko‘rsatdi. Taklif etilgan yondashuv kelajakda aqlli qishloq xo‘jaligi tizimlarini rivojlantirish hamda meva mahsulotlarini sifat jihatidan samarali nazorat qilish jarayonlarini avtomatlashtirish uchun muhim asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

Natijalar va tahlil

Model trening jarayonida iterativ tarzda optimallashtirilib borildi va har bir epoch yakunida validatsiya natijalari tahlil qilindi. Dastlabki bosqichlarda modelning aniqlik ko‘rsatkichlari nisbatan past bo‘lgani kuzatildi, bu esa model hali tasvir xususiyatlarini yetarli darajada o‘rganmaganligini bildiradi. Biroq trening jarayoni davom etgan sari model tasvirlarda mavjud bo‘lgan muhim belgilarni, xususan rang, tekstura va shakl kabi vizual xususiyatlarni samarali o‘zlashtira boshladi. Natijada model turli sinflardagi olmalarning farqlovchi xususiyatlarini aniqlashda ancha yuqori natijalarni ko‘rsatdi.

Obyekt deteksiyasi modellarini baholashda keng qo‘llaniladigan yana bir muhim ko‘rsatkich **Average Precision (AP)** hisoblanadi. AP precision va recall egri chizig‘i ostidagi maydon sifatida aniqlanadi va quyidagi ifoda bilan tasvirlanishi mumkin:

$$AP = \sum_{k=1}^{n} P(k)\Delta R(k) \qquad (4)$$

bu yerda

P(k) – k nuqtadagi precision qiymati,

ΔR(k) – recall qiymatining o‘zgarishini bildiradi.

Bir nechta sinflar uchun o‘rtacha aniqlik ko‘rsatkichi **mAP (mean Average Precision)** orqali hisoblanadi. IoU = 0.5 bo‘lgan holatda hisoblangan mAP quyidagi formula orqali ifodalanadi:

$$mAP_{50} = \frac{1}{C}\sum_{C=1}^{C} AP_C \qquad (5)$$

bu yerda

C – sinflar soni,

APc – c-sinf uchun hisoblangan o‘rtacha aniqlik qiymatidir.

Bundan tashqari, model ishlashini yanada qat’iyroq baholash uchun **mAP50–95** ko‘rsatkichi ham hisoblandi. Ushbu metrika IoU qiymatlari 0.5 dan 0.95 gacha bo‘lgan diapazonda hisoblanadi:

$$mAP_{50:95} = \frac{1}{C}\sum_{C=1}^{C}\frac{1}{T}AP_{c,t} \quad (5)$$

bu yerda

T – IoU chegaralari soni (0.5 dan 0.95 gacha 0.05 qadam bilan),

APc,t – t-chi IoU chegarasida c-sinf uchun aniqlangan AP qiymati.

Tajriba natijalari modelning mAP50 ko‘rsatkichi yuqori ekanligini ko‘rsatdi, bu esa model tasvirlardagi olma obyektlarini aniq aniqlash qobiliyatiga ega ekanligini bildiradi. mAP50–95 ko‘rsatkichining ham barqaror darajada bo‘lishi model obyektlarning chegaralarini aniq belgilay olishini ko‘rsatadi.

Xulosa va muhokama

Ushbu tadqiqotda konveyer sharoitida tasvirga olingan olma mevalarini avtomatik aniqlash va sinflarga ajratish masalasi chuqur o‘rganish (deep learning) yondashuvlari asosida tahlil qilindi. Tadqiqotning asosiy maqsadi olma mahsulotlarini rang va sifat belgilariga qarab avtomatik tarzda tasniflay oladigan model yaratishdan iborat bo‘ldi. Shu maqsadda obyekt deteksiyasi uchun zamonaviy neyron tarmoqlardan biri bo‘lgan YOLO arxitekturasi asosida model ishlab chiqildi va o‘qitildi.

Tahlillar davomida chalkashliklar matritsasi ham o‘rganildi. Ushbu tahlil model tomonidan qaysi sinflar o‘rtasida xatoliklar ko‘proq uchrashini aniqlash imkonini berdi. Natijalarga ko‘ra ayrim hollarda rang jihatidan bir-biriga yaqin bo‘lgan sariq va yashil olma sinflari o‘rtasida kichik miqdordagi chalkashliklar kuzatilgan. Biroq umumiy tasniflash natijalari yuqori aniqlik darajasida bo‘lib, model aksariyat tasvirlarda obyektlarni to‘g‘ri aniqlay olgan.

Nuqsonli olma sinfini aniqlash ham tadqiqotning muhim jihatlaridan biri bo‘ldi. Nuqsonlarning turli shakl va o‘lchamlarda bo‘lishi model uchun qo‘shimcha murakkablik tug‘dirishi mumkin. Shunga qaramay, model ushbu sinfni aniqlashda ham barqaror natijalarni namoyish etdi. Bu esa modelning murakkab vizual xususiyatlarni o‘rganish qobiliyatiga ega ekanligini ko‘rsatadi.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Goodfellow I., Bengio Y., Courville A. Deep Learning. – MIT Press, 2016.
2. Kamilaris A., Prenafeta-Boldú F. Deep learning in agriculture: A survey. – Computers and Electronics in Agriculture, 2018.
3. Jocher G. et al. YOLOv5 by Ultralytics. – GitHub Repository, 2020.
4. Goodfellow I., Bengio Y., Courville A. **Deep Learning.** MIT Press, 2016.
5. Kamilaris A., Prenafeta-Boldú F. **Deep learning in agriculture: A survey.** Computers and Electronics in Agriculture, 2018.
6. Szeliski R. **Computer Vision: Algorithms and Applications (2nd edition).** Springer, 2022.
7. Padilla R., Passos W., Dias T. **A Comparative Analysis of Object Detection M**

UDK 582.28: 632.4

KOMBINATSIYALASHGAN O‘RMON PLUGINING PARAMETRLARINI ASOSLASH

Abdulmannonov Jahongir Fazliddin o‘g‘li.
Qarshi davlat texnika universiteti

ANNOTATSIYA: O‘rmon tuproqlarini samarali tayyorlash o‘rmonlarni muvaffaqiyatli qayta tiklash va yerdan barqaror foydalanishni ta’minlashda muhim omil bo‘lmoqda. Shu maqsadda keng qo‘llaniladigan asboblardan biri tuproqni yumshatish, o‘simlik qoldiqlarini olib tashlash, o‘rmon ko‘chatlarini ekish uchun qulay sharoit yaratish uchun mo‘ljallangan o‘rmon omochidir. Ushbu maqolada asosiy e'tibor o'rmon shudgorining asosiy parametrlarini nazariy va amaliy asoslashga

qaratilgan. Tadqiqotda ish kengligi, shudgorlash chuqurligi, pichoq burchagi, tuproq qarshiligi va traktor tortish kuchining o'rmon sharoitida tuproqni ishlov berish samaradorligiga ta'siri tahlil qilinadi. Yuqori mahsuldorlikni, energiya sarfini kamaytirishni va tuproqning minimal buzilishini ta'minlaydigan optimal parametr qiymatlarini aniqlash uchun matematik hisob-kitoblar va muhandislik tahlillari qo'llanildi. O'rmon zonalarida keng tarqalgan turli xil tuproq turlari va shudgorning ishchi elementlari o'rtasidagi o'zaro ta'sirga alohida e'tibor beriladi. Natijalar shuni ko'rsatadiki, to'g'ri tanlangan strukturaviy va ekspluatatsion parametrlar tuproqni tayyorlash sifatini sezilarli darajada yaxshilaydi, uskunaning chidamliligini oshiradi va umumiy o'rmon xo'jaligi ishlarini yaxshilaydi.

Kalit so'zlar: O'rmon haydashi, tuproqni tayyorlash, o'rmon xo'jaligini mexanizatsiyalash, shudgor parametrlari, tuproq qarshiligi, tortish kuchi, ish chuqurligi, o'rmon tuprog'ini ishlov berish, qishloq xo'jaligi texnikasi dizayni.

KIRISH

O‘rmon xo‘jaligi ekologik muvozanatni saqlash, biologik xilma-xillikni muhofaza qilish, sanoatni xomashyo bilan ta’minlashda muhim o‘rin tutadi. O'rmonlarni boshqarish va qayta tiklashning asosiy bosqichlaridan biri tuproqni to'g'ri tayyorlashdir. Tuproqni yuqori sifatli tayyorlash tuproqning jismoniy holatini yaxshilaydi, ozuqa moddalarining mavjudligini oshiradi va ko'chatlarning o'sishi va rivojlanishi uchun qulay shart-sharoitlarni yaratadi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, tayyorlangan tuproq daraxt ko'chatlarining omon qolishi va erta o'sishini sezilarli darajada yaxshilaydi va uzoq muddatli o'rmon hosildorligini va uglerodni singdirish qobiliyatini oshirishi mumkin. O'rmon xo'jaligida tuproqni tayyorlash jarayoni odatda ma'lum bir chuqurlikda tuproqni yumshatish, o'simlik qoldiqlarini olib tashlash va ko'chatlar ekish uchun mos bo'lgan jo'yaklar yoki tizmalar hosil qilishni o'z ichiga oladi. Bu operatsiyalar odatda ixtisoslashtirilgan o'rmon pulluklari va boshqa ishlov berish uskunalari yordamida amalga oshiriladi. Bunday vositalarning maqsadi o'simlik qatlamini aylantirish, siqilgan tuproqni sindirish, begona o'tlarni nazorat qilish va yosh daraxtlar uchun optimal ekish muhitini yaratishdir. To'g'ri ishlab chiqilgan shudgorlash uskunalari boshqariladigan kenglik va chuqurlikka ega bo'lgan jo'yaklarni shakllantirishga imkon beradi, bu esa tuproqning aeratsiyasini, namlikni saqlashni va ildizlarning kirib borishini yaxshilaydi.



rasm. Foydalanilmagan o‘rmon yerlarini o’zlashtirish

MATERIAL VA METODLAR

O'rmonlarning tuprog'ini tayyorlash o'rmonlarni qayta tiklash va o'rmon ekishning eng muhim texnologik bosqichlaridan biri sifatida keng e'tirof etilgan. Ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, tuproqni tayyorlash tuproqning jismoniy xususiyatlarini yaxshilaydi, ozuqa moddalarining aylanishini yaxshilaydi, urug'larning unib chiqishi va ko'chat o'sishi uchun qulay mikro-sharoitlar yaratadi. Tayyorlangan tuproq o'simliklardan raqobatni kamaytiradi, tuproq haroratini oshiradi va namlik mavjudligini yaxshilaydi, bu esa tayyorlanmagan tuproq bilan solishtirganda ko'chatlarning omon qolish darajasini sezilarli darajada oshiradi.

Shimoliy Evropada olib borilgan tadqiqotlarga ko'ra, tuproqni tayyorlash uzoq muddatli o'rmon hosildorligini va uglerod sekvestr qobiliyatini sezilarli darajada oshirishi mumkin. Xususan, tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, o'rmon uglerod zaxirasi tuproqni tegishli ravishda tayyorlashdan keyin 25 yil ichida gektariga 25 tonnagacha ko'payishi mumkin, bu esa ushbu texnologik

operatsiyaning ekologik va iqtisodiy ahamiyatini ko'rsatadi. Zamonaviy o'rmon xo'jaligida turli xil tuproq tayyorlash texnologiyalari, jumladan, o'rmonni haydash, disk bilan ishlov berish, yirtish va tepalik usullaridan foydalaniladi. Tuproqni mexanik tayyorlash bo'yicha qiyosiy eksperimental tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, o'rmonni shudgorlash usuli erta regeneratsiya bosqichida gektariga 75 000 dan ortiq ko'chat olishi mumkin, bu o'rmon maydalash kabi boshqa mexanik usullardan sezilarli darajada yuqori. Bundan tashqari, o'rmon shudgorlash natijasida hosil bo'lgan ko'chatlarning omon qolish darajasi o'sishning ikkinchi yilida taxminan 81% ga etdi, bu esa qulay tiklanish sharoitlarini yaratishda ushbu usulning samaradorligini ko'rsatadi. Shu bilan birga, tadqiqotchilarning ta'kidlashicha, og'ir o'rmon xo'jaligi texnikasidan ko'proq foydalanish ma'lum salbiy oqibatlarga, xususan, tuproqning siqilishiga olib kelishi mumkin. Tajriba natijalari shuni ko'rsatadiki, takroriy mashinalar harakati tuproqning massa zichligini taxminan 27% ga va tuproqning penetratsiyaga chidamliligini taxminan 46% ga oshirishi mumkin, tuproq g'ovakligi esa taxminan 11% ga kamayishi mumkin.

Ushbu tadqiqotning metodologiyasi muhandislik tahliliga, o'rmon xo'jaligi ma'lumotlarini statistik baholashga va tuproq va asbobning o'zaro ta'sirini bashoratli modellashtirishga asoslangan. Tadqiqotning asosiy maqsadi energiya sarfini va atrof-muhitga ta'sirini minimallashtirish bilan tuproqni samarali tayyorlashni ta'minlaydigan o'rmon plugining parametrlarini aniqlashdan iborat.

METODLAR

Tadqiqotda tuproq va o'rmon plugining ishchi elementlari o'rtasidagi o'zaro ta'sirni baholash uchun nazariy va analitik usullar qo'llaniladi. Tadqiqotda quyidagi parametrlar asosiy o'zgaruvchilar sifatida ko'rib chiqildi:

Plugning ish kengligi

Tuproqga ishlov berish chuqurligi

Diskning burchagi

Tuproqning ishlov berishga chidamliligi

Traktordan talab qilinadigan tortish kuchi

Mashinaning ishlash unumdorligi

Ushbu natijalari shuni ko'rsatadiki, o'rmon plugining parametrlarini optimallashtirish tuproqni mexanizatsiyalashgan holda tayyorlash samaradorligini sezilarli darajada oshiradi va o'rmonlarni qayta tiklash jarayonlari sifatini oshiradi. Olingan natijalar o'rmon xo'jaligi ishlarining statistik tahliliga, tortish kuchlarining muhandislik hisoblariga, tuproq va plugning o'zaro ta'sirini modellashtirishga asoslangan.

O'rmon xo'jaligi korxonalarining statistik ma'lumotlari shuni ko'rsatadiki, o'rmon plantatsiyalari uchun tuproqni tayyorlash asosan mexanizatsiyalashgan. Ko'pgina o'rmon xo'jaligi tizimlarida tuproqqa ishlov berishning taxminan 99% mexanizatsiyalashgan uskunalar yordamida amalga oshiriladi, tuproqni qo'lda tayyorlash esa umumiy operatsiyalarning atigi 1% ni tashkil qiladi.

NATIJALAR

O'rmon plugi va tuproqning o'zaro ta'siri samarali ishlash uchun zarur bo'lgan tortish kuchini aniqlaydi. Eksperimental ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, tuproqqa ishlov berish uskunalari uchun tortish kuchi qiymatlari odatda tuproq zichligi, plug geometriyasi va ish chuqurligiga qarab 9,7 kN dan 60,5 kN gacha o'zgarib turadi.

Muhandislik tahlili shuni ko'rsatadiki, o'rmon tuprog'iga ishlov berish uchun zarur bo'lgan tortish kuchi 21,4 kVt dan taxminan 78,9 kVt gacha, bu dvigatel quvvati 80 dan 120 ot kuchigacha bo'lgan traktorlarga to'g'ri keladi. Ushbu natijalar o'rta quvvatli o'rmon xo'jaligi traktorlari ko'pchilik o'rmon haydash tizimlarini ishlatish uchun etarli ekanligini tasdiqlaydi.

Tuproqning siqilishining oshishi tortish kuchiga bo'lgan talabni taxminan 23% ga oshirishi mumkin, tuproq yuzasi sharoitlarining o'zgarishi esa tortishish kuchini taxminan 25% ga o'zgartirishi mumkin.

Ushbu ma'lumotlarga asoslanib, o'rmon plugining parametrlari quyidagicha prognoz qilindi:

Ishlash chuqurligi: 0,25–0,35 m

Ish kengligi: 0,7-1,2 m

Ishlash tezligi: 5–8 km/soat

Kerakli tortish kuchi: 20–45 kN

Ushbu parametrlar tuproqning samarali yumshatilishini ta'minlaydi va ortiqcha energiya sarfini kamaytiradi.

Dala tadqiqotlari natijalari shuni ko'rsatadiki, tuproqni mexanizatsiyalashgan holda tayyorlash tuproqning fizik xususiyatlarini sezilarli darajada o'zgartiradi. Mexanik tuproqni tayyorlash tuproqning buzilishini kuchaytirishi va eroziya darajasini vaqtincha oshirishi mumkin. Tuproqni mexanizatsiyalashgan holda tayyorlashdan keyingi birinchi yillarda tuproq yo'qotilishi tayyorlash usuli va atrof-muhit sharoitlariga qarab yiliga 98 dan 3128 g / m² gacha bo'lishi mumkin.

Biroq, bu ta'sirlar odatda vaqtinchalik. Taxminan 2-3 yil o'tgach, tuproqni barqarorlashtirish jarayonlari eroziya darajasini sezilarli darajada kamaytiradi va tuproq tuzilishi asta-sekin tiklanadi.

XULOSA

Olingan natijalar shuni tasdiqlaydiki, o'rmon plugining parametrlarini asoslash mexanizatsiyalash samaradorligi, tuproqni muhofaza qilish va uzoq muddatli o'rmon hosildorligini birlashtirishni talab qiladigan murakkab muhandislik-ekologik muammodir. Ushbu tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, optimallashtirilgan o'rmon plugi parametrlari energiya sarfini va atrof-muhitga salbiy ta'sirlarni kamaytirish bilan birga tuproqni tayyorlash sifatini sezilarli darajada yaxshilaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Cambi M., Certini G., Neri F., Marchi E. Og'ir texnikaning o'rmon tuproq xususiyatlariga va ko'chat o'sishiga ta'siri. O‘rmon ekologiyasi va boshqaruvi, 2017.

2. Gómez J. A., Guzman M. G., Giráldez J. V., Fereres E. Mexaniklashtirilgan maydonchani tayyorlashdan keyin o'rmon tuproq eroziyasi. Tuproq va tuproqqa ishlov berish tadqiqotlari, 2021.

3. Horn R., Fleige H. O'rmon texnikasi tufayli tuproqning siqilishi xavfini baholash. Tuproq va tuproqqa ishlov berish tadqiqotlari, Springer, 2020.

4. A. M. Zaxarenko. O'rmon xo'jaligida tuproqqa ishlov berishni mexanizatsiyalash. Moskva: Kolos nashriyoti, 2015.

5. V. P. Goryachkin. Qishloq xo'jaligi mashinalari nazariyasi. Moskva: Mashinostroenie, 1968.

6. N. A. Klenin va I. F. Popov. Qishloq va o'rmon xo'jaligi mashinalari. Moskva: Kolos, 2003.

7. A. Abdurahmonov. Tuproqshunoslik va tuproq unumdorligi. Toshkent: Fan nashriyoti, 2012.

8. S. N. Rajabov. Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini mexanizatsiyalash. Toshkent: O‘qituvchi nashriyoti, 2010.

9. M. F. Mamatov. Qishloq xo'jaligi mashinalari Toshkent: Voris- nashriyoti, 2019

10. Sh. M. Mirzayev. Qishloq xo‘jaligi texnikasi va tuproqni qayta ishlash texnologiyalari. Toshkent: Yangi asr avlodi, 2018.

UDK:63/631.35

MOTOBLOKLAR YORDAMIDA EKINLARNI O‘RIB YIG‘ISH TEXNOLOGIK TAHLIL VA TAVSIYALAR

Xudoyberdiyev Sherzod Ziyodullo o‘g‘li
Qarshi davlat texnika universiteti

Annotatsiya. Maqolada motobloklar yordamida ekinlarni o‘rib yig‘ish jarayonining texnik va texnologik jihatlari tahlil qilindi. Unda motoblokka frontal yoki yon tomonga o‘rnatiladigan o‘rgichlar konstruksiyasi, ularning ishlash prinsiplari va kichik yer maydonlarida samaradorlikni oshirish usullari muhokama qilindi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, to‘g‘ri tanlangan o‘rgichlar va motoblok konfiguratsiyasi mehnat sarfini kamaytirish va ekinni sifatli o‘rib yig‘ish imkonini beradi.

Kalit so‘zlar: *motoblok, o‘rgich, ekinni o‘rib yig‘ish, frontal o‘rnatish, texnologiya, samaradorlik.*

Kirish. Ma’lumki, dunyoning ko‘plab davlatlarida, jumladan rivojlangan davlatlari Yaponiya, Xitoy, Koreya, Shveytsariya, Avstriyada ham bugungi kunda motoblok asosidagi agregatlardan

keng foydalaniladi. Chunki ular kichik maydonlarda va tog‘ oldi qiyaliklarda joylashgan yerlarda tuproqqa ishlov berish, ekin ekish, hosilni yig‘ishtirish jarayonida qo‘l mehnatini keskin kamaytirish imkonini beradi. Motobloklarning ushbu afzalliklarini hisobga olib bugungi kunda respublikamizda ham shaxsiy tomorqa va dehqon xo‘jaliklari hamda issiqxonalarda ulardan foydalanishga o‘tilyapti.

Motobloklar kichik yerlarda agrotexnik jarayonlarni mexanizatsiyalash bilan birga, ishlarni kam yonilg‘i sarflab bajarishga ham imkon beradi. Bu esa motobloklardan foydalanish yetarli darajada samarali bo‘lishini ham ta’minlaydi.

Muammoning qo‘yilishi. O‘zbekistonda motobloklardan foydalanishga bo‘lgan qiziqish va talabning ortganligiga qaramasdan ularni respublikamiz sharoitida tadqiq etish, ulardan foydalanish samaradorligini oshirishga qaratilgan ilmiy-texnik yechimlarni ishlab chiqish bo‘yicha ishlar deyarli amalga oshirilmagan. Shu sababli biz motoblok va ular asosida tuzilgan agregatlardan foydalanish samaradorligini oshirish imkonini beradigan takliflarni ishlab chiqish bo‘yicha izlanishlar olib bormoqdamiz.

Tadqiqot uslubiyoti. Motoblok va uning asosidagi agregatlar, jumladan o‘rgichlarning tuzilishi va ish jarayonini tahlil etish mazkur yo‘nalishda ilgari tadqiqotlar o‘tkazgan tadqiqotchilar va olimlarning ma’lumotlari asosida olib borildi. Mazkur ma’lumotlarni topish va tahlil etish Skopus ma’lumotlar bazasi, axborot-resurs markazlari va internetdagi mavjud makolalar va adabiyot manbalar ma’lumotlari asosida bajarildi.

Motoblok asosidagi o‘rim-yig‘im agregatlarini ishlab chiqish va tadqiq etish bilan H.Shimizu, M.Koike, H.Shimoda, Y.Koga, Zhu Defeng, A.I.Moussa, A.K.Gupta, Y.Zeren, A.Isik, N.Banaeian, M.Zangeneh, S.O.Mohammed, Sh.Zaynolabedin ва K.D.Astanaqulovlar shug‘ullanganlar [1-7]. Mazkur tadqiqotlarda Yaponiya, Koreya, Xitoy va Osiyoning boshqa davlatlarida o‘rgich bilan jihozlangan motobloklarning ishi tadqiq etilib, bir qator yechimlar va takliflar ishlab chiqilgan.

Shundan kelib chiqib biz, yuqoridagi olimlar va tadqiqotchilarning ma’lumotlaridan foydalangan holda motoblok asosidagi o‘rish agregatlari konstruksiyasini tahlil etib chiqdik.

Tadqiqot natijalari. Kichik paykalli dalalarda ozuqabop va donli hamda boshqa ekinlarni motoblok asosidagi agregatlar bilan yig‘ishtirish Yaponiya, Xitoy, Koreya, Tailand, Hindiston, Eron, Vyetnam, Turkiya, Misr va boshqa bir qator Osiyo davlatlarida qo‘llanilib kelinishi aniqlandi [1-7].

Yaponiya, Koreya, Xitoyning kichik xo‘jaliklarida sholi motoblokka agregatlangan o‘rgichlar bilan o‘rilib, taxlanadi yoki bog‘lanadi. Agar sholining namligi yuqori bo‘lsa u quritiladi, so‘ngra g‘allayanchgichlar yordamida yanchib olinadi (1-rasm).



1) o‘rib-bog‘lash



2) quritib-yanchib olish

1-rasm. Motoblok asosidagi o‘rgich bilan donli ekinlarni o‘rib yig‘ishtirish

Motoblok asosidagi o‘rgichlardan foydalanish bo‘yicha AQShda ham tadqiqotlar olib borilgan. R.Hers, C.Boyle, I.Jutras, C.Molica, E.Zieglerларнинг tadqiqotlariga ko‘ra, AQShda shaharsozlik va sanoatning rivojlanishi oqibatida fermerlarning yer maydoni kichrayib bormoqda [8]. Bu ayniqsa Nyu-York, Michigan, Vashington, Kolorado, Oregon, Pensilvaniya va Masachusetts

shtatlariga tegishli bo‘lib, bu kichik yerlarda ekinlar ayrim Yevropa va Osiyo davlatlaridagidek kichik texnika vositalari bilan emas, balki eski kichik kombaynlar yordamida katta sarf-xarajat va qiyinchilik bilan yig‘ishtirib olinmoqda. Shundan kelib chiqib, ular o‘rim-yig‘im ishlarida foydalaniladigan kichik texnika vositasini yaratish ustida tadqiqotlar olib borishgan. Tadqiqotlar natijasida ekinlarni o‘rib-yig‘ib, bog‘lab ketadigan 1,5 m qamrov kengligiga ega kichik kosilka (o‘rgich) ishlab chiqilgan [8].Экинларни ўриб-йиғиштиришда қўлланиладиган кичик ўргичлар Италия, Германия, Япония, Koreya, Xitoy, Hindiston, Vyetnam va boshqa davlatlardagi juda ko‘p firma va kompaniyalar tomonidan ishlab chiqiladi.

Ularni umumlashtirgan holda agregatlanadigan energetik vositasiga ko‘ra, ikki g‘ildirakli motoblokka o‘rnatiladigan (2-rasm, 1,2,3) hamda o‘ziyurar (2-rasm, 4), o‘rib tashlab ketadigan (2-rasm, 2), o‘rib taxlab ketadigan (2-rasm, 4) va o‘rib bog‘lab ketadigan (2-rasm, 1,2), motoblokka frontal yoki yon tomonga o‘rnatiladigan (2-rasm) turlarga ajratish mumkin.

Motoblokka agregatlanadigan o‘rgichlarda qo‘llaniladigan segmentlar standart detal hisoblanadi va ular 3-4 xil kattalikda va o‘lchamda, ya’ni pastki asosining eni 40 mm, 76,2 mm, 90 mm va 101,2 mm qilib ishlab chiqariladi va ular 40 mm, 50 mm, 76,2 mm, 90 mm va 101,2 mm qadam bilan o‘rnatiladi.

Mazkur o‘rgichlar konstruksiyasining tahlili shuni ko‘rsatadiki, ularning ichida motoblokka frontal o‘rnatiladigan va ekinni o‘rib, taxlab ketadigan o‘rgichlar (2-rasm, 2,4) konstruksiyasini soddaligi, texnologik jarayonni kam nobudgarchilik bilan sifatli amalga oshirishi, narxining arzon bo‘lishi bilan qolgan o‘rgichlardan afzalroq ekanligi ma’lum bo‘ldi.



1)



2)



3)



4)

2-rasm. Turli xil kichik g‘allao‘rgichlar.

Xulosa. O‘zbekiston sharoitida tomorqa yerlari va issiqxonalarda motobloklardan foydalanish mehnat sarfini kamaytirishga xizmat qiladi va ularni beda, bug‘doy va boshqa ekinlarni o‘rib yig‘ishtirishda foydalaniladigan o‘rgichlar bilan jihozlash motoblok va ular asosida tuzilgan agregatlardan foydalanish samaradorligini 20 foizgacha oshirish imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Zhu Defeng. Mechanization of rice production and chalenges in China.

http://www.unapcoem.org/sanyanch2.pdf
2. Moussa A.I. Mechanical and traditional harvesting methods for wheat crop// Agriculture Engenering. October, 2008. – pp. 1094-1111.
3. Gupta A. K. Wheat harvesting techniques. IPPTA J., 2011. – vol. 23, N 3. – pp. 129-135.
4. Zeren Y., Isik A. Agricultural inputs, mechanization and employment in Turkey// AMA. – Tokyo (Japan), 2001. – vol. 22, N 3. – pp. 63-66.
5. Banaeian N., Zangeneh M. Mechanization and economic analysis of wheat production in Iran// AMA. – Tokyo (Japan), 2011. – vol. 42, N 4. – pp.15-27.
6. Mohammed S.O. A Comparative study of the most widely harvesting systems for wheat crop in Egypt. Misr J. Ag. Eng., 2008. – vol. 25, N 3. – pp. 804-823.
7. Astanaqulov K.D. O‘zbekiston sharoitida kichik maydonlardagi g‘allani erta muddatlarda yig‘ishtirishning ilmiy-texnikaviy yechimlari: Tex. fan. dok. ... dis. – Toshkent: QXMEI, 2016. – 200 б.
8. Hers R., Boyle Ch., Jutras I., Molica Ch., Ziegler E. Designing a Small-Scale Grain Harvester: A Tool for Urban and Peri-urban Growers / An Interactive Qualifying Project submitted of the faculty of Workester Polytechnic Institute, 2012. – 48 p.
9. Xudoyberdiyev Sherzod. "МОТОБЛОКЛАРНИ ИШЛАТАДИГАН ОПЕРАТОРЛАРНИ ЎҚИТИШНИНГ ДОЛЗАРБЛИГИ." (2023).
9. Xudoyberdiyev Sherzod. "МОТОБЛОК АСОСИДАГИ ЎРГИЧЛАР ВА УЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШ АСОСЛАРИ." (2021).
10. Xudoyberdiyev Sherzod. "MOTOBLOKLAR VA ULARNING ISHCHI JIHOZLARINING TAHLILI." (2024).

TUPROQGA ISHLOV BERISH JARAYONIDA CHIZEL TISHLARI RESURSTEJAMKORLIGINI OSHIRISH

Xursanov B.J.
Farg‘ona davlat texnika universiteti

Annotatsiya. Maqolada tuproqni chuqur yumshatish uchun chizellash jarayonida qo‘llaniladigan chizel tishlarining resurs tejamkorligini oshirish masalalari o‘rganilgan. Chizel tishlarining konstruktiv parametrlari, ishchi yuza geometriyasi, material tanlovi hamda ish rejimlarining energiya sarfi va yeyilish darajasiga ta’siri tahlil qilingan. Natijalarga ko‘ra, optimal burchak (20-25°), oqimga mos aerodinamik shakl va qotishma po‘lat qoplamasi qo‘llanilganda energiya sarfi 12-15% ga, yeyilish intensivligi esa 18-22% ga kamaydi. Taklif etilgan konstruktiv yechimlar tuproq strukturasini saqlash va ekspluatatsion xarajatlarni qisqartirish imkonini beradi.

Kalit so‘zlar: *chizel tishi, resurs tejamkorlik, tyaga qarshiligi, energiya sarfi, yeyilish, tuproqni chuqur yumshatish, konstruktiv parametr, agrotexnik talab.*

Kirish. Qishloq xo‘jaligida chizellash jarayonlari tuproqni chuqur yumshatish, uning suv-havo rejimini yaxshilash, zichlashgan qatlamlarni bartaraf etish va ildiz tizimining rivojlanishi uchun muhim agrotexnik tadbir hisoblanadi. Chizel agregatlari tuproqni ag‘darmasdan yumshatish imkonini berib, resurs tejamkor texnologiyalar tarkibiga kiradi. Ammo chizel tishlarining yuqori tyaga qarshiligi, tez yeyilishi va energiya talabchanligi ularning ekspluatatsion samaradorligini pasaytiradi. Shu bois chizel tishlari konstruksiyasini takomillashtirish va resurs tejamkorligini oshirish dolzarb ilmiy vazifa hisoblanadi.

Mavzuning dolzarbligi. Zamonaviy agrotexnologiyalarda yoqilg‘i resurslarini tejash va tuproq unumdorligini saqlash asosiy vazifalardan hisoblanadi. Chizel agregatlari minimal ishlov berish texnologiyalarida keng qo‘llanilmoqda. Lekin:

- yuqori tyaga qarshiligi;
- metall sarfining kattaligi;
- ishchi yuzalarning tez yeyilishi;
- energiya sarfining ortishi kabi omillar iqtisodiy samaradorlikni cheklaydi.

Resurs tejamkor chizel tishlarini ishlab chiqish orqali yoqilg‘i sarfini kamaytirish, xizmat muddatini uzaytirish va ekspluatatsion xarajatlarni qisqartirish mumkin.

Material va metodlar. Tadqiqot ob’ekti sifatida quyidagi turdagi chizel tishlari tanlandi:

1. An’anaviy to‘g‘ri shaklli tish;
2. Qiya burchakli tish (20-30°);
3. Aerodinamik shaklga ega takomillashtirilgan tish;
4. Qattiq po‘lat qotishmali qoplamali tish.

Tadqiqot sharoiti: Tajribalar o‘rta zichlikka ega (1,25 g/sm³) bo‘z tuproqda, 25-35 sm chuqurlikda o‘tkazildi. Tuproq namligi 15-18% ni tashkil etdi.

Baholash ko‘rsatkichlari: Resurs tejamkorlik quyidagi ko‘rsatkichlar asosida baholandi:

- Tyaga qarshiligi (kN)
- Yoqilg‘i sarfi (l/ga)
- Metall yeyilishi (mm/100 soat)
- Ishlov sifati (yumshatish darajasi, %)

Hisoblash formulalari.

Tyaga qarshiligi quyidagi formula yordamida aniqlanadi :

$R=k\cdot b\cdot h$

bu yerda: k - tuproq qarshilik koeffitsienti;

b - ishchi kenglik;

h - ishlov chuqurligi.

Yeyilish intensivligi quyidagi formula yordamida aniqlanadi :

$I=\Delta m/t$

bu yerda: Δm - massani yo‘qotish,

t - ish vaqti.

Statistik tahlil variatsiya koeffitsiyenti orqali amalga oshirildi.

Natijalar va ularning tahlili.

1. Tyaga qarshiligi tahlili:

Tish turi	Tyaga qarshiligi (kN)
An’anaviy	18.5
Qiya burchakli	16.9
Aerodinamik	15.8
Qoplamali	16.2

Aerodinamik shaklli tishda tyaga qarshiligi 14–15% ga kamaydi.

2. Yoqilg‘i sarfi tahlili:

Tish turi	Yoqilg‘i sarfi (l/ga)
An’anaviy	14.2
Qiya burchakli	12.8
Aerodinamik	12.1
Qoplamali	12.5

Optimal burchak va oqimga mos shakl yoqilg‘i sarfini sezilarli kamaytirdi.

3. Yeyilish ko‘rsatkichi tahlili:

Tish turi	Yeyilish (mm/100 soat)
An’anaviy	2.8
Qiya burchakli	2.4
Aerodinamik	2.2
Qoplamali	1.8

Qattiq qotishmali po‘lat qoplama yeyilishni 20% ga kamaytirdi.

4. Ishlov sifati tahlili:

Yumshatish darajasi barcha holatlarda 85–92% ni tashkil etdi. Aerodinamik tish tuproq strukturasini kamroq buzdi.

Muhokama. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, chizel tishining geometrik shakli tuproq oqimini optimallashtirib, energiya sarfini kamaytiradi. Burchak 20-25° bo‘lganda tuproq qarshiligi minimal bo‘ladi. Korroziyaga barqaror bo‘lgan po‘latni tejashning asosiy usullaridan biri-qurilmalarni tayyorlashda ikki qamlamli metalldan foydalanishdir. Bunda birinchi qatlam uglerodli

po‘latdan, ikkinchi himoya qiluvchi qatlam esa korroziyaga barqaror qattiq po‘lat qotishmadan tarkib topgan bo‘ladi. Ko‘pincha himoya qiluvchi metall sifatida 08X13, 12X1810T, 08X17N13M2T, 06XN28 MDT navli po‘lat ishlatiladi. Materiallarni og‘ir sharoitda kesib ishlashda keskichlar yeyilib o‘tmaslanshib qoladi. Shu sababli ularning materiali tuproq yoki zagatovka materialidan ancha puxta, qattiq, issiqbardosh, kam yeyiladigan bo‘lishi kerak. Keskichlar asosan legirlangan asbobsozlik po‘latlaridan, qattiq qotishmalardan, mineral-keramik materiallardan tayyorlanadi.

Legirlangan tezkesar po‘latlardan (R9, R18) tayyorlangan keskichlar qattiqligi tayyorlangan kesishlar qattiqligi NRC=62-65 bo‘lsada, ular ish jarayonida 500^0C temperaturaga qadar, kesuvchanlik xossalarni saqlaydi. Qattiq qotishmalar (masalan, T15K6, VK8) qattiqligi NRA86-92 bo‘lib, ish jarayonida 1000-1200^0C temperaturagacha kesuvchanlik xossalarini saqlaydi.

Qattiq qotishmali po‘lat qoplamalar eyilishni kamaytirib, xizmat muddatini 1,3-1,5 barobarga oshiradi. Bu esa resurs tejamkorlikning asosiy ko‘rsatkichi hisoblanadi.

Xulosalar:

- Aerodinamik shaklli chizel tishi tyaga qarshiligini 14-15% ga kamaytiradi.
- Yoqilg‘i sarfi 12-15% gacha qisqaradi.
- Qattiq po‘lat qotishmadan iborat qoplama eyilishni 18-22% ga kamaytiradi.
- Optimal burchak 20-25° deb tavsiya etiladi.
- Takomillashtirilgan konstruksiya ekspluatasion xarajatlarni kamaytirib, xizmat muddatini uzaytiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mirzaev B.S. Tuproqqa ishlov berish nazariyasi. – T.: Fan, 2020.
2. Qodirov A.A. Qishloq xo‘jalik mashinalari. – T.: O‘qituvchi, 2018.
3. Sineokov G.N. Teoriya i raschet pochvoobrabatыvayuщix mashin. – M.: Kolos, 2016.
4. Lure A.B. Selskoxozyaystvennыe mashinы. – M., 2017.
5. FAO. Conservation Agriculture Guidelines. – Rome, 2019.
6. OECD. Farm Mechanization Report. – Paris, 2021.
7. O‘zbekiston Respublikasi QXV. Agrotexnik talablar to‘plami. – T., 2022.
8. Karayel D. Energy efficiency in soil tillage systems // Journal of Agricultural Engineering, 2020.

УДК 631.67:004

ГИБРИДНАЯ PINN–MPC МОДЕЛЬ ИМПУЛЬСНОГО КАПЕЛЬНОГО ОРОШЕНИЯ С УЧЁТОМ ЗАСОЛЕНИЯ ПОЧВЫ И ЗАСОРЕНИЯ ЭМИТТЕРОВ

А.М. Тургунов[1]
Ф. Ибадуллаев[2]
А. Хакбердиев[3]
[1)]Азиатский университет технологий
[2] Каршинский государственный технический университет
[3)] Университет экономики и педагогики

Аннотация. Представлена оригинальная гибридная модель капельного орошения для засушливых регионов, объединяющая: аксиально-симметричное решение уравнения Ричардса с переносом солей, динамику засорения эмиттеров (химическая, биологическая и физическая компоненты), импульсный режим подачи воды, оптимизируемый в контуре предиктивного управления (MPC), и ускоряющую аппроксимацию на основе physics-informed neural networks (PINN).

Ключевые слова. *капельное орошение; импульсное орошение; уравнение Ричардса; перенос солей; HYDRUS; PINN; MPC; засоление почв; кольматация эмиттеров; физико-информированные нейросети; устойчивое земледелие; оптимизация режимов; цифровое земледелие; дефицитное орошение; гидрофизические параметры.*

Введение

Капельное орошение остаётся одним из наиболее эффективных методов

водосбережения в сельском хозяйстве. Его успех определяется точностью прогноза влажностного пятна, управлением солевым переносом и контролем засорения эмиттеров. Современные численные модели, такие как HYDRUS, решают уравнение Ричардса и уравнения переноса солей/тепла с учётом корневого водоотбора [1,стр.2-4].

Особый интерес вызывает импульсное (периодическое) капельное орошение. Оно формирует более широкий горизонтальный фронт смачивания и позволяет дозировать влагу и растворённые вещества с большей точностью [3]. Дополнительные вызовы связаны с накоплением солей и деградацией эмиттеров в условиях жёсткой воды [4,стр.2-6].

Современные исследования в области машинного обучения, в частности PINN (Physics-Informed Neural Networks), позволяют строить быстрые и устойчивые аппроксимации уравнений Ричардса и переноса солей для интеграции в системы предиктивного управления [6,стр. 4470-4473].

В кратце приведём обзор научных работ по данной тематике проделанные за последние 10 лет.

- **HYDRUS и процессные модели.** Применяются для моделирования инфильтрации, корневого водоотбора и солевого переноса [2, p.3–5].
- **Импульсное орошение.** Продемонстрировано увеличение равномерности увлажнения и улучшение динамики питательных веществ [3, p.1–6].
- **Засоление почв.** Подтверждено формирование солевого купола при непрерывном поливе; импульсность снижает этот эффект [5, p.2–5].
- **Кольматация эмиттеров.** Обзоры показали значимость химического и биологического засорения и методы профилактики [4, p.2–8].
- **PINN-модели.** Недавние исследования продемонстрировали, что PINN эффективно решает прямые и обратные задачи уравнения Ричардса [6, p.4470–4474].

Методы.

1. Уравнение Ричардса (аксиально-симметричная постановка):

$$\frac{d\theta}{dx} = \nabla \cdot \big(K(\theta) \cdot \nabla(\mathrm{h} + \mathrm{z})\big) - S_{root}(r, s, t)$$

где θ — влажность, h — матричный потенциал, K(θ) — гидропроводимость, S_{root} — съём влаги корнями [1, p.2–3].

2. Перенос солей: $\frac{d(\theta C)}{dt} = \nabla \cdot (\theta D \nabla C - qC) - S_{salt}(r, s, t) + R_{precip}(C, pH, T)$

где C — концентрация солей, q — поток влаги [2, p.4–5].

3. Импульсный режим подачи: $Q(t) = Q_{nom} \cdot u(t), u(t) \in \{0,1\}$

где u(t) описывает циклы «on/off» с длительностями τ_{on},τ_{off}.

Это уравнение наглядно отображается в следующем рисунке. (см.рис.1)



Рис.1. Гибридная PINN–MPC модель импульсного капельного орошения с учётом засоления почвы и засорения эмиттеров

4. Кольматация эмиттеров

$$\frac{dc}{dt} = k_{chem} f(C, pH) + k_{bio} B - k_{flush} u_{acid}(t), Q(t) = Q_{nom}(1 - \gamma C(t))$$

где c(t) — степень засорения, u_{acidu} — эпизоды промывки [4, p.6–10].

5. Предиктивное управление (MPC):

$$J = \sum_{k} \left[\omega_\theta \left\| \theta_{target} - \theta \right\|^2 + \omega C \| C - C_{max} \|^2 + \omega Q Q_{avg}^2 + \omega_c C(t)^2 \right]$$

- функционал, минимизируемый с использованием PINN-суррогата.

Приведём блок-схему PINN - MPC модели



Рис. 2 — Блок-схема PINN–MPC модели

Результаты

Оптимальная скважность импульсов (D≈0.4–0.6) обеспечивает максимальный радиус увлажнения при одинаковом среднем расходе.

График на рис.3 наглядно подтверждает аналитический вывод о максимуме при D≈0.5D \approx 0.5D≈0.5.



Импульсный режим снижает концентрацию солей у границ влажного пятна.

Модель кольматации прогнозирует нелинейное падение расхода и позволяет оптимизировать расписание промывок.

Применение PINN сокращает время расчёта на порядок и делает MPC-управление практически осуществимым.

Обсуждение

Новизна: интеграция уравнений влаги, солей, кольматации и PINN-суррогата в единую MPC-рамку.

Ограничения: необходимость калибровки под локальные почвы и макропоры. Практическая значимость: адаптивный выбор режимов полива и профилактики эмиттеров.

Заключение. Разработана PINN–MPC модель импульсного капельного орошения, которая улучшает прогноз увлажнения, снижает риски засоления и учитывает деградацию эмиттеров. Следующий этап - валидация модели на опытных участках и создание базы параметров для фермерских хозяйств.

СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ

1. Simunek J., et al. Modeling the Soil–Plant–Atmosphere Continuum. Water, 2016, 8(7):2399. DOI:10.3390/w80702399.

2. Lazarovitch N., et al. Modeling of Irrigation and Related Processes with HYDRUS. Advances in Agronomy, 2023.

3. Zhu Z., et al. Intermittent Drip Irrigation Soil Wet Front Prediction Model. Sustainability, 2024, 16(21):9553.

4. Bai L., et al. Effects of Drip Irrigation Models on Chemical Clogging: A Review. Water, 2018, 10(11):1550.

5. Yang D., et al. Simulation of Water and Salt Transport under Pipe Drainage. Water, 2019, 11(9):1914.

6. Bandai T., Ghezzehei T. A. Physics-Informed Neural Networks for RRE. Hydrology and Earth System Sciences, 2022, 26:4469–4495.

POLIETILEN ISHLAB CHIQARISHDA NEYRON TARMOQLARIDAN FOYDALANISH

Shukurova Oysara Po'latovna, Muxammad Fayzulloxo'ja Nazira Narzullo qizi
Qarshi davlat texnika universiteti

Annotatsiya: Hozirgi kundagi eng asosiy vazifa — neyron tarmoqlarni murakkab muammolarga, ayniqsa sifat nazorati, murakkab jarayonlarni optimallashtirish va teskari modellashtirish bilan bog‘liq masalalarga tatbiq etishdir. Bunday ilovalar uchun ko‘pincha ikki yoki undan ortiq yashirin qatlamni va har bir qatlamda ko‘p sonli neyronlarni talab qiladigan murakkabroq neyron tarmoqlar (II va III sinf) kerak bo‘ladi Neyron tarmoqlari polimerizatsiya sohasida foydalanish uchun katta salohiyatga ega, biroq II va III sinf neyron tarmoqlarni hali ham yaxshiroq o‘rganish, ularning bashoratlarini yanada ishonchli va aniqroq qilish talab etiladi. Ushbu maqolada polimerizatsiya jarayonida neyron tarmoqlardan foydalanib maxsulot sifatini nazorat qilish va yaxshilash bo'yicha nazariy ma'lumotlar keltirilgan

Kalit so‘zlar*: polietilen, neyron tarmoq, polimerizatsiya, bashoratlash, sifat ko'rsatkichi.*

Abstract: The primary challenge today is applying neural networks to complex problems, particularly those concerning quality control, complex process optimization, and inverse modeling. Such applications necessitate more sophisticated neural networks (Class II and Class III), which often require two or more hidden layers and a high number of neurons in each layer. While neural networks hold significant potential in the field of polymerization, Class II and Class III neural networks still require further study to ensure their predictions become more reliable and precise. This article provides theoretical insights into the use of neural networks for monitoring and enhancing product quality during the polymerization process."

Keywords*: polyethylene, neural network, polymerization, prediction, quality index.*

Kirish. Polietilen, politen, polieten [—CH2—CH2—]l – karbozanjirli polimer. Rangsiz, yarim shaffof modda. Suyuqlanish temperaturasi olinish usuliga ko‘ra 105—130°, zichligi 920–970&kg/m3. Elastikligi va cho‘zilishga mustahkamligi yuqori. Ishqorlar, xlorid, sulfat, ftorid va organik kislotalar ta'siriga chidamli; xlor va ftor ta'sirida parchalanadi. 80°dan yuqorida uglevodlar va ularning xlorli hosilalarida eriydi; radioaktiv nurlar ta'siriga chidamli; fiziologikjihatdan zararsiz. Polietilen – jahon miqyosida termoplastlar ishlab chiqarishda birinchi o‘rinda turadigan eng arzon polimerlardan biri. Sanoatda 3 xil usulda: etilenni yuqori bosimda (1200—1500 at), o‘rtacha bosimda (30—40 at) va past bosimda (1—7 at) polimerlab olinadi. Elektr izolyasiya qoplamalari, plyonkalar, emiruvchi muhitlardan saqlovchi materiallar, sinmaydigan idishlar va boshqa tayyorlashda qo‘llananadi. Neyron tarmoqlarning yangi qo‘llanish sohalaridan biri bu-teskari modellashtirish (inverse modeling) va reaktorlarni optimallashtirishdir. Teskari modellashtirish deb, tizim natijalaridan kelib chiqqan holda uning dastlabki shartlarini aniqlash jarayoniga aytiladi.

Polimerizatsiya reaktorlari misolida bu shuni anglatadiki, mahsulotning kutilayotgan sifat ko‘rsatkichlari asosida uning dastlabki ishchi parametrlari aniqlanadi. Ushbu mavzu bo‘yicha kam sonli ishlar e'lon qilingan (Hanai va boshqalar, 2003), chunki bunday vazifalar II va III sinf neyron

tarmoqlarini talab qiladi. Ularni o‘rgatish (train) o‘ta murakkab bo‘lib, kamida ikki yoki uchta yashirin qatlam hamda har bir qatlamda kamida 15 ta neyron bo‘lishini taqozo etadi. Bunday hollarda neyron tarmoqlarini o‘rgatishdagi asosiy qiyinchilik masalaning ko‘p variantli (bir nechta) yechimlarga ega bo‘lishi ehtimolidir. Matematik model reaktor sharoitlariga oid ma’lumotlar (kirish parametrlari) asosida polimer xossalarini osonlikcha bashorat qilishi mumkin, biroq buning aksi (teskari modellashtirish) ancha murakkab bo‘lib, bunda optimallashtirish usullaridan foydalanish talab etiladi.

Asosiy qism. Polietilen ishlab chiqarishda bug‘-kompressorli sovutish tizimi nafaqat haroratni nazorat qilish, balki butun texnologik siklning xavfsizligi va mahsulot sifatini ta'minlovchi strategik bo'g'indir.

Polietilen sintezi (ayniqsa, LDPE va HDPE) yuqori darajada ekzotermik jarayondir. Masalan, 1 kg etilen polimerlanganda taxminan 3.5 MJ issiqlik ajralib chiqadi. Agar bu issiqlik o‘z vaqtida chiqarib tashlanmasa, reaktordagi harorat polimerning erish nuqtasidan (LDPE uchun , HDPE uchun) oshib ketadi va qurilmaning ishdan chiqishiga (avariya holatiga) olib keladi.

Reaktor juda murakkab tuzilishga ega bo‘lib, ishchi sharoitlar uchun kamida oltita o‘zgaruvchini belgilash lozim: gaz uzatish tezligi (monomer), katalizator uzatish tezligi, gazning sirtdaki tezligi, g‘ovaklik, bosim va harorat. Agar kopolimerizatsiya jarayoni qo‘llanilsa, aniqlanishi kerak bo‘lgan o‘zgaruvchilar soni yanada ortadi. Bunday holda monomerlar va komonomer uchun gaz uzatish tezligi ma’lum bo‘lishi kerak.

Reaktorni teskari modellashtirishda foydalanilgan neyron tarmoq yordamida optimallashtirish ham mumkin. Buning uchun reaktorning yaxshiroq ishlashi va samaradorligini ifodalovchi yangi o‘zgaruvchilar (masalan, ishlab chiqarish tannarxi, initsiator sarfi, issiqlik ajralish tezligi va boshqalar) qo‘shiladi. Ushbu o‘zgaruvchilarning kiritilishi III sinf neyron tarmoqni II sinf neyron tarmoqqaga aylantirishga yordam beradi, bu esa tizimning murakkabligini kamaytiradi va o‘rgatish jarayonini soddalashtiradi.

Neyron tarmoqqa ishlab chiqarish tezligi yoki tannarxi kabi optimallashtirish o‘zgaruvchilarini qo‘shish ko‘p variantli yechimlarga (multiple answers) ega tizimlardan qochishga yordam beradi. Ushbu bo‘limda ko‘rsatilgan holatda, polimerizatsiya tizimining tabiatiga ko‘ra, bir xil polimer xususiyatlarini (molekulyar og‘irlik, polidisperslik va kopolimer tarkibi) beruvchi ikki yoki undan ortiq ishchi sharoitlar mavjud bo‘lishi mumkin.

Sanoat miqyosidagi reaktorlar ekzotermik polimerizatsiya natijasida ajralib chiqadigan maksimal issiqlik miqdoriga bardosh beradigan qilib loyihalashtiriladi, bu odatda polimerizatsiya tezligining o‘z-o‘zidan tezlashishiga (avto-akseleratsiya) to‘g‘ri keladi. Shunga qaramay, partiya davomida issiqlik ajralishining o‘rtacha tezligi tizimning maksimal sovutish quvvatidan ancha past bo‘ladi, ya’ni polimerizatsiya jarayonining aksariyat qismida sovutish tizimidan to‘liq foydalanilmaydi. Stirol polimerizatsiyasini o‘rganishda neyron tarmoqlaridan foydalanib, reaktorning maqbul ishchi holati, ya’ni foydalanish mumkin bo‘lgan initsiatorlarning eng yaxshi aralashmasi aniqlandi. 1-rasmda ko‘rsatilgan neyron tarmog‘i neyron tarmoqlarni ushbu turdagi optimallashtirish masalalariga qo‘llash mumkinligini baholash uchun ishlatildi.



1-rasm. Neyron tarmoq strukturaviy sxemasi

Neyron tarmoqlarni o‘rgatish uchun foydalanilgan ma’lumotlar stirolning blokli polimerizatsiyasi (bulk polymerization) matematik modeli yordamida olindi. 1-jadvalda simulyatsiyalarda qo‘llanilgan harorat va initsiator konsentratsiyasi diapazonlari ko‘rsatilgan. Ishchi sharoitlar (initsiator konsentratsiyasi va harorat) 1-jadvaldagi diapazondan tasodifiy ravishda tanlab olindi. Faktorial rejalashtirilgan ma’lumotlardan ko‘ra tasodifiy tanlangan ma’lumotlardan foydalanildi, chunki bunday turdagi neyron tarmoqlar uchun tasodifiy ma’lumotlar yaxshiroq o‘rgatishni ta’minlaydi.

1-jadval.

Simulyatsiyalarda qo‘llanilgan harorat va initsiator konsentratsiyasi diapazonlari.

O’zgaruvchi parametr	Maksimum oraliq	Minimum oraliq
Inisatsiya koeffitsiyenti [mol/l]	0.1	0.008
Harorat	383	333

O‘rgatilgan neyron tarmoqlardan nafaqat initsiatorlar aralashmasini tanlashda, balki reaktor unumdorligi va polimer sifatini optimallashtirishda ham foydalanish mumkin. Uzluksiz ishlaydigan reaktorlar bilan ishlaganda, neyron tarmoqlar navlar (grade) o‘zgarishini loyihalashda foydali bo‘lishi mumkin. Harorat va konsentratsiya profillari joriy nav, maqsadli nav va o‘tish vaqtida amal qilinadigan o‘zgartirish turidan kelib chiqib aniqlanishi mumkin. Uzluksiz reaktorlarda vinilatsetatning emulsion polimerizatsiyasi uchun navlarni o‘zgartirish bo‘yicha Fernandes va boshqalar 2004-yilda tadqiqot o‘tkazishgan.

Davriy jarayonlarda sifat nazorati ancha murakkab vazifa hisoblanadi, chunki mahsulot sifati jarayon to‘liq yakunlanmaguncha ma’lum bo‘lmaydi. Shuningdek, polimerning molekulyar og‘irligi va molekulyar og‘irlik taqsimotini bir zumda (bevosita) o‘lchash imkoniyati mavjud emas.



2-rasm. Rekurrent neyron tarmoq strukturaviy sxemasi

Odatda, bunday o‘lchovlar yoki bilvosita (reaksiya muhitining qovushqoqligi va zichligi orqali) yoki bevosita amalga oshiriladi; biroq, bevosita o‘lchashda namuna olingan vaqt bilan natija tayyor bo‘lgan vaqt o‘rtasida ma’lum bir vaqt kechikishi (time delay) yuzaga keladi.

Agar qovushqoqlik (viscosity), zichlik, monomer konsentratsiyasi yoki boshqa o‘zgaruvchilarning onlayn (to‘g‘ridan-to‘g‘ri) o‘lchovlari mavjud bo‘lsa, u holda rekurrent NTdan foydalanish tavsiya etiladi, chunki bu sifatni yanada samaraliroq nazorat qilish imkonini beradi.

Hozirgi kundagi eng asosiy vazifa NTlarni murakkab muammolarga, ayniqsa sifat nazorati, murakkab jarayonlarni optimallashtirish va teskari modellashtirish bilan bog‘liq masalalarga tatbiq etishdir. Bunday ilovalar uchun ko‘pincha ikki yoki undan ortiq yashirin qatlamni va har bir qatlamda ko‘p sonli neyronlarni talab qiladigan murakkabroq neyron tarmoqlar (II va III sinf) kerak bo‘ladi.

2-jadval

Polietilen turlariga ko‘ra tizimning qiyosiy texnik ko‘rsatkichlari

Parametr nomi	O'lchov birligi	LDPE (Yuqori bosim)	HDPE (Past bosim)
Sovutish agenti	-	Propan / Etilen	Propan / Glikol oqimi
Bug‘lanish harorati	°C	-30…..-45	-10…..-20
Siqish bosimi	bar	18….22	12…..15
COP (Samaradorlik)	-	2,5….3,2	3,5…..4,1

Neyron tarmoqlari polimerizatsiya sohasida foydalanish uchun katta salohiyatga ega, biroq II va III sinf NTlarni hali ham yaxshiroq o‘rganish, ularning bashoratlarini yanada ishonchli va aniqroq qilish talab etiladi. NTlardan foydalanishni yanada rivojlantirish uchun ilmiy hamjamiyat oldida turgan asosiy chaqiriq (vazifa) aynan shundan iborat.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Smith J.M., "Introduction to Chemical Engineering Thermodynamics", 8th Edition, McGraw-Hill Education, 2017.

2. Gofurov A.S. "Ximiya va neft-gaz sanoatida sovutish mashinalari", O‘quv qo‘llanma, 2021-y.

UDK. 631.14.

QISHLOQ XO‘JALIK MASHINALARI KORROZIYASI VA UNING OLDINI OLISHDA ANOD ELEMENTLARIDAN FOYDALANISH.

Muxamadsodiqov K.D. Abdullajonova M.
Farg‘ona davlat texnika universiteti

Annotatsiya. Maqolada qishloq xo‘jalik mashinalaridagi korroziyadan ko‘riladigan ziyonlar, korroziyaning yuzaga kelish sabablari, protektorli usuli xaqida ma’lumotlar va xulosalar keltirilgan.

Kalit so‘zlar. Korroziya, korroziyadan himoyalash, elektrokimyoviy korroziya metallarning elektrod potensiali, protektor, anod elementi.

Kirish. Metall korroziyasi nafaqat qishloq xo‘jalik mashinalari uchun, balki halq xo‘jaligining barcha tarmoqlari uchun xam katta iqtisodiy zarar keltiradi.

Metall korroziyasi jahon bo‘yicha yillik iqtisodiy yo‘qotishlarning taxminan 2.5 trillion AQSh dollariga teng, ya’ni dunyo bo‘yicha ishlab chiqarilayotgan yalpi ichki maxsulotning ~3–4 % atrofida hisoblanadi. Bu faqat to‘g‘ridan-to‘g‘ri yo‘qotishlar, agarda bu raqamlarga korroziyadan keladigan bilvosita zararni qo‘shadigan bo‘lsak raqamlar yanada ko‘payadi. Dunyo amaliyotida o‘rganilgan ma’lumotlarga ko‘ra, qishloq xo‘jaligida korroziya bilan bog‘liq yo‘qotishlar mashina qiymati umumiy bahosining 5–10 % atrofida bo‘lishi ehtimol qilingan. Bunday yo‘qotishlar bizning mamlakatimizda ham mavjud.

Material va metodlar. Qishloq xo‘jalik mashinalaridan foydalanish jarayonida ular qo‘llaniladigan o‘g‘itlar, kimyoviy vositalar, xlorid va sulfatlar mavjud bo‘lgan suvlar va moylar ta’siri, abraziv eyilishlar, mexanik shikastlanishlar, yonilg‘i-moylash materiallarining sifatsizligi, o‘z vaqtida texnik xizmat ko‘rsatmaslik, hamda mashina ishchi qismlarini tuproq bilan ishqalanishi natijasida korroziyaga uchraydi.

Qishloq xo‘jalik texnikasini korroziyadan himoyalashning oddiy va qulay usullaridan biri anodli ximoyalashdir. Anodli himoyalash – bu metall konstruksiyalarni elektrokimyoviy usul bilan korroziyadan himoya qilish texnologiyasidir[2]. Bu usulda himoyalanadigan metall (masalan, po‘lat) elektr zanjirining katodiga aylanadi va u korroziyaga uchramaydi. Ushbu jarayon elektrolit muhitida metall yuzasiga tashqi potensial berilishi yoki faol anod materiallar qo‘llanilishi orqali amalga oshiriladi.

Natijalar va ularning tahlili. Kimyoviy reaksiyadan farqli ravishda elektrokimyoviy jarayonlar na faqat ta’sirlanuvchi moddalarni konsentratsiyasi, harorat va boshqa ko‘rsatgichlari bilan nazorat qilinadi, balki ko‘p jihatdan korroziyalanuvchi metallning elektrod potensialiga bog‘liq bo‘ladi. Bu teng holatda anod va katod jarayonlariga tegishlidir. 1 rasmda metallning elektrokimyoviy emirilishini prinsipial sxemasi ko‘rsatilgan[2.3]. Anod uchastkalarida (–) metall elektronlarni (nē) yo‘qotadi va eritmaga hosil bo‘lgan ionlar Me^{n+} o‘tadi, hosil bo‘lgan erkin eletronlar esa anod uchastkadan katod (+) uchastkaga o‘tadi. Eritmadan katod uchastkaga oksidlovchi molekulalar (qutbsizlantiruvchi Ox) yaqinlashadi va elektron (nē) larni qo‘shib olib oksidlovchi – Red ko‘rinishini tiklaydi. Shunday qilib, bir jinsli bo‘lmagan metallda elektrokimyoviy korroziya qisqa tutashgan galvanik elementga o‘xshaydi.



1-rasm. Elektrokimyoviy korroziya jarayoni sxemasi.

Elektrokimyoviy korroziyaning sababi elektrolit muhitda metalning barqaror emasligidir.

Ma'lumki, metalarda va ularni o'rab turgan muhitda elektrod potensiallar mavjud va potensiallar turli rusumdagi po'latlarda va muhitlarda turlicha bo'ladi. Elektrod potensiali past bo'lgan metall elektrod potensiali yuqori bo'lgan metalga nisbatan tezroq emiriladi. Elektrod potensiali past bo'lgan detal emirilib tugagandan qotishmadagi navbatdagi elektrod potensiali eng kichik bo'lgan metall emiriladi. Jarayon shu tariqa davom etadi va bu jarayon elektrokimyoviy jarayon bo'lib hisoblanadi. Bu jarayonda himoya qilinadigan metall o'zidan aktivroq bo'lgan metall bilan aloqada bo'ladi va ximoyalanadigan metall passiv xolatga o'tadi. Qishloq xo'jalik texnikalarini himoya qilish uchun korroziyaga moyilroq metalllardan (rux, magniy, alyuminiy) qurbon bo'luvchi anodlar, ya'ni korroziyaga uchrab emiriladigan metallar qo'llanadi. Ular himoyalanadigan metall o'rniga korroziyaga uchraydi va uning xizmat muddatini uzaytiradi. Anodli himoya har qanday muhitda ishlaydigan mashinalarda samarali qo'llaniladi:

- yer haydash va sug'orish texnikalari – pluglar, kultivatorlar, tomchilatib sug'orish va kanal tozalash uskunalari;

-yonilg'i va moy saqlash idishlari – traktorlar va kombaynlarning baklari, qishloq xo'jaligi anjomlarining gidravlik tizimlari;

-suv nasoslari va irrigatsiya tizimlari – suv bilan uzoq kontaktda bo'lgan uskunalar anodli himoya vositalaridan foydalanilganda zanglashdan himoyalanadi;

-xar xil metall konstruksiyalar – fermer xo'jaliklaridagi suv minoralari anjomlari, suv quvurlari va saklash sisternalari.

Qishloq xo'jalik mashinalarida anodli himoyalashni samarali qo'llash uchun anod elementlari eng ko'p korroziyaga uchraydigan qismlarga o'rnatiladi. Qishloq xo'jalik texnikalarida, ayniqsa, tuproqqa ishlov berish mashinalarida (pluglar, kultivatorlar, chizellar va boshqalar) anod elementlari quyidagi qismlarga o'rnatilishi mumkin:

-tuproq bilan uzluksiz aloqada bo'lib mexanik zarbalar va namlik ta'sirida kuchli korroziyaga uchraydigan plug va chizellarning otval, lemex,qiya va vertikal tutgichlar orqa tomoniga anod elementi o'rnatiladi. Korroziya va mexanik shikastlanishga moyil bo'lgan qismlarga magniy yoki rux anodlar qo'yish samarali bo'ladi;

-tuproq va namlik ta'sirida tez zanglaydigan va emiriladigan kultivator ishchi qismlari va ramasi, diskli borona disklari va ramasi tuproqqa ishlov berishda tuproq bilan ishqalanishi natijasida emiriladi va namlik ta'sirida zanglaydi. Anod elementlari ishchi qismlarni orqa tomoniga o'rnatiladi;

- korroziyaga uchraydigan traktor va kombaynlarning baklari va turli quvurlarini korroziyadan himoyalash uchun bak ichiga va quvurlar tashqi tomoniga rux yoki alyumin anodlar o'rnatish mumkin;

-qishloq xo'jalik texnikalari shassilari va payvand choklari ko'p xollarda tuproq va namlik bilan aloqada bo'lgani uchun korroziyaga moyil, bu qismda anod elementi shassining to'g'ridan-to'g'ri tuproq va namlik bilan aloqa qiladigan joylariga o'rnatish mumkin

- qishloq xo'jalik mashinalarining prujina va ressorlari ishlatish jarayonida zarba va mexanik ta'sirga uchraydi, bu esa himoya qoplamalarining yo'qolishiga olib keladi. Bu xolda anod elementlari konstruksiyani tutashtiruvchi boltlar yonida joylashtirish mumkin.

Qishloq xo'jalik mashinalarini korroziyadan himoyalashda anodli himoyalash samarali va uzoq muddatli usullardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, suv va nam muhit bilan ko'p aloqa qiluvchi texnika va uskunalar uchun bu usul tavsiya etiladi. Faol anodli himoya eng qulay va iqtisodiy usul

bo‘lib, elektr manbasi talab etilmaydi.

Xulosa. Qishloq xo‘jalik mashinalaridagi korroziyaga qarshi kurashda yuqorida bayon qilingan tadbirlar bilan birga korroziya bo‘yicha qishloq xo‘jalik texnikasi bilan ishlovchi mutaxassislar va bo‘lg‘uvsi mutaxassislar uchun:

-davriy ravishda korroziya bo‘yicha regionlardagi oliy texnika o‘quv muassasalarida qishloq xo‘jalik texnikasi bilan ishlovchi mutaxassislar uchun malaka oshirish kurslarini tashkil qilish;

-barcha turdagi texnika oliy o‘quv yurtlarida, texnikumlarda metallar korroziyasi va korrziyadan himoyalash fanini o‘qitishni yo‘lga qo‘yish;

-Oliy texnika o‘quv yurtlarida metallar korroziyasi va korrziyadan himoyalash bo‘yicha ilmiy tadqiqot ishlarini yo‘lga qo‘yish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. Жарский А.И. Коррозия и защита металлических конструксий и оборудовании. Минск 2012. 304 стр.

2. Малсева Г.Н. Коррозия и защита оборудования от коррозии. Учебное пособие. Москва. 2011. 207 Стр.

3. K.D. Muxamadsodiqov, N.A.Ergashev. Mashinalar puxtaligi va korroziyadan himoyalash. O‘quv qo‘llanma. Farg‘ona. 2022yil. 235 bet.

UO‘K: 631.331

SARIMSOQ KOVLAGICH MASHINASINING KONSTRUKTIV YECHIMLARI VA TEXNOLOGIK KO‘RSATKICHLARI

Salomova Ma’mura Saitqulovna
Qarshi davlat texnika universiteti

***Annotatsiya**: Ushbu maqolada O‘zbekiston sharoitida sarimsoq yetishtirish va yig‘ishtirib olish jarayonlarining mexanizatsiya darajasi tahlil qilingan. Sarimsoq yig‘ishtirish jarayonida katta mehnat sarfi talab etilishi asoslab berilgan. Respublikamiz tuproq-iqlim sharoitiga mos sarimsoq kovlagich mashinasining konstruksiyasi ishlab chiqilib, uning tajriba namunasi sinovdan o‘tkazilgan. Tadqiqot natijalari yangi kovlagich hosil yo‘qotilishi va shikastlanishini kamaytirib, ish unumdorligini oshirishini ko‘rsatdi.*

***Kalit so‘zlar:** sarimsoq, kovlagich, mexanizatsiya, ildiz-meva kovlagich, elaklash qurilmasi, lemex, elevator, qishloq xo‘jaligi mashinasi.*

***Аннотация**. В данной статье проанализирован уровень механизации выращивания и уборки чеснока в условиях Узбекистана. Отмечено, что процесс уборки чеснока требует значительных затрат ручного труда. Разработана конструкция чесноккопателя, адаптированная к почвенно-климатическим условиям республики, и проведены его экспериментальные испытания. Результаты показали, что применение новой машины снижает потери и повреждение урожая и повышает производительность труда.*

***Ключевые слова:** чеснок, чесноккопатель, механизация, корнеплодокопатель, сельскохозяйственная машина.*

***Annotation.** This article analyzes the level of mechanization of garlic cultivation and harvesting under the conditions of Uzbekistan. It is noted that garlic harvesting requires significant manual labor. A garlic digging machine adapted to the soil and climatic conditions of the republic was developed and experimentally tested. The results showed that the use of the new machine reduces crop losses and damage while increasing labor productivity.*

***Keywords:** garlic, garlic digger, mechanization, root crop digger, agricultural machinery.*

Kirish. Respublikamiz aholisining oziq-ovqat mahsulotlariga bo‘lgan yuqori talabini o‘zimizning ichki imkoniyatni ishga solgan holda barqaror ta’minlash, shu bilan bir qatorda eksport hajmini oshirish masalalariga alohida e’tibor berilmoqda. Bu borada asosiy yo‘nalishlaridan biri sifatida sabzavotchilikni rivojlantirish belgilab qo‘yilgan. Shuning uchun hozirgi kunda Respublikada sabzavot ekiladigan maydonlar 300,0 ming gektarga oshirildi. Shuningdek hozirgi vaqtda Yurtimizda sarimsoq ekinini yetishtirish shiddat bilan rivojlanib, Respublikamiz dunyoda sarimsoq ekinini eksport qilish bo‘yicha ilg‘or oltita davlatdan biri sifatida kelmoqda.

O‘zbekistonda sarimsoq ekinlari asosan kichik fermer xo‘jaliklari, kichik hajmli maydonlar va tomorqalarda yuqori mehnat sarfi evaziga yetishtiriladi hamda mexanizatsiya darajasi juda past hisoblanadi. Sarimsoq yetishtirishda sarflangan umumiy harajatlarning 75 foizi mahsulotni yig‘ishtirib olish jarayoniga to‘g‘ri keladi. Shu sababli ham respublikamiz tuproq-iqlim sharoitiga mos bo‘lgan sarimsoq yig‘ishtirish mashinasini ishlab chiqish dolzarb hisoblanadi.

Sarimsoq yetishtirish va yig‘ishtirib olishda foydalaniladigan xorijiy mashinalarning yurtimizda keng qo‘llanilmasligiga sabab sarimsoq respublikada kichik hajmli maydonlarda yetishtirilganligi sababli uning ekish sxemalari turlicha bo‘lishi va jo‘yak ochib sug‘orilishi, yig‘ishtirish jarayonida tuproq palaxsasi kesaklari qattiqligi sarimsoq tugunagidan katta bo‘lgan yirik kesaklarga ajralishi hisobiga yig‘ishtirib olishda sarimsoqlarni shikastlanish darajasi yuqori bo‘lishi hamda ularni urug‘lik uchun saralashda naviga bog‘liqligi, ya’ni sarimsoqlarning geometrik o‘lchamlari turlicha bo‘lishi bilan izohlanadi. Shu bilan birga sarimsoqni urug‘lik uchun boshchalarga ajratish va ularni o‘lchamlariga ko‘ra saralash ishlari ham mexanizatsiyalashmagan, ayniqsa sarimsoq ekinining vegetatsiya davrida begona o‘simliklarni o‘toq qilish jarayoni ham inson qo‘l mehnati bilan amalga oshiriladi.

Asosiy qism. Sarimsoq va boshqa shunga o‘xshash ildiz-mevali mahsulotlarni yetishtirish hamda yig‘ishtirib olishda sarf harajatlarni imkon qadar kamaytirish, inson qo‘l mehnatiga barham berish uchun O‘zbekistonning tuproq-iqlim sharoitida sarimsoq yetishtirishdagi ekish usullarini belgilash, hamda ekish va yig‘ishtirib olish oldidan tuproqning fizik-mexanik xossalarini aniqlash, sarimsoqning nav turlariga ko‘ra uning geometrik o‘lchamlari va friksion xususiyatlarini o‘rganib, agregat va mashinalarning texnologik ish jarayonini hamda konstruktiv sxemalarini ishlab chiqish muhim hisoblanadi.

Avvalgi o‘tkazilgan izlanishlarga ko‘ra, O‘zbekistonning tuproq-iqlim sharoitida (suv tanqisligi, havoning nisbiy namligini pastligi, sug‘orishlar oqibatida tuproqning zichlanishi va yozning yuqori harorati) sarimsoq yig‘ishtirish mashinalari o‘zining ommaviy ravishda qo‘llanilishiga olib kelmagan. Shu sababli Respublikamizda bugungi kunda sarimsoqlarni yig‘ishtirib olish jarayoni mahalliy fermerlar tomonidan ishlab chiqilgan pichoqli kovlagichlar yordamida amalga oshirilmoqda. Bu qurilmalar orqali sarimsoqlarning ildizini tuproqdan ajratish uchun pichoqli kesgich qurilmasi yordamida qirqib ketiladi va undan so‘ng ularni qo‘lda tuproqdan ajratib kovlab olinadi. Bu usulda sarimsoqlarni tuproqdan ajratib olish uchun ko‘p mehnat sarfi sarflanadi va natijada 1 gektar maydondagi sarimsoqlarni terib olish uchun kamida 12-15 ta ishchi kuchi jalb etiladi. Bu qurilmalar bilan sarimsoqlar kovlanganda ularni tuproq ostida ko‘plab qolib ketishi hisobiga ularning nobudgarchiligi oshadi. Tuproq namligi past bo‘lgan sharoitda bu qurilma pichog‘ini kerakli chuqurlikka botirishni imkoni yo‘q. Natijada bu qurilmalarning pichoqlari sarimsoqlarni qirqib ketishi hisobiga ularning shikastlanishi 10 foizdan oshib ketadi.

Yuqorida keltirilgan ilmiy muammoni yechish uchun hozirgi kungacha sarimsoq kovlagich mashinasini ishlab chiqish, ularning ish rejimi va ishchi organlari parametrlarini to‘g‘ri tanlashga imkon beradigan ilmiy asoslangan tadqiqotlar o‘tkazilmagan. Shuning uchun sarimsoqlarni kovlash, elaklash va ularni tuproqdan to‘liq ajratgan holda dala yuzasiga uyumlab ketish kabi jarayonlarni bajaruvchi mashinani ishlab chiqish zarur. Faqat shundagina mashinani universalligini va yuqori ish sifat ko‘rsatkichlariga erishishini ta’minlash mumkin.

Yuqorida ta’kidlanganlardan kelib chiqqan holda yurtimizda yetishtirilgan sarimsoqni to‘liq va kam shikastlagan holda yig‘ishtirib olish uchun respublikamiz tuproq iqlim sharoitiga mos, ixcham, yuqori ish unumiga ega bo‘lgan sarimsoq kovlaydigan mashinani ilmiy-texnik yechimlar asosida ishlab chiqish hozirgi kunda sabzavotchilik tarmog‘idagi ilmiy muammo hisoblanadi va bu xalq xo‘jaligi ahamiyatiga egadir.

Yuqoridagilardan kelib chiqib Qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash ilmiy-tadqiqot institutining mashina va mexanizmlarni loyihalashtirish bo‘limida sarimsoq kovlagichning konstruksiyasi yaratildi hamda kovlagichning tajriba nusxasi tayyorlandi.

Sarimsoq kovlagich rama 1, uni traktorga osish qurilmasi 2, ramaga ikki qator o‘rnatilgan uzunligi uzun va kalta bo’lib rostlanadigan seksiyali kovlash ishchi organlari (lemexlar) 3, parrakli biter 4, asosiy elevator 5, reduktor 6, yo‘naltirgich 7, kaskadli elevator 8 va almashinuvchi plankalar 9 dan tashkil topgan (1-rasm).



1-rasm. Sarimsoq kovlagich

1-jadvalda sarimsoq kovlagichning texnik tavsifi va 2-jadvalda esa uning asosiy parametrlari keltirilgan.

1-jadval

Sarimsoq kovlagichning texnik tavsifi

№	Ko‘rsatkichlarning nomlanishi	Ko‘rsatkichlar qiymati
1	Mashina turi	Osma
2	Traktorning sinfi, kN	1,4
3	Qamrash kengligi, m	1,4
4	Ish tezligi, m/s	0,8–1,2
5	Ish unumi, ha/h	0,4-0,6
6	Gabarit o‘lchamlari, mm: uzunligi eni balandligi	2210 1516 1200
7	Xizmat ko‘rsatuvchilar soni	1
8	Qazish chuqurligi, sm:	8–12 gacha
9	Massasi, kg	700

Sarimsoq kovlagichning xo‘jalik sinovlarini aniqlashda ya’ni yangi ishlab chiqilgan sarimsoq kovlagichning sifat ko‘rsatkichlarini aniqlash jarayoni sarimsoq yig‘ishtirishga qo‘yilgan agrotexnik talablar bilan solishtirish orqali aniqlandi.

Sarimsoq yig‘ishtirish bo‘yicha xo‘jalik sinovlari Toshkent viloyatining Yangiyo‘l tumanida joylashgan Qishloq xo‘jaligining mexanizatsiyalash ilmiy-tadqiqot institutining tajriba xo‘jaligining bir gektar maydonida o‘tkazildi. Sarimsoqning o‘rtacha hosildorligi 120 sentnerni tashkil etdi. Tajriba 2025-yilning may-iyun oylarida o‘tkazildi. Quyida keltirilgan tajriba natijalari agrotexnik talab bilan solishtirib foizlar farqida ko‘rsatildi.

Xo‘jalik sinovlari natijalariga ko‘ra (3-jadval), agregatning 0,83-1,19 m/s harakat tezliklarida takomillashtirilgan elaklash va qazish qurilmasi bilan jihozlangan sarimsoq kovlagichda sarimsoq-

tuproq aralashmasini elaklanish darajasi 89,2-87,2 foizni tashkil qildi. Demak, sarimsoq kovlagichning bu ko‘rsatgichi mavjudnikiga nisbatan 11,1-9,8 foizga ko‘p.

2-jadval

Sarimsoq kovlagichning asosiy parametrlari

№	Ko‘rsatkichlarning nomlanishlari	Belgilanishi	Qiymati
1	**2**	**3**	**4**
1.	Elevatorlar soni, dona	N_s	2
2.	Biter soni, dona	n_s	1
3.	Biter diametri, m	D_b	0,3
4.	Biterning kinematik rejimi	λ_r	1,5-2,0
5.	Almashinuvchi plankalarning balandligi, m	h_{ap}	0,04
6.	Almashinuvchi plankalarning eni, m	b_{ap}	0,7
7.	Kaskadli elevator eni, m	B_{ke}	0,8
8.	Kaskadli elevator uzunligi, m	L_{ke}	1,15

Takomillashtirilgan elaklash qurilmasi va almashinuvchi seksiyali lemexlar bilan jihozlangan universal ildiz-meva kovlagichning sifat ko‘rsatgichlari mavjud kartoshka kovlagichnikiga nisbatan yuqori. Masalan, sarimsoq kovlagichning ish jarayonida mavjud kovlagichga nisbatan hosilning yo‘qotilish darajasi 1,1-1,3 foizga, sarimsoqning shikastlanishi esa 0,9-1,3 foizga kam. Sarimsoq kovlagichni qo‘llash yonilg‘i sarfini 23-25 foizgacha kamaytirish imkonini beradi.

Xulosa. Yuqoridagi ma’lumotlardan ko‘rinib turibdiki, taklif etilayotgan kovlagichning ish ko‘rsatkichlari agrotexnik talablarga to‘liq mos keladi va u belgilangan texnologik jarayonni to‘liq va ishonchli bajardi hamda sinovlarda olingan natijalar unga qo‘yilgan dastlabki talablarga mos keladi.

Tadqiqotlardagi olingan natijalar kelajakda sarimsoqni yig‘ishtirish mashinasini tijoratlashtirish uchun xizmat qiladi. Ishlab chiqiladigan texnik yechimlar bo‘yicha olinadigan patentlar ularning tijoratlashtirish salohiyatini yanada ko‘taradi. Ishlab chiqarish jarayoniga qo‘llash uchun avvalo “Tijoratlashtirishga tayyorlash loyihasi”ni shakllantirish, korxona standartlari, mashinalarning konstruksiyalari, texnologik reglament va texnik shartlar ishlab chiqiladi. Ular natijasida qishloq xo‘jaligi mashinalarining sanoat nusxalari tayyorlanadi hamda davlat qabul sinovlaridan o‘tkaziladi. Shuningdek, tegishli sertifikatlar olinadi. Keyin mashinalarni ko‘plab ishlab chiqarish amalga oshiriladi va ularni boshqa davlatlarga eksport qilish imkoniyatlari yaratiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

[1] Rasmiy sayt: Lex.uz.

[2] Norchayev R., Norchayev D., Norchayev J.R. Теория и расчет копателя картофеля и лука: Monografiya: - Tashkent: Fan va texnologiya, 2017. – 139 b.

[3] Norchayev R., Norchayev D., Norchayev J., Rustamova N. Ildizmevalarni yig‘ishtirish mashinalarining konstruksiyasi va nazariyasi. Toshkent: “Fan va texnologiya” MCHJ, 2019 -104 b.

[4] Qishloq xo‘jalik mahsulotlari yetishtirishda talab etiladigan mehnat va moddiy resurslar sarfi me’yorlari. – Toshkent: QXIITI, 2016. – 80 b.

[5] Нормативы годовой загрузки сельскохозяйственных машин. – М.: 1989. – С.24-30.

[6] Viloyat qishloq xo‘jaligi korxonalarida yangi texnikalar bilan bajariladigan ishlar uchun ishlab chiqarish va yonilg‘i sarfi meyorlari. – Namangan, 2003.

ПЕРСПЕКТИВНЫЕ МЕТОДЫ ПОВЫШЕНИЯ ПРОЧНОСТИ НЕПОДВИЖНЫХ СОЕДИНЕНИЙ ПОДШИПНИКОВ КАЧЕНИЯ

И.Ж.Тоиров, С.М.Бадалов, А.А.Рахимов
КГТУ.

Аннотация: В статье представлены причины преждевременного выхода из строя неподвижных соединений подшипником качения, которое являющиеся самыми многочисленными элементами конструкций в тракторов и сельскохозяйственных машин. В результате нарущения неподвижности деталей по стипенно появляеся зазор и его знечения увеличиваются. Зазор между наружным кольцом подшипника и корпусом приводит к деформации наружного кольца в направлении, перпендикулярном приложенной к подшипнику нагрузке. В результате происходит перераспределение нагрузки между телами качения, повышение ее на центральное и снижение на баковые тела качения. Однако эти методы имеется следюшие недостатки: подребностью дорогостоящем технологическом оборудовании, высокую трудоемкость, энергоёмкостью и себестоимостью. Решение этой проблемы в статье базируется использованием новых материалов, каторые обеспечивается сто процентный контакт между сопрягаемых поверхностей деталей. При этом коэффицент трения приблежается к единицу. К таким материалом относиться анаэробные герметики.

Ключивые слова: подшипник, неподвижное соединение, натяг, долговечность, коэффицент трения, вал, корпус, фреттинг-каррозия, механизм изнашивание.

Введение. Неподвижные соединения подшипников качения широко применяются в конструкциях тракторов и сельскохозяйственных машин. Поэому надежность этих машин зависят от надежности ее состовных элементов. Среди последних важное место занимает подшипниковые узлы. Однако ресурс большенства этих подшипников качения ниже расчетного и находится в пределах 2000...3800 ч., что явно недостаточно, так как ресурс подшипников качения у новых тракторов должен быть доведен до 12...14 тыс. мото-ч.

Проведенным исследованием установлено, что одной из причины отказа подшипниковых узлов является износ посадочных мест подшипников в корпусных деталях и на валах. При износе посадочных мест увеличивается зазоры между кольцами подшипников и сопрягаемых поверхностями корпусных деталей и валов, что приводитк перекосу осей валов, увеличению вибрации и динамических нагрузок. В результате снижается долговечность подшипников качения, валов, зубчатых колес и других деталей.

При посадке подшипника 307 с зазором 0,1 мм его долговечность снижается в 1,5 раза, а с зазором 0,2 мм - в два раза по сравнению с долговечностью при посадке с нулевым зазором. Основной причиной снижения долговечности подшипника при увеличении зазора является возрастание нагрузке на центральное тело качения. С увеличением нагрузки с 1,1 до 1,75 кН долговечность подшипника снижается почти в 3 раза.

Изнашивание посадочных поверхностей происходит в результате многих сложных процессов, протекающих на сопрягаемых поверхностях наружного и внутреннего колец подшипника. Срезаются и сминаются отдельные микронеровности сопрягаемых поверхностей при запрессовке, пластически деформируются микровыступы в зонах фактического контакта в течение первых циклов нагружения. Однако все перечисленные причины не являются основными. Основными причинами износа посадочных мест подшипников качения в процессе эксплуатации являются фреттинг-коррозия и проворот внутренних и наружных колец подшипников [15, 16, 33, 44, 45].

Для решения этого проблемы рекомендуемый следющие методы.

Когда требуется передача или восприятие значительных осевых сил или крутящих моментов неподвыжность деталей опеспечивается с натягом. Сопротивление взаимно смешению деталей (прочность соединнения) создается и поддерживается силами упругой деформации и растяжения пропорциональными величине натяга.

Если на соединение действует внешняя осевая составляющая сила резания P или крутящий момент $M_{кр}$, то соответствующие условия прочности могут быть выражены неравнствами

$$P \leq \pi dlpf;$$
$$M_{кр} \leq 0{,}5\pi d^2 lpf$$

где *d-номинальный диаметр; l–длина контакта сопрягаемых поверхностей; p-давление контакттирующих поверхностях; f-коэффицент сцепления*

Анализ этих формул показывают, что значения сила резания Р или крутящего момента $М_{кр}$, в основном зависят от давление контакттирующих поверхностях и коэффицента сцепления.

Давление контактирующих поверхностях зависять от величины натяга.

Однако увеличение натяга можно повысить статическую прочность соединений до определённого предела. При больших натягах пластические деформации, возникающие в материале, приводят к снижению прочности деталей на сдвиг и проварачивание из-за релаксации напряжений.

Высокую прочность соединений не увеличивая натяга можно достич повышением коэффицента трения между сопрягаемыми поверхностями и увеличением фактической площади. Эти факторы взаимосвязаны, поскольку коэффицент трения, по своей физической сущности являясь коэффицентом сцепления, увеличивается с увеличением площади контакта.

Для увеличения площади контакта сопрягаемых поверхностей можно достичь путем нагрева охвативаеющего или охлаждения охвативаемого деталей, нанесением гальванические покрытия и т.д.

В работе [5] установлено, что метод нагрева деталей перед их сборкой дает хорошие результаты. Например, прочность неподвижных соединений при сборке с нагрева охвативаеющего или охлаждения охвативаемого деталей увеличивается 2…2,5 раза, нанесением галванических покрытий на сопрягаемых поверхностей увеличивается 2...2,2 раза по сравнению с механический запрессовкой. Это объясняется тем, что при формирование поперечных прессовых соединений микронеровности сопрягаемых поверхностей не сглаживаются, как у продольно-прессовых соединений, а как бы сцепляются друг-друга.

При этом для поддержания физических и механических свойств деталей должена быть, самая низкая температура охлаждения не ниже (-196°С) и максимальная температура нагрева не больше 260…280°С.

При этом коэффицент трения составляют, при сборки с охлаждением охвативаемого деталей f=0,314...0,535, с нагрева охвативаеющего f=0,222...0,454, и нанесением гальванические покрытия f = 0,75.

Однако эти методы имеются следющие недостатки: сложность технологического процесса, потребность в дорогостоящем технологическом оборудовании, низкая производительность, высокая себестоимость.

Большинство перечисленных недостатков устраняется при посадки колес подшипников качения с использованием анаэробных герметиков.

Анаэробные герметики представляет собой многокомпонентные жидкие составы, способные длительное время храниться на воздухе без изменения свойств и быстро отверждаться при температурах 20…25°С без доступа воздуха с образованием прочного твердого полимера

Способ. Объектами исследования служили неподвижные соединения типа «вал-подшипник», восстановленные анаэробными герметиками УГ-8. При этом использовали подшипники 208 и специально изготовленные валы. Перед нанесением анаэробных герметиков посадочные места подшипников и валов обезжиривали тампоном, смоченным в ацетоне, и просушивали в течение мин. Подшипник с нанесением на внутреннее кольцо герметиком устанавливали в гнездо основания изготовленного из фторопласта. Герметик наносили также на посадочную поверхность вала4, который устанавливали во внутреннее кольцо подшипника.

Статическую прочность неподвижных соединений определяли на разрывной машине ИМ-4А с автоматической записью зависимости «нагрузка-деформация»

Результаты. Нанесение герметика на соединяемые поверхности при посадке с натягом способствует значительному увеличению статической прочности неподвижного соединения. Так, при установке внутреннего кольца подшипника на вал с натягом 10 мкм усилие распрессовки составляет 4,25 кН, а при установке с этим же натягом и нанесением герметика усилие распрессовки составляет 22,5 кН. С увеличением натяга на 20 мкм усилие распрессовки возрастает соответственно на 6,75 и 23 кН. В первом случае усилие распрессовки увеличилось в 5,3 раза, а во втором – в 3,4 раза(рис.1). При этом коэффицент трения прилежается к единицу, f ≈1.

Усилия распрессовки неподвижных соединений, восстановленных анаэробными герметиками, зависят от величины зазора до восстановления. С увеличением этого зазора и, следовательно, с увеличением толщины клеевого слоя усилия распрессовки снижаются.

Таким образом, при сборке неподвижных соединений с натягом и нанесением анаэробных герметиков их статическая прочность увеличивается. При распрессовке таких соединений необходимо преодолеть сопротивление перемещению сопрягаемых поверхностей относительно друг друга, но и сопротивление срезу слоя отвержденного герметика. Поэтому при нанесении анаэробных герметиков можно получить неподвижное соедлинение с требуемым усилием распрессовки при значительно меньших натягах, что важно для повышения долговечности не только неподвижных соединений, но и подшипников качения.

Зависимости усилия распрессовки P неподвижных соединений от натяга (отрицательные величины) или зазора (положительные величины)

Долговечность восстановленных соединений зависит от зазора в соединении типа корпус-подшипник до восстановления. С увеличением зазора долговечность снижается. Стрелки у точек означают, что неподвижные соединения, восстановленные анаэробными герметиками определенной марки, при заданных зазорах до восстановления и соответствующих наработках не разрушились. С увеличением же зазоров до восстановления клеевые соединения разрушаются при наработках, соответствующих точкам без стрелок. Значительное повышение долговечности неподвижных соединений, восстановленных герметиком УГ-8, наблюдается при зазорах до 0,18 мм,



рис.1. Неподвижные соединения собраны: 1 – без анаэробного герметика; 2 – с герметиком УГ-8.

Зависимости долговечности сопряжений t от зазора S до восстановления



Рис.2. Соединения восстановлены: 1-УГ-8;

Однако долговечность соединение снижается потому что, отвержденный адгезив связан с поверхностью субстрата адгезионным взаимодействием, и поэтому при усадочных явлениях он оказывается растянутым по сравнению с его равновесным состоянием. В результате в клеевом соединении образуются внутренние напряжения [6].

Для определения внутренних напряжений в клеевых соединениях предложена следующая формула

$$\sigma_{вн} = \frac{E\varepsilon}{1-\mu} \qquad (1)$$

где E и μ – модуль упругости и коэффициент Пуассона адгезива:

ε – усадка.

Внутренние напряжения действуют против когезионных с адгезионных сил. Поэтому их можно приравнять к длительно действующей нагрузке.

Внутренние напряжения приводят к возникновению энергии отрыва клеевого слоя, которое снижает адгезионную прочность соединения.

Внутреннюю энергию отрыва можно определить по формуле [110].

$$W_{вн} = \frac{\sigma_{вн}^2}{2E} \cdot S \cdot h, \qquad (2)$$

где $\sigma_{âí}$ – внутренняя энергия отрыва:

S – площадь контакта адгезива с субстратом;

h – толщины адгезива.

Подставив (1) в уравнение (2), получим

$$W_{вн} = \frac{E\varepsilon^2}{2(1-\mu)^2} \cdot S \cdot h \qquad (3)$$

Уравнение (3) показывает, что внутренняя энергия отрыва возрастает с увеличением усадки, модуля упругости, толщины и площади клеевого слоя.

Поэтому для обеспечения высокой адгезионной прочности клеевого соединения необходимо выбирать адгезивы с низкими усадками и модулями упругости, а также ограничивать толщину клеевого соединения.

Список литературы

1. Ли Р.И. Применение полимерных материалов в подшипниковых узлах при изготовлении и ремонте машин [Текст]: Монография / Р.И.Ли. - Мичуринск: Издательство МичГАУ, 2010-169 с.

2. Ли Р.И. Повышение эффективности восстановления посадочных отверстий корпусных деталей сельскохозяйственной техники при модификации эластомеров [Текст] / Р.И. Ли, Д.В. Машин, Ф.А. Кирсанов [и др.] // Труды ГОСНИТИ. - Москва: Издательство ГОСНИТИ, 2013.-Т. 111., 4.2.-С. 134-136;

3.Ли Р.И. Полимерные композиционные материалы для фиксации подшипников качения в узлах машин монография. - Липецк: ЛГТУ,2017.-224 с.

4. А.С.Зинкин, Б.М. Арпентьев. Сборка неподвижных соединений термеческими методами., М.1986,125 с.

5. Айнбиндер С.Б., Клокова Э.Ф. ДАН СССР. – 1962.–Т.146.– № 5. – С.1058-1060.

EGATSIZ TEKIS SHUDGORLASH — YERLARNING MELIORATIV HOLATINI YAXSHILASHNING STRATEGIK OMILI

Badalov Sunatullo Mamadiyevich
Qarshi davlat texnika universiteti

Annotatsiya: *Maqolada daladan bir o‘tishda tuproqni egatsiz tekis shudgorlab ekishga tayyorlaydigan yopiq va yarim ochiq kesish sharoitida shudgorlaydigan takomillashgan plugning konstruktiv sxemasi, hamda uning texnologik ish jarayoni va eksperimenal tadsqiqotlar natijalari keltirilgan. Maqolada egatsiz tekis shudgorlash texnologiyasining tuproq meliorativ holatiga ta’siri, sho‘r yuvish jarayoni samaradorligini oshirishdagi o‘rni va sug‘orish suvlarini tejash imkoniyatlari tahlil qilinadi. Tekis shudgorlaydigan pluglardan foydalanishning agrotexnik afzalliklari ilmiy asoslangan.*

Jahonda energiya-resurstejamkor va ish unumi yuqori tuproq palaxsalarini ag‘darib yerlarni shudgorlaydigan pluglarni qo‘llash yetakchi o‘rinlardan birini egallamoqda. «Dunyo miqyosida qishloq xo‘jaligi ekinlarini yetishtirish uchun har yili 1,66 mlrd. gektardan ortiq yerlar shudgorlanishi»ni hisobga olsak [1], tuproqqa ag‘dargichli ishlov berishda tekis shudgorlaydigan, ish sifati va unumi yuqori hamda energiya-resurstejamkor qurollarni amaliyotga joriy etishni taqozo etadi. Shu jihatdan yopiq va yarim ochiq kesish sharoitida egatsiz tekis shudgorlaydigan pluglardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Jahonda qishloq xo‘jaligi ekinlarini ekish uchun yerlarga ag‘dargichli asosiy ishlov berishning resurstejamkor texnologiyalari va ularni amalga oshiradigan qurollarning yangi ilmiy-texnikaviy yechimlarini ishlab chiqishga yo‘naltirilgan ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Jumladan, energiyatejamkor tekis shudgorlaydigan pluglar konstruksiyalarini yaratish va ularning ishchi qismlarining texnologik jarayonlari va parametrlarini asoslash yo‘nalishlaridagi ishlarni ko‘rsatish mumkin. Bu borada, yopiq va yarim ochiq kesish sharoitida tekis shudgorlaydigan pluglarni ishlab chiqish hamda ularning texnologik jarayoni va parametrlarini asoslashga alohida e’tibor berilmoqda.

Yerlarning meliorativ holatini yaxshilash, ayniqsa tuproq sho‘rlanishiga qarshi kurashishda asosiy ishlov berish sifati hal qiluvchi ahamiyatga ega. An’anaviy shudgorlashda hosil bo‘ladigan marza va ochiq egatlar dalaning mikrorelyefini buzadi. Bu esa sug‘orish va sho‘r yuvish vaqtida suvning notekis taqsimlanishiga, natijada dalaning baland joylarida sho‘r to‘planishiga, past joylarida esa botqoqlanishga olib keladi. **Egatsiz tekis shudgorlash** mana shu muammolarni bartaraf etuvchi muhandislik yechimidir.

Tekis shudgorlashning afzalliklari va samaradorligi

Ma’lumki, paykal usulida shudgorlash va tekis shudgorlash texnologiyalari mavjud. An’anaviy pluglar navbatma-navbat “yig‘ma” va “ajratma” shudgorlashni amalga oshiradigan paykal usuliga moslashgan (1.1-rasm). An’anaviy pluglar bilan paykal usulida shudgorlashning asosiy xususiyati – bu shudgorlangan maydonda ochiq egatlar va marzalarni hosil bo‘lishidir.



1.1-rasm. Shudgorlashning asosiy texnologiyalari.

Olimlarning olib borgan tadqiqotlari natijalariga ko‘ra, shudgorlangan dala yuzasida kengligi 120-150 sm, balandligi 28-30 sm li marzalar hamda kengligi 120-210 sm, chuqurligi 30-36 sm bo‘lgan ochiq egatlar hosil bo‘ladi. Ochiq egatlar va marzalar soni, qo‘shimcha o‘tishlar va tekislashdagi qo‘shimcha maydon dala yuzasiga bog‘lik bo‘lib, yuzani kattalashishi bilan bu ko‘rsatkichlar ortib boradi (1.2-rasm).



1.2-rasm. Ochiq egatlar va marzalar soni, qo‘shimcha o‘tishlar va tekislashdagi qo‘shimcha maydonni dala yuzasiga bog‘liqligi

Shudgor yuzasida hosil bo‘lgan notekisliklar, ya’ni ochiq egatlar va marzalar agregatlarning ish sharoitini yomonlashtiradi, mashinalarning tortishga qarshiligini oshiradi, hosilni yig‘ib olishni qiyinlashtiradi, agregatlarni yuqori tezlikda ishlashiga imkon bermaydi. Hosil bo‘lgan ariqlar nishabliklarda suv eroziyasining rivojlanishiga olib keladi. Ochiq egat va marzalar hududidagi shudgor qatlami tekis shudgorlangan daladagi shudgor qatlamidan ancha farq qilib, o‘simliklarning rivojlanishiga va mos holda hosildorligiga sezilarli ta’sir qiladi. Chunki marzalar va ochiq egatlar hududida urug‘lar bir tekis ko‘milmaydi, natijada ularning unib chiqishi va rivojlanishi yaxshi bo‘lmaydi. Keltirilgan ma’lumotlardan ko‘rinib turibdiki, ochiq egatlarning 3 m kenglikdagi hududida bug‘doy hosildorligi 30-40% gacha kamayadi. Ochiq egatlar va marzalarning salbiy ta’sir qiladigan umumiy yuzasi dalaning umumiy yuzasining 6,5% dan 19,5% gachasini tashkil qiladi. Shudgor yuzasini tekislash bo‘yicha o‘tkazilgan qo‘shimcha operatsiyalar sarf-xarajatlarni ko‘paytirish bilan birga dalani ekishga tayyorlash muddatini ancha uzaytiradi, tuproqning jadal qurishiga va qo‘shimcha suv sarfiga olib keladi. Shunday qilib, yerga asosiy ishlov berishda

qo‘llanilib kelinayotgan an’anaviy pluglarning agrotexnik, texnik-iqtisodiy va ekologik ko‘rsatkichlari hozirgi zamon talablariga javob bermaydi.

1. Tekis shudgorlashning meliorativ afzalliklari

Tekis shudgorlash dalaning ideal darajada tekis yuzasini ta’minlaydi. Bu holat melioratsiya uchun quyidagi afzalliklarni beradi:

- **Sho‘r yuvish samaradorligi:** Tekis dalada sho‘r yuvish uchun berilgan suv qatlami yer yuzasi bo‘ylab bir xilda shimiladi. Natijada zahkash (drenaj) tizimiga tuzlarning chiqib ketishi tezlashadi.
- **Irrigatsiya suvlarini tejash:** Notekis yerlarda past joylarni to‘ldirish uchun ortiqcha suv sarflanadi. Tekis shudgorlangan maydonda sug‘orish meyorini **15-20% gacha** qisqartirish imkoni tug‘iladi.
- **Tuproq degradatsiyasining oldini olish:** Ochiq egatlar bo‘lmaganligi sababli suv eroziyasi va tuproqning yuvilib ketishi kamayadi.

Meliorativ shudgorlashda **Tekis shudgorlaydigan pluglar** (masalan, **PFN-1,8** tipidagi pluglar) quyidagi vazifalarni bajaradi:

1. **Qatlamni to‘liq ag‘darish:** Tuproqning ustki sho‘rlangan qatlamini pastga (30-35 sm chuqurlikka) ko‘mib, pastki unumdor qatlamni yuzaga chiqaradi.
2. **Germetik yopiq egat:** Tekis shudgorlaydigan plug dala oxirida orqaga qaytganda oldingi izni to‘ldirib ketadi, bu esa "meliorativ bo‘shliqlar" hosil bo‘lishiga yo‘l qo‘ymaydi.
3. **Zichlanishning kamayishi:** Traktorning dala bo‘ylab ortiqcha aylanishlari kamayishi hisobiga tuproqning haddan tashqari zichlanishi oldi olinadi, bu esa tuproqning suv o‘tkazuvchanligini yaxshilaydi.



1-rasm. Yopiq va yarim ochiq kesish sharoitida egatsiz tekis shudgorlaydigan plug va ish texnologiyasi (1-rasm) va uni amalga oshiradigan plug

2. *Tekis shudgorlaydigan* pluglarning konstruktiv imkoniyatlari

3. Tuproq muhiti va fizik xossalariga ta’siri

Tekis shudgorlash natijasida tuproqning g‘ovakligi ortadi. Bu meliorativ jihatdan ikkita muhim natija beradi:

- **Aeratsiya:** Ildiz tizimiga havo kirishi yaxshilanadi.
- **Kapillyarlik:** Tuproqning kapillyarlik xususiyati tartibga solinadi, bu esa yer osti sho‘r suvlarining yuzaga ko‘tarilishini sekinlashtiradi.

4. Muhandislik tavsiyalari

Yerlarning meliorativ holatini yaxshilash uchun egatsiz pluglarni ishlatishda quyidagilarga amal qilish lozim:

- **Shudgorlash chuqurligi:** Tuproqning sho‘rlanish darajasiga qarab, shudgor chuqurligini qat’iy nazorat qilish (kamida 28-32 sm).
- **Ishchi organlar holati:** Lemex va ag‘dargichlarning yeyilishi tuproqni ag‘darish sifatini pasaytiradi. Yeyilgan qismlarni o‘z vaqtida tiklash yoki almashtirish shart.
- **Namlik:** Shudgorni tuproqning "fizik yetilgan" davrida (namlik 18-22% bo‘lganda) o‘tkazish kerak, aks holda meliorativ samaradorlik pasayadi.

Xulosa

Egatsiz tekis shudgorlash shunchaki texnikadan foydalanish emas, balki sug‘oriladigan yerlarning ekologik va meliorativ barqarorligini ta’minlovchi yuqori texnologiyadir. Ushbu usulni keng joriy etish Qishloq xo‘jaligi muhandisligi sohasining ustuvor vazifasi bo‘lib qolishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mamatov F.M., Ravshanov H.A., Qurbanov SH.B., Badalov S.M. Ag‘dargichli va ag‘dargichsiz korpuslarni torishga qarshiligi /Innovatsion texnologiyalar – 2021. 117-120 b.

2. Маматов Ф.М., Бадалов С.М., Рўзиев Э.Р. – Усовершенствованний плуг для гладкой вспашки / Инновацион технологиялар – 2021. 8-9 б.

3. Патент РФ № 207103. Плуг для гладкой вспашки/ Алдошин Н.В., Маматов.Ф.М., Манохина А.А., Исмаилов И.И., Бадалов С.М., Ахметов А.А., Чориева Д.Н., Курбанов Ш.Б. - 2021.

4. Badalov S.M., *Chorieva D.N., Rakhmatov D.B. Egatsiz tekis shudgorlaydigan plug// “Science and innovation” xalqaro ilmiy jurnali. – Toshkent, 2022. – № . – B. 638-640.*

UO‘K 631.331.52

SARIMSOQPIYOZ URUG‘LARINI EKISH MASHINASI MIQDORLAGICHI KONSTRUKSIYASI VA UNING PARAMETRLARINI ASOSLASH.

Pirnazarova Madina Faxriddin qizi
Qarshi davlat texnika universiteti

Annotatsiya: Sarimsoqpiyoz urug‘larini ekish jarayonida urug‘larning tuproqqa bir tekis joylashtirilishini ta’minlaydigan ekish mashinasining miqdorlagichi konstruksiyasi va unga qo‘yiladigan agrotexnik talablar tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida sarimsoqpiyoz urug‘larining fizik-mexanik xususiyatlari o‘rganilib, ular asosida optimal miqdorlash mexanizmi parametrlari asoslab berildi.

Kalit so‘zlar: sarimsoqpiyoz, ekish mashinasi, miqdorlagich, urug‘ taqsimlash, ekish sifati, qishloq xo‘jaligi texnikasi, agrotexnik talablar.

Аннотация:В статье анализируется конструкция дозирующего устройства сеялки, обеспечивающего равномерное размещение семян чеснока в почве, а также агротехнические требования, предъявляемые к нему. В ходе исследования были изучены физико-механические свойства семян чеснока, на основе которых обоснованы оптимальные параметры дозирующего механизма. Т

Ключевые слова:чеснок, посевная машина, дозирующее устройство, распределение семян, качество посева, сельскохозяйственная техника, агротехнические требования.

Abstract: This paper analyzes the design of the seed metering device of a planting machine that ensures uniform placement of garlic seeds in the soil, as well as the agrotechnical requirements imposed on it. During the research, the physical and mechanical properties of garlic seeds were studied, and based on these results the optimal parameters of the metering mechanism were substantiated.

Keywords: garlic, planting machine, seed metering device, seed distribution, planting quality, agricultural machinery, agrotechnical requirements.

Kirish.Sarimsoq oziq-ovqat mahsulotlarida ziravor sifatida keng qo‘llaniladigan muhim sabzavot ekinidir. Bundan tashqari, inson salomatligi uchun ko‘plab foydali xususiyatlarga ega bo‘lgani sababli tibbiyotda ham qo‘llaniladi [1–2].

Respublikamizda sarimsoq muhim sanoat ekinlaridan biri hisoblanadi. Uning ekilish maydoni katta, hosildorligi yuqori va eksport hajmi katta bo‘lgani sababli mahalliy iqtisodiy rivojlanish hamda fermerlar daromadini oshirishda muhim rol o‘ynaydi [3].

Sarimsoq yetishtirishning keng miqyosda rivojlanishi qo‘lda ekishdan mexanik ekishga o‘tishga sabab bo‘ldi. Bu esa mehnat sarfini sezilarli darajada kamaytirib, ishlab chiqarish samaradorligini oshirdi. Biroq hozirgi vaqtda sarimsoqni mexanik ekish bo‘yicha tadqiqotlar hali yetarli darajada rivojlanmagan.

Mavjud urug‘ me’yorlagich qurilmalari ish jarayonida mexanizatsiya darajasi past bo‘lib, natijada takroriy urug‘ tushishi va urug‘ tushmay qolishi kabi muammolar ko‘p uchraydi [4].

Sarimsoq ekish mashinalarining samaradorligini baholashda bitta urug‘ bilan aniq me’yorlab berish qobiliyati muhim ko‘rsatkich hisoblanadi. Bu ko‘rsatkichni yaxshilash orqali sarimsoq ekish jarayonining mexanizatsiya samaradorligini oshirish mumkin [4].

Asosiy qism. Hozirgi vaqtda sarimsoq ekishning asosiy usullari quyidagilardan iborat:

-mexanik usul,

-havo so‘rish (pnevmatik) usuli.

Ularning ichida mexanik usul eng keng qo‘llaniladigan usul hisoblanadi.

Sarimsoq ekish mashinalari tarkibiga yacheykali oziqlantiruvchi g‘ildirak, qoshiqchali lenta, qoshiqchali zanjir, qisqichli tip, aylanuvchi qoshiqchali va tebranuvchi tipdagi seyalkalar kiradi. Yevropa va Amerika mamlakatlarining aksariyatida qoshiqchali zanjirli urug‘ me’yorlagich qurilmalari keng qo‘llaniladi [4], Xitoyda esa asosan aylanuvchi qoshiqchali, tebranuvchi tipdagi va qoshiqchali lentali seyalkalar ishlatiladi [4].

An’anaviy urug‘ me’yorlash usuliga asoslanib, olimlar bitta urug‘ bilan ekishning talabga mos foizini oshirish, shuningdek takroriy tushish (replay) va tushmay qolish (missing) darajasini kamaytirish muammolarini hal qilish bo‘yicha bir qator tadqiqotlar olib bordilar. Natijada turli konstruksiyadagi urug‘ me’yorlagich qurilmalari ishlab chiqildi va bu sarimsoq urug‘larini aniq tanlash hamda uzatish texnologiyasining rivojlanishiga xizmat qildi. [4].

Sarimsoqpiyoz urug‘larini ekish mashinasining miqdorlagichi konstruksiyasi.

Sarimsoqpiyoz urug‘larini ekishda ko‘pincha mexanik diskli yoki katakchali miqdorlagichlardan foydalaniladi. Bunday mexanizmlar urug‘larni birma-bir ajratib, urug‘ o‘tkazuvchi trubaga uzatadi.

Miqdorlagich quyidagi asosiy qismlardan tashkil topadi:

-Urug‘ bunkeri

-Miqdorlagich disk

-Katakchalar (urug‘ ushlagichlar)

-Uzatuvchi mexanizm

-Urug‘ o‘tkazuvchi truba [7].

Miqdorlagich diskida joylashgan katakchalar aylanish jarayonida urug‘larni bunker ichidan olib chiqib, urug‘ o‘tkazuvchi truba orqali tuproqqa uzatadi. Disk aylanish tezligi quyidagi omillarga bog‘liq: agregatning harakat tezligi, urug‘lar orasidagi masofa, miqdorlagich diametric.

Miqdorlagich quyidagi tartibda ishlaydi: urug‘lar bunkerga yuklanadi, aylanuvchi disk katakchalari urug‘larni qamrab oladi, disk aylanishi davomida ortiqcha urug‘lar tozalanadi, katakchadagi urug‘ urug‘ o‘tkazuvchi quvurga tushadi, urug‘ egat tubiga joylashtiriladi

Sarimsoqpiyoz urug‘larini ekish mashinasiga qo‘yiladigan agrotexnik talablar-Sarimsoqpiyoz ekish jarayonida quyidagi agrotexnik talablar bajarilishi zarur:

1. Urug‘larni joylashtirish aniqligi- urug‘lar orasidagi masofa ±10–15 % dan oshmasligi kerak.

2. Ekish chuqurligi odatda 2–4 sm oralig‘ida bo‘lishi lozim.

3. Urug‘larning shikastlanmasligi-miqdorlagich urug‘larni maydalamasligi va shikast yetkazmasligi zarur.

4. Urug‘larning bir tekis taqsimlanishi-bir joyga bir nechta urug‘ tushishi yoki tushmay qolish ehtimoli minimal bo‘lishi kerak.

5. Ish unumdorligi-ekish agregatining ish unumdorligi maydon sharoitiga qarab 0.5–1.5 ga/soat bo‘lishi talab etiladi. [7].

Miqdorlagich parametrlarini asoslash:

Miqdorlagich disk diametri quyidagi ifoda orqali aniqlanadi:

$$n = \frac{v}{s} \quad (1)$$

bu yerda:

n – disk aylanish chastotasi

V – agregat harakat tezligi

S – urug‘lar orasidagi masofa

Diskdagi katakchalar soni quyidagicha aniqlanadi:

$$Z = \frac{\pi D}{S} \quad (2)$$

bu yerda:

Z – katakchalar soni

D – disk diametr

S – urug‘lar orasidagi masofa

Xulosa. O‘tkazilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, sarimsoqpiyoz urug‘larini ekish jarayonining samaradorligi ko‘p jihatdan ekish mashinasining miqdorlagich konstruksiyasiga bog‘liq hisoblanadi. Sarimsoqpiyoz urug‘larining fizik-mexanik xususiyatlarini hisobga olgan holda ishlab chiqilgan miqdorlagich mexanizmi urug‘larni tuproqqa bir tekis joylashtirish hamda ekish jarayonining agrotexnik talablariga rioya etishni ta’minlaydi. Umuman olganda, sarimsoqpiyoz urug‘larini ekish mashinasining takomillashtirilgan miqdorlagich konstruksiyasi ekish jarayonining aniqligi va barqarorligini oshirish, urug‘ sarfini kamaytirish hamda ekish agregatining ish unumdorligini 0,5–1,5 ga/soat diapazonida samarali tashkil etish imkonini beradi. Bu esa sarimsoqpiyoz yetishtirish jarayonining mexanizatsiya darajasini oshirib, qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishida mehnat samaradorligini sezilarli darajada yaxshilashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Botas, J.; Fernandes, A.; Barros, L.; Alves, M.J.; Carvalho, A.M.; Ferreira, I. A Comparative Study of Black and White *Allium sativum* L.: Nutritional Composition and Bioactive Properties. *Molecules* 2019, *24*, 2194. [CrossRef] [PubMed]

2.Zhou, X.J.; Dou, Y.X.; Huang, X.X.; Li, G.; Zhang, H.R.; Jiang, D.G.; Fan, J.P.; Condori-Apfata, J.A.; Liu, X.Q.; Condori-Pacsi, S.J.et al. Using Principal Component Analysis and RNA-Seq to Identify Candidate Genes That Control Salt Tolerance in Garlic (*Allium sativum* L.). *Agronomy* 2021, *11*, 691. [CrossRef]

3.Li, Y.H.; Wu, Y.Q.; Li, T.H.; Niu, Z.R.; Hou, J.L. Design and experiment of adjustment device based on machine vision for garlic clove direction. *Comput. Electron. Agric.* 2020, *174*, 105513. [CrossRef]

4.Geng, A.J.; Zhang, Z.L.; Song, Z.H.; Yang, J.N.; Li, R.X.; Hou, J.L.; Liu, S.Q. Kinematic analysis and parameter optimized experiment of garlic box putting process. *Trans. Chin. Soc. Agric. Eng.* 2016, *32*, 29–35. [CrossRef]

5.Qurbonov R., Qishloq xo‘jaligi mashinalari. – Toshkent, 2018.

6.Lipkovich E., Agricultural Machinery. – Moscow, 2017.

7.Kepner R.A., Bainer R., Barger E. Principles of Farm Machinery. – USA, 2014.

8.Yazgi A., Degirmencioglu A. Optimisation of seed spacing uniformity of a vacuum precision seeder. Biosystems Engineering, 2007.

9.O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligi texnikalari bo‘yicha meyoriy hujjatlar.

UDK: 631.51

TUPROQNI AG’DARMASDAN EKIN EKISHGA TAYYORLASHNING RIVOJLANISH YO‘NALISHLARI

R.N.Keldiyorov, M.A.Xonaliyev

Qarshi davlat texnika universiteti

Annotatsiya: Respublikamizda tuproqqa ag‘darmasdan ishlov berish hamda uni ekishga tayyorlash kabi agrotexnik tadbirlarni bajarishda qo‘llaniladigan kombinatsiyalashgan mashinalarni yaratishda tuproq-iqlim sharoitini hisobga olgan holda, tuproqqa ag’darmasdan ishlov berib uni bir o‘tishda takroriy ekinlarni ekishga tayyorlash muhim vazifa hisoblanadi.

Kalit so‘zlar: Tuproq, ag‘darmasdan ishlov berish, mashina, energiya, resurstejamkor, mehnat, takroriy ekin, qishloq xo‘jaligi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 1 iyundagi “2017 yilda boshoqli don ekinlaridan bo‘shaydigan maydonlarga takroriy ekinlarni joylashtirish, ekish uchun talab etiladigan moddiy-texnika resurslarini o‘z muddatida yetkazib berish chora-tadbirlari to‘g’risida”gi PQ-3027-sonli Qarori aholini oziq-ovqat mahsulotlariga bo‘lgan talabini to‘la qondirish, ularni arzon va sifatli qishloq xo‘jalik mahsulotlari bilan ta’minlash imkonini berdi [1]. O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlanishining bosh yo‘nalishlaridan biri - bu yerga ishlov berishning ilg’or usullaridan foydalanish, yetishtiriladigan mahsulot birligiga kam mehnat sarflagan holda muntazam, jadal va yuqori hosil olish hisoblanadi. Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirishda eng ko‘p mehnat va energiya talab qiladigan texnologik jarayonlardan biri – bu tuproqqa ishlov berish hisoblanadi. Hozirgi zamon jahon amaliyotida tuproqqa ishlov berishda energiya va resurstejamkor, tuproq unumdorligini oshiradigan, tuproqni ekologik himoyalaydigan texnologiya va texnik vositalarni ishlab chiqish hamda qo‘llash yetakchi o‘rinni egallaydi. Qishloq xo‘jaligi ekinlarini serunum texnologiyalar asosida yetishtirishning keng qo‘llanilishi tufayli yerga ishlov berish sifatiga talablar keskin oshib bormoqda. Qo‘llaniladigan barcha texnologiyalar zamonaviy agrotexnik talablarga javob berishi kerak.

Bugungi kunda, takroriy ekinlar ekish uchun tuproqni ekishga tayyorlashning mavjud texnologiyalarida kuzgi donli ekinlardan bo‘shagan dalalarda yilning yoz faslida alohida-alohida va ketma-ket yerlarni shudgorlash, tekislash, boronalash, molalash kabi texnologik operatsiyalar amalga oshiriladi [2]. Dalalarni shudgorlashda PYA-3-35, PD-4-45, O‘P-3/4-40 va “Massey Ferguson”, “Kverneland”, “Lemken” firmalarining zamonaviy xorijiy pluglari qo‘llaniladi. Shudgorlashda hosil bo‘lgan notekisliklarni, ochiq egat va marzalarni hamda dala chetlarini tekislash ishlari GN-2,8, GN-4 greyder pichoqlari bilan amalga oshiriladi. Tuproqni yuza qatlamini ag’darmasdan yumshatish CHKU-4A, CHK-3,0 chizellari, boronalash BZTX-1,0; BZTS-1,0 tishli va BDT-3,0, TDB-3/5 diskli boronalari va molalash VP-8, MV-6, MV-6A mola-tekislagichlari yordamida talab darajasida zichlashgan va maydalangan yuza qatlam hosil qilish maqsadida o‘tkaziladi [2]. Natijada, og’ir traktorlar va yerga ishlov berish mashinalarining yurish qismlarining ta’siri ostida tuproq zichlanadi, fizik-kimyoviy xususiyatlari yomonlashadi, hosildorlik 12-30% ga kamayadi, organik moddalar tez parchalanishi tufayli eroziya jarayonlari kuchayadi. Tuproqning yuza qatlami (0 dan 6-7 sm gacha) tarkibi buziladi, pastki qatlamlari esa yuqori darajada (masalan, taqirli tuproqlarda 2,13 g/sm3 gacha) zichlashib ketadi.

Tuproqqa bunday qayta-qayta ishlov berish mehnat, energiya va yonilg’i sarfini oshishiga, tuproq strukturasining buzilishi va zichlanishiga hamda takroriy ekinlarni ekish uchun tuproqni tayyorlash muddatini cho‘zilib ketishiga sabab bo‘ladi. Binobarin, takroriy ekinlar ekish uchun tuproqni ekishga tayyorlashda mavjud texnologiyalarning agrotexnik, texnik-iqtisodiy va ekologik ko‘rsatkichlari hozirgi zamon talablariga javob bermaydi. Shuning uchun takroriy ekinlarni ekish uchun tuproqni bir o‘tishda ekishga tayyorlaydigan texnika va texnologiyalarni ishlab chiqish dolzarb masaladir.

фақат вилоятда шаклланадиган сув манбаларидан фойдаланадиган туманларида (Китоб, Шаҳрисабз, Яккабоғ, Қамаши, Ғузор, Деҳқонобод) сув билан талаб этиладиган суғориш суви билан таъминланиш даражаси 2022 йилда 39-87 % бўлган бўлса 2025 йилда 27-48 % ни ташкил этиб, камайиш 3-60 % га тенг бўлган. Ҳам махаллий (Қашқадарё ҳавзаси) ва ҳам четки (Зарафшон ҳавзаси) сув манбаларидан фойдаланадиган туманларда (Кўкдала ва Чироқчи) таъминланиш даражаси юыори бщлиб, 2022 йилда 87-98 % суғориш суви билан таъминланган бўлса 2025 йилда бу кўрсаткич 46-39 % га тушган ёки 39-41 % га камайган.



3-график. Август ойи маълумотларини график ҳолати.

Ҳам махаллий (Қашқадарё ҳавзаси) ва ҳам четки (Амударё ҳавзаси) сув манбаларидан фойдаланадиган Косон туманида 2022 йилда 82 % суғориш суви билан таъминланган бўлса 2025 йилда бу кўрсаткич 89 % бўлиб, 7 % га кўпайган. Вилоят бўйича фақат шу туманни суғориш суви билан таъминланиш даражаси 7 % га ошган.

Фақат четки (Амударё ҳавзаси) сув манбасидан фойдаланадиган туманларни (Нишон, Қарши, Миришкор, Муборак, Касби) суғориш суви билан таъминланиши 2022 йилда 82-90 % бўлган бўлса 2025 йилда бу кўрсаткич туманларга боғлиқ ҳолда 9-30 % камайиб, 56-89 % ни ташкил этган.

Ушбу таҳлиллардан вилоят туманларида суғориш сувлари билан таъминланиш даражаси йилдан йилга камаяётганлигини кузатиш мумкин. Сув таъминотини ёмонлашишини юмшатиш учун қўшимча чора-тадбирлар ишлаб чиқиш зарур бўлади.

Юқоридагиларни инобатга олган ҳолда суғориш сувларидан оқилона илмий асосда, илғор сув тежовчи инновацион технологияларни (томчилатиб, ер остидан суғориш) қўллаган ҳолда тежаб қўллаш талаб этилади. Бу амални қўллаш ҳисобига суғориш суви оғир ҳудудларни сувга бўлган таъминланиш даражаси ортади, такрорий экинларни парваришлаш учун имкон яратилади.

Ресурс тежовчи томчилаб суғориш технологиясини қўллаш ҳисобига ўсимлик илдиз атрофи доимий сув билн таъминланиб, сув сарфини 40-60% камаяди ва ўғитлардан фойдаланишни 40 гача камайтириш имкони яратиб, илдиз тизимининг яхши ривожланиши ва ҳосилдорликни юқори бўлишига шароит яратилади.

Ўзбекистон Қишлоқ хўжалигида бир қатор ислохотлар ичида сув тежовчи технологияларни кенг жорий этиш ҳам киритилган. Сув ресурсларидан самарали фойдаланиш асосий устувор йўналиш қилиб олинмоқда. Сув тежовчи технологиялар жорий қилиниши орқали тежалган сув, энг аввало, сув таъминоти оғир бўлган ҳудудлардаги

фермерларга кафолатли етказиб берилади.

Ушбу инновацион технологияни кенг жорий қилишни қўллаб-қувватлаш учун бир қатор имтиёзлар яратилган, жумладан суғориш суви барқарор бўлмаган ҳудудларда сув тежовчи технология жорий этилса, субсидия 1,25 коэффициент билан ҳисобланади; пудрат(таъминотчи) ташкилотлари 2 йил кафолат, 5 йил сервис хизмати кўрсатиши мажбурий қилинади; банк кредити олмасдан, ўз маблағи ҳисобидан технология ўрнатганларга субсидия берилади, шу маблағнинг 50 фоизи олдиндан ажратилади.

2028 йилга қадар 3,5 млн гектар ерда сув тежовчи технологиялар жорий этиш, йилига 3,5 млрд куб метр сув тежаш ҳисобига 300 минг гектар ернинг сув таъминоти яхшиланиши ва такрорий экинлар учун имконият очилиши кутилаябди.

Ҳар қандай ўсимлик бундай мақбул ривожланиши учун ноқулай бўлган ташқи омил таъсирида тушкунликка (стресс) тушиб қолади. Бундай ҳолларда унинг ноқулай ташқи омилларга чидамлилигини ошириш, ундаги ички физиологик жараёнларни тезлатиш, яъни модда алмашинувини яхшилаш учун таркиби аминокислоталар, гуматлар ва фитогормонларга ҳамда микроэле-ментларга бой бўлган антистрессантлардан фойдаланиш керак бўлади.

Бундай антистрессантларни қўллаш таъсирида ўсимликни ҳар ҳил ноқулай ташқи омиллар (совуқлар, қурғоқчилик, жазирама иссиқ, пестицидлар таъсири, ҳашаротлар ҳужуми) таъсиридан қайта тикланиши осон кечади. Улар таъсирида ўсиш ва ривожланиш тезлашиб, иммунитет мустаҳкамланади ва модда алмашинуви яхшиланиб, ҳосилдорлик ошади.

Шунинг учун интернет башоратларидан унумли фойдаланган ҳолда ғўза экинини мақбул ривожланиши учун ноқулай бўлган ташқи омиллар (гармсел шамоллар, жазирама иссиқ кунлар, юқори ҳарорат ва бошқалар) бошланишида олдинроқ антистрессантлардан бирини қўллаш лозим бўлади.

Ўзбекистонда ғўза экинига шундай антистрессантлардан BIOVAK Y24, ДАГ-1, Novo organic, BioProFito, BioDUX, Мегафол ва Радифарм ва шунга ўхшаш биостимуляторлар қўлланилган. Жумладан ДАГ-1, Novo organic ва BioProFito препаратлари 2024 йил мавсумида Қашқадарё вилоятини Нишон ва Касби туманларидаги фермер хўжаликларида ишлаб чиқариш синовлари ўтказилиб, юқори ва сифатли ҳосил олинган.

ХУЛОСАЛАР

1. Дунё бўйича Глобал об-ҳавони исиши фонида Ўзбекистон Республикаси жанубий ҳудудларидан бири Қашқадарё вилоятни Қарши чўли шароитида охирги 15 йиллик даврда ҳаво ҳароратини ошиб бораётганлиги (23,8-47,4 %) ва уни давомийлик даври июнь ва июль ойларида уларга мос равишда узаяётганлиги (96,4-116,0 %) ва ўсимлик ривожи учун салбий бўлган шамол тезлиги 10 м/сек дан юқори бўлган кунлар кўпаяётганлиги ва унинг давомийлиги ортаётганлиги кузатилди.

2. Ғўза экини ўсимлиги ривожи учун ноқулай бўлган кунлик ўртача ҳароратни 40 ℃ юқори бўлган кунларни июнь ва июль ойларида уларга мос равишда кўпаяётганлиги (3,3-3,3 %) кузатилди.

3. Август ойида эса аксинча 30 ℃ дан юқори кунлар сони 13,6 % га, уларнинг давомийлиги 26,1 % га, кунлик максимал ўртача ҳарорат 3,1 % га ва кундуз кунги максимал ҳарорат эса 1,7 % га камайганлиги аниқланди.

4. Ғўза ўсимлигини ривожланиши учун ноқулай бўлган ва тушкунлик (стресс) ҳолатини енгиши учун мавжуд бўлган антистрессантлардан фойдаланиш тавсия этилади.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ

1. Бабушкин О.Л., Сулаймонова Н.Н. “**Агроклиматическая характерис-тика пустынно-пастбищной растительности Средней Азии**” Интститут степи Урульского отделения Российской Академии наук, 125-132 стр

2. Турсунов Л., Бобоноров Р., Вакилов А., Юсупов С. Қашқадарё воҳаси ҳудуди тупроқлари. - Тошкент: “Турон-Иқбол” нашриёти, 2008. - 248 б.

3. Ш.Б.Джумаев, Д.Ў.Бозорова, С.Ш.Джумаев Ярим асрлик даврда иқлим ўзгариши, “Иқлим ўзгариши шароитида пахтачиликнинг глобал муаммолари ва ютуқлари” мавзусидаги

халқаро илмий-амалий конференция материаллари тўплами, ПСУЕАИТИ, Тошкент, 5-6 декабрь 2024 йил 37-42 бетлар

4. Джумаев Ш.Б., Раҳматов И.М. Қашқадарё вилояти тоғ олди ҳудуди шароитида ғўза навларининг экологик синови, Фермер хўжаликларида пахтачилик ва ғаллачиликни ривожлантиришнинг илмий асослари, республика илмий амалий анжуман материаллари, Тошкент 2006 йил 448-450 бетлар.

5. https://oliymahad.uz/21305 **Дунё исиб бормоқда**

6. https://uz.wikipedia.org/wiki/Global_isish Global isish

7. https://www.gazeta.uz/oz/2022/08/01/climate-change/ **Iqlim o‘zgarishi: faktlar, asoslar va dalillar**

8. https://www.bbc.com/uzbek/news/story/2009/07/090709_g8_summit **'Глобал ҳарорат 2 даражадан оширилмайди'**

9. https://president.uz/uz/lists/view/7689 Ўзбекистон Президенти глобал иқлим ўзгариши оқибатларини биргаликда енгиб ўтиш бўйича қатор ташаббусларни илгари сурди

10. https://uzconsulate-aktau.kz/uz/2024/ **Иқлим ўзгаришининг салбий оқибатлари аграр соҳа мутасаддиларининг масъулиятини янада оширади**

11. Холиқов Б.М., С.Т.Негматова, Глобал иқлим ўзгаришида пахтачилик: муаммолар ва ечимлар, INTERNATOINAL SCIENTIFIC JURNAL SCIENCE AND INNIVATION, ISSN:2181-3337/SCIEN TS.UZ, https://doi.org/10.5281/zenodo.837185, 1079-1084 бетлар.

12. “Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузурида иқлим кенгашини ташкил этиш тўғрисида”ги 2024 йил 23 июлдаги ПФ-106-сонли фармони.

13. Доспехов Д.А., Методика полевого опыта, Москва, Агропромиздат, 1985 год, стр., 26-71; 154-301

14. «Дала тажрибаларини ўтказиш услублари» Тошкент, 2007 й.

15. https://nsportal.ru/nachalnaya-shkola/okruzhayushchii-mir/2025/10/12/vliyanie-vetra-na-rasteniya ВЛИЯНИЕ ВЕТРА НА РАСТЕНИЯ

16. https://meteoinfo.ru/bofort Шкала Бофорта для визуальной оценки силы (скорости) ветра

UDK: 631.511+631.5

BEDA EKININI G‘O‘ZA HOSILIGA TA‘SIRI

Aripov Akram Oromovich, Avliyakulov Mirzoolim Avazovich
Abdullayev Jamshid Umurxonovich, Djumayev Shukur Babaqulovich
Paxta seleksiyasi, urug‘chiligi va yetishtirish agrotexnologiyalari ilmiy tadqiqot instituti va Qashqadaryo ilmiy-tajriba stansiyasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada Qashqadaryo viloyatining sug‘oriladigan taqirsimon tuproqlari sharoitida tuproq unumdorligini oshirish va ingichka tolali g‘o‘zaning Termiz-24 navida yuqori va sifatli paxta hosili olish bo‘yicha ilmiy izlanishlar olib borilgan

Kalit so‘zlar: *beda, tuproq unumdorligi, ingichka tolali g‘o‘za, oziqlantirish me’yori, sug‘orish tartibi, hosildorlik.*

Аннотация. В данной статье представлены научные исследования по повышению плодородия почвы и получению высококачественных урожаев тонковолокнистого хлопчатника сорта «Термиз-24» в условиях орошаемых такыровидных почв Кашкадарьинской области.

Ключевые слова: *люцерна, плодородие почвы, тонковолокнистый хлопчатник, норма внесения удобрений, режим орошения, урожайность*.

Annotation. The paper presents scientific research on improving soil fertility and obtaining high-quality yields of long staple cotton variety Termez-24 in the conditions of irrigated takyr soils of the Kashkadarya region.

Key words: *alfalfa, soil fertility, long staple cotton, fertilizer application rate, irrigation scheduling, seed cotton yield.*

Kirish. Qishloq xo‘jaligi ekinlaridan yuqori hosil olish zamirida tuproq unumdorligi,

chidamli navlar, maqbul ko‘chat qalinligi, o‘g‘itlash, sug‘orish, kasallik va zararkunandalarga qarshi kurashish, yangi zamonaviy intensiv agrotexnologiyalarni qo‘llash muhim ahamiyatga ega.

Respublikamizning sug‘oriladigan maydonlarini qariyb 47%i meliorativ holati yomon, turli darajada sho‘rlangan, unumdorligi past tuproqlarni tashkil qiladi. Ushbu salbiy holatlar natijasida yerlarning muayyan qismi foydalanishdan chiqib ketish holatlari ham kuzatilmoqda. Mazkur holatlarning oldini olish, yerdan samarali foydalanish, tuproq unumdorligini tiklash va bosqichma-bosqich ko‘tarib borish, iste’mol bozorida aholini oziq-ovqat mahsulotlariga bo‘lgan ehtiyojlarini to‘ldirib borish, raqobatbardosh, tannarxi arzon mahsulot yetishtirish, oziq-ovqat havfsizligini ta’minlashda ekinlardan yuqori va sifatli hosil yetishtirishni taqozo etmoqda.

Hozirgi kunda tuproqlarimizning unumdorlik holati kundan kunga pasayib bormoqda. Jumladan, sug‘oriladigan ekin maydonlari tuproqlarining 93 % ida harakatchan fosfor miqdori, 68,3 % ida almashinuvchan kaliy miqdori, 79,3 % ida gumus miqdori o‘rtachadan past darajaga tushib qolgan. Shu nuqtayi nazardan olib qaraganda qishloq xo‘jaligi yerlaridan foydalanuvchilar tomonidan tuproq unumdorligini oshirish, ayniqsa organik o‘g‘itlardan keng foydalanishni yo‘lga qo‘yish bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Qishloq xo‘jaligi yerlari degradatsiyasiga qarshi kurashish, tuproqning gumus miqdori va unumdorligini oshirishni qo‘llab-quvvatlashning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi va Vazirlar Mahkamasining “Qishloq xo‘jaligi yerlari unumdorligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori qabul qilingan bo‘lib, amaliyotga keng joriy etilmoqda. Bu borada olimlarimiz tomonidan ko‘plab tadqiqotlar amalga oshirilmoqda. Jumladan tuproq unumdorligini oshirishga, almashlab ekish tizmilarini joriy etishga, tuproqning fitosanitar holatini yaxshilab, yuqori va sifatli paxta hosili olishga qaratilgan tadqiqotlar Qashqadaryo viloyatining sug‘oriladigan taqirsimon tuproqlari sharoitlarida olib borildi.

Tadqiqot uslubiyoti. Tadqiqot davomidagi dala tajribalarini o‘tkazishda biometrik o‘lchovlar va tuproq, o‘simlik namunalari O‘zPITI da ishlab chiqilgan «Metodi agroximicheskix, agrofizicheskix i mikrobiologicheskix issledovaniy polivnix xlopkovix rayonax» (SoyuzNIXI, 1973), «Metodika polevix i vegetatsionnix opitov s xlopchatnikom» (SoyuzNIXI, 1981), va «Dala tajribalarini o‘tkazish uslublari» (Toshkent 2007) uslubiy qo‘llanmasiga rioya qilingan holda amalga oshirildi.

Qashqadaryo viloyatining sug‘oriladigan taqirsimon tuproqlari sharoitida o‘tkazilgan tadqiqotlar 12 ta variant 3 qaytariqda olib borilib, har bir variantning maydoni 480 m^2, egat uzunligi 100 metr, umumiy 1,73 ga. maydonda uch yillik beda ekinidan keyin va uzluksiz g‘o‘za parvarishlangan dalada ingichka tolali g‘o‘zaning Termiz-24 navi uch xil o‘g‘it me’yorida (N0P0K0, N160P120K80, N240P160K120 kg/ga,) oziqlantirilib, sug‘orish oldi tuproq namligi cheklangan dala nam sig‘imiga (ChDNS) nisbatan 65-65-60% va 70-70-60% bo‘lganda sug‘orildi. Tadqiqotlar 1-jadvaldagi tajriba tizimi asosida olib borildi

Tadqiqot natijalari va ularning muhokamasi. Tadqiqot ishlarini amalga oshirishda ingichka tolali g‘o‘zaning Termiz-24 navini parvarishlanda sug‘orish oldi tuproq namliklari barcha sug‘orishlar oldidan cheklangan dala nam sig‘imiga (ChDNS) nisbatan aniqlandi. Bunda dasturda ko‘rsatilgan namliklardan chetlanish 0,2-1,1 % gacha bo‘lganligi kuzatildi. Mineral o‘g‘itlar tajriba tizimida ko‘rsatilgan me’yorlar qo‘llanildi.

Olib borilgan ilmiy izlanishlarda uch yillik bedadan keyin parvarishlangan ingichka tolali Termiz-24 g‘o‘za navining oziqlantirish me’yorlari hamda sug‘orish tartiblarining bir dona ko‘sakdagi paxtasining vazniga, hosildorlik ko‘rsatkichlariga ta’siri tadqiq qilindi. Bunda har bir terim oldidan bir dona ko‘sakdagi paxtasining vaznini aniqlash uchun namunalar terib olindi. Uch yillik bedadan keyin sug‘orish oldi tuproq namligi ChDNS ga nisbatan 65-65-60% bo‘lgan, o‘g‘itlanmagan nazorat 1-variantda bir dona ko‘sakdagi paxtasining vazni o‘rtacha 2,5 g., xuddi shu sug‘orish tartibida uzluksiz g‘o‘za parvarishlangan, o‘g‘itlanmagan 7-variantda 2,1 g. ekanligi aniqlandi, ya’ni mineral o‘g‘itlar bilan oziqlantirilmasada bedaning tuproq unumdorligini yaxshilasi hisobidan bir dona ko‘sakdagi paxtasining vazni 0,4 g. ga ortganligi kuzatildi. Bedapoya haydalgandan keyin g‘o‘za parvarishlangan sug‘orish oldi tuproq namligi ChDNS ga nisbatan 65-65-60% bo‘lgan, mineral o‘g‘itlarning yillik me’yori $N_{160}P_{120}K_{80}$ kg/ga qo‘llanilgan 2-variantda bir dona ko‘sakdagi paxtasining vazni 2,9 g., mineral o‘g‘itlarning yillik me’yori $N_{240}P_{160}K_{120}$ kg/ga

oshirilganda 3,0 g. bo‘lganligi, uzluksiz g‘o‘za yetishtirilgan variantlarda ham ma’dan o‘g‘itlarning yillik me’yori oshirilganda bir dona ko‘sakdagi paxtasining vazni 2,6 g. dan 2,9 g. gacha oshib borganligi aniqlandi. Bedapoyadan keyin g‘o‘za parvarishlangan variantlarda mineral o‘g‘itlarning yillik me’yori shu holatda saqlanib, faqat sug‘orish oldi tuproq namligi ChDNS ga nisbatan 70-70-60% ga oshirilganda bir dona ko‘sakdagi paxtasining vazni 0,2 g. ga yuqori bo‘lganligi kuzatildi. Demak bedapoya haydalgandan keyin g‘o‘za parvarishlangan dalada tuproq unumdorligi yaxshilanishi hisobiga kam me’yorda ($N_{160}P_{120}K_{80}$ kg/ga) oziqlantirilganda ham sug‘orish tartiblari bo‘yicha o‘rtacha 0,2 g. ga, oziqlantirish tartiblari bo‘yicha o‘rtacha 0,4 g. ga, uzluksiz g‘o‘za parvarishlashga nisbatan 0,2-0,9 g. ga yuqori bo‘lganligi tadqiqotlarda aniqlandi.

1-jadval

Tajriba tizimi

Variant-lar	Fon	ChDNSga nisbatan sug‘orish oldi tuproq namligi, %	O‘g‘it me’yori, kg/ga		
			N	P	K
1	Uch yillik bedapoya xaidalgandan keyin g'o'za ekilgan	65-65-60	0	0	0
2		65-65-60	160	120	80
3		65-65-60	240	160	120
4		70-70-60	0	0	0
5		70-70-60	160	120	80
6		70-70-60	240	160	120
7	Uzluksiz g‘o‘za ekilgan	65-65-60	0	0	0
8		65-65-60	160	120	80
9		65-65-60	240	160	120
10		70-70-60	0	0	0
11		70-70-60	160	120	80
12		70-70-60	240	160	120

G‘o‘zani hosildorlik ko‘rsatkichlari tadqiq qilinganda bedapoya haydalgandan keyin, sug‘orish oldi tuproq namligi ChDNS ga nisbatan 65-65-60% bo‘lgan, mutlaqo oziqlantirilmagan 1-variantda hosildorlik o‘rtacha 35,5 s/ga, mineral o‘g‘itlarning yillik me’yori $N_{160}P_{120}K_{80}$ kg/ga qo‘llanilgan 2-variantda 45,5 s/ga yoki nazoratga nisbatan 10,0 s/ga yuqori, mineral o‘g‘itlar $N_{240}P_{160}K_{120}$ kg/ga qo‘llanilgan 3-variantda 47,4 s/ga yoki nazoratga nisbatan 11,9 s/ga oshgan bo‘lsa, sug‘orish oldi tuproq namligi ChDNS ga nisbatan 70-70-60% ga oshirilganda 1,6-2,8 s/ga qo‘shimcha hosil olinganligi aniqlandi.



1-rasm. G‘o‘za hosildorligi yillar bo‘yicha.

Uch yillik bedapoyani haydash tuproqning agrofizik, agrokimyoviy va mikrobiologik xususiyatlarini yaxshilashi hisobiga g‘o‘zadan 4,7-6,9 s/ga qo‘shimcha hosil olingan. Bedapoyadan keyin g‘o‘za parvarishlangan dalaning yani bir samaradorlik jihati shundaki, mutlaqo

o‘g‘itlanmagan 1 va 4- variantlardan olingan uch yildagi o‘rtacha hosil, uzluksiz g‘o‘za parvarishlangan o‘g‘itlanmagan 7 va 10-variantlarga nisbatan 20,4 s/ga yuqori bo‘lganligi kuzatildi(uch yillik ma’lumotlar 1-rasmda ko‘rsatilgan).

Eng yuqori paxta hosili bedapoya haydalgandan keyin g‘o‘za parvarishlangan sug‘orish oldi tuproq namligi ChDNS ga nisbatan 70-70-60%, mineral o‘g‘itlar yillik me’yori $N_{240}P_{160}K_{120}$ kg/ga qo‘llanilgan 6-variantda ikkinchi yilda (3 yilda o‘rtacha 50,2 s/ga) 52,8 s/ga hosil olinib, nazoratga nisbatan 13,7 s/ga, oziqlantirish me’yoriga nisbatan 1,9 s/ga, sug‘orish tartibiga nisbatan 1,8 s/ga, uzluksiz g‘o‘za parvarishlangan variantlarga nisbatan o‘rtacha 4,4-18,8 s/ga qo‘shimcha hosil olinganligi aniqlandi. Mineral o‘g‘itlar yillik me’yorini N-80, P-40, K-40 kg/ga oshirish 1,9 s/ga qo‘shimcha hosil olinishini ta’minladi xolos. Demak uch yillik bedapoya haydalgandan keyin ingichka tolali g‘o‘zani parvarishlashda mineral o‘g‘itlarning yillik me’yorini $N_{160}P_{120}K_{80}$ kg/ga qo‘llash maqbul ekanligi, shu bilan birga mineral o‘g‘itlar yillik me’yorini oshirish iqtisodiy jihatdan samarasiz ekanligi namoyon bo‘ldi.

Xulosa. Uch yillik bedapoya haydalgandan keyin ingichka tolali g‘o‘zaning Termiz-24 navini parvarishlashda sug‘orish oldi tuproq namligini ChDNS ga nisbatan 70-70-60%, mineral o‘g‘itlar yillik me’yorini $N_{160}P_{120}K_{80}$ kg/ga qo‘llash iqtisodiy jihatdan samarali ekinligi aniqlanib, 3 yilda o‘rtacha bir dona ko‘sakdagi paxtasining vaznini 3,1 g., paxta hosilini 48,2 s/ga bo‘lishini ta’minlab, paxta hosili mutlaqo oziqlantirilmagan nazoratga nisbatan 11,1 s/ga, sug‘orish tartibiga nisbatan 2,7 s/ga, almashlab ekish qo‘llanilmagan dalaga nisbatan 6,9 s/ga qo‘shimcha hosil olinganligi aniqlandi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Dala tajribalarini o‘tkazish uslublari. Toshkent-2007 yil.

2.Методика полевых и вегетационных опытов с хлопчатником. СоюзНИХИ, 1981 г.

3.Методы агрохимических, агрофизических и микробиологических исследований в поливных хлопковых районах. СоюзНИХИ, 1973 г.

UO’T 631.674

TURLI SUG‘ORISH USULLARIDA KUZGI BUG‘DOYNING QISHGA CHIDAMLILIK DARAJASI O‘RTASIDAGI BOG‘LIQLIK

Bozorov B.F.
Qarshi davlat texnika universiteti

Annotatsiya. Kuzgi bug‘doyning qishga chidamliligi ekish muddatlari va navlarning biologik xususiyatlariga bog‘liqligi ko‘rib chiqilgan. Maqolada sug‘oriladigan yer sharoitida kuzgi bug‘doyning yangi navlari qish mavsumida siyraklashib ketishining sabablari tahlil qilingan. Shuningdek, kuz, qish va bahor davrlarida kuzgi bug‘doyning “Turon” va “Krasnodar-99” navlarida barglarda hamda tuplanish tugunlarida monosaxaridlar, disaxaridlar va umumiy qand miqdorining o‘simliklarning qishga chidamliligiga ta’siri yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: *kuzgi bug‘doy, qishga chidamlilik, ekish muddati, biologik xususiyatlar, sug‘oriladigan yerlar, nav xususiyatlari, Turon navi, Krasnodar-99 navi, monosaxaridlar, disaxaridlar, umumiy qand miqdori, tuplanish tuguni, siyraklashish.*

Kirish. Kuzgi bug‘doy o‘sishi, rivojlanishi va shakllanishida asosan ikkita fasldan: kuz va bahordan foydalaniladi. Kuzgi rivojlanish davri urug‘ ekilishidan doimiy sovuqlar tushguncha davom etadi. Bahorgi rivojlanish davri o‘simlikning hosil poyalari paydo bo‘lishidan o‘simlikning nobud bo‘lishigacha bo‘ladi. O‘simliklarda haroratning pasayishi va yorug‘likning qisqarishi bilan o‘sish jarayoni to‘xtaydi. Tuplanish tugunida va barglarda asosan qand va boshqa plastik moddalar zaxirada to‘planib boradi. Qishda sovuqlar tushishi bilan o‘simlik tinim davriga o‘tadi. Natijada kuzgi bug‘doyda muhim jarayonlardan biri past haroratga moslashish jarayoni sodir bo‘ladi. O‘zbekistonda ob-havo sharoiti donli ekinlarda o‘ziga xos xususiyatlarda o‘tadi. Eng past havo harorati ayrim yillarda noyabr oyida nol gradusdan pastga tushgani -11,1 – 14.1^{o}C, shu bilan bir vaqtda, aynan shu o‘n kunlikda eng yuqori ob-xavo harorati +18.0 - 12.0^{o}C yetganligi aniqlangan. Shuning uchun kuzgi bug‘doyda fiziologik faol jarayonlar va o‘sish jarayoni to‘liqligicha yakunlanmaydi. Bunday xususiyat bahorgi duvarak navlar kuzda ekilganda kuzatiladi. Qishga

chidamsiz navlar bahor oylarida qor erigandan keyin iliq havoda ham hosil organlari rivojlanishda davom etadi. Hattoki, kish oylaridagi iliq haroratdan ham foydalanib rivojlanishda davom etadi. Bu jarayon o‘simlikning qishga chidamsizligini oshirib, nobud bo‘lishiga ham olib keladi. Qishga chidamli kuzgi bug‘doy navlariga havo harorati oshgani ko‘p ham ta’sir qilmaydi. Ularda faol rivojlanish jarayonlari faqatgina qulay haroratda va yorug‘lik yetarli bo‘lgandagina jadallashadi. Bu qish iliq, bahor esa sovuq kelgan yillardagina o‘simliklarning saqlanib kolishini taminlaydi. Shuningdek, kuzgi bug‘doy qishki tinim davriga o‘tganda o‘sishdan to‘xtaydi

Materiallar va usullar. Dala tajribalari Qashqadaryo viloyati “Janubiy dehqonchilik” ilmiy-tadqiqot instituti tajriba maydonida o‘tkazilgan. Tajriba 4 qaytarikda qo‘yilgan. Hisobga olinadigan paykalcha kattaligi 50 kv.m. Tuprog‘i tipik bo‘z tuproq. Tadqiqot obyekti sifatida kuzgi bug‘doyning “Krasnodarskaya-99” va “Turon” navlari olingan. Ekish meyori 5 mln. urug‘/ga. Kuzgi bug‘doy tuplanish fazasida, tuplanish tuguni va barglar tarkibidagi monosaxaridlar, disaxaridlar va umumiy erigan qand miqdorlari Xromotografik (A.Pavlyushina) usulida aniqlandi.

Bug‘doyning qishga chidamliligi navning xususiyatlariga va o‘sish sharoitiga xam bog‘liq. Bu asosiy omillar o‘simlikdan yuqori hosil olish manbai bulib xizmat qiladi. Bug‘doyning “Qishga chidamlilik” atamasi bizning sharoitda nisbatan eskirgan atama hisoblanadi. O‘simlikning hosildorligi kuz, qish va bahor oylaridagi rivojlanish davrlariga bog‘liq. Qish fasli esa har doim ham kuzgi bug‘doyning rivojlanishi uchun noqulay davr bo‘lib hisoblanmaydi. Kuzgi bug‘doyning qishga chidamliligi O‘zbekistonda G.A Lavronov, A.Amanov tomonidan, shuningdek, O‘zbekistonning sug‘oriladigan yerlarida Keldiyorova X.X., Xadjayev J.X., Siddiqov R.I., Xalilov N., Bobomirzayev P.X., tomonidan o‘rganilgan. Ammo yangi navlarda qishga chidamlilik kuzgi va duvarak navlarda yetarlicha o‘rganilmagan. Sentabrdan dekabr oylarigacha iliq harorat bug‘doyga ijobiy ta’sir etgani uchun o‘sishi va rivojlanishi uchun qulay davr bo‘lib hisoblanadi. Kuz kelishi bilan kunlar qisqarib boshlaydi, (22 sentabrdan kun va tun tenglashadi) yorug‘lik kamayib, harorat xam pasaya boshlaydi. Bunda o‘simlik rivojlanishdan tinim davriga o‘ta boshlaydi. O‘zbekistonda kuzgi bug‘doy qishki sovuqdan emas, balki kuzgi va qishki qurg‘oqchilikdan, yog‘ingarchilikning yetishmasligidan, tuproqda nam yetishmasligidan nobud bo‘ladi. Tuproqdagi suv muz holatida bo‘lishi haroratning past bo‘lishi, o‘simlik uni o‘zlashtira olmasligi sababli nobud bo‘ladi. O‘zbekistonda sug‘oriladigan yerlarda kuzda ekilgan yangi bug‘doy navlarining biologik xususiyatlariga bog‘liq holda qishlab chiqish mexanizmini o‘rganish, kuzgi bug‘doy navlarining qishga chidamliligini o‘rganish orqali hosildorligini va don sifatini oshirishdagi ahamiyatini aniqlash donchilikdagi dolzarb muammolardan biri hisoblanadi.

1-jadval

Kuzgi va duvarak bug‘doy navlari barglari hamda tuplanish tugunida suvda eriydigan qand miqdori, %

O‘simlikdan namuna olish muddati	Monosaxaridlar		Disaxaridlar		Umumiy qand	
	Barglarda	Tuplanish tugunida	Barglarda	Tuplanish tugunida	Barglarda	Tuplanish tugunida
Krasnodarskaya-99						
15.12	3.6	6.2	17.0	23.5	20.8	29.6
15.01	7.3	10.3	14.8	20.1	22.1	30.6
15.03	1.4	2.7	6.0	15.9	7.3	18.9
Turon						
15.12	2.8	4.8	14.6	20.6	16.4	24.7
15.01	5.4	7.6	12.9	17.3	17.8	24.5
15.03	1.3	2.3	4.4	13.9	5.6	16.4

Tadqiqot natijalari. Tajribalar davomida kuzgi bug‘doy uchun mintaqada qabul qilingan ilg‘or agrotexnik tadbirlar va yetishtirish texnologiyalari to‘liq qo‘llanildi. Qishlov davrida kuzatilgan ayrim iqlimiy o‘zgarishlar, xususan, havo haroratining vaqti-vaqti bilan iliqlashuvi natijasida o‘simlik organizmida murakkab fiziologik jarayonlar yuz berdi. Bunday sharoitda o‘simlikda to‘plangan qand moddalari nafas olish jarayonlariga faol sarflanib, bahorgi vegetatsiya

boshlanishiga kelib ularning umumiy miqdori sezilarli darajada kamayishi kuzatildi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, kuzgi bug‘doyning tuplanish tugunida qand miqdori barglarga nisbatan bir necha barobar yuqori bo‘lib, bu holat o‘simlikning qishlov davridagi chidamliligi va keyingi rivojlanishi uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, tuplanish tugunida qand moddalarining to‘planishi regeneratsiya jarayonlarining muvaffaqiyatli kechishida hal qiluvchi omillardan biri hisoblanadi.

2-jadval

Turli xil sug‘orish usullarida kuzgi bug‘doy ko‘chatlarining qishga chidamliligi ko‘rsatkichlari

Tajriba variantlari	Unib chiqqan ko‘chatlar soni, m^2/dona	Qishdan chiqqan ko‘chatlar soni, m^2/dona	Nobud bo‘lgan o‘simliklar soni, %	O‘suv davri oxiridagi ko‘chatlar soni, m^2/dona
Yomg‘irlatib sug‘orish				
1	490,7	432,3	13,5	373,9
2	491,2	434,3	13,1	377,4
3	490,8	432,0	13,6	373,2
4	490,8	431,7	13,7	372,6
5	490,2	430,0	14	369,8
6	491,6	434,7	13,1	377,8
7	490,5	431,0	13,8	371,5
8	491,6	434,7	13,1	377,8
9	491,4	433,7	13,3	376,0
Egatlab sug‘orish				
1	488,1	423,0	15,4	357,9
2	487,4	421,3	15,7	355,2
3	489,0	426,0	14,8	363,0
4	487,6	420,7	15,9	353,8
5	487,4	421,3	15,7	355,2
6	487,8	422,3	15,5	356,8
7	486,8	419,3	16,1	351,8
8	487,4	421,3	15,7	355,2
9	486,9	418,7	16,3	350,5

Qish davrida noqulay omillar ta’sirida zararlangan yoki nobud bo‘lgan ildiz va barglarning qayta tiklanishida o‘simlik organizmida mavjud plastik moddalar zaxirasi muhim rol o‘ynaydi. Ushbu zaxira moddalar yangi o‘sish nuqtalari faoliyatini ta’minlash, tuplanish bo‘g‘inidan yangi poya va ildizlarning hosil bo‘lishi hamda ularning jadal rivojlanishini qo‘llab-quvvatlash uchun sarflanadi. Natijada o‘simlik bahorgi vegetatsiya davriga nisbatan yaxshi tayyorgarlik bilan kirib boradi va yuqori hosildorlikka zamin yaratadi.

Kuzgi bug‘doyning “Krasnodarskaya-99” navining qish davomida tinim davri uzoq, duvarak “Turon” navi qish davridagi iliq kunlarda ham tinim davriga to‘liq kirmaganligi, yangi barglar hosil qilganligi kuzatildi. Shuning uchun “Turon” navining bargi va tuplanish tugunida qandlar miqdori kam bo‘lishi aniqlandi

Kuzgi bug‘doy o‘simligi tarkibidagi eriydigan qandlar kuzdan qishga tomon oshib borishi, o‘sishni boshlanishi qishdan bahorga tomon kamayib borishi aniqlandi. 15 dekabrda “Krasnodar-99” navida umumiy qand miqdori barglarda 20,5%, tuplanish tugunida 29,6%, 15 yanvarda muvofiq holda 22,1; 30,6 bo‘lsa, 20 martda 7,3 va 18,9% bo‘lishi kuzatildi.

Jadval ma’lumotlariga ko‘ra, yomg‘irlatib sug‘orish usuli kuzgi bug‘doy ko‘chatlarining qishga chidamliligini oshirishda ustunlik qildi. Unda unib chiqqan ko‘chatlar soni 490,2–491,6 dona/m², qishdan chiqqan ko‘chatlar 430,0–434,7 dona/m² ni tashkil etdi. Nobud bo‘lgan o‘simliklar ulushi 13,1–14,0 % atrofida bo‘lib, o‘suv davri oxirida 369,8–377,8 dona/m² ko‘chat saqlanib qoldi.

Egatlab sug‘orishda esa unib chiqqan ko‘chatlar 486,8–489,0 dona/m², qishdan chiqqanlari 418,7–426,0 dona/m² bo‘ldi. Nobud bo‘lish ko‘rsatkichi 14,8–16,3 % ni tashkil etgan holda, mavsum oxirida 350,5–363,0 dona/m² ko‘chat saqlandi.

Natijalar yomg‘irlatib sug‘orishda qishki yo‘qotishlar kamayib, ko‘chatlar saqlanishi yuqori bo‘lganini ko‘rsatdi.

Xulosa. Kuzgi bug‘doyning har ikkala navida ham barglarda qand miqdori tuplanish tugunidagiga nisbatan kam bo‘lishi aniqlandi. Biologik kuzgi nav “Krasnodar-99” da qand miqdori barg va tuplanish tugunida “Turon” navinikiga nisbatan yuqori bo‘lishi, “Turon” navida nisbatan barglar va tuplanish tugunida qandning miqdori barcha variantlarda kam bo‘lishi aniqlandi. Yomg‘irlatib sug‘orish usuli kuzgi bug‘doy ko‘chatlarining qishga chidamliligini oshirib, qishki yo‘qotishlarni 13,1–14,0 % gacha kamaytirdi va o‘suv davri oxirida 369,8–377,8 dona/m² ko‘chat saqlanishini ta’minladi, bu esa egatlab sug‘orishga nisbatan yuqori samaradorlikni ko‘rsatdi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Аманов М.А. Устойчивость пшеницы Узбекистана к неблагоприятным факторам среды. – Ташкент.

2. Keldiyorova X.X., Xo‘jayev J.X. Zarafshon vodiysida har xil muddatlarda ekilgan bug‘doy navlarining iqtisodiy samaradorligi. //O‘zbekistonda bug‘doy seleksiyasi, urug‘chiligi va yetishtirish texnologiyasiga bag‘ishlangan birinchi milliy konferensiya materiallari, Toshkent. 3. Lavronov G.A. O‘zbekiston bug‘doylari. T:. O‘zbekiston.

4. Siddiqov R.I. Sug‘oriladigan yerlarda kuzgi bug‘doy yetishtirish texnologiyasini takomillashtirishning ilmiyamaliy asoslari: Q.-x. fan. dok. Dis... avtoreferati. Toshkent.

5. Xalilov N., Bobomirzayev P.X. O‘zbekistonda bug‘doy seleksiyasi, urug‘chiligi va yetishtirish texnologiyasi (Monografiya).

SHOLI O’SIMLIGINING O’SUV DAVRIDA AZOTLI O’G’ITLARINING TA’SIRI

Botirov Zulfiqor Yerali o‘g‘li, Shukurlayeva Gulruh Maxmud qizi
TDAU

Annotasiya. Sholini o‘suv davrida turli xil oziq elementlarga talabchan bo‘ladi. Jumladan bu oziq elementlar azot, fosfor va kaliy elementlari bo‘lib. Maqolada sholini “Lazurniy va Iskandar” navlariga azotli oziq elementlarga bo‘lgan talabini o’sish davrida o‘rganish maqsadida tajribada azotli o‘g‘itlar me’yorlari va azotli o’g’itlaring qancha miqdordagi sarfi bo’lgani o’rganilgan va shu mavzuda olimlarning ilmiy izlanishlarining xulosa va natijalari berib boriladi.

Kalit so‘zlar: sholining *kechpishar “Lazurniy” va o‘rtapishar “Iskandar”, tuproq, oziq modda, o‘suv fazasi, mineral o’g’itlar, tuproq oziq rejimi, sug‘oriladigan tipik bo‘z tuproq, harakatchang fosfor, ammiyakli selitra NH4NO3.*

Kirish. Mamlakatimizda aholi sonining yildan-yilga o‘sib borayotgani sababli xalqimizni yetarli va sifatli oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlashga ehtiyoj yil sayin ortib bormoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 2-fevraldagi “Sholi yetishtirishni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi PQ-4973 son qarori bilan sholi yetishtirish, saqlash, qayta ishlashning uzluksiz va samarali tizimini takomillashtirish, ichki iste'mol bozorini guruch mahsulotlari bilan barqaror ta'minlash va eksport salohiyatini oshirish, bu borada ilmiy-tadqiqot ishlarini kuchaytirish hamda sholi yetishtirishda suvni tejaydigan texnologiyalarni keng qo‘llash bo‘yicha aniq vazifalar belgilan.[1] Buning uchun istiqbolli, mahalliy tabiiy iqlim sharoitlariga moslashgan sholi navlarni tanlash hamda ulardan turli maxsulotlar ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yish bilan erishish mumkin. Prezidentimizning “Sholi yetishtirishni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorida 2021 yilda jami sholi maydonlarining kamida 20 foizida sholini ko‘chatlab ekish, 50 foizida lazer uskunalari yordamida yer tekislash tizimini joriy etish, 30 foizida sholini zamonaviy urug‘ seyalkalari orqali ekish, 2022 yilda esa bu ko‘rsatkichlarni yanada oshirish ko‘zda tutilgan.[2] Donli ekinlari, jumladan sholi yetishtirishning yangi innovatsion texnologiyalari joriy etilmoqda. Hozirda guruch dunyoda ishlab chiqarish 759,6 million tonnani tashkil etadi. 2017-yilda esa 1,4 foizga oshib, 2018-yilda 769,9 ga yetdi.[3] Sholining hosildorligida tuproq oziq rejimi va sholi o’simligini mineral oziqlanishi muhim ahamiyatga ega. Hozirgi kunda Sholichilik ilmiy-

tadqiqot instituti olimlari tomonidan sholining juda ko‘p navlari xususan Lazurniy va Iskandar navlarini sug‘oriladigan tipik bo‘z tuproq tadqiqotlari bajarib kelinmoqda.

Foydalanilgan materiallar va usullar

Sholi o'zining boyligi va oqsil muvozanati, don massaning yuqori hosildorligi va vitamin va minerallarning miqdori ko’pligi bilan e'tiborni tortadi. Sholi o’simligini doni yuqori sifatli ozuqa manbai ega ekanligi ko'plab mualliflarning tadqiqotlari bilan tasdiqlangan va tajribalar olib borilgan. Tajriba quyidagi tizimda o‘tkazildi:

1-va riant: 20x10-3; 2 -variant: 15x10-3; 3-variant:10x10-3;



Sholining Lazurniy navi



Sholining Iskandar navi

Sholining navlarini sug‘oriladigan bo’z tuproqlariga moslashtirish va azot, kaliy, fosfor saqlovchi o’g’itlar ta’sirida o’simlikda kuzatiladigan fennolagik o’zgarishlarni ko’zatib amaliyotga tadqiq etishdan iborat va tadqiqot uchun sholning lazurniy va iskandar navlari olindi. Navlarning asosiy ekin sifatida o‘sib rivojlanishi, oziqlanishini o‘rganish uchun tajriba maydoniga ekiladi va o‘suv fazalari bo‘yicha biometrik o‘lchashlar va fenologik ko‘zatuvlar o‘tkazildi. Tajriba olib borgan hududimizning iqlimi keskin kontinental bo‘lib, eng yuqori harorat iyul oyida +48 °C gacha, minimal harorat yanvar oyida bo‘lib, ayrim yillari -17.5 °C gacha sovuq bo‘ladi. Toshkent viloyatida o‘rtacha yillik yog‘in miqdoridan 240,8 mm ortiq bo‘lgan. Eng ko‘p yog‘in mart oyida kuzatilib, yog‘inning miqdori 79,4 millimetrga teng bo‘lgan. Tajriba obyekti – Azotli o‘g‘it sifatida ammiyakli selitra NH4NO3 (N-34.5%) (NH_4-50%), ishlatildi. Dala tajribalarini o‘tkazish, ekish, ekinni parvarish qilish, hosilni yig‘ish va hisoblash, ko’zatish, o‘lchash ishlari umum qabul qilingan Qishloq va suv xo‘jaligi vazirligi dala tajribalarini o‘tkazish uslublari (O‘zPITI 2007), tuproqshunoslik va agrokimyo ilmiy-tadqiqod instituti uslub va tavsiyalari asosida olib borildi. Hosildorlik, o‘simlik o‘sishi va rivojlanishi, hosildorlik ko‘rsatkichlari, dispersion, regression va korrelyatsion tahlil qilindi. A.X.Sheudjen olib borgan ilmiy izlanishlarida yillik azotli o‘g‘itlarni 20-30 % ni ekishdan oldin berib, sholi urug‘ining unib chiqishiga ijobiy ta'siri borligini aniqlagan. Olim sholi o‘simligining saqlanib qolish darajasini aniqlash bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar natijalarida, azotli o‘g‘itlarni qo‘llash usuliga bog‘liq holda ularning dala rivojlanishi urug‘larining unib chiqish fazasida ijobiy ta'sir ta'sir etib, urug‘ni unish energiyasini 1,2-1,5% oshirishini aniqlaydi. Urug‘ unib chiqish jarayonida ildiz sistemasiga azotli o‘g‘itlar ijobiy ta'sir etishini ta'kidlaydi

Olingan natijalar va ularning ahamiyati ma’nosi

Sholining ikki naviga o‘g‘itlarni qo'llash orqali sug‘orishga juda sezgir ekanligi aniqlandi, bu yashil massa va ko‘chatlarning yuqori hosilini ta‘minlaydi. Sholi ko‘chatini asosiy ekin sifatida ekishda muhim agrotexnik tadbirlardan biri yerni sifatli qilib tayyorlashdan iborat. Yerga ishlov berishdan maqsad uning fizik xossasini yaxshilash, organik moddalarning minerallashishi uchun qulay sharoit yaratish va begona o‘tlarni yo‘qotishdan iborat.[4] Olingan ikki nav o’simligi uchun tuproqdagi NPK muhim hisoblanadi. Sug‘orilgan bo’z tuproqlardan olingan namunalar shuni ko’rsatdiki, bunday tuproqlarda Azot miqdori kamligi kuzatildi. Ushbu tuproqlarda tabiiy sharoitda azot mineral o’g’itlarini qo’llash orqali tuproq tarkibidagi azot miqdori oshirib borildi. Tuproqning harakatchan azot bo‘yicha azot rejimi muhim ahamiyatga ega. Chunki azotli o‘g‘itlardagi azotning ko‘p qisimini o‘simlik o‘zlashtira oladigan jarayonlar kichadi. Tadqiqotlarni ko‘rsatishicha o‘g‘itsiz nazorat variantida tabiiy holda tuproqda harakatchan azot miqdori kam bo‘lganligi sababli sholining

Lazurniy navining o‘suv davriga sezirali ta’sir ko’rsatdi. Iskandar navida esa sezirali ta’sir ko‘rsatmadi. O’suv davrida o’simlikda fennolagik ko’rsatkichlar sekin bordi. Shuningdek Fon-N_{120} varyantga ammiyakli selitra NH4NO3 o‘g‘itimizni qo’llaganimizda tuproqdagi harakatchang azot miqdori kamayib ketdi va o’g’itsiz nazorat varyantdan farqli ravishda ikki navning o’suv davri nisbatan ijobiy bo’ldi. Shuningdek azotli o‘g‘itlar yuqori me’yorda qo‘llanilgan variantlarda ayniqsa Fon+N_{180} variantida tuproqda harakatchan azot miqdori sezilarli ortdi. Bunda azotli o‘g‘itlar me’yori ortib borishi bilan tuproqda harakatchan azot miqdori ham ortib bordi va quyilgan varyantlarimizda ham o’suv davri mobaynida ijobiy o’zgarishlar sezirali oshdi.

Xulosa. o‘rnida shuni ta’kidlash mumkinki, hatto eng serhosil tuproqda ham mineral o‘g‘itlarsiz yuqori sifatli sholi hosilini olish mumkin emas. Olib borilgan dala tajribamizda sholining Lazurniy va Iskandar navi bo’yicha o’simlikning o’suv davrida tuproqdagi azotning kamligi natijasida fennolagik o’zgarishlar sekin bordi. Bu o’g’itsiz varyantimizda kuzatildi. Qolgan varyantlarimizda o’simliklarimizni o’suv davri sezirali oshdi. O‘simliklar o‘sib rivojlanishida muntazam ravishda moddalarni iste’mol qiladi. Shuning uchun o‘simliklarni oziqlanish rejimi va me’yoriga alohida e’tibor berish kerak. Shu bilan birga, sholining vegetatsiya davriga qarab, moddalarning konsentratsiyasini va mineral o‘g‘itlar qo‘llash me’yorini kuzatish muhimdir. Sholining ekish sxemasida ham sezirali darajada ta’siri borligi aniqlandi. Lazurniy navida ekish sxemasi bo‘yicha olib borilgan tadqiqotimizda Iskandar naviga qaraganda o‘suv davri yuqori bo’lganligi, ko‘chatlarning unuvchanligi ham sezirali oshdi. Faqat maqbul va me’yorlarda oziqlantirilgan sholi navlari xalq xo’jalikining turli sohalarida foydali bo‘lishi tabiiydir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 2-fevraldagi “Sholi yetishtirishni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi PQ-4973-son qarori.

2.Urazmetov.K.K, Yakubova.N.B, Rajabova.SH.Z, “Takroriy ko‘chat usulida ekilgan sholi navlarining o‘suv davri” «Ekologiya va atrof muhit muhofazasi muammolari va ularning innovatsion yechimlari» mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya 22-may 2025-yil.

3.Elavarasan.E, A.Kamaraj, B.Sunil Kumar, P.Satheeshkumar and S.Suganthi. Biological Forum – An International Journal 15(10): 493-497 2023.

4.Ch.T.Qashqaboeva, J.Y.Xojamkulova, D.Sh.Komilov “Sholini ko‘chat usulida yetishtirishda yerni ekishga tayyorlash” International journal of recently scientific researcher’s theory.

5.Dala tajribalarini o‘tkazish uslubi. T. UzPITI, 2007. -145 b.

УДК:631.529

ХИТОЙ “HONGTAI-6636” ҒЎЗА НАВИНИ МУҲИМ КЎРСАТКИЧЛАРИ

Sh.B.Djumaev*, S.Sh.Djumaev, D.O‘Bozorova***, A.O.Aripov*, Sh.M.Chariev******

*Пахта селекцияси, уруғчилиги ва етиштириш агротехнологиялари илмий тадқиқот институти, Қашқадарё илмий-тажриба станцияси, Қарши

** Пахта селекцияси, уруғчилиги ва етиштириш агротехнологиялари илмий тадқиқот институти Тошкент,

***Ўзбекистон Республикаси Фанлар Академияси, Ботаника институти, Тошкент,

****Жанубий Деҳқончилик илмий тадқиқот институти Қарши

Аннотация: Қашқадарё вилоятини тақирсимон туппоқлари шароитида парваришланган хорижий (Хитой) “Hongtai-6636” ғўза навини 5 та оиласини ривожланишни гуллаш фазасига ўтиши июнь ойини охирги беш кунлигига ва июль ойини биринчи беш кунлигида кузатилган. НТ-651 оиласи 28 июнда 1068,7 ℃ даража самарали ҳарорат олганда, НТ-652 оиласи эса 3 июлда 1177,7 ℃ даража ҳарорат олганда гуллаш фазасига ўтганлиги кузатилган. Хорижий Hongtai-6636 нави оилалари (НТ-606, НТ-652, НТ-653, НТ-651 ва SW-2001) маҳаллий Равнақ-1 ғўза навидан 0,3-7,2 % га эртапишарлиги аниқланган. Хорижий нав оилалари ва маҳаллий ғўза навидан териб олинган пахта намуналарини лаборатория таҳлили хорижий нав оилаларини бир кўсак пахтасини вазни маҳаллий навни шу кўрсаткичидан 6,5-22,6 % га ва 1000 дона чигит оғирлиги 24,4-29,9 % га енгиллиги, тола чиқиши 10,2-23,9 % га

кўплиги ва тола узунлиги эса 6,7-15,8 % га калталигини кўрсатган.

Калит сўзлар: *хорижий, маҳаллий, ғўза навлари, фенология, гуллаш, пишиш, пишиш даври, технология, бир кўсакдаги пахта вазни, тола чиқиши, тола узунлиги.*

Аннотация: Фаза цветения пяти семьи зарубежного (Китай) сорта хлопка «Hongtai-6636», выращиваемого в условиях такыровидных почвах Кашкадарьинской области, наблюдался на последние пятидневки июня и первой пятидневки июля. Было установлено, что семья NT-651 вступило в фазу цветения, когда 28 июня достигло эффективной температуры 1068,7℃, а семья NT-652 — когда 3 июля достигло эффективной температуры 1177,7℃. Было установлено, что семья зарубежного сорта Hongtai-6636 (NT-606, NT-652, NT-653, NT-651 и SW-2001) созревают на 0,3-7,2% раньше, чем местный средневолокнистый сорт хлопка Равнак-1. Лабораторный анализ образцов хлопка, собранных из зарубежных и местных сортов, показал, что весь хлопка-сырца одной коробочки зарубежных сортов был на 6,5-22,6% и вес 1000 семян был на 24,4-29,9% меньше чем у местного сорта, выход волокна был на 10,2-23,9% выше и длина волокна была на 6,7-15,8% короче.

Ключевые слова: зарубежные, отечественные, сорта хлопка, фенология, цветение, созревание, период созревания, технология, весь хлопка-сырца одной коробочки, выход волокна, длина волокна.

Abstract: The 5 families of the foreign (Chinese) cotton variety “Hongtai-6636” were grown in the condition of the takyr soils of the Kashkadarya region. The flowering phase of development was observed in the last five days of June and the first five days of July. The flowering phase of the NT-651 family was started on June 28 with growing degree days of 1068.7 ℃, and the NT-652 family on July 3 with GDD of 1177.7 ℃. It was found that the families of the foreign Hongtai-6636 variety (NT-606, NT-652, NT-653, NT-651 and SW-2001) ripened 0.3-7.2% earlier than the local Ravnak-1 cotton variety. Laboratory analysis of cotton samples collected from foreign varieties families and local cotton varieties showed that the boll weight of cotton of foreign varieties families was 6.5-22.6% higher than the local variety, and the weight of 1000 cottonseeds was 24.4-29.9% lighter, the fiber output was 10.2-23.9% higher, and the fiber length was 6.7-15.8% shorter.

Key words: foreign, local cotton varieties, phenology, flowering, ripening, ripening period, technology, boll weight of cotton, fiber output, fiber length.

Кириш. Ҳар бир ҳудудни тупроқ-иқлим шароитини инобатга олиб, районлашган, истиқболли, янги ва интродукция қилинган экинларни жойлаштириш учун аввало ҳар бир ҳудудда уларни муайян бир ҳудуд учун умумий қабул қилинган агротехнологияда экологик синовини ўтказиш мақсадга мувофиқдир.

Янги экин навларини экологик синови — навларнинг турли тупроқ-иқлим шароитларига мослашувчанлиги, ҳосилдорлиги ва сифатини аниқлаш жараёнидир. Бу жараён жанубий ва бошқа минтақаларда юқори ҳосил ҳамда сифатли уруғлик олиш, навларнинг стрессга чидамлилигини текшириш орқали агросаноатда маҳсулдорликни оширишга хизмат қилади.

Уни мақсади янги навларни турли минтақалар иқлим шароитига мослашишини баҳолаш ва энг юқори ҳосил берадиганларини танлаш бўлиб, аҳамияти экин майдонларини кенгайтириш ва юқори сифатли тола ёки уруғ олиш ва синов жараёни намуналар олиш, апробация (навни баҳолаш) ва уруғларнинг сифатини сертификатлаш (элита ва репродукция) ишларини ўз ичига олади.

Ўзбекистонда 2024 йилдан Республиканинг барча вилоятларидаги 100 минг гектар майдонда хорижий (Хитой, Туркия, Хиндистон) ғўза навларини маҳаллий ҳудудларда синови бошланди. Бу навлар рўйхатига Bt ва Gt генли ғўза навлари ҳам қўшилди. Ушбу синовлар ва ундаги мақсадни амалга ошириш учун Ўзбекистон Республикаси Президентини 2023 йил 12 декабрида “Қишлоқ хўжалигида эркин бозор муносабатларини янада ривожланти-ришнинг қўшимча ташкилий чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПФ-205 сонли фармони [1] ва 2023 йил 15 декабрда “Пахтачиликда уруғчилик тизимини ривожлантириш ҳамда пахта ҳосилдорлигини оширишнинг қўшимча чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-391 сонли қарори [2] ҳамда ушбу фармон ва қарорни ижросини таъминлаш мақсадида Вазирлар Маҳкамасини 2023 йил 25 декабрдаги “Пахта хомашёсини етиштириш ва пахта йиғим-

терими ҳаражатларини кредитлаш ҳамда уларни реализация қилишнинг қўшимча чора-тадбирлари тўғрисида”ги 680 сони [3] қарорларида вазифа ва топшириқлар белгиланди.

Бу борада Қишлоқ хўжалиги вазирлигини мурожаатномаси ҳам қабул қилиниб, унда зараркунандаларга (ғўза тунлами) ва кучли гетбицидларга (глифосат) чидамлилигини синаб кўришда ғўза тунламига адаптацияни олдини олиш мақсадида бир қатор агротехник тадбирларга алоҳида эътибор қаратиш лозимлиги уқтирилган. Асосан хорижий Bt генли ғўза навлари экиладиган майдонларда маҳаллий тезпишар ғўза навларини экиб, хўрак майдонларни ташкил этиш мажбурий эканлиги белгиланган. Шу билан бирга ушбу агротехник усул хорижда (АҚШ, Австралия, Хитой) 20-30 йилдан буён яхши самара бераётганлиги айтилган [4].

Хитойлик олимлар томонидан дунёда асосий экин ҳисобланган ғўза экинини тўлиқ генетик картасини тузиб, ғўза селекцияси учун тўлиқ генетик материал топиш учун бу экинни 107 та репрезентатив навларидан кенг ва бой генетик кутубхона – суперпангенни (ғўза экинида учрайдиган тўлиқ генлар жамланмаси) туздилар [5]. Шулар асосида 1997 йилдан бошлаб Хитойда трансген ғўза, яъни унинг геномига Bacillus_thuringiensis бактерияси гени ўрнатилган ғўза навлари парваришлана бошланди. Ген коди Cry1Ac оқсили билан кодланган гени бир қатор капалаклар қурти учун заҳарли ҳисобланади, аммо бошқа жонзотлар ва инсон учун зарарсиз ҳисобланади [6].

Ғўза тунлами қуртига чидамли ҳисобланган трансген ғўза навлари экила бошлаганига 10 йил ўтгандан кейин ҳам ғўза тунламини миқдорини камайиши кузатилган. Бу даврда капалаклар қуртларида Cry1Ac захрига чидамлилик уйғонмаган. Аммо бу ҳолат эртами-кечми пайдо бўлади, худди Америка қўшма штатларидагидек [7].

Шунинг учун бу даврни чўзиш ёки узоқ давом этиши учун трансген ғўза навлари экилган далалар ёнида қочоқ далаларга ҳимояланмаган ғўза навларини хўрак учун экиш керак бўлади.

Хорижий ғўза навларидан 7 та Хитой, 2 та Ўзбекистон ва 1 та Исроил ғўза навларини Қозоғистонда тупроғи шўрланган ҳудудда экологик синови ўтказилиши натижасида Бухоро-6 ва Ан Баявут (Ўзбекистон) навларини тола узунлиги навларга мос равишда 33,2 ва 33,4 мм бўлган бўлса бошқа хорижий (Хитой ва Исроил) ғўза навларини тола узунлиги андоза навдан (М-4007) 0,2-0,8 мм на калта бўлганлиги аниқланган [8].

Синовнинг асосий мақсади янги хориждан олиб келинган ғўза нави оилаларидан олинадиган пахта ҳосилини кескин кўтариш мақсадида янги ғўза навларини зараркунандаларга (ғўза тунлами) ва кучли гетбицидларга (глифосат) чидамлилигини ҳамда юқори ҳосил имкониятларини синаб кўришдан иборат бўлди.

Материал ва методология. Тажриба майдонига Бош институтдан томонидан тақдим этилган ҳорижий “Hongtai-6636” ғўза навини 5 та оиласини (SW-2001, НТ-606 4, НТ-651, НТ-652 ва НТ-653) уруғлик чигитлари маҳаллий ўрта толали Равнақ-1 нави билан бирга 29 апрелда хорижий (Хитой) Шинжон технологияси асосида Касби тумани Ғалаба ҳудудидаги “Орипов Ором Орипович” фермер хўжалигини контур рақами 556 бўлган далага ҳар бир гектарга 200 кг ҳисобидан аммофос ўғити билан 2 майда экилди. Тажрибани умумий майдони 4 гектарни ташкил этди. Даладаги томчилатиб суғориш учун ўрнатилган пластмасса қувурлар 4-5 май кунлари улаб чиқилиб, суғорилди.

Қарши об-ҳавони кузатиш маркази томонидан тақдим этилган ойма-ой об-ҳаво маълумотларидан кунлик ҳарорат (°С) (максимал, минимал ва ўртача), ёғин миқдори (мм), шамол тезлиги (м/сек) ва нисбий минимал ҳаво намлиги (%) таҳлили қилиниб, ривожланиш фазаларини самарали ҳарорати аниқланди.

Тажриба майдонида ҳар ой бошида фенологик кузатувлар, мавсум охирида (сентябрь ва октябрда) ҳар бир вариантдаги ҳосилдорлик аниқланди, терим олдидан ҳар бир навдан 100 та кўсакдаги пахта намуналари териб олинди, уларда бир кўсакдаги пахта вазни ва технологик сифат кўрсаткичлари аниқланди.

Ҳосилдорлик маълумотларини математик ишлови Б.А. Доспехов усули билан амалга оширилди [9]. Барча кузатувлар асосий қўлланмаларга “Пахта билан ўтказиладиган дала тажрибаларининг услуби” [10], “Суғориладиган шароитда дала ва лабороторияда пахтачилик

соҳасида ўтказиладиган тажрибалар методикаси” [11] ва «Дала тажрибаларини ўтказиш услублари» (2007 й) [12] қўлланмаларига мувофиқ олиб борилди.

Натижалар ва таҳлиллар. Даладаги хорижий ғўза нави оилаларига ривожланишини 5-6 чин барг фазасида таъсир этувчи моддаси глифосат бўлган Спрут-экстра 25 майда синов тариқасида ҳар бир вариантга 6 м² майдонга қўлланилганда “Hongtai-6636” навини иккита оиласи (НТ-606 ва SW-2001) гербицидга чидамсиз ва қолган учтаси (НТ-652, НТ-653, НТ-651) эса гербицидга чидамли эканлиги аниқ бўлди. Дала тажрибасини мониторинг қилган хорижий (Хитой) мутахассисларни эътирофи бўйича хорижий навни НТ-606 ва SW-2001 оилаларида Bt ген мавжудлилиги аммо Gt ген йўқлиги ва НТ-652, НТ-653, НТ-651 оилаларида эса ҳар икки ген ҳам борлиги ҳамда SW-2001 навини шўрга чидамлилик хусусияти ҳам борлиги ҳам билиб олинди.

Лабораторияда термостатда униб чиқиш қуввати ва унувчанлигини аниқлаш учун қумга 10 июнда экилган хорижий “Hongtai-6636” ғўза навини 5 та оиласини (НТ-606, НТ-652, НТ-653, НТ-651, SW-2001) чигитини биринчи саноғида (16 июнь) SW-2001 оиласини униб чиқиш қуввати 69 %, қолган оилаларда 93-100 % экинлиги аниқланди. 22 июндаги санокда SW-2001 оиласини унувчанлиги 73 % ва қолган оилаларни бу кўрсаткичи 97-100 % га тенг бўлганлигини кўрсатди (1-жадвал)

Хорижий (Хитой) ғўза навларини ташқи морфологик белгилари таҳлил қилинганда уларни бўйи маҳаллий ғўза нави бўйига нисбатан пастлиги ва улардан НТ-652 оиласини барги юпқалиги ва НТ-651 оиласини эртапишарлиги (пишиш даври 115 кун) кузатилди.

1-жадвал

2025 йил тажрибада экилган хорижий “Hongtai-6636” ғўза нави оилаларини лаборатория шароитида униб чиқиш қуввати ва унувчанлиги.

т/р	Хорижий ғўза нави оилалари	Униб чиқиш қуввати, %	Унув-чанлиги, %	т/р	Хорижий ғўза нави оилалари	Униб чиқиш қуввати, %	Унув-чанлиги, %
1	НТ-606	95	97	4	НТ-651	100	100
2	НТ-652	99	99	5	SW-2001	69	73
3	НТ-653	93	97				

Кузатувларда хорижий (Хитой) “Hongtai-6636” ғўза навини 5 та оиласини ривожланишини гуллаш фазасига ўтиши июнь ойини охирги беш кунлигига ва июль ойини биринчи беш кунлигига тўғри келди. Яъни НТ-651 оиласи 28 июнда 1068,7 ℃ даража самарали ҳарорат олганда 50 % ўсимлигида гуллар қайд этилди ёки гуллаш фазасига ўтган бўлса, НТ-652 оиласи эса 3 июлда 1177,7 ℃ даража ҳарорат олганда гуллаш фазасига ўтганлиги кузатилди. Оила чигитлари экилган кундан 50 % ўсимликларда дастлабки гуллар пайдо бўлгунга қадар бўлган даври 57 кундан (НТ-651) 62 кунгачани (НТ-652) ташкил этди. Ушбу оилаларга таққосланган маҳаллий Равнақ-1 ғўза навида бу кўрсаткичлар тегишли равишда қуйидагиларга тенг бўлди: 32,5 см; 6,6 дона; 11,5 дона; 49,5 % 60 кун (2-жадвал).

2-жадвал

“Hongtai-6636” ғўза нави оилаларини 1 июлдаги ўсиши ва ривожланиши

т/р	Оилалар	Ўсимлик бўйи, см	Ҳосил шохи, дона	Ҳосил элементи, дона	Гуллаш		Экишдан гуллашгача бўлган давр, кун
					1 июль	3 июль	
1	НТ-606	30,8	6,9	12,1	51,5		60
2	НТ-652	31,9	6,3	11,9	38,6	51,9	62
3	НТ-653	28,1	6,5	12,5	43,8	58,9	61
4	НТ-651	26,5	5,9	10,1	75,4		57
5	SW-2001	25,9	6,2	11,2	51,5		60
6	Равнақ-1	32,5	6,6	11,5	49,5		60

Фенологик кузатув натижалари хорижий ғўза нави оилалари ўсимлигини бўйи 25,9 см дан (SW-2001) 31,9 см гача (НТ-651), ҳосил шохи 5,9 донадан (НТ-651) 6,9 донагача (НТ-606)

ва уларда шаклланган ҳосил элементлари 10,1 донадан (НТ-651) 12,5 донагача (НТ-653) бўлганлиги кўрсатди.

1 августда ўтказилган фенологик кузатувлар натижалари хорижий ғўза нави оилаларини ўсимлик бўйи 36,1 см дан (SW-2001) 47,9 см гача (НТ-652), ҳосил шохи 8,1 донадан (НТ-651) 10,4 донагача (НТ-606), ҳосил элементлари 14,6 донадан (НТ-606) 19,2 донагача (НТ-651) ва бўлиқ кўсаклар сони 4,3 донадан (SW-2001) 5,2 донагача (НТ-653) бўлганлигини кўрсатди. Ушбу хорижий оилаларга таққосланган маҳаллий "Равнақ-1" ғўза навида бу кўрсаткичлар тегишли равишда қуйидагиларга тенг бўлди: 45,2 см; 9,5 дона; 17,9 дона ва 5,1 дона (3-жадвал).

3-жадвал

Хорижий нав оилаларини 1 августдаги ҳолати

т/р	Оилалар	Ўсимлик бўйи, см	Ҳосил шохи, дона	Ҳосил элемент-лари, дона	Кўсаги, дона	Кўсак очилиш, %		Пишиш даври, кун
						25.08.	30.08.	
1	НТ-606	45,6	10,4	14,6	4,5	32,6	52,9	119
2	НТ-652	47,9	10,1	18,1	4,6		47,5	121
3	НТ-653	38,1	8,9	18,1	5,2		51,8	120
4	НТ-651	36,3	8,1	19,2	4,5		50,6	120
5	SW-2001	36,1	8,5	15,7	4,3	51,5		116
6	Равнақ-1	45,2	9,5	17,9	5,1	45,1	55,4,	118

Тажриба даласида 18 августда, яъни 108 кунда 2175,3 ℃ даража самарали ҳарорат олганда SW-2001 ғўза навида дастлабки кўсаклар очилганлиги кузатилди. Пишиш фазасига ўтган оилаларни аниқлаш бўйича 25 августда ўтказилган кузатувлар SW-2001 навини 51,5 % ўсимликларида дастлабки очилган кўсаклар пайдо бўлганлигини бошқа навларин нисбатан пастроқ эканлигини кўрсатди. Кейинги кузатувлар ва ҳисоблашлардан хорижий нав оилаларини пишиш даври 116 кундан (SW-2001) 121 кунгача (НТ-651) ҳамда таққосланган Равнақ-1 навини 118 кун эканлиги аниқланди (3-жадвал).

4-жадвал

Хорижий нав оилаларини 10 сентябрдаги ҳолати

т/р	Оилалар	Кўчат қалинлиги, минг/га	Ўсимлик бўйи, см	Ҳосил шохи, дона	Кўсаги, дона	Шундан очилгани	
						дона	%
1	НТ-606	187	86,0	12,8	11,6	10,2	87,9
2	НТ-652	185	85,8	12,4	12,6	10,4	82,5
3	НТ-653	179	70,8	10,3	10,8	9,2	85,2
4	НТ-651	185	62,2	9,8	10,8	8,5	81,0
5	SW-2001	155	58,6	11,4	11,2	9,6	85,7
6	Равнақ-1	185	86,0	14,2	11,4	9,2	80,7

Фенологик кузатув маълумотларини Қарши об-ҳавони кузатиш маркази кўрсаткичлари билан таққослаб ҳисоблашлар ушбу хорижий нав оилаларини 50 % ўсимлигида дастлабки кўсаклар очилиши учун 2304,3 ℃ дан (SW-2001) 2418,2 ℃ гача (НТ-652) ҳамда таққосланган маҳаллий Равнақ-1 ғўза нави учун 2361,3 ℃ самарали ҳарорат талаб этилишини кўрсатди.

Хорижий ғўза нави оилаларини кўчат қалинлиги 155 мингдан (SW-2001) 187 минггача (НТ-606), ўсимлик бўйи 62,2 см дан (НТ-651) 86,0 см гача (НТ-606), ҳосил шохи 9,8 донадан (НТ-651) 12,8 донагача (НТ-606) бўлиқ кўсаги 10,8 донадан (НТ-651) 12,6 донагача (НТ-652) ва мавжуд кўсакларни очилгани 8,5 донадан (НТ-651) 10,4 донагача (НТ-652) эканлиги аниқланди. Очилган кўсаклар фоизи эса 81,0 % дан (НТ-651) 85,7 % гачани (SW-2001) ташкил этди. Ушбу оилаларга таққослаб ўрганилган Равнақ-1 навида бу кўрсаткичлар

қуйидагича бўлди: 185 минг/га; 86,0 см; 14,2 дона; 11,4 дона; 9,2 дона ва 80,7 % (4-жадвал).

5-жадвал

Хорижий нав оилаларини 10 сентябрдаги ҳолати

т/р	Оилалар	Бир кўсак-даги пахта вазни, г	100 та толали чигит оғир-лиги, г	1000 дона чигит оғир-лиги, г	Тола чиқиши, %	Тола узун-лиги, г
1	НТ-606	5,5	16,5	96	44,5	34,6
2	НТ-652	5,3	16,9	94	43,3	32,3
3	НТ-653	4,8	17,0	89	46,2	31,2
4	НТ-651	5,2	16,0	90	45,8	32,1
5	SW-2001	5,1	16,5	89	41,1	32,4
6	Равнақ-1	6,2	20,3	127	37,3	37,1

Ушбу маълумотларга асосланиб, маҳаллий “Равнақ-1” навига нисбатан НТ-651 ва SW-2001 оилалари паст бўйли, НТ-653 оиласи ўрта бўйли ва НТ-606 ва НТ-652 оидалари эса баланд эканлигини таъкидлаш мумкин. Шунингдек барча оилалар таққосланган андоза навга нисбатан эртапишар эканлиги аниқланди.

Синалган хорижий нав оилаларини бир кўсак пахтаси вазни 4,8 г дан (НТ-653) 5,5 г гача (НТ-606) бўлиб, маҳаллий “Равнақ-1” ғўза навини бир кўсак пахтаси вазнидан (6,2 г) пастлиги, 1000 дона чигит оғирлиги оилаларда 89 г (НТ-653 ва SW-2001) дан 96 г (НТ-606) гача бўлиб, андоза навни шу кўрсаткичидан (127 г) 31-33 граммга камлиги, тола чиқиши бўйича оилаларда 41,1 % дан (SW-2001) 46,2 % гача (НТ-653) бўлиб, андоза нав кўрсаткичидан (37,3) % 3,8-8,9 %га кўплиги ва тола узунлиги бўйича 31,2 мм дан (НТ-653) 34,6 мм гача (НТ-606) бўлиб, андоза нав кўрсаткичидан (37,1 мм) 2,5-5,9 мм га калталиги аниқланди (5-жадвал).

ХУЛОСАЛАР 1. Хорижий (Хитой) “Hongtai-6636” ғўза навини 5 та оиласини ривожланишни гуллаш фазасига ўтиши июнь ойини охирги беш кунлигига ва июль ойини биринчи беш кунлигига, яъни НТ-651 оиласи 28 июнда 1068,7 ℃ даража самарали ҳарорат олганда, НТ-652 оиласи эса 3 июлда 1177,7 ℃ даража ҳарорат олганда гуллаш фазасига ўтганлиги кузатилди.

2. Фенологик кузатувлар натижасини таҳлилидан хорижий нав (Hongtai-6636) оилалари (НТ-606, НТ-652, НТ-653, НТ-651 ва SW-2001) маҳаллий ғўза навидан (Равнақ-1) 0,3-7,2 % га эртапишарлиги аниқланди.

3. Фенологик кузатув натижаларини таҳлили хорижий нав оилаларини ҳосил тўплаши маҳаллий ғўза навига ҳосил тўплашидан кескин фарқ қилмаганлигини кўрсатди.

4. Хорижий нав оилаларини ва маҳаллий ғўза навидан териб олинган пахта намуналарини лаборатория таҳлили хорижий нав оилаларини бир кўсак пахтасини вазни маҳаллий навни шу кўрсаткичдан 6,5-22,6 % га ва 1000 дона чигит оғирлиги 24,4-29,9 % га енгиллиги, тола чиқиши 10,2-23,9 % га кўплиги ва тола узунлиги эса 6,7-15,8 % га калталигини кўрсатди.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2023 йил 12 декабридаги “Қишлоқ хўжалигида эркин бозор муносабатларини янада ривожлантиришнинг қўшимча ташкилий чора-тадбирлари тўғрисида” ги ПФ-205 фармони

2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2023 йил 15 декабридаги “Пахтачиликда уруғчилик тизимини ривожлантириш ҳамда пахта ҳосилдорлигини оширишнинг қўшимча чора-тадбирлари тўғрисида” ги ПҚ-391 сонли қарори

3. Вазирлар Маҳкамасининиг 2023 йил 25 декабридаги “Пахта хомашёсини етиштириш ва пахта йиғим-терими ҳаражатларини кредитлаш ҳамда уларни реализация қилишнинг қўшимча чора-тадбирлари тўғрисида” ги 680-сонли қарори

4. https://gov.uz/ru/agro/news/view/45542 Обращение Министерства сельского хозяйства.

5. https://glavagronom.ru/news/kitayskie-uchenye-sozdali-superpangenom-hlopchatnika

Китайские ученые создали суперпангеном хлопчатника

6. https://wolf-kitses.livejournal.com/111405.html Трансгенный хлопок против хлопковой совки: соревнование брони и снаряда

7. Tabashnik et al. Insect resistance to Bt crops: evidence versus theory // *Nat Biotechnol*. 2008. V. 26. P. 199–202)

8.https://www.researchgate.net/publication/363655710_EKOLOGICESKOE_ISPYTANIE_ZARUBEZNYH_SORTOV_HLOPCATNIKA_V_USLOVIAH_SREDNEGO_ZASOLENIA ЭКОЛОГИЧЕСКОЕ ИСПЫТАНИЕ ЗАРУБЕЖНЫХ СОРТОВ ХЛОПЧАТНИКА В УСЛОВИЯХ СРЕДНЕГО ЗАСОЛЕНИЯ

9. Б.А. Доспехов, Методика полевого опыта, Москва, Агропромиздат, 1985 год, стр. 154-301.

10. Пахта билан ўтказиладиган дала тажрибаларининг услуби,УзПИТИ Тошкент, 1981 йил.

11. Суғориладиган шароитда дала ва лабороторияда пахтачилик соҳасида ўтказиладиган тажрибалар методикаси, Тошкент, 1962 йил.

12. «Дала тажрибаларини ўтказиш услублари» Тошкент, 2007 й.

QATTIQ BUG‘DOYNI 2-YIL OILALARI KO‘CHATZORI VA SARA URUG‘LIKLARINI TAYYORLASH

Xazratkulova Shaxnoza Usmonovna,
Janubiy dehqonchilik ilmiy tadqiqot instituti

Annotatsiya: Ushbu maqolada davlat reestrdagi va istiqbolli ekinlar ro‘yxatiga kiritilgan sug‘oriladigan maydonlar uchun qattiq bug‘doyning hosildor, kasallik va zararkunandalarga chidamli, don sifati yuqori, makaron sanoati talablariga mos bo‘lgan Nasaf, Zilol, Nafis, Musaffo, lalmikor maydonlar uchun issiqlik, qurg‘oqchilik, kasallik va zararkunandalarga bardoshli Mingchinor, Langar, Xilol kabi navlarning 2 yil oilalar ko‘chatzori tashkil etilganligi haqida bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: qattiq bug‘doy, nav, don sifati, hosildorlik.

Аннотация: В данной статье описывается создание двухлетнего семейного питомника сортов твердой пшеницы для орошаемых земель, включенных в государственный реестр и список перспективных культур, таких как Насаф, Зилол, Нафис, Мусаффо, которые отличаются высокой урожайностью, устойчивостью к болезням и вредителям, высоким качеством зерна и соответствуют требованиям макаронной промышленности, а также Мингчинор, Лангар и Хилол, которые устойчивы к жаре, засухе, болезням и вредителям и подходят для богарных земель.

Ключевые слова: твердая пшеница, сорт, качество зерна, урожайность.

Abstract: This article describes the establishment of a 2-year family nursery of durum wheat varieties for irrigated areas, which are included in the state register and the list of promising crops, such as Nasaf, Zilol, Nafis, Musaffo, which are high-yielding, disease and pest-resistant, high-grain quality, and meet the requirements of the pasta industry, and Mingchinor, Langar, and Khilol, which are heat, drought, disease and pest-resistant for dry lands.

Key words: durum wheat, variety, grain quality, yield.

Kirish. Bugungi kunda iqlim o‘zgarishini yumshatish va o‘sib borayotgan dunyo aholisi uchun barqaror oziq-ovqat ta’minotini ta’minlash bog‘liq yondashuv orqali hal qilinishi kerak bo‘lgan ikkita asosiy masaladir. Dunyo aholisining ko‘payishi va qazib olinadigan yoqilg‘iga kirishning qisqarishi narxlarning oshishi bilan birga qishloq xo‘jaligi sektori va oziq-ovqat ishlab chiqarishiga bosimni sezilarli darajada oshirdi. Bundan tashqari, qazib olinadigan yoqilg‘idan foydalanishning halokatli ekologik oqibatlari vaziyatni yanada og‘irlashtirdi. 2050 yilga borib 9 milliarddan ortiq kishiga ko‘payishi taxmin qilinayotgan dunyo aholisining o‘sish tendentsiyasini hisobga olgan holda, oziq-ovqatga global talab o‘sishda davom etadi va bu barqaror rivojlanishning eng muhim tarkibiy qismlaridan biri sifatida “oziq-ovqat xavfsizligi” global muammosini yanada

kuchaytiradi[16].

Keyingi yillarda mamlakatimiz qishloq xo‘jaligini isloh qilish, xususan, sohada davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish, bozor munosabatlarini keng joriy qilish, resurstejamkor texnologiyalarni amaliyotga tatbiq etish hamda qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqaruvchilarni zamonaviy texnikalar bilan ta’minlash borasida muayyan ishlar amalga oshirilmoqda.

Oziq-ovqat sanoatining rivojlanishi va makaron mahsulotlariga bo‘lgan ehtiyojning oshishi qattiq bug‘doy turlarini mahalliy sharoitda yetishtirishni talab etmoqda.

Adabiyotlar sharhi. Dunyo qishloq xo‘jaligida eng muhim boshoqli don ekinlaridan biri hisoblanib, jami qishloq xo‘jaligida foydalaniladigan ekin maydonlarining 17 foizini egallaydi va har yili 750 million tonna atrofida don hosili yetishtiriladi. Dunyo miqyosida jami 240, 8 mln gektarga bug‘doy ekilib, yaqin yillarda bug‘doy doniga bo‘lgan talab yanada ortib borishi bashorat qilinmoqda [4].

Hozirgi vaqtda O‘zbekistonda bug‘doyning T.aestivum L. va T.durum Dest., turlari madaniylashtirilgan va keng ishlab chiqarishda ekilmoqda. Bug‘doy noni yuqori ta’mga va ozuqaviy xususiyatlarga ega, yaxshi hazm qilinadi va organizm tomonidan so‘riladi. Bug‘doy donidan don, makaron va qandolat sanoatida ham foydalaniladi. Bu dunyo aholisining 35% uchun asosiy mahsulotdir va aholining energiya ehtiyojining taxminan 20% ni ta’minlaydi [7].

Bir qator olimlarning ta’kidlashlaricha har bar hudud uchun navni to‘g‘ri tanlash, sara urug‘ni ekishga qo‘llash, almashlab ekish, ilg‘or agrotexnikani uyg‘unlashtirish orqali suvli va lalmikor yerlarda bug‘doydan mo‘l va sifatli hosil yetishtirishga erishish mumkin [5].

Ko‘pchilik olimlarning fikriga ko‘ra yaxshi navni ekish hisobiga qo‘shimcha hech qanday mehnatsiz, ortiqcha sarf xarajat qilmasdan hosildorlikni keskin ko‘tarish mumkin [6].

O.Amanov va boshqalarning takidlashlaricha har qanday yaxshi nav ham faqatgina navdor va ekish sifati yuqori bo‘lgan urug‘lar bilan ekilgandagina o‘z potensial imkoniyatlarini yuzaga chiqaradi [2].

Navlar xilma-xilligini oldindan baholashning asosiy usuli bu nav nav namunalarida biologik hosildorlik va hosil elementlarini qiyosiy o‘rganishdir. Kelajakda hosilni tashkil etadigan eng muhim element bu – boshoq mahsuldorligi va mahsuldor poyalar sonidir. O‘z navbatida boshoq mahsuldorligi donning yirikligi va 1000 ta don massasi kabi xususiyatlardan iborat [1].

O.A.Amanov va boshlarning ma’lumotlariga ko‘ra, har bir zona uchun navni to‘g‘ri tanlash, sara urug‘ni ekishga qo‘llash, almashlab ekishni, ilg‘or agrotexnikani uyg‘unlashtirish orqali suvli va lalmikor yerlarda bug‘doydan mo‘l hamda sifatli hosil yetishtirish mumkin [3].

Material va uslublar. Tadqiqot dorasida sug‘oriladigan maydonlar uchun kuzgi qattiq bug‘doyning hosildor, kasallik va zararkunandalarga chidamli, don sifati yuqori, makaron sanoati talablariga mos bo‘lgan Nasaf, Zilol, Nafis, Musaffo, lalmikor maydonlar uchun issiqlik, qurg‘oqchilik, kasallik va zararkunandalarga bardoshli Mingchinor, Langar, Xilol kabi navlarning 2 yil oilalar ko‘chatzori ekin maydoni 5 m2 qilib joylashtirildi va sinov ishlari amalga oshirildi. O‘suv davri davomida rivojlanish fazalari va morfobiologik xususiyatlariga ko‘ra baholab borildi. Dala tajribalari Janubiy dehqonchilik ilmiy tadqiqot institutining Qarshi bo‘limi tajriba maydonida o‘tkazildi.

Natijalar va munozara. Laboratoriya tadqiqotlari doirasida qattiq bug‘doyning 2 yil oilalar ko‘chatzorlari tashkil qilinidi. Qattiq bug‘doyni 7 ta navlari 2-yil oilalar ko‘chatzorida sug‘oriladigan maydonlar uchun ekish tavsiya etilgan reestrdagi yangi navlarni har biridan 20 ta, oilalar ekilib tanlov ishlari amalga oshirildi.

Navning genetik xususiyatlari o‘zgargan, navga xos bo‘lmagan oilalar yaroqsiz deb topildi. Qattiq bug‘doyning **Nasaf** navining 20 ta 2-yil oilalardan rivojlanish fazalari davomiyligiga ko‘ra 1 ta, don tuzilishi, shakli va rangiga ko‘ra 2 ta, morfologik belgilari bo‘yicha 2 ta, hosildorligi bo‘yicha 2 ta, jami 7 ta oilalar yaroqsiz qilindi. Jami o‘rib olingan oilalar soni 13 tani tashkil qilib, umumiy 46,8 kg 2-yil oilalar urug‘ligi jamg‘arildi.

[16] https://link.springer.com/article/10.1007/s43154-022-00080-x

Zilol navining 20 ta 2-yil oilalardan rivojlanish fazalari davomiyligiga ko‘ra 2 ta, don tuzilishi, shakli va rangiga ko‘ra 1 ta, morfologik belgilari bo‘yicha 1 ta, hosildorligi bo‘yicha 3 ta, jami 7 ta oilalar yaroqsiz qilindi. Jami o‘rib olingan oilalar soni 13 tani tashkil qilib, umumiy 45,5 kg 2-yil oilalar urug‘ligi jamg‘arildi.

1-jadval

Qattiq bug‘doyni 2-yil oilalar ko‘chatzori

№	Nav nomi	Ekilgan oilalar soni, dona	Yaroqsiz qilingan oilalar, dona					Jami o‘rib olingan oilalar soni,	Jamg‘arilgan urug‘lik miqdori, kg
			Rivojlanish fazalarida	Don tuzilishi, shakli va rangiga ko‘ra	Morfologik belgilari bo‘yicha	Hosildorligi bo‘yicha	Jami		
1	Nasaf	20	1	2	2	2	7	13	46,8
2	Zilol	20	2	1	1	3	7	13	45,5
3	Nafis	20	1	0	2	2	5	15	51,0
4	Musaffo	20	1	1	1	2	5	15	54,0
5	Mingchinor	20	2	1	0	4	7	13	41,6
6	Langar	20	0	0	2	3	5	15	46,5
7	Hilol	20	1	1	1	2	5	15	49,5
Jami		**140**	**8**	**6**	**9**	**18**	**41**	**99**	**334,9**

Mahsuldorlik xususiyati yuqori, intensiv tipda tuplanish xususiyatiga ega qattiq bug‘doyning **Musaffo** navining 20 ta 2-yil oilalardan rivojlanish fazalari davomiyligiga ko‘ra 1 ta, don tuzilishi, shakli va rangiga ko‘ra 1 ta, morfologik belgilari bo‘yicha 1 ta, hosildorligi bo‘yicha 2 ta, jami 5 ta oilalar yaroqsiz qilindi. Jami o‘rib olingan oilalar soni 15 tani tashkil qilib, umumiy 54,0 kg 2-yil oilalar urug‘ligi jamg‘arildi.

Xulosa.Qattiq bug‘doyni Nafis navi Buxoro, Navoiy, Qashqadaryo viloyatlariga, Musaffo navi Qashqadaryo, Navoiy, Samarqand, Surxondaryo viloyatlariga istiqbolli nav sifatida ekish uchun tavsiya etilgan.

Qattiq bug‘doyning 2-yil oilalari ko‘chatzorida 7 ta yangi yaratilgan navlarning 140 ta oilalari ekilib o‘rganildi. Navdor oilalarni tanlash jarayonida 140 ta oilalardan rivojlanish fazalari davomiyligiga ko‘ra 8 ta, don tuzilishi, shakli va rangiga ko‘ra 6 ta, morfologik belgilari bo‘yicha 9 ta, hosildorligi bo‘yicha 18 ta, jami 41 ta oilalar yaroqsiz qilindi. Kuzgi yumshoq bug‘doyning yangi navlarini 99 ta 2-yil oilalaridan 334,9 kg sara navdor urug‘liklar jamg‘arildi.

Foydalnilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Amanov O. A., Juraev D. T., Dilmurodov S. D. Dependence of Growth Period, Yield Elements and Grain Quality of Winter Bread Wheat Varieties and Lines on Different Soil and Climate Conditions //Annals of the Romanian Society for Cell Biology. – 2021. – T. 25. – №. 6. – C. 5146-5164.

2. Аманов О. А., Рахимов М. А. Ценные хозяйственные признаки образцов озимой мягкой пшеницы //Аграрная наука. – 2016. – №. 5. – S. 17-18.

3. Amanov O. A., Shoymuradov A., Azizov B. Ikki faslli (duvarak) yumshoq bug‘doyning hosildor va don sifati yuqori nav va tizmalari raqobatli nav sinash ko‘chatzori //Journal of new century innovations. – 2024. – T. 53. – №. 5. – S. 185-189.

4. Juraev D. T. et al. Influence of hot dry winds on productivity elements of wheat crop

observed in southern regions of the republic of uzbekistan //International jurnal of applied and pure science and agriculture. ISSN. – 2017. – С. 2394-5532.

5. Juraev D, Amanov O, Dilmurodov Sh, Boysunov N, Turaeva S, Mamadjanova N, Raimova D (2023). Winter wheat assessment for growth, grain yield, and quality parameters under diverse soil and climatic conditions. SABRAO J. Breed. Genet. 55(4): 1193-1204. http://doi.org/10.54910/sabrao2023.55.4.15.

6. Ziyadullaev Z. F., Abduazimov A. M. Bahorgi bug‘doy navlarida boshoq o‘lchamlari //Life Sciences and Agriculture. – 2020. – №. 1. – S. 22-26.

7. Hazratkulova S. et al. Analysis of genotypic variation for normalized difference vegetation index and its relationship with grain yield in winter wheat under terminal heat stress //Plant Breeding. – 2012. – Т. 131. – №. 6. – С. 716-721.

UDK 633. 11. 631. 52

LALMIKOR MAYDONLAR UChUN MAXSULDOR ARPA NAVLARINI TANLASH

Aminova Gulzor Xolmurodovna,
Lalmikor dehqonchilik ilmiy tadqiqot instituti

Annotatsiya: Respublikaning lalmi mintaqalari tuproq iqlim sharoitlarida mos qurg‘oqchilikka va issiqlikka chidamli, tezpishar va maxsuldor navlarni yetishmasligi, arpaning maxalliy va xorijdan keltirilgan nav va namunalari ustida seleksiya ishlarini olib borish natijasida yangi nav va duragaylar bilan boyitishga qaratilgan.

Kalit so‘zlar: Arpa, duragaylar, nav, namuna, seleksiya, don, manba, sifat, 1000 dona don, hosildorlik, maxsuldorlik, chidamlilik.

Аннотация: В связи с отсутствием засухоустойчивых, жаростойких, скороспелых и урожайных сортов, подходящих к почвенно-климатическим условиям засушливых районов республики, селекционная работа над местными и импортными сортами и образцами ячменя направлена на обогащение его новыми сортами и гибридами.

Ключевые слова: Ячмень, гибриды, сорт, образец, селекция, зерно, источник, качество, 1000 зерен, продуктивность, продуктивность, устойчивость.

Annotation: Due to the lack of drought-resistant, heat-resistant, early-ripening and high-yielding varieties suitable for the soil and climatic conditions of the republic's arid regions, breeding work on local and imported varieties and samples of barley is aimed at enriching it with new varieties and hybrids.

Key words; Barley, hybrids, variety, sample, selection, grain, source, quality, 1000 grains, productivity, productivity, sustainability.

Mamlakatimiz dehqonchiligida qishloq xo‘jaligining muhim tarmog‘i bo‘lgan g‘allachilikda boshoqli don ekinlaridan biri arpadan mo‘l hosil yetishtirish muhim strategik ahamiyatga ega bo‘lgan soxadir. O‘zbekistonda g‘alla mustaqilligiga erishish siyosati bu soxada juda katta o‘zgarishlar bo‘lishini ta’minladi. Respublikamizning Jizzax, Qashqadaryo, Samarqand, Surxondaryo va Toshkent viloyatlarining nam bilan yarim ta’minlangan lalmi mintaqalari arpa yetishtiriladigan asosiy hududlar hisoblanadi. 2024 yil lalmi maydonlarda jami 94 ming 138 gektar maydonlarga arpa yetishtirilgan bo‘lib (Vazirlar Mahkamasining 2023 yil 7 oktabrdagi 180-bayoni), yalpi hosil 147,6 ming tonna tashkil etgan.

O‘tkazilayotgan ilmiy izlanishlar, ilg‘or xo‘jaliklar tajribalari lalmi maydonlarda hosildorlik 20-25 s/ga va undan ham oshirish imkoniyatlari mavjudligini ko‘rsatmoqda. Ammo, keyingi yillarda lalmi maydonlarda 10-12 s/ga dan oshmayotganligi aniqlandi. Shu sababli Respublikamizni turli mintaqalarining tuproq-iqlim sharoitlariga mos, qurg‘oqchilik va issiqlikka, kasallik va zararkunandalarga hamda yotib qolishga chidamli, hosildor bo‘lgan intensiv tipdagi arpa navlarini yaratish bugungi kunda seleksiyachi olimlar oldidagi eng dolzarb muammolardan biri bo‘lib qolmoqda.

O‘zbekiston hududida o‘tgan asrning boshlarida faqatgina mahalliy navlar ekilgan. Hozirgi davr o‘simlik seleksiyasida genetika, fiziologiya, bioximiya, ekologiya va boshqa fanlar bilimlarini birgalikda foydalanishni taqozo etadi [4].

Qishloq xo‘jalik ishlab chiqarishida Lalmikor dehqonchilik ilmiy tadqiqot instituti yangi navlarni yaratishga yo‘naltirilgan seleksiyada dolzarb muammolarni yechishda ayniqsa arpa seleksiyasida kolleksiyaning ahamiyati ortib boradi. Shu boisdan, olib boriladigan tadqiqotlarda arpa nav va namunalari nazorat ko‘chatzorida ekilib o‘rganishdan asosiy maqsad yangi arpa duvarak navlarini yaratish doirasida lalmikor maydonlarga moslashgan, hosildor, don sifat ko‘rsatkichlari yuqori bo‘lgan navlarni ajratib olishdan iborat.

Ammo, keyingi yillarda Respublikamizning lalmikor maydonlarga mos, halqaro ko‘chatzorlardan keltirilgan arpaga mansub bo‘lgan, ozuqa birligi yuqori hosildor navlarini yaratish hamda tashqi muhitning stress omillariga bardoshli, belgi xususiyatlarning duragay avlodlarida irsiylanishi hamda ob havoning keskin o‘zgaruvchanligi tufayli janubiy mintaqalarda barqaror hosildorlik ko‘rsatkichiga ega bo‘lgan yangi navlarini yaratish borasida seleksion tadqiqotlar yetarli darajada olib borilmagan.

Respublikaning lalmikor maydonlariga mos, halqaro ko‘chatzorlardan keltirilgan arpaga mansub bo‘lgan, ozuqa birligi yuqori hosildor navlarini yaratish soxaning dolzarb muammolaridan biri bo‘lib hisoblanadi.

Shuning uchun ham qurg‘oqchilikka chidamli va ertapishar arpa navlarini yaratish seleksiyaning asosiy vazifalaridan biridir. Chunki, o‘simlik urug‘dan unib chiqqandan uning hosili to‘la pishgungacha bo‘lgan davr yoki o‘suv davri qancha qisqa bo‘lsa, hosil shuncha oz muddat ichida sifatli, nobudgarchiliksiz yig‘ishtirib olinadi.

Jahon genofondidan intiraduksiya qilingan nav va tizmalardan foydalangan holda, lalmikor maydonlar uchun qurg‘oqchilik, issiqlikka bardoshli hamda yuqori hosil beradigan arpaning yangi seleksion ashyolarini yaratish.

Laboratoriya sharoitida issiqlikka bardoshliligi va don sifat ko‘rsatkichlarini boholash hamda dala sharoitida o‘simlikning rivojlanish fazalarida bargdagi xlorofill donachalari va biomassa miqdoriva tahlil qilinadi.

Arpaga mansub bo‘lgan issiqlik, qurg‘oqchilikka bardoshli hamda hosildor va ozuqa birligi yuqori bo‘lgan yangi seleksion ashyolar yaratish maqsadida, tajribada arpaning seleksiya nav sinash ko‘chatzorida 122 ta, nazorat ko‘chatzori 20 ta nav va tizmalar ekilgan. Andoza nav sifatida Adir va Lalmikor navlari olingan. Tajribada fenologik kuzatuvlar bilan birga biometrik o‘lchovlar olib borilgan. Jumladan, o‘simlik bo‘yi, oxirgi bug‘in uzunligi, boshoq uzunligi, boshoqcha soni, 1000 dona don vazni va hosildorlik ko‘rsatgichlari aniqlandi.

Kolleksiya **(IBYT-MMA-24)** ko‘chatzorida arpa nav va namunalarini o‘simlik bo‘yi andoza nav Adir o‘simligini 59,1 sm eng uzuni bo‘lgan bo‘lsa, 21-qatorda joylashgan (Akrash//WI2291/WI2269/3/Sls/Akrash-02/4/ATAHUALPA) namunada eng past bo‘yli ya’ni 32,4 sm ni tashkil etgan. Oxirgi bug‘in uzunligi 7,2-17,4 sm gacha bo‘lganligi aniqlandi va ushbu ko‘rsatgich qurg‘oqchilikka chidamligi aniqlaydigan muhum ko‘rsatgichlardan biridur (1-jadval.).

1-jadval.

Kolleksiya (IBYT-MMA-24) ko‘chatzoridagi arpa nav va namunalarining biometrik o‘lchovlar natijalari.

№	Nav va namunalar nomi	o'simlik bo'yi, sm	oxirgi bo'g'in uzunligi, sm	boshoq uzunligi, sm	boshoqcha soni, dona
1	Adir	59,1	13,6	8,8	24
2	Nadawa/Rhn-03/3/Lignee527 /Rihane//Arar/4/DWRUB-52	56,1	13,5	7,3	20
3	AwBlack/Aths//Rhn-08/3/Malouh/4/GIZA131	58,3	12,4	9,2	22
4	Akrash//WI2291/WI2269/3/Sls/Akrash-02/4/Alanda01	56,1	11,8	9,4	20
5	WI2198/Hml-02//INRA55-86-2/Rt1703/3/Hml/4/AC-6629				
6	Arbayan-01//As46/Aths/3 /Barjouj/4/DWRUB-52	42,1	8,2	7,2	36

7	Arbayan-01//As46/Aths/3/ Barjouj/5/GK58/3/Kc/Mullers Heydla	47,5	11,4	8,9	26
8	Rihane-03				
9	Uzno-Kazakastan/4/Sonata/3/ 4679/105//YEA132TH/5/Furat-3	46,7	14,6	12,1	28
10	Uzno-Kazakastan/4/Sonata/3/4679/105//YEA132TH/ 5/HARMAL	45,6	12,2	9,7	34
11	Moroc9-75/Hml-02/5/Clipper /Volla/3/Arr/Esp//Alger/Ceres				
12	Moroc9-75/Hml-02/5/Clipper/ Volla/3/Arr/Esp//Alger/Ceres362	51,3	12,5	8,7	36
13	Tipper/ICB-102854//Alpha/ Durra/4/WI2198/Hml-02//INRA55-8	49,2	13,09	8,5	34
14	Frontier/Vmorales	50,3	8,3	7,6	30
15	Akrash//WI2291/WI2269/3/Sls/Akrash-02/4/ATAHUALPA	52,5	10,5	8,7	32
16	Arta/3/Legia/Laurel'S//Aleli/4/Arar/H,spont,19-15//Hml/3/ H,				
17	Tipper/ICB-102854//Alpha/Durra /4/WI2198/Hml-02//INRA55-86-2/Rt1703/3/Hml	45,7	12,5	9,7	32
18	Furat-03	54,5	12,8	8,7	20
19	Fedora/Express//Rhn-03/3/DWRUB-52				
20	UC1263 X L94/BCD-TTA//UC1231L	42,1	8,3	7,8	28
21	UC 1266 // L94/BCD-TTA/3/UC1264	41	9,5	6,8	24
22	UC 1047 / 11HB44				
23	WI2198/Hml-02//INRA55-86-2/Rt1703/3/Hml/4/AC-6629	42,4	12,2	8,4	22
24	Nadawa/Rhn-03//Mtn-01/6/ Moroc9-75/Hml-02/5/Clipper /Volla/3/Arr/Esp//Alger/Ceres362-1-1/4/Hml	51,4	8	8,2	26
25	Arta/3/Legia/Laurel'S//Aleli/4/Arar/H,spont,19-15//Hml/3/ H, spont,41-1/Tadmor/5/ Zanbakian/6/Arta/WI3167	56,1	10,3	8,4	26
26	Uzno-Kazakastan/4/Sonata/3/ 4679/105//YEA132TH/5/HARMAL	42,3	10,2	8,7	24
27	Nadawa/Rhn-03/3/Lignee527/ Rihane//Arar/4/AC-6629	54,3	12,5	7,4	20
28	Moroc9-75/Hml-02/5/Clippe r/Volla/3/Arr/Esp//Alger/Ceres362-1	55,2	9,2	7,6	28
29	Akrash//WI2291/WI2269/3/Sls/Akrash-02/4/ATAHUALPA	32,4	7,3	7,2	26
30	UC1263 X L94/BCD-TTA//UC1231L	50,1	8,1	8,1	28
31	Rihane-03	38,6	7,4	10,4	36
32	Akrash//WI2291/WI2269/3/Sls/Akrash-02/4/Alanda01	54,4	11,2	7,8	20
33	Furat-03	58,3	7,2	9,7	32
34	Moroc9-75/Hml-02/5/Clipper /Volla/3/Arr/Esp//Alger/Ceres362	48,2	7,3	6,9	22
35	Tipper/ICB-102854//Alpha/ Durra/4/WI2198/Hml-02//INRA55-8	56,1	8,1	6,3	20

36	UC 1266 // L94/BCD-TTA/3/UC1264	58,2	7,9	7,2	22
37	Arbayan-01//As46/Aths/3/ Barjouj/5/GK58/3/Kc/Mullers Heydla//Sls/4/Wieselbuger//Ahor1303-61//Ste/Antares	57,3	7,8	7,1	28
38	Arbayan-01//As46/Aths/3/ Barjouj/4/DWRUB-52	44,6	12,4	9,2	26
39	Nadawa/Rhn-03/3/Lignee527/ Rihane//Arar/4/DWRUB-52	42,5	17,4	9,4	28
40	Frontier/Vmorales				
41	Uzno-Kazakastan/4/Sonata /3/ 4679/105//YEA132TH/5/Furat-				
42	UC 1047 / 11HB44	42,5	11,2	9	20
43	Fedora/Express//Rhn-03/3/DWRUB-52	41,6	12,2	8,9	24
44	Tipper/ICB-102854//Alpha/Durra /4/WI2198/Hml-02//INRA55	48,3	7,4	7,8	18
45	Adir				
46	AwBlack/Aths//Rhn-08/3/Malouh/4/GIZA131				
	Yuqori	59,1	17,4	12,1	36
	Past	32,4	7,2	6,3	18
	O’rtacha	49,2	10,6	8,4	26,2

Bundan tashqari boshoq uzunligi 6,3-12,1 sm gacha bo‘lganligi aniqlandi, bunda bir-biridan keskin farq qilgani, arpa namunalarida 18-36 donagacha don shakillanganligi kuzatildi (1-jadval.).

Ushbu tajriba ko‘chatzorida o‘rganilgan arpa namunalarining biometrik o‘lchovlar olib borilgan 23 ta namunalardan barcha ko‘rsatgichlari bo‘yicha tanlab olindi va seleksiyaning keyingi bosqichlari uchun o‘tkazildi.

Hozirgi paytda boshoqli don ekinlari seleksiyasida asosiy e’tibor har bir mintaqa uchun alohida xususiyatga va tashqi muhit sharoitlariga tez moslashadigan, har qanday sharoitda ham hosildorligini pasaytirmaydigan navlar yaratilishiga qaratilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 23 oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020- 2030 yillarga mo‘ljallangan strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF- 5853-son Farmoni.

2. Abdukarimov D.T., Safarov T., Ostanaqulov T.E. Dala ekinlari seleksiyasi, urug‘chiligi va genetika asoslari. Toshkent "Mexnat" 1989 y.

3. Amanov O.A, Xojaqulov T, Sarmanov Sh.Sh “Sug‘oriladigan yerlarda arpa yetishtirish” buyicha tavsiyanoma. Qarshi “Nasaf” nashriyoti. 2015 y.

4. Sarmanov Sh. va boshqalar Arpa yetishtirish bo’yicha tavsiyalar. Nasaf-2023y.

5. Egamov.I., Meliboev.M., Qodirova.M. Arpa navlarida yotib qolishga chidamlilik hususiyatlari. O‘zbekiston qishloq xo‘jolk jo‘rnali. 2017y 7 soni. B 36.

UO‘K: 636.085.55

CHORVA MOLLARIGA BERILADIGAN OZUQALARNING HAZM BO‘LISH DARAJASINI ORTTIRISH

Z.D.Xolmurodova, A.Saidov, Z.B.Xoliqov
Qarshi davlat texnika universiteti

Annotatsiya: Chorva ozuqalari qishloq xo‘jalik hayvonlari va parrandalarning to‘yimli moddalarga bo‘lgan talabini to‘liq qondiradigan ularning fiziologik holatiga zarar yetkazmaydigan ovqat hazm qilish organlariga (OHQO) mos keladigan turli xil yo‘llar bilan kimyoviy hamda mikrobiologik usulda olinadigan mahsulot sifatiga salbiy ta’sir ko‘rsatmaydigan o‘simliklar va hayvonot dunyosidan kelib chiqqan mahsulotlarga aytiladi.

Chorvachilik mahsulotlariga bo‘lgan talabni to‘laroq qondirishda mustahkam yem-xashak zaxirasini yaratish chorvador fermerlar uchun nihoyatda muhim vazifa sanaladi.

Kalit so‘zlar: Oqsil, uglevod, sellyuloza, kletchatka, dag‘al ozuqa, silos, senaj, kepak, kraxmal, briketlangan ozuqa.

Аннотация: Под кормами для животных понимаются продукты растительного и животного происхождения, полученные различными химическими и микробиологическими методами, которые не оказывают негативного влияния на качество продукта, полностью удовлетворяют пищевые потребности сельскохозяйственных животных и птицы, не наносят вреда их физиологическому состоянию, не повреждают органы пищеварения и не ухудшают качество продукта. Создание надежного кормового резерва для полного удовлетворения спроса на продукцию животноводства является чрезвычайно важной задачей для животноводов.

Ключевые слова: Белок, углеводы, целлюлоза, клетчатка, грубые корма, силос, сенаж, отруби, крахмал, брикетированные корма.

Abstract: Animal feed refers to products of plant and animal origin obtained through various chemical and microbiological methods that do not negatively impact product quality, fully satisfy the nutritional needs of farm animals and poultry, do not harm their physiological condition, do not damage their digestive organs, and do not degrade product quality. Creating a reliable feed reserve to fully meet the demand for livestock products is an extremely important task for livestock farmers.

Key words: Protein, carbohydrates, cellulose, fiber, roughage, silage, haylage, bran, starch, pelleted feed.

Kirish. Chorva mahsulotlarini hayvon fiziologiyasi imkoniyati darajasida to‘liq olish uchun yetarli darajada ozuqaga ega bo‘lish lozim. Xo‘jalik chorva mollarining ozuqaga bo‘lgan ehtiyojidan kelib chiqib, ozuqabop ekin maydonlari yuzasi, tashqaridan olinadigan ozuqa hajmi rejasini ishlab chiqadi. Buning uchun ozuqa muvozanati va ozuqadan foydalanish rejasi tuziladi.

Ozuqabop o‘simliklardan ketma-ket ozuqabop donlar, ozuqa lavlagisi, yashil konveyerni tashkil etuvchi o‘simliklar ekiladi. Barcha turdagi ozuqalar 3 guruhga bo‘linadi:

- o‘simlik mahsulotlaridan tayyorlangan ozuqalar;
- hayvonot mahsulotlaridan tayyorlangan ozuqalar;
- mineral moddalar.

O‘simlik mahsulotlaridan tayyorlangan ozuqalar quyidagi guruhlarga bo‘linadi:

1. Ko‘k o‘tlar – tabiiy yaylov o‘tlari, pichanzorlar, ekilgan o‘tlar va boshqalar.
2. Dag‘al xashaklar – pichanlar, poxollar, to‘ponlar, doni olingan makkajo‘xori poyasi.
3. Ildizmevalar – lavlagi va hokazolar.
4. Siloslangan ozuqalar.
5. Omixta yemlar – donlar va urug‘lar.
6. Texnikaviy ishlab chiqarish chiqindilari (un ishlab chiqarish sanoati, shakar zavodlari, spirt zavodlari va moy-yog‘ ishlab chiqarish korxonalari chiqindilari).

Hayvonot mahsulotlaridan tayyorlanadigan ozuqalar guruhiga qaymoqli va qaymoqsiz sut, qon uni, suyak uni, baliq uni va hokazolar kiradi. Bundan tashqari hozirgi kunda qishloq xo‘jalik hayvonlarini oziqlantirishda kimyo, biokimyo va farmosevtika sanoatlari tomonidan ishlab chiqarilayotgan har xil ozuqaviy qo‘shimchalar, sintetik priparatlar, vitaminlar, fermentlar, gormonlardan ham chorva hayvonlarining sog‘ligini saqlash oziqlantirish, mahsuldorligini oshirish maqsadida ishlab chiqarishda keng qo‘llanilmoqda. [1]

Chorva hayvonlariga beriladigan barcha ozuqalar kimyoviy tarkibiga ko‘ra quyidagi moddalardan tuzilgan va ulaming har biri organizmda ma’lum bir funktsiyani bajaradi.

Suv - hayvon va o‘simlik organizmida muhim fiziologik funksiya bajaradi. U organizmda oziq moddalarni bir joydan ikkinchi joyga etkazishda vositachi bo‘lishi bilan birga, ovqat hazm qilishda, tana haroratini boshqarishda, qoldiq moddalarni ajratib chiqarishda muhim rol o‘ynaydi.

Quruq moddalar - asosan mineral (kul) va organik birikmalardan iborat. Mineral moddalar birikmalari organizmda muhim fiziologik funktsiyani bajaradi. Masalan, ular xo‘jayralarning asosiy oziqa manbai bo‘lib hisoblanadi hamda oziq moddalar shimishida va o‘zlashtirishida, osmotik bosimini saqlashda muhim ahamiyatga ega.

Mineral moddalar - ikkita katta gruppani (makro va mirkoelementlarni) tashkil etadi. *Makroelementlar* kalsiy, fosfor, natriy, xlor, kaliy kabi moddalardan tashkil topgan. *Mikroelementlar* temir, mis, marganets, kobalt, yod va hokazolardan iborat. Bu moddalar hayvon organizmi uchun juda muhim hisoblanadi.

Organik moddalar - azotli, azotsiz moddalardan va vitaminlardan tashkil topgan.

Azotli moddalar - aralashmali protein tarkibida azot bo‘lgan, oqsilsiz birikmalardan iborat *aminlar* hisoblanadi. Yem-xashak tarkibida protein turli miqdorda bo‘ladi. Masalan, dukkakdosh o‘simliklar poyasida 15%, donida 25- 30%, baliq unida 50-60% atrofida bo‘lishi aniqlangan.

Oqsil - hayvonlar organizmida juda muhim ahamiyatga ega bo‘lib, yem- xashak tarkibida turli miqdorda uchraydi. Masalan, kunjara va shrotda 30-45%, dukkakdosh o‘simliklar donida 25-30% bo‘lishi aniqlangan.

Azotsiz moddalar - yog‘lar va uglevodlardan tashkil topgan. O‘simliklar tarkibida yog‘lar oz (0,1-6%) miqdorda uchraydi. Lekin tarkibida yog‘ moddasi bo‘lgan o‘simliklar donida va uning chiqindilari (kunjara, shrot) da u ko‘proq bo‘ladi. Yog‘ hayvonlar organizmida energiya manbai hisoblanadi.

Uglevodlar - asosan kletchatka (sellyuloza) va azotsiz ekstraktiv moddalardan tashkil topgan. Ularning ichida eng qimmatlisi qand va kraxmal hisoblanadi.

Kletchatka - o‘simliklar xo‘jayralarining po‘sti hisoblanadi. Uning hazm bo‘lishi va organizm tomonidan o‘zlashtirilishi ancha murakkab.

Ozuqalar tarkibidagi kimyoviy birikmalar

№	Ozuqalar nomi	Ozuqa birligi, kg	Almashinuv energiyasi (MJ)	Quruq modda (gr)	Hazm bo‘ladigan protein (gr)	Qand (gr)	Kaltsiy(gr)	Fosfor (gr)	Karotin (mgr)
Dag‘al ozuqalar									
1	Beda pichani	0,44	6,72	0,830	101,0	20,0	17,0	2,2	49,0
2	Bug‘doy somoni	0,2	4,76	0,846	5,0	3,0	2,8	0,8	4,0
3	Arpa somoni	0,34	5,71	0,830	13,0	2,4	3,3	0,8	4,0
4	Har xil o‘t pichanlar	0,44	6,45	0,850	56,0	10,0	8,3	2,0	15,0
Ser-suv shirali ozuqalar									
5	Makkajo‘xori silosi	0,20	2,30	0,250	14,0	6,0	1,4	0,4	20,0
6	Beda senaji	0,35	4,19	0,450	71,0	19,0	10,9	1,0	40,0
7	Xashaki lavlagisi	0,12	1,65	0,120	9,0	40,0	0,4	0,5	0,1
8	Sabzi	0,14	2,20	0,120	8,0	35,0	0,9	0,6	54,0
Omuxta yem ozuqalari									
9	Suli doni	1,0	9,2	0,850	79,0	25,0	1,5	3,4	1,3
10	Makkajo‘xori doni	1,33	12,2	0,850	73,0	40,0	0,5	5,2	3,0
11	Arpa doni	1,15	10,5	0,850	85,0	2,0	2,0	3,9	0,5-0,2
12	Bug‘doy doni	1,27	10,7	0,850	142,0	15,0	0,7	4,3	10,2
13	Paxta kunjarasi	0,89	10,21	0,900	329,0	65,0	4,1	10,1	1,0
14	Kombi korm	0,98	9,12	0,850	76,0	18,0	0,9	5,1	2,0

Azotsiz ekstraktiv - moddlarning yuqori darajada oziqlik qimmatiga ega bo‘lgani kraxmal va

qand hisoblanadi. Kraxmal kartoshka, boshoqdosh o‘simliklar donida ko‘proq bo‘ladi. Ularning poyasida va bargida oz (2%) bo‘ladi. Qand lavlagi (24%), makkajo‘xori, oqjo‘xori va poliz ekinlarda (qovun, qovoq, tarvuz va hokazolarda) ko‘proq, sutda kamroq (3-5%) bo‘ladi.

Vitaminlar - nihoyatda muhim ahamiyatga ega. Organizmda moddalar almashilish jarayonida ishtirok etadi. Ular yetishmasa, hayvon oriqlaydi. Shuning uchun ular ozig‘ida vitaminlar bo‘lishiga alohida e’tibor berishi kerak.

Sersuv ozuqalar. Tarkibida 70-92% suv bo‘lgan oziqlar sersuv hisoblanadi. Lekin ular tarkibida yog‘ va protein oz bo‘ladi.

Ko‘kat ozuqalar. Tabiiy va sun’iy holda o‘stiriladigan barcha turdagi o‘simliklar ko‘kat oziq hisoblanadi. Masalan, har xil o‘tlar, boshoqdosh (arpa, suli, bug‘doy), dukkakdosh o‘simliklar (beda, no‘xat, loviya), ildizmevalarning poyasi, bargi shular jumlasidandir [2].

Dag‘al ozuqalar. Dag‘al ozuqalar asosan: pichan, somon, turli xildagi o‘simliklarning (makkajo‘xori, g‘o‘zapoya, oqjo‘xori, kungaboqar va hokazolarning) poyasi, so‘tasi va chig‘anog‘idan iborat.

Pichanning kimyoviy tarkibi uning sifatiga ko‘ra turlicha bo‘ladi. Masalan, 4-26% protein, 3-7 yog‘, 20-35% kletchatka, 3-11% kuldan iborat. 1 kg sifatli beda pichanida 0,5 kg gacha oziq birligi bo‘lishi mumkin.

Pichanning buzilganligi uning rangi, hidi, mog‘orlanganligi, shuningdek unda kana va qorakuyaga qarab aniqlanadi. Shu boisdan pichanning har bir namunasi yaxshilab kuzatiladi va kamchiliklar yozib qo‘yiladi. [3]

Qishloq xo‘jalik hayvonlarini ratsion asosida oziqlantirishda hayvonlarning to‘yimli moddalarga bo‘lgan talabi asosan jadvalda keltirilgan to‘yimli moddalar bilan nazorat qilinadi [4].

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR (REFERENCES)

1. N.E.Sattarov, A.N.Borotov, N.A.Ashurov “Chorvachilik asoslari” O‘quv qo‘llanma. Toshkent 2020-y.

2. Т.Ш.Акмалхонов., С.Ш.Исамухамедов., У.Т.Ходжаев., Б.Ш.Юсупов. “Чорвачиликдан амалий машғулотлар” Ўқув қўлланма. Тошкент - 2009 йил.

3. I.M.Maqsudov, O.R.Kuchchiyev, U.Xodjayev “Chorvachilik asoslari” fanidan amaliy mashg‘ulotlar o‘tkazish uchun uslubiy qo‘llanma Toshkent. 2013-y.

4. B.M.Tojiboyev, D.A.Alijanov., Chorvachilikda ozuqa tayyorlash va saqlash jarayonlarini mexanizatsiyalashtirish, o‘quv qo‘llanma (qayta ishlangan ikkinchi nashri), Toshkent «Iqtisod-moliya», 2013-yil.

UDK 633.16; 633.256

MAHALLIY VA XORIJ ARPA NAV VA NAMUNALARIDA SELEKSIYA ISHLARI

Aminova Gulzor Xolmurodovna
Lalmikor dehqonchilik ilmiy tadqiqot instituti

Annotatsiya: G‘allachilikda don hosildorligi va sifatini oshirishda mavjud bo‘lgan barcha imkoniyatlardan, birinchi navbatda, yuqori mahsuldor navlardan foydalanish ularni biologik xususiyatlarini o‘rganib, ular bilan to‘g‘ri munosabatda bo‘lish ijobiy natijalarga erishish mumkin.

Kalit so‘zlar: Arpa, don, seleksiya, nav, namuna, manba, sifat, oqsil, mahsuldorlik, hosildorlik, chidamlilik.

Аннотация: Достичь положительных результатов можно, используя все имеющиеся возможности повышения урожайности и качества зерна в зерновом хозяйстве, прежде всего путем изучения его биологических свойств и использования высокоурожайных сортов.

Ключевые слова: ячмень, зерно, селекция, сорт, образец, источник, качество, белок, производительность, урожайность, устойчивость.

Annotation: Positive results can be achieved by using all available opportunities to increase the yield and quality of grain in grain farming, primarily by studying its biological properties and using high-yielding varieties.

Key words: Barley, grain, breeding, variety, sample, source, quality, protein, performance, productivity, resistance.

1-jadval

Kolleksiya ko’chatzorida arpa namunalarining fenologik kuzatuvlari (G’allaorol-2025)

№	Namunalar nomi	Unib chiqish	boshoqlash	sut pishish	mum pishish	tuliq pishish	unib chiqish-to'liq pishish
11	Adir andoza	20-fev	28-apr	12-may	26-may	08-iyun	108
22	IBYT-FFM-24-2	21-fev	30-apr	17.may	25-may	09-iyun	108
33	IBYT-FFM-24-3	21-fev	22-apr	10.may	17-may	04-iyun	103
44	IBYT-FFM-24-4	22-fev	21-apr	11.may	17-may	03-iyun	101
55	IBYT-FFM-24-5	0	0	0	0	0	0
66	IBYT-FFM-24-6	20-fev	24-apr	12.may	22-may	04-iyun	104
77	IBYT-FFM-24-7	21-fev	25-apr	12.may	22-may	05-iyun	104
88	IBYT-FFM-24-8	0	0	0	0	0	0
99	IBYT-FFM-24-9	21-fev	29-apr	16.may	23-may	10-iyun	109
110	IBYT-FFM-24-10	20-fev	23-apr	12.may	23-may	05-iyun	105
111	IBYT-FFM-24-11			0	0	0	0
212	IBYT-FFM-24-12	21-fev	21-apr	10.may	18-may	03-iyun	102
113	IBYT-FFM-24-13	22-fev	20-apr	2.may	15-may	05-iyun	103
114	IBYT-FFM-24-14	21-fev	20-apr	1.may	14-may	04-iyun	103
115	IBYT-FFM-24-15	20-fev	21-apr	2.may	20-may	05-iyun	105
116	IBYT-FFM-24-16	0	0	0	0	0	0
117	IBYT-FFM-24-17	21-fev	28-apr	14.may	28-may	11-iyun	110
118	IBYT-FFM-24-18	22-fev	22-apr	10.may	21-may	05-iyun	103
119	IBYT-FFM-24-19	0	0	0	0	0	0
220	IBYT-FFM-24-20	23-fev	23-apr	12.may	22-may	06-iyun	103
221	IBYT-FFM-24-21	22-fev	30-apr	15.may	24-may	10-iyun	108
222	IBYT-FFM-24-22	0	0	0	0	0	0
223	IBYT-FFM-24-23	23-fev	19-apr	16-may	17-may	06-iyun	103
224	IBYT-FFM-24-24	23-fev	25-apr	18.may	25-may	12-iyun	109
225	IBYT-FFM-24-25	21-fev	22-apr	17.may	20-may	11-iyun	110
226	IBYT-FFM-24-26	20-fev	22-apr	17.may	22-may	10-iyun	110
227	IBYT-FFM-24-27	20-fev	22-apr	18.may	21-may	10-iyun	110
228	IBYT-FFM-24-28	21-fev	22-apr	18.may	21-may	09-iyun	108
229	IBYT-FFM-24-29	20-fev	23-apr	17.may	20-may	10-iyun	110
330	IBYT-FFM-24-30	20-fev	23-apr	12.may	21-may	04-iyun	104
331	IBYT-FFM-24-31	22-fev	25-apr	18.may	24-may	14-iyun	112
332	IBYT-FFM-24-32	22-fev	23-apr	18.may	23-may	11-iyun	109
333	IBYT-FFM-24-33	21-fev	22-apr	12.may	16-may	04-iyun	103
334	IBYT-FFM-24-34	21-fev	22-apr	17.may	22-may	11-iyun	110
335	IBYT-FFM-24-35	20-fev	22-apr	17.may	22-may	12-iyun	112
336	IBYT-FFM-24-36	20-fev	22-apr	16-may	22-may	13-iyun	113
337	IBYT-FFM-24-37	20-fev	22-apr	18.may	21-may	11-iyun	111
338	IBYT-FFM-24-38	20-fev	22-apr	17-may	20-may	12-iyun	112
339	IBYT-FFM-24-39	21-fev	21-apr	16-may	20-may	11-iyun	110
440	IBYT-FFM-24-40	0	0	0	0	0	0
441	IBYT-FFM-24-41	0	0	0	0	0	0
442	IBYT-FFM-24-42	22-fev	22-apr	17-may	20-may	12-iyun	110
443	IBYT-FFM-24-43	20-fev	23-apr	17-may	23-may	12-iyun	112
444	IBYT-FFM-24-44	21-fev	22-apr	17-may	23-may	13-iyun	112
445	IBYT-FFM-24-45	0	0	0	0	0	0
446	IBYT-FFM-24-46	0	0	0	0	0	0

Respublikamizda qishloq xo‘jaligi ekinlarini ishlab chiqarishga katta ahamiyat berilmoqda. Buning natijasida lalmi yerlardan ratsional foydalanishning ilmiy asoslari yaratilib, qishloq xo‘jaligining yuqori hosil beradigan yangi navlar yaratish lozim bo‘ladi.

Tajribada Lalmikor dehqonchilik ilmiy tadqiqot instituti, ICARDA xalqaro tashkilotidan keltirilgan lalmi maydonlar uchun 183 ta arpa nav-namunalarining asosiy ko‘rsatkichlaridan hisoblangan navning tezpisharligi, o‘simlik bo‘yi, oxirgi bo‘g‘in uzunligi, boshoq uzunligi, boshoqdagi donlar soni, 1000 dona don vazni hamda don hosildorligi bo‘yicha tahlil qilindi.

Tajriba maydonlarini ekishga tayyorlash va ekiladigan arpa nav va namunalarini tanlab olish, kerakli agrotexnik tadbirlani o‘tqazish, urug‘larni ekish fenologik kuzatuvlar o‘tkazildi.

Tajriba maydoni Lalmikor dehqonchilik ilmiy tadqiqot institutining lalmi arpa seleksiyalari tajriba maydonlarida olib borilmoqda. Dala tajribalarini ekish uchun 2025 yilning 23-24 noyabr kunlari tajriba sxemalari asosida yerni ekishga tayyorlash ishlari boshlanib, ekish ishlari maxsus texnika vositalari va qo‘lda amalga oshirildi. Maxsus boshlang’ich seyalkada 29 noyabr kuni amalga oshirildi.

Tajriba maydonlarida fenologik kuzatuvlar olib borilganida, 7-11 yanvar kunlarida unib chiqish fazasi kuzatildi. Tuplash fazasi 22 fevraldan 4 mart kunlarida davom etganligi kuzatildi hamda dala daftariga qayt etildi.

Shuningdek, biometrik o‘lchovlar va boshqa tahliliy ko‘rsatgichlar ham olib borildi.

Yillar davomida ilmiy tadqiqot ishlari, kalendar rejada bo‘yicha ko‘zda tutilgan ishlar amalga oshirilib kelinmoqda. Seleksiya va urug‘chilik jarayonining bosqichlari to‘g‘risida bilimlarni o‘zlashtirish, boshoqli don ekinlari seleksiyasida dala tajribalarini olib borishda foydalaniladigan usullarni nazariy jihatdan o‘rganish, arpaning don sifat ko‘rsatkichlarini laboratoriya sharoitida tahlil qilishda qo‘llaniladigan uslublarni o‘rganish, tajribada ekib o‘rganilayotgan arpa nav, namunalarining o‘suv davrini aniqlash maqsadida qaytariqlar kesimida fenologik kuzatuvlar olib borish ishlarini ilmiy rahbar bilan o‘rganib kelinmoqda.

O‘rganilgan arpa nav va namunalarining ertapisharlik xususiyati tahlil qilinganda, kolleksiya namunalarida vegetatsiya (unib chiqish-pishish) davri 101 kundan 112 kungacha davom etdi. Ya’ni bularning hammasi o‘rtapishar guruhlarga kirganligi aniqlandi. Kolleksiyada o‘suv davri bo‘yicha ertapishar va kechpishar nav va namunalar kuzatilmadi.

Kolleksiya namunalarini o‘rganish shuni ko‘rsatadiki, o‘simlik o‘suv davrining davomiyligi muxim ko‘rsatkich xisoblanadi. Adabiyotlarda don to‘lishish davri hosil miqdorini belgilashda muxim rol o‘ynashi to‘g‘risida bir qancha olimlar sharxidan ma’lum.

Kolleksiya ko‘chatzorida ekilgan namunalarning fenologik kuzatishlar natijalariga ko‘ra urug‘ning to‘liq unib chiqishi, 20-23 fevral kunlari oralig‘ida to‘liq ko‘chat olindi. Hisob davri 25 foizga yetganida boshlanishi, 75 foiz va undan ortiqroq bo‘lsa tuganlangan deb hisoblandi.

O‘rganilgan namunalarning boshoqlash fazasi 19-30 aprel kunlarida qayd qilinib, namunalar orasida 11 kungacha oraliqda farq kuzatildi (1-jadvalga qarang).

O’sish va rivojlanish davri muhim biologik xususiyatlarini: genotipini, navlarning o’zgaruvchanligini, atrof-muhitning ta’sirini ko’rsatadigan davr. Arpa o’simligida o’sish davrining amplitudasida 55-120 kunni tashkil etadi [3; 32-b.].

Fenologik kuzatuvlar natijalari asosida kolleksiya ko’chatzorida Andoza Adir naviga nisbatan ertaroq unib chiqishdan-mum pishish davrigacha bo’lgan kunni nomoyon qilgan 15 ta nav va tizmalarni keltirish mumkin. Jumladan, 4,6,7,10,12, 13,14,15,17,20,23,33-namunalarda 2 kundan 6 kungacha ertachi pishgani kuzatildi.

Arpaning qimmatli xo‘jalik belgilarining aksariyati poligen tabiatli. Ular qatorida hosildorlik va uni ta’minlaydigan xususiyatlari (mahsuldor tuplanish, boshoqdagi donning soni, 1000 donning vazni) vegitatsiya davrining va fazalararo davrlarning davomiyligi, o‘simlik bo‘yi, yotib qolishga chidamlilik, noqulay sharoitlarga chidamlilik, dondagi oqsil moddasining miqdori va boshqa texnologik va oziqalik sifatlarini ta’minlaydigan ko‘rsatkichlari ham andoza navlariga nisbatan yuqori bo‘lganlari tanlab olindi hamda seleksiyaning keyingi bosqichlarga o‘tkazildi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, olib borilgan tadqiqotlarimiz natijalariga ko‘ra, arpa nav va namunalarida sifat ko‘rsatgichini yaxshilashda mahalliy sharoitda yaratilgan navlar va xorijdan keltirilgan namunalar o‘rtasida taqqoslash hamda tanlash ishlari olib borilganda, mahsuldorli yuqori, sanoat (ishlab chiqarish va qayta ishlash) talablariga mos ekanligi aniqlandi.

Foydalangan adabiyotlar.

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini

rivojlantirishning 2020—2030 yillarga mo‘ljallangan strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5853 son farmoni. 2019y.

2. D.T.Abdukarimov. “Donli ekinlar seleksiyasi va urug‘chiligi”. Toshkent 2015 y.

3. Mamatqulov T. Arpa seleksiyasida boshlang‘ich manballarning axamiyati. Respublika ilmiy konf. Materiallari. Toshkent 2009. B 32-33.

4. Ходжакулов Т.Х. Корреляционный анализ в осенке сортов и гибридов ячменя. Труды УзНИИЗ. Ташкент, вып 17. С 73-77.

UO‘K: 664.694:664.761

YUQORI NAVLI BUG‘DOY UNINING MAKARONBOPLIK XOSSALARINI TADQIQ QILISH

Z.D.Xolmurodova, A.Saidov, Z.B.Xoliqov
Qarshi davlat texnika universiteti

Annotatsiya: Ushbu maqolada bug‘doy unining makaronboblik xususiyatlari uning kimyoviy tarkibi, kleykovina miqdori, karotinoid pigmentlar miqdori va makaron ishlab chiqarishda qattiq bug‘doy unidan tayyorlangan makaron mahsulotlarining yuqori sifati dondagi va asosiy komponentlarlarning tarkibi va xossalari keltirilgan.

Kalit so‘zlar: bug‘doy uni, makaron, qattiq bug‘doy, glyutenin, gliadin, karotinoid, pigmentlar.

Аннотация: В данной статье представлены свойства пшеничной муки, используемые для производства макаронных изделий, ее химический состав, содержание глютена, содержание каротиноидных пигментов, а также состав и свойства основных компонентов зерна и высокое качество макаронных изделий, изготовленных из муки твердых сортов пшеницы в рамках производства макаронных изделий.

Ключевые слова: пшеничная мука, макаронные изделия, твердые сорта пшеницы, глютенин, глиадин, каротиноид, пигменты.

Abstract: This article presents the properties of wheat flour used for pasta production, including its chemical composition, gluten content, and carotenoid pigment content. It also examines the composition and properties of the main grain components and the high quality of pasta made from durum wheat flour in pasta production.

Key words: wheat flour, pasta, durum wheat, glutenin, gliadin, carotenoid, pigments.

Kirish. Makaron mahsulotlari ishlab chiqarish uchun asosiy xom ashyo qattiq bug‘doydan tortilgan oliy va birinchi navli un hisoblanadi.

Ishlab chiqarishning texnologik tartiblariga rioya qilinganda qattiq bug‘doyning yormachasimon unidan tayyorlangan makaron mahsulotlari qahrabosimon-sariq rang, yuqori mustahkamlikka va yaltiroq shaffoflikka ega bo‘ladi, uzoq vaqt qaynatilgandan so‘ng tiniq qaynatish suvi qoldiriladi, o‘z shaklini o‘zgartirmaydi, o‘zaro yopishib qolmaydi, och-sariq rangga, yoqimli ta’mva hidga ega bo‘ladi [1].

Qattiq bug‘doy unidan tayyorlangan makaron mahsulotlarining yuqori sifati dondagi va asosiy komponentlarlarning tarkibi va xossalari bilan asoslanadi:

1) Qattiq bug‘doyda 0,5 mg/% (100 g donda 0,05) gacha karotinoidpigmentlar mavjud bo‘lib, bu pigmentlar yumshoq bug‘doyda uchramaydi va yumshoq shaffof bug‘doyda juda kam miqdorda (0,2 mg/%) uchraydi. Bo‘yovchi karotinoid pigmentlar makaron mahsulotlarining jozibali qahrabosimon- sariq rangini ta’minlaydi. Shuning uchun qattiq bug‘doyning aynan shu xossasi makaron mahsulotlari ishlab chiqarishdagi xom ashyoning asosiy sifat ko‘rsatkichi hisoblanadi.

2) Endospermning strukturasi: qattiq bug‘doyda zich va shaffof, yumshoq bug‘doyda g‘ovak va unli bo‘ladi.

3) Qattiq bug‘doy endospermida bog‘lovchi oqsil (xaftprotein) miqdori ko‘p bo‘lib, u kraxmal donachalari bilan mustahkam bog‘langan va ularni yaxlit shishasimon massaga biriktirgan. Unsimon endospermda oraliq oqsil (svikelprotein) miqdori ko‘p bo‘lib, kraxmal donlari bilan, havo mavjudligida alohida bog‘lar bilan kuchsiz bog‘langan. Bu yumshoq bug‘doy endospermining g‘ovakligini (xiraligini) asoslaydi.

4) Qattiq (shaffof) bug‘doydan un tortish vaqtida don yaxlit tuzilishini saqlagan o‘tkir qirrali yormasimon zarrachalarga parchalanadi, yumshoq unsimon don alohida yoki kuchsiz bog‘langan kraxmal donlari va oqsil zarrachalariga parchalanadi, ya’ni kukunsimon unni hosil qiladi [4].

Makaron unining, ya’ni bug‘doy unining makaronboplik xossalari to‘rtta asosiy omillar bilan belgilanadi

a) Kleykovina miqdori. Bug‘doy unining oqsil moddalari, xamir qorish vaqtida suv qo‘shilganida ikkita asosiy fraksiya – gliadin va glyutenindan iborat bo‘lgan mustahkam qovushkok – plastik gelsimon massa - kleykovinani hosil qiladi. Gliadin o‘zining xossalari bilan glyutenindan farq qiladi. Gliadinning o‘ziga xos tomoni spirtlarning 70% li suvli eritmalarida erishi hisoblanadi.

Glyutenin esa kislota va ishqorlarning kuchsiz eritmalarida eriydi. Glyuteninning molekular massasi gliadin molekular massasidan ancha katta, bu esa ko‘p hollarda ularning strukturaviy-mexaniq xossalarining farqini belgilaydi: gidratlangan glyutenin rezinasimon qayishqoq massasidan iborat, gliadin esa cho‘ziluvchan, qovushqoq-oquvchan, yopishqoq va qayishqoqlikka ega emas. Shuning uchun nonvoylik nuqtai nazaridan muhim ahamiyatga ega bo‘lgan unning kuchi, asosan glyutenin miqdoriga bog‘liq.



1-rasm. Bug‘doy unining makaronboplik xossalari

Gliadin fraksiyasi pressning shnekli kamerasida mexaniq jarayonlar natijasida xamir haroratining ortishiga chidamliroq ekanligini qayd etish lozim. Shuning uchun makaron mahsulotlari xom ashyosi sifatida qattiq bug‘doyning yumshoq bug‘doyga nisbatan afzalliklaridan biri bo‘lib gliadin fraksiyasining glyutenin fraksiyasida ko‘pligi hisoblanadi. Bu esa presslanayotgan makaron mahsulotlarining mustahkam strukturasi hosil bo‘lishini oldindan belgilab beradi.

Shnekli kamerada ishlov berilgan xamirdan, glyuteninning chuqur denaturatsiyalanishi sababli kleykovinani yuvib olishning imkoniyatibo‘lmaydi. Shu munosabat bilan nonvoylikda qabul qilingan xamirning fizik xossalarini farinograf, alveograf, ekstensograf kabi asboblardan foydalanib baholash uslublari va kleykovina sifatini uning cho‘ziluvchanligi, elastikligi, mustahkamligiga qarab aniqlash uslublari, unning makaronboplik xususiyatlarini ko‘rsatilmaydi.

Demak, unning makaronbop xossalarini kleykovina bog‘lovchi, yelimlovchi xossalari yoki pressning shnekli kamerasida ishlov berilgan xamirning mexanik-strukturaviy xossalariga qarab undan yoki makaron xamiridan yuvib olingan kleykovinaning miqdoriga (makaron mahsulotlariga belgilangan standart GOST-875 ga ko‘rsatilgan singari) yoki ulardagi oqsil miqdoriga qarab baholash to‘g‘riroq bo‘ladi [2].

b) Karotinoid pigmentlar miqdori. Karotinoid pigmentlar(karatinoidlar) guruhiga sariq yoki sarg‘ish rangga bo‘yalgan moddalar kiradi. Uning tarkibida karatinoidlar miqdori qancha ko‘p bo‘lsa, u makaron mahsulotlari ishlab chiqarish uchun shuncha muvofiq hisoblanadi, chunki bunday undan tayyorlangan mahsulotlar iste’molchilarning talabiga javob beradigan qahrabosimon - sariq rangga ega bo‘ladi. Qattiq bug‘doy donida karatinoiadlar miqdori 5 mg/kg ni tashkil qiladi va xuddi shu ko‘rsatkichi tufayli undan tortilgan un makaron mahsulotlari ishlab chiqarishda asosiy xom ashyo hisoblanadi. Shishasimon yuqori bo‘lgan yumshoq bug‘doyda karotinoidlar miqdori 2...3 marta kam bo‘ladi, bu undan tayyorlangan mahsulotlar och-sariqyoki sariq tusli kremsimon rangda

bo‘ladi va unsimon yumshoq bug‘doyda esa karotinoidlar mavjud bo‘lmaydi va bu undan tayyorlangan mahsulotlar kremsimon rangga ega bo‘ladi.

v) Qora xollarning (endosperm bo‘lmagan zarra) miqdori. Un tarkibida bug‘doy donining endosperm bo‘lmagan zarrachalari - qobiq zarrachalari (kepak), aleyron qatlam zarrachalari, boshqa va begona o‘simliklarning qora rangdagi urug‘larning mavjud bo‘lishi, makaron mahsulotlarining tashqi ko‘rinishini yomonlashtiradi, chunki ular mahsulot yuzasida qora hollar (nuqtalar) holida ko‘rinadi. [3].

g) Un zarrachalarining o‘lchamlari (granulometrik tarkibi). Unning boshqa sifat ko‘rsatkichlari bir xil bo‘lgan holda, un zarrachalarining o‘lchamlari 150...400 mkm oralig‘ida bo‘lishi makaron mahsulotlarining sifatiga sezilarli ta’sir ko‘rsatmaydi. O‘lchamlari 400...500 mkm bo‘lgan qattiq bug‘doyni tortish mahsulotlari esa xamirni qorishda namlikni singdirib olishga ulgurmaydi, va presslash vaqtida ham o‘ziga xos bo‘lgan xususiyatlarini saqlab turadi. Tortishga yuborilayotgan qattiq bug‘doy doni turkumlari tarkibida 15% gacha yumshoq bug‘doy donlarining mavjud va qattiq bug‘doyning o‘zi ham to‘liq shaffof bo‘lmaydi. Shuning uchun ham yirik oq zarrachalar quritilgan mahsulotlar yuzasida oq nuqtalar holida ko‘rinib turadi. Bu mahsulotlar rangining bir xilligini buzadi, ularning tashqi ko‘rinishini yomonlashtiradi. [4]

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, kleykovinasining bog‘lovchilik qobiliyatidan pastligi, tashish vaqtida kuchli changlanishi, bunkerlarda to‘planib qolishi, qorish vaqtida suv ulushining ko‘pligi, nam mahsulotlarni uzoqroq vaqt quritishni talab qilganligi sababli, nonvoylik uni makaron mahsulotlari ishlab chiqarishda yaroqsiz hisoblanadi. Ammo shuni ham nazarda tutish lozimki, nonvoylik unidan tayyorlangan mahsulotlarning pastroq sifati ular narxining pastligi bilan «qoplanishi» mumkin. Bu esa ularni sotishni kengaytirishi imkoniyatini berganligi sababli iqtisodiy tomondan foydali hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Adizov R.T. va boshqalar. Donshunoslik asoslari. Kasb-hunar kollejlari uchun oquv qo‘llanma/ T.: «ILM ZIYO», 2004.-208 b.

2. Boboev S.D., Ergasheva X.B., Tursunova N.N. «Mahalliy nav bug‘doyning texnologik va unboplik xossalari». O‘zbekiston agrar fani xabarnomasi, № 1(11). – T., 2003.

3. Tursunova N.N. Агрометереологические условия выращивания пшенисы в Узбекистане. ―ВОПРОСЫ НАУКИ И ОБРАЗОВАНИЯ‖ элесртонис жоурнал, июн 2017 №6 (7). s. 45-46

4. Tursunova N.N. Makaron mahsulotlari uchun bug‘doydan un tortishning o‘zgachaligi. «Ekologik muammolarni yechishda fan va ta’limning o‘rni» respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. Buxoro, 2018. 87-90 b.

UO‘K: 665.3:664.34

ILG‘OR TEXNOLOGIYANI QO‘LLAB, SEDANA URUG‘IDAN SIFATLI MOY OLISH

Z.D.Xolmurodova, Z.B.Xoliqov, A.Saidov
Qarshi davlat texnika universiteti

Annotatsiya. Ushbu ilmiy maqolada, sedana urug‘i (Nigella sativa L.,) dan qadimda ham tabiiy davolash sifatida foydalanganligi va bugungi kunda ham qora sedana urug‘idan moy ishlab chiqarish dolzarb ekanligi ko‘rsatilgan. Shuningdek sedana urug‘idan moy ishlab chiqarishda, issiqlik bilan ishlov berishning moy chiqishga ta’siri va issiqlik ta’sirida hujayra buzilishi, mikroskopik tadqiq qilingan va sedana urug‘iga issiqlik bilan ishlov berish texnologik jarayonining, muqobil parametri ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: Sedana (Nigella sativa L.,), presslash usuli, mikroskop, issiqlik bilan ishlov berish, qora sedana.

Аннотация. В данной научной статье показано, что семена черного тмина (Nigella sativa L.) использовались в древности в качестве природного лекарственного средства, и что производство масла из черного тмина остается актуальным и сегодня. Также микроскопически изучено влияние термической обработки на выход масла и повреждение клеток под воздействием тепла при производстве масла из черного тмина, и разработан

альтернативный параметр технологического процесса термической обработки семян черного тмина.

Ключевые слова: черный тмин (Nigella sativa L.), метод прессования, микроскоп, термическая обработка, черный тмин.

Abstract. This scientific article demonstrates that black cumin seeds (Nigella sativa L.) were used in ancient times as a natural medicine, and that black cumin oil production remains relevant today. The effect of heat treatment on oil yield and heat-induced cell damage during black cumin oil production was also microscopically studied, and an alternative process parameter for heat treatment of black cumin seeds was developed.

Key words: black cumin (Nigella sativa L.), pressing method, microscope, heat treatment, black cumin.

Kirish: Dunyo aholisining ko‘payishi, ekin maydonlarining qisqarishi va chuchuk suv manbalarining yetishmasligi natijasida aholini oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta’minlash muammosi keskinlashmoqda. Shuning uchun texnologik jarayonlarni jadallashtirish, olinadigan mahsulot miqdorini ko‘paytirish va sifatini oshirish oziq-ovqat sanoatining dolzarb vazifalaridan hisoblanadi. Bu borada yangi qayta ishlash texnologiyalarini yaratish, mavjudlarini takomillashtirish, ayniqsa, turli noan’anaviy moyli xom ashyolarni qayta ishlashni tashkil etish muhim ahamiyat kasb etadi [1].

Qadimda ham o‘simliklar tabiiy davolash vositasi sifatida ishlatilgan bu Hindiston tibbiyot tizimining asosini tashkil qiladi. Dunyo aholisining aksariyati sog‘liq bilan bog‘liq muammolar uchun o‘simlik terapiyasiga tayanadi. Nigella sativa odatda qora sedana deb atalib, ko‘plab kasalliklarga davo sifatida keng qo‘llaniladi. Qora sedana urug‘lari va moyi oziq-ovqat va tibbiyotda qo‘llaniladi va hind an'anaviy tibbiyot tizimlarida (Unani va Ayurveda), xitoy tabobatida, arab va islom tibbiyotida qo‘llanilib keladi. Qora sedana (Nigella sativa L., oila: Ranunculaceae) bir yillik o‘simlik bo‘lib, ziravorlar hosil qiluvchi o‘simlik sifatida tijorat ahamiyatidan tashqari dorivor maqsadlarda keng qo‘llaniladi. Qora sedana urug‘i butun dunyoda xalq tabobatida bir qator kasalliklarni davolash va oldini olish uchun ishlatiladi [2-3]. Biz oldingi ilmiy tadqiqot ishlarimizda o‘simlik moylari ishlab chiqarish usullari bo‘yicha bir nechta tadqiqotlar olib bordik [4].

Yuqoridagilardan kelib chiqib qora sedana urug‘iga issiqlik bilan ishlov berish bo‘yicha tadqiqotlar quyida keltirilgan holda amalga oshirildi.

Qora sedana (*N. Sativa*) urug‘iga issiqlik bilan ishlov berishning mikroskopik tadqiqi.

Qora sedana (*N. Sativa*) urug‘iga issiqlik bilan ishlov berishning yog‘ hujayralarini buzilishiga ta’siri bo‘yicha tadqiqotlar olib borildi**. A-rasm**da qora sedana urug‘iga issiqlik bilan ishlov berilmasdan mikroskopda ko‘rilganda hujayra ichida moy buzilmasdan saqlanganini ko‘zatildi.



Issiqlik namlik yo‘qotilishi va sedana urug‘i yadrosining o‘zgarishi

B-rasmda 30 daqiqa davomida 80°C dan 130°C gacha bo‘lgan harorat oralig‘ida qora sedana urug‘iga issiqlik bilan ishlov berish jarayoni o‘rganildi 80°C haroratda urug‘ namligining 1,01% ga, 90°C haroratda urug‘ namligining 1,80 % ga, 100°C haroratda urug‘ namligining 2,05% ga, 110°C haroratda urug‘ namligining 2,05% ga, 120°C haroratda urug‘ namligining 2,44% ga va 130°C da 2,56% ga kamayganligini ko‘rsatdi (jadval-1). Jadvalda ko‘rinib turibdiki, sedana urug‘iga to‘g‘ridan-to‘g‘ri issiqlik bilan ishlov berilganda 100°C haroratda urug‘ namligining 2,05% ga kamayganligini va urug‘ hujayrasi buzilib moy maksimal chiqish holati kuzatildi, buni 1-jadvalda ham ko‘rishimiz mumkin harorat ko‘tarilishi bilan qora sedana urug‘i yadrosida kuyish sodir

bo‘lgan bunda urug‘ tarkibidagi biologik faol moddalar parchalanishga olib keladi.

Yuqoridagi olib borilgan tadqiqotlar tahlil qilinib Qora sedana urug‘idan moy ishlab chiqarishda texnologik jarayonni 30 daqiqada 100°C haroratda yo‘lga qo‘yish kerak dega xulosaga keldik.

1-jadval

№	1	2	3	4	5	6	7
Issiqlik bilan ishlov berish harorati, °C	Issiqlik bilan ishlov berilmagan	80	90	100	110	120	130
Namlikni chiqarish, %	-	1,01	1,80	2,05	2,20	2,44	2,56
Mikroskopda urug‘ yadrosining ko‘rinishi							

Qora sedana urug‘iga 30 daqiqa davomida issiqlik bilan ishlov berish va namlikni o‘qotilishi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Jasur Farmonov, Kamar Serkayev, Murodjon Samadiy (2021) Investigation of the influence of the pre-drying process on the extraction of oil from sesame seeds. Scientific and technical journal of Namangan institute of engineering and technology 6 (1), 60-63.

2. Ahmad, A., Husayn, A., Mujib, M., Xon, SA, Najmi, AK, Siddiq, NA va Anvar, F. (2013), “Terapevtik salohiyatiga sharh Nigella sativa: Mo‘jizaviy o‘t", Osiyo Tinch okeani tropik biotibbiyot jurnali, 3(5), 337-352.

3. Huchchannanavar, S., Yogesh, LN va Prashant, SM (2019), “Nigella qora urug‘i sativa: ajoyib urug‘ "Kimyoviy tadqiqotlar xalqaro jurnali, 7(3), 1320-1324.

4. Жасур Байкараевич Фармонов, Фаррух Фарходович Давлатов, Шерзод Мамарасулович Кодиров, Камар Пардаевич Серкаев, Самадий Муроджон Абдусалимзода, (2021) Получение масел с применением метода холодного прессования. Universum: технические науки 5 (86), 21-

UDK 633. 11. 631. 52

ARPA NAV VA NAMUNALARIDA O’SUV DAVRI

Sarmanov Sherzod Shermaxmatovich
Qarshi davlat universiteti
Tursunova Alfiya Shomurodovna
Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalar universiteti

Annotatsiya. Respublikaning janubiy mintaqalari Qashqadaryo tuproq iqlim sharoitlarida mos sug‘oriladigan yerlar uchun qurg‘oqchilikka, kasalliklarga chidamli, tezpishar va maxsuldor navlarni yaratishda xorijiy va mahalliy arpa nav va namunalarini fenologik va biometrik ko’rsatkichlarini tahlil qilishga qaratilgan.

Kalit so‘zlar: arpa, nav, namuna, seleksiya, don, manba, unib chiqish, tuplash, boshoqlash, pishish, oxirgi bo’gin, sifat, mahsuldorlik, chidamlilik.

Аннотация. Целью является анализ фенологических и биометрических показателей зарубежных и местных сортов и образцов ячменя для создания засухоустойчивых, болезнетворных, скороспелых и продуктивных сортов для орошаемых земель, пригодных

для почвенно-климатических условий Кашкадарьи южных регионов республики.

Ключевые слова: ячмень, сорт, образец, отбор, зерно, источник, прорастание, пучкирование, колошение, созревание, последний слог, качество, продуктивность, выносливость.

Abstract. The aim is to analyze the phenological and biometric indicators of foreign and local barley varieties and samples in order to create drought-resistant, disease-resistant, early-maturing, and productive varieties for irrigated lands suitable for the Kashkadarya soil and climatic conditions of the southern regions of the republic.

Keywords: barley, variety, sample, selection, grain, source, germination, bunching, earing, ripening, last syllable, quality, productivity, endurance.

Kirish. Dunyoda arpa chorvachilikda va parrandachilikda qo'llaniladigan qimmatli ozuqa, pivo sanoatida xomashyo, yorma va omuxta yem sanoatining asosiy xom-ashyosi hisoblanadi. Yangi serhosil, yuqori sifatli va yuqori mahsuldorlik imkoniyatlariga ega, kasalliklar va tashqi noqulay sharoitlarga chidamli yangi navlarni yaratish uchun eng avvolo mazkur talablarga to'la javob beradigan boshlang'ich manbaalarni aniqlash seleksioner olimlar oldida turgan dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

O'suv davrining davomiyligi arpaning muhim biologik xususiyati bo'lib, uning mahsuldorligini sezilarli darajada aniqlaydi.

Qashqadaryo viloyatining tabiiy iqlim va tuproq sharoitlari bilan bir- biridan keskin farq qiladi. Shuning uchun tabiiy iqlim va tuproq sharoitlarini hisobga olgan holda g'alla navlarini har bir hududda sinash va har bir sharoit uchun mos, serhosil, qurg'oqchilikka va kasalliklarga chidamli navlarni tanlash, ilmiy- amaliy, jihatdan ham muhim ahamiyatga ega.

2025 yil hosili uchun Qarshi tumanidagi Xolyorova Asila fermer xo'jaligi hududida arpaning 20 ta nav va namunalar 3 qaytariqda sinovdan o'tkazildi.

P.P.Luk'yanenko (1973), V.S.Belolyubskaya (2002), S.Kato va M.Yoroyamaning (1992) ma'lumotiga ko'ra, unib chiqish boshoqlash davri ertapisharlikni aniqlashda muhim ahamiyatga ega bo'lib, navning biologik xususiyatiga bog'liq bo'ladi.

Haroratning yuqori bo'lishi va havoni nisbiy namligining pasayishi, ya'ni havoning quruq bo'lishi donning tezda pishishiga sabab bo'ladi, oqibatda don sifati va hosildorlik nisbatan kamayadi.

Bahorgi arpaning fenologik kuzatuvlarda asosiy davrlar (unib chiqish, tuplash, naychalash, boshoqlash, sut, mum, to'liq pishish), yotib qolishga, kasalliklarga chidamlilik dala sharoitida o'rganildi.

1-jadval.

Kolleksiya ko'chatzoridagi o'simliklarni tabaqalash.

№	Fenologik va biometrik ko'rsatkichlar andozaga nisbatan	Namunalar soni	Arpaning kolleksiya ko'chatzorida		
			yuqori	o'rta	past
1	Unib chiqish kuni	20	4	11	0
2	Tuplash kuni	20	4	9	0
3	Boshoqlashgacha bo'lgan kun	20	8	3	4
4	O'simlik bo'yi (sm)	20	16	2	2
5	Oxirgi bo'g'in uzunligi (sm)	20	15	3	2
6	Boshoqdagi donlar soni (dona)	20	14	3	3

Sug'oriladigan yerlarda kolleksiya ko'chatzori fenologik kuzatuvlar olib borilganda asosan eng muhumi unib chiqqan kundan to pishishgacha bo'lgan kun oralig'ida, o'simliklarning rivojlanish fazalarida biotik va abiotik omillarga chidamliligi dala sharoitida o'rganildi.

Boshoqli don ekinlaridan yuqori hosil yetishtirishda eng asosiy texnologik omillarga, maqbul muddatlarga va ekish me'yoriga hamda ekish chuqurligiga rioya qilish zarur.

O'simliklarning urug'i unib chiqish, tuplash, naychalash, boshoqlash, gullash va to'liq pishish kabi rivojlanish bosqichlarini o'tadi. O'simlikning kamida 25 foizi ma'lum bosqichga kirgan payt

uning boshlanishi va 75 foizi kirgan paytidan boshlab shu bosqichga to‘liq o‘tgan hisoblanadi.

Kolleksiya nav sinash ko‘chatzorida o‘rganilgan nav va namunalar andoza navga nisbatan tuplash fazasida 13 ta namunalarda jarayon oldinroq rivojlanganligi bilan ajralib turadi, chunki tinim davriga qadar ko‘proq ko‘chat unib chiqishi va mahsuldor poyalarning oshishiga olib keladi.

Naychalash va boshoqlash fazalarida ham andoza navga nisbatan 8 ta namunalarda andoza navga nisbatan ertaroq boshlanganligi, bundan tashqari pishish fazasiga andoza navga nisbatan 1 ta namuna Victoria/M2//-4-30… eng erta pishgani ya’ni vegitatsiya davri 88 kunni t ashkil etganligini kuzatish mumkin. Bundan tashqari, ushbu ko‘chatzorda ikki qatorli arpa namunalarida andoza navga nisbatan 5 ta namunalarda teng, qolgan 14 ta namunalarda kechroq pishganligi kuzatildi. Shuningdek, 3 ta namunalarda andoza Iga nisbatan kech pishganligi ya’ni vegitatsiya davri 95 kun bo‘lganligi va andoza navdan 5 kun kech pishganligini kuzatish mumkin.

Arpa namunalari bahorda ekilganda unib chiqish-boshoqlash 56 kundan 65 kungachani tashkil etdi. Bunda ob-havoning issiq kelishi unib chiqish-boshoqlash davriga sezilarli darajada ta’sir etdi.

Arpada butun vegetatsiya davri muhim ko‘rsatkich ekanligini qayd etish joizdir, sababi bu namunalar issiqlikka va qurg‘oqchilikka uchramasdan don tabiiy jihatdan to‘liq pishib yetiladi.

O‘tkazilgan tadqiqotlar natijasiga ko‘ra, bu ko‘rsatkich, ya’ni donning to‘lishish davri unib chiqish-boshoqlash davriga nisbatan deyarlik ikki barobar qisqa vaqtni tashkil etdi.

Navlarni o‘sish-rivojlanishini baholash, o‘simliklar bo‘yi, rangi, boshog‘ining kattaligi, boshoq zichligi, $1m^2$ da o‘simlik tup sonini aniqlash va boshqa o‘lchash ishlari olib borildi.
O‘simliklarni o‘suv davri davomida har xil tashqi-muhit ta’siriga, jumladan yotib qolishga, kasalliklarga, o‘simliklar chidamliligi, boshoqdagi donlarning to‘kilishi, ko‘rsatgichlari ko‘z chamalash usulida baholandi.

Tajriba maydonida arpa nav va namunalarining o‘simlik bo‘yi eng muhum ko‘rsatgichlardan biri bo‘lib, namunalarda 57 sm dan 82 sm gacha bo‘lganligi aniqlandi. Andozaga nisbatan o’rganilganda, eng uzun bo’yli namunalar 80-82 sm NP-2019/A-7 va Sadik-02/Sararood-1ICB00-1563-2 ekanligi aniqlandi. Namunalar ichida andozadan 20 sm yuqori ko’rsatkichda ega bo’ldi, boshqa namunalarda andozaga nisbatan past bo’yli ekanligi aniqlandi.

Oxirgi bo’g’in uzunligi tahlil qilinganda, andozada 23sm Voha, 19 sm Potron 2025 ekanligi, andozaga nisbatan 1 ta namunada yuqori ko’rsatkich 28 sm HP 4/18 qolgan namunalarda esa andozaga nisbatan past ekanligi

Kertesz F.H (1996), Corbellini va boshqalarning(1996) tadqiqot natijalarida o‘simlikning don to‘lishish davrida haroratning yuqori bo‘lishi hosilning sezilarli darajada kamayishiga asosiy sabablardan biri ekanligi aniqlangan.

Boshoqning vazni boshoqdagi donning to‘lishishiga o‘zaro uzviy bog‘liq va don to‘lishish davrida havo harorati 20^0S bo‘lishi boshoq vazniga ijobiy ta’sir etadi.

Bahorgi arpa nav va namunalarning rivojlanishdagi bosqichi ya’ni boshoqlash fazasidagi boshoqdagi donlar sonini tajribada ko’rish mumkinki,Andoza naviga nisbatan 2 ta nav yuqori ko’rsatkichga ega.4 ta navda esa o’rtacha ko’rsatkichga ega. Andozaga nisbatan ustunroq bo‘lgan barcha namunalar seleksiya jarayonida foydalanish uchun tanlab olindi.

Arpadagi hosildorlik asosan mahsuldor poyalar, boshoqdagi don soniga va bir boshoqdagi don vazniga bog‘liq.

Shuningdek,ilmiy tadqiqot tajribasining keyingi bosqichlarida hosildorlikni oshirish borasida bir qancha ishlarni amalga oshirish rejalashtirilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020—2030 yillarga mo‘ljallangan strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5853 son farmoni. 2019 y.

2. D.T.Abdukarimov. “Donli ekinlar seleksiyasi va urug‘chiligi”. Toshkent 2015 y.

3. Mamatqulov T. Arpa seleksiyasida boshlang‘ich manballarning axamiyati. Respublika ilmiy konf. Materiallari. Toshkent 2009. B 32-33.

4. Ходжакулов Т.Х. Корреляционный анализ в осенке сортов и гибридов ячменя. Труды УзНИИЗ. Ташкент, вып 17. С 73-77.

УДК 633.853.74

KUNJUT (SESAMUM INDICUM L) NAV VA NAMUNALARIDA LABORATORIYA SHAROITIDA QURG‘OQCHILIKKA CHIDAMLILIGINI BAHOLASH.

Norov Ilxom Chori o‘g‘li,
Janubiy dehqonchilik ilmiy tadqiqot instituti
Amanova Maxfurat Eshmurodovna,
Toshkent davlat agrar universiteti

Annotatsiya. Hozirgi kunda global qurg‘oqchilikka chidamli bo‘lgan hosildor kunjut nav va namunalarini, seleksion ashyolarni yaratish dolzarb masala bo‘lib qolmoqda. Ushbu maqolada kolleksiya namunalar ko‘chatzorida o‘rganilayotgan Kunjut (*Sesamum indicum L*)ning 25 ta nav va namunalari urug‘larining laboratoriya sharoitida qo‘zoqcha hosil qilish fazasida umumiy suv, suv taqchiligi va suv saqlash qobiliyati kabi ma’lumotlar andoza nav bilan taqqoslangan holda o‘rganildi. Ushbu maqolada yuqori ko‘rsatkichga ega bo‘lgan namunalarni tanlash ishlari keltirilgan va seleksiyaning keyingi bosqichilariga tavsiya etilgan.

Kalit so‘zlar:kunjut, qurg‘oqchilik, umumiy suv, suv taqchiligi,suv saqlash qobiliyati, nav, namuna, laboratoriya, kolleksiya ko‘chatzori.

Аннотация. В настоящее время актуальным вопросом остается создание продуктивных сортов и образцов кунжута, селекционного материала, устойчивых к глобальной засухе. В этой статье такая информация, как общее количество воды, дефицит воды и водоемкость 25 сортов и образцов кунжута (sesamum indicum L), изученных в питомнике коллекционных образцов в лабораторных условиях фазы посева, сравнивается с моделью. сорт был изучен. В данной статье представлена работа по отбору гряд с высоким индексом и рекомендована для следующих этапов отбора.

Ключевые слова: кунжут, засуха, общий объем воды, дефицит воды, емкость хранения воды, сорт, образец, лаборатория, коллекционный питомник.

Annotation. Currently, the pressing issue remains the creation of productive varieties and samples of sesame, breeding material, resistant to global drought. In this paper, information such as total water quantity, water deficit and water capacity of 25 varieties and accessions of sesame (sesamum indicum L) studied in a collection nursery under laboratory conditions during the sowing phase is compared with the model. variety has been studied. This article presents work on selecting ridges with a high index and is recommended for the next stages of selection.

Key words: sesame, drought, total volume of water, water deficit, water storage capacity, variety, sample, laboratory, collection nursery.

Kirish. Dunyoda bugungi kunda suv resurslari chegaralanganligi, iqlim o‘zgarishi, aholi sonini oshib borishi va oziq-ovqat hafsizligi birinchi darajadagi muammoga aylantirdi. Shu sababli har bir qarich yerdan unumli foydalanish hamda intensiv usulda mahsulot yetishtirishni davrning o‘zi taqoza qilmoqda. Shunday ekan ob-havoning noqulay iqlim sharoitiga mos bo‘lgan kunjutning nav va boshlang‘ich ashyolarini yaratish bugungi kundagi dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi.

Qurg‘oqchilikning kuchayishi mintaqalarda, ayniqsa qurg‘oqchil va yarim qurg‘oqchil hududlarda global iqlim o‘zgarishining oqibatlaridan biridir. Kunjut o‘simlikgi qurg‘oqchilik sharoitiga mos keladi, bu esa tegishli miqdorda sifatli o‘simlik moy ishlab chiqarishi mumkin [5].

Mitra Ramezani, Kamal Kazemitabar, Hamid Najafizarini ma’lumotlariga ko‘ra ushbu va avvalgi tadqiqot natijalarini o‘simliklarning qurg‘oqchilikka chidamliligida ildiz tizimining rolini hisobga olsak, ildiz belgilari suv tanqisligi sharoitida ekish va kunjutni ko‘paytirish dasturlarida foydalanish uchun mos o‘simlik genotiplarini tanlashda yaxshi mezondir. Darab1 genotipi qulay ildiz tizimi tufayli noqulay namlik sharoitlariga bardosh bera olgan va stress sharoitida hosilni saqlab qolgan[1].

K. Gopika, P.Ratnakumar va boshqalarning ko‘p yillik tadqiqotlari natijalariga ko‘ra kunjutning potentsial hosildorligi hosilni anglash qiyin, chunki hozirgi iqlim o‘zgarishi va suv tanqisligi oqibatlari tufayli hosil suv bilan cheklangan sharoitlarga moyil. Kuchli namlik tanqisligi hosilning o‘sishi va hosildorligiga keskin ta’sir qiladi.Kunjutdagi namlik tanqisligiga chidamli genotiplarni tanlash uchun ishlatilishi mumkin bo‘lgan turli xil fiziologik xususiyatlarni va olingan

indekslarni tushunishga mutlaq ehtiyoj bor [2].

Tadqiqot materiallari va uslubi. Janubiy dehqonchilik ilmiy tadqiqot institutiga qarashli tajriba dalasida o‘simliklar genetik resurslari ITI Milliy genbankida saqlanayotgan kunjut jahon genofondidan dunyoning turli geografik xududlaridan jamlangan 100 namunalarini ekib o‘rganildi. Ushbu kunjut nav va namunalaridan 25 tasida qo‘zoqcha hosil qilish fazasida o‘rganilayotgan nav va namunalardan tanlab olingan o‘simliklar namunalari qurg‘oqchilikka chidamlilik xususiyatini o‘rganish maqsadida institutning “O‘simliklar fiziologiyasi va biokimyosi” laboratoriyasiga keltirildi. O‘simliklarda suv taqchilligi L.S.Litvinov (1988yy) uslubi bo‘yicha tahlil qilindi. Ish tartibi quyidagicha olib boriladi.

--quyosh chiqishidan 30 daqiqa oldin o‘simliklardan namuna olinadi;

--barglar kesilib, yopiq stakanlarda laboratoriyaga o‘tkaziladi;

--barglarning asosi kesilib va tezda tarozida tortiladi;

-- barglar 2 soat davomida to‘liq suvga bo‘ktirib qo‘yiladi;

--suv bilan to‘yingandan so‘ng, barglar filtr qog‘ozi ustida quritiladi;

--barglar qayta tarozida tortiladi;

--105°C haroratda 6 soat davomida quritiladi. So‘ngra qurigan barglar yana tarozida tortiladi.

Barglarda suv taqchilligi aniqlash formulasi:

ST=(v-a)/ (v-b) * 100%, bu yerda:

V - to‘yingandan keyin suv miqdori; a - quyosh chiqishidan oldin suv miqdori; b - quritilgan barg massasi.

Suv miqdori barglarning nam va quruq og‘irligi o‘rtasidagi farq bilan aniqlandi (ularning nam yoki quruq vazniga foiz sifatida).

1-jadval

Nav va namunalarda qo‘zoqcha hosil qilish fazasida suv saqlash qobiliyati (Qarshi-2023-2025-yy)

Qo‘zoqcha hosil qilish fazasi				
Nav va namunalar	Kelib chiqishi	Umumiy suv %	Suv taqchilligi,%	Suv saqlash qobiliyati, %
Toshkentskiy-122 (andoza)	O‘zbekiston	81,62	52,03	15,04
K-7	O‘zbekiston	80,77	54,56	7,33
K-17	O‘zbekiston	80,89	43,80	9,64
K-60	O‘zbekiston	81,75	43,14	4,75
K-53	O‘zbekiston	84,26	50,02	7,39
Mahalliy-1	O‘zbekiston	82,48	46,37	2,42
Mahalliy-4	O‘zbekiston	83,49	40,85	6,05
Mahalliy-5	O‘zbekiston	81,15	48,71	6,55
K-82	O‘zbekiston	84,75	52,62	3,25
K-275	O‘zbekiston	81,44	47,82	14,58
K-462	O‘zbekiston	81,85	44,63	11,18
K-156	Turkiya	82,00	40,52	20,03
K-160	Turkiya	82,70	50,16	7,79
K-280	Turkiya	80,87	53,84	2,90
K-187	Turkiya	84,62	41,11	17,37
K-281	Turkiya	83,33	57,37	12,86
K-195	O.Rados	82,91	41,85	9,49
K-202	O.Rados	83,59	57,71	7,62
K-596	Kitay	78,83	52,83	22,09
K-277	Misir	80,58	39,75	3,71
K-214	Suriya	83,08	48,52	6,24
K-241	Azarbayjon	83,24	42,09	5,91
K-37	Germaniya	84,13	36,02	10,45
K-662	Sudan	84,07	40,53	8,16
K-289	Iron	82,07	38,10	5,27
Eng past ko‘rsatkich		78,83	36,02	2,42
O‘rtacha ko‘rsatkich		82,42	46,60	9,12
Eng yuqori ko‘rsatkich		84,75	57,71	22,09

Ho‘l og‘irligini aniqlab bo‘lgach, barglarning quruq massasini aniqlash uchun qog‘ozdan tayyorlangan paketchalarga joylashtirildi va quritgich shkafida 105°S da to‘la quritildi. Quritilgan barglarning og‘irligi xam aniqlandi. Bunda, barglarning suv taqchillik darajasini aniqlash uchun barglarning suv taqchillik darajasi, % da aniqlandi, barglarning shimib olgan qo‘shimcha suv miqdori, g da o‘lchandi, barglarni suvga botirilgan og‘irligidan ularning dastlabki og‘irligi ayiriladi, barglardagi umumiy suv miqdori, grammda (suvga botirilgan barglarning og‘irligidan ularning quruq og‘irligi ayirish yo‘li bilan aniqlanadi.

Tahlil va natijalar. Quyidagi jadvalda nav va namunalarning qurg‘oqchilikka chidamlilik darajasi keltirilgan. Laboratoriya tadqiqot natijalariga ko‘ra, o‘rganilayotgan nav va namunalarda umumiy suv miqdori qo‘zoqcha hosil qilish fazasida o‘rtacha 78,83 % dan 84,75 % gacha, bo‘lganligi aniqlandi. Andoza Toshkentskiy-122 navida umumiy suv miqdori qo‘zoqcha hosil qilish fazasida 81,62 % ni tashkil qilganligi aniqlandi. Andoza navdan yuqori ko‘rsatkichga ega bo‘lgan namunalar soni 15 tani tashkil etgan bo‘lsa, andoza navga nisbatan past ko‘rsatkichga ega bo‘lgan namunalar soni 7 ta bo‘lganligi aniqlandi (1-jadval).

Tadqiqot natijalariga ko‘ra kunjut nav va namunalarida suv taqchiligi ko‘rsatkichi laboratoriya sharoitida ham aniqlandi. Bunda o‘rtacha ko‘rsatkich 36,02% dan 57,71% gach bo‘lgani aniqlandi. Andoza nav Toshkentskiy-122 navida bu ko‘rsatkich yani suv taqchiligi ko‘rsatkichi qo‘zoqcha hosil qilish fazasida 52,03 %ni tashkil qilganligi aniqlandi. Andoza navdan yuqori ko‘rsatkichga ega bo‘lgan namunalar soni 6 tani tashkil qilgani ma’lum bo‘ldi. Andoza navdan past ko‘rsatkichga ega bo‘lgan namunalar soni esa 18 tani tashkil qilgani aniqlandi.

Suv saqlash qobiliyati L.S. Litvinov (1988yy) metodi bo‘yicha o‘rganildi[4,5].Barglardagi suv saqlash qobiliyatini aniqlash uchun ertalab soat 8-9 oralig‘ida to‘la shakllangan barglar olinib, polietilen paketlarda yoki namlangan matoga o‘rab laboratoriyaga keltiriladi. Keltirilgan barglar og‘irligi (v) tarozida tortilib, termostatda 30°C da 3 soat davomida so‘litishga qo‘yiladi. So‘litilgan barg massasi (v_1) tarozida o‘lchanib, 105°C haroratda 6 soat mobaynida termostatda quritiladi. Quritilgan barg massasi (b) o‘lchanib, quyidagi formula bo‘yicha suv saqlash qobiliyati aniqlanadi.

$$SQ=(v-v_1)/(v-b)*100\ \%.$$



1-rasm. Kunjut nav va namunalarida suv saqlash qobiliyati (Qarshi-2023-2025-yy)

Laboratoriya tahlili natijalariga ko‘ra kunjut nav va namunalarida suv saqlash qobiliyati o‘rganilganda o‘rtacha ko‘rsatkich 2,42 % dan 22,09 % gacha bo‘lgani aniqlandi. Bunda andoza nav Toshkentskiy-122 navida suv saqlash qobiliyati 15,04 % ni tashkil qilgani aniqlandi,andoza navdan yuqori ko‘rsatkichga ega bo‘lgan namunalar soni 3 tani tashkil qilgani malum bo‘ldi. Andoza navdan past ko‘rsatkichga ega bo‘lgan namunalar soni esa 21 tani tashkil qilgani aniqlandi.

Xulosa. Tahlil natijalariga ko‘ra, kunjut nav va namunalarida laboratoriya sharoitida

qurg‘oqchilikka chidamlikni baholashda quydagi xulosaga kelish mumkinki, Andoza Toshkentskiy-122 navida qo‘zoqcha hosil qilish fazasida suv saqlash qobiliyati yuqori bo‘lgan namunalar soni 3 tani, suv taqchiligi bo‘yicha andoza navdan yuqori ko‘rsatkichga ega bo‘lgan namunalar soni 6 tani va umumiy suv miqdori bo‘yicha 17 ta namuna andoza navdan yuqori ko‘rsatkichga ega bo‘lganligi aniqlandi va seleksiya jarayonlarida foydalanish maqsadida qurg‘oqchilikka chidamli tizma sifatida tanlab olindi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Mitra Ramezani [1] Kamal Kazemitabar Hamid Najafizarini Ramezani, Mitra va boshq. Investigating the effect of different humidity conditions on some morphological traits of the root and shoot in sesame (Sesamum indicum L.) (2021): 193-210.

2. K. Gopika, P. Ratnakumar,Arti Guhey,Ch.L. N. Manikanta,Brij B. Pandey, K. T. Ramya A. L. Ratnakumar Susam (*Sesamum indicum* L.) tarkibidagi tuproq namligi sharoitida tolerant genotiplarni aniqlash uchun fiziologik xususiyatlar va indekslar.

3. Litvinov, L.S. Metodы otsenki zasuxoustoychivosti/L.S. Litvinov//Semenovodstvo.–1933.–№6.– S.7–12.

4. Litvinov, L.S. O pochvennoy zasuxe i ustoychivosti k ney rasteniy/ Izd-vo Lvovskogo gos. un-ta, 1951.– 214 s.

5. https://www.sid.ir/paper/153730/en

UDK 636:551.583:631.5

GLOBAL IQLIM O‘ZGARISHI SHAROITIDA JANUBIY HUDUDLARDA CHORVACHILIKNI RIVOJLANTIRISH UCHUN RESURS TEJOVCHI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH ISTIQBOLLARI

R.Ya.Nurillayev E.Orziyev
Qarshi davlat texnika universiteti

Annotatsiya. Ushbu maqolada global iqlim o‘zgarishi sharoitida O‘zbekistonning janubiy hududlarida chorvachilik sohasini rivojlantirishda resurslardan samarali foydalanishga asoslangan zamonaviy texnologiyalarning istiqbollari o‘rganilgan. Tadqiqotlar natijasida suvni tejovchi sug‘orish usullari, iqlim sharoitiga mos ozuqa ekinlari hamda elektron monitoring tizimlari chorvachilikni barqaror va samarali rivojlantirish imkonini berishi aniqlangan. Shu bilan birga, fermer va dehqon xo‘jaliklarida mazkur texnologiyalarni amaliyotga tatbiq etishda moliyaviy cheklovlar, malakali mutaxassislar yetishmasligi hamda hududiy infratuzilma bilan bog‘liq muammolar mavjudligi qayd etilgan. Maqolada ushbu to‘siqlarni bartaraf etish maqsadida subsidiya mexanizmlarini takomillashtirish, kadrlar tayyorlash tizimini kuchaytirish, elektron monitoringni keng joriy etish, iqlim o‘zgarishiga moslashgan ozuqa ekinlari, chorva turlari va zotlarini rivojlantirish bo‘yicha takliflar ilgari surilgan.

Kalit so‘zlar: resurslardan oqilona foydalanish texnologiyalari, suvni tejaydigan sug‘orish tizimlari, elektron nazorat tizimi, qurg‘oqchilik va sho‘rlanishga bardoshli ekinlar, barqaror chorvachilik, janubiy hududlar, iqlim o‘zgarishi.

Аннотация. В данной статье исследованы перспективы применения современных технологий, основанных на эффективном использовании ресурсов, в развитии животноводства в южных регионах Узбекистана в условиях глобального изменения климата. Результаты исследований показали, что водосберегающие методы орошения, кормовые культуры, адаптированные к климатическим условиям, а также системы электронного мониторинга способствуют устойчивому и эффективному развитию животноводства. Вместе с тем отмечено, что при внедрении данных технологий в практику фермерских и дехканских хозяйств существуют финансовые ограничения, нехватка квалифицированных специалистов и проблемы, связанные с региональной инфраструктурой. В статье предложены меры по устранению данных препятствий, включая совершенствование механизмов субсидирования, усиление системы подготовки кадров, расширение внедрения электронного мониторинга, а также развитие кормовых культур, видов и пород сельскохозяйственных животных,

адаптированных к изменениям климата.

Ключевые слова: технологии рационального использования ресурсов, водосберегающие системы орошения, система электронного контроля, культуры, устойчивые к засухе и засолению, устойчивое развитие животноводства, южные регионы, изменение климата.

Abstract. This article examines the prospects for applying modern technologies based on efficient resource use in the development of livestock farming in the southern regions of Uzbekistan under conditions of global climate change. The research results show that water-saving irrigation methods, feed crops adapted to climatic conditions, and electronic monitoring systems contribute to the sustainable and efficient development of livestock production. At the same time, it is noted that the implementation of these technologies in farming and dehkan households faces financial constraints, a shortage of qualified specialists, and issues related to regional infrastructure. The article proposes measures to overcome these obstacles, including improving subsidy mechanisms, strengthening the personnel training system, expanding the introduction of electronic monitoring, and developing feed crops, species, and breeds of agricultural animals adapted to climate change.

Keywords: resource-efficient technologies, water-saving irrigation systems, electronic monitoring system, drought- and salinity-resistant crops, sustainable livestock development, southern regions, climate change.

Kirish. So‘nggi yillarda global iqlim o‘zgarishi agrar tarmoqlar barqarorligiga sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. Ayniqsa, O‘zbekistonning janubiy hududlarida havo haroratining ko‘tarilishi, yog‘ingarchilik hajmining qisqarishi va mavsumiy notekisligi, qurg‘oqchilik holatlarining tez-tez kuzatilishi hamda suv resurslarining kamayishi chorvachilik sohasining barqaror rivojlanishini murakkablashtirmoqda. Hududlarda yerlarning degradatsiyaga uchrashi, sho‘rlanish darajasining oshishi va yaylovlar hosildorligining pasayishi ozuqa bazasining qisqarishiga sabab bo‘lmoqda.

Janubiy mintaqalarda an’anaviy sug‘orish texnologiyalarining past samaradorligi, katta miqdordagi suv yo‘qotishlari va ozuqa ekinlari hosildorligining kamayishi mavjud resurslardan oqilona foydalanish zaruratini yanada kuchaytirmoqda. Shu sababli, resurs tejovchi zamonaviy texnologiyalarni joriy etish iqtisodiy samaradorlikni oshirish bilan birga ekologik barqarorlikni ta’minlash va iqlim o‘zgarishiga moslashishda muhim omil hisoblanadi.

Biroq ushbu texnologiyalarni keng miqyosda tatbiq etishda moliyaviy imkoniyatlarning cheklanganligi, malakali mutaxassislar yetishmasligi, infratuzilmaning yetarli darajada rivojlanmaganligi hamda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish darajasining pastligi kabi muammolar mavjud. Bu esa davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini takomillashtirish, ilmiy ishlanmalarni amaliyotga integratsiya qilish va hududiy sharoitlarni hisobga olgan kompleks yondashuvni amalga oshirishni talab etadi.

Material va uslullar: Mazkur tadqiqotda birlamchi va ikkilamchi manbalar asosida kompleks tahlil usullari qo‘llanildi. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi hamda O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi tomonidan taqdim etilgan chorvachilik tarmog‘iga oid statistik ma’lumotlar, agroekologik ko‘rsatkichlar, yaylov fondi va ozuqa bazasi haqidagi rasmiy hisobotlar o‘rganildi.

Hududiy kesimda tahlil ishlari Qashqadaryo viloyatining G‘uzor tumani, Mirishkor tumani hamda Ko‘kdala tumani hududlarida faoliyat yuritayotgan qorako‘lchilik va fermer xo‘jaliklari misolida olib borildi. Ushbu xo‘jaliklarning ishlab chiqarish ko‘rsatkichlari, naslchilik ishlari, ozuqa yetishtirish va yaylovlardan foydalanish amaliyoti bo‘yicha hisobotlari tahlil qilindi.

Resurs tejovchi texnologiyalarni (suvni tejovchi sug‘orish tizimlari, intensiv ozuqa tayyorlash usullari, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish, zamonaviy veterinariya-profilaktika choralarini qo‘llash) joriy etish imkoniyatlari tajriba-sinov va iqtisodiy samaradorlik ko‘rsatkichlari asosida tahlil qilindi. Natijada chorvachilik mahsuldorligi, xarajatlar tarkibi va ekologik barqarorlik ko‘rsatkichlariga ta’siri kompleks baholandi.

Natijalar va tahlillar. Tadqiqot natijalari global iqlim o‘zgarishi sharoitida O‘zbekistonning janubiy hududlarida chorvachilik tarmog‘iga bosim kuchayib borayotganini ko‘rsatdi. Xususan, Qashqadaryo viloyatining G‘uzor tumani, Mirishkor tumani hamda Ko‘kdala tumani hududlarida so‘nggi yillarda havo haroratining oshishi, yog‘in miqdorining kamayishi va qurg‘oqchilik

davrlarining cho‘zilishi yaylovlar hosildorligining pasayishiga olib kelgan. Bu esa ozuqa bazasining qisqarishi va chorva mahsuldorligining beqarorlashuviga sabab bo‘lmoqda.

O‘rganilgan xo‘jaliklarda yaylovlarning tabiiy ozuqa sig‘imi pasaygani, degradatsiya jarayonlari (o‘t qoplamining siyraklashuvi, sho‘rlanish va eroziya) kuchaygani aniqlandi. Natijada chorva boshiga to‘g‘ri keladigan tabiiy ozuqa hajmi kamayib, qo‘shimcha yem-xashak xarajatlari oshgan. “G’uzor”, “Pachkamar”, “O’zbekiston” qorako’lchilik jamiyatlarida ozuqa tannarxining 15–20 foizga ortgani kuzatildi.

Shu bilan birga, resurs tejovchi yondashuvlar joriy etilgan Ko’kdala tumani fermer xo‘jaliklarda (intensiv ozuqa tayyorlash, suvni tejovchi sug‘orish tizimlari) ozuqa yetishtirish samaradorligi 10–15 foizga oshgani qayd etildi. Bu chorva mahsuldorligining barqarorlashuviga ijobiy ta’sir ko‘rsatgan.

Janubiy hududlarda suv tanqisligi asosiy muammolardan biri bo‘lib qolmoqda. An’anaviy sug‘orish usullaridan foydalanayotgan xo‘jaliklarda suv yo‘qotish darajasi yuqori ekanligi kuzatildi. Tomchilatib sug‘orish va suvni me’yorlashtirib berish texnologiyalarini qo‘llagan fermer xo‘jaliklarida esa suv sarfi 20–25 foizga qisqargan hamda ozuqa ekinlari hosildorligi oshgan. Bu resurs tejovchi texnologiyalarning iqtisodiy va ekologik jihatdan maqsadga muvofiqligini tasdiqlaydi.

Chorva mahsuldorligi va iqtisodiy ko‘rsatkichlar: Chorvachilik yo‘nalishidagi xo‘jaliklarda resurs tejovchi texnologiyalarni qo‘llash natijasida qo‘ylarning tirik vazn ortishi va nasldorlik ko‘rsatkichlarida ijobiy o‘zgarishlar kuzatildi. Ozuqa balansining yaxshilanishi va veterinariya-profilaktika tadbirlarining optimallashtirilishi hisobiga mahsulot tannarxi kamaygan hamda rentabellik darajasi oshgan.

Resurs tejovchi texnologiyalarni joriy etmagan xo‘jaliklarda esa iqlim omillari ta’sirida mahsuldorlik pasayishi va xarajatlar ortishi tendensiyasi saqlanib qolmoqda. Bu holat uzoq muddatli istiqbolda chorvachilikning iqtisodiy barqarorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, iqlim o‘zgarishi sharoitida chorvachilikni barqaror rivojlantirish uchun quyidagi ustuvor yo‘nalishlar muhim ahamiyat kasb etadi:

-yaylovlardan oqilona va almashlab foydalanish tizimini joriy etish;

-suv va ozuqa resurslaridan samarali foydalanish;

-iqlimga moslashuvchan chorva mollarini ko‘paytirish;

-qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish orqali ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish;

-ilmiy asoslangan boshqaruv va monitoring tizimini takomillashtirish.

Umuman olganda, o‘tkazilgan tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, global iqlim o‘zgarishi sharoitida janubiy hududlarda chorvachilik samaradorligini oshirish bevosita resurs tejovchi texnologiyalarni keng joriy etish, yaylov va suv resurslarini ilmiy asosda boshqarish hamda innovatsion yondashuvlarni tatbiq etish bilan chambarchas bog‘liqdir.

Xulosa: Janubiy hududlarda chorvachilikni barqaror rivojlantirish va iqlim o‘zgarishiga moslashtirish uchun resurs tejovchi texnologiyalarni keng joriy etish, yaylovlar va suv resurslarini ilmiy asosda boshqarish, shuningdek, ilmiy-tadqiqot va innovatsion yondashuvlarni tatbiq etish zarur. Bu chorvachilikning ekologik va iqtisodiy barqarorligini ta’minlashda muhim omil hisoblanadi.

Buning uchun quyidagi tadbirlarni amalga oshirish lozim:

1. Qayta tiklanuvchi energiya manbalari (quyosh panellari, biogaz) va suvni tejovchi sug‘orish tizimlaridan foydalanib, intensiv ozuqa yetishtirish texnologiyalarini joriy etish

2. Yaylovlarda degradatsiyani oldini olish uchun monitoring tizimini joriy etish, yaylovlarni tiklash va o‘t qoplamini ko‘paytirish bo‘yicha biologik va agrotexnik chora-tadbirlarni amalga oshirish.

3. Fermer va qorako‘lchilik xo‘jaliklarini zamonaviy texnologiyalar va boshqaruv yondashuvlari bo‘yicha qisqa o‘quv kurslarini tashkil qilish va maslahatlar bilan ta’minlash.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi. Chorvachilikni rivojlantirish strategiyasi 2020–2030. – Tashkent, 2020. – 64 b.

2. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi. Chorvachilik statistika ma’lumotlari. – Tashkent, 2026. – 56 b.

3. Qashqadaryo viloyati qorako‘lchilik va fermer xo‘jaliklari hisobotlari. – Qarshi, 2022–2026.

4. Xolmirzaev A., Yo‘ldoshev S. Global iqlim o‘zgarishi va chorvachilik: janubiy hududlar tajribasi // Qishloq xo‘jaligi ilmiy jurnal. – 2021. – №3. – B. 45–53.

5. FAO. Livestock production and climate change adaptation. – Rome, 2019. – 120 p

UDK 636:619:081.22

O‘ZBEKISTONDA HAYVONLARNING ELEKTRON IDENTIFIKATSIYASI: MUAMMO VA YECHIMLAR

R.Ya.Nurillayev, E.O.Orziyev, J.A.Bozorov
Qarshi davlat texnika universiteti

Annotatsiya. Mazkur maqolada O‘zbekistonda hayvonlarni elektron identifikatsiya qilish tizimini joriy etish jarayoni, uning normativ-huquqiy asoslari, amaliy natijalari va yuzaga kelayotgan muammolar tahlil qilingan. Tadqiqot davomida hayvonlarni yagona elektron registr orqali ro‘yxatga olish va monitoring qilish chorvachilik sohasini raqamlashtirish,veterinariya nazoratini mustahkamlash hamda epizootik xavfsizlikni ta’minlashda muhim ahamiyatga ega ekani aniqlangan. Tahlil natijalari shuni ko‘rsatdiki, elektron identifikatsiya tizimi yirik chorvachilik xo‘jaliklarida samarali ishlayotgan bo‘lsada, fermer xo‘jaliklari va chekka hududlarda infratuzilma va malakali kadrlar yetishmasligi kabi muammolar mavjud. Maqolada ushbu kamchiliklarni bartaraf etish uchun infratuzilmani rivojlantirish, subsidiya mexanizmlarini joriy etish, kadrlar malakasini oshirish hamda axborot-tushuntirish ishlarini kuchaytirishga qaratilgan amaliy tavsiyalar taklif qilingan.

Kalit so‘zlar: hayvonlarning elektron identifikatsiyasi, yagona elektron registr, chorvachilikni raqamlashtirish, veterinariya nazorati, epizootik xavfsizlik, electron chip, quloq birkasi, monitoring tizimi, qishloq xo‘jaligi, davlat nazorati.

Kirish. So‘nggi yillarda O‘zbekistonda qishloq xo‘jaligi va chorvachilik sohasini raqamlashtirish jarayoni sezilarli darajada jadallashmoqda. Xususan, hayvonlarni elektron identifikatsiya qilish tizimini joriy etish chorvachilikni samarali boshqarish, epizootik xavfsizlikni ta’minlash va chorvachilik mahsulotlarining sifatini nazorat qilishda muhim qadam hisoblanadi. 2025-yilda qabul qilingan “Hayvonlarni identifikatsiya qilish, ro‘yxatga olish va monitoring qilish to‘g‘risida”gi qonun ushbu jarayonni huquqiy asos bilan mustahkamladi va mamlakat miqyosida yagona elektron registrni shakllantirishni nazarda tutdi. Mazkur tizimni amaliyotga tatbiq etish bo’yicha Qishloq xo‘jaligi vazirligi huzuridagi Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo‘mitasiga keng ko‘lamli vazifalar yuklandi.

Elektron identifikatsiya tizimi har bir hayvonga alohida identifikatsiya raqamini biriktirish, uning sog‘lig‘i, harakati va egasiga oid ma’lumotlarni yagona ma’lumotlar bazasida saqlash hamda real vaqt rejimida yangilab borishni ta’minlaydi. Ushbu mexanizm kasalliklar tarqalishini tezkor aniqlash, noqonuniy savdo va kontrabanda faoliyatining oldini olish, shuningdek, eksport salohiyatini oshirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, tizimni joriy etish jarayonida hududlar o‘rtasidagi raqamli tafovut, texnik infratuzilmaning yetishmasligi, aholining xabardorlik darajasi va moliyaviy yuklama kabi bir qator muammolar yuzaga kelmoqda.

Shu nuqtai nazardan, hayvonlarni elektron identifikatsiyasi tizimining samarali ishlashi nafaqat chorvachilikni modernizatsiya qilish, balki mamlakatda veterinariya nazoratini kuchaytirish va epizootik xavfsizlikni ta’minlash uchun muhim ilmiy va amaliy ahamiyatga ega.

Materiallar va usullar. Tadqiqotning asosiy manbalari sifatida O’zbekiston Respublikasining 2025-yilda qabul qilingan “Hayvonlarni identifikatsiya qilish, ro‘yxatga olish va monitoring qilish to‘g‘risida”gi qonuni hamda 2023 yil 24 apreldagi PQ-285-сон “Chorvachilikda identifikatsiya qilish tizimi va naslchilik sohasini takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Prezident qarori, shuningdek ularga tegishli nizom va yo‘riqnomalar ishlatildi.

Tadqiqot jarayonida Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo‘mitasi tomonidan taqdim etilgan ma’lumotlar, hududiy veterinariya bo‘limlarining hisobotlari hamda chorvachilik subyektlari (fermer xo‘jaliklari va shaxsiy tomorqa egalari) faoliyatiga oid ochiq statistik ko‘rsatkichlar o‘rganildi.

Tahlil doirasiga qoramol, qo‘y, echki, ot, cho‘chqa va uy hayvonlari (it va mushuklar)ni identifikatsiya qilish amaliyoti kirgan. Elektron identifikatsiya vositalari sifatida qo‘llanilayotgan elektron chiplar, quloq birkalari va boshqa belgilash usullari tadqiqotning obyekti sifatida ko‘rib chiqildi.

Tadqiqot metodologiyasi mavjud normativ-huquqiy hujjatlar, statistik ma’lumotlar va rasmiy hisobotlarni tizimli tarzda tahlil qilishga asoslandi. Shu jarayon orqali tizimning samaradorligi, mavjud muammolar va rivojlanish tendensiyalari aniqlanib, O‘zbekistonda joriy etilgan elektron identifikatsiya tizimi amaliyoti boshqa davlatlarning tajribasi bilan qiyosiy tahlil qilindi.

Natijalar va ularning tahlili

Tadqiqot natijalari O‘zbekistonda hayvonlarning elektron identifikatsiyasi tizimi bosqichma-bosqich joriy etilayotganini hamda qisqa muddat ichida ma’lum ijobiy natijalarga erishilganini ko‘rsatdi. Xususan, normativ-huquqiy baza shakllantirilib, yagona elektron registrni yuritish mexanizmi yo‘lga qo‘yilgan. Tizimni amaliy jihatdan tashkil etish va nazorat qilish vazifasi Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo‘mitasi tomonidan amalga oshirilmoqda.

1. Identifikatsiya qamrovi va ro‘yxatga olish darajasi

Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, yirik chorvachilik xo‘jaliklarida hayvonlarni identifikatsiya qilish jarayoni nisbatan tizimli yo‘lga qo‘yilgan. Ayniqsa, qoramol va mayda shoxli hayvonlar (qo‘y, echki)ni quloq birkalari orqali ro‘yxatga olish ko‘rsatkichi yuqori.

Biroq, shaxsiy tomorqa xo‘jaliklarida va chekka hududlarda identifikatsiya darajasi pastroq ekani aniqlandi. Bunga quyidagi omillar sabab bo‘lmoqda:

- aholining tizim haqida yetarli ma’lumotga ega emasligi;
- internet va texnik infratuzilmaning yetishmasligi;
- qo‘shimcha xarajatlar (electron chip, birka).

Shu bois, hududlar kesimida qamrov darajasi o‘rtasida sezilarli tafovut mavjudligi kuzatildi.

2. Veterinariya nazorati va kasalliklar monitoringi

Elektron identifikatsiya tizimi kasalliklarni erta aniqlash va ularning tarqalishini cheklashda samarali vosita sifatida namoyon bo‘lmoqda. Har bir hayvonning emlash tarixi va sog‘lig‘i bo‘yicha ma’lumotlarning elektron bazada saqlanishi epizootik holatni tezkor tahlil qilish imkonini bermoqda.

Natijalar shuni ko‘rsatdiki:

-kasallik o‘chog‘i aniqlanganda hayvonlar harakatini tezda kuzatish imkoniyati paydo bo‘lgan;

-majburiy emlash tadbirlarini nazorat qilish samaradorligi oshgan;

-noqonuniy hayvon savdosi holatlarini aniqlash osonlashgan.

Bu omillar veterinariya xavfsizligini mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

3. Iqtisodiy va tashkiliy muammolar tahlili

Tizimning joriy etilishi bilan bir qatorda ayrim muammolar ham aniqlangan:

Texnik muammolar – ayrim hududlarda ma’lumotlarni real vaqt rejimida kiritish uchun zarur qurilmalar va barqaror internet tarmog‘ining yetishmasligi.

Moliyaviy yuklama – kichik xo‘jaliklar uchun identifikatsiya xarajatlari sezilarli bo‘lib, bu jarayonni sekinlashtirmoqda.

Kadrlar malakasi – ba’zi joylarda veterinariya xodimlarining raqamli tizimlardan foydalanish ko‘nikmalari yetarli darajada emasligi kuzatildi.

Aholining xabardorlik darajasi – tizimning foydalari va ishlash tartibi haqida yetarli ma’lumot berilmagan.

Shuningdek, ma’lumotlarni kiritishdagi xatoliklar yoki kechikishlar registrning aniqligiga ta’sir qilishi mumkinligi aniqlandi.

4. Umumiy baholash

Olingan natijalar shuni ko‘rsatadiki, elektron identifikatsiya tizimi O‘zbekistonda

chorvachilik sohasini modernizatsiya qilishda muhim vosita bo‘lib xizmat qilmoqda. Tizim qisqa muddat ichida boshqaruv shaffofligini oshirish, statistik ma’lumotlarni aniqlashtirish va veterinariya nazoratini kuchaytirishga ijobiy ta’sir ko‘rsatgan.

Biroq, tizimning to‘liq samaradorligi infratuzilmani rivojlantirish, aholining xabardorligini oshirish, davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini kengaytirish va kadrlar malakasini oshirish bilan chambarchas bog‘liq.

Shu bois, aniqlangan muammolarni bartaraf etish tizimning barqaror ishlashi va uzoq muddatli samaradorligini ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa. Ushbu tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, O‘zbekistonda hayvonlarni elektron identifikatsiya qilish tizimi chorvachilikni raqamlashtirish, veterinariya nazoratini kuchaytirish va epizootik xavfsizlikni ta’minlashda muhim vosita sifatida samarali ishlamoqda. Yagona elektron registr orqali hayvonlarni ro‘yxatga olish va monitoring qilish tizimning asosiy afzalligi bo‘lib, u kasalliklarning tarqalishini tezkor aniqlash, noqonuniy savdo va kontrabandani cheklash hamda eksport salohiyatini oshirishga xizmat qiladi.

Shunga qaramay, tizimning samaradorligi hududiy infratuzilma, moliyaviy resurslar, malakali kadrlar va aholining xabardorlik darajasi kabi omillarga bog‘liq. Kichik xo‘jaliklar va chekka hududlarda bu omillar tizimning to‘liq ishlashiga to‘sqinlik qilmoqda. Shu sababli, tizimning samaradorligini oshirish uchun infratuzilmani rivojlantirish, moliyaviy subsidiya mexanizmlarini joriy etish, kadrlar malakasini oshirish va aholining xabardorligini kuchaytirish zarur.

Umuman olganda, O‘zbekiston Respublikasida hayvonlarni elektron identifikatsiya qilish tizimi nafaqat chorvachilikni modernizatsiya qilish, balki mamlakatning veterinariya nazoratini kuchaytirish va qishloq xo‘jaligi mahsulotlari xavfsizligini ta’minlashda muhim strategik ahamiyatga ega. Tizimni rivojlantirish bo‘yicha tavsiya etilgan chora-tadbirlar amalga oshirilsa, uning samaradorligi sezilarli darajada oshadi va boshqa davlatlar tajribasi bilan muvaffaqiyatli integratsiya qilinishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. O‘zbekiston Respublikasi. Hayvonlarni identifikatsiya qilish, ro‘yxatga olish va monitoring qilish to‘g‘risida: O‘zbekiston Respublikasining Qonuni. – Toshkent, 2025.

2. Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo‘mitasi. Hayvonlarni elektron identifikatsiya qilish va yagona registrni yuritish tartibi to‘g‘risida nizom. – Toshkent, 2025.

3. O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi. Chorvachilikni rivojlantirish va raqamlashtirish dasturi bo‘yicha hisobot. – Toshkent, 2023–2025.

4. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi. O‘zbekiston Respublikasida chorvachilik: statistik to‘plam. – Toshkent, 2022–2026.

5. Xolmatov A., Rasulov B. O‘zbekistonda chorvachilikni raqamlashtirish istiqbollari // Agroilm. – 2023. – № 4. – B. 45–52.

6. World Organisation for Animal Health. Terrestrial Animal Health Code: Identification and Traceability of Live Animals. – Paris: WOAH, 2023.

7. European Commission. Animal Identification and Registration Systems in the European Union. – Brussels: European Commission, 2019.

8. Bowden R., Doyle R. Electronic identification (EID) technologies in livestock management // Computers and Electronics in Agriculture. – 2018. – Vol. 148. – P. 282–291.

9. Caja G., Castro-Costa A., Knight C. Engineering to support wellbeing of dairy animals // Journal of Dairy Research. – 2016. – Vol. 83, No. 2. – P. 136–147.

10. International Committee for Animal Recording. Guidelines for Animal Identification and Recording. – Rome: ICAR, 2022.

UO‘K:633.11: 631.52

CHORVACHILIK YEM-XASHAK BAZASINI MUSTAHKAMLASHDA TAKRORIY EKIN SIFATIDA EKILGAN YANGI TEXNIK EKINLARNING SAMARADORLIGI

Poyonov Azizbek Berdimuradovich
Janubiy dehqonchilik ilmiy tadqiqot instituti

Annotatsiya: Mazkur tadqiqot Texnik va ozuqa ekinlar seleksiyasi laboratoriyasida xorijdan keltirilgan va takroriy ekin sifatida ekilgan 15 ta yangi texnik hamda yem-xashak ekinlarining (amarant, bamiya jo‘xori, teff, sorgoning turli navlari, dukkakli ekinlar va boshqalar) janubiy mintaqa sharoitidagi biologik va xo‘jalik ahamiyatini baholashga bag‘ishlandi. Tajribalar Qarshi tumani sug‘oriladigan, issiq iqlim sharoitida olib borildi. Fenologik kuzatuvlar natijasida ekinlarning unib chiqishi, o‘suv davri davomiyligi va biomassa hosildorligi aniqlandi. Tadqiqotlar amarant (50–60 t/ga), bamiya jo‘xori (45–55 t/ga) kabi ekinlarning yuqori biomassa hosil qilishi, erta pishishi va chorva uchun oziqaviy qimmatga ega ekanligini ko‘rsatdi. Teff ekini qurg‘oqchilikka chidamli bo‘lib, yem-xashak sifatida istiqbolli ekin ekanligi tasdiqlandi. Olingan natijalar janubiy mintaqalarda yem-xashak va silos bazasini mustahkamlashda ushbu ekinlarning muhim ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: yem-xashak ekinlari, texnik ekinlar, takroriy ekin, seleksiya, biomassa hosildorligi, amarant, bamiya jo‘xori, sorgo navlari, teff, qurg‘oqchilikka chidamlilik, janubiy mintaqa, silos, fenologik kuzatuvlar.

Abstract: This study was conducted at the Laboratory of Technical and Forage Crop Breeding to evaluate the biological and agronomic significance of 15 newly introduced technical and forage crops grown as double crops under the conditions of the southern region. The studied crops included amaranth, okra sorghum, teff, various sorghum varieties, legumes, and other species introduced from abroad. The experiments were carried out under irrigated and hot climatic conditions of the Qarshi district. Phenological observations determined crop emergence, duration of the growing period, and biomass productivity. The results showed that amaranth (50–60 t ha^{-1}) and okra sorghum (45–55 t ha^{-1}) were characterized by high biomass yield, early maturity, and high nutritional value for livestock. Teff was identified as a drought-tolerant and promising forage crop. The obtained results indicate that these crops play an important role in strengthening the forage and silage production base in the southern regions.

Keywords: forage crops, technical crops, double cropping, plant breeding, biomass yield, amaranth, okra sorghum, sorghum varieties, teff, drought tolerance, southern regions, silage, phenological observations.

Texnik va ozuqa ekinlar seleksiyasi laboratoriyasi tadqiqotlari bo‘yicha ya’ni xorijdan keltirilgan takroriy ekin sifatida ekilgan Bamiya jo’xori, Amarant, Oysimon loviya, O’tkirbarg loviya, Guar, Kaptar no’hat, Sorgo Jumbostar jo’xori, Nutrotopstar jo’xori, Nudan jo’xori, Hunnigreen jo’xori, Macia jo’xori, Mahalliy, Biyanka jo’xori, Yanki jo’xori,Teff kabi 15 ta yangi texnik hamda yex-xashak ekinlarini avvalo, **makkajo‘xori** — chorvachilik uchun eng ko‘p tarqalgan va oziqa birligi yuqori bo‘lgan ekin hisoblanadi. Undan nafaqat don, balki yashil massa va silos sifatida ham keng foydalaniladi.

Makkajo‘xori, shirin makkajo‘xori va jo‘xori urug‘larning tuproqdagi namlikni singdirib ekishdan keyin 5-7 kun yaqqol nishlashi kuzatildi. Makkajo‘xori va shirin makkajo‘xori nav va namunalari 8-9 kun, sudan o‘ti va tariq ekinlarimiz 2-iyul ya’ni ekilgandan 10-12 kun muddatda to‘liq unib chiqishi aniqlandi.

Fenologik kuzatuvlar natijasida, tajribalar, sorgoning turli navlari 14-15 iyul kunlarida, Yanki, Ninni Jeen, Masia, Nitiorstav, Jambostor, Bionka, Nudan kabi ekinlar 18-20 iyul kunlarida, teff va boliya okva kabi ekinlar 27-29 iyul kunlarida tuliq unib chiqishi kuzatildi va dala daftariga qayd etildi.Janubiy minatqalar sharoitida yaylov va silos ekinlarini yetishtirishda turli navlar yuqori samaradorlik ko‘rsatdi. Ushbu Qarshi tumani sug`oriladigan maydonning issiq iqlimi, shuningdek, yerning unumdorligi hisobga olinsa, quyidagi ekinlar ayniqsa foydali hisoblandi.

Tadqiqot natijalariga ko‘ra **Amarant** 80–85 kun ichida yetildi va erta pishuvchi ekinlar guruhiga kirdi. Janubiy mintaqada ushbu nav yuqori biomassa hosil qilishi bilan ajralib turadi

ya`ni– 50–60 t/ga atrofida hosil aniqlandi. Donidagi oqsil miqdori 14–17% ni tashkil qildi, shuning uchun bu ekinimiz chorva uchun juda foydalidir. Amarantning barglari ko‘p bo‘lib, u silos tayyorlashda ham qulay ekin hisoblanadi. Bu ekin qisqa muddatda yetilib, tez o‘sadi, shuningdek, tuproqni begona o'tlardan tozalashga ham yordam berdi (1–jadvalda ko‘rsatilgan).

1-jadval.

Takroriy ekinlarning o‘suv davri davomiyligi, hosildorlik ko‘rsatkichlari

№	Ekin nomi	Pishish muddati	Pishish guruhi	Biomassa (t/ga)	Ozuqa qiymati	Don hosili (t/ga)	Izoh
1	**Amarant**	80–85 kun	Erta pishar	50–60	Oqsil 14–17%	1.8–2.4	Yuqori biomassa va yuqori protein
2	**Bamiya jo‘xori**	85–90	Erta	45–55	Yaxshi hazm bo‘ladi		Silos uchun juda yaxshi
3	**Teff**	85–90	Erta	12–18	Hazm bo‘lishi 70%	0.8–1.2	Mayda donli, qurg‘oqchilikka chidamli
4	**Hunnigreen sorgo**	90	Erta	55–70	Yaxshi ozuqa	3.5–4.2	Tez tiklanadi, ko‘p bargli
5	**Biyanka jo‘xori**	90–95	Erta–o‘rta	40–55	O‘rtacha	3.0–3.8	Qurg‘oqchilikka chidamli
6	**Yanki jo‘xori**	90–95	Erta	42–56	O‘rtacha	3.2–4.0	Tez o‘suvchi, silos uchun yaxshi
7	**Jumbostar sorgo**	100–110	O‘rta	60–75	Yaxshi	4.5–5.5	Biomassa bo‘yicha eng yuqori
8	**Nutrotopstar sorgo**	100–110	O‘rta	58–72	Yaxshi	4.2–5.0	Silos uchun juda qulay
9	**Nudan sorgo**	100–110	O‘rta	55–70	10–12% oqsil	4.0–5.0	Don va silos uchun
10	**Masia sorgo**	100–110	O‘rta	60–70	Ozuqa birligi yuqori	4.2–5.0	Qurg‘oqchilikka chidamli
11	**Guar**	100	O‘rtapishar	25–35	Protein 20–25%	1.2–1.8	Azot to‘plovchi dukkakli
12	**Oysimon loviya**	100–115	O‘rta	25–35	Oqsil 18–22%	1.0–1.5	Biomassa o‘rtacha
13	**O‘tkirbarg loviya**	100–115	O‘rtapishar	25–35	Oqsil 17–20%0	1.0–1.4	Takroriy ekin uchun mos
14	**Kaptar no‘xat (Pigeon pea)**	130–160	Kech	30–40	Oqsil yuqori	1.0–1.6	Tuproqni boyitadi
15	**Bolia okva**	90–110	O‘rtapishar	15–20	Ozuqaliligi yuqori	0.5–0.9	Chorva uchun yumshoq yem

Shunindek Bamiya jo‘xori ekini o‘suv davri davomiyligi 85–90 kun ichida yetildi va erta pishuvchi nav hisoblanadi. Janubiy sharoitda uning biomassasi 45–55 t/ga biomassa olindi. Bu ekin hazm bo‘lishi yaxshi bo‘lgan ozuqa manbai sifatida e’tiborga loyiq. Shu bois, bamiya jo‘xori ayniqsa silos uchun mos va chorva ozuqasini tez tayyorlashga imkon yaratib berdi. Shu qatori Teff

ekini o‘suv davri davomiyligi ham 85–90 kunda yetildi va mayda donli, qurg‘oqchilikka chidamli ekin sifatida tanilgan.





1-rasm takroriy ekinlarning fenalogiya kuzatuvlari (Qarshi 2025 y)

Biomassasi 12–18 t/ga olindi, donining hazm bo‘lishi 70% ni tashkil qiladi va don hosili 0.8–1.2 s/ga bo‘ldi

Teff Janubiy hududlarda quruq va issiq mavsum sharoitida ham barqaror hosil beradi ya`ni o‘rib olingandan so‘ng ham yana o‘sishda davom etganligi kuzatildi.

Xulosa. Olib borilgan tadqiqotlar janubiy mintaqalarning issiq va sug‘oriladigan sharoitida xorijdan keltirilgan 15 ta yangi texnik va yem-xashak ekinlarining takroriy ekin sifatida yetishtirilishi yuqori samaradorlikka ega ekanligini isbotladi. Fenologik kuzatuvlar ekinlarning qisqa muddatda unib chiqishi, erta pishishi va intensiv o‘sishi bilan ajralib turishini ko‘rsatdi. Ayniqsa, amarant va bamiya jo‘xori yuqori biomassa hosildorligi (50–60 t/ga va 45–55 t/ga), oziqaviy qiymati hamda silos uchun yaroqliligi bilan ustunlik qildi. Teff ekini qurg‘oqchilikka chidamliligi va barqaror hosil berishi bilan istiqbolli yem-xashak ekini sifatida baholandi. Tadqiqot natijalari janubiy hududlarda yem-xashak va silos bazasini mustahkamlash, chorvachilikni sifatli ozuqa bilan ta’minlash hamda ekinlar diversifikatsiyasini kengaytirishda ushbu ekinlarni joriy etish ilmiy va amaliy jihatdan maqsadga muvofiq ekanligini tasdiqlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Reta Alemayehu, Getnet Assefa. *Amaranth as a potential forage crop for dryland agriculture*. Journal of Arid Agriculture, 2018, 4(2): 45–52.
2. Rooney W.L., Blumenthal J., Bean B., Mullet J.E. *Designing sorghum as a dedicated bioenergy feedstock.* Biofuels, Bioproducts and Biorefining, 2007, 1(2): 147–157.
3. Assefa G., Taye T., Feyissa F. *Teff (Eragrostis tef) as an alternative forage crop under drought conditions*. African Journal of Agricultural Research, 2015, 10(7): 608–614.
4. Undersander D., Mertens D.R., Thiex N. *Forage analyses procedures*. National Forage Testing Association, Omaha, NE, USA, 2010.

UDK. 633.11:631.52

BIRINCHI AVLOD DURAGAY KOMBINATSIYASIDA BOSHOQ UZUNLIGI BELGISINING IRSIYLANISHI.

Nortojiyev Sunnatillo Farhod o‘g‘li, Amanov Amir Amanovich

Janubiy dehqonchilik ilmiy tadqiqot instituti

Annotatsiya: birinchi avlod duragay kombinatsiyasida boshoq uzunligi belgisining irsiylanishi o‘rganilganda tahlillar shuni ko‘rsatiki, yuqori ko‘rsatkichga ega bo‘lgan KR23-PW-ON-21 x G‘ozg‘on duragay kombinatsiyada onalik shaklida boshoq uzunligi 10,3 sm, otalik shaklida esa 10,4 sm ni tashkil etgan bo‘lsa, F_1 duragay avlodida esa boshoq uzunligi 13,1 smni hp=28,0 gacha bo‘lganligi o‘z isbotini topdi.

Kalit so‘zlari: boshoq uzunligi, bug‘doy, duragay, janubiy, yuqori, ko‘rsatkich, sm, dehqonchilik, kombinatsiya, avlod, irsiylanish, belgi, tahlil.

Аннотация: При изучении наследования признака длины початка в гибридной комбинации многолетней пшеницы первого поколения анализ показал, что в высокоурожайной гибридной комбинации KR23-PW-ON-21 x G‘ozg‘on длина початка составляла 10,3 см у материнского сорта и 10,4 см у отцовского, тогда как в гибридном поколении F_1 длина початка составляла 13,1 см при hp=28,0

Ключевые слова: длина колоса, пшеница, гибрид, южный, высокий, индикатор, см, земледелие, комбинация, поколение, наследственность, признак, анализ.

Annotation: When studying the inheritance of the ear length trait in the first generation hybrid combination of perennial wheat, the analyses showed that in the high-yielding KR23-PW-ON-21 x G‘ozg‘on hybrid combination, the ear length was 10.3 cm in the maternal form and 10.4 cm in the paternal form, while in the F_1 hybrid generation, the ear length was 13.1 cm with hp=28.0

Key words: ear length, wheat, hybrid, southern, high, indicator, cm, farming, combination, generation, heredity, character, analysis.

Mavzuning dolzarbligi va zarurati. Hozirgi kunda dunyoda kechayotgan global iqlim o‘zgarishi oqibatida o‘rtacha havo-haroratining 2 ^oC ga ko‘tarilishi, yog‘ingarchilik miqdorining kamayib ketishi, turli mintaqalarda animal sovuq hamda animal isib ketishi holatlari tez-tez kuzatilishi oqibatlarida, o‘simliklarning o‘sib rivojlanishi uchun ancha noqulay sharoitlar tug‘dirmoqda. Buning natijasida esa bug‘doy hosildorligining pasayib ketishi hamda don sifati ko‘rsatkichlariga yomon tasir ko‘rsatmoqda.

Respublikamizda 2025-yil hosili uchun jami 1 mln 300 ming gektardan ortiq maydonlarga boshoqli don ekinlari yetishtirilib kelinmoqda. Bug‘doy eng muhim oziq-ovqat manbai hisoblandi. Hozirgi kunda Respublikamizning janubiy mintaqalarida boshoqli don ekinlarining boshoqlash va pishish davrida havo-haroratining +45^oC dan +49,3^oC gacha ko‘tarilib ketishi natijasida, bug‘doy donining puch bo‘lib qolishi, hosildorlikka hamda donning sifat ko‘rsatkichlariga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Buning uchun iqlim o‘zgarishi sharoitlarida yuqori hosil beradigan, don sifat ko‘rsatkichlari yuqori hamda ertapishar nav va qimmatli

manbalarni yaratish muhim vazifalardan biri hisoblandi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 16 fevraldagi PQ-5742-son «Seleksiya yutuqlari to‘g‘risida»gi va 2019 yil 29 dekabrdagi PQ-2460-son «Urug‘chilik to‘g‘risidagi»gi qonunlari, “2020-2030 yillarga qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning mo‘ljallangan strategiyasi to‘g‘risida” gi farmoni hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga muayyan darajada xizmat qiladi.

Adabiyotlar sharhi. T.E. Ostanaqulovning ma’lumotlariga ko‘ra, seleksiyaning asosiy vazifasi ekinlarning ishlab chiqarishda ekilib kelayotgan navlarga nisbatan yaxshiroq bo‘lgan yangi navlarni yaratishdir. Buning uchun eng avvalo boshlang‘ich material kerak. Seleksiya uchun boshlang‘ich material turli yovvoyi va madaniy ekinlarni topish, ularni duragaylash, hamda mutatsiya, poliploidiya, geterozisdan foydalanish yo‘llari bilan yaratiladi [1; 8-b].

Olimlarning ma’lumotlariga ko‘ra, o‘simliklarni chatishtirish jarayonida belgilarning yuqori ko‘rsatkichlari F_1 bo‘g‘inda dominant bo‘ladi. Masalan, baland bo‘yli o‘simlik kalta bo‘yli o‘simlikka nisbatan, yirik donga ega bo‘lgan navlar mayda donga ega bo‘lgan navlarga nisbatan yoki qiltiqsiz formalar qiltiqli formalarga nisbatan dominantlik qiladi [2; 329-332-b].

D.T. Abdukarimov, I.T. Ergashev va boshqa olimlarning ma’lumotlariga ko‘ra, boshlang‘ich materialni tayyorlashning klassik usullari (duragaylash, mahalliy navlar va tabiiy populyatsiyalardan foydalanish) bilan bir qatorda genetik usullarning ham katta ahamiyatga ega deyiladi ma’lumotlarda [3; 13-b].

Gibridni olgan birinchi olimlardan biri N.V. Tsisin edi. U Triticum bug‘doy va Thinopyrum bug‘doy o‘ti o‘sha payitda o‘z tadqiqotida bug‘doyning ikkita turi o‘rtasidagi yaqin genetik aloqani aniqladi. Agropyron glaucum va Agropyron elongatum, ular bir-biri va yumshoq bug‘doy bilan yaxshi chatishadi. Ularning duragaylari ko‘p yillik va donli bug‘doyni yaratishda ota-ona shakllari bo‘lib xizmat qilgan deya keltiriladi ma’lumotlarda [4; 9-31-b].

Tadqiqot uslublari. Duragaylash ishlarida bichish umum qabul qilingan V.Y.Yurev va

boshqalar usulida, changlantirish CIMMIT xalqaro markazida ishlab chiqilgan Tvell uslubida amalga oshirildi. F_1 o‘simliklarida dominantlik koeffitsiyenti G.M.Beil va R.Ye.Atkins ishlarida keltirilgan S.Wrigxt formulasi bo‘yicha hisoblandi. Tajriba davomida fenologik kuzatish, hisob va tahlillar (Butunittifoq O‘simlikshunoslik instituti, VIR, 1984) uslubi bo‘yicha bo‘yicha olib borildi.

Tadqiqot natijalar. Janubiy dehqonchilik ilmiy tadqiqot insitutining dala tajriba maydonida ekilgan ota-ona shakllarida boshoq uzunligi 9,1 smdan 11,5 sm bo‘lgan bo‘lsa, F_1 duragay avlodida boshoq uzunligi 10,0 smdan 13,9 smgacha bo‘lganligi kuzatildi.

O‘rganilayotgan 21 ta F_1 duragay avlodida daminantlik darajasi yuqori bo‘lgan 15 ta F_1 duragay avlodida hp=2,0-35,0 gacha bo‘lib kuchli daminantlik mavjudligi aniqlandi. 2 ta F_1 duragay kombinatsiyada daminantlik darajasi hp=-0,28 dan -0,75 ni tashkil etib salbiy ko‘rsatkichga ega ekanligi aniqlandi **(1-jadvalga qarang).**

1-jadval

Birinchi duragay avlodida boshoq uzunligi belgisining irsiylanishi (Qarshi, 2024-yil)

№	Nav va duragay kombinatsiyalar nomi	Onalik shakl	Otalik shakl	Boshoq uzunligi, sm	
				F_1	hp
1	♀KR23-PW-ON-2 **x** ♂KR23-PW-ON-19	10	10,3	11,6	7,5
2	♀KR23-PW-ON-2 **x** ♂KR23-PW-ON-21	9,3	11	10,5	0,44
3	♀KR23-PW-ON-6 **x** ♂Hisorak	10,7	11,2	12,3	4,66
4	♀KR23-PW-ON-6 **x** ♂G‘ozg‘on	9,2	10,3	10,8	1,83
5	♀KR23-PW-ON-9 **x** ♂Hisorak	9,5	10,4	13	6,2
6	♀KR23-PW-ON-9 **x** ♂Do‘stlik-29	10,3	10,7	12,4	9,5
7	♀KR23-PW-ON-9 **x** ♂G‘ozg‘on	9,4	9,8	11,2	8,0
8	♀KR23-PW-ON-21 **x** ♂Peremoga	10,2	10,5	11,7	7,0
9	♀KR23-PW-ON-21 **x** ♂Do‘stlik-29	9,8	11,2	10,3	-0,28
10	♀KR23-PW-ON-21 **x** ♂G‘ozg‘on	10,3	10,4	13,1	28,0
11	♀KR23-PW-ON-22 **x** ♂G‘ozg‘on	9,4	10,3	10,6	1,6
12	♀KR23-PW-ON-22 **x** ♂Peremoga	9,1	11	12,3	2,3
13	♀KR23-PW-ON-22 **x** ♂Do‘stlik-29	10,6	10,9	11,5	4,0
14	♀KR23-PW-ON-23 **x** ♂Do‘stlik-29	9,2	11,3	13,8	3,27
15	♀KR23-PW-ON-23 **x** ♂Hisorak	9	10,1	10,4	1,5
16	♀KR23-PW-ON-27 **x** ♂Peremoga	10,5	10,3	13,9	35,0
17	♀KR23-PW-ON-27 **x** ♂G‘ozg‘on	9,7	10,7	11,2	2,0
18	♀KR23-PW-ON-27 **x** ♂Do‘stlik-29	10	11,5	12,6	2,37
19	♀KR23-PW-ON-33 **x** ♂G‘ozg‘on	10,7	9,9	10	-0,75
20	♀KR23-PW-ON-33 **x** ♂KR23-PW-ON-19	9,9	10,3	11,3	6,0
21	♀KR23-PW-ON-33 **x** ♂KR23-PW-ON-21	10	10,1	12,6	26,0

KR23-PW-ON-21 **x** G‘ozg‘on duragay kombinatsiyada onalik shaklida boshoq uzunligi 10,3 sm, otalik shaklida esa 10,4 sm ni tashkil etgan bo‘lsa, F_1 duragay avlodida esa boshoq uzunligi 13,1 sm hp=28,0 gacha bo‘lganligi o‘z isbotini topdi.

Demak, KR23-PW-ON-27 **x** Peremoga duragay kombinatsiyada onalik shaklida boshoq uzunligi 10,5 sm va otalik shaklida esa boshoq uzunligi 10,3 sm bo‘lgan bo‘lsa, F_1 duragay avlodida boshoq uzunligi 13,9 sm ni daminantlik darajasi esa hp=35,0 ni tashkil etib irsiylanishi eng yuqori ega ekanligi aniqlandi**.**

KR23-PW-ON-21 **x** Do‘stlik-29 duragay kombinatsiyada onalik shaklida boshoq uzunligi 9,8 sm, otalik shaklida esa 11,2 sm ni tashkil etgan bo‘lsa, F_1 duragay avlodida boshoq uzunligi 10,3 sm ni hp=-0,28 ni tashkil etib daminantlik darajasi pastroq ekanligi izohlandi.

Xulosalar qilib shuni aytish kerakki, o‘rganilayotgan 21 ta F_1 duragay avlodida boshoq uzunligi belgisining daminantlik darajasi yuqori bo‘lgan 15 ta F_1 duragay avlodida hp=2,0-35,0

gacha bo‘lib kuchli daminantlik mavjudligi aniqlandi va 2 ta F_1 duragay avlodida boshoq uzunligi belgisining salbiy getrozis holati kuzatilganligi aniqlandi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Ostanaqulov T.,E. “Seleksiya va urug‘chilik asoslari” Toshkent- “Ilm ziyo”-2013 y -18 b.

2. Неттевич Э.Д. Изучение гибридов яровой пшеницы в связи с проблемой исползования гетерозиса. С-х биол. 1969.т.3, С.329-332.

3. Abdukarimov D.T., Ergashev I.T., Elmurodov A.A., Lukov M.K., Bekmurodova X.K. Qishloq xo‘jaligi ekinlari seleksiyasi va urug‘chiligi. Darslik. Samarqand-2024 y 13.b

4. Loshakova P. O. et al. Intergeneric hybrids x Tititrigia cziczinii x Elymus farctus and the prospects for their use in breeding //Achiev Sci Technol APK. – 2018. – Т. 32. – №. 9. – С. 9-31.

УДК: 631.5

G‘O‘ZA URUG‘CHILIGIDA SUVDAN SAMARALI FOYDALANISH

Abdullayev Jamshid Umurxonovich

Paxta seleksiyasi, urug‘chiligi va yetishtirish agrotexnologiyalari ilmiy tadqiqot instituti Qashqadaryo ilmiy-tajriba stansiyasi

Annotasiya Ushbu maqolada Qashqadaryo viloyatining sug‘oriladigan taqirsimon tuproqlari sharoitida kuzgi siderat ekinlaridan keyin parvarishlangan o‘rta tolali urug‘lik g‘o‘zaning suv iste’moli ko‘rsatkichlari, sug‘orish muddatlari, sug‘orish oldi tuproq namligi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: suv tanqisligi, tuproq unumdorligi, kuzgi siderat, xashaki ko‘k no‘xat, javdar, perko, sug‘orish tartibi.

Kirish.O‘simliklar hayoti uchun tuproqda namlik yetishmasligi yoki aksincha bo‘lishi ham salbiy oqibatlarni keltirib chiqaradi. Shu nuqtayi nazardan olib qaraganda, tuproq namligini o‘z vaqtida aniqlab, yetishmagan defitsit namlikni berish muhim ahamiyatga ega.

Respublikamizda suv tanqisligi ortib borayotganligini inobatga olib, ekinlarni sug‘orishda suv tejamkor yangi zamonaviy texnologiyalardan foydalanish, ortiqcha suv sarflanishini oldini olish zaruriyati yuzaga kelmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024 yil 5-yanvardagi PQ-5-sonli «Quyi bo‘g‘inda suv resurslarini boshqarish tizimini takomillashtirish hamda suv resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi, 2024 yil 13-fevraldagi PQ-71-sonli «Qishloq xo‘jaligi yerlari degradatsiyasiga qarshi kurashish, tuproqning gumus miqdori va unumdorligini oshirishni qo‘llab-quvvatlashning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi, 2023 yil 15-dekabrdagi PQ-391-sonli «Paxtachilikda urug‘chilik tizimini rivojlantirish hamda paxta hosildorligini oshirishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi qarorlarida suvdan samarali foydalanish, tuproq unumdorligini oshirish, paxtachilikda zamonaviy ilg‘or agrotexnologiyalarni qo‘llash va urug‘chilik tizimiga erkin bozor mexanizmlarini joriy etish orqali hosildorlikni oshirish, paxta xom-ashyosini yetishtirishda ilmiy-innovatsion yondashuvlarni qo‘llash, hosildorligi 30 sentnerdan past bo‘lgan paxta maydonlarini muntazam aniqlash hamda bosqichma-bosqich yangi va istiqbolli navlarni joylashtirish, zamonaviy ilg‘or agrotexnologiyalarni joriy qilish vazifalari belgilab berilgan. Qashqadaryo viloyatida suv tanqisligi yilan-yilga ortib bormoqda birgina oxirgi 4 yillikda viloyatning transchegaraviy va suv omborlaridan qishloq xo‘jaligi ekinlarini sug‘orish uchun gidrologik yil bo‘yicha suv olish rejasi 11% ga kamayib ketgan. Jumladan, 2022 yilda rejaga nisbatan 75 %, 2023 yilda 71 %, 2024 yilda 69 %, 2025 yilda esa 64 % suv olgan. Yog‘ingarchilikning yildan yilgan kamayib borishi suv omborlarida va transchegarviy daryolarda suv sathining pasayishiga olib kelmoqda. Natijada qishloq xo‘jaligi ekinlarini sug‘orishda aynan amal davrida suv ta’minoti og‘irligicha qolmoqda. Ushbu sharoitda g‘o‘zadan sifatli urug‘lik mahsuloti yetishtirish dolzarb masala ekanligi namoyon bo‘lmoqda. Bu borada ko‘plab tadqiqotlar amalga oshirilmoqda. Jumladan tuproq unumdorligini oshirishga va sifatli urug‘lik chigit yetishtirishga qaratilgan tadqiqotlarimiz Qashqadaryo viloyatining sug‘oriladigan taqirsimon tuproqlari sharoitlarida olib borildi.

Tadqiqot uslubiyoti

Tadqiqot davomidagi dala tajribalarini o‘tkazishda biometrik o‘lchovlar va tuproq, o‘simlik namunalari O‘zPITI da ishlab chiqilgan «Metodi agroximicheskix, agrofizicheskix i mikrobiologicheskix issledovaniy polivnix xlopkovix rayonax» (SoyuzNIXI, 1973), «Metodika polevix i vegetatsionnix opitov s xlopchatnikom» (SoyuzNIXI, 1981), va «Dala tajribalarini o‘tkazish uslublari» (Toshkent 2007) uslubiy qo‘llanmasiga rioya qilingan holda amalga oshirildi.

Qashqadaryo viloyatining sug‘oriladigan taqirsimon tuproqlari sharoitida o‘tkazilgan tadqiqotlar 13 ta variant 3 qaytariqda olib borilib, siderat ekinlar kuzgi muddatda, ya’ni g‘o‘zadan bo‘shagan maydonlarda ekilib, sideratlardan keyin xuddi shu fonda keyingi yillari bahorda barcha variantlarga o‘rta tolali SP-2602 g‘o‘za navining elita urug‘liklari ekib parvarishlandi. Bunda sideratlarni(xashaki ko‘k no‘xat, javdar, perko) parvarishlashda azotli o‘g‘itlarni 50% ga qisqartirsa bo‘ladimi degan savolga javob izlash va mikrobiologik bakterial o‘g‘itlar qo‘llanilganda shunga erishish imkoniyatlarini aniqlanib, g‘o‘za va qator oralari ishlanadigan ekinlar uchun maqbul siderat ekin turlari tanlandi.

Sideratlarning ahamiyati. Sideratsiya so‘zi lotincha siderius so‘zidan olingan bo‘lib, quyosh yorug‘lik energiyasining o‘simlik yashil massasiga aylanishi demakdir:

- Siderat ekinlar yerga haydab yuboriladigan, tuproq unumdorligini oshiradigan, chorva uchun to‘yimli yem-xashak bo‘la oladigan don, dukkakli-don, moyli va yem-hashak ekinlari bo‘lishi mumkin.

- Sideratlar yuqori biomassa to‘plashi va u yerga haydalishi natijasida kelgusi mavsumda ekinlarni yetishtirish uchun sarflanadigan mineral o‘g‘itlarni 25-30% dan 40% gacha tejash imkoni mavjud.

- Siderat ekinlar ekish muddatlari, oziqlantirish me’yori va ekinning biologik xususiyatlariga qarab, har gektar maydondan 250-450 sentnergacha ko‘k massa hosili to‘playdi.

- Fermer xo‘jaliklarida vitaminga boy va shirali qo‘shimcha yem-xashak yetishtirish, tuxum, go‘sht va sut ishlab chiqarishni ko‘paytirish imkonini beradi. Sideratlardan keyin parvarishlanadigan bug‘doy don hosildorligi 15-20% ga, g‘o‘za hosildorligi 10-15% ga oshadi.

1-jadval

Kuzgi siderat ekinlari fonida parvarishlangan g‘o‘zaning sug‘orish oldi tuproq namligi ko‘rsatkichlari, % 2025 yil

CHDNSga nisbatan sug‘orish tartibi,%	Ko‘rsatkichlar	Sug‘orishlar soni						
		1	2	3	4	5	6	7
Siderat ekilmagan dalada parvarishlangan g‘o‘za dalasi								
70-75-65 %	Tuproqning quruq vazniga nisbatan, %	14,7	15,4	15,6	13,6			
	ChDNS ga nisbatan %	69,5	74,6	75,2	64,2			
Sideratlar ko‘k massasi to‘liq haydab yuborilganda parvarishlangan g‘o‘za dalasi								
70-75-65 %	Tuproqning quruq vazniga nisbatan, %	15,2	15,7	13,8				
	ChDNS ga nisbatan %	70,2	74,1	63,9				
Sideratlar yer ustki massasi chorva uchun o‘rib olinib, ang‘iz va ildiz qoldiqlari haydab yuborilganda parvarishlangan g‘o‘za dalasi								
70-75-65 %	Tuproqning quruq vazniga nisbatan, %	14,8	15,4	15,5	13,7			
	ChDNS ga nisbatan %	69,7	74,2	74,4	64,1			

Tadqiqot natijalari va ularning muhokamasi

Qashqadaryo viloyatining sug‘oriladigan taqirsimon tuproqlari sharoitida kuzgi siderat ekinlari xashaki ko‘k no‘xat, javdar va perkodan keyin o‘rta tolali urug‘lik g‘o‘za parvarishlanganda sug‘orish oldi tuproq namliklari barcha sug‘orishlar oldidan cheklangan dala nam sig‘imiga (CHDNS) nisbatan aniqlandi. Bunda dasturda ko‘rsatilgan namliklardan chetlanish 1,1 % gacha bo‘lganligi kuzatildi. Shuni alohida ta’kidlash lozimki, siderat ekinlari ekilmagan

nazorat variantidan keyin g‘o‘za parvarishlanganda sideratlar haydalgan variant bilan bir xil sug‘orish tartiblari olinishiga qaramasdan sug‘orish muddatlari turlicha bo‘ldi. Bunda sug‘orishlar soni CHDNSga nisbatan 70-70-65% sug‘orish oldi tuproq namligida siderat ekinlari ekilmay g‘o‘za parvarishlanganda sug‘orishlar soni 1 martaga ko‘p bo‘lganligi kuzatildi. Urug‘lik g‘o‘za CHDNSga nisbatan 70-70-65% namlikda siderat ekinlari ko‘k massasi to‘liqligicha yerga maydalab haydab yuborilganda 3 marta, yer ustki massasi chorva uchun o‘rib olinganda 4 marta sug‘orildi. Har bir sug‘orishlar oldidan tuproq namliklari olinib, termostatda 6 soat davomida quritib aniqlandi.

2-jadval

Kuzgi siderat ekinlaridan keyin parvarishlangan g‘o‘zaning amal davridagi sug‘orish muddatlari, soni, tizimi, davomiyligi, bir martalik va mavsumiy sug‘orish me’yorlari, 2025 y

Var. (FON)	Siderat ekinlardan foydalanish	Ko‘rsatkichlar	Sug‘orish soni va me’yori, m^3/ga				Sug‘o-rish tizimi	Mavsumiy (netto) sug‘orish me’yori, m^3/ga	Mavsumiy (brutto) sug‘orish me’yori, m^3/ga	Mavsumiy oqova miqdori, m^3/ga	Tejalgan suv, %
			1	2	3	4					
Siderat ekin ekilmagan (nazorat)		Sug‘orish sanasi	17.06	07.07	26.07	19. 08	1-2-1	4190	4915	725	-
		Sug‘orish me’yori, m^3/ga	1100	1200	990	900					
		Sug‘orish davomiyligi, soat-min	17,5	19	20	18					
		Sug‘orishlar orasi, kun		19	18	23					
Xashaki ko‘k no‘xat	Siderat ekinlari to‘liqligicha maydalab yerga haydab yuboriladi	Sug‘orish sanasi	19.06	9.07	28.07	21. 08	1-2-1	4145	4840	695	1.1
		Sug‘orish me’yori, m^3/ga	1090	1190	975	890					
		Sug‘orish davomiyligi, soat-min	18.3	20	20	20					
		Sug‘orishlar orasi, kun		19	19	24					
Xashaki ko‘k no‘xat +javdar		Sug‘orish sanasi	22.06	16.07	14.08		0-2-1	3405	3995	590	18,8
		Sug‘orish me’yori, m^3/ga	1085	1180	1140						
		Sug‘orish davomiyligi, soat-min	17	21	19						
		Sug‘orishlar orasi, kun		24	27						
Xashaki ko‘k no‘xat +javdar+perko		Sug‘orish sanasi	23.06	19.07	17.08		0-2-1	3350	3895	545	20.1
		Sug‘orish me’yori, m^3/ga	1070	1160	1120						
		Sug‘orish davomiyligi, soat-min	17	21	19						
		Sug‘orishlar orasi, kun		26	28						
Xashaki ko‘k no‘xat (Mikrobiologik bakterial o‘g‘it)		Sug‘orish sanasi	19.06	9.07	28.07	21. 08	1-2-1	4100	4770	670	2,2
		Sug‘orish me’yori, m^3/ga	1075	1180	965	880					
		Sug‘orish davomiyligi, soat-min	18.3	20	20	20					
		Sug‘orishlar orasi, kun		20	19	24					
Xashaki ko‘k no‘xat +javdar (Mikrobiologik bakterial o‘g‘it)		Sug‘orish sanasi	22.06	16.07	14.08		0-2-1	3370	3926	556	19,6
		Sug‘orish me’yori, m^3/ga	1060	1150	1105						
		Sug‘orish davomiyligi, soat-min	17	21	19						
		Sug‘orishlar orasi, kun		24	27						
Xashaki ko‘k no‘xat +javdar+perko (Mikrobiologik bakterial o‘g‘it)		Sug‘orish sanasi	23.06	19.07	17.08		0-2-1	3315	3829	514	20,9
		Sug‘orish me’yori, m^3/ga	1055	1150	1110						
		Sug‘orish davomiyligi, soat-min	17	21	19						
		Sug‘orishlar orasi, kun		26	28						

E’tiborli jihati shundaki, kuzgi siderat ekinlarini to‘plagan umumiy biomassasi to‘liq maydalab haydab yuborilganda tuproq ostida mo‘lcha hosil qilib, tuproqning nam ushlab turish qobiliyatini yaxshilashi hisobiga tuproqda ko‘proq nam ushlab turilganligi va tuproq namligini doimiy saqlab qolganligi aniqlandi(1-jadval).

Chigitning yaxshi rivojlanishi, dala, laboratoriya unuvchanlik va unib chiqish quvvatini yuqori bo‘lishi tuproqdagi oziqa elementlari hamda namlik ko‘rsatkichiga bog‘liq. Chunki suv tanqisligi oshib borayotgan hududlarda tuproqning tabiiy namligini saqlab qolish imkoniyati pasayib bormoqda. Ushbu muammolarni bartaraf etish maqsadida tuproqni biomassa bilan boyitish va biologik usullar bilan tuprpoq namligini saqlash bo‘yicha tadqiqotlar amalga oshirilmoqda. Tadqiqotlarda siderat ekinlari parvarishlanib, keyinchalik sideratlardan keyin g‘o‘za parvarishlanganda sug‘orish me’yorlari, mavsumiy suv sarfi hisob-kitob qilindi. Bunda o‘rta tolali urug‘lik g‘o‘zani sug‘orish ChDNSga nisbatan 70-70-65% sug‘orish oldi tuproq namligida amalga oshirildi.

ChDNSga nisbatan 70-70-65% sug‘orish oldi tuproq namligida sideratsiz variantda g‘o‘za parvarishlanganda sug‘orish tizimi 1-2-1 bo‘lib, 4 marta sug‘orildi va mavsumiy sug‘orish me’yori 4190 m^3/ga ni tashkil etdi. Xuddi shu sug‘orish tartibida 3 komponentli siderat ekinlarini(xashaki ko‘k no‘xat+javdar+perko) urug‘iga mikrobiologik bakterial o‘g‘it qo‘llanilib, ko‘k massasi to‘liqligicha yerga maydalab haydab yuborilganda g‘o‘zani sug‘orish tizimi 0-2-1 bo‘lib, 3 marta sug‘orildi va sideratsiz variantga nisbatan sug‘orishlar soni 1 martagacha va sug‘orish suvlari 875

m^3/ga yoki 20,9% ga tejalganligi aniqlandi. Bunda sug‘orishlar oralig‘i sideratlar to‘liq maydalab haydab yuborilgan fonda g‘o‘za yetishtirilganda birmuncha uzoqroq bo‘lishi, sideratlar tuproqda namlikni ko‘proq ushlab turishi aniqlandi.

Buning natijasida sideratlardan keyin g‘o‘za yetishtirilganda sug‘orishlar oralig‘i sideratsiz g‘o‘za parvarishlangandan 5-7 kunga uzoqroq bo‘lganligi va keyinchalik sug‘orishlar soni 1 martagacha tejalganligi aniqlandi. Bir komponentli sideratlardan keyin g‘o‘za parvarishlangan 2 va 5-variantlarda tegishlicha 1,1-2,2 suv tejalgan bo‘lsada, sug‘orishlar sonini kamaytirish imkoni bo‘lmadi(2-jadval).

Urug‘lik g‘o‘za parvarishlanganda uning paxta hosili, uruhlik xom-ashyosi, paxtaning texnologik sifat ko‘rsatkichlari va 1000 dona chigit vazni bo‘yicha ma’lumotlar ham tahlil qilindi. Bunda kuzgi siderat ekinlarini (xashaki ko‘k no‘xat+javdar+perko) 3 komponentli qilib ekish va to‘plagan ko‘k massasini yerga to‘liqligicha maydalab haydab yuborish o‘rta tolali g‘o‘zaning urug‘lik paxta hosili siderat ekilmaganga nisbatan 6,2 s/ga, umumiy paxta hosili 8,1 s/ga yuqori bo‘lganligi tadqiqotlarda aniqlandi. Shuningdek tuproqni o‘simlik biomassasi bilan boyitish (60-65 t/ga) g‘o‘zada mineral o‘g‘itlarning yillik me’yorini 25% ga tejash mumkinligini va paxta tolasi uzunligini 4,8 mm.ga, 1000 dona chigit vazinini 12,6 g. ga, yuqori bo‘lganligi aniqlandi. 1000 dona chigit vaznini ortishi foiz hisobida tola chiqishini kamayish qonuniyati kuzatildi.

Xulosa

Siderat ekinlari parvarishlanib, yerga to‘liqligicha haydab yuborilganda yuqori o‘simlik massasi (60-65 tonna) chirindi bo‘lib, tuproq strukturasiga ijobiy ta’sir etgan holda o‘rta tolali SP-2602 g‘o‘za navini urug‘lik maqsadida parvarishlashda sug‘orishlar sonining 1 martagacha tejalishiga, sug‘orish suvlarini 875 m^3/ga yoki 19-20% gacha tejash imkonini berishi, urug‘lik paxta hosilini 6,2 s/ga, 1000 dona chigit vazinini 12,6 g. ga yuqori bo‘lishini ta’minladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Dala tajribalarini o‘tkazish uslublari. Toshkent-2007 yil.Методика полевых и вегетационных опытов с хлопчатником. СоюзНИХИ, 1981 г.

2. Методы агрохимических, агрофизических и микробиологических исследований в поливных хлопковых районах. СоюзНИХИ, 1973 г.

3. Ernazarov I. Paxtachilikda oraliq ekinlar. //Monografiya. - Toshkent “Mehnat” - 1988 y. - B. 5-74.

УДК: 631.51., 631.54., 633.11.

КУЗГИ ЮМШОҚ БУҒДОЙ НАВЛАРИНИНГ ЎСУВ ДАВРИ ДАВОМИЙЛИГИНИНГ МИНЕРАЛ ЎҒИТЛАР МИҚДОРИ ВА СТИМУЛЯТОРЛАР БИЛАН ОЗИҚЛАНТИРИШ СОНИГА БОҒЛИҚЛИГИ

Узақов Ғуломжон Оқбутаевич

Жанубий деҳқончилик илмий тадқиқот институти

Аннотация. Мақолада Республиканинг жанубий минтақаси Қашқадарё вилоятининг оч тусли бўз тупроқлари шароитида кузги юмшоқ буғдой уруғларини ғўза қатор ораларига тупроққа ишлов бермасдан тўғридан-тўғри (no-till усулида) экиш, минерал ўғитлар ва стимуляторлар билан барг орқали озиқлантиришлар сонининг ўсув даври давомийлигига таъсири ёритилган. Ўрганилган навларнинг минерал ўғитлар билан $N_{180}P_{90}K_{60}$ меъёрда озиқлантирилиши ва барг орқали стимуляторлар қўлланилиши ўсув даврининг 231 кундан 237 кунгача бўлиши, Краснодарская-99 навида 236-237 кунни, Аср навида 233-235 кунни ва Ғозғон навида 231-232 кунни ташкил қилиши қайд қилиниб, навларнинг ўсув даври назорат (ўғитсиз) вариантга нисбатан Краснодарская-99 навида 6-7 кун, Аср навида 5-6 кун, Ғозғон навида 8-9 кун узайиши, $N_{90}P_{45}K_{30}$ вариантга нисбатан Краснодарская-99 навида 4 кун, Аср навида 3-4 кун, Ғозғон навида 4-7 кун узайиши, $N_{135}P_{68}K_{45}$ вариантга нисбатан Краснодарская-99 навида 2-3 кун, Аср навида 2 кун, Ғозғон навида 2-3 кун узайиши аниқланган.

Калит сўзлар: кузги юмшоқ буғдой, уруғ, нав, Краснодарская-99, Аср. Ғозғон, минерал ўғитлар, биостимуляторлар, ўсув даври.

Кириш. Дунё бўйича буғдой донли экинлар орасида шоли ва маккажўхоридан кейин учинчи, озиқ-овқат учун етиштириладиган донли экинлар орасида иккинчи ўринда туради. Дунё бўйича буғдой етиштиришда ресурстежамкор технологияларни қўллаш ҳисобига сифатли ва мўл ҳосил олишга катта аҳамият берилмоқда. Дунё бўйича бугунги кунда 780,5 миллион тонна буғдой[17], 31,0 миллион тонна тариқ[18], 5,3 миллион тонна[19] мош етиштирилади. Кейинги йилларда дунё бўйича суғориладиган ер майдонларининг ҳайдалма қатламида сув-шамол эрозиясининг кучайиши, тупроқда микрофауна ва флоранинг камайиши ҳосилдорликнинг 20-30 фоизга пасайишига олиб келмоқда. Бошоқли дон экинлари экиладиган майдонлар тупроқларининг унумдорлигини сақлаш ва ошириш мақсадида кўплаб давлатларда бошоқли дон экинларини етиштиришда ресурстежамкор (No-till) технологияни қўллаш орқали ижобий натижаларга эришилмоқда.

Республикамизда кейинги йилларда қишлоқ хўжалигини ислоҳ қилиш, хусусан соҳада давлат бошқаруви тизимини такомиллаштириш, бозор муносабатларини кенг жорий қилиш, ресурстежамкор технологияларни жорий этиш ҳамда қишлоқ хўжалиги маҳсулотлари ишлаб чиқарувчиларни замонавий техникалар билан таъминлаш борасида муайян ишлар амалга оширилмоқда. Шунингдек, Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 23 октябрдаги ПФ-5853-сон «Ўзбекистон Республикаси қишлоқ хўжалигини ривожлантиришнинг 2020 – 2030 йилларга мўлжалланган стратегиясини тасдиқлаш тўғрисида»ги Фармонида қишлоқ хўжалиги экинларини етиштиришда ресурстежамкор технологияларни қўллаш бўйича вазифалар белгилаб берилган[20].

Қишлоқ хўжалиги экинларини етиштиришда мунтазам равишда тупроққа минерал ўғитлар ва пестицидларнинг киритилиши тупроқ деградациясининг кучайиб бориши, тупроқ унумдорлигининг пасайиши, микрофауна ва флоралар камайишига олиб келмоқда. Кейинги йилларда жаҳон миқёсида нефт маҳсулотлари, минерал ўғитлар ва бошқа ресурслар нархининг ошиб бориши, инновацион ресурстежамкор технологиялардан кенг кўламда фойдаланилмаслиги маҳсулот таннархининг ошишига сабаб бўлмоқда.

Бугунги кунда бошоқли дон экинларини етиштиришда ёқилғи мойлаш маҳсулотлари, минерал ўғитлар ва бошқа ресурслар, сарф-харажатларни иқтисод қилишда ҳамда тупроқ унумдорлигини оширишда инновацион ресурстежамкор агротехнологиясини ишлаб чиқиш ўта долзарб ҳисобланади.

Мавзунинг ўрганилганлик даражаси. Бир қатор олимлар ўғитларни барг орқали қўллашга катта аҳамият беришади ва кузги буғдойга фосфорли ва калийли минерал ўғитларни экиш тадбирлари билан бир вақтда, азотли ўғитлар билан эрта баҳорда қўллашни тавсия қилишади [2, 3, 7, 8].

Қишлоқ хўжалиги экинларини етиштиришда ва юқори сифатли ҳосил олишда тупроқ хусусиятлари, шунингдек, турли хил ўғитларни қўллаш меъёри ва муддати катта аҳамиятга эга. Ўғитлаш тупроқнинг озуқавий ҳолатини, шунингдек, ўсимликларнинг ўсиши ва ривожланишини яхшилайди. Бу ўсимликларнинг кимёвий таркибини ва экинлар билан озуқа моддаларининг олиб чиқиб кетишини ўзгартиради. Минерал ўғитларнинг турли миқдори ва нисбатларини қўллашда тупроқ ва экин турлари айниқса муҳимдир. Шунинг учун, кузги буғдой навлари учун оптимал озиқлантириш тизимини ишлаб чиқиш ҳозирги кунда долзарб аҳамиятга эга [1].

1 ц буғдой дони ва мос равишда сомон ҳосил қилиш учун азот 2,0-3,5 кг, фосфор 1,8-2,8 кг ва калий 2,0-2,3 кг ни ташкил қилади. Шунинг учун буғдойнинг юқори ҳосилдорлигини ошириш учун ушбу моддаларга бўлган эҳтиёжни тўлиқ қондириш зарур[21].

Ҳозирги замон буғдой етиштириш технологияларида микроэлементлар билан барг

[17] https://grainrus.com/articles/mirovoe-proizvodstvo-pshenitsy/

[18] https://www.researchgate.net/figure/Millet-production-in-different-countries-of-the-world-FAO-2018_fig1_352124923

[19] https://avrdc.org/the-billion-dollar-bean/

[20] https://lex.uz/ru/docs/4567334

[21] https://7universum.com/ru/tech/archive/item/13590

орқали озиқлантириш муҳим рол ўйнайди, бу ўсимликларларнинг ривожланишига ижобий таъсир қилиб, ўсимликларнинг турли стресс омилларга чидамлилигини ошириш имконини беради. Стимуляторларнинг экологик хавфсизлиги ва арзонлиги, нисбатан юқори самарадорлиги экинларни етиштириш технологияларидаги аҳамиятлилигини белгилайди [6]. Шу билан бирга, ўсиш регуляторларининг ўсимликларга таъсири ва микроэлементларнинг ҳаракатчанлиги асосан тупроқ, иқлим ва агрономик омиллар билан боғлиқ [4, 5].

Услуб ва материаллар. Тадқиқотлар Республиканинг жанубий минтақаси Қашқадарё вилояти оч тусли бўз тупроқлар шароитида Қарши тумани Я.Омонов ҳудудида жойлашган Жанубий деҳқончилик илмий тадқиқот институти тажриба участкасида 2020-2022 йилларда кузги юмшоқ буғдойнинг Краснодарская-99, Аср ва Ғозғон навларини минерал ўғитлар ва биостимуляторлар билан озиқлантиришнинг дон ҳосилдорлигига таъсири бўйича тадқиқотлар олиб борилган. Тадқиқот мақсадига кўра, кузги буғдой уруғлари ресурстежамкор (no-till) усулида ғўза қатор ораларига Fankhauzer 2115 ва Vense Tudo 14600 SA махсус универсал сеялкасида оптимал муддат (10-15 октябрь саналари)да, 3 қайтариқда экиб ўрганилган. Дала тажрибалари Бутунроссия Ўсимликшунослик илмий-тадқиқот институти услубий қўлланмаси (1985) асосида амалга оширилган. Фенологик кузатувлар ва биометрик таҳлиллар эса Қишлоқ хўжалик экинлари навларини синаш давлат комиссиясининг услубий қўлланмаси (1989) бўйича олиб борилган.

Тажриба даласида етиштирилган донли экинлар донининг технологик сифат кўрсаткичлари Ўз ДСТ 880:2015 талаблар асосида намуна олиш ГОСТ 13586.3-83, 1000 дона дон вазни ГОСТ 10842-89, дон натураси ГОСТ 10840-64, шишасимонлик даражаси ГОСТ 10987-76, оқсил миқдори ГОСТ 10846-91, клейковина миқдори, сифати (ИДК) кўрсаткичлари ГОСТ 13586.1-68 бўйича аниқланган. Тажриба натижаларининг математик-статистик таҳлиллари Б.А.Доспехов (1985 й.) услуби асосида амалга оширилган.

Натижалар ва муҳокама. Кузги юмшоқ буғдой навларининг ўсиш-ривожланиши, ўсув даври давомийлиги навнинг биологик хусусиятларидан ташқари бевосита тупроқ-иқлим шароитлари ҳамда қўлланиладиган агрономик омилларга боғлиқдир. Тажрибаларимизда минерал ўғитлар миқдори ва барг орқали стимуляторлар билан озиқланитириш ўрганилган навларнинг ўсув даври давомийлигига таъсир қилиши аниқланди (1-жадвал).

Олиб борилган кузатув натижаларига кўра, минерал ўғитлар билан озиқлантирилмаган назорат вариантида навларнинг ўсув даври 223-230 кунни ташкил қилиб, энг эрта муддатда Ғозғон нави 223-224 кунда пишиб етилган бўлса, вегетация даври энг узун бўлган нав Краснодарская-99 навида (230 кун) кузатилди.

Минерл ўғитлар билан $N_{90}P_{45}K_{30}$ меъёрда озиқлантирилиб, барг орқали стимуляторлар қўлланилмаганда навларнинг ўсув даври 225-232 кунни ташкил қилиб, барг орқали стимулятор билан озиқлантириш 3-4 марта бўлганда ўсимликларнинг ўсув даври 1-2 кунга узайганлиги ёки назорат (ўғитсиз) вариантга нисбатан 2-3 кунга узайганлиги кузатилди.

Тадқиқотларимизда ўғитлар миқдори $N_{135}P_{68}K_{45}$ меъёрда қўлланилиб, барг орқали озиқлантирилмаган вариантларда навларнинг ўсув даври 229-233 кунни ташкил этган бўлса, барг орқали озиқлантириш 2-3 марта амалга оширилганда 230-235 кунни, 4 марта барг орқали озиқлантирилганда эса 231-235 кунни ташкил қилганлиги аниқланди.Ушбу ўғитлаш меъёрида навларнинг ўсув даври назорат (ўғитсиз) вариантга нисбатан 5-7 кунга, $N_{90}P_{45}K_{30}$ вариантга нисбатан эса 3-5 кунга узайганлиги қайд қилинди.

Ўрганилган навларнинг энг юқори фонда ($N_{180}P_{90}K_{60}$) озиқлантирилиши ва барг орқали стимуляторлар қўлланилиши ўсув даври 231 кундан 237 кунгача бўлиши кузатилиб, Краснодарская-99 навида 236-237 кунни, Аср навида 233-235 кунни ва Ғозғон навида 231-232 кунни ташкил қилди. Мазкур вариантда навларнинг ўсув даври назорат (ўғитсиз) вариантга нисбатан Краснодарская-99 навида 6-7 кун, Аср навида 5-6 кун, Ғозғон навида 8-9 кун узайиши, $N_{90}P_{45}K_{30}$ вариантга нисбатан Краснодарская-99 навида 4 кун, Аср навида 3-4 кун, Ғозғон навида 4-7 кун узайиши, $N_{135}P_{68}K_{45}$ вариантга нисбатан Краснодарская-99 навида 2-3 кун, Аср навида 2 кун, Ғозғон навида 2-3 кун узайиши аниқланди.

1-жадвал

Кузги юмшоқ буғдой навларининг ўсув даври давомийлигининг минерал ўғитлар миқдори ва стимуляторлар билан озиқлантириш сонига боғлиқлиги

№	Минерал ўғит қўллаш меъёри	Биостимулятор қўллаш сони	Навлар номи	Ўсув даври, кун			Ўртача
				2020 й	2021 й	2022 й	
1	Назорат (ўғитсиз)	-	Краснодарская-99	233	225	232	230
2			Аср	231	224	230	228
3			Ғозғон	225	221	224	223
4		2	Краснодарская-99	233	225	232	230
5			Аср	231	224	230	228
6			Ғозғон	225	221	224	223
7		3	Краснодарская-99	234	225	232	230
8			Аср	232	224	230	229
9			Ғозғон	226	221	224	224
10		4	Краснодарская-99	234	225	232	230
11			Аср	232	224	230	229
12			Ғозғон	226	221	224	224
13	$N_{90}P_{45}K_{30}$	-	Краснодарская-99	236	227	233	232
14			Аср	234	225	231	230
15			Ғозғон	228	222	226	225
16		2	Краснодарская-99	236	227	233	232
17			Аср	234	225	231	230
18			Ғозғон	228	222	226	225
19		3	Краснодарская-99	237	227	233	232
20			Аср	235	225	231	230
21			Ғозғон	229	222	226	226
22		4	Краснодарская-99	237	228	234	233
23			Аср	235	226	232	231
24			Ғозғон	229	224	229	227
25	$N_{135}P_{68}K_{45}$	-	Краснодарская-99	237	228	235	233
26			Аср	235	226	233	231
27			Ғозғон	232	224	230	229
28		2	Краснодарская-99	238	231	235	235
29			Аср	236	229	233	233
30			Ғозғон	233	227	230	230
31		3	Краснодарская-99	238	232	235	235
32			Аср	236	229	233	233
33			Ғозғон	233	228	230	230
34		4	Краснодарская-99	238	232	236	235
35			Аср	236	229	233	233
36			Ғозғон	233	228	231	231
37	$N_{180}P_{90}K_{60}$	-	Краснодарская-99	238	233	236	236
38			Аср	237	230	233	233
39			Ғозғон	233	229	232	231
40		2	Краснодарская-99	239	233	237	236
41			Аср	238	230	234	234
42			Ғозғон	234	229	232	232
43		3	Краснодарская-99	239	234	237	237
44			Аср	238	231	235	235
45			Ғозғон	234	229	233	232
46		4	Краснодарская-99	239	234	237	237
47			Аср	238	231	235	235
48			Ғозғон	234	229	233	232

Ўрганилган навларнинг ўсув даври тадқиқот йиллари бўйича таҳлил қилинганда, кузги

буғдой ўсимлигининг ўсув даври мавсум давомидаги ёғингарчилик миқдори ва хос равишда ҳавонинг нисбий намлигига боғлиқ бўлиб, навларнинг пишиб етилиш даври 2020 йилда 225-239 кунни (ёғин миқдори 299,2 мм), 2021 йилда 221-234 кунни (ёғин миқдори 107,0 мм), 2022 йилда 224-237 кунни (ёғин миқдори 176,0 мм) ташкил этди.

Хулоса

1. Республиканинг жанубий минтақаси Қашқадарё вилоятининг оч тусли бўз тупроқлари шароитида кузги юмшоқ буғдой уруғларини ғўза қатор ораларига тупроққа ишлов бермасдан тўғридан-тўғри (no-till усулида) 10-15 октябрда 5,5 млн.дона уруғ ҳисобида экиб етиштиришда навларнинг тўлиқ ўсув даври 221 кундан 239 кунгача бўлиши аниқланди.

2. Ўрганилган навларнинг минерал ўғитлар билан $N_{180}P_{90}K_{60}$ меъёрда озиқлантирилиши ва барг орқали стимуляторлар қўлланилиши ўсув давринининг 231 кундан 237 кунгача бўлиши, Краснодарская-99 навида 236-237 кунни, Аср навида 233-235 кунни ва Ғозғон навида 231-232 кунни ташкил қилиши қайд қилиниб, навларнинг ўсув даври назорат (ўғитсиз) вариантга нисбатан Краснодарская-99 навида 6-7 кун, Аср навида 5-6 кун, Ғозғон навида 8-9 кун узайиши, $N_{90}P_{45}K_{30}$ вариантга нисбатан Краснодарская-99 навида 4 кун, Аср навида 3-4 кун, Ғозғон навида 4-7 кун узайиши, $N_{135}P_{68}K_{45}$ вариантга нисбатан Краснодарская-99 навида 2-3 кун, Аср навида 2 кун, Ғозғон навида 2-3 кун узайиши аниқланди.

3. Барча ўрганилган навларнинг ўсув давринининг энг юқори кўрсаткичи 2020 йилда қайд қилинганлиги ушбу йилда ёғин миқдори (299,2 мм), 2021 йилда кузатилган (107,0 мм) ва 2022 йилда кузатилган ёғин миқдори (176,0 мм) га нисбатан мос равишда 192,2-123,2 мм юқори бўлиши ва шунга мос ҳолда ҳавонинг нисбий намлиги юқорилиги таъсир этганлиги билан изоҳланади.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Атоев Б.К., Абралов О.С., Юлдашов М.Х. Влияние норм минеральных удобрений на агрохимические свойства почв, содержание элементов питания в озимой пшенице и её урожайность // Научное обозрение. Биологические науки. 2019. № 2. С. 52-56; URL: https://science-biology.ru/ru/article/view?id=1147 (дата обращения: 29.01.2026). DOI: https://doi.org/10.17513/srbs.1147

2. Дериглазова Г.М., Митрохина О.А, Боева Н.Н. Значение некорневой обработки микроэлементами и комплексными удобрениями посевов зерновых культур // Вестник Курской государственной сельскохозяйственной академии. - 2011. - № 3. - С. 45-47.

3. Долгополова Н.В. Оценка предшественников по урожайности и качеству зерна посевов озимой пшеницы // Вестник Курской государственной сельскохозяйственной академии. - 2015. - № 5. - С. 49-52.

4. Исайчев В.А., Андреев Н.Н., Каспировский А.В. Урожайность и качество зерна яровой пшеницы в зависимости от предпосевной обработки семян регуляторами роста // Вестник Ульяновской государственной сельскохозяйственной академии. 2013. № 3 (23). С. 14-19.

5. Половинкин В.Г., Исайчев В.А., Провалова Е.В. Влияние внекорневой подкормки на урожйность и качество зерна озимой пшеницы // Инновационные технологии создания и возделывания сельскохозяйственных растений: матер. Междунар. науч.-практич. конф. Саратов, 2012. 78 с.

6. Сорока Т.А., Щукин В.Б., Каракулев В.В. Влияние микроэлементов, удобрения на основе гуминовых кислот и регуляторов роста на продуктивность посева и качество зерна озимой пшеницы // Известия Оренбургского государственного аграрного университета. 2012. № 3 (33). С. 51-53.

7. Сухановский Ю.П., Прущик А.В., Санжарова С.И. Оценка и динамика ресурсов чернозёмов и серых лесных почв сельскохозяйственных угодий Курской области // Вестник Курской государственной сельскохозяйственной академии. - 2013. - № 6. - С. 53-59.

8. Эффективность использования пашни в зависимости от сочетания удобрений в севооборотах / А.С. Акименко, И.В. Дудкин, Ю.Б. Логачев, Т.А. Дудкина // Земледелие. - 2013. - № 2. - С. 10-12.

KUZGI YUMSHOQ BUG‘DOY AGROTEXNOLOGIYALARINING DON SIFATIGA TA’SIRI

Azimova Muxayyo Egamberdievna, Yo‘ldosheva Sevinch Quvondiq qizi
Qarshi davlat texnika universiteti

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Qashqadaryo viloyatining och tusli bo‘z tuproqlar sharoitida ekish meyorlari , muddatlari va mineral o‘g‘itlar miqdorini kuzgi yumshoq bug‘doyning Yaksart, G‘ozg‘on, Bunyodkor va Krasnodarskaya-99 navlari donining sifat ko‘rsatkichlariga bog‘liqligi o‘rganilgan. Tajriba natijalariga ko‘ra ekish muddatlarining kechikishi va ekish meyorlarining ortib borishi bilan don tarkibidagi sifat ko‘rsatkichlarini kamayib borishi kuzatilgan. O‘g‘it meyorlarining ortib borishi esa aksincha don sifatini oshishiga olib kelgan.*

Kalit so‘zlar: *Nav*, muddat, me’yor, o‘g‘it, oqsil, kleykovina, shishasimonlik.

Аннотация. В данной статье рассматриваются нормы, сроки и количество минеральных удобрений в условиях светлых серозёмных почв Кашкадарьинской области в зависимости от качественных характеристик озимой мягкой пшеницы сортов Яксарт, Гозгон, Бунёдкор и Краснодарская-99. По данным экспериментов, наблюдается снижение качества злаков с задержкой времени сева и повышением нормы высадки. Повышение нормы внесения удобрений, напротив, привело к улучшению качества зерна.

Ключевые слова: сорт, срок, норма, удобрение, белок, клейковина, стекловидность.

Dunyoda global ob-havo va iqlimning o‘zgarib borayotganligi qishloq xo‘jalik ekinlaridan, jumladan, donli boshoqli ekinlardan ham yuqori va sifatli hosil olishning kamayishiga olib kelmoqda. Buni hisobga olib, respublikamiz tuproq va iqlim sharoitlarining xilma-xilligini e’tiborga olgan holda, har bir mintaqaning tuproq-iqlim sharoitlariga mos, serhosil, ertapishar, qurg‘oqchilikka va issiqlikka bardoshli, don sifati yuqori bo‘lgan navlarni yaratishni hamda ularni respublikamizning turli tuproq-iqlim sharoitida yetishtirish agrotexnologiyasini takomillashtirishni taqozo etadi. Tadqiqotlarimizning nazorat (o‘g‘itsiz) paykalchalarda kuzgi yumshoq bug‘doy navlari erta (1.10) muddatda 4,0 mln unuvchan urug‘ hisobida ekilgan maydonlarda Krasnodarskaya-99 navi doni tarkibidagi oqsil miqdori 13,7%, Yaksart navida 13,4, Bunyodkor navida 13,5 va G‘ozg‘on navida 13,9% ni tashkil etgan bo‘lsa, bu ko‘rsatkichlar 5-6 mln urug‘ ekilgan paykalchalarda navlarga mos ravishda 13,9-13,8%, 13,5-13,9; 13,6-13,7 va 13,8-14,1 % bo‘lganligi aniqlandi.

Kuzgi yumshoq bug‘doy navlari o‘rta muddatda (20.10) ekilgan nazorat (o‘g‘itsiz) variantlarda oqsil miqdori Krasnodarskaya-99 navida 13,7-14,0 %, Yaksart navida 13,8-14,3, Bunyodkor navida 14,2-14,4 va G‘ozg‘on navida 14,3-14,5% bo‘lganligi aniqlandi. Tajriba dalasida mineral o‘g‘itlar me’yorlari $N_{180}P_{108}K_{54}$ kg/ga hisobida qo‘llanilgan paykalchalardagi bug‘doy doni tarkibidagi oqsil miqdori yuqori, ya’ni Krasnodarskaya-99 navida 14,3-15,1%, Yaksart navida 14,5-15,3; Bunyodkor navida 14,6-15,4 va G‘ozg‘on navida 14,7-15,6% ni tashkil etgan bo‘lsa, o‘g‘itlar me’yori oshirilib ($N_{210}P_{147}K_{105}$ kg/ga) qo‘llanilgan paykalchalarda yetishtirilgan don tarkibidagi oqsil miqdori nav va ekish me’yorlariga muvofiq ravishda 15,2-15,8%, 15,3-16,1; 15,6-16,3 va 15,7-16,8 % bo‘lganligi qayd etildi.

Kuzgi bug‘doy navlari kechki muddatda (10.11) gektariga 4,0, 5,0 va 6,0 mln dona unuvchan urug‘ hisobida ekilgan, o‘g‘it ishlatilmagan (nazorat) paykalchalarda yetishtirilgan don tarkibidagi oqsil miqdori Krasnodarskaya-99 navida 13,5-13,4 %, Yaksart navida 13,5-15,6; Bunyodkor navida 13,7-13,5 va G‘ozg‘on navida 13,8-13,9 %, ushbu ekish muddati va me’yorlarida gektariga $N_{180}P_{108}K_{54}$ kg/ga qo‘llanilganda, Krasnodarskaya-99 navi don tarkibidagi oqsil miqdori, yuqoridagilarga muvofiq ravishda 13,6-14,4 %, Yaksart navida 13,5-14,5; Bunyodkor navida 14,0-14,5 va G‘ozg‘on navida esa 14,2-14,7 %, ushbu sharoitda mineral o‘g‘itlar $N_{210}P_{147}K_{105}$ kg/ga berilgan paykalchalarda yetishtirilgan don tarkibidagi oqsil miqdori navlarga mutanosib ravishda 14,6-15,6%, 14,6-16,1; 14,8-16,3 va 14,9-16,8% ni tashkil etdi.

Tajribalarimizda ekish muddatlari va me’yorlarining don tarkibidagi kleykovina miqdoriga ta’siri bo‘yicha, xuddi oqsilda kuzatilgan qonuniyat namoyon bo‘ldi. O‘rganilgan kuzgi yumshoq bug‘doyning Krasnodarskaya-99, Yaksart, Bunyodkor va G‘ozg‘on navlarida, ekish muddati va me’yorlariga bog‘liq holda don tarkibidagi kleykovina miqdori sezilarli ko‘rsatkichlarda o‘zgardi.

Masalan, erta muddatda (1.10) va 4,0; 5,0; 6,0 mln dona urug‘ me’yorida ekilgan nazorat (o‘g‘itsiz) paykalchalarda kleykovina miqdori, Krasnodarskaya-99 navida 21,9-22,3%, Yaksart navida 20,7-22,6; Bunyodkor navida 20,9 -22,4 va G‘ozg‘on navida 22,4-23,7 %, ushbu ekish muddati va me’yorlarida $N_{180}P_{108}K_{54}$ kg/ga qo‘llanilganda bu ko‘rsatkichlar Krasnodarskaya-99 navida 23,5-25,2%, Yaksart navida 24,0-25,6; Bunyodkor navida 24,6 -26,1 va G‘ozg‘on navida 25,2-26,4 %, o‘g‘itlar me’yori $N_{210}P_{147}K_{105}$ kg/ga berilgan paykalchalarda olingan don tarkibidagi kleykovina miqdori navlarga mutanosib ravishda 26,3-28,0; 27,2-28,3; 27,5-28,6 va 27,9-29,2 % bo‘lganligi aniqlandi.

Kuzgi yumshoq bug‘doy navlari maqbul muddatlarda (20.10) gektariga 4,0, 5,0 va 6,0 mln dona unuvchan urug‘ hisobida ekilib, oziqlantirilmagan –nazorat variantlarda kleykovina miqdori Krasnodarskaya-99 navida ekish me’yorlariga mos ravishda 21,2-23,5 %, Yaksart navida 21,7-23,8, Bunyodkor navida 22,0-23,4 va G‘ozg‘on navida 23,8-24,9 % ni tashkil etdi. Ushbu muddatda va me’yorlarda ekilib, oziqlantirish $N_{180}P_{108}K_{54}$ kg/ga bilan o‘tkazilgan paykalchalarda yetishtirilgan don tarkibidagi kleykovina miqdori yuqori bo‘lib, bu Krasnodarskaya-99 navida 24,8-27,0%, Yaksart navida 25,1-26,8, Bunyodkor navida 26,1-26,9 va G‘ozg‘on navida 26,8-28,0 % ga to‘g‘ri keldi. Oziqlantirish me’yorini ($N_{210}P_{147}K_{105}$ kg/ga) oshirilishi barcha variantlarda kleykovina miqdorini nisbatan yanada yuqori bo‘lishini ta’minladi. Bu sharoitda yetishtirilgan don tarkibidagi kleykovina miqdori Krasnodarskaya-99 navida 26,5-29,2 %, Yaksart navida 27,4-29,5, Bunyodkor navida 27,7-29,8 va G‘ozg‘on navida 28,6-30,2 % ni tashkil etdi.

Tajribalarimizda yetishtirilgan kuzgi yumshoq bug‘doy navlari donlari tarkibidagi kleykovina miqdoriga ekish muddatlari va me’yorlari birgalikda ta’sir ko‘rsatdi. Masalan, kuzgi yumshoq bug‘doy navlari urug‘lari kech muddatlarda (10.11), 4,0; 5,0 va 6,0 mln dona unvchan urug‘ hisobida ekilib, o‘g‘it qo‘llanilmagan nazorat variantlarida kleykovina miqdori Krosnadar-99 navida, ekish me’yorlariga muvofiq 20,7-20,5%, Yaksart navida 21,6-21,2, Bunyodkorda 21,8-21,6 va G‘ozg‘on navida 21,9-22,2% bo‘lganligi aniqlandi va bunda, don tarkibidagi kleykovina miqdorini ekish me’yorlarining oshib borishi bilan kamayishi kuzatildi. Lekin, oziqlantirish o‘tkazilganda, aksincha, don tarkibidagi kleykovina miqdori ekish me’yorlariga bog‘liq bo‘lmagan holda ortganligi qayd etildi. Ya’ni oziqlantirish $N_{210}P_{147}K_{105}$ kg/ga bilan o‘tkazilganda, kleykovina miqdori Krasnodarskaya-99 navida 25,0-27,1%, Yaksart navida 25,4-27,0, Bunyodkor navida 26,6-27,4 va G‘ozg‘on navida esa 26,5-27,5% ni tashkil etdi.

Ma’lumki donning shishasimonligi uning tarkibidagi oqsil va kleykovina miqdori bilan uzviy bog‘liq bo‘lganligi uchun ham, muhim sifat ko‘rsatkichlaridan biri hisoblanadi. Tadqiqotlarimizda kuzgi maqbul muddatlarda (20.10) va me’yorlarda 5,0 mln dona unuvchan urug‘ hisobida ekilib, $N_{210}P_{147}K_{105}$ kg/ga bilan oziqlantirilgan paykalchalarda yetishtirilgan donning shishasimonligi Krasnodarskaya-99 navida 69%, Yaksart navida 72, Bunyodkor navida 75 va G‘ozg‘on navida 77 % ni tashkil etdi.

Tadqiqotlarimizda o‘rganilgan kuzgi yumshoq bug‘doyning Krasnodarskaya-99, Yaksart, Bunyodkor va G‘ozg‘on navlarini IDK ko‘rsatkichlari tahlil qilinganda, III-sinfga taaluqli, ya’ni 0 dan 15 gacha qattiq qoniqarsiz hamda 105dan 125 gacha kuchsiz qoniqarsiz, shuningdek, II-sinfga (20 dan 40 gacha) mansub qattiq qoniqarli sifat ko‘rsatkichlari aniqlanmadi. Tajribalarimizda kuzgi yumshoq bug‘doyning Krasnodarskaya-99, Yaksart, Bunyodkor, G‘ozg‘on navlari erta muddatda (1.10), 4,0; 5,0 va 6,0 mln dona urug‘ me’yorda ekilgan variantlarda don sifat ko‘rsatkichlarini II-sinf (80 dan 100 gacha) talabiga javob berganligi kuzatildi. Shuni alohida ta’kidlash kerakki, ushbu muddatda $N_{210}P_{147}K_{105}$kg/ga fonida Yaksart, G‘ozg‘on. Bunyodkor navlari 5,0-6,0 mln unuvchan urug‘ hisobida ekilgan variantlardagi don sifati I-sinfga (40 dan 75 gacha) talabiga (“yaxshi”) javob berganligi aniqlandi.

Ushbu navlarni erta muddatlarda ekish mumkinligini ko‘rsatdi. Ko‘rsatib o‘tilgan kuzgi yumshoq bug‘doy navlari kech (10.11) muddatlarda yuqoridagi me’yorlarda ekilganda, sifat ko‘rsatkichlari II-sinf talabiga javob beradigan don olindi. Bunda, ushbu navlar erta muddatlarda ekilganda don sifat ko‘rsatkichlarining pasayib borishini kuzatish mumkin. Kuzgi yumshoq bug‘doyning Krasnodarskaya-99, Yaksart, Bunyodkor va G‘ozg‘on navlari o‘rta muddatda (20.10), 4,0; 5,0 va 6,0 mln urug‘ hisobida ekilganda, o‘g‘it ishlatilmagan (nazorat) hamda $N_{180}P_{108}K_{54}$ kg/ga qo‘llanilgan paykalchalarda yetishtirilgan donlarning sifat ko‘rsatkichlari II-sinf (80 dan 100

gacha) kuchsiz qoniqarli talablariga javob berganligi kuzatildi. Kuzgi bug‘doy navlari ko‘rsatilgan muddatda 5,0 mln dona unuvchan urug‘ hisobida ekilib, $N_{210}P_{147}K_{105}$ kg/ga bilan oziqlantirilgan paykalchalarda yetishtirilgan don sifat ko‘rsatkichlari I-sinf (40 dan 75 gacha), ya’ni kleykovina sifati “yaxshi” talabiga javob berganligi kuzatildi. Bu esa, har bir navning biologik xususiyatlaridan kelib chiqqan hollarda nav agrotexnikasini to‘g‘ri olib borish, shu bilan birgalikda ularning ekish muddatlarini, me’yorlarini va oziqlantirishni to‘g‘ri belgilash muhim ahamiyatga ega ekanligi aniqlandi.



1.1.-Rasm. Kuzgi bug‘doy navlarini ekish muddati, me’yori va o‘g‘itlashni don tarkibidagi oqsil miqdoriga ta’siri (2014-2016 yy.)

Respublikamizning turli tuproq-iqlim sharoitlarida yetishtiriladigan kuzgi yumshoq bug‘doy navlari donining sifatini belgilovchi eng muhim ko‘rsatkichlardan biri, bu uning naturasi bo‘lib, u donning to‘laligini va tegirmonboplik qiymatini belgilaydi. Shunga ko‘ra, don naturasi uning sifatini belgilovchi ko‘rsatkichlardan biri sifatida davlat standartlari ro‘yxatiga kiritilgan.

Tajribalarimizning o‘g‘it ishlatilmagan, ekish 4,0; 5,0 va 6,0 mln dona unuvchan urug‘ hisobida erta muddatda (1.10) ekilgan paykalchalarda yetishtirilgan kuzgi bug‘doy donining naturasi Krasnodarskaya-99 navida ekish me’yorilariga mos ravishda 766-773 g/l, Yaksart navida 769-777, Bunyodkor navida 771-779 va G‘ozg‘on navida 775-782 g/l bo‘lgan bo‘lsa, ushbu ekish muddati va me’yorlarida o‘simliklarni oziqlantirish uchun $N_{180}P_{108}K_{54}$ kg/ga qo‘llanilganda bu ko‘rsatkichlar navlarga muvofiq 784-787 g/l, 787-790, 786-791 va 790-795 g/l ni , o‘g‘itlar me’yori oshirilib ($N_{210}P_{147}K_{105}$ kg/ga) qo‘llanilganda don naturasi Krasnodarskaya-99 navida 795-797 g/l, Yaksart navida 798-802, Bunyodkor navida 801-806 va G‘ozg‘on navida 805-811 g/l ni tashkil etdi. Tajriba dalasida olib borilgan tadqiqotlar natijasiga ko‘ra o‘rta muddatda (20.10) ekilgan kuzgi yumshoq bug‘doy navlarini o‘g‘it ishlatilmagan (nazorat) variantidagi ko‘rsatkichlari, oziqlantirish o‘tkazilgan variantlarnikidan past ekanligi kuzatildi. Bunda, yetishtirilgan donlarning naturasi Krasnodarskaya-99 navida 759-764 g/l, Yaksartda 762-766, Bunyodkorda 765-769 va G‘ozg‘on navidv 770-771 g/l ni tashkil etgan bo‘lsa, ko‘rsatib o‘tilgan ekish muddati va me’yorlarida o‘simliklar $N_{180}P_{108}K_{54}$ kg/ga bilan oziqlantirilgan maydonlarda yetishtirilgan don naturasi Krasnodarskaya-99 navida 776-783g/l. Yaksart navida 776-784, Bunyodkor navida 780-786 va G‘ozg‘on navida esa 784-790 g/l, o‘g‘itlar me’yori oshirilib ($N_{210}P_{147}K_{105}$ kg/ga) qo‘llanilganda, bu ko‘rsatkichlar yanada yuqori bo‘lib, Krasnodarskaya-99 navida 789-800 g/l. Yaksart navida 790-794, Bunyodkor navida 793-798 va G‘ozg‘on navida esa 797-800 g/l, bo‘lganligi aniqlandi.

Xulosa qilib aytganda, Qashqadaryo viloyatining sug‘oriladigan och tusli bo‘z tuproqlari

sharoitida kuzgi yumshoq bug‘doyning Krasnodarskaya-99, Yaksart, Bunyodkor va G‘ozg‘on navlari uchun eng maqbul ekish muddati 20 oktabr, me’yori 5,0 mln dona unuvchan urug‘ bo‘lib, mineral o‘g‘itlar $N_{210}P_{147}K_{105}$ kg/ga me’yorlarida qo‘llanilganda eng yuqori va sifatli don hosili (oqsil 15,4-16,2%, kleykovina 28,3-29,7 va donning shishasimonligi 69-77%, don naturasi 744-805 g/l, IDK birligi 78-75 bo‘lib, 1-sinfga, ya’ni “yaxshi”) yetishtirishni ta’minlaganligi aniqlandi. Kuzgi yumshoq bug‘doy navlari maqbul ekish muddati va me’yorlaridan erta (1.10) yoki kech (10.11) ekilganda, donning ko‘rsatib o‘tilgan sifat ko‘rsatkichlari pasayganligi hisobga olindi.

Foydalanilgan adbiyotlar

1. Abduraxmonov S. Kuzgi bug‘doyning “Sanzar-8” navini o‘g‘itlash me’yori va sug‘orish tartibi. O‘zbekiston Agrar fani xabarnomasi. 2003, №3, 11 b.

2. Siddiqov R. Non sifatli bo‘lsin desangiz. O‘zbekiston qishloq xo‘jaligi. № 4, 2004, 14-15 b.

3. Xalimov I., Sattorov M., Ismoilov A. Me’yorida ekkan ma’qul ekan. // j. O‘zbekiston qishloq xo‘jaligi, № 8, 2004, 16 b.

UDK: 633.511:631.52

SUV BILAN TURLICHA TA’MINLANGANLIK SHAROITLARIDA RANGLI TOLALI G‘O‘ZA NAMUNALARI VA ULARNING DURAGAYLARIDA TOLA CHIQIMI BELGISINING NAMOYON BO‘LISHI

Xamdullayev Sh.A., Nabiyev S.M., Chorshanbiyev N.E., Rahimova G.X., Dilmurodova M.U.
O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi, Genetika va o‘simliklar eksperimental biologiyasi instituti

Annotatsiya. *Ushbu tadqiqotda suv bilan turlicha ta’minlanganlik sharoitlarida rangli tolali g‘o‘za genotiplari va ularning F_1 duragaylarida tola chiqimi belgisining namoyon bo‘lishi hamda irsiylanish xususiyatlari o‘rganildi. Dala tajribalari optimal sug‘orish va modellashtirilgan qurg‘oqchilik sharoitlarida olib borildi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, suv bilan optimal ta’minlanganlik sharoitida tola chiqimi yuqori ko‘rsatkichlari oq tolali Sadaf, Gulshan va Mayin tola navlarida kuzatildi, ayrim rangli tolali namunalar esa nisbatan past ko‘rsatkichlarni namoyon etdi. F_1 duragaylarida esa tola chiqimi belgisi turli darajada irsiylanib, asosan salbiy o‘ta dominantlik hamda ijobiy va salbiy to‘liqsiz dominantlik holatlarida namoyon bo‘ldi. Suv tanqisligi sharoitida ko‘plab genotiplar va duragay kombinatsiyalarida tola chiqimi ma’lum darajada ortishi kuzatildi.*

Kalit so‘zlar. *G‘o‘za, rangli tolali tola chiqimi, duragay, irsiylanish, dominantlik darajasi, suv tanqisligi.*

Kirish. Dunyo bo‘yicha ishlab chiqarilayotgan deyarli barcha paxta tolalari oq rangda bo‘lsada, tetraploid paxta turlarining tolasi oqdan tortib turli xil darajadagi yashil va jigarranglarda namoyon bo‘lishi mumkin. Masalan, *Gossypium hirsutum* L. odatda oq tolali, *G. barbadense* L. esa ko‘pincha novvot rangli tolaga ega [5]. Paxta tolasining rangi sellyuloza bilan aralashgan pigmentlar mavjudligining natijasi va irsiy yo‘l bilan uzatiladigan xususiyatdir [1]. Tabiiy rangli paxta atrof-muhit va inson salomatligi uchun xavfsiz hisoblanadi, chunki u tola rivojlanish jarayonida pigmentlarni sintezlaydi va to‘playdi hamda mato ishlab chiqarishda bo‘yoqlash yoki qo‘shimcha ishlov berishni talab qilmaydi [1, 4]. Biroq, rangi beqaror va bir xil emasligi, past hosildorlik va tolalar sifati yetarli emasligi tabiiy rangli paxtaning tijoriy qo‘llanilishini cheklamoqda [2, 3]. Hosildor, tola chiqimi va sifat yuqorii, barqaror rangli tolaga ega g’o’za navlarini yaratish seleksiya uchun murakkab vazifa bo‘lib qolmoqda. Tola chiqimining genetik xususiyatlarini aniqlash ushbu belgini genetik yo’l bilan yaxshilashga xizmat qilishi mumkin.

Material va metodlar. Tadqiqotlarimiz O‘zR FA Genetika va o‘simliklar eksperimental biologiyasi institutining Toshkent viloyati Zangiota tumanidagi eksperimental bazasining tajriba dalasida olib borildi. Tadqiqot ob’ekti sifatida *G. hirsitum* L. turiga mansub rangli tolali g‘o‘zaning rangli tolali namunalaridan, ularni o’zaro va oq tolali navlar bilan chatishtirilib olingan F_1 o‘simliklaridan foydalanildi. Dala tajribasi suv rejimining turli fonlarida olib borildi: 1-fon (nazorat – suv bilan optimal ta’minlanganlik fonida 1:2:1 sxemasida to‘rt marotaba sug‘orish o‘tkazilib,

sug‘orishga sarflangan suvning umumiy xajmi 4800-5000 m^3/ga ni tashkil etdi. 2- fon (tajriba-modellashtirilgan qurg‘oqchilik) da 1:1:0 sxemasida ikki marotaba sug‘orish o‘tkazilib, sug‘orishga sarflangan suvning umumiy hajmi 2800-3000 m^3/ga ni tashkil etdi. Tadqiqotdagi namunalarning urug‘lik chigitlari 90x20x1 sxemasida ekildi. Dala tajribasining xar bir fonida rangli tolali namunalar va ularning F_1 duragaylari rendomizatsiyali uch qaytariqda, har bir qaytariqda bir qatordan, har bir qatorda 15 uyadan iborat holda ekildi.

Natijalar va ularning tahlili. Suv bilan optimal ta’minlanganlik sharoitida o‘rta tolali g‘o‘zaning tadqiqotimizda o‘rganilgan rangli tolali namunalarining guruhida yuqori tola chiqimi oq tolali Sadaf, Gulshan va Mayin tola navlarida bo‘lib, mos ravishda, 40,1%,39,5% va 39,6 % ni tashkil etdi. Qo‘ng‘ir tolali 04494 va 09965 namunalarida tola chiqimi qariyb bir xil, ya’ni 37,7% va 37,2% bo‘ldi. Qo‘ng‘ir tolali 011250 namunasida ushbu belgining ko‘rsatkichi 27,2% ni tashkil etgan bo‘lsa, eng past tola chiqimi yashilsimon tolali 010764 namunasida (20,9%) qayd etildi (1-jadval).

F_1 duragaylarining guruhida yuqori tola chiqimi oq tolali Sadaf x Mayin tola, Gulshan x Mayin tola va Sadaf x 09965 kombinatsiyalarida qayd etilib, mos ravishda, 40,3%; 40,2% va 39,0% ni, eng past ko‘rsatkichlar esa 010764 x Sadaf (25,2%), 010764 x Gulshan (28,0%), 010764 x Mayin tola (29,1%), 010764 x 04494 (27,1%), 010764 x 011250 (27,6%), 011250 x Mayin tola (27,4%), 011250 x 04494 (28,8%) va 011250 x Gulshan (29,5%) aniqlandi.

Suv bilan optimal ta’minlanganlik sharoitida tola chiqimi belgisi 42 ta F_1 duragaylarining 5 tasida ijobiy o‘ta dominantlik, 14 tasida salbiy o‘ta dominantlik, 1 tasida salbiy to‘liq dominantlik. 9 tasida ijobiy to‘liqsiz dominantlik, 11 tasida salbiy to‘liqsiz dominantlik va 2 ta kombinatsiyada ota-ona shaklining dominantligi bo‘lmagan oraliq holatda irsiylandi. Bu esa, optimal suv rejimi sharoitida F_1 duragaylarida tola chiqimi belgisining asosan, salbiy o‘ta dominantlik hamda salbiy va ijobiy to‘liqsiz dominantlik holatlarida irsiylanganini ko‘rsatadi.

Nazorat variantiga nisbatagn suv tanqisligi sharoitida ko‘plab namunalar va F_1 duragaylarida tola chiqimi turli darajada oshdi. Bu stress fonida belgining yuqori ko‘rsatkichlari oq tolali Sadaf va Gulshan navlari hamda qo‘ng‘ir tolali 09965 namunasida bo‘lib, mos ravishda 41,1%, 40,5% va 40,1% ni, past ko‘rsatkichi esa suv bilan optimal ta’minlanganlik fonida bo‘lganidek, 010764 namunasida (21,3%) qayd etildi. F_1 duragaylarining guruhida yuqori t ola chiqimi Sadaf x mayin tola (42,2%), Gulshan x mayin tola (42,3), 04494 x 011250 (41,9%), Sadaf x 09965 (41.0%), Gulshan x Sadaf (41,1%) kombinatsiyalarida, belgining eng past ko‘rsatkichlari esa 011250 x Gulshan va 011250 x 010764 kombinatsiyalarida (mos ravishda. 28.0% va 28,7%) qayd etildi. 010764 x 011250 (29.1%), 010764 x Gulshan (29,3%), Sadaf x 011250 (29,1%) kombinatsiyalarida ham tola chiqimi past bo‘ldi. Tuproqda suv yetishmasligi sharoitida F_1 duragaylarida tola chiqimi belgisi 5 ta kombinatsiyada ijobiy o‘ta dominantlik, 15 ta kombinatsiyada salbiy o‘ta dominantlik, 1 ta kombinatsiyada ijobiy to‘liq dominantlik, 10 ta kombinatsiyada ijobiy to‘liqsiz djominantlik, 8 ta kombinatsiyada salbiy to‘liqsiz dominantlik, 3 ta kombinatsiyada esa ota yoki onap shaklining dominantligi bo‘lmagan oraliq holatda irsiylandi. Bu esa, suv tanqisligi sharoitida F_1 duragaylarida tola chiqimi belgisining asosan, salbiy o‘ta dominantlik hamda ijobiy va salbiy to‘liqsiz dominantlik holatlarida irsiylanganidan dalolat beradi.

Tola chiqimi belgisi bo‘yicha suv tanqisligiga kuchliroq ta’sirchanlik qo‘ng‘ir tolali 09965 (+2.9%), Gulshan x 04494 (-5,3%), Sadaf x 010764 (-4.6%), 010764 x Sadaf (-4.6%), 010764 x Sadaf (+4.8%), 04494 x 09965 ((+5.0%), 011250 x 010764 (-4,6%), kuchsiz ta’sirchanlik esa 011250 (+0.1%), 04494 (-0,2%), 010764 (+0.4%), 09965 x 011250 (-0,1%), 04494 x Mayin tola (+0.2%), 010764 x 09965 (-0,3%), Sadaf x Gulshan (+0.7%), Mayin tola x Gulshan (-0,3%), 04494 x 010764 (+0.9%), 011250 x Sadaf (-0,9%) kombinatsiyalarida qayd etildi. Ushbu belgi bo‘yicha ham tuproqning suv bilan ta’minlanganlik sharoitlari F_1 duragaylaridagi dominantlik koeffitsienti (hp) ko‘rsatkichining yo‘nalishi va darajasiga ta’sir etdi. Masalan, 011250 x 09965 kombinatsiyasida optimal suv rejimida belgining irsiylanishida salbiy to‘liqsiz dominantlik ((hp = -0,26), suv tanqisligida esa ijobiy to‘liqsiz dominantlik (hp = 0.16) holatlari mavjudligi aniqlandi.

Xulosalar. Shunday qilib,olib borilgan tadqiqotlarimiz optimal suv rejimi va suv tanqisligi fonlarida tola chiqimi yuqori bo’lgan ba’zi duragay kombinatsiyalarining ajralib chiqishini, suv bilan ta’minlanganlik sharoitlari eng muhim genetic ko’rsatkichlardan biri bo’lgan dominantlik

darajasiga (hp) ta’sir etishini ko’rsatdi.

Ushbu tadqiqotlar FZ-2021100758-“*G. hirsutum* L. turiga mansub rangli tolali g‘o‘za navlarini yaratishning genetik-seleksion va fiziologik-biokimyoviy asoslari” mavzusidagi fundamental loyiha doirasida bajarilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Dickerson D.K., Lane E.F. and Rodrigues D.F. (1999) Naturally colored cotton: resistance to changes in color and durability when refurbished with selected laundry aids. California State University, Agricultural Technology Institute, Fresno, 38p.
2. Dutt, Y., Wang, X. D., Zhu, Y. G., and Li, Y. Y. (2004). Breeding for high yield and fiber quality in colored cotton. Plant Breed. 123, 145–151. doi: 10.1046/j.1439- 0523.2003.00938.x
3. Feng, H., Guo, L., Wang, G., Sun, J., Pan, Z., He, S., Zhu, H., Sun, J., Du, X. 2015. "The Negative Correlation Between Fiber Color and Quality Traits Revealed by QTL Analysis." *PLoS ONE,* 10, e0129490.
4. Khatri, A., Peerzada, M.H., Mohsin, M., White, M. 2015. "A Review on Developments in Dyeing Cotton Fabrics with Reactive Dyes for Reducing Effluent Pollution." *Journal of Cleaner Production*, 87, 50–57.
5. Percy RG and Kohel RJ (1999). Qualitative genetics. In Smith, CW and Cothren JT (eds.) Cotton: Origin, history, technology, and production. John Wiley and Sons, New York, p. 319-360.

UO‘T: 631.6.02; 631.67; 631.5;

G‘O‘ZANING RIVOJLANISH DAVRLARI VA VEGETATSIYA DAVRIGA TURLI SIDERAT EKINLAR VA OZIQLANTIRISH ME’YORLARINING TA’SIRI

Uzaqov G‘ulomjon Oqbutayevich, Iskandarov Bahodir Qarshievich

Janubiy dehqonchilik ilmiy-tadqiqot instituti

Annotatsiya. Maqolada Qashqadaryo viloyatining och tusli bo‘z tuproqlari sharoitida yozgi va kuzgi siderat ekinlar urug‘larini turli usullarda ekishning –g’o’zaning S-8292 navi o’sish-rivojlanishiga ta’siri yoritilgan. Respublikaning janubiy mintaqasi sharoitida yozgi siderat sifatida mosh va kuzgi siderat sifatida javdar ekinini resurstejamkor usullarda ekish va tuproqqa kiritish asosiy ekin g‘o‘zaning o‘sish rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatishi aniqlangan. G‘o‘zaning to‘liq pishish sanasi nazorat variantda 16 oktabrda kuzatilgan bo‘lsa, yozgi va kuzgi sideratlarni turli usullarda tuproqqa kiritish pishish davrini 2-5 kungacha qisqartirishi aniqlangan. Qashqadaryo viloyati sharoitida qisqa (g‘o‘za-g‘alla) almashlab ekish 1:1 tizimida boshoqli don hosilidan keyin yozgi siderat sifatida mosh ekini va kuzgi siderat sifatida javdar ekini urug‘larini tuproqqa ishlov bermasdan to‘g‘ridan-to‘g‘ri ekish siderat ekinlarni yetishtirishda sarf-xarajatlarni iqtisod qilish bilan birga g‘o‘zaning o‘sish-rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatishi ta’kidlangan.

Kalit so‘zlar: ekin, siderat, mosh, g‘o‘za, nav, S-8292, oziqlantirish, o‘sish-rivojlanish, vegetatsiya davri.

Kirish. Tuproq unumdorligini oshirish yoki saqlab qolish uchun muntazam ravishda ozuqa moddalari qo'shilishi kerak. Shu maqsadda mineral, organik o'g'itlardan foydalanishingiz yoki yashil ўғитni etishtirish mumkin.

Yashil o'g'itlar - tuproqdagi chirindi darajasini oshirish uchun tuproqqa keyingi shudgorlash yoki kompostlash uchun etishtiriladigan ekinlar. Bularga tez o'sadigan o'simliklar o'rilib, tuproq yuzasida qoldiriladigan yoki tuproqqa shudgorlash asosida kiritiladigan ekinlardir.Yer osti qismi, chiriganidan keyin, foydali birikmalar bilan tuproqni to'ydiradi.

Yashil o‘g‘itni yetishtirish tuproqni makro va mikroelementlar, xususan, azot bilan boyitishga yordam beradi. Turli o'simliklar tuproqning mexanik tarkibiga ham ta'sir qiladi. Og'ir gil tuproqlar namlik va havo almashinuvini yaxshilashga yordam beradigan kuchli ildiz tizimiga ega bo'lgan ekinlarni yetishtirish orqali yumshatilishi mumkin. Dukkakli don oilasidagi o'simliklar tuproqni zararkunandalardan xalos bo'lishga yordam beradi. Yashil massaga ega o'simliklar tuproq yuzasini kuydiruvchi quyosh nurlaridan himoya qiladi.

Mavzuning o‘rganilganlik darajasi. Qisqa navbatli almashlab ekishning 1:1 tizimida

g‘o‘zani takroriy ekin sifatida yetishtiriladigan dukkakli-don ekinlari (soya, loviya, mosh) va aralash siderat ekinlari (perko, suli, ko‘k no‘xat) dan so‘ng yetishtirilganda undan yuqori va sifatli paxta hosili olishni ta’minlab, g‘o‘za hosildorligi 3,9-6,0 s/ga, tola chiqishi 1,0-2,0%ga, 1000 dona chigit massasi 7,5-14,0 g ga yuqori bo‘lishiga erishiladi [3].

Mustaqil davlatlar hamdo‘stligi va chet el olimlarining ko‘pgina tadqiqotlari shundan dalolat beradiki, g‘o‘za dalalarida tuproqning haydov qatlamida gumus miqdorining intensiv ravishda kamayib borayotganligi kuzatilmoqda. Qo‘llanilayotgan tadbirlar tuproq unumdorligini tiklay olmayotganligi namoyon bo‘layotgan bo‘lsada, bu muammoni organik o‘g‘itlar va o‘simlik qoldiqlaridan foydalanish orqaligina hal qilish mumkin [1, 2].

G‘o‘zadan qo‘shimcha hosil dukkakli bo‘lmagan siderat ekinlari tuproqqa haydalganidan so‘ng 3 yil davomida 4,4 sentnerni tashkil etadi. Ko‘kat o‘g‘itlar bo‘z va o‘tloq tuproqlarda ham yaxshi natijalar berib tuproqni organik birikmalar bilan boyitadi. Shuningdek, haydov qatlamida azot va harakatchan fosfor miqdorini oshiradi. Masalan, 0-20 santimetrli qatlamda o‘tloq botqoq tuproqlarda harakatchan fosfor miqdori ko‘kat o‘g‘itsiz bo‘lgan variantda 1 kg tuproqda 12 mg ni, xantal (xantal)da 17 mg, javdar+xantalda 19 mg, javdarda 10 mg va javdar variantida 11,2 mg ni tashkil etgan bo‘lsa, suvga chidamli agregatlar miqdori nazorat variantiga nisbatan 10% yuqori ekanligi qayd etildi. Siderat o‘g‘itlarni 35 santimetr chuqurlikka haydash yashil massaning sekin chirishiga va karbonat angidrid gazining kam ajralib chiqishiga sabab bo‘lishi aniqlangan. G‘o‘za dastlabki rivojlanish bosqichlarida sekin rivojlanib, gullash fazasidan keyin esa rivojlanish tezlashadi. Mavsum oxirida nazorat variantida ko‘sak soni 8,2 donani tashkil etgan bo‘lsa, xantalda o‘rtacha 10,4, no‘xatda 10,0, arpada 9,1 donani tashkil etadi [4].

Oraliq ekinlardan siderat maqsadida foydalanganda g‘o‘zaning o‘sish va rivojlanishida ijobiy natijalar olingani holda nazorat variantiga nisbatan bosh poyaning balandligi 1,2-3,7 sm, hosil shox soni 0,4-1,4 dona, ko‘sak soni esa 0,5-0,7 dona ko‘p hosil bo‘lgan. Bu variantlarda hosildorlik 6,3-7,6% yuqori bo‘lgan, xantal trixoderma bilan tuproqqa haydalganda hosildorlik birinchi yili 22,4%, ikkinchi yili 15,8%, uchinchi yili esa 9,8% ga oshganligi tajribalarda isbotlab berilgan. Muallif tuproqqa oraliq ekinlarning ildiz qoldiqlarini haydab tashlaganda ham hosildorlik 3,7- 16,2% oshishini ta’kidlaydi [5, 6].

Demak, g‘o‘za dalalarida siderat o‘g‘itlar g‘o‘zaning o‘sish, rivojlanish va hosildorligiga ijobiy ta’sir etadi. Siderat ekinlari ta’sirida tuproq mikroflorasi uchun yetarli ozuqa muhiti yaratiladi [7]. Ular ta’sirida bioenergetik maxsulotlar parchalanib o‘simlik o‘zlashtira oladigan shaklga o‘tkaziladi, bu esa g‘o‘za va boshqa ekinlarning o‘sishi, rivojlanishi va hosildorligiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Tadqiqotning maqsadi respublikaning janubiy mintaqalari tuproq-iqlim sharoitlarida kompleks ishlov berish orqali tuproq unumdorligini oshirishning agrotexnologiyasini ishlab chiqishdan iborat.

Materiallar va usullar. Tadqiqotlar AL-8523122294 “Kompleks ishlov berish orqali tuproq unumdorligini oshirishning agrotexnologiyasini ishlab chiqish” mavzusidagi amaliy loyiha bo‘yicha olib borildi. Respublikaning janubiy mintaqasi Qashqadaryo viloyati och tusli bo‘z tuproqlar sharoitida Qarshi tumani S.Raximov hududida joylashgan Janubiy dehqonchilik ilmiy tadqiqot instituti tajriba uchastkasida yozgi siderat (mosh) o‘rniga kuzgi yumshoq bug‘doyning Shukrona navi turli usullarda ekilib, tadqiqotlar olib borildi. Bunda kuzgi yumshoq bug‘doy urug‘lari no-till va an’anaviy tuproqqa ishlov berish usullarini qo‘llash nazarda tutilgan.

Dala tajribalari Butunrossiya O‘simlikshunoslik ilmiy-tadqiqot instituti uslubiy qo‘llanmasi (1985) asosida amalga oshirilgan. Fenologik kuzatuvlar va biometrik tahlillar esa Qishloq xo‘jalik ekinlari navlarini sinash davlat komissiyasining uslubiy qo‘llanmasi (1989) bo‘yicha olib borilgan.

Tajriba dalasida yetishtirilgan donli ekinlar donining texnologik sifat ko‘rsatkichlari O‘z DST 880:2015 talablar asosida namuna olish GOST 13586.3-83, 1000 dona don vazni GOST 10842-89, don naturasi GOST 10840-64, shishasimonlik darajasi GOST 10987-76, oqsil miqdori GOST 10846-91, kleykovina miqdori, sifati (IDK) ko‘rsatkichlari GOST 13586.1-68 bo‘yicha aniqlandi. Tajriba natijalarining matematik-statistik tahlillari B.A.Dospexov (1985 y.) uslubi asosida amalga oshirildi.

Natijalar va munozara. Dala tajriba maydonida olib borilgan fenologik kuzatuvlar

natijalariga ko‘ra chigit 1-may kuni ekilgan bo‘lsa urug‘larning to‘liq unib chiqishi 11 may kuni kuzatilib, variantlar orasida farq kuzatilmadi.

1- jadval

G‘o‘zaning rivojlanish davrlari va vegetatsiya davriga turli siderat ekinlar va oziqlantirish me’yorlarining ta’siri.

Variantlar	Chigit ekish sanasi	Unib chiqish sanasi				Shonalash sanasi		
		25%	50%	75%	100%	50%	75%	100%
1. Nazorat+G‘o‘za ($N_{200}P_{140}K_{100}$)	01.may	07.may	08.may	10.may	11.may	14.iyun	15.iyun	17.iyun
8. No -till kuzgi siderat (Javdar)+G‘o‘za ($N_{150}P_{105}K_{75}$)+ 30 (15-15) t\ga go‘ng	01.may	07.may	08.may	10.may	11.may	13.iyun	14.iyun	16.iyun
9. Full -till kuzgi siderat (Javdar)+G‘o‘za ($N_{150}P_{105}K_{75}$)+ 30 (15-15) t\ga go‘ng	01.may	07.may	08.may	10.may	11.may	13.iyun	14.iyun	16.iyun
10. No-till Yozgi siderat (mosh)+ No -till kuzgi siderat (Javdar)+G‘o‘za ($N_{150}P_{105}K_{75}$)	01.may	07.may	08.may	10.may	11.may	13.iyun	14.iyun	16.iyun
11. No-till Yozgi siderat (mosh)+ Full -till kuzgi siderat (Javdar)+G‘o‘za ($N_{150}P_{105}K_{75}$)	01.may	07.may	08.may	10.may	11.may	13.iyun	14.iyun	16.iyun
12. Full -till Yozgi siderat (mosh)+ No -till kuzgi siderat (Javdar)+G‘o‘za ($N_{150}P_{105}K_{75}$)+ 30 (15-15) t\ga go‘ng	01.may	07.may	08.may	10.may	11.may	13.iyun	14.iyun	16.iyun
13. Full -till Yozgi siderat (mosh)+ Full-till kuzgi siderat (Javdar)+G‘o‘za ($N_{150}P_{105}K_{75}$)+ 30 (15-15) t\ga go‘ng	01.may	07.may	08.may	10.may	11.may	13.iyun	14.iyun	16.iyun
14. No-till Yozgi siderat (mosh)+ No -till kuzgi siderat (Javdar)+G‘o‘za ($N_{200}P_{140}K_{100}$)	01.may	07.may	08.may	10.may	11.may	13.iyun	14.iyun	16.iyun
15. No-till Yozgi siderat (mosh)+ Full -till kuzgi siderat (Javdar)+G‘o‘za ($N_{200}P_{140}K_{100}$)	01.may	07.may	08.may	10.may	11.may	13.iyun	14.iyun	16.iyun
16. Full -till Yozgi siderat (mosh)+ No -till kuzgi siderat (Javdar)+G‘o‘za ($N_{200}P_{140}K_{100}$)	01.may	07.may	08.may	10.may	11.may	12.iyun	13.iyun	15.iyun
17. Full -till Yozgi siderat (mosh)+ Full-till kuzgi siderat (Javdar)+G‘o‘za ($N_{200}P_{140}K_{100}$)	01.may	07.may	08.may	10.may	11.may	12.iyun	13.iyun	15.iyun

O‘simliklarning shonalash fazasiga o‘tishi tahlil qilinganda Full-till yozgi siderat (mosh)+no-till kuzgi siderat (javdar)+g‘o‘za ($N_{200}P_{140}K_{100}$) va Full-till yozgi siderat (mosh)+full-till kuzgi siderat (javdar)+g‘o‘za ($N_{200}P_{140}K_{100}$) variantlarida 12-15 iyunda qayd qilingan bo‘lsa, qolgan variantlarda bu ko‘rsatkich 13-16 iyunda, nazorat variantida esa 14-17 iyunda kuzatildi (1-jadval).

1-jadval davomi

G‘o‘zaning rivojlanish davrlari va vegetatsiya davriga turli siderat ekinlar va oziqlantirish me’yorlarining ta’siri.

Variantlar	Gullash sanasi			Pishish sanasi		
	50%	75%	100%	50%	75%	100%
1. Nazorat+G‘o‘za ($N_{200}P_{140}K_{100}$)	07.iyul	09.iyul	10.iyul	20.sen	30.sen	16.okt
8. No -till kuzgi siderat (Javdar)+G‘o‘za ($N_{150}P_{105}K_{75}$)+ 30 (15-15) t\ga go‘ng	06.iyul	08.iyul	09.iyul	19.sen	29.sen	15.okt
9. Full -till kuzgi siderat (Javdar)+G‘o‘za ($N_{150}P_{105}K_{75}$)+ 30 (15-15) t\ga go‘ng	07.iyul	09.iyul	10.iyul	20.sen	30.sen	16.okt
10. No-till Yozgi siderat (mosh)+ No -till kuzgi siderat (Javdar)+G‘o‘za ($N_{150}P_{105}K_{75}$)	05.iyul	07.iyul	08.iyul	18.sen	28.sen	14.okt
11. No-till Yozgi siderat (mosh)+ Full -till kuzgi siderat (Javdar)+G‘o‘za ($N_{150}P_{105}K_{75}$)	06.iyul	08.iyul	09.iyul	19.sen	29.sen	15.okt
12. Full -till Yozgi siderat (mosh)+ No -till kuzgi siderat (Javdar)+G‘o‘za ($N_{150}P_{105}K_{75}$)+ 30 (15-15) t\ga go‘ng	04.iyul	06.iyul	07.iyul	17.sen	27.sen	13.okt
13. Full -till Yozgi siderat (mosh)+ Full-till kuzgi siderat (Javdar)+G‘o‘za ($N_{150}P_{105}K_{75}$)+ 30 (15-15) t\ga go‘ng	04.iyul	06.iyul	07.iyul	17.sen	27.sen	13.okt
14. No-till Yozgi siderat (mosh)+ No -till kuzgi siderat (Javdar)+G‘o‘za ($N_{200}P_{140}K_{100}$)	03.iyul	05.iyul	06.iyul	16.sen	26.sen	12.okt
15. No-till Yozgi siderat (mosh)+ Full -till kuzgi siderat (Javdar)+G‘o‘za ($N_{200}P_{140}K_{100}$)	03.iyul	05.iyul	06.iyul	16.sen	26.sen	12.okt
16. Full -till Yozgi siderat (mosh)+ No -till kuzgi siderat (Javdar)+G‘o‘za ($N_{200}P_{140}K_{100}$)	01.iyul	03.iyul	04.iyul	14.sen	24.sen	10.okt
17. Full -till Yozgi siderat (mosh)+ Full-till kuzgi siderat (Javdar)+G‘o‘za ($N_{200}P_{140}K_{100}$)	01.iyul	03.iyul	04.iyul	14.sen	24.sen	10.okt

G‘o‘zaning S-8292 navi o‘simliklarida gullash fazasi eng ertachi Full-till yozgi siderat (mosh)+no-till kuzgi siderat (javdar)+g‘o‘za ($N_{200}P_{140}K_{100}$) va Full-till yozgi siderat (mosh)+full-till

kuzgi siderat (javdar)+g‘o‘za ($N_{200}P_{140}K_{100}$) variantlarida 1-4 iyulda qayd qilingan bo‘lsa, No-till yozgi siderat (mosh)+no-till kuzgi siderat (javdar)+g‘o‘za ($N_{200}P_{140}K_{100}$), No-till yozgi siderat (mosh)+full-till kuzgi siderat (javdar)+g‘o‘za ($N_{200}P_{140}K_{100}$) variantlarida 3-6 iyulda, Full-till yozgi siderat (mosh)+no-till kuzgi siderat (javdar)+g‘o‘za ($N_{150}P_{105}K_{75}$)+30 (15-15) t/ga go‘ng, Full-till yozgi siderat (mosh)+full-till kuzgi siderat (javdar)+g‘o‘za ($N_{150}P_{105}K_{75}$)+30 (15-15) t/ga go‘ng variantida 4-7 iyulda kuzatilgan bo‘lsa, No-till yozgi siderat (mosh)+no-till kuzgi siderat (javdar)+g‘o‘za ($N_{150}P_{105}K_{75}$) variantida 5-8 iyulda, No-till kuzgi siderat (javdar)+g‘o‘za ($N_{150}P_{105}K_{75}$)+30 (15-15) t/ga go‘ng, No-till yozgi siderat (mosh)+full-till kuzgi siderat (javdar)+g‘o‘za ($N_{150}P_{105}K_{75}$) variantlarida 6-9 iyulda qayd qilindi.

Eng kech gullash fazasi Full-till kuzgi siderat (javdar)+g‘o‘za ($N_{150}P_{105}K_{75}$)+30 (15-15) t/ga go‘ng va Nazorat+g‘o‘za ($N_{200}P_{140}K_{100}$) variantlarida 7-10 iyulda qayd qilindi.

O‘simliklarda pishish fazasi yoki ko’saklarning ochilishiga e’tibor qaratadigan bo‘lsak Full-till yozgi siderat (mosh)+no-till kuzgi siderat (javdar)+g‘o‘za ($N_{200}P_{140}K_{100}$) va Full-till yozgi siderat (mosh)+full-till kuzgi siderat (javdar)+g‘o‘za ($N_{200}P_{140}K_{100}$) variantlarida 14 sentyabrdan 10 oktyabrgachani bo‘lgan bo‘lsa, No-till yozgi siderat (mosh)+no-till kuzgi siderat (javdar)+g‘o‘za ($N_{200}P_{140}K_{100}$), No-till yozgi siderat (mosh)+full-till kuzgi siderat (javdar)+g‘o‘za ($N_{200}P_{140}K_{100}$) variantlarida 16 sentyabrdan 12 oktyabrgacha, Full-till yozgi siderat (mosh)+no-till kuzgi siderat (javdar)+g‘o‘za ($N_{150}P_{105}K_{75}$)+30 (15-15) t/ga go‘ng, Full-till yozgi siderat (mosh)+full-till kuzgi siderat (javdar)+g‘o‘za ($N_{150}P_{105}K_{75}$)+ 30 (15-15) t/ga go‘ng variantlarida 17 sentyabrdan 13 oktyabrgacha, No-till yozgi siderat (mosh)+no-till kuzgi siderat (javdar)+g‘o‘za ($N_{150}P_{105}K_{75}$) variantida 18 sentyabrdan 14 oktyabrgacha, No-till kuzgi siderat (javdar)+g‘o‘za ($N_{150}P_{105}K_{75}$)+30 (15-15) t/ga go‘ng, No-till yozgi siderat (mosh)+full-till kuzgi siderat (javdar)+g‘o‘za ($N_{150}P_{105}K_{75}$) variantlarida 19 sentyabrdan 15 oktyabrgacha qayd qilingan bo‘lsa, eng kech ko’saklarning ochilishi Full-till kuzgi siderat (javdar)+g‘o‘za ($N_{150}P_{105}K_{75}$)+30 (15-15) t/ga go‘ng va Nazorat+g‘o‘za ($N_{200}P_{140}K_{100}$) variantlarida 20 sentyabrdan 16-oktabrgachani tashkil qilganligi aniqlandi.

Xulosa.

1. Respublikaning janubiy mintaqasi sharoitida yozgi siderat sifatida mosh va kuzgi siderat sifatida javdar ekinini resurstejamkor usullarda ekish va tuproqqa kiritish asosiy ekin g‘o‘zaning o‘sish rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatishi aniqlandi.

2. G‘o‘zaning to‘liq pishish sanasi nazorat variantda 16 oktabrda kuzatilgan bo‘lsa, yozgi va kuzgi sideratlarni turli usullarda tuproqqa kiritish pishish davrini 2-5 kungacha qisqartirishi aniqlandi.

3. Qashqadaryo viloyati sharoitida qisqa (g‘o‘za-g‘alla) almashlab ekish 1:1 tizimida boshoqli don hosilidan keyin yozgi siderat sifatida mosh ekini va kuzgi siderat sifatida javdar ekini urug‘larini tuproqqa ishlov bermasdan to‘g‘ridan-to‘g‘ri ekish siderat ekinlarni yetishtirishda sarf-xarajatlarni iqtisod qilish bilan birga g‘o‘zaning o‘sish-rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Лим Ю.Р. Влияние сидерации на плодородие орошаемой темнокаштановой почвы сухостепного Заволже.: автореф.дисс.кандидата - с.х.наук: –Саратов., 2006, -С. 23.

2. Rahimov A.R., Mo‘minov K.M. Organik dehqonchilik // O‘zbekiston qishloq xo‘jaligining kelajagi. Qishloq xo‘jaligi resurs tejamkor texnologiyalarni yaratish va ularni ishlab chiqarishga joriy etish. Respublika ilmiy-amaliy konf. Ma’ruzalar to‘plami. 1-qism. - Toshkent, 2014. –B. 223.

3. Tojiev M., Tojiev K.M. Oraliq va siderat ekinlar hosildordigi hamda ang‘iz va ildiz to‘plashi// Dala ekinlari seleksiyasi, urug‘chiligi va agrotexnologiyalarining dolzarb yo‘nalishlari mavzusidagi Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to‘plami, 2-qism. -Toshkent, 2016. –B. 25-27.

4. Turopov S., Oripov R. Oraliq ekinlar va g‘o‘za hosildorligi // O‘zbekiston qishloq xo‘jaligini rivojlantirishda yosh olimlarning roli. Samarqand shahrining 2750 yilligiga bag‘ishlangan ilmiy-amaliy konf. materiallari to‘plami. -Samarqand, 2007. –B. 63-64.

5. Xolmonov N. Siderat, eroziya va hosildorlik // AGRO ILM, -2009. - №4(12). –B.32-33.

6. Xolmonov N. Siderat o‘rnida oraliq ekinlarni ekish // AGRO ILM. – 2010. - № 4. – Б. 18.

7. Elfstrand S., Hedlund K., Mertensson A. Soil enzyme activities, microbial community

composition and function after 47 yaers of continuous green manuring // Applied Soil Ecology Volume 35, Issue 3, March 2007, Pages 610- 621.

UDK: 633.511:631.52

G‘O‘ZANING SUV TANQISLIGIGA FIZIOLOGIK VA MORFOBIOLOGIK BELGILARI BO‘YICHA REAKSIYASI

Nabiyev S.M., Xamdullayev Sh.A., Chorshanbiyev N.E., Matniyazova H.X.
O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi, Genetika va o‘simliklar eksperimental biologiyasi instituti

Annotatsiya. *Ushbu tadqiqotda g‘o‘za genotiplarining suv tanqisligi sharoitiga fiziologik va morfobiologik belgilar bo‘yicha reaksiyasi o‘rganildi. Tajribalar suv bilan optimal ta’minlanganlik va modellashtirilgan qurg‘oqchilik sharoitlarida olib borildi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, suv tanqisligi sharoitida g‘o‘za genotiplarida barglardagi umumiy suv miqdori va transpiratsiya jadalligi kamayib, barglarning suv ushlash xususiyati hamda solishtirma sath zichligi oshishi kuzatildi. Shuningdek, suv stressi o‘simlikning morfobiologik belgilariga, jumladan o‘simlik bo‘yi, simpodiyalar soni, tola uzunligi, chigit og‘irligi va hosildorlik ko‘rsatkichlariga turli darajada ta’sir ko‘rsatdi.*

Kalit so‘zlar. *g‘o‘za genotiplari, suv tanqisligi, fiziologik belgilar, morfobiologik belgilar, hosildorlik, qurg‘oqchilikka chidamlilik.*

Kirish. Butun dunyo, jumladan Markaziy Osiyo mintaqasida ro‘y berayotgan global iqlim o‘zgarishi, respublikamiz uchun eng o‘tkir ekologik muammo bo‘lgan suv tanqisligi, uning yildan – yilga kuchayib borayotgani qishloq xo‘jalik ekinlarining qurg‘oqchilikka chidamli yangi navlarini yaratish muammosini hozirgi davrning eng dolzarb vazifalari qatoriga qo‘ymoqda. Bu o‘rinda, mamlakatimizda asosiy qishloq xo‘jalik ekinlaridan biri bo‘lgan g‘o‘zaning turli genotiplarini suv tanqisligi sharoitida fiziologik va morfobiologik belgilari bo‘yicha o‘rganish muhim ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

Material va metodlar. Tadqiqotlarimizda o‘rta tolali g‘o‘zaning turli genotiplari suv bilan optimal ta’minlanganlik (sug‘orish sxemasi 1-2-1) va suv tanqisligi (sug‘orish sxemasi 1-1-0) fonlariga uch qaytariqda, har bir qaytariqda ikki qatordan, har bir qatorda 25 uyadan iborat holda ekilib yetishtirildi. Olgan natijalarimizga ko‘ra, o‘rta tolali g‘o‘zaning turlararo va turichida navlararo chatishtirishdan olingan, yangi irsiy asosga ega tizmalari, xorijiy navlar va ingichka tolali Marvarid g‘o‘za navining o‘simliklari nazorat (suv bilan optimal ta’minlanganlik) ga nisbatan suv tanqisligi sharoitiga barglardagi umumiy suv miqdori va transpiratsiya jadalligining kamayishi, barglarning suv ushlash xususiyati va solishtirma sath zichligining esa oshishi bilan bir yo‘nalishdagi, lekin turli darajadagi ta’sirchanlik bilan moslashganlari, fiziologik ko‘rsatkichlar aniqlangan 3-barg sathi va quruq og‘irligi bo‘yicha esa turli yo‘nalish va darajadagi ta’sirchanlik mavjudligi aniqlandi.

Natijalar va ularning tahlili. Xitoy seleksiyasiga mansub g‘o‘za navlari o‘simlik suv almashinuvining fiziologik ko‘rsatkichlari bo‘yicha genotipik polimorfizmga ega bo‘ldilar. Bunda, Xi Lu Zhong–78 navida suv tanqisligida barglardagi umumiy suv miqdorining va barglarning suv ushlash xususiyatining eng yuqori ko‘rsatkichlari (mos ravishda, 76,4% va 28,8%), barglardagi transpiratsiya jadalligi va barglarning solishtirma sath zichligining esa eng past ko‘rsatkichlari (mos ravishda, 181,92mg N2O/gxsoat va 107,01mg/10sm^2) qayd etildi. Modellashtirilgan qurg‘oqchilik sharoitida ingichka tolali Marvarid g‘o‘za navi ham o‘simlik barglarining yuqori darajadagi suv ushlash xususiyati (21,9%) bilan boshqa genotiplardan ajralib turdi. G‘o‘za o‘simliklarining suv bilan ta’minlanganlik sharoiti fiziologik belgilarning o‘zaro bog‘liqligi, ya’ni korrelyatsiyasi yo‘nalishi va darajasiga ta’sir etishi aniqlandi.

Suv tanqisligida tadqiqotimizda o‘rganilgan g‘o‘za genotiplarining yarmisida tola chiqimi nazoratdagidan oshishi, qolganlarida esa kamayishi ushbu stress sharoitida chigit og‘irligi va sathining kamayishi bilan bog‘liq bo‘ldi. Ko‘plab g‘o‘za tizmalari va Xitoy navlarida tola chiqimining 40% dan yuqoriligi ularning bu belgi bo‘yicha qimmatli seleksion ashyolar ekanini ko‘rsatadi. Suv tanqisligida barcha g‘o‘za genotiplarida nazoratga nisbatan tola uzunligi kaltaroq

bo‘ldi, bunda, T-11 hamda T-1003 tizmalari bu belgi bo‘yicha suv bilan ta’minlanganlikning turli sharoitlariga barqarorlikni namoyon etgan bo‘lsalar, T-15, T-18 tizmalari va Namangan-77 navida esa, aksincha, boshqa genotiplarga nisbatan kuchliroq darajadagi ta’sirchanlik qayd etildi.

O‘simlik bosh poyasining balandligi belgisi bo‘yicha optimal suv rejimiga nisbatan suv tanqisligida barcha g‘o‘za genotiplarida past natijalar aniqlandi. Bunda, belgining ko‘rsatkichlari nazorat variantida 102.5sm dan (Xi Lu Zhong – 52) to 125,0sm gacha (T-13), suv tanqisligida esa 87,8sm dan (T-18) to 111,7 sm gachani (T-1) tashkil etdi. Suv bilan optimal ta’minlanganlik sharoitiga nisbatan suv tanqisligida o‘simlikdagi simpodiyalar (hosil shoxlari) soni 0.5 tadan (Xi Lu Zhong – 52) to 3.0 tagacha (T-14), tola indeksi 1,5% dan (T-6) to 28.0% gacha (T-11) kamaydi. 1000 ta chigit og‘irligi nazorat variantida 84,1 grammdan (T-10) to 123,2 grammgachani (T-1003), suv tanqisligi fonida esa 74,5 grammdan (T-10) to 106,4 grammgachani (Marvarid) tashkil etib, suv stressida ushbu belgining ko‘rsatkichi 3,4% dan (Ishonch navi) to 22,4 % gacha (T-1050) kamaydi. Tadqiqotimizda o‘rganilgan g‘o‘za genotiplarining o‘simliklarida gullash muddati 67,3 kundan (T-1) to 75,7 kungachani (T-10) tashkil etgan bo‘lsa, pishish muddati optimal suv rejimida 115 kundan (T-5 va T-8) to 126 kungachani (T-4), suv tanqisligida esa 107 kundan (T-5) to 121 kungachani (T-4) tashkil etdi va tuproqda namlikning yetishmasligi biologik tezpisharlikning 2 kundan (Chuntay – 2) to 9 kungacha (Shodlik-11) qisqarishiga olib keldi.

Nazorat variantiga nisbatan suv tanqisligida qariyb barcha g‘o‘za genotiplarida bitta ko‘sakdagi paxta og‘irligi turli darajada kamaydi.Ushbu belgi bo‘yicha turli suv rejimlarida nisbatan barqaror natijani Ishonch va Chuntay-2 navlari, T-16, T-8 va T-5 tizmalari namoyon etdilar. Suv bilan optimal ta’minlanganlik sharoitida boshqa genotiplarga nisbatan yuqori hosildorlik T-1 ((L-SA xDiyor)x (*G.hirsutum* L. x *G. tomentosum*)), T-3 ((C-9082 x 3B) x (*G.hirsutum* L. x *G. arboretum*)) tizmalari va Chuntay – 2 navida (mos ravishda. 93,25g., 91,17g. va 90,33g/o‘simlik), past ko‘rsatkichlar esa T-11, T-14, T-1003 tizmalarida (mos ravishda, 65,83g.,70,00g. va 71,25g/o‘simlik) qayd etildi. Suv tanqisligida bitta o‘simlikka to‘g‘ri keladigan paxta hosildorligi turli darajada kamaydi. Bu stress fonida nisbatan yuqori hosildorlik T-3 ((C-9082 x 3B) x (*G.hirsutum* L. x *G. arboretum*)), T-1 ((L-SA xDiyor)x (*G.hirsutum* L. x *G. tomentosum*)) tizmalari (76.36g. va 75,71g), Chuntay – 2 va Xi Lu Zhong – 78 navlarida (mos ravishda,75.0g. va 73,57g.) qayd etildi. Nazorat variantiga nisbatan tuproq qurg‘oqchiligi sharoitida o‘simlik mahsuldorligi belgisining ko‘rsatkichlari Xi Lu Zhong – 78 navidagi 14.7% dan T-17 tizmasidagi 39,5% gacha kamaydi. Ushbu belgi bo‘yicha suv tanqisligiga T-2, T-11,T-4, T-5, T-11, T-18, T-421 tizmalari ham kuchli ta’sirchanlik namoyon etib, hosildorlikning pasayishi 32,8 -39,2% ni tashkil etdi. Mahalliy va Xitoy g‘o‘za navlarining ildiz tizimlarining tuzilishi o‘zaro taqqoslanganda mahalliy navlarda o‘q ildizning kuchli rivojlangani, yon ildizlar asosiy ildizning ancha past qismidan (ildiz bo‘g‘zidan 20sm dan keyin) shakllangani, Xitoy g‘o‘za navlarida esa o‘q ildiz kuchsiz rivojlangani va yon ildizlar tuproqning yuza qismida shakllangani, ya’ni bu navlar ildiz tizimi bo‘yicha tomchilatib sug‘orishda yetishtirishga moslab yaratilgani aniqlandi.

Xulosalar. Olib borilgan tadqiqotlarimiz natijasida kelgusi genetik-seleksion tadqiqotlar uchun suv tanqisligiga bitta o‘simlikka to‘g‘ri keladigan paxta hosildorligi bo‘yicha chidamli bo‘lgan T-1, T-3,T-6 tizmalari. Chuntay – 2 va Xi Lu Zhong – 78 navlari tanlab olindi. Xitoy navlarining ko‘sak qurti va gerbitsid (glikofosat) ga chidamliligi va yuqori tola chiqimini mahalliy navlarga olib o‘tish maqsalida Xitoy navlari mahalliy Ishonch, Afsona va Kelajak g‘o‘za navlari bilan chatishtirilib, F_0 duragay ko‘saklari olindi.

POLISAXARIDLAR ASOSIDAGI BIOPOLIMER QOPLAMALARDAN FOYDALANIB DANAK MEVALARNI SAQLASH USULLARINI TAKOMILLASHTIRISH

Djamov Zohid Zafarovich, Xolmirzayev Shahzod Sherzod o`g`li
Jizzax politexnika instituti

Annotatsiya. Maqolada danak mevalarni saqlash jarayonida polisaxaridlar asosidagi biopolimer qoplamalardan foydalanishning ilmiy-amaliy jihatlari o‘rganilgan. Xitozan, kraxmal, pektin va selluloza hosilalarining mevalarning fiziologik jarayonlari, namlik yo‘qotilishi hamda mikrobiologik barqarorligiga ta’siri tahlil qilingan. Tadqiqot natijalari biopolimer qoplamalar danak

mevalarning saqlanish muddatini uzaytirishda va sifat ko‘rsatkichlarini saqlab qolishda samarali ekanligini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: danak mevalar, polisaxaridlar, biopolimer qoplama, xitozan, pektin, saqlash texnologiyasi.

Аннотация. В статье рассмотрены научно-практические аспекты применения биополимерных покрытий на основе полисахаридов в процессе хранения косточковых плодов. Проанализировано влияние хитозана, крахмала, пектина и производных целлюлозы на физиологические процессы плодов, потери влаги и микробиологическую устойчивость. Результаты исследований показывают, что биополимерные покрытия эффективно способствуют увеличению срока хранения косточковых плодов и сохранению их качественных показателей.

Ключевые слова: косточковые плоды, полисахариды, биополимерное покрытие, хитозан, пектин, технология хранения.

Abstract. The article examines the scientific and practical aspects of using polysaccharide-based biopolymer coatings in the storage of stone fruits. The effects of chitosan, starch, pectin, and cellulose derivatives on the physiological processes of fruits, moisture loss, and microbiological stability are analyzed. The research results demonstrate that biopolymer coatings are effective in extending the shelf life of stone fruits and preserving their quality characteristics.

Keywords: stone fruits, polysaccharides, biopolymer coating, chitosan, pectin, storage technology.

Danak mevalar qishloq xo‘jaligi mahsulotlari orasida yuqori biologik qiymatga ega bo‘lib, vitaminlar, organik kislotalar va antioksidantlarga boyligi bilan ajralib turadi. Biroq ushbu mevalarning saqlanish muddati qisqa bo‘lib, yig‘im-terimdan so‘ng tez buzilish kuzatiladi. An’anaviy saqlash usullarida kimyoviy konservantlardan foydalanish ekologik xavfsizlik va iste’molchi salomatligi nuqtayi nazaridan cheklovlarga ega. Shu sababli tabiiy polisaxaridlarga asoslangan biopolimer qoplamalar muqobil yechim sifatida ilmiy tadqiqotlar markaziga aylanmoqda.

Tadqiqot maqsadi va vazifalari:

Tadqiqotning maqsadi va vazifalari

Ushbu tadqiqotning asosiy maqsadi — polisaxaridlar asosidagi biopolimer qoplamalarning danakli mevalarni (o‘rik, shaftoli va boshqalar) saqlash samaradorligiga ta’sirini ilmiy jihatdan baholashdir.

Mazkur maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilandi:

1. biopolimer qoplamalarning asosiy turlarini tahlil qilish;
2. ularning meva fiziologiyasiga ta’sir qilish mexanizmini aniqlash;
3. mevalarning saqlash muddatini uzaytirish imkoniyatlarini baholash.

Polisaxaridlar asosidagi biopolimer qoplamalar

Polisaxaridlar — tabiiy, qayta tiklanuvchi va biologik parchalanadigan moddalar bo‘lib, oziq-ovqat sanoatida keng qo‘llaniladi. Ular asosida tayyorlangan biopolimer qoplamalar mevalarni saqlashda muhim ahamiyatga ega.

Danakli mevalarni qoplashda quyidagi polisaxaridlar ko‘proq ishlatiladi:

- *Xitozan* — mikroorganizmlarga qarshi (antibakterial va antifungal) xususiyatga ega;
- *Kraxmal* — arzon va oson olinadigan modda;
- *Pektin* — meva po‘stiga yaxshi moslashadi va elastik qatlam hosil qiladi;
- *Selluloza hosilalari* — mustahkam himoya qatlami yaratadi.

Bu moddalar meva yuzasida yupqa, himoya qiluvchi qatlam hosil qilib, mevalarning sifatini saqlashga yordam beradi.

Biopolimer qoplamalarning ta’sir mexanizmi

Biopolimer qoplamalar meva yuzasida yarim o‘tkazuvchan qatlam hosil qiladi. Natijada mevada quyidagi jarayonlar tartibga solinadi:

- gaz almashinuvi sekinlashadi;
- namlikning bug‘lanishi kamayadi;
- mikroorganizmlar rivojlanishi cheklanadi;

• oksidlanish jarayonlari susayadi.

Shu sababli mevalarning tez pishib ketishi va chirishi sekinlashadi, ularning sifat ko‘rsatkichlari uzoqroq vaqt saqlanib qoladi.

Danakli mevalarni saqlashdagi natijalar

Ilmiy tadqiqotlar natijalariga ko‘ra, xitozan bilan qoplangan o‘rik va shaftoli mevalarida quyidagi ijobiy o‘zgarishlar kuzatilgan:

• meva massasining yo‘qolishi 20–30 % ga kamaygan;

• saqlash muddati 1,5–2 barobar uzaygan;

• tashqi ko‘rinish va ta’m sifatlari yaxshiroq saqlangan.

Kraxmal va pektin asosidagi qoplamalar esa iqtisodiy jihatdan samarali bo‘lib, ayniqsa kichik xo‘jaliklar uchun qulay hisoblanadi.

Polisaxaridlar asosidagi biopolimer qoplamalar danakli mevalarni saqlash jarayonida muhim ahamiyat kasb etadi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, bunday qoplamalar meva yuzasida himoya qatlamini hosil qilib, tashqi muhit omillarining salbiy ta’sirini kamaytiradi. Natijada mevalarda fiziologik jarayonlar sekinlashadi va ularning sifat ko‘rsatkichlari uzoqroq vaqt davomida saqlanib qoladi. Tajriba jarayonida o‘rik va shaftoli mevalari ustida olib borilgan kuzatishlar shuni ko‘rsatdiki, biopolimer qoplamalar bilan ishlov berilgan mevalarda namlik yo‘qotilishi sezilarli darajada kamaygan. Ayniqsa, xitozan asosidagi qoplamalar mikroorganizmlarga qarshi yuqori samaradorlik ko‘rsatib, chirish jarayonini sekinlashtirgan. Kraxmal va pektin asosidagi qoplamalar esa mevalarning tashqi ko‘rinishini saqlashda hamda iqtisodiy jihatdan qulayligi bilan ajralib turadi. Biopolimer qoplamalar qo‘llanilgan mevalarda gaz almashinuvi jarayonining sekinlashishi mevalarning tez pishib ketishini oldini oladi. Shu bilan birga, oksidlanish jarayonlarining susayishi mevalarning rang, ta’m va hid kabi organoleptik xususiyatlarini barqaror saqlashga yordam beradi. Tadqiqot davomida qoplama qo‘llanilgan mevalarning saqlash muddati nazorat guruhiga nisbatan sezilarli darajada uzaygani aniqlandi.

Olingan natijalar shuni ko‘rsatadiki, polisaxarid asosidagi biopolimer qoplamalar danakli mevalarni saqlashda ekologik xavfsiz va samarali vosita hisoblanadi. Ularning tabiiy va biologik parchalanadigan xususiyatga ega ekanligi zamonaviy oziq-ovqat sanoati uchun muhim afzallik bo‘lib, kimyoviy konservantlarga bo‘lgan ehtiyojni kamaytiradi. Shu sababli biopolimer qoplamalarni meva saqlash texnologiyalariga joriy etish nafaqat ilmiy, balki amaliy jihatdan ham dolzarb masala hisoblanadi. Kelgusida polisaxarid asosidagi biopolimer qoplamalarning turli meva turlarida qo‘llanish imkoniyatlarini kengaytirish, ularning tarkibini takomillashtirish hamda saqlash sharoitlariga moslashtirish bo‘yicha tadqiqotlarni davom ettirish maqsadga muvofiqdir. Bu esa meva mahsulotlarining sifatini oshirish, yo‘qotishlarni kamaytirish va ekologik toza saqlash texnologiyalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Sapper M., Chiralt A. Starch-based coatings for preservation of fruits. *Carbohydrate Polymers*, 2020, Vol. 98, pp. 15–24. (Kraxmal asosidagi qoplamalarning mevalarni saqlashdagi roli va xususiyatlari bo‘yicha umumiy tahlil berilgan.)

2. Hassan B., Chatha S.A.S., Hussain A.I., Zia K.M., Akhtar N. Recent advances on polysaccharides, lipids and proteins based edible films and coatings. *International Journal of Biological Macromolecules*, 2018, Vol. 109, pp. 1095–1107. (Polisaxaridlar, lipidlar va oqsillar asosidagi yeyiladigan qoplamalar bo‘yicha zamonaviy tadqiqotlar tahlil qilingan, jumladan kraxmal asosidagi qoplamalarga alohida e’tibor qaratilgan.)

3. Lin D., Zhao Y. Innovations in the development and application of edible coatings for fresh and minimally processed fruits. *Comprehensive Reviews in Food Science and Food Safety*, 2019, Vol. 6, pp. 60–75. (Kraxmal asosidagi qoplamalarning mevalarni saqlash samaradorligiga ta’siri va yangi qo‘llanilish yo‘nalishlari yoritilgan.)

4. Guilbert S., Gontard N., Gorris L.G.M. Prolongation of the shelf-life of perishable food products using biodegradable films and coatings. *LWT – Food Science and Technology*, 2019, Vol. 29, pp. 10–17. (Biologik parchalanadigan, jumladan kraxmal asosidagi qoplamalar yordamida oziq-ovqat mahsulotlarining saqlash muddatini uzaytirish masalalari ko‘rib chiqilgan.)

5. Baldwin E.A., Hagenmaier R., Bai J. *Edible coatings and films to improve food quality*.

CRC Press, 2018. (Mazkur monografiyada kraxmal asosidagi qoplamalar haqida alohida bob mavjud bo‘lib, ularning oziq-ovqat sifatiga ta’siri batafsil tahlil qilingan.)

6. Olivas G.I., Barbosa-Cánovas G.V. Edible coatings for fresh-cut fruits. *Critical Reviews in Food Science and Nutrition*, 2018, Vol. 45, pp. 657–670. (Kraxmal asosidagi qoplamalarning mevalar sifati, tashqi ko‘rinishi va organoleptik xususiyatlariga ta’siri ilmiy asosda yoritilgan.)

UDK 631.3:620.3

UGLEROD NANOTRUBKALAR ASOSIDA RESURSTEJAMKOR QISHLOQ XO‘JALIGI TEXNOLOGIYALARINI RIVOJLANTIRISH

T.Z. Xaydarov
Qarshi davlat texnika universiteti

Annotatsiya. Maqolada qishloq xo‘jaligida resurstejamkor texnologiyalarni rivojlantirishda uglerod nanotrubkalarning (UNT) ilmiy va amaliy imkoniyatlari tahlil qilindi. UNT asosidagi nanoo‘g‘itlar, aqlli irrigatsiya tizimlari va yuqori sezgir agro-sensorlarning qo‘llanilishi natijasida suv, energiya hamda mineral resurslardan samarali foydalanish imkoniyatlari asoslab berildi. Tadqiqot natijalari nanotexnologiyalar precision agriculture konsepsiyasining muhim elementi ekanligini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: uglerod nanotrubkalar, nanotexnologiya, resurstejamkor texnologiya, nanoo‘g‘it, aqlli irrigatsiya, precision agriculture, agroinnovatsiya.

Kirish. Global iqlim o‘zgarishi, suv resurslarining kamayishi va qishloq xo‘jaligida energiya sarfining ortishi zamonaviy agrotexnologiyalarni tubdan yangilashni talab qilmoqda. Resurstejamkor qishloq xo‘jaligi konsepsiyasi ishlab chiqarishda minimal resurs sarfi orqali maksimal hosildorlikka erishishni nazarda tutadi [1].

So‘nggi yillarda nanotexnologiyalar, xususan uglerod nanotrubkalar yuqori mexanik mustahkamlik, elektr o‘tkazuvchanlik va katta sirt maydoni sababli agrotexnologik tizimlarda keng qo‘llanilmoqda [2,3].

Tadqiqotning maqsadi uglerod nanotrubkalar asosida qishloq xo‘jaligida resurstejamkor texnologiyalarni shakllantirish imkoniyatlarini ilmiy asoslash.

Materiallar va usullar

Tadqiqot quyidagi ilmiy yondashuvlarga asoslandi:

Tadqiqot obyekti ko‘p devorli uglerod nanotrubkalar (MWCNT), nanotexnologik agro-sensor modellar va nanoo‘g‘it kompozitsiyalari [4].

Tadqiqot metodlari tizimli tahlil usuli, nanozarrachalarning transport modeli va resurs samaradorligini matematik baholash.

Resurstejamkorlik ko‘rsatkichi quyidagicha baholandi:

$$R_s=Y/(W+E+F) \quad (1)$$

bu yerda Y hosildorlik, W suv sarfi, E energiya sarfi, F o‘g‘it miqdori.

UNT qo‘llanilishi resurslar yig‘indisini kamaytirish orqali R_s ni oshiradi.

Rasmda nanozarrachalar asosida o‘simlikning atrof-muhit, tuproq va hujayra darajasidagi jarayonlarini integratsiyalashgan boshqarish modeli tasvirlangan. Nanoo‘g‘itlar va nanosensorlar yordamida o‘simlik oziqlanishi optimallashtirilib, suv va mineral resurslar sarfi kamayadi hamda resurstejamkor qishloq xo‘jaligi texnologiyalarining samaradorligi oshadi.

Jadval 1.

Nanotexnologiya asosida o‘simlik ishlab chiqarishning funktsional modeli

№	Jarayon bosqichi	Qo‘llaniladigan nanomaterial	O‘simlikdagi ta’sir mexanizmi	Resurstejamkorlik natijasi
1	Nanozarrachalar sintezi	Nano-Ag, CNT, nanoo‘g‘it	Faol nanozarrachalar hosil bo‘lishi	Texnologik samaradorlik oshadi
2	Purkash (barg orqali qo‘llash)	Nanoo‘g‘it eritmalari	Barg og‘izchalari orqali singish	O‘g‘it sarfi kamayadi
3	Tuproq orqali kiritish	Nanoinkapsulyatsiyalangan o‘g‘it	Ildiz zonasida nazoratli oziqlanish	Mineral yo‘qotish kamayadi

4 Ildiz orqali so‘rilish Nanozarrachalar Ksilema orqali transport Suv va ozuqa samaradorligi ortadi

5 Ichki transport CNT, nanozarrachalar Ksilema va floema bo‘ylab harakat O‘simlik oziqlanishi optimallashadi

6 Maqsadli himoya Nano pestitsidlar Zararkunandalarga selektiv ta’sir Kimyoviy yuklama kamayadi

7 Metabolizmni faollashtirish Nanostimulyatorlar Fotosintez va fermentativ jarayonlar kuchayadi Hosildorlik oshadi

8 Stressga chidamlilik CNT modifikatorlari Antioksidant faollik oshadi Iqlim risklari kamayadi

9 Monitoring Nano sensorlar Real vaqt agrodiagnostika Suv va energiya tejaydi

Nanoo‘g‘itlar samaradorligi UNT asosidagi nanoo‘g‘itlar ozuqa elementlarini nazoratli chiqaradi, ildiz zonasiga tez yetib boradi va o‘g‘it yuvilishini kamaytiradi [5,6].

Natijada o‘g‘it sarfi 35–45 % kamaydi, o‘simlik o‘sish tezligi 15–20 % oshdi.

Aqlli irrigatsiya tizimlari UNT nanosensorlari tuproq namligini real vaqt rejimida monitoring qilish imkonini berdi.

Natijada suv sarfi 25–40 % qisqardi, energiya sarfi sezilarli kamaydi va sug‘orish optimallashtirildi.

Innovatsion texnik vositalar UNT asosidagi sensorlar yuqori sezgirlikka ega, past energiya talab qiladi va agrotexnik qurilmalarni miniaturizatsiya qilish imkonini beradi. Bu precision agriculture tizimlarining samaradorligini oshirdi [7-9].

Muhokama tahlillar shuni ko‘rsatadiki, uglerod nanotrubkalar qishloq xo‘jaligida uch asosiy yo‘nalishda samarali ya’ni resurslarni optimallashtirish suv va o‘g‘it sarfi kamayadi, raqamlashtirish aqlli monitoring tizimlari shakllanadi va barqarorlik ekologik yuklama pasayadi. UNT lar nanoo‘g‘it, nano-sensor va aqlli texnik vositalarni yagona agrotexnologik tizimga integratsiya qilish imkonini beradi.

Xulosa

Uglerod nanotrubkalar asosidagi nanotexnologiyalar qishloq xo‘jaligida resurstejamkor texnologiyalarni rivojlantirishning istiqbolli yo‘nalishi hisoblanadi. UNT lar suv va energiya sarfini kamaytiradi, agrotexnika monitoringini avtomatlashtiradi va hosildorlikni ekologik xavfsiz oshiradi. Kelajakda UNT asosidagi agrotexnologiyalar raqamlashtirilgan qishloq xo‘jaligining fundamental materiali sifatida xizmat qilishi kutilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Alam, Asraful & ., Rukhsana. (2023). Climate Change Impact, Agriculture, and Society: An Overview. 10.1007/978-3-031-28251-5_1

2. Rudakiya, Darshan & Patel, Yogesh & Chhaya, Urvish & Gupte, Akshaya. (2019). Carbon Nanotubes in Agriculture: Production, Potential, and Prospects. 10.1007/978-981-32-9370-0_8

3. Patel, D.K.; Kim, H.-B.; Dutta, S.D.; Ganguly, K.; Lim, K.-T. Carbon Nanotubes-Based Nanomaterials and Their Agricultural and Biotechnological Applications. Materials 2020, 13, 1679. doi.org/10.3390/ma13071679

4. Yutian Zuo, Wenzhi Zeng, Chang Ao, Haorui Chen, Jiesheng Huang, Effects of multiwalled carbon nanotube and Bacillus atrophaeus application on crop root zone thermal characteristics of saline farmland, Heliyon, Volume 9, Issue 2, 2023, e13510, doi.org/10.1016/j.heliyon.2023.e13510.

5. Lin, D.; Xing, B. Phytotoxicity of nanoparticles: Inhibition of seed germination and root growth. Environ. Pollut. 2007, 150, 243–250

6. Zaytseva, O.; Neumann, G. Carbon nanomaterials: Production, impact on plant development, agricultural and environmental applications. Chem. Biol. Technol. Agric. 2016, 3, 17.

7. Zaman, W.; Ayaz, A.; Park, S. Nanomaterials in Agriculture: A Pathway to Enhanced Plant Growth and Abiotic Stress Resistance. Plants 2025, 14, 716. https://doi.org/10.3390/plants14050716

8. Liu Z. Carbon nanotubes in plant science applications.

9. Umair Riaz, Sameen Salman, Laila Shahzad, Nabeeha Lodhi, Chapter six — Applications

of carbon nanotubes in agriculture and environment under changing climate, Editor(s): Manzer H. Siddiqui, M. Nasir Khan, Soumya Mukherjee, In Nanomaterial-Plant Interactions, Carbon Nanotubes in Agriculture, Academic Press, 2025, Pages 119-147, https://doi.org/10.1016/B978-0-443-19047-6.00006-0.

UDK 631.8:004.8

SMART AGROTEXNOLOGIYALAR ASOSIDA EKINLARNI DIFFERENSIAL OZIQLANTIRISH VA HOSILDORLIKNI BOSHQARISHNING ILMIY-TAHLILIY ASOSLARI

Umurkulova F.S., Suyunova L.A.
Qarshi davlat texnika universiteti

Annotatsiya. *Ushbu maqolada smart agrotexnologiyalar asosida ekinlarni differensial oziqlantirish va hosildorlikni boshqarish masalalari tizimli-tahliliy yondashuv asosida yoritildi. Tuproq heterogenligi, o‘simlik oziqlanishi va agroekologik omillarning o‘zaro bog‘liqligi ilmiy manbalar asosida tahlil qilindi. IoT sensorlari, masofaviy zondlash, dron monitoringi va o‘zgaruvchan me’yorli texnologiyalar (VRT) qo‘llanilishining iqtisodiy hamda ekologik samaradorligi asoslab berildi. Ilmiy adabiyotlar tahlili differensial oziqlantirish o‘g‘it sarfini 15–30 % gacha kamaytirishi, hosildorlikni esa 12–25 % gacha oshirishini ko‘rsatadi.*

Kalit so‘zlar: differensial oziqlantirish, smart agrotexnologiya, VRT, NDVI, IoT, precision agriculture, hosildorlik boshqaruvi.

KIRISH

Zamonaviy qishloq xo‘jaligi sharoitida ishlab chiqarish samaradorligini oshirish bilan bir qatorda ekologik barqarorlikni ta’minlash dolzarb vazifaga aylangan. Aholi sonining o‘sishi va oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash zarurati ishlab chiqarish intensivligini kuchaytirishni talab etadi, biroq intensiv mineral o‘g‘itlash uzoq muddatli istiqbolda tuproq degradatsiyasi va atrof-muhit ifloslanishiga olib kelmoqda. Ilmiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, hatto bir xil dala maydonida ham tuproqning fizik-kimyoviy xususiyatlari, namlik sig‘imi va oziqa elementlari taqsimoti sezilarli farqlanadi [2]. Shu sababli butun maydonga bir xil o‘g‘it me’yori qo‘llash agrobiologik jihatdan asoslanmagan va iqtisodiy jihatdan samarasiz hisoblanadi.

Precision agriculture konsepsiyasi aynan tuproq va o‘simliklarning makon bo‘yicha o‘zgaruvchanligini inobatga olish zaruratidan kelib chiqqan [1]. Gebbers va Adamchuk tomonidan olib borilgan tadqiqotlar differensial boshqaruv modeli hosildorlikni oshirish bilan birga resurs tejamkorligini ta’minlashini ko‘rsatgan [1]. Ularning xulosasiga ko‘ra, o‘zgaruvchan me’yorli o‘g‘itlash azot sarfini o‘rtacha 20 % kamaytirgan holda hosildorlikni 15 % ga oshirgan. Bu natija an’anaviy o‘rtacha me’yorli tizimga nisbatan yuqori samaradorlikni anglatadi.

Masofaviy zondlash va GIS texnologiyalarining rivojlanishi differensial oziqlantirishni amaliy jihatdan qo‘llash imkonini kengaytirdi. Mulla D.J. tomonidan ta’kidlanganidek, tuproq xaritalash va zonal boshqaruv modeli agroresurslarni optimallashtirishning asosiy shartidir [2]. Dronlar yordamida olingan multispektral tasvirlar asosida NDVI indeksi hisoblanadi va u o‘simlikning fotosintez faolligi hamda oziqlanish darajasini baholash imkonini beradi [3]. NDVI qiymatining pasayishi o‘simlik stressi yoki oziqa yetishmovchiligini ko‘rsatadi.

Zhang va Kovacs tomonidan olib borilgan tadqiqotlar UAV texnologiyalari dala monitoringini tezkor va aniqlik bilan amalga oshirishini ko‘rsatgan [3]. Sun’iy intellekt va mashinali o‘qitish algoritmlarini qo‘llash esa agroanalitik prognozlash imkoniyatlarini kengaytirdi. Liakos va boshqalar hosildorlik prognozining aniqligi 85–90 % gacha yetishini qayd etgan [4]. Bunday yondashuv qaror qabul qilish jarayonini subyektiv tajribadan obyektiv ma’lumotga asoslangan modelga o‘tkazadi.

Basso va boshqalar differensial boshqaruv hosildorlik barqarorligini oshirishini ilmiy asoslagan [5]. FAO hisobotida esa raqamli agrotexnologiyalar barqaror rivojlanish maqsadlariga mos kelishi, ayniqsa suv va o‘g‘it resurslarini tejashda muhim ahamiyatga ega ekani ta’kidlangan [6]. Wolfert va boshqalar Big Data hamda IoT integratsiyasi agroqarorlarni optimallashtirishini ko‘rsatgan [7]. Kamilaris va Prenafeta-Boldú esa deep learning algoritmlari tasvirlarni avtomatik

tahlil qilishda yuqori samaradorlikka ega ekanini aniqlagan [8].

Tahliliy umumlashtirish shuni ko‘rsatadiki, differensial oziqlantirish tizimi bir nechta komponentlarning integratsiyasiga asoslanadi: tuproq va o‘simlik monitoringi, ma’lumotlarni qayta ishlash, zonal modellashtirish va VRT orqali o‘g‘itlashni amalga oshirish. Bu yopiq boshqaruv siklini hosil qiladi: monitoring – tahlil – qaror – amalga oshirish – qayta monitoring. Natijada hosildorlikning makon bo‘yicha o‘zgaruvchanligi kamayadi va o‘rtacha hosildorlik oshadi.

Ilmiy manbalarda keltirilgan ma’lumotlarga ko‘ra, differensial oziqlantirish o‘g‘it sarfini 15–30 % gacha kamaytiradi, hosildorlikni esa 12–25 % gacha oshiradi [1; 5]. Shu bilan birga nitratlarning yuvilishi kamayib, agroekologik xavfsizlik ta’minlanadi [12]. Tilman va boshqalar intensiv o‘g‘itlashning ekologik xavfini ko‘rsatgan bo‘lsa [11], differensial yondashuv ushbu xavfni minimallashtirish imkonini beradi.

O‘zbekiston sharoitida sug‘oriladigan yerlar salmoqli ulushni tashkil etadi va tuproq sho‘rlanishi dolzarb muammo hisoblanadi. Shunday sharoitda smart agrotexnologiyalar asosida differensial oziqlantirish tizimini joriy etish nafaqat iqtisodiy samaradorlikni oshiradi, balki ekologik barqarorlikni ham ta’minlaydi.

MATERIAL VA METODLAR

Mazkur tadqiqot tahliliy-solishtirma metodologiyaga asoslanib, 2010–2023 yillarda chop etilgan precision agriculture va smart agrotexnologiyalar bo‘yicha ilmiy manbalar o‘rganildi. Tadqiqot jarayonida differensial oziqlantirishni amaliy jihatdan baholash uchun agroekologik, iqtisodiy va texnologik ko‘rsatkichlar tizimli ravishda tahlil qilindi.

Tadqiqotning nazariy asosini tuproq heterogenligi, o‘simliklarning oziqa ehtiyoji va resurslardan oqilona foydalanish konsepsiyasi tashkil etdi. Differensial boshqaruv modeli quyidagi texnologik komponentlar asosida o‘rganildi:

– tuproq namligi, pH va oziqa elementlarini o‘lchovchi IoT sensorlari;

– dronlar yordamida olingan multispektral tasvirlar;

– NDVI (Normalized Difference Vegetation Index) orqali vegetativ faollikni baholash;

– VRT (Variable Rate Technology) asosida o‘zgaruvchan me’yorli o‘g‘itlash;

– agroanalitik dasturiy platformalar orqali ma’lumotlarni qayta ishlash.

Vegetatsiya monitoringi uchun NDVI formulasi qo‘llanildi:

$$\mathbf{NDVI = (NIR – RED) / (NIR + RED)}$$

bu yerda NIR — yaqin infraqizil spektrdagi qaytish, RED — qizil spektrdagi qaytish ko‘rsatkichidir.

Differensial o‘g‘itlashda zonal yondashuv qo‘llanilib, har bir agrozonaga alohida koeffitsient asosida o‘g‘it miqdori belgilandi:

$$\mathbf{N_i = N_0 \times K_i}$$

bu yerda N_i — i-zonadagi o‘g‘it miqdori,

N_0 — standart me’yor,

K_i — zonaning agrobiologik koeffitsienti.

Tahlil jarayonida an’anaviy va smart differensial oziqlantirish tizimlari iqtisodiy samaradorlik, resurs sarfi va hosildorlik ko‘rsatkichlari bo‘yicha solishtirildi.

NATIJALAR VA ULARNING TAHLILI

Tahliliy natijalar differensial oziqlantirish tizimi an’anaviy o‘g‘itlashga nisbatan sezilarli ustunlikka ega ekanini ko‘rsatdi.

Birinchidan, o‘g‘it sarfi optimallashtirildi. Zonal monitoring natijasida ayrim hududlarda ortiqcha o‘g‘itlashning oldi olindi, natijada umumiy mineral o‘g‘it sarfi 15–30 % gacha kamaydi. Bu iqtisodiy jihatdan xarajatlarni qisqartirish bilan birga ekologik yuklamani ham pasaytirdi.

Ikkinchidan, hosildorlik barqarorligi oshdi. NDVI monitoringi orqali o‘simlik stressi erta aniqlanib, zarur agrotexnik choralar o‘z vaqtida qo‘llanildi. Natijada hosildorlik o‘rtacha 12–25 % gacha oshdi va maydon ichidagi notekislik kamaydi.

Uchinchidan, resurs samaradorligi yaxshilandi. IoT sensorlar yordamida tuproq namligi optimal darajada ushlab turildi, bu esa suv sarfini kamaytirishga xizmat qildi. Shu bilan birga, o‘g‘itning o‘simlik tomonidan o‘zlashtirilish koeffitsienti oshdi.

To‘rtinchidan, ekologik xavfsizlik ta’minlandi. Nitratlarning yuvilishi kamayib, tuproq

degradatsiyasi jarayoni sekinlashdi. Intensiv o‘g‘itlashning salbiy ta’siri differensial yondashuv orqali minimallashtirildi.

Tahlil shuni ko‘rsatadiki, smart agrotexnologiyalar asosida differensial oziqlantirish tizimi yopiq boshqaruv sikli orqali ishlaydi: monitoring – tahlil – qaror – amalga oshirish – qayta monitoring. Bu jarayon hosildorlikni dinamik boshqarish imkonini beradi.

XULOSALAR

Olib borilgan tahliliy tadqiqotlar asosida quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Smart agrotexnologiyalar asosida differensial oziqlantirish o‘g‘it sarfini sezilarli darajada kamaytiradi va iqtisodiy samaradorlikni oshiradi.
2. Zonal boshqaruv hosildorlikning barqaror shakllanishini ta’minlab, o‘rtacha 12–25 % o‘sishga erishish imkonini beradi.
3. IoT va dron monitoringi agroqarorlarni obyektiv ma’lumotlarga asoslash imkonini yaratadi.
4. Ekologik xavfsizlik va tuproq unumdorligini saqlash differensial oziqlantirishning muhim afzalliklaridan biridir.

Demak, smart agrotexnologiyalar asosida hosildorlikni boshqarish zamonaviy qishloq xo‘jaligini barqaror rivojlantirishning asosiy omillaridan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Gebbers R., Adamchuk V. Precision agriculture and food security // Science. – 2010. – Vol. 327. – P. 828–831.
2. Mulla D.J. Twenty five years of remote sensing in precision agriculture // Precision Agriculture. – 2013. – Vol. 14. – P. 1–18.
3. Zhang C., Kovacs J.M. The application of small UAVs in precision agriculture // Precision Agriculture. – 2012. – Vol. 13. – P. 693–712.
4. Liakos K.G., Busato P., Moshou D., Pearson S., Bochtis D. Machine learning in agriculture: A review // Sensors. – 2018. – Vol. 18. – 2674.
5. Basso B., Cammarano D., Carfagna E. Review of crop yield forecasting systems // Agricultural Systems. – 2016. – Vol. 148. – P. 51–63.
6. Digital technologies in agriculture and rural areas – Status report. – Rome: FAO, 2019.
7. Wolfert S., Ge L., Verdouw C., Bogaardt M. Big data in smart farming // Agricultural Systems. – 2017. – Vol. 153. – P. 69–80.
8. Kamilaris A., Prenafeta-Boldú F.X. Deep learning in agriculture // Computers and Electronics in Agriculture. – 2018. – Vol. 147. – P. 70–90.
9. Pierce F.J., Nowak P. Aspects of precision agriculture // Advances in Agronomy. – 1999. – Vol. 67. – P. 1–85.
10. Bramley R.G.V. Lessons from nearly 20 years of precision agriculture research // Precision Agriculture. – 2009. – Vol. 10. – P. 129–144.
11. Tilman D., Balzer C., Hill J., Befort B.L. Global food demand and sustainable intensification // PNAS. – 2011. – Vol. 108. – P. 20260–20264.
12. Foley J.A. et al. Solutions for a cultivated planet // Nature. – 2011. – Vol. 478. – P. 337–342.

КЎМИР БРИКЕТЛАРИ ИШЛАБ ЧИҚАРИШ ЖАРАЁНИДА КЎМИР КУКУНИНИ ҚУРИТИШНИНГ ДОЛЗАРБЛИГИ

Вохидова Насиба Хабибулло қизи

Фарғона политехника институти,

Қазиб олинаётган кўмирнинг асосий таркибий қисмлардан ташқари, кўмир таркибида ҳар хил ёнмайдиган кул ҳосил қилувчи қўшимчалар мавжуд. Ушбу ҳолат атроф-муҳитни ифлосланишига ва кўмирнинг тўлиқ ёнишига қаршилик қилади. Бундан ташқари, кўмир таркибида тошнинг мавжудлиги кўмирнинг ўзига хос ёниш хароратини пасайтиради. Кўмирнинг синфланиши ва қазиб олишда унинг таркибидаги минерал моддалар миқдори хилма-хил бўлади. Кўмирларнинг ер қарида сақланганлик вақт оралиғига қараб кул миқдори

6 дан 30% гача бўлади. Истемолчилар томонидан фойдаланиш учун мўлжалланган қўнғир кўмирнинг максимал кул миқдори 10% дан ошмаслиги талаб этилади [1,2].

ЖАДВАЛ-1

Ангрен қўнғир кўмирининг физик-кимёвий хусусиятлари

Хом ашё номи	Намлик, %	Кул миқдори, %	Органик моддалар, %
Ангрен қўнғир кўмири	25	13,7	61,3
Кўмир брикетлари	7,9	8,5	83,6

Кўмирнинг яна бир зарарли таркибий қисмларидан бири бу, олтингугуртдир. Олтингугуртни ёқиш жараёнида унинг таркибидан оксидлар ажралиб чиқиб, улар атмосферада олтингугурт кислотасига айланади. У атроф муҳитни захарлайди, ифлослантиради ҳамда истемолчилар томонидан фойдаланиб келинаётган печларни емирувчи кислотали конденсат ҳосил қилади. Экологик талабларга мувофиқ кўмир таркибидаги олтингугурт миқдори одатда 0,1-1% оралиғида рухсат этилади [3,4].

Тадқиқот натижалари:

Ўрганилган муаммони йўқотишнинг мақбул ечими кўмир кукунини қуритишга мос печни танлаш ва унинг конструкциясни такомиллаштиришдир. Ҳозирда ушбу йўналишда кўплаб илмий тадқиқот ишлари олиб борилиб, барабанли қуритиш аппаратининг конструкцияси истиқболли вариант сифатида кўрсатилмоқда [5,6].

Бундай қурилмалар атмосфера босими билан узлуксиз равишда турли сочилувчан материалларни қуритиш учун ишлатилади. Барабанли қуритгич силиндрсимон барабандан иборат бўлиб, горизонтга нисбатан кичик оғиш бурчаги 3÷6° да жойлаштирилган бўлади (1–расм). Барабан бандажлари ва роликлар ёрдамида ушлаб турилиб, электромотор ва редуктор ёрдамида айлантирилади. Қурилма узунлигининг диаметрига нисбати Л/Д=5-6. Барабаннинг айланишлар сони 5÷6 мин$^{-1}$ Нам материал таъминлагич орқали винтли қабул қилувчи насадкага берилади, бу эрда материал аралаштириш таъсирида бир оз қурийди. Сўнгра материал барабаннинг ички қисмига ўтади. Барабаннинг материал билан тўлиш даражаси *25 %* дан ортмайди. Барабаннинг бутун узунлиги бўйича насадкалар жойлаштирилади. Насадкалар барабаннинг кесими бўйича материални бир ме`ёрда тарқатиш ва аралаштиришни таъминлайди. Бундай шароитда материл билан қуритувчи агентнинг ўзаро таъсири самарали бўлади [7,8].

Барабан ичида материалнинг ўта қизиб кетишини олдини олиш учун материал ва қуритувчи агент (тутунли газлар ёки қиздирилган ҳаво) бир - бирига нисбатан тўғри йўналишда бўлади, чунки бундай шароитда юқори температурали иссиқ газлар катта намликка эга бўлган материал билан контактлаШади. Майда сочилувчан материаллар учун ҳавонинг барабан ичидаги тезлиги *0,5–1,0 м/с*, катта бўлакли материаллар учун *3,5–4,5 м/с* дан ортмаслиги керак. Ишлатилган газлар атмосферага чиқарилишидан олдин майда чанглардан тсиклонда тозаланади. Қуритилган материал барабандан ташқарига туширувчи қурилма орқали чиқарилади [9,10].

Юқоридагилардан келиб чиқиб, барабанли қуритиш аппаратининг конструкцияси ўрганиб чиқилди ва натижалар олинди.

Маълумки, ис гази (CO) рангсиз, ҳидсиз, корхона шароитида энг кўп учрайдиган заҳарли бирикма бўлиб, кўмир ва ёқилғиларнинг тўлиқ ёнмаслиги натижасида ҳосил бўлади [10,11].

Тутун таркибида 3%, ишланган газда 13%, портловчи газлар таркибида эса 50-60% гача ис гази бўлади. Ис гази инсон организмига нафас аъзолари орқали таъсир этади.

Қуйида олинган тахлилий натижалар асосида намликнинг ортиши ҳисобига заҳарли газларни ортиб бориш графиги қурилган.

Ушбу графикдан кўриниб турибдики, брикет таркибидаги намлик ортиши билан унинг ёнувчанлиги пасайиб, захарли газларнинг ортиши кузатилади.



1- расм. Қуритиш барабани констуктив схемаси.

1- цилиндрик корпус, 2,3- таянч, 4-электромотор, 5,6- бандаж, 7-тож ғилдирак, 8-марказлагич; Л – барабан корпуси узунлиги;Л1 – барабан учидан бандажгача бўлган масофа; Л2 – бандажлар орасидаги масофа; Л3 – бандаждан тож илдиракгача бўлган масофа;Н – барабан марказидан электромотор рамасигача бўлган масофа; Н1 - барабан марказидан таянчгача бўлган масофа.

Бу жараённи бартараф этиш мақсадида биз томонимиздан олиб борилаётган илмий тадқиқот ишимизда қуритиш барабанидан фойдаландик. Қуритиш барабанини 70-90ºС хароратга келтирилиб, унга кўмир кукуни узатилди. Қуритиш камерасида кўмир кукуни таркибидаги намликни чиқариб юборишга ва бу орқали олинган брикет ёниш пайтида ундан ажралиб чиқаётган захарли газларни максимал даражада пасайтиришга эришилди [12].

Биз томонимиздан тавсия этилаётган қуритиш барабани саноатнинг кўп тармоқларида махсулотларни қуритиш мақсадида кенг қўлланилади. Қурилманинг асосий ишчи қисми барабан хисобланиб, минутига 0,5÷20 мартагача айланади.



2-расм. Намликнинг ортиши ҳисобига заҳарли газларни ортиб бориши



3-расм. Брикет ва кўмир намлигини хароратга боғлиқлиги. 1-кўмир брикети, 2-кўмир

Тажриба жараёнида муфел печи (муфелний печ СНОЛ “ЧОЛ” 8,2/1100. Температура 50 дан 1100ºС) ёрдамида кўмир кукуни таркибига турли хил ҳароратларни бериб, натижалар олинди. Олинган натижа кўрсаткичларилари шуни кўрсатдики, ҳароратнинг меъёр даражасида ортиб боириши олинаётган брикетнинг сифат даражасига ижобий таьсир кўрсатди. Лекин кўмир кукунига 90ºС дан ортиқ харорат берилганда унинг таркибида ўзгаришлар содир бўлаётганлиги, якуний ҳолатларда кукуннинг ёниш жараёни кузатилди [13].

Ушбу графикдан кўриниб турибдики, қуритиш камерасидаги хароратнинг босқичма-босқич ўзгартириш хисобига кўмир ва кўмир кукунининг таркибидаги намлигини пасайишига эришилди. Хароратнинг 90^0C дан ортиши кўмир ва кўмир кукунини қайта дислокацияланишига ҳамда ёнишига олиб келди. Шунинг учун максимал харорат 90^0C деб чегараланди. Ушбу намликни йўқотишда ишлаб чиқариш технологик линиясида қуритиш барабани тавсия қилинади [13].

ЖАДВАЛ-2

Тахлил учун олинган ёқилғи брикетларининг техник характеристикаси

Хом ашё номи	Сиқишдаги механик куч, мпа	Намлик , %	Кул таркиби, %	Учувчи моддалар, %	Олтингугурт миқдори, %	Ёнишдаги иссиқлиги	
						Пастки МДж/кг	Юқори МД ж/кг
Кўмир брикетлари	12,0	7,9	8,5	6,3	0,43	27,75	33,44

Хулоса:

Қуритиш жараёнидаги максимал харорат 90^0C ни ташкил этиш лозим. Акс ҳолда кўмир кукуни қайта дислокацияланиб, унда ёниш жараёни кузатилиши мумкин. Қуритишдан сўнг олинган натижаларга кўра брикет таркибидаги олтингугурт миқдори рухсат этилган 1% дан, 0,43% гача камайишга эришилди.

Адабиётлар

[1]. Хакимов А. А., Салиханова Д. С., Каримов И. Т. Кўмир кукунидан брикетлар тайёрлашнинг долзарблиги //Фарғона политехника институти илмий техника журнали.-2019.-№. – 2019. – Т. 23. – №. 2. – С. 226-229.

[2]. Хакимов А. А., Салиханова Д. С., Каримов И. Т. Кўмир кукунини брикетловчи қурилма //Фарғона политехника институти илмий техника журнали.-2018.-№ спец. – 2018. – Т. 2. – С. 169-171.

[3]. Хакимов А. А. и др. Связующее для угольного брикета и влияние его на дисперсный состав //Universum: химия и биология. – 2020. – №. 6 (72). – С. 81-84.

[4]. Хакимов А. А., Вохидова Н. Х. Использование местных отходов в производстве угольных брикетов //Универсум: химия и биология. – 2020. – №. 4 (70).

[5]. Axmedovich X. A., Saidakbarovna S. D. Research the strength limit of briquette production //ASIAN JOURNAL OF MULTIDIMENSIONAL RESEARCH. – 2021. – Т. 10. – №. 5. – С. 275-283.

[6]. Хакимов А. ТЕХНОЛОГИЯ БРИКЕТИРОВАННОГО УГЛЯ //Матеріали конференцій МЦНД. – 2020. – С. 76-78.

[7]. Хакимов А. А., Вохидова Н. Х., Нажимов Қ. Кўмир брикети ишлаб чиқаришнинг янги технологиясини яратиш //ўзбекистон республикаси олий ва ўрта махсус таълим вазирлиги Заҳириддин Муҳаммад Бобур номидаги Андижон давлат университети. – С. 264.

[8]. Khakimov A. A., Salikhanova D. S., Vokhidova N. K. Calculation and design of a screv press for a fuel briquette //Scientific-technical journal. – 2020. – Т. 24. – №. 3. – С. 65-68.

[9]. Хакимов А. А. и др. Определение показателей качества угольного брикета //Universum: химия и биология. – 2021. – №. 5-2 (83). – С. 40-44.

[10]. Вохидова Н.Х. Хакимов А.А., Салиханова Д.С., Ахунбаев А.А. Анализ связующих из местного сырья для брикетированния углольной мелочи // Научно-технический журнал ФерПИ. – 2019. - Scientific-technical journal (STJ FerPI, ФарПИ ИТЖ, НТЖ ФерПИ, 2019, Т.23, спец. №3). – С. 69-74.

[11]. Хакимов А.А.Совершенствование технологии получения угольных брикетов с

использованием местных промышленных отходов: Дисс. … PhD. – Ташкент, 2020. – 118 с.

[12]. Akhmedovich K. A. et al. The Diligence of Drying the Coal Dust in the Process of Obtainig the Coal Brickets //International Journal of Innovative Analyses and Emerging Technology. – 2021. – Т. 1. – №. 5. – С. 111-115.

[13]. Ахунбаев А. А., Ражабова Н. Р., Вохидова Н. Х. Исследование гидродинамики роторной сушилки с быстровращающимся ротором //Экономика и социум. – 2020. – №. 12-1. – С. 392-396.

СПОСОБ ВЫБОРА И ЗНАЧЕНИЕ ПРЕССУЮЩЕГО УСТРОЙСТВА В ПРОИЗВОДСТВЕ ГОРЮЧИХ БРИКЕТОВ.

Хакимов Акмалжон Ахмедович
Фағона политехника институти

Аннотация: В статье разработана установка для прессования смешанной массы в угольные брикеты. Также дан анализ других связующих используемых для брикетирования угольной мелочи.

Ключевые слова: угольная мелочь, спиртовая барда, брикетирование мелкой фракций, биомасса, пресс для формования, технология брикетирования.

Relevance and relevance of the choice of a pressing device in the production of coal briquettes.

Annotation: In the article An installation for pressing a mixed mass into coal briquettes has been developed. An analysis of other binders used for coal fines briquetting is also given.

Key words: coal fines, distillery stillage, fine fraction briquetting, biomass, molding press, briquetting technology.

В настоящее время, благодаря высоким ценам на нефть и газ, интерес к углю в мире как альтернативному энергоносителю постоянно растет. Специалисты (последний прогноз МВФ World Economic Outlook) прогнозируют достаточно высокие цены на нефть и газ до 2050 года. Целый ряд сильных национальных экономик (прежде всего, США,Россия и Китай, а также Индия, Канада) намерены серьезно увеличивать количество угольных электростанций. Необходимо отметить, что одной из главных задач, которую необходимо решать при переработке угля, является польное его использование. Увеличение стоимости нефти и постепенное истощение наиболее богатых ее источников привело к возрастанию доли угля в топливном балансе и развитию работ по производству из угля новых продуктов, в том числе угольной мелочи. Поэтому, следует считать начало XXI века периодом подготовки к значительному увеличению доли угля в топливно-энергетическом балансе, к осуществлению новых технологических процессов переработки угля.

Как показывают данные исследователей, примерно 25% добываемого угля Ангренского угольного бассейна имеют мелкую и пылевидную фракцию. Эти фракции не пользуется спросом у потребителей из-за сложности его исползования. Возникают сложности и для отопления частных домов: просыпается через колосниковую решетку и потому имеет низкую тепловую эффективность, часто большое количество угольной мелочи перекрывает доступ кислорода, из-за чего печь затухает. По этим причинам множество пыли и угля мелких фракций (размером до 6 мм) скапливается на складах, в топливных сараях на частных подворьях. Проблема решается при производстве брикетированного угля. Эта технология позволяет из угольной пыли при высоком давлении изготовить топливные брикеты. Они хорошо переносят транспортировку и хранение, имеют большую теплотворную способность по сравнению с исходными материалами (не менее 6000 ккал/кг), не выделяют дыма и газов, прогорают полностью, не спекаясь, а распадаясь в золу.

Для эффективного брикетирования мелкого и пылевидного угля необходима разработка новых технологических устройств, учитывающая инфраструктурные особенности объекта. Поэтому, необходимы исследования, направленные на разработку рациональной технологии брикетирования угольной мелочи Ангренского угольного бассейна.

В настоящее время основными причинами, тормозящими развитие брикетирования

угольной мелочи, является отсутствие доступного и дешевого связующего. По этой причине повсеместно и постоянно ведутся поиски различных вариантов индивидуальных или комбинированных связующих для получения топливных брикетов, расширяется их ассортимент.

Несомненным экологическим преимуществом является вовлечение в переработку отвального технической барды Кокандского спиртового завода, наносящего вред окружающей среде. В роли наполнителя брикета используем твердую угольную мелочь или его смесь с углеродсодержащей биомассой. Добавка пористых углеродсодержащих материалов (в частности, технического гидролизной спиртовой барды) и перфорированная форма топливного брикета способствуют улучшению кинетики сгорания. Существуют добавки, катализирующие процесс розжига брикета (неорганические окислители, торф, древесный уголь). В зависимости от характеристик брикетируемого материала применяются схемы с введением связующего материала и брикетирование без него. Различают связующие вещества нефтяного происхождения, продукты термохимической переработки углей и связующие неуглеводородного характера. Проведение постформовочной термообработки способствует снижению дымности и повышению пористости, но влечет дополнительные затраты. Факторами, влияющими на процесс брикетирования, являются влажность, крупность и температура материала, давление и продолжительность прессования. Данные параметры находятся между собой в тесной зависимости.

Если различные древесные отходы в виде опилок и щепы достаточно легко сжигать в специально приспособленных для этого котлах длительного горения, то с угольной мелочью и пылью дело обстоит иначе. Один из способов сжигания угольной мелочи – это растопить котел дровами, а потом сверху на горящие поленья подсыпать пыльную фракцию топлива. Но это слишком хлопотное дело, поскольку угольная пыль должна подсыпаться небольшими порциями, а значит, — часто. Наилучший способ – это методом прессования формировать из мелкой фракции брикеты, которые после этого очень хорошо горят, выделяя большое количество теплоты. Такое решение, как брикетирование углей, было предложено еще в начале позапрошлого века в России изобретателем А.П. Вешняковым и по сей день успешно используется как в промышленных целях, так и в быту. Суть его в том, что уплотнение угольной мелочи с помощью высокого давления на специальном оборудовании позволяет получать топливо, чья теплотворная способность не меньше, чем у качественных углей.

Угольные брикеты изготавливают из бурого угля, крошки и пыли антрацитов и каменных углей, полукоксовой и коксовой мелочи. В зависимости от типа исходного сырья в него добавляются или нет связующие компоненты.

Формирование брикетов из бурого угля происходит без добавления связующих, так как сам материал содержат до 20% битумов. При переработке сырье измельчают, нагревают и сушат, доводя до 18-20% влажности. После охлаждения полученную крошку подают в пресс высокого давления, где формируется кусковое топливо. Их после охлаждения можно использовать или улучшить качественные характеристики в установках по полукоксованию.

Брикетирование мелочи каменных углей также может происходить как с использованием связующих, так и без них. При промышленном изготовлении в качестве связующего элемента добавляют следующие вещества: нефтебитум; лигносульфонаты; меласса; жидкое стекло и цемент.

Угольные брикеты обладают следующими преимуществами перед исходным углем:

Более высокая энергетическая ценность (на 20-30%)

Более длительное горение (в 4 раза дольше)

Зола в виде порошка

На 22% меньше эмиссия CO_2

Меньшая эмиссия серы (меньше 1% и может контролироваться)

Легче упаковка, транспортировка, складирование

Готово для автоматической подачи в топку

Возможность упаковки для потребительского рынка

Возможности реализации на экспорт

Жидкое стекло и цемент используются при переработке некоторых видов угля и мелкого кокса. Такие брикеты применяют в металлургии в тех процессах, где наличие подобных составляющих допустимо. Угольная смола и нефтебитум также используются для производства топлива промышленного применения. Для отопления домов такие брикеты не подходят: при сгорании выделяется бензопирен и другие вредные вещества, так что они запрещены СЭС и спрос на них весьма ограничен

Чтобы сделать такие брикеты из мелкого каменного угля, нужно разобраться, как и с помощью каких станков их штампуют на заводе. Оборудование для производства отопительных брикетов представляет собой технологическую линию, состоящую из таких установок: дробилка; сушильная камера; пресс для брикетирования. Единицы оборудования перечислены в той же очередности, в какой они стоят согласно технологии. Подача сырья и его перемещение между установками производится посредством ленточных либо шнековых конвейеров.

Процесс прессования угольного топлива происходит следующим образом:

1. В дробилке угольная мелочевка измельчается до частиц одинакового размера, зависящего от характеристик прессового оборудования. Максимально допустимая крупность фракции – 6 мм.

2. В сушилке влажность сырья уменьшается до значения 15% (максимум).

3. Последний этап – прессование, выполняемое под давлением от 20 до 120 МПа, в зависимости от используемой технологии.

Поскольку технология производства угольных брикетов без всяких добавок для бытовых целей более оптимальна, то стоит рассмотреть именно ее. Итак, последовательность процесса следующая:

1. Сначала уголь проходит операцию измельчения, при этом допускается максимальная крупность фракции 6 мм;

2. Следующая операция – сушка с целью добиться оптимальной влажности 15%. Для этого применяется особое оборудование для производства угольных брикетов – паровые или газовые сушилки;

3. После сушки состав охлаждается и подается на прессование. Операция проходит при давлении 100—150 МПа в так называемом штемпельном прессе;

4. Окончательное охлаждение и отгрузка на склад.

26	KR20-CAT-27	15,8	14,4	14,8	15,0	-2,0	-1,1	-2,7
27	KR20-CAT-28	14,6	15,1	12,9	14,2	-2,8	-1,9	-3,5
28	KR20-CAT-31	24,8	25,0	15,0	21,6	4,6	5,5	3,9
29	KR20-CAT-34	24,2	25,0	13,9	21,0	4,0	4,9	3,3
30	KR20-CAT-35	25,2	25,5	15,7	22,1	5,1	6,0	4,4
31	KR20-CICTN-2	14,1	14,8	16,7	15,2	-1,8	-0,9	-2,5
32	KR20-CICTN-3	25,1	24,8	23,2	24,4	7,4	8,3	6,7
33	KR20-CICTN-5	16,1	14,6	17,7	16,1	-0,9	0,0	-1,6
34	KR20-CICTN-6	14,6	14,8	12,3	13,9	-3,1	-2,2	-3,8
35	KR20-CICTN-11	24,2	24,6	22,8	23,9	6,9	7,8	6,2
36	KR20-CICTN-13	15,6	14,2	15,2	15,0	-2,0	-1,1	-2,7
37	KR20-CICTN-14	25,9	23,5	23,1	24,1	7,1	8,0	6,4
38	KR20-CICTN-24	16,5	14,8	15,2	15,5	-1,5	-0,6	-2,2
39	KR20-CICTN-44	14,9	14,3	15,8	15,0	-2,0	-1,1	-2,7
40	KR20-CICTN-47	17,9	16,3	18,4	17,5	0,5	1,4	-0,2
41	KR20-CIEN-LS-6	14,3	15,0	13,2	14,2	-2,8	-1,9	-3,5
42	KR20-CIEN-LS-12	26,1	23,7	16,6	22,1	5,1	6,0	4,4
43	KR20-CIEN-LS-14	25,4	26,4	21,2	24,3	7,3	8,2	6,6
44	KR20-CIEN-LS-17	18,3	16,7	17,9	17,6	0,6	1,5	-0,1
45	KR20-CIEN-LS-24	14,9	15,1	15,2	15,0	-2,0	-1,1	-2,7
46	KR20-CIEN-LS-25	14,9	14,2	16,1	15,1	-1,9	-1,0	-2,6
47	KR20-CIEN-LS-26	15,1	14,3	12,8	14,1	-2,9	-2,0	-3,6
48	KR20-CIEN-LS-28	24,6	25,3	24,3	24,7	7,7	8,6	7,0
49	KR20-CIEN-LS-30	15,2	13,9	16,0	15,0	-2,0	-1,1	-2,7
50	KR20-CIEN-LS-34	23,9	26,3	21,1	23,7	6,7	7,6	6,0
Eng yuqori ko‘rsatkich		**26,3**	**26,5**	**25,9**	**25,2**	**8,2**	**9,1**	**7,5**
O‘rtacha ko‘rsatkich		**19,7**	**19,1**	**17,1**	**18,6**	**1,6**	**2,5**	**0,9**
Eng kichik ko‘rsatkich		**14,1**	**13,9**	**11,9**	**13,9**	**-3,1**	**-2,2**	**-3,8**
EKF05		**0,95**	**0,93**	**0,67**	**13,9**			
EKF05 %		**4,83**	**4,84**	**3,93**	**4,5**			
S		**2,76**	**2,83**	**2,059**	**2,5**			
Sv %		**14,1**	**14,8**	**12,01**	**13,6**			

Andoza sifatida olingan Polvon navida o‘rtacha hosildorlik 17,0 s/ga, Zumrad navida o‘rtacha 16,1 s/ga, Obod navida esa o‘rtacha 17,7 s/ga hosildorlik olinishiga erishilgan bo‘lsa, andoza navlariga nisbatan pastroq ko‘rsatkichlar tanlangan namunalardan KR20-CICTN-6 13,9 s/ga, andoza navlariga nisbatan -3.1, -2.2, -3.8 s/ga, KR20-CAT-25 namunasida o‘rtacha 14,0 s/ga, andoza navlarga nisbatan -3.0, -2.1, -3.7 s/ga, KR20-CIEN-LS-26 namunasida esa 14,1 s/ga, andoza navlariga nisbatan -2.9, -2.0, -3.6 s/ga, KR20-CIEN-LS-6 hamda KR20-CAT-28 tanlangan namunalarda hosildorlik o‘rtacha 14,2 s/ga, andoza navlarga nisbatan -2.8, -1.9, -3.5 s/ga farqda hosildorlik olingani aniqlandi. Shuningdek o‘rtacha hosildorlik ko‘rsatkichlari KR20-LCAYT-RF-

11 namunada 3 yillik hosildorlik o‘rtacha 18,3 s/ga, andoza navlariga nisbatan 1.3, 2.2 hamda 0.6 s/ga farqda o‘rtacha hosildorlik olingani aniqlangan bo‘lsa, KR20-LCAYT-RF-2 tanlangan namunada 3 yillik o‘rtacha hosildorlik 18,6 s/ga, andoza navga nisbatan 1.6, 2.5 va 0.9 s/ga farqli ravishda hosildorlik ko‘rsatkichlari o‘rtacha bo‘lgani tadqiqotlar davomida aniqlandi.

Xulosa. Andoza navlarimizga nisbatan tanlangan namunalarda farqli ravishda yuqori hosildorlik ko‘rsatkichlari qayd etilib, bunda KR20-LCAYT-RF-10 namunada hosildorlik o‘rtacha 23,5 s/ga, andoza navlarga qaraganda 6.5, 7.4, 5.8 s/ga, KR20-CIEN-LS-34 23,7 s/ga, andoza navlariga nisbatan 6.7, 7.6 va 6.0 s/ga, KR20-CICTN-11 tanlangan namunada 3 yillik o‘rtacha hosildorlik 23,9 s/ga, andoza navlarga nisbatan 6.9, 7.8, 6.2 s/ga nisbatan yuqori hosildorlikka erishilgan bo‘lsa, KR20-CICTN-14 tanlangan namunada o‘rtacha hosildorlik 24,1 s/ga, andoza navlariga nisbatan 7.1, 8.0 va 6.4 s/ga farqda, KR20-CIEN-LS-14 namunada o‘rtacha 3 yillik hosildorlik 24,3 s/ga, andoza navlariga nisbatan 7.3, 8.2, 6.6 s/ga, KR20-CICTN-3 namunada 24,4 s/ga, andoza navlariga nisbatan 7.4, 8.3, 6.7 s/ga yuqori hosildorlikni tashkil etganligi olib borilgan tadqiqotlarimiz davomida qayd etildi.

KR20-CIEN-LS-28 namunada o‘rtacha 24,7 s/ga, andoza navlariga nisbatan 7.7, 8.6, 7.0 s/ga, eng yuqori hosildorlik KR20-LCAYT-RF-6 namunada 25,2 s/ga, andoza navlariga nisbatan 8.2, 9.1 va Obod naviga nisbatan 7.5 s/ga farqda erishilgani tadqiqotlar davomida aniqlandi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Balashov B.B., Balashov A.B., Malaxova A.A. “Влияние гидротермических условий на элементы структуры урожая и урожайность сортов нута на каштановых почвах Волгоградский области//Известия Нижневолского агроуниверситетского комплекса: наука и высшее -профессиональное образование. -2018. № 2(50). 17-23.

2. Naxolboyev J., Ergashev J., Umurzakov A. “Lalmikor maydonlarda no’xatning boshlang’ich manbalarini tanlash natijalari// Agro-Ilm. Toshkent. 2017. №1.

3. Abdiev.A.A., “Qashqadaryo viloyatining tog‘ oldi lalmikor yerlari sharoitida turli muddatlarda va me’yorlarda ekilgan no‘xat navlarining o‘sishi rivojlanishi va hosildorligi"// q/x.f. nomzodlik diss. Qarshi: ToshDAU, 2007. 48-b.

ERTA MUDDATDA PISHIB YETILADIGAN MAKKAJO‘XORI NAVLARINI ANIQLASH VA ULARNING XO‘JALIK AHAMIYATI

Azizov Bekzod G‘ayrat o‘g‘li
Janubiy dehqonchilik ilmiy tadqiqot instituti
Muxammadiyeva Maxliyo Baxodirovna
Qarsh davlat texnika universtiteti

Annotatsiya: Mazkur tadqiqotda Janubiy dehqonchilik ilmiy-tadqiqot instituti tajriba maydonida o‘tkazilgan 30 ta makkajo‘xori (Zea mays L.) navlarining pishib yetilish muddatlari o‘rganildi. Maqsad – iqlim o‘zgarishi sharoitida qisqa vegetatsiyali, issiqqa va qurg‘oqchilikka chidamli erta pishuvchi navlarni aniqlashdir. Olingan natijalarga ko‘ra, “Yulduz” navi 77 kunlik vegetatsiya davri bilan eng erta pishuvchi nav sifatida ajralib chiqdi. Shuningdek, “KB-113”, “D-46”, “MSUITS-7”, “AKMI-1”, “Saxarniy-5” va “D-17” navlari ham 78 kun ichida to‘liq pishib yetildi. Ushbu navlar suv resurslari cheklangan sharoitlarda, ikkinchi ekin sifatida yetishtirish uchun istiqbolli hisoblanadi.

Kirish: Makkajo‘xori (Zea mays L.) dunyoda eng keng tarqalgan don ekinlaridan biridir. U ozuqa, texnik va yem-xashak maqsadida keng ishlatiladi. Respublikamiz sharoitida makkajo‘xori chorvachilik bazasini mustahkamlashda, ayniqsa, silos va don uchun muhim ekin hisoblanadi. Biroq, global iqlim o‘zgarishi, haroratning oshishi va suv tanqisligi sharoitida uzoq vegetatsiyali navlar ba’zan to‘liq pishib ulgurmaydi yoki hosildorlik pasayadi. Shu boisdan, qisqa vegetatsiyali, erta pishib yetiladigan navlarni aniqlash muhim ilmiy va amaliy ahamiyatga ega. Tadqiqotning asosiy maqsadi – Janubiy dehqonchilik sharoitida turli kelib chiqishdagi makkajo‘xori navlarining pishib yetilish muddatlarini o‘rganish, erta pishuvchi istiqbolli genotiplarni aniqlash va ularning xo‘jalik ahamiyatini baholashdan iborat.

Kalit suzlar: unib chiqish, chin barg xosil bo‘lish, so‘ta chiqarish, va to‘liq pishish.

Material va usullar: Tajriba 2025-yil o‘suv davri davomida sug‘oriladigan sharoitda o‘tkazildi. Har bir nav 4 qatorli variant sifatida 23-aprel kuni ekildi. Kuzatuvlar o‘simliklarning rivojlanish bosqichlariga ko‘ra olib borildi: unib chiqish, chin barg hosil bo‘lish, so‘ta chiqishi, g‘ullash, sut, mum va to‘liq pishish davrlari qayd etildi. Vegetatsiya davri ekishdan to to‘liq pishishgacha bo‘lgan kunlar soni sifatida hisoblandi.

Tajriba natijalariga ko‘ra, navlar o‘rtasida pishib yetilish muddatlari bo‘yicha sezilarli farqlar kuzatildi. Eng qisqa vegetatsiya davri “Yulduz” navida 77 kunni tashkil etdi. Ushbu nav boshqa navlarga nisbatan erta gulladi va 17-iyul kuni to‘liq pishgan.

Shuningdek, “KB-113”, “D-46”, “MSUITS-7”, “AKMI-1”, “Saxarniy-5” va “D-17” navlari 78 kun ichida to‘liq pishib yetildi.

Ushbu navlar iqlim sharoiti og‘ir, sug‘orish suvi yetarli bo‘lmagan tumanlarda ikkinchi ekin sifatida yetishtirish uchun istiqbolli hisoblanadi.

O‘rta muddatda pishuvchi navlarda vegetatsiya davri 79–82 kunni tashkil etib, ular asosan yuqori biomassa hosil qiluvchi va don uchun mo‘ljallangan navlar bo‘lib, “Erkin-2”, “Argun-7107”, “G‘N-91”, “G‘N-71” shular jumlasidandir.

Eng erta pishib yetilgan navlar: “Yulduz” – 77 kun **“KB-113”** – 78 kun **“D-46”** – 78 kun **“MSUITS-7”** – 78 kun **“AKMI-1”** – 78 kun **“Saxarniy-5”** – 78 kun **“D-17”** – 78 kunni tashkil etdi.

1-jadval

Makkajuxori navlarini o‘suv davri davomiyligi

№	Nav nomi	Ekilgan kuni, sana	Unib chiqish, sana.	Chin barg xosil bo‘lish,sana	So‘ta chiqarish, sana.	So‘ta gullash, sana.	Sut pishish, Sana.	Mum pishish, sana.	To‘liq pishish, sana.	Vegitatsiya davri
1	KB-113	23.apr	1 may	3 may	5 iyun	10 iyun	20 iyun	1 iyul	18 iyul	78
2	VETIKA	23.apr	1 may	4 may	6 iyun	11 iyun	20 iyun	2 iyul	19 iyul	79
3	Tishsimon	23.apr	2 may	4 may	6 iyun	12 iyun	22 iyun	4 iyul	20 iyul	79
4	D-46	23.apr	1 may	3 may	6 iyun	10 iyun	24 iyun	5 iyul	18 iyul	78
5	Kelajak-100	23.apr	1 may	3 may	6 iyun	11 iyun	23 iyun	7 iyul	19 iyul	79
6	O‘zbekiston-300	23.apr	3 may	3 may	7 iyun	12 iyun	22 iyun	6 iyul	20 iyul	79
7	O‘zbekiston-203	23.apr	2 may	3 may	6 iyun	10 iyun	20 iyun	7 iyul	20 iyul	80
8	Erkin-2	23.apr	1 may	4 may	7 iyun	11 iyun	22 iyun	10 iyul	22 iyul	82
9	MSUITS-7	23.apr	2 may	4 may	6 iyun	12 iyun	23 iyun	10 iyul	19 iyul	78
10	AKMI-1	23.apr	1 may	3 may	6 iyun	11 iyun	23 iyun	9 iyul	18 iyul	78
11	Muxabbat	23.apr	1 may	3 may	6 iyun	12 iyun	22 iyun	9 iyul	19 iyul	79
12	Korin oq	23.apr	3 may	3 may	7 iyun	11 iyun	24 iyun	7 iyul	20 iyul	79
13	D-18	23.apr	2 may	3 may	6 iyun	10 iyun	20 iyun	6 iyul	21 iyul	80
14	D-21	23.apr	2 may	4 may	6 iyun	10 iyun	23 iyun	6 iyul	21 iyul	80
15	ARGUN-7107	23.apr	2 may	4 may	7 iyun	11 iyun	23 iyun	6 iyul	22 iyul	81
16	KB-21	23.apr	1 may	3 may	6 iyun	11 iyun	24 iyun	8 iyul	19 iyul	80
17	KB-10	23.apr	2 may	3 may	6 iyun	12 iyun	24 iyun	9 iyul	21 iyul	80
18	KB-2107	23.apr	3 may	3 may	7 iyun	12 iyun	24 iyun	7 iyul	21 iyul	80
19	Samarqand tish	23.apr	1 may	3 may	6 iyun	11 iyun	24 iyun	8 iyul	21 iyul	81
20	Oqpari	23.apr	2 may	4 may	6 iyun	11 iyun	22 iyun	10 iyul	19 iyul	79
21	Qumqishloq	23.apr	2 may	4 may	7 iyun	12 iyun	20 iyun	11 iyul	20 iyul	79
22	GN-73	23.apr	2 may	3 may	6 iyun	11 iyun	20 iyun	9 iyul	21 iyul	80
23	GN-71	23.apr	1 may	3 may	7 iyun	11 iyun	23 iyun	8 iyul	21 iyul	81
24	GN-91	23.apr	2 may	3 may	6 iyun	6 iyun	22 iyun	6 iyul	22 iyul	81
25	D-13	23.apr	1 may	3 may	6 iyun	11 iyun	22 iyun	3 iyul	19 iyul	79
26	Kr-3928	23.apr	2 may	4 may	6 iyun	12 iyun	22 iyun	5 iyul	20 iyul	79
27	Saxarniy-5	23.apr	2 may	4 may	6 iyun	11 iyun	23 iyun	6 iyul	19 iyul	78
28	Yulduz	23.apr	2 may	3 may	7 iyun	12 iyun	22 iyun	5 iyul	17 iyul	77
29	D-17	23.apr	2 may	3 may	7 iyun	12 iyun	24 iyun	5 iyul	19 iyul	78
30	O‘zbekiston-100	23.apr	3 may	4 may	7 iyun	12 iyun	25 iyun	6 iyul	20 iyul	79

Kech pishuvchi navlar (81–82 kun):“Erkin-2”, “Argun-7107”, “G‘N-71”, “G‘N-91” navlari 21–22-iyul atrofida pishib yetilgan bo‘lib, yuqori hosil potentsialiga ega, ammo ikkinchi ekin

sifatida ularni yetishtirish tavsiya etilmaydi.

Shunday qilib, eng erta pishuvchi navlar ichida “Yulduz” navi iqlim o‘zgarishi sharoitida eng istiqbolli bo‘lib, u ikkita afzallikka ega: Qisqa vegetatsiya davri tufayli suv tanqisligi sharoitida ham to‘liq hosil beradi;

Doni erta pishgani uchun ikkinchi hosil (masalan, soya, raygrass, yoki sholi) ekish imkonini yaratadi (1-jadvalda ko‘rsatilgan).

Xulosa:

Tajriba natijalariga asoslanib quyidagi xulosalarga kelindi:

1. 30 ta o‘rganilgan navlar orasida **“Yulduz”** navi eng erta pishuvchi bo‘lib, vegetatsiya davri 77 kunni tashkil etdi.

2. **“KB-113”**, **“D-46”**, **“MSUITS-7”**, **“AKMI-1”**, **“Saxarniy-5”** va **“D-17”** navlari ham erta muddatda pishib yetiladi.

3. Ushbu navlar qisqa vegetatsiyali ekin sifatida ikkinchi hosil uchun, yoki iqlim sharoiti qurg‘oqchilikka moyil hududlarda ekish uchun tavsiya etiladi.

4. Keyingi yillarda bu navlar asosida yangi yuqori hosilli, erta pishuvchi genotiplarni yaratish istiqbolli yo‘nalish hisoblanadi.

Adabiyotlar sharxi

1. Karimov B. va boshq. (2023). Makkajo‘xori seleksiyasida erta pishuvchi genotiplarni tanlash usullari. *O‘zbekiston qishloq xo‘jaligi jurnali*, №3, 45–49.

2. Rasulov A. (2022). Iqlim o‘zgarishi sharoitida makkajo‘xori navlarini adaptatsiyasi. *Janubiy dehqonchilik ilmiy axboroti*, №2, 33–37.

3. FAO (2021). *Maize production and drought tolerance improvement strategies*. Rome: FAO Press.

QISHLOQ XO‘JALIGI MAHSULOTLARIDAN FOYDALANISH ORQALI EMIZIKLI AYOLLARNING RATSIONAL OVQATLANISHINI TA’MINLASHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNING AHAMIYATI

Rahmatullayev Yorqin Shokirovich,
Qarshi davlat universiteti
Aziza Shohimardonova Boynazar qizi
Qarshi davlat texnika universiteti

Annotatsiya. Mazkur maqolada emizikli ayollarning ratsional ovqatlanishini ta’minlashda qishloq xo‘jaligi mahsulotlaridan samarali foydalanish hamda zamonaviy innovatsion texnologiyalarni qo‘llashning ahamiyati tahlil qilinadi. Ona organizmi va chaqaloq rivojlanishi uchun zarur bo‘lgan asosiy oziq moddalar, ularning qishloq xo‘jaligi mahsulotlarida uchrashi hamda bu mahsulotlarni qayta ishlash, saqlash va iste’mol qilish jarayonlarida zamonaviy texnologiyalarni qo‘llash masalalari o‘rganildi. Tadqiqot natijalari emizikli ayollar ratsionini to‘g‘ri tashkil etish ona va bola salomatligini mustahkamlashda muhim omil ekanligini ko‘rsatdi.

Kalit so‘zlar: emizikli ayollar, ratsional ovqatlanish, oziq moddalari, qishloq xo‘jaligi mahsulotlari, innovatsion texnologiyalar, sog‘lom ovqatlanish.

Kirish. Hozirgi kunda aholi salomatligini mustahkamlash va sog‘lom avlodni tarbiyalash davlat siyosatining muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, emizikli ayollarning to‘g‘ri va ratsional ovqatlanishi nafaqat ona organizmi, balki yangi tug‘ilgan chaqaloqning sog‘lom rivojlanishi uchun ham katta ahamiyatga ega.

Oziq moddalar yetishmovchiligi yoki noto‘g‘ri ovqatlanish ona sutining sifati va miqdoriga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Shu sababli emizikli ayollarning kundalik ratsionida oqsillar, yog‘lar, uglevodlar, vitaminlar va mineral moddalar yetarli darajada bo‘lishi zarur.

Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari inson oziqlanishining asosiy manbalaridan biri bo‘lib, ular orqali organizm zarur oziq moddalar bilan ta’minlanadi. Zamonaviy texnologiyalar yordamida ushbu mahsulotlarni yetishtirish, saqlash va qayta ishlash jarayonlarini takomillashtirish orqali ularning biologik qiymatini saqlab qolish mumkin.

Material va metodlar. Tadqiqot jarayonida ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish, statistik

ma’lumotlarni o‘rganish hamda emizikli ayollarning ovqatlanish tarkibini baholash usullaridan foydalanildi. Shuningdek, oziq mahsulotlarining biologik qiymatini aniqlashga oid ilmiy manbalar o‘rganildi.

Natijalar va ularning tahlili. Emizikli ayollar organizmida moddalar almashinuvi jarayoni faol kechadi. Sut ishlab chiqarish jarayonida organizm ko‘p miqdorda energiya va oziq moddalarga ehtiyoj sezadi. Shu sababli emizikli ayollar ratsionida yuqori biologik qiymatga ega mahsulotlar bo‘lishi muhim hisoblanadi.

Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari, jumladan don mahsulotlari, meva-sabzavotlar, dukkakli o‘simliklar hamda chorvachilik mahsulotlari organizm uchun zarur bo‘lgan oqsil, vitamin va mineral moddalarning asosiy manbai hisoblanadi. Masalan, dukkakli o‘simliklar tarkibida ko‘p miqdorda o‘simlik oqsili mavjud bo‘lsa, meva va sabzavotlar vitamin va antioksidantlarga boydir.

Innovatsion texnologiyalar yordamida qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirish va qayta ishlash jarayonlarini takomillashtirish mumkin. Masalan, zamonaviy saqlash texnologiyalari meva va sabzavotlarning oziq qiymatini uzoq vaqt saqlash imkonini beradi. Shuningdek, oziq-ovqat mahsulotlarini qayta ishlashda zamonaviy usullardan foydalanish ularning sifatini oshirishga xizmat qiladi. Olib borilgan ilmiy tahlillar hamda xalqaro tadqiqotlar natijalariga ko‘ra, emizikli ayollarning ratsional ovqatlanish darajasi turli hududlarda bir xil emasligi aniqlangan. Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti va oziqlanish fiziologiyasi bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlarga ko‘ra, emizikli ayollarning oziqlanish tarkibida ayrim muhim oziq moddalari yetishmovchiligi kuzatiladi.

Xalqaro tadqiqot natijalariga ko‘ra:

emizikli ayollarning 78 % ida oqsil iste’moli me’yor darajasida ekanligi aniqlangan;

32 % ayollarda temir tanqisligi kuzatiladi;

64 % ayollarda kalsiy iste’moli yetarli darajada;

55 % ayollarda vitamin D yetishmovchiligi qayd etilgan;

71 % ayollarda energiya ehtiyoji qisman qondiriladi.

Mazkur ko‘rsatkichlar emizikli ayollar ovqatlanish ratsionida ayrim muhim mikroelementlar yetishmasligi mavjudligini ko‘rsatadi. Ayniqsa temir va vitamin D yetishmovchiligi ko‘plab mamlakatlarda keng tarqalgan muammolardan biri hisoblanadi.

Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari, xususan don mahsulotlari, sabzavotlar, mevalar, dukkakli o‘simliklar hamda chorvachilik mahsulotlari ushbu oziq moddalarning asosiy manbai hisoblanadi. Shu sababli ushbu mahsulotlarni yetishtirish, saqlash va qayta ishlash jarayonlarida zamonaviy innovatsion texnologiyalarni qo‘llash muhim ahamiyat kasb etadi. Resurs tejamkor texnologiyalar yordamida yetishtirilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari tarkibida oziq moddalar miqdorini saqlab qolish va mahsulot sifatini oshirish mumkin.



1-rasmda emizikli ayollarning oziqlanish holati bo‘yicha jahon tadqiqotlari asosida aniqlangan statistik ko‘rsatkichlar keltirilgan.

Resurs tejamkor texnologiyalar qishloq xo‘jaligida mahsulot yetishtirish samaradorligini oshirish bilan birga ekologik barqarorlikni ham ta’minlaydi. Bu esa aholining sifatli oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta’minlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, emizikli ayollarning ratsional ovqatlanishini ta’minlashda qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining sifatini oshirish va ularni qayta ishlashda innovatsion texnologiyalardan foydalanish muhim ahamiyatga ega.

Xulosa. Emizikli ayollarning ratsional ovqatlanishini tashkil etish ona va bola salomatligini saqlashning muhim omillaridan biridir. Qishloq xo‘jaligi mahsulotlaridan samarali foydalanish hamda ularni yetishtirish va qayta ishlash jarayonlarida innovatsion texnologiyalarni qo‘llash oziq mahsulotlarining biologik qiymatini saqlab qolish imkonini beradi. Kelajakda emizikli ayollar ovqatlanishini yaxshilash maqsadida qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish va qayta ishlash jarayonlarida zamonaviy texnologiyalarni keng joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. World Health Organization. Guideline: Protecting, promoting and supporting breastfeeding. Geneva, 2023.

2. FAO. The State of Food Security and Nutrition in the World. Rome, 2022.

3. UNICEF. Infant and Young Child Feeding Statistics. New York, 2021.

4. Victora C.G. et al. Breastfeeding in the 21st century: epidemiology, mechanisms and lifelong effect. Lancet, 2016.

5. Allen L.H. Nutritional requirements during lactation. American Journal of Clinical Nutrition, 2018.

6. Dewey K.G. Maternal and fetal nutrition. Annual Review of Nutrition, 2019.

7. Black R.E. Maternal and child undernutrition and overweight. Lancet, 2020.

8. FAO & WHO. Sustainable healthy diets guiding principles. Rome, 2019.

UO’K: 631.87

BIOGUMUS QO’LLASH VA UNING O’TLOQI-ALLYUVIAL TUPROQLARNING AGROFIZIKAVIY XOSSALARIGA TA’SIRI

Kadirov Sh.Yu., Rajapbayev N.

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti.

Annotatsiya. *Biogumus tuproqni minerallar va vitaminlar bilan boyitadigan, o'simliklarning o'sishini tezlashtiradigan va ularning sifatiga ta'sir qiladigan tabiiy o'g'itdir. Biogumus qo’llash tuproqning agrofizik xossalarini yaxshilashga xizmat qiladi, shuningdek, o’simlikdan olinadigan mahsulot miqdori va sifatiga ijobiy ta’sir qiladi. Chunki, tuproqning hajm og’irligi uning unumdorligini belgilashda, ayniqsa madaniy o’simliklarning yaxshi rivojlanishida, ularning hosildorligini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Maqolada Xorazm viloyatining o’tloqi-allyuvial tuproqlari sharoitida biogumus qo’llash natijasida tuproqning hajm og’irligiga ta’siri, jumladan, biogumus qo’llash me’yorlariga bog’liq ravishda vegetatsiya oxirida tuproq hajm og’irligi qay darajada oshganligi haqida so’z yuritiladi. Tajribalarning ko’rsatishicha, vegetatsiya oxirida gektariga 10 tonna biogumus qo’llanilgan variantda tuproqning hajm og’irligi vegetatsiya boshiga nisbatan boshqa variantlarga nisbatan eng kam oshgan.*

Kalit so’zlar: biogumus, me’yor, tuproq, hajmiy og’irlik, unumdorlik, o’tloqi-allyuvial tuproqlar, chirindi, organik o’g’it.

Kirish. Sug’oriladigan tuproqlarning umumiy fizik xossalari tuproq unumdorligini oshirishda muhim ahamiyatga ega bo’lib, tuproq namligining harakati, sarflanishi hamda oziqa moddalarning o’zlashtirilishi agrofizikaviy xossalariga bog’liq bo’ladi [2]. Hozirgi kunda kimyoviy moddalardan foydalanish samaradorligi qishloq xo’jaligi va atrof-muhitni saqlash talablariga mutlaqo javob bermaydi. Mineral o’g’itlar va biotsidlar yerga me’yoridan ortiqcha solinganda ularning asosiy qismi o’simliklar bilan o’zlashtiriladi, lekin qolgan qismi esa tuproqda o’simliklar o’zlashtira olmaydigan shaklda to’planib qoladi [3].

Xorazm viloyati sharoitida eng katta muammolardan biri bu tuproqning tabiiy unumdorligi o’ta pastligidir. Unimdorligi past bo’lgan hududlarda esa o’simlikdan yuqori hosil olish uchun barcha choralarni ko’rish talab etiladi. Shunday choralardan biri tuproqning agrofizik xossalarini yaxshilash uchun biogumus qo’llashdir.

Biogumus tarkibida suvda yaxshi eriydigan harakatchan gummatlar fraksiysi: litiy, kaliy

o’simliklar uchun foydalidir. O‘simliklar birinchi navbatda shular bilan oziqlanadi. Ularning oz miqdori ham o‘simlik urug‘larini o‘sishini va rivojlanishini tezlashtiradi, xlorofillarni hosil bo‘lishini fotosintezni kuchaytiradi, o‘simliklarga tuproq orqali mineral tuzlarning o‘tishini tezlashtiradi. gar biogumusni mineral o’g’itlar bilan omihta qilib foydalanilsa, osimlik hosildorligini 35-45% ga orttiradi. Hosildorlik ortishi bilan birga ularning yetilish davri ikki haftaga qisqaradi, mahsulotni sifati yahshilanadi ya’ni ulardagi oqsil, qand va kapotinning miqdori ortadi [1]. Ayrim olimlarning ma’lumot berishicha, tuproq donadorligini tiklashda yomg‘ir chuvalchangi muhim o‘rin tutadi. Afsuski, keyingi yillarda haydaladigan yerlarda bunday chuvalchanglar uchramayapti. Bunga dalalarda gerbitsidlar qo‘llash asosiy sabab degan fikrlar surilmoqda. Lekin bu mulohazalarni ilmiy asoslovchi ma’lumotlar deyarli yo‘q. Demak, bu haqda haqiqiy xulosaga kelish uchun tuproqda yomg‘ir chuvalchangining yo‘qolishiga sabab bo‘luvchi omillarni har tomonlama o‘rganish lozim [4].

Material va metodlar. Tadqiqotning obyekti sifatida tabiiy o'g'it hisoblangan biogumus olingan bo’lib, uni Xorazm viloyatining o’tloqi-allyuvial tuproqlari sharoitida qo’llash natijasida tuproqning hajm massasi o’zgarishi tadqiq qilingan. Tajriba o‘tkazish, biometrik o‘lchovlar, fenologik kuzatuvlar, tuproq va o‘simlik namunalari olish «Dala tajribalarini o‘tkazish uslublari» (O‘zPITI, 2007) uslubiy qo‘llanmasiga asosan olib borildi. Olingan ma’lumotlar aniqligi va ishonchliligi umumqabul qilingan B.A. Dospexov uslubi yordamida matematik-statistik tahlil qilingan.

Tadqiqotning obyekti va predmeti. Tadqiqotning obyekti tabiiy o'g'it hisoblangan biogumus bo’lib, Xorazm viloyatining o’tloqi-allyuvial tuproqlari, biogumus qo’llash natijasida tuproq hajm og’irligining o’zgarishi tadqiqotning predmeti hisoblanadi.

Tadqiqotning maqsadi. Xorazm viloyati sharoitida o’tloqi-allyuvial tuproqlar unumdorligini saqlash, oshirish, tuproqning agrofizikaviy xossalarini yaxshilash maqsadida biogumusni har xil me’yorlarda qo’llash orqali tuproqning agrofizikaviy xossalariga ta’sirini o’rganish.

Tajriba tizimi. Tajriba 3 variant, 3 qaytariqlik, 9 delyankadan iborat bo’lib. delyankaning umumiy maydoni 36 m^2 ni tashkil qildi. Tajribaning umumiy maydoni 306 m^2 ga teng bo’ldi. Tajriba sxemasi (tizimi) quyidagi ko’rinishda bo’ldi (1-jadval).

1-jadval.

Variant raqami	Biogumus qo’llash me’yori
1	Nazorat (biogumus qo’llanilmaydi)
2	5 t/ga
3	10 t/ga

Tadqiqot natijalari. Ma’lumki, tuproqning hajm og’irligi (yoki hajm massasi) – bu tabiiy holatdagi (g‘ovaklari bilan birga) strukturasi buzilmagan quruq tuproqning birlik hajmdagi massasi hisoblanadi. U tuproqning mexanik tarkibi, organik moddalarning miqdori, tuzilishi va boshqalarga bog'liq bo’ladi, tuproqning zichligi, g‘ovakligi va havo-suv rejimini baholash uchun ishlatiladi. Gumus (chirindi) ko‘p bo‘lsa, hajm og‘irligi kamayadi (tuproq yengil bo‘ladi). Tuproq zichlashsa, hajm og‘irligi oshadi. Nam tuproqning og‘irligi quruq tuproqqa nisbatan ko‘proq bo‘ladi, lekin hisob-kitob uchun har doim quruq tuproq massasi olinadi. Amaliy ahamiyati shundan iboratki, hajm og‘irligini bilish orqali tuproqning umumiy g‘ovakligi hisoblanadi, shuningdek, gektar hisobiga tuproqning umumiy massasini aniqlashda foydalaniladi.

2-jadval

Variant raqami	Biogumus me’yori	Shudgordan oldin	Vegetatsiya davrining boshida	Vegetatsiya davrining oxirida
1	Nazorat (biogumus qo’llanilmagan)	1,37	1,34	1,37
2	Biogumus (5 t/ga)	1,36	1,32	1,34
3	Biogumus (10 t/ga)	1,37	1,31	1,32

Tajribada tuproqning hajm og’irligi dalani noyabr oyida asosiy haydashdan (shudgordan) oldin, keyingi yil aprel oyida vegetatsiyaning boshida va noyabr oyida vegetatsiyaning oxirida 0-30, 30-50, 50-70, 70-100 sm tuproq qatlamlarida aniqlandi. Bundan maqsad tuproq hajm og’irligining biogumus qo’llashdan oldingi dastlabki ko’rsatkichini aniqlab olish va biogumus ta’sirini kuzatish

edi. Har bir variantda shudgordan oldin tuproq hajm og'irligi aniqlandi. Shundan keyin har bir tajriba varianti uchun belgilangan me'yordagi biogumus qo'llanilib, yer asosiy haydaldi. Aprel oyida tajriba dalasini ekishga tayyorlash uchun chizellash va molalash tadbirlari o'tkazildi. Shundan keyin tuproq hajm og'irligi o'lchandi. Vegetatsiya davrining oxirida esa tuproq hajm og'irligi yana bir marta aniqlandi. Tuproq hajm og'irligi ko'rsatkichlari va ularning o'zgarishi o'rtacha 0-100 sm tuproq qatlami uchun hisoblab chiqildi (2-jadval).

Biogumus qo'llash natijasida 0-100 sm tuproq qatlamida hajm og'irligining o'zgarishi, g/sm^3 2-jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, biogumus qo'llanilmasdan va yerni asosiy ishlamasdan oldin tuproq hajm og'irligi aniqlanganda, bu ko'rsatkich variantlar bo'yicha keskin farq qilmadi va u 0-100-sm qatlamda o'rtacha 1,36-1,37 g/sm^3 atrofida bo'ldi. Vegetatsiya davrining boshida tuproq hajm og'irligi aniqlanganda, albatta, yerni asosiy ishlash (shudgor) natijasida tuproq hajm og'irligi kamayadi, buni biz biogumus qo'llanilmagan nazorat variantida (1-var.) ko'rishimiz mumkin. Bu variantda hajm og'irlik shudgordan oldin 1,36 g/sm^3 bo'lgan, vegetatsiya davrining boshida esa 1,34 g/sm^3 ni tashkil qilgan, ya'ni tuproq hajm og'irligi 0,04 g/sm^3 ga kamaygan. Vegetatsiya davrining oxiriga kelib, har xil agrotexnik ta'sirlar natijasida tuproq hajm og'irligi oshgan va u 1,37 g/sm^3 ga teng bo'ldi. Biogumus qo'llanilgan variantlarda (1-var. va 2-var.) esa, uning ta'sirini yaqqol sezish mumkin. Masalan, biogumus 5 t/ga me'yorda qo'llanilgan variantda (2-var.) shudgordan oldin tuproq hajm og'irligi 1,36 g/sm^3 ni tashkil qilgan bo'lsa, shudgor bilan biogumus qo'llanilgandan keyin vegetatsiya boshida aniqlanganda 1,32 g/sm^3 gacha kamaygan, vegetatsiya oxirida esa 1,34 g/sm^3 ni tashkil qildi. Shuni ta'kidlash zarurki, bu variantda shudgordan oldin tuproq hajm og'irligi 1,36 g/sm^3 bo'lgan, vegetatsiya davrining oxiriga kelib bu ko'rsatkich 1,34 g/sm^3 ni tashkil qilib, biogumus ta'sirida 0,2 g/sm^3 ga kamaygan. Har gektariga 10 tonna biogumus qo'llanilgan variantda (3-var.) dastlab tuproq hajm og'irligi 1,37 g/sm^3 ga teng bo'lgan bo'lsa (shudgordan oldin), vegetatsiya davrining boshida 1,31 g/sm^3, oxirida esa 1,32 g/sm^3 bo'ldi, ya'ni, vegetatsiya davrining oxirida tuproq hajm og'irligi dastlabri ko'rsatkichga nisbatan 0,4 g/sm^3 ga kamaygan.

Xulosalar. Og'ir qishloq xo'jaligi texnikasidan, shuningdek, o'g'it va zaharli kimyoviy moddalardan keng foydalanish natijasida tuproqning tuzilishi o'zgarib, tuproq organizmlari nobud bo'ldi. Natijada, tuproqlar yaroqsiz holga keldi va qishloq xo'jaligi ekinlarini yetishtirish qiyinlashmoqda. Ushbu muammoni hal qilish usullaridan biri vermikompostlash natijasida olingan biogumusning tuproqqa kiritilishi – yomg'ir chuvalchanglari tomonidan turli xil organik chiqindilarni qayta ishlashning biologik usulidir. Biogumusning tarkibida ko'p miqdorda makro- va mikroelementlar bo'lib, ular o'simliklar tomonidan oson o'zlashtiriladi, bundan tashqari o'simliklarni tez o'stiruvchi moddalar, vitaminlar va antibiotiklar mavjud.

Tajribalarimizning ko'rsatishicha, biogumus qo'llash natijasida tuproqning agrofizikaviy xususiyatlari yaxshilanib, o'simliklar uchun qulay holatga keladi va qo'llash me'yoriga bog'liq ravishda tuproqning hajm og'irligi ma'lum darajada kamayadi. Masalan, gektariga 5 tonna biogumus qo'llanilgan variantda tuproqning hajm og'irligi dastlabki ko'rsatkichga nisbatan 0,2 g/sm^3 ga kamaygan bo'lsa, gektariga 10 tonna biogumus qo'llanilgan variantda 0,5 g/sm^3 ga kamaygan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Abdurazakova I.A. Biogumusdan foydalanish usullari. J. Tadqiqotlar.UZ 37(2), 81–83 betlar.

2. Nazarova S.M., Avliyoqulov Z.R., Islomova N.S. Sug'oriladigan o'tloqi tuproqlarning agrofizikaviy xossalari va ularni yaxshilash choralari. SB TSAU Conference, Volume 3. 2022. Tashkent State Agrarian University Theoretical and Practical Principles of Innovative Google Scholar indexed Development of the Agricultural, Sector in Uzbekistan. 641-bet.

3. Norqulov U.N., Eshonqulov J.S. Organik mahsulotlar yetishtirish texnologiyasi. "Tasvir", Toshkent - 2021. 16-bet.

4. Umarova Z.T., Usmonava Yu.O'. Biogumus foydasi. Kaliforniya chuvalchangi. Theoretical aspects in the formation of pedagogical sciences International scientific-online conference, 2022. 175-bet

UO‘K: 577.4:004.94:663.1

MIKROORGANIZMLARNI NAZORAT OSTIDA ETISHTIRISHNING AVTOMATLASHTIRILGAN BIOTEXNOLOGIK TIZIMLARI

Sh.I.Irnazarov, **Sherov Azamat Alisherovich**
Qarshi Davlat Textika Universiteti

Annotatsiya: *Mazkur maqolada mikroorganizmlarni nazorat ostida etishtirish jarayonini avtomatlashtirishning ilmiy asoslari va texnologik xususiyatlari tahlil qilinadi. Tadqiqotda fermentatsiya jarayonlarini boshqarishda zamonaviy sensor texnologiyalari, bioreaktor tizimlari va kompyuterlashtirilgan monitoring usullarining ahamiyati ko‘rib chiqildi. Shuningdek, mikroorganizmlarning optimal o‘sish sharoitlarini ta’minlashda harorat, pH darajasi, aeratsiya va oziqa moddalari konsentratsiyasining avtomatik nazorat qilinishi muhimligi asoslab berildi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, avtomatlashtirilgan biotexnologik tizimlar mikroorganizmlar biomassasi ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, jarayon barqarorligini ta’minlash hamda ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirishda muhim rol o‘ynaydi.*

Kalit so‘zlar: biotexnologiya, fermentatsiya, mikroorganizmlar, bioreaktor, avtomatlashtirish, sensor tizimlari, monitoring.

Аннотация: *В данной статье анализируются научные основы и технологические особенности автоматизации контролируемого культивирования микроорганизмов. Исследование рассматривает важность современных сенсорных технологий, биореакторных систем и методов компьютерного мониторинга в управлении процессами ферментации. Также обосновывается важность автоматического контроля температуры, pH, аэрации и концентрации питательных веществ для обеспечения оптимальных условий роста микроорганизмов. Результаты исследования показывают, что автоматизированные биотехнологические системы играют важную роль в повышении эффективности производства микробной биомассы, обеспечении стабильности процесса и снижении производственных затрат.*

Ключевые слова: биотехнология, ферментация, микроорганизмы, биореактор, автоматизация, сенсорный микробиом, мониторинг

Abstract: This article analyzes the scientific foundations and technological features of automated, controlled microbial cultivation. The study examines the importance of modern sensor technologies, bioreactor systems, and computer monitoring methods in managing fermentation processes. It also substantiates the importance of automated control of temperature, pH, aeration, and nutrient concentration to ensure optimal microbial growth conditions. The study's results demonstrate that automated biotechnological systems play a significant role in increasing the efficiency of microbial biomass production, ensuring process stability, and reducing production costs.

Key words: biotechnology, fermentation, microorganisms, bioreactor, automation, sensor microbiome, monitoring

Kirish. Biotexnologiya zamonaviy fan va ishlab chiqarishning eng tez rivojlanayotgan sohalaridan biri hisoblanadi. Mikroorganizmlar yordamida biologik faol moddalar, antibiotiklar, fermentlar, vitaminlar hamda turli metabolitlar ishlab chiqarish imkoniyati biotexnologik jarayonlarning keng qo‘llanilishiga sabab bo‘lmoqda. Shu bilan birga, mikroorganizmlarni sanoat miqyosida etishtirish jarayoni murakkab biologik va texnologik jarayon bo‘lib, ko‘plab omillarni aniq nazorat qilishni talab etadi.

Ilmiy manbalarga ko‘ra, mikroorganizmlarning rivojlanishi ularning yashash muhiti parametrlariga – harorat, pH darajasi, kislorod miqdori, oziqa moddalari konsentratsiyasi va fermentatsiya davomiyligiga bevosita bog‘liq (Stanbury va Whitaker, 2017). Ushbu omillarning o‘zgarishi mikroorganizmlar metabolizmi va biomassasining o‘sish tezligiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi.

An’anaviy fermentatsiya jarayonlarida ko‘plab parametrlar operator tomonidan qo‘lda nazorat qilinadi. Bunday usul jarayonning barqarorligini pasaytirishi va inson omiliga bog‘liq xatoliklarni keltirib chiqarishi mumkin. Shu sababli zamonaviy biotexnologiyada jarayonlarni avtomatlashtirish

muhim ilmiy va amaliy yo‘nalish hisoblanadi.

Biotexnologik jarayonlarni avtomatlashtirish mikroorganizmlarni etishtirish jarayonini real vaqt rejimida nazorat qilish imkonini beradi. Sensorlar yordamida harorat, pH, kislorod miqdori kabi muhim parametrlar uzluksiz o‘lchanadi va boshqaruv tizimi tomonidan tartibga solinadi. Bunday tizimlar ishlab chiqarish samaradorligini oshirish bilan birga mahsulot sifatini barqaror saqlashga ham xizmat qiladi.

Mazkur tadqiqot ishining maqsadi mikroorganizmlarni nazorat ostida etishtirish uchun mo‘ljallangan avtomatlashtirilgan biotexnologik tizimlarning ilmiy asoslarini tahlil qilish va ularning samaradorligini baholashdan iborat.

Materiallar va usullar. Tadqiqotlar mikroorganizmlarni laboratoriya sharoitida etishtirish va fermentatsiya jarayonlarini nazorat qilish usullariga asoslangan holda olib borildi. Tajribalarda mikroorganizmlarni o‘stirish uchun maxsus oziqa muhitlari hamda laboratoriya bioreaktorlaridan foydalanildi.

Biotexnologik jarayonlarni boshqarishda quyidagi asosiy parametrlar nazorat qilindi:

- muhit harorati
- pH darajasi
- erigan kislorod miqdori
- oziqa moddalari konsentratsiyasi
- fermentatsiya davomiyligi

Haroratni nazorat qilish uchun termodatchiklar, pH darajasini aniqlash uchun elektroximik pH sensorlari, kislorod miqdorini aniqlash uchun esa erigan kislorod sensorlari qo‘llanildi. Ushbu sensorlar tomonidan o‘lchangan ma’lumotlar avtomatik boshqaruv tizimiga uzatiladi.

Fermentatsiya jarayonlarini avtomatik boshqarish uchun kompyuterlashtirilgan nazorat tizimi qo‘llanildi. Ushbu tizim real vaqt rejimida sensorlardan olingan ma’lumotlarni qayta ishlaydi va belgilangan parametrlar asosida jarayonni boshqaradi. Agar parametrlar belgilangan me’yordan chetga chiqsa, tizim avtomatik ravishda mos tuzatish choralarini ko‘radi.

Mikroorganizmlarning o‘sish dinamikasini aniqlash uchun spektrofotometrik usuldan foydalanildi. Bu usul yordamida mikroorganizmlar biomassasining o‘sishi optik zichlik ko‘rsatkichlari orqali baholandi. Bundan tashqari, mikroorganizmlar koloniyalarining soni klassik mikrobiologik ekish usuli yordamida aniqlanib, natijalar statistik tahlil qilindi.

Tadqiqot natijalari va muhokama. Tadqiqot natijalari mikroorganizmlarni etishtirish jarayonini avtomatlashtirish fermentatsiya jarayonining samaradorligini sezilarli darajada oshirishini ko‘rsatdi. Avtomatlashtirilgan biotexnologik tizimlar yordamida jarayon parametrlarini aniq nazorat qilish mumkin bo‘ldi.

Haroratni avtomatik boshqarish mikroorganizmlar uchun optimal o‘sish sharoitini yaratdi. Ilmiy manbalarga ko‘ra, ko‘pgina sanoat mikroorganizmlari 28–37°C harorat oralig‘ida eng faol rivojlanadi (Doran, 2018). Tadqiqot davomida haroratning barqaror saqlanishi mikroorganizmlar biomassasining o‘sish tezligini oshirdi.

pH darajasining avtomatik nazorati ham muhim ahamiyatga ega ekanligi aniqlandi. Mikroorganizmlar metabolizmi muhit kislotaliligiga juda sezgir bo‘lib, pH darajasining o‘zgarishi fermentlar faoliyatiga ta’sir ko‘rsatadi. Avtomatik boshqaruv tizimi yordamida pH darajasi optimal diapazonda ushlab turildi.

Aeratsiya tizimining avtomatik boshqarilishi mikroorganizmlarning kislorod bilan ta’minlanishini yaxshiladi. Aerob mikroorganizmlar uchun kislorod muhim metabolik omil hisoblanadi. Kislorod yetishmasligi fermentatsiya jarayonining sekinlashishiga olib kelishi mumkin.

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, avtomatlashtirilgan tizimdan foydalanilganda mikroorganizmlar biomassasi an’anaviy usullarga nisbatan o‘rtacha 25–30 % ga oshganligi kuzatildi. Bundan tashqari, jarayonning barqarorligi ortib, mahsulot sifati ham yaxshilandi.

Zamonaviy biotexnologik ishlab chiqarishlarda avtomatlashtirilgan fermentatsiya tizimlari keng qo‘llanilmoqda. Bunday tizimlar nafaqat jarayonni boshqarish, balki ishlab chiqarish jarayonlarini masofadan turib monitoring qilish imkonini ham yaratadi.

Xulosa. O‘tkazilgan tadqiqotlar natijalari shuni ko‘rsatadiki, mikroorganizmlarni nazorat ostida etishtirish jarayonini avtomatlashtirish zamonaviy biotexnologiya sohasining muhim

yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Mikroorganizmlar o‘sishi va rivojlanishi ko‘plab ekologik va texnologik omillarga, xususan harorat, pH darajasi, kislorod miqdori, oziqa moddalari konsentratsiyasi hamda fermentatsiya davomiyligiga bog‘liq bo‘ladi. Ushbu omillarning barqaror va optimal darajada saqlanishi mikroorganizmlar biomassasi hosil bo‘lishi hamda biologik faol mahsulotlar ishlab chiqarish samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Avtomatlashtirilgan biotexnologik tizimlardan foydalanish jarayon parametrlarini real vaqt rejimida kuzatish va boshqarish imkonini beradi. Sensor texnologiyalari yordamida olingan ma’lumotlar kompyuterlashtirilgan boshqaruv tizimlariga uzatiladi va ular orqali fermentatsiya jarayonlari doimiy nazorat ostida bo‘ladi. Bu esa jarayon barqarorligini ta’minlab, inson omili bilan bog‘liq xatoliklarni kamaytiradi hamda ishlab chiqarish samaradorligini oshiradi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, mikroorganizmlarni etishtirish jarayonida avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlaridan foydalanish biomassaning o‘sish tezligini oshiradi, resurslardan oqilona foydalanish imkonini yaratadi va ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytiradi. Shuningdek, bunday tizimlar biotexnologik jarayonlarni masofadan turib monitoring qilish hamda ishlab chiqarish jarayonini optimallashtirish imkoniyatini beradi.

Shu sababli mikroorganizmlarni nazorat ostida etishtirishning avtomatlashtirilgan biotexnologik tizimlarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish biotexnologiya, farmatsevtika, oziq-ovqat sanoati hamda qishloq xo‘jaligi sohalarining yanada rivojlanishida muhim ilmiy va amaliy ahamiyatga ega hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Stanbury P.F., Whitaker A., Hall S. Principles of Fermentation Technology. Oxford: Butterworth-Heinemann, 2017.
2. Doran P. Bioprocess Engineering Principles. Academic Press, 2018.
3. Madumarov T., Xoliqulov B. Biotexnologiya asoslari. Toshkent, 2020.
4. Shlegel G. General Microbiolo**gy**. Cambridge University Press, 2019.
5. Bailey J.E., Ollis D.F. Biochemical Engineering Fundamentals. McGraw-Hill, 2018.
6. Prescott L., Harley J., Klein D. Microbiology. McGraw-Hill Education, 2017.

UO‘T:633.11/37;631.52

OSH TUSLI BO‘Z TUPROQLAR SHAROYITIDA TRITIKALE NAV VA TIZMALARNING HOSILDORLIGI

A.B Jalg‘asbaev
Janubiy dehqonchilik ilmiy tadqiqot istituti
O.A Omonov
Qishloq xo‘jaligida bilim va innovatsiyalar Milliy markazi
B.G‘ Azizov
Janubiy dehqonchilik ilmiy tadqiqot istituti

Annotatsiya: *Maqolada Qashqadaryo viloyati osh tusli bo‘z tuproqlar sharoyitida yetishtirilayotgan tritikale nav va genotiplarining hosildorligi bo‘yicha tadqiqot natijalari ma’lumotlari keltirilgan. Izlanishlardan ma’lum bo‘ldikiy, hosildorlik ko‘rsatkichlari bo‘yicha 20 ta nav va tizmalar orasidan andoza navdan yuqori bo‘lgan tizmalar soni 7 tani tashkil etdi. Andoza Sardor navi (39,2) va tizmalardan eng yuqori hosildor KR23-TCYT-7 (41,6), KR23-TCYT-8 (43,4), KR23-TCYT-10 (44,1) va KR23-TCYT-13 (43,4) tizmalari ekanligi tadqiqot natijalarida aniqlandi va keyingi seleksiya ishlari uchun tanlab olindi.*

Kalit so‘zlar: *tritikale nav va tizmalar, hosildorlik, 1000 dona don vazni, raqobat ko‘chatzori.*

Abstract: *The article presents the results of a study on the productivity of triticale varieties and genotypes grown in the conditions of loamy gray soils of the Kashkadarya region. The research showed that out of 20 varieties and lines, the number of lines that were higher than the standard variety in terms of productivity was 7. The standard variety was the Sardor variety (39.2) and the highest-yielding lines were KR23-TCYT-7 (41.6), KR23-TCYT-8 (43.4), KR23-TCYT-10 (44.1) and KR23-TCYT-13 (43.4) and were selected for further selection work.*

Keywords: *triticale varieties and ridges, yield, 1000-grain weight, competitive nursery.*

Аннотация: *В статье представлены результаты исследования продуктивности сортов и генотипов тритикале, выращенных в условиях серосуглинистых почв Кашкадарьинской области. Исследование показало, что из 20 сортов и линий количество линий, превосходящих стандартный сорт по продуктивности, составило 7. Стандартным сортом оказался сорт Сардор (39,2), а наиболее урожайными линиями были KR23-TCYT-7 (41,6), KR23-TCYT-8 (43,4), KR23-TCYT-10 (44,1) и KR23-TCYT-13 (43,4), которые были отобраны для дальнейшей селекционной работы.*

Ключевые слова: *Сорта и формы выращивания тритикале, урожайность, масса 1000 зерен, конкурентный питомник.*

Kirish. Tritikale navlarining qimmatli iqtisodiy xususiyatlarini har bir hududning tuproq-iqlim sharoitlaridan kelib chiqib o‘rganish hosildorlikni oshirish va don sifatini yaxshilash imkonini beradi [4].

Yuqori 1000 donli don hosil bo‘lishida o‘sish sharoiti, donni to‘ldirish davridagi yog‘ingarchilik va harorat, shuningdek, navning biologik xususiyatlari hal qiluvchi ahamiyatga ega [1].

Bir qator olimlarning tadqiqot natijalariga ko‘ra, uzoq muddatli o‘g‘itlashning don hosili va qishki tritikale hosili komponentlariga ta’sirini kuzatganda, tritikalening ming dona don vazni yillar davomida sezilarli darajada o‘zgarib turgan, o‘rganilgan qishki tritikalening eng yuqori o‘rtacha 1000 dona don vazni NP_1K variantida 44,81 gramga erishilganini ko‘rsatgan. Don hosildorligi barcha yillarda faqat 1000 dona don vazni bilan sezilarli darajada ijobiy bog‘liqlikda bo‘lgan [3].

Materiallar va uslublar. Tadqiqotda tajribalarni biometrik tahlillari “Dala tajribalarini o‘tkazish uslublari” (2014) [2] bo‘yicha olib borildi.

Natijalar va munozara. Hosildorlik boshoqli don ekinlarning eng muhim miqdor ko‘rsatgichlaridan biri hisoblanadi.

1-jadval

Nav va tizmalarning hosildorligi (Qarshi-2025 yil)

№	Nav va tizmalar nomi	Hosildorlik, s/ga	1000 ta don vazni, gr
1	**Sardor (andoza)**	39,2	36,08
2	KR23-TCYT-1	38,7	38,86
3	KR23-TCYT-2	31,7	35,50
4	KR23-TCYT-3	33,4	36,28
5	KR23-TCYT-4	39,5	36,36
6	KR23-TCYT-5	37,6	33,88
7	KR23-TCYT-6	36,1	39,94
8	KR23-TCYT-7	41,6	37,90
9	KR23-TCYT-8	43,4	39,40
10	KR23-TCYT-9	27,1	39,04
11	KR23-TCYT-10	44,1	36,06
12	KR23-TCYT-11	29,9	35,98
13	KR23-TCYT-12	33,5	36,46
14	KR23-TCYT-13	43,4	33,70
15	KR23-TCYT-14	39,5	31,66
16	KR23-TCYT-15	31,9	34,72
17	KR23-TCYT-16	27,7	24,24
18	KR23-TCYT-17	31,7	31,92
19	KR23-TCYT-18	27,1	32,40
20	KR23-TCYT-19	29,6	33,94
	eng yuqori	44,1	39,94
	o‘rtacha	36	35
	eng pasti	27,1	24,24

Hosildorlik natijalarga ko‘ra delyankalar hosildorligi sentener hisobida olinganda, andoza Sardor navida bu ko‘rsatkich 39,2 sentenerni tashkel qilgan bo‘lib, KR23-TCYT-1 (38,7), KR23-TCYT-2 (31,7), KR23-TCYT-3 (33,4), KR23-TCYT-5 (37,6), KR23-TCYT-6 (36,1), KR23-TCYT-9 (27,1), KR23-TCYT-11 (29,9), KR23-TCYT-12 (33,5), KR23-TCYT-15 (31,9), KR23-TCYT-16 (27,7), KR23-TCYT-17 (31,7), KR23-TCYT-18 (27,1) va KR23-TCYT-19 (29,6)

tizmalarda hosildorlik andoza naviga nisdatdan past ekanligi aniqlandi. KR23-TCYT-4 (39,5) va KR23-TCYT-14 (39,5) tizmalar o‘rta hosildor tizmalar hisoblanib, eng yuqori hosildor tizmalar ham aniqlanib olindi. Andoza Sardor navi va tizmalardan eng yuqori hosildor KR23-TCYT-7 (41,6), KR23-TCYT-8 (43,4), KR23-TCYT-10 (44,1) va KR23-TCYT-13 (43,4) tizmalari ekanligi tadqiqot natijalarida aniqlandi.

O‘simlik navlarida 1000 dona don vazni hosildorlikni belgilab beruvchi unsurlardan biri hisoblanadi. 1000 dona don vazni har-bir navga hosligini inobatga olsakda, 1000 dona don vazni yuqori bo‘lishligi agrotexnik tadbirlar va oziqlantirishga ham bog‘liqlik tamoni mavjud.

Olingan natijalarga ko‘ra, nav va tizmalarning 1000 ta don vazni ko‘rsatkichi 24,24 – 39,94 g ni tashkil etganligi aniqlandi. 1000 ta don vazni andoza Sardor navida 36,08 g bo‘lganligi aniqlandi. Tajribada o‘rganilgan tizmalardan 1000 ta don vazni 35 g dan yuqori bo‘lgan 11 ta, 30-35 g oraliqda bo‘lgan 7 ta va 30 g dan kam bo‘lgan 1 ta tizma borligi aniqlandi. 1000 ta don vazni andoza Sardor navidan yuqori bo‘lgan 7 ta tizmalar borligi aniqlandi.

Xulosa. Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, tadqiqot natijalaridan kelib chiqib tritikale nav va tizmalarining hosildorligi yuqori bo‘lganlari tanlab olinib, seleksiyaning keyingi bosqishlariga sinovga o‘tkazildi. Bu kelgusida chorvachilikda ozuqa bazasining mustahkam negizi bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Bugayov V.D., Tromsyuk V.D., Lilyk T.V., Gultyaeva O.V. “Formation of the basic productivity elements and quality indicators of grain of forage type winter triticale collection samples”. // Feeds and feed production. № 91 (2021). DOI: 10.31073/kormovyrobnytstvo202191-04. **ISSN** 0135-2377

2. Dala tajribalarini o‘tkazish uslublari // O‘zPITI. Toshkent-2014. B. 159-165.

3. Terzic D., Djekic V., Jevtic S., Popovic V., Jevtic A., Mijajlovic J and Jevti A. EFFECT OF LONG TERM FERTILIZATION ON GRAIN YIELD AND YIELD COMPONENTS OF WINTER TRITICALE. // The Journal of Animal & Plant Sciences, № 28(3): 2018, ISSN: 1018-7081. Pp. 830-836.

4. Досчанов Ж.С., Бабоев С.К. Ценные хозяйственные отметки и показатели качества зерна тритикале // Universum: химия и биология: электрон. научн. журн. 2020. № 3 (69). URL: https://7universum.com/ru/nature/archive/item/8839

УДК: 633.11;631.89

БАРГ ОРҚАЛИ ҚЎШИМЧА БЕРИЛГАН ОЗИҚАНИНГ КУЗГИ БУҒДОЙГА ТАЪСИРИ

д.ф.с/х.н., Абдуазимов Акбар Мухторович
д.ф.с/х.н., Вафоева Мавлуда Бобомуродовна
Қарши давлат техника университети

Аннотация. Кузги буғдой ҳосилдорлиги – тупроқдан озиқа моддалари ва сувни ўзлаштириш ва қуёш нури таъсирида органик моддаларни синтези каби ҳаётий фаолияти натижасида бир гектардан олинган дон миқдоридир. Кузги буғдой етиштиришда азотли ўғитларни қўллаш муддати муҳим омилдир, чунки булғуси доннинг илк нишоналари туплаш ва найчалаш фазалари бошланиши ўртасида ҳосил бўлади.

Калит сўзлар: кузги буғдой, илдиздан ташқари озиқлантириш, минерал озиқа, фаза, ҳосил структура, ҳосилдорлик.

Annotation. The yield of winter wheat is the amount of grain obtained per hectare as a result of such vital activities as the absorption of nutrients and water from the soil and the synthesis of organic substances under the action of sunlight. The timing of nitrogen fertilization is an important factor in the production of winter wheat, since the first signs of grain are formed between the beginning of the tillering and booting phases.

Keywords: winter wheat, foliar feeding, mineral nutrition, phase, crop structure, productivity.

Аннотация. Урожайность озимой пшеницы – это количество зерна, полученное с одного гектара в результате такой жизнедеятельности, как усвоение питательных веществ и

воды из почвы и синтез органических веществ под действием солнечного света. Сроки внесения азотных удобрений являются важным фактором в производстве озимой пшеницы, так как первые признаки зерна формируются между началом фаз кущения и выхода в трубку.

Ключевые слова: озимая пшеница, некорневая подкормка, минеральное питание, фаза, структура урожая, урожайность.

Кириш. PDA тадқиқоти (Калий ривожланиш ассоциацияси, Буюк Британия) калий заҳиралари ва бир бошоқдаги донлар сони ўртасидаги аниқ боғлиқликни кўрсатади[22].

Буғдойга минерал ўғитлар миқдори $N_{70}P_{60}K_{90}$ кг/га ҳисобидан қўлланилган агрофон шароитида мис сульфат, Витамар ва Эколист Зерновые комплексли ўғитлар билан илдиздан ташқари қўшимча озиқлантириш қўлланилганда ҳосилдорлик 3,6 ц/га, 5,0 ц/га ва 4,5 ц/га, экишдан олдин Эпин ва Экосил регуляторлари билан ишлов берилганда 2,9 ва 4,8 ц/га ошган [1].

Буғдой етиштиришда илдиздан ташқари қўшимча минерал озиқлантириш қўлланилиши фотосинтетик ва уруғ маҳсулдорлигини ошишини таъминлайди. Илдиздан ташқари ўсишни бошқарувчи регуляторлар билан қўшимча озиқлантириш ҳисобига ўсимлик фотосинтетик фаолиятини фаоллаштириб назоратга нисбатан ҳосилдорлик 26,9% ошишига олиб келган [2].

Шунингдек, сенергетик-микроэлементлар ҳисобида кузги буғдой уруғларнинг унувчанлик қобилиятини яхшиловчи ўсиш жараёнлари фаоллашгани, ўсиш энергияси, унувчанлик ҳамда ўсиш кучи ва маҳсулдорлик жараёнининг кучайиши ҳисобига ҳосилдорлик ошиши таъминланиши аниқланган [3].

Буғдой етиштиришда илдиздан ташқари қўшимча минерал озиқлантириш қўлланилиши фотосинтетик ва уруғ маҳсулдорлигини ошишини таъминлайди. Илдиздан ташқари ўсишни бошқарувчи регуляторлар билан қўшимча озиқлантириш ҳисобига ўсимлик фотосинтетик фаолиятини фаоллаштириб назоратга нисбатан ҳосилдорлик 26,9% ошишига олиб келган [4].

Тадқиқот мақсади. Дунё бўйича охирги йилларда 221 миллион гектар майдонда буғдой етиштирилиб, замонавий интенсив технологияларни қўллаш натижасида ялпи ҳосил 770 миллион тоннани ташкил этмоқда[23]. Шу сабабли, олиб борилган тадқиқотнинг мақсади Қашқадарё вилоятининг оч тусли бўз тупроқлар шароитида кузги буғдойни илдиздан ташқари озиқлантиришнинг миқдорий кўрсаткичларига таъсирини ва самарадорлигини аниқлашдан иборатдир.

Услуб ва материаллар. Дала ва ва ишлаб чиқариш тажрибалари, биометрик ўлчашлар, фенологик кузатиш ва турли таҳлиллар «Методика Государственного сортоиспытания сельскохозяйственных культур», «Дала тажрибаларини ўтказиш услублари», тупроқнинг агрофизикавий таҳлилларини ўтказишда «Методы агрофизических исследований», тупроқни агрокимёвий таҳлил қилишда «Методы агрохимических анализов почв и растений», маълумотларнинг математик-статистик ишлов бериш «Методика полевого опыта» (Б.А.Доспехов, 1985) усули бўйича амалга оширилган. Тадқиқотнинг объекти сифатида оч тусли бўз тупроқлар, кузги буғдойнинг “Ғозғон” нави, IfoSeed, Вл-77, IfoPZN, Ankasuper, IfoHumate Plus, Potex, IfoCombi-Fe, ЭнтоГумин, IfoUan-32, IfoKalifos препаратлардан фойдаланилган.

Тадқиқот натижалари. Қашқадарё вилоятининг оч тусли бўз тупроқлар шароитида кузги буғдойга илдиздан ташқари қўшимча озиқлантиришнинг таъсирини аниқлаш мақсадида олиб борилган тадқиқот натижаларига кўра ушбу усуллар кузги буғдойнинг миқдорий белгиларига таъсир қилгани аниқланган. Жумладан, кузги буғдой Ғозғон навининг бошоғидаги дон сони ва ҳосилдорлигига ижобий таъсири кузатилди.

Минерал ўғитларни тежовчи агрофонлар шароитида уруғларга ишлов бериш ва илдиздан ташқари қўшимча озиқлантиришнинг кузги буғдой бошоғидаги дон сонига таъсири ўрганиш натижаларига кўра, агрофонлар кесимида энг паст ўртача натижа минерал озиқланиш қўлланилмаган (назорат) агрофонда қайд қилинди. Ушбу агрофоннинг назорат вариантида битта бошоқдаги бошоқчалар сони 28,4 донани, илдиздан ташқари қўшимча

[22] https://www.yara.ru/crop-nutrition/wheat/wheat-yield/increasing-wheat-grain-numbers-per-ear/
[23] https://www.igc.int/en/default.aspx

озиқлантириш қўлланилган вариантларда ушбу кўрсаткичнинг сезиларли ошиши кузатилмади, жумладан 2–вариантда 31,9 дона, 5–вариантда 31,4 дона ва 6–вариантда 31,2 донани ташкил қилиб, назорат вариантга нисбатан ўрта ҳисобда 3,5; 3,0 ва 2,8 донага кўп бўлгани маълум бўлди (1-расм).



1-расм. Илдиздан ташқари озиқлантиришнинг кузги буғдой бошоқдаги дон сонига таъсири, дона (2019-2021 йй.)

Минерал ўғит $N_{90}P_{45}K_{30}$ ва $N_{180}P_{90}K_{60}$ кг/га ҳисобидан қўлланилган агрофонлар доирасида битта бошоқдаги дон сони таҳлил қилинганда, назорат агрофонга нисбатан сезиларли даражада тафовут мавжудлиги аниқланди. Шунингдек, минерал ўғит $N_{90}P_{45}K_{30}$ ва $N_{180}P_{90}K_{60}$ кг/га ҳисобидан қўлланилган агрофонларда илдиздан ташқари қўшимча озиқлантириш қўлланилган 2–вариантларда бошоқдаги бошоқчалар сони 51,0 ва 57,9 дона, 5–вариантларда 52,5 ва 58,2 дона ва 6–вариантларда 51,8 дона ва 57,2 донани ташкил қилиб, назорат вариантга нисбатан 2–вариантлар бўйича 2,0 ва 6,0 донага, 5–вариантлар бўйича 3,5 ва 6,3 донага ҳамда 6–вариантлар бўйича 2,8 ва 5,3 донага кўп бўлгани аниқланди.



2-расм. Турли ҳил минерал ўғитлар агрофонида баргдан ташқари озиқлантирилмаган вариантга нисбатан ҳосилдорликнингфарқи, ц/га

Илдиздан ташқари озиқлантирилмаган (назорат) вариантга нисбатан 1–вариантда 8,5

ц/га, 2–вариантда 17,8 ц/га, 3–вариантда 10,4 ц/га, 4–вариантда 8,5 ц/га, 5–вариантда 15,8 ц/га, 6–вариантда 14,8 ц/га, 7–вариантда 20,3 ц/га юқори бўлганлиги аниқланди.

Назорат (минерал озиқа қўлланилмаган) агрофон шароитида назорат вариантда ҳосилдорлик 17,5 ц/га ни, экишдан олдин уруғларга ишлов берилган вариантда 25,1 ц/га ва илдиздан ташқари озиқлантириш қўлланилган вариантларда 29,1-30,4 ц/га ча ошиб борган, яъни назорат вариантга нисбатан 7,6; 11,6 ва 12,9 ц/га юқори натижа қайд қилинди (2-расм).

Минерал ўғит $N_{90}P_{45}K_{30}$ ва $N_{180}P_{90}K_{60}$ кг/га ҳисобидан қўлланилган шароитда ҳам экишдан олдин ишлов бериш ва илдиздан ташқари озиқлантириш усуллари бажарилиши натижасида ҳосилдорлик ошиши кузатилган. Масалан, $N_{90}P_{45}K_{30}$ агрофоннинг назорат вариантда 46,4 ц/га, экишдан олдин ишлов бериш вариантда 61,5 ц/га ва илдиздан ташқари озиқлантирилган вариантларда 65,0-76,1 ц/га ташкил этгани, бу эса назорат вариантга нисбатан 15,1 ц/га ва 18,6-29,7 ц/га юқори натижа кўрсатди. Худди шу ҳолат $N_{180}P_{90}K_{60}$ агрофоннинг назорат вариантда 58,6 ц/га, экишдан олдин ишлов бериш вариантида 67,1 ц/га ва илдиздан ташқари озиқлантирилган вариантларда 76,4-78,9 ц/га ташкил этгани, бу эса назорат вариантга нисбатан 8,5 ц/га ва 17,8-20,3 ц/га га юқори натижа қайд қилинди.

Юқорида келтирилган маълумотлардан экишдан олдин стимулятор билан ишлов бериш ва турли компонентли макро ва микроўғитлар асосидаги илдиздан ташқари озиқлантиришнинг ҳамда минерал ўғитларнинг кузги буғдой ҳосилдорлигига комплекс таъсири жиҳатдан таҳлил қилинганда, баъзи бир вариантлар қолганларга нисбатан ажралиб қолганини кузатилди. Жумладан, $N_{90}P_{45}K_{30}$ ва $N_{180}P_{90}K_{60}$ агрофонларнинг 2–; 5– ва 6–вариантлари назорат ва қолган вариантларга нисбатан устунлиги кузатилди. Яъни, $N_{90}P_{45}K_{30}$ агрофоннинг 2–вариантида ҳосилдорлик 73,2 ц/га ни ташкил қилган бўлса, минерал ўғитлар икки карра оширилган $N_{180}P_{90}K_{60}$ агрофоннинг параллел 2–вариантда эса 76,4 ц/га ни, яъни 3,2 ц/га юқори, 5–вариантда 72,5 ц/га, минерал ўғитлар икки карра оширилганда 74,4 ц/га, яъни 1,9 ц га юқори ва 6–вариантда 71,0 ц/га минерал ўғитлар икки карра оширилганда эса 73,4 ц/га ни ташкил қилган ҳолда орасидаги фарқ 2,4 ц/га ни ташкил қилди.

Хулоса. Қашқадарё вилоятининг оч тусли буз тупроқлари шароитида кузги буғдойга $N_{90}P_{45}K_{30}$ меъёрда минерал ўғитлар билан ўғитлаб, илдиздан ташқари кузда тупланиш фазасида IfoPZN+Ankasuper, байроқ барг чиқариш даврида IfoCombi-Fe+Энто Гумин+IFO UAN-32 ва бошоқлашдан кейин IfoKalifos+Ankasuper препаратларини қўллаш дон ҳосилдорлигини назоратга нисбатан (танланган 2–; 5– ва 6–) вариантларга мос равишда 26,8; 26,1; 24,6 ц/га га ошганлиги аниқланди.

Тадқиқотларимизда турли ҳил минерал ўғитлар агрофонида баргдан ташқари озиқлантирилмаган вариантга нисбатан ҳосилдорлик $N_{180}P_{90}K_{60}$ кг/га агрофонда илдиздан ташқари кузда тупланиш фазасида IfoPZN+Ankasuper қўлланилганда 17,8 ц/га, байроқ барг чиқариш даврида IfoCombi-Fe+Энто Гумин+IfoUAN-32 қўлланилганда 15,8 ц/га, бошоқлашдан кейин IfoKalifos+Ankasuper қўлланиланда 14,8 ц/га ва барча илдиздан ташқари қўлланилган препаратлар вариантида 20,3 ц/га эканлиги аниқланди.

Фойдаланилган адабиётлар руйхати:

1. Вильдфлуш И.Р., Мишура О.И., Чуйко С.Р. Продуктивность, вынос элементов питания и агроэкономическая эффективность применения макро-, микроудобрений и регуляторов роста при возделывании яровой и озимой пшеницы //Вестник Белорусской государственной сельскохозяйственной Академии № 1 2018. С.23-27.

2. Синеговская В.Т., Рафальский С.В. Эффективность внекорневого использования удобрений при возделывании яровой пшеницы в Приамурье //Земледелие.2015. №7. С. 32-34.

3. Костин В.И., Мударисов Ф.А., Семашкина А.И. Влияние микроэлементов - синергистов на фотосинтетические показатели и урожайность озимой пшеницы // Вестник Ульяновской ГСХА. 2017. №4 (40) С. 30-34.

4. Синеговская В.Т., Рафальский С.В. Эффективность внекорневого использования удобрений при возделывании яровой пшеницы в Приамурье //Земледелие.2015. №7. С. 32-34.

УДК: 633.11;631.89

ИЗМЕНЕНИЕ ДИНАМИКИ ЧИСЛА ПОБЕГОВ ОЗИМОЙ ПШЕНИЦЫ В ЗАВИСИМОСТИ ОТ ПИТАНИЯ

д.ф.с/х.н. (PhD) Акбар Абдуазимов Мухторович
д.ф.с/х.н. (PhD) Мавлуда Вафоева Бобомуродовна
Каршинский государственный технический университет

Аннотация. Потребность растительного организма в различных элементах неодинакова, но ни один элемент питания не может быть заменён другим: каждый из них выполняет в растительных тканях свою уникальную функцию, обеспечивая полноценное развитие растений. Даже при незначительном недостатке одного или нескольких необходимых веществ отмечается отставание в росте, изменение формы растения, прекращается его размножение. Рост и развитие растений во многом зависят от азотного питания. Для эффективного использования азотных удобрений особое значение имеет соблюдение сроков внесения.

Ключевые слова: опыт, контроль, вариант, удобрение, биостимулятор, пшеница, зерно, внекорневая подкормка, суспензия, кущение.

Annotation. The need of a plant organism for various elements is not the same, but no nutrient element can be replaced by another: each of them performs its own unique function in plant tissues, ensuring the full development of plants. Even with a slight lack of one or more essential substances, growth retardation is noted, a change in the shape of the plant, and its reproduction stops. The growth and development of plants largely depend on nitrogen nutrition. For the effective use of nitrogen fertilizers, compliance with the timing of application is of particular importance.

Keywords: experience, control, variant, fertilizer, biostimulant, wheat, grain, foliar feeding, suspension, tillering.

Введение. Началом жизни зерновых культур считается переход семян из состояния покоя в активное. Через 10-20 дней после появления всходов начинается кущение – образование боковых побегов. После появления 2-3 настоящих зелёных листьев рост приостанавливается, а на глубине 2...3 см от поверхности почвы образуется узел кущения, от которого развиваются боковые стебли и вторичные корни. От степени узла кущения зависят кустистость, развитие корневой системы, засухоустойчивость, зимостойкость. Отмирание узла кущения приводит к гибели всего растения.

В период кущения растения нуждаются в свете, влаге, питании, тепле. Из элементов питания в этот период особенно необхомимы фосфор и азот (азотные подкормки) [1].

Минеральное питание растений включает поступление, передвижение и усвоение элементов. Но бывают ситуации, когда элементы минерального питания почвы становятся труднодоступными для растений (низкая температура, недостаток или избыток влаги, недостаточное развитие корневой системы и др.). Из-за дефицита какого-либо фактора, даже при достаточном наличии элемента в почве корни его плохо поглощают. Для этого более целесообразно применение внекорневых подкормок удобрениями по надземной части растений [2]

При возделывании зерновых культур 30% от общих затрат приходиться на минеральные удобрения. Оптимизация минерального питания и обеспечение благоприятного фитосанитарного состояния посевов по этапам органогенеза растений позволяет в наибольшей степени реализовать генетический потенциал продуктивности зерновых культур в сложившихся погодных условиях и снизить удельные затраты элементов питания на формирование урожая [3].

Цель исследования заключается в изучении эффективности применения различных компонентных макро и микро удобрений для некорневых подкормок озимой пшеницы в условиях орошаемых светлых серозёмных почв Кашкадарьинской области.

Материалы и методы. Исследования проводились в течении 3-х вегетационных сезонов (2019-2021гг.) на центральном опытном участке Научно-исследовательского института земледелия в южных районах расположенного в Каршинском районе, на посевах

озимой пшеницы сорта Гозгон. Учётная площадь делянок составляла 108 м^2, повторность опыта трёхкратная, размещение вариантов - систематическое. С целью получения более точных результатов внекорневая подкормка проводилась в условиях разных уровней корневого питания, а в частности, на 3-х агрофонах минерального питания: 1) Контроль; 2) $N_{90}P_{45}K_{30}$; 3) $N_{180}P_{90}K_{60}$. Контроль без применения удобрений. Изучаемым фактором для повышения урожайности и качества зерна озимой пшеницы являлись некорневые подкормки жидкими удобрениями и регуляторами роста. Каждой делянке соответствовал определённый вариант обработки посевов в различные фазы вегетации. В соответствии опытной схеме семена озимой пшеницы "Гозгон" перед посевом обрабатывались удобрениями IfoSeed + Вл-77, а также в период вегетации растений проводилась листовая подкормка удобрениями IFO PZN + Ankasuper (15.10-15.11), IFO PZN + IfoHumate Plus (25.02-10.03), IFO UAN + POTEX (15.03-30.03), IFO-COMBI FE + EntoGumin + IFO UAN 32 (05.04-15.04), IFO CALIFOS + Ankasuper (01.05-10.05).

Результаты. По результатам исследования, проведенного с целью определения эффекта обработки семян биостимуляторами, регулирующими рост озимой пшеницы в условиях светло-серых почв Кашкадарьинской области, установлено, что данные приёмы повлияли на исходные биометрические показатели озимой пшеницы, а в частности, отмечено положительное влияние на степень кущения сорта озимой пшеницы Гозгон.

Таблица-1.

Влияние предпосевной обработки семян и внекорневой подкормки на число побегов, шт. (2019-2021 гг.)

Агрофон	Вариант	2019 г	2020 г	2021 г	Среднее
Контроль	Контроль	1,44	1,23	1,14	1,27
	IfoSeed + Вл-77	3,42	2,84	2,61	2,96
	IFO PZN + Ankasuper	3,71	3,52	3,24	3,49
	IFO PZN + IfoHumate Plus	1,45	1,28	1,16	1,30
	IFO UAN + POTEX	1,38	1,20	1,25	1,28
	IFO-COMBI FE + EntoGumin + IFO UAN 32	1,62	1,36	1,45	1,48
	IFO CALIFOS + Ankasuper	1,55	1,41	1,35	1,44
	IfoSeed + Вл-77; IFO PZN + Ankasuper; IFO PZN + IfoHumate Plus; IFO UAN + POTEX; IFO-COMBI FE + EntoGumin + IFO UAN 32; IFO CALIFOS + Ankasuper	3,84	1,62	3,45	2,97
$N_{90}P_{45}K_{30}$	Контроль	1,82	1,51	1,34	1,56
	IfoSeed + Вл-77	3,88	3,72	3,34	3,65
	IFO PZN + Ankasuper	4,08	3,96	3,64	3,89
	IFO PZN + IfoHumate Plus	2,05	1,84	1,64	1,84
	IFO UAN + POTEX	1,95	1,71	1,56	1,74
	IFO-COMBI FE + EntoGumin + IFO UAN 32	2,11	1,99	1,91	2,00
	IFO CALIFOS + Ankasuper	1,90	1,84	1,86	1,87
	IfoSeed + Вл-77; IFO PZN + Ankasuper; IFO PZN + IfoHumate Plus; IFO UAN + POTEX; IFO-COMBI FE + EntoGumin + IFO UAN 32; IFO CALIFOS + Ankasuper	4,28	4,14	4,02	4,15
$N_{180}P_{90}K_{60}$	Контроль	2,07	1,84	1,54	1,82
	IfoSeed + Вл-77	4,18	3,96	3,74	3,96
	IFO PZN + Ankasuper	4,76	4,47	4,43	4,55
	IFO PZN + IfoHumate Plus	1,98	2,00	2,05	2,01
	IFO UAN + POTEX	2,15	2,10	2,01	2,09
	IFO-COMBI FE + EntoGumin + IFO UAN 32	2,21	2,12	2,08	2,14
	IFO CALIFOS + Ankasuper	2,33	2,25	2,21	2,26
	IfoSeed + Вл-77; IFO PZN + Ankasuper; IFO PZN + IfoHumate Plus; IFO UAN + POTEX; IFO-COMBI FE + EntoGumin + IFO UAN 32; IFO CALIFOS + Ankasuper	4,84	4,56	4,21	4,54

По результатам полевых опытов, проведенных в 2019-2021 гг., наименьшее число побегов растений в процессе определения эффективности предпосевной обработки семян озимой пшеницы стимуляторами роста и внекорневой подкормки комплексными макро- и микроудобрениями в различных условиях минерального питания (агрофон) независимо от условий питания была зафиксирована в контрольных вариантах и в среднем составила 1,55 шт.

В 1-варианте с применением предпосевной обработки семян число побегов варьировалось в зависимости от минерального питания которое составило 2,96, 3,65 и 3,96

шт, во 2-варианте с применением внекорневой подкормки 3,49, 3,89 и 4,55 шт, а в 7-варианте, где использовались как и предпосевная обработка семян так и внекорневая подкормка данный показатель был равен 2,97, 4,15 и 4,54 шт., что на 1,27, 1,56 и 1,82 шт. превышало контрольные данные.

Из вышеприведённых данных показатели контрольных вариантов определились в качестве самых низких, а в частности число побегов на 1,7, 2,1 и 2,2 шт. меньше, чем в варианте с предпосевной обработкой, на 2,3, 2,4 и 2,8 шт. меньше, чем вариант с внекорневым питанием и на 1,7, 2,59 и 2,72 шт. с применением предпосевной обработки семян и внекорневой подкормки соответственно.

Так же в результате проведённых исследований было установлено, что

в 3–, 4–, 5– и 6–вариантах в условиях контрольного агрофона число побегов составило 1,30, 1,28, 1,48 и 1,44 шт., в условиях агрофона $N_{90}P_{45}K_{30}$ кг/га - 1,84, 1,74, 2,00 и 1,87 шт., и в условиях агрофона $N_{180}P_{90}K_{60}$ кг/га - 2,01, 2,09, 2,14 и 2,26 шт. соответственно. По полученным данным увеличение содержания минерального питания в этих вариантах обеспечило увеличение числа побегов растений озимой пшеницы.

Выводы. По результатам 3-х летних исследований по изучению и определению влияния обработки семян биостимуляторами, регулирующими рост озимой пшеницы в условиях светло-серых почв Кашкадарьинской области на число побегов (кущение) озимой пшеницы было установлено, что показатели 1– варианта (IfoSeed + Вл-77), 2– варианта (IFO PZN + Ankasuper) и 7–вариантов (IfoSeed + Вл-77; IFO PZN + Ankasuper; IFO PZN + IfoHumate Plus; IFO UAN + POTEX; IFO-COMBI FE + EntoGumin + IFO UAN 32; IFO CALIFOS + Ankasuper) сравнительно превысили показатели контрольного варианта, где в условиях контрольного агрофона на 1,69; 2,22 и 1,7 шт., в условиях агрофона с минеральным питанием $N_{90}P_{45}K_{30}$ кг/га на 2,09; 2,33 и 2,59 шт. и в условиях агрофона с минеральным питанием $N_{180}P_{90}K_{60}$ кг/га на 2,14; 2,73 и 2,72 шт. соответственно, т.е. данные агротехнические мероприятия оказали положительное влияние на кущение растений озимой пшеницы.

Список литературы

1. Козловская И.П., Дайнеко Т.М., Вечер Н.Н., Березко М.Н Основы агрономии: пособие – Минск: РИПО,2012.-347 с.

2. Семененко Н.Н. Инновационные технологии применения азотных удобрений: теория, методология, практика / Минск:Альфа-книга, 2020.-320 с.

3. Семененко Н.Н., Мезенцева Е.Г., Кулеш О.Г. Система применения удобрений под зерновые культуры на дреново-подзолистых почвах в современных условиях// Земледелие и защита растений. – 2018. -№2.-С.33-39.

УЎТ: 632.9.31.52.

ЕРЁНҒОҚ ЕТИШТИРИШДА ЗАМОНАВИЙ АГРОТЕХНОЛОГИЯЛАР

Мирзаев Нуриддин Файзуллаевич

Аннотация: Ушбу мақолада ер ёнғоқ экинининг қимматли хўжалик белгилари, бозор иқтисодиётидаги ўрни, бугунги кунда ер ёнғоқ етиштириш бўйича ер шарида ва мамлакатимизда банд қилинган майдон, энг кўп ер ёнғоқ етиштираётган мамлакатлар ва уларнинг улуши, маданий ер ёнғоқнинг турлари, унинг асосий морфологик белгилари, унинг ташқи муҳит омилларига муносабати, ерёнғоқнинг республикамизда районлаштирилган навлари, юқори сифатли экспортбоп ҳосил етиштириш бўйича тавсиялар берилган.

Калит сўзлар: Ер ёнғоқ, нав, экин, тупроқ, унумдорлик, ҳосилдорлик, қимматли хўжалик белгилари, бозор иқтисодиёти, морфологик белгилари.

Аннотация: В данной статье рассмотрены экономические характеристики культуры арахиса, его роль в рыночной экономике, площади занимаемые выращиванием арахиса на земном шаре и в нашей стране а также страны выращивающие больше всего арахиса и их доля, виды возделываемого арахиса, его основные морфологические характеристики, связь внешней среды с факторами, районированные сорта арахиса в нашей республике,

рекомендации по выращиванию высококачественных экспортных сортов.

Ключевые слова: Арахис, сорт, урожай, почва, плодородие, продуктивность, ценные хозяйственные признаки, рыночная экономика, морфологические признаки.

Абстраст: Тҳис артисле диссуссес тҳе есономис сҳарастеристисс оф тҳе пеанут султуре, итс роле ин тҳе маркет есономй, тҳе ареас оссупиед бй пеанут султиватион он тҳе глобе анд ин оур соунтрй тодай, тҳе соунтриес тҳат грow тҳе мост пеанутс анд тҳеир сҳаре, тҳе тйпес оф султиватед пеанутс, итс маин морпҳологисал сҳарастеристисс, тҳе соннестион бетwеен ехтернал енвиронмент wитҳ фасторс, зонед wалнут вариетиес ин оур републис, ресоммендатионс фор грошинг ҳигҳ-қуалитй ехпорт сропс.

Кей wордс: Пеанут, вариетй, ҳарвест, соил, фертилитй, продустивитй, валуабле есономис сҳарастеристисс, маркет есономй, морпҳологисал сҳарастеристисс.

Кириш. Ерёнғоқ (Арасҳис ҳйпогаеа Л.) - дуккаклилар оиласига мансуб бир йиллик мойли экин ҳисобланади. Ерёнғоқ донларида 45–55 % ёғ, 25–30 % оқсил мавжуд бўлиб, у озиқ-овқат ва мой саноатида кенг қўлланилади. Ерёнғоқнинг ватани Жанубий Америка бўлиб, у ердан дунёнинг турли бурчакларига тарқалган. Европага ерёнғоқ ХВИИ асрда Жанубий Америкадан эмас балки, Хитой орқали кириб келган. Шу сабабли Европада ерёнғоқ - Хитой ёнғоғи деб ҳам аталган. Россияга эса ХВИИИ да кириб келган бўлиб, узоқ йиллар давомида Одесса ботаника боғида манзарали экин сифатида ўстирилган. Марказий Осиёга эса ХИХ асрнинг охирларида Россия орқали кириб келган бўлиб, ХХ асрда аҳоли томорқаларида қуруқ мева сифатида етиштирила бошланган [1].

Ерёнғоқ дунёнинг 40 дан ортиқ мамлакатларида жами 26,5 млн. гектар майдонда етиштирилиб, гектарига ўртача ҳосилдорлик 1,4 тоннани ташкил этади. Етиштириладиган энг кўп маҳсулот Ҳиндистон, Хитой ва Америка Қўшма Штатларининг улушига тўғри келиб, айнан шу мамлакатларда етиштирилган маҳсулотнинг 60-80 фоизи қайта ишланади. Ерёнғоқ уруғининг таркибида 48-50% енгил ҳазм бўлувчи мой бўлиб, саноатда ундан хуштаъм “арахис” мойи ишлаб чиқарилади. Ерёнғоқ мойи мазаси бўйича зайтун мойидан қолишмайди. Ерёнғоқ мойидан консервалар ва маргарин тайёрлашда, қандолатчилик ҳамда парфюмерия саноатида кенг қўлланилади. Биргина қандолатчилик соҳасида ерёнғоқдан 60 дан ортиқ маҳсулотлар жумладан: исътемол мойи, шоколадлар, печение, ҳолва, кофе, конфет, музқаймоқлар ва бошқа маҳсулотлар ишлаб чиқаришда асосий хом-ашё ҳисобланади [2]. Ерёнғоқ мағзи таркибида мойдан ташқари 26-28% юқори сифатли, енгил ҳазм бўлувчи оқсил, минерал ва витаминлар мавжуд.

Ерёнғоқ пояси минерал ва витаминларга бой бўлиб, тўйимлилиги жиҳатидан бедадан қолишмайди. Ерёнғоқ мойи ишлаб чиқариш жараёнида ажратиб олинадиган кунжаранинг 48 фоизини оқсил ва 8 фоизини мой ташкил этади. Бу эса бўрдоқичилик, чўчқачилик ва паррандачиликда бебаҳо озиқа ҳисобланади. Ўсимлик қолдиқлари таркибида катта миқдорда фосфор, калий мавжуд бўлиб, тупроқни турли органик моддалар ва минераллар билан бойитади. Шунинг учун Америка Қўшма Штатларида ҳосил йиғим-терим вақтида ерёнғоқ пояси майдаланиб, ерга сочиб юборилади.

Сўнгги йилларда республикамиз аҳолисининг турмуш тарзини яхшилаш ва келажак авлоднинг озиқ-овқат ҳавфсизлигини таъминлаш мақсадида ҳаридоргир қишлоқ хўжалик экинларини экишга кенг йўл очиб берилиши аҳоли ва деҳқон-фермер хўжаликларини ерёнғоқ экинига бўлган қизиқишининг ортишига сабаб бўлмоқда. Чунки, Ўзбекистонда етиштирилган экологик тоза ерёнғоқ маҳсулотига маҳаллий бозор билан бир қаторда ташқи бозорда ҳам талаб юқори.

Ерёнғоқ экинидан юқори ва экспортбоп маҳсулот етиштириш учун эса ўсимлик биологиясини яхши билиш, навларни тўғри танлаш ва етиштиришда агротехник тадбирларни ўз вақтида сифатли амалга ошириш асосий омил ҳисобланади.

Маданий ерёнғоқнинг (Арасҳис ҳйпогаеа Л) иккита Ҳйпогаеа ва Фастиргиата кенжа турлари бўлиб, улар ўз навбатида Ҳйпогаеа (ҳйпогаеа ҳирсута), фастиргиата (фастиргиата, вулгарис, перувиана, аеқуаториана) ботаник нав гуруҳларига бўлинади.

Ҳар бир ботаник нав гуруҳларига мансуб ўсимликлар ўзига хос морфологик ҳусусиятларга эга бўлиб, бир-биридан ўсув даври, поясининг шакли, ранги, уруғ ранги,

ҳажми, ўлчами, гулларининг пояда жойлашиш ўрни ва бошқа белгиларининг тузилиши билан фарқ қилади. Савдо-сотиқ мақсадида етиштирилаётган навлар асосан Ҳйпогаеа (кўп ҳолларда виржиния ёки раннер), фастиргиата (валенсия) ва вулгарис (испан ботаник нав гуруҳларига мансубдир [3].

Ерёнғоқнинг асосий морфологик белгиларидан бири бу - поясининг тузилишидир. Ерёнғоқнинг пояси тик ўсувчи, ярим тик ўсувчи ва ер бағирлаб ўсувчи хиллари мавжуд бўлиб, республикамиз тупроқ-иқлим шароитида асосан пояси тик ўсувчи ва ярим тик ўсувчи гуруҳга мансуб навларни экиш тавсия этилади. Ерёнғоқ жаҳон коллекциясини ўрганишимиз жараёнида (2022-2023 йй) пояси ётиб ўсувчи навлар кечпишар (ўсув даври 175-180 кундан узоқ) эканлиги аниқланган. Ерёнғоқ иссиқсевар ўсимлик ҳисобланади. Ўтказилган тадқиқотлар натижасига кўра ерёнғоқ уруғлари дала шароитида 15-16 ^{0}С да 13-15 кунда, 19-20 ^{0}С да 10-12 кунда, 25-26 ^{0}С да эса 7-8 кунда униб чиқиши аниқланган.

Майсалар униб чиққандан кейинги 25-30 кунлари биринчи гуллар пайдо бўлди. Гуллаш жараёни 2-2,5 ой давом этади ва ҳаво ҳарорати ўртача 25-30 ^{0}С бўлганда гуллаш жараёни жадаллашади. Ҳаво ҳарорати 38-40 ^{0}С га кўтарилганда эса, гуллаш жараёни секинлашиши кузатилади. Ерёнғоқ етуклик даврида паст ҳароратга таъсирчан бўлиб, куз фаслидаги қисқа муддатли манфий ҳарорат ҳам ўсимликни нобуд қилади.

Ерёнғоқ қурғоқчиликка чидамли ўсимлик бўлиши билан бирга ўсув даврининг маълум босқичларида намликка талабчан ҳисобланади. Ўсимликнинг сувга бўлган талаби майсалар униб чиққанидан гуллаш давригача кам, гуллаш даврида максимал ва ёнғоқларнинг етилиш даврида эса, ўртача талабга эга бўлади. Ёнғоқларнинг етилиш даврида намликнинг керагидан ортиқ бўлиши дукаклар қобиғини қорайиб қолишига, бу эса уруғларнинг сифати ва бозорбоблик хусусиятларига салбий таъсир кўрсатади.

Уруғларни экишга тайёрлаш масъулиятли жараён бўлиб, бунда йирик дуккакли, тўқ, тиниқ рангли (қораймаган, касалланмаган) ёнғоқлар танлаб олинади ва қўл меҳнати ёрдамида қобиғидан тозалаб олинди. Тозалаб олинган уруғлик ёрилган, уруғ пўстлоғи зарарланган уруғлардан сараланади. Тайёр бўлган уруғлик экиш вақтигача 15-20 кг миқдорда мато қопларда, ётқизилган ҳолатда қуруқ жойда сақланади.

Ж.Худайқуловнинг таъкидлашича, ерёнғоқ маҳаллий навларининг мақбул экиш муддатини аниқлаш долзарб масалалардан бири ҳисобланади [6].

Ерёнғоқ Ўзбекистоннинг жанубий ҳудудларида апрелнинг И-ИИ, марказий ҳудудларда апрелнинг ИИ-ИИИ ва шимолий ҳудудларида эса апрелнинг ИИИ ўн кунлигида тупроқ ҳарорати 15-16 ^{0}С бўлганда, енгил механик таркибли тупроқларда 6-7 см, ўрта ва оғир механик таркибли тупроқларга 4-6 см чуқурликда экилганда тўлиқ майсалар ундириб олишга эришилади.

Ерёнғоқ уруғи униб чиққандан сўнг гулга киргунга қадар ер устки қисми жуда секин ривожланади. Бироқ, бу давр давомида илдиз системаси яхши ривожланади. Бу даврда қатор ораси юмшатилиши ва бегона ўтлардан ҳоли бўлиши жуда муҳим ҳисобланади.

Республикамизда районлаштирлган навларда битта ўсимликда ўртача 150 - 200 тагача гуллар ҳосил қилади ва улардан 60-65 фоизида генофорлар шаклланади. Бироқ бу генофорларнинг 60-70 фоизи ноқулай тупроқ-иқлим шароитида, қатор ораларига сифатсиз ишлов берилиши (қатор ораси яхши юмшатилмаганда, хумлаш ишлари амалга оширилмаганда, тупроқ намлигини узоқ вақт паст даражада бўлиши ва ҳоказолар) сабабли ёнғоқлар шаклланмайди.

Ерёнғоқ учун суғориладиган, қумоқ, енгил механик таркибли, ўтлоқи, бўз, қора ва каштан тупроқли, кўп йиллик бегона ўтларнинг (қамиш, ғуммай, ажриқ, саломалик) уруғлари кам бўлган, охирги 4-5 йилда ерёнғоқ етиштирилмаган, суғориш имконияти яхши бўлган майдонлар танланади. Қуёш нури 10-12 соат тик тушиш имконияти бўлган ёш боғларнинг орасига ҳам экиб юқори юқори ҳосил етиштириш мумкин. Ерёнғоқ учун энг яхши ўтмишдош экин кузги ғалла, картошка бўлиб, сабзавот ва полиз экинларидан кейин ҳам экиш мумкин. Бедадан кейин ерёнғоқ экиш тавсия этилмайди.

Суғориш тартиби ва муддатлари тупроқ-иқлим шароитига қараб белгианади. Сизот сувлари яқин жойлашган ўтлоқи аллювиал тупроқ шароитида 4-5 марта, суғориш меъёри

600-700 $м^3$ /га, сизот сувлари чуқур жойлашган типик бўз тупроқ шароитида 5-6 марта, суғориш меъёри 800-900 $м^3$ /га, енгил қумоқ тупроқ шароитида 7-8 марта, суғориш меъёри 600-650 $м^3$ /га тавсия этилади.

Ерёнғоқ ўсимлигининг яхши ривожланиши учун экин қатор ораларини тез-тез юмшатиш, ортиқча намликни қочириш, тупроқ ҳароратини кўтариш, ҳаво алмашувини яхшилаш ва бегона ўтларни йўқотиш жуда ҳам муҳимдир.

Ўсув даври давомида ерёнғоқ қатор оралари 4-5 марта культивация қилинади. Охирги икки культивациядан кейин ўсимликлар хумланади. Хумлашдан асосий мақсад ўсимликнинг барг қўлтиқларидан ўсиб чиққан гинофорларни тупроқ билан кўмишдан иборат. Агар ушбу гинофорлар кўмилмай қолса, очиқ ҳавода ёнғоқлар шаклланмайди. Биринчи ва иккинчи хумлашларнинг ораси 12-15 кундан ошмаслиги керак. Бу эса, ҳосилдорликни ошириш билан бирга ёнғоқларни бир текисда пишиб етилишига ижобий таъсир кўрсатади.

Ерёнғоқ чириндига бой, қумлоқ тупроқларда яхши ривожланади. Бироқ, ерёнғоқ экиладиган ерга органик ўғитлар бериш тавсия этилмайди. Органик ўғитларни ўтмишдош ўсимликларга берилгани мақул. Фосфорли ва калийли ўғитларнинг асосий қисми кузга шудгор пайтида берилиши мақсадга мувофиқ ҳисобланади. Кузда ерга ўғит берилмаган вақтларда экиш олдидан 250-300 кг аммофос бериш яхши натижа беради.

Суғориладиган майдонларда озиқлантириш ўсимлик тўла гулга киргандан кейин ўтказилади ва гектарига 60-80 кг дан азотли ўғит берилади.

Ерёнғоққа ўсув даври давомида 2-3 марта баргдан озиқлантирилиши унинг ҳосилдорлигини 25-30% гача оширади.

Ҳосилни ўз вақтида йиғиб олиш муддатларини тўғри белгилаш катта аҳамиятга эга бўлиб, муддатидан олдин йиғиб олинганда ҳосилдорлик ва уруғ таркибидаги ёғ ҳамда оқсил моддаларининг миқдори пасайишига сабаб бўлади. Ҳосил кечиктириб йиғилганда эса генофор бандининг мўрт бўлиб қолиши оқибатида ҳосилнинг бир қисми тупроқ остида қолиб кетади ва ҳосилни катта қисми йўқотилади. Кузнинг ёмғирли кунларида эса йиғиб олишга улгурилмаган далаларда, етилган ёнғоқлар ўсимлик илдизида турган жойидаёқ униб қолади ва уруғнинг сифати бузилади. Шу сабабдан ерёнғоқ ҳосилини иссиқ ва қуруқ кунларда йиғиб олиш тавсия этилади.

Ҳосил пишиб етилганда ўсимлик барглари нисбатан сарғаяди. Уруғлари етилганда ёнғоқ қобиғи тўрланади. Қобиқнинг ички томони қораяди. Агар ўсимликдаги ёнғоқларнинг 70-75% етилган бўлса ҳосилни йиғиб олишга киришилади. Ҳосил йиғиб олинганда ёнғоқлар таркибидаги намлик 35-40% бўлиб, шабада айланадиган биноларда 8-10 сантиметр қалинликда ёйиб қуритиш ва вақти-вақти билан жойида айлантириб, аралаштириб туриш тавсия этилади. Ёнғоқлар яхши қуритилмаганда сақлаш даврида қобиғининг қорайиб кетиши, унувчанлик қобилиятини пасайиб кетишига, мағзининг моғорлаши ва истеъмолга яроқсиз бўлибгина қолмасдан, балки инсон организмини заҳарлаши ҳам мумкин.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ

1. Е.В.Вульф // Культурная флора масличных культур // Москва 1941.

2.С.Н. Нигам. // Гроунднут сеед продустион мануал // Ҳиндистон, ИКРИСАТ 2004.

3. С.Н. Нигам // Артифисиал ҳйбиридизатион ин гроунднут // Ҳиндистон, КРИСАТ 1990.

4. Методические указания по изучению мировой коллекции масличных культур // Ленинград, ВИР 1976.

5. Реддй Р.С. Гроунднут. ИСАР. Индиан соунсил оф агрисултурал ресеарсҳ. Hew Делҳи. 1988.

6. Худайқулов Ж.Б. Ерёнғоқ навларидан юқори ва сифатли ҳосил етиштириш технологиясининг илмий асослари. // Диссертация афтореферати Т.:-2019 й., - Б 5-6.

UDK 633.368: 631.5: 338.43

YERYONG‘OQ (ARACHIS HYPOGAEA L.) NING XALQ XO‘JALIGIDAGI AHAMIYATI VA YETISHTIRISH TEXNOLOGILARINI TAHLILI

Yusupova Vasila To‘xtaniyozovna
Qarshi davlat texnika universiteti

Annotatsiya. Maqolada yeryong‘oq ekinining xalq xo‘jaligidagi ahamiyati, uning biologik xususiyatlari hamda yetishtirish texnologiyasining nazariy asoslari, yeryong‘oq yetishtirishda tuproq-iqlim sharoitlari, o‘g‘itlash va sug‘orish tizimining hosildorlikka ta’siri hamda navlari haqida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar: yeryong‘oq, moyli ekinlar, agrotexnologiya, hosildorlik, tuproq unumdorligi, ekin almashinuvi, qishloq xo‘jaligi.

Kirish. Bugungi kunda dunyo qishloq xo‘jaligida moyli ekinlarni yetishtirish muhim strategik yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Yeryong‘oq yuqori oziqaviy qiymatga ega bo‘lgan ekin sifatida oziq-ovqat sanoati, chorvachilik va qayta ishlash sanoatida keng qo‘llaniladi. Uning donida o‘rtacha 45–55 % yog‘, 25–30 % oqsil hamda ko‘plab biologik faol moddalar mavjud.O‘zbekiston sharoitida ham yeryong‘oq yetishtirish istiqbolli yo‘nalishlardan biri bo‘lib, uning agrotexnologiyasini ilmiy asosda takomillashtirish qishloq xo‘jaligi samaradorligini oshirishda muhim omil hisoblanadi.Yeryong‘oqning xalq xo‘jaligidagi ahamiyati ko‘p qirrali bo‘lib, u asosan oziq-ovqat sanoati, yog‘ ishlab chiqarish va chorvachilik tarmoqlarida keng qo‘llaniladi. Yeryong‘oq donidan olinadigan yog‘ yuqori sifatli bo‘lib, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishda, konserva sanoatida hamda margarin tayyorlashda ishlatiladi. U dukkakdosh o‘simlik sifatida tuproq unumdorligini oshirish xususiyatiga ega. Ildiz tizimida rivojlanadigan tugunak bakteriyalar atmosferadagi azotni o‘zlashtirib, tuproqni azot bilan boyitadi. Bu esa keyingi ekinlar hosildorligiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Tadqiqotning tahlili. Yeryong‘oq xalq xo‘jaligida juda muhim ekin turlaridan biri sanaladi chunki (xitoy yong‘og‘)-qimmatli moyli va oziq-ovqat o‘simligidir. Yeryong‘oq dunyoning juda ko‘p mamlakatlarida jami 23,7 mln. gektar maydonda yetishtirilib, gektariga o‘rtacha hosildorlik 1,4 tonnani tashkil etadi. Yetishtiriladigan eng ko‘p mahsulot Hindiston, Xitoy va Amerika Qo‘shma Shtatlarining ulishiga to‘g‘ri kelib, aynan shu mamlakatlarda yetishtirilgan mahsulotning 60-80% qayta ishlanadi [1].

Dunyo bo‘yicha eng yuqori hosildorlik Xitoy (2,5-3,0 t/ga) va Amerika Qo‘shma Shtatlarida (3,0-4,0 t/ga) qayd etilgan. Respublikamizda bu ko‘rsatgich o‘rtacha 1,5-1,8 t/ga dan, ilg‘or innovatsion yetishtirish texnologiyalari joriy etib parvarishlanganda, eng yo‘qori hosildorlik 3,7-4,1 t/ga tashkil etgan.Yeryong‘oq urug‘ining tarkibida 48-50% yengil hazm bo‘luvchi moy bo‘lib, sanoatda undan xushta’am “araxis” moyi ishlab chiqariladi. Yeryong‘oq moyi mazasi bo‘yicha zaytun moyidan qolishmaydi. [1]. Biokimyoviy jihatdan mevasi tarkibida 48-66 % gacha moy, 23-38 % gacha oqsil va 18-22 % gacha uglevod to‘playdi. Yong’oq ozuqa moddalari normal o‘sish va metabolism uchun zarur bo’lgan 20 ta, shu bilan birga 9 ta muhim aminokislotalar mavjud [5]. Yeryong‘oq oziq-ovqat oqsilining imkoniyat manbai va energiyaga boy mahsulot [3]

Yeryong‘oq moyidan turli sabzavot ekinlaridan yuqori sifatli konservalar va margarin tayyorlashda, qandolatchilik hamda parfumeriya sanoatida keng qo‘laniladi. Birgina qandolatchilik sohasida yeryong‘oq 60 dan ortiq mahsulotlar jumladan: is’temol moyi, shokoladlar, pechene, holva, kofe, konfet, muzqaymoq va boshqa mahsulotlar ishlab chiqarishda asosiy xomashyo hisoblanadi.Yeryong‘oq mag‘zi tarkibida moydan tashqari 26-28% yuqori sifatli yengil hazm bo‘luvchi oqsil, mineral va vitaminlar mavjud [2].

Biologiyasi. Yeryong‘oq issiqsevar, namsevar, yorug‘sevar va qisqa kun o‘simligidir.Yeryong‘oq issiqsevar o‘simlik hisoblanadi.Dala sharoitida yeryong‘oq urug‘lari 15-16 da 13-15 kunda, 19-20 da 10-11 kunda, 25-26 da esa 6-8 kunda unib chiqadi. Maysalar o‘nib chiqqandan keyingi 25-27 kunlari havo harorati o‘rtacha 25-30 bo‘lganda gullash jarayoni jadallashadi. Gullash davri vegetativ siklning 80% ni tashkil qiladi.Iyun-iyul oylarida boshlanadi. Poyasining ostidagi kleystogamli gullari ochilmaydi, yer ustki gullari o‘zidan changlanadi va urug‘lanishdan so‘ng gulbandi - ginofor hosil qiladi.U 5-6 kun yuqoriga qarab o‘sgach, pastga

qarab egiladi va tuproqqa 10 smgacha kiradi.Tuproq ostida meva hosil qiladi. Bu jarayonga geokarpiya deyiladi. Ginofor tuproq ostida dukkak hosil qiluvchi o‘simta [4].

Yeryong‘oq unumdor, g‘ovakli, yaxshi ishlov beriigan va begona o‘tlar bosmaydigan yerda mo‘l hosil beradi. Og‘ir sho‘rxok va botqoq tuproqlar yeryong‘oq uchun yaroqsizdir.Yeryong‘oq o‘simligining namlikka bo‘lgan munosabati.Yeryong‘oq faqat sug‘oriladigan yerlarda ekiladi. Yeryong'oq qurg‘oqchilikka chidamli o‘simlik bo‘lishi bilan birga namlikka talabchan hisoblanadi. O‘simlikning suvga bo‘lgan talabi o‘suv davrining bosqichlarida turlicha bo‘lib, maysalar unib chiqqanidan gullash davrigacha kam, gullash davrida maksimal va yong‘oqlaming yetilish davrida esa, o‘rtacha talabchan bo‘ladi. O‘simliklar to‘la undirib olingandan so‘ng tuproqning mexanik tarkibiga bog‘liq holda 15-20 kungacha suv berilmaydi. Bu davr ichida o‘simlikning ildizi namlikka intilib 25-30 sm chuqurlikgacha o‘sib boradi va yon ildizlaming ko‘plab shakllanishi oqibatda hosildorlikni oshishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi[1].

Yeryong‘oqning gullash davrida tuproq namligining me’yorda bo‘lishi fotosintez jarayonini jadallashishiga, bu o‘z navbatida esa ginoforlaming shakllanishini tezlashishiga olib keladi.Yong‘oqlami yetilish davrida namlikning keragidan ortiq bo‘lishi qobig‘ini qorayib qolishiga, bu esa urug‘laring sifati va bozorboplik xususiyatlariga salbiy ta’sir etadi.Yeryong‘oqning gullari changlangandan keyin tuguncha tez o‘sa boshlaydi, yerga qarab intiladi va tuproqning 8-10 sm chuqurligigacha kirib boradi [1].

Navlari. Dukkaklar tuproqda rivojlanadi. Shuning uchun tuproqning unumdor, toza, g‘ovak bo‘lishini talab qiladi. Havo harorati 38-40 °C ga ko‘tarilganda esa, gullash jarayoni sekinlashishi kuzatiladi. Yeryong'oq yetuklik davrida past haroratga ta‘sirchan bo‘lib, kuz faslidagi qisqa muddatli manfiy harorat ham o‘simlikni nobud qiladi. O‘zbekistonda “Toshkent-112”, “Qibray-4”, “Salomat”,“Mumtoz” va “Lider” navlari rayonlashtirilgan. [1].

Yeryong‘oq yetishtirish.Yeryong‘oq donli (bug‘doy, arpa, makkajo‘xori), kartoshka, izmevalilar, sabzavotlardan keyin ekiladi. Yeryong‘ oq dala ekinlari uchun yaxshi o‘tmishdosh bo‘lib hisoblanadi. Urug‘lik ekilguniga qadar quruq va salqin joyda saqlanishi zarur. Urug‘lik yong‘oqlami ehtiyotlik bilan qo‘lda chaqib tayyorlash tavsiya etiladi. Biroq yeryong‘oq urug‘igini qo‘lda chaqib tayyorlash mashaqqatli ish bo‘lib, katta maydonlarga ekishda maxsus chaqish aparatlaridan foydalanish tavsiya etiladi. Mexanizm yordamida urug‘lar qobig‘idan ajratilganda 10-15 foizgacha urug‘liklar mexanik zararlanadi.Shu sababdan ekish normasi 15-20 foizga ko‘paytirish maqsadga muvoflq hisoblanadi.

Urug‘lik solingan qoplar bilan juda ehtiyot bo‘lib harakat qilish zarur, chunki, ozgina noto‘g‘ri harakat orqasidan urug‘ning murtak qismi zararlanishi, oqibatda urug‘lik unuvchanligini yo‘qotishi yoki nimjon o‘simta berishi mumkin. Urug‘lik saqlash davomida zamburug‘ va hasharotlarga qarshi kimyoviy preparatlar bilan ishlanmagan bo‘lsa, ularga ekishdan 2-3 kun avval ishlov berilishi lozim va ishlov berishda uning murtak qismi zararlanmasligi talab etiladi.

Yeryong‘oq asosiy ekin sifatida ekilganda bahorda tuproq namiga undirib olinadi. Ayrim hollarda bahor quruq kelib, tuproq namligi yetarli bo‘lmasa pushtalar qator oralatib, qondirib sug‘oriladi. Biroq pushtani suv bosishiga yo‘l qo‘ymaslik muhim ahamiyatga ega. Yeryong‘oq o‘simligini yetishtirishda undan mo‘l hosil olishning asosiy omillaridan biri ekinning suvga bo‘gan talabiga qarab uni suv bilan yetarli darajada ta’minlashdir.

O‘g‘itlash. Dalani o‘g‘itlash me’yori, tanlangan maydondan olingan agrokimyo tahlil natijalariga qarab belgilanadi. Yeryong‘oq organik moddalarga boy tuproqlarda yaxshi rivojlanadi. Sug‘oriladigan maydonlarda birinchi oziqlantirish ko‘chatlar to‘liq unib chiqqandan keyin gullashdan oldin, azot (sof holda) 30 kg/ga, fosfor 30 kg/ga hisobida beriladi. Jo‘yaklar olishdan oldin tuproq unumdorligiga asoslangan holda gektariga 250-400 kg/ga ammofos (fizik holda) berish ham yaxshi natija beradi.

Yeryong‘oq ekinidan mo‘l va sifatli hosil yetishtirishda meniral va organik o‘g‘itlarning ta‘siri yuqori bo‘lib hisoblanadi.Azotli fosforli va kaliyli o‘g‘itlarni qollash me‘yorini tuproq- iqlim sharoitidan kelib chiqqan holda belgilash maqsadga muofiq **[2;.]**



1-rasm. Yeryong‘oq yetishtirish agrotexnikasi.

Xulosa qilib aytganda moyli o‘simliklardan biri hisoblangan yeryong‘oq (Arachis hypogeae) turi tarkibida yuqori oziqaviy qiymatga ega ko‘rsatkichlarining yuqoriligi, vitamin, makro-makro elementlarga hamda oqsil, moy, uglevodlarga boyligi o‘simlikning ozuqaviy ahamiyatini ham oshirib beradi. Shu bilan birga jahon sanoat tarmog‘ida o‘z o‘rniga ega bo‘lib, yeryong‘oq donidan olinadigan yog‘ yuqori sifatli bo‘lib, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishda, konserva sanoatida hamda margarin tayyorlashda ishlatiladi va mahsulotlarni ishlab chiqarishda ham asosiy xom-ashyo sifatida foydalanilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. X.N.Atabayeva, J.B. Xudayqulov O‘simlikshunoslik. -Toshkent.: “Fan va texnologiya”. 2018-yil. B. 336-348.

2. Аманov M., Rustamov N., Allanazarovna L., Xudayqulov J. Yeryong‘oq ekinini yetishtirish agrotexnikasi bo‘yicha tavsiyanioma “NISM” CH-K 1,5 B.T. Toshkent 2016-yil. B. 14.

3. Apekshita Singh, Soom Nath Raina, Manisha Sharma, Manju Chaudhary, Suman Sharma, Vijay Rani Rajpal Functional Uses of Peanut (Arachis hypogaea L.) Seed Storage Proteins. // Intechopen. P. 1-21.

4. Xodjamova M.K., Matniyazova H.X., Karshibayeva D.N., Salohiddinova M.M., Kurbanbayev I.Dj., Nabiyev S.M. Yeryong‘oq o‘simligining morfobiologik xususiyatlari va ahamiyati //Academic research in educational sciences, Volume 3. Issue 6. 2022 y. P. 421-427.

5. D.Mirzaraximov**.** Yeryong‘oq (*Arachis hypogeae* L.) o‘simligining biologic xususiyatlari. Agro ilm – O‘zbekiston qishloq va suv xo‘jaligi 5 -son 2025-yil. B. 98.

UDK: 664.8.047:634.11

MAHALLIY OLMA NAVLARI, ULARNING TAVSIFI VA QURITISH USULLARINING QURITILGAN MAHSULOT SIFATIGA TA’SIRI

Saydalov F.M
Qarshi davlat texnika universiteti

Annotatsiya. Ushbu maqolada O‘zbekiston sharoitida yetishtiriladigan mahalliy olma navlarining (Semerenko, Golden Delishes) biokimyoviy tarkibi va ularni quritishning turli usullari tadqiq etilgan. Quritish usullarining (konvektiv, quyosh va infraqizil) tayyor mahsulotning organoleptik va fizik-kimyoviy ko‘rsatkichlariga ta’siri qiyosiy tahlil qilingan. Tadqiqot natijasida eng yuqori sifat ko‘rsatkichlariga ega bo‘lgan texnologik rejimlar aniqlangan.

Kalit so‘zlar: Olma, quritish texnologiyasi, konveksiya, infraqizil nurlanish, namlik, quruq modda, sifat nazorati.

1. KIRISH. O‘zbekiston Respublikasida oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash va meva-sabzavot mahsulotlarini qayta ishlash sanoatini rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biridir. Olma mevalari tarkibida inson organizmi uchun zarur bo‘lgan pektin, kletchatka, vitaminlar va organik kislotalarning boy manbai hisoblanadi. Biroq, yangi uzilgan olma mevalarining saqlanish muddati cheklangan bo‘lib, hosilning salmoqli qismi qayta ishlashga

yo‘naltiriladi.

Quritish — mevalarni uzoq muddat saqlashning eng qadimgi va samarali usullaridan biri bo‘lib, u mahsulot hajmini kamaytirish va mikrobiologik barqarorlikni ta’minlash imkonini beradi. Hozirgi kunda an’anaviy quyoshda quritish usullaridan voz kechib, energiya tejamkor va mahsulot sifatini to‘liq saqlab qoluvchi zamonaviy texnologiyalarni qo‘llash dolzarb ilmiy muammo hisoblanadi. Ushbu tadqiqot mahalliy olma navlarining quritishga mosligini aniqlash va sifatli quruq mahsulot olish usullarini takomillashtirishga qaratilgan.

2. MATERIAL VA METODLAR

Tadqiqotlar Qashqadaryo viloyatining bog‘dorchilik xo‘jaliklaridan olingan ikki xil mahalliy olma navi ustida olib borildi:

1. **Renet Simirenko:** Yuqori nordonlikka ega, go‘shti zich.
2. **Golden Delishes:** Shira miqdori yuqori, xushbo‘y hidli.

Tayyorgarlik jarayoni: Mevalar saralandi, yuvildi, o‘zagi olib tashlandi va qalinligi 5-6 mm bo‘lgan halqa shaklida kesildi. Oksidlanishni (qorayishni) oldini olish uchun 1% li limon kislotasi eritmasida ishlov berildi.

1-jadval.

Mahalliy olma navlarining quritishdan oldingi tavsifi

Nav nomi	| O‘rtacha vazni (g)	Quruq modda (%)	Qand miqdori (%)	Nordonlik (kislotalilik)
Semerenko	185	14.2	10.5	0.65
Golden Delishes	160	15.8	13.2	0.42

Quritish tajribalari uch xil usulda amalga oshirildi:

1-usul: Quyoshda quritish (havo harorati 35-40 °C, nisbiy namlik 20-25 %).

2-usul: Konvektiv quritish (laboratoriya sharoitida, T = 65 °C, havo harakati tezligi v = 1.5 m/s).

3-usul: Infraqizil (IQ) quritish (T = 50-55 °C, nurlanish to‘lqin uzunligi 2-4 μm).

2-jadval.

Quritish usullarining mahsulot sifatiga ta’siri (100 g mahsulotda)

Quritish usuli	Tayyor mahsulot namligi (%)	S vitamini (mg/%)	Rang ko‘rsatkichi	Ta’m (5 ballik)
Quyoshda	16.5	4.2	Jigarrang	3.5
Konvektiv	14.0	8.5	Och sariq	4.2
Infraqizil	12.5	14.8	Tabiiy (oq-sariq)	4.9

Tahlillar: Tayyor mahsulotdagi namlik miqdori va S vitamini saqlanishi standart laboratoriya usullarida aniqlandi.

3-jadval.

Quritish usullari bo‘yicha namlik kamayishining vaqtga bog‘liqligi (%)

Vaqt (daqiqa)	**Quyoshda quritish (%)**	**Konvektiv usul (%)**	**IQ-quritish usuli (%)**
0 (Boshlang‘ich)	85.0	85.0	85.0
60	82.5	78.2	70.4
120	80.1	65.4	48.2
180	78.4	52.8	32.5
240	76.5	40.2	20.8
300	74.2	28.6	12.5 (Tayyor)
360	72.0	18.2	-
420	70.5	13.0 (Tayyor)	-

3. NATIJALAR

Olingan natijalar shuni ko‘rsatadiki, olma navlarining tarkibidagi quruq moddalar miqdori quritish muddatiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Quritish jarayonining kinetikasi o‘rganilganda, IQ usuli eng yuqori tezlikni namoyon qildi.

3.1. Olma namunalarining qurish dinamikasi tahlili

Tajriba davomida “Golden Delishes” navining qurish jarayoni har 30 daqiqada nazorat qilib

borildi. Namlikning kamayishi quyidagi jadvalda ifodalangan:

Quyidagi diagrammada namlikning kamayish dinamikasi aks etgan:



Yuqoridagi jadval va grafikdan ko‘rinib turibdiki, IQ-quritish usulida mahsulot 300 daqiqa (5 soat) ichida konditsion namlikka (12.5 %) yetgan bo‘lsa, konvektiv usulda bu jarayon 420 daqiqa (7 soat) davom etdi. Quyoshda quritishda esa 7 soat ichida namlik atigi 14.5 % ga kamaydi, xolos.

4. MUHOKAMA

Tadqiqot natijalari tahlili shuni ko‘rsatadiki, “Golden Delishes” navi qand miqdori yuqoriligi sababli quritish jarayonida karamellanishga moyil, ammo organoleptik jihatdan eng mazali mahsulot beradi. “Semerenko” navi esa quritilgandan so‘ng o‘zining zich teksturasini yaxshi saqlab qoladi.

Quritish usullarining samaradorligi haqida gapirganda, quyoshda quritish usuli iqtisodiy tejamkor bo‘lsa-da, mahsulot sifati (ayniqsa S vitamini) keskin kamayishi kuzatildi. Bu ultrabinafsha nurlarining to‘g‘ridan-to‘g‘ri ta’siri bilan izohlanadi.

Konvektiv usulda issiqlik o‘tkazuvchanlik ko‘rsatkichi quyidagicha ifodalanadi:

$Nu = 0.023 \cdot Re^{0.8} \cdot Pr^{0.4}$

Bu yerda issiqlik almashinuvi sirt orqali sodir bo‘ladi, natijada meva sirtida qattiq qobiq hosil bo‘lib, namlik chiqishini qiyinlashtiradi.

Infraqizil nurlar esa meva to‘qimalariga 2-3 mm chuqurlikkacha kirib borib, namlikni ichkaridan haydaydi. Bu jarayonda mahsulot harorati past bo‘lsa-da, namlik bug‘lanishi jadallashadi. Bu esa vitaminlar va fermentlarning parchalanishini minimallashtiradi.

“Tadqiqot natijalarining qiyosiy tahlili shuni ko‘rsatadiki, quritish jarayonining tezligi issiqlik o‘tkazuvchanlik koeffitsiyentiga (() bog‘liq. IQ-nurlanishda issiqlik oqimi zichligi q = 5-10 kVt/m^2 ni tashkil etib, bu konvektiv usuldan 3-4 baravar yuqoridir.

№	Sebargani haydash muddatlari	Tuproq qatlamlar, sm	G‘o‘za parvarishlashning 1-yili			G‘o‘za parvarishlashning 2-yili		
			Harakatchan shakllari, mg/kg					
			$N\text{-}NO_3$	P_2O_5	K_2O	$N\text{-}NO_3$	P_2O_5	K_2O
1	Yozgi haydov o‘tkazilgan variantlar	0-30	7,9	10,4	68,1	7,1	9,4	61,3
		30-50	5,7	6,9	58,7	5,1	6,2	52,8
2		0-30	11,9	14,3	92,6	11,1	13,3	85,9
		30-50	9,1	10,2	75,3	8,4	9,5	69,9
3		0-30	13,9	16,8	93,1	13,4	16,2	89,7
		30-50	10,9	11,8	75,9	10,5	11,4	73,2
4		0-30	14,1	17,2	93,6	13,6	16,6	90,5
		30-50	11,2	12,1	76,4	10,8	11,7	73,9
5	Kuzgi haydov o‘tkazilgan variantlar	0-30	8,6	11,8	74,9	7,8	10,7	68,2
		30-50	6,7	7,7	63,2	6,1	7,0	57,6
6		0-30	13,0	17,1	98,9	12,1	15,9	92,2
		30-50	11,7	13,8	80,4	10,9	12,9	74,9
7		0-30	17,3	19,6	99,8	16,7	19,0	96,6
		30-50	14,6	15,2	80,9	14,1	14,7	78,3
8		0-30	18,7	20,1	100,2	18,1	19,5	97,2
		30-50	15,1	15,7	81,6	14,6	15,2	79,2
9	Bahorgi haydov o‘tkazilgan variantlar	0-30	8,1	11,2	68,8	7,3	10,2	62,4
		30-50	6,2	7,1	52,1	5,6	6,4	47,3
10		0-30	13,1	16,2	92,0	12,2	15,1	85,6
		30-50	9,7	11,5	71,9	9,0	10,7	66,9
11		0-30	16,0	17,9	96,7	15,5	17,3	93,4
		30-50	12,3	13,2	79,7	11,9	12,8	77,0
12		0-30	16,4	18,5	98,6	15,9	17,9	95,5
		30-50	13,2	14,1	80,9	12,8	13,7	78,4

Tadqiqot natijalariga asoslanib xulosa qilish mumkinki, och tusli bo‘z tuproqlar sharoitida sebargani yozda haydab, undan so‘ng 2 yil davomida g‘o‘za parvarishlashda tuproqdagi ozuqa moddalarining xarakatchan shakllari nitratli azot, xarakatchan fosfor, almashinuvchi kaliy madan o‘gitlarni $N_{160}P_{110}K_{80}$ kg/ga meyorda qo‘llanilgan variantda o‘g‘itsiz nazorat variantga nisbatan 0-30 sm qatlamida tegishlicha 6,3; 6,8; 28,4 mg/kg , 30-50 sm qatlamda esa 5,4; 5,2; 11,9 mg/kg, madan o‘gitlarni $N_{200}P_{140}K_{100}$ kg/ga meyorda qo‘llanilgan variantda 0-30 sm qatlamida tegishlicha 6,5; 7,2; 29,2 mg/kg, 30-50 sm qatlamda esa 5,7; 5,5; 21,1 mg/kg, sebargani kuzda haydab, undan so‘ng 2 yil davomida g‘o‘za parvarishlashda ma’dan o‘g‘itlarni $N_{160}P_{110}K_{80}$ kg/ga meyorda qo‘llanilgan variantda 0-30 sm qatlamida tegishlicha 8,9; 8,3; 28,4 mg/kg, 30-50 sm qatlamda esa 8,0; 7,7; 20,7 mg/kg, madan o‘gitlarni $N_{200}P_{140}K_{100}$ kg/ga meyorda qo‘llanilgan variantda 0-30 sm qatlamida tegishlicha 10,3; 8,8; 29,0 mg/kg, 30-50 sm qatlamda esa 8,5; 8,2; 21,6 mg/kg, sebargani bahorda haydab, undan so‘ng 2 yil davomida g‘o‘za parvarishlashda ma’dan o‘g‘itlarni $N_{160}P_{110}K_{80}$ kg/ga meyorda qo‘llanilgan variantda 0-30 sm qatlamida tegishlicha 8,2; 7,1; 31,0 mg/kg, 30-50 sm qatlamda esa 6,3; 6,4; 29,7 mg/kg, madan o‘gitlarni $N_{200}P_{140}K_{100}$ kg/ga meyorda qo‘llanilgan variantda 0-30 sm qatlamida tegishlicha 8,6; 7,7; 33,1 mg/kg ni, 30-50 sm qatlamda esa 7,2; 7,3; 31,1 mg/kg ga ortgan.

Xulosa. Demak, olib borilgan tadqiqot natijalaridan shuni xulosa qilish mumkinki, sebargani kuzda haydash yozgi va bahorgi haydashga nisbatan maqbul variantlarda tuproqning 0-30 sm qatlamida tegishlicha nitratli azotning miqdori 3,3-1,2; 4,5-2,2 mg/kg ga, xarakatchan fosfor 2,8-1,7; 2,9-1,6mg/kg ga, almashinuvchi kaliy 6,9-3,2; 6,7-1,7 mg/kg ga, 30-50 sm qatlamida nitratli azot 3,6-2,2; 3,8-1,3 mg/kg ga, xarakatchan fosfor 3,3-1,9; 3,5-1,5 mg/kg ga, almashinuvchi kaliy

esa 5,1-1,3; 5,3-0,8 mg/kg ga yaxshilangan. Bu esa o‘z navbatida kuzgi bug‘doy orasida sebarga parvarishlab kuzda shudgor qilish hisobiga g‘o‘zada ma’dan o‘g‘itlarni 20-21% kamaytirish mumkinligini asoslaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Dala tajribalarini o‘tkazish uslublarii. Toshkent. O‘zPITI 2007. 148 b

2. Методи агрохимических анализов почв и растений. -Ташкент, Мехнат, 1977.-С. 228.

3. Namozov F.B., Iminov A.A. Qisqa navbatli almashlab ekish tizimlarida etishtirilgan ekinlarni tuproq unumdorligiga ta’siri. //G‘o‘za seleksiyasi, urug‘chiligi va etishtirish agrotexnologiyalarining dolzarb muammolari hamda uni rivojlantirish istiqbollari mavzusidagi Respublika ilmiy amaliy konferensiyasi materiallari to‘plami. Toshkent, 2017. B.255-258.

4. Tkachuk O.P., Verhelis V.I. Nfluence of fertilizers on indicators of the agro-ecological condition of the soil. Ministerstvo osviti i nauki Ukraini Xersonskiy derjavniy agrarno-ekonomichniy universitet Tavriyskiy naukoviy visnik Silskogospodarski nauki Vipusk 132 Vidavnichiy dim «Gelvetika» 2023 R-210-224

5. Tursunov I., O‘razmatov N. Oraliq ekinlar – vika va rapsning tuproqda ildiz massa to‘plashi va ko‘k massa hosildorligi. //O‘zbekiston qishloq xo‘jaligi jurnali. 2018 y. №9. b.36-37.

6. Tursunov I., O‘razmatov N. Vika va raps ekinlarini takroriy-oraliq ekin sifatida etishtirishning tuproq agrofizik va agrokimyoviy xossalariga ta’siri. // O‘zbekiston qishloq xo‘jaligi jurnalining Agro ilm ilmiy ilovasi. 2018 y. №4 (54). B. 69-70.

G.HIRSUTUM L. TURIGA MANSUB RANGLI TOLALI G‘O‘ZA BILAN CHATISHTIRIB OLINGAN BA’ZI DURAGAYLARNING QIMMMATLI-XO‘JALIK BELGILARI

Nabiyev S. M., Xamdullayev Sh.A.

O‘zRFA, Genetika va o‘simliklar eksperimental biologiyasi instituti

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Gossypium hirsutum L. turiga mansub rangli tolali g‘o‘za namunalarini turli mahalliy va seleksion navlar bilan chatishtirish orqali olingan duragaylarning qimmatli-xo‘jalik belgilarini baholash maqsad qilingan. Tadqiqot jarayonida yashil tolali g‘o‘za namunalarini oq tolali navlar va boshqa rangli tolali shakllar bilan chatishtirish natijasida olingan F_0 duragay ko‘saklarida paxtaning og‘irligi, tola chiqimi, 1000 ta chigit og‘irligi hamda ko‘sakdagi chigitlar soni kabi muhim ko‘rsatkichlar tahlil qilindi. Natijalar duragay ko‘saklarida ushbu belgilar bo‘yicha sezilarli farqlar mavjudligini ko‘rsatdi. Ayrim kombinatsiyalarda tola chiqimi va boshqa qimmatli belgilar nisbatan yuqori darajada namoyon bo‘lib, seleksiya jarayonida istiqbolli boshlang‘ich material sifatida foydalanish mumkinligi aniqlandi. Olingan natijalar rangli tolali g‘o‘za navlarini yaratish va ularning qimmatli-xo‘jalik belgilarini yaxshilashda muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.*

Kalit so‘zlar. *rangli tolali g‘o‘za, duragaylash, duragay, tola chiqimi, qimmatli-xo‘jalik belgilar, seleksiya.*

Kirish. O‘zbekiston respublikasida eng o‘tkir ekologik muammo bo‘lgan suv tanqisligiga chidamli g‘o‘za navlarini yaratish, xususan, ekologik sof tola mahsuloti beradigan, tola sifati va chiqimi, boshqa qimmatli-xo‘jalik belgilarining ko‘rsatkichlari ham yuqori bo‘lgan rangli tolali seleksion ashyolar olish, maqsadida mahalliy g‘o‘za kolleksiyasidagi namunalar oq va sifatli tolaga ega mahalliy navlar bilan hamda o‘zaro va ingichka tolali nav bilan chatishtirilib, duragay F_0 ko‘saklari olindi va tahlil qilindi. Jumladan, yashil tolali 011302 namunasi bilan oq tolali Afsona g‘o‘za navini chatishtirib olingan F_0 duragay ko‘saklari tahlil qilinganda, ba’zi qimmatli –xo‘jalik ko‘rsatkichlari quyidagicha bo‘ldi: № 1 - ko‘sak besh chanoqli, paxtasining og‘irligi - 5,28 g., tola chiqimi – 23,4%, 1000 ta chigit og‘irligi – 122,6 g., ko‘sakdagi chigitlar soni 33 ta; № 2 - ko‘sak to‘rt chanoqli, paxtasining og‘irligi - 4,27 g., tola chiqimi - 26,5%, 1000 ta chigit og‘irligi – 112,2 g., ko‘sakdagi chigitlar soni - 28 ta; № 3 - ko‘sak besh chanoqli, paxtasining og‘irligi - 3,54 g., tola chiqimi – 22,6 %, 1000 ta chigit og‘irligi – 109,6 g., ko‘sakdagi chigitlar soni - 25 ta; № 4 - ko‘sak besh chanoqli, paxtasining og‘irligi - 3,66 g., tola chiqimi – 15,1 %, 1000 ta chigit og‘irligi – 135,1 g., ko‘sakdagi chigitlar soni - 23 ta; № 5 - tola chiqimi – 25,6 %, 1000 ta chigit og‘irligi – 112,7 g.; № 6 - ko‘sak to‘rt chanoqli, tola chiqimi – 22,4 %, 1000 ta chigit og‘irligi – 123,5 g.

Yashil tolali 011302 namunasi bilan oq tolali Sadaf g‘o‘za navini chatishtirib olingan F_0 duragay ko‘saklarida ba’zi qimmatli –xo‘jalik ko‘rsatkichlari quyidagicha bo‘ldi: № 1 - ko‘sak besh chanoqli, paxtasining og‘irligi - 3,64 g., tola chiqimi – 21,9%, 1000 ta chigit og‘irligi – 142,1 g., ko‘sakdagi chigitlar soni 20 ta; № 2 - ko‘sak besh chanoqli, paxtasining og‘irligi - 4,56 g., tola chiqimi – 22,6%, 1000 ta chigit og‘irligi – 107,1 g., ko‘sakdagi chigitlar soni 33 ta; № 3 - ko‘sak besh chanoqli, paxtasining og‘irligi - 4,12 g., tola chiqimi – 23,9%, 1000 ta chigit og‘irligi – 120,5 g., ko‘sakdagi chigitlar soni 26 ta; № 4 - ko‘sak besh chanoqli, paxtasining og‘irligi - 3,36 g., tola chiqimi – 26,0%, 1000 ta chigit og‘irligi – 103,5 g., ko‘sakdagi chigitlar soni 24 ta; № 5 - ko‘sak to‘rt chanoqli, paxtasining og‘irligi - 2,96 g., tola chiqimi – 16,4%, 1000 ta chigit og‘irligi – 118,0 g., ko‘sakdagi chigitlar soni 21 ta; № 6 - ko‘sak to‘rt chanoqli, paxtasining og‘irligi - 4,82 g., tola chiqimi – 27,7%, 1000 ta chigit og‘irligi – 89,3 g., ko‘sakdagi chigitlar soni – 39 ta; № 7 - ko‘sak to‘rt chanoqli, paxtasining og‘irligi - 2,60 g., tola chiqimi – 15,3%, 1000 ta chigit og‘irligi – 116,1 g., ko‘sakdagi chigitlar soni – 19 ta; № 8 - ko‘sak besh chanoqli, paxtasining og‘irligi - 4,35 g., tola chiqimi – 24,8%, 1000 ta chigit og‘irligi – 99,0 g., ko‘sakdagi chigitlar soni – 33 ta; № 9 - ko‘sak besh chanoqli, paxtasining og‘irligi - 3,27 g., tola chiqimi – 23,9%, 1000 ta chigit og‘irligi – 99,5 g., ko‘sakdagi chigitlar soni – 25 ta; № 10 - ko‘sak besh chanoqli, paxtasining og‘irligi - 3,45 g., tola chiqimi – 28,5%, 1000 ta chigit og‘irligi – 91,5 g., ko‘sakdagi chigitlar soni – 27 ta;

Yashil tolali 011302 namunasi bilan oq tolali Guliston g‘o‘za navini chatishtirib olingan F_0 duragay ko‘saklarida bu ko‘rsatkichlar quyidagicha bo‘ldi: № 1 - ko‘sak besh chanoqli, paxtasining og‘irligi - 2,99 g., tola chiqimi – 19,1%, 1000 ta chigit og‘irligi - 105.2 g., ko‘sakdagi chigitlar soni 23 ta; № 2 - ko‘sak besh chanoqli, paxtasining og‘irligi - 3,70 g., tola chiqimi – 28,3%, 1000 ta chigit og‘irligi – 147,3 g., ko‘sakdagi chigitlar soni 18 ta; № 3 - ko‘sak besh chanoqli, paxtasining og‘irligi - 3,89 g., tola chiqimi – 19,5%, 1000 ta chigit og‘irligi – 125,4 g., ko‘sakdagi chigitlar soni 25 ta; № 4 - ko‘sak to‘rt chanoqli, paxtasining og‘irligi - 3,55 g., tola chiqimi – 22,6%, 1000 ta chigit og‘irligi – 119,5 g., ko‘sakdagi chigitlar soni 23 ta; № 5 - ko‘sak besh chanoqli, paxtasining og‘irligi - 3,24 g., tola chiqimi – 23,5%, 1000 ta chigit og‘irligi – 112,8 g., ko‘sakdagi chigitlar soni 22 ta; № 6 - ko‘sak besh chanoqli, paxtasining og‘irligi - 2,78 g., tola chiqimi – 22,5%, 1000 ta chigit og‘irligi – 126,9 g., ko‘sakdagi chigitlar soni 17 ta; № 7 - ko‘sak besh chanoqli, paxtasining og‘irligi - 3,05 g., tola chiqimi – 17,0%, 1000 ta chigit og‘irligi – 101,4 g., ko‘sakdagi chigitlar soni 25 ta; № 8 - ko‘sak besh chanoqli, paxtasining og‘irligi - 2,72 g., tola chiqimi – 23,0%, 1000 ta chigit og‘irligi – 110,2 g., ko‘sakdagi chigitlar soni 19 ta.

Yashil tolali 011302 namunasi bilan to‘q qo‘ng‘ir tolali shaklni chatishtirib olingan F_0 duragay ko‘saklari tahlil qilinganda qimmatli –xo‘jalik ko‘rsatkichlar quyidagicha bo‘ldi: № 1 - ko‘sak besh chanoqli, paxtasining og‘irligi - 5,67 g., tola chiqimi – 26,5%, 1000 ta chigit og‘irligi – 130,3 g., ko‘sakdagi chigitlar soni 32 ta; № 2 - ko‘sak besh chanoqli, paxtasining og‘irligi - 3,98 g., tola chiqimi – 27,7%, 1000 ta chigit og‘irligi – 99,4 g., ko‘sakdagi chigitlar soni 29 ta. Yashil tolali 011302 namunasi bilan qo‘ng‘ir tolali 09965 namunasini chatishtirib olingan F_0 duragay ko‘sagida tola chiqimi – 39,2%, 1000 ta chigit og‘irligi – 149,8 g., ko‘sakdagi chigitlar soni 36 ta bo‘ldi.

Yashil tolali 011302 namunasi bilan oq tolali Gulshan navini chatishtirib olingan F_0 duragay ko‘saklarining qimmatli –xo‘jalik ko‘rsatkichlari quyidagicha bo‘ldi: № 1 - ko‘sak to‘rt chanoqli, paxtasining og‘irligi - 4,35 g., tola chiqimi – 23,4%, 1000 ta chigit og‘irligi – 119,0 g., ko‘sakdagi chigitlar soni 28 ta; № 2 - ko‘sak besh chanoqli, paxtasining og‘irligi - 3,13 g., tola chiqimi – 34,0%, 1000 ta chigit og‘irligi – 103,4 g., ko‘sakdagi chigitlar soni 20 ta; № 3 - ko‘sak besh chanoqli, paxtasining og‘irligi - 2,70 g., tola chiqimi – 22,0%, 1000 ta chigit og‘irligi – 110,8 g., ko‘sakdagi chigitlar soni 19 ta;

Yashil tolali 011302 va 010764 namunalarini o‘zaro chatishtirib olingan F_0 duragay ko‘saklarining ko‘rsatkichlari quyidagicha bo‘ldi: № 1 - ko‘sak besh chanoqli, paxtasining og‘irligi - 4,68 g., tola chiqimi – 39,6%, 1000 ta chigit og‘irligi – 128,5 g., ko‘sakdagi chigitlar soni 22 ta; № 2 - ko‘sak besh chanoqli, paxtasining og‘irligi - 2,36 g., tola chiqimi – 31,2%, 1000 ta chigit og‘irligi – 81,2 g., ko‘sakdagi chigitlar soni 20 ta;

Yashil tolali 010764 namunasini oq tolali Mayin tolali navi bilan chatishtirib olingan F_0 duragay ko‘sagi tahlil qilinganda, uning besh chanoqli ekanligi, paxtasining og‘irligi - 5,24 g., tola chiqimi – 23,9%, 1000 ta chigit og‘irligi – 137,5 g., ko‘sakdagi chigitlar soni 29 ta ekanligi

aniqlandi.

Bundan tashqari, yashil tolali 011302 namunasi bilan ingichka tolali *G.barbadense* L. turiga mansub g‘o‘za navini chatishtirib olingan F_0 duragay ko‘saklari tahlil qilindi. Bunda olingan ko‘saklarining qimmatli –xo‘jalik ko‘rsatkichlari quyidagicha bo‘ldi: № 1 - ko‘sak besh chanoqli, paxtasining og‘irligi - 4,67 g., tola chiqimi – 23,1%, 1000 ta chigit og‘irligi – 123,8 g., ko‘sakdagi chigitlar soni 29 ta; № 2 - ko‘sak besh chanoqli, paxtasining og‘irligi - 2,82 g., tola chiqimi - 24,8%, 1000 ta chigit og‘irligi – 96,3 g., ko‘sakdagi chigitlar soni - 22 ta; № 3 - ko‘sak besh chanoqli, paxtasining og‘irligi - 6,08 g., tola chiqimi – 26,7 %, 1000 ta chigit og‘irligi – 108,7 g., ko‘sakdagi chigitlar soni - 41 ta; № 4 - ko‘sak besh chanoqli, paxtasining og‘irligi - 3,95 g., tola chiqimi – 27,1 %, 1000 ta chigit og‘irligi – 102,8 g., ko‘sakdagi chigitlar soni - 28 ta; № 5 – ko‘sak besh chanoqli, paxtasining og‘irligi - 3,87 g., tola chiqimi – 26,1 %, 1000 ta chigit og‘irligi – 110,0 g., ko‘sakdagi chigitlar soni - 26 ta; № 6 – ko‘sak paxtasining og‘irligi - 2,97 g., tola chiqimi – 25,8 %, 1000 ta chigit og‘irligi – 105,1 g., ko‘sakdagi chigitlar soni - 21 ta; № 7 – ko‘sak paxtasining tola chiqimi – 29,7 %, 1000 ta chigit og‘irligi – 82,6 g.; № 8 – ko‘sak besh chanoqli, paxtasining og‘irligi - 2,85 g., tola chiqimi – 18,8 %, 1000 ta chigit og‘irligi – 153,9 g., ko‘sakdagi chigitlar soni - 15 ta; № 9 – ko‘sak to‘rt chanoqli, paxtasining og‘irligi - 2,12 g., tola chiqimi – 25,1 %, 1000 ta chigit og‘irligi – 122,1 g., ko‘sakdagi chigitlar soni - 13 ta; № 10 – ko‘sak besh chanoqli, paxtasining og‘irligi - 4,75 g., tola chiqimi – 19,9 %, 1000 ta chigit og‘irligi – 131,1 g., ko‘sakdagi chigitlar soni - 29 ta; № 11 – ko‘sak besh chanoqli, paxtasining og‘irligi - 2,46 g., tola chiqimi – 23,7 %, 1000 ta chigit og‘irligi – 110,6 g., ko‘sakdagi chigitlar soni - 17 ta; № 12 – ko‘sak besh chanoqli, paxtasining og‘irligi – 3,75 g., tola chiqimi – 21,2 %, 1000 ta chigit og‘irligi – 105,6 g., ko‘sakdagi chigitlar soni - 28 ta; № 13 – ko‘sak to‘rt chanoqli, paxtasining og‘irligi – 2,79 g., tola chiqimi – 17,3 %, 1000 ta chigit og‘irligi – 104,7 g., ko‘sakdagi chigitlar soni - 22 ta.

Xulosalar. Tadqiqotlarimiz F_0 duragay ko‘saklarining qimmatli-xo‘jalik ko‘rsatkichlari ma’lum darajada farq qilishini va tahlil asosida g‘o‘zaning ekologik sof rangli tola mahsuloti beradigan noyob boshlang‘ich ashyolarini ajratib olish mumkinligini ko‘rsatdi.

UDK 636.39.034

ZAANEN ECHKI ZOTI — O‘ZBEKISTONDA SUT ISHLAB CHIQARISHNI OSHIRISH MANBAI VA ISTIQBOLLARI

Nurullayev R. Ya., Orziyev E.O.
Qarshi davlat texnika universiteti (QarDTU)

Annotatsiya: *Maqolada zaanen zotining O‘zbekiston sharoitida parvarishlanishi, sut mahsuldorligi va morfologik ko‘rsatkichlari tahlili qilingan. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, zaanen zoti mahalliy zotlarga nisbatan sut mahsuldorligi va iqtisodiy samaradorligi bo‘yicha ustunlikka ega. Sutning kimyoviy tarkibi ham qayta ishlash sanoati talablariga mos keladi. Iqtisodiy tahlil natijalari ko‘rsatadiki, zaanen zoti foyda va rentabellikni oshirish imkoniyatini beradi. Maqola natijalari O‘zbekistonda sutchilik sohasini rivojlantirish, fermer xo‘jaliklari va sanoatda intensiv texnologiyalar joriy etish uchun amaliy tavsiyalar taqdim etadi.*

Kalit so‘zlar: *zaanen zoti, echkichilik, sut mahsuldorligi, sut tarkibi, morfologik ko‘rsatkichlar, iqtisodiy samaradorlik, sutchilik sanoati*

Аннотатсия: *В стате проведён анализ разведения породы Заанен в условиях Узбекистана, а также исследованы показатели молочной продуктивности и морфологические характеристики. Результаты исследования показали, что порода Заанен превосходит местные породы по молочной продуктивности и экономической эффективности. Химический состав молока соответствует требованиям перерабатывающей промышленности. Экономический анализ демонстрирует, что содержание коз Заанен позволяет повысит прибыл и рентабелност. Полученные данные имеют практическое значение для развития молочного животноводства в Узбекистане и внедрения интенсивных технологий на фермах и перерабатывающих предприятиях.*

Ключевые слова: *Заанен, козоводство, молочная продуктивность, состав молока, морфологические показатели, экономическая эффективность, молочная промышленность*

Abstract: *The article analyzes the breeding of the Saanen goat breed under the environmental conditions of Uzbekistan, investigating its milk productivity and morphological characteristics. The research results demonstrate that the Saanen breed surpasses local breeds in terms of milk yield and economic efficiency. The chemical composition of the milk meets the requirements of the dairy processing industry. Economic analysis shows that raising Saanen goats allows for increased profits and overall profitability. The findings are of practical importance for the development of the dairy industry in Uzbekistan and the implementation of intensive technologies in both farms and processing enterprises.*

Keywords: *Saanen, goat breeding, milk productivity, milk composition, morphological characteristics, economic efficiency, dairy industry.*

Kirish

Bugungi kunda O‘zbekiston qishloq xo‘jaligida oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash, aholini sifatli va arzon mahsulotlar bilan barqaror ta’minlash ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, sut va sut mahsulotlariga bo‘lgan talabning ortib borishi chorvachilik tarmog‘ini jadal rivojlantirishni, yuqori mahsuldor zotlardan samarali foydalanishni taqozo etmoqda. Shu nuqtai nazardan echkichilik sohasi, xususan, sut yo‘nalishidagi zotlarni ko‘paytirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Jahon amaliyotida yuqori sutdorligi bilan ajralib turadigan zotlardan biri — zaanen echki zotidir. Ushbu zot o‘zining yuqori sut mahsuldorligi, sut tarkibining boyligi, tez ko‘payishi va turli iqlim sharoitlariga moslashuvchanligi bilan ajralib turadi. Ko‘plab mamlakatlarda zaanen zoti sanoat asosida sut ishlab chiqarishni oshirishning muhim omili sifatida e’tirof etilgan.

O‘zbekistonning tabiiy-iqlim sharoiti, ozuqa bazasining mavjudligi va xususiy xo‘jaliklar ulushining yuqoriligi zaanen zotini keng joriy etish uchun qulay imkoniyatlar yaratadi. Ayniqsa, kichik va o‘rta fermer xo‘jaliklarida yuqori mahsuldor echkilarni parvarishlash orqali sut ishlab chiqarish hajmini oshirish, aholi bandligini ta’minlash va eksport salohiyatini kengaytirish mumkin.

Materiallar va uslublar

Ushbu tadqiqot O‘zbekiston sharoitida Zaanen echki zotining sut mahsuldorligi va xo‘jalikka foydali belgilari samaradorligini baholash maqsadida olib borildi. Tadqiqot ob’ekti sifatida Qashqadaryo viloyati Ko‘kdala tumanidagi “Oqquduq-agro” fermer xo‘jaligida parvarishlanayotgan mahalliy va zaanen zotiga mansub 2–4 yoshli, klinik jihatdan sog‘lom echkilardan tanlab olindi.

Unda sut namunalari (laktatsiya davri bo‘yicha), oziq ratsioni, fermer xo‘jaliklari statistik ma’lumotlari o‘rganildi.

Har bir echkining tirik vazni, sut mahsuldorligi (kunlik, oylik va laktatsiya davri bo‘yicha), sut tarkibi (yog‘, oqsil, quruq modda miqdori) standart metodikalar asosida laboratoriyada aniqlandi va olingan ma’lumotlar variatsion statistika usullari yordamida qayta ishlandi, o‘rtacha qiymat (M), xatolik (±m) va ishonch darajasi (P) aniqlandi.

Tadqiqot natijalar va ularning tahlili

Tadqiqot ishlari Qashqadaryo viloyati sharoitida parvarishlanayotgan mahalliy va zaanen zoti echkilari ishtirokida olib borildi. Tajriba guruhi (n=10 bosh) va nazorat guruhi (mahalliy zot, n=10 bosh) ko‘rsatkichlari qiyosiy tahlil qilindi.

Echkilarning sut mahsuldorligi ko‘rsatkichlari 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval

Echkilarning sut mahsuldorligi ko‘rsatkichlari (M±m)

Ko‘rsatkichlar	Zaanen zoti (tajriba)	Mahalliy zot (nazorat)	Farq, %	P
Kunlik sut, l	3,12 ± 0,08	1,84 ± 0,06	+69,56	<0,05
Laktatsiya davomiyligi, kun	263,85 ± 5,76	218,43 ± 4,19	+20,79	>0,05
Laktatsiya davridagi jami sut, l	823,21 ± 21,6	401,91 ± 18,3	+104.82	<0,05

Jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, zaanen zoti echkilarining kunlik va umumiy sut hosildorligi nazorat guruhiga nisbatan ishonchli ravishda yuqori (P<0,05). Laktatsiya davomiyligi umumiy sut hajmining yuqoriligi mahsuldorlik salohiyatini ko‘rsatadi.

2-jadval

Sutning kimyoviy tarkibi (M±m, % hisobida)

Ko‘rsatkichlar	Zaanen zoti	Mahalliy zot	Farq	P
Yog‘ miqdori, %	3,94 ± 0,12	4,32 ± 0,10	–0,38	<0,05
Oqsil, %	3,21 ± 0,09	3,08 ± 0,07	+0,13	<0,05
Quruq modda, %	12,6 ± 0,3	12,1 ± 0,2	+0,5	<0,05

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, Zaanen zotida sut hajmi yuqori bo‘lishi bilan birga oqsil va quruq modda miqdori ham yuqori darajada saqlanadi. Yog‘ miqdori biroz past bo‘lsa-da, umumiy yog‘ chiqimi sut hajmi orqali qoplanadi.

3-jadval

Echkilarning tirik vazni dinamikasi (kg, M±m)

Yoshi	Zaanen zoti	Mahalliy zot	Farq, %
12 oylik	42,3 ± 1,1	24,3 ± 0,9	+74,1
24 oylik	53,7 ± 1,3	35,5 ± 1,0	+51,3
Katta yosh (3–4 yosh)	56,8 ± 1,4	36,7 ± 1,1	+54,7

Tirik vazn ko‘rsatkichlari bo‘yicha Zaanen zoti barcha yosh davrlarida ustunlik qildi. Bu holat ularning ozuqa birligidan samarali foydalanish xususiyati va genetik salohiyati bilan bog‘liq.

Korrelyatsion tahlil natijalariga ko‘ra, tirik vazn bilan sut mahsuldorligi o‘rtasida o‘rtacha ijobiy bog‘liqlik aniqlandi (r=0,68).

3.4-jadval

Iqtisodiy samaradorlik ko‘rsatkichlari (1 bosh hisobiga)

Ko‘rsatkichlar	Zaanen zoti	Mahalliy zot
Jami sut, l	823,21	401,91
1 l sut tannarxi, so‘m	5 200	6 100
1 l sut sotish narxi, so‘m	12 000	12 000
Yalpi tushum, so‘m	9 878 520	4 822 920
Sof daromad, so‘m	2 880 000	1 690 000
Rentabellik, %	32,4	17,8

Iqtisodiy hisob-kitoblar shuni ko‘rsatadiki, zaanen zotini parvarishlash natijasida mahsulot tannarxi kamaydi va rentabellik darajasi 12–15 % ga yuqori bo‘ldi.

Olib borilgan ilmiy-tadqiqot ishlari natijalari shuni ko‘rsatdiki, zaanen zotli echkilari yuqori genetik sutdorlik salohiyati, barqaror biologik ko‘rsatkichlari va iqtisodiy samaradorligi bilan ajralib turadi.

Tadqiqot davomida quyidagi ilmiy xulosalarga kelindi:

- zaanen zoti echkilarining kunlik va laktatsiya davridagi sut hosildorligi mahalliy zotlarga nisbatan o‘rtacha 70–80 % yuqori ekanligi statistik jihatdan ishonchli (P<0,05) aniqlandi.
- sut tarkibi (oqsil, quruq modda miqdori) texnologik qayta ishlash talablariga javob beradi va sanoat ahamiyatiga ega.
- tirik vazn va morfologik ko‘rsatkichlar yuqori sut mahsuldorligi bilan ijobiy korrelyatsion bog‘liqlikka ega (r=0,62–0,74).
- 1 bosh echki hisobiga to‘g‘ri keladigan sof daromad mahalliy zotlarga nisbatan 25–35 % yuqori bo‘lib, mahsulot tannarxi kamayishi va rentabellik darajasining oshishi ta’minlandi.

Olingan natijalar asosida quyidagi amaliy takliflar ishlab chiqildi:

1. Zaanen echkilarini mahalliy zot bilan maqsadli sanoat chatishtirish ishlarini olib borish orqali sut mahsuldorligini bosqichma-bosqich oshirish.
2. Ilmiy asoslangan oziqlantirish ratsioni (energiya, oqsil va mineral moddalar balansi) joriy etish orqali genetik salohiyatdan to‘liq foydalanish.
3. Zamonaviy sog‘ish texnologiyalari va sovitish tizimlarini qo‘llash orqali sut sifatini saqlash.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. «Chorvachilik sohasini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PQ-5017-son qarori. —

Toshkent, 2021 yil 3 mart.

2. Amirov A.Sh. Zaanen echkilarining O‘zbekiston iqlim sharoitida moslashuvchanligi va sut mahsuldorligi : monografiya — Toshkent : Navro‘z, 2019. — 124 b.

3. Raximov A.T., Saidov S.S. - Echkichilikda intensiv texnologiyalar : o‘quv qo‘llanma. — Samarqand : Ipak yo‘li, 2020. — 156 b.

4. Xaydarov K.K. Zaanen zotli echkilar sutining kimyoviy tarkibi va texnologik xususiyatlari. O‘zbekiston qishloq xo‘jaligi jurnali. — 2021. — № 5. — B. 32–34.

5. Maxsudov S., Olimjonov B. Sut yo‘nalishidagi echkichilikni rivojlantirish istiqbollari. Chorvachilik va naslchilik ishi. — 2022. — № 2. — B. 18–21.

6. Новопашина С.И., Санников М. Ю. Разведение молочных коз : практическое руководство. — Ставропол : ВНИИОК, 2017. — 180 с.

7. Шейко И. П. Продуктивност коз зааненской породы в условиях интенсивной технологии. Зоотехническая наука Беларуси. — 2018. — Т. 53. — С. 142–148.

8. Haenlein G. F. Goat Milk in Human Nutrition. Small Ruminant Research. — 2004. — Vol. 51, Issue 2. — P. 155–163.

9. Peacock C. Goats: A Pathway Out of Poverty. Small Ruminant Research. — 2005. — Vol. 60. — P. 179–186.

10. Normurodov D. R. Yeconomic yefficiency of breeding Saanen goats in private farms of Uzbekistan. International Journal of Agricultural Sciences. — 2023. — № 4. — P. 45–50.

УДК:633.559.2

СОЯНИ КЎЧАТ ҚАЛИНЛИГИ ВА ЎҒИТЛАШ МЕЪЁРЛАРИГА ҲОСИЛ ЭЛЕМЕНТЛАРИ ШАКЛЛАНИШИНИНГ ТАЪСИРИ

Н.П.Қахорова, Л.Арслонова, Д.Оромова
Қарши давлат техника университети

Аннотация. Ушбу мақолада тақирсимон тупроқлар шароитида турли кўчат қалинлиги ва маъдан ўғитлар меъёрларида соя етиштиришнинг бир туп ўсимликда дуккаклар сони, бир туп ўсимликда дон вазни ва 1000 минг дона дон вазнига, ҳамда дон ҳосилдорлигига таъсири бўйича тадқиқот натижалари келтирилган.

Тадқиқот натижаларига кўра, тақирсимон тупроқлар шароитида асосий экин сифатида сояни 370 минг туп/га кўчат қалинлигида маъдан ўғитларни $N_{100}P_{120}K_{100}$ кг/га меъёрда қўллаш мақбул ҳисобланади.

Калит сўзлар: кўчат қалинлиги, маъдан ўғитлар, меъёр, фойдали ҳарорат, тақирсимон тупроқлар, озиқа маддалар, дон, ҳосилдорлик.

Аннотация. В данной статье представлены результаты исследования влияния возделывания сои при различной густоте стояния и дозах минеральных удобрений в условиях такирных почв на количество стручков на куст, массу зерна на куст и массу зерна на 1000 тыс. зёрен, а также урожайность зерна.

По результатам исследования, при возделывании сои в качестве основной культуры в условиях такирных почв при густоте стояния 370 тыс. куст/га целесообразно вносить минеральные удобрения из расчёта $N_{100}P_{120}K_{100}$ кг/га.

Ключевые слова: густота стояния, минеральные удобрения, полезная температура, такирная почва, питательные вещества, зерно, урожайность.

Annotation. This article presents the results of a study of the effect of cultivation of soybeans at different planting densities and doses of mineral fertilizers under conditions of takir soils on the number of pods per bush, grain weight per bush and grain weight per 1000 thousand grains, as well as grain yield.

According to the results of the study, when cultivating soybeans as the main crop in takir soils with a plant density of 370 thousand bushes / ha, it is advisable to apply mineral fertilizers at the rate of $N_{100}P_{120}K_{100}$ kg/ha.

Key words: standing density, mineral fertilizers, useful temperature, takir soil, nutrients, grain, yield.

Кириш. Бугунги кунда дунё қишлоқ хўжалиги деҳқончилигида соядан юқори ва сифатли ҳосил олиш учун уларни экиш меъёрлари, кўчат қалинлиги ҳамда ўғитлаш меъёрларини тўғри белгилаш, ингичка толали ғўза ҳосилдорлигини оширишда ўтмишдош экинларни тўғри танлаш бўйича олиб бориладиган тадқиқотларга алоҳида эътибор қаратилмоқда. Айниқса, асосий экин сифатида соя парваришлаш, унинг экиш тизимлари, озиқага бўлган талабини тўғри белгилаш, аҳолини озиқ-овқат ва чорвачиликни ем-ҳашак баъзасини мустаҳкамлаш, ундан сўнг экиладиган экинлардан юқори ва сифатли ҳосил олишда мақбул агротехник тадбирлар ишлаб чиқиш долзарб масалалардан ҳисобланади.

Маълумки, Республикамизда асосий экинлар бу- ғўза ва ғалла ҳисобланади. Шу боис ғўза-ғалла алмашлаб экиш тизимлари кенг қўлланилиб келинмоқда. Ушбу экинлар тупроқдан озиқа моддаларни кўп миқдорда ўзлаштиради ва тупроқ унумдорлигини пасайишига сабаб бўлади. Сўнги йилларда бу борада дон ишлаб чиқариш ҳажмини янада ошириш ва тупроқ унумдорлигини сақлаш бўйича соя етиштиришни кенгайтириш вазифалари белгиланди. Шундан келиб чиқиб, соя Республикамизда жадал ривожланаётган сохалардан бири бўлиб, экинлар структурасида унинг ўрнини белгилаш, издош экинлар парваришлашда мақбул агротехникасини ишлаб чиқиш муҳим масалалардан саналади.

Сояни асосий экин сифатида етиштириш, алмашлаб экиш тизимларида издош экинлар ўсиши, ривожланишига таъсири бўйичча бир қанча изланишлар олиб борилган ва тегишли хулосалар берилган.

Б.М.Холиқов томонидан Республикамизнинг типик бўз, тақирсимон ҳамда ўтлоқи-аллювиал тупроқлари шароитида тупроқларнинг агрокимёвий ва агрофизикавий хоссаларини ижобий томонга ўзгартирадиган, яъни тупроқдаги чиринди миқдорини 0,045-0,056%, умумий азот миқдорини 0,030-0,042%, пахта ҳосилдорлигини 10-12% оширадиган қисқа навбатли алмашлаб экишнинг типик бўз ва тақирсимон тупроқлар учун 1:1 (кузги буғдой + такрорий экин (мош)+оралиқ экин (жавдар): ғўза), 2:1 (кузги буғдой + такрорий экин (мош) : кузги буғдой + такрорий экин (мош) + оралиқ экин (жавдар):ғўза), 1:1:1 (кузги буғдой+такрорий экин (мош) +оралиқ экин (тритикале):ғўза+оралиқ экин (тритикале):соя, 2:1 (ғўза+оралиқ экин (жавдар) ғўза: кузги буғдой + такрорий экин (мош), ўтлоқи-аллювиал тупроқлар учун 1:1:1 (кузги буғдой + такрорий экин (мош) + оралиқ экин (тритикале):соя:ғўза каби янги тизимлари тавсия этилган [1; 42 б.]

Хитойлик олим Zhao Y. et al. нинг тадқиқотларида соя-маккажўхори алмашлаб экишда ўғитлар самарадорлиги тадқиқ қилинган. Бунда ўғитсиз ($N_0P_0K_0$) вариантда соядан 14,9 ц/га, маккажўхоридан эса 41,2 ц/га дон ҳосили олинган. Минерал ўғитлар $N_{150}P_{25}K_{60}$ кг/га меъёрда қўлланганда соядан 21,9 ц/га ва макажўхоридан 74,8 ц/га дон ҳосили олишга эришилган. Тажрибада экинлар ҳосилини чегараловчи асосий омил деб калий ўғити топилган. Бу холатда калийнинг мувозанати салбий бўлганлиги билан асосланган, чунки қўлланилган калий ўғити меъёрига нисбатан ўсимликлар томонидан ўзлаштирган калий ўғити орасида катта фарқ бўлган [2; P. 36-42].

Х.Н.Атабаева, И.А.Исроиловлар томонидан ўтказилган кўпгина тажрибалардан олинган маълумотларида келтирилишича, дуккакли-дон экинлари- мош ва сояни такрорий экин сифатида эрта муддатларда экиб, уларни 100 кг/га фосфор ва 50 кг/га калий билан озиқлантирилганда дон ҳосилдорлиги 20,3-23,2 ц/га ни ташкил этганлигини аниқлаган [3; Б.4-6; 4; Б. 27-28; 5; С.26-28].

Соя ўсимлигининг ҳосилдорлигини белгиловчи муҳим кўрсаткичларидан бири ўсимликда шаклланган дуккаклар сони, вазни, дон сони, бир ўсимликда дон вазни ва 1000 дона дон вазни қўлланилган агротехник тадбирларнинг мақбул ёки аксинча бўлишини кўрсатади. Мавсум охирига келиб вариантлар бўйича ушбу кўрсаткичлар таҳлил қилинди. Унга кўра кўчат қалинлиги ва озиқлантириш меъёрларига боғлиқ ҳолда ҳосил элементлари шаклланиши аниқланди.

Н.Мирзаев, А.Абдуазимовларнинг тадқиқотларида соя ўсимлигининг “Тумарис Ман-60” навининг азотли ўғит берилмаган назорат вариантида 1000 дона донининг вазни ўртача 135,1 грамм, азотли ўғит 60 кг/га берилганда 137,5 гарамм, азотли ўғит 90 кг/га берилганда азотли ўғит берилмаган назорат вариантига нисбатан ўғит берилган вариантларда 1000 дона

доннинг массаси ўртача 2,4-5,7 грамга кўп бўлгани аниқланган. Соя навлари маъдан ўғитлар меъёрига амал қилган ҳолда озиқлантирилса, 1000 дона дон вазни ошганлиги таъкидланган. Бу ҳосилдорлик ҳам кўпаяди деганидир [4; 211-б].

Ҳ.Атабаева ва Н.Умароваларнинг фикрига кўра, соя дуккаги гуллагандан сўнг 11-14 кундан ўтиб шакллана бошлайди. Дуккак шаклланиши билан бирга дуккак ичида дон ривожланади. Соя донининг шакли, ранги ва ўлчамлари нав хусусиятларига боғлиқ ҳолда турлича бўлади. Соя дони 1000 донасининг вазнига кўра 6 гуруҳга ажратилади: жуда майда-40-90; майда 100-140; ўртача -150-200; йирик -210-250; жуда йирик 260-300 ва ҳаддан ташқари йирик -310-425 г га тенг [5; 228-б].

Соя парваришлашда ҳар бир ўсимликда шаклланган ҳосил элементлари яъни, дуккаклар сони, дуккакларда шаклланган дон сони, дон вазни ва 1000 дона дон вазни олинадиган дон ҳосили салмоғини белгилайди.

Ўрганилган тадқиқотларда соя-ғўза навбатлаб экиш тизимида асосий экин сифатида парваришлашда кўчат қалинлиги ва маъдан ўғитларнинг таъсирини тадқиқ қилиш юқоридаги изланишларни тўлдиради.

Тадқиқот услублари: Тадқиқотлар тақирсимон тупроқлари шароитида алмашлаб экишнинг соя:ғўза тизимида сояни $N_{100}P_{120}K_{100}$ ва $N_{75}P_{100}K_{75}$ кг/га меъёрлари фонида 185; 222; 270; 370 ва 555 минг/га кўчат қолдирилиб парваришлашнинг битта ўсимликдаги дуккаклар сони, дон вазни ҳамда 1000 дона дон вазнига таъсирини ўрганиш мақсадида тадқиқотлар (2017-2018 йй) «Дала тажрибаларни ўтказиш услублари» услубий қўлланмаси [6; Б. 148] асосида олиб борилди. Тажриба 10 вариант, 3 қайтариқда жойлаштирилди. Тажриба 90 см қатор оралиғида экилиб, ҳар бир вариант узунлиги 30 метр бўлиб, 108 $м^2$ ни, ҳисобий майдон 54 $м^2$ га тенг бўлиб, умумий майдони 0,39 га ни ташкил этди.

Тажрибада соянинг “Олтинтож” навида олиб борилди.

Тажриба даласида парваришланган соя уруғлари унинг кўчат қалинлигига мос равишда экилди. Маъдан ўғитларнинг белгиланган меъёри бўйича фосфорли ва калийли ўғитлар тўлиқ шудгор остига солиниб, азотли ўғит билан эса вегетация даврида озиқлантирилди.

Сояни турли меъёрларда ўғитлаш ва кўчат қалинликларида етиштиришнинг ғўза ҳосилдорлигига таъсирини ўрганиш тадқиқотнинг асосий мақсади бўлганлиги боис биринчи вариантда ғўза назорат сифатида экилган бўлиб, қолган соя парваришланган вариант маълумотлари таҳлил қилинди.

Таҳлил ва натижалар: Тажриба ўтказилган ҳудуд географик жойлашувига кўра, чўл худудига киради. Тупроғи тақирсимон, озиқа моддалар билан кам таъминланган.Унга кўра, тупроқнинг ҳайдов қатламида гумус йилларга тегишлича 0,778-0,780%, умумий азот 0,093-0,074%, фосфор 0,208-0,152%га тенг бўлган бўлса, нитратли азот 19,84-19,24 мг/кг, ҳаракатчан фосфор 15,6-14,1 мг/кгни ва алмашинувчи калий 214,2-218,0 мг/кгни ташкил қилди.

Тажриба олиб борилган йилларда фойдали ҳарорат йиғиндиси таҳлил қилинганда тажрибанинг биринчи йилида соя экилган апрел ўйи учун 193^0С ни ташкил қилган бўлсамай ойида бу кўрсаткич 469^0Сга тенг бўлди. Мавсумий самарали ҳарорат йиғиндиси 2368^0Сни ташкил қилди.

Тажрибанинг иккинчи йилида шу даврда мос равишда 215-396^0Сга тенг бўлганлиги кузатилди. Икки йиллик маълумотлар таҳлил қилинса тажрибанинг биринчи йилида соя ниҳолларининг униб чиқиш ва чинбарг чиқариш даврларида 22^0Сга камроқ ва гуллаш даврига келиб 73^0Сга кўп бўлганлигини кузатиш мумкин.

Ўсимликларда ҳосил элементлари мавсум охирида вариантлар бўйича бир туп ўсимликда дуккаклар сони, битта ўсимликда дон вазни ва 1000 дона дон вазни ўрганилди. Олинган маълумотларга кўра кўчат қалинлиги ортиб бориши билан дуккаклар сони камайганлиги, шунингдек бир ўсимликда дон вазни ҳам мос равишда камайиб бориши аниқланди. Энг яхши кўрсаткич гектарига 185 минг туп қолидири парваришланган вариантда кузатилиб 31,7-31,0 донага, 555 минг кўчат қалинлигида эса йилларга тегишлича 23,5-22,0 донага тенг бўлганлиги кузатилди. Ушбу ҳолатни кўчат қалинлиги ортган сари ўсимликнинг озиқланиш майдони камайиб бориши билан боғлаш мумкин.



Рис.1. Тажриба ўтказилган йилларда кузатилган фойдали ҳарорат йиғиндиси, ^{0}C

Ўғитлар меъёри бўйича таққосланганда гектарига юқори мъёрда $N_{100}P_{120}K_{100}$ кг маъдан ўғитлар қўлланилганда, $N_{75}P_{100}K_{75}$ кг қўлланилган вариантларга нисбатан энг кам кўчат қалинлиги 185 минг туп/га қолдириб парваришланган вариантда 2,7-3,0 донага, битта ўсимликдаги дон вазни эса 1,8-3,0 г га юқори бўлганлиги аниқланди. Маъдан ўғитлар билан юқори меъёрда парваришланган вариантларнинг барчасида кўрсаткич юқори бўлганлиги кузатилди (1-жадвал).

Демак, асосий экин сифатида соя етиштиришда $N_{100}P_{120}K_{100}$ кг/га меъёрда маъдан ўғитлар қўллаш яхши самара беради.

1000 дона дон вазни бўйича олинган маълумотлар таҳлил қилинганда гектарига 222 минг кўчат қолдирилиб парваришланган вариантда юқори натижа 166,1-160,6 г қайд этилди. Дуккаклар сони, бир ўсимликдаги дон вазни каби 1000 дона дон вазни бўйича ҳам кўчат қалинлиги ҳамда ўғитлаш меъёрига боғлиқ бўлган қонуният кузатилди.

1-жадвал

Кўчат қалинлиги ва маъдан ўғитлар меъёрларини соянинг ҳосил элементларига таъсири

№ вар	Назарий кўчат қалинлиги, минг туп/га	Маъдан ўғитлар меъёри, кг/га	1 та ўсимликдаги дуккаклар сони, дона		1 та ўсимликдаги дон вазни, г		1000 дона дон вазни, г	
			2017 й	2018 й	2017 й	2018 й	2017 й	2018 й
2	185	$N_{100}P_{120}K_{100}$	31,7	31,0	15,9	14,8	164,9	159,4
3	222		30,5	28,7	15,3	13,8	166,1	160,6
4	270		29,6	28,3	14,0	12,9	163,3	157,7
5	370		27,0	26,0	11,3	10,9	161,2	155,4
6	555		23,5	22,0	7,2	6,6	138,7	142,6
7	185	$N_{75}P_{100}K_{75}$	29,0	28,0	14,1	11,8	161,6	145,6
8	222		28,5	26,0	13,0	11,3	162,3	154,8
9	270		26,7	25,0	11,4	10,6	158,6	156,6
10	370		25,0	24,0	9,6	9,0	154,1	150,0
11	555		21,0	20,0	6,1	5,5	137,6	136,4

Йиллар бўйича таққосланса 2018 йилга нисбатан 2017 йилда олиб борилган изланишларда нисбатан натижаларнинг нисбатан юқори бўлиши тупроқда озиқа моддалар ва соянинг ривожланиш даврларида фойдали ҳароратнинг турлича бўлиши билан изохлаш мумкин.

Юқорида таъкидланганидек, соянинг униб чиқиш ва чин барг чиқариш даврида тажрибанинг биринчи йилида 193^0С фойдали ҳарорат йиғиндиси кузатилган бўлса, иккинчи йилида бу кўрсаткич 215^0Сни ташкил қилди. Шоналаш гуллаш даврларида эса йилларга тегишлича 469-396^0С, ҳосил тўплаш даврида эса (июнь, июль ойларида) тегишлича 562-550 ва 638-680^0Сни ташкил қилди. Пишиш даврига келиб (июль ойи иккинчи ярми ва августойи) ҳарорат иккинчи йили тажриба олиб борилган даврда ҳароратнинг ортиши кузатилган.

Олинган маълумотларга қараганда соя шоналаш ва гуллаш даврларида 396^0С самарали ҳарорат мақбул. Пишиш даврида эса ҳароратнинг ортиши пишиш жараёнини тезлашишига сабаб бўлади ва ҳосил элементлари миқдори ҳамда вазни камайишига олиб келади.

Олиб борилган ҳар бир агротехник тадбир аҳамияти якунида ҳосилдорлик билан белгиланади. Ўрганилган вариантларни ҳосилдорлик кўрсаткичлар бўйича таҳлил қилинганда энг яхши натижа кўчат қалинлигини гектарига 370 минг туп қолдириб, $N_{100}P_{120}K_{100}$ кг/га меъёрда маъдан ўғитлар билан озиқлантирилган вариантда кузатилиб, икки йилда ўртача 37,2 ц/га дон ҳосили олинди. Ишлаб чиқариш шароитида қўлланилаётган 185-222 минг туп/га ва тавсия қилинган 555 минг туп/га қолдириб парваришланган вариантларга нисбатан 11,9 ц гача қўшимча ҳосил олишга эришилди.



Рис. 2. Кўчат қалинлиги ва ўғитлаш меъёрларига боғлиқ ҳолда соя дон ҳосилдорлигини шаклланиши.

Хулоса. Олиб борилган тадқиқот натижаларидан шундай хулоса қилиш мумкинки, тақирсимон тупроқлар шароитида асосий экин сифатида сояни 370 минг туп/га кўчат қалинлигида маъдан ўғитларни $N_{100}P_{120}K_{100}$ кг/га меъёрда қўллаш мақбул ҳисобланади.

Адабиётлар:

1. Халиков Б.М. Ўзбекистоннинг суғориладиган худудларида ғўза ва ғўза мажмуидаги экинларни қисқа ротацияда алмашлаб экишда тупроқ унумдорлигини сақлаш ва оширишнинг илмий-амалий асослари: қ.х.ф.д. автореферати. Тошкент. 2007. 42 б.

2. Zhao Y. et al. The effects of two organic manures on soil properties and crop yields on a temperate calcareous soil under a wheat–maize cropping system //European Journal of Agronomy. – 2009. – Т. 31. – №. 1. – V. 36-42.

3. Атабаева Х.Н., Исроилов И.А. Такрорий экин сифатида экилган соя ўсимлигининг ҳосилдорлигини ўрганиш. // ТошДАУ илмий асарлар тўплами. – Тошкент, 1997. – Б. 4-6.

4.Мирзаев Н., Абдуазимов А. Соя навларининг 1000 дона дони вазнига азотли ўғитларнинг таъсири. “Қишлоқ хўжалиги илм-фанида ёшларнинг роли” Республика илмий-амалий конференцияси илмий мақолалар тўплами 2-жилдлик 1-жилд 2020 й 14-15 август Тошкент 211-бет

5.Атабаева Х.Н., Умарова Н.С. Соя биологияси. Дарслик. Тошкент 2020 й. Б. 228

6 Атабаева Х.Н., Исроилов И.А. Такрорий экилган соя навларининг ўсиши,

ривожланиши ва ҳосилдорлигига минерал ўғитларнинг таъсири. // Шоличилик ва дуккакли-дон экинларини ривожлантиришнинг истиқболлари: Халқаро симпозиум материаллари.– Тошкент, 1998. – Б.27-28.

7. Дала тажрибаларини ўтказиш услублари. –Тошкент. ЎзПИТИ 2007.-148 б.

SOYANI ILDIZDAN TASHQARI OZIQLANTIRISHNING O‘SIMLIK BO‘YI SHAKLLANISHIGA TA’SIRI

S.Sh.Xodiyeva
Qarshi davlat texnika universiteti doktoranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada soya o‘simligining ildizdan tashqari oziqlantirilganda o‘simlikning bo‘yiga ta’siri haqida ma’lumotlar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: soya, Madad, Toshkent, o‘simlik bo‘yi, suspenziya, mineral o‘g‘it, nazorat, andoza.

Аннотация.В данной статье приведены данные о влиянии внекорневого питания растения сои на рост растения. соя, Madad, Ташкент, рост растения, суспензия, минеральное удобрение, контроль, эталон.

Ключевые слова:Соя, Мадад, Ташкент, рост растения, суспензия, минеральное удобрение, контроль, эталон.

Abstract.This article provides information on the effect on plant height when soybean plants are fertilised above the root.

Keywords: soybean, Madad, Tashkent, plant height, suspension, mineral fertiliser, control, template.

Kirish. Dunyo bo‘yicha bugungi kunda 122 mln gektar maydonda soya parvarishlanib, yiliga 362 million tonnadan ziyod soya doni olinmoqda, jumladan Braziliya 37 mln, AQSH 31 mln, Argentina 18 mln, Hindiston 11 mln, Xitoy 9 mln, O‘zbekistonda 31.0 ming gektar ochiq maydonda soya ekilib 32,4 ming tonna soya doni yetishtiriladi.

Respublikamizda soyani asosiy ekin sifatida janubiy hududlarda 25.03 – 05.04 muddatlarda, markaziy hududlarda 01 – 15.04 muddatlarda, markaziy hududlarda esa 15 – 25.04 muddatlarda ekiladi [1].

O'zbekiston sharoitida ham soya yetishtirish istiqbolli yo‘nalish hisoblanadi, chunki u nafaqat oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash, balki chorvachilik, yog‘-moy sanoati va boshqa sohalarga xomashyo tayyorlash imkonini beradi.

Ushbu tadqiqotning maqsadi soya o‘simligining qishloq xo‘jaligidagi ko‘p qirrali ahamiyatini, uning iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy jihatlarini, shuningdek, O‘zbekiston sharoitida soya yetishtirishni yaxshilashdan iborat.

Adabiyotlar tahlili. O.Norbekovning ta’kidlashicha dunyo dehqonchiligida ekin maydonlari hajmi jihatidan soya bug‘doy, sholi va makkajo‘xoridan keyingi o‘rinda turadi [2].

G.Shodiyeva, Y.Saimnazarov ma’lumotlrda Soyaning ekish me’yorlari urug‘ning yirikligiga va navning tezpisharligiga qarab belgilanadi. Soyadan mo‘l va sifatli hosil olish ko‘p jihatdan urug‘ni o‘z vaqtida maqbul muddatlarda ekish va sifatli urug‘likdan foydalanishga bog‘liqligi ta’kidlangan [3].

Z.M.Kushmetov, M.K.Hamroyevalarni ma’lumotlarida soya navlarida o‘rtacha sho‘rlangan tuproqlarda ildiz tizimi yaxshi rivojlangan, o‘q ildizi tuproqqa 1,5-2 metr chuqurlikkacha kirib boradi, lekin ildiz, asosan, tuproqning haydalma qismida rivojlanib juda ko‘p yon ildizlar hosil qiladi. Soya ildizida hosil bo‘lgan tugunak bakteriyalar havodan erkin azotni o‘zlashtirib, u bilan o‘simlikning azotga bo‘lgan ehtiyojini ta’minlaydi [4].

O.S.Amirqulov ta’kidlashicha, g‘alladan bo‘shagan maydonlarda takroriy ekinlarini ekish tuproqda ijobiy ta’sirini ko‘rsatibgina qolmasdan, uning unumdorligini oshirish uchun hizmat qiladi. Soya ekini tuproqning biologik unumdorligini oshiradi, o‘zidan keyin tuproqq 55-60 kg/ga miqdorda sof azot hosil qiladi [5]

Natijalar va muhokama. O‘tkazilgan tajriba natijalari shuni ko‘rsatdiki, soya o‘simligiga turli me’yorlarda o‘g‘itlash va suspenziya qilishning soya navlarining o‘simlik bo‘yi shakllanishiga

ta’siri o‘rganildi. O‘tkazgan dala tajribalarimizdan olingan natijalarga ko‘ra, soya navlariga mineral o‘g‘it va suspenziya ishlatilmagan “Toshkent” navida 1-iyun holatida o‘simlik bo‘yi 11 smni, 15-iyunda esa o‘simlik bo‘yi 27,9 smni, 1-iyul holatida soya o‘simligi bo‘yi 37,4 smni, 15-iyul sanasida o‘simlik bo‘yi 49,7 smni va 1-avgustda soya ekini bo‘yi 61,0 smni tashkil etdi. “Madad” navida 1-iyun holatida o‘simlik bo‘yi 9,5 smni, 15-iyunda esa o‘simlik bo‘yi 24,9 smni, 1-iyul holatida soya o‘simligi bo‘yi 37,2 smni, 15-iyul sanasida o‘simlik bo‘yi 47,2 smni va 1-avgustda soya ekini bo‘yi 56,4 smni tashkil etdi. Ushbu variantdagi kuzatuvlar eng past natijani qayd etdi.

Soyaning navlariga $N_{60}P_{45}K_{30}$ mineral o‘g‘iti qo‘llanilganda va suspenziya sifatida kalifos preparati ishlatilgan “Toshkent” navida 1-iyun holatida o‘simlik bo‘yi 31,6 smni, 15-iyunda esa o‘simlik bo‘yi 45,6 smni, 1-iyul holatida soya o‘simligi bo‘yi 62,8 smni, 15-iyul sanasida o‘simlik bo‘yi 73,1 smni va 1-avgustda soya ekini bo‘yi 80,1 smni tashkil etdi. Xuddi shunday oziqlantirishni “Madad” navida taqdbiq qilinganda 1-iyun holatida o‘simlik bo‘yi 27,2 smni, 15-iyunda esa o‘simlik bo‘yi 42,0 smni, 1-iyul holatida soya o‘simligi bo‘yi 58,1 smni, 15-iyul sanasida o‘simlik bo‘yi 71,9 smni va 1-avgustda soya ekini bo‘yi 78,8 smni tashkil etdi.

Soyaning navlariga $N_{120}P_{90}K_{60}$ mineral o‘g‘iti qo‘llanilganda va suspenziya sifatida SAKO‘ preparatidan foydalanilgan “Toshkent” navida 1-iyun holatida o‘simlik bo‘yi 43,1 smni, 15-iyunda esa o‘simlik bo‘yi 70,7 smni, 1-iyul holatida

Turli me’yorlarda o‘g‘itlash va suspenziya qilishning soya navlarining o‘simlik bo‘yi shakllanishiga ta’siri, sm (2022-2024 yy.)

№	O‘g‘it me’yori	Suspenziya turi	Nav nomi	O‘simlik bo‘yi, sm				
				1 iyun	15 iyun	1 iyul	15 iyul	1 avg
1	Nazorat (o’g’itsiz)	Nazorat (o’g’itsiz)	Toshkent	11,0	27,9	37,4	49,7	61,0
2			Madad	9,5	24,9	37,2	47,2	56,4
3		Karbamid (andoza)	Toshkent	14,4	31,9	43,2	56,0	64,7
4			Madad	14,6	28,3	40,2	51,9	63,9
5		Kalifos	Toshkent	14,5	37,3	50,0	67,3	75,3
6			Madad	16,0	38,9	47,4	63,7	75,1
7		SAKO‘	Toshkent	17,2	43,2	54,0	74,4	88,4
8			Madad	14,6	38,1	49,0	69,2	86,1
9	$N_{60}P_{45}K_{30}$	Nazorat (o’g’itsiz)	Toshkent	21,6	31,5	48,3	57,8	60,8
10			Madad	20,9	30,0	45,5	56,3	62,1
11		Karbamid (andoza)	Toshkent	23,6	34,9	51,2	61,7	68,2
12			Madad	22,1	35,9	52,8	63,3	70,4
13		Kalifos	Toshkent	31,6	45,6	62,8	73,1	80,1
14			Madad	27,2	42,0	58,1	71,9	78,8
15		SAKO‘	Toshkent	32,4	44,0	62,3	81,0	90,0
16			Madad	35,0	45,6	62,7	79,1	88,1
17	$N_{120}P_{90}K_{60}$	Nazorat (o’g’itsiz)	Toshkent	22,7	37,7	52,0	61,8	66,3
18			Madad	25,7	39,5	53,8	59,6	64,6
19		Karbamid (andoza)	Toshkent	31,6	48,2	62,6	73,7	77,7
20			Madad	32,7	48,4	63,4	69,7	75,8
21		Kalifos	Toshkent	37,8	58,3	75,4	86,6	90,3
22			Madad	37,8	55,6	70,5	81,5	86,1
23		SAKO‘	Toshkent	43,1	70,7	87,2	98,7	103,1
24			Madad	43,6	69,2	83,6	96,2	100,1

Soya o‘simligi bo‘yi 87,2 smni, 15-iyul sanasida o‘simlik bo‘yi 98,7 smni va 1-avgustda soya ekini bo‘yi 103,1 smni tashkil etdi. Ushbu oziqlantirish bilan “Madad” navi bilan tajriba qilinganda 1-iyun holatida o‘simlik bo‘yi 43,6 smni, 15-iyunda esa o‘simlik bo‘yi 69,2 smni, 1-iyul holatida soya o‘simligi bo‘yi 83,6 smni, 15-iyul sanasida o‘simlik bo‘yi 96,2 smni va 1-avgustda soya ekini bo‘yi 100,1 sm bo‘lib eng baland ko‘rsatkichni qayd etdi.

Tajriba natijalariga ko‘ra eng maqbul oziqlantirish soyaning Toshkent va Madad navlariga $N_{60}P_{45}K_{30}$ mineral o‘g‘iti qo‘llanilgan va suspenziya sifatida kalifos preparati qo‘llanilgan oziqlantirish usuli tavsiya etildi. Ayni ushbu oziqlantirishdagi balandlikda o‘simlik barqaror, mustahkam poyali bo‘ladi. Quyosh nuri pastki barglargacha yetadi, bu fotosintezni yaxshilaydi. Hosil tugunlari baland joylashadi, shuning uchun kombaynda yig‘ish yo‘qotishsiz kechadi va hosildorlik oshishiga olib keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Iminov A., Namozov F. Soya yetishtirish agrotexnikasi // Agro ilm 2018. №2 [52], – B. 29-30.
2. Norbekov O. Soya keltiradi sarmoya // O‘zbekiston qishloq xo‘jaligi Toshkent, 2009. №10. – B. 7.
3. Shodiyeva G., Saimnazarov Yu. Soyaning “Toshkent” navi biometrik ko‘rsatkichlariga ekish muddatlari va me’yorlarining ta’siri // O‘zbekiston qishloq xo‘jalik Toshkent, 2017. №7, – B. 41.
4. Kushmetov Z.M., Hamroyeva M.K. Soya o‘simligida transpiratsiya jadalligining borishi // “O‘zbekiston respublikasida boshoqli don, noan’anaviy va moyli hamda ozuqa ekinlarini innovatsion texnologiyalar asosida yetishtirish istiqbollari” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiya maqolalar to‘plami. Andijon, 2020. – B. 378-380.
5. Amirqulov O.S. Turli ekish asosida ekinning hosildorlik ko‘rsatgichi va tuproq unumdorligining o‘zgarishi// Life Sciences and Agriculture, 2020. №3.2. – B. 7-10.

UDK: 633:18;954

SHOLI MAYDONLARIDAGI BIR YILLK VA KO‘P YLLIK BOSHOQLI VA IKKI PALLALI HAMDA KENG YAPROQLI BOTQOQ BEGONA O‘TLARIGA QARSHI SOLARIS 370 G/L M.D. GERBISIDINING BIOLOGIK SAMARADORLIGI

Otamirzayev N.G‘
Sholichilik ilmiy-tadqiqot instituti.

Annotatsiya *Ushbu maqolada sholi maydonlarida uchraydigan bir yillk va ko‘p yllik boshoqli va ikki pallali hamda keng yaproqli botqoq begona o‘tlariga qarshi solaris 370 g/l m.d. gerbisidining biologik samaradorligi anaiqlangan. Xorazm viloyatida o‘tkazilgan tajriba sinovi natijalariga ko‘ra sholi ekinlarida bir yillik begona o‘tlarga qarshi yangi sinovdan o‘tgan Solaris gerbitsidini 0,7 l/ga qo‘llash begona o‘tlarni yo‘qotilishiga olib keldi, bir yillik boshoqli begona o‘tlarga nisbatan biologik samaradorlik 94,8 %ni, ko‘p yillik boshoqli ikki pallali begona o‘tlarga nisbanan 91,1 %ni, keng yaproqli botqoq begona o‘tlarga nisbatan 92,5%ni tashkil etganligi bayon etilgan.*

Kalit so‘zlar: *begona o‘t, sholi, gerbisid, suv, guruch, biologik samaradorlik.*

Kirish. Sholi (Oryza sativa L.) millionlab odamlarni asosiy oziq-ovqat bilan ta'minlaydigan bug'doydan keyingi eng muhim dala ekinlaridan biridir. Bu Osiyo aholisining deyarli yarmi uchun ajralmas kaloriya manbai hisoblanadi. Dunyodagi guruchning 90% dan ortig'i Osiyoda ishlab chiqariladi va iste'mol qilinadi, bu er yuzi aholisining 60% ga to'g'ri keladi. Aholi soni ortib borayotgan oziq-ovqat talabi bilan guruch asosiy oziq-ovqat manbai bo'lib qoladi. Guruch Hindistonning asosiy oziq-ovqat mahsulotidir va shuning uchun milliy oziq-ovqat xavfsizligi tizimi ko'p jihatdan guruch ekotizimlarining mahsuldorligiga bog'liq. Dunyodagi sholining umumiy maydoni 161,1 mln gektar va o‘rtacha hosildorligi 2,98 t/ga ni tashkil etadi[1]. Respublikamizda har yili 130-140 ming gektar atrofida sholi ekib yetishtiriladi. Sholi yetishtirishda turli xil omillar orasida abiotik stress, ya'ni suv va ozuqaviy stress va biotik stress, ya'ni daladagi begona o'tlarning zararlanishi eng muhim omillardir, buning natijasida guruch ishlab chiqarishni oldindan aytib bo'lmaydi va sezilarli darajada past bo'ladi. Begona o'tlar nafaqat guruch ishlab chiqarishni kamaytiradi, balki guruch donining sifatiga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi. Qo'lda o'tlarni tozalash eng samarali usuldir, ammo yuqori ish haqi va qishloq xo'jaligi ishlarining qizg'in davrida ishchi kuchining yetishmasligi, o'z vaqtida begona o'tlarni olib tashlash mumkin emas.

Respublikamizda sholi ekinlariga ta’sir etuvchi salbiy omillarni bartaraf etish maqsadida

mamlakatimiz va xorijda ishlab chiqarilgan turli vositalarni qo‘llash orqali o‘simliklarni himoya qilish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar ishlab chiqishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Bundan tashqari, ishlatiladigan dorilar ro'yxati kengayib bormoqda. Turli o‘simliklarni himoya qilish vositalarini sinovdan o‘tkazish va ulardan foydalanish, qo‘llashning minimal dozalarini, maksimal samaradorlikni ta’minlash va ekotizimga kimyoviy yuklarni kamaytirish bo‘yicha maqsadli ishlar amalga oshirilmoqda. Kumar va boshq., tadqiqotlarida sholining hosildorligining kamayishi begona o'tlar tufayli 2006 yilda 70,4% va 2007 yilda 67,4% ni tashkil etganligini ta’kidlaganlar [2].

Puniya va boshq., Pantnagarning xarifin loy tuproqlari davrida sholi maydonidagi begona o'tlarning ko'proq zichligi va quruq vazni tufayli ozuqa moddalarining eng ko'p yo'qolishi begona o'tlar ta’sirida sodir bo'lganligini ta'kidladilar[3].

Dixit va Varshney 2001 va 2002 yillardagi yomg'irli mavsumda to'g'ridan-to'g'ri ekilgan sholida paydo bo'lgandan keyingi gerbitsidlarni baholash uchun dala tajribalarini o'tkazdilar va Pirazosulfuronning 25 g / ga qo‘llanganda begona o‘tlarni samarali nazorat qilganligini xabar qildilar[4].

Adabiyotlar tahlili shuni ko‘satadiki, sholi hosilini saqlab qolishda albatta begona o‘tlarga qarshi zamonaviy gerbisidlarni qo‘llash muhim ahamiyatga ega ekan.

Material va metodlar. Tajribalar Sholichilik ilmiy-tadqiqot instituti Xorazm filialida olib borildi. Tadqiqot ishi 2025 yilda quyidagi uslublar asosida amalga oshirildi. “ Insektitsid, akaratsid, biologik faol moddalar va fungitsidlarni sinash bo‘yicha uslubiy ko‘rsatmalar; Dala tajribalarini o‘tkazish uslublari, Metodicheskim ukazaniyam po izucheniyu gerbitsidov na risovых polyax uslublari asosida bajarildi [5,6,7]. Tadqiqot ishi I variant-nazorat (ishlov berilmagan), II variant Sholigold (andoza)-3,0 l/ga hamda III variant Solaris 370 g/l – 0,7 l/ga tajriba tizimi bo‘yicha IV qaytariqda olib borildi.

Natijalar va ularning tahlili. Yangi sinovdan o‘tayongan Solaris 370 g/l gerbisidining sinov tajribalari Sholichilik ilmiy-tadqiqot instituti Horazm filiali tajriba dalalarida olib borildi. Tajriba maydonida o‘rganilayotgan gerbitsidning biologik samaradorligini bilish uchun ishlov berishdan oldin tajriba o‘tkazilayotgan maydonda unib chiqqan sholi nihollari soni, begona o‘tlarning turlari va miqdori hisob-kitob qilindi.

1-jadval

Tajriba dalasida sholi ekinlarida begona o‘tlarga qarshi Solaris gerbitsidining biologik samaradorligi

№	Variantlar	Kimyoviy vositaning sarf-me‘yori l/ga	Ishlovdan oldin	Ishlovdan 60 kun o‘tgach	
			soni, dona/m^2	soni, dona/m^2	biologik samara-dorlik,%
Bir yillik boshoqli begona o‘tlar					
3	Solaris 370g/l m.d.	0,7	33,3	2,1	94,8
2	Andoza – Sholigold m.d.	3,0	36,0	3,7	91,5
1	Nazorat	-	33,3	40,5	-
Ko‘p yillik ikki pallali boshoqli begona o‘tlar					
3	Solaris 370g/l m.d.	0,7	31,0	3,2	91,1
2	Andoza – Sholigold m.d.	3,0	29,3	3,8	88,8
1	Nazorat	-	38,6	44,8	-
Keng yaproqli botqoq begona o‘tlar					
3	Solaris 370g/l m.d.	0,7	25,0	2,5	92,5
2	Andoza – Sholigold m.d.	3,0	22,6	3,2	89,4
1	Nazorat	-	26,7	36,0	-

Tadqiqot ishida ishlov berishdan oldin o‘tkazilgan fenologik kuzatuvlarda nazorat variantda o‘rtacha m^2da bir yillik boshoqli begona o‘t (kurmak) o‘rtacha 33,3 dona, ko‘p yillik boshoqli ikki pallali begona o‘tlar 38,6 dona, keng yaproqli botqoq begona o‘tlar 26,7 donani, Andoza variantda, ya‘ni Sholigold 3,0 litr gektariga qo‘llanilishi rejalashtirilgan variantda o‘rtacha 1m^2da begona o‘t (kurmak) 36,0 dona, ko‘p yillik boshoqli ikki pallali begona o‘tlar 29,3 dona, keng yaproqli botqoq begona o‘tlar 22,6 donani, yangi Solaris 370g/l 0,7 l/ga gerbitsidi bilan ishlov berish rejalashtirilgan variantda bir yillik boshoqli begona o’tlar 33,3 dona, ko‘p yillik boshoqli ikki pallali begona o‘tlar 31,0 dona, keng yaproqli botqoq begona o‘tlar 25,0 dona borligi aniqlandi (1-jadval).

Hulosa qilib aytganda**,** Xorazm viloyatida o‘tkazilgan tajriba sinovi natijalariga ko‘ra sholi ekinlarida bir yillik begona o‘tlarga qarshi yangi sinovdan o‘tgan Solaris gerbitsidini 0,7 l/ga qo‘llash begona o‘tlarni yo‘qotilishiga olib keldi, bir yillik boshoqli begona o‘tlarga nisbatan biologik samaradorlik 94,8 %ni, ko‘p yillik boshoqli ikki pallali begona o‘tlarga nisbanan 91,1 %ni, keng yaproqli botqoq begona o‘tlarga nisbatan 92,5%ni tashkil etdi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Statista The statistics portal, 2017- https://www.statistia.com.

2. Kumar, J., Singh, D., Puniya, R. and Pandey, P.C. 2010. Effect of weed management practices on nutrient uptake by direct seeded rice. Oryza 47(4): 291-294.

3. Puniya, R., Pandey, P.C., Bisht, P.S. and Singh, D.K. 2007. Nutrient uptake by crop and weeds as influenced by trisulfuron, trisulfuron + pretilachlor and bensulfuron methyl in transplanted rice. Indian Journal of Weed Science 39(3&4): 239-240.

4. Dixit, A. and Varshney, J.G. 2008. Assessment of post emergence herbicides in direct seeded rice. Indian journal of Weed Science40: 144-147.

5. Sh.Nurmatov va.b “Dala tajribalarini o‘tkazish uslublari”. Toshkent-2007-yil.

6. «Metodicheskim ukazaniyam po izucheniyu gerbitsidov na risovыx polyax», Krasnodar, 1979.

7. Insektitsid, akaratsid, biologik faol moddalar va fungitsidlarni sinash buyicha uslubiy kursatmalar. 2-nashr. Toshkent-2007y.

UO‘K:631.631.67.

G‘O‘ZANI DISKRET USULIDA SUG‘ORISHNING SUV TANQISLIGINI YUMSHATISHDAGI ROLI

Abdurahimov N.N.
TDMAU

Annotatsiya. Ushbu maqolada Surxon-Sherobod vohasining o‘tloqi-taqir tuproqlari sharoitida ingichka tolali g‘o‘zani sug‘orishda turli usulda sug‘orish texnologiyalarini qo‘llashning suv oqimi, suv sarfi va sug‘orishga sarflangan vaqt, sug‘orish usullarida egatlarning uzunligiga qarab tuproqning 0–45 sm qatlamida tuproq hajmiga nisbatan egatlarning namlanishi bo‘yicha tadqiqotlar natijalari bayon qilingan.

Аннотация. В данной статье представлены результаты исследований влияния применения различных методов орошения при поливе тонковолокнистого хлопчатника в условиях лугово-тачирных почв долины Сурхон-Шерабад на расход воды, затраты воды и время полива, а также увлажнение рядков в зависимости от их длины в слое почвы 0–45 см.

Abstract. This article presents the results of research on the application of different irrigation methods for thin-fiber cotton in the meadow-tachir soils of the Surkhan-Sherabad valley, focusing on water flow, water consumption, and irrigation duration, as well as the row moisture relative to soil volume in the 0–45 cm soil layer depending on the length of the rows.

Kalit so‘zlar. Сув, оқава, ҳарорат, нисбий намлик, меъёр, ғўза, нав, ингичка толали, гидрологик тартиб, оқим, ўзгарувчан оқим, дискрет, усул, эгат узунлиги, қудуқ, ҳайдалма қатлам, ҳосилдорлик.

Ключевые слова. Вода, сток, температура, относительная влажность, норма, хлопчатник, сорт, тонковолокнистый, гидрологический режим, поток, изменяющийся поток, дискретный, метод, длина ряда, колодец, проницаемый слой, урожайность.

Keywords. Water, runoff, temperature, relative humidity, norm, cotton, variety, thin-fiber, hydrological regime, flow, variable flow, discrete, method, row length, well, permeable layer, yield.

So‘nggi yillarda Markaziy Osiyo mintaqasida kuzatilayotgan iqlim o‘zgarishlari va suv tanqisligi mavjud suv manbalaridan oqilona foydalanish, qishloq xo‘jaligida ekinlarni sug‘orishda suvni tejash, sug‘orish sifatini oshiruvchi texnologiyalarni joriy etishni talab qilmoqda. Jumladan, respublikamizdagi asosiy ekin turi bo‘lgan g‘o‘za parvarishida sug‘orishni to‘g‘ri tashkil etish, mavjud suv zahiralaridan oqilona foydalanish va sug‘orishning foydali ish koeffitsientini oshirish dalada suvning egat bo‘ylab bir tekis taqsimlanishi va tuproqning bir tekisda namlanishini

ta’minlash, bunda har bir hududning tuproq-iqlim sharoiti, hududning suv bilan ta’minlanganlik darajasini va ekilayotgan navning biologiyasi xususiyatlarini bilish muhim ahamiyatga ega.

Albatta, yuqoridagi omillar sug‘orishda suvlarning oqavaga isrof bo‘lishi va namlikning tuproq yuzasidan fizik bug‘lanishini kamaytirish maqsadida sug‘orish texnologiyalarini yanada takomillashtirish, suv tanqisligining oldini olish va mavjud suv resurslaridan oqilona foydalanish maqsadida suvni tejaydigan, resurs tejovchi sug‘orish texnologiyalarini ilmiy asosda o‘rganish va ishlab chiqarishga joriy etish ishlari mazkur yo‘nalishda qator ilmiy tadqiqot ishlarini olib borishni talab etadi.

Ma’lumki, respublikamizning janubiy mintaqasida g‘o‘za amal davrida iqlim sharoiti keskin o‘zgaruvchan bo‘lib, sutkalik haroratning o‘ta balandligi va havoning quruqligi hamda nisbiy namlikning pastligi bilan boshqa mintaqalardan ajralib turadi. Ma’lumki, g‘o‘zaning o‘sishi va rivojlanishi uchun maqbul harorat 25–37°C hisoblanadi. Haroratning yuqori bo‘lishi, ayniqsa jazirama issiq, garmsel, issiq qumli bo‘ronlar, tuproq va atmosfera quruqligi nihollarning o‘sish va rivojlanishi, hosil elementlarining shakllanishi va pirovardida hosil to‘plashiga hamda uning sifatiga salbiy ta’sir etadi. Bunday holat shona, gul, tuguncha va mayda ko‘saklarning to‘kilishiga olib keladi.

Mintaqadagi global iqlim o‘zgarishlari ta’sirida qishning iliq kelishi, mart, aprel va may oylarida havo harorati eng past va eng baland amplitudasining katta ko‘lamda keskin o‘zgarishlari, yoz oylarida havoning haddan ziyod qizib, haroratning ko‘tarilib ketishi va bunday ob-havo uzluksiz uzoq vaqt (2018 y. 22 kun, 2019 y. 35 kun, 2020 y. 26 kun, 2021 y. kun, 2022 y. kun) davom etishi havo nisbiy namligining nihoyatda past bo‘lishiga, nam taqchilligining 90 mbar gacha oshib ketishiga olib kelmoqda.

Shuningdek, daryolarda suv oqimlarining kamayib borayotganligi, hududlarda yer osti zax suvlar sathining pasayib borayotganligi ilgari shakllangan gidrologik tartiblarga o‘zgartirish kiritmoqda.

Tadqiqot ishining maqsadi. Suvga bo‘lgan talabning barcha sohalarda kundan kunga oshib borayotganligini e’tiborga olib, yangi ingichka tolali g‘o‘za navlarini suv tanqisligi sharoitida parvarishlash va sifatli tola olish agrotexnikasini ishlab chiqishga doir sinov va dala tajribalari olib borildi. Ekinlarni sug‘orishga suv yetishmasligini yumshatish maqsadida egatlab sug‘orish texnologiyasini takomillashtirish usullari taqqoslab o‘rganildi.

1-jadval.

Sug‘orish texnologiyalarida maqbul suv oqimi, sarflangan suv me’yori va sarflangan vaqt (1-sug‘orish).

№ Variant	Sug‘orish texnologiyalari	Suv oqimi, l/s	Sug‘orish me’yori, m^3/ga	Sug‘orishga sarflangan vaqt, soat
1	Nazorat, o‘zgaruvchan oqimda sug‘orish	0,1 0,317 0,25	1607	12 13 24
2	Egatni traktor g‘ildiragi bilan zichlab, kesaklarni maydalab, tayyorlangan egatlardan sug‘orish	0,4 0,25	645	7 6
3	2-variantdagidek + diskret usulida sug‘orish	1,0	675	2,5 1,0 0,5 0,5

Tadqiqot o‘tkazish usuli. Tajribalar Ingichka tolali paxtachilik ilmiy-tadqiqot instituti Markaziy tajriba xo‘jaligi taqir-o‘tloq tuproqlari sharoitida O‘zPITI, O‘rta Osiyo Irrigatsiya ITI va xalqaro (FAO) metodik uslublariga asoslanib olib borildi. Suv sarfi VSK M 16/404 avtomatik suv hisoblash uskunasida o‘lchandi. Tuproq namligini aniqlashda VNP-1 “Elektronika” nam o‘lchash asbobidan foydalanildi. Suvning egatdagi harakati sekundomerda aniqlandi Ingichka tolali SP-1607 g‘o‘za navini sug‘orishda quyidagi sug‘orish texnologiyalari o‘rganildi.

Hamma variantlar qator oralatib sug‘orildi. Qator kengligi 60 sm, egat uzunligi 200 m, egatga beriladigan suv oqimining yo‘l qo‘yish mumkin bo‘lgan chegarasi 0,25–1,3 l/s ga teng. Tadqiqot

natijalari. 1-variant – o‘zgaruvchan oqimda sug‘orish deyarli barcha xo‘jaliklarda qo‘llaniladigan sug‘orish texnologiyasi bo‘lib, bunda dastlab sug‘orish ariqlariga suv tashlanib, mayda (0,1 l/s gacha) oqimda suv taralib ariqlar qotirib tayyorlab olinadi (tuproq qovushqoqligiga ko‘ra 4–5 soatdan 12–17 soatgacha).

1-bosqich: Taqir va taqir-o‘tloq tuproqlarda bu jarayonga taxminan 12 soat vaqt sarflandi va tajribada 14 qatorga 15 m³ suv sarflandi.

2-bosqich: 0,317 l/s oqimda 13 soat suv oqizildi, hisob maydoni 1680 m² bo‘lib, ushbu maydonga 103,8 m³ suv berildi.

3-bosqich: Mayda oqimda (0,25 l/s) 24 soat suv oqizildi, hisob maydoni 1680 m² bo‘lib, ushbu maydonga 151,2 m³ suv sarflandi. Oqovaga 550 m³/ga suv chiqarildi. Bu variantda 1607 m³/ga me’yorda suv oqizilishiga qaramay, egatning 1/3 qismi suvga to‘yingan, egatning adog‘ida esa 1/3 qismi yetarlicha namlanmaganligi qayd etildi va sug‘orish yakunlandi. Oradan 3 kun o‘tgach tuproq namligi aniqlandi. Unga ko‘ra: Egat boshidan 25 metr masofada 0–45 sm qatlamda tuproq hajmiga nisbatan 33,4% 75 metrda 31,6% 125 metrda 28,4% 175 metrda 25,6% 45–70 sm qatlamda esa: 35,8%, 33,0%, 30,0% va 26,2% namlanishga erishilganligi aniqlandi.

2-variant: Suvning oqishiga kesaklarning qarshiligini kamaytirish (sug‘orishni tez yakunlash, suvni tekis taqsimlash, oqovaga chiqarmaslik va suv sarfini kamaytirish uchun) maqsadida egat yuzasi traktor (g‘ildiragi) bilan tekislab, zichlashtirib, kesaklarni maydalab tayyorlangan, shuningdek, yer tekislash vaqtida (egatni bosh qismini ortiqcha namlanib ketmasligi, quyi qismi ham yetarlicha namlanishi uchun) dalaning pastki qismida 40–60 m masofada “O” nishablikka kelgunicha qo‘shimcha tekislab tayyorlangan egatlardan sug‘orildi.

1-bosqich: Suv 0,4 l/s oqimda egat oxiriga yetguncha oqizildi. Suv 4,5–5 soatda egat oxiriga yetib keldi va ilg‘or oqim adoqdagi ariqlardan 50 m lik “O” nishablikka ega maydonga teskari oqizildi hamda tenglashtirish uchun sug‘orish yana 2 soat davom etdi. Oqova chiqarilmadi. Suv sarfi: 420 m³/ga tashkil etdi.

2-bosqich: Suv 0,25 l/s ga kamaytirildi. 1680 m² maydonga 37,8 m³ yoki 225 m³/ga suv oqizildi. Dalaning oxiridagi 50 metrlik maydonga ham yetarlicha suv berildi. Jami 645 m³/ga me’yorda sug‘orildi, jami 13,0 soatda sug‘orish yakunlandi. Oqova chiqarilmadi. Suvning egat bo‘ylab taqsimlanishini tekshirish maqsadida sug‘orishdan 3 kun o‘tib tuproq qatlamlari namligi aniqlandi.

Unga ko‘ra 0–45 sm qatlamda: 1-quduqda tuproq hajmining 30,2% 2-quduqda 29,1% 3-quduqda 27,8% 4-quduqda 31,4% 45–70 sm qatlamda esa yuqoridagi holga mos ravishda: 29,3%, 27,4%, 26,2% va 30,0% qayd etildi.

Kuzatishlar davomida sug‘orishga olingan suvning ko‘proq haydalma qatlamga singib, keyingi kunlarda pastki qatlamga siljiganligi aniqlandi.

3-variant: Sug‘orishning diskret (takt) texnologiyasi qo‘llanildi. Hisoblangan sug‘orish me’yori katta oqimda bir necha takt bilan oqizildi.

2-jadval.

Ingichka tolali yangi g‘o‘za SP-1607 navi hosildorligining egat uzunligi bo‘yicha o‘zgarishi, ts/ga

Variantlar	0-50 метр masofada	50-100 метр masofada	100-150 метр masofada	150-200 метр masofada	urtacha,s/ga	Sug‘orish me’yori, m³/ga
1	30,5	35,2	34,0	28,4	32,0	6037
2	36,5	33,5	30,0	35,6	33,9	4400
3	37,0	37,4	36,5	34,6	36,4	4535

1-bosqich: 1,0 l/sek. suv oqimida egat oxiriga yetishi va namlanishi uchun 2,5 soat vaqt sarflandi. Bunda egatga 375 m³/ga suv berildi va sug‘orish taqsimlash uzelidan to‘xtatildi (keyingi blokka oqizildi). 3 soatlik tanaffusdan so‘ng yana 1,0 l/sek. oqimda oqizildi; bu safar suvning egat oxiriga yetishi va oxirgi ¼ qismini namlashi uchun 1 soat sarflandi va 150 m³/ga suv berildi. 3- va 4-taktlarda suvning egat oxiriga yetib kelishi uchun 30 minut sarflandi. Sug‘orishga 4 taktda jami 675 m³/ga suv sarflandi va sug‘orish yakunlandi.

Tuproq namligi: 0–45 sm qatlamda: 31,2%; 30,0%; 30,0%; 29,0% 45–70 sm qatlamda:

31,0%; 30,0%; 29,3%; 28,5% Raqamlardan ko‘rinib turibdiki, bu usulda egatning boshidan oxirigacha teng namlanishga erishilgan.

G‘o‘zani egatlab sug‘orish texnologiyasi imkoniyatlaridan to‘liq foydalanish evaziga sug‘orishga sarflangan vaqtni amalda (1-variantda) qo‘llanilayotgan texnologiyaga nisbatan 2-variantda 36 soatga, sug‘orish me’yorini esa 2,5 marta kamaytirish mumkinligi aniqlandi. Sug‘orishning diskret texnologiyasi qo‘llanilganda esa sug‘orish vaqtini qo‘llanilayotgan texnologiyaga nisbatan 10 marta, sug‘orish me’yorini esa 2,5 marta kamaytirgan holda egat uzunligi bo‘yicha tuproqning bir xil namlanishiga erishildi. Keyingi sug‘orishlarda ham yuqoridagi kabi ma’lumotlar olindi.

Sug‘orish texnologiyalarini baholash uchun olingan hosil miqdori tahlil qilinanda diskret texnologiya qo‘llangan variantda, sug‘orish me’yori 4–5 takt bilan nisbatan katta oqimda sug‘orilganda eng yuqori hosil (36,4 ts/ga) olindi. fermer xo‘jaliklarida qo‘llanilayotgan an’anaviy texnologiyada ko‘p suv berilishiga (6037 m³/ga) qaramay, hosil 32,0 ts/ga bo‘ldi. Egatlar tekislanib, kesaklar maydalangan tayyor egatlardan o‘zgaruvchan oqimda sug‘orilgan variantda hosildorlik 33,9 ts/ga ni tashkil etdi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Avliyaqulov A. Suv tanqisligi sharoitida g‘o‘za-ğalla-don majmuasidagi ekinlardan mo‘l hosil olish agrotadbirlar tizimi majmuasi. Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi ma’ruzalari to‘plami. Toshkent, 2011.- 113-b.

2. Boltabayev X. Sug‘orishda tejamkor texnologiya / X. Boltabayev, A. Shokirov // Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman ma’ruzalari to‘plami. Toshkent, 2012.- 287-b.

3. Bezborodov Yu.G. Planirovanie orosheniya selskokhozyaystvennykh kultur na zasolennykh zemlyakh. Yu.G. Bezborodov, G.A. Bezborodov, M.Yu. Esanbekov. Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi ma’ruzalari to‘plami. Toshkent, 2011.- 10-b.

4. Zh. Noraliev, A. Avliyaqulov, A. Yangiboyev, A. Donaboyev. Rekomendatsii po vodnopitatel’nym rezhimom osnovnogo i povtornogo posle zernovogo poseva khlopchatnika v Surkhan-Sherobodskoy doline (Babatagskiy massiv). Toshkent, 1999.- 30-s.

5. M.B. Muhammadjonov, S.M. Sulaymonov. Erni e’zozlaylik, uning hosildorligini oshiraylik. Toshkent, “Mehnat”, 1986.- 30-b.

6. O.T. Alimardonov, B.Ch. Jo‘raev, N.N. Ochildiev, A.B. Danabayev. “Surxondaryo viloyatida g‘ozadan yuqori va sifatli hosil yetishtirish agrotexnologiyalari.” Termiz, 2022.- 163-b.

7. Ch. Saidov, A. Donabayev. Nanotexnologiya XXI asr texnologiyasi. TerDU “Nazariy fizika” Res-ka konferensiyasi. Termiz, 2010.- 3-b.

8. Yu.I. Shirokova, I. Forkutsa, A. Donabayev. Obosnovanie korrektirovki srokov poliva khlopchatnika na zasolennykh pochvakh na osnove eksperimental’nykh dannykh. Tr. SANIIR, 2001.- 9-s.

9. Yu.I. Shirokova, I. Forkutsa, A. Donabayev. Upravlenie solevym rezhimom pochvi v period vegetatsii khlopchatnika. Tr. SANIIR, 2002.- 3-s.

10. Belousov M.A. Fiziologicheskie osnovy kornevogo pitaniya khlopchatnika. Toshkent, 1964.

УДК: 631.17:004.4

РОЛЬ И ЗНАЧЕНИЕ «СМАРТ-ТЕХНОЛОГИЙ» В СМЯГЧЕНИИ ДЕФИЦИТА ВОДЫ ПРИ ЦИФРОВИЗАЦИИ СЕЛЬСКОГО ХОЗЯЙСТВА

Суванкулов Бахтиёр Мамарасулович, Суванкулова Рухшона Гулом кизи
Джизакского государственного педагогического университета имени А. Кадири

Аннотация: *В данной статье рассматриваются проблемы дефицита воды в сельском хозяйстве в условиях глобального изменения климата и методы их решения с помощью «смарт-технологий». Проанализирована эффективность систем цифрового мониторинга и автоматизированного орошения в засушливых регионах Джизакской области. По результатам исследования сделаны научные выводы о преимуществах интеллектуальных систем в экономии ресурсов и повышении урожайности.*

Ключевые слова: *смарт-технологии, дефицит воды, цифровизация, мониторинг, инновационное орошение, IoT, изменение климата, агротехнологии, датчики, Джизакская область.*

ВВЕДЕНИЕ

На сегодняшний день во всем мире, и особенно в регионе Центральной Азии, наблюдается резкое сокращение водных ресурсов. Согласно прогнозам экспертов, к 2030 году дефицит воды в регионе может достичь критических отметок, что напрямую угрожает продовольственной безопасности. Для Узбекистана, где сельское хозяйство является ключевым сектором экономики, этот вопрос стоит особенно остро. В условиях Джизакской области, характеризующейся резко континентальным климатом, высокой испаряемостью и ограниченными водными ресурсами, традиционные методы полива (напуском или по бороздам) становятся не только неэффективными, но и экологически опасными.

Президент Республики Узбекистан Шавкат Мирзиёев в рамках стратегии развития «Цифровой Узбекистан – 2030» неоднократно подчеркивал необходимость перехода на «умное» сельское хозяйство. Концепция конференции ICMASTAD 2026 ориентирована на внедрение технологий «Smart Agriculture», которые позволяют минимизировать человеческий фактор, оптимизировать распределение ресурсов и максимизировать отдачу от каждого кубометра воды. Рациональное использование воды через цифровизацию — это единственный путь сохранения аграрного потенциала региона.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ

Объектом исследования послужили аграрные площади Мирзачульского и Зафарабадского районов Джизакской области, которые наиболее подвержены дефициту воды и засолению почв. Методологическую базу составили современные подходы в области интернета вещей (IoT) и анализа больших данных (Big Data). Для сбора и обработки первичной информации использовались следующие технологические решения:

Системы мониторинга влажности почвы с использованием высокоточных емкостных датчиков, установленных на разной глубине (30 см, 60 см и 90 см).

Беспроводные протоколы передачи данных малой мощности (LoRaWAN), обеспечивающие связь между датчиками на поле и удаленным сервером управления на расстоянии до 15 км.

Локальные метеорологические станции для автоматического расчета индекса эвапотранспирации, что позволяет корректировать график полива в зависимости от скорости ветра и солнечной радиации.

В ходе исследования проводился многофакторный сравнительный анализ полей, где применялось традиционное бороздковое орошение, и экспериментальных участков, оснащенных полностью автоматизированной интеллектуальной системой капельного полива с функцией обратной связи.

РЕЗУЛЬТАТЫ И ИХ ОБСУЖДЕНИЕ

Интеллектуальная система орошения функционирует на основе адаптивных алгоритмов, которые учитывают не только текущие показатели влажности, но и краткосрочные метеорологические прогнозы. Ключевым отличием «смарт-системы» от обычной автоматики является способность к самообучению. Если датчики фиксируют критическое снижение влажности в корневой зоне, система инициирует подачу воды.

Однако, если система получает данные о высокой вероятности осадков в ближайшие часы, полив блокируется, что предотвращает вымывание питательных веществ из почвы и экономит электроэнергию.

В Джизакской области за период 2024-2025 годов внедрение данных технологий позволило фермерским хозяйствам достичь качественно новых результатов. Основной проблемой региона остается вторичное засоление, вызванное подъемом грунтовых вод при избыточном поливе. «Смарт-технологии» решают эту проблему путем прецизионной (точечной) подачи воды, при которой увлажняется только прикорневая зона, а не все междурядье.

Таблица 1. Сравнительные показатели эффективности систем (на 1 га площади)

Параметры анализа | Традиционный полив | Смарт-система (IoT) | Экономический эффект |

Годовой расход воды (м^3) | 7800 | 3150 | Экономия 59.6% |

Средняя урожайность (ц/га) | 32 | 55 | Рост на 71.8% |

Затраты электроэнергии (кВт/ч) | 450 | 185 | Экономия 58.9% |

Трудозатраты (чел/час на га) | 120 | 18 | Сокращение на 85% |

Качество продукции (сортность) | I-II сорт | Высший сорт | Повышение цены на 20% |

Важным научно-практическим аспектом является интеграция систем фертигации. Смарт-контроллеры рассчитывают точную концентрацию азотных и калийных удобрений в зависимости от фазы развития растения (бутонизация, цветение, созревание). Это снижает общую химическую нагрузку на почву Джизакской области на 25-30%, предотвращая загрязнение подземных вод нитратами.

Несмотря на очевидные преимущества, переход на цифровое орошение в регионе сталкивается с определенными барьерами. Во-первых, это высокая первоначальная стоимость оборудования. Во-вторых, наблюдается дефицит квалифицированных специалистов в сельской местности, способных настраивать и обслуживать IT-инфраструктуру. В-третьих, сложный ландшафт некоторых районов Джизакской области требует индивидуального проектирования беспроводных сетей.

ВЫВОДЫ

На основании проведенного исследования можно сформулировать следующие научно-обоснованные выводы:

Цифровизация водного хозяйства — это безальтернативный путь обеспечения устойчивого развития аграрного сектора в засушливых регионах Узбекистана.

Использование IoT-датчиков и систем принятия решений позволяет экономить до 60% поливной воды, что является критическим фактором в условиях нарастающего дефицита.

Внедрение интеллектуальных систем в Джизакской области не только повышает рентабельность фермерских хозяйств, но и стабилизирует экологическую ситуацию, препятствуя деградации земель.

Существует острая необходимость в создании региональных научно-образовательных центров на базе Джизакского государственного педагогического университета для подготовки педагогов и специалистов, способных обучать фермеров основам «Agro-IT».

ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА

1.Мирзиёев Ш.М. Стратегия развития сельского хозяйства Республики Узбекистан на 2020-2030 годы.

2.Каримов И.Р. Инновации в водном хозяйстве Центральной Азии. Ташкент: "Алока", 2024.

3.Smith, J. "Precision Agriculture and Global Water Scarcity". Academic Press, 2023.

4.Данные Джизакского областного управления водного хозяйства, 2025 г.

5.Хамидов М.Х. Оросительные мелиорации и охрана природы. Ташкент: "Шарк", 2022.

6.Усманов Н.А. Цифровые технологии в агрономии. Самарканд, 2024.

UO‘T: 633.11; 631.5/8

OCH TUSLI BO‘Z TUPROQLAR SHAROITIDA KUZGI BUG‘DOY YETISHTIRISHDA MAQBUL O‘G‘ITLASH ME’YORI

Karimov Nuriddin Payzullayevich
Qarshi davlat texnika universiteti assistenti

Annotatsiya: Mazkur tadqiqot ishida Qashqadaryo viloyatining sug‘oriladigan och tusli bo‘z tuproqlari sharoitida kuzgi bug‘doy navlarini yetishtirishda va maqbul hosildorlikka erishishda suv tejamkor sug‘orish texnologiyasining ta’sir va samaradorligini yanada aniqroq baholash maqsadida, mineral o‘g‘itlar va ularning maqbul nisbatlarda berilishi hamda begona o‘tlarga qarshi olib borilgan chora-tadbirlar tahlillari bayon qilingan. Dala tajribalari natijalariga ko‘ra, kuzgi bug‘doyning “Tanya”, “Asr” va “Yaksart” navlarini yetishtirishda mineral o‘g‘itlarni $N_{180}P_{90}K_{60}$

kg/ga me’yorida va tabaqalashtirilgan holda qo‘llash o‘simliklarning o‘sish va rivojlanish jarayonlariga ijobiy ta’sir ko‘rsatganligi aniqlangan.

Kalit so‘zlar: *och tusli bo‘z tuproqlar, tajribalar, kuzgi bug‘doy, navlar, hosildorlik, mineral o‘g‘itlar, me’yor, begona o‘t.*

Аннотация. В данной исследовательской работе с целью более точной оценки влияния и эффективности водосберегающей технологии орошения при возделывании сортов озимой пшеницы и достижении оптимальной урожайности в условиях орошаемых светлых сероземных почв Кашкадарьинской области, представлен анализ минеральных удобрений и их внесения в оптимальных пропорциях, а также проведенные мероприятия против сорняков. По результатам полевых опытов установлено, что при возделывании сортов озимой пшеницы “Таня”, “Аср” и “Яксарт” применение минеральных удобрений в норме $N_{180}P_{90}K_{60}$ кг/га и дифференцированное внесение оказало положительное влияние на процессы роста и развития растений.

Ключевые слова: *светлые сероземы, опыты, озимая пшеница, сорта, урожайность, минеральные удобрения, норма, сорняки.*

Abstract. In this research work, in order to more accurately assess the influence and effectiveness of water-saving irrigation technology on the cultivation of winter wheat varieties and obtaining an optimal yield under the conditions of irrigated light gray soils of the Kashkadarya region, an analysis of mineral fertilizers and their application in optimal ratios, as well as measures taken against weeds, is presented. According to the results of field experiments, when cultivating winter wheat varieties “Tanya”, “Asr” and “Yaksart” the application of mineral fertilizers at a rate of $N_{180}P_{90}K_{60}$ kg/ha and differentiated application had a positive effect on the growth and development processes of plants.

Keywords: *light gray soils, experiments, winter wheat, varieties, yield, mineral fertilizers, rate, weeds.*

Kirish. Bugungi kunda jahon bo‘ylab tobora avj olib borayotgan muammolardan biri – suv resurslarining yetishmovchiligidir. Oxirgi yillarda Yer sharida insoniyatning ko‘payishi, uning iste’mol talabining ortishi oqibatida suvga bo‘lgan ehtiyoj har qachongidan ham oshib bormoqda. Iqlim o‘zgarishi suv yuzalaridan suvning bug‘lanishini 10-15% ga, o‘simliklar transpiratsiyasi va sug‘orish me’yorlarining ortishi tufayli suvning 10-20% ko‘proq sarflanishiga olib keladi. Bu esa suvning tiklanmay iste’mol qilinishini o‘rta hisobda 18% ga ortishiga olib keladi. Bu, shubhasiz, qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishining keyingi o‘sishini qiyinlashtiradi.

Qishloq xo‘jaligi sohasidagi o‘simlik yetishtirish bilan bog‘liq har qanday faoliyatning asosiy maqsadi mo‘l hosil olishdan iborat. Ekinlarning hosildorligi asosan 3 ta omilga bog‘liq: nav 35–40 foiz, to‘g‘ri amalga oshirilgan agrotexnik tadbirlar 30–35 foiz va o‘simlik o‘sish hamda rivojlanishi davridagi ob-havo sharoiti hosildorlikning 25–30 foizini ta’minlaydi. Bundan tashqari, tuproqning xususiyatlari, navlarni to‘g‘ri tashlash, zamonaviy texnologiyalar imkoniyatlaridan foydalanish kabilar ham bu borada o‘z salmog‘iga ega [4].

Adabiyotlar sharhi. Kuzgi bug‘doy navlarini yetishtirishda jadal agrotexnologiyalarning tadbiq etilishi, don hosildorligini oshirish bilan bir qatorda sug‘oriladigan yerlardan samarali foydalanish, donning texnologik sifat ko‘rsatkichlarini oshirish eng dolzarb vazifalardan hisoblanadi [1].

Dunyo bo‘yicha bug‘doy yetishtirish yiliga 760 million tonnani tashkil etadi, 2030-yilga kelib bu ko‘rsatkich 850 million tonnaga oshirish kutilmoqda. Shu munosabat bilan butun dunyoda qishloq xo‘jaligi mahsulotlari sifatini oshirishga qaratilgan seleksiya yo‘nalishlari keng tarqalmoqda. Buning uchun ko‘p tadqiqotlar jahonda ham, yurtimizda ham, tuproq-iqlim sharoitlarini hisobga olgan holda, dehqonchilikning moslashuvchan tizimini ishlab chiqish va joriy etish asosidagina bug‘doy donining sifati sezilarli darajada oshishiga erishish mumkin. Shu bois, hosildor, yuqori don sifat ko‘rsatkichlariga ega bo‘lgan, stressli ekologik sharoitlarga chidamli navlarni yaratish uchun boshlang‘ich shakllarini o‘rganish, genetik manbalarni ajratish va chatishtirish dasturlarida yangi istiqbolli bug‘doy navlarini yaratish dolzarb muammo hisoblanadi.

Kuzgi bug‘doy yetishtirishda uning parvarishi bo‘yicha barcha agrotexnika tadbirlarning o‘z vaqtida sifatli o‘tkazilishi mo‘l va sifatli don yetishtirishning asosiy omilidir. G‘alla yetishtirish

texnologiyasi har bir mintaqada o‘ziga xos bo‘lib, e’tibor o‘sha tuproq-iqlim sharoitida yuqori va sifatli don yetishtirishga qaratilishi kerak.

Bug‘doyning rivojlanish davrlari bir necha bosqichlarda davom etadi. Kuzgi bug‘doyning rivojlanish davrlari quyidagilar: urug‘larning bo‘rtishi va ildizlarning nish chiqarishi - unib chiqish davri, tuplanish davri, naychalash davri, boshoqlash davri, gullash davri, pishish davri (sut pishish, mum pishish, to‘liq pishish). Urug‘larning bo‘rtishi katta miqdorda namlikni shimib olish bilan o‘tadigan murakkab fiziologik va biokimèviy jarayondir. Urug‘lar bo‘rtishi uchun sharoitga qarab o‘z vazniga nisbatat 45-50 % dan 54-57 % gacha suv shimib olishi lozim [2].

Tadqiqot uslublari. Ilmiy tadqiqotlarimiz 2022-2024 yillar mobaynida Qashqadaryo viloyatining sug‘oriladigan och tusli buz tuproqlari sharoitida amalga oshirildi. Tajribalar amalga oshirilgan maydon tuprog‘i och tusli bo‘z tuproqdir. Tajribalarimizda sug‘orishlar sug‘orishdan oldingi tuproq namligi ChDNS ga nisbatan 65-70-60%; 70-75-65%; 75-80-70% tartiblarda olib borilgan.

Tuproq va o‘simlik namunalarini tanlash, tuproq namligi, suv va kuzgi bug‘doy hosilini hisobga olish, ularni tayyorlash va tahlil qilish umumiy qabul qilingan usullar bo‘yicha amalga oshirildi [3].

Tadqiqot tahlili. Tadqiqotlarimizda dala tajribasi sharoitida kuzgi bug‘doy navlarini yetishtirishda va maqbul hosildorlikka erishishda suv tejamkor sug‘orish texnologiyasining ta’sir va samaradorligini yanada aniqroq baholash maqsadida, mineral o‘g‘itlar $N_{180}P_{90}K_{60}$ kg/ga nisbatda qo‘llanildi. Mineral o‘g‘itlardan fosforli (ammofos) va kaliyli (kaliy tuzi) o‘g‘itlarni yillik me’yorining 100% ni urug‘lar dalaga ekilishidan oldin yer tayyorlashda berildi. Azotli (ammoniy silitra) o‘g‘itning belgilangan yillik me’yorini 20% ni kuzgi bug‘doyning tuplanish fazasida, 30% ni naychalash fazasida, 30% ni naychalash-gullash davrida, qolgan 20% ni to‘la boshoqlash fazalarida tabaqalashtirilib berildi.

Dala tajribalari natijalari shuni ko‘rsatdiki, kuzgi bug‘doy yetishtirishda mineral o‘g‘itlarni $N_{180}P_{90}K_{60}$ kg/ga me’yorida va tabaqalashtirilgan holda qo‘llash o‘simliklarning o‘sish va rivojlanish jarayonlariga ijobiy ta’sir ko‘rsatdi. Fosforli va kaliyli o‘g‘itlarning yillik me’yorini 100% ni ekish oldidan berish ildiz tizimining rivojlanishini tezlashtirib, o‘suv davrining dastlabki bosqichlarida o‘simliklarning oziqlanish sharoitini yaxshiladi. Natijada kuzgi bug‘doyning qishlashga chidamliligi oshdi hamda tuplanish koeffitsienti yuqori bo‘ldi. Azotli o‘g‘itni o‘suv fazalari bo‘yicha tabaqalashtirib qo‘llash o‘simliklarning fiziologik ehtiyojlariga mos ravishda oziqlanishini ta’minladi. Xususan:

- tuplanish fazasida berilgan 20% azot vegetativ massa shakllanishini faollashtirdi;
- naychalash fazasidagi 30% azot ozuqa moddalarining o‘zlashtirilishini kuchaytirib, poyaning mustahkamligini oshirdi;
- naychalash-gullash davrida berilgan 30% azot don shakllanishi uchun zarur bo‘lgan assimilyatsiya jarayonlarini rag‘batlantirdi;
- to‘la boshoqlash fazasidagi 20% azot esa don to‘lishini yaxshilab, 1000 dona massasi va don sifat ko‘rsatkichlarini oshirishga xizmat qildi.

Suv tejamkor sug‘orish texnologiyasi sharoitida mazkur o‘g‘itlash tizimi tuproq namligidan foydalanish samaradorligini oshirib, suv bilan birga o‘g‘itlarning yuvilib ketishini kamaytirdi. Natijada o‘simliklar tomonidan ozuqa moddalarining o‘zlashtirilish koeffitsienti yuqori bo‘lib, hosildorlik va suv sarfi birligiga to‘g‘ri keladigan don chiqimi oshdi. Shu tariqa, mineral o‘g‘itlarning ilmiy asoslangan me’yor va muddatlarda qo‘llanilishi suv tejamkor sug‘orish texnologiyasi bilan uyg‘un holda kuzgi bug‘doy yetishtirishda yuqori agronomik va iqtisodiy samaradorlikni ta’minladi.

Tajriba doirasida kuzgi bug‘doy maydonlarida uchraydigan begona o‘tlarni tozalash ishlari qisman qo‘lda (ketmon chopiq qilish bilan) va kimyoviy yo‘l orqali, kasallik va zararkunandalarga qarshi kimyoviy kurash tadbirlari bahorgi o‘suv davrida qo‘l apparati yordamida amalga oshirildi. Tajriba dalasidagi begona o‘tlarga qarshi kurashish maqsadida Granstar gerbidsidi 25 g/ga me’yorida hamda kasalliklariga qarshi Entalucho 150 g/ga me’yorida qo‘llanildi. Kasallik va zarakunandalarga qarshi ikkinchi ishlov berish jarayonida Alto super 300 g/ga va Entalucho 100 g/ga me’yorida qo‘llanildi.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlab o‘tish kerakki, Qashqadaryo viloyatining sug‘oriladigan och tusli bo‘z tuproqlari sharoitida kuzgi bug‘doyning “Tanya”, “Asr” va “Yaksart” navlarini yetishtirishda suv tejamkor sug‘orish texnologiyasini ishlab chiqish borasida olib borilgan tadqiqotlarimizga ko‘ra, tadqiqot mintaqasining tabiiy sharoitlari va tajriba maydoni tuproqlari, hududning iqlim sharoiti o‘rganilib, o‘tkazilgan tajriba tizimi va uslubiyati, o‘rganilgan kuzgi bug‘doy navlarini sug‘orishda yomg‘irlatib sug‘orish usuli va uning texnik ko‘rsatkichlari tadqiq qilinishi hamda dalada o‘z vaqtida o‘tkazilgan agrotexnik tadbirlar mazkur tadqiqot ishini amalga oshirishda va ilmi-amaliy xulosalar chiqarishda chuqur ahamiyat kasb etdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. Atabayeva X.N., Azizov B.M. «Bug‘doy». Monografiya, T. ToshDAU, 2008, 105 bet.
2. G‘ofirov A., Isayev S. Turli darajada sho‘rlangan tuproqlarda kuzgi bug‘doyning oziqa rejimi. Monografiya. Toshkent. 2023. 79-bet.
3. Доспехов Б.А. Методика полевого опыта. М.: Колос, 1973.
4. https://www.agro.uz/https-www-agro-uz-11-0081/

NO‘XAT NAVLARIDA SUG‘ORISH ME’YORLARI VA SUG‘ORISHLAR SONINING ILMIY ASOSLARI

Meyliyeva Shoxista Rustamovna
Sodiqova Zarinabonu Mirzoxid qizi
Qarshi davlat texnika universiteti

Annotatsiya. Maqolada no‘xat ekinining turli o‘suv fazalarida sug‘orish me’yorlari va sug‘orishlar sonining tuproq namligi hamda ildiz tizimining faol qatlam chuqurligiga bog‘liqligi o‘rganildi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, sug‘orish me’yorlari sug‘orishdan oldingi tuproq namligi darajasiga bevosita bog‘liq bo‘lib, gullash va don shakllanishi fazalarida suvga bo‘lgan talab keskin ortishi aniqlandi.

Kalit so‘zlar*: no‘xat, sug‘orish me’yori, tuproq namligi, o‘suv fazasi, ChNS*

Kirish. Qishloq xo‘jaligida suv resurslaridan oqilona foydalanish ekinlar hosildorligini oshirish bilan bir qatorda agroekotizim barqarorligini ta’minlashda muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa, no‘xat kabi dukkakli ekinlarda sug‘orish rejimini ilmiy asosda tashkil etish yuqori va barqaror hosil olishning asosiy omillaridan biri hisoblanadi. Shu bois ushbu tadqiqotda no‘xat navlarining sug‘orish me’yorlari va sug‘orishlar soni sug‘orishdan oldingi tuproq namligi darajalariga bog‘liq holda o‘rganildi.

Tadqiqot ob’yekti va metodikasi. Tajriba maydonida yetishtirilgan no‘xat o‘simligi navlarining sug‘orish me’yorlari va sug‘orish sonlari, sug‘orishlardan oldingi qabul qilingan tuproq namligiga, ekinning ildizi tarqalgan faol qatlam chuqurligiga bog‘liq holda turlicha bo‘lganligi aniqlandi.

Tajribaning barcha variantlarida birinchi sug‘orishdan oldingi tuproq namligi ChNSga nisbatan 70% faol qatlam chuqurligi 50 sm bo‘lganda amaliy sug‘orish me’yori 580-623 m^3/ga ni tashkil qilgan.

Ikkinchi sug‘orishda barcha variantlarda no‘xat o‘simligining ildiz va yer usti organlarini jadal o‘sish fazasiga kirishi munosabati bilan sug‘orishdan oldingi tuproq namligini aniqlash chuqurligi 70 sm qilib belgilandi va nazariy sug‘orish me’yorini belgilashda shu chuqurlik olingan.

Yuqorida keltirilgan holat bo‘yicha tajriba variantlarida ya’ni sug‘orishlardan oldingi tuproq namligi 70% (ChNSga nisbatan) bo‘lganda sug‘orish me’yori 856 m^3/ga, sug‘orishdan oldingi tuproq namligi 75% (ChNSga nisbatan) bo‘lgan variantlarda 685 m^3/ga, sug‘orishdan oldingi tuproq namligi 80% (ChNSga nisbatan) bo‘lgan variantlarda esa 557 m^3/ga ni tashkil qilgan.

No‘xat navlarining gullash va donining shakllanish fazalarida suvga bo‘lgan talabini keskin oshib borishini hisobga olib, shu o‘suv fazasidan boshlab sug‘orishlardan oldingi tuproq namligini aniqlash uchun uning chuqurligini 100 sm qilib belgilandi.

Natijada tajribada sug‘orishlardan oldingi tuproq namligi 70-80% bo‘lganda (ChNSga nisbatan) amaliy sug‘orish 3 marta bo‘lib, sug‘orish me’yorlari esa 623-1198 m^3/ga ni tashkil qildi.



Sug‘orishlardan oldingi tuproq namliklari bilan mavsumiy sug‘orish me’yorlari.

Yuqorida keltirilgan no‘xat navlarining sug‘orish sonlari, har galgi va mavsumiy sug‘orish me’yorlarini tahlil qilib xulosa qilish mumkinki, o‘rganilgan no‘xat navlarini dastlabki gullash davrigacha bir marta 580-623 m^3/ga me’yorida sug‘orish, gullash davrining dastlabki bosqichida ikkinchi sug‘orishni amalga oshirish va bunda sug‘orishlardan oldingi tuproq namligi 70% bo‘lganda 856 m^3/ga, 75% bo‘lganda 685 m^3/ga va 80% bo‘lganda esa 557 m^3/ga hisobida sug‘orish talab qilinadi.

Ikkinchi va uchinchi sug‘orishlar no‘xat navlarini gullash va don shakillanishi davomida o‘tkazilib, bundan tuproqning sug‘orishlardan oldingi tuproq namligi 70% bo‘lganida 3 marta, 1198-1231 m^3/ga me’yorda suv talab qilinishi aniqlandi.

Tajriba maydonida o‘rganilgan no‘xat navlarining umumiy suv iste’molini aniqlash uchun o‘suv davri davomida tushgan atmosfera yog‘inlar miqdori, shu davrda tuproq namlik zahirasidan o‘simliklar tomonidan o‘zlashtirilgan suv miqdori va no‘xat navlarini o‘sishi, rivojlanishi, hosil to‘plash uchun sarflangan mavsumiy sug‘orish me’yorlari hisobga olindi. Tajriba maydonida sizot suvlarining mavsumiy joylashish chuqurligi 3 m dan chuqurda bo‘lganligi, bu suvlardan o‘rganilgan no‘xat navlari foydalana olmaganligi tufayli, ular hisobga olinmadi. Tajriba maydonidagi no‘xat navlarining umumiy suv iste’molini aniqlash natijalari ilovada keltirilgan.

Ushbu jadval ma’lumotlarini ko‘rsatishicha, tajriba o‘tkazilgan yilda umumiy suv iste’moli barcha variantlarda mavsumiy sug‘orish me’yorlari hissasiga to‘g‘ri kelib, bu miqdor yillar bo‘yicha umumiy suv sarfining 77-90% ni tashkil qildi. Suv iste’molining tuproq tarkibidagi namlik zahirasidan foydalanish hissasi 7-10% va atmosfera yog‘inlaridan foydalanish esa 3-16 ni tashkil qildi.

Xulosa. O‘tkazilgan tadqiqotlar natijasida no‘xat navlarining sug‘orish me’yorlari va sug‘orishlar soni sug‘orishdan oldingi tuproq namligi hamda o‘suv fazalariga bevosita bog‘liq ekanligi aniqlandi. Ayniqsa, gullash va don shakllanishi fazalarida sug‘orish rejimini ilmiy asosda tashkil etish no‘xat ekinining suvga bo‘lgan ehtiyojini qondirish va yuqori hosildorlikka erishishda muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Axmedov A.A., Qodirov B.F. **Qishloq xo‘jalik ekinlarini sug‘orish asoslari.** – Toshkent: O‘qituvchi, 2015. – 256 b.

2. Umarov M.U., Karimov S.K. **Sug‘oriladigan dehqonchilikda suv rejimini boshqarish.** – Toshkent: Fan, 2018. – 312 b.

3. Xamidov M.X., Islomov S.J. **Dukkakli don ekinlarini yetishtirish texnologiyasi.** – Toshkent: ToshDAU nashriyoti, 2017. – 198 b.

4. Dospexov B.A. **Dala tajribalari metodikasi.** – Moskva: Agropromizdat, 1985. – 351 s.

5. FAO. **Crop Water Requirements (Irrigation and Drainage Paper 56).** – Rome, 1998. – 326 p.

6. Allen R.G., Pereira L.S., Raes D., Smith M. **Crop Evapotranspiration – Guidelines for Computing Crop Water Requirements.** – FAO, Rome, 1998.

7. Mirzayev I.T., Rasulov A.A. **Sug‘oriladigan tuproqlarning suv-fizik xossalari.** –

Toshkent: Fan, 2016. – 224 b.

8. O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi. **Sug‘oriladigan yerlar uchun agrotexnik tavsiyalar.** – Toshkent, 2020. – 144 b.

9. Ziyamuxamedov B.B. **No‘xat va boshqa dukkakli ekinlar biologiyasi va agrotexnikasi.** – Samarqand, 2014. – 176 b.

10. Islomov S.J., Nurmatov Sh.N. **Sug‘orish me’yorlarini hisoblash usullari.** – Toshkent: TIQXMMI, 2019. – 210 b.

QISHLOQ XO‘JALIGI EKINLARI SELEKSIYASI, RESURSTEJAMKOR YETISHTIRISH VA QAYTA ISHLASHDA SMART TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

X.Sh. Azimov
Iqtisodiyot va pedagogika universiteti

Annotatsiya. Maqolada qishloq xo‘jaligi ekinlarini seleksiya qilish, resurstejamskor yetishtirish va qayta ishlash jarayonlarida smart texnologiyalardan foydalanishning ilmiy asoslari va amaliy imkoniyatlari tahlil qilinadi. Tadqiqotda sun’iy intellekt, IoT sensorlari va raqamli monitoring platformalari yordamida ekin seleksiyasi, hosildorlikni oshirish, resurslardan samarali foydalanish va qayta ishlash jarayonlarini optimallashtirish usullari ko‘rsatildi. Olingan natijalar qishloq xo‘jaligida innovatsion texnologiyalarni joriy etish orqali ekologik barqarorlik va iqtisodiy samaradorlikni ta’minlash mumkinligini isbotlaydi.

Kalit so‘zlar. *qishloq xo‘jaligi ekinlari, seleksiya, resurstejamskor yetishtirish, qayta ishlash, smart texnologiyalar*

Аннотация. В статье анализируются научные основы и практические возможности использования смарт-технологий в селекции сельскохозяйственных культур, ресурсосберегающем выращивании и переработке. Исследование демонстрирует методы оптимизации селекции, повышения урожайности, рационального использования ресурсов и переработки с помощью искусственного интеллекта, IoT-сенсоров и цифровых платформ мониторинга. Полученные результаты подтверждают, что внедрение инновационных технологий в сельское хозяйство способствует обеспечению экологической устойчивости и экономической эффективности.

Ключевые слова. *сельскохозяйственные культуры, селекция, ресурсосберегающее выращивание, переработка, смарт-технологии.*

Abstract. The article analyzes the scientific foundations and practical applications of smart technologies in crop selection, resource-efficient cultivation, and processing. The study presents methods for optimizing crop breeding, increasing yield, efficient resource use, and processing through artificial intelligence, IoT sensors, and digital monitoring platforms. The results demonstrate that the implementation of innovative technologies in agriculture ensures environmental sustainability and economic efficiency.

Keywords. *agricultural crops, crop selection, resource-efficient cultivation, processing, smart technologies.*

Kirish. Qishloq xo‘jaligida ekin seleksiyasi, resurstejamskor yetishtirish va qayta ishlash jarayonlarida samaradorlikni oshirish bugungi kunda dolzarb masala hisoblanadi. Aholi sonining ortishi, iqlim o‘zgarishi va tabiiy resurslarning cheklanganligi qishloq xo‘jaligida hosildorlikni oshirish, resurslardan oqilona foydalanish va ekologik barqarorlikni ta’minlash uchun innovatsion yondashuvlarni zarur qiladi. Shu bois, sun’iy intellekt, IoT sensorlari va raqamli monitoring platformalari kabi smart texnologiyalarni qo‘llash orqali ekin seleksiyasi va yetishtirish jarayonlarini avtomatlashtirish va optimallashtirish ilmiy jihatdan katta ahamiyatga ega. Tadqiqotning asosiy maqsadi qishloq xo‘jaligi ekinlarini seleksiya qilish, resurstejamskor yetishtirish va qayta ishlashda smart texnologiyalarning samaradorligini ilmiy asosda o‘rganishdir.

Asosiy qism. Qishloq xo‘jaligi ekinlarini selektsiyasi, resurstejamlilik asosida yetishtirish va qayta ishlash jarayonlarida smart texnologiyalarning qo‘llanilishi ko‘plab ijobiy natijalarni beradi. Selektsiya jarayonida yuqori hosildor va iqlimga mos ekin navlarini aniqlash, genetik va fenotipik

xususiyatlarni hisobga olish muhimdir.

Resurstejamlilik asosida yetishtirish suv va mineral o‘g‘itlarni samarali taqsimlash, ortiqcha ishlatishni oldini olish va agrotexnologik jarayonlarni optimallashtirish orqali amalga oshiriladi. IoT sensorlar tuproq namligi, harorat, quyosh nurlanishi va o‘simlikning fiziologik holatini doimiy nazorat qiladi. Sun’iy intellekt algoritmlari esa yig‘ilgan ma’lumotlarni tahlil qilib, suv berish, o‘g‘itlash va boshqa agrar chora-tadbirlarni avtomatik boshqaradi.

Qayta ishlash jarayonida smart texnologiyalar hosilni saqlash, sifat nazorati va logistika tizimlarini optimallashtirishga yordam beradi. Bu energiya sarfini kamaytirish va ishlab chiqarish xarajatlarini qisqartirish imkonini beradi. Shu bilan birga, ma’lumotlarga asoslangan qarorlar qabul qilish orqali ekologik barqarorlikni ta’minlash ham mumkin.

Smart texnologiyalar bu jarayonda ma‘lumotlarni yig‘ish, tahlil qilish va optimal navlarni tanlash imkonini yaratadi. Quyi 1-jadvalda materiallar va metodlar o‘rganish natijalari keltiriladi.

1-Jadval

Tadqiqot elementi	Tavsifi / Metod	O‘lchov vositasi / Platforma
Ekin seleksiyasi	Turli navlar va genotiplarni tanlash va baholash	Sun’iy intellekt algoritmlari, genomik ma’lumotlar
Resurstejamskor yetishtirish	Suv, o‘g‘it va energiya sarfini optimallashtirish	IoT sensorlar, smart sug‘orish va monitoring tizimlari
Qayta ishlash jarayoni	Hosilni yig‘ish va qayta ishlashni avtomatlashtirish	Innovatsion texnik vositalar, raqamli boshqaruv platformalari
Ma’lumotlarni tahlil qilish	Hosildorlik, resurs sarfi va sifat ko‘rsatkichlarini modellashtirish	Raqamli monitoring platformalari, GIS, statistika dasturlari

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, IoT va smart agrar tizimlar ekinlarning fiziologik holatini doimiy monitoring qilish, resurslardan optimal foydalanish va hosildorlikni oshirish imkonini beradi. Tahlillar natijalari 2-jadvalda qayd etilgan.

2-Jadval

Texnologiya / Vosita	Natija	Tahlil / Foyda
Sun’iy intellekt	Ekin seleksiyasida optimal navlar aniqlandi	Hosildorlik va sifatni oshirish, seleksiya jarayonini tezlashtirish
IoT sensorlar va smart sug‘orish	Suv sarfi 15–25% kamaydi	Resurslardan samarali foydalanish, ekologik barqarorlikni oshirish
Innovatsion texnik vositalar	Qayta ishlash samaradorligi oshdi	Mehnat resurslarini tejash, ishlab chiqarish jarayonini tezlashtirish
Raqamli monitoring platformalari	Ma’lumotlarni real vaqt rejimida kuzatish va tahlil qilish	Qaror qabul qilishni tezlashtirish, uzoq muddatli strategiyalarni qo‘llab-quvvatlash

Xulosa. Qishloq xo‘jaligi ekinlarini selektsiyasi, resurstejamlilik asosida yetishtirish va qayta ishlash jarayonlarida smart texnologiyalardan foydalanish hosildorlikni oshirish, resurslardan samarali foydalanish va ekologik barqarorlikni ta’minlashda muhim vosita hisoblanadi.

IoT sensorlar, sun‘iy intellekt algoritmlari va aqlli monitoring tizimlari orqali real vaqt rejimida ma‘lumot yig‘ish va tahlil qilish, agrotexnologik qarorlarni avtomatlashtirish imkonini beradi. Qolaversa, energiya sarfini kamaytirish, ishlab chiqarish xarajatlarini optimallashtirish va strategik rejalashtirish orqali barqaror qishloq xo‘jaligi tizimini shakllantirish mumkin.

Umuman olganda, smart texnologiyalarni joriy etish qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishining samaradorligi va barqarorligini sezilarli darajada oshishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Axmedov D.S., Qodirov R.J. Smart texnologiyalar yordamida qishloq xo‘jaligi ekinlarini selektsiyasi va yetishtirish. – Toshkent: Fan va Texnologiya, 2021.

2. O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi. Resurstejamlilik asosida yetishtirish va monitoring bo‘yicha hisobotlar. – Toshkent, 2020.

3. Tursunov B.A. IoT va sun’iy intellektning qishloq xo‘jaligida qo‘llanilishi. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2019.

4. Волков А.В., Кузнецова Е.Н. Умные технологии в сельском хозяйстве: селекция и ресурсосбережение. – Москва: Наука, 2020.

5. Смирнов И.А. Применение GIS и IoT для управления аграрными системами. – Санкт-Петербург: Политехника, 2019.

6. Петров К.Н. Интеллектуальные агроплатформы и устойчивое производство. – Москва: Техносфера, 2021.

7. European Commission. Smart Agriculture and Resource-Efficient Crop Production. – Brussels, 2020.

8. Johnson P., Smith R. IoT and AI in Sustainable Agriculture. – London: Springer, 2019.

9. Müller T., Weber K. Remote Sensing, GIS, and Smart Farming in Europe. – Berlin: Springer Nature, 2021.

UO'T 631.587:633.111.2

YOMG'IRLATIB SUG'ORISH TIZIMINING KUZGI BUG'DOY YETISHTIRISHDAGI SAMARADORLIGI

Avlakulova M. M., Avlakulov M.
Qarshi davlat texnika universiteti

Annotasiya. Ushbu maqolada 2024–2025 yillar davomida o'tkazilgan dala tajribalari natijalariga tayanilgan holda kuzgi bug'doy yetishtirishda turli sug'orish usullari — yomg'irlatib hamda egatlab sug'orish, shuningdek mineral oziqlantirish me'yorlarining o'simlikning biometrik ko'rsatkichlari va hosildorligiga ta'siri tahlil etildi. Tadqiqot jarayonida CHDNS 75-80-70, 70-80-70 va 70-70-60 sug'orish rejimlari, hamda $N_{180}P_{90}K_{60}$; $N_{150}P_{90}K_{60}$ и $N_{120}P_{90}K_{60}$ kg/ga mineral o'g'it me'yorlari qo'llanildi.

Olingan natijalar shuni ko'rsatdiki, yomg'irlatib sug'orish usuli yuqori darajadagi mineral oziqlantirish me'yori $N_{180}P_{90}K_{60}$ bilan birgalikda qo'llanilganda umumiy va mahsuldor poyalar soni, o'simlik bo'yi, boshoqning morfologik ko'rsatkichlari hamda don to'planishi eng yuqori darajaga yetdi. Ayni variantda biologik hosildorlik 70–75 s/ga gacha oshgani qayd etildi.

Egatlab sug'orish sharoitida esa barcha biometrik ko'rsatkichlar hamda umumiy hosildorlik ko'rsatkichlari nisbatan past bo'lgani aniqlandi. Tadqiqot natijalari kuzgi bug'doy parvarishida intensiv sug'orish va samarali mineral oziqlantirish texnologiyalarini joriy etish yuqori hamda barqaror hosil yetishtirish imkonini berishini tasdiqlaydi.

Kalit so'zlar: *kuzgi bug'doy, sug'orish usuli, mineral o'g'itlar, biometrik ko'rsatkichlar, hosildorlik.*

Kirish. Qishloq xo'jaligida suv resurslari tanqisligi nafaqat tarmoq, balki umumiy iqtisodiyot rivojiga ham jiddiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shu bois mazkur yo'nalishda ilmiy asoslangan yondashuvlarni kuchaytirish, mavjud imkoniyatlarga moslashish va suvdan samarali foydalanishning yangi usullarini joriy etish dolzarb vazifa hisoblanadi. Ayniqsa, suvsizlikka chidamli navlarni yaratish, suvtalab ekinlar maydonini cheklash, sug'orishni ekin talabidan kelib chiqqan holda tashkil etish hamda suv tejamkor agrotexnologiyalarni amaliyotga tatbiq etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Respublikamizda suv resurslarini ko'paytirish imkoniyatlari cheklanganligi sababli mavjud zaxiralardan oqilona foydalanish ustuvor vazifalardan biri sanaladi. Bu borada zamonaviy suv tejamkor texnologiyalarni joriy etish kam suv sarflagan holda barqaror va yuqori hosil olish imkonini beradi. Suv miqdorining kamayishi qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirishga salbiy ta'sir ko'rsatib, oziq-ovqat xavfsizligiga ham tahdid solishi mumkin [1].

Shu munosabat bilan qurg'oqchilik hududlarda boshoqli ekinlarning sug'orish tartibi va maqbul rejimlarini ishlab chiqish, zamonaviy texnologiyalar asosida suvdan samarali foydalanish muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega. Ilm-fan taraqqiyoti bu yo'nalishda nafaqat hosildorlikni oshirish, balki suv resurslaridan tejamkor foydalanish bo'yicha aniq natijalarga erishish imkonini bermoqda.

Mazkur maqolada qurg‘oqchilik sharoitida suv tejamkor innovasion texnologiyalarni qo‘llash orqali ekin maydonlarini qisqa muddatda samarali sug‘orish va yetishtirilgan hosil uchun suv sarfini kamaytirish tamoyillari dala tajribalari asosida yoritilgan.

Materiallar va usullar. Yomg‘irlatib sug‘orish sharoitida kuzgi bug‘doy yetishtirish jarayonida urug‘larning to‘liq unib chiqishi ko‘plab omillarga — navning biologik xususiyatlari, ekish muddati, tuproq namligi, harorat sharoiti va boshqa agroekologik omillarga bog‘liq ekani aniqlandi. Don unuvchanligi laboratoriya hamda dala sharoitida baholanib, dala sharoitidagi ko‘rsatkichlar doimo pastroq bo‘lishi kuzatildi. Bu holat urug‘ sifati, agrotexnika darajasi, ekologik sharoit hamda kasallik va zararkunandalar ta'siri bilan izohlanadi [2,7].

Kuzgi bug‘doyning qishlab chiqishi nav xususiyatlari bilan bir qatorda tashqi muhit omillari va qo‘llanilgan agrotexnik tadbirlarga, jumladan, sug‘orish va o‘g‘itlashga ham bog‘liq bo‘ldi. O‘z vaqtida sug‘orish va kuzgi ma'danli oziqlantirish o‘simliklarning qishga chidamliligini oshirishi qayd etildi. Fosfor va kaliyli o‘g‘itlar qishga chidamlilikni kuchaytirishi, azotli o‘g‘itlarning ortiqcha me'yori esa aks ta'sir ko‘rsatishi haqidagi ilmiy ma'lumotlar tajriba natijalari bilan ham tasdiqlandi.

O‘simlik yashovchanligi qishlashdan keyin o‘suv davri oxirigacha saqlanish darajasi bilan baholanib, u oziqlanish darajasi, ekish me'yori, sug‘orish tartibi va nav xususiyatlariga bog‘liq holda turlicha bo‘lishi aniqlandi. Qulay namlik, oziq moddalar va yorug‘lik sharoiti yaratilganda ko‘chat qalinligi va mahsuldor poyalar soni ortib, yuqori hosil shakllanishi uchun zamin yaratilishi kuzatildi.

Natijalaar. 2023–2025 yillar davomida o‘tkazilgan tajribalarda kuzgi bug‘doyning “Turon” navi bo‘yicha unib chiqish va ko‘chat qalinligi ko‘rsatkichlari variantlar kesimida bir-biriga yaqin bo‘ldi. Nihollar tuplanish fazasiga o‘tib, qishlashga kirishi kuzatildi.

Tajriba yakunida o‘simlik yashovchanligiga sug‘orish tartibi va o‘g‘it me'yorlarining ta'siri aniqlandi. Eng past ko‘chat qalinligi $N_{150}P_{90}K_{60}$ kg/ga me'yori va ChDNSga nisbatan 70-70-70% sug‘orish tartibi qo‘llanilgan variantda (430 dona/m²) qayd etildi. $N_{120}P_{90}K_{60}$ kg/ga me'yorida ushbu ko‘rsatkich 431–434,7 dona/m² atrofida bo‘ldi. Egatlab sug‘orishda (70-80-70%) nazorat variantida 423 dona/m² ko‘chat olingan bo‘lsa, eng yuqori ko‘rsatkich tuproq namligi 70-80-70% saqlanib, $N_{120}P_{90}K_{60}$ qo‘llanilgan variantda (426 dona/m²) kuzatildi.

Umuman, kuzgi bug‘doyning qishga chidamliligiga o‘g‘it me'yori, yashovchanligiga esa tuproq namligi va oziq elementlari miqdori sezilarli ta'sir ko‘rsatishi aniqlandi [3-6].

Olingan natijalar yomg‘irlatib sug‘orish usuli tuproq namligini barqaror saqlash orqali ildiz tizimining faol rivojlanishiga qulay sharoit yaratishini ko‘rsatdi. Bu esa mineral oziq moddalarning samarali o‘zlashtirilishiga xizmat qildi. Yuqori azot me'yori ($N_{180}P_{90}K_{60}$) poyalanish va boshoqlanish fazalarida ijobiy ta'sir ko‘rsatib, don to‘planishini kuchaytirdi. Oziqlantirish me'yori kamaytirilganda esa hosildorlik sezilarli darajada pasayishi kuzatildi.

Tadqiqot natijalari boshqa olimlar ma'lumotlari bilan uyg‘un bo‘lib, kuzgi bug‘doy yetishtirishda intensiv sug‘orish va mineral oziqlantirish texnologiyalarini qo‘llash yuqori samara berishini yana bir bor tasdiqladi [9].

Xulosa. Olib borilgan dala tajribalari natijalari shuni ko‘rsatdiki, kuzgi bug‘doy yetishtirishda sug‘orish usuli va mineral oziqlantirish me'yorlari o‘simlikning o‘sishi, rivojlanishi, qishga chidamliligi hamda yakuniy hosildorlik ko‘rsatkichlariga sezilarli ta'sir ko‘rsatadi.

Yomg‘irlatib sug‘orish usuli tuproq namligini barqaror saqlashi, o‘simlik ildiz tizimining faol rivojlanishini ta'minlashi hamda mineral oziq moddalarning samarali o‘zlashtirilishiga sharoit yaratishi bilan ajralib turdi. Ushbu usul yuqori mineral oziqlantirish me'yori — $N_{180}P_{90}K_{60}$ kg/ga bilan uyg‘un holda qo‘llanilganda biometrik ko‘rsatkichlar (o‘simlik bo‘yi, mahsuldor poyalar soni, boshoq morfologiyasi, don to‘planishi) va hosildorlik eng yuqori darajaga yetdi.

Egatlab sug‘orish sharoitida esa ko‘rsatkichlar nisbatan past bo‘lib, bu usul namlikning bir tekis taqsimlanmasligi bilan izohlandi. Shuningdek, o‘g‘it me'yorlarining optimal darajada qo‘llanilishi qishga chidamlilik va o‘simlik yashovchanligini oshirishi, me'yor pasaytirilganda esa hosildorlik kamayishi aniqlandi.

Tadqiqot natijalari qurg‘oqchilik hududlarda kuzgi bug‘doy yetishtirishda suv tejamkor, intensiv sug‘orish texnologiyalari hamda ilmiy asoslangan mineral oziqlantirish tizimini qo‘llash yuqori va barqaror hosil olishning muhim omili ekanini tasdiqlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Qosimov A.A. Kuzgi bug‘doy agrotexnikasi. – Toshkent, 2018.
2. Mirzaev B.R. Sug‘orish tizimlarining don ekinlari hosildorligiga ta'siri. – Samarqand, 2020.
3. O‘zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo‘jaligi vazirligi. Ekinlarni yetishtirishda yomg‘irlatib sug‘orish tizimlarini qo‘llash bo‘yicha tavsiyalar. TIMI qoshidagi Irrigasiya va suv muammolari ilmiy-tadqiqot instituti. – Toshkent, 2015.FAO**.** Wheat Production and Water Management. **–** Rome: Food and Agriculture Organization, 2021.
4. Allen R.G., Pereira L.S., Raes D., Smith M. Crop Evapotranspiration**.** FAO Irrigation and Drainage Paper No. 56. – Rome: FAO, 1998.
5. Rajanna G.A., Dhindwal A.S., Nanwal R.K. Irrigation scheduling and crop establishment techniques in cluster bean–wheat sequence under semi-arid conditions of India: A review. *Annals of Agricultural Research (New Series).* 2017;37(4):335–346.
6. Tari A.F. The effects of different deficit irrigation strategies on yield, quality, and water-use efficiencies of wheat under semi-arid conditions. *Agricultural Water Management.* 2016; 167:1–10.
7. Zhang X., Chen S., Sun H., Pei D., Wang Y. Dry matter, harvest index, grain yield and water use efficiency as affected by water supply in winter wheat. *Irrigation Science.* 2008;27(1):1–10.
8. Kang S., Shi W., Zhang J. An improved water-use efficiency for maize grown under regulated deficit irrigation. *Field Crops Research.* 2000;67(3):207–214.
9. Blum A. Plant Breeding for Water-Limited Environments**.** – New York: Springer, 2011.

УДК: 630*232.32

ЭМАН УРУҒЛАРИНИНГ УНУВЧАНЛИГИ ВА КЎЧАТЛАРНИ САҚЛАНИБ ҚОЛИШИГА ЭКИШ ЧУҚУРЛИГИНИ ТАЪСИРИ

Эшанкулов Б.И., Янгибаева И.З., Ўролов З.Н.
GREEN University, Ўрмон хўжалиги илмий-тадқиқот институти

Аннотация. Эман дарахтлари ўрмон рамзи ҳисобланади. Ўзбекистонда эманнинг турлари ўтган асрнинг бошидан келтириб экилган. Ҳозирги кунда оддий эман шаҳар кўкаламзорлаштиришида асосий дарахтлардан бири бўлиб қолмоқда. 600 турдан иборат эман туркумидан кам сонли турлар Ўзбекистонга интродукция қилинган. Ушбу туркум вакиллари бўйича кўплаб илмий-тадқиқотлар амалга ошириш мумкин. Мақолада эман турлари уруғларининг унувчанлиги ва кўчатларнинг сақланиб қолишига экиш чуқурлигининг таъсири натижалари ёритиб берилган.

Калит сўзлар: эман, маданий ўрмон, ёғоч, кўчат, кўкаламзорлаштириш, уруғ, экиш чуқурлиги, унувчанлик, сақланиб қолиш.

Кириш. Бугунги кунда жаҳонда эманзорларни сақлаш, улардан маданий ўрмонлар барпо этиш, ёғоч олиш ва кўчатларини етиштириш технологиясини такомиллаштириш бўйича Россия, Белоруссия, Украина ва Европа мамлакатларида кўплаб илмий-тадқиқот ишлари олиб борилмоқда. Жумладан, эман уруғларини унувчанлигини оширишда биологик фаол моддаларни қўллаш, иссиқхона шароитида эман кўчатларини жадал етиштириш, ёғочини қайта ишлаш, кўкаламзорлаштиришда фойдаланиш, стандарт кўчатларини етиштириш бўйича бир қатор илмий ишлар амалга оширилмоқда. Бунинг натижасида шимолий минтақа иқлим шароитлари учун эман турлари кўчатларини етиштириш технологияси батафсил тавсифлаб берилган.

Республикамизда ҳозирги кунгача эманнинг *Quercus robur* L. – оддий эман тури бўйича илмий изланишлар олиб борилиб, унинг маданий ўрмонларини барпо этиш, ўрмон мелиорация мақсадларида фойдаланиш, кўчатларини етиштириш технологиясини ишлаб

чиқиш бўйича муайян натижаларга эришилган. Аммо эманнинг бошқа турлари кўчатларини етиштириш бўйича илмий асосланган технология мавжуд эмас. Ўзбекистон Республикасининг 2022-2026 йилларга мўлжалланган янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегиясида “Республика ҳудудларида ўрмонлар майдонини кенгайтириш ва ўрмон фонди ерларидан самарали фойдаланиш бўйича муҳим вазифалар белгилаб берилган. Бу ўринда, эман турлари кўчатларини интенсив усулда етиштириш технологиясини ишлаб чиқиш ва мамлакатимизнинг ўрмон хўжалиги тизимига илмий асосланган ҳолда татбиқ этиш долзарб масалалардан ҳисобланади [1, 3].

Тадқиқот услуби. Эман кўчатларни ўстириш бўйича тажрибалар Аблаев С.М., Юлдашев Я.Х., Эшанкулов Б.И. “Лесные культуры” (2009) қўлланмасига асосан олиб борилди [2].

Тадқиқот натижалари. Эман турлари кўчатларини етиштиришда экиш мавсуми бўйича уруғларни экиш чуқурлигини аниқлаш муҳим аҳамиятга эга. Кузги экиш ишларида уруғларнинг тупроқ юқори қисмига яъқин экилиши уларнинг совуқ уришига сабаб бўлиши мумкин бўлса, чуқур экиш эса, уруғларнинг чириб қетишига сабаб бўлади. Бу эса майдондаги кўчат сонининг камайиб кетишига олиб келиши мумкин. Қуйидаги тажриба ишларида эман турларининг кузги ва баҳорги экиш бўйича экиш чуқурликлари ўрганилди (1-2 жадваллар).

1-жадвал

Эман турлари уруғларини унувчанлигига экиш чуқурлигини таъсири (2021-2013 йй.)

Т/р	Тур номи	Кузги экиш (уруғ эни диаметридан х марта кўп чуқурликда, см) унувчанлиги, %					Баҳорги экиш (уруғ эни диаметридан х марта кўп чуқурликда, см) унувчанлиги, %				
		х3	х5	х7	х9	х11	х3	х5	х7	х9	х11
1.	Оддий эман	40	60	70	65	52	39	60	54	43	40
2.	Найзасимон шакл	40	68	77	69	59	42	68	56	47	44
3.	Каштанбаргли эман	46	70	74	68	61	45	66	58	49	45
4.	Австрия эмани	44	68	72	66	55	41	62	53	46	41

1-жадвалда келтирилганидек, кузги экишда экиш чуқурлиги уруғ энидан 7 баробар катталикдаги чуқурда экиш натижалари юқори эканлигини кўришимиз мумкин. Бунда энг юқори кўрсаткич унувчанлик даражаси бўйича кузги экишда: оддий эманда – 70% ни ташкил этган бўлса, оддий эманнинг найзасимон шаклида – 77%; каштанбаргли эманда – 74%; Австрия эманида эса – 72% ни ташкил этди. Баҳорги экишда энг юқори кўрсаткич унувчанлик даражаси экиш чуқурлиги уруғ энидан 5 баробар катталикдаги чуқурда экиш натижаларида юқори бўлди. Бунда баҳорги экишда оддий эман – 60% ни ташкил этган бўлса; оддий эманнинг найзасимон шаклида – 68%; каштанбаргли эманда – 66%; Австрия эманида эса - 62% ни ташкил этди. Бундан келиб чиқадики, кузги уруғ экиш чуқурлиги баҳорги экиш чуқурлигидан нисбатан чуқурроқ бўлиб, уруғларни унувчанлик даражаси баҳорги экишга нисбатан юқори бўлган.

2-жадвал

Эман турлари уруғларини экиш чуқурлигини кўчатларнинг сақланиб қолишига таъсири (2021-2023 йй.)

Т/р	Тур номи	Кузги экишда (уруғ эни диаметридан х марта кўп чуқурликда, см), %					Баҳорги экишда (уруғ эни диаметридан х марта кўп чуқурликда, см), %				
		х3	х5	х7	х9	х11	х3	х5	х7	х9	х11
1.	Оддий эман	32	51	60	56	44	31	48	45	35	30
2.	Найзасимон шакл	34	59	68	60	51	32	57	48	38	35
3.	Каштанбаргли эман	38	62	70	58	54	31	60	50	40	35
4.	Австрия эмани	36	60	61	58	46	35	53	45	38	33

2-жадвал натижаларида кўчатларнинг сақланиб қолиш кўрсаткичлари унувчанлик юқори бўлган вариантларга тўғри келди. Уч йиллик тадқиқот натижаларига кўра кўчатларни сақланиб қолиш даражаси, кузги экишда яъни экиш чуқурлиги уруғ энидан 7 баробар катталикдаги чуқурга экилганда кўчатларни сақланиб қолиш даражаси оддий эманда – 60% ни ташкил этган бўлса; оддий эманнинг найзасимон шаклида – 68%; каштанбаргли эманда –

70%; Австрия эманида эса – 61% ни ташкил этди. Баҳорги экишда экиш чуқурлиги уруғ энидан 5 баробар катталикдаги чуқурга экилганда кўчатларни сақланиб қолиш даражаси, оддий эманда – 48%; оддий эманнинг найзасимон шаклида – 57%; каштанбаргли эманда – 60%; Австрия эманида эса – 53% ни ташкил этди. Бундан келиб чиқадики унувчанлик юқори бўлган барча вариантларда кўчат сонининг кўп бўлиши ҳисобига сақланиб қолиш даражаси юқори бўлди.

Хулоса. Мамлакатимизда эман турларини интродукция қилиш, уларни кўчатларини етиштириш, маданий ўрмонлар барпо этиш ва кўкаламзорлаштиришда қўллаш истиқболли ҳисобланади. Бунга ҳозирги кунда Ўзбекистонда кам сонли бўлсада ўсиб турган эман турлари дарахтларининг таксацион кўрсаткичлари буни исботлайди.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Ўзбекистон Республикасини Президентининг 2022 йил 28 январдаги ПФ-60-сонли “2022-2026 йилларга мўлжалланган янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида” ги Фармони.

2. Аблаев С.М., Юлдашев Я.Х., Эшанкулов Б.И. Лесные культуры. – Ташкент: Отпечатано в типографии “Ҳумоюнбек-истиқлол мўжизаси” 2009. - С. 75-79.

3. Кайимов А.К. Дендрология. - Тошкент, “Фан ва технология” – 2007.–248 б.

УДК: 634.571

ФАРҒОНА ВИЛОЯТИ ОЛТИАРИҚ ТУМАНИДА ЎСАЁТГАН ХАНДОН ПИСТА ДАРАХТЛАРИДА ФЕНОЛОГИК ЖАРАЁНЛАР ТАҲЛИЛИ

Эшанкулов Б.И. Машрапов Х.Т. Гулбоев Ў.Б.
GREEN University, Ўрмон хўжалиги илмий-тадқиқот институти

Аннотация. Фарғона вилоятида боғдорчиликнинг ўзига хос анъаналари мавжуд. Бу борада қишлоқ хўжалиги ишлаб чиқаришида унутилган, аммо ҳозирги кунда шиддат билан кириб келаётган хандон писта дарахтлари мустасно эмас. Мақолада хандон пистанинг хроижий навлари уруғ авлоди дарахтлари фенологияси таҳлил қилинган.

Калит сўзлар: писта, дарахт, иқлим, индивидуал, тупроқ, плантация, уруғ авлоди, денгиз сатҳи, боғ.

Кириш. Хандон писта ёнғоқмевасини етиштириш бўйича Эрон ва АҚШ етакчилик қилади. Эрон давлати Марказий Осиё сингари хандон пистанинг ватани ҳисобланади ва писта ёнғоқмеваси етиштириш бўйича ўз анъаналарига эга бўлиб, дунё бозорига Ахмади, Акбари, Фандуги каби бир неча ўнлаб навлар асосида ўз писта бренди орқали танилган. АҚШ да эса писта етиштириш охирги юз йилликда жадал ривожланди ва бунинг натижасида писта ёнғоқмеваси етиштирувчи етакчи давлатлардан бирига айланди (шу икки давлатнинг бир йиллик хандон писта ҳосилини қўшиб ҳисоблаганда 1 миллион тоннага яқинлашди). Кейинги ўринда бўлган Туркия асосан ўз писта маҳсулотларини ички бозорига йўналтирган бўлса, Суриядаги сиёсий беқарорик сабабли писта етиштиришга салбий таъсир кўрсатмоқда. Писта етиштириш бўйича Хитой ҳам охирги йилларда жуда катта ўзгаришларни амалга оширмоқда. Марказий Осиёда Туркманистон ва Тожикистонда пистанинг катта майдонлари бўлсада етарли даражада саноатлаштирлмаганлигини кўришимиз мумкин. Шундай бўлсада бу майдонлардаги пистазорлар селекция учун ниҳоятда қимматбаҳо манба бўлиб хизмат қилади. Умуман олганда пистазорлар барпо қилиш учун дунёнинг барча континентларида илмий-амалий ишлар олиб борилмоқда. Ҳозирги кунда ҳам дунё бозорида хандон писта ёнғоқмевасига бўлган талабнинг юқорилиги сабабли жуда кўплаб мамлакатлар пистазорлар барпо этишга алоҳида эътибор бермоқда. Бу борада Ўзбекистонда ҳам пистачиликка жиддий эътибор қаратилаётганини кўришимиз мумкин [1, 2, 3].

Тадқиқот услуби. Тадқиқотлар Г.М.Чернова (2004) услуби бўйича олиб борилди [4].

Тадқиқот натижалари. Мамлакатимизнинг турли ҳудудларида пистазорлар жойлашган бўлиб, бу майдонлардаги писта дарахтлар иқлим шароитларига қараб биологик жараёнлари турлича давом этади. Шу билан бирга дарахтларнинг биологик тавсифини ҳам унутмаслик керак. Чунки ҳар қандай об-ҳаво шароитида ҳам бу дарахтларда биологик

жараёнлар бошланмаслиги ёки бошланиб кетиши ҳам мумкин. Шу сабабли писта дарахтларидан умумий тавсифни келтиришда катта муаммолар келиши мумкин. Бунга эса ҳар бир писта дарахти индивидуал эканлиги, уларнинг айрим белгиларинигина умумлаштириш мумкин эканлигини кўришимиз мумкин. Ана шу кичик кўрсаткичли умумий белгилар ҳам пистазорлар барпо этишда муҳим рол ўйнайди.

1-жадвал

Фарғона вилояти Олтиариқ туманида хандон писта Ахмади нави уруғ авлоди дарахтларининг фенологик кўрсаткичлари (2021-2023 йиллар) (“РАПУ БХН” ф/х)

№	Дарахт	Куртак бўртиши	Барг				
			дастлабки барг чиқариши	ялпи барг ёзиши	дастлабки сарғайиши	дастлабки тўкилиш	тўлиқ тўкилиши
1.	ФО-1♀	2.04	14.04	22-30.04	25.09	10.10	20-30.10
2.	ФО-2♀	2.04	14.04	23-30.04	26.09	12.10	20-30.10
3.	ФО-3♀	2.04	15.04	22-30.04	26.09	12.10	20-30.10
4.	ФО-4♂	29.03	11.04	21-30.04	23.09	10.10	20-30.10
5.	ФО-5♂	28.03	11.04	21-30.04	24.09	10.10	20-30.10
6.	ФО-6♀	2.04	15.04	23-30.04	17.09	3.10	20-30.10
7.	ФО-7♂	29.03	11.04	21-30.04	23.09	8.10	20-30.10
8.	ФО-8♀	2.04	15.04	24-30.04	16.09	1.10	20-30.10
9.	ФО-9♀	2.04	14.04	24-30.04	25.09	10.10	20-30.10
10.	ФО-10♂	30.03	11.04	21-30.04	24.09	10.10	20-30.10

Хандон пистанинг хорижий навлари уруғ авлоди ўсиб турган майдонлар ва дарахтлари топилди. Бу дарахтларда бўладиган фаслий ўзгаришлардаги ҳолатларни таҳлил қилиш учун тажриба синов майдонлари ажратилди. Бу майдонларнинг иқлим-тупроқ шароити таҳлил қилинди. Иқлимий ўзгаришларга ўсимликларнинг таъсирчанлиги таҳлил қилинди (1-2 жадваллар).

2- жадвал

Фарғона вилояти Олтиариқ туманида хандон писта Ахмади нави уруғ авлоди дарахтларининг фенологик фазалари (2021-2023 йиллар) (“РАНУ БХН” ф/х)

№	Дарахт	Куртак бўртиши	Гул		Мева			
			дастлабки гул чиқиши	ялпи гуллаши	мева шингилини пайдо бўлиши	меванинг даст-лабки етилиши	тўлиқ етилиши	тўлиқ тўкилиб кетиши
1.	ФО-1♀	9.04	16.04	20-24.04	18-22.05	20.09	1-10.10	20-30.10
2.	ФО-2♀	9.04	16.04	20-24.04	18-22.05	20.09	1-10.10	20-30.10
3.	ФО-3♀	8.04	16.04	20-24.04	18-22.05	15.09	22-30.10	20-30.10
4.	ФО-4♂	7.04	14.04	18-22.04	-	-	-	-
5.	ФО-5♂	6.04	13.04	18-22.04	-	-	-	-
6.	ФО-6♀	9.04	16.04	20-24.04	18-22.05	20.09	1-10.10	20-30.10
7.	ФО-7♂	6.04	13.04	18-22.04	-	-	-	
8.	ФО-8♀	9.04	16.04	20-24.04	18-22.05	18.09	24-31.10	20-30.10
9.	ФО-9♀	8.04	16.04	20-24.04	18-22.05	20.09	1-10.10	20-30.10
10.	ФО-10♂	6.04	13.04	22-22.04	-	-	-	-

Фарғона вилояти Олтиариқ туманида ўстирилаётган писта плантацияси илгари фойдаланилмаган қўриқ майдонлар бўлиб охирги ўн йилликда хеч нарса экилмаган. Майдонда 6° нишаблик мавжуд, денгиз сатҳидан 509-510 м баландликда жойлашган. Тупроғи типик бўз тупроқ бўлиб, шағалли, қисман суғориш имкониятига эга. Бу майдонга 2014 йилда хандон пистанинг Ахмади ва фандуги нави уруғларидан униб чиққан ниҳол экилган.

Писта боғида тасодифий танланган бир қатордаги писта дарахтларининг фенологияси ўрганилди. Уч йиллик кузатувларга кўра барг чиқариш ва гуллаш деярли бир хил пайтда, яъни апрел ойининг иккинчи ўн кунлигида бошланиши аниқланди (1-2-жадваллар).

2023 йил бу жараён апрел ойининг биринчи ўн кунлигига тўғри келди. 2021 ва 2022 йиллар баргнинг тўлиқ ва меванинг тўлиқ тўкилиши октябр ойининг охиригача борди,

меванинг пишиши октябр ойининг биринчи ўн кунлигида рўй берди. 2023 йил бу жараёнлар 15 кун олдин амалга ошганини кўришимиз мумкин.

Хулоса. Хандон писта фенологиясининг умумий таҳлили шуни кўрсатдики, бу тур Ўзбекистон шароитида кўкламги кечки совуқлардан зарарланмайди. Бунга эса асосий сабаб дарахтларда физиологик жараёнлар апрел ойининг иккинчи ўн кунлигида бошланади. Ушбу кеч гуллаш жараёнлари кўкламги кеч совуқлардан кейин бошланишига тўғри келади. Хандон писта ёнғоқмевасининг маҳаллий ва хорижий бозорларда нархининг юқорилиги бу турга бўлган қизиқишнинг ортиб бораётгани ва кечки совуқларга учрамаслиги эса шу йилги ҳосил учун кафолат вазифасини ўтайди.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Аблаев С.М. Фисташки Средней Азии. Орехоплодные культуры в Средней Азии. (Сборник научных трудов САО ВАСХНИЛ вып №3). Ташкент -1976. С.41.

2. Кайимов А.К., Бердиев Э.Т. Дендрология. – Тошкент: Фан ва технология, 2012. – 132-134 б.

3. Тросько И.К.Реконструкция фисташковых рощ и культура фисташки в Средней Азии Ташкент-1947 9-б.

4. Чернова Г.М. Биоэкологические основы селекции фисташки настоящей (*Pistacia vera* L.) в Центральной Азии. – Бишкек, 2004.

REFLEKSIV YONDASHUV KONSEPSIYASI ASOSIDA TALABALARDA SOG‘LOM HAYOT TARZI MADANIYATINI TARKIB TOPTIRISHNING ILG‘OR PEDAGOGIK METODOLOGIYASI

Nazarov Odil Omanqulovich, Aminova Munisa Jalol qizi
Iqtisodiyot va pedagogika universiteti

Annotatsiya. Mazkur maqolada refleksiv yondashuv konsepsiyasi asosida talabalarda sog‘lom hayot tarzi madaniyatini shakllantirishning nazariy-metodologik asoslari tahlil qilinadi. Sog‘lom turmush tarzini rivojlantirishda refleksiya mexanizmlarining pedagogik ahamiyati, shaxsiy o‘zini anglash jarayonlari hamda ta’lim muhitida innovatsion metodlardan foydalanish imkoniyatlari yoritilgan. Shuningdek, sog‘lom hayot tarzi madaniyatini shakllantirishning tarkibiy komponentlari va amaliy modeli taklif etilgan.

Kalit so‘zlar: refleksiv yondashuv, sog‘lom hayot tarzi, pedagogik metodologiya, shaxs rivoji, motivatsiya, ta’lim innovatsiyalari.

Kirish. Globallashuv jarayonlari, urbanizatsiya va axborot oqimining keskin ortishi yoshlar salomatligiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Talabalik davri shaxsning ijtimoiy, jismoniy va psixologik shakllanishida muhim bosqich hisoblanadi. Shu bois oliy ta’lim muassasalarida sog‘lom hayot tarzi madaniyatini shakllantirish dolzarb pedagogik muammo sifatida namoyon bo‘lmoqda.

An’anaviy yondashuvlarda sog‘lom turmush tarzi asosan nazariy ma’lumot berish orqali targ‘ib qilinsa, zamonaviy pedagogik yondashuvlarda talabaning shaxsiy tajribasi, ichki anglash jarayoni va refleksiyasi asosiy o‘rin tutadi. Refleksiv yondashuv shaxsning o‘z faoliyati va xatti-harakatlarini ongli tahlil qilishi orqali barqaror xulq-atvor shakllantirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot metodologiyasi

Mazkur tadqiqotda quyidagi metodlardan foydalanildi:

- nazariy tahlil va sintez;
- pedagogik modellashtirish;
- refleksiv kuzatuv va so‘rovnoma;
- taqqoslama tahlil.

Refleksiv yondashuv konsepsiyasi shaxsning o‘zini anglash (self-awareness), o‘zini baholash (self-assessment) va o‘zini rivojlantirish (self-development) jarayonlariga asoslanadi.

Asosiy qism. Refleksiv yondashuvning nazariy-metodologik asoslari

Refleksiv yondashuv pedagogikada shaxsning o‘z faoliyati, qarorlari va xatti-harakatlarini ongli ravishda tahlil qilish, baholash va takomillashtirish jarayoniga asoslanadi. Refleksiya

tushunchasi falsafa, psixologiya va pedagogika fanlarida turlicha talqin qilinsada, uning mohiyati shaxsning o‘z “Men”ini anglash jarayoni bilan bevosita bog‘liqdir.

Sog‘lom hayot tarzi madaniyatini shakllantirish jarayonida refleksiv mexanizm talabaning o‘z salomatligi, turmush odatlari, jismoniy faolligi, psixo-emotsional holati va ijtimoiy muhit bilan o‘zaro ta’sirini chuqur anglashini ta’minlaydi. An’anaviy yondashuvlarda sog‘lom turmush tarzi tashqi nazorat va targ‘ibot orqali shakllantirilsa, refleksiv yondashuv ichki motivatsiya va shaxsiy mas’uliyatni ustuvor qo‘yadi.

Refleksiv yondashuvning metodologik asosini quyidagi tamoyillar tashkil etadi:

- Subyektlilik tamoyili – talaba ta’lim jarayonining passiv obyekti emas, balki faol subyekti sifatida ishtirok etadi;
- Onglilik va ixtiyoriylik – sog‘lom hayot tarziga amal qilish ichki ehtiyojga aylanishi lozim;
- Shaxsiy mas’uliyat – talaba o‘z sog‘lig‘i uchun javobgarlikni anglaydi;
- O‘zini o‘zi boshqarish – refleksiya orqali xulq-atvorni mustaqil nazorat qilish shakllanadi.

Mazkur tamoyillar sog‘lom turmush tarzini faqat jismoniy mashqlar yoki to‘g‘ri ovqatlanish bilan cheklab qo‘ymasdan, uni kompleks shaxsiy madaniyat darajasiga olib chiqadi.

Sog‘lom hayot tarzi madaniyatining pedagogik mazmuni

Sog‘lom hayot tarzi madaniyati – bu shaxsning jismoniy, ruhiy va ijtimoiy salomatligini ta’minlovchi ongli faoliyat tizimidir. Talabalik davrida bu madaniyatni shakllantirish kelajakdagi professional faoliyat samaradorligi bilan ham uzviy bog‘liqdir.

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, sog‘lom hayot tarzi madaniyati quyidagi o‘zaro bog‘liq komponentlardan tashkil topadi:

1. Kognitiv komponent

Talabaning sog‘lom turmush tarzi haqidagi ilmiy bilimlari, sanitariya-gigiyena qoidalari, to‘g‘ri ovqatlanish, jismoniy mashqlar va stressni boshqarish usullari haqidagi tasavvurlari bilan ifodalanadi.

2. Motivatsion-qadriyat komponent

Sog‘lom yashashga bo‘lgan ichki ehtiyoj, shaxsiy qadriyatlar tizimida salomatlikning ustuvor o‘rin egallashi bilan tavsiflanadi. Aynan ushbu komponent refleksiv tahlil orqali shakllanadi.

3. Faoliyat komponenti

Talabaning real hayotdagi xatti-harakatlari: sport bilan shug‘ullanish, zararli odatlardan voz kechish, kun tartibiga rioya qilish kabi ko‘rsatkichlar bilan belgilanadi.

4. Refleksiv-baholash komponenti

Shaxsning o‘z turmush tarzini tahlil qilish, natijalarni baholash va kerak bo‘lsa tuzatish kiritish qobiliyati. Ushbu komponent sog‘lom odatlarning barqarorligini ta’minlaydi.

Shuni ta’kidlash joizki, refleksiv komponent rivojlanmagan sharoitda sog‘lom turmush tarzi tashqi nazorat tugashi bilan susayadi.

Refleksiv yondashuv asosida pedagogik modelni ishlab chiqish

Talabalarda sog‘lom hayot tarzi madaniyatini shakllantirish uchun quyidagi bosqichma-bosqich pedagogik model taklif etiladi:

1-bosqich: Diagnostik-tahliliy bosqich

Bu bosqichda talabalar sog‘lig‘i, jismoniy faollik darajasi, turmush tarzi va motivatsiyasi aniqlanadi. So‘rovnoma, test va kuzatuv metodlari qo‘llaniladi.

2-bosqich: Refleksiv-anglash bosqichi. Talabalarga “Mening hayot tarzım”, “Salomatlik – mening qadriyatimmi?” kabi refleksiv savollar asosida muhokamalar tashkil etiladi. Sog‘lomlik kundaligi yuritish orqali o‘zini kuzatish ko‘nikmalari rivojlantiriladi.

3-bosqich: Faoliyatni tashkil etish bosqichi. Interaktiv metodlar (case-study, loyiha metodi, jamoaviy sport faoliyati) orqali sog‘lom xatti-harakatlar amaliyotga joriy etiladi.

4-bosqich: Monitoring va korreksiya. Talabalarning rivojlanish dinamikasi muntazam baholanadi. Refleksiv tahlil asosida kamchiliklar aniqlanadi va tuzatishlar kiritiladi.

Pedagogik shart-sharoitlar va samaradorlik mezonlari

Refleksiv yondashuv samarali bo‘lishi uchun quyidagi pedagogik sharoitlar muhim:

- sog‘lomlashtiruvchi ta’lim muhitini yaratish;
- pedagogning shaxsiy namunaliligi;

- axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish;
- ijtimoiy qo‘llab-quvvatlovchi muhit shakllantirish.

Eksperimental kuzatuv natijalariga ko‘ra, refleksiv metodlardan foydalangan guruhlarda sog‘lom turmush tarzi ko‘rsatkichlari an’anaviy yondashuvga nisbatan sezilarli oshgan. Talabalarning o‘z sog‘lig‘iga nisbatan ongli munosabati kuchaygan va zararli odatlarga moyillik kamaygan.

Natijalar va muhokama. Tajriba natijalari shuni ko‘rsatdiki, refleksiv yondashuv asosida olib borilgan mashg‘ulotlarda talabalar o‘z sog‘lig‘iga nisbatan mas’uliyatliroq munosabat bildirgan. Sog‘lom ovqatlanish, jismoniy faollik va zararli odatlardan voz kechish ko‘rsatkichlari oshgan.

Refleksiv kundalik yuritgan talabalar orasida sog‘lom odatlarni mustahkamlash darajasi 30–35% yuqori bo‘lgani aniqlandi.

Xulosa. Refleksiv yondashuv konsepsiyasi talabalarda sog‘lom hayot tarzi madaniyatini shakllantirishda samarali pedagogik metodologiya sifatida namoyon bo‘ladi. Ushbu yondashuv talabaning ichki anglash mexanizmlarini faollashtiradi va sog‘lom xulq-atvorni barqaror shakllantirishga xizmat qiladi.

Oliy ta’lim tizimida refleksiv texnologiyalarni keng joriy etish yoshlar salomatligini mustahkamlashga va sog‘lom jamiyatni shakllantirishga zamin yaratadi.

Foydalanilga adabiyotlar ro‘yxati

1. Ильин Е.П. Психология здоровья. – СПб.: Питер, 2019. – 320 с.
2. Слободчиков В.И., Исаев Е.И. Психология человека. – М.: Школа-Пресс, 2018. – 384 с.
3. Бодалев А.А. Личность и общение. – М.: Педагогика, 2017. – 272 с.
4. Выготский Л.С. Педагогическая психология. – М.: Педагогика, 1991. – 480 с.
5. Rogers C. On Becoming a Person. – Boston: Houghton Mifflin, 1995. – 420 p.
6. Dewey J. How We Think. – New York: Dover Publications, 2018. – 224 p.
7. Abduqodirov A.A. Pedagogik innovatsiyalar. – Toshkent: Fan, 2020. – 256 b.
8. O‘zbekiston Respublikasi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. – Toshkent, 2020.

DUAL TA’LIM TAMOYILLARINI QO‘LLAGAN HOLDA BO‘LAJAK MUHANDISLARNI SUV RESURSLARINI MONITORING QILISHDA SAMARALI FAOLIYATI

Safarova Nilufar Vohidovna
Qarshi davlat texnika universiteti

Annotatsiya Dual ta’lim tamoyillarini qo‘llagan holda bo‘lajak muhandislarni suv resurslarini monitoring qilish faoliyatiga samarali tayyorlash metodikasini takomillashtirish.

Аннотация Совершенствование методики эффективной подготовки будущих инженеров к деятельности по мониторингу водных ресурсов с использованием принципов дуального образования.

Abstract Improving the methodology for effectively preparing future engineers for water resources monitoring activities based on the principles of dual education.

Kalit so’zi: Dual ta’lim,suv resurslari monitoringi, muhandislarni tayyorlash,amaliy ta’lim,suv xo‘jaligi,axborot texnologiyalari,GIS (Geoaxborot tizimlari), ta’lim metodikasi.

Ключевые слова: Дуальная форма обучения, мониторинг водных ресурсов, подготовка инженеров, практическое обучение, водное хозяйство, информационные технологии, ГИС (геоинформационные системы), методика обучения.

Keywords: Dual education, water resources monitoring, engineer training, practical training, water management, information technologies, GIS (Geo-Information Systems), educational methodology.

Qadimdan mamlakatimiz hududida suv xayot manbai sifatida qadrlangan, tirikchilikning birinchi omili sanalgan, uni muqaddas bilib, asrab - avaylab, tejab - tergab sarflangan. Bu qarashlar o‘z moxiyatini bugun xam yo’qotgan emas darhaqiqat mamlakatimiz qishloq, xo’jaligi ishlab

chiqarishini suvsiz tasavvur etish mumkin emas. Shuning uchun suvdan maqsadli, tejab - tergab foydalanish hozirgi bozor iqtisodiyoti sharoitida yana ham dolzarb bo'lib turibdi. Chunki qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining asosiy qismi bo'lgan paxta, g'alla va boshqa mahsulotlar yetishtirish bevosita suv ta'minoti bilan chambarchas bog'liq.

Respublika bo'yicha sug'orish uchun yiliga o'rtacha 55 mlrd. m3 suv talab etiladi bu ko'rsatkich Markaziy Osiyo respublikalarida iste'mol qilinadigan suvning deyarli yarmiga tengdir Respublikada foydalaniladigan suvning ko'p qismi qo'shni davlatlar hududlaridan oqib keladi respublikada foydalaniladigan suvning 85 foizi qishloq xo'jaligida ishlatiladi dexdonchilikka mo'ljallangan yerlarning 98 foizini sug'oriladigan maydonlar tashkil etadi. O'zbekiston hududida vujudga keladigan suv resurslarining ulushi Amudaryo havzasi bo'yicha 6 foizni, Sirdaryo havzasi bo'yicha 16 foizni, respublika bo'yicha jami oqimning taxminan 8 foizini tashkil qiladi. Suvdan tejab-tergab, samarali foydalanilmasa, kelgusida suv ta'minotida muammolar kelib chiqishi mumkin hozirgi kunda suv resurslarini samarali boshqarish va monitoring qilish murakkab va jadal rivojlanayotgan sohalardan biridir iqlim o'zgarishlari, aholi sonining oshib borishi va sanoat faoliyati suv resurslariga bo'lgan talabni oshirmoqda shu bois suv resurslarini monitoring qilish uchun yuqori malakali muhandislar tayyorlash zarur.

Ta'lim va ishlab chiqarishning integratsiyasi, amaliy tajriba asosida bilimni mustahkamlash,ta'lim muassasasi va korxona o'rtasida uzviy hamkorlik mehnat bozori talablariga mos kadrlar tayyorlash suv resurslari sohasida qo'llaniladi. Hozirgi vaqtda suv resurslaridan oqilona foydalanish maqsadida oliy ta'lim bilan birgalikda katta ishlar olib borilmoqda shulardan biri tashkilot va talabalar o'rtasida dual ta'lim tizimi yo'lga qo'yilishidir maqsad yosh bilimli mutaxasis talabalarni suvni va resurslaridan oqilona foydalanish va o'z soxasida yetuk kadr bo'lib yetishishidadir

Dual ta'lim tizimi - nazariy bilimlar bilan amaliy ko'nikmalarni tenglikda o'rgatishga asoslangan ta'lim shakli bo'lib, bu sohadagi kadrlarni tayyorlashda samarali usul sifatida e'tirof etilmoqda maqolada dual ta'lim tamoyillari asosida suv resurslari monitoringi muhandislarini tayyorlash metodikasini takomillashtirish yo'nalishlari tahlil qilishda katta ahamiyatga. **Suv xo'jaligi korxonalari, gidroinjenerlik tashkilotlari, laboratoriyalar bilan hamkorlikda talabalarni real obektlardagi monitoring ishlariga jalb etish suv resurslari boshqaruvidagi murakkabliklar va iqlim o'zgarishi aholiga suv taqsimoti muammolari jahon hamjamiyatidagi dolzarb masalalardan biriga aylandi.** Bundan tashqari, suv resurslarini samarali monitoring qilish zamonaviy texnologiyalarni joriy etishni talab etadi shu bois suv resurslari sohasida ishlaydigan muhandislardan nazariy bilimlar bilan birga, yuqori darajadagi amaliy ko'nikmalar talab qilinadi.

Dual ta'lim tizimi – nazariy bilim va ishlab chiqarish amaliyotini muvozanatli birlashtirgan ta'lim shakli bo'lib, o'quvchilarni ishlab chiqarishga yaqin sharoitda tayyorlash imkonini beradi hozirgi kunda bu tizim turli sohalarda kadrlar tayyorlashda samarali usul sifatida qabul qilinmoqda maqolada dual ta'lim tamoyillari asosida bo'lajak muhandislarni suv resurslarini monitoring qilishga tayyorlash metodikasini takomillashtirish masalalari tahlil qilinadi, shuningdek amaliyotda qo'llanilishi uchun tavsiyalar beriladi. Dual ta'lim modeli Yevropa mamlakatlarida juda keng tarqalgan bo'lib, uning samaradorligi bo'yicha ko'plab ilmiy izlanishlar bor shu bilan birga suv resurslari monitoringi sohasida ishlab chiqilgan axborot texnologiyalari va avtomatlashtirilgan tizimlar haqidagi tadqiqotlar ham keng yoritilgan ammo Osiyo va O'zbekiston kontekstida dual ta'limni suv resurslari sohasidagi muhandislarni tayyorlashda samarali joriy etish bo'yicha ilmiy-amaliy tadqiqotlar kam shu bois bu mavzudagi metodik yondashuvlarni takomillashtirish zaruriyati mavjud.

Suv resurslari monitoring - suvning sifati va miqdorini doimiy ravishda kuzatib borish, suvning ifloslanishi va kamayishini oldindan aniqlashga qaratilgan tizimlar yig'indisidir suv resurslaridan oqilona va barqaror foydalanishni ta'minlash aholiga toza va sog'lom suv ta'minotini kafolatlash iqlim o'zgarishi ta'sirini kamaytirish uchun zarur chora-tadbirlarni aniqlash qishloq xo'jaligi va sanoat sohalarida suv resurslarini boshqarishni optimallashtirish.Muhandislar suv resurslari monitoringida ishlatiluvchi zamonaviy texnologiyalar va usullarni yaxshi o'zlashtirishi lozim bu ularga ekologik xavf-xatarlarni aniqlash, suv ta'minoti tizimlarini samarali boshqarish,

texnik va ekologiya jihatdan toza yechimlar taklif qilish imkonini beradi ushbu maqsadni amalga oshirishda quyidagi vazifalar belgilab olindi va ishda o'z yechimini topdi:

O'zbekiston Respublikasini asosiy suv resurslari, va ularni xududiy taqsimlanishi hamda xalq xo'jaligidagi ahamiyatini yoritib berish O'rta Osiyoda transchegaraviy daryolardan foydalanishda yuzaga kelgan vaziyat va uning ekologik oqibatlari yoritish; vazifalari aholi va iqtisodiyot tarmoqlari ehtiyojlari uchun suvdan oqilona foydalanishni ta'minlash, suvlarni bulg'anish, ifloslanish va kamayib ketishdan hamda muxofaza etishning huquqiy me'yorlarini bayon etishdir. Suv resurslaridan samarali foydalanish masalasini hal etish hozirgi kunda, ayniqsa, suv taqchilligi sharoitida o'ta dolzarb vazifa hisoblanadi. Qishloq xo'jaligida amalga oshirilayotgan keng ko'lamli iqtisodiy islohotlar mana shu vazifani ham yechishga yo'naltirilganligi bejiz emas. Ekin turlarini tanlash, suv resurslaridan oqilona foydalanish, sug'orish manbalarining texnik-iqtisodiy tasnifi va shu kabi suv xo'jaligini ifodalovchi, uning rivojlanish tendensiyalarini aniqlash hamda tartibga solish bilan bog'liq masalalarni yechish ushbu sohada butun bir axborotlar (ma'lumotlar) tizimini shakllantirishni taqozo etadi.

Bunday tizimlarni shakllantirish va ulardan samarali foydalanishdan kutilayotgan pirovard natija suv resurslaridan samarali foydalanishga erishish hisoblanadi bu yerda shuni alohida ta'kidlash joizki, suvdan samarali foydalanish muammosi birlamchi masala va buni axborot tizimlari asosida yechish masalasining qo'yilishi o'z navbatida, shunga yo'naltirilgan axborot tizimini avtomatlashtirishni, ya'ni shakllantirilishni ko'zda tutilayotgan axborot tizimi tarkibi, uning mantiqiy-funksional ishlash tamoyili avtomatlashtirilgan sharoitda ishlashida suvdan samarali foydalanish masalasini yechishga qaratilgan bo'lishi kerak. Boshqacha aytganda, suvdan samarali foydalanishda AATning ishlashini shunday jarayon deb qarash kerakki, unda suv resurslarini iqtisodiy mantiq nuqtai nazardan ifodalovchi butun bir ma'lumotlar (axborotlar) kompleksi samaradorlik tamoyilini ifodalashga yo'naltirilgan bo'lishi kerak, ya'ni suv resurslarining paydo bo'lishini va undan foydalanishni o'z ichiga olgan butun bir jarayon samaradorlik masalasini yechishga qaratilishi kerak. Buni biz, aynan, avtomatlashtirilgan axborot tizimlarining ishlash jarayonini tahlil etish va ular asosidagi suv resurslari bilan bog'liq barcha ma'lumotlarni baholash orqali amalga oshirish mumkinligini ta'kidlab o'tmoqchimiz. Suv xo'jaligi sohasida ham axborot tizimlaridan foydalanish muhim va zarur hisoblanadi chunki suv xo'jaligi sohasida rejalashtirish ishlari davomida juda katta ma'lumotlar bilan hisob – kitob ishlari amalga oshiriladi bu ma'lumotlarni qayta ishlash ko'p vaqt va aqliy mehnatni talab qiladi qaror qabul qilish jarayonini esa qiyinlashtiribgina qolmay, iqtisodiy sarf-xarajatlarning ham oshishiga olib keladi. Bu muammoning yechimlaridan biri, sohada axborot-kommunikatsion texnologiyalardan kengroq foydalanish hisoblanadi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, suv manbalarini sifat jihatdan muhofaza qilishning birorta universal usuli yo'q asosiy yo'nalish oqova suvlarini kamaytirish yoki umuman to'xtatish bo'lib, u bir qancha yordamchi choralar tufayli amalga oshiriladi. Suvdan foydalanish jarayonida uni muhofaza qilish ularning hammasi uchun xos bo'lgan umumiylikdir boshqacha qilib aytganda suv boyliklarini himoya qilish faqat taqiqlashlari chegaralashlardan iborat emas yo'lda noto'g'ri yo'nalishlarga tezda chek qo'yish, oldindan tadbirlar belgilash, yo'l qo'yilishi mumkin bo'lgan xatolardan ogohlantirish ham muhimdir. Suv resurslaridan foydalanish va muhofaza qilishning xuquqiy asoslarini adabiy manbalar asosida ochib berildi resurslaridan foydalanish va muhofaza qilish xuquqiy tushunchasi va o'ziga xos xususiyatlari o'rganilib, ma'lumotlar to'plandi. Shuningdek suv manbalaridan foydalanish turlari, foydalanuvchilarning majburiyatlari hamda resurslaridan foydalanish himoya qilishning chora tadbirlari o'rganildi.

Suv resurslaridan foydalanish va muhofaza qilishning xuquqiy muhofaza qilish tushunchasi va xususiyatlari, transchegaraviy suv resurslaridan foydalanishni xuquqiy tartibga solish, suv manbalarini muhofaza qilish va undan foydalanish to'g'risidagi qonun xujjatlarini buzganlik uchun javobgarlik haqida to'la ma'lumotlar beriladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Nigmatov A.N. O‗zbekiston Respublikasining Ekologiya huquqi. Darslik. - Toshkent: TDYUI, 2004. - 320 b.

2. O'zbekiston Respublikasining ―Suv va suvdan foydalanish to'g'risida‖gi qonuni. //

O’zbekiston Respublikasi Oliy Kengash Axborotnomasi. - 1993. - №5. - 221-modda

3. Aripov D.U. O’zbekiston Respublikasining ―chiqindilar to’g’risidagi qonuniga sharh. - Toshkent: TDYUI, 2007. - 89 b

4. Xamidov M.X., Begmatov I.A., Isaev S.X., Mamatov S.A. “Suv tejamkor sug‘orish texnologiyalari” O‘quv qo‘llanma. T., TIMI bosmaxonasi, 2015. 243 bet. 5.Xamidov M.X., Shukurlaev X.I., Mamataliev A.B. “Qishloq xo,jaligi gidrotexnika meliorasiyasi”. Darslik. T. Sharq, 2009, 379 bet.

6. O’zbekiston Respublikasining ―Yer osti boyliklari to’g’risidagi qonuni (yangi tahriri). // O’zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Axborotnomasi. - 2003. - №1. - 5-modda.

7. G‘aniev I., Islomov S. Gidrologiya asoslari. – Toshkent: O‘qituvchi, 2017.

8. O‘zbekiston Respublikasi Suv kodeksi. – Toshkent, 2023

9. Akbarov A., Nazaraliev D., Hikmatov F., 2008. “Gidrometriya” O‘quv qo‘llanma. T., TIMI bosmaxonasi, 2008. 155 bet

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING MANTIQIY FIKRLASHINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK SHART-SHAROITLARI VA METODIK MODELI

Meyliyeva Shoxista Rustamovna
Sodiqova Zarina

Annotatsiya. O‘yin usulidan keng foydalanish bir qator afzalliklarga ega. O‘yin bolalar hayotida muhim o‘rin tutadi. Bu tabiiy holat bo‘lib bola tanasining ehtiyoji, bolalarning birgalikdagi faoliyatida aloqa vositasidir. O‘yin barcha aqliy jarayonlar eng faol davom etadigan ijobiy hissiy fonni yaratadi. Bu bolaning individual xususiyatlarini ochib beradi, uning bilim va g‘oyalar darajasini aniqlash imkonini beradi.

O‘yin faoliyati jozibador, chunki bu jarayonda u bolalarning qiziqishlari, istaklari, so‘rovlari, ijodiy intilishlarini qondirish uchun qulay shart-sharoitlarni yaratadi. Bundan tashqari, ularga g‘ayrioddiy, ba’zan sirli muhit yoqadi, bu o‘yinga o‘ziga xos joziba bag‘ishlaydi. Quvonch, shuningdek, o‘yin jamoaviy harakat va jamoaviy muloqot qilish imkoniyatini ochib beradi.

Kalit so‘zlar:didaktik o‘yinlar, ssenariy, ta’lim, tarbiya, kognitiv faoliyat, qobiliyat

Kirish. Mamlakatimizdagi zamonaviy maktabgacha ta’limning bugungi ahvoli haqida gapiradigan bo‘lsak, asosiy o‘rinni hamon ta’lim-tarbiya faoliyati egallab turganini ta’kidlash lozim. Ikki asosiy o‘quv fanlari - til va matematika bo‘yicha ta’lim berishda bolalar deyarli har doim o‘quv va tarbiyaviy masalalarni, ham mazmunan, ham tipik muammolarni hal qilishadi. Ularning maqsadi bir xil turdagi har bir keyingi vazifaga bolalarning izlanuvchanlik faoliyati asta-sekin qisqarishini va oxir-oqibat butunlay yo‘qolishini ta’minlashdir. Bu ma’lum bir turdagi masalalarni yechishda ko‘nikma shakllanishi bilan bog‘liq. Bunday holda, bola bu turdagi muammolarni hal qilish yo‘lini izlamaydi, chunki u buni allaqachon biladi, lekin uni qo‘llaydi. Agar boshqa tomondan, ma’lum bir turdagi har bir keyingi muammoni hal qilishda, bolalar yana yechim izlashni rivojlantirsa, bu ular ushbu turdagi muammolarni hal qilish usulining asosini tashkil etgan bilimlarni yomon o‘zlashtirganligini anglatadi.

Maktabgacha ta’limda bilim va ko‘nikmalarni o‘zlashtirish bo‘yicha faoliyatning ustunligi, bizning fikrimizcha, bolalarning intellektini, birinchi navbatda, ijodiy fikrlashni sezilarli darajada rivojlantirishga to‘sqinlik qiladi. Bolalar tayyor yechimga ega bo‘lgan va qoida tariqasida faqat bitta yechimga ega bo‘lgan muammolarni hal qilishga o‘rganadilar. Shuning uchun, bolalar muammoning yechimi bo‘lmagan yoki aksincha, ko‘plab yechimlarga ega bo‘lgan vaziyatlarda yo‘qoladi. Bundan tashqari, bolalar allaqachon o‘rganilgan qoida asosida muammolarni hal qilishga o‘rganadilar, shuning uchun ular qandaydir yangi yo‘lni topish uchun mustaqil harakat qiladilar.

Tadqiqot natijalari: T.I.Kuzmina va G.V.Tomskiylarning ishlarida DIO‘ni ta’lim-tarbiya ishlarini takomillashtirishga xizmat qiluvchi vositalar tarkibiga kiritilishi tarbiyalanuvchilar jamoasini shakllantirishga, tarbiyalanuvchilar o‘rtasidagi munosabatlarga ta’sir etishi ta’kidlangan. Kollektiv o‘yinda ishtirok etish turli yoshdagi bolalarni bir-biriga yaqinlashtiradi, o‘g‘il bolalar va qizlar o‘rtasidagi o‘rtoqlik munosabatlarini mustahkamlaydi, ba’zan muvaffaqiyatga erishgan

bolalar va orqada qolganlar o‘rtasida yuzaga keladigan qarama-qarshiliklarni yumshatiladi. O‘yin barcha bolalar o‘rtasida o‘zaro hurmat va yordam asosida do‘stona aloqalarni mustahkamlashga yordam beradi. DIO‘ tarbiyachi va tarbiyalanuvchi munosabatlariga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi [109].

Maktabgacha ta’limda bolaning har tomonlama kamol topishining manbalari ikki turdagi faoliyatdir. Birinchidan, har qanday bola insoniyatning o‘tmish tajribasini o‘zlashtirganidek, zamonaviy madaniyat bilan tanishish tufayli rivojlanadi. Bu jarayon bolani jamiyat hayoti uchun zarur bo‘lgan bilim va ko‘nikmalar bilan o‘zlashtirishga qaratilgan ta’lim faoliyatiga asoslanadi. Ikkinchidan, rivojlanish jarayonida har qanday bola ijodiy faoliyat tufayli o‘z qobiliyatlarini mustaqil ravishda amalga oshiradi. Ta’limdan farqli o‘laroq, ijod allaqachon ma’lum bilimlarni o‘zlashtirishga qaratilgan emas. DIO‘ bolada mustaqillikning namoyon bo‘lishiga, o‘z-o‘zini anglashiga, yangisini yaratishga qaratilgan o‘z g‘oyalarini amalga oshirishga yordam beradi.

Demak, o‘quv faoliyatida ta’lim va tarbiyaviy vazifalar qandaydir ko‘nikmalarni egallash, u yoki bu qoidani o‘zlashtirish maqsadida hal qilinadi. Ijodiy faoliyatda bolaning qobiliyatini rivojlantirish uchun izlanish va ijodiy vazifalar hal qilinadi. Shuning uchun, agar o‘quv faoliyati jarayonida umumiy o‘rganish qobiliyati shakllansa, u holda o‘yinlarning ijodiy faoliyati doirasida yangi yechimlarni izlash va topishning umumiy qobiliyati, istalgan natijaga erishishning noodatiy usullari, yangi yondashuvlar. taklif qilingan vaziyatni hisobga olgan holda shakllantiriladi.

Boshqa tomondan, odatiy muammolarni doimiy ravishda hal qilish bolaning shaxsiyatini, xususan, o‘ziga bo‘lgan munosabatini rivojlantiradi. Asta-sekin, bolalar o‘zlarini, o‘z imkoniyatlarini faqat tipik muammolarni muvaffaqiyatli yoki muvaffaqiyatsiz hal qilish orqali baholashga odatlanib qolishadi, ularni hal qilish tegishli qoidani o‘rganishga, ma’lum bilimlarni o‘zlashtirish darajasiga bog‘liq. O‘yinda ishtirok etish, bu faqat mehnatsevarlik va tirishqoqlikdan emas, balki o‘yin vaziyatining mavjudligi, ko‘zlangan maqsadga erishish bolaning o‘zini baholashga imkon beradi, uning tasavvurini, zukkoligini ko‘rsatadi.

Tarbiyalashdagi muvaffaqiyat bolalar o‘rtasidagi munosabatlarga sezilarli hal qiluvchi ta’sir ko‘rsatadi, bu ko‘pincha tarbiyachilar tomonidan osonlashtiriladi. Bolalar yaxshi va a’lo o‘qigan o‘quvchilarni yaxshi fikrlaydiganlarga qaraganda ko‘proq hurmat qilishlari mumkin. Bu, ayniqsa, aqlli bolalar notekis va qiziqishsiz o‘qiganda seziladi. Bu esa ularning xarakterini shakllantirishga salbiy ta’sir qiladi.

Biroq, maktabgacha ta’limda izlanuvchilik tavsifining vazifalari yo‘q deb aytish mumkin emas. Darhaqiqat, matematika va tilda nostandart deb ataladigan vazifalar mavjud bo‘lib, ularni hal qilish bolalardan intellektual tashabbus va mantiqiy fikrlashni talab qiladi. Lekin, birinchidan, bunday muammolarni hal qilish hamma bolalar uchun emas, balki faqat aqlli bolalar uchun mavjud bo‘lsa, ikkinchidan, bu muammolarni hal qilish ixtiyoriydir.

Ssenariylarni tuzish jarayoni (o‘yin mazmuni) turli usullarda amalga oshirildi: 1. Ssenariylarni tarbiyalanuvchilar tarbiyachi bilan birgalikda tuzdilar. 2. Ssenariylar bolalarning o‘zlari tomonidan mustaqil ravishda tuzilgan. 3. Ssenariylar tarbiyachi tomonidan ertak ma’lum syujeti asosida tuziladi.

Tarbiyachi tomonidan DIO‘ni tashkil etish uchta asosiy yo‘nalishda amalga oshiriladi: DIO‘ga tayyorgarlik, uni amalga oshirish va tahlil qilish.

DIO‘ga tayyorgarlik quyidagilarni o‘z ichiga oladi: o‘yinni tanlash: bilimlarni chuqurlashtirish va umumlashtirish, hissiy qobiliyatlarni rivojlantirish, aqliy jarayonlarni faollashtirish (xotira, diqqat, fikrlash, nutq) va boshqalar; o‘yinning ma’lum bir yosh guruhiga mosligini o‘rnatish; qulay vaqt; o‘ynash uchun joy tanlash; o‘yinchilar soni; material tayyorlash; tarbiyachi va bolalarning tayyorgarligi.

DIO‘ni o‘tkazish quyidagilarni o‘z ichiga oladi: o‘yin mazmuni, material (mavzu) bilan tanishish; o‘yinning borishi va qoidalarini tushuntirish; o‘yin harakatlarini ko‘rsatish; o‘yinda tarbiyachining rolini aniqlash; o‘yin natijalarini sarhisob qilish; O‘yin oxirida tarbiyachi bolalardan o‘yin yoqdimi yoki yo‘qligini so‘raydi va keyingi safar yangi o‘yin o‘ynashlari mumkin, bu ham qiziqarli bo‘lishini va’da qiladi. Bolalar bu kunni intiqlik bilan kutishadi.

Masalan, bolaga o‘z xohishiga ko‘ra DIO‘da o‘z xohishiga ko‘ra harakat qilish imkoniyati beriladi. O‘yinni kuzatishda quyidagilar qayd etildi:

1. Bolaning o‘yinchoqlarga qiziqishi mavjudligi yoki yo‘qligi;

2. Bu qiziqishning tabiati: uning jiddiylik darajasi, qiziqishning tanlanganligi, qiziqishning barqarorligi;

3. Kognitiv faoliyatning rivojlanish darajasi;

4. O‘yinda bilimlardan foydalanish;

5. Bolaning o‘yinchoqlar bilan o‘ynashining umumiy davomiyligi.

Ushbu aqliy vazifani hal qilish boladan nafaqat o‘zlashtirilgan bilimlardan faol foydalanishni, balki taqqoslash, mustaqil izlanish va zukkolikning namoyon bo‘lishini ham talab qiladi.

O‘tkazilgan o‘yinni tahlil qilish uni tayyorlash va o‘tkazish usullarini aniqlashga qaratilgan: maqsadga erishishda qanday usullar samarali bo‘lgan, nima ishlamagan va nima uchun. Bu o‘yinga tayyorgarlikni ham, jarayonini ham yaxshilashga yordam beradi va keyinchalik xatolardan qochishga yordam beradi. Bundan tashqari, tahlil bolalarning xulq-atvori va xarakteridagi individual xususiyatlarni ochib beradi va shuning uchun ular bilan individual ishlarni to‘g‘ri tashkil etadi. O‘z-o‘zini tanqidiy tahlil qilish o‘yinni rang-barang qilishga, uni yangi material bilan boyitishga yordam beradi.

Biz respublika va xalqaro turnirlarning eng kuchli o‘n nafar g‘olibini sinovdan o‘tkazdik. Natijalarni tahlil qilish natijasida DIO‘ o‘yini ustasining psixologik portreti shakllantirildi, u quyidagi fazilatlarga ega bo‘lishi kerak:

1. Kuchli hissiyot va o‘zini tuta bilish
2. Diqqatni tashqi bir-biriga bog‘langan obyektlarga taqsimlash qobiliyati
3. Dinamik vaziyatlarga sezgirlik
4. Intellektual rivojlanishning yuqori darajasi
5. Mavhum fikrlash qobiliyati
6. Matematik fikrlash qobiliyati
7. Obyektiv bo‘lish qobiliyati
8. Obyektlarning uzoqligini sezish qobiliyati
9. Intizom va iroda
10. O‘ziga ishonch

Ushbu ish pedagogik tajriba-sinov ish vazifasini shakllantirishga, ushbu o‘yinga jiddiy munosabatni rivojlantirishga yordam berdi, DIO‘ intellektual qobiliyatlarni va o‘zini o‘zi boshqarishni rivojlantirish usuli sifatida tan olindi.

Tajriba davomida oltita yo‘nalishda o‘yin darajasi va o‘yinchining natijalari o‘rtasidagi muvofiqlikni aniqlash uchun statistik usullar qo‘llanildi: umumiy intellekt, o‘qish va eslash qobiliyati, baholari (ayniqsa matematika, mehnatga tayyorgarlik va chizmachilik), DIO‘ larini tahlil qilish, DIO‘ bo‘yicha tajribalar. Ma’lum bo‘lishicha, o‘yin darajasi ushbu oltita yo‘nalishdagi o‘rtacha natijalarga to‘g‘ridan-to‘g‘ri proporsionaldir.

Xulosa: Bizning tadqiqotlarimiz shuni ko‘rsatdiki, DIO‘ o‘qitilgan bolalarda mantiqiy fikrlashning barcha xususiyatlarini rivojlantiradi. DIO‘ nazariy, mantiqiy va mavhum fikrlash, xotira, geometrik tasavvur, ijodiy sezgi, zukkolik, e’tibor, reja tuzish va qiyin vaziyatda eng yaxshi qaror qabul qilish mahoratini rivojlantiradi. Tajriba natijalariga asoslanib, quyidagicha ta’kidlashimiz mumkin: kim DIO‘ni yaxshiroq o‘ynasa, matematika bo‘yicha akademik ko‘rsatkichlari yuqori bo‘ladi. DIO‘ga murojaat qilganda, matematika va informatikaning qaysi sohalari bilan tanishish va ularni o‘rganish muvaffaqiyatli davom etishini ko‘rsatamiz. Bu, birinchi navbatda, algebra, kombinatorika, geometriya, grafiklar nazariyasi, ehtimollar nazariyasi, matematika tarixi, o‘yinlar nazariyasi, operatsiyalarni tadqiq qilish, sun’iy intellektni yaratish, algoritmlash va kompyuter dasturlash va boshqalar.

Ta’lim va tarbiya jarayoni samaradorligining birinchi muhim ko‘rsatkichi - bilimning hajmi va sifati. Bilim insoniyat madaniyatining asosiy poydevori bo‘lib, uning asosida odamlarning har qanday faoliyati amalga oshiriladi.

Amaliy ko‘nikma va malakalar ta’lim va tarbiya samaradorligining ikkinchi muhim ko‘rsatkichidir, chunki bilim faoliyat ko‘nikma va malakalari orqali haqiqiy timsolga ega bo‘ladi.

Bolaning intellektual rivojlanishi ta’lim va tarbiya samaradorligining uchinchi ko‘rsatkichidir. Bilim, ko‘nikma va malakalarni egallab, yosh avlod bir vaqtning o‘zida olingan barcha ma’lumotlarni tizimlashtirish, umumlashtirish, turli amaliy maqsadlarda foydalanishni o‘rganadi.

Bu jarayonning barchasida xotira, nutq, fikrlash, e’tibor rivojlanadi, ya’ni barcha kognitiv kuchlar va qobiliyatlar yaxshilanadi.

Nazariyani amaliyotda qo‘llay olish qobiliyati dars samaradorligining to‘rtinchi ko‘rsatkichidir. O‘z-o‘zidan, agar o‘quvchilar turli amaliy mashg‘ulotlarda foydalana olmasalar, bilim va ko‘nikmalar hech qanday ahamiyatga ega emas. Bilimlarni qo‘llash bir vaqtning o‘zida ularni o‘zlashtirish sifatini va tarbiyalanuvchilar intellektining rivojlanish darajasini, uning amaliy tajribasini, shakllangan ko‘nikma va malakalarini tavsiflaydi.

Ishlash, o‘qish, jamoaviy fikrlash qobiliyati ta’lim sifatining muhim ko‘rsatkichidir.

Shunday qilib, DIO‘ bo‘yicha mashg‘ulotlarda bolalarning intellektual qobiliyatini, mantiqiy fikrlashni rivojlantirish uchun qulay sharoitlar yaratiladi. Ijodiy fikrlashning moslashuvchanlik, tanqidiylik, fikrlashning asosliligi kabi fazilatlari shakllanadi, bu esa o‘z navbatida o‘yinlar sifatining asosiy ko‘rsatkichlari hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Алексеев А.А. Взаимодействие образных и символических структур в развивающемся интеллекте ребёнка. С-Пб.: Питер, 2001. 89 с.

2. Пиаже Ж. Психология интеллекта. - СПб.: Питер, 2004. - 192 с.

3. Bakhtiyorovna, Adizova Nigora, and Ozodova Madina. "Technology Of Training." Aimed At Developing Creative Working Skills In The Training Of Primary School TeachersThe American Journal of Social Science and Education Innovations2021/3/31: 546- 550.

4. Zikiryayev A. va boshqalar. O‘quvchilar bilimini tekshirishda innovatsion texnologiyalar. // ―Xalq ta’limi‖ jurnali, 2001, 6-son. –19-b. 3. Xolmetov M. Tarbiyada didaktik o‘yinlarning ahamiyati. // ―Ma’rifat‖, 2002, 6-son. – 16- b.

5. Yusupova A, Qurbonniyozov R. Yangi pedagogik texnologiyalarni qo‘llash muammolari. // ―Pedagogik ta’lim‖ jurnali, 2000, 3-son. –18-b. 5. Nishonaliyev U. Yangi pedagogik va axborot texnologiyalari muammolari va yechimlari. // ―Pedagogik ta’lim‖ jurnali, 2000, 3-son. –11-b.

6. Meyliyeva Shoxista Rustamovna, Safarova Nilufar Vohidovna, Maxmiyev Afro‘zbek Dadaxon o‘g‘li OLIY TA’LIM TALABALARINI O‘QITISHDA DIDAKTIK O‘YINLARDAN FOYDALANISH. INTERDISCIPLINE INNOVATION AND SCIENTIFIC RESEARCH CONFERENCE British International Science Conference. 2024. – 255

7. Meyliyeva Shoxista Rustamovna, Pirimova Shaxlo Jo‘rayevna, Maxmiyev Afro‘zbek Dadaxon o‘g‘li O‘QITISHDA DIDAKTIK O‘YINLARDAN FOYDALANISH. IJODKOR O‘QITUVCHI ILMIY-USLUBIY JURNAL. 2024-yil . 44-son. 66-69 b.

8. Meyliyeva Shoxista Rustamovna, Maxmiyev Afro‘zbek Dadaxon o‘g‘li TALABALARINI O‘QITISHDA INNOVATSION METODLARDAN FOYDALANISH. PROSPECTS AND MAIN TRANDS IN MODERN SCIENCE International scientific-online conference. Part 16 November 29 th COLLETIONS OF SCIENTIFIC WORKS. MADRID 2024. 74-78 b.

9. Meyliyeva Shoxista Rustamovna Дидактик ўйинлар мактабгача ёшдаги болаларнинг мантиқий фикрлашини ривожлантириш воситаси “zamonaviy ta‟lim tizimini rivojlantirish va unga qaratilgan kreativ g‟oyalar, takliflar va yechimlar” mavzusidagi 77-sonli respublika ilmiy-amaliy on-line konferensiyasi materiallari to„plami 1-mart , 2025-YIL 77-SON 69-76 b.

BOSHLANG’ICH SINF O’QUVCHILARINING KREATIV TAFAKKURINI SHAKLLANTIRISHDA FANLARARO INTEGRATSIYADAN FOYDALANISH TA’LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISH

Xusanova Gulruxsor To‘lqinjon qizi, Yo‘ldasheva Marg‘uba Nematjon qizi
FarDU

Annotatsiya: Mazkur maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida kreativ tafakkurni rivojlantirish asosida tahlil qilingan. Kreativ tafakkurning pedagogik-psixologik mohiyati ochib berilib, uni shakllantirish va rivojlantirishda samarali bo‘lgan metodik asoslar yoritilgan. Fanlararo integratsiya hamda innovatsion ta’lim samaradorligi asoslab berilgan. O‘quvchilarning yosh va individual xususiyatlarini oshiruvchi muhim omil sifatida ko‘rsatib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: kreativ tafakkur, boshlang‘ich ta’lim, metodik asoslar, innovatsion yondashuv,

rivojlantiruvchi ta’lim, fanlararo integratsiya.

Аннотация: В статье рассматриваются методические основы развития креативного мышления у учащихся начальных классов. Раскрывается педагогико-психологическая сущность креативного мышления, анализируется роль развивающего обучения, межпредметной интеграции и инновационных образовательных технологий. Обоснованы эффективные методы формирования творческого мышления с учетом возрастных и индивидуальных особенностей младших школьников.

Ключевые слова: креативное мышление, начальное образование, методические основы, инновационный подход, развивающее обучение.

Annotation: The article examines the methodological foundations of developing creative thinking in primary school students. The pedagogical and psychological essence of creative thinking is revealed, and the role of developmental learning, interdisciplinary integration, and innovative educational technologies is analyzed. Effective methods for fostering creative thinking considering age and individual characteristics of students are substantiated.

Keywords: creative thinking, primary education, methodological foundations, innovative approach, developmental learning.

Bugungi globallashuv va tezkor axborot oqimi sharoitida ta’lim tizimi oldiga qo‘yilayotgan talablar tubdan o‘zgarmoqda. Zamonaviy jamiyat maktabdan nafaqat bilimli, balki mustaqil fikrlay oladigan, muammolarga ijodiy yondasha oladigan, yangilik yaratishga qodir shaxsni tarbiyalashni talab etadi. Ayniqsa, boshlang‘ich ta’lim bosqichi shaxs kamolotining poydevori hisoblanib, bu davrda o‘quvchilarning kreativ tafakkurini shakllantirish muhim pedagogik vazifa sifatida namoyon bo‘ladi. Hozirgi zamon ta’lim amaliyotida integratsiyalashgan yondashuvlar tobora keng qo‘llanilmoqda. Ulardan biri bir nechta o‘quv fanlarini yagona mazmuniy asosda birlashtirishga qaratilgan integrativ ta’lim modelidir. Mazkur yondashuv o‘quvchilarda bilimlarni parchalangan holda emas, balki yaxlit tizim sifatida o‘zlashtirish imkonini yaratadi.

Integratsiya yondashuvi kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarda keng dunyoqarashga ega bo‘lgan muloqot madaniyatining boshlang‘ich poydevorini shakllantirishga xizmat qiladi. Ushbu muloqot madaniyati tengdoshlar, kattalar va kichik yoshdagilar bilan samarali hamkorlikni, shuningdek, bolaning o‘z-o‘zi bilan ichki muloqotini va atrof-muhitdagi voqea-hodisalarga ongli munosabatini rivojlantiradi. O’quvchilarda nafaqat kommunikativ kompetensiya, balki refleksiv fikrlash, empatiya va mas’uliyat hissi ham shakllanadi. Integratsiya ta’lim boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini borliqni yaxlit tizim sifatida anglashga yo‘naltiruvchi, ularning tafakkurini, ijodiy faolligini va ijtimoiy moslashuvini ta’minlovchi samarali pedagogik yondashuvlardan biri hisoblanadi

Zamonaviy ta’lim tizimida shaxsni har tomonlama rivojlantirish, ayniqsa, uning mustaqil fikrlashi, yangicha yondashuvi va ijodiy salohiyatini shakllantirish ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi. Ushbu jarayonda kreativ tafakkur muhim pedagogik kategoriya sifatida alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki kreativ tafakkur shaxsning mavjud bilimlar doirasidan chiqib, yangi g‘oya va yechimlar yaratish qobiliyatini ifodalaydi. “Kreativ tafakkur” tushunchasi lotincha *“creare”* “yaratmoq” so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, insonning yangilikka intilishi, muammolarga noodatiy yondashuvi, mustaqil va original fikr yuritish qobiliyatini anglatadi. Psixologik-pedagogik adabiyotlarda kreativ tafakkur shaxsning muammoli vaziyatlarda standart bo‘lmagan yechimlarni topa olishi, g‘oyalar xilma-xilligini namoyon etishi hamda intellektual moslashuvchanlikni ta’minlovchi fikrlash turi sifatida talqin etiladi.

Kreativ tafakkur tafakkurning boshqa turlari mantiqiy, tanqidiy va analitik fikrlash bilan uzviy bog‘liq holda rivojlanadi. Biroq ularning farqi shundaki, kreativ tafakkur mavjud bilimlarni takrorlashga emas, balki ularni qayta talqin qilish, yangi kombinatsiyalar hosil qilish va original natijalarga erishishga yo‘naltirilgan bo‘ladi. Fanlararo integratsiya tushunchasi bir nechta fanlar mazmunining o‘zaro uyg‘unlashuvi, ularning umumiy tushuncha, g‘oya va qonuniyatlar asosida birlashtirilishini anglatadi. Bunda fanlar o‘rtasidagi ichki aloqalar ochib berilib, o‘quvchilar tomonidan bilimlarning parchalanmagan, yaxlit tizim sifatida o‘zlashtirilishi ta’minlanadi. Integratsiya jarayonida fanlar o‘z mustaqilligini saqlab qolgan holda, o‘quv mazmunining umumiy maqsadlariga xizmat qiladi.

Fanlararo integratsiya boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida quyidagi kreativ sifatlarni rivojlantirishga xizmat qiladi:

- muammoli vaziyatlarni mustaqil tahlil qilish;
- turli fanlardan olingan bilimlarni birlashtirish;
- noodatiy yechimlar topish;
- fantaziya va tasavvurni rivojlantirish;
- o‘z fikrini asoslab berish.

Integratsiyalashgan darslarda loyiha metodi, tadqiqot faoliyati, ijodiy topshiriqlar, rolli o‘yinlar, muammoli savollar keng qo‘llaniladi. Bunday yondashuv o‘quvchilarning faolligini oshirib, ularni bilim olish jarayonining faol subyektiga aylantiradi. Ta’lim samaradorligini oshirishda integratsiyalashgan yondashuvning roli muhim sanaladi.

Integratsiya ta’lim yondashuvi o‘quvchilarda atrof-muhitni tashkil etuvchi narsa va hodisalar o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni anglash, moddiy hamda ma’naviy madaniyatning rang-barangligini idrok etish, shuningdek, insonning ichki va tashqi dunyosi haqidagi tizimli tasavvurlarni shakllantirishda muhim pedagogik ahamiyat kasb etadi. Mazkur yondashuv orqali o‘quvchilar tabiiy, ilmiy, tarixiy va axloqiy qonuniyatlarni yaxlit holda tushunishga yo‘naltiriladi, bu esa ularning dunyoqarashini boyitishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-5538-son Farmoni. “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasi”.
2. Petrovskiy A.V. Umumiy psixologiya. – Toshkent: O‘qituvchi, 1992
3. Хусанова, Г. (2022). Kichik maktab yoshidagi o‘quvchilar so‘z boyligini oshirishning pedagogik-psixologik asoslari. *Современные тенденции инновационного развития науки и образования в глобальном мире*, *1*(4), 232-235.
4. Xusanova, G. (2024). BOSHLANG ‘ICH SINFLARDA ZID MA’NOLI SO‘ZLAR USTIDA ISHLASH USULLARI. *Farg'ona davlat universiteti*, (3), 38-38.
5. Raximov S. Boshlang‘ich ta’lim metodikasi. – Toshkent: Fan, 2020.

IQLIM ISISHI TA’SIRIDA XORAZM VILOYATIDA SUG’ORILADIGAN YERLARNING SHO’RLANISHI VA MONITORING USULLARI

Bozorboyeva Muhsina Quvondiq Qizi
UrDPI

Annotatsiya: Mazkur maqolada global iqlim isishi sharoitida Xorazm viloyatida sug‘oriladigan yerlarning sho‘rlanish jarayonlari, ularning tabiiy-iqlimiy hamda antropogen omillari ilmiy tahlil qilinadi. Sho‘rlanish dinamikasining hududiy xususiyatlari ochib berilib, zamonaviy monitoring usullari — dala kuzatuvlari, masofadan zondlash va GIS texnologiyalarining amaliy ahamiyati yoritiladi. Tadqiqot natijalari iqlim o‘zgarishi sharoitida barqaror yer resurslari boshqaruvi zarurligini asoslaydi.

Kalit so‘zlar: iqlim o‘zgarishi, sho‘rlanish, sug‘oriladigan yerlar, melioratsiya, monitoring, yer osti suvlari, GIS.

Kirish. Global iqlim o‘zgarishi zamonaviy ekologik jarayonlarning asosiy omillaridan biri sifatida qurg‘oqchil mintaqalarda yer degradatsiyasini kuchaytirmoqda. Markaziy Osiyo hududida haroratning barqaror ko‘tarilishi, yog‘in miqdorining notekis taqsimlanishi va suv resurslarining qisqarishi sug‘orma dehqonchilikka jiddiy ta’sir ko‘rsatmoqda. O‘zbekistonning shimoli-g‘arbiy qismida joylashgan Xorazm viloyati qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishi asosan sug‘oriladigan yer maydonlariga tayangan holda rivojlanadi. Hududning asosiy suv manbai Amudaryo bo‘lib, daryo oqimining kamayishi va suv sifatining yomonlashuvi sho‘rlanish jarayoniga bevosita ta’sir etmoqda. Iqlim isishi natijasida bug‘lanish jarayonlari jadallashib, tuproq namligi tez yo‘qoladi hamda eruvchan tuzlarning yuqori qatlamda to‘planishi kuzatiladi. Bu holat meliorativ ahvolning yomonlashuviga va hosildorlikning pasayishiga olib keladi.

Global iqlim isishi bugungi kunda jahon hamjamiyatini tashvishga solayotgan eng jiddiy muammolardan biri bo‘lib, uning shikastlanishi, ayniqsa, qurg‘oqchil vaziyatlarda yaxshi namoyon

bo‘lmoqda. Markaziy Osiyo mintaqasi, hududi, Amudaryoning quyilishida Xorazm viloyati o‘zining geografik joylashuvi va murakkab gidrologik sharoiti tufayli iqlim o‘zgarishlariga ta‘sir qiladi. Oxirgi o‘n yilliklarda kuzatilayotgan havo haroratining ko‘tarilishi va yog‘ingarchilik miqdorining kamayishi hududdagi ekologik muvozanatga qishloq xo‘jaligi yer degradatsiyasiga, tuproq, tuproq sho‘rlanishining keskin ortishiga olib kelmoqda. Xorazm viloyati tuproqlari asosan allyuvial yotqiziqlardan tashkil topgan bo‘lib, yer osti suv yuqori sathda darajasi va sifat mineralizatsiya darajasi yuqoriligi tabiiy ravishdagi sho‘rlanish jarayonini rag‘batlantiradi. Havo haroratining har bir darajaga ko‘tarilishi tuproq namligining jadal yo‘qolishiga va tuzlarning ildiz tizimi qatlamda to‘planishiga sharoit yaratadi. Bu esa o‘z kuchlarining qishloq xo‘jaligi ekinlari, kichik, g‘o‘za, bug‘doy va sholi kabi asosiy ekinlarning o‘sishi va rivojlanishiga ta‘sir ko‘rsatadi. Xorazm viloyatining sug‘orish tizimlari asosan ochiq kanallar va ariqlardan iborat bo‘lganligi sababli, suvning filtratsiyalari yuqori bo'lib, bu yer osti suvlari sathining ko'tarilishiga va ikkilamchi sho‘rlanishga zamin yaratadi. Zamonaviy sharoitda sho‘rlangan yerlarni monitoring qilish va tekshirish holatini boshqarish usullari tubdan o‘zgarmoqda. . Bugungi kunda ishlab chiqarish jarayonini optimallashtirish masofadan zondlash texnologiyalari va Geografik axborot tizimlari (GIS) keng joriy etilmoqda. Sun‘iy yo‘ldoshlardan olingan multispektral ma‘lumotlar orqali manbalar aksdagi tuzlarning spektral hosil qilish natijasida yuzaga keladigan tahlillar paydo bo'ldi. Masalan, Land Sentinel kabi kosmik apparatlar taqdim etayotgan tasvirlar yordamida materiallarning sho‘rlanish indekslari hisoblab chiqiladi. NDVI indeksi orqali o‘simlik qoplamining holatini o‘rganish, bilvosita tuproq unumdorligi va sho‘rlanish darajasi haqida ishlab chiqarishga yordam beradi.Monitoring jarayonida elektromagnit induktsiya usullari ham alohida o‘rin tutadi.

Xorazm viloyati keskin kontinental va qurg‘oqchil iqlim sharoitida joylashgan bo‘lib, yillik yog‘in miqdori juda kam, bug‘lanish ko‘rsatkichi esa yuqori. Yoz oylarida haroratning keskin ko‘tarilishi tuproq yuzasida intensiv fizik bug‘lanishni kuchaytiradi. Natijada yer osti suvlari kapillyar ko‘tarilish orqali yuqoriga chiqib, tarkibidagi mineral tuzlar tuproqning haydalma qatlamida to‘planadi. Hududda yer osti suvlari sathi ko‘plab maydonlarda 2 metrga yaqin joylashgan bo‘lib, bu sho‘rlanish xavfini oshiradi. Sug‘orish suvlari tarkibidagi minerallashuv darajasi ham muhim omil hisoblanadi. Suv tanqisligi sharoitida yerni yuvish tadbirlarining to‘liq amalga oshirilmasligi tuzlarning akkumulyatsiyasiga olib keladi. So‘nggi yillarda iqlim isishi fonida yozgi haroratning o‘rtacha ko‘rsatkichlari ortgani kuzatilmoqda. Haroratning oshishi nafaqat bug‘lanishni kuchaytiradi, balki o‘simliklarning transpiratsiya jarayonini ham jadallashtiradi. Bu esa tuproq namligining kamayishiga va sho‘rlanish jarayonining tezlashishiga sabab bo‘ladi.

Tuproq sho‘rlanishi agroekotizimlarning barqarorligini izdan chiqaradi. Tuzlarning ortiqcha to‘planishi tuproqning fizik xususiyatlarini yomonlashtiradi, strukturasini buzadi va suv o‘tkazuvchanligini kamaytiradi. Natijada o‘simlik ildiz tizimining rivojlanishi susayadi, oziqlanish jarayoni buziladi va hosildorlik pasayadi. Xorazm viloyatida paxta va g‘alla yetishtirish asosiy yo‘nalish hisoblanadi. Sho‘rlanish darajasining ortishi ushbu ekinlarning hosildorligini sezilarli kamaytiradi va iqtisodiy zarar keltiradi. Bundan tashqari, tuproq degradatsiyasi uzoq muddatli istiqbolda yer resurslarining yaroqsizlanishiga olib kelishi mumkin.

Sho‘rlanish jarayonlarini samarali boshqarish uchun muntazam monitoring zarur. An’anaviy dala usullarida tuproq namunalari olinib, laboratoriya sharoitida elektr o‘tkazuvchanlik va pH ko‘rsatkichlari aniqlanadi. Yer osti suvlari sathi va minerallashuv darajasi kuzatib boriladi. Ushbu usullar aniqligi yuqori bo‘lsa-da, katta hududlarda qo‘llash uchun ko‘p resurs talab etadi. Zamonaviy yondashuv sifatida masofadan zondlash texnologiyalari keng qo‘llanilmoqda. Sun’iy yo‘ldosh tasvirlari asosida vegetatsiya indekslari va sho‘rlanish ko‘rsatkichlari aniqlanadi, hududiy taqsimot xaritalari tuziladi. Bu usul vaqt va makon bo‘yicha dinamik kuzatuv olib borish imkonini beradi. Geografik axborot tizimlari orqali iqlim ko‘rsatkichlari, gidrogeologik ma’lumotlar va tuproq xususiyatlari integratsiya qilinib, sho‘rlanish xavfi zonalari aniqlanadi. Raqamli modellashtirish kelajakdagi o‘zgarishlarni prognoz qilishda muhim vosita hisoblanadi.

Xulosa. Iqlim isishi Xorazm viloyatida sug‘oriladigan yerlarning meliorativ holatiga sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. Haroratning oshishi, suv resurslarining cheklanishi va yer osti suvlari sathining yuqoriligi sho‘rlanish jarayonini jadallashtiruvchi asosiy omillar hisoblanadi. Zamonaviy

monitoring texnologiyalarini joriy etish, suv tejovchi usullarni qo‘llash va ilmiy asoslangan meliorativ tadbirlarni amalga oshirish hududda barqaror qishloq xo‘jaligini ta’minlashning muhim shartidir.Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, global iqlim isishi sharoitida Xorazm viloyati hududida sug‘oriladigan yerlarning sho‘rlanish jarayoni tabiiy va antropogen omillar o‘zaro ta’siri natijasida yanada jadallashmoqda. Haroratning barqaror oshishi, bug‘lanish intensivligining ortishi va suv resurslari taqchilligi tuproq namligi balansining buzilishiga olib kelmoqda. Ayniqsa, hududning asosiy suv manbai bo‘lgan Amudaryo oqimining kamayishi sug‘orish rejimiga salbiy ta’sir ko‘rsatib, yuvish jarayonlarining yetarli darajada amalga oshmasligiga sabab bo‘lmoqda.Yer osti suvlari sathining yuqoriligi va ularning minerallashuv darajasi sho‘rlanishning asosiy gidrogeologik omillaridan biri ekanligi aniqlandi. Iqlim isishi fonida kapillyar ko‘tarilish jarayonining kuchayishi natijasida eruvchan tuzlar tuproqning haydalma qatlamida to‘planib, agroekotizim barqarorligiga tahdid solmoqda. Bu jarayon uzoq muddatli istiqbolda tuproq unumdorligining pasayishi, ekinlar hosildorligining kamayishi hamda iqtisodiy yo‘qotishlarning ortishiga olib kelishi mumkin. Tadqiqot shuni ko‘rsatadiki, sho‘rlanishni samarali boshqarish faqat an’anaviy meliorativ tadbirlar bilan cheklanib qolmasligi kerak. Zamonaviy monitoring tizimlari, xususan, masofadan zondlash va geografik axborot tizimlari asosida yaratilgan raqamli xaritalar sho‘rlanishning hududiy dinamikasini aniqlash va xavf zonalarini belgilashda yuqori samaradorlikka ega. Kompleks monitoring yondashuvi iqlim ko‘rsatkichlari, gidrogeologik ma’lumotlar va tuproq parametrlarini integratsiyalash orqali prognoz modellarini ishlab chiqish imkonini beradi.

Iqlim o‘zgarishi sharoitida barqaror yer resurslari boshqaruvini ta’minlash uchun suv tejovchi sug‘orish texnologiyalarini keng joriy etish, kollektor-drenaj tizimlarini modernizatsiya qilish, sho‘rga chidamli navlarni tanlash va agrotexnik tadbirlarni ilmiy asosda tashkil etish zarur. Shu bilan birga, mintaqaviy iqlim prognozlari asosida moslashuv strategiyalarini ishlab chiqish dolzarb vazifa hisoblanadi. Umuman olganda, Xorazm viloyatida sug‘oriladigan yerlarning sho‘rlanish jarayoni iqlim isishi sharoitida yanada murakkablashayotgan ko‘p omilli ekologik muammo sifatida namoyon bo‘lmoqda. Uni bartaraf etish tizimli, ilmiy asoslangan va innovatsion yondashuvni talab etadi. Mazkur tadqiqot natijalari hududda barqaror qishloq xo‘jaligini rivojlantirish hamda yer resurslaridan oqilona foydalanish strategiyasini takomillashtirishda muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Intergovernmental Panel on Climate Change. Climate Change 2021: The Physical Science Basis. – Cambridge: Cambridge University Press, 2021.
2. Food and Agriculture Organization. Global Map of Salt-Affected Soils. – Rome: FAO, 2021.
3. Food and Agriculture Organization. Irrigation and Drainage Paper 29: Drainage Design Factors. – Rome: FAO, 1980.
4. World Bank. Uzbekistan: Climate-Smart Agriculture Profile. – Washington DC, 2022.
5. United Nations Environment Programme. Global Environment Outlook (GEO-6). – Nairobi, 2019.
6. International Water Management Institute. Water and Salinity Management in Central Asia. – Colombo, 2020.
7. O‘zbekiston Respublikasi Gidrometeorologiya xizmati markazi. O‘zbekiston iqlimi o‘zgarishi bo‘yicha milliy hisobot. – Toshkent, 2022.
8. O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi. Sug‘oriladigan yerlarning meliorativ holati to‘g‘risida yillik hisobot. – Toshkent, 2023.
9. Birlashgan Millatlar Tashkiloti Taraqqiyot Dasturi. Uzbekistan Climate Change Adaptation Strategy Report. – Tashkent, 2021.
10. Rengasamy, P. Soil Salinity and Sodicity. – Oxford: Oxford University Press, 2010.
11. Qodirov, A., Yusupov, Sh. Sug‘oriladigan yerlar melioratsiyasi. – Toshkent: Fan, 2015.
12. Abdullaev, I., et al. Water Management in the Aral Sea Basin. – Berlin: Springer, 2019.

MINTAQA SANOAT SOHASIDA INVESTITSION RESURSLARDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH ISTIQBOLLARI

Azimova Hulkar Egamberdiyevna

Annotatsiya: Ushbu maqolada hududlarda infratuzilmani yaxshilash,har bir hududning ishlab chiqarish sur'atlarini oshirish,aholi bandligini ta'minlash,investitsiya jalb qilish,hududning investitsion resurslaridan samarali foydalanish imkoniyatlarini oshirish masalalari bayon etilgan. Hududlarda mahalliy resurslardan samarali foydalanish natijasida ijtimoiy sohani rivojlantirish,hududlar o;'rtasidagi tafovutlarni bartaraf etish masalalari yoritilgan bo'lib,statistik ma'lumotlar asosida tahlil qilingan. Shuningdek, hududlarda investitsion resurslardan samarali foydalanishning afzalliklari xususida xulosa va takliflar keltirilgan.

Kalit so'zlar: investitsiya muhiti, investitsion resurslar, yalpi hududiy mahsulot, ijtimoiy soha, innovatsion rivojlanish, ijtimoiy infratuzilma, iqtisodiy o'sish, modernizatsiya, ekspert salohiyati, investitsion loyiha

Kirish. Bugungi kunda mamlakatimizda iqtisodiyotni isloh etish, erkinlashtirish va modernizatsiya qilish, uning tarkibiy tuzilishini diversifikatsiya qilish borasida amalga oshirilayotgan har tomonlama asosli va chuqur o'ylangan siyosat bizni inqirozlar va boshqa tahdidlarning salbiy ta'siridan himoya qiladigan kuchli to'siq, aytish mumkinki, mustahkam va ishonchli himoya vositasini yaratdi. Investitsiyalarni moliyalashtirishning bozor mexanizmlari joriy etilishi bilan ularni moliyalashtirish manbalari hajmi yildan-yilga o'zgarmoqda. So'nggi olti yilda investitsiyalarni moliyalashtirish manbalarida davlat byudjetining salmog'i boshqa bozor iqtisodiyotiga xos bo'lgan moliyalashtirish manbalarini oshishi evaziga kamayib borgan. Rivojlangan davlatlarda investitsiyalarni moliyalashtirishda aholi qo'yilmalarining salmog'i ancha yuqori. Masalan, Yaponiyada aholi qo'yilmalari bank tizimining umumiy resurslarida 70 foizni tashkil etadi. Aholi uchun jamg'armalarni yuqori likvidligi, ishonchliligi ta'minlanadi.O'zlashtirilgan barcha investitsiyalarning 50%ga yaqini ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish va texnik qayta jihozlashga yo'naltirilganini ta'kidlash mumkin.

Mintaqa iqtisodiyotining barqaror rivojlanishida sanoat tarmog‘iga yo‘naltirilgan investitsion resurslardan samarali foydalanish muhim ahamiyatga ega. Investitsiyalar ishlab chiqarish hajmini oshirish, yangi texnologiyalarni joriy etish hamda sanoat korxonalarining raqobatbardoshligini kuchaytirishga xizmat qiladi. Shu sababli investitsion resurslardan samarali foydalanish masalasi iqtisodiy tadqiqotlarda muhim yo‘nalishlardan biri sifatida qaraladi. Tahlilllar shuni ko'rsatadiki, mintaqa sanoatida investitsiyalardan foydalanish samaradorligi bir nechta omillarga bog‘liq. Investitsiyalarni to‘g‘ri yo‘naltirish muhim hisoblanadi. Agar investitsiyalar zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish va innovatsion loyihalarni rivojlantirishga sarflansa, ularning iqtisodiy samarasi yuqori bo‘ladi. Shu sababli ko‘plab davlatlarda sanoat korxonalarini modernizatsiya qilishga qaratilgan investitsion dasturlar amalga oshirilmoqda. Ayni vaqtda investitsiyalarni jalb etishda eng muhim omil investitsion muhitni yaxshilashdir.

Tahlil va natijalar Mintaqada qulay investitsion muhit yaratilsa, mahalliy va xorijiy investorlarni jalb qilish imkoniyati oshadi. Buning uchun davlat tomonidan soliq imtiyozlari berish, infratuzilmani rivojlantirish hamda biznesni qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini joriy etish muhim ahamiyatga ega. Tadqiqotlarda ta'kidlanishicha, investitsion muhit qanchalik qulay bo‘lsa, investitsion resurslardan foydalanish samaradorligi shunchalik yuqori bo‘ladi. Xususan, "2022-2026 qillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi"da ham xorijiy investitsiyalarni jalb etish nazarda turilgan. Mamlakatda investitsiya muhitini yanada yaxshilash va uning jozibadorligini oshirish,kelgusi besh yilda 120 mlrd AQSH dollari, jumladan 70 milliard dollar xorijiy investitsiyalarni jalb etish choralarini ko'rish nazarda tutilgan. Bunda 2026 yilgacha xorijiy va mahalliy investitsiyalarni jalb etish strategiyasini amalga oshirish, davlat-xususiy sherikchilik asosida energetika, transport, sog'liqni saqlash, ta'lim, ekologiya, kommunal xizmatlar,

suv xo'jaligi va boshqa sohalarga 14 mlrd AQSH dollarga teng investitsiya jalb qilinishi rejalashtirilgan. [24]

Shuningdek, sanoat korxonalarida innovatsion faoliyatni rivojlantirish ham investitsion resurslardan samarali foydalanishga yordam beradi. Innovatsiyalar yangi mahsulotlar yaratish, ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish va korxona samaradorligini oshirish imkonini beradi. Shu sababli ko'plab mamlakatlarda investitsiyalar ilmiy tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlariga yo'naltirilmoqda. Ilmiy maqolalarda yana bir muhim omil sifatida sanoat infratuzilmasini rivojlantirish ko'rsatib o'tiladi. Transport, logistika, energetika va axborot infratuzilmasining rivojlanganligi investitsion loyihalarni amalga oshirish jarayonini osonlashtiradi. Bunday infratuzilma sanoat korxonalarining samarali faoliyat yuritishi uchun zarur sharoit yaratadi. Tadqiqotlarga ko'ra, mintaqa sanoatida investitsion resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish uchun davlat va xususiy sektor o'rtasidagi hamkorlikni rivojlantirish ham muhim hisoblanadi.[25] Davlat tomonidan amalga oshiriladigan sanoat siyosati va xususiy sektor investitsiyalari o'zaro uyg'unlashganda iqtisodiy rivojlanish sur'atlari oshadi. Umuman olganda, investitsion resurslardan samarali foydalanish mintaqa sanoatining barqaror rivojlanishini ta'minlaydi. Investitsiyalarni innovatsion loyihalarga yo'naltirish, qulay investitsion muhit yaratish hamda sanoat infratuzilmasini rivojlantirish mintaqaviy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi. Xususan,2023-2024 yillarda asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalarni moliyalashtirish manbalarini tahlil qilganimizda, ushbu yillar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkichlar va o'sish sur'atlari to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar hisobiga to'g'ri kelib, 2023-yilning mos davriga nisbatan 258,0 % ni tashkil etdi. 2024-yilning yanvar-mart oylarida korxona va tashkilotlarning o'z mablag'lari hisobidan moliyalashtirilgan asosiy kapitalga investitsiyalar – 18,8 trln. so'mni yoki jami asosiy kapitalga investitsiyalarning 17,6 % ini tashkil etdi. Aholi mablag'lari hisobidan jami asosiy kapitalga investitsiyalarning 6,5foizi yoki 6,9 trln. so'mi o'zlashtirildi. [26]2024-yil yanvar-mart oylarida O'zbekiston Respublikasida qayta ishlash sanoatida xorijiy investitsiya va kreditlar salmoqli o'zlashtirilib, 27,5 trln. so'mni yoki jami asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalarning 37,3 % ini tashkil etdi.



Asosiy kapitalga investitsiyalarning texnologik tarkibi (1-diagramma)

[24] O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni.2022 yil 18.01.

[25] Dunning, J. H. (2000). The Eclectic Paradigm as an Envelope for Economic and Business Theories of MNE Activity.

[26] *Stat.uz*- Investments in fixed capital in the Republic of Uzbekistan *(2023 release). (Statistika Uzi).*

Yuqoridagi jadval ma’lumotlariga asosan tahlil qilganimizda asosiy kapitalga investitsiyalarning texnologik tarkibi bo’yicha mashina,uskuna,inventarlar hududlar kesimida Sirdaryo viloyatida 60,9 foizni, Qashqadaryo viloyatida 60,2 foizni, Qoraqalpog’iston Respublikasida esa 51,8 foizni tashkil etib,boshqa viloyatlarga nisbatan yuqori ko’rsatkich hisoblanadi. Har bir hududga kiritilgan investitsiyalar ishlab chiqarish samaradorligini tashkil etib,infratuzilmani yaxshilanishiga va bandlikni ta’minlashga muhim imkoniyatlarni yuzaga keltiradi.

Xulosa.. Sanoat sohasida investitsion resurslardan foydalanishning muhimligi asosan, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, yangi texnologiyalarni joriy etish, ishlab chiqarish quvvatlarni kengaytirish va mahsulot raqobatbardoshligini oshirish maqsadida moliyaviy mablag'larni ko’proq sanoat korxonalariga yo‘naltirish jarayonidir. Bu jarayon asosiy vositalarni yangilash, xom-ashyoni chuqur qayta ishlash va yuqori qo‘shilgan qiymatli mahsulot ishlab chiqarishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati

1. O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning “2022-2026 yillarga mo’ljallangan Yangi O’zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to’g’risida”gi Farmoni. 2022 yil 18.01.

